O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI

MILLIY TA’LIM YARATILISHIDA INNOVATSION YONDOSHUVLAR

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

T O‘ P L A M I

Navoiy-2025

UDK: 37.03.001.76 (075.3)
BBK: 74.26

Milliy ta’lim yaratilishida innovatsion yondashuvlar. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Navoiy: Navoiy viloyati PMM nashri, 2025. 662 b.

Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazida tashkil etilgan “Milliy ta’lim yaratilishida innovatsion yondashuvlar” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plamida uzluksiz ta’lim tizimida tadqiqot olib borayotgan olimlar, mustaqil izlanuvchilar ilmiy-nazariy izlanishlarining amaliy tatbiqlari keltirilgan. Raqamli texnologiyalar asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish borasida tajribali pedagoglarning taklif va tavsiyalari, umumta’lim fanlarini o‘qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish, ta’lim, fan, xalqaro aloqalar va boshqaruv faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini rivojlantirish hamda “Atrof-muhitni asrash va „yashil“ iqtisodiyot yili” Davlat dasturida belgilangan vazifalar doirasida bajarilayotgan izlanishlarga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot natijalari yoritilgan.

Konferensiya materiallaridan oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, umumta’lim maktablari o‘qituvchilari, magistrantlar va iqtidorli talabalar hamda shu sohada ilmiy ish olib borayotgan tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin.

Tahrir hay’ati raisi

1. Mardanov U.R. - *Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi direktori*

Tahrir hay’ati raisi o‘rinbosari

2. Safarov D.X. - *Akademik faoliyat bo‘yicha direktor o‘rinbosari, professor, p.f.d.*

Kotib

3. Pulotov A.M. - *Fanlarni rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i, dotsent, p.f.n.*

Tahrir hay’ati a’zolari

1. Ro‘ziqulov F.R. *Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari kafedrasi professori, p.f.d.*

2. Do‘sanov E.A. *Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari kafedrasi mudiri, p.f.f.d., dotsenti*

3. Tuxfatullina D.T. - *Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish bo‘yicha direktor o‘rinbosari*

4. Usmonova R.M. - *Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasi mudiri, dotsent*

5. Astanaqulov K.M. - *Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi mudiri, dotsent.*

6. Pulatov J.N. - *Ijtimoiy-iqtisodiy va amaliy fanlar metodikasi kafedrasi mudiri, dotsent.*

7. Xasanova X.N. *Aniq va tabiiy fanlar metodikasi kafedrasi mudiri, p.f.d., professor*

8. Choriqulov R.I. *Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari kafedrasi katta o‘qituvchisi*

9. O‘tapov Z.B. *Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari kafedrasi katta o‘qituvchisi*

10. Boboqulov J.Q. - *Uzluksiz kasbiy ta’limni tashkil etish bo‘limi boshlig‘i*

Texnik muharrir: Boboqulov J.Q.

Maqolalar mazmuni va ma‘lumotlarning haqqoniyligiga muallif(lar) mas’ul.

Konferensiya materiallari to‘plami Navoiy viloyati PMM kengashi (2025-yil 30-aprel, 3-sonli) qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH SO‘ZI

Assalomu alaykum, hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Aziz mehmonlar!

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoev rahbarligida mamlakatimizda ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda o‘qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziyolilarga bo‘lgan hurmat-e'tiborni yanada oshirish, maktab o‘quvchilarining bilimi va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, darsliklar va o‘quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, ilg‘or ish tajribalarni keng ommalashtirish, sohada chuqurlashtirilgan ilmiy tadqiqot olib borish, fan sirlarini ilmiy asoslab berish yo‘lida olib borilayotgan izchil islohotlar natijasida davlatimizning rivojlangan mamlakatlar qatoridan munosib o‘rin egallashiga mustahkam zamin yaratildi.

Eng muhimi, ta'lim-tarbiya sohasiga qaratilayotgan e'tibor va rag‘bat amalda o‘z samarasini berib, bugungi oldimizga qo‘yilgan maqsadlar, bu malakali kadrlar tayyorlash, ta'limni sifat va samaradorligini ta'minlash, o‘quv jarayoni me'yoriy hujjatlarini uslubiy jihatdan takomillashtirish, o‘quv-axborot manbalarini rivojlantirish, ta’limning pedagogik, psixologik va uslubiy muammolarini chuqur o‘rganish, ta’limga oid ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish va bu borada talab etiladigan axborotlarni tayyorlashga yo‘naltirilayotganligi bilan ahamiyatlidir.

Bugun bo‘lib o‘tayotgan “**Milliy ta’lim yaratilishida innovatsion yondashuvlar**” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda umumta’lim maktablari o‘quv jarayoni sifat-samaradorligini ta’minlash, mazmunini boyitishda innovatsiyalar, investitsiya va intellektual salohiyat, xalqaro baholash dasturlari kabi mavzularda o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, innovatsion texnologiyalar asosida o‘qitish tizimini takomillashtirishning optimal yo‘llarini aniqlash, ta'limning ushbu bosqichida multimedia vositalaridan foydalanish kabi masalalar yuzasidan ilmiy-metodik jihatidan yuqori saviyadagi ma'ruzalar tinglanadi.

Qadrli anjuman ishtirokchilari va aziz mehmonlar, shu fursatdan foydalanib, xalqaro anjumanda ishtirok etayotgan hurmatli mehmonlar, ustoz va murabbiylarga, ilmiy-amaliy anjumanga o‘z ilmiy maqolangiz bilan tashrif buyurganingiz uchun o‘z minnatdorchiligimni bildiraman.

U.R. Mardanov
Navoiy viloyati PMM direktori

1-SHO‘BA: MILLIY TA’LIM TARAQQIYOTIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARI

PEDAGOGIK TASHXIS USULLARIDAN FOYDALANISHDA MILLIY TA’LIM-TARBIYANING O‘RNI

Pulotov Abdurayim Murotovich,
Navoiy viloyati PMM FRB boshlig‘i, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonini samarali boshqarishda pedagogik tashxis usullarining o‘rni, milliy ta’lim-tarbiyaning o‘ziga xos xususiyatlari, o‘zgarayotgan jamiyat talablariga mos ravishda o‘quvchilarga kerakli bilim va malakalarni berish jarayonidagi muammolar to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ta’lim tizimi, ta'lim jarayoni, pedagogik tashxis, innovatsion texnologiyalar.

Annotation: This article discusses the role of pedagogical diagnostic methods in the effective management of the educational process, the specific features of national education, and the problems in providing students with the necessary knowledge and skills in accordance with the requirements of a changing society.

Keywords: education system, educational process, pedagogical diagnosis, innovative technologies.

Аннотация: В статье рассматривается роль методов педагогической диагностики в эффективном управлении образовательным процессом, специфика отечественного образования, проблемы обеспечения обучающихся необходимыми знаниями и умениями в соответствии с требованиями меняющегося общества.

Ключевые слова: система образования, образовательный процесс, педагогическая диагностика, инновационные технологии.

Kirish. Pedagogik tashxis ta’lim tizimining samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini baholash va ta’lim jarayonini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ta'limning asosiy maqsadi nafaqat bilim berish, balki shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishni ta'minlashdir. Milliy ta'lim-tarbiya tizimi o‘zining an’anaviy qadriyatlari, madaniyati, til va milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda, zamonaviy pedagogik usullar bilan uyg‘unlashishi kerak. Bu maqolada pedagogik tashxis usullarining milliy ta'lim-tarbiyadagi o‘rni va uning mavjud muammolari tahlil qilinadi.

Pedagogik tashxis - bu ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilimlari, ko‘nikmalari, malakalari va shaxsiy rivojlanishini baholash va diagnostika qilishning ilmiy-uslubiy usulidir. Bu jarayon orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, ta'limni yanada samarali tashkil etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Milliy ta’lim tizimida pedagogik tashxis, o‘quvchilarning o‘ziga xos madaniy va milliy qadriyatlar asosida rivojlanishini ta’minlash uchun zarurdir.

Milliy ta’lim-tarbiyaning mohiyati har bir mamlakatning tarixiy, madaniy va ijtimoiy kontekstiga bog‘liqdir. O‘zbekistonda, masalan, ta’lim tizimi milliy qadriyatlar, an’analar va ijtimoiy ehtiyojlarga asoslanadi. Milliy ta’lim-tarbiya o‘quvchilarga nafaqat ilmiy bilimlar, balki jamiyatda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun zarur bo‘lgan axloqiy-etik qadriyatlarni ham o‘rgatish vazifasini bajaradi. Bunday tizimda pedagogik tashxis o‘quvchilarning milliy va global talablarga mos keladigan shaklda rivojlanishini ta'minlash uchun ishlatiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Pedagogika fani rivojlanishining hozirgi bosqichida o‘qituvchilarda pedagogik tashxis qilish ko‘nikmasini

rivojlantirish muammosini hal qilish zarurati, birinchidan, malaka oshirish jarayonlari va uzluksiz kasbiy rivojlantirish sohasidagi tadqiqotlar asosida pedagogik tashxis qilish koʻnikmasini oʻz ichiga olgan milliy ta'lim-tarbiyani tushunish zarurligiga olib keldi. Ikkinchidan, kasbiy rivojlantirish sohasida yosh oʻqituvchilarni pedagogik tashxis qilish koʻnikmasini rivojlantirishning dolzarbligi malaka oshirish muassasalarining ushbu koʻnikmaning kasbiy faoliyatda namoyon boʻlishiga qoʻyadigan talablarini oshirishdan iborat. Pedagogik mahorat markazlarining asosiy talablari – oʻqituvchi pedagogik mahoratga ega boʻlishi, tashqi koʻrinishi, natijalarga e'tibor, faol pedagogik pozitsiya, muloqot qobiliyatlari, harakatchanlik, kompyuter savodxonligi - bular ta'lim muassasasida malaka oshirish davomida shakillanishi mumkin boʻlgan "asosiy" koʻnikmalardir.

Ta'lim-tarbiya tizimining rivojlanishida pedagogik tashxis usullaridan foydalanish boʻyicha xorijiy va respublikamizda olib borilgan bir qator ilmiy tadqiqot ishlarida pedagogik tashxisning ta'lim jarayonidagi ahamiyati va uning samaradorligini oshirish masalalari ma'lum darajada nazariy jihatdan yoritilgan.

Respublikamizda pedagogik tashxis usullarini ilmiy asoslash masalalari boʻyicha Ziyoxoʻjayev M, Азларов T.P., Safarova R., Lutfullayev M., Zaripov K., mustaqil davlatlar hamdoʻstligi mamlakatlarida Venetskiy I.G., Bestujev-Lada I.V., Brushlinskiy A.V., xorijiy mamlakatlarda K.Klauer, K.Ingenkamp va boshqalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, pedagogik tashxis milliy ta'lim tizimining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotchilar tomonidan pedagogik tashxis usullarining nazariy asoslari, amaliy qoʻllanilishi, milliy ta'lim tizimiga integratsiyasi va mavjud muammolarni hal etish yoʻllari boʻyicha keng qamrovli ishlar amalga oshirgan boʻlib, lekin oʻqituvchilarni pedagogik tashxisga tayyorlash va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni qoʻllash zarurligini masalalari hal etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Pedagogik tashxis usullari, ta'lim jarayonining har bir bosqichida oʻquvchilarning rivojlanishini doimiy ravishda kuzatib borishni ta'minlaydi. Bu usullar orqali oʻqituvchilar oʻquvchilarning bilim darajasini, intellektual va ijodiy qobiliyatlarini, shuningdek, ularning ijtimoiy va axloqiy rivojlanishini aniqlaydilar. Biroq, milliy ta'lim tizimida ba'zi muammolar mavjud boʻlib, ularning asosiylarini keltiramiz:

- oʻqituvchilarning pedagogik tashxisga tayyorlanmaganligi;
- milliy va global qadriyatlar oʻrtasidagi farq;
- resurslar va infratuzilma yetishmasligi.

Milliy ta’lim tizimida pedagogik tashxisning samarali qoʻllanilishi uchun birinchidan, oʻqituvchilarni pedagogik tashxisni samarali qoʻllashga tayyorlash uchun maxsus kurslar va treninglar tashkil etish, ikkinchidan, milliy ta'lim tizimining global standartlarga moslashishi uchun ta'lim dasturlariga muvofiq zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish, uchinchidan, ta'lim tizimi resurslarini optimallashtirish, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish, va zamonaviy tashxis vositalarini joriy etish talab etiladi.

Pedagogik tashxisning raqamli-ta’lim komponenti quyidagilarni oʻz ichiga oladi: pedagogik tashxis uchun asos, ya'ni pedagogik tashxis qilinadigan hodisalarning ob'ektiv ravishda mavjud aloqalari va rivojlanish tendentsiyalarini aks ettiruvchi bilim; ushbu bilim va pedagogik tashxis qilingan ob'ekt haqidagi joriy ma'lumotlar oʻrtasidagi munosabatlarning xususiyatlari; pedagogik tashxis qiluvchi sub'ektning ixtiyorida boʻlgan bilim (professional, psixologik, uslubiy) va turli xil sifat xususiyatlari bilan

ajralib turadi: tanlanganlik, to‘liqlik, xabardorlik, to‘g‘rilik. Ma'lumot bo‘lajak mutaxassis uchun respondentning o‘zaro munosabatlarga qiziqish doirasini aniqlash uchun zarurdir.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Pedagogik tashxis usullari o‘quvchilarning rivojlanishini doimiy ravishda nazorat qilish, ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va o‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqotning ilmiy natijalari asosidagi takliflar quyidagilardan iborat:

- ta’lim jarayonida o‘qituvchilarning pedagogik tashxis usullarini qo‘llash kompetensiyasini bosqichma-bosqich rivojlantirish;

- o‘qituvchilarga pedagogik tashxis usullarini qo‘llash kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha trening kurslarni tashkil qilish jarayonida olingan bilimlardan foydalangan holda muammoli vaziyatlarni hal qilishga qaratilgan qo‘shimcha topshiriqlar berish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Азларов Т.Р. Информатика ва ҳисоблаш техникаси асослари курсини миллий мактабларда ўқитишни такомиллаштиришнинг методик тизими. – Дисс.пед.ф.н.ил.дар.ол.у-н ёзилган дисс.-Т. 1993.-150 б.
2. Бестужев-Лада, И. В. Рабочая книга по прогнозированию [Текст] / И. В. Бестужев-Лада. – М.: Мысль, 1983. – 430 с.
3. Брушлинский, А. В. Мышление и прогнозирование (логико-психологический анализ) [Текст] / А. В. Брушлинский. – М.: Мысль, 2004. – 229 с.
4. Венецкий И.Г. Математико-статистический анализ контроля учебного процесса по математике в вузе с применением ЭВМ.-М.:НИИВШ. 1975.-63 с.
5. Зиёхўжаев М., Пулотов А.М. Ўқувчилар билим даражаларини прогноз қилишда Монте-Карло методи // Халқ таълими.-1998.-№5.-Б.76-77.
6. Зарипов К. Педагогическая диагностика в системе непрерывного повышения квалификации учителей. Автореф.дисс.док.пед.наук. Бухарский пед.институт.1989.-437 с.
7. Klauer K.I. (Hg.) Hadbuch der. Pedagogischen Diagnostik. Dissel-dorf: Schwann, 1978.
8.Safarova R., Musayev U. va b. Umumiy o‘tra ta'lim mazmunini modernizatsiyalashning didaktik parametrlari. –T.: Fan, 2008. 222 b.

KIMYO DARSLARIDA ZAMONAVIY YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH

Xasanova Xurshida Naimovna,
Navoiy viloyat PMM kafedra mudiri, pedagogika fanlari doktori(DSc), dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada kimyo darslarini samarali tashkil qilishda zamonaviy yondashuvlardan foydalanish masalalari yoritilgan. STEM ta’limi, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, differensial yondashuv va o‘yin texnologiyalarining o‘quv jarayonidagi ahamiyati tahlil qilingan. Zamonaviy usullarning qo‘llanilishi o‘quvchilarning kimyo faniga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ilmiy tafakkurini rivojlantirish hamda amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Kimyo ta’limi, zamonaviy yondashuvlar, STEM ta’limi, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, differensial yondashuv, o‘yin texnologiyalari, innovatsion pedagogika.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы использования современных подходов в организации эффективного преподавания химии. Анализируется значение STEM-образования, интерактивных методов, информационно-коммуникационных технологий, дифференцированного подхода и игровых технологий в учебном процессе. Применение современных методов способствует повышению интереса учащихся к химии, развитию научного мышления и формированию практических навыков.

Ключевые слова: химическое образование, современные подходы, STEM-образование, интерактивные методы, информационно-коммуникационные технологии, дифференцированный подход, игровые технологии, инновационная педагогика.

Ta’limning har bir bosqichida, jumladan maktab ta’limida ana shu fanning shiddat va rivojlanish darajasini inobatga olmasak, ta’lim jarayonlarining natijasi samarali bo‘ladi deya olmaymiz. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda ta’limning barcha bosqichlarida hamma fanlarni o‘qitishda zamonaviy ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash talab qilinmoqda.

Tabiiy fanlar sirasiga kiradigan murakkab biroq qiziqarli kimyo fanini XXI asr ko‘nikmalari asosida o‘zlashtirishda o‘quvchilarga quyidagi ko‘nikmalarning bo‘lishi muhim sanaladi:

1.Ijodkorlik va kreativlik

2.Tezkorlik.

3.Kommunikativ qobiliyatlar

4.Kolloborativ ko‘nikmalar

5.Raqamli savodxonlik

Yuqoridagi ko‘nikmalar orasida ijodkorlik va ijodiy fikrlash kimyo fanidan olingan ilmiy bilimlarni amalda samarali qo‘llashga imkon beradi:

Ijodkorlik — bu yangi, original g‘oyalar, fikrlar yoki yechimlar yaratish qobiliyatidir. U inson tafakkurining o‘ziga xos jihati bo‘lib, mavjud bilimlar va tajriba asosida yangilik yaratishga yo‘naltirilgan. Ijodkorlik nafaqat tug‘ma, balki rivojlantiriladigan qobiliyat hamdir. Uni o‘qish, kuzatish, fikrlash mashqlari va tajriba orqali oshirish mumkin.

Ijodiy fikrlashning asosiy xususiyatlari:

• 1. Yangi g‘oya yaratish – ilgari mavjud bo‘lmagan fikrlarni o‘ylab topish.

• 2. Keng miqyosda o‘ylash – biror muammoni turli tomonlardan tahlil qilish.

• 3. Qiyoslash va bog‘lash – ilgari aloqasi yo‘qdek tuyulgan narsalar orasida aloqa topa olish.

Bu topshiriq raqamlar bilan bog‘liq topshiriq sanaladi. Bu yerda bir qancha raqamlar berilgan. Ushbu raqamlarni nima umumiylashtirishini aniqlang. Noma’lum elementning formulasini toping.

1,16,32,2,1,4

Bu yerdagi dastlabki uchta raqam 1, 16 va 32 raqamlari vodorod, oltingugurt va kislorod elementlarining nisbiy atom massalariga to‘g‘ri keladi. 2, 1 va 4 raqamlari esa bu elementlarning formuladagi indeksiga to‘g‘ri keladi. Shunda formula H_2SO_4, noma’lum moddaning formulasi esa sulfat kislotani bildiradi.

2-topshiriq. “Siklik krosvord” deb ataladi. Unda xalqa ichidagi noma’lum moddalarni yozib, krossvordni yechishimiz kerak bo‘ladi

H_2	+	*	=	H_2O
+				+
*				*
=				=
NaH	+	*	=	?

Sinfda turlicha intellektual salohiyatga, qiziqishga va o‘zlashtirish darajasiga ega bo‘lgan o‘quvchilar bo‘ladi. Mavzuni o‘qituvchi hammaga bir vaqtda va bir xilda tushuntirishiga qaramasdan o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi turlicha bo‘ladi. Bunda aynan shuni inobatga olgan holda yondashilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ergasheva M. O‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonlik monitoringi va topshiriqlar bilan ishlash metodikasi. – Toshkent: Metodik qo‘llanma. Toshkent, 2023-yil.
2. D.S.Azamatova. “Kimyo fanidan topshiriqlar tuzish metodikasi”. Uslubiy qo‘llanma – T.: 2023.
3. Mullis, I. V. S., Martin, M. O., Goh, S., & Cotter, K. (Eds.) (2016). TIMSS 2015 Encyclopedia: Education Policy and Curriculum in Mathematics and Science. Retrieved from Boston College, TIMSS & PIRLS. pp.1-40
4. Hogan, D., Chan, M., Rahim, R., Kwek, D., & Loo, S. C. (2013). Assessment and the Learning of 21st Century Competencies in Singapore. Asia Pacific Journal of Education, 33(3), 279-297.
5. Meliboyeva G.S. Kimyoni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar Toshkent-2020. 200b.
6. www.yaklass.ru – Maktab o‘quvchilari uchun ta’limiy internet resursi.

ZAMONAVIY TA’LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR BILAN O‘QITISHNING AHAMIYATI

Polvonova Yulduzxon Saparboyevna,
Xorazm viloyati PMM akademik faoliyat bo‘yicha direktor o‘rinbosari

Annotatasiya. Ushbu maqolada talim taraqqiyotida raqamli texnologiyalarning zarurati, dolzarbligi va asosiy o‘rnining muhim jihatlari, aralash ta’lim metodlaridan foydalanish natijasida fanlarni o‘zlashtirish va o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini oshirishdagi texnologik vosita va asosiy yondoshuvlar haqidagi fikr-mulohazalar o‘z aksini topadi.
Kalit so‘zlar. Pedagogik innovatsiya, ta’lim texnologiyalari, aralash ta’lim, Blended Learning texnologiyasi, interfaol metod, raqamli texnologiya.
Аннотация. В данной статье рассматриваются необходимость, актуальность и ключевая роль цифровых технологий в развитии образования. Особое внимание уделяется вопросам повышения усвоения учебных предметов и развития логического мышления учащихся за счёт применения смешанных методов обучения. Также анализируются технологические средства и основные подходы, способствующие эффективному использованию этих методов.
Ключевые слова. Ключевые слова: педагогические инновации, образовательные технологии, смешанное обучение, технология Blended Learning, интерактивные методы, цифровые технологии.

Kirish. Ta’limga texnologik yondashuv pedagogik jarayonga samarali ta’sir etuvchi omillaridan biridir. Pedagogik innovatsiya – ta’lim jarayoni sifatini oshirish va pedagogik amaliyotni sifat jihatdan yaxshilashni maqsad qiladi [1].

Ta’lim tizimining hozirgi holati noan’anaviy ta’lim texnologiyalarining roli ortib borayotgani bilan tavsiflanadi. Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish xarakterini o‘zgartiradi, o‘rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o‘qitish usullarini qo‘llash, shuningdek, har bir kishi uchun ta’lim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi [2].

Hozirgi dunyoda tanqidiy fikrlash va mantiqiy tahlil qilish qobiliyatlari alohida ahamiyatga ega. Xalqaro tadqiqotlar va dasturlarning roli o‘quvchilarning fikrlash darajasini baholashga qaratilgan PISA va TIMSS kabi xalqaro dasturlar ta’lim jarayoniga yangi usullarni joriy etishni talab qilmoqda. O‘zbekiston ta’lim tizimida ham o‘quvchilarning tanqidiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish muhim vazifalardan biri sifatida belgilangan. Xalqaro reytinglarda yuqori natijalarga erishish uchun ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish dolzarb masalalardan biridir. An’anaviy va raqamli ta’limning uyg‘unlashuvi o‘quvchilarni yangi bilim olish usullariga moslashishiga yordam beruvchi asosiy ta’lim usullaridan biri Blended Learning texnologiyasi bu yo‘nalishda katta imkoniyat yaratadi. Ushbu yondashuv O‘zbekistonda ta’lim sifatini oshirish va o‘quv jarayonini moslashuvchan qilishga xizmat qiladi. Innovatsion pedagogik yondashuvlar yordamida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirish yanada samarali bo‘ladi.

Asosiy qism. Bugungi kun auditoriyalari va sinf xonalari kompyuterlar, IPad, planshetlar, smart-doskalar va boshqa turdagi ta’lim texnologiyalari bilan jihozlangan. Dunyoning boshqa joylarida bo‘lgani kabi Respublikamizda ham raqamli avlodning yetti ekranli avlodlari paydo bo‘lmoqda. Bunday zich raqamli muhitga ega bo‘lish va u bilan doimiy o‘zaro munosabat natijasida bugungi kun talabalarining fikrlashi va axborotlarga ishlov berish jarayonlari oldingi fikr yuritish va axborot jarayonlaridan tubdan farq qilmoqda [3].

Zamonaviy pedagogik texnologiya har bir fan asoslari bo‘yicha o‘quvchilarning o‘rganishini maqsadli holda tashkil etish va amalga oshirishni nazarda tutadi. Hozirgi zamon yoshlarining aqliy rivojlanishi ancha yuqori, shu sababli, o‘qitishning an’anaviy tizimini biroz boyitish zarurati paydo bo‘lgan, kundan-kunga rivojlanib borayotgan texnika asri uchun bunday ta’lim berish usullari majburiy o‘qitish pedagogikasi, o‘qitishning tushuntirish usuli, ommaviy o‘qitish usullaridan foydalanish o‘quvchilarni zeriktirib qo‘yadi. Bu borada esa ta’limni turli interfaol metodlar bilan boyitirshga ehtiyoj kuzatiladi.

Ta’limda interfaol metod – bu o‘quvchi bilan o‘qituvchi o‘rtasida ta’limni o‘zlashtirish munosabatlarini yanada kuchaytirish, faollashtirish demakdir. Pedagogik texnologiya ta’lim tizimida mazmunan unga tegishli bo‘lgan dasturlar, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar, ko‘rgazmali qurollar va texnik vositalarni umumlashtirish jarayonidir [4].

Sun’iy intellekt, virtual haqiqat va tabiiy foydalanuvchi interfeyslari amalga oshishi bilan raqamli tarkibga kirish tobora oson va tabiiy bo‘ladi. Raqamli texnologiyalar yanada jozibador raqamli o‘rganish ilovalari yoki platformalarini yaratishga yordam beradi.

Mobil telefonlardan foydalanish Internetga kirish va u taqdim etadigan barcha bepul kontent va elektron ta’lim imkoniyatlarini anglatadi. Ushbu imtiyozlar faqat o‘qishni

biladigan bolalar uchun ochiq va dunyodagi deyarli 200 million bolalar uchun bu ko‘nikmaga ega bo‘lish uchun eng yaxshi imkoniyat texnologiya orqali bo‘ladi. Agar mobil qurilmaga kirish imkoni bo‘lsa, o‘quvchilar o‘zlarini o‘qishga o‘rgata oladimi? Yuqori sifatli, ona tilidagi kontentni ishlab chiqishga e’tibor qaratgan holda, ko‘plab tashkilotlar ushbu savolga javob berishga va mobil qurilmalardan foydalangan holda bolalarning o‘qishni o‘rganishiga umid qilib, ta’lim natijalarini yaxshilashga intilmoqda.

Raqamli avlod raqamli texnologiya bilan tug‘ilganligi sababli, yangi avlodning miya rivojlanishi yangi parametrlar bo‘yicha rivojlanmoqda. Shunday qilib, ularning aksariyat ijtimoiy murojaatlari texnologik vositalar va ularga tegishli foydalanish usullari atrofida shakllanadi. Bu raqamli avlod yoshlari o‘rganib qolgan axborot tezligi va hajmi kun sayin oshmoqda.

XXI-asrning rivojlanishi hayotning ko‘plab sohalarida, jumladan, ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bilan ajralib turadi.

Aralashtirilgan ta’lim – bu AKTga asoslangan ommaviy axborot vositalari yordamida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan ta’lim modellaridan biridir. Bu sinfda o‘rganish va onlayn ta’limni birlashtiradi. Biroq, pandemiya davrida ishlatilishi mumkin bo‘lgan onlayn usullar ham sinxron, ham asinxrondir. Aralashtirilgan ta’limning uchta muhim komponenti – onlayn ta’lim, yuzma-yuz ta’lim va mustaqil ta’lim [5].

Blended learning texnologiyasi (aralash ta’lim) an’anaviy o‘qitish usullari va zamonaviy raqamli texnologiyalarni uyg‘unlashtiradi. Bu yondashuvning asosiy tamoyillari quyidagilar:



1-rasm. Aralash ta’limda asosiy yondashuvlarni amalga oshirish tamoyillari

Raqamli resurslar bilan ta’minlash: Elektron ta’lim platformalari (Moodle, Google Classroom va boshqalar) yordamida o‘quv materiallariga kirish imkoniyatini yaratish.

Interaktiv va muammoli o‘qitish: Interaktiv mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini faollashtirish.

Moslashuvchan o‘qish: Har bir o‘quvchining individual o‘zlashtirish tezligiga mos o‘quv jarayonini tashkil qilish.

Xulosa va takliflar. Blended Learning texnologiyasi asosida pedagogik loyihalashtirish o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda innovatsion vosita hisoblanadi. Ushbu yondashuvning qo‘llanilishi o‘quvchilarning ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Blended Learning texnologiyasi faqatgina o‘quvchilarni masalalarni yechishga o‘rgatibgina qolmay, balki ijodiy fikrlashni ham rivojlantiradi. Mazkur yondashuvni rivojlantirish uchun milliy va xalqaro tajribalarni qo‘llash hamda ilmiy asoslangan metodlarni tatbiq etish ta’lim tizimida yangi yuksalishlarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.D.Saidova. Raqamli ta’lim taraqqiyotida tasviriy san’atni o‘qitish jarayonida innovatsion texnologiyalar, metodlardan foydalanishning samaradorligi// Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 5.10.2023. 474-477.
2. N.D.Mirzahmedova. Raqamli texnologiyalarining ta’lim sohasida qo‘llanilishi//Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 5-2. – С. 538-545.
3. N.A.Parmonova. Hozirgi zamon talabalarini raqamli texnologiyalar yordamida o‘qitish samaradorligi//Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro ilmiy-texnik konferensiya. 2022-yil. 636-639.]
4.https://www.kokanduni.uz/uploads/2023/06.01/Ilmiy-amaliy%20konferensiya%20to%E2%80%98plami.pdf.
5. Hasanah, H. & Malik, M. N. (2020). Blended learning in improving students’ critical thinking and communication skills at University. Cypriot Journal of Educational Science. 15(5), 1295 - 1306.

TA’LIMDA VERTUAL REALLIK TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI

Botirova Nigora Koyirovna,
Buxoro viloyat PMM dotsenti, PhD

Annotatsiya. Ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish ta’lim jarayoni va uning samarali tadbiq etilish amaliyotini yanada yuksaltirib, hozirgi zamon ta’limining rivojlanishida asosiy vazifalarni belgilab beruvchi zamonaviy tendensiyalar va mavjud jahon tajribasiga diqqat bilan nazar solishni talab etmoqda. Ta’lim tizimida fanlarni o‘qitishda virtual reallik (VR) texnologiyalaridan foydalanib darslarni tashkil etish o‘quvchilarning bilim va sifat samaradorligi oshishiga olib keladi.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiya, virtual reallik, dasturiy vositalar, kompyuter, multimediya, raqamlashtirish, jarayon, grafika.

Ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish ta’lim jarayoni va uning samarali tadbiq etilish amaliyotini yanada yuksaltirib, hozirgi zamon ta’limining rivojlanishida asosiy vazifalarni belgilab beruvchi zamonaviy tendensiyalar va mavjud jahon tajribasiga diqqat bilan nazar solishni talab etmoqda. Ta’lim tizimida fanlarni o‘qitishda virtual reallik (VR) texnologiyalaridan foydalanib darslarni tashkil etish o‘quvchilarning bilim va sifat samaradorligi oshishiga olib keladi.

Ta’lim sohasida virtual reallik tushunchasi keng ma’noda qo‘llanilmoqda. Masalan: virtual mashina, virtual xotira, virtual disk, virtual aloqa, virtual sayohat, virtual sinf va h.k. Birgina ushbu sohada ham virtual tushunchasi turli shakl va ma’nolarda qo‘llanilib kelinmoqda va bir-biridan farqli ma’nolarni anglatadi. Masalan, multimedia tizimlarida virtual tushinchasi virtual borliq ma’nosini beradi.

Virtual (lotincha Virtualis - mumkin bo‘lgan, ya’ni muayyan bir sharoitlarda sodir bo‘ladigan yoki ro‘y berishi mumkin bo‘lgan) tushunchasi narsalar hamda hodisalarning vaqt va makonda mavjud bo‘lmagan, lekin ob’ektiv narsalar yoki sub’ektiv obrazlarning amalga oshish ehtimoli mavjud bo‘lgan jarayonni anglatadi[1].

Virtual borliq atamasиn kompyuterda yaratiladigan muhitda insonning mavjudligi g‘oyasini ifoda etadi. “Virtual borliq” atamasi muomalaga amerikalik kinematografchilar tomonidan kiritilgan. Ular muayyan sabablarga ko‘ra tabiiy yo‘l bilan amalga oshirib bo‘lmaydigan xayoliy imkoniyatlarni belgili-grafik shaklda sun’iy amalga oshirish mumkinligi haqidagi kinolentani shu nom bilan chiqarganlar. Virtual borliq - inson real

borliqda harakat qilayotgan illyuziyasini kompyuterda yaratish imkonini beruvchi interfaol texnologiya. Bunda ob'yektiv borliqni tabiiy sezgi organlari yordamida idrok etish o'rnini maxsus interfeys, kompyuter grafikasi va ovoz vositasida sun'iy yaratilgan kompyuter axboroti egallaydi. Virtual borliq amalda yo'q narsa, uni qo'l bilan tutish, uning ta'mi va hidini his qilish mumkin emas. Shunga qaramay, u mavjud va inson bu xayoliy olamga kirib, uni nafaqat kuzatadi va boshdan kechiradi, balki unga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ham ega bo'ladi, ushbu olamda mustaqil harakat qiladi, uni o'zgartira oladi. Virtual olam-inson borlig'ining o'ziga xos shakli va odamlar ma'naviy aloqasining alohida madaniy ifodasidir.

Bu borada, T.T.Shoymardonov, V.S.Xamidov, M.Fayzievalarning fikriga ko'ra, bugungi ta'lim tizimida "virtual borliq" va "virtual ta'lim" atamalari paydo bo'lgan. Virtual borliq immersivlik va interfaollik tushunchalari bilan bog'liq. Immersivlik deganda insonning virtual borliqda o'zini faraz qilishini tushunish lozim bo'lsa, interfaollik foydalanuvchi aniq vaqtda virtual borliqdagi ob'ektlar bilan o'zaro muloqotda bo'lib, ularga ta'sir ko'rsatishga ega bo'ladi.

E.M.Kravchenya virtual borliq tushunchasiga quyidagicha ta'rif bergan: foydalanuvchini suniy olamga sho'ng'ishiga imkon beruvchi va harakatlarni audiovizual natijalariga bog'laydigan maxsus sensorli qurilmalar yordamida bevosita harakat qilishga imkon beradigan kompyuterli modellashtirishning yuqori darajali rivojlangan shakli.

Ammo virtual borliq real fizik borliqdek lazzat baxsh eta olmaydi, chunki bu borliq ta'sirida vujudga keluvchi his-tuyg'ular ko'p jihatdan uning o'zi bilan emas, balki uni biz qanday idrok etishimiz bilan belgilanadi. Biz virtual dengizda cho'milishimiz mumkin, ammo bunda paydo bo'luvchi his-tuyg'ularimiz bu dengizni biz qanday idrok etishimizga bog'liq bo'ladi.

Virtual tarvuz haqiqiy tarvuzdan shirin emas va h.k. Virtual borliqni odamlar yaratadi. Shu bois virtual borliqda mavjud barcha narsalarning manbai inson ongidir. Binobarin, virtual borliq ong, ong osti sohasi va fantaziya chig'irig'idan o'tuvchi fizik borliqdan shakllanadi. Virtual borliq ob'ektiv tarzda, ya'ni inson miyasida emas, balki kompyuterda mavjud bo'ladi. Ayni vaqtda, u inson ongining mahsulidir. Inson tomonidan yaratilganidan keyin u inson ongidan qat'iy nazar yashashda davom etadi, bu ongga har xil ta'sir ko'rsatadi, mazkur ongning mazmuniga - bilimlar, emotsiyalar, kayfiyat hamda ongning boshqa unsurlariga qarab har xil idrok etiladi.

Bugungi kunda virtual borliq inson madaniy faoliyatining turli sohalarida qo'llanilmoqda. Virtual borliqdan eng avvalo u vujudga kelgan sohada, fanda, ta'lim sohasida, jumladan fizikada suyuqlik va gazlar dinamikasini modellashtirishda, kimyoda kimyoviy reaksiyalar modelini tuzish va turli virtual laboratoriya ishlarini bajarishda, geologiya va geografiya fanlarida foydalanilmoqda.

Muhandislik sohasida, ayniqsa, inson hayotiga xavf tug'diruvchi sharoitlarda: ochiq kosmosda, dengiz va okeanlarning chuqur joylarida, yadro muhandisligida robotlarni masofadan turib boshqarishda virtual borliq keng qo'llanilmoqda.

Kompyuter dizayni va uning ajralmas hamrohi - kompyuter ishlab chiqarishi raketalar va samolyotlar, avtomobillar katta binolar konstruksiyalarini sinovdan o'tkazishda yagona jarayonga birlashtirildi.

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanini o'qitishda virtual ta'lim texnologiyalaridan foydalanib (virtual video ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar, stendlar, ko'rgazmali qurollar), o'qitishning shakl va usullari yanada takomillashtirilib borilmoqda. Bunda o'quvchilar fanga oid o'quv materiallarni vizual shaklda o'rganish va amaliy mashg'ulot topshiriqlarini virtual laboratoriyalar yordamida bir necha bor

tajribalar o‘tkazish imkoniyatiga hamda o‘quvchilar fanga oid hodisa va jarayonlarni virtual shaklda ko‘rishga, kuzatishga ega bo‘ladi.

Ta'lim sohasida mashq trenajyorlarini yaratishda virtual borliq texnologiyasidan foydalanilmoqda. Yaqinda virtual kutubxonalar va muzeylar tashkil etish konsepsiyasi taklif qilindi. Masalan, virtual kutubxonalarda foydalanuvchi kompyuter yordamida kitob javonlarining vizual tasviri bo‘ylab harakatlanishi, kerakli adabiyotlarni topishi va olib ko‘zdan kechirishi, zarur holda esa ulardan nusxa ko‘chirishi mumkin.

Virtual muzey konsepsiyasi bir qadar boshqacha. Virtual muzey foydalanuvchilarga kolleksiyadagi istalgan eksponatni uning tabiiy, uch o‘lchovli ko‘rinishida ko‘rish imkonini beradi. Ammo bu tasviriy yechish qobiliyati ancha yuqori bo‘lgan displeylarni taqozo etadi. Shunday qilib, virtual borliq nazariy izlanishlardan ommaviy axborot vositalari va telekommunikatsiyalar ajralmas qismi bo‘lgan hozirgi zamon madaniyatining tarkibiy qismiga aylandi.

Ta'limiy maqsadlarda virtual reallik vositalarini ishlab chiqishga qaratilgan axborotlarni vizuallashtirish vositalarini yaratish boshqa texnik vositalar yordamida erishib bo‘lmaydigan pedagogik samarani berishi mumkin. Virtual borliq immersivlik va interfaollik tushunchalari bilan bog‘liq. Immersivlik deganda odamning virtual borliqda o‘zini faraz qilishini tushunish lozim. Interfaollik foydalanuvchi real vaqtda virtual borliqdagi ob'ektlar bilan o‘zaro muloqotda bo‘lib ularga ta'sir ko‘rsatishga ega bo‘ladi.

Virtual borliq tizimi deganda – biz imitatsion dasturiy va texnik vositalarni qabul qilamiz. Interfaollikni ta'minlash uchun, virtual tizim boshqaruvchi amallarni qabul qilishi kerak. Bu amallar ko‘z bilan ko‘radigan, tovush orqali qabul qiladigan bo‘lishi kerak. Bu amallarni amaliyotda bajarish uchun zamonaviy tizimlarda turli tovush va videotexnologiyalardan foydalaniladi. Masalan, katta hajmli tovush va videotizimlari, shuningdek odamning bosh qismiga o‘rnatiladigan shlem va ko‘zoynak displeylar, "hid sezadigan" sichqonchalar, boshqaruvchi qo‘lqoplar, kibernetik nimchalar simsiz interfeys birgaligida ishlatiladi [3].

Fanlarni o‘qitishda virtual reallik texnologiyalaridan foydalanish asosida ushbu fanga nisbatan yanada qiziqishi va motivatsiyasi oshadi. Shu bilan birga, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini unumli o‘tkazishga, fikrlash doirasini yanada kengaytirishga hamda taffakurini rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бабенко, Валерий Сергеевич Виртуальная реальность. Толковый словарь терминов / Бабенко Валерий Сергеевич. - М.: "Трамвай" (Магадан), 2012. - 675 с.
2. Кадубец, Тамара Воспитание школьников в педагогической среде виртуальной реальности / Тамара Кадубец. - М.: "LAP Lambert" Academic Publishing, 2012. - 176 с.
3. Decreusefond L, Moyal P (2012) Stochastic Modeling and Analysis of Telecom Networks. John Wiley & Sons, Inc., Hoboken, NJ.

TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AMALIY SAMARADORLIGI

Isroilova Lola Sunnatovna,
Navoiy davlat universiteti dotsent v.b.,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishda raqamli texnologiyalarning o‘rni va amaliy samaradorligi tahlil qilingan. Zamonaviy

axborot-kommunikatsiya vositalari orqali ta’lim jarayonini interaktiv, individual va samarali tashkil etish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Mustaqil ta’lim, raqamli texnologiya, zamonaviy ta’lim, raqamli platforma, Moodle, Google Classroom, Coursera.

Аннотация. В данной статье анализируются роль и практическая эффективность цифровых технологий в организации самостоятельного обучения студентов. Рассматриваются возможности интерактивной, индивидуальной и эффективной организации образовательного процесса посредством современных информационно-коммуникационных средств.

Ключевые слова: Самостоятельное обучение, цифровые технологии, современное образование, цифровая платформа, Moodle, Google Classroom, Coursera.

Annotation. This article analyzes the role and practical effectiveness in organizing independent learning for students. It highlights the possibilities of interactive, individualized, and efficient educational process organization through modern information and communication tools.

Keywords: Independent learning, digital technology, modern education, digital platform, Moodle, Google Classroom, Coursera.

Global raqamlashtirish jarayonlari zamonaviy ta’lim tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, oliy ta’lim muassasalarida talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi ta’lim jarayonining mazmuni, shakli va uslublarini yangilash, talabalarning o‘quv faoliyatini individuallashtirish va ularning o‘zlashtirish darajasini oshirish imkonini yaratmoqda.

Bugungi kunda elektron ta’lim platformalari, multimediya vositalari, raqamli kutubxonalar, sun’iy intellekt asosida ishlovchi dasturiy mahsulotlar, virtual laboratoriyalar va boshqa innovatsion texnologiyalar ta’lim oluvchilarning bilim olish, mustaqil izlanish olib borish va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonida keng qo‘llanilmoqda. Ushbu texnologiyalar orqali ta’lim oluvchilar o‘zlarining o‘quv faoliyatini moslashuvchan tarzda rejalashtirish, axborotni mustaqil izlab topish va tahlil qilish, o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar.

Mustaqil ta’lim va uni tashkil etish masalalari bo‘yicha ko‘plab tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, xorijiy olimlardan V.V.Praskov, Y.L.Pustovoytov, T.V.Chernikovoy, G.F.Sviridova, A.Y.Timoshenko, O.A.Kiseleva, Y.S.Zayats, I.V.Fedorova, L.A.Nikitinalar tomonidan, mahalliy tadqiqotchi – olimlardan M.G‘.Barotova, I.I.Hayitova, Sh.R.Qo‘qonboyeva, D.T.Yaxshiboyeva, I.X.Iminaxunova, M.A.Tursunovlar tomonidan mustaqil ta’limni tashkil etishning nazariy-metodik asoslari tadqiq etilgan.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar oliy ta’lim muassasalarida mustaqil ta’limni tashkil etishning nazariy-metodik asoslari, mustaqil ta’limni tashkil etish muammolari va yechimlari keltirilgan keltirilgan bo‘lib, biroq oliy ta’limda talabalarning mustaqil ta’limni tashkil etishda raqamli texnologiyalarning amaliy samaradorligi ilmiy-amaliy jihatdan to‘laligicha o‘rganilmagan.

Mustaqil ta’lim - talabaning o‘quv faoliyati, kasbiy rivojlanishda o‘z-o‘zini boshqarish mexanizmini shakllantiradi, bilvosita o‘qituvchi tomonidan boshqariladi, kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishga, shuningdek, bo‘lajak mutaxassisning kasbiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi [1].

Raqamli platformalar (masalan, elektron kutubxonalar, MOOC kurslari, ilovalar) orqali talabalar har qanday joy va vaqtda o‘quv materiallariga, videodarslarga, testlarga va ilmiy manbalarga kirish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bu ularning mustaqil ishlash qobiliyatini oshirib, bilim olish jarayonini individualizatsiya qiladi [2].

Z.Umarovaning fikricha, “talabalarning mustaqil tayyorgarligini takomillashtirishda raqamli texnologiyalarning roli katta. Bugungi kunda pedagogdan talab etilayotgan asosiy funksiya ya’ni fasilitatorlik funksiyasi, aynan raqamli texnologiyalar orqali amalga oshirilib, talabalarning mustaqil ta’lim jarayonida faol ishtirok etishlarini ta’minlash va mustaqil ta’lim jarayonini to‘g‘ri tashkil etishda ko‘rinadi. XXI – asr raqamli texnologiyalar asri, raqamli qurilmalar, gadjetlar va ilovalarning keng tarqalganligi esa o‘qituvchi va talabalardan raqamli kompetentsiyani rivojlantirishni talab qiladi” [3].

Raqamli texnologiyalarning mustaqil ta’limdagi o‘rni quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

• moslashuvchanlik: Talaba o‘ziga qulay vaqtda va joyda bilim olish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

resurslarga keng kirish: Elektron kutubxonalar, ilmiy maqolalar bazasi, onlayn kurslar va video darslar orqali ta’lim resurslariga erkin kirish imkoni yaratiladi.

• interaktivlik: Multimedia, simulyatsiya va virtual laboratoriyalar orqali mavzularni chuqurroq o‘zlashtirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

• monitoring va baholashning avtomatlashtirilgan tizimi: Platformalarda avtomatik testlar va baholash modullari mavjud bo‘lib, talabaning bilim darajasi doimiy nazorat qilinadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan mustaqil ta’lim:

• talabaning motivatsiyasini oshiradi;
• o‘zlashtirish darajasini yaxshilaydi;
• o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqotni interaktivlashtiradi;
• tahliliy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

Misol uchun, Moodle, Google Classroom, Coursera, Edmodo kabi platformalar orqali mustaqil topshiriqlarni bajarish, videodarslarni ko‘rish va fikr almashish talabaning faolligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu texnologiyalar orqali nafaqat ta’lim sifati oshadi, balki talabaning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va innovatsion ko‘nikmalari shakllanadi. Shu boisdan, raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga chuqur integratsiya qilish dolzarb masala hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ҳайитова Ш.Д. Талабалар мустақил таълимини мобиль технологиялар асосида фаоллаштириш методикаси. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент – 2022. – 55 б.
2. Musayev A.Sh. Raqamli texnologiyalar talabalar mustaqil ta’limini to‘g‘ri tashkil etish omili sifatida. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar (2023 yil No1) ISSN 2181-1709 (P) 308-312 b.
3. Umarova Z. Oliy ta’lim tizimida talabalar mustaqil tayyorgarligini takomillashtirishda raqamli texnologiyalarning roli. O‘zbekiston milliy universiteti xabarlari, 2024, [1/6] ISSN 2181-7324.

ELEKTRON TA’LIM MUHITIDA BO‘LAJAK INFORMATIKA O‘QITUVCHILARNI KLASTERLI YONDASHUV ASOSIDA O‘QITISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Nasirova Sh.N.,
NavDU professori,
Jakipova G.J.,
NavDU magistri

Annotatsiya: Bugungi kunda informatika fanini o‘qitishda elektron ta’lim resurslarini shakllantirish, zamonaviy ta’lim vositalari va portallar yaratish hamda ta’limni yanada axborotlashtirish dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu maqolada elektron ta'lim muhitida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarni klasterli yondashuv asosida o‘qitishning asosiy xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kompyuter, multimediali elektron qo’llanmalar, internet, klaster, ma’lumot, texnologiya, resurs

Abstract: Today, the formation of electronic educational resources, creation of modern educational tools and portals, and further informatization of education are urgent issues in the teaching of computer science. This article highlights the main features of training future computer science teachers in an e-learning environment based on a cluster approach.

Key words: computer, multimedia electronic manuals, Internet, electronic database.

Аннотация: Сегодня формирование электронных образовательных ресурсов, создание современных образовательных инструментов и порталов, дальнейшая информатизация образования являются актуальными вопросами преподавания информатики. В статье рассматриваются основные особенности подготовки будущих учителей информатики в среде электронного обучения на основе кластерного подхода.

Ключевые слова: компьютер, мультимедийные электронные пособия, Интернет, электронная база данных.

Mamlakatimiz kelajagi bugun maktablarda ta’lim-tarbiya olayotgan farzandlarimizga, ularning har tomonlama yetuk va barkamol insonlar bo‘lib yetishlariga bog‘liq. Bu mas’uliyatli vazifani bajarish hozirgi zamon o‘qituvchilaridan o‘z kasbiy mahoratlarini oshirib borish, ilg‘or pedagogik texnologiyalar mohiyatini anglash va ulardan o‘z darslarida unumli foydalanishni taqozo etadi. Hozirgi kunda ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarni o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri an’anaviy ta’limda o‘quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib

“Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”ning sakkizinchi bandida mamlakatda sifatli ta’limga erishish vazifalari belgilangan. So‘nggi bir necha yil ichida mamlakatimizda o‘sib kelayotgan avlodning sog‘lom va har tomonlama yetuk bo‘lib o‘sishiga qaratilgan maktabgacha ta’limning samarali tizimini tashkil etish, ta’lim-tarbiya jarayoniga ta’lim tarbiyaning samarali shakl va usullarini joriy etish bo‘yicha “O‘zbekiston respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” qarori qabul qilindi.

Fan va ta’limning ishlab chiqarish bilan uyg‘unligi barcha sohalarda taraqqiyotni ta’minlaydi. Bu borada tabiiyki, fan, ta’lim va ishlab chiqarishning integratsiyasi muhim va dolzarb vazifa. Bu esa o‘z-o‘zidan innovatsion klasterga yo‘l ochadi. Ta’lim tizimidagi klaster shaxsni kamol topishi va yetuk kadr bo‘lishiga qaratilgan bo‘lib, uning bog‘liqligi bog‘cha, maktab, litsey, kollej, oliy o‘quv yurti, doktorantura, malaka oshirish kabi jarayonlarni qamrab oluvchi butun umr davomidagi ta’lim zanjirini bir-biriga bog‘laganidir. Pedagogik texnologiyada klaster puxta o‘ylangan strategiya bo‘lib, undan ta’lim oluvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg‘ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g‘oyalarni umumlashtirish va ular o‘rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi

Jahon ta’lim muaasasalarida klasterga birlashgan sub’ektlar o’zaro hamkorlik harakatlari mexanizmlari hamda klaster yondashuvni joriy qilish texnologiyalari amaliyotga tadbiq etilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Barqaror rivojlanish maqsadlari” hamda Yevropa Ittifoqining “Evropa oliy ta’lim makoni” Kontseptsiyalari mazmunida klasterli yondashuv asosida bo’lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish metodlari, oliy ta’limning istiqbolli yo’nalishlarini belgilash, oliy ta’lim makonida kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirish va rivojlantirishning ilg’or tajribalarini ta’limni tashkil etish va boshqarish jarayoniga loyihalash ustida tizimli ishlar olib borilmoqda.

Klasterli yondashuv doirasida o’zaro bog’liq bir nechta faoliyat turlarini umumiy maqsad atrofida birlashtirish aniq hisob kitoblarni va ilmiy yechimlarni, natijasi kafolatlangan ilmiy, nazariy loyihalarni talab qiladi va shundagina klasterli yondashuv sub’ektlarining ishonchini qozonadi. Klasterli yondashuv asosida ta’lim tashkilotlarning hamkorlik faoliyatini byurokratik va ma’muriy buyruqlar berish yo’llar bilan amalga oshirib bo’lmaydi. U sub’ektlarning ixtiyoriy xayrixohigi asosida samarali faoliyat olib borishi mumkin.

Ta’limda klasterli yondashuv milliy pedagogikamizda innovatsion jarayon bo’lib, o’zida nafaqat ta’lim turlari o’rtasidagi, balki fan, ta’lim va ishlab chiqarish o’rtasidagi integratsiyalashuv jarayonlarini, shuningdeq, ta’limni innovatsion boshqarish, ta’lim vositalari va shakllari bilan bog’liq sohalarni ham qamrab oladi. Garvard maktabi professori, raqobat imkoniyatlarini o’rganish bo’yicha mutaxassis bo’lgan Maykl Porterning fikricha klasterlar quyidagi umumiy jihatlarga ega bo’lishi darkor:

- ilmiy-tadqiqot muassasalari mavjudligi;
- ish resurslari;
- raqobatbardoshlilik holati;
- sohaga mansubligi;
- maxsus ta’lim muassasalarining mavjudligi va h.k.

Pedagogikada «klaster (cluster)» – tarmoqlar metodi texnologiyasi deb ham ataladi va bu metod mantiqiy fikrlash, umumiy fikrlash doirasida tushuniladi.

- Yaratilgan maketga istalgan mobil yoki statsionar qurilmadan erkin kirish imkoni.

Visme — bu chiroyli kontentni tez va oson yaratish uchun mo‘ljallangan web xizmat turi bo‘lib, dizaynerlar tomonidan tayyorlangan ko‘plab shablonlar yordamida turli g‘oyalar uchun estetik ko‘rinishga ega materiallarni osongina yaratish mumkin.

- Ushbu xizmat yordamida taqdimotlar, infografikalar, hujjatlar, diagrammalar va grafiklar, bosma materiallar, veb-grafika, ijtimoiy tarmoqlar uchun grafikalar, videolar, GIF-fayllar va boshqa ko‘plab turdagi kontentlarni yaratish mumkin.
- Bepul versiyada faqat namoyish rejimi mavjud, pullik versiyada esa yaratilgan barcha materiallarni yuklab olish imkoniyati mavjud.

VistaCreate — bu onlayn grafik va video dizaynlar yaratish uchun mo‘ljallangan tahrirlovchi bo‘lib, foydalanuvchilarga atigi bir necha bosqichda professional ko‘rinishga ega vizual va video maketlar tayyorlashda yordam beradi.

VistaCreate web xizmati yordamida grafika bilan ishlash mumkin bo‘lib, quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

- haftalik yangilanadigan 30 000 dan ortiq tayyor dizayn shablonlari,
- Depositphotos stok tasvirlar kutubxonasidan 200 milliondan ortiq rasm va media fayllarga kirish,
- shuningdek, VistaCreate kontent jamoasi tomonidan tanlab olingan eksklyuziv kontentlar kolleksiyasi.

9-sinfda Informatika va axborot texnologiyalari fanidan “Veb-sahifa yaratish” mavzusini o‘qitishda Articulate storyline (https://www.articulate.com/) platformasidan foydalanildi [2].

Articulate storyline (https://www.articulate.com/) - bu elektron resurs yaratish uchun mo‘ljallagan bo‘lib, u moslashuvchan, foydalanishda qulay va turli maqsadli kurslar yaratish uchun ishlab chiqilgan. Articulate Storyline o‘rgatuvchi kurslarni, taqdimotlarni, testlar va kontentning turli shakllarini iPadda ko‘rish va masofali ta’lim tizimlariga integrallanishi mumkin bo‘lgan Flash va HTML5 formatlarida yaratish imkoniyatini beradi. Bu dasturning boshqalaridan afzalliklaridan biri - foydalanuvchiga maksimal tushunarli bo‘lgan grafik interfeys va faqat kontentning balki kurs ishlab chiquvchining interfeysining dizaynini kengroq ishlab chiqishganligidir. Articulate mahsulotlari nafaqat ishlab chiqaruvchilar, balki u yordamida ishlab chiqilgan kurslarda o‘qiyotganlar uchun ham qulaydir. Quyida platforma havolasini keltiramiz:

https://rise.articulate.com/share/iBLtsS2LXnG8802j5aX4RCMSyVsAp68G



1-rasm. Articulate storylife dasturiy vosita yordamida ishlab chiqilgan kurs

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zakirova F.M., Abdurakhmanova Sh.A. The use of multimedia technologies for the development of intellectual skills of students // International Scientific Journal of

Theoretical & Applied Science, 09 (89), 480. - Philadelphia, USA, 2020. SOI: 1.1/TAS DOI: 10.15863/TAS, p - ISSN: 2308 - 4944.
2. Bobomuxamedova, S. A. (2021). Dasturlash tillari fanini o‘qitishda blogtexnologiyasining o‘rni va ahamiyati. TDPU ilmiy axborotlari, 1(6), 172-178.
3. Qizi, B. S. A. (2019). Development of ICT competence of the future teacher of informatics on the basis of smart technology. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(10).

O‘QUVCHILARNING XXI-ASR KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TA‘LIMNING O‘RNI

Jumabayev Abdulxamid To‘xtanazarovich,
Namangan viloyat pedagogik mahorat markazi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada raqamli ta’limning 21-asr ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni, uning afzalliklari va dolzarbligi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Onlayn kurslar, virtual laboratoriyalar va sun’iy intellekt asosida moslashuvchan ta’lim imkoniyatlari yoritilib, ularning o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash, ijodiy tafakkur va muammo yechish qobiliyatlariga ta’siri o‘rganiladi. Shuningdek, raqamli tengsizlik, o‘qituvchilarning texnologik tayyorgarligi va ta’lim sifati muammolari muhokama qilinib, ularni hal etish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar. Raqamli ta’lim, 21-asr ko‘nikmalari, tanqidiy fikrlash, ijodiy tafakkur, muammo yechish, axborot savodxonligi, media savodxonligi, kommunikatsiya, hamkorlik, interaktiv o‘rganish, onlayn ta’lim, virtual laboratoriya, sun’iy intellekt, moslashuvchan ta’lim, innovatsion pedagogika, raqamli tengsizlik, texnologik malaka, ta’lim platformalari, ta’lim sifati.

Abstract. The article scientifically analyzes the role of digital education in developing 21st century skills, its benefits and relevance. Flexible learning opportunities based on online courses, virtual labs and artificial intelligence will be highlighted, and their impact on students' critical thinking, creative thinking and problem-solving skills will be studied. The issues of digital divide, technological readiness of teachers and quality of education will also be discussed, and scientifically based recommendations for their solution will be given.

Keywords. Digital education, 21st century skills, critical thinking, creative thinking, problem solving, information literacy, media literacy, communication, collaboration, interactive learning, online learning, virtual lab, artificial intelligence, adaptive learning, innovative pedagogy, digital divide, technological competence, educational platforms, quality of education.

Абстрактный. В статье научно анализируется роль цифрового образования в развитии навыков XXI века, его преимущества и актуальность. Будут освещены гибкие возможности обучения на основе онлайн-курсов, виртуальных лабораторий и искусственного интеллекта, а также изучено их влияние на критическое мышление студентов, творческое мышление и навыки решения проблем. Также будут обсуждаться вопросы цифрового неравенства, технологической готовности учителей и качества образования, а также будут даны научно обоснованные рекомендации по их решению.

Ключевые слова. Цифровое образование, навыки 21 века, критическое мышление, творческое мышление, решение проблем, информационная грамотность, медиаграмотность, коммуникация, сотрудничество, интерактивное

обучение, онлайн-обучение, виртуальная лаборатория, искусственный интеллект, адаптивное обучение, инновационная педагогика, цифровое неравенство, технологическая компетентность, образовательные платформы, качество образования.

Kirish

21-asrda ta’lim tizimi raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashib, an’anaviy pedagogik metodlarni zamonaviy yondashuvlar bilan boyitmoqda. O‘quvchilarning shaxsiylashtirilgan ta’lim olish imkoniyatlari ortib, interaktiv va innovatsion pedagogika tamoyillari asosida bilim olish muhitlari shakllanmoqda (Anderson & Krathwohl, 2001). Raqamli ta’lim tanqidiy fikrlash, ijodiy tafakkur, muammo yechish va kommunikatsiya kabi 21-asr ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi (Prensky, 2010).

Ushbu maqolaning maqsadi - raqamli ta’limning 21-asr ko‘nikmalarini shakllantirishdagi roli va ta’sirini ilmiy asosda o‘rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Metodologiya

Tadqiqotda ilmiy va empirik yondashuvlar qo‘llanildi. Quyidagi metodlar asosida ma’lumotlar to‘plandi va tahlil qilindi:

Raqamli ta’lim va 21-asr ko‘nikmalari bo‘yicha ilg‘or ilmiy manbalar, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari va ilg‘or tajribalar o‘rganildi (UNESCO, 2023; OECD, 2022). Bu metod yordamida mavjud tadqiqotlarning natijalari tahlil qilinib, dolzarb muammolar va innovatsion yondashuvlar aniqlab chiqildi.

Turli yoshdagi o‘quvchilar orasida raqamli ta’limdan foydalanish samaradorligini aniqlash uchun tajribalar o‘tkazildi. Tadqiqot jarayonida o‘quvchilar ikki guruhga ajratilib, biri an’anaviy ta’lim, ikkinchisi esa raqamli texnologiyalarga asoslangan ta’lim olgan holda ularning bilim olish natijalari taqqoslandi. Eksperiment davomida quyidagi ko‘rsatkichlar baholandi:

- Bilim o‘zlashtirish darajasi (imtihon ballari bo‘yicha)
- Tanqidiy fikrlash va muammo yechish qobiliyati
- Mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalari

Empirik natijalar tahlili

Quyidagi jadvalda o‘quvchilarning bilim o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari solishtirilgan:

Ko‘rsatkichlar	An’anaviy ta’lim (%)	Raqamli ta’lim (%)
Bilim o‘zlashtirish darajasi (imtihon natijalari)	70%	85%
Tanqidiy fikrlash va muammo yechish qobiliyati	60%	80%
Mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalari	55%	90%

Natijalarga ko‘ra, raqamli ta’lim olgan guruhning bilim o‘zlashtirish darajasi 15% yuqori bo‘lib, mustaqil ta’lim olish qobiliyati 90% ga yetgan. Tanqidiy fikrlash va muammo yechish ko‘nikmalarida ham an’anaviy ta’lim bilan solishtirganda sezilarli farq kuzatilgan.

Eksperimental usul. Onlayn ta’lim platformalarining samaradorligi o‘rganilib, an’anaviy ta’lim bilan solishtirildi. O‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasiga ta’sir qiluvchi omillar, jumladan, individual yondashuv, interaktivlik va moslashuvchan ta’limning samaradorligi tahlil qilindi. Tadqiqot davomida ikki guruhga ajratilgan o‘quvchilarning natijalari quyidagi ko‘rsatkichlar asosida baholandi:

- O‘zlashtirish darajasi (imtihon natijalari asosida)
- Motivatsiya darajasi
- Faollik va ishtirok darajasi
- Materiallarni tushunish tezligi

Eksperimental natijalar tahlili. Quyidagi jadvalda an’anaviy va onlayn ta’lim platformalaridan foydalangan o‘quvchilarning natijalari taqqoslangan:

Ko‘rsatkichlar	An’anaviy ta’lim (%)	Onlayn ta’lim (%)
O‘zlashtirish darajasi	68%	88%
Motivatsiya darajasi	65%	85%
Faollik va ishtirok darajasi	60%	82%
Materiallarni tushunish tezligi	62%	87%

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, onlayn ta’lim platformalaridan foydalangan o‘quvchilarning bilim o‘zlashtirish darajasi 20% yuqori bo‘lib, ularning motivatsiyasi va faolligi sezilarli darajada oshgan. Bundan tashqari, onlayn muhitda moslashuvchan ta’lim va interaktiv materiallardan foydalanish natijasida o‘quvchilarning materiallarni tushunish tezligi 87% ga yetgan.

1. Anketalar va suhbatlar – Tadqiqot jarayonida o‘qituvchilar va o‘quvchilar bilan suhbatlar o‘tkazilib, ularning raqamli ta’lim bo‘yicha fikrlari, duch kelgan muammolari va takliflari yig‘ildi. So‘rovnomalar orqali respondentlarning raqamli texnologiyalarga bo‘lgan munosabati va foydalanish tajribasi o‘rganildi.

2. Statistik tahlil – Olingan ma’lumotlar statistik usullar yordamida qayta ishlanib, raqamli ta’limning ta’lim jarayoniga ta’siri tahlil qilindi. Ma’lumotlar grafik va jadvallar shaklida taqdim etilib, natijalarning ishonchliligi tekshirildi.

Natijalar va tahlil

Raqamli ta’limning afzalliklari

1. Shaxsiylashtirilgan ta’lim. Sun’iy intellekt asosida har bir o‘quvchiga individual ta’lim yo‘nalishi taklif etiladi (Duolingo, Squirrel AI).

2. Masofaviy va mustaqil o‘qish. Raqamli platformalar geografik cheklovlarni bartaraf etib, istalgan vaqtda ta’lim olish imkonini yaratadi.

3. Interaktiv va amaliy yondashuv. Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar o‘quv jarayonini vizual va eksperimental jihatdan boyitadi (Labster, PhET Simulations).

4. Axborotga tezkor kirish. Elektron kutubxonalar va onlayn kurslar yordamida eng so‘nggi ilmiy manbalarga erishish imkoniyati mavjud.

5. Global hamkorlik va kommunikatsiya. Onlayn muhitlar (Google Classroom, Zoom, Coursera) orqali xalqaro hamkorlik rivojlantiriladi.

Raqamli ta’limning muammolari

1. Raqamli tengsizlik. Internet va texnologiyalarga yetarli kirish imkoniyatining cheklanganligi ta’limda uzilishlarga sabab bo‘lishi mumkin.

2. O‘qituvchilarning texnologik tayyorgarligi. Ko‘plab pedagoglarning zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalari yetarli emas.

3. Ta’lim sifati va baholash tizimi. Raqamli muhitda bilimlarni samarali baholash tizimlari hali ham to‘liq yo‘lga qo‘yilmagan.

Muhokama

Raqamli ta’lim 21-asr ko‘nikmalarini rivojlantirishda katta salohiyatga ega bo‘lsa-da, uni samarali joriy etish uchun muayyan strategiyalar ishlab chiqish lozim. Jumladan:

• Infratuzilmani rivojlantirish - internet va texnologik vositalarga kirish imkoniyatini kengaytirish.

• O‘qituvchilarni tayyorlash va malaka oshirish -zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash bo‘yicha treninglar tashkil qilish.

• Raqamli ta’lim sifatini oshirish - sun’iy intellekt va adaptiv o‘qitish tizimlarini rivojlantirish.

• Global hamkorlikni kengaytirish –xalqaro ta’lim dasturlari bilan hamkorlikni kuchaytirish.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim 21-asr ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Raqamli platformalar orqali tanqidiy fikrlash, muammo yechish va ijodiy tafakkur kabi qobiliyatlarni shakllantirish mumkin. Biroq, infratuzilma, o‘qituvchilarning texnologik savodxonligi va ta’lim sifati kabi muammolar hal qilinishi zarur.

Tavsiyalar: Davlat va xususiy sektorlar hamkorligida raqamli infratuzilmani rivojlantirish; o‘qituvchilarning texnologik tayyorgarligini oshirish bo‘yicha tizimli dasturlar ishlab chiqish; sun’iy intellekt va moslashuvchan o‘qitish tizimlarini kengroq joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (2001). A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives.
2. Prensky, M. (2010). Teaching Digital Natives: Partnering for Real Learning.
3. UNESCO. (2023). Global Education Monitoring Report: Technology in Education.
4. OECD. (2022). Digital Education Outlook: AI and Future Learning Environments.

TA’LIM SOHASIDA SUN’IY INTELLEKTNING QO‘LLANISHI

Komilov Izatillo Ikromjonovich,
Andijon viloyati pedagogik mahorat markazi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Zamonaviy dunyoda sun'iy intellekt o‘quv jarayonining muhim qismiga aylanib, o‘rganishni optimallashtirish va olingan bilim sifatini oshirish uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Shu bilan birga, ta’lim tizimi sun'iy intellekt yordamida hal qilinishi mumkin bo‘lgan bir qator muammolarga (individual yondashuvning yo‘qligi, resurslardan foydalanishning cheklanganligi, o‘quv ma'lumotlarini tahlil qilishda qiyinchilik) duch keladi. Ta’limda sun'iy intellektni qo‘llash shaxsiylashtirilgan ta’limni, bir qator vazifalarni avtomatlashtirishni, moslashtirilgan ta’lim platformalarini, ma’lumotlarni tahlil qilish va natijalarni bashorat qilishni, virtual va to‘ldirilgan realliklar va simulyatsiyalarni, o‘quv materiallari samaradorligini oshirishni va o‘quv o‘yinlari va ilovalarini yaratishni o‘z ichiga oladi. Ushbu innovatsiyalar barcha o‘quvchilarning rivojlanishini rag‘batlantiradigan yanada moslashuvchan va samarali o‘quv muhitini yaratishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar. Sun’iy intellekt (AI), o‘quv jarayonini avtomatlashtirish, ta’limni shaxsiylashtirish, o‘rganish samaradorligi.

Zamonaviy dunyoda sun’y intellektdan foydalanish muammosi turli faoliyat sohalarida, shu jumladan ta'lim sohasida mutafakkirlar tomonidan faol muhokama qilinmoqda. Ta’lim tizimida sun’iy intellektdan foydalanish ta’lim jarayonini optimallashtirish va ta’lim sifatini oshirish uchun yangi istiqbollarni ochadi. Ta'lim jamiyat taraqqiyoti va shaxsni shakllantirishning asosiy tarkibiy qismidir. Sun’iy intellekt kabi innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim muassasalari o‘quvchilarning o‘zgaruvchan ehtiyojlariga moslashishi va dolzarb ta'lim muammolarini hal qilishi mumkin. Muhim yutuqlarga qaramay, hozirgi ta'lim tizimi bir qator muammolarga duch kelmoqda, jumladan individuallashtirilgan ta'limning etishmasligi, ta'lim resurslaridan foydalanishning cheklanganligi, ta'lim imkoniyatlarining tengsizligi va eskirgan o‘qitish usullari. Ko‘pincha o‘quv jarayoni haqidagi ma'lumotlarni kuzatish

va tahlil qilish bilan bog‘liq muammolar mavjud bo‘lib, ta'lim amaliyotini yaxshilash uchun asosli qarorlar qabul qilishni qiyinlashtiradi. Ayrim o‘quvchilar individual yondashuvning yo‘qligi sababli ta’lim tizimida o‘z salohiyati va iste’dodini ro‘yobga chiqara olmasligi mumkin. Ushbu masalalar ta'lim sifati va qulayligini oshirish uchun innovatsion texnologiyalardan (shu jumladan sun'iy intellektdan) foydalanish bilan bog‘liq ta'lim tizimiga o‘zgartirishlar kiritish zarurligini ta'kidlaydi.

O‘quv jarayonida sun'iy intellektdan foydalanish butun ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning zaruriy omili sifatida tavsiflanishi mumkin. AI texnologiyalari tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan ta'lim jarayonlari zamonaviy o‘quvchilarning ehtiyojlarini qondiradigan yanada moslashuvchan va moslashuvchan ta'lim tizimlarini yaratishga yordam beradi.

Ta’lim sohasida AI texnologiyalaridan foydalanish orqali quyidagilarga erishish mumkin:

- shaxsiy ta'lim;
- muntazam ishlarni avtomatlashtirish;
- moslashuvchan ta’lim platformalaridan foydalanish;
- ma'lumotlarni tahlil qilish va natijalarni prognozlash;
- virtual haqiqat va simulyatsiya g‘oyasini qo‘llash;
- o‘quv materiallarini takomillashtirish;
- o‘quv o‘yinlari va ilovalarini yaratish.

Shaxsiylashtirilgan ta'lim o‘quv jarayonini har bir o‘quvchining individual ehtiyojlari va qobiliyatiga moslashtirishga imkon beradi. Misol uchun, sun'iy intellektdan foydalanadigan ta'lim platformalari talabalarga ularning bilim darajasi va afzalliklaridan kelib chiqqan holda shaxsiy topshiriqlar va materiallarni taqdim etishi mumkin. O‘rganish tezligi va materialni taqdim etish usullarini shaxsiylashtirish har kimga bilimlarni eng samarali o‘zlashtirishga imkon beradi. Muntazam vazifalarni avtomatlashtirish topshiriqlarni tekshirish, baholarni boshqarish va jadvallarni yaratish jarayonlarini avtomatlashtirishni o‘z ichiga oladi. Sun’iy intellekt asosida ishlaydigan avtomatik topshiriqlarni tekshirish tizimlari o‘quvchilarning javoblarini baholashi va real vaqt rejimida fikr-mulohazalarini taqdim etishi mumkin, bu esa o‘qituvchilarni talabalar bilan yaxshiroq muloqot qilish va individual o‘quv dasturlarini ishlab chiqish imkonini beradi. Moslashuvchan ta'lim platformalari o‘quv mazmuni va vazifalarini har bir talabaning bilim darajasi va o‘rganish tezligiga moslashtirish uchun AIdan foydalanadi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish va natijalarni bashorat qilish uchun sun'iy intellektdan foydalanish o‘qituvchilarga o‘quv jarayonidagi naqsh va tendentsiyalarni aniqlash imkonini beradi. Masalan, sun'iy intellektga asoslangan analitik tizimlar talabalarning test natijalari va xatti-harakatlari haqidagi ma'lumotlarni o‘rganishi mumkin bo‘lgan muammolarni aniqlash va ularning akademik muvaffaqiyatlarini bashorat qilishlari mumkin. Bu ta’lim muassasalariga o‘quv dasturlarini real vaqt rejimida har bir talaba uchun individual ehtiyojlari va yutuqlaridan kelib chiqib moslashtirish imkonini beradi. Virtual haqiqatlar va simulyatsiyalar interaktiv va qiziqarli o‘quv muhitini yaratish orqali o‘quvchilarga materialni yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Masalan, virtual laboratoriyalar va sun’iy intellekt yordamida o‘qitish simulyatsiyalari o‘quvchilarga amaliy tajriba va tajribalar orqali murakkab tushunchalarni o‘zlashtirishga yordam beradi. Sun'iy intellekt yordamida o‘quv materiallari va mazmunini takomillashtirish xatolarni aniqlash va tuzatish uchun akademik resurslarni tahlil qilishni, shuningdek, yanada samarali o‘rganish uchun ma'lumotlarni tizimlashtirishni o‘z ichiga oladi. Masalan, sun'iy intellektga asoslangan tizimlar grammatik va sintaktik xatolar yoki faktik

noaniqliklarni aniqlash uchun matnli materiallarni skanerlashi mumkin. AI tegishli va foydalanish mumkin bo‘lgan toifalar va mavzularni yaratish orqali o‘quv materialini tuza oladi, bu esa o‘quvchilarning harakatlanishini osonlashtiradi.

Xulosa.Sun'iy intellektdan foydalangan holda o‘quv o‘yinlari va ilovalarini yaratish bizga o‘quvchilarni qiziqtiradigan va rag‘batlantiradigan interfaol vositalarni ishlab chiqishga imkon beradi. Sun’iy intellektga asoslangan o‘yinlar turli darajadagi qiyinchilik va o‘rganish uslublariga moslasha oladi, bu esa o‘rganishga yanada moslashuvchan yondashuvni ta’minlaydi. Ushbu ilovalar tegishli vazifalarni, dinamik simulyatsiyalarni va tezkor fikr-mulohazalarni taklif qiladi, bu o‘quv materialini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Sun’iy intellektni ta’limga joriy etish uning sifatini oshirishi va o‘rganishni qulayroq va moslashuvchan qilish imkonini beradi. Shaxsiylashtirilgan ta’lim, avtomatlashtirish va ma’lumotlar tahlili ushbu maqsadga erishish uchun asosiy vositalardir. O‘quv jarayonida AIdan foydalanish o‘qituvchining rolini o‘zgartirishi, uni har bir o‘quvchining individual ehtiyojlariga o‘rganishni moslashtiradigan murabbiyga aylantirishi mumkin. Bularning barchasi moslashuvchan ta'lim muhitini yaratishga, ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Putilova, E. Network user behavior and media risks in modern education. 2023 [Элек тронный ресурс] / E. Putilova, Y. Tsiplakova, M. Pyrina. – Режим доступа: https://www.researchgate.net/publication/374703260_Network_user_behavior_and_media_risks _in_modern_education, свободный (дата обращения: 15.04.2024).
2. Радугин, А. А. Применение искусственного интеллекта в образовательном про цессе вуза: технологии, потенциал и проблемы / А. А. Радугин, О. А. Радугина // Вестник Воронежского государственного технического университета. – 2021. – С. 85–86.
3. Новак, Р. А. Персонализация обучения с помощью ИИ Учитывая индивидуаль ность каждого студента / Р. А. Новак // Статья. 04.07.2023
4. Холмс, У. Искусственный интеллект в образовании [Электронный ресурс] / У. Холмс, М. Бялик, Ч. Фейдел. – Издательство «Альпина PRO», 2022.
5. Putilova, E. Project-Based Learning in Personal-Oriented Educational Paradigm. 6. Putilova, E. Environmental education and its principles / E. Putilova, Yu. Tsiplakova, Yu. Diachkova, E. Knysh// E3S Web of Conferences: XI International Scientific and Practical Conference Innovative Technologies in Environmental Science and Education (ITSE-2023), Divnomorskoe village, Russia, 04–10 сентября 2023 г. – Vol. 431. – Divnomorskoe village, Russia: EDP Sciences, 2023. – P. 09003. – DOI 10.1051/e3sconf/202343109003. – EDN MEJCVU.

III RENESSANS VA MILLIY TA’LIM TARAQQIYOTIDA ZAMONAVIY RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Avezov T.O.,
Buxoro viloyat PMM o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada barcha davrlarda ta’limga bo‘lgan e’tibor, milliy ta’lim taraqqiyoti va zamonaviy raqamli texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: III renessans, milliy ta’lim taraqqiyoti, zamonaviy AKT va raqamli texnologiyalar, yangi metodikalarni ishlab chiqish, qo‘llashning ahamiyati.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы образования на протяжении всей истории ренессанса, развития национального образования, а также роль и значение современных цифровых технологий.
Ключевые слова: Третий ренессанс, развитие национального образования, роль современных ИКТ технологий, важность разработки и применения новых методологий.
Abstract: The third renaissance, the development of national education, modern ICT and digital technologies, the importance of developing and applying new methodologies.
Key words: The third renaissance, the development of national education, the role of modern ICT technologies, the importance of developing and applying new methodologies.

Mamlakatimiz tarixiga bir nazar soladigan bo‘lsak, barcha uyg‘onish davrlarida ham, hozirgi fan, ta’lim va texnika sohalari jadal rivojlanayotgan sharoitda ham ta’limga bo‘lgan e’tibor eng dolzarb, eng ustuvor vazifalardan biri bo‘lib kelgan.

Davlatimiz rahbari 1-oktyabr “O‘qituvchilar va murabbiylar” kuni munosabati bilan so‘zlagan nutqida keyingi yillarda yurtimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, yangi O‘zbekistonni yaratish maqsadida barcha sohalar qatori ta’lim tizimida ham tub islohotlar olib borilayotganiga to‘xtalib, **“Biz keng ko‘lamli demokratik o‘zgarishlar, jumladan, ta’lim islohotlari orqali O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya’ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o‘zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak”** deb ta’kidlab o‘tdilar. [**1**]

Ta’lim tizimini isloh qilishda bir qator Prezident Farmon, Qarorlari, VMning qarorlari qabul qilinishi, uzluksiz ta’limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi pirovard ijobiy natijalarga olib kelmoqda.

Renessans tushunchasiga qaytadigan bo‘lsak, “Renessans” lug‘aviy fransuzcha “qayta tug‘ilish” degan ma’noni anglatadi. Atama sifatida uning mazmuni ancha keng: madaniyatda, ilm-fanda, san’atda, ta’lim-tarbiyada, umuman, jamiyat hayotida uzoq muddatli turg‘unlikdan keyin qayta jonlanib, tez rivojlanishni, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi yangi sifat bosqichiga chiqishini bildiradi. Ilk bor atama Yevropada o‘rta asrlar mutaassibligidan keyin 15-16 asrlardagi rivojlanish davriga nisbatan qo‘llanilgan. Renessans atalmish mazkur ijtimoiy hodisa o‘zbek tiliga Uyg‘onish davri deb o‘girilgan.

Ikkinchi Renessansda — Ulug‘bek, G‘iyosiddin Jamshid Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Behzod, buyuk me’morlar, bastakorlar, musavvirlar, tarixchilar chiqib, bugun ham dunyoni lol qoldirayotgan asarlar yaratdilar. Har ikki Renessans davrida biz dunyoning ilg‘or, mutaraqqiy xalqlari qatorida edik. Agar yana shunday darajaga erishmoqchi bo‘lsak, Uchinchi Renessansni amalga oshirmog‘imiz zarur. [2].

Ta’limning milliy modeli — O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini yangilangan sog‘lom pedagogik tafakkur asosida tubdan isloh qilish, ta’lim tarbiya muassasalarida tayyorlanadigan kadrlarni intellektual, ma’naviy va axloqiy saviyasiga ko‘ra rivojlangan mamlakatlardagi darajaga yetkazish bo‘yicha belgilangan nazariy-metodologik, amaliy-pedagogik yondashuvlar majmui. Ta’limning milliy modelida ma’naviy-intellektual jihatdan barkamol shaxsning o‘z ijodiy qobiliyatini to‘la namoyon etishini ta’minlash ko‘zda tutiladi.

Shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta’lim, fan va ishlab chiqarish uzviy chambarchas bog‘liq tarkibiy qismlar bo‘lib, ta’lim tizimining mazmun-mohiyati, maqsadi va



vazifalarini aniq qilib ifodalaydi va ta’lim sohasini rejali rivojlantirishga juda katta mablag‘lar jalb qilinmoqda.

Shunday ekan, pedagog kadrlarning asosiy vazifalaridan biri bu, uzluksiz rivojlanib borish, malaka oshirish, muvaffaqiyatlarga erishish, haqiqiy barkamol avlodni tarbiyalashdir. Bu borada zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, yangi metodikalarni qo‘llash, ta’lim sifatini yuqori darajada rivojlantiradigan zamonaviy dasturiy vositalardan, AKTlardan, sun’iy intellekt sistemalaridan foydalanish zamon talabi bo‘lib qolmoqda. Pedagog kadrlar mahoratini oshirish borasida olib borilayotgan ijobiy o‘zgarishlarga jiddiy yondashuv har bir o‘qituvch va murabbiylar uchun hayotiy dolzarb masalaga aylanishi zarur, deb hisoblaymiz.

Raqamli texnologiyalar va zamonaviy AKT vositalaridan samarali foydalanish, ularni qo‘llay olish, ta’lim jarayonlariga keng joriy qilish oqibatda ta’lim sifatini oshirishga katta ta’sir o‘tkazishini unutmasligimiz kerak. Shu maqsadda ta’limning barcha bosqichlarida: maktabgacha, boshlang‘ich, umumiy o‘rta ta’lim, oliy ta’lim va undan keyingi bosqichlarda ham maqsadli natijalarga erishish uchun harakat qilishimiz kerakdir.

Ma’lumki, maktabgacha va maktab ta’limi tizimida pedagoglarning malakasini oshirishni uzluksiz amalga oshirish borasida pedagogik mahorat markazlari faoliyat yuritmoqda. Barcha fan yo‘nalishlaridagi o‘qituvchilar va pedagogik xodimlar uchun “Ta’limda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt” modulining kiritilishida aniq maqsad ko‘zlangan, deb hisoblaymiz. Zamonaviy pedagogik dasturiy vositalardan hamda sun’iy intellektga asoslangan samarali platformalardan foydalanish va dars jarayonlariga tadbiq etish ta’lim sifatini oshirishi shubhasizdir. Jumladan, PDVlardan: **LearningApps, Wordwall, Kahoot!, Ispring Suite, Socrative** kabi bir qator dasturlar ta’lim jarayonida ham qiziqarli, ham foydali samara beradi.

Sun’iy intellekga asoslangan Chat GPT, Gamma, Leonardo AI, Magic School AI, Google Education Classroom AI va boshqa platformalar zamon talablari asosida o‘quvchilarni raqamli texnologiyalarning afzalliklariga jiddiy qiziqishi va e’tiborini qaratishiga, kelajakda yetuk mutaxassis va o‘z ishining, tanlagan sohasining ustasi bo‘lib yetishishiga zamin yaratadi, degan umiddamiz.

Shuni unutmasligimiz kerakki, Prezident va davlatimiz milliy ta’lim tizimining rivojlanishiga alohida e’tibor berib, yetarli darajada moliyalashtirayotgan ekan, biz buni oqlashimiz, strategik vazifalarni bajarishimiz, jamiyat va ta’lim taraqqiyotiga oz‘ hissamizni qo‘shishimiz zarurdir.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Milliy ta’lim va tarbiya tizimi rivojlantirish Uchinchi Renessans poydevorini yaratishning asosidir. Aziz Hakimov. Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi, “Ma’rifat” targ‘ibotchilar jamiyati a’zosi. Internet resurs.
2. Uchinchi Renessans milliy g‘oya sifatida. Abdurahim Erkayev. Oliy Majlis Senati a’zosi. “Jamiyat”. 2020 yil. Sentabr.
3. Internet resurslar.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA DASTURLASH KO‘NIKMALARINI IJTIMOIY FAOLLASHTIRISH

Boboqulov Jaloliddin Qurbonovich,
Navoiy viloyati PMM UKTTE bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida quvchilarida dasturlash ko‘nikmalarini ijtimoiy faollashtirish texnologiyalari va ularni amalga oshirish vostilari haqida fikr-mulohazalar yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy faollashtirish, loyiha, loyiha bosqichlari, Ijodiy fikrlash, dasturlash ko‘nikmalari.

Kirish. Yurtimizda ta’lim tizimining turli ko‘rinishlarida informatika faniga katta e’tibor berilgan bo‘lib, bugungi informatika fani mantiqiy axborot modellari haqidagi fundamental fan sifatida shakllangan bo‘lib, faoliyat yuritish ob’ekti ma’lumotlarning strukturasi, ularni qayta ishlash usullaridan iborat.

U ilgari faqat dasturlash asoslarini o‘rgatuvchi fan sifatida shakllangan bo‘lsa, o‘z rivojining keyingi bosqichlarida informatika, axborot texnologiyalari, ma’lumotlar bazasi, telekommunikatsion texnologiyalar, kompyuter texnologiyalari kabi bir qator mustaqil fanlarga ajraldi, shu jumladan dasturlash tillarining o‘zi bir qator fanlar sifatida o‘tila boshlandi.

Respublikamizda o‘qitish texnologiyalarini zamonaviylashtirishni jadallashtirish, rivojlangan iqtisodiyotli mamlakatlarga qaraganda yanada dolzarb ahamiyatga ega.

Respublikamiz ta’lim tizimidagi asosiy vazifa jahon talablariga mos keluvchi axborot texnologiyalarini o‘qitish jarayoniga qo‘llashdan iborat. O‘zbekistonda ta’lim tizimining axborotlashtirilishi xalqaro jamiyatda ham tan olindi.

Python - bu dasturchilarning ishlab chiqarish samaradorligi va kodlarning o‘qilishini yaxshilashga qaratilgan yuqori darajadagi umumiy dasturlash tili. Python yadrosi sintaksisi minimalist.

Scratch - bu bolalar va o‘spirinlar uchun mo‘ljallangan vizual tadbirlarga asoslangan dasturlash muhiti. Bu nom skretch so‘zidan kelib chiqadi, bu musiqiy mavzularni aralashtirish uchun vinil yozuvlarni o‘z qo‘llari bilan oldinga va orqaga burish uchun hip-hop DJlari tomonidan qo‘llaniladigan usul.

Dunyoning ko‘plab mamlakatlarida bolalar va kattalar, o‘qituvchilar va maktab o‘quvchilari dasturlashni o‘rganish, ijodkorlikni rivojlantirish, o‘yinlar va interaktiv animatsiyalar yaratish, shuningdek, bir-birlari bilan muloqot qilish, bir-birlarining loyihalarini o‘rganish va ishlatish uchun Scratchdan foydalanadilar.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Mamlakatimizda kompyuter imkoniyatlaridan foydalangan holda ta’lim sifatini oshirish, o‘quv jarayoniga oid zamonaviy o‘quv-nazorat dasturlarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishga bo‘lgan zaruriyat “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinganlik natijasida

ta’lim tizimida zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish rivojlantirildi.

Mamlakatimizda informatika fanini o‘qitishda axborot texnologiyalari va pedagogik texnologiyalardan ta’lim sifatini oshirish jarayonida nazariy va amaliy asoslarini yaratish, innovatsion usullarni qo‘llash, ta’lim jarayonida noan’anaviy usullardan guruhli va individual usullardan foydalalanishning nazariy asoslariga oid M.Aripov, A.A.Abdukodirov, M.Luttfullayev, N.I.Taylakov, U.Begimqulov, R.Jo‘rayev, N.Azizxo‘jayeva, T.T.Kalekeeva, D.U.Qo‘chqarov, M.X.Allabergenova, F.N.Rahimova, Sh.F.Davronova, I.N.Ruzimurodov, B.B.Mo‘minov, M.B.Xattabovlar kabi olimlarning ishlarini aytish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Dasturlash - bu 21-asrning muhim ko‘nikmalaridan biri bo‘lib, u bolalarni ijodiy, mantiqiy fikrlashga va muammolarni hal qilishga o‘rgatadi. Ushbu metodika boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dasturlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda ijtimoiy faollashtirish usullarini o‘z ichiga oladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga dasturlashni o‘rgatishda ijtimoiy faollashtirish usullari ularning o‘zaro hamkorlik, muloqot va o‘rtoqlashish ko‘nikmalarini yaxshilashga yordam beradi.

Ijtimoiy faollashtirishning ahamiyati - Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida dasturlash ko‘nikmalarini ijtimoiy faollashtirish, ularning ijtimoiy hayotga faol ishtirok etishlari uchun muhimdir. Bu jarayon o‘quvchilarning fikrlash, muloqot, muammolarni hal qilish va jamoada ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Dasturlashda o‘quvchilar birgalikda loyihalarni amalga oshirish, o‘zaro fikr almashish va bir-birlaridan o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Ijtimoiy faollashtirish – bu bolalarni o‘z atrofidagi muammolarni hal qilishga, jamiyatda faol ishtirok etishga va ijtimoiy mas'uliyatni o‘z zimmasiga olishga undaydigan jarayondir. Dasturlashda ijtimoiy faollashtirish orqali bolalar o‘zlariga kerakli dasturlarni yaratish, atrofdagi muammolarni hal qilish uchun dasturlar ishlab chiqish va o‘z bilimlarini jamiyatga foyda keltiradigan tarzda qo‘llashni o‘rganadilar.

1. Muammolarni hal qilish - Bolalar atrofida uchraydigan muammolarni hal qilish uchun dasturlar yaratish orqali muammolarni tahlil qilish, yechimlar topish va yaratishni o‘rganadilar.

2. Ijodiy fikrlash - Dasturlash jarayoni bolalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Ular o‘z g‘oyalarini amalga oshirish uchun turli dasturlash tillari va vositalaridan foydalanishni o‘rganadilar.

3. Jamoaviy ishlash - Bolalar guruhlarda ishlash orqali birgalikda loyihalar yaratish, fikr almashish va bir-birlaridan o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

4. O‘ziga ishonch - Dasturlash ko‘nikmalarini o‘zlashtirgan bolalar o‘ziga ishonchli bo‘ladilar, chunki ular o‘z g‘oyalarini amalga oshirish va o‘ziga kerakli dasturlarni yaratish qobiliyatiga ega bo‘ladilar.

Dasturlash ko‘nikmalarini ijtimoiy faollashtirish uchun turli usullar qo‘llanilishi mumkin:

- Jamoaviy loyihalar. Jamoaviy loyihalar orqali o‘quvchilar birgalikda dasturlash vazifalarini bajarish, o‘zaro hamkorlik qilish va bir-birlaridan o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Masalan, o‘quvchilar birgalikda video o‘yin, animatsiya yoki interfaol hikoya yaratishni o‘z zimmalariga olishlari mumkin. Bu loyihalar ularning ijtimoiy faolligini oshirishga, muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga va jamoada ishlashga yordam beradi.

- O‘yinlar orqali o‘qitish. Dasturlashni o‘rganishni yanada qiziqarli va samarali qilish uchun o‘yinlardan foydalanish mumkin. Masalan, "Code.org" sayti boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan ko‘plab dasturlash o‘yinlarini taklif etadi. Bu o‘yinlar

o‘quvchilarga dasturlash asoslarini o‘rgatish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish va ularni muammolarni hal qilishga undashga yordam beradi.

- Muammoli vaziyatlarni hal qilish. Dasturlash orqali o‘quvchilar hayotiy muammolarni hal qilishga o‘rgatilishi mumkin. Masalan, sinf o‘quvchilaridan "mashina haydashni avtomatlashtirish" kabi vaziyatni modellashtirish va uni dasturlashga harakat qilishlarini so‘rash mumkin. Bu o‘quvchilarga muammolarni tahlil qilish, ularni yechimlarga ajratish va dasturlash tilini qo‘llab-quvvatlashga yordam beradi.

- Guruh ishlari. Guruh ishlari o‘quvchilarni bir-biri bilan hamkorlik qilishga, o‘zaro fikr almashishga va jamoaviy qarorlar qabul qilishga o‘rgatishga yordam beradi. Masalan, o‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lib, ularga birgalikda bir loyihani amalga oshirish vazifasini topshirish mumkin. Bu jarayonda o‘quvchilar o‘zaro fikr almashishadi, vazifalarni taqsimlashadi, birgalikda muammolarni hal qilishadi va o‘zaro yordam berishadi.

- Taqdimotlar. Taqdimotlar o‘quvchilarga o‘zlarining ishlarini boshqalarga namoyish etish va o‘z fikrlarini aniq va tushunarli tarzda ifoda etishga imkon beradi. Bu jarayon o‘quvchilarning o‘z ishlariga bo‘lgan ishonch va javobgarlikni oshirishga yordam beradi. Taqdimotlarni tayyorlash jarayonida o‘quvchilar birgalikda g‘oyalarni ishlab chiqishadi, ma'lumotlarni to‘plashadi, taqdimotlarni rejalashtirishadi va o‘zaro hamkorlik qilishadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dasturlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun turli xil usullar va vositalar mavjud. O‘quvchilarga tushunarli va qiziqarli tarzda dasturlash asoslarini o‘rgatish muhimdir.

Blok-dasturlash. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini dasturlash bilan tanishtirish uchun eng qulay usullardan biri blok-dasturlashdir. Ushbu usulda bolalar kod yozish o‘rniga rangli bloklarni bir-biriga ulash orqali dastur yaratadilar.

O‘yinlar. Dasturlashni o‘yin shaklida o‘rgatish bolalar uchun qiziqarli va samarali bo‘ladi. Turli o‘yinlar orqali bolalar dasturlash asoslarini tushunishadi va amalda qo‘llaydilar.

Loyihalar. Bolalarga kichik loyihalar yaratish imkoniyatini berish ularning dasturlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Loyiha orqali bolalar dasturlashning amaliy tomonlarini ko‘rishadi va o‘z g‘oyalarini amalga oshiradilar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dasturlash ko‘nikmalarini ijtimoiy faollashtirish uchun turli xil loyiha misollari mavjud. Quyida bir nechta misollar keltiramiz:

1. Maktab kutubxonasini avtomatlashtirish. Bolalar kitoblarni qidirish, qarzga olish va qaytarishni osonlashtiradigan dastur yaratadilar. Dastur kutubxonaning ma'lumotlar bazasini boshqarish imkoniyatini beradi.

2. Energiya tejash. Bolalar maktabda energiya tejashga yordam beradigan dastur yaratadilar. Dastur yorug‘likni avtomatik ravishda yoqish va o‘chirish, qurilmalarni o‘chirib qo‘yish va h.k. funksiyalarni bajarishi mumkin.

3. Maktab bog‘ini sug‘orish. Bolalar ma'lum vaqt oralig‘ida sug‘orish tizimini boshqarish dasturini yaratadilar. Dastur tuproqning namligini nazorat qilib, o‘z vaqtida sug‘orishni ta'minlaydi.

Loyiha bosqichlari quyidagicha:

1. G‘oya tanlash. Bolalar o‘zlariga qiziqarli va ijtimoiy ahamiyatli loyiha g‘oyasini tanlaydilar. G‘oyalarni muhokama qilish va eng yaxshi variantni tanlash muhimdir.

2. Loyihani rejalashtirish. Tanlangan loyihani qanday amalga oshirish kerakligi rejalashtiriladi. Loyihaning vazifalari, vaqti va resurslari aniqlanadi.

3. Dasturlash. Bolalar tanlangan dasturlash tilini o‘rganib, loyiha uchun dastur yaratadilar. Dasturlash jarayonida o‘qituvchining yordami muhimdir.

4. Sinovdan o‘tkazish. Yaratilgan dastur sinovdan o‘tkaziladi. Xatolar tuzatiladi va dastur takomillashtiriladi

5. Taqdimot. Tayyor bo‘lgan loyiha boshqa o‘quvchilar, o‘qituvchilar va ota-onalarga taqdim etiladi. Loyiha haqida ma'lumot berish va natijalarini muhokama qilish muhimdir.

O‘qituvchining roli ushbu jarayonda juda muhimdir. U bolalarning dasturlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, loyihalarni rejalashtirish va bajarishda yordam berishi kerak. O‘qituvchi shuningdek, bolalarda ijtimoiy mas'uliyatni oshirishga, jamoaviy ishga o‘rgatishga va ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga hissa qo‘shishi kerak. O‘qituvchi quyidagi vazifalarni amalga oshirishi kerak.

1. Bolalarni dasturlash asoslari bilan tanishtirish - Blok-dasturlash, o‘yinlar, loyihalar orqali.

2. Bolalarga loyiha g‘oyalari topishda yordam berish - Muammolarni tahlil qilish, ijtimoiy ahamiyatli masalalarni muhokama qilish.

3. Loyihani rejalashtirish va bajarishda yordam berish - Vazifalarni taqsimlash, vaqtni boshqarish, resurslarni taqsimlash.

4. Bolalarni dasturlashda turli xil vositalar bilan tanishtirish - Scratch, Code.org, Python, HTML.

5. Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish - O‘z g‘oyalarini amalga oshirishga undash, xatoliklardan o‘rganishga yordam berish.

6. Bolalarda jamoaviy ishga o‘rgatish - Birgalikda loyihalar yaratish, fikr almashish, bir-birlaridan o‘rganish.

Tadqiqot natijasi va muhokamasi.

Dasturlashning ijtimoiy foydasi. Dasturlash bolalarning ijtimoiy faolligini oshirishga, atrofdagi muammolarni hal qilishga va jamiyatda faol ishtirok etishga yordam beradi. Bolalar o‘z bilimlarini jamiyatga foyda keltiradigan tarzda qo‘llashni o‘rganadilar.

1. Ijobiy ta'sir. Dasturlash bolalarda muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi, ijodiy fikrlashni rag‘batlantiradi, jamoaviy ishga o‘rgatishga yordam beradi va o‘ziga ishonchni kuchaytiradi.

2. Kelajakdagi foyda. Dasturlash ko‘nikmalari kelajakda bolalarga yaxshi ish topish, o‘z bizneslarini ochish va jamiyat rivojiga hissa qo‘shish imkoniyatini beradi.

3. Ijtimoiy ahamiyat. Dasturlash orqali bolalar o‘zlarini ijtimoiy faol his qiladilar, atrofdagi muammolarga befarq qolmaydilar va ularni hal qilishga harakat qiladilar.

Xulosa. Dasturlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va bolalarning ijtimoiy faolligini oshirish zamonaviy ta'limda muhim ahamiyatga ega. Ushbu metodik qo‘llanmada keltirilgan usullar va loyiha misollari boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga bolalarni dasturlash bilan tanishtirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va ularning ijtimoiy faolligini oshirishda yordam beradi. Dasturlash bolalarga o‘zlarini jamiyatning bir qismi deb hisoblash, atrofdagi muammolarga e'tibor qaratish va ularni hal qilishga hissa qo‘shish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islom Karimov. “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch”, Toshkent Ma‘naviyat” 2010
2. Axloq odobga oid hadis namunalari T.: Fan.1990 y
3. Mavlonova R.Raxmonqulova N.Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi . T.: O‘qituvchi, 2006.

4. Informatika va axborot texnologiyalari: umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9- sinfi uchun darslik: M. R. Fayziyeva, D. M. Sayfurov, N. S. Xaytullayeva - Toshkent: Tasvir, 2020. – 112 b. bProfessor F. M. Zakirovaning umumiy tahriri ostida. (82-86b, 101-103b)
5. Azizxo‘jaeva N.N Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. “O‘zbekiston” yozuvchilar uyushmasining Adabiyot
jamg‘armasi nashriyoti. T-2006-yil, 51-54b.
6. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar T.: Iste’dod, 2008 yil, 14-19b

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI DASTURLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Boboqulov Jaloliddin Qurbonovich,
Navoiy viloyati PMM UKTTE bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida dasturlash ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi tahlil qilingan. Dasturlash, zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismi sifatida, o‘quvchilarga nafaqat texnologik, balki mantiqiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Maqolada dasturlash o‘qituvchilari uchun metodik yondashuvlar, o‘quvchilarning dasturni yaratishda faol ishtirok etishini ta'minlovchi usullar va boshlang‘ich ta'limda dasturlashni samarali o‘rgatishning ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Kirish

Zamonaviy ta'limda axborot texnologiyalarining roli tobora ortib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasida axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT) yordamida ta'limni rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda. Dasturlash ko‘nikmalarini boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘rgatish, ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va yaratgan g‘oyalarini kompyuter texnologiyalari yordamida amalga oshirish imkonini beradi. Dasturlash o‘quvchilarni analitik fikrlashga, muammoni hal qilishga va kreativ echimlar topishga undaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga dasturlashni o‘rgatishning ahamiyati

1. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish

Dasturlashning asosiy tamoyillari – mantiqiy va tizimli yondashuvlar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun dasturlashni o‘rganish, ularning mantiqiy tafakkurlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilar masalalarni yechish jarayonida qadam-baqadam yondashuvni va algoritmik fikrlashni o‘rganadilar.

2. Problema hal etish ko‘nikmalarini shakllantirish

Dasturlash o‘quvchilarga biror muammoni hal qilish uchun aniq yo‘lni tanlashni va unga qarshi turish uchun samarali usullarni izlashni o‘rgatadi. O‘quvchilarni dasturlashga qiziqtirish orqali, ular turli xil muammolarni hal etishda ijodiy yondashuvlarni shakllantirishadi.

3. Yaratuvchanlikni oshirish

Dasturlash jarayonida o‘quvchilar o‘zlarini dasturchi sifatida his qiladilar va dastur yozish orqali o‘z g‘oyalarini amalga oshiradilar. Bu, o‘z navbatida, yaratuvchanlikni va kreativ fikrlashni rivojlantiradi. O‘quvchilarga real dunyo muammolarini dastur yordamida hal qilish imkoniyati beriladi, bu esa ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

4. Texnologik savodxonlikni oshirish

Boshlang‘ich sinfda dasturlash o‘rganish o‘quvchilarga texnologiyalarga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Ular kompyuter dasturlarini yaratish, internet va boshqa axborot texnologiyalarini ishlatish ko‘nikmalarini egallaydilar. Bu ularni kelajakda texnologiyaga oid kasblar uchun tayyorlaydi.

Dasturlashni o‘rgatishning metodik yondashuvlari

1. Bosqichma-bosqich o‘rganish (Step-by-step learning)

Dasturlashni boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘rgatishda asosiy metodik yondashuvlaridan biri bosqichma-bosqich o‘rganishdir. Bu usulda o‘quvchilarga dasturlashning asosiy tushunchalari va algoritmlarini oddiy shaklda tushuntirish kerak. Har bir yangi tushuncha va mavzu o‘quvchilarga yengil va tushunarli tarzda taqdim etiladi. Masalan, o‘quvchilarga dastur yaratishda oddiy vazifalar bilan boshlash, masalan, "Hello World" dasturini yaratishdan keyin murakkab loyihalarga o‘tish tavsiya etiladi.

2. Interaktiv darslar

Dasturlashni o‘rgatishda interaktiv darslar o‘tkazish muhimdir. O‘quvchilarni amaliy ishlar va mashqlar bilan jalb qilish, ularning bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Dasturlashni o‘rganishda o‘quvchilar kompyuterda dastur yozishni o‘z qo‘llari bilan bajarishlari kerak. Darslarda o‘quvchilarga turli xil dasturiy ta'minotlar, vizual dasturlash muhiti (Scratch, Blockly, App Inventor) orqali o‘rgatish samarali bo‘ladi. Bu tizimlar o‘quvchilarga kod yozishni oddiy va qiziqarli tarzda o‘rgatadi.

3. Amaliy mashqlar va loyihalar

O‘quvchilarni dasturlashga qiziqtirishning eng yaxshi usullaridan biri ularni amaliy mashqlar va loyihalarga jalb qilishdir. Masalan, o‘quvchilarga o‘zlariga qiziqarli bo‘lgan kichik dasturlarni yaratish uchun loyiha topshiriqlari berilishi mumkin. Ular o‘z dasturlarini yaratib, natijalarni do‘stlari yoki o‘qituvchilari bilan baham ko‘rishadi. Bu o‘quvchilarning o‘zaro hamkorlikda ishlashga va o‘z fikrlarini ifodalashga yordam beradi.

4. Dasturlash muammolarini hal qilish

O‘quvchilarga dasturlashni o‘rgatishda ular bilan turli xil muammolarni hal qilish usulini ishlatish kerak. Bunda o‘quvchilar uchun qiziqarli va real hayotga oid masalalar tanlanadi. Masalan, matematik masalalar, grafikalar yaratish yoki oddiy o‘yinlar ishlab chiqish orqali o‘quvchilar o‘z ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Dasturlashni o‘rganishda foydalaniladigan vositalar

1. Scratch

Scratch – vizual dasturlash muhitidir, u boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun juda qulay. Scratch yordamida o‘quvchilar raqamli hikoyalar, o‘yinlar, animatsiyalar va boshqalarni yaratishlari mumkin. Bu tizim orqali o‘quvchilar dasturlashning asosiy tushunchalarini – tsikllar, shartlar, o‘zgaruvchilarni oson va intuitiv tarzda o‘rganadilar.

2. Blockly

Blockly – Google tomonidan ishlab chiqilgan vizual dasturlash muhiti bo‘lib, o‘quvchilarni kod yozishni o‘rganishda yordam beradi. O‘quvchilar bloklarni birlashtirish orqali dasturlarni yaratadilar. Bu tizim o‘quvchilarga dasturlash jarayonining murakkab tomonlarini osonlashtiradi.

3. Code.org

Code.org – onlayn platforma bo‘lib, dasturlashni o‘rgatish uchun turli xil darsliklar va interaktiv mashqlar taqdim etadi. Bu platforma o‘quvchilarga dasturlashni o‘rganish uchun qiziqarli va interaktiv usullarni taqdim etadi.

Xulosa

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini dasturlash ko‘nikmalari bilan tanishtirish ularning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, ijodiy yondashuvlarini oshirish va texnologiyalarni samarali qo‘llay olish imkoniyatini yaratadi. Dasturlashni o‘rgatish jarayonida metodik yondashuvlar, masalan, bosqichma-bosqich o‘rganish, interaktiv darslar va amaliy mashqlar orqali o‘quvchilarni jalb qilish samarali bo‘ladi. Dasturlash vositalari, masalan, Scratch, Blockly va Code.org kabi platformalar yordamida o‘quvchilarga dasturlashning asosiy tamoyillari o‘rgatiladi va ular haqiqiy dastur yaratish jarayonini boshlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirzayev B. "Axborot texnologiyalari va pedagogika", Toshkent, 2019.
2. Karimov I.A. "Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch", Toshkent, 2008.
3. Code.org (2023). "Interactive learning platform for programming." [online]. Available: https://www.code.org
4. Scratch Foundation (2020). "Scratch Programming for Beginners." [online]. Available: https://scratch.mit.edu

OILA, MAKTAB VA MAHALLA HAMKORLIGINING BOLA TARBIYASIDAGI O‘RNI

Raxmonova Shahlo,
Navoiy viloyati MMTB O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar bo‘limi bosh metodisti

Annotatsiya: Ushbu maqolada oila, maktab va mahalla o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning bola tarbiyasidagi ahamiyati, mazkur uch tomonlama munosabatning zamonaviy talablari, hamkorlikning shakllari, tarbiyadagi ijtimoiy mas’uliyat hamda sog‘lom avlodni voyaga yetkazishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, tarbiya tizimidagi muvofiqlikni ta’minlash bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kirish

Bola tarbiyasi – bu nafaqat oila, balki butun jamiyat zimmasidagi muqaddas burchdir. Shu boisdan ham sog‘lom, bilimli, tarbiyali avlodni voyaga yetkazishda **oila**, **maktab** va **mahalla** o‘rtasidagi uzviy hamkorlik hal qiluvchi omil sanaladi. Har bir institut o‘zining o‘rniga ega bo‘lib, ularning yagona tizim sifatida ishlashi tarbiyada muvofiqlik, barqarorlik va izchillikni ta’minlaydi.

1. Oila – birlamchi tarbiya maskani

Oila bola shaxsining ilk shakllanishiga asos bo‘ladi. Bola ilk saboqlarni aynan oilada oladi:

- Axloqiy me’yorlar;
- Nutq madaniyati;
Sifatli Tadqiqot: Boshlang‘ich intervyular 20 nafar o‘qituvchi va 30 nafar o‘quvchi bilan chuqur suhbatlar o‘tkazildi. Keyinchalik kuzatuv o‘tkaziladi. AI platformalaridan foydalanish jarayoni 3 oy davomida kuzatib borildi. Quyidagi usullar yordamida ma’lumotlar to‘plandi hamda tahlil o‘tkazish orqali ma’lumot olinib tahlil qilinadi.

Kirish-test: Dars boshlanishida o‘quvchilarning matematik bilim darajasi aniqlandi.

Yakuniy-test: 3 oylik tajribadan so‘ng AI platformalarining ta’siri o‘lchandi.

Standartlashtirilgan savollar orqali o‘quvchilarning algebra, geometriya va arifmetik masalalarni yechish qobiliyati baholandi. So‘ngra so‘rovnomalar orqali o‘quvchilarning AI vositalariga munosabati (5 ballik Likert shkali asosida). O‘qituvchilarning texnologiyalarni qo‘llash qobiliyati haqida fikrlari o‘rganib chiqiladi. Tadqiqotda quyidagi AI asosidagi dasturlar qo‘llanildi.

Photomath: Matematik masalalarni kamera orqali skanerlab, batafsil yechim berishorqali o‘quvchilar uy vazifalarini tekshirishda foydalandi.

Socratic (Google AI): Savollarga matn, ovoz yoki rasm orqali javob toppish orqali mavzuni mustaqil o‘rganishda yordam berdi.

DreamBox Learning: Adaptiv o‘yinlashtirilgan matematika kurslari tashkilash orqali boshlang‘ich sinflarda sonlar bilan ishlash ko‘nikmalarini oshirish.

ChatGPT-4: Mantiqiy masalalarni tushuntirish va misollar yaratish orqali murakkab mavzularni tushuntirishda yordamchi sifatida.

Yig‘ilgan ma’lumotlar quyidagi usullar yordamida tahlil qilindi: T-test: Eksperimental va kontrol guruhlarning o‘rtacha ballari farqi aniqlandi. Korrelyatsiya tahlili: AI dan foydalanish va bilim darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘lchandi. Kontent-tahlil: Intervyu javoblari guruhlangan va mavzular bo‘yicha kodlangan. Pedagogik AI modeli-O‘qituvchi-AI hamkorligini o‘rganish. Xalqaro tajriba-AQSh, Singapur va Janubiy Koreyada qo‘llanilgan AI platformalari bilan solishtirish.

Tahlil qilishda quyidagi cheklovlar va qiyinchiliklarga uchrash mumkin bo‘ladi bular. Internetga kirish imkoniyati-Ba’zi o‘quvchilarning uyida stabil internet yo‘qligi. O‘qituvchilarning texnik tayyorgarligi-Ba’zi pedagoglar AI dan foydalanishda qiyinchiliklar duch kelishdi. Ushbu metodologiya matematika ta’limida AI platformalarining ta’sirini aniq va ilmiy asoslangan baholashga imkon beradi.

Natijalar: Ushbu bo‘limda matematika darslarida sun’iy intellekt platformalaridan foydalanish natijalarida olingan asosiy ma’lumotlar va ularning statistik tahlillari taqdim etiladi. Tadqiqot davomida eksperimental va kontrol guruhlarining boshlang‘ich va yakuniy bilim darajalari, shuningdek o‘quvchilar va o‘qituvchilarning platformalarga munosabati haqidagi so‘rov natijalari tahlil qilindi. Eksperimental guruhda AI platformalaridan foydalanish natijasida quyidagi natijalar qayd etildi:

Boshlang‘ich testda eksperimental guruhning o‘rtacha balli 62.3±8.7, kontrol guruhida esa 61.8±9.1 edi. 3 oylik tajribadan so‘ng eksperimental guruhning o‘rtacha balli 78.5±7.2 ga ko‘tarildi, kontrol guruhida esa faqat 67.4±8.3 ball qayd etildi. Mavzular bo‘yicha yutuqlar. Algebra masalalarini to‘g‘ri yechish darajasi 45% dan 72% ga oshdi. Geometrik masalalarni tushunish 38% dan 65% ga yetdi. Arifmetik amallar tezligi 1.8 baravar oshdi

So‘rov natijalari shuni ko‘rsatdiki, AI platformalaridan foydalangan o‘quvchilar. Darsga qiziqish darajasiga ko‘ra 82% o‘quvchilar matematikaga qiziqishlari oshganini bildirdi, 76% darsdan tashqarida platformalarda qo‘shimcha mashqlar bajarishni davom ettirdi, faqat 12% an’anaviy usullarni afzal ko‘rgan. Platformalarga moslashuv holatiga ko‘ra 68% o‘quvchilar birinchi haftada tizimga moslashgan. 22% ikkinchi haftada qulaylik his qilgan. 10% uch haftadan keyin ham muammolarga duch kelgan.

20 nafar o‘qituvchi bilan o‘tkazilgan intervyular natijalariga ko‘ra 75% o‘qituvchilar uy vazifalarini tekshirish vaqti 60% ga qisqaganini qayd etdi. Har bir darsga tayyorgarlik vaqti o‘rtacha 35 daqiqadan 20 daqiqaga tushdi. 65% o‘qituvchilar AI tizimlar individual yondashuvni amalga oshirishga yordam berganini ta’kidladi. 45% dastlab texnik qiyinchiliklarga duch kelgan, ammo 2 hafta ichida ularni bartaraf etgan.

Qo‘llanilgan turli AI vositalarining samaradorligi:

Platforma	Foydalanish qulayligi	Bilim o‘sishi (%)	O‘quvchilar qoniqishi
Photomath	4.2/5	18.3	4.0/5
Socratic	3.9/5	15.7	3.8/5
DreamBox	4.5/5	22.1	4.3/5
ChatGPT-4	3.7/5	12.5	3.5/5

SPSS dasturida o‘tkazilgan t-test natijalarilariga ko‘ra Eksperimental va kontrol guruhlarning yakuniy test ballari o‘rtasidagi farq statistik ahamiyatga ega ($p<0.01$). Algebra va geometriya natijalaridagi farq eng yuqori ahamiyatga ega ($p<0.005$).

O‘quvchilarning ijtimoiy statusi va AI dan foydalanish samaradorligi o‘rtasida muhim bog‘liqlik topilmadi (p>0.05).

Tadqiqot jarayonida quyidagi qo‘shimcha natijalar qayd etildi. AI platformalari bilan ishlagan o‘quvchilarning 89% mustaqil ishlash qobiliyati oshgan. 73% holatlarda ota-onalar bolalarning matematikaga bo‘lgan munosabatining yaxshilanganini qayd etishgan. Darslarda faol muhokamalar soni 40% ga oshgan Natijalar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt platformalari matematika ta’limida an’anaviy usullarga qaraganda sezilarli samara beradi. Bilim darajasining oshishi, motivatsiyaning kuchayishi va o‘qituvchilar ish yukining kamayishi kabi ijobiy o‘zgarishlar qayd etildi. Biroq, turli platformalarning samaradorligidagi farqlar ularni tanlashda individual yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa: Ushbu tadqiqot natijalari matematika ta‘limida sun‘iy intellekt (AI) platformalaridan foydalanishning samaradorligini aniq ko‘rsatib berdi. Natijalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, AI asosidagi yechimlar nafaqat o‘quvchilarning akademik yutuqlarini oshirishda, balki ularning motivatsiyasi, mustaqil ishlash qobiliyati va umumiy ta‘lim jarayoniga munosabatini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. Quyida ushbu natijalarning pedagogik jihatlari, amaliy oqibatlari va kelajakdagi tadqiqotlar uchun tavsiyalar muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, AI vositalari, xususan adaptiv o‘rganish platformalari (DreamBox, Khan Academy) va interaktiv yechim dasturlari (Photomath, Socratic), matematika darslarining samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

a) AI tizimlari har bir o‘quvchining bilim darajasi va zaif tomonlarini aniqlab, individual tarzda mashqlar taklif qiladi. Bu esa an‘anaviy sinfdagi "o‘rtacha" dars rejasiga qaraganda samaraliroqdir.

b) O‘qituvchilar AI yordamida testlarni tekshirish, progressni kuzatish va takroriy mashqlarni tuzish kabi vaqt talab qiluvchi jarayonlarni avtomatlashtirishlari mumkin.

c) Vizualizatsiya (GeoGebra) va interaktiv misollar (ChatGPT) murakkab matematik tushunchalarni soddaroq qilib beradi.

AI yordamida ta‘lim jarayonini shaxsiylashtirish, har bir o‘quvchiga uning darajasiga mos dastur taklif qilish imkonini beradi. Bu esa ta‘limda “hamma uchun bir xil” yondashuvdan uzoqlashishga olib keladi. Tadqiqot jarayonida quyidagi qiyinchiliklar aniqlandi. Internetga kirish imkoniyati bo‘lmagan o‘quvchilar (qishloq joylarda) AI platformalaridan to‘liq foydalana olmadi. Ba‘zi maktablarda kompyuter yoki planshetlar yetarli emas. O‘qituvchilarning bir qismi yangi texnologiyalarga o‘rganishda qiynaldi (ayniqsa, 50 yoshdan oshganlar). AI tizimlar ba‘zan noto‘g‘ri yechimlar berishi yoki tushuntirishlar yetarlicha aniq bo‘lmasligi mumkin. O‘quvchilarning bir qismi AI ga haddan tashvishiroq bog‘lanib qolishi, bu esa ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini pasaytirishi mumkin.

Natijalarga asoslanib, quyidagi takliflar keltirish mumkin: AI tizimlari o‘qituvchilarni almashtirishi kerak emas, balki ularga yordamchi vosita sifatida xizmat qilishi lozim. O‘qituvchilar uchun AI dan foydalanish bo‘yicha maxsus treninglar o‘tkazish kerak. AI platformalari faqat qo‘shimcha vosita sifatida ishlatilsin, asosiy vazifani o‘qituvchi bajarishi kerak. Darslarda AI bilan ishlash va an‘anaviy usullar (doskaga yechish, guruh muhokamalari) uyg‘unlashtirilsin. Uzoq muddatli ta‘sirni o‘rganish uchun 1-2 yillik kuzatuvlar o‘tkazish kerak. AI ning boshqa fanlarga (masalan, fizika, kimyo) ta‘siri ham tadqiq qilinishi mumkin. Ehtiyoji mavjud maktablarga texnika va internet yetkazib berish dasturlari ishlab chiqilishi kerak. Ota-onalar ham AI platformalaridan qanday foydalanishni bilishi lozim.

Matematika ta‘limida sun‘iy intellektdan foydalanish katta istiqbollarga ega, ammo bu jarayon tizimli, tartibli va o‘qituvchilar ishtirokisiz amalga oshirilmasligi kerak. AI platformalari ta‘lim sifatini oshirish uchun qimmatli vosita bo‘lishi mumkin, lekin ularning samaradorligi qanday qo‘llanishiga bog‘liq. Kelajakda bu sohada ko‘proq tajribalar o‘tkazib, yanada moslashuvchan va arzonroq yechimlar ishlab chiqish zarur. Texnologiya insonni almashtirishi kerak emas, uning salohiyatini oshirishi kerak. Matematika ta‘limida ham AI yordamida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash, masalalarni tahlil qilish va mustaqil yechim topish qobiliyatlarini rivojlantirish asosiy maqsad bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To‘xtaxo‘jayeva, M. (2021). Raqamli ta’lim texnologiyalari va ularning pedagogik samaradorligi. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti.
2. Xolmirzayev, B. (2019). Sun’iy intellekt asosida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tizimlari. Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti.
3. Abdullayeva, Sh. (2022). Matematika fanini o‘qitishda innovatsion usullar. Samarqand: “SamDU” nashriyoti.
4. Luckin, R. (2018). Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century. London: UCL Institute of Education Press.
5. Baker, R.S. & Inventado, P.S. (2014). Educational Data Mining and Learning Analytics. New York: Springer.
6. Koedinger, K.R. et al. (2012). “Learning Factors Transfer Analysis: Using Learning Curve Analysis to Automatically Generate Domain Models”. Proceedings of the 2nd International Conference on Learning Analytics and Knowledge (LAK '12).
7. Woolf, B.P. (2010). Building Intelligent Interactive Tutors: Student-Centered Strategies for Revolutionizing E-Learning. Morgan Kaufmann.
8. Selwyn, N. (2019). Should Robots Replace Teachers? AI and the Future of Education. Polity Press.
9. Popenici, S.A.D. & Kerr, S. (2017). “Exploring the Impact of Artificial Intelligence on Teaching and Learning in Higher Education”. Research and Practice in Technology Enhanced Learning, 12(1), 22.

VIZUALLASHTIRISH TEXNOLOGIYALARINING NAZARIY ASOSLARINI O‘RGANISH VA TA’LIM JARAYONIDA QO‘LLANILISHINING AFZALLIKLARI

Ramazonov I.R.,
NDU 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada axborot texnologiyalari fanlarini o‘qitishda vizuallashtirish texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari ko‘rib chiqiladi. Vizuallashtirish texnologiyalarining ta’lim samaradorligiga ta’siri, ularning afzalliklari va qo‘llash yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu texnologiyalarni pedagogik jarayonga integratsiya qilish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические основы использования технологий визуализации в преподавании предметов информационных технологий. Анализируется влияние технологий визуализации на эффективность обучения, их преимущества и области применения. Даны также рекомендации по интеграции данных технологий в педагогический процесс.

Annotation: This article examines the theoretical foundations of the use of visualization technologies in teaching information technology subjects. The impact of visualization technologies on educational effectiveness, their advantages and areas of application are analyzed. Recommendations are also given for the integration of these technologies into the pedagogical process.

Kalit so‘zlar: vizuallashtirish texnologiyalari, ta’lim samaradorligi, didaktik vositalar, innovatsion metodlar, o‘quv jarayoni.

Mamlakatimizda olib borilayotgan oliy ta’lim tizimidagi islohotlarning huquqiy bazasi yildan yilga mustahkamlanib bormoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi farmonida talaba-yoshlar ta’lim tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish kerakligi ta‟kidlanilgan[1]. Hozirgi axborotlashgan jamiyatda ma’lumotlarning almashinishi jadal ravishda sezilarli darajada oshdi hamda o‘quv materialini vizual texnologiya asosida taqdim etishning yangi metodlari yaratildi. Axborot texnologiyalarini jadal ravishda rivojlanishi, yangi vizual texnologiyalarni shakllantirish o‘qituvchilar faoliyatiga alohida talablar qo‘yadi. Jadal rivojlanib borayotgan jamiyatning turli tipdagi ma’lumotlarga boyligi o‘quv materialini talabalarga taqdim etishdan oldin ularni maxsus qayta ishlashni nazarda tutadi. Vizuallashtirish (ya’ni namoyish etish)dan to‘g‘ri foydalanishni ko‘rib chiqib atrofdagi olamni beshta sezgi a’zolarimiz orqali (ko‘z, quloq, xid bilish, ta’m bilish, paypaslash, ushlab ko‘rish) orqali idrok qilamiz[1]. Ma’lumki, idrok qilishda hammadan ko‘proq ko‘z asosiy rol o‘ynaydi. Agar inson bu sezgi a’zolariga ega bo‘lmay qolsa, idrok qilish imkoniyati cheklanadi. O‘z-o‘zidan ma‟lumki, odamlar o‘rtasidagi muloqotda va o‘qishni tashkil etishda bu narsani hisobga olish zarur. Ma’lumot yoki o‘quv materiali doimo shunday taqdim etilishi kerakki, u vizual idrok etish qobiliyatini osonlashtirsin, bu esa ko‘z bilan nimanidir ko‘rsatish keraklagini bildiradi[1]. Vizuallashtirish usullari ko‘rsatmali tasavvur vositasi ham hisoblanadi. O‘quv materialini vizual texnologiya asosida taqdim etish didaktik vositalarni takomillashtirishning eng muhim yo‘nalishi sifatida tan olingan. Multimedia - har xil turdagi ma’lumotlarni taqdim etishning turli vositalaridan bir vaqtning o‘zida foydalanishga asoslangan zamonaviy axborot texnologiyalarining ajralmas qismi hisoblanadi. Multimedia o‘quv materialini vizual texnologiya asosida tatbiq etishning didaktik ahamiyati, avvalo, o‘qitishda ko‘rgazmalilik tamoyilini amalga oshirishda namoyon bo‘ladi. Hozirgi davrda o‘quv materialini vizual texnologiya asosida taqdim etish muammosini hal qilish sifat jihatidan axborotlashgan jamiyat talablari asosida amalga oshirilishi lozim.[3] Nafaqat o‘quv materialini aks ettiradigan, balki talabalarning aqliy va bilim faolligini yuksaltirishga yordam beradigan bunday didaktik ko‘rgazmalililik vositalardan foydalanish hozirgi davrda ta’lim jarayonining eng zaruriy talablaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitishda multimedia asosidagi ko‘rgazmali vositalarning interfaolligi talabalar va o‘qituvchilarga faol ta’sir o‘tkazish, o‘quv materiali taqdimotini boshqarish, ma’lumot qismlaridan foydalanish ketma ketligini aniqlash hamda mazmunli ma’lumotlarni o‘zgartirish, to‘ldirish yoki kamaytirish imkoniyatini beradi. Interfaollik ta’lim jarayoniningkognitiv xususiyatlarini yaxshilaydi, o‘yin va tadqiqot tarkibiy qismlarini o‘quv ishlariga kiritadi, talabalarni o‘rganilayotgan obyektlar hamda jarayonlarning xususiyatlarini har tomonlama tahlil qilishga undaydiamonaviy texnik vositalar bu axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o‘quv materialini vizual

texnologiyadan foydalangan holda namoyish etish imkoniyatini yaratishni nazarda tutadi. Hozirgi vaqtda zamonaviy axborot texnologiyalari asosida yaratilgan vizual o‘qitish vositalaridan foydalanish hanuzgacha ko‘plab o‘qituvchilarga muayyan pedagogik muammolar va o‘quv faoliyatini tashkil etish shakllantirish muammosini hal qilish uchun ko‘rgazmalililik vositalarni tanlash bilan bog‘liq qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. O‘quv materialini vizual texnologiyalar asosida o‘z kasbiy faoliyatida qo‘llaydigan mutaxassislar hamda o‘qituvchilar doimiy ravishda malakasini oshirishga muhtoj bo‘ladi[4].

Vizuallashtirish tasvirlanishi zarur bo‘lgan ob'yektning tasnifi (modeli) asosida bajariladi. Hozirgi paytda vizuallashtirish usullari va algoritmlari juda ko‘p bo‘lib, ular nimani va qanday qilib aks ettirish bilan bir-biridan farq qiladi.

Vizuallashtirishga misollar (murakkablashib borish tartibida) sifatida quyidagilami ko‘rsatish mumkin:

- funktsiyalar grafigi;
- diagrammalari;
- geografik xaritalar;
- animatsiyalar.[4]

Xulosa qilib aytganda, o‘quv jarayonlarida visual texnologiyalardan samarali tarzda foydalanish dars davomida o‘quvchi tushunishini osonlashtiradi va tasavvur olamini kengaytiradi. O‘qituvchilarimiz visual texnologiyalar ustida ko‘proq ishlab, dars jarayonlarida doimiy qo‘llab yurishsa, o‘quvchilarning darsni tushunishlari yanada osonlashib boraveradi. Ta’lim jarayonida vizuallashtirish texnologiyalaridan ko‘proq foydalanish natijasida bo‘sh o‘zlashtiruvchi va tushunishi qiyinroq o‘quvchilar uchun dars jarayoni yanada osonroq bo‘ladi va ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Z.S.Mansurova, N.J.Nazarova “Vizuallashtirish bilish jarayonini optimallashtirish vositasi sifatida”. “Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences” jurnali.
2. Shaynazarov Ravshan Mamayusubovich “Texnika ixtisosliklari talabalarida mutaxxassislik fanlarni o‘qitishda grafikli vizuallashtirish va 3d texnologiyalaridan foydalanish” Ilm-fan va texnologiyalar. 2023 №3(1)
3. Холмуродов Абдулхамид Эркинович, Эргашев Нуриддин Ғайратович, “Ўқув материалини визуал технологиялар асосида намойиш этишнинг ўзига хос аспектлари” “Замонавии таълим” илмий-амалий оммабоп журнали. 2020. №5 (90). 17 бет.
4. S.Q.Tursunov, LU.Nazarov “Ta’limda axborot texnologiyalari”. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun. T.: “Adabiyot uchqunlari” nashriyoti 2019, II-qism. 300 b

AXBOROT JAMIYATINING HOZIRGI ZAMON RIVOJLANISHI BOSQICHIDA TA’LIMNI RAQAMLASHTIRISH

Jurayeva L.K.,
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’limning axborotlashuvi, jamiyat rivojlanishining yangi bosqichi “raqamlashtirish”, raqamli ta’limni qurish, raqamli avlod hamda axborot jamiyatining hozirgi zamon rivojlanishi bosqichida ta’limni raqamlashtirish haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: axborot, texnologiya, axborot texnologiyalari, axborotlashtirish elektron ta’lim, raqamli texnologiyalar, raqamlashtirish, virtual, virtuallashtirish, virtual ta’lim, SMART, raqamli ta’lim, raqamli avlod, sun’iy intelekt.

Аннотация: В данной статье говорится об информатизации образования, новом этапе развития общества, «цифровизации», построении цифрового образования, цифровом поколении и цифровизации образования на современном этапе развития информационного общества.

Ключевые слова: информация, технология, информационные технологии, информатизация, электронное образование, цифровые технологии, оцифровка, виртуальный, виртуализация, виртуальное образование, SMART, цифровое образование, цифровое поколение, искусственный интеллект.

Annotation: This article talks about the informatization of education, a new stage in the development of society, “digitalization”, the construction of digital education, the digital generation and the digitalization of education at the present stage of the development of the information society.

Keywords: information, technology, information technology, informatization, e-education, digital technologies, digitization, virtual, virtualization, virtual education, SMART, digital education, digital generation, artificial intelligence.

Hozirgi zamon jamiyatida iqtisodiyotning kasbiy mobillikka ega bo‘lgan, o‘zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarda ishlay olishga qodir bo‘lgan malakali mutaxassislarga talab va ehtiyojlar ortib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi hukumatining “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyot” dasturiga muvofiq, ta’lim raqamli iqtisodiyoting rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratiladigan eng muhim institutlardan biri bo‘lib sanaladi. Mehnat bozori, ish beruvchilar, umuman butun raqamli iqtisodiyotning talablari bilan belgilanadigan zamonaviy mutaxassislarni o‘qitish sifatini oshirish vazifasi ustun bo‘lib turibdi.

Bugungi kunda ko‘plab olimlar tomonidan ta’limning axborotlashuvi bosqichining tugaganligi haqida fikrlar bildirilmoqda [3]. “Barcha bo‘g‘inlardagi ta’lim muassasalari kompyuter texnikasi bilan jihozlangan, pedagoglar o‘quv jarayonida AKT foydalanish bo‘yicha tayyorgarlikdan va qayta tayyorlash jarayonidan o‘tganlar” [4]. Hozirgi dunyo texnologiyalar rivojlanishining yangi darajasiga o‘tgan. Jamiyat rivojlanishining yangi bosqichi “raqamlashtirish” degan nomni olib, uni shu jumladan, zamonaviy trend va axborotlashtirish o‘rniga kelayotgan O‘zbekiston ta’lim tizimini modernizatsiyalashning ustivor yo‘nalishi deb ham nomlaydilar. Raqamlashtirish jarayoni o‘zida raqamli texnologiyalarning moddiy va ijtimoiy-gumanitar, shu jumladan, ta’limiy texnologiyalar hamda amaliyotlar bilan chuqur konvergensiyalanishini namoyon qiladi [3]. T.V. Nikulina va Y.B. Starichenkolarning fikriga ko‘ra, ta’limda raqamlashtirish o‘qitish jarayonining uzluksizligi (life long learning)ni, shuningdek, o‘z ichiga o‘qitishda katta hajmli ma’lumotlar (big data)dan, virtuallashtirishdan, virtual va to‘ldirilgan realliklardan (VR, AR), mobil texnologiyalarning bulutli hisoblashlari va boshqalardan foydalana oluvchi ilg‘or texnologiyalar (advanced learning technologies) asosida uning individuallashtirilishini ta’minlashga yo‘naltirilgandir. Ta’limda raqamli texnologiyalardan mahsuldor holda foydalanish, ta’lim oluvchilarning mustaqil izlanishlarga jalb qilinishi, axborotlarni tanlab olish, loyihalashtirish faoliyatida ishtirok etish bo‘lajak mutaxassislarda XXI asr kompetensiyalarini, shu jumladan, AKT kompetensiyalarini shakllantiradi.

“Raqamli kasbiy ta’lim va o‘qitishning didaktik konsepsiyasi loyihasi”da kasbiy ta’lim va o‘qitishdagi raqamli ta’lim jarayonini tuzishga ehtiyojni keltirib chiqaradigan

omillar ta’kidlab o‘tilgan. Mazkur omillar raqamli jamiyatning uchta tarkibiy qismlari o‘rtaga chiqadi:

– raqamli avlod (o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlarga ega bo‘lgan ta’lim oluvchilarning yangi avlodi; “Z avlodi”, “protsessor bolalari”, “planshetchi bolalar”, “chip-bolalar”);

– yangi raqamli texnologiyalar (“ilg‘or”, “aqlli”, “SMART”), ular raqamli muhitni shakllantiradilar va unda rivojlanadilar (masalan, telekommunikatsion texnologiyalar; big data; sun’iy intellekt; taqsimlangan reestr texnologiyalari (shu jumladan, blok-cheyn); buyumlar interneti; raqamli iz texnologiyasi; virtual va to‘ldirilgan reallik);

– raqamli iqtisodiyot va u yuzaga keltiradigan kadrlarga yangicha talablar [3].

Mazkur tendensiyalar kelgusida zamonaviy raqamli jamiyatdagi turmush va faoliyatga yosh avlodni tayyorlashlari kerak bo‘lgan bo‘lajak pedagoglarni o‘qitish uchun ayniqsa, o‘ta dolzarbdir.

Raqamli ta’limni qurish O‘zbekiston Respublikasining davlat siyosatidagi eng ahamiyatli ustuvorliklardan biri sifatida olib qaralib, bu O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF 158-son “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2020-yil 5-oktabr, PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston—2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi farmoni hamda **“**Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 14.10.2024 yildagi PQ-358 son qarori kabi hujjatlarda aks etgandir.

Bo‘lajak pedagog hozirgi zamon sharoitlarida o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirishda kompyuter vositalari va raqamli texnologiyalarning butun bir jamlanmasidan va turli xil ko‘rinishlaridan motivatsiyalangan holda foydalanishga tayyor bo‘lishi lozim bo‘lib, bu ta’limni modernizatsiyalash doirasidagi bir qator yangi loyihalar bilan shartlanadi. Hozirgi vaqtda innovatsion rivojlanishning poydevori sifatida informatika va AKT sohasidagi chuqur bilimlarni, ya’ni, bo‘lajak pedagogning AKT kompetentliligi shakllanishini belgilab beruvchi axborot-kommunikatsiya va raqamli texnologiyalarni qo‘llash bilan amaliy-yo‘naltirilgan tayyorgarlik asosida amalga oshirilishi lozimdir.

Ta’lim tashkilotidagi raqamli ta’lim jarayonini qurish pedagogika fanining yangi tarmog‘i – raqamli ta’lim muhitida o‘qitish jarayonini tashkil etish haqidagi ilmiy fan bo‘lib hisoblanadigan raqamli didaktikaga asoslanishi zarurdir. Raqamli didaktikaning predmeti bo‘lib raqamli ta’lim vositalarining amal qilishi emas, balki kishining faoliyati sanaladi. V.I.Blinov ta’kidlab o‘tganidek, “raqamli didaktika “ma’lum bir ilmiy g‘oyalar va yondashuvlarning bir sohadan ikkinchi sohaga o‘zaro olib o‘tilishi va ularning integratsiyalashuv” bilan tavsiflanadigan “ilmiy bilishning trans-integrativ sohasi sifatida olib qaralishi mumkindir” [3]. Kasbiy ta’lim va o‘qitishda raqamli didaktikaning predmeti bo‘lib “raqamli ta’lim muhitida tahsil olish jarayonini tashkil etish tizimi sifatida butun o‘qitish jarayonining olinishi” hisoblanadi, bunda u o‘z ichiga o‘qitish maqsadlarini (raqamli iqtisodiyot va raqamli jamiyat talablari bilan mos holda), o‘qitish mazmunini va uning shakllantirilishiga talablarni, o‘qitish jarayonini tashkil etish usullarini (raqamli texnologiyalarning imkoniyatlaridan foydalanish asosida), tashkiliy shakllarni, o‘qitish texnologiyasini va metodlarini (raqamli texnologiyalarning didaktik imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish), o‘qitish vositalarini (shu jumladan, raqamli – yagona intellektual majmuaga birlashtirilgan tarmoqli va dasturiy-apparatli), kasbiy ta’lim va o‘qitishdagi raqamli ta’lim jarayonining jamiyat va iqtisodiyot rivojlanishiga ta’sirini oladi.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonining ishtirokchilari bo'lib "raqamli avlod"ga mansub bo'lgan (1990-yillar oxiri - 2000-yillar boshlarida tug'ilganlar) ta'lim oluvchilar hisoblanadilar. Olimlar ta'kidlab o'tadilarki, mazkur avlod raqamli muhitda voyaga yetgan bo'lib, bu raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan shartlangandir. A.A. Verbiskiy ko'rsatib o'tadiki, "raqamli avlod" tushunchasi N.Xouv va V.Shtraus tomonidan ishlab chiqilgan avlodlar nazariyasi doirasida yuzaga kelgan. "Mazkur nazariyaga ko'ra, avlodlarning qadriyatlari turmush va bolani 12-14 yoshigacha tarbiyalash shart-sharoitlari ta'siri ostida yuzaga keladi, ular shaxsning shakllanishini belgilab beradi hamda kishilarning bir umrlik turmushiga, faoliyatiga va xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatadi". Olim raqamli avlod vakillarining bir qator o'ziga xosliklarini ajratib ko'rsatdi: "mobil telefonlar va kompyuterlar yordamida muloqot qilish; virtual muloqotning shaxsan yuzma-yuz muloqotdan ustunlik qilishi; axborotni anglash, qabul qilish tezligining o'si borishi, biroq, diqqatni bir narsada ushlab tura olishning qiyinlashuvi; fikrlash tarzi fragmentar (iqsmanlik) bilan, mulohaza yuritish esa yuzakilik bilan ajralib turadi; bolalar va o'smirlar hayotining "raqamli muhiti"da paydo bo'ladigan "klipli fikrlash"ning (inglizchada "to clip" – qirqish, uzish, bo'laklarga ajratish) mavjudligi" [4].

Shuningdek, olimlar ta'kidlab o'tadilarki, raqamli avlod vakillari bilan ishlash strategiyasi shundan kelib chiqishi lozimki, bunga ko'ra "ularni an'anaviy ta'lim jarayoniga integratsiyalash amalda mumkin emasdir. Shuning uchun ta'lim jarayonini raqamli avlod imkoniyatlariga qarab sezilarli ravishda transformatsiyalash zarur bo'lib, buning natijasida yangi, raqamli ta'lim jarayoni tuziladi".

Raqamli ta'lim jarayonini tuzishning o'ziga xosligi bo'lib raqamli texnologiyalarni joriy qilish va ulardan foydalanish hisoblanib, ularning ko'pchiligi quyidagi didaktik xossalarga ega bo'ladi: global tarmoqda har xil axborotlarni izlab topish erkinligi; personallilik (ta'lim oluvchilarning ehtiyojlariga va o'ziga xosliklariga mos ravishda personal sozlash uchun cheklanmagan imkoniyatlar); interfaollik (o'zaro o'quv harakatlari jarayonida ko'p subyektlilikning ta'minlanishi); multimediaviylik (axborotlarni qabul qilish-anglashning turli xildagi kanallarini majmuaviy ravishda harakatga keltirish); gipermatnlilik (matn bo'yicha erkin ko'chish, kesishma havolalardan foydalanish, axborotlarning ma'lumotnomalilik xususiyati va shu kabilar); submadaniyatlilik (raqamli avlod uchun odatiy bo'lgan dunyo qiyofasiga moslik).

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF 158-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi farmon.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston—2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6079-son farmon.
3. Проект дидакческой концепции цифрового профессиональнога образования и обучения/ В.И.Блинов, М.В.Дулинов, Э.Ю.Есенина, И.С.Сергейев.-Москва Перо, 2019-72 с.
4. Никулина Т.В. Информатизация и цифровизация образования: понятия, технологии управление/ Т.В. Никулина Э.Б.Стариченко. – Текст: непосредственний// Педагогическое образавание в России
5. Вербицкий А.А "Цифровое поколение": проблемы образования/ проблемы образования/ А.А Вербицкий –Текст: непосредственный// Профессионалъное образование. -2016

NISBAT TUSHUNCHASI ASOSIDA “GAZLI ICHIMLIKLARNI INSON SALOMATLIGIGA TA’SIRINI O‘RGANISH VA MATEMATIK TAHLIL QILISH”

Tojiyev G‘ayrat Nematovich,
Navoiy viloyati Pedagogik mahorat markazi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tinglovchilar nisbat tushunchasi asosida “Gazli ichimliklarni inson salomatligiga ta’sirini o‘rganish va matematik tahlil qilish, me’yorni aniqlash” bo‘yicha bir qancha ma’lumotlar bilan tanishishdir.Gazli ichimliklar iste’molining inson salomatligiga ta’sirini ko‘rib chiqishdir. Inson sog‘ligiga ko‘rsatilgan ta’sir matematik tahlil qilindi va gazli ichimliklar iste’moli me’yorlari aniqlandi.

Gazli ichimliklarning salomatlikka ta'sirini o‘rganishning **dolzarbligi** quyidagi sabablarini ko‘ramiz:

Sog‘liq muammolari: Gazli ichimliklar tarkibida yuqori miqdorda shakar, sun'iy qo‘shimchalar va gazlar mavjud bo‘lib, ular muntazam ravishda iste'mol qilinganida turli salomatlik muammolariga olib kelishi mumkin. Masalan, ortiqcha vazn, diabet, yurak-qon tomir kasalliklari va tishlar salomatligiga zarar yetkazilishi mumkin.

Sosial ta'sirlar: Gazli ichimliklarning ommaviy iste'mol qilinishi, ayniqsa yoshlar orasida, salomatlikka zararli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu boradagi ta’sirlarni o‘rganish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va jamiyatda sog‘liqni saqlash bo‘yicha yondoshuvlarni o‘zgartirish uchun zarur.

Iqtisodiy jihatlar: Gazli ichimliklar sanoati global miqyosda juda katta daromad keltiradi, ammo ular inson salomatligiga ta’siri nuqtai nazaridan iqtisodiy xarajatlarni ham oshiradi. Bu mavzu iqtisodiy jihatdan ham dolzarb, chunki sog‘liqni saqlash tizimlariga bo‘lgan bosimni oshiradi.

Dunyo bo‘ylab o‘rtacha umr uzunligi va salomatlikni yaxshilash: Sog‘lom turmush tarziga ko‘proq e’tibor qaratish va gazli ichimliklarning salomatlikka ta'sirini ilmiy ravishda o‘rganish orqali, jahon miqyosida salomatlikni yaxshilash va umr uzunligini oshirish mumkin.

Shu sababli, gazli ichimliklarning inson salomatligiga ta’sirini o‘rganish, uning sog‘liqka qanday salbiy ta'sirlar ko‘rsatishini tushunish va shu bilan birga, sog‘lom turmush tarzini ilgari surish juda muhim.

Gazli ichimliklar bugungi kunda hayotimizning ajralmas.bir qismi bo‘lib ulgurdi. Maktab yoshidan boshlab yoshi katta insonlar ham iste’mol qilishadi. Bu gazli ichimliklarning insonga salbiy va ijobiy tomonlari mavjud. Har bir oziq-ovqat me’yoridan ortiq iste’mol qilinganda insonda salbiy oqibatlarga olib keladi. Bizning tanamiz 80% suvdan iborat. Tanamizdagi ma'lum miqdordagi suvni saqlab qolish uchun biz har kuni suv iste'mol qilishimiz kerak. Ba'zilarimiz sharbatlar, choylar, kompotlar ichishni afzal ko‘rishadi. Ammo do‘konlarga kelganimizda, javonlarda biz tez-tez tanlagan gazlangan ichimliklarning xilma-xilligini ko‘ramiz chanqog‘ingizni qondirish uchun. Har bir inson yoshligidan gazlangan suv bilan tanish. Biroq, u nimadan iborat va inson tanasiga qanday ta’sir qilishini bilmaymiz. Amerikada ishlab chiqarilgan birinchi soda markalari: Coca-Cola, Fanta, Sprite, Pepsi-Cola. Rossiyada birinchi bo‘lib: Baykal, Buratino, Tarxun.Ichimliklar gazlangan suv mashinalaridan chiqarilgan shisha butilkalarda yoki butilkalarda sotilgan. Bunday gazlangan suv mashinalarini mamlakatimizning istalgan shahrining har bir qadamida topish mumkin.

Bu maqolada, nafaqat gazli ichimliklarning salomatlikka ta'sirini aniqlashga yordam beradi, balki sog‘lom turmush tarzini ilgari surish va odamlarning salomatligini yaxshilash uchun kerakli me'yorlarni ishlab chiqishga ham imkon beradi.

Nisbat tushunchasi

NISBAT-bu ikki yoki undan ortiq son yoki miqdorlarning o‘zaro bog‘lanishini ifodalovchi matematik tushuncha.

Nisbat yordamida ikki miqdor o‘rtasidagi nisbat, ulardagi farq yoki ularning bir-biriga nisbatan o‘lchamini ko‘rsatish mumkin. Ular ko‘pincha, turli o‘lchovlarni taqqoslash, resurslar orasidagi tengliklarni topish va foizlarni hisoblashda keng qo‘llaniladi.

Nisbatlar grafikda ham tasvirlanishi mumkin. Odatda, ikkita miqdor o‘rtasidagi nisbatni ko‘rsatish uchun diagrammalar, chizmalar yoki grafiklar ishlatiladi.

Gazli ichimliklarning inson salomatligiga ta’siri nisbatlar orqali aniqlanishi mumkin. Nisbat tahlili ichimlik tarkibidagi moddalar va ularning salomatlikka ta’sirini baholashda yordam beradi.

Gazli ichimliklarning inson salomatligiga ta`sirini o‘rganishda nisbat tushunchasi juda muhim rol o‘ynaydi. Nisbatlar yordamida gazli ichimliklarning iste‘moli va uning salomatlikka ta‘siri o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishni aniqlash mumkin.

Masalan: semizlikni o‘lchash uchun massasi va bo‘yi nisbatidan foydalanish, qondagi shakar darajasi va gazli ichimliklar o‘rtasidagi nisbatni aniqlash, shakar va kaloriyalar nisbatini tahlil qilish.

Nisbatlar yordamida gazli ichimliklarni iste‘mol qilishni cheklash yoki optimallashtirish mumkin. Bundan tashqari nisbatlar yordamida miqdorlarni aniq nazorat qilish orqali o‘zgarishlarni kuzatib borish mumkin.

Nisbatning ta'rifi:

Nisbat – bu ikkita sonning o‘zaro solishtirilishi yoki ularning miqdorlarining bir-biriga nisbati. Bu ikki sonning o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatadi. Nisbat, odatda, $a : b \; yoki \; a/b$ shaklida yoziladi, bunda:

$a -$ *birinchi son (miqdor),*

$b -$ *ikkinchi son (miqdor).*

Nisbatning matematik ifodasi:

Nisbat $(a : b), yoki \; a/b$ – bu **a** sonining **b** soniga bo‘linishidir.

Misol uchun: $4 : 2 = 2,$ bu degani 4 ni 2 ga bo‘lganda 2 hosil bo‘ladi.

Nisbatning turlari:

Oddiy nisbat: Bu ikki o‘lchov orasidagi oddiy bog‘lanishni ifodalaydi. Masalan, bir stakan suvga 2 choy qoshiq shakarni qo‘shish nisbatini $1 : 2$ deb yozish mumkin.

Foiz nisbat: Bu, bir sonning 100 ga bo‘lingan miqdoriga nisbatan hisoblanadi. Masalan, agar mahsulotning narxi 2000 so‘m bo‘lsa va 10% chegirma berilsa, chegirmaning miqdori 200 so‘m bo‘ladi.

To‘liq nisbat: Bu nisbatda barcha o‘zgaruvchilar bir-biriga ta'sir qiladi va ulardan har biri bir-biriga nisbatan ifodalanadi.

Nisbatni o‘rganishning qo‘llanilishi:

Fizika: Masalan, tezlik, kuch, energiya va boshqa fizik o‘lchovlar o‘rtasidagi nisbatlar.

Iqtisod: Narx va talab, ishlab chiqarish va xarajatlar o‘rtasidagi nisbatlar, qarz miqdori va foizlar.

Kundalik hayot: Ovqat tayyorlashda, aralashmalarni tayyorlashda nisbatlar ishlatiladi.

Misollar:

Gazli ichimliklar tarkibi: Gazli ichimliklarning shakar miqdori va kaloriyalari orasidagi nisbatni o‘rganish. Masalan, agar 1 stakan gazli ichimlikda 20 gramm shakar bo‘lsa va 100 kaloriyaga ega bo‘lsa, unda shakarning kaloriyaga nisbati $20:100$ yoki $1:5$ bo‘ladi.

Sog‘liqni saqlashda: Gazli ichimliklarning iste'moli va tana og‘irligi o‘rtasidagi nisbatni o‘rganish. Misol uchun, agar har kuni $500\ ml$ gazli ichimlik ichilsa, bu ortiqcha kaloriyalarni keltirib chiqarishi mumkin, bu esa tana vaznining oshishiga olib keladi. Bu nisbatni matematik tarzda tahlil qilish mumkin.

Nisbatni ishlatishning afzalliklari:

Oson solishtirish: Nisbatlar yordamida ikki miqdorni solishtirish va ularning o‘zaro bog‘lanishini aniqlash mumkin.

Matematik modellarni yaratish: Turli sohalarda, masalan, sog‘liqni saqlash, iqtisodiyot, biologiya va boshqalarda matematik modellar qurish uchun nisbatlar ishlatiladi.

Gazli ichimliklarning inson salomatligiga ta'sirini o‘rganishda **nisbatlar** mavzusining ahamiyati juda katta. Nisbatlar yordamida turli tarkibiy qismlarning (masalan, shakar, kaloriyalar, gazlar) o‘zaro munosabatlari va salomatlikka ta'siri matematik tarzda o‘rganilishi mumkin. Bu jarayon ilmiy yondashuvni ta’minlaydi va salomatlikni yaxshilash uchun aniq tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Quyida gazli ichimliklarning salomatlikka ta’sirini o‘rganishda nisbatlarning ahamiyati haqida batafsil ma'lumot keltirilgan.

1. **Gazli ichimliklarning tarkibini tahlil qilish**

Gazli ichimliklar tarkibida asosan shakar, gaz (karbonat angidrid), konservantlar va sun'iy qo‘shimchalar mavjud. Nisbatlar yordamida:

Shakar miqdorining gazli ichimlikdagi umumiy kaloriyalarga nisbati (masalan, 1 stakan ichimlikda $20\ gramm$ shakar bo‘lsa, bu 100 kaloriyaga teng bo‘lsa, shakar va kaloriyalar o‘rtasidagi nisbat $20:100\ yoki\ 1:5\ bo‘ladi$),

Kaloriya va vitaminlar o‘rtasidagi nisbatlarni aniqlash mumkin.

2. **Gazli ichimliklarning salomatlikka ta'sirini matematik tahlil qilish**

Gazli ichimliklarni iste'mol qilishning salomatlikka bo‘lgan ta'siri (masalan, semirish, diabet, yurak kasalliklari)ni o‘rganishda nisbatlar yordamida turli omillar o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlash mumkin. Masalan:

Shakar miqdori va **ortiqcha tana vazni** o‘rtasidagi nisbatni o‘rganish. Agar gazli ichimliklarda ko‘p shakar bo‘lsa, ularni muntazam iste'mol qilish organizmda ortiqcha kaloriyalarni yig‘ishga olib keladi, bu esa semirish va yurak-qon tomir kasalliklari xavfini oshiradi.

Kaloriya va mashq qilish darajasi o‘rtasidagi nisbatni tahlil qilish. Gazli ichimliklarning yuqori kaloriyali tarkibi va kam harakat qilish odati orasidagi nisbatlarni solishtirish orqali sog‘lom turmush tarzini saqlashga oid tavsiyalar ishlab chiqish mumkin.

3. **Salomatlikka zararli ta'sirlarni o‘rganish**

Gazli ichimliklarni o‘rganishda, nisbatlar yordamida iste’mol miqdorining sog‘liqka bo‘lgan ta’sirini matematik modellar yordamida o‘rganish mumkin. Misol uchun:

Shakar va diabet: Agar bir kishi har kuni gazli ichimliklarda ko‘p shakar iste'mol qilsa, bu uning organizmida insulinga qarshi turish qobiliyatini kamaytirishi va diabet xavfini oshirishi mumkin. Shakar miqdori va qon shakar darajasi o‘rtasidagi nisbatni o‘rganish orqali bu jarayonni yanada chuqurroq tushunish mumkin.

Gaz va yurak kasalliklari: Gazli ichimliklarda karbonat angidrid gazining miqdori ortib borishi yurak-qon tomir tizimiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Gaz va yurak salomatligi o‘rtasidagi nisbatni o‘rganish orqali bu salbiy ta'sirni aniqlash mumkin.

4. **Optimal meyorlar va tavsiyalar ishlab chiqish**

Gazli ichimliklarni iste’mol qilishning sog‘lom me’yorlarini belgilashda nisbatlar juda muhim rol o‘ynaydi. Misol uchun:

Har kuni qancha gazli ichimlik ichish mumkinligini belgilashda, shakar va kaloriyalarning odamning kunlik kaloriya ehtiyoji bilan nisbati hisobga olinadi. Bunda shakar va kaloriyalarni me'yorida saqlash orqali sog‘lom turmush tarzini ta'minlash mumkin.

Gazli ichimliklarni iste'mol qilishning maksimal miqdorini aniqlashda, shakar va kaloriyalarni o‘lchash va ularning salomatlikka ta'sirini tahlil qilish muhimdir.

5. **Gazli ichimliklar va yoshlar orasidagi bog‘lanishni o‘rganish**

Yoshlar o‘rtasida gazli ichimliklarni iste'mol qilishning o‘sishi va salomatlik muammolarining ko‘payishi o‘rtasidagi nisbatni o‘rganish ham muhim. Yoshlar orasida gazli ichimliklarning iste'moli va semirish, diabet, tish muammolari o‘rtasidagi bog‘lanishni matematik tahlil qilish orqali sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishga oid tavsiyalar berish mumkin.

6. **Sog‘liqni saqlashda iqtisodiy jihatlar**

Gazli ichimliklar sanoatining iqtisodiy jihatlari ham nisbatlar orqali o‘rganilishi mumkin. Gazli ichimliklarning salomatlikka ta'sirini tahlil qilish orqali:

Ularning iste'moliga sarflangan mablag‘ va sog‘liqni saqlash xarajatlari o‘rtasidagi nisbatni hisoblash mumkin.

Agar gazli ichimliklarning ortiqcha iste'moli salomatlikka zarar keltirsa, uni kamaytirish yoki sog‘lom alternativalarni taklif qilish orqali iqtisodiy xarajatlar kamaytirilishi mumkin.

Gazli ichimliklarning inson salomatligiga ta'sirini o‘rganishda **nisbatlar** mavzusining ahamiyati juda katta. Nisbatlar yordamida tarkibiy qismlar va salomatlikka ta’sir o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishlarni matematik tarzda aniqlash va tahlil qilish mumkin. Bu, gazli ichimliklar iste'molining sog‘lom me'yorlarini belgilash, salomatlikni yaxshilash va ijtimoiy sog‘lomlashtirish choralarini ishlab chiqish uchun zarurdir.

ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Хамидова Гулнара Юлдашбаевна,
Старший преподаватель кафедры «Методика преподавания языков»
БОЦПМ.

Аннотация. В статье говорится о цифровизации образовательного процесса-как о широком понятии. Оно включает не только дистанционное образование или работу учащихся с компьютером, как считают некоторые. Цифровизация подразумевает использование информационных технологий на всех уровнях: не только учебном, но и организационном.

Ключевые слова. массовое внедрение, период технологии. образовательный процесс, стремительное развитие.

Annotation. The article talks about the digitalization of the educational process as a broad concept. It includes not only distance education or students working with a computer, as some believe. Digitalization implies the use of information technology at all levels: not only educational, but also organizational.

Keywords. mass adoption, the period of technology. educational process, rapid development.

Узбекистан, как и многие страны мира, стремится к нормальному функционированию государственных и общественных институтов, созданию и укреплению политико-правовых, социально-экономических и научно-просветительских основ. Достичь желаемого можно только в том случае, если разрабатывать и проводить необходимые реформы будут образованные люди. Образование лежит в основе всего! Цифровизация поможет решить проблемы, которые имеются в этой сфере. Она способна снизить уровень бюрократии, сделать образование более качественным, доступным и творческим. Массовая цифровизация образования объясняется в первую очередь следованием за трендами развития общества. Цифровые технологии внедряются абсолютно в каждую сферу жизни: в экономику и финансы, здравоохранение, транспортное сообщение, культуру, сферу обслуживания. И образование не стало исключением. Это уже новая реальность, в которой мы живем. Растущую популярность информационных технологий легко объяснить тем, что они делают жизнь удобнее и проще. Конкретно в учебном процессе выделяют следующие преимущества ИТ: повышение вовлеченности, мотивации и интереса учащихся к учебному процессу; активизация самостоятельности и познавательной деятельности; наглядная и более занимательная подача материала; доступ к большим объемам информации, в том числе за пределами учебного курса; отсутствие бумажной волокиты для преподавателей; обратная связь, упрощение коммуникации между учащимися, преподавателями и родителями; использование дистанционных технологий и возможность обучаться из любой точки мира, где есть интернет-соединение; появление множества учебных онлайн-курсов. Кроме того, цифровые образовательные технологии помогают обеспечить индивидуальный подход к каждому ученику, учет его особенностей и познавательных способностей. Рассмотрим наиболее известные тренды, выделившиеся в последние годы в сфере образовательных технологий. Непрерывное обучение. Понятие пришло из английского языка – в нём оно называется lifelonglearning, буквально «обучение, которое длится всю жизнь». Что же это значит? Современный мир меняется стремительно. Каждый день совершаются новые открытия, появляются изобретения, новые технологии. Чтобы успевать за этими изменениями, человек должен учиться всю жизнь беспрерывно, постоянно приспосабливаться к меняющимся условиям, следить за трендами и решать, какие из них удержатся и наберут популярность, а какие скоро отойдут в прошлое. Выпускник, окончивший вуз, может уже лет через пять обнаружить, что его знания по специальности потеряли актуальность. И ему нужно обновлять и прокачивать навыки, чтобы остаться востребованным. В условиях стремительно нарастающей цифровизации общества главным трендом непрерывного обучения становится умение работать вместе с машинами: компьютерами, роботами, нанотехнологиями, искусственным интеллектом, включая нейронные сети. Роботы и ИИ заменят людей на многих рабочих местах, но всегда будут нужны люди, умеющие с ними взаимодействовать, обслуживать их и совершенствовать. И использование информационных

технологий в современных школах и вузах – это возможность получить хорошую базу в ИТ-сфере, заложить основу дальнейшего непрерывного обучения в этом направлении. Следующий тренд образования в условиях цифровизации – это онлайн-курсы. Представьте, что человек окончил вуз, получил специальность, но не может найти работу, потому что его знания теряют актуальность. При этом он хочет улучшить свои навыки и следовать за тенденциями рынка. Тут на помощь и приходят открытые онлайн-курсы как продолжение идеи непрерывного обучения. Не выходя из дома и в удобное время человек, может получить дополнительное образование в интересующей сфере. Следующий тренд цифровых технологий в области образования – адаптивное обучение. Каждый учащийся имеет особенности. Кто-то быстро усваивает знания, кто-то медленно. Одним проще воспринимать информацию на слух (аудиалы), другим – визуально (визуалы). Третьим больше подходит предметная деятельность (кинестетики). Но раньше учителя в школах или преподаватели в вузах не учитывали этих моментов: просто не было возможности подстроиться под каждого ученика. Информационные технологии решают и эту проблему. Они позволяют настроить учебный процесс так, чтобы он соответствовал индивидуальным особенностям учащегося, его когнитивным функциям и уровню подготовки. В частности, дистанционное обучение позволит получить образование как более одаренным детям, так и ученикам с ограниченными возможностями. А мультимедийные средства сделают учебный процесс проще и интереснее для детей с разными типами познавательной деятельности. Геймификация. Цифровые технологии – это еще и возможность сделать учебный процесс более занимательным, придав ему форму игры. Это и называется геймификацией (от англ. game – игра). Ее особенности: состязательность; различные уровни сложности; рейтинг достижений; подсчет очков; награды и призы; виртуальная валюта. Все эти приемы повысят эмоциональную вовлеченность учащихся, а стало быть – и мотивацию. Таким образом, в учебном процессе активно применяются информационные технологии. Они позволяют сделать обучение интереснее и нагляднее, вовлечь учащихся и развить их компьютерную грамотность. Каждый учащийся получает доступ к электронной образовательной среде на весь учебный период. Цифровая образовательная среда – это свидетельство того, что общество шагает в ногу со временем, следит за главными образовательными трендами и умело использует их в построении учебного процесса.

Список литературы

1. https://nuz.uz/2024/04/18/kak-czifrovizacziya-obrazovaniya-izmenila-shkoly-uzbekistana/
2. ЦИФРОВИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ. Текст научной статьи по специальности «Науки об образовании», Абдуллаханова Г., Алиматова Н.
3. Доклад Президента Шавката Мирзиёева на торжественном собрании, посвященном 26-летию принятия Конституции Республики Узбекистан.
https: //uzbekistan.lv.

OLIY TA'LIM FAOLIYATIDA ChatGPT (chatbot) PLATFORMASIDAN OQILONA FOYDALANISH

Elmurodova Parinoz Ravshan qizi,
NDU magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta`limda ChatGPT qo‘llanilishining turli jihatlari axloqiy me`yorlar, talabalarning bilim qobiliyatlari va tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish hamda boshqa sun'iy intellekt platformalaridan to‘g‘ri va oqilona foydalanish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: sun`iy intellekt, ChatGPT, OpenAI, ta'lim texnologiyasi, talabalarning o‘quv motivatsiyasi, kompetensiya.

Аннотация. В статье рассматриваются различные аспекты использования ChatGPT в высшем образовании, этические нормы, формирование познавательных навыков и исследовательских компетенций студентов, а также рекомендации по правильному и рациональному использованию других платформ искусственного интеллекта.

Ключевые слова: искусственный интеллект, ChatGPT, OpenAI, образовательная технология, учебная мотивация студентов, компетентность.

Abstract. This article discusses various aspects of the use of ChatGPT in higher education, ethical standards, the formation of students' cognitive skills and research competencies, and recommendations for the correct and rational use of other artificial intelligence platforms.

Keywords. artificial intelligence, ChatGPT, OpenAI, educational technology, student learning motivation, competence.

Dunyoning rivojlangan yetakchi oliy ta`lim muassasalari sun`iy intellekt texnologiyasini o‘z faoliyatining turli yo‘nalishlariga integratsiya qilishni allaqachon boshlab yubordi. Sun'iy intellekt texnologiyasi professor-o‘qituvchi va talabalarning chinakam ko‘makchisiga aylandi. Ular dars mashg‘ulotlari davomida bevosita sun`iy intellekt texnologiyasidan foydalanishni boshlashdi. Amaliyotda qo‘llashni boshlagan insonlar bu chatbotning tub ma`nosiga ham qiziqish bildirmoqda.

Ma`lumki, hali ishga tushirilganiga juda ko‘p vaqt bo‘lmagan bo‘lsa ham katta imkoniyatlarga ega ChatGPT (chatbot) platformasi qizg‘in muhokamalarga sabab bo‘lmoqda. ChatGPT (“Chat-ji-pi-ti”, inglizcha “Generative Pre-trained Transformer” so‘zidan “generative pre-trained transformer”) OpenAI tomonidan ishlab chiqilgan va tabiiy tillardagi so‘rovlarni qo‘llab-quvvatlovchi dialog rejimida ishlashga qodir bo‘lgan generativ sun`iy intellektga ega chatbotidir[1]. Ushbu platformadan talabalar oqilona foydalanmoqdalar. ChatGPT chatbotining imkoniyatlari juda ham keng bo‘lib, professor-o‘qituvchilar dars mashg‘ulotlari davomida yordamchi assistent sifatida foydalanishlari mumkin. Oliy ta`limda AI bo‘yicha nisbatan kam tadqiqot ishlari o‘qituvchilar tomonidan yozilgan, ya`ni pedagogika bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan maqolalar, pedagogika bilan bevosita shug‘ullanuvchilar, shuningdek, chatbotni amalga oshirishning madaniy va sotsiologik muammolari oliy ta'limda sun'iy intellektni joriy etishda ham mavjud, masalan, ta'lim istiqbollarini ko‘proq ko‘rish zarurati ushbu platforma bo‘yicha ish olib borayotgan o‘qituvchilar tomonidan hozirda ta'lim muassasalarida tadqiqot loyihalariga tobora qiziqish ortib bormoqda. Bu tendentsiya pandemiya karantin davrida paydo bo‘lib, pedagogik o‘qitishda yangi kommunikativ texnologiyalarni o‘rganish va o‘zlashtirish bilan bog‘liq holda sun`iy intellekt vositalari bilan ta`lim muassasalaridagi o‘qituvchilar tanishishni boshladilar.

AI (sun'iy intellekt) vositalari odatda quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- AI yordamida o'quvchilarni test qilish va so'roq qilish, tashkillashtirish interaktiv viktorinalar, so'rovlar, konferensiyalar tashkil etish;
- Multimedia elementlariga ega bo'lgan intellektual ta'lim tizimlari, ma'lumotlar tahliliga asoslangan ta'lim;
- o'quv jarayonini individuallashtirish va qayta aloqani ta'minlash, muammolarni tezda hal qilish uchun o'qituvchilarga talabalar tomonidan berilgan bahs-munozaralarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish;
- ta'limda virtual va to'ldirilgan reallik texnologiya platformalaridan foydalanish;
- avtomatlashtirilgan tarjima tizimlari;
- AI yordamida kontent yaratish, tabiiy tilni qayta ishlash tizimlari, grammatikani avtomatik tekshirish va tuzatish;
- matndagi grammatik, leksik va stilistik xatolarni avtomatik tekshirish va tuzatish;
- chatbotlar yordamida muloqotni yaxshilash, foydalanuvchilarni doimiy qo'llab-quvvatlash, so'rovlarga javob berish va boshqalar[2].

Birinchi navbatda til o'rganish bilan shug'ullanadigan tadqiqotchilar yozish, gapirish, tinglab tushunish, o'qish va lug'at ko'nikmalarini shakllantirish uchun sun'iy intellekt chatbotlaridan foydalanilmoqda. Oliy ta'limda sun'iy intellektdan foydalanish:

- tabiiy va intellektual tilni mashinada qayta ishlash tizimlari;
- chet tilida matn yozishda avtomatik qayta aloqa;
- kompyuter yordamida tarjima qilish;

Nafaqat oliy ta'lim tizimida balki boshqa tashkilotlarda foydalanayotgan insonlar ham ushbu platformadan to'g'ri va oqilona foydalanishlari kerak. Aks holda inson hayoti sog'ligi uchun zararli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Tajribalardan birida olimlar bir oy mobaynida ChatGPTdan foydalanuvchi 1000 ga yaqin kishini kuzatgan. Ularga har kuni kamida besh daqiqa davomida chatbotning matnli yoki ovozli versiyasi bilan muloqot qilish taklif etilgan. OpenAI va Massachusets texnologiya instituti tadqiqotchilari ChatGPT bilan muntazam muloqot qilish odamlar bilan kam suhbatlashishga va yolg'izlik hissini kuchaytirishga olib kelishi mumkinligini aniqladi. Natijalar quyidagicha bo'lgan:

– inson ChatGPTdan qanchalik ko'p foydalansa, unga shunchalik ko'proq bog'lanib qoladi;

– sun'iy intellektga bo'lgan ishonchning yuqoriligi yolg'izlik tuyg'usi va texnologiyaga qaramlikni keltirib chiqaradi;

– botning ovozi hissiy bog'liqlik darajasiga ta'sir ko'rsatmaydi.

2022-yilda ChatGPT ishga tushirilganidan beri generativ sun'iy intellektning ommaviyligi keskin oshdi. Dasturchilar muloqotni yanada tabiiyroq qiladigan ovozli funksiyalarni joriy etmoqda. Olimlarning fikricha, bu holat parasotsial aloqalarning shakllanishiga olib kelishi mumkin, bunda foydalanuvchi chatbotni jonli suhbatdosh sifatida qabul qiladi. Psixologlar sun'iy intellekt bilan muloqotning, ayniqsa yoshlar va ruhiy qiyinchiliklarni boshdan kechirayotgan shaxslarga ta'siri haqida xavotir bildirmoqda. OpenAI bu masalani o'rganishni davom ettirmoqda, biroq hozircha xulosa chiqarishga erta[3].

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, chatbot tomonidan taqdim etilayotgan ma'lumotlar har doim to'g'ri bo'lmasligi mumkin. Shu bois platforma taqdim etgan ma'lumotlarni bir karra tekshirib, boshqa manbalar bilan taqqoslab, filtrlash lozim bo'ladi. Aks holda, talabalarga noto'g'ri axborot taqdim etilishiga yo'l qo'yilishi mumkin. Kelajakda sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim jarayonlarining uzviy qismiga

aylanishi kutilmoqda. Bu esa ta’limni yangi bosqichga olib chiqadi va raqamli transformatsiyani tezlashtiradi. Sun’iy intellektning to‘g‘ri va maqsadga muvofiq qo‘llanilishi oliy ta’lim tizimida innovatsion rivojlanishning asosiy omili bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/ChatGPT
2. Geeks for Geeks. A computer science portal. [Электронный ресурс]. URL: https:// www.geeksforgeeks.org/
3. https://talimxabarlari.uz/25032/
4. Каменева Наталия Александровна, кандидат экономических наук, Московский международный университет (ММУ), Московский технический университет связи и информатики (МТУСИ), г. Москва, ORCID: https://orcid.org/0000-0002-4768-6383.
5. Oliy ta’lim muassasalari faoliyatiga sun’iy intellekt texnologiyasini joriy etish: metodik qo‘llanma/ M.Xurramov, K.Xalmuratova. – T.: “Yetakchi nashriyoti”, 2024.
6. Ивахненко Е.Н., Никольский В.С. ChatGPT в высшем образовании и науке: угроза или ценный ресурс? // Высшее образование в России. 2023. Т. 32. № 4. С. 9–22. DOI: 10.31992/0869 3617-2023-32-4-9-22

RAQAMLI TA’LIM PLATFORMALARINING ZAMONAVIY TA’LIM JARAYONIDAGI PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK OMILLARNI TAKOMILLASHTIRISH

Boltayeva Ikboloy Sherzod qizi,
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Anotatsiya. Zamonaviy ta’limda raqamli platformalarning ahamiyati ortib bormoqda, ularning samaradorligini oshirish uchun pedagogik va psixologik omillarni takomillashtirish zarur. Ushbu maqolada raqamli ta’lim platformalarida o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga ta’sir etuvchi asosiy pedagogik va psixologik omillar tahlil qilinadi. Shuningdek, platformalarning interfaolligi, motivatsiyani oshirish, individual yondashuv, kognitiv va emotsional qo‘llab-quvvatlash kabi jihatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari asosida raqamli ta’limni yanada samaraliroq tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim, pedagogik omillar, psixologik omillar, interfaollik, motivatsiya, individual yondashuv, kognitiv jarayonlar, emotsional qo‘llab-quvvatlash, o‘quv platformalari, ta’lim texnologiyalari, o‘rganish samaradorligi, o‘quvchi psixologiyasi, zamonaviy ta’lim.

Annotation. The importance of digital platforms in modern education is increasing, and to increase their effectiveness, it is necessary to improve pedagogical and psychological factors. This article analyzes the main pedagogical and psychological factors that affect the learning process of students on digital educational platforms. It also considers such aspects of platforms as interactivity, increasing motivation, individual approach, cognitive and emotional support. Based on the results of the study, recommendations are made for more effective organization of digital education.

Keywords: digital education, pedagogical factors, psychological factors, interactivity, motivation, individual approach, cognitive processes, emotional support, learning platforms, educational technologies, learning effectiveness, student psychology, modern education.

Kirish. Zamonaviy dunyoda texnologiyaning rivojlanishi bilan ta’lim sohasida ham katta o‘zgarishlar yuz bermoqda. Raqamli ta’lim platformalari - onlayn kurslar, virtual sinflar, interaktiv darsliklar va boshqa elektron resurslar - bugungi kunda bilim olishning eng qulay va samarali vositalaridan biriga aylangan. Pandemiyalar, geografik cheklovlar yoki shaxsiy sharoitlar tufayli an’anaviy ta’limdan foydalana olmayotganlar uchun raqamli platformalar yagona yechim bo‘lib qolmoqda. Biroq, ularning ahamiyati shunchaki mavjud bo‘lishi bilan cheklanmaydi, balki ta’lim sifatini yaxshilash, o‘quvchilarning qiziqishini oshirish va ularga individual yondashuvni ta’minlash kabi jihatlarda ham katta imkoniyatlar yaratadi.

Raqamli ta’lim platformalarining afzalliklarini ko‘rib chiqamiz.

1. Raqamli ta’lim platformalari foydalanuvchilarga istalgan vaqtda, istalgan joyda bilim olish imkoniyatini beradi. Bu xususiyat, ayniqsa, ishlayotgan talabalar, chet eldagi o‘quvchilar yoki nogironlikka ega bo‘lgan shaxslar uchun juda qimmatlidir. Masalan, Coursera, edX, Khan Academy kabi platformalar orqali dunyoning istalgan nuqtasidagi odamlar Harvard, MIT kabi nufuzli universitetlarning dasturlaridan bemalol foydalanishlari mumkin.

2. An’anaviy ta’limda sinfda o‘rtacha darajaga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun dars tayyorlash odatiy holdir. Raqamli platformalarda esa har bir o‘quvchi o‘z bilim darajasi, tezligi va qiziqishlariga moslashtirilgan dasturlardan foydalanishi mumkin. Bu esa o‘rganish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

3. Raqamli ta’lim vositalari matn, audio, video, animatsiya, interaktiv testlar va simulyatsiyalardan foydalangan holda murakkab mavzularni tushunarli qilib yetkazadi. Misol uchun, fizika yoki kimyo fanlaridagi abstrakt tushunchalarni 3D modellar yordamida tushuntirish o‘quvchilarning bilimlarni yaxshiroq o‘zlashtirishiga yordam beradi.

4. Raqamli platformalar orqali turli mamlakatlardagi o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida bilim almashish, loyihalarda hamkorlik qilish imkoniyati paydo bo‘ldi. Bu nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki madaniy almashuv va tillarni o‘rganish uchun ham qulay shart-sharoit yaratadi.

Shunga qaramay, raqamli ta’lim platformalarining keng tarqalishi bilan birga ba’zi muammolar ham mavjud. Birinchidan, Internetga kirish imkoniyati bo‘lmagan hududlarda yashovchilar uchun bu imkoniyatlar hali ham cheklangan. Ikkinchidan, ba’zi o‘quvchilar o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyatiga ega bo‘lmasligi tufayli platformalardan samarali foydalana olmaydi. Uchinchidan, raqamli ta’limda shaxsiy aloqaning yo‘qligi ba’zi o‘quvchilarda ijtimoiy izolyatsiya hissini uyg‘otishi mumkin. Bu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi choralar ko‘rilishi kerak: Infratuzilmani rivojlantirish – Internetga kirishni yanada ommalashtirish va qishloq hududlarida raqamli ta’lim resurslarini yetkazib berish. Psixologik qo‘llab-quvvatlash – O‘quvchilarga virtual muhitda moslashishga yordam beradigan mentorlik va muloqot platformalarini joriy etish. Gamifikatsiya va motivatsiya – O‘yinlashtirish elementlari, mukofot tizimlari va raqobatbardoshlikni rag‘batlantirish orqali o‘quvchilarning qiziqishini saqlab qolish.

Raqamli ta’lim platformalari zamonaviy ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirib, yangi imkoniyatlar va qiyinchiliklarni birga olib kelmoqda. Ulardan samarali foydalanish uchun nafaqat texnologik jihatdan, balki pedagogik va psixologik jihatdan ham yondashuvlarni takomillashtirish zarur. Kelajakda sun’iy intellekt, virtual reallik va katta ma’lumotlar tahlili kabi texnologiyalar bilan birlashtirilgan raqamli ta’lim tizimlari yanada shaxsiylashtirilgan va samarali ta’limni ta’minlaydi. Shunday qilib, raqamli

platformalar nafaqat ta’limni demokratlashtirish, balki har bir inson uchun bilim olishni qulay, qiziqarli va samarali qilish vositasi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Raqamli ta’lim platformalarida samarali o‘qitish metodlari. Raqamli ta’lim platformalarining rivojlanishi bilan birga pedagogikaning an’anaviy usullari ham yangi shakllarga moslashmoqda. Pedagogik omillar—bu o‘qitish metodlari, dasturlarning tuzilishi, o‘quv materiallarining sifatli taqdimoti va o‘quvchilarning faolligini oshirish kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi. Raqamli muhitda pedagogik jarayonni samarali tashkil etish uchun quyidagi omillarni takomillashtirish zarur:

Raqamli platformalarda interfaollik (foydalanuvchi bilan tizim o‘rtasidagi o‘zaro munosabat) muhim ahamiyatga ega. Yaxshi ishlab chiqilgan interfeys o‘quvchilarga materiallarni osongina tushunish va navigatsiya qilish imkoniyatini beradi. Buning uchun: Intuitiv dizayn – Platforma menyulari oddiy, tushunarli va moslashuvchan bo‘lishi kerak. Multimedia elementlari – Videolar, interaktiv grafikalar, virtual laboratoriyalar murakkab mavzularni tushunishni osonlashtiradi. Tezkor javob tizimi – O‘quvchilarning savollariga chatbotlar yoki onlayn maslahatchilar orqali darhol javob berish ularning qiziqishini saqlab qoladi. Misol uchun, Khan Academy platformasi videodarslar, amaliy mashqlar va progressni kuzatish imkoniyatlarini birlashtirib, yuqori darajadagi interfaollikni ta’minlaydi.

Har bir o‘quvchining bilim darajasi, o‘rganish tezligi va qiziqishlari farq qiladi. Raqamli platformalarda adaptiv ta’lim tizimlari yordamida har bir talabaga moslashtirilgan dasturlar yaratish mumkin. Bunga quyidagilar kiradi: AI asosidagi tavsiya tizimlari – Sun’iy intellekt orqali o‘quvchining kuchli va zaif tomonlari aniqlanib, shaxsiy o‘quv rejalari tuziladi. Diagnostik testlar – Boshlang‘ich testlar orqali o‘quvchining bilim darajasi aniqlanadi va unga mos dastur taklif etiladi. Progressni monitoring qilish – O‘quvchining rivojlanishini avtomatik kuzatib borish va kerak bo‘lganda metodikani o‘zgartirish. Misol uchun, Duolingo til o‘rganish platformasi har bir foydalanuvchining bilim darajasiga qarab mashqlarni murakkablashtirib boradi.

An’anaviy darsliklardan farqli o‘laroq, raqamli ta’limda faol o‘rganish (active learning) metodlari qo‘llash samaradorlikni oshiradi. Bunga quyidagilar kiradi: Gamifikatsiya (o‘yinlashtirish) – Ballar, medallar, reytinglar orqali o‘quvchilarni rag‘batlantirish. Interaktiv vazifalar – Muhokamalar forumlari, loyihalar, virtual guruh ishlari. Real hayotga tadbiq qilish – Case-studies (holatlar tadqiqoti) va simulyatsiyalar orqali amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish. Misol uchun, Codecademy platformasi dasturlashni o‘rgatishda foydalanuvchilarga kod yozishni darhol amaliyotda sinab ko‘rish imkoniyatini beradi.

Raqamli ta’limda o‘qituvchilarning roli an’anaviy sinfdagidan farq qiladi. Ular endi nafaqat bilim yetkazuvchi, balki moderator, mentor va motivator vazifasini bajarishi kerak. Buning uchun: Raqamli pedagogika bo‘yicha malaka oshirish – O‘qituvchilar uchun onlayn kurslar, treninglar tashkil etish. Virtual sinflarni samarali boshqarish – Zoom, Google Meet kabi platformalarda interaktiv darslarni qanday qilib qiziqarli o‘tkazish bo‘yicha ko‘rsatmalar. Teskari aloqa (feedback) tizimlari – O‘quvchilarning fikrlarini tez-tez so‘rab, dasturni takomillashtirish. Misol uchun, Coursera va edX kabi platformalar nafaqat talabalar, balki o‘qituvchilar uchun ham pedagogik kurslarni taklif etadi.

Raqamli ta’lim platformalaridagi materiallar ilmiy jihatdan to‘g‘ri, yangi va didaktik talablarga mos bo‘lishi kerak. Mazmunni muntazam yangilash – Fan sohasidagi yangiliklar platformaga tezda qo‘shilishi kerak. Modulli tuzilma – Mavzular bo‘limlarga ajratilib, bosqichma-bosqich o‘rganishni ta’minlash. Ko‘p tillilik – Turli tillarda ta’lim

resurslarini taklif qilish xalqaro auditoriyani jalb qiladi. Misol uchun, edX platformasi Harvard, MIT kabi universitetlar bilan hamkorlikda yangi kurslarni doimiy ravishda joriy qiladi.

Raqamli ta’lim platformalarida pedagogik omillarni takomillashtirish—bu nafaqat texnologiyani yaxshilash, balki o‘qitish metodlari, shaxsiylashtirilgan yondashuv va o‘quvchilarning psixologik ehtiyojlarini hisobga olishni talab qiladi. Kelajakda sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar tahlili va virtual reallik kabi texnologiyalar yordamida pedagogik jarayonlar yanada avtomatlashtirilib, har bir talaba uchun moslashtirilgan ta’lim tizimi yaratiladi. Raqamli pedagogikaning rivojlanishi ta’limni qulayroq, qiziqarliroq va samaraliroq qilish imkoniyatini beradi.

O‘quvchi motivatsiyasi va rivojlanishi. Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi bilan bir qatorda psixologik omillarni to‘g‘ri tushunish va ularni hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish ahamiyati ortib bormoqda. Raqamli muhitda o‘qitish nafaqat texnologik jihatdan, balki pedagogik-psixologik jihatdan ham yondashuvni talab qiladi. Ushbu maqolada biz raqamli ta’lim platformalarida o‘quvchilarning psixologik holatini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini qanday samarali tashkil etish mumkinligini tahlil qilamiz.

Raqamli ta’limda psixologik omillar deganda biz quyidagi aspektlarni nazarda tutamiz. Motivatsiya va rag‘batlantirish mexanizmlari; Kognitiv jarayonlar va o‘rganish uslublari; Emotsional holat va ruhiy salomatlik; Ijtimoiy moslashuv va kommunikatsiya qobiliyatlari; Shaxsiy xususiyatlar va individual farqlar. Har bir omil o‘z navbatida raqamli muhitda ta’lim olish samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Keling, ularni alohida-alohida ko‘rib chiqamiz. Raqamli ta’lim muhitida motivatsiyaning pasayishi eng ko‘p uchraydigan muammolardan biridir. An'anaviy sinf muhitidan farqli o‘laroq, virtual o‘rganishda o‘quvchilar o‘z-o‘zini boshqarish (self-discipline) va ichki rag‘batlantirishni (intrinsic motivation) ko‘proq talab qiladi.

Motivatsiyani oshirishning samarali usullari bular: Gamifikatsiya (o‘yinlashtirish) - Ballar, darajalar, mukofotlar, reytinglar kabi elementlar orqali raqobat ruhini rag‘batlantirish. Masalan, Duolingo til o‘rganish platformasi "kunlik streak" (ketma-ket kunlar) tizimi orqali foydalanuvchilarni muntazam ravishda platformaga kirishga undaydi. Aniq maqsadlar qo‘yish - Har bir dastur yoki modul uchun o‘lchanadigan natijalarni belgilash. SMART (Specific, Measurable, Achievable, Relevant, Time-bound) printsipiga amal qilish. Progressni ko‘rsatish - O‘quvchilarga ularning rivojlanishini vizual ravishda (grafiklar, foizlar) ko‘rsatish. Bu "kichik g‘alabalar" effektini yaratadi. Teskari aloqa (feedback) tizimi - O‘quvchilarning harakatlari darhol baholanadi va ularga qo‘shimcha motivatsiya beradi.

Raqamli ta’limda o‘quvchilar ko‘pincha haddan tashqari ma’lumotlar oqimiga duchor bo‘lishadi (information overload). Bu esa ularning diqqatini pasaytirishi va o‘rganish samaradorligini tushirishi mumkin. Modulli tuzilma - Murakkab mavzular kichik, oson qabul qilinadigan qismlarga bo‘linadi. Har bir modul 15-20 daqiqalik videodars, keyin qisqacha test. Multimedia qoidalariga amal qilish - Matn, audio va vizual materiallarni muvozanatlash. Mayerning multimedia o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, matn bilan birga tegishli rasmlar ishlatilganda o‘rganish samaradorligi 50% ga oshadi. Aktiv yodda olish usullari - Testlar, interaktiv mashqlar orqali bilimlarni mustahkamlash. Spaced repetition (interval takrorlash) usuli yordamida bilimlarning uzoq muddatli xotirada saqlanishini ta’minlash.

Raqamli ta’limda o‘quvchilar o‘zini izolyatsiya qilingan yoki qo‘llab-quvvatlanmayotgan his qilishi mumkin. Bu esa stress, tushkunlik yoki demotivatsiyaga

olib kelishi mumkin. Virtual hamjamiyatlar yaratish - Forumlar, muhokama guruhlari, mentorlik dasturlari orqali o‘quvchilar o‘rtasida bog‘lanishni rivojlantirish. Mentorlar bilan aloqa - Shaxsiy maslahat va qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash. Masalan, Coursera platformasida o‘quvchilar murabbiylarga murojaat qilishlari mumkin. Relaksatsiya va psixologik yordam resurslari - Meditatsiya darslari, stressni kamaytirish bo‘yicha materiallar. Ba’zi platformalar o‘quvchilar uchun psixologik yordam xizmatlarini taklif etadi.

An'anaviy ta’limda sinfdoshlar bilan shaxsiy aloqa o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Raqamli ta’limda bu jihatni qoplash uchun quyidagilar zarur. Guruh loyihalari va hamkorlik - Virtual jamoaviy ishlar, onlayn seminar va munozaralar. Masalan, FutureLearn platformasida o‘quvchilar mavzu bo‘yicha muhokamalarda qatnashib, bir-birlari bilan fikr almashishlari mumkin. Virtual sinflar va webinar - Zoom, Microsoft Teams kabi platformalarda jonli muloqat imkoniyatlarini yaratish. O‘yinlashtirilgan jamoa ishlari - Raqobatbardosh vazifalar orqali o‘zaro hamkorlikni rag‘batlantirish.

Har bir o‘quvchining o‘rganish uslubi, tezligi va psixologik xususiyatlari farq qiladi. Raqamli ta’lim platformalari buni hisobga olgan holda moslashuvchan bo‘lishi kerak. O‘rganish uslublarini tahlil qilish - Vizual, auditoriya yoki kinestetik o‘rganish uslublariga mos materiallar taklif etish. Masalan, vizual o‘quvchilar uchun infografikalar, auditoriya o‘quvchilar uchun podcastlar, kinestetik o‘quvchilar uchun interaktiv simulyatsiyalar. Individual rejalashtirish - O‘quvchiga o‘z tezligida o‘rganish imkoniyatini berish. Masalan, Khan Academy platformasi har bir foydalanuvchining progressini kuzatib, ularga shaxsiy tavsiyalar beradi. Tekshirish va adaptatsiya - Sun'iy intellekt yordamida o‘quvchining zaif tomonlarini aniqlab, mos dasturlar taklif qilish.

Raqamli ta’lim platformalarida psixologik omillarni hisobga olish - bu nafaqat o‘quv samaradorligini oshirish, balki o‘quvchilarning ruhiy salomatligi va uzoq muddatli motivatsiyasini saqlab qolish uchun ham muhimdir. Kelajakda sun'iy intellekt, katta ma’lumotlar tahlili va neyrofanlar yordamida har bir o‘quvchining hissiy holati, motivatsiyasi va kognitiv qobiliyatlarini aniqlab, ularga individual yondashuvni taklif qilish mumkin bo‘ladi. Ta’lim tizimlari inson psixologiyasini chuqurroq tushungan holda ishlab chiqilganda, raqamli ta’lim nafaqat qulay, balki insonparvarlik jihatidan ham samarali bo‘ladi. Psixologik jihatdan to‘g‘ri tuzilgan raqamli ta’lim platformalari o‘quvchilarga nafaqat bilim balki, ruhiy qoniqish ham bera oladi. O‘tgan yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, psixologik omillarni hisobga olgan ta’lim platformalari foydalanuvchilarning muvaffaqiyat darajasini 40% ga oshirishi mumkin. Shu sababli, zamonaviy ta’lim tizimlarini ishlab chiqishda nafaqat texnologik, balki psixologik jihatlarni ham chuqur o‘rganish va ularni amaliyotda qo‘llash ayniqsa muhimdir.

Xulosa: Raqamli ta’lim platformalarining samaradorligi faqat texnologik jihatdan emas, balki o‘quvchilarning psixologik holatini to‘g‘ri tushunish va unga moslashuvchan yondashuvni ishlab chiqishga bog‘liq. Ushbu tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, motivatsiya, kognitiv jarayonlar, emotsional qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy moslashuv va individual farqlarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan ta’lim tizimlari ancha samarali natijalarga erishadi.

Birinchi navbatda, o‘quvchilarning ichki va tashqi motivatsiyasini oshirish uchun gamifikatsiya, aniq maqsadlar qo‘yish va progressni vizual ko‘rsatish kabi usullar muhim ahamiyat kasb etadi. Misol uchun, Duolingo kabi platformalar o‘zining o‘yinlashtirilgan

interfeysi va rag‘batlantirish tizimi orqali foydalanuvchilarni uzluksiz o‘rganishga undaydi.

Ikkinchidan, kognitiv yuklarni optimallashtirish orqali o‘quvchilarning diqqatini saqlab qolish va bilimlarni yaxshiroq o‘zlashtirish imkoniyati yaratiladi. Buning uchun modulli tuzilma, multimedia qoidalariga rioya qilish va aktiv yodda olish usullaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Uchinchidan, raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarning emotsional holatiga e’tibor berish ularning ruhiy salomatligi va o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini saqlab qolish uchun zarur. Virtual hamjamiyatlar, mentorlik dasturlari va psixologik yordam resurslari bu borada muhim rol o‘ynaydi.

To‘rtinchidan, ijtimoiy moslashuvni ta’minlash uchun guruh loyihalari, virtual sinflar va o‘yinlashtirilgan jamoa ishlari kabi usullar qo‘llanilishi mumkin. Bu o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Nihoyat, har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda shaxsiylashtirilgan ta’lim dasturlarini ishlab chiqish samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Sun’iy intellekt va adaptiv o‘rganish tizimlari bu jarayonni yanada takomillashtirish imkoniyatini beradi. Xulosa qilib aytganda, raqamli ta’limning kelajagi psixologik jihatdan to‘g‘ri tuzilgan platformalarda yotadi. Texnologiya va psixologiyani uyg‘unlashtirgan holda ishlab chiqilgan ta’lim tizimlari nafaqat bilim bera oladi, balki o‘quvchilarga ruhiy qoniqish ham bag‘ishlaydi. Kelajakda ushbu sohada olib boriladigan tadqiqotlar va amaliy ishlar ta’lim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To‘rayev, H. (2021). Raqamli pedagogika: zamonaviy ta’lim texnologiyalari. Toshkent: «O‘qituvchi».
2. Karimova, N. (2022). Sun’iy intellekt va ta’lim: yangi imkoniyatlar. Toshkent: «Innovatsiya».
3. Yusupova, S. (2019). Gamifikatsiya – o‘rganishni qiziqarli qilish san’ati. Toshkent: «Ma’naviyat».
4. Otabekov, R. (2023). Virtual muhitda psixologik qo‘llab-quvvatlash. Toshkent: «O‘zbekiston».
6. Mayer, R. E. (2020). Multimedia Learning (3rd ed.). Cambridge University Press.
7. Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2017). Self-Determination Theory: Basic Psychological Needs in Motivation, Development, and Wellness. Guilford Press.
8. Deterding, S. (2015). The Gamification of Learning and Instruction. Wiley.

TEAM-WORKING EFFECTS ON SCHOOLCHILDREN‘S CRITICAL THINKING SKILLS

Fayzullaeva Gulchehra Sharipboevna,
Head of the Department of Pedagogy, Psychology, and Educational Technologies,
Center of Pedagogical Skills of Samarkand Region, Associate Professor (PhD)
Eshbekova G.Kh.,
Teacher of the Department of Pedagogy, Psychology, and Educational Technologies in the Center of Pedagogical Skills of Samarkand Region, Chirchik State Pedagogical University independent researcher

Annotation. This article is about team-working effects on schoolchildren's critical thinking skills.

Key words: education, teachers, games, involvement, team-building, teaching style

Introduction. Modern world requires high-qualified, educated, well-bred youth. We, human creatures, will never stop doing something for our betterments in the future. Thus, people are becoming stronger and stronger ever before due to having attempts to obtain higher positions and status among society. Certainly, it is up to an individual inborn character how far he/she may successfully achieve something with help or without any help which is given by school teachers. From the early stages of life children can often be involved in difficult situations causing a lot of trouble. If people do not collaborate, compete, or constantly make conversations they may not reach their goals. It could be accomplished through working in a team with a small or large group of people or they may do that alone to reach their ambitions.

Teachers‘ role here is indispensable because different students have different characters associated with particular personality traits. Therefore, with regard to these personalities classroom tasks and activities should be allocated aptly between pupils at the lessons. Some pupils definitely perform better on given tasks whereas many wish to accomplish the tasks with the help of group. Thus, both acts have positives and negatives. Looking at the positives of working in team at first, there are many best ways to sort out some cases and problems, if the exact task is assigned appropriately for everybody. First of all, creativity and productivity can be seen in the result of obtaining more viewpoints with the help of team-work where they develop brainstorming successfully. Moreover, complicated issues are also be solved quickly by team because it works better.

The students who suffer from stating personal viewpoints and making decisions in the fastest way it is just the right place for being in team environment. Some have fear to state or convey their ideas clearly and behave confidently when a lot of strange students are nearby. And this situation really helps them to overcome it. Yet, some are so vibrant and energetic that they are always involved in two or more working activities which means they have a great curiosity to go further and further. Later, both kinds of people see themselves on one position higher, indeed.

Working in a team ambience leads them to improve the skill which they lack in life. The skill like communicating would be definitely improved. Anyway, people have to be in a group in their lives. For example, while studying and working they must socialize and communicate with each other. In my opinion, such occasions assist a person to identify what sort of individual he/she is. People need experiences in order to grow and form personal characters or personalities, because even any person may not know his/her own potentials and being in a team helps to analyze them in some points. Let‘s look at further whether being with or without a group or team have benefits or downsides.

Methodology

In my opinion, all negative characters, manners, behaviors are lost totally or partly, or they are shifted into good ones while a pupil works in a team atmosphere in the long run. One of the reasons for losing or changing behavioral patterns is that adults tent to show their good sides not only young children, in order to be praised, respected. Another good cause for it is that a pupil who has a leader‘s attitude emerges among other group mates. Then, the conversations and communications flow smoothly between teachers and students which eventually contribute to the great achievement. Automatically, leaders emerge among others due to the observation the right speech skills to rule people.

Considering the disadvantages of working in a team is also enough. Some pupils stop thinking individually. Once they just admit or agree with the idea which is put

forward by the team members resulting in disappointment working in a group because of the feeling needless. Further and more importantly to suggest about disadvantages is that while working in a team one might become lazy at carrying out the team tasks or she/he might easily lean on someone who better performs and shows good results. This pupil never takes responsibility on completing the task, however, he/she researches any possible ways to leave it others to do it. For being such pupil in a part of the team is usually a cause for lessening the efficiency. Moreover, these kinds of students stop thinking creatively and positively.

Now let me talk about teachers‘ teaching styles how they force students to think critically. We all know the thinking style is vital for success in all subject areas, but everyday life as well. As for statistics (Academically Adrift, the book by R.Arum and J. Roksa), students made positively little progress in critical thinking ability during their formal education. The most essential thing to educate children is to direct them so that they could sort the true from the fake or biased ones in our mass informative world. The three activators that force student to think critically are speculating, criticizing and concluding from what they have learned and observed. Teacher should let them express their ideas freely. And they should not be criticized by teachers spontaneously, which is the first step to push them to think critically. While working in groups they discover that there is no one-way approach to solve a problem, but several ways. During the lesson teachers should explain something not telling them what is good or what is bad, they just let them to analyze it themselves. Everyday different lessons or lesson materials also enables to decide which ideas work well in different situations. This skill will be obtained by involvement in group activities when children are around their classmates working together, they get exposed to the thought processes of their peers. They learn how to understand how other people think. This allows them to become better problem solvers when presented with difficulty. In this way, the teacher‘s approach should be very creative here, whether a teacher should be an autocratic or laisser-faire is another controversial issue. From my point of view, it would be helpful when a teaching style is chosen aptly. Involving high control over students often leads to decline in creativeness. For example, students can compare and contrast their translations, answers for reading passages, writing conlusions to the given stories at English classes.

Discussion

Firstly, teachers should be intelligent enough in order to make improvements in children‘s future. Secondly, children are needed to be controlled by someone. Otherwise, they would do whatever they want, and of course, some conflicts may occur among them. Thus, team environment must be amiable so that they could achieve something. I think, a teacher should be someone, who is down-to-earth, analyst, predictable as well.

Games for working in a group not only make it harder to build a strong team, but it also adversely affects pupils engagement, happiness, and productivity. For example, teachers can use these games in class:

1)Who has done it?

Split your students up into groups (or pairs if you have a small company).Have each person write down something interesting they've done on a note card (e.g., skydiving, has always copied homework, has cheated at the exam, drank a gallon of milk in five minutes, pulled sb‘s legs—the sillier the better).Put the note cards into a hat, give it a nice shake, and have each person draw a note card they will then read aloud. The reader must then try to guess "who has done it" and why they came to that conclusion

2.The alphabet game

a) Pick a topic. Then get a learner to start with the letter ‗a' and see if they can think of a word for that topic that either starts with that letter, or contains it. Then the next learner has to think of a word for that topic starting with ‗b', and so on. See how far you can get in the alphabet before running out of words. A great game for building vocabulary, and particularly good for small classes as everyone will get multiple turns. Finding a word that starts with that letter offers more of a challenge, so you could always start with that and then if learners are struggling too much, switch to finding words that just contain that letter.

b)Pick a topic again, however, the group should be splitted up to several small ones. Thus while the first group starts with'' a'' for example, the next should continue retelling the story with the second letter in the alphabetical order. Though this game students will enhance vocabulary as well as thinking skill fast. Through competing the teacher may easily evaluate students' knowledge and capacities.

3) Gap fill in

Students are shown a picture, projected in the front of the room, if possible. At the top of their paper, students should write ―What is happening in this picture? At the bottom of the page, they should answer with what they believe is happening in the photo simply 1-2 sentences or according to their age/grade this activity is being done with. In the middle of the page students write down all of the steps they took to arrive at that answer. Students are encouraged to write down the evidence they see that supports their conclusion. This activity not only uses evidence, but supports cognition skills by asking what prior knowledge brought you to your

Conclusion

It is easy to suggest that improvements are evident when people are involved in team work. Everything what was unfamiliar previously, will get understandable for those who even never thought that great attainments are done by team work. Today's much information requires thinking critically, thus, teachers should collaborate together in focusing on important tasks, like educating youngsters. However, it simply adding something new to the lessons which helps students develop the skills needed to think critically about the world.

REFERENCES

1. Jack C Richards (2017). Jack C Richards' 50 tips for teacher development. Cambridge university press.
2. Jack C Richards (2015) Key issues in language teaching. Cambridge university press.
3. Jack C Richards, Charles Lockhart (1994) Reflective teaching in second language classrooms. Cambridge university press.
4. Karen Nelson, Debra Ivey, Sue Frederich "Team building activities" Southern district leadership team Fall 2002
5. Jamolov, J. (2012). Foreign language teaching methodology. Teacher.
6. https://study.com/academy/lesson/academically-adrift- Academically Adrift by Arum and Roksa

MILLIY TA'LIM TARAQQIYOTIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

Farmanova Malika Shuhrat qizi,
Navoiy davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Maqolada bulutli texnologiyalar,raqamli texnologiyalar,ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish,raqamli ta'lim texnologiyalar ta'lim tizimi

vositalari,raqamli ta’lim texnologiyalar ustunligi,Internet of Things,IOT,kengaytirilgan haqiqat(AR),virtual haqiqat haqida tushuncha bergan.

Kalit so‘zlar: bulutli texnologiyalar, raqamli texnologiyalar, ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish,raqamli ta’lim texnologiyalar ta’lim tizimi vositalari,raqamli ta’lim texnologiyalar ustunligi,Internet of Things,IOT,kengaytirilgan haqiqat(AR),virtual haqiqat.

Аннотация. В статье дается представление об облачных технологиях, цифровых технологиях, использовании цифровых технологий в образовании, цифровых технологиях образования, инструментах системы образования, превосходстве цифровых технологий образования, интернете вещей, IoT, дополненной реальности (AR), виртуальной реальности.

Ключевые слова: облачные технологии, цифровые технологии, использование цифровых технологий в образовании, цифровые технологии обучения, инструменты системы образования, превосходство цифровых образовательных технологий, интернет вещей, Интернет вещей, Интернет вещей, Интернет вещей, дополненная реальность (AR), виртуальная реальность.

Abstract. The article gives an insight into cloud technologies,digital technologies,use of digital technologies in education,digital education technology education system tools,digital education technology superiority,Internet of Things,IOT,Augmented reality (AR),virtual reality.

Keywords: cloud technology, digital technology, use of digital technology in education,digital learning technology education system tools,digital education technology superiority,Internet of Things,IOT,Augmented reality (AR),virtual reality.

Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Axborotlarni olish hamda ulardan foydalanish tezligi kundan kunga oshib bormoqda hamda hozirgi ta’lim tizimi sifatini oshirish faol yoshlarni yanada rivojlanishiga turtki bo‘lmoqda. Oldingi tizimda biroz vaqtimizni sarflab ma’ruzani yirik hajmli kitoblarni va qo‘llanmalardan foydalangamiz. Bu esa ta’lim sifatini yuqori darajada ko‘tarilmasligiga bir sabab edi.Bugungi kunda raqamlashtirilgan ta’lim jarayoni oldingi an’anaviy talim jarayonidan mutloq farqlidir. Ta’lim tizimining hozirgi holati noan’anaviy ta’lim texnologiyalarining roli ortib borayotgani bilan tavsiflanadi. Ta’lim oluvchi tomonidan ularning yordami bilan bilimlarni o‘zlashtirish an’anaviy texnologiyalarga qaraganda ancha tezdir . Ushbu texnologiyalar bilimlarni rivojlantirish, egallash va tarqatish xarakterini o‘zgartiradi, o‘rganilayotgan fanlarning mazmunini chuqurlashtirish va kengaytirish, uni tezda yangilash, samaraliroq o‘qitish usullarini qo‘llash, shuningdek, har bir kishi uchun ta’lim olish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytirish imkonini beradi.

Raqamli texnologiya o‘zi nima dega savolga javob beradigan bo‘lsam, bu – xo‘jalik yuritishning bir zamonaviy shakli bo‘lib. unda ishlab chiqarish va boshqarishning asosiy faktori sifatida raqamli ko‘rinishdagi katta ma’lumotlar majmui va ularni qayta ishlash jarayoni xizmat qiladi. Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar har bir sohada, jumladan, ta’lim sohasida ham jiddiy o‘zgarishlar kiritmoqda.

1. Raqamli ta’lim platformalari (masalan, Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams) o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasidagi muloqotni osonlashtiradi. Ushbu platformalar orqali ta’lim jarayonini rejalashtirish, dars materiallarini taqdim etish va talabalarning yutuqlarini nazorat qilish mumkin. Bu esa o‘qitishni qulay va interaktiv qiladi.

2. O‘yinlar va simulyatsiyalar

Ta’lim jarayonida o‘yin elementlarini qo‘llash orqali talabalar o‘quv materiallarini qiziqarli va oson tushunadigan shaklda qabul qiladilar. Simulyatsiyalar esa, talabalar real hayotdagi vaziyatlarni o‘rganish va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi. Masalan, muhandislik ta’limida simulyatsion dasturlar yordamida talabalarga turli inshootlarni yaratish va baholash imkoniyati beriladi.

3. Virtual va qo‘shilgan haqiqat

Virtual haqiqat (VR) va qo‘shilgan haqiqat (AR) texnologiyalari ta’lim jarayoniga yangi imkoniyatlar kiritmoqda. Bu texnologiyalar yordamida talabalar o‘qitilayotgan mavzularni ko‘zi bilan ko‘rishi, real hayotga yaqin muhitda o‘rganishi mumkin. Masalan, biologiya fanida talabalar inson organizmini yoki tabiatni o‘rganishda VR va AR texnologiyalaridan foydalanishlari mumkin.

4. Masofaviy ta’lim

Pandemiya davrida masofaviy ta’limning ahamiyati oshdi. Raqamli texnologiyalar yordamida o‘qituvchilar va talabalar masofadan dars o‘tish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Ushbu jarayon natijasida talabalar uchun yangi ta’lim shakllari va metodlari ishlab chiqildi, shuningdek, xalqaro ta’lim platformalariga kirish imkoniyati paydo bo‘ldi.

5. Ma’lumotlarni tahlil qilish

Raqamli texnologiyalar yordamida olingan ma’lumotlarni tahlil qilish o‘qituvchilarga talabalarning o‘rganish jarayonini yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Ushbu tahlillar ko‘rsatkichlar asosida ta’lim jarayonini targ‘ib qilish, bilimlarni mustahkamlash va o‘zgarishlar kiritishni osonlashtiradi.

Muhokama va natijalar

Raqamli texnologiyalarda foydalanish pedogoglar ishini osonlashtirishiga ham sabab bo‘la oldi.Bunda ta’lim jarayonida har xil multimedia, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi.

Demak, raqamli ta’limda:

• xohlagan joyida va xohlagan vaqtida ta’lim olish imkoniga ega;

• internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi;

• ta’lim tizimini yangi bosqichga ko‘taradi;

• vaqt va mablag‘ sarfini keskin kamaytiradi;

• “raqamli dunyo”da yo‘qolib qolmaslik va yaxshi ish topishda ustunliklarga ega bo‘lishi kabilardir.

Xulosa va takliflar

Yuqoridagi fikrlarimizdan kelib chiqib xulosa qilib aytish mumkinki, ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish, birinchidan, o‘qitishning samaradorligini taminlash, ikkinchidan, dars jarayonlariga oid turli ilyutratsiya, video roliklar, ko‘rgazmali qurollar, tarqatma materiallar tayyorlash, uchinchidan, professor-o‘qituvchi-pedagoglarning multimedia maxsulotlari, kompiyuter texnikasi, Internet vositalaridan foydalanish va ularni dars jarayonida qo‘llash malakalarini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi xulosalarimizdan kelib chiqib, birinchidan, professor-o‘qituvchilarni raqamli texnologiyalardan foydalanish malakalarini shakllantirishga qaratilgan uzluksiz metodik xizmat tizimini yaratish, ikkinchidan, raqamli texnologiyalardan oqilona va maqsadli foydalanish hamda ta’lim jarayoni ishtirokchilarining raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilayotgan darslarga moslashuvchalik qobiliyatini shakllantirish kabi zarur tavsiyalarga amal qilish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.M.Xolmuxammedov. “Professional ta’lim tizimini zamonaviy yondashuvlar asosida modernizatsiya qilish”. Uzluksiz ta’lim ilmiy-uslubiy jurnal. 2021. 6-son. 3-4-betlar.
2. Mirahmedova, Shohida (2023). Ma’naviy makonning falsafiy muammolari. SO‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 6(7), 135-137.
3. Mirahmedova, S. (2023). Ma’naviy makonga oid yondashuvlar. Ilm-fan va ta'lim, 1(7).
4. Mirahmedova, S. (2023). Harakatlar strategiyasi-O‘zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqich asosi hamda jamiyatdagi o‘zgarishlar. PEDAGOG, 6(5), 42-54
5. Mirahmedova, S. (2023). Mafkuraviy makon tushunchasining mazmun–mohiyati. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 180-182.
6. Mirahmedova, S. (2023). Ma’naviy makon: imkoniyat va istiqbollar. RESEARCH AND
7. www.ziyonet.uz.

MAKTAB INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDAN AMALIY MASHG‘ULOTLARNI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI(7-SINF MISOLIDA).

Fayzullayeva Muxlisa Odil qizi,
Navoiy davlat pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqola hozirgi vaqtda informatika fanining qanday rivojlanib borayotgani axborot telekommunikatsiya vositalarining o‘rni amaliy mashg‘ulotlarning zamonaviy ta’lim tizimiga uzviy bog‘liqliklari haqida tahlil qiladi.Maqolada shuningdek, 7- sinf informatika va axborot texnologiyalari faning maqsadi haqida ham aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy ta’limning dolzarb muammosi, o‘qituvchilarning ish vazifasi, geogebra, CAMBRIDGE UNIVERSITY PRESS loyihasi,uslubiy tizim, rivojlanish kontseptsiyasi uslubi.

Аннотация: В статье анализируется современное развитие информатики, роль информационно-телекоммуникационных средств, а также неотъемлемая роль практического обучения в современной системе образования. В статье также обсуждается цель предмета «Информатика и информационные технологии» в 7 классе.

Ключевые слова: Актуальные проблемы современного образования, производственные задачи учителей, геогебра, проект CAMBRIDGE UNIVERSITY PRESS, методическая система, метод концепции развития.

Annotation: This article analyzes how computer science is currently developing, the role of information and telecommunications tools, and the integral role of practical training in the modern education system. The article also discusses the purpose of the 7th grade computer science and information technology subject.

Key words: Current problems of modern education, teachers' work tasks, geogebra, CAMBRIDGE UNIVERSITY PRESS project, methodological system, development concept method.

Informatikadan amaliy mashg‘ulotlar metodik tizimini tashkil etish, ular ustida amaliy ishlarni olib borish bugungi kunda juda muhimdir. Bu talabalar o‘quvchilar va informatikani o‘rganayotgan yosh avlodga informatika sohasidagi bilim va ko‘nikmalarini o‘rganishda muhim bir qadamdir. Bu uchun, maxsus texnologiyalar asosida tashkil etish metodikalari keng tarqalganligi va o‘qituvchilar o‘rtasida hamkorlikni talab qiladi. Maxsus texnologiyalar asosida tashkil etish metodikalari, Internetda mavjud bo‘lgan onlayn resurslardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Bu

resurslar o‘quvchilarning informatikaga qiziquvchilarning bilim va ko‘nikmalarini yanada kengaytirib borishi mumkin bo‘ladi. Bundan tashqari, bu metodikalar talabalarning o‘quvchilarning bilimlarni amalda qo‘llash imkoniyatini ham yanada kengaytirib beradi. Boshqa amaliy mashg‘ulotlar metodikasi bilan solishtirganda, maxsus texnologiyalar asosida tashkil etish metodikalari o‘quvchi yoshlarni o‘z-o‘zini sinovdan o‘tkazib ko‘rishi uchun xavfsiz muhit yaratadi. Zamonaviy ta'limning dolzarb muammosi - informatikadan amaliy mashg‘ulotlarning metodik tizimini maxsus texnologiyalar asosida tashkil etishdir. Informatika fanining ta’limdagi o‘rni yuqori bo‘lganli sababli uni nazariy holda o‘rganish umuman olganda natija kam olishlikga olib keladi o‘z maqsadimizga kamroq erishamiz.Agar nazariyadan ko‘ra ko‘proq vaqtimizni amaliyotga sarflasak natija to‘la qonli bajarilishi mumkin. O‘quvchilar internetda o‘zlarining qiziqishlariga mos keladigan materiallarni,ko‘rgazmalarni izlashadi va bu ularning yaratuvchi ko‘nikmalarni yanada rivojlantirishi uchun ham ayni yuqorida keltirilgan talablar ya’ni internet vositalari,kompyuter brauzerlari bilan to‘liq ta’minlangan bo‘lish va internet tarmoqlariga ulangan yorug‘ o‘quv xonalari ularga mos bo‘lgan jihozlar bo‘lishi kerak bo‘ladi. Shuningdek, bu imkoniyatlarning barchasi yosh avlodni qiziqishlarini yuzaga chiqishiga imkon beradi . Shu bilan birga, maxsus texnologiyalar asosida tashkil etish metodikalari, o‘quvchilar uchun ishlab chiqilgan onlayn dasturlar,darslar va ilovalar orqali ham amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish imkonini beradi. Bunday imkoniyatlardan yosh avlod informatika sohasidagi bilim va ko‘nikmalarni yanada samarali o‘rganib, amalda qo‘llashga tayyorlanib kelishmoqda. Natijada, maxsus texnologiyalar asosida tashkil etish metodikalari informatika sohasidagi bilim va ko‘nikmalarini amalda qo‘llashni osonlashtiradi. Bu usul o‘quvchilarning motivatsiyasini yanada kengaytirib boradi informatika faniga qiziqishini oshiradi va ularning ma'lumotlarini tez va aniq miyasida saqlab qolishiga zamin yaratadi.Shuningdek, bu texnologiyalar talabalarning yaratuvchi hamkorlikni rivojlantirishiga va yangi texnologiyalarni zamon talabiga xos tarzda yaratishlari imkonini beradi.XXI axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ta’lim sifatiga qo‘yiladigan talablar ortib borayotgan sharoitda o‘quvchilarning va yosh avlodning informatika fanidan zarur kompetensiya va ko‘nikmalarni egallashiga imkon beruvchi zamonaviy uslubiy tizimlarni yaratish zarur.

XXI asr Globallashuv davrida texnalogiyalar asosida o‘qituvchi darsni o‘tar ekan u metodlarni darsning mazmuniga qarab har xil yo‘llar bilan qo‘llay olishi kerak.Ushbu ishdan maqsad maxsus texnalogiyalar asosida informatikadan amaliy mashg‘ulotlarni metodik tizimini tashkil etish metodikasini ishlab chiqishdan iborat.

O‘qituvchi ish vazifalarini quyidagicha belgilab olish mumkin.

1. Uslubiy tizim, amaliy ishlab chiqarish va informatika fanini ommaviy axborot vositalari orqali tahlili.
2. Rivojlanish kontseptsiyasi uslubi, tizimli, amaliy , ishlab chiqarish, axborotlarni maxsus jihozlarga asoslangan holda tahlil qilish.
3. Informatika fani uchun mazmun va tuzilmaning tavsifi, uslubiy, tizimli, amaliy, ishlab chiqarish, va axborot texnologiyalaridan foydalanishni tashkil etish.

Hozirgi vaqtda ma’lumotlar tez va aniq ko‘payib borayotganligi sababli ya’ni insonlarning ongi rivojlanib ko‘pgina ixtirolar qilayotganligi va ularga mos bo‘lgan texnalogiyalarning ko‘pligi uchun ayni vaqtlarda maktab ta’limida o‘quv qo‘llanmalarning soni ortib bormoqda. Misol sifatida 7-sinf informatika kitobini yangi tahririni oladigan bo‘lsak,7- sinf uchun mo‘ljallangan”Informatika va axborot texnologiyalari” darsligi CAMBRIDGE UNIVERSITY PRESS nashriyotining 2019-

yilda chop etilgan”ICT Starters:On Track” modullari axborot- kommunikatsiya texnologiyalari(AKT) bo‘yicha bilim ko‘nikmalarni egallashga yordam beradi.Qolaversa fanning keying bosqichlari uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi. 7-sinf uchun CAMBRIDGE UNIVERSITY PRESS loyihasi asosida tuzilgan yangi informatika kitobi haqida bir qancha fikrlarim bor.Umuman olganda, bu kitob informatika ta'limining zamonaviy tendentsiyalariga javob beradi va o‘quvchilarda informatika asoslarini shakllantirishga qaratilgan. CAMBRIDGE UNIVERSITY PRESS loyihasi asosida tuzilganligi sifat va metodik yondashuvning yuqori darajasini kafolatlaydi. Bu kitobning afzalliklari zamonaviyligi jihatidan kitobda qiziqarli texnologiyalar, rasmli tayyor ko‘rgazmalar, exsel, word, ma’lumotlar bazasi, glossariy va informatika tushunchalari aks etgan. Bu o‘quvchilarni raqamli dunyoga tayyorlashga ko‘pgina qiziqarli ma’lumotlardan xabardor bo‘lishga yordam beradi. Axborot texnologiyasi – bu aniq texnik dasturlar vositasining majmui bo‘lib ular yordamida biz ma’lumotlarni qayta ishlash bilan bog‘liq bo‘lgan hayotdagi turli – tuman masalalarni hal etamiz. Shu bilan birga darslik quyidagi materiallardan iborat.

Mashg‘ulotlar namunasi;

Ko‘nikmalarni shakllantirish uchun mashqlar;

O‘zlashtirishni tekshirish uchun yakuniy loyihalar;

Mustaqil bajarish uchun mashg‘ulotlar va topshiriqlar.

Shu o‘rinda kitobda nazariy va amaliy mashg‘ulotlarning o‘rni haqida gapirib o‘tsam. Kitob nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtiradi. Bu o‘quvchilarga olingan nazariy bilimlarni egallash, mustahkamlash va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi. Kitobning tili 7-sinf o‘quvchilari uchun tushunarli moslashtirilgan. Kitobda o‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otadigan va ularni mustaqil fikrlashga undaydigan turli xil topshiriqlar mavjud. Kitob CAMBRIDGE UNIVERSITY PRESS loyihasi asosida tuzilganligi sababli, u yuqori sifatli va metodik jihatdan puxta ishlangan. Kitobni o‘rganish nazariy bilimlarni egallash oson deb o‘layman chunki o‘quvchi bilimga ega bo‘lish uchun avval o‘qigan ma’lumotlarini amaliy talqin qilib ko‘rishi kerak shundagina nazariya bilan amaliyot uyg‘unlashadi.O‘quvchi o‘rganayotgan ma’lumotlarini tasavvurida o‘rganib uni hayotda qo;llay olsa bu uni katta yutug‘I bo‘ladi buning uchun 7-sinf kitobi ayni muddao. Kitobda berilgan har bir reja asosida ma’lumotlar bazasi berilgan va o‘quvchi uni amaliyotda qo‘llashi uchun amaliy topshiriqlar ham keltirilgan. Yanada ma’lumotlar aniq bo‘lishi uchun har bir qilinayotgan ish rasm holatiga keltirilib kitobda chop qilingan. Shu bilan birga bu kitob geogebra dasturi asosida ko‘rgazmalashtirilgan.Bu dasturdan foydalanishning asosiy sababi o‘quvchilarga o‘rganayotgan ma’lumotlarini rang tasvir orqali ifoda qilinishi deb o‘ylayman.

Kitob haqida va informatika fani o‘qituvchilariga yana qo‘shimcha tavsiyalarni bergan bo‘lardim:

• Kitobni mahalliy sharoitga moslashtirish uchun qo‘shimcha materiallar va resurslar ishlab chiqish kerak.

• O‘qituvchilar uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish va ularni zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashga o‘rgatish zarur.

• Maktablarni zarur kompyuter texnikasi va dasturiy ta'minot bilan ta'minlash kerak.

• O‘quvchilarning fikr-mulohazalarini inobatga olgan holda kitobni takomillashtirib borish lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak,yosh avlodni bilimli, salohiyatli qilib tarbiyalanishi uchun hozirgi axborot texnologiyalar asri juda ko‘p imkoniyatlarni yaratib berayapti

desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu o‘rinda 7-sinf uchun CAMBRIDGE UNIVERSITY PRESS loyihasi asosida tuzilgan yangi informatika kitobi informatika ta'limida muhim qadam bo‘lishi mumkin. Agar yuqoridagi tavsiyalar inobatga olinsa, kitob o‘quvchilarda informatika asoslarini shakllantirish va ularni raqamli dunyoga tayyorlashda katta rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amridinov S.A, Suyarshayev M.M Pedagogiy amaliyotga tavsiyalar. – Samarqand: SamDU nashri, 2009.-b.
2. Isoqov I, Qulmamatov S.I, Informatika O‘qitish jarayonida innovatsion texnologiyalar .O‘quv –uslubiy majmua .Guliston, 2014
3. M.T.Azimdjonova, M.T.Muradova, M.S.Pazilova. Informatika va axborot texnologiyalari.Toshkent-2013
4. M. Aripov, J. Muhammadiev. Informatika,informatsion texnologiyalar.(Xuquqshunoslik mutaxasisliklari uchun darslik) – T , 2004-y

TA’LIMDA TALABALARNING MOBIL ILOVALARDAN FOYDALANISH KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH

Abdinazarova Maftuna Asadullo qizi,
Navoiy davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim jarayonida talabalarning mobil ilovalardan foydalanish kompetentligini shakllantirish usullari tahlil qilinadi, ta’limdagi muvaffaqiyati uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar beriladi hamda ta’limni samarali va interaktiv usullardan foydalanib tashkil qilishda muhim vosita sifatida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Mobil ilovalar, kompetentlik, ta’lim texnologiyalari, interaktiv ta’lim, mustaqil ta’lim, bilim olish.

Аннотация. В статье анализируются методы формирования у студентов компетенций по использованию мобильных приложений в образовательном процессе, даются рекомендации, направленные на развитие у студентов навыков, необходимых для успешности обучения, и рассматриваются как важный инструмент организации обучения с использованием эффективных и интерактивных методов.

Ключевые слова: Мобильные приложения, квалифицированные, образовательные технологии, интерактивное обучение, самостоятельное обучение, заполнение форм.

Abstract. This article analyzes methods for developing students' competence in using mobile applications in the educational process, provides recommendations aimed at developing the skills necessary for students' educational success, and considers them as an important tool for organizing education using effective and interactive methods.

Keywords: Mobile applications, competence, educational technologies, interactive learning, independent learning, knowledge acquisition.

Kirish. Ta’limda talabalarning mobil ilovalardan foydalanish kompetentligini shakllantirish usullari mavzusi, ayniqsa zamonaviy ta’lim tizimida mobil texnologiyalarni qo‘llash va ularni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish masalalariga qaratilgan. Bu mavzuni o‘rganish, talabalar uchun mobil ilovalardan foydalanishning samarali yo‘llarini va metodlarini ishlab chiqishni anglatadi.

Mavzu tahlili. Mobil ilovalardan foydalanish bugungi kunda hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Ular turli sohalarda qulaylik yaratish, vaqtni tejash va kundalik faoliyatni samarali boshqarish uchun juda foydalidir.Zamonaviy ta'limda mobil ilovalar oliy ta'lim talabalari uchun juda muhim vositaga aylangan. Oliy ta'limda mobil ilovalardan foydalanish, talabalar uchun o‘qish jarayonini yanada samarali, qulay va interaktiv qilish imkonini beradi. Quyidagi jihatlar orqali mobil ilovalar oliy ta'lim talabalariga foyda keltiradi:

1. Masofaviy o‘qish va darslar

Mobil ilovalar, masofaviy ta’limni osonlashtiradi va talabalar uchun har joyda, har vaqtda darslarga qatnashish imkoniyatini yaratadi. Talabalar onlayn darslar, video leksiyalar, va seminarlar orqali ta’lim olishlari mumkin. Misol uchun, Coursera, EdX, Udemy kabi platformalar orqali talabalar o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha kurslar va sertifikatlar olishlari mumkin.

2. Bilimlarni takrorlash va mustahkamlash

Mobil ilovalar talabalar uchun bilimlarni takrorlash va mustahkamlash uchun qulay platformalar yaratadi. Quizlet, Anki, va Kahoot kabi ilovalar yordamida talabalar testlar va o‘yinlar orqali o‘zlashtirgan bilimlarini sinab ko‘rishlari mumkin. Bu, ayniqsa, imtihonlarga tayyorgarlik ko‘rishda samarali bo‘ladi.

3. Ishlab chiqarish va loyiha boshqaruvi

Oliy ta'lim talabalarining ko‘plab o‘quv dasturlari guruhli loyihalar va ilmiy tadqiqotlarni o‘z ichiga oladi. Mobil ilovalar yordamida talabalar o‘z loyihalarini samarali boshqarishlari mumkin. Trello, Asana, Notion kabi ilovalar guruh ishlarini tashkil etish, topshiriqlarni taqsimlash va vaqtni boshqarishda yordam beradi.

4. O‘quv materiallarini onlayn saqlash va baham ko‘rish

Mobil ilovalar yordamida talabalar o‘quv materiallarini onlayn saqlashlari va boshqa talabalar yoki o‘qituvchilar bilan baham ko‘rishlari mumkin. Google Drive, OneDrive, yoki Dropbox kabi ilovalar o‘quv materiallarini, ma'ruzalar, ilmiy maqolalar va boshqa resurslarni osonlik bilan saqlash va ulashish imkonini beradi.

Oliy ta'lim talabalarida mobil ilovalardan foydalanish kompetentligini rivojlantirish, ularning ta'lim jarayonida mobil texnologiyalarni samarali va maqsadli ravishda qo‘llay olishlarini ta'minlash uchun juda muhimdir. Mobil ilovalar va umumiy raqamli texnologiyalarni samarali ishlata olish uchun raqamli savodxonlikni rivojlantirish juda muhimdir. Bu, talabalarni internet xavfsizligi, axborot manbalarini baholash, ma'lumotni qayta ishlash va tahlil qilish kabi sohalarda bilim berishga qaratilgan darslar yoki kurslarni o‘z ichiga oladi. Oliy ta'lim talabalarida mobil ilovalardan foydalanish kompetentligini rivojlantirish - bu, faqat texnologiyalarni ishlata olish emas, balki ularni ta'lim va ilmiy faoliyatga integratsiya qilish, samarali boshqarish va professional rivojlanishda qo‘llash qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Talabalarni mobil ilovalar bilan faol ishlashga o‘rgatish, ularning raqamli savodxonligini oshirish va innovatsion fikrlashni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Ushbu usullarni qo‘llash orqali talabalar mobil ilovalarni samarali va maqsadli ravishda ishlatishni o‘rganadilar, bu esa ularning o‘qish jarayonida muvaffaqiyat qozonishlariga yordam beradi. Mobil ilovalarni ishlab chiqish bo‘yicha talabalar nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirishlari, balki amaliy mashg‘ulotlar, jamoaviy loyihalar, hackathonlar, mentorlik va zamonaviy texnologiyalarni o‘rganish orqali o‘z kompetentligini shakllantirishlari kerak. Shunday yondashuv orqali talabalar real dunyo talablariga javob beradigan dasturchilar bo‘lib yetishadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “The Mobile Learning Handbook” (Mobil o‘qitishning asosiy tamoyillari va amaliyoti) (Mualliflar:John Traxler va Agnes Kukulska-Hulme). Routledge (UK.), 2010.
2. “Axborot texnologiyalarini ta'limda qo‘llash” (Muallif: A. Tursunov).-T.,2015
3. “Ta’limda informatika va axborot texnologiyalaridan foydalanish” (Muallif: A. Shodiev).-T.,2013

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINING DARSLAR JARAYONLARIDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHI

Najmiddinova Gulnora Najmiddin qizi,
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining boshlang‘ich ta’lim jarayonlariga integratsiyasi, xususan, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining undan foydalanish ko‘nikmalari va imkoniyatlari tahlil qilinadi. Sun’iy intellekt vositalarining dars samaradorligini oshirishdagi roli, o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga mos yondashuv yaratishdagi afzalliklari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, o‘qituvchilarni tayyorlashda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish zarurati asoslanadi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, boshlang‘ich ta’lim, raqamli pedagogika, o‘qituvchi tayyorlash, innovatsion texnologiyalar.

Abstract. This article will analyze the integration of artificial intelligence (AI) technologies into primary education processes, in particular, the skills and capabilities of future primary education teachers to use it. The role of artificial intelligence tools in improving the effectiveness of the lesson is considered, its advantages in creating an approach that is appropriate for the individual needs of students. Also, the need for the formation of digital competencies in the training of teachers is justified.

Keywords: artificial intelligence, primary education, digital pedagogy, teacher training, innovative technologies.

Аннотация. В данной статье будет проанализирована интеграция технологий искусственного интеллекта (ИИ) в процессы начального образования, в частности, навыки и возможности их использования будущими учителями начального образования. Будет рассмотрена роль инструментов искусственного интеллекта в повышении эффективности урока, их преимущества в создании подхода, соответствующего индивидуальным потребностям учащихся. Также обосновывается необходимость формирования цифровых компетенций в обучении педагогов.

Ключевые слова: искусственный интеллект, начальное образование, цифровая педагогика, подготовка учителей, инновационные технологии

Kirish.

XXI asrda ta’lim tizimi raqamli transformatsiyaga yuz tutmoqda. Yangi texnologiyalar, xususan sun’iy intellekt (SI), o‘quv jarayonini individuallashtirish, avtomatlashtirish va samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutmoqda. Bu jarayonda boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari, ayniqsa bo‘lajak pedagoglar, asosiy rolni egallaydi. Ularning SI texnologiyalaridan foydalana olish salohiyati zamonaviy ta’lim sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

1. Sun’iy intellekt va ta’lim integratsiyasi

Sun’iy intellekt inson intellektiga xos funksiyalarni bajarishga qodir bo‘lgan algoritm va dasturiy ta’minotlar majmuasidir. Ta’lim tizimida SI yordamida:

• o‘quvchilar bilim darajasini real vaqt rejimida aniqlash,

• o‘quv materiallarini shaxsiylashtirish,
• o‘quvchilarning xatolarini tahlil qilish va to‘g‘ri yo‘naltirish,
• avtomatlashtirilgan test va topshiriqlar tuzish,
• ovozli yordamchilar orqali o‘quv jarayonini jonlantirish kabi imkoniyatlar mavjud.

2. Boshlang‘ich ta’limda SI imkoniyatlari

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun dars jarayonlari qiziqarli, interaktiv va bolalar psixologiyasiga mos bo‘lishi zarur. SI bu borada quyidagi afzalliklarni beradi:

• Adaptiv o‘quv tizimlari: o‘quvchi bilim darajasiga qarab moslashadi (masalan, Khan Academy Kids).
• Raqamli o‘yinlar orqali o‘rganish: bolalarda motivatsiyani oshiradi.
• Interaktiv ovozli yordamchilar: o‘quvchining savollariga javob beradi (masalan, Duolingo yoki Google Assistant).
• Ta’limiy chatbotlar: bolalar bilan muloqot qilib, til va nutq rivojiga yordam beradi.

3. Bo‘lajak o‘qituvchilarning SI kompetensiyasi

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari pedagogik bilim bilan birga texnologik savodxonlikka ham ega bo‘lishi zarur. Bu quyidagi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi:

• SI vositalaridan dars jarayonida foydalanish malakasi;
• metodik materiallarni raqamli tarzda loyihalash;
• o‘quvchilarning raqamli faolligini tahlil qilish;
• zamonaviy interaktiv platformalarda ishlash (Quizlet, Kahoot, ClassDojo va boshqalar).

4. Amaliy tajriba va tavsiyalar

Dunyo tajribasida SI yordamida boshlang‘ich ta’limni rivojlantirish bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlar mavjud:

• Finlyandiya: raqamli savodxonlikni maktab dasturiga kiritgan.
• Xitoy: yuzni aniqlash texnologiyasi orqali o‘quvchilarning emotsional ahvolini kuzatadi.
• Estoniya: SI vositalarini maktabgacha ta’limdan boshlab joriy qilmoqda.

O‘zbekiston sharoitida esa:

• pedagog kadrlarni tayyorlashda SI asoslari o‘rgatilishi,
• amaliy mashg‘ulotlarda SI platformalaridan foydalanish,
• innovatsion laboratoriyalar va SI resurs markazlari tashkil etish taklif etiladi.

Xulosa

Sun’iy intellekt texnologiyalarining boshlang‘ich ta’limda qo‘llanilishi o‘quv jarayonini innovatsion yondashuv asosida tashkil etishga imkon beradi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning SI vositalarini puxta egallashi ularning kasbiy tayyorgarligini zamonaviy talablar darajasida shakllantiradi. Ta’limda sun’iy intellektdan foydalanish — bu kelajak sari qo‘yilgan dadil qadamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. OECD (2019), Artificial Intelligence in Society, OECD Publishing, Paris, https://doi.org/10.1787/eedfee77-en.
2. Najmiddinova Gulnora Najmiddin qizi “Jamiyat va ta'limni rivojlantirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining roli”.“Oliy ta’limda innovatsiya va raqamli texnologiyalar muhitida o‘qitishning zamonaviy tendensiyalari: istiqbollar, muammolar va yechimlar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya,November,29,2024. https://doi.org/10.5281/zenodo.14305115.
3. Najmiddinova Gulnora Najmiddin qizi “Sun’iy intellekt Texnologiyalari va ularni ta’limda qanday qilib to‘g‘ri ishlatish kerak” Международной очно-заочной научно-

практической конференции. Актуальные проблемы современной татарский филологии, г Уфа, 22 - ноября 2024 г. 201-204 стр.
4.Najmiddinova Gulnora Najmiddin qizi "The Integration of Artificial Intelligence (AI) into education system".34-37 b. Tamaddun Nuri ,ISSN 2181-8258,12-son (63) Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal,12.12.2024. Doi: https://doi.org/10.69691/r1bx4f56
5.Nazarova Nurjahon Bakhodirovna "The role of Toponyms in the Onomastic field of the fairy tale" International journal of social science & Interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12 (06), 81-83, 2023.
6.Najmiddinova Mehrigul Najmiddin qizi "Linguoculturalogical features of proverbs on "hospitality" in English and Uzbek".74 b.Tamaddun nuri / The light of civilization ISSN 2181-8258 2024-yil, 10-son (61) Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal. DOI: https://jurnal.tamaddunnuri.uz/index.php/tnj/article/view/972.
7.Najmiddinova Mehrigul Najmiddin qizi, Furqatova Hokima Akobir qizi, Nabiyeva Dilso'z G'iyosiddin qizi. "Linguistic features of phraseological units with a common meaning "hospitality". Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.14259715. "Modern trends of teaching in the context of innovative and digital
technologies in higher education: prospects, problems and solutions" International scientific and practical conference, November 29, 2024.
8.Najmiddinova Mehrigul Najmiddin qizi "Linguocultural and linguopragmatic features of the concept of "hospitality" in English and Uzbek". SamDChti. International conference philology, methodology, translation studies: current issues of modern science. DOI: https://doi.org/10.2024/1xm0b673.
9.Najmiddinova M.N. Najmiddinova G.N. "Pedagogical mechanisms for improving student knowledge with the help of Artificial Intelligence" International journal of scientific researchers",www.wordlyknowledge.uz Volume: 2, Issue: 1, 2023.
10.Najmiddinova M.N, Najmiddinova S.N. "Ways to organize the activities of teachers in the process of distance Education" Asian Journal of Multidimensional Research, ISSN: 2278-4853 Vol. 11, Issue 5, May 2022.
11.Najmiddinova M.N. "Practical basis of the problem of teaching foreign languages in high education system" International Conference on Sustainable Development and Economics,June 24-25.
12.Najmiddinova N.G, "Перспективы использования искусственного интеллекта в образовательной сфере"- 30-33 betlar, Innovative Development in Educational Activities. ISSN: 2181-3523 ,openidea.uz.
13.Najmiddinova Gulnora Najmiddin qizi "Introduction of Artificial Intelligence (AI) in Secondary Education School System" Ilm sarchashmalari ilmiy-nazariy, metodik jurnal.144-147 betlar.1-son,Yanvar,2025-yil.
14.Nazarova Nurjahon Bakhodirovna "Olam lisoniy manzarasida mikrotoponimlarning o 'rni" //Международный журнал искусство слова. – 2023. – Т. 6. – №. 5.
15.Nurjahon N. "Epitetning badiiy matnda faollashuv o'rni //Prospects of development of science and education" journal. – 2023. – Т. 1. – №. 12.– С.7-9.

O‘YIN TEXNOLOGIYALARINING TA’LIM JARAYONIDAGI ROLI

Sulaymonova Zilola Sobirjon qizi,
Navoiy davlat universiteti magistri

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘yin texnologiyalarining ta’lim jarayonidagi o‘rni, ahamiyati va samaradorligi yoritiladi. O‘yin texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari va o‘quvchilarning bilish faolligiga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘yin texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish bo‘yicha tavsiyalar berilib, o‘yin elementlari ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilishi hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashishi muhimligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: o‘yin texnologiyalari, zamonaviy ta’lim, innovatsion pedagogika, interaktiv metodlar, bilish faolligi, raqamli vositalar.

Аннотация: В статье рассматриваются роль, значение и эффективность игровых технологий в образовательном процессе. Анализируются преимущества использования игровых технологий и их влияние на познавательную активность учащихся. Даны рекомендации по внедрению игровых технологий в образовательный процесс, обсуждается значение игровых элементов для повышения качества образования и их интеграция с современными педагогическими технологиями.

Ключевые слова:

Annotation: This article discusses the role, importance and effectiveness of game technologies in the educational process. The advantages of using game technologies and their impact on students' cognitive activity are analyzed. Recommendations are also given for the introduction of game technologies into the educational process, and the importance of game elements in improving the quality of education and their integration with modern pedagogical technologies is discussed.

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning darsdagi ishtirokini faollashtirish va ijodiy fikrlash salohiyatini rivojlantirishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish samarali vositalardan biri hisoblanadi. O‘yin texnologiyalari - bu pedagogik maqsadlarga yo‘naltirilgan o‘yin faoliyati bo‘lib, unda o‘quvchi o‘z bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlaydi, mustaqil fikrlashni o‘rganadi va yangi bilimlarni o‘zlashtirishda faol ishtirok etadi. O‘yinli ta’lim metodlari turli yosh guruhlari uchun mos bo‘lib, maktabgacha ta’limdan tortib oliy ta’limgacha bo‘lgan bosqichlarda qo‘llanilishi mumkin. O‘yin texnologiyalarining afzalliklari:

- bilish faolligini oshiradi;
- ijodiy fikrlashni rivojlantiradi;
- raqobat muhiti hosil qiladi;
- hamkorlikni kuchaytiradi;
- o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi.

O‘yin texnologiyalaridan foydalangan holda o‘tkazilgan darslar odatdagi an’anaviy darslarga nisbatan o‘quvchilarda ko‘proq ishtirok va qiziqish uyg‘otadi. Masalan, “Kim tez?”, “Sherigingni top”, “Testli musobaqa”, “Krossvord”, “Questions bloomball” kabi interaktiv metodlar orqali o‘quvchilarning e’tibori tortiladi va ular faol bilish jarayoniga jalb etiladi.

Yuqorida keltirilgan metodlardan “Questions bloomball” metodini ko‘rib chiqsak. Ushbu metodda savol-javob o‘yinining yangicha ko‘rinishi talqin etilgan. 12 ta bir xil doiralar ichiga mavzuga doir savollar kiritiladi (xohishga ko‘ra 1 tasini bonusli savol

tarzida kiritilsa yanada qiziqroq bo‘ladi) va doiralar besh tomonidan buklanib bir-biriga biriktiriladi. Biriktirish natijasida bizda savollar to‘pi ya’ni “Questions bloomball” hosil bo‘ladi. O‘quvchilar to‘pni aylantirib otib o‘zlariga tushgan topshiriqlarni bajaradilar. Yuqoridagi metodni turli fanlarda, darsning ixtiyoriy qismida va istalgan yoshdagi o‘quvchilar bilan o‘tkazish ulardagi qiziqish, faollik, xotira mustahkamligi va nutq madaniyatini yanada rivojlantiradi.

O‘yin texnologiyalarini ta’lim jarayonida tashkil etishda quyidagilarga alohida e’tibor qaratish lozim:

- o‘yin texnologiyalarini darsning maqsadi va mavzusiga mos ravishda tanlash zarur;
- har bir o‘yin elementi orqali o‘quvchining qanday kompetensiyasi rivojlanishini belgilab olish lozim;
- o‘yinlar orqali o‘rganilgan bilimlar amaliy hayot bilan bog‘lab borilishi kerak;
- o‘yin jarayonida barcha o‘quvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratilishi muhim
- darsning so‘nggida o‘yin natijalari tahlil qilinib, xulosalar chiqarilishi lozim.

O‘yin texnologiyalari konstruktivistik, interaktiv va muammoli ta’lim metodlari bilan yaxshi uyg‘unlashadi. Ular o‘quvchining shaxsiy tajribasiga tayanadi, fikrlashni talab qiladi va faol muhokama muhitini yaratadi. Zamonaviy raqamli vositalar o‘yin texnologiyalarini yanada samarali qilishga xizmat qilmoqda. Masalan:

- Kahoot, Quizizz, Wordwall, Baamboozle — test va viktorina asosida qurilgan o‘yin platformalari.
- Minecraft: Education Edition — informatika, tarix va geografiya darslarida foydalanish mumkin.
- Classcraft — RPG (role-playing game) elementlari asosida dars boshqaruvi.
- Scratch yoki Code.org — dasturlash asoslarini o‘yin tarzida o‘rgatish.

Ushbu platformalar orqali o‘quvchilar interaktiv tarzda dars jarayonida qatnashadilar, natijada ularning motivatsiyasi, faolligi va bilim olishdagi muvaffaqiyati ortadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘yin texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va o‘quv jarayonida faol ishtirok etishlariga yordam beradi. O‘qitish jarayonida motivatsiyani oshiradi, bilimlarni amaliyotga tatbiq qilish imkonini yaratadi, o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish madaniyatini shakllantiradi O‘yin texnologiyalari asosida tashkil etilgan darslar an’anaviy darslarga nisbatan samaraliroq ekani kuzatilgan.

Pedagoglar uchun o‘yinli ta’lim metodlarini o‘rganish va amaliyotga joriy etish bo‘yicha maxsus dasturlar ishlab chiqilishi ta’lim samaradorligini oshirishiga ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yuldoshev J. va boshqalar. Interfaol ta’lim sifati kafolati. – T.: YUNISEF, 2008.
2. Ikromova X.Z. Inson, kompyuter, kelajak. -T.:O‘zbekiston, 1991.
3. Xolmatova N. Interaktiv ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Innovatsiya, 2022.
4. Xudoyberdiyev O. O‘yin metodlari va ta’lim jarayoni. – Buxoro: Ma’rifat, 2021.
5. Pulotov A.M. Pedagogik faoliyatda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish. – Buxoro: Ta’limda istiqbolli izlanishlar, 2024.

2-SHO‘BA: TA’LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK OMILLARNING O‘RNI VA AHAMIYATI

YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR TA’LIM-TARBIYASINI YUKSALTIRISH BORASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Komolov D.P.,
Qarshi Iqtisodiyot va pedagogika universiteti professori, fan doktori (DSc)

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh avlod ongida mustahkam vatanparvarlik g‘oyasini shakllantirish, har tomonlama yetuk, erkin va mustaqil fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash masalalari yoritilgan. Shuningdek, Yangi O‘zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida o‘quvchi yoshlarning shaxsiy kamolotini ta’minlash, ularning Vatanga sadoqat va yurt ravnaqi uchun mas’uliyat tuyg‘usini rivojlantirishga doir jarayonlar tarixiy nuqtai nazardan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, maktab, ta’lim, o‘quvchi, tafakkur, shaxs, vatanparvarlik, strategiya, Uchinchi renessans.

Аннотация: В данной статье освещаются вопросы формирования у молодого поколения прочной идеи патриотизма, воспитания всесторонне развитых, свободно и независимо мыслящих личностей. Также с исторической точки зрения проанализированы процессы, направленные на обеспечение личностного развития учащейся молодежи, развитие чувства преданности Родине и ответственности за процветание страны, лежащие в основе реформ, осуществляемых в условиях Нового Узбекистана.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, школа, образование, ученик, мышление, личность, патриотизм, стратегия, Третий Ренессанс.

Annotation: This article highlights the issues of instilling a strong sense of patriotism in the minds of the younger generation and educating individuals who are well-rounded, free-thinking, and independent. It also provides a historical analysis of the processes aimed at ensuring the personal development of students, fostering their loyalty to the Motherland, and nurturing a sense of responsibility for the prosperity of the country within the context of the reforms being implemented in New Uzbekistan.

Keywords: New Uzbekistan, school, education, student, thinking, individual, patriotism, strategy, Third Renaissance.

Yurtimizda “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi” degan g‘oya asosida umummilliy ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga misli ko‘rilmagan e’tibor qaratilmoqda. Ilm-fan sohasini rivojlantirish, ma`naviy-ma`rifiy ishlar samaradorligini oshirish, o‘quvchi yoshlarning iste’dod va qobiliyatini ro‘yobga chiqarish borasida bir qator yutuqlar qo‘lga kiritilmoqda. Bularning barchasi yurtimizda Uchinchi Renessans – milliy taraqqiyotimizning yangi davri poydevorini yaratishga xizmat qiladi. O‘zbekistonda yoshlarni jismonan sog‘lom, ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalash, ilmiy va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilish bilan birga aholi umumiy sonining uchdan iikki qismini tashkil etadigan kelajak avlod vakillarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, rag‘batlantirish uchun zaruriy choralar ko‘rilmoqda.

Ular Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari bo‘lib, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirishda milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim.

Yoshlarga oid davlat siyosati doirasida chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, Oliy Majlis Senatida Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi, Oliy Majlis Senati qoshida 100 nafar va Qonunchilik palatasi qoshida 250 nafar faol va tashabbuskor yoshlardan iborat “Yoshlar parlament”lari, Qonunchilik palatasida Yoshlar masalalari bo‘yicha komissiyalar tashkil etilishi shuningdek 30 iyun - “Yoshlar kuni” deb e’lon qilinishi, viloyatlar markazlarida “Loyihalar fabrikasi” faoliyati, “Ma’rifat karvoni” tadbirlari hamda “Yosh kitobxon” tanlovi, “Bir million dasturchi” kabi o‘nlab yirik loyihalar yoshlar ta’lim-tarbiyasiga kompleks yondoshuvning tashkiliy-huquqiy asoslari sifatida hayotga tadbiq etildi[1].

Islohotlarning mantiqiy va uzviy davomi sifatida yosh avlodga bog‘cha, maktab va oliygohda sifatli ta’lim-tarbiya berish, ular jismoniy va ma`naviy sog‘lom, vatanparvar insonlar bo‘lib ulg‘ayishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarni yaratish, yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo‘lgan insonlar etib voyaga yetkazishga ustuvor vazifa sifatida e’tibor qaratib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Ta’lim sifatini oshirish Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘lidir”. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ta`lim sifatini oshirish, sohani ilg‘or xorijiy tajriba asosida isloh qilish maqsadida quyidagi ustuvor vazifalari belgilab berildi:

- 2023 yil 1 sentabrdan boshlab har bir tuman (shahar)ning bittadan umumiy o‘rta ta`lim muassasasida o‘quvchilarni ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o‘rgatish amaliyoti bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yilishi;

- 2023/2024 o‘quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich umumiy o‘rta ta`lim muassasalarida o‘quvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shuningdek, ularda kommunikativ ko‘nikmalar, tanqidiy va kreativ fikrlash, jamoa bo‘lib ishlash, tadqiqotchilik kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta`lim dasturlari amaliyotga kiritilishi belgilab qo‘yildi.

Bundan tashqari, umumiy o‘rta ta`lim muassasalarining 1-4-sinflarida o‘quvchilarni ilg‘or xorijiy tajriba asosida ishlab chiqilgan darsliklar bo‘yicha o‘qitish, 5-9-sinflarda o‘quvchilarga umumta`lim fanlaridan tayanch bilimlar berish, 10-11-sinf o‘quvchilarining qiziqish va qobiliyatiga mos bo‘lgan ixtisoslashgan dasturlar asosida bilim berish amaliyoti joriy qilish belgilandi[2].

Davlat miqyosida maktab ta’limini ilg‘or davlatlar standartlariga yetkazish yuzasidan barcha choralar bosqichma-bosqich ko‘rib kelinmoqda. Maqsad o‘quvchilarni har tamonlama bilimli, salohiyatli qilish. O‘quvchi shaxsini yaratish, ularni ilmga qiziqtirish, Ona yurti taraqqiyoti uchun fidoiylik ko‘rsatishga da`vat etishdan iborat. Bunda albatta, ijtimoiy fanlarning alohida o‘rni bor. Tarix, adabiyot va boshqa gumanitar fanlarni chuqur o‘rganish orqali buyuk ajdodlar merosini, ularning dunyo tamadduniga qo‘shgan ulkan hissasini anglaydi. Ularga munosib avlod bo‘lishga intiladi.

Bugun nafaqat yoshlar, butun boshli aholi globallashuvning shiddatli davrini o‘z boshidan kechirmoqdaki, bunday tahlikali davrda millat, mamlakat, genofond, kerak bo‘lsa, ma`naviyat xavfsizligi borasida har bir fuqarodan yuksak mas`uliyat talab etiladi. Ayni damda mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasi, ularni barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetkazish masalasi davlat siyosati darajasidagi eng muhim masalalardan biri sifatida qaralayotgani mamlakatimizning dunyo miqyosidagi xalqaro ko‘rsatkichlardagi mavqeyini yanada ko‘tarilishiga turtki bo‘lmoqda.

Mamlakatimizda ilm-fan rivojiga qaratilayotgan e`tiborning quyidagi natijalarini alohida ko‘rsatib o‘tish joiz:

birinchidan, yoshlarni qo‘llab-quvvatlashning yangi tizimi yaratildi;

ikkinchidan, 3 yoshdan yetti yoshgacha bo‘lgan bolalarni bog‘chalarga qamrab olish darajasi bosqichma-bosqich oshirib borilmoqda;

uchinchidan, umumta`lim maktablarining o‘qitish tizimidagi samaradorlikni oshirishga qaratilgan islohotlar, jamiyatda maktab o‘qituvchilari mavqeyini ko‘tarishga qaratilgan islohotlar, iqtidorli bolalar uchun maxsus fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablarning ko‘payayotganligi, maktablardagi shart-sharoitlar eng ilg‘or mamlakatlar maktablaridan qolishmasligi, bilimga chanqoq yoshlarning soni kun sayin oshib borayotgani;

to‘rtinchidan, oliy ta`limda universitetlarga qabul kvotalari oshirildi, mahalliy va xorijiy OTMlar filiallari ochilayotgani, qabul jarayonlaridagi abituriyentlarga yaratilayotgan keng imkoniyatlar, ta`lim tizimini korrupsiyasiz sohaga aylantirishga qaratilgan islohotlar;

beshinchidan, innovatsion grantlarga ajratilayotgan mablag‘larning keskin oshirilishi, yosh olimlarni xorijning yetakchi OTMlariga ilmiy tadqiqot ishlarini davom ettirishga qaratilgan islohotlar.

Mazkur islohotlar ta`kidini yana uzoq davom ettirish mumkin. Binobarin, mazkur islohotlar o‘z samarasini bermoqda va istiqbolda ham beradi, deb aytishga to‘la asoslar bor.

O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi yoshlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ta`lim olishni yaxshilash, sog‘lom o‘sishni ta`minlash, innovatsion texnologiyalarga qiziqishni oshirish, yoshlarning madaniyat, san`at, sport, axborot texnologiyalari va kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.

Davlat va nodavlat maktabgacha ta`lim tashkilotlari, umumta`lim maktablari, oliy o‘quv yurtlari, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari, zamonaviy IT-parklar, madaniyat muassasalari va sport inshootlari, mutlaqo yangi namunadagi ta`lim maskanlari — “Prezident maktablari”, “Temurbeklar maktabi”, “Ijod maktablari” bugungi globallashuv sharoitida raqobatga qodir bo‘lgan yetuk kadrlarning yangi avlodini tarbiyalashga xizmat qilmoqda[3].

Xulosa o‘rnida shuni alohida aytish mumkinki, ilmga, fan rivojiga yaratilayotgan imkoniyatlar hech shubhasiz, ma`rifatga keng yo‘l ochadi. Jamiyatning ilmli, ma`rifatli bo‘lishi yo‘lidagi islohotlar esa o‘z o‘rnida mamlakatning yuksak taraqqiyotga erishishida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmoni. 2017 yil 5 iyul. Elektron manba: https://lex.uz/docs/-3255680

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori. 2021 yil 18 yanvar. Elektron manba: https://lex.uz/docs/5234746

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ДЖАДИДОВ ПО СОЗДАНИЮ СПРАВЕДЛИВЫХ СУДЕБНЫХ ОРГАНОВ В ТУРКЕСТАНЕ

Комолов Д.П.,
DSc, профессор,
Университет экономики и педагогики, Карши

Аннотация: В данной статье освещены работы, проведенные просветителями-джадидами по созданию справедливых судебных органов в Туркестане, на основе сравнительного анализа исторических источников и нормативно-правовых документов. Также раскрыты насильственное установление советской власти, нарушение неприкосновенности судей и превращение судов в «карательную машину» тоталитарного режима.

Ключевые слова: джадиды, политическая партия, программа, неприкосновенность, обвинение, наказание.

В настоящее время изучение передовых идей и взглядов наших прогрессивных предков, в том числе джадидов, их теоретических воззрений на развитие национальной государственности и права, а также их практического опыта имеет чрезвычайно актуальное значение. Джадиды стремились построить демократическое общество на основе верховенства закона. Сегодня, создавая Новый Узбекистан и Третий Ренессанс, мы должны широко использовать богатое правовое наследие, оставленное нам джадидскими учёными.

Обращаясь к истории, можно отметить, что поражения на фронтах Первой мировой войны, кризис народного хозяйства оказали разрушительное влияние на Российскую империю. Экономические кризисы в сочетании с народным недовольством привели к политическому кризису, и в результате Февральской революции 1917 года императорская власть была свергнута. В марте в России возникло двоевластие, состоящее из Временного правительства и Советов рабочих, крестьянских и солдатских депутатов. 3 марта 1917 года эта новость была объявлена народу Туркестана. В Туркестане также начали создаваться органы Временного правительства и Советы.

Начало формы

Конец формы

Временное правительство стремилось сохранить Туркестан в колониальном положении даже в новых исторических условиях. Туркестанское генерал-губернаторство было упразднено, вместо него создан Туркестанский комитет. Однако отношение правительственных структур к местному населению по сравнению с имперским периодом существенно не изменилось.

Об этом свидетельствует письменный доклад члена Андижанского Совета Абдукодира Кушбегиева, представленный Туркестанскому комитету 30 июня 1917 года. В нем он намекал на лицемерную политику краевого Совета и Туркестанского комитета, заявляя следующее: «Обыски, аресты без судебного разбирательства и без предъявления обвинений, нарушение неприкосновенности жилища – всё это совершается якобы во имя революции и защиты достигнутых свобод! Как можно объяснить столь противоположные понятия, как можно оправдать противоречие между лозунгами и реальными фактами? Во имя будущих прав совершается явное беззаконие» [1, -С.46].

Тем не менее революционные процессы в России способствовали политической активизации мусульманского населения Туркестана. По инициативе

мусульманской интеллигенции и религиозных лидеров были созданы такие политические организации, как «Шуро-и Исламия», «Шуро-и Уламо», «Турон», «Турк адами марказият фиркаси» (Федералистская партия Туркестана).

На съездах, организованных этими движениями, обсуждались вопросы государственного устройства Туркестана, формы правления и будущего судебной системы. Например, с 12 по 14 июля 1917 года в городе Фергана состоялся первый съезд политической партии «Турк адами марказият фиркаси» (Федералистская партия Туркестана). На этом съезде выдающиеся представители джадидского движения, такие как Махмудходжа Бехбуди, Мунавваркори Абдурашидханов и десятки их единомышленников, разработали Программу и Устав партии.

Примечательно, что джадидские мыслители уделили особое внимание судебным учреждениям, рассматривая их в Программе как один из важнейших вопросов.

Восьмая глава Программы была посвящена вопросам правосудия и называлась «Судебные вопросы», включала шесть статей. В частности, в статье 1 этой главы указывалось, что судебные учреждения и органы юстиции должны быть свободны от любого вмешательства и подчиняться шариату и законам. В статье 3 подчеркивалось, что исполнительные органы не имеют права вмешиваться в назначение судей, их перевод на другие должности, а также в ход расследований. Кроме того, система наказаний должна определяться в соответствии с конституцией и законами, разработанными парламентом. В статье 5 указывалось, что разбирательство дел в суде и на стадии следствия должно проходить с обязательным участием адвоката [2, -С.7].

На съезде также было отмечено, что все граждане, независимо от пола, расы, национальности, языка и вероисповедания, равны перед судом и несут одинаковую ответственность перед законом за свои действия. Важным положением стало требование о том, что если человек задержан по распоряжению соответствующих органов, то в течение 24 часов ему должно быть предъявлено обвинение [2, -С.7].

Мусульманские политические организации выступали за создание независимой судебной власти. Они продвигали такие идеи, как обеспечение неприкосновенности судей, недопустимость вмешательства государственных органов и должностных лиц в работу судов, а также принцип презумпции невиновности. С точки зрения того времени это было значительным событием.

Концепция, разработанная мусульманскими политическими организациями в Туркестане, создавала все предпосылки для построения демократического государства. Однако насильственный приход к власти партии большевиков радикально изменил ход политических процессов.

Как и в России, в Туркестане партия большевиков не имела большого влияния среди населения. Местные жители не верили их пустым обещаниям и поддерживали мусульманские политические организации. Осознав, что законным и демократическим путем они не смогут прийти к власти, большевики выбрали путь насилия.

Под влиянием событий в Петрограде 1 ноября 1917 года в Ташкенте советская власть была установлена насильственным путем. Захватив власть с помощью оружия, партия большевиков подошла к вопросу формирования нового государственного управления с крайних классовых и шовинистических позиций. Это особенно проявилось на III съезде краевых Советов, прошедшем в Ташкенте с 15 по 22 ноября 1917 года.

Под давлением большевиков в руководство новой власти не был включен ни один представитель многонационального местного населения. Тем самым новый режим заявил о своем нежелании предоставлять независимость народам Туркестана и о своем намерении сохранить бывшие имперские колонии под своим контролем.

После установления советской власти в Туркестане были отменены прежние имперские порядки, и началось формирование новой системы управления. В частности, 24 ноября 1917 года Совет Народных Комиссаров РСФСР издал первый декрет о суде, на основе которого 12 декабря 1917 года Совет Народных Комиссаров Туркестана объявил приказ о судебной системе [3, -С.2-3].

Согласно этому приказу, все судебные учреждения бывшей Российской империи, включая окружные суды и судебную палату, были упразднены и заменены новыми судами, формируемыми на основе выборов. Одновременно с ликвидацией прежних судебных инстанций были упразднены прокурорский надзор, следственные органы и адвокатура.

После ликвидации старой судебной системы новые советские суды фактически не были созданы. В результате Народный комиссариат юстиции Туркестанского края направил телеграмму в Совет Народных Комиссаров РСФСР с просьбой разрешить временное возобновление работы бывших имперских судов до формирования советских судебных органов.

После рассмотрения этого обращения 31 декабря 1917 года Совет Народных Комиссаров Туркестана издал срочный декрет, согласно которому до организации советских судов временно разрешалась деятельность бывших имперских судебных учреждений. Однако политические дела передавались в ведение местных советов [4].

Политика советской власти в области судопроизводства вызвала острое недовольство. Хотя бывшим судьям временно разрешили вернуться к своим обязанностям, не все они согласились продолжать службу. Это привело к тотальному правовому беспорядку. Государственные органы и чиновники самовольно узурпировали судебные полномочия, арестовывали граждан, выносили незаконные приговоры без следствия и суда.

Политическая нестабильность оказала негативное влияние на становление новой судебной системы в стране.

Советская власть, установленная в 1917 году, смогла создать новую судебную систему лишь к 1919 году, то есть спустя два года. Однако и после этого советские суды функционировали крайне противоречиво.

Так, Чрезвычайная комиссия (ЧК) и советские органы безопасности активно вмешивались в деятельность судов, добиваясь выгодных для себя решений.

Согласно архивным документам, Чрезвычайные органы имели право отменять приговоры и решения судов, требовать повторного рассмотрения дел. Более того, судьи, отказавшиеся исполнять эти приказы, сами подвергались аресту [5].

В заключение можно сказать, что в Туркестане джадидские просветители создали ряд политических организаций. Эти организации разработали теоретические основы и концепции для создания независимой судебной власти. Большинство принципов, касающихся организации справедливых судебных органов, разработанных на курултаях, соответствовали международным правовым нормам. Это свидетельствует о высоком уровне знаний джадидских просветителей в области государственного управления и политической науки своего времени.

Однако в 1917 году насильственное установление советской власти в Туркестане помешало реализации этих идей. Позднее созданные советские суды стали инструментом репрессивной власти и защитниками интересов авторитарного режима.

Список использованных источников и литературы

1. Аъзамхўжаев С. Туркистон Мухторияти: Миллий-демократик давлатчилик курилиши тажрибаси. –Тошкент: Маънавият, 2000. – Б. 46.
2. «Турк адами Марказият (Федералист) фирқаси» Маромномаси ((Фан ва турмуш. – Тошкент, 1990. – № 7. – Б. 7.
3. Сборник декретов и приказов Совета Народних Комиссаров Туркестанской Республики. –Ташкент: Типография ТАССР, 1918. – С. 2-3.
4. Национальный архив Узбекистана, фонд Р-38, опись 2, дело 4, лист 55.
5. Национальный архив Узбекистана, фонд Р-38, опись 2, дело 54, лист 119.

O‘ZBEK OILALARIDAGI AJRALISH BILAN BOG‘LIQ IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLAR

Ro‘ziqulov Faxriddin Rasulovich,
Navoiy viloyat PMM professori, psixologiya fanlari doktori

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek oilalaridagi ajralish bilan bog‘liq ijtimoiy-psixologik muammolar muammolaridan biri ekanligi, er-xotin o‘rtasidagi janjallarning oiladagi ziddiyatlarning sabablari, oilaviy munosabatlarda qadriyatlarning o‘zgarib borayotganligi, yoshlarning oilaviy hayotga tayyor emasligi, oilaviy nizolarning ko‘payotganligi, er-xotinlarning oilaviy rollaridagi va keksa avlod vakillari bilan yosh avlod vakillarining oila to‘g‘risidagi tasavvurlaridagi nomutanosiblik sabablarini oldini olish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar:. Oiladagi nizolar, zo‘ravonlik, xususiyatlar, ma’naviy-axloqiy, psixoterapevtik, ijtimoiy-psixologik, etnopsixologik, ahloq, er-xotin, mexanizmlar.

Annotation: In this article, the problem of family disputes and divorce is one of the most important social problems of modern human society, the causes of conflicts between husband and wife, the changing values in family relations, the unpreparedness of young people for family life, and the increase of family disputes. , recommendations are given to prevent the causes of disparity in the family roles of spouses and the ideas of the older generation and the younger generation about the family.

Key words: Conflicts in the family, violence, characteristics, spiritual-moral, psychotherapeutic, social-psychological, ethnopsychological, ethics, couple, mechanisms.

Аннотация: В данной статье проблема семейных споров и разводов является одной из важнейших социальных проблем современного человеческого общества, причины конфликтов между мужем и женой, изменение ценностей в семейных отношениях, неготовность молодых людей к семейной жизни, увеличения семейных споров., даются рекомендации по предотвращению причин несоответствия семейных ролей супругов и представлений старшего поколения и младшего поколения о семье.

Ключевые слова: Конфликты в семье, насилие, особенности, духовно-нравственные, психотерапевтические, социально-психологические, этнопсихологические, этика, пара, механизмы.

Kirish. Dunyoda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda shaxs kamoloti, oila, ishlab chiqarish va ta’lim muassasalaridagi ijtimoiy-psixologik mohiyatni yaxshilash

asosida insonlarning faravon va barqaror turmush tarziga erishishlarini ta'minlashga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Oila ijtimoiy voqelikning va jamiyatning ma'naviy-axloqiy taraqqiyotini ta'minlashda eng muhim bo‘g‘in hisoblanadi. Bu esa oila avlodlarining tarixiy davomiyligi, ajdodlarning tarbiyaviy ta'sir muhiti va yoshlar uchun kelajakdagi oila an'analarini davom ettirishning eng zarur asosi hisoblanadi. Ammo keyingi yillarda oilaviy ajralishlarning o‘sib borishi oilaning an'analarini davom ettirish va unga mos zamonaviy modellarni yaratishda o‘z ta'sirini yo‘qotdi. Shuningdek, ota-onaga, er va xotinga nisbatan munosabatlardagi ayrim insoniy qadriyatlar o‘zgarishga yuz tutmoqda. Oilaning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatini pasaytirishga ham sabab bo‘lib qolmoqda. Inson o‘z oilasidagi munosabatlarini, ota-onasini va ularning o‘zaro munosabatlarini avlodlarimiz an'analariga muvofiq shakllantirishda, shuni ta'kidlash lozimki, oilaviy tajribaning ota-onadan bolalarga, bolalardan esa kelgusida o‘z farzandlariga o‘tib borishi kutiladi. Biroq keyingi yillarda bunday an'analar, qaysidir ma'noda, o‘zining mohiyatini yo‘qotmoqda. Shu bois turli avlod vakillarining oilaviy ajralishlar masalasi va unga sabab bo‘luvchi omillarni ijtimoiy-psixologik omillarga nisbatan munosabatlarini tadqiq etishga e'tibor qaratildi. Bu esa zamonaviy o‘zbek oilalaridagi ajralishlarning ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik xususiyatlariga doir empirik ma'lumotlar olish imkonini beradi.

ham unda til orqali muloqot qilishdan cho‘chish, ichki siqilish va nutqdan chekinish holatini shakllantiradi. Hissiy zo‘riqish, stress, oilaviy ajrim, yaqin kishidan ayriliq, yangi muhitga ko‘chish kabi omillar ham bolaning nutqiy rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bunday holatlarda bola o‘zini himoyalash maqsadida ichki yopiqlikka o‘tadi, bu esa nutqiy faollikning pasayishiga olib keladi. Bundan tashqari, ekranlar, ayniqsa telefondan ortiqcha foydalanish, bolaning passiv eshituv faoliyatini kuchaytirib, faollikni kamaytiradi. Bola ko‘p eshitadi, ammo kam gapiradi. Bu esa tabiiy muloqotga kirishish ko‘nikmalarini zaiflashtiradi. Bunday og‘ishlarning oldini olish uchun ota-onalar va pedagoglar bolaning til rivojini muntazam kuzatib borishlari, u bilan samimiy, mehrli va sabrli muloqotda bo‘lishlari, yoshiga mos faol til muhiti yaratishlari zarur. Zarurat tug‘ilganda esa logoped, psixolog yoki nevrolog bilan maslahatlashish kechiktirilmasligi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Педагогика, 1982.
2. Piaget J. The Language and Thought of the Child. – London: Routledge, 2001.
3. Bruner J.S. Child’s Talk: Learning to Use Language. – New York: Norton, 1983.
4. Гальперин П.Я. Психология мышления и речи. – М.: Наука, 1977.
5. Donaldson M. Children’s Minds. – London: Fontana Press, 1978.
6. Tomasello M. Constructing a Language: A Usage-Based Theory of Language Acquisition. – Harvard University Press, 2003.

PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK OMILLAR UYG‘UNLIGI – ZAMONAVIY TA’LIM TALABI

Norova Nilufar Norbo‘ta qizi,
Andijon viloyati PMM katta o‘qituvchisi

Аннотация: Современный образовательный процесс представляет собой сложную систему, направленную не только на передачу знаний, но и на всестороннее развитие личности. В этом процессе важную роль играет гармоничное сочетание педагогических и психологических факторов. Педагогические подходы способствуют формированию содержания образования, когнитивному развитию учащихся и внедрению эффективных методик, в то время как психологические факторы непосредственно влияют на их мотивацию, эмоциональное состояние и процесс самопознания.

Annotation: The modern educational process is a complex system aimed not only at transmitting knowledge but also at supporting the comprehensive development of an individual. In this process, the harmonious integration of pedagogical and psychological factors plays a crucial role. Pedagogical approaches contribute to shaping educational content, fostering students' cognitive development, and implementing effective methodologies, while psychological factors directly influence their motivation, emotional state, and self-awareness process.

Ключевые слова: Образовательный процесс, педагогические факторы, психологические факторы, содержание образования, когнитивное развитие, мотивация, эмоциональное состояние, самопознание, эффективные методы, качество образования, учебный процесс, инновационные образовательные подходы, эффективность обучения, методика преподавания, индивидуальный подход.

Keywords: Educational process, pedagogical factors, psychological factors, educational content, cognitive development, motivation, emotional state, self-awareness, effective methods, quality of education, learning process, innovative educational approaches, learning efficiency, teaching methodology, individual approach.

Pedagogik va psixologik omillar uyg‘unligi – zamonaviy ta’lim talabi.

Ta'lim tizimini isloh qilish natijasida ko‘zlangan maqsad kelajak avlodni vatanga sadoqatli, mustaqil fikrlovchi, har qanday sharoitga tez moslashuvchi, to‘g‘ri qaror qabul qila oluvchi mutaxassislar tayyorlashdan iboratdir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 22-dekabr kuni Oliy Majlisga murojaatnomasida “Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘lidan o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oya, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya - bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuvlar asosida boshlashimiz kerak” ekanligini e'tirof etishgan edi.Zamonaviy ta’lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki shaxsning har tomonlama rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan murakkab tizimdir. Ushbu jarayonda pedagogik va psixologik omillarning uyg‘unligi muhim o‘rin tutadi. Pedagogik yondashuvlar ta’lim mazmunini shakllantirish, o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishiga ko‘maklashish va samarali metodlarni joriy etishga xizmat qilsa, psixologik omillar esa ularning motivatsiyasi, hissiy holati va o‘z-o‘zini anglash jarayonlariga bevosita ta’sir qiladi.

Mazkur maqolada pedagogik va psixologik omillarning o‘zaro bog‘liqligi, ularning o‘quvchilarning bilim olish samaradorligiga ko‘rsatadigan ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘qituvchilarning ta’lim jarayonida psixologik yondashuvlardan foydalanish zarurati va pedagogik metodikalarni individual o‘quv ehtiyojlariga moslashtirish usullari yoritib beriladi. Uyg‘unlashtirilgan pedagogik va psixologik yondashuvlar natijasida o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish qobiliyati va mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalari shakllanadi. Shu sababli, zamonaviy ta’lim tizimi pedagog va psixolog mutaxassislarining hamkorligi asosida shakllantirilishi zarur. Zamonaviy ta’lim jarayoni nafaqat bilim berishga, balki shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan. Bugungi kunda ta’limda faqat bilim olish yetarli emas. O‘quvchilarning shaxsiy salohiyatini rivojlantirish, ularning hissiy va aqliy holatini yaxshilash, o‘zini anglash, mustaqil fikrlash, innovatsion yondashuvlarni o‘zlashtirish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun, zamonaviy ta’limda pedagogik va psixologik omillarni uyg‘unlashtirish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Pedagogik omillar: ta’lim jarayonini shakllantiruvchi asos.

Pedagogik omillar ta’lim jarayonining mazmuni, metodikasi, tashkilot shakllari va ta’limning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. Pedagogik yondashuvlar o‘quvchilarga qanday bilim va ko‘nikmalarni taqdim etishni, o‘qituvchilarning uslub va metodlarini tanlashni, o‘quv jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi.

1. Ta’lim mazmuni va metodikasi: Pedagogik yondashuvlar ta’limning asosiy mazmunini belgilaydi. Ular o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, turli metodlar yordamida bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Pedagogik usullar, masalan, taqdimotlar, interaktiv mashqlar, guruh ishlari, ko‘rgazmalar, texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish mumkin.

2. Ta’lim tashkiloti: Ta’lim jarayonining samaradorligi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro muloqotga bog‘liq. Samarali ta’lim tizimida o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki o‘quvchini motivatsiya qiluvchi, unga qo‘llab-quvvatlovchi shaxs sifatida harakat qiladi.

Psixologik omillar: o‘quvchilarning hissiy holatini hisobga olish.

Psixologik omillar ta’lim jarayonida o‘quvchilarning hissiy, motivatsion, intellektual holatini hisobga olishni nazarda tutadi. Pedagogik yondashuvlar o‘quvchilarning bilim olish qobiliyatini oshirishga yordam bersa, psixologik omillar o‘quvchilarning motivatsiyasini, ruhiy holatini va hissiy holatini shakllantiradi.

1. Motivatsiya: O‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqi va qiziqishi o‘qitish samaradorligini belgilovchi asosiy omillardandir. Motivatsiya o‘quvchilarning o‘quv jarayoniga faol ishtirok etishini, yangi bilimlarni o‘zlashtirishni xohishini oshiradi. Psixologik yondashuvlar motivatsiyani rag‘batlantirishga yordam beradi, o‘quvchilarda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan ichki kuchni uyg‘otadi.

2. Hissiy holat va stressni boshqarish: O‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi hissiy holati ham ta’lim samaradorligiga ta’sir qiladi. Stress, xavotir, o‘ziga bo‘lgan ishonchsizlik kabilar o‘quvchilarning muvaffaqiyatini pasaytirishi mumkin. Shu sababli, psixologik yordam, o‘quvchilarning hissiy holatini boshqarish, stressni kamaytirish va ijobiy ruhiy muhit yaratish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi.

3. O‘z-o‘zini anglash va rivojlanish: O‘quvchilarni faqat akademik bilimlar bilan ta’minlash kifoya emas, balki ularning shaxsiy rivojlanishiga ham e’tibor qaratish zarur. Psixologik jihatdan, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini anglashlari, o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish, qobiliyatlarini rivojlantirish ta’lim jarayonining muvaffaqiyatiga ijobiy ta’sir qiladi.

Pedagogik va psixologik omillarni uyg‘unlashtirish.

Maktablarda qobiliyatli, iqtidorli bolalar ham, pedagogik e’tiborni kuchaytirishni talab qiladigan bolalar ham o‘qiydi. Ba’zi bolalarda o‘qish uchun yuqori motivatsiya, yuqori intensivlikdagi o‘quv ishlari sharoitlariga moslashishni osonlashtiradi va o‘quv-bilish motivatsiyasi juda past bo‘lgan bolalar maktabga yomon moslashadi. Ko‘pgina bolalarning jismoniy salomatligi dastlab zaif bo‘ladi. Ushbu maqolada ta’lim sohasini psixologik-pedagogik ta’minlash texnologiyasi ishlab chiqilgan. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, dunyoqarashlarini kengaytirish masalalari o‘rganilgan.

Pedagogik va psixologik omillarni uyg‘unlashtirish ta’limning samaradorligini oshirish uchun zarurdir. Bu uyg‘unlik o‘quvchilarning intellektual va hissiy rivojlanishiga bir vaqtda xizmat qiladi. O‘qituvchilar pedagogik metodlarni ishlab chiqishda psixologik omillarni ham inobatga olishlari kerak. Masalan, o‘quvchilarning psixologik holatiga qarab, darsning temposini sozlash, motivatsiya strategiyalarini ishlab chiqish, o‘quvchilarga individual yondashuvlar qo‘llash zarur. Bundan tashqari, o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlarini, ular bilan ishlash usullarini aniqlash, ta’lim jarayonida ularning ehtiyojlarini hisobga olish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Pedagogik metodlar va psixologik yondashuvlarning uyg‘unligi o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va samarali ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Xulosa. Zamonaviy ta’lim tizimi o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorligiga asoslanadi. Pedagogik va psixologik omillarni uyg‘unlashtirish o‘quvchilarning muvaffaqiyatli rivojlanishini ta’minlaydi, shuningdek, ularning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Ta’lim jarayonida har ikki omilning muvozanati o‘quvchilarning

o‘z-o‘zini anglashiga, ularning motivatsiyasini oshirishga va ta’limda muvaffaqiyatga erishishlariga xizmat qiladi. Shuning uchun, ta’lim tizimida pedagog va psixolog mutaxassislarining hamkorligi alohida ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
2. Avazboyev A. I., Ismadiyarov Yu. (2019). Kasbiy pedagogika. Samarqand davlat tibbiyot instituti nashriyoti.
3. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Ziyouz.com elektron kutubxonasi.
4. Kenjaboyev A.E., Karimova B.X. (2023). Pedagogik menejment asoslari. Termiz davlat universiteti nashriyoti.
5. “Pedagogik mahorat” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. (2023, № 10).
6. “Pedagogika. Psixologiya” fanidan o‘quv-uslubiy majmua.
7. G‘ulomov, S., Abduqodirov, A. (2020). Pedagogik psixologiya. Toshkent:

KOMMUNIKATIV KO‘NIKMA MUAMMOSI XORIJ MAMLAKATLARI OLIMLARI TALQINIDA

Latibjonov Rahmatillo Abdurashid o‘g‘li,
Andijon viloyati PMM katta o‘qituvchisi

Annotation: This article discusses the role of a teacher's communicative skills in pedagogical activity. It presents the opinions of several scholars on the importance of communicative skills for teachers in the context of modern professional training.

Keywords: Communicative skills, teacher, pedagogical activity, professional development, pedagogy.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль коммуникативных навыков педагога в педагогической деятельности. Приведены мнения ряда ученых о важности коммуникативных навыков педагогов в условиях современной профессиональной подготовки.

Ключевые слова: Коммуникативные навыки, педагог, педагогическая деятельность, профессиональное развитие, педагогика.

Kommunikativ ko‘nikma – bu insonning o‘z fikrlarini aniq va samarali tarzda ifodalash, boshqa odamlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lish, shuningdek, muloqotda yuzaga kelgan turli vaziyatlarga moslashish qobiliyatidir. Kommunikativ ko‘nikmalar nafaqat so‘zlashuv qobiliyatini, balki tinglash, tushunish, hissiy reaksiyalarni boshqarish va muloqotdagi boshqa ishtirokchilarning ehtiyojlarini hisobga olishni ham o‘z ichiga oladi.

XX asrning boshlarida kommunikatsiya faqatgina insonlar o‘rtasidagi aloqani rivojlantirishga yordam beradigan har qanday faoliyat sifatida tushunilgan. Kommunikatsiyaning mohiyati o‘sha davrda ilmiy tadqiqotlarning maqsadi bo‘lmagan. Kommunikatsiyani o‘rganish asosan amaliy xarakterga ega bo‘lib, ilm-fan va texnikaning rivojlanishi bilan bog‘liq holda, katta masofa bilan ajralgan turli dunyoqarashlarga ega bo‘lgan odamlarni turli texnologik yutuqlar yordamida birlashtirish zarurati paydo bo‘lgan [1, 4-bet].

Shuningdek, G‘arb va mahalliy tadqiqot yondashuvlaridagi prinsipial farqlarni ta’kidlash kerak. Amerikalik kommunikatsiya maktabi esa, intellektual pragmatizmning tamoyillarini o‘zida mujassam etib, o‘zini asosan amaliy nazariya sifatida taqdim etadi [2].

Kommunikatsiyani tadqiq qilishdagi umumiylikni aniqlash va uni tizimli bir butunlik sifatida belgilash uchun kommunikatsiyaning turli sohalardagi rivojlanish mantiqini tushunish zarur.

Tarixan shakllangan ilmiy yondashuvlar to‘plamini kommunikatsiya tushunchasiga bir nechta guruhlarga ajratish mumkin: texnokratik, sotsiologik, lingvistik.

Texnokratik yondashuvlar kommunikatsiyani o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning ikkinchi yarmida XX asrda texnik yangiliklarning tez o‘sishi va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning umumiy tezlashishi bilan bog‘liq. Kommunikatsiya asosan axborot uzatish jarayoni sifatida ko‘rib chiqildi. U birinchi navbatda bir subyektning xabarini (kodi) boshqa subyektga uzatish sifatida tushunildi, tizimli butunlik sifatida ko‘rilmadi.

XX asrda **lingvistik paradigma** shakllandi, uning tarafdorlari o‘z e’tiborlarini til masalasiga qaratadilar, tilni quyidagi tarzda tushunadilar:

1. **Simbolik kommunikatsiya tizimi** sifatida, ya’ni fonetik va yozma belgilar yordamida kommunikatsiya. Aynan kommunikatsiya insonlarni barcha boshqa turlardan ajratib turadi;

2. **Belgilar amaliyoti**, unda va uning yordamida insoniy shaxsiyat shakllanadi va ijtimoiy mavjudotga aylanadi [3].

XX asr tilshunoslik asrining nomini olib, G.P. Shchedrovitskiy “Hozirgi psixologiya va hozirgi mantiq kamida 70 yil orqada qolgan va ular lingvistik tushunchalar bilan o‘z tushunchalarini muvofiqlashtirmaguncha, ularning hech qanday haqiqiy rivojlanishi bo‘lmaydi” deb ta’kidladi [3].

Keyingi tarixan shakllangan yondashuv kommunikatsiyani ijtimoiy jarayon sifatida ko‘rib chiqish bilan bog‘liq. Ijtimoiy fanlarning kommunikatsiya haqida olib borgan eng muhim xulosalari quyidagicha umumlashtirilishi mumkin:

1. Kommunikatsiya — bu insonlarning mavjudlik usuli, ijtimoiy jarayonni shakllantiruvchi asosiy unsur bo‘lib, unda odamlar — majburiy ishtirokchilar.

2. Kommunikatsiya — bu nafaqat axborot almashish jarayoni, balki umumiy narsalarni yaratish jarayoni bo‘lib, biz axborotni anglash, kommunikatsiya ishtirokchilari o‘rtasida umumiy ma’nolarni yaratishga intilamiz.

3. Kommunikativ jarayonlar faqat muayyan kontekstda, madaniyatda ma’no kasb etadi.

4. Kommunikatsiya jarayonida nafaqat ijtimoiy haqiqat, balki shaxsning o‘zi ham shakllanadi.

5. Kommunikatsiya — bu ramzlar yordamida umumiy ma’nolar yaratish jarayoni, birinchi navbatda — til.

6. Kommunikatsiya — bu "amaliy fan", chunki tadqiqotchi, tadqiqot jarayoniga kiritilgan holda, o‘zi o‘rganayotgan kommunikatsion amaliyotning ta’sirini o‘zi his qiladi va shu bilan birga, u ushbu kommunikatsion amaliyotni “yaxshilaydi” [3].

Shu tariqa, ijtimoiy fanlar kommunikatsiyani ijtimoiy munosabatlarning “birlashtiruvchi” momenti sifatida ko‘rib chiqqan, ijtimoiy haqiqatni shakllantiruvchi dastlabki jarayon sifatida, kommunikatsiyaning amaliy xarakterini ta’kidlagan. Sotsiologiyaning asosiy vazifasi jamiyatni va uning faoliyatining qonuniyatlarini o‘rganish ekanligini hisobga olgan holda, bu yerda kommunikatsiya ijtimoiy ob’yektni bilish vositasi sifatida ko‘riladi, uning mohiyati esa ko‘rib chiqilmaydi. Psixologiya nuqtai nazaridan, muloqot – bu insonlarning bir-biri bilan axborot almashish va ijtimoiy aloqalarni o‘rnatishning asosiy usuli hisoblanadi. Psixologlar muloqotni individual va ijtimoiy rivojlanish jarayoni sifatida o‘rganadilar, bu jarayonlar quyidagi asosiy jihatlar bilan bog‘liq:

- Empatiya va muloqot: Psixologik aspektda empatiya, ya'ni boshqa odamning his-tuyg'ularini tushunish va ularga hamdardlik bildirish, muloqotning samaradorligini oshiradi. Empatiya shaxslararo aloqani chuqurlashtiradi va muloqotda o'zaro ishonchni o'rnatadi. Muloqotda empatiya, ayniqsa, insonlar o'rtasida samimiy aloqalarni rivojlantirish uchun muhim rol o'ynaydi.
- Kommunikativ to'siqlar: Psixologiya, shuningdek, muloqotda yuzaga keladigan turli to'siqlarni o'rganadi. Bu to'siqlar odamlarning o'zaro tushunishini to'sib qo'yishi mumkin, masalan, psixologik komplekslar, turli madaniyat va qadr-qimmat farqlari, shaxsiy tajribalar va boshqalar.
- Kommunikatsiya usullari va uslublari: Psixologiya nuqtai nazaridan, muloqotning turli uslublari mavjud. Masalan, ba'zi odamlar bevosita va aniq muloqot qilishni afzal ko'rishadi, boshqalar esa nozik va ehtiyotkor tarzda muloqot qilishni ma'qul ko'rishadi.

Muloqotning ijtimoiy-psixologik roli, shuningdek, ijtimoiy aloqalar va jamiyatdagi individuallikning shakllanishi bilan bog'liq. Jamiyatdagi muloqot orqali shaxslar o'z o'rinlarini, rollarini aniqlashadi va ijtimoiy tizimning turli komponentlari bilan o'zaro aloqaga kirishadilar. Muloqot nafaqat o'zaro tushunishni ta'minlaydi, balki jamiyatning umumiy qadriyatlari va normativ tizimlari bilan ham mos keladi. Muloqot va kommunikativ munosabatlar falsafiy va psixologik nuqtai nazardan muhim tushunchalar sifatida insonning o'zini anglashiga, boshqalar bilan ijtimoiy va psixologik aloqalar o'rnatishiga yordam beradi. Falsafiy va psixologik yondashuvlar muloqotni insonning jamiyatdagi o'rnini anglash va o'zining shaxsiy o'zgarishlarini amalga oshirish vositasi sifatida ko'rib chiqadi. Shuningdek, kommunikativ munosabatlar muammosi insonlar o'rtasidagi munosabatlarning sifatini va samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlarning asosiy yo'nalishidir.

Ko'pgina kasblarda kommunikativ kompetentsiya professional faoliyatning muvaffaqiyati uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ammo, agar kasb ijodiy faoliyat bilan bog'liq bo'lsa, unda kommunikativ kompetentsiyaning ahamiyati aniq bo'lmasligi mumkin. Ijodiy jarayon, odamning o'zining subyektiv dunyosiga singib ketishini va atrofdagilarga unga kirish imkoniyati berilmasligini anglatadi. Shunga qaramay, musiqachilar, rassomlar, fotografchilar va yozuvchilar bilan jamiyat o'rtasidagi faol o'zaro aloqalar ularning professional mashhurligini va talabgorligini oshirishga yordam berishi mumkin. Kalinina S.V, Moiseeva A.A, va Filippovichning tadqiqoti natijasida, shaxsning kommunikativ kompetentsiyasi bilan uning professional faoliyatdagi muvaffaqiyati o'rtasida o'zaro bog'liqlik tasdiqlangan [4].

Shaxsiyat sifatida muloqotga ochiqlik — bu tashqi dunyoga, boshqa odamlar bilan tezda o'zaro aloqaga kirishish qobiliyati bo'lib, ijodiy kasb vakillari, masalan, fotografchilar, professional muvaffaqiyatni oshirishda muhim omil bo'lishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kommunikativ kompetentsiya fotografni muvaffaqiyatli va talabgir qilish imkonini beradi, odamlar bilan aloqadan uzoqlashish yoki muloqotni o'rnatishda qiynalish esa mijozlar sonining kamayishiga, natijada esa professional ravishda talab qilinmaslikka olib kelishi mumkin. Psixologlar kasbida kommunikativ kompetentsiya muloqot jarayonining samarali o'tishini ta'minlaydi, odamlar o'rtasidagi aloqalarni samarali tashkil qilishga imkon yaratadi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Введенский В. Н. Моделирование профессиональной компетентности педагога // Педагогика. 2003. №10. С. 51-55.

2. Поливанова К. Н., Рубцов В. В., Марголис А. А. Первый научно-экспертный семинар «Новое детство» // Психологическая наука и образование. 2019. Т. 24.

3. Лузянина Л. Л. Ценностное отношение к обучаемому как компонент коммуникативной культуры учителя // Вестник Омского университета. 1999. С. 116-118.
4. Введенский В. Н. Моделирование профессиональной компетентности педагога // Педагогика. 2003. №10. С. 51-55.

YOSHLARDA HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLANTIRISH YO‘LIDA ILG‘OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Abduraimov Sherali No‘monjonovich,
Andijon viloyati Pedagogik mahorat markazi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda yoshlarni huquqiy ong va madaniyatini shakllantirishda ta’lim-tabiyaning ahamiyati, pedagogik texnologiyalarning o‘ziga xos o‘rni ko‘satilgan.

Kalit so‘zlar: huquqiy ong, huquqiy madaniyat, Huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati, pedagogik texnologiyalar.

Abstract: This article shows the importance of education and the unique role of pedagogical technologies in the formation of legal consciousness and culture of young people today.

Key words: legal consciousness, legal culture, legal democratic state, civil society, pedagogical technologies.

Аннотация: В статье подчеркивается важность образования и уникальная роль педагогических технологий в формировании правосознания и культуры современной молодежи.

Ключевые слова: правосознание, правовая культура, демократическое правовое государство, гражданское общество, педагогические технологии.

Bizning asosiy maqsadimiz huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish. Huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish uchun barcha fuqarolarda huquqiy ong va madaniyatni shakllantish, uni yuksaltirish talab etiladi. Bu borada hukumatimiz tomonidan ko‘plab qonun va davlat dasturlari, rejalar qabul qilindi. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining** 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-sonli “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risda” gi farmoni ham shular jumlasidandir. Farmonda ko‘rsatilishicha, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to‘sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolinayotganligi tanqid qilingan.Xususan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta’lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayotganligi, uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki etarlicha ta’minlanmaganligi sabab qilib ko‘rsatilgan.Yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik hissini uyg‘otish ishiga kompleks tarzda yondashilmaganligi, aholining huquqiy bilimlarini oshirishga doir vazifalarning umumiy tusda belgilanganligi hamda ularni amalga oshirishning aniq ta’sirchan mexanizmi mavjud emasligi jamiyatda

huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarning samarasiz olib borilayotganligini ko‘rsatadi.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda **shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o‘rtasidagi muvozanatni saqlash g‘oyalarini** aholi ongiga singdirish ishlarining yetarli olib borilmasligi ham qonun ustuvorligini ta'minlashga o‘zining jiddiy salbiy ta'sirini ko‘rsatmoqda.

Aholining huquqiy bilimlari yetarli emasligi, shuningdek, davlat organlarining qonunga xilof qarorlari ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyatidan deyarli foydalanmasligi mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishi holatlarining vujudga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Bundan tashqari, hozirgi globallashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot davrida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ‘ibotning ilg‘or va ta'sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalaridan yetarli darajada foydalanilmayapti.

Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir ishlar samaradorligini yanada takomillashtirish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda huquqiy bilimlarini oshirib borishning zamonaviy usullarini joriy etish, shuningdek, aholini, ayniqsa, yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish bo‘yicha mustahkam huquqiy immunitetni shakllantirish maqsadida bir qator vazifalar belgilangan.:yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o‘rgatishdek muhim va mas'uliyatli vazifa biz ustozlarga yuklatilgan. Bu topshiriqni bajarish esa bizga ham faxr, iftixor tuyg‘ulari bilan birga, zavqli bo‘lishi kerak. Shundagina biz ushbu ko‘makni amalga oshirgan bo‘lamiz. Buning uchun bizga zamonaviy ilg‘or pedagogik texnologiyalar katta yordam beradi.

Pedagogik texnologiyalarning bugungi kunda eng ommaviylashgan turlaridan biri-bu interaktiv metodlardir. Interaktiv metodlar tinglovchi talaba-yoshlarni va o‘qituvchining birgalikdagi faoliyati bo‘lib, asosan talabalarni fikrlaga undaydi. Kerakli xulosalarga kelishni, ular o‘zini tahlil qilishni va amaliyotda qo‘llashni o‘rgatadi. O‘qituvchining asosiy vazifasi bu yerda ularlarga yo‘l ko‘rsatish, yo‘nalish berish, eng to‘g‘ri xulosani aytishdan iborat.

Interaktiv usullar yana shunisi bilan ham ahamiyatliki, o‘qituvchi talabaning fikrini hech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina vaqti bilan to‘g‘ri xulosani aytadi.Natijada talaba xatosini o‘zi tushunib oladi. Bu esa ularni tushkunlikka tushish, fikrlashda tormozlanish kabi xolatlarning oldini oladi. Interaktiv metodlar talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro hurmatga asoslanadi. O‘qituvchi qanday bo‘lmasin talabaning fikrini tinglaydi va hurmat bilan qarashini bildiradi, shu bilan birga talabaningni bir-birlarini tinglashga o‘rgatadi. E'tirozlar, qo‘shimchalar ham "hurmatli", "sizning fikringizga qo‘shilgan holda", "bizning ham ayrim fikrlarimiz bor edi" kabi so‘zlar orqali bildiriladi.

Bunday tarzda tashkil etilgan darsda talaba o‘zini hurmat qilinayotganligini sezadi va bunday sharoitda hech qanday tayziqsiz erkin fikrlay boshlaydi va uni ochiq bayon eta oladi. Ushbular bilan birgalikda u boshqalarni ham hurmat qilishga o‘rganadi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda talabalarning o‘quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta`lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida boy tajriba to‘plagan bo‘lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar o‘ziga xos ahamiyatga egadir.

Xulosa. Zamonaviy dars berish metodlaridan asosiysi "interaktiv" metod bo‘lib, biror faoliyat yoki metodda o‘zaro baxs munozara, fikrlash asosida faoliyat yoki

hamjixatlik bilan hal etish tushuniladi. Ammo biz ayrim o‘quv qo‘llanmalarini varaqlaganimizda “o‘qitishning interaktiv metodlari” termini qo‘llanishini ham guvoxi bo‘ldik. Ta’lim berish jarayoni bevosita o‘qitish metodi bilan uzviy bog‘liqdir. Metodika sizning qanday texnik vosita yoki kitoblardan foydalanayotganinggiz emas, balki sizning ta’limingiz qanday tashkil etilishidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” 2019-yil 9-yanvar, PF-5618-sonli
2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 - yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017- yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017 -yil 14-yanvar. – T.: «O‘zbekiston», 2017. - 104 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq. – T.: «O‘zbekiston» NMIU, 2016. -56 6
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. - T.: “Ma’naviyat”, 2011. - 176 b.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TALABA VA O‘QTUVCHI MUNOSABATLARINING PSIXOLOGIK KO‘RINISHLARINI O‘RGANISHNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI.

Abduraxmanov Abdurasul,
Farg‘ona shahridagi Koreya Xalqaro universiteti

Kirish:

Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabatlarning psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Munosabatlarning demokratik, avtoritar va liberal uslublari o‘rganilib, ularning ta’lim jarayoniga ijobiy va salbiy ta’sirlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, psixologik muammolar, stress va motivatsiya yetishmasligining ta’lim jarayoniga ta’siri haqida batafsil ma’lumot berilad

Maqsad:

Talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, muloqot va qo‘llab-quvvatlashning ta’lim sifatini oshirishdagi ahamiyatini yoritishdan iborat. Dars mashg‘ulotlari davomida bir nechta husiyatlarga e’tibor qaratish dars samaradorligini oshirishga katta hissa qo‘shishini ko‘ramiz. Mavzuni chuqurroq tahlil qilish orqali mashg‘ulotlar davomida o‘zaro munosabatlarda aynan nimalarga ko‘proq e’tibor berish kerakligi yortiladi.

Materiallar va metodlar:

Talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabatlar ko‘p jihatdan o‘zaro hurmat va ishonchga asoslanadi. Psixologik nuqtai nazardan, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi munosabatlarning Ijtimoiy-psixologik muhit, emotsional holat jihatlari ajralib turadi. Emotsional holat, Munosabat turlari, Demokratik uslub, Avtoritar uslub, Liberal uslub metodlaridan keng foydalanildi.

Xulosa:

Oliy ta’lim muassasalarida talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabatlar nafaqat ta’lim jarayonining muvaffaqiyatli kechishini ta’minlaydi, balki insonning shaxs sifatida

shakllanishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun, o‘qituvchilar talabalarga nafaqat bilim beruvchilar, balki ularni qo‘llab-quvvatlovchi, motivatsiya qiluvchi shaxslar sifatida yondashishlari zarur. Bu borada ijtimoiy-psixologik yondashuvlar va o‘zaro muloqot madaniyatini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar:

Talaba va o‘qituvchi munosabatlari, psixologik ko‘rinishlar, demokratik uslub, avtoritar uslub, ta’lim jarayoni, emotsional muhit, stress, motivatsiya, empatiya, ijtimoiy-psixologik muhit.

Введение:Этот в статье выше образование в учреждениях студент и учитель между отношений психологический функции анализ будет сделано. Отношения демократический, авторитарный и либеральные стили изуча, их образование к процессу позитивный и отрицательный эффекты видя будет выпущен. Также психологический проблемы, стресс и мотивация отсутствие образование к процессу эффект о подробно информация данный

Цель: Целью проекта является подчеркнуть важность взаимного доверия, общения и поддержки между учеником и учителем в повышении качества образования. Мы обнаружили, что сосредоточение внимания на нескольких эмоциях во время занятий может существенно повысить эффективность занятий. Путем более глубокого анализа темы выделяется, на что именно необходимо обратить больше внимания во время обучающих занятий.

Материалы и методы: Отношения между учеником и преподавателем во многом строятся на взаимном уважении и доверии. С психологической точки зрения выделяют социально-психологическую среду, эмоциональное состояние, аспекты взаимоотношений учителя и ученика. Эмоциональный состояние, Отношение типы, Демократические стиль, авторитарный стиль, либеральный стиль методы широкий был использован.

Заключение: В высших учебных заведениях взаимоотношения студента и преподавателя не только обеспечивают успех учебного процесса, но и влияют на формирование человека как личности. Поэтому учителям необходимо относиться к ученикам не только как к поставщикам знаний, но и как к людям, которые их поддерживают и мотивируют. В связи с этим важно развивать социально-психологические подходы и культуру взаимного общения.

Ключевые слова:Отношения ученик-учитель, психологические проявления, демократический стиль, авторитарный стиль, образовательный процесс, эмоциональная среда, стресс, мотивация, эмпатия, социально-психологическая среда.

Introduction: This in the article supreme education in institutions student and teacher between of relationships psychological features analysis Relationships democratic, authoritarian and liberal styles studied, their education to the process positive and negative effects seeing Also, psychological problems, stress and motivation lack of education to the process impact about in detail information given**.**

OBJECTIVE: It aims to highlight the importance of mutual trust, communication and support between students and teachers in improving the quality of education. We will see that focusing on several characteristics during lessons can greatly contribute to improving the effectiveness of the lesson. By analyzing the topic in more depth, it will be clear what exactly needs to be paid more attention to in the interaction during lessons. **MATERIALS AND METHODS:**The relationship between a student and a teacher is largely based on mutual respect and trust. From a psychological point of view, the socio-

psychological environment and emotional state aspects of the relationship between a teacher and a student are distinguished. Emotional Status, Relationship Types, Democratic style, Authoritarian style, Liberal style from methods wide used.

CONCLUSION: In higher education institutions, the relationship between a student and a teacher not only ensures the successful course of the educational process, but also influences the formation of a person as a person. Therefore, teachers should approach students not only as educators, but also as supporters and motivators. In this regard, socio-psychological approaches and the development of a culture of mutual communication are important.

Keywords: Student-teacher relationships, psychological manifestations, democratic style, authoritarian style, educational process, emotional environment, stress, motivation, empathy, socio-psychological environment.

Oliy ta'lim muassasalarida talaba va o‘qituvchi munosabatlarining psixologik ko‘rinishlarini o‘rganish mavzusi o‘qituvchilik faoliyati va ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu mavzuni chuqurroq tahlil qilish quyidagi masalalarni qamrab oladi: Munosabatlarning psixologik xususiyatlariga quyidagilarni keltirishimiz mumkin. Ijtimoiy-psixologik muhit: Talaba va o‘qituvchi munosabatlarida ishonch, hurmat va hamkorlikning ahamiyati muhim. Kommunikatsiya uslubi: O‘qituvchi va talabaning o‘zaro muloqotdagi uslubiy farqlari va ularning ta'lim jarayoniga ta'siri.Shaxsiy psixologik omillar: Har bir shaxsning xarakteri, emotsional holati va motivatsiyasi munosabatlarga qanday ta'sir qilishi. O‘qituvchi va talaba munosabatlari quyidagi turlarini tashkil qiladi: Demokratik yondashuv - Talabalarni mustaqil fikrlash va o‘z fikrini erkin bildirishini rag‘batlantirish; Avtoritar yondashuv-Bu uslubning ijobiy va salbiy jihatlarini ko‘rib chiqish; Liberal yondashuv-Talabalarga ortiqcha erkinlik berish va uning natijalari; Munosabatlarning ta'lim jarayoniga ta'siri. Munosabatlarning ta’lim jarayoniga ta’siri katta hisoblanadi. Talabaning psixologik, ruhiy holati uning o ‘qituvchilari bilan bo‘lgan munosabati, o‘qituvchining unga bo ‘gan munosabati talabaning ta’lim olishiga uzviy bog‘liq. O‘qituvchilar talabalarga motivatsiya tarzda yondashishlari va sog‘lom munosabatlar o‘rnatishi talabaning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Ishonch va qo‘llab-quvvatlash ham muhim omillardandir. Psixologik qulaylik sharoitida talabalarning bilim olish jarayoni yaxshilanadi. Empatiya va psixologik yordam ham muhim. Bunda o‘qituvchining empatiya ko‘rsatishi va talabaning ruhiy holatini inobatga olinishi kerak. O‘qituvchi va o‘quvchilar orasidagi munosabarlarni yaxshilash uchun so‘rovnoma va intervyu usuli orqali talaba va o‘qituvchilarning fikrlarini o‘rganish,kuzatish va amaliy tahlil yordamida munosabatlardagi xatti-harakatlarni baholash usullaridan foydalanish samarali natija beradi. Oliy ta’lim muassasalarida talaba va o‘qituvchi munosabatlarining psixologik ko‘rinishlarini o‘rganish orqali ta’lim tizimidagi insoniy munosabatlar chuqurroq tushuniladi, bu esa ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Oliy ta’lim tizimi jamiyatning intellektual rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ushbu jarayonda talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabatlar ta’lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabatlarning psixologik xususiyatlari, ularning ta’lim jarayoniga ta’siri hamda mavjud muammolarni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi.

Talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabatlar ko‘p jihatdan o‘zaro hurmat va ishonchga asoslanadi. Psixologik nuqtai nazardan, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi munosabatlarning Ijtimoiy-psixologik muhit, emotsional holat jihatlari ajralib turadi. Ijtimoiy-psixologik muhit. Sog‘lom muhit ta’lim jarayonining muvaffaqiyatli bo‘lishida

muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchining o‘z talabalari bilan ochiq va samimiy muloqotda bo‘lishi talabalarning qiziqishini oshiradi. Emotsional holat. Talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, xususan, tanqid yoki maqtov, talabaning ruhiy holatiga ta’sir qiladi. Munosabat turlari va ularning ta’lim jarayoniga ta’sirini ham ko ‘rib chiqamiz. Talaba va o‘qituvchi munosabatlarini uchta asosiy uslubga ajratish mumkin:

Demokratik uslub. Ushbu yondashuvda o‘qituvchi talabaning fikriga hurmat bilan qaraydi, ularni erkin fikrlashga undaydi. Bu munosabatlar talabalar orasida ishonch muhitini yaratadi. Avtoritar uslub. Bu uslubda o‘qituvchi boshqaruvchi rolini bajaradi, talabalarni qat’iy qoidalarga rioya qilishga majbur qiladi. Bunday yondashuv ta’lim samaradorligini pasaytirishi mumkin. Liberal uslub. Talabalarga ortiqcha erkinlik berish ba’zan ularning mas’uliyatsiz bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Talaba va o‘qituvchi o‘rtasidagi munosabatlar psixologik muammolar va tushunmovchiliklarga ham sabab bo‘lishi mumkin. Ushbu muammolarni hal qilish uchun Stress va bosim, tushunmovchilik va konfliktlar, motivatsiya yetishmasligi masalalarini inobatga olish kerak: Stress va bosim. Ba’zan talabalarga haddan tashqari yuqori talablar qo‘yilishi ularning ruhiy bosimini oshiradi.

Tadqiqot natijalari va xulosalar

Mavzuga oid tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, demokratik va samimiy munosabatlar ta’lim jarayonining sifatini oshiradi. Talabalar o‘zlarini hurmat va qadr topilgan muhitda his qilsalar, ular o‘z maqsadlariga erishishda yanada faol bo‘ladilar. O‘qituvchining empatiya ko‘rsatishi, adolatli baholashi va konstruktiv tanqidni qo‘llashi muvaffaqiyatli ta’lim tizimini yaratishda hal qiluvchi omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saipova M.L. Pedagog shaxsida makiavellizmga moyillikni diagnostika va korreksiya qilishning ilmiy-metodik imkoniyatlarini takomillashtirish: Psixologiya fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) .. diss.avtoref.: 19.00.06. – T.: O‘zMU, 2018
2. Elmurodov U.Y Oliy ta’lim tizimi rahbarlarida liderlik qobiliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (PhD). diss.avtoref.: 19.00.05. – T.: SamDu, 2023

JISMONIY TARBIYA DARSLARDA TALABALARNING KRITIK VA KREATIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Yusufov Uktam Ixtiyorovich,
O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya universiteti o‘qituvchisi

Bugungi kunda mamlakatimiz ta’lim-tarbiya tizimida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi” - degan g‘oyalari asosida keng ko‘lamli islohotlar va yangi taraqqiyot davriga monand ta’limni modernizatsiyalash ishlari amalga oshirilayotganligini ko‘rsatmoqda.Yosh avlodning har tomonlama aqliy, ahloqiy va jismoniy jihatdan rivojlanishida jismoniy tarbiya asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. Jismoniy sog‘lomlashtirish tadbirlarining keng yo‘llarini, ularni amalga oshirish uslublarini takomillashtirish kerak. O‘qituvchi har bir mavzuning ahamiyatini ko‘rsatishi va aniqlashi, Talabalar o‘rtasida aloqa o‘rnatishi hamda bilimlar, mavzularni muntazam ravishda o‘rgatishi juda muhimdir. Talabalar amaliy ishlarini hayotga joriy etish uchun nazariy bilimlarni egallashi, o‘qitishning pirovard maqsadi to‘g‘risida bir daqiqa ham unutmaslik ehtiyojini hosil qilishi zarur. Talabalarda Kreativlik – shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlari bilan bog‘liq ko‘nikmalar majmui sifatida namoyon bo‘ladi.Kreativlik (ingl. “create ” – yaratish, “creative ” – “yaratuvchi”, “ijodkor”) –

individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyatidir.

Kreativlik o‘z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, natijalarni oldindan ko‘ra bilish, ijodiy g‘oyalar ishlab chiqish kabilarni qamrab oladi. Binobarin shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi.

Jismoniy tarbiya talabalarda kreativ yondashuvni rivojlantirish o‘ziga xos psixologik-pedagogik xususiyatga ega bo‘lib, bular o‘quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish bilan bog‘liq holda muammoli vaziyatlar yaratish, mashg‘ulotlarga maqsadli va mazmunli yondashish, o‘quvchilarning qobiliyati, qiziqishi, xohish va istaklarini hisobga olish, axloqiy-estetik hissiyotini tarbiyalash, bilimlar tizimi, malaka va ko‘nikmalarini faoliyatning turli shakl va usullarini egallab olishga yo‘naltiriladi.

Talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olishlari, jismoniy tarbiyada qo‘llaniladigan uslublar bo‘yicha so‘ngi ma’lumotlar bilan qurollangan bo‘lishlari kerak, o‘qituvchi talabalarga jismoniy tarbiya va sport masalasi oddiy masala emasligini, balki insonni har tomonlama rivojlantiruvchi asosiy vositalardan biri ekanligini, birinchi navbatda, uning mehnat faoliyati, vatanni himoya qilish vositasi ekanligini tushuntira olishi, o‘quvchilarni kasbiy amaliy tayyorgarlik ishlarining uslublari va shakllari to‘g‘risidagi bilimlar bilan ta’minlashi zarur. Bunda talabalarning o‘z kasbiga qiziqishi juda muhim. Ta’lim vazifalarini amalga oshirish, odatda, tarbiyalash va sog‘lomlashtirish vazifalari bilan bog‘lab olib boriladi. Talabalarda XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirish 4K yondashuvi bilan yo‘naltirildi. Jismoniy tarbiya fanini o‘qitishda 4 K modelining har bir bo‘limiga alohida to‘xtalib o‘tamiz:

Kollaboratsiya o‘quvchilarning biror maqsadga erishish uchun jamoada ishlash ko‘nikmasidir. Bu orqali o‘quvchilarda hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va bir-birini qo‘llab-quvvatlash o‘rgatiladi. Shu tariqa o‘quvchilarning jamoada ishlash qobiliyati rivojlantiriladi. Biror masalani hal qilishda jamoaviy hamkorlik asosida fikr bildirish, bir-birini qo‘llab-quvvatlash, tushunish muhim rol o‘ynaydi. Darsliklardagi mazmun aynan mana shu 4K modelining birinchi jihati - kollaboratsiyaga asoslangan holda berilgan. Ko‘pgina topshiriqlarni bajarishda o‘quvchilar jamoaviy fikrlab, xulosa chiqarishi mumkin.

Kommunikativlik o‘quvchilarning boshqalar bilan muloqotga kirishish qobiliyatini anglatadi. Bunda bolalar fikrini aniq-ravshan ifodalash, suhbatdoshni tinglash, tushunish, ma’lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishni o‘rganadi. Shuningdek, o‘rinli savol berish, fikrlarni aniq-tiniq ifodalay olish, mulohazasini to‘g‘ri talqin etish va himoya qilish ham muhim.

Kreativ fikrlash ijodiy tafakkur va yangilik qilish qobiliyatini bildiradi. O‘quvchilar maqsadiga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadi. Innovatsion yechimlarni ishlab chiqadi va ijodiy muammolarni hal qilish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Masalan, bolalar kreativ yondashib, berilgan topshiriqlarni nostandart usulda hal etish ko‘nikmasini shakllantiradi.

Kritik ya’ni tanqidiy fikrlash o‘quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, shaxsiy fikr-mulohazalarni shakllantirish ko‘nikmasidir. Bolalar muammolarga tahliliy nuqtai nazardan yondashishni o‘rganadi. Mantiqiy fikrlash asosida nuqtai nazarini shakllantiradi. Zamonaviy ta’lim yod olishga yo‘naltirilgan kontent o‘rniga o‘quvchining mustaqil faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi muhim ko‘nikmalarni shakllantirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymoqda. Shu bilan birga, fanlarda berilayotgan mavzu va topshiriqlar maktab bitiruvchilarining jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishga ko‘maklashuvchi

hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. An'anaviy ta'limda nima? qachon? qayerda? degan savollarga javob topilar va bu o‘quvchilarning xotirasini rivojlantirar edi. Ko‘nikma shakllanmagani hisobiga bolalar hayotda duch keladigan masalalar, muammolarga javob topa olmasligi mumkin. Agar o‘quvchida muammoga keng qamrovli yechim topish ko‘nikmasi shakllantirilsa, muammoga duch kelganda unga qanday yechim topish ustida bosh qotiradi. Mas'uliyat, ishtiyoq, tanqidiy fikrlash, muammoga o‘ziga xos uslubda yechim topish kabi ko‘nikmalar asosida shaxs xarakteri shakllanadi.

Jismoniy tarbiya darslarida diqqat, intizomlilik, iroda, saranjomlik, buyumlarni ehtiyot qilish, shuningdek, do‘stlik, o‘rtoqlik, maqsadga intiluvchanlik, mustaqillik va qiyinchiliklarni yengishda qat'iylik tarbiyalanadi.

Jismoniy madaniyat - jamiyat a'zolarini jismoniy kamolotga erishishini maqsadga muvofiq ravishda amalga oshirish uchun maxsus vositalar, uslublar va sharoitlarni yaratish hamda ulardan samarali foydalanish bo‘yicha erishilgan yutuqlarning yig‘indisidir.

Jismoniy madaniyatning vazifalari quyidagilardir:

Faoliyatni oqilona me'yoriy mustahkamlash;

Madaniy axborotni jamlash, aks ettirish va uni avloddan avlodga yetkazish;

Shaxslararo kommunikativ munosabat o‘rnatish, aloqa qilishga ko‘maklashish;

Insonning biologik, sog‘lomlashtiruvchi ehtiyojini qondirish, uning jismoniy holatini yaxshilash va jamiyat a'zosi sifatida Vatan oldidagi majburiyatini bajarish uchun, kundalik hayot uchun zarur layoqat darajasini ta'minlash.

Xulosa qilib aytganda, Talabalarning pedagogik tayyorgarligini kasbiy faoliyatini innovatsion yo‘naltirish, ularni innovatsion pedagogik jarayonlarga tayyorlash masalalariga alohida axamiyat qaratish lozim.

XORIJIY TILNI O‘RGATISHDA KOMMUNIKATIV TRENINGLARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

Akramova Dilafruz Sharofiddinovna,
Navoiy viloyati PMM katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Kommunikativ treninglar bugungi kunda ta'lim jarayonida keng qo‘llaniladi. Kommunikativ trening - bu o‘quvchilar va o‘qituvchilar bilan o‘zaro munosabatlarda zarur bo‘lgandagi shaxsiy fazilatlarni anglashga, faollashtirishga, shakllantirishga va takomillashtirishga qaratilgan o‘quv jarayonidir. Bu o‘quvchilarning, hamkasblarning, jamoaning holati, manfaatlari va maqsadlarini hisobga olgan holda aloqa jarayonini qurish qobiliyatiga o‘rgatish.

Kalit so‘zlar: zamonaviy pedagogik texnalogiyalar, funksional protsess, kommunikativ trening, kasbiy samaradorlik, metod, usul, tamoyillar,

Ta'lim jarayonini tashkil qilishda, har bir o‘qituvchi xorijiy tilni o‘rgatishda o‘zining usulini tanlaydi. Xorijiy tilni o‘qitishning mazmuni asosan o‘zgarmaydi, lekin uni o‘quvchilarga yetkazish va tushuntirish usuli o‘zgarishi mumkin.

O‘qitishning hozirgi kunda bir qancha usullari mavjud bo‘lib, dars jarayonida quyidagi o‘qitish usullaridan foydalanish keng tus olgan. Masalan:

Ma'ruza usuli.

Misol keltirish usuli.

Namoyish qilish usuli.

Bahs-munozara usuli.

Savol-javoblar usuli.

Bu usullar o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro muloqot qilish, shuningdek, qo‘yilgan maqsadga yo‘naltirilgan fikrlarni asoslangan holda yoritish usuli yoki shaklidir.

O‘qituvchilar muayyan vaziyatni yoki dars uchun mos keladigan usulni tanlay bilishi lozim. O‘qitishning o‘ziga mos va samarali usulini tanlash uchun bir qancha asoslangan omillarni hisobga olish kerak:

O‘quvchilarning dars jarayonidagi soni.

Darsdagi muayyan vaziyat.

Usulning darsga qo‘yilgan maqsadga mos kelishi.

Agarda biron bir matn muhokama qilinsa, o‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lib, kichik jamoa yo‘li bilan bahs-munozara, muhokama o‘tkazish maqsadga muvofiqdir. Bunday usuldan texnik vosita, ya’ni - audio-yozuvlardan foydalanish muhim ahamyat kasb etadi. Albatta, ushbu usullarni qo‘llaganda vaqtni doimo hisobga olish kerak.

Dars jarayonidagi o‘yinning ahamiyati shundaki, o‘qituvchida o‘quvchilarni ular erkin holda faoliyat ko‘rsatayotgan paytda kuzatish imkoniyati paydo bo‘ladi. Natijada o‘quvchilarning darsdagi faolligi, iqtidori, fantaziyalari, harakatchanligi, ijodiy qobiliyatlari, ishchanliklari, jamoada o‘zini tuta olishi haqida ko‘proq namoyon bo‘lish mumkin. O‘quvchilar bunday vaqtda bir nechta guruhlarga bo‘linadi. Guruhlarning har bir a’zosi o‘z vazifalarini aniq bilishlari kerak bo‘ladi. Bajariladigan o‘yin mashqining vaqti cheklangan bo‘lishi, u yakunlangach albatta, o‘yin natijalari tahlil qilinishi kerak. O‘quvchilarning chuqur, samarali va sifatli bilim olishiga fanlarni o‘yin orqali o‘qitish texnologiyalari hozirda darsning o‘quv- tarbiyaviy jarayonda keng imkoniyatlar yaratishga olib keladi.

Yangi texnologik jarayon va o‘qitishning yangi zamonaviy usullarini o‘quv jarayoniga tatbiq qilishdagi yangicha zamonaviy yondashuv xorijiy til o‘qitishning maqsadini o‘quvchilarga bilim berish va ma’lum, nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirishdagina emas, balki shu bilan birga o‘quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘rganayotgan xorijiy tilga nisbatan qiziqishni kuchaytirish, ular xotirasining ichki imkoniyatlarini ishga solish, o‘quvchilardagi o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchini yanada oshiradi.

Ma’lumki, ta’lim jarayoni murakkab hisoblanadi. Xorijiy til darslarida yangi o‘quv materialini taqdimoti, uning turli mashqlar orqali mashq qilinishi va turli nutqiy vaziyatlarga mos qo‘llash orqali tegishli nutqiy ko‘nikma va malakalar xosil qilish bosqichlarini o‘z ichiga oladi. O‘quvchilarning darsdagi faolligini oshirishda qator interfaol usullardan foydalanish mumkin.

Interfaol usul iborasi inliz tilidagi “interactive” so‘zidan olingan bo‘lib, u o‘quvchilarda ichki faollikni oshirishni nazarda tutadi. Ushbu metodning qator turlari bo‘lib, hozirda keng qo‘llanilayotgan “aqliy hujum”, “ishbilarmonlik o‘yinlari”, “pinbord”, “klaster”, “Sinkveyn”, “kubik texnologiyasi”, “rolli o‘yinlar” kabi interfaol usullarning ayrim ko‘rinishlari ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faolligini oshirishga qaratilgan. Interfaol o‘qitishda guruh-guruh bo‘lib o‘qitish, 3-5 kishidan iborat kichik guruhlar tuzish samarali hisoblanadi.

Ma’lumki, hozirgi kunda interfaol usullarning yuzdan ortiq turi mavjud bo‘lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o‘tib, yaxshi natija bergan. Ta’lim texnologiyalarini o‘quv jarayoniga tadbiq etishning asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

darsni o‘qitish jarayonida har bir o‘quvchining bilimlarni o‘zlashtirishda erkin muloqotga kirishishini rivojlantirish;

ta’lim jarayonida asosiy e’tiborni bilim oluvchining faolligini oshirishga va dars jarayonida ham faollikni oshiruvchi usul va zamonaviy ta’lim vositalaridan foydalanish.

Chet tillarni, xususan, ingliz tilini o‘qitishda kommunikativ treninglardan foydalanib o‘qitishning o‘quvchilar uchun mashq va topshiriqlar qo‘llashni, bunda birinchi bosqich uchun retseptiv, reproduktiv, produktiv mashqlardan, ikkinchi bosqich uchun esa situativ - kommunikativ, ijodiy va integrativ mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Ushbu mashqlar o‘quvchilar tomonidan mashg‘ulot davomida ingliz tilini tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish turlarini teng darajada qo‘llashga qaratilishi, ikkinchi bosqichda har bir autentik materialni o‘zlashtirishda nutq faoliyati turlarining barchasidan foydalanishga yo‘naltirilishi ko‘zda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xoshimov O‘ va boshqalar. Ingliz tili o‘qitish metodikasi. – T., 2003.
2. Abdullaev Yu.N., Bushuy A. I. Inostranniy yazik v sovremennom mire. Samarkand, 2001. -127 s.
3. Isakulova N.J. Uzluksiz ta’lim jarayonida o‘quvchilarga fanlararo ekologik tarbiya berishning nazariyasi va amaliyoti: Ped. fan. dok. ... diss. – T., 2012.
4. Galskova N.D. Sovremennaya metodika obucheniya inostrannim yazikam. Posobiya dlya uchitelya 2-e izd., pererab. i dop.- M.: ARKTI, 2003-192 s.

“VAFO” KONSEPTINING KOGNITIV-SEMANTIK ASOSLARI

Abdullayeva Gulbahor Nuriddinovna,
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Vafo bu shaxsning hayotiy qadriyatlarini aks ettiruvchi axloqiy kategoriya. Bu barqarorlik, o‘zgarmaslik va qat’iylik bilan ajralib turadigan yer yuzidagi eng muhim fazilatlardan biridir. Adabiy nuqtayi nazardan qaraganda, aksariyat asarlardagi “vafo” qahramonlar harakatini yorqin va to‘g‘ri ifodalaydi.

Kalit so‘zlar. Ishonchlilik, chidamlilik, shartnoma, ishonch, diniy e’tiqod, do‘stlik, tinchlik, kelishuv, haqiqat, sog‘lik, yaxshilik, rahm-shafqat.

Аннотация. Верность – это моральная категория, отражающая жизненные ценности человека. Это одно из важнейших качеств на земле, характеризующееся стабильностью, неизменностью и твердостью. С литературной точки зрения “верность” в большинстве произведений ярко и правильно выражает поступок героев.

Ключевые слова. надежность, стойкость, договор, доверие, религиозная вера, дружба, мир, согласие, истина, здоровье, доброта, сострадание.

Annotation. Loyalty is a moral category that reflects a person's life values. It is one of the most important qualities on earth, characterized by stability, immutability and firmness. From a literary point of view, “fidelity" in most works vividly and correctly expresses the action of the characters.

Keywords. reliability, steadfastness, contract, trust, religious faith, friendship, peace, harmony, truth, health, kindness, compassion.

Kirish. XXI asrda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar sohasida “vafo” konseptini tadqiq etish borasida ikkita tadqiqot ishi ustunlik qiladi. Bular J.Roys va J.Ludda tomonidan vafoni falsafiy asosiy muammolar va axloqiy masalalarning keng doirasi sifatida talqin qilinganligidir. Vafo tushunchasining qiymati, chegaralari, uning odamlarni birlashtirish va yangi madaniyatga qo‘shish uchun ahamiyati, maqsadga muvofiqligi va har xil

madaniy vakillik egalari ongidagi tasavvuri va boshqalar B.Gert, J.Graff, M.R.Rutgers, E.Felten, L.Yang kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. So‘nggi yillarda esa mahalliy madaniyatlarda va tarixning muayyan davrlarida haqiqiy tarixiy-madaniy davrlar hamda til hududlariga ilova qilingan “vafo” konseptini tahlil qilishga bag‘ishlangan ishlar, xususan, P.Vudruff (“Qadimgi yunon an'analarida vafo”), K.Xiggins (“Konfutsiychilikda vafo”), N.Bushmann, K.M.Borromaus-Murr (“Nemis madaniyatida vafo”), L.R.Lavrentiyeva (“Ingliz tilida vafo”) kabilar tomonidan fanga tadbiq etilgan.

Adabiyotlar tahlili. “Vafo” konseptining prototipik holati E.Benvenist tomonidan ko‘rib chiqilgan. Muallifning so‘zlariga ko‘ra, “vafo” tushunchasi juda ko‘p ma'nolarni o‘zida mujassamlaydi. Ingliz tilida ushbu tushuncha sifatida qadimgi o‘rnatish, ya'ni hokimiyatga ega bo‘lgan va unga bo‘ysunadigan kishi o‘rtasida o‘z xohishi bilan o‘rnatiladigan shaxsiy sadoqat tushunilgan. E.Benvenist ushbu konseptning etimologik jihatlariga ham e'tibor qaratib, qadimgi hind-Yevropa tillaridan olingan ma'lumotlarga asoslanib, “vafo” konseptining dastlab falsafiy tushunchalar bilan bog‘liqligini ochib beradi: “ishontirish”, “ishonch”, “qasam” yunon tilidagi peithō – “ishontirish”; pístis – “ishonch”; pistós – “sodiq”; pistoūn – “sadoqatni majburlash, sadoqat qasamyodini berish”; pisteuō – “iymonga ega bo‘lish”[1].

Olim o‘z fikrlarini davom ettirib, g‘arbiy hind-Yevropa hududida “vafo” konseptining asosiy ifodasi lotincha ***fides*** so‘zi va u bilan etimologik bog‘liq so‘zlar (foedus – “shartnoma”), lotin tili uchun fides, foedus bu I. – E.Goth tilida ikkita fe'lni keltirib chiqargan bheidh ildizi: beidan – “chidash, kutish, umid qilish” va beijan – “majburlash”, ikkinchi fe'l birinchisiga sabab bo‘ladi va “birinchi harakatni amalga oshirish” degan ma'noni anglatadi. E.Benvenistning yozishicha, bu ikki fe'lning asl munosabati yunoncha ***peithō (πειθω)*** fe'llari o‘rtasidagi munosabatlarga o‘xshaydi – “ishonishga moyil, bo‘ysunishga majbur” va ***peithomai (πειθomai)*** – “ishonchni his eting va itoat qiling”. Shuning uchun ishonchdan kelib chiqadigan harakatlar “ishonchish”, “va'da qilingan narsaning bajarilishini kutish”, “umid” kabi leksemalarda gavdalanadi.

E.Benvenist ta'kidlaganidek, “vafo” hayotiy tushuncha. Ushbu konsept fides lotin foedus – “shartnoma” so‘zidan olingan bo‘lib, bu teng bo‘lmagan tomonlar o‘rtasidagi shartnoma (ulardan biri boshqasidan itoat qilishni talab qiladi va buning evaziga va'da qilingan narsani bajarishga majbur bo‘ladi, himoya va qo‘llab-quvvatlash). Bunday munosabatlar insonning Xudoga murojaat qilishining asosidir. Shartnoma bilan bog‘liq majburiyatlarni yuklash kuchi keyinchalik ikkala tomonga ham tatbiq etildi va huquqiy zarurat yo‘nalishi doirasida “majburlash” g‘oyasi rivojlana boshladi[2]. Shunday qilib, lotincha ***fides*** tushunchasi shartnoma, munosabatlarni o‘rnatishni o‘z ichiga oladi, ikki sherik o‘rtasidagi ishonch va bu ma'lum bir o‘zaro munosabat va almashinuvni keltirib chiqaradi.

Y.S.Stepanovning fikricha, “vafo” konseptining mohiyati quyidagi so‘zlarda aniqroq aks etadi: ***“uer, uerə”*** – “do‘stona munosabat; do‘stona munosabatni isbotlash”; ***“ueros”*** – “ishonchli; sodiq, haqiqiy”[3]. Nemis guruhiga mansub tillarda ***“uer”*** – “sadoqat” tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan “shartnoma”, shuningdek, “ishonch”, “do‘stlik”, “tinchlik”, “qasam” va boshqa konseptosferalarni ifodalagan.

[1] Бенвенист Э. Словарь индоевропейских терминов / Э.Бенвенист: Пер. с фр. // Под ред. Ю.С. Степанова. – Москва: Прогресс-Универс, 1995. – С. 84, 92.

[2] Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования / Ю.С.Степанов. – Москва: Школа «Языки русской культуры», 1997. – С. 267.

[3] Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования / Ю.С.Степанов. – Москва: Школа «Языки русской культуры», 1997. – С. 268–269.

Ingliz tilida esa ***"wær"*** – "sadoqat, iymon, shartnoma, do'stlik"; nemis tilida "ware" – "shartnoma, tinchlik" ma'nolarini ifodalagan.

Tahlil va natijalar. Ingliz tilidagi "vafo" tushunchasi o'n bitta leksema bilan ifodalanadi: *treow, winetreow, waer, hyld(o) (hyldu), holdscipe, holdrsden (hyldorasden), mannraden, so^faestness, Jjegen-scipe (jsegnscipe), geongordom (geongerdom), geongorscipe (giongorscipe).*

Ushbu til birliklarining ichki shaklini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi "vafo" konsepti quyidagi konseptosferalarga ega:

1) ishonchlilik;
2) chidamlilik;
3) kuch;
4) shartnoma;
5) ishonch;
6) diniy e'tiqod;
7) do'stlik;
8) tinchlik;
9) kelishuv;
10) haqiqat;
11) sog'lik;
12) yaxshilik;
13) rahm-shafqat;
14) iyerarxik ijtimoiy munosabatlar-boshliq;
15) xizmat, burch, qonun;
16) qasam ichish, qasam ichishda ma'lum bir marosimga rioya qilish.

"Vafo" konseptining etimologik jihatlariga e'tibor qaratar ekanmiz, uning ba'zi doimiy xususiyatlarini ajratib ko'rsatishga imkon beradi hamda ular "vafo" konseptining assotsiativ maydonini tashkil etadi: "shartnoma", "ishonch ", "o'zaro majburiyatlar", "qat'iylik", "o'zaro yordam".

"Vafo" konsepti yadrodan (majoziy komponent), qo'shimcha konseptual qatlamdan (konseptual komponent) va periferiyadan (qiymat komponenti) iborat murakkab ichki tuzilishga ega.

Ingliz qahramonlik modelidagi ushbu konseptning yadrosi "rahbar – jangchi" iyerarxik ijtimoiy munosabatlari bilan bog'liq "vafo" holatidir. Qo'shimcha konseptual qatlam – bu qahramonlik dunyosiga xos bo'lgan gorizontal ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan "vafo" holati. Maydonning chekkalari ma'lum bir davrda odamlarning "vafo" tushunchasi haqidagi g'oyalarini aks ettiradi.

Ingliz yozma manbalari hamda she'riy matnlarini, shuningdek, lug'at va tarixiy-etnomadaniy materiallarni tahlil qilish asosida "vafo" konseptini o'rganish quyidagi asosiy xulosa chiqarishga imkon beradi: ingliz tilida "vafo" konsepti ko'plab leksemalar bilan ifodalanadi (jami 11 so'z – *treow, winetreow, wser, hyld(o), holdscipe, holdrseden (hyldorseden), mannraeden, sobfestness, foegenscipe, geongordom, geongorscipe*), bu ushbu tildan tashqari obyektning qiymati to'g'risida muhim lingvistik signal bo'lib, uning ingliz madaniyati odamlar ongi uchun alohida ahamiyatini ko'rsatadi.

"Vafo" konsepti ulug'lanadi – *treowe herían (Beow. 1071), treowe wenan (Beow. 2922), u treowe heald* (Husb. 52), qimmatbaho narsa sifatida – boylik, xazina va boshqalar.

Boshliq xodimiga o'zining saxiyligi – *beag-giefii* va xayrixohligi bilan to'laydi – *hyldo* (Beow. 2994-2998). Xodimlarning o'z rahbariga sodiqligi itoatkorlikda namoyon

bo‘ladi *hiemes* (Below. 78-79). Bu do‘stlik bilan bog‘liq – *friondscipe* va o‘zaro bog‘liqlik - *lufu* (Beow. 13251326), natijada tinchlik – *frij* va o‘zaro kelishuv – *sib* (Beow. 22812283). Umuman olganda, vafo “yaxshilik” toifasiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бенвенист Э. Словарь индоевропейских терминов / Э.Бенвенист: Пер. с фр. // Под ред. Ю.С. Степанова. – Москва: Прогресс-Универс, 1995. – С. 84, 92.
2. Каган М.С. Философская теория ценностей Текст. / М.С.Каган. – Санкт-Петербург: Петрополис, 1997. – С. 50.
3. Корнилов О.А. Языковые картины мира как производные национальных менталитетов Текст. / О.А.Корнилов. 2-е изд., испр. и доп. – Москва: Черо, 2003. – С. 154.
4. Малинович, М.В. Причинность Текст. / М.В.Малинович // Внутренний мир человека: Семантические константы: коллективная монография к юбилею д-ра филол. наук, проф. Ю.М.Малиновича / отв. ред. М.В.Малинович. – Иркутск, 2007. – С. 42, 50–52.
5. Пименова М.В. Проблемы когнитивной лингвистики и концептуальных исследований на современном этапе Текст. / М.В.Пименова // Ментальность и язык: коллективная монография / отв. ред. М.В.Пименова. Кемерово: КемГУ, 2006. – С. 46.
6. Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования / Ю.С.Степанов. – Москва: Школа «Языки русской культуры», 1997. – С. 267.
7. Чернейко Л.О. Лингво-философский анализ абстрактного имени Текст. / Л.О.Чернейко. – Москва: МГУ им. М.В.Ломоносова, 1997. – С. 121.

OZOD SHARAFIDDINOV – XALQIMIZ VA MILLIY ADABIYOTIMIZNING JONKUYAR MUNAQQIDI!

Bokiyev B.U.,
Qarshi Iqtisodiyot va pedagogika universiteti professori. v/b., PhD,
Omonov O.O.,
Qarshi Iqtisodiyot va pedagogika universiteti magistri,

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ozod Sharafiddinov hayoti va faoliyati, O‘zbekiston badiiy adabiyoti tanqidchiligida olib borgan ishlari, mustaqillik davrida uning ijodi, faoliyatidagi yutuqlar, o‘tkazilgan yubileylari bilan bog‘liq masalalar haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Tarix, adabiyot, qahramon, texnikum, partiya, gazeta, jurnal, Yozuvchilar uyushmasi, yozuvchi, ziyoli, she’riy to‘plam, san’at, madaniyat, ijod.

Vatan – muqaddasdir! Inson inson bo‘libdiki, bu jumlaning mohiyatini anglashga intiladi. Buyuk ajdodlarimiz merosiga murojaat qilish, ulug‘ insonlar ijodini o‘rganish bu muqaddas tushunchaning mazmunini yanada teranroq anglashga yordam beradi.

Shu o‘rinda aytish joizki, Vatan oddin tuproq emas. U ajdodlar hayoti kechgan, ularning xoklari bilan muqaddaslashgan, xalqning turmush tarzishakllangan makondir[1].

Vatan tuyg‘usini anglash yordam bergan buyuk ijodkorlardan biri esa bu shubhasiz O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinovdir!

Ozod Sharafiddinov 1929-yil 1-martda Qo‘qon yaqinidagi Oxunqaynar qishlog‘ida tug‘ilib, Toshkentdagi 14-o‘rta maktabni tugatdi va 1951-yilda O‘rta Osiyo Davlat universiteti (hozirgi O‘zMU) filologiya fakultetini tugatdi. 1955-yilda Moskvada aspiranturani tugatib, fan nomzodi ilmiy darajasini olishga erishdi.

Ozod Sharafiddinov XX asrning 60-80 yillarida Cho‘lpon hayoti va ijodini yuzaga chiqarish, uni xalqqa yetkazish uchun yillar davomida fidoyilarcha mehnat qilgani hamda adolat uchun jasorat bilan kurashgani alohida e'zozga sazovordir.

Shu bilan birga o‘zbek adabiyotining Oybek, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qahhor, Shayxzoda, Mirtemir, Zulfiya singari namoyandalari haqida adabiy portretlar yaratib bordi. Jumladan 1976-yilda "Iste'dod jilolari", 1968-yilda "Adabiy etyudlar", 1988-yilda "Abdulla Qahhor", 1979-yilda "Birinchi mo‘jiza" kabilar shular jumlasidandir.

Mustaqillik yillarida Ozod Sharafiddinov ham adabiy tanqidchi, ham tarjimon, ham jamoat arbobi sifatida ulkan ishlarni amalga oshirdi. 1995-1997 yillarda "Tafakkur" jurnali bosh muharrir o‘rinbosari vazifasini bajardi hamda mazkur jurnalda bir qancha dolzarb mavzudagi maqolalar, shuningdek sobiq ittifoqning asoratli oqibatlari mohiyatini ochib beruvchi, uning bugungi kunda ham bo‘layotgan ta'siri haqidagi qarashlar bilan ishtirok etib bordi.

Masalan "Tafakkur" jurnalining 1996-yilgi sonida maqola e'lon qilinib, unda "... sobiq ittifoqdan juda og‘ir meros qolgan. Sotsialistik iqtisodiyot boshdan-oyoq ma'muriy-buyruqbozlik asosiga qurilgan edi. Ko‘pincha dabdaba bilan "zo‘r- zo‘r" tadbirlar amalga oshirilardi, ularga haddan tashqari katta mablag‘ sarflanardi lekin oxir-pirovardida bu tadbirlar kerakli samarani bermas edi, mablag‘lar havoga sovurilganday behuda ketardi"[2], - deya o‘z mulohazalarini berib o‘tadi.

Ozod Sharafiddinov o‘tgan yillar mobaynida "Birinchi mo‘jiza" (1979), "Talant – xalq mulki" (1979), "Adabiyot – hayot darsligi" (1980), "Hayot bilan hamnafas" (1983), "Go‘zallik izlab" (1985) asarlarini yaratib, o‘zbek she'riyati, nasri va tanqidchiligida muhim muammolarini yoritib bordi.

Ozod Sharafiddinovning munaqqidlik faoliyatini quyidagi ikki davrga bo‘lish mumkin:

Birinchi davr sho‘ro totalitar tuzumida kechgan bo‘lib, unda adabiyotni totalitar mafkura g‘oyalaridan himoya qilish, adabiy qonuniyatlar asosida tadqiqotlar olib borish muammolari tadqiq etilgan.

Ikkinchi davr munaqqid faoliyatida asosiy davr bo‘lib, u istiqlol yillaridagi ijodini qamrab oladi.

Sobiq ittifoq davrida ham totalitar tuzum g‘oyalariga qarshi o‘zini tanqidiy fikrlarini doim berib borgan olim haqida zamondoshlari quyidagicha xotirlaydi: "Boshiga qilich kelsa ham" rost so‘zlash, rost yozishni Ozod aka Abdulla Qahhordan meros olgan bo‘lsa ajabmas. Ehtimol shuning uchundir, olim Qahhor domla to‘g‘risida ko‘p va chuqur maqolalar yozgan. ... Qahhor domlaning boshida singan kaltakning bir uchi olimning peshonasini g‘urra qildi"[3].

Sharafiddinov ijodining cho‘qqisi 2004-yilda yozilgan "Ijodni anglash baxti" kitobida o‘z aksini topgan. Unda o‘zbek adabiyotining jahon adabiy jarayonida tutgan o‘rni va ilmiy-ma'naviy o‘zanlari tadqiq etib berilgan.

"Ozod Sharafiddinovning xalqimizga va milliy adabiyotimizga jon kuydirib xizmat qilishi uning jahon adabiyoti va umuminsoniy qadriyatlarni yaxshi bilishi bilan ham bog‘liqdir"[4], - deydi Pirimqul Qodirov.

Ozod Sharafiddinovning "Iste‘dod xalq mulki" degan iborasi mag‘rur jaranglaydi. Olim serqirra ijodkor, odil inson, xalq farzandlarini adabiyotni tushunishga o‘rgatgan buyuk ustozdir. Ozod Sharafiddinovning faoliyatini o‘rganish bizga munaqqidning o‘ziga xos maktabi bilan yaqindan tanishish, targ‘ib qilish imkonini beradi. Vatanga muhabbat har birimizga berilgan ulug‘ ne‘mat ekanligini bot-bot takrorlagan ustozimiz o‘zining

haqqoniy so‘zi, iroda va matonati bilan yurtdoshlarimizga, avvalambor biz yoshlarga ibratdir[5].

Bugungi kunga kelib o‘zbek adiblari, milliy ziyolilarimizga e'tibor tubdan o‘zgardi. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Fanlar akademiyasi, Respublika Ma'naviyat targ‘ibot markazi, “Nuroniy” jamg‘armasi, “Mahalla” xayriya jamoat fondi, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati, Toshkent shahar hokimligi va keng jamoatchilik vakillarining O‘zbekiston Milliy bog‘i hududida Adiblar xiyobonini barpo etish to‘g‘risidagi taklifi ma'qullanib, 2017-yil 18-aprel kuni “Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘i hududida Adiblar xiyobonini barpo etish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2894-son Qarori qabul qilindi.

Ushbu hududda 2007-yili O‘zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhor, 2010-yili O‘zbekiston xalq yozuvchisi Oybek, 2013-yili O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad va taniqli shoira Saida Zunnunova, hamda Ozod Sharafiddinov xotiralariga bag‘ishlab yodgorlik majmualari o‘rnatildi.

Shuningdek, “Atoqli adiblar va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini yoshlar o‘rtasida targ‘ib qilish hamda Adiblar xiyobonidan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[6] 2020-yil 24-avgustda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 502-son qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorda;

- muayyan adiblar nomidagi ko‘krak nishonini joriy qilib, bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlashni yo‘lga qo‘yish;
- adiblar nomidagi maxsus stipendiyani joriy qilish;
- o‘zbek, ingliz va rus tillaridagi “Adiblar xiyoboni” internet portalini yaratish;
- “Adabiyot haftaligi” doirasida “Erkin, yosh avlodlar senga zo‘r qanot!” shiori ostida respublika talabalar festivalini, uning doirasida kitob yarmarkasi va festivalini tashkil etish;
- “Adibimiz – faxrimiz” shiori ostidayoshlar festivali va kitob yarmarkasini tashkil etish va boshqa masalalar qarorda o‘z aksini topdi.

Shu bilan birga mustaqillik yillarida Ozod Sharafiddinov hayoti va ijodi bilan bog‘liq turli tadbirlar, yubiley kechalari tashkil qilib kelinmoqda.

Jumladan, Samarqand Davlat universiteti majlislar zalida yirik adabiyotshunos olim, tanqidchi marhum Ozod Sharofiddinov tavalludining 90 yilligiga bag‘ishlab “Zahmatkash olim, tanqidchi va tarjimon” mavzusida anjuman o‘tkazildi. Tadbirda universitet professor-olimlari, talaba-yoshlar hamda matbuot, ommaviy axborot vositalari vakillari, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Samarqand viloyati bo‘limi mutasaddilari ishtirok etdi.

Ozod Sharofiddinovning milliy adabiyotimizga qo‘shgan munosib hissasi, adabiy tanqidchilik borasidagi yutuqlari hamda ibratli va mazmunli hayoti, ijodiy faoliyati haqida to‘lqinlanib gapirishdi. Shuningdek, so‘zga chiqqanlar Ozod Sharofiddinov haqidagi hayotiy ma'lumotlarini ham so‘zlab berishdi.

2020-yilda O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti hamda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikda Adiblar xiyobonida O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov tavalludining 96 yilligi munosabati bilan madaniy-ma'rifiy tadbir bo‘lib o‘tdi.

Mazkur tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy orkestri va talabalar jo‘rligida O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi yangradi. So‘ng O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, O‘zbekiston

Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi jamoalari tomonidan adib haykali poyiga gul qo‘yildi.

Tadbirni O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti rektori, siyosiy fanlar doktori, professor Sherzodxon Qudratxo‘ja ochib berib, Ozod Sharafiddinovning sharafli hayot va ijod yo‘li haqida ma’lumotlar berib o‘tdi. Shundan keyin Yozuvchilar uyushmasi raisi o‘rinbosari G‘ayrat Majid so‘z olib, o‘tkazilayotgan bu kabi tadbirlar yoshlar adabiyotimizning shunday namoyondalaridan ibrat olishiga sabab bo‘lishini ta’kidladi. Shuningdek, Ozod Sharafiddinovning oila a’zolari, shogirdlari va u bilan suhbatdosh bo‘lganlarning fikrlari tinglandi.

Tadbirda universitet talabalari va hamkor tashkilotlar vakillari tomonidan namoyish etilgan sahna ko‘rinishlari va ijodiy ishlar yig‘ilganlar e’tiboriga havola etildi.

Tadbir yakunida Ozod Sharafiddinov nomidagi maxsus stipendiya sovrindorlari munosib taqdirlandi.

Shuningdek, 2020-yilda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi dramaturgiya kengashining hisobot yig‘ilishi o‘tkazildi.

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan o‘tkazilgan O‘zbekiston xalq yozuvchisi Hamid G‘ulom tavalludining 100 yilligi, atoqli adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov tavalludining 90 yilligi, ulug‘ adib Abdulla Qodiriyning 125 yilligiga bag‘ishlangan adabiy-badiiy xotira kechalarida taniqli yozuvchi va shoirlar, jamoat arboblari, dramaturglar qatnashdi.

2022-yil 1-mart kuni O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov tavalludining 93 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi jamoasi, ijodkorlar, olimning oila a’zolari, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikasiyalar universiteti o‘qituvchiyu talabalari ishtirokida Adiblar xiyobonida ma’naviy-ma’rifiy tadbir bo‘lib o‘tdi.

Bugungi kunda Adiblar xiyobonidagi adabiyotshunos haykali O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikasiyalar universitetiga biriktirilgan bo‘lib, ayni paytda oliy o‘quv yurtida Ozod Sharafiddinov nomidagi stependiya tashkil etildi. “Publisistika” va “Tahrir faoliyatini tashkil etish va boshqarish” kabi fanlarni o‘qitishda ustozning ijodi asos qilib olingan. Sport jurnalistikasi talabalari o‘rtasida “Ozod Sharafiddinov – usta shaxmatchi” musobaqasini o‘tkazish an’anaga aylandi. Ozod Sharafiddinov muzeyi tashkil etildi. Adabiyotshunosning ijodiy faoliyati bo‘yicha ilmiy ishlar, ilmiy loyihalar va tanlovlar o‘tkazilmoqda. Olim hayoti va ijodi haqida turli xil hujjatli film suratga olinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Inoyatov H. Ajdodlardan meros Vatan. “Ilmi ziyosi ko‘zlarga to‘tiyo bo‘lgan alloma” nomli xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Tshkent-Qarshi, 30-noyabr-1-dekabr, 2018-yil, - B. 122.
2. Sharafiddinov O. Bozor – ma’naviyat ko‘zgusi. “Tafakkur” jurnali. 1996-yil 1-son. - B. 8.
3. Xoshimov O‘. “Alloma”. Sharq yulduzi jurnali. 1999-yil 2-son. - B. 91.
4. Qodirov P. “Uyg‘onish davrining olimi”. Sharq yulduzi jurnali. 1999-yil 2-son. - B. 89.
5. Ergashev D. “Ozod Sharafiddinov – buyuk o‘zbek munaqqidi sifatida”. “Новости образования: исследование в XXI веке”. Международный научный журнал. № 6 (100), часть 1, 2023. – Ст. 203.

6. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 25.08.2020-y., 09/20/502/1206-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 06.08.2021-y., 09/21/500/0767-son; 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son

GIPERAKTIV BOLALARNING NEYROPEDAGOGIK XUSUSIYATLARINI TAHLIL QILISH VA TA’LIM JARAYONIDA MOSLASHUVCHANLIKNI OSHIRISH

Babakulova Dilnoza Ramazonovna,
Psixolog

Kirish:

Mazkur maqolada giperaktiv bolalarning neyropedagogik xususiyatlari tahlil qilinadi va ularni diagnostika qilish usullari ko‘rib chiqiladi. Giperaktivlikka ega bolalarning o‘quv faoliyatidagi muammolari va ularning kognitiv, emotsional hamda motivatsion xususiyatlari neyropedagogik nuqtai nazardan o‘rganiladi. Shuningdek, ularni aniqlash va ta’lim jarayonini samarali tashkil etish uchun ishlatiladigan metodlar tavsiya qilinadi.

Kalit so‘zlar: giperaktivlik sindromi, neyropedagogika, diqqat yetishmovchiligi, impulsivlik, differensial ta’lim.

Введение:

В данной статье анализируются нейропедагогические особенности гиперактивных детей и рассматриваются методы их диагностики. Изучаются проблемы учебной деятельности детей с гиперактивностью, а также их когнитивные, эмоциональные и мотивационные особенности с точки зрения нейропедагогики. Кроме того, предлагаются методы выявления таких детей и рекомендации по эффективной организации учебного процесса.

Ключевые слова: синдром гиперактивности, нейропедагогика, дефицит внимания, импульсивность, дифференцированное обучение.

Introduction:

This article analyzes the neuro-pedagogical characteristics of hyperactive children and examines methods for their diagnosis. The problems of academic performance in children with hyperactivity, as well as their cognitive, emotional, and motivational characteristics, are studied from a neuro-pedagogical perspective. In addition, methods for identifying such children and recommendations for the effective organization of the educational process are proposed.

Keywords: hyperactivity disorder, neuro-pedagogy, attention deficit, impulsivity, differentiated learning.

Hozirgi kunda ko‘plab bolalarda giperaktivlik kuzatilmoqda. Bunday bolalar juda harakatchan bo‘lib, uzoq vaqt diqqatini jamlay olmaydi, tez chalg‘iydi va sabrsiz bo‘ladi. Ular dars paytida joyida o‘tirishga qiynaladi, vazifalarni oxirigacha bajara olmaydi yoki juda tez harakat qiladi. Bu esa ularning o‘qish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelishiga sabab bo‘ladi. Zamonaviy ta’lim tizimida giperaktiv bolalarni o‘qitish va tarbiyalash dolzarb masala hisoblanadi. Giperaktivlik (diqqat etishmovchiligi va giperaktivlik sindromi — DEHS) bolaning diqqatini uzoq vaqt saqlay olmasligi, harakatchanligi va impulsivligi bilan tavsiflanadi. Neyropedagogika bu kabi bolalar uchun individual ta’lim strategiyalarini ishlab chiqishda miya faoliyati xususiyatlarini inobatga olishni talab qiladi.

Neyropedagogika ushbu muammoni chuqur tadqiq qilib, ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun maxsus metodlarni taklif etadi. Giperaktivlik sindromi odatda diqqat yetishmovchiligi va impulsivlik bilan namoyon bo‘ladi. Bunday bolalar quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishadi:

• Kognitiv xususiyatlar: Xotiraning zaifligi, e'tiborni uzoq ushlab tura olmaslik, o‘qish va yozishda qiynalish (Barkley, 2014)[4].

• Emotsional xususiyatlar: Tez kayfiyat o‘zgarishi, sabrsizlik va stressga yuqori sezuvchanlik (Brown, 2009)[5].

• Motivatsion xususiyatlar: O‘quv faoliyatiga qiziqishning tez pasayishi, natijaga emas, jarayonga ko‘proq e'tibor qaratish (Ryan & Deci, 2000)[6].

Giperaktiv bolalarni qanday aniqlash mumkin? Bunday bolalarni aniqlash uchun bir nechta usullar mavjud, bulardan eng oddiy va samaralisi, o‘qituvchi va ota-onalar kuzatuvlari, bunda bola dars yoki uy sharoitida qanday harakat qilishini tahlil qilish. Maxsus testlar, ya'ni diqqat va xotirani baholaydigan psixologik testlar o‘tkazish. Shifokor ko‘rigi orqali ham bola nevrolog yoki psixolog tomonidan tekshirilib, uning xulq-atvori tahlil qilinishi mumkin. Giperaktiv bolalarni aniqlash uchun quyidagi diagnostik usullar qo‘llaniladi:

1. Psixometrik testlar:

• Connors' Rating Scale (CRS) – bolalarning xulq-atvorini baholash uchun ishlatiladi (Conners et al., 1998)[7].

• Wechsler Intelligence Scale for Children (WISC) – kognitiv qobiliyatlarni baholash uchun qo‘llaniladi (Wechsler, 2014)[8].

2. Nevropsixologik testlar:

• Stroop Test – diqqat va impulsivlik darajasini baholaydi (Stroop, 1935).

• Wisconsin Card Sorting Test – moslashuvchan fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini o‘lchaydi (Berg, 1948)[9].

3. O‘qituvchilar va ota-onalar kuzatuvlari:

• O‘quv jarayonidagi diqqat yetishmovchiligi va xulq-atvor buzilishlarini aniqlash uchun strukturaviy kuzatuvlar amalga oshiriladi (Loe & Feldman, 2007)[10].

Bundan tashqari giperaktiv bolalar bilan qanday ishlash kerak degan savol tug‘ilishi mumkin. Bunday bolalar bilan ishlashda ularga mos yondashuv qo‘llash muhim. Quyidagi usullar samarali bo‘lishi mumkin:

[4] Barkley, R. A. (2014). Attention-Deficit Hyperactivity Disorder: A Handbook for Diagnosis and Treatment. Guilford Press.

[5] Brown, T. E. (2009). Attention Deficit Disorder: The Unfocused Mind in Children and Adults. Yale University Press.

[6] Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2000). Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being. American Psychologist, 55(1), 68-78.

[7] Conners, C. K., et al. (1998). Conners' Rating Scales–Revised (CRS-R). Psychological Assessment, 10(1), 38-48.

[8] Wechsler, D. (2014). Wechsler Intelligence Scale for Children–Fifth Edition (WISC-V). Pearson Education.

[9] Berg, E. A. (1948). A simple objective technique for measuring flexibility in thinking. Journal of General Psychology, 39(1), 15-22.

[10] Loe, I. M., & Feldman, H. M. (2007). Academic and educational outcomes of children with ADHD. Journal of Pediatric Psychology, 32(6), 643-654.

• Vazifalarni kichik qismga bo‘lish – uzoq davom etadigan topshiriqlarni qismlarga ajratish.

• Harakat talab qiladigan mashg‘ulotlar – darsda o‘yin yoki jismoniy faollikni kiritish.

• Ko‘rgazmali materiallardan foydalanish – rasm, video, jadvallar orqali tushuntirish.

• Qisqa tanaffuslar berish – har 10-15 daqiqadan keyin qisqa tanaffus qilish. Shu kabi mos yondashuvlar yordamida giperaktiv bolalar o‘qishga ko‘proq qiziqish bildiradi va bilimlarni yaxshi o‘zlashtiradi. Muhimi, giperaktiv bolalar o‘zlari uchun qiziqarli va dinamik mashg‘ulotlarga ehtiyoj sezadilar. Shuning uchun darslarni zerikarli emas, balki qiziqarli va interfaol shaklda tashkil etish ularning muvaffaqiyatli ta'lim olishini ta'minlaydi.

Giperaktiv bolalar uchun samarali ta'lim muhitini yaratish muhimdir. Neyropedagogik yondashuv asosida quyidagi metodlar tavsiya etiladi:

✓ Differensial ta'lim – dars materiallarini bolalarning individualliklariga moslashtirish (Tomlinson, 2014)[11].

✓ Vizual materiallardan foydalanish – diagrammalar, tasvirlar va interfaol ta'lim vositalari yordamida tushuntirish (Mayer, 2009)[12].

✓ Jismoniy faollikni oshirish – tana harakati va o‘yin elementlarini ta'lim jarayoniga kiritish (Ratey, 2008)[13].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yuqoridagi metodlardan foydalanish giperaktiv bolalarning ta'lim jarayoniga yaxshiroq moslashishiga yordam beradi. O‘zbekistonda giperaktiv bolalarni aniqlash va ularga yordam berish bo‘yicha bir qancha yo‘nalishlarda ishlar olib borilmoqda. O‘zbekistonda imkoniyati cheklangan bolalar, jumladan, giperaktiv bolalarni umumiy ta'lim muassasalarida o‘qitish bo‘yicha inklyuziv ta'lim tizimi rivojlantirilmoqda. Bu tizim ularning individual ehtiyojlariga mos ta'lim olishiga yordam beradi (DeVedu, 2024)[14].

Giperaktiv bolalar neyropedagogik nuqtai nazardan maxsus yondashuvni talab qiladi. Diagnostika jarayoni psixometrik testlar, nevropsixologik baholash va pedagogik kuzatuvlar asosida olib borilishi lozim. Ta'lim jarayonini moslashtirish orqali bunday bolalarning o‘quv muvaffaqiyati oshirilishi mumkin. Kelajak tadqiqotlar individual o‘quv strategiyalarining samaradorligini o‘rganishga qaratilishi lozim. Giperaktivlik bolaning o‘z xatosi emas, balki uning miyasining ishlash xususiyati bilan bog‘liq holatdir. Shuning uchun ularga sabr bilan yondashish, qo‘llab-quvvatlash va to‘g‘ri sharoit yaratish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Barkley, R. A. (2014). Attention-Deficit Hyperactivity Disorder: A Handbook for Diagnosis and Treatment. Guilford Press.
2. Brown, T. E. (2009). Attention Deficit Disorder: The Unfocused Mind in Children and Adults. Yale University Press.
3. Conners, C. K., et al. (1998). Conners' Rating Scales–Revised (CRS-R). Psychological Assessment, 10(1), 38-48.

[11] Tomlinson, C. A. (2014). The Differentiated Classroom: Responding to the Needs of All Learners. ASCD.
[12] Mayer, R. E. (2009). Multimedia Learning. Cambridge University Press.

[13] Ratey, J. J. (2008). Spark: The Revolutionary New Science of Exercise and the Brain. Little, Brown Spark.

4. Diamond, A. (2013). Executive functions. Annual Review of Psychology, 64, 135-168.
5. Berg, E. A. (1948). A simple objective technique for measuring flexibility in thinking. Journal of General Psychology, 39(1), 15-22.
6. Loe, I. M., & Feldman, H. M. (2007). Academic and educational outcomes of children with ADHD. Journal of Pediatric Psychology, 32(6), 643-654.
7. Mayer, R. E. (2009). Multimedia Learning. Cambridge University Press.
8. Ratey, J. J. (2008). Spark: The Revolutionary New Science of Exercise and the Brain. Little, Brown Spark.
9. J. (2008). Spark: The Revolutionary New Science of Exercise and the Brain. Little, Brown Spark.
10. Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2000). Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being. American Psychologist, 55(1), 68-78.
11. Stroop, J. R. (1935). Studies of interference in serial verbal reactions. Journal of Experimental Psychology, 18(6), 643.

O‘SMIRLARDA QADRIYATLAR HAQIDAGI TASAVVURLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK DETERMINANTLAR

Boboyeva Feruza Azimjonovna,
Navoiy Innovatsiyalar universiteti psixologiya o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘smirlarda qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik determinantlari tahlil qilingan. Maqolada, o‘smirlarning psixologik rivojlanishi, ta'lim tizimida qadriyatlarni shakllantirishning samarali usullari, motivatsiya, hamda ijtimoiy va madaniy omillar ta'siri ko‘rib chiqilgan. Pedagogik yondashuvlar, interaktiv ta’lim metodlari va o‘quvchi psixologiyasiga asoslangan qadriyatlar tarbiyasi jarayoni tafsilotlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: O‘smirlar, qadriyatlar, pedagogik metodlar, psixologik rivojlanish, motivatsiya, interaktiv ta'lim, ijtimoiy omillar, madaniyat, ta'lim tizimi, qadriyatlar tarbiyasi.

Аннотация. В статье проанализированы педагогико-психологические детерминанты развития представлений о ценностях у подростков. Рассматриваются психологические особенности подростков, эффективные методы формирования ценностей в образовательной системе, мотивация и влияние социальных и культурных факторов. Освещены педагогические подходы, интерктивные методы обучения и их влияние на психологическое состояние подростков в контексте воспитания ценностей.

Ключевые слова: Подростки, ценности, педагогические методы, психология, мотивация, интерективное обучение, социальные факторы, культура, система образования, воспитание ценностей.

Annotation. This article analyzes the pedagogical and psychological determinants of the development of value perceptions in adolescents. It examines the psychological characteristics of adolescents, effective methods of value formation within the educational system, motivation, and the influence of social and cultural factors. The article highlights pedagogical approaches, interactive teaching methods, and their impact on adolescents' psychological state in the context of value education.

Keywords: Adolescents, values, pedagogical methods, psychology, motivation, interactive learning, social factors, culture, education system, value education.

Kirish.O‘smirlarda qadriyatlar tizimini rivojlantirish, ularning psixologik va ijtimoiy o‘sishida muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ta'limda o‘smirlarda qadriyatlar tizimini shakllantirish va rivojlantirish masalasi dolzarb bo‘lib, bu jarayon yoshlarning yaxshi tarbiya olgan, jamiyatga foydali bo‘lgan shaxslar sifatida yetishib chiqishlariga yordam beradi. Pedagogik va psixologik determinantlar o‘smirlarning qadriyatlar haqidagi tasavvurlarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi, chunki bu omillar ularning fikrlash tarzini, xulq-atvorini va qarorlar qabul qilish jarayonlarini ta'sir qiladi [1]. Ushbu determinantlar qatoriga kognitiv, emotsional, ijtimoiy va atrof-muhit omillari kiradi, ular o‘smirlarning qadriyatlar tizimini shakllantirishda yo‘ldosh bo‘lib xizmat qiladi [2]. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va psixologik nazariyalar o‘smirlar qadriyatlarini rivojlantirishda yangi usullarni qo‘llashga yordam beradi, shuning uchun bu jarayonni yaxshilash uchun pedagoglar va psixologlar birgalikda ishlashlari zarur [3].

Zamonaviy ta'lim psixologiyasi sohasidagi yangi izlanishlar, ichki (individual) va tashqi (atrof-muhit) omillar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani o‘smirlarda qadriyatlar shakllanishida muhim omil sifatida ko‘rib chiqadi [4]. Psixologik nazariyalar, o‘smirlik davri qadriyatlarni shakllantirish uchun eng muhim davr ekanligini ta'kidlaydi, chunki bu davrda shaxs o‘z identifikatsiyasini, e'tiqodlari va axloqiy prinsiplarini shakllantiradi [5]. O‘smirlarga ta'sir ko‘rsatadigan oilaviy, do‘stlar, maktab va jamiyatdagi omillar qadriyatlar tizimining shakllanishiga katta ta'sir ko‘rsatadi. Shuningdek, yoshlarning raqamli media va Internetdagi o‘zgaruvchan ta'siri qadriyatlarni shakllantirish jarayonini yanada murakkablashtirdi, bu esa pedagoglar va psixologlardan yangi yondashuvlar talab qiladi. Qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik va psixologik determinantlarini tushunish, ta'lim jarayonida o‘smirlarga yordam beradigan samarali metodlarni ishlab chiqishga imkon beradi [6].

Pedagogik yondashuvlar. Pedagogik strategiyalar o‘smirlarda qadriyatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu strategiyalar faqat bilim berishdan iborat bo‘lmay, balki emotsional aqlni, ijtimoiy ko‘nikmalarni va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni ham o‘z ichiga oladi. Zamonaviy pedagogik amaliyotlar interaktiv va o‘quvchi markazli o‘qitishni ta'kidlaydi, bunda o‘smirlar o‘z ta'lim jarayonlarida faol ishtirok etadilar [7]. Guruh muhokamalari, rolli o‘yinlar va muammo yechish kabi interaktiv o‘qitish metodlari o‘smirlarga o‘z qadriyatlarini qayta ko‘rib chiqish va boshqalar nuqtai nazarini tushunish imkoniyatini beradi [8]. Bundan tashqari, hamkorlikda o‘rganish tajribalari o‘smirlarga empatiya, xilma-xillikka hurmat va axloqiy masalalarni chuqurroq tushunishni rivojlantiradi (1-rasm).



1-rasm. Pedagogik strategiyalar va o‘smirlar qadriyatlari

Pedagogik psixologiya sohasidagi so‘nggi tadqiqotlar o‘qituvchining o‘smirlar qadriyatlarini shakllantirishdagi mentor va namuna sifatidagi rolini muhim deb hisoblaydi. Ijobiy qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan, emotsional aqlga ega bo‘lgan o‘qituvchilar o‘smirlar o‘z qadriyatlarini shakllantirishda qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratadi [9]. Ijtimoiy va emotsional o‘rganish (SEL) dasturlari kabi pedagogik yondashuvlar o‘smirlarda ijobiy xulq-atvorlarni rivojlantirishda muvaffaqiyatli natijalar ko‘rsatmoqda, chunki bu dasturlar o‘zini anglash, o‘zini boshqarish va ijtimoiy ongni rivojlantirishga qaratilgan.

Psixologik determinantlar. Psixologik nuqtai nazardan, o‘smirlar kognitiv va emotsional jihatdan sezilarli o‘zgarishlarni boshdan kechiradilar, bu esa ularning qadriyatlar tizimiga ta'sir qiladi. Axloqiy fikrlash, o‘z-o‘zini anglash va emotsional tartibga solish kabi psixologik omillar o‘smirlarning qadriyatlariga ta'sir qiladi. O‘smirlik davrida shaxslar hokimiyat, ijtimoiy normalar va an'anaviy e'tiqodlarni savolga solib, o‘z moral kompaslarini shakllantirishni boshlaydilar. Bu savollar va izlanishlar fazasi o‘smirlarga o‘z identifikatsiyasini va qadriyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega [10].

Psixologik tadqiqotlar, oilaviy muhitning qadriyatlarni shakllantirishda katta rol o‘ynashini ta'kidlaydi, ayniqsa o‘smirlik davrining boshlarida. Aniq yo‘riqnomalar, ijobiy namuna ko‘rsatish va moral masalalar bo‘yicha ochiq muloqot olib boradigan ota-onalar o‘smirlarning qadriyatlarini shakllantirishda muhim ta'sir ko‘rsatadi. Boshqa tomondan, tengdoshlarga bo‘lgan ta'sir va ijtimoiy aloqalar o‘smirlarning xulq-atvoriga ta'sir ko‘rsatishi mumkin, ular ko‘pincha guruh normalariga va qadriyatlariga moslashishadi [11]. Shuning uchun, o‘smirlik davrida yuzaga keladigan psixologik dinamikalarni tushunish, pedagoglar va psixologlarga o‘smirlar qadriyatlarini shakllantirishda yordam berish uchun amaliy yondashuvlarni ishlab chiqishga imkon beradi (2-rasm).



2-rasm. O‘smirlarda qadriyatlarni shakllantirish

Ijtimoiy va madaniy omillarning roli. Ijtimoiy va madaniy ta'sirlar o‘smirlarda qadriyatlar rivojlanishining yana bir muhim determinantidir. Kengroq ijtimoiy kontekst, shu jumladan media, madaniy normalar va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar o‘smirlar qabul qiladigan qadriyatlarni shakllantiradi. Globalizatsiya jarayonlari davomida o‘smirlar turli madaniyatlar va qadriyatlar bilan tanishib, o‘z qadriyat tizimlarini kengaytirishlari yoki qarama-qarshi fikrlarni qabul qilishlari mumkin. Bu esa o‘smirlarga o‘z qadriyatlarini shakllantirishda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish zaruratini tug‘diradi [12].

Bundan tashqari, raqamli asr o‘zgarishlari o‘smirlarda qadriyatlar rivojlanishiga yangi muammolarni keltirib chiqardi, chunki o‘smirlar ko‘p vaqtni onlayn platformalarda

o‘tkazadilar, bu esa ularda axloqiy va ijtimoiy qadr-qimmatlarni shakllantirishda yangi yondashuvlar zaruratini keltirib chiqaradi [13].

Xulosa. O‘smirlarda qadriyatlar haqidagi tasavvurlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik determinantlari o‘smirlik davrining o‘ziga xos psixologik va ijtimoiy xususiyatlari bilan bog‘liq. Ushbu jarayonda pedagogik yondashuvlar, psixologik faktorlar, ijtimoiy va madaniy omillar o‘smirlarning qadriyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. O‘smirlarning qadriyatlarini rivojlantirishda o‘qituvchilar, ota-onalar va jamiyatning roli katta bo‘lib, ular o‘smirlarga ijtimoiy, emotsional va axloqiy o‘zgarishlarni boshqarishda yordam berishlari zarur.

Pedagogik amaliyotlar, ayniqsa interaktiv yondashuvlar, o‘smirlarga o‘z fikrlarini ifoda etish va boshqalar bilan muloqot qilish imkoniyatini beradi, bu esa ularning qadriyatlar tizimini shakllantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Psixologik determinantlar, xususan o‘smirlarning ichki dunyosi, o‘z-o‘zini anglash va emotsional aqlni rivojlantirish ham o‘z o‘rniga ega. O‘smirlar uchun ijobiy o‘qituvchi namunalari va motivatsiya, ularga o‘z qadriyatlarini rivojlantirishda yordam beradi.

Ijtimoiy va madaniy omillar, ayniqsa globalizatsiya jarayonlari va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi o‘smirlar qadriyatlarini shakllantirishda yangi imkoniyatlar va cheklovlarni yaratadi. Bu esa, pedagoglar va psixologlar uchun yangi yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini tug‘diradi. O‘smirlarga qadriyatlarni shakllantirishda pedagogik-psixologik determinantlarni chuqur tushunish, ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi va yoshlarni ijtimoiy adolatli va axloqiy rivojlanishiga ko‘maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqodirov, X. (2018). Pedagogik psixologiya. Tashkent: O‘qituvchi nashriyoti.
2. Karimov, I. (2015). O‘smirlar tarbiyasining asosiy tamoyillari. Toshkent: Ma’naviyat va ma’rifat nashriyoti.
3. Poytak, O. (2020). Pedagogik va psixologik yondashuvlar. Tashkent: Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti.
4. Vahabov, M. (2019). O‘smirlar va ularning qadriyatlari. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti nashriyoti.
5. Rahmatullayev, A. (2017). Ijtimoiy-psixologik faktorlar va o‘smirlar xulqi. Tashkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
6. Shodiev, B. (2021). Qadriyatlarni shakllantirishda pedagogik yondashuvlar. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA MUTAXASSISLIK FANLARNING AHAMIYATI

Djalolova Sevara Xolmuradovna,
SamDU doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda mutaxassislik fanlarning qay darajada muhum ekanligi hamda bugungi globallashuv sharoitidagi o‘qituvchilarda qanday kompitensiyalar mujassam bo‘lishi zarurligi haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: ta’lim, tarbiya, konsepsiya, karyera, pedagog, kasb, STEAM, manaviy-axloq.

Аннотация. *В данной статье говорится о важности специализации в подготовке будущих учителей и о том, какими компетенциями должны обладать учителя в условиях современной глобализации.*

Ключевые слова: *образование, воспитание, концепция, карьера, педагог, профессия, STEAM, духовно-нравственный.*

Annotation. *This article discusses the importance of specialized disciplines in the training of future teachers and what competencies teachers should have in today's globalization environment.*

Keywords*: education, upbringing, concept, career, teacher, profession, STEAM, morals.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida: “O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish”, - kabi vazifalar belgilab berilgan.[15] Ushbu vazifalar ijrosini ta’minlash mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan pedagogik oliy ta’lim muassasalari oldiga o‘quv rejalari, fan dastur va sillabuslari, mavzularning hayot bilan bog‘lanishini, professor-o‘qituvchilardan esa katta mas’uliyat talab qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa, pedagogik kadrlar tayyorlash jarayoniga yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlashda chuqur bilim, amaliy ko‘nikma, ijodiy tafakkur va tarbiyaviy yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda mutaxassislik fanlari o‘qituvchilarning kelajakdagi kasbiy faoliyatida tayanch poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada mutaxassislik fanlarining o‘quv jarayonidagi o‘rni, tarbiyaviy va metodik ahamiyati, shuningdek, zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan uyg‘unlashuvi ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Fan, texnika va ilg‘or texnologiya yutuqlaridan foidalangan holda yosh avlodga ta’lim va tarbiya berishning maqsad, mazmun, uslub va vositalari, qonuniyat va tamoyillarini ilmiy jihatdan ta’minlash pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy dunyo yangi texnologiyalar va innovatsion vositalardan foydalanish bilan tavsiflanadi. Inson faoliyatining barcha sohalari, ta’lim paradigmasining yangi darajasiga o‘tishga hissa qo‘shadi. Zamonaviy ta’lim modeli o‘zini-o‘zi yaratishi kerak va oldingisiga nisbatan oldiga yuqoriroq va kattaroq maqsadni qo‘yish. Jahonda o‘qituvchilarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishni takomillashtirishda o‘zaro ijodiy hamkorlikka erishish va ilmiy loyihalarni amalga oshirishda shuningdek, o‘qituvchilarning kreativlik potensialini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.. Eng muhim jihatlardan shaxsiy rivojlanish va mustaqil izlanuvchan mutaxassis kommunikativ, kreativ faoliyatga asoslangan tushunchalarni yagona ta’lim jarayoniga aylantiradi.

Avvalo, zamonaviy har tomonlama kreativ fikrlaydigan ijodkor pedagog kadrlar tayyorlashning maqsad va vazifalarini hisobga olish kerak. Bunday ta’lim jarayonining maqsadi – ko‘p tomonlama rivojlangan, bilimli va ijodiy tarbiyalangan shaxs ijtimoiy va kasbiy faoliyatga qodir

Bu esa, o‘z navbatida, talabalarda kasbga bo‘lgan ko‘nikmalarini rivojlantirish, innovatsion yondashuv asosida talabalarni kasbiy va amaliy tayyorlashni tashkil etish, mustaqil fikrlash va ijodiy tafakkurni, kreativlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim

[15] O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son

texnologiyalardan foydalanib, bo‘lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlash tizimining o‘quv-metodik ta’minotini yaratish imkoniyatini kengaytirdi. Dunyo ta’lim tizimini axborotlashtirish sharoitida bo‘lajak kadrlarni kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishning o‘quv-metodik ta’minotini xalqaro talablar asosida yangilab borish, talabalar kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishning psixologik, pedagogik omillarini aniqlashtirish bo‘yicha ilmiytadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu vazifalarni hal qilishda kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishning metodik resurslarini ishlab chiqish va ularni innovatsion yondashuv asosida takomillashtirish, pedagogik shart-sharoitlar yaratish va o‘qitishning sifat va samaradorligini oshirishda zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llash dolzarb hisoblanadi.

Har bir mutaxassislik fani o‘ziga xos tarbiyaviy imkoniyatlarga ega. O‘qituvchi o‘z fanini chuqur bilgan holda, u orqali o‘quvchilarga axloqiy, estetik, fuqarolik, vatanparvarlik g‘oyalarini singdirishi mumkin. Masalan, tarix fani orqali yoshlar o‘z milliy o‘zligini anglab yetadi, adabiyot orqali esa ruhiy-axloqiy tarbiya ta’minlanadi. Aniq fanlar esa mantiqiy fikrlash, izchillik, halollik va aniqlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, mutaxassislik fanlarini o‘rgatishda ularning tarbiyaviy yo‘nalishlariga alohida e’tibor qaratish lozim.

Pedagogik ta’limda nazariy bilimlar amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashgandagina samarali natijaga erishiladi. Shuning uchun har bir mutaxassislik fani uchun laboratoriya mashg‘ulotlari, seminarlar, amaliy topshiriqlar, metodik ko‘nikmalarni shakllantiruvchi darslar muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchilarni tayyorlashda fan doirasida dars ishlanmalarini tuzish, didaktik materiallar ishlab chiqish, fanlararo integratsiyani tashkil etish kabi masalalar asosiy o‘rinni egallaydi. Bu jarayonlar pedagogik mahoratni oshiradi va o‘qituvchini real ta’lim muhitiga tayyorlaydi.

Bugungi ta’lim zamon talablari asosida shakllanmoqda. Shuning uchun mutaxassislik fanlarini o‘qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv metodlar, raqamli platformalar, virtual laboratoriyalar, multimedia vositalaridan foydalanish samaradorlikni oshiradi. Shuningdek, STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvi orqali o‘quvchilarning ijodiy salohiyati rivojlanadi, fanlararo bog‘liqlik mustahkamlanadi. Bu esa o‘qituvchining innovatsion yondashuvlarga ochiqligini talab qiladi.

Kasbiy shakllanish – bu nafaqat bilim olish, balki kasbiy o‘zlikni anglash, pedagogik faoliyatga ongli ravishda yondashishdir. Mutaxassislik fanlari orqali bo‘lajak o‘qituvchi o‘zining kasbiy rolini aniqlaydi, pedagogik qadriyatlarni qabul qiladi, o‘quvchilar bilan muloqotda o‘ziga xos yondashuvlar ishlab chiqadi. Bu esa zamonaviy, raqobatbardosh, ijtimoiy mas’uliyatli o‘qituvchi shaxsini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki- bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda mutaxassislik fanlari nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantiradi, balki ularning shaxsiy va tarbiyaviy salohiyatini oshiradi. Ta’lim jarayonida bu fanlarning zamonaviy texnologiyalar, pedagogik metodlar bilan uyg‘unlashuvi o‘qituvchini har tomonlama yetuk mutaxassis sifatida tarbiyalaydi. Shuning uchun pedagogik oliy ta’lim muassasalarida mutaxassislik fanlarining mazmunini boyitish, amaliy yo‘nalishini kuchaytirish va metodik yondashuvlarni takomillashtirish dolzarb ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 02.02.2024 yildagi PQ-54-son Qarori.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birga barpo etamiz.-T.: “O‘zbekiston”, 2017.-10-b.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.
5. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma / T. Yo‘ldoshev, A. Qodirov va boshqalar. – T.: O‘zbekiston, 2021.

O‘QUVCHILARDA STRESSNI BOSHQARISHDA MAKTAB PSIXOLOGINING ROLI VA AHAMIYATI

Sultonova Muqaddas Nurboyevna,
Navoiy viloyati Karmana tumani 31-umumiy o‘rta ta’lim maktabi psixologi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘quvchilarda stressni boshqarishda maktab psixologining o‘rni va ahamiyati o‘rganiladi. Maktab psixologi, o‘quvchilarning ruhiy salomatligini ta’minlash, stressni boshqarish va uning salbiy oqibatlarini oldini olish borasida muhim rol o‘ynaydi. Ta'lim jarayonida o‘quvchilarning psixologik holatini aniqlash, stressni kamaytirish bo‘yicha metodik yondoshuvlarni qo‘llash va individual yondoshuvni amalga oshirish orqali psixolog o‘quvchilarni nafaqat akademik, balki emotsional jihatdan ham qo‘llab-quvvatlaydi. Ushbu maqolada maktab psixologining stressni boshqarishdagi metodlari va pedagogik roli tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: O‘quvchi, stress, maktab psixologi, stressni boshqarish, psixologik yordam, stressni oldini olish, psixologik yondoshuv, ta’lim jarayoni, emotsional salomatlik, pedagogik roli.

O‘quvchilarda stressing shakllanishi va boshqarilishi, ta’lim jarayonining samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Stress, o‘quvchilarda psixologik va jismoniy salomatlikka salbiy ta’sir ko‘rsatib, o‘qish jarayonida muvaffaqiyatni pasaytiradi. O‘quvchilar stressga qarshi turish va unga moslashish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Maktab psixologi bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. U, o‘quvchilarning stressga nisbatan sezgirligini aniqlash va stressni boshqarishga qaratilgan psixologik metodlarni qo‘llash orqali, o‘quvchilarning ruhiy va emosional holatini yaxshilashga yordam beradi.

Maktab psixologi stressni boshqarishda bir nechta usullarni qo‘llaydi. Bular orasida relaksatsiya texnikalari, nafas olish mashqlari, kognitiv-xulqiy terapiya, va stressni kamaytirish uchun psixologik konsultatsiyalar mavjud. Psixolog, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning stressni boshqarishdagi ehtiyojlariga mos keladigan yondoshuvlarni tanlaydi. Bundan tashqari, maktab psixologi, o‘quvchilarning ijtimoiy va hissiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqadi, bu esa ularning stressga qarshi kurashish qobiliyatini oshiradi. O‘quvchilarda stressni boshqarish jarayonida sinfdagi o‘qituvchilarning roli ham katta. O‘qituvchilar, o‘quvchilarning psixologik holatini diqqat bilan kuzatish va stressni boshqarish bo‘yicha maktab psixologi bilan hamkorlik qilishlari kerak. Maktab psixologi o‘qituvchilarga stressni aniqlash va unga samarali yondoshuvlarni qo‘llash bo‘yicha maslahatlar beradi. Bu jarayonda maktab jamoasi sifatida birgalikda ishlash, o‘quvchilarning stressini kamaytirish va ularning ta'limga bo‘lgan motivatsiyasini oshirish uchun muhimdir.

Usul	Tavsif

Relaksatsiya texnikalari	Stressni kamaytirish uchun chuqur nafas olish va tasavvur qilish usullari.
Kognitiv-xulqiy terapiya	O‘quvchilarga stressli vaziyatlarni boshqarishda yordam berish uchun fikr va xulqni o‘zgartirish.
Stressni kamaytirish mashqlari	Jismoniy faollik va stressga qarshi kurashish uchun tayyorlangan mashqlar.
Psixologik konsultatsiyalar	O‘quvchilarga stressni boshqarish bo‘yicha shaxsiy maslahatlar va qo‘llab- quvvatlash.

Stressning o‘quvchilarda psixologik va jismoniy salomatlikka salbiy ta’siri uzoq muddat davomida saqlanishi mumkin, bu esa ularning o‘qishdagi muvaffaqiyatsizligi, o‘ziga bo‘lgan ishonchsizlik va o‘zini past baholashga olib kelishi mumkin. Maktab psixologi, bu holatlarni oldini olish uchun o‘quvchilarning stressga qarshi turish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, stressni boshqarish va oldini olishda, maktabdagi umumiy iqlim muhim rol o‘ynaydi. Maktabda qulay psixologik muhit yaratish, o‘quvchilarga o‘zlarini xavfsiz va qo‘llab-quvvatlanayotgan his qilish imkonini beradi. Bu esa ularning stressni boshqarish va ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishish qobiliyatini oshiradi. Maktab psixologi o‘quvchilarni ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirib, ularning o‘zaro munosabatlarini yaxshilash, hissiy barqarorlikni mustahkamlash va jamoa bilan ishlash qobiliyatini oshirishda yordam beradi. O‘quvchilarda stressni boshqarishning yana bir muhim jihati – bu oilaning roli. Ota-onalar bilan hamkorlikda, maktab psixologi o‘quvchilarning stressga qarshi kurashish bo‘yicha qo‘llab-quvvatlash tizimini kengaytirishi mumkin. Ota-onalar, o‘quvchilarning uyda duch keladigan stress omillari haqida ma'lumotga ega bo‘lishlari va psixolog tomonidan tavsiya etilgan usullarni uyda qo‘llashlari kerak.

O‘quvchilarning stressni samarali boshqarishi ularning umumiy rivojlanishiga, o‘zligini aniqlashga, va jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlariga imkon yaratadi. Maktab psixologining o‘quvchilarda stressni boshqarishdagi roli juda muhimdir, chunki stress ta'lim jarayonida o‘quvchilarning muvaffaqiyatiga, shaxsiy rivojlanishiga va ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Maktab psixologi, stressni aniqlash, uning sabablari va oqibatlarini tushunish orqali, o‘quvchilarga stressni boshqarishga yordam beruvchi metodlarni taqdim etadi. Bu usullar o‘quvchilarning hissiy barqarorligini oshiradi, ularning ta'limdagi muvaffaqiyatlarini yaxshilaydi va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Maktabdagi psixologik muhitning qulay bo‘lishi, oilaning qo‘llab-quvvatlashi va o‘qituvchilarning hamkorligi stressni samarali boshqarishda asosiy omillardir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Andreeva G.M. “Sotsialnayapsixologiya”. SP. 2012.
2. Ansupov A.YA., Shipilov A.I. Stress. Konfliktologiya. M.: 2020
3. Ismoilova N., Abdullaeva D. Ijtimoiypsixologiya. T.: O‘zbekistonfaylasuflarmilliyjamiyati – 2013
4. Karimova V.M. Ijtimoiypsixologiya. T. “Fan vatexnologiya” – 2010
5. ToshimovR.Yu. Zamonaviy individual vaguruhiypsixologiya. T. “ToshDU” – 2019
6. Ziyonet.uz

PEDAGOGIK XODIMLAR O‘RTASIDA KASBIY STRESSNING OLDINI OLISH

Ergashova Oydin Elmuratovna,
Navbahor tumani 14IDUM psixologi

Annotatsiya : Ushbu maqolada pedagog xodimlar faoliyatida uchraydigan kasbiy stress holatlari, ularning kelib chiqish sabablari hamda stressning salbiy oqibatlari yoritilgan. Muallif kasbiy stressning o‘qituvchilarning psixologik holatiga, ish samaradorligiga va shaxsiy hayotiga ta’sirini tahlil qiladi. Shuningdek, maqolada stressning oldini olish va uni kamaytirish bo‘yicha samarali usullar – psixologik maslahatlar, jamoada sog‘lom muhit yaratish, ish yuklamasini muvozanatlashtirish kabi chora-tadbirlar taklif etiladi. Mazkur maqola pedagog kadrlar salomatligi va ish faoliyatini yaxshilashga qaratilgan muhim ilmiy-amaliy manba hisoblanadi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются случаи профессионального стресса, возникающие в деятельности педагогических работников, причины его возникновения и негативные последствия. Автор анализирует влияние профессионального стресса на психологическое состояние, трудовую эффективность и личную жизнь преподавателей. Также в статье предлагаются эффективные методы профилактики и снижения уровня стресса — психологические консультации, создание здоровой атмосферы в коллективе, сбалансированное распределение рабочей нагрузки. Данная статья представляет собой важный научно-практический источник, направленный на улучшение здоровья и профессиональной деятельности педагогических кадров.

Kalit so‘zlar:kasbiy stress, pedagog xodimlar, psixologik holat, stressning oldini olish, ta’lim muassasalari, ruhiy salomatlik, ish samaradorligi, stress omillari, sog‘lom muhit, professional faoliyat.

Ключевые слова: профессиональный стресс,педагогические работники психологическое состояние, профилактика стресса, образовательные учреждения, психическое здоровье, эффективность труда, стрессовые факторы, здоровая атмосфера, профессиональная деятельность

Hech shubha yo‘qki, har qanday kasbiy ish, jismoniy va psixologik xususiyatlarga qo‘shimcha ravishda, inson faoliyatining muvaffaqiyatiga hissa qo‘shadigan shaxsiy fazilatlarga asoslanadi. Avvalo, bu shaxsning kasbiy faoliyatining ob’ekti boshqa shaxs bo‘lgan kasblarga taalluqlidir va “shaxsning shaxsga” o‘zaro ta'siri ikkalasining ham fazilatlariga

O‘qituvchilar orasida kasbiy stress muammosining ko‘plab tadqiqotchilari uning sabablari ob’ektiv va sub’ektiv omillar bilan belgilanadi deb ta’kidlaydilar. Ushbu omillarning salbiy ta'siri o‘qituvchida ikki tomonlama stressni keltirib chiqaradi: axborot stressi (axborotning haddan tashqari yuklanishi, uning oqibatlari uchun yuqori mas'uliyat bilan tezkor qaror qabul qilish zarurati) va hissiy stress (emotsional siljishlarning paydo bo‘lishi, faoliyat xarakterining o‘zgarishi, xatti-harakatlarning buzilishi). O‘qituvchilarda kasbiy faoliyatining turli xil noqulay omillarining doimiy ta'siri uning faoliyati natijalarining yomonlashishiga, ish samaradorligining pasayishiga, xarakterli bo‘lmagan xatolarning paydo bo‘lishiga, aqliy jarayonlar (xotira, e’tibor, fikrlash) ko‘rsatkichlarining pasayishiga olib keladi.

Stressli vaziyatda bo‘lganidan so‘ng, o‘qituvchi charchagan va tushkunlikka tushadi. Ba'zi hollarda hissiy taranglik tanqidiy nuqtaga etadi va natijada o‘zini o‘zi boshqarish va o‘zini o‘zi egallash yo‘qoladi. Hissiy portlashlar sog‘liqda iz qoldirmasdan

o‘tmaydi; kuchlanish kuchayadi va salomatlikka salbiy ta'sir qiladi, turli xil kasalliklarni keltirib chiqaradi. Shu munosabat bilan kasbiy stressni oldini olish maqsadida o‘qituvchilarga psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatish zarur. Kasbiy stressning oldini olish bo‘yicha ishlarni tashkil etish zamonaviy ta'lim tizimining eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Biroq, bu muammo nafaqat individual o‘qituvchining shaxsiyatiga taalluqlidir, balki ish samaradorligiga va shuning uchun butun jamoaning ish jarayonining samaradorligiga ta'sir qiladi. Binobarin, bu muammoni faqat ta'lim muassasasining pedagog-psixologi, uning rahbari ishtirokisiz hal qila olmaydi.

Stress - bu har qanday kuchli ta'sirlar ta'sirida yuzaga keladigan va organizm va psixikaning himoya tizimlarining mobilizatsiyasi bilan birga keladigan psixofiziologik taranglik holati.

“Stress" tushunchasi 1936 yilda kanadalik fiziolog G. Selye tomonidan kiritilgan. Ingliz tilidan tarjima qilingan “stress” so‘zi “bosim, bosim, keskinlik” degan ma'noni anglatadi. Stressning kashfiyotchisi G. Selye quyidagi ta’rifni bergan: “Stress bu organizmning unga qo‘yilgan har qanday talabga o‘ziga xos bo‘lmagan javobidir” .

Kasbiy stress - bu qiyin ish vaziyatiga fiziologik va psixologik reaktsiyalarda namoyon bo‘ladigan ko‘p o‘lchovli hodisa. Kasbiy stressning sabablari ham jismoniy, ham psixologik omillar bo‘lishi mumkin, ham haqiqiy, ham idrok qilinadi. Jismoniy stresslar mehnat faoliyatining salbiy tashqi ta'siri bo‘lishi mumkin: jismoniy zo‘riqishning kuchayishi, ergonomik tarkibiy qismlarning yomon rivojlanishi va boshqalar. Psixologik stresslarga quyidagilar kiradi: mas'uliyatning oshishi, ma'lumotlarning etishmasligi yoki ortiqcha bo‘lishi, vaziyatning noaniqligi, motivatsiyaning kuchayishi, vaqt tanqisligi, hozirgi vaziyatda xatti-harakatlar strategiyasining tez-tez yoki tez qayta tuzilishi, norozilik, kasbiy o‘sishda stressning kuchayishi va boshqalar edi, ular kasbiy jihatdan qiyin vaziyatlarda stress reaktsiyalarining nisbatan barqaror ko‘rinishlari to‘plami sifatida tushuniladi.

Shunday qilib, kasbiy stress - bu noqulay omillarning ta'siri natijasida yuzaga keladigan, mehnat faoliyati samaradorligining pasayishiga va shaxsning shaxsiy va xarakteristik xususiyatlarining deformatsiyasiga olib keladigan hissiy taranglik holati.

O‘qituvchining kasbiy faoliyatining har qanday bosqichida kasbiy stressni rivojlantirish imkoniyati stress xavfini kamaytirish va uning salbiy oqibatlarini bartaraf etishga yordam beradigan profilaktika choralarini ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

O‘qituvchining shaxsiyatini etarli darajada tushunish, uning xatti-harakatlarining xususiyatlarini tushunish va real vaziyatni tahlil qilish uchun men birinchi navbatda quyidagi usullardan foydalandim - kuzatish, suhbat va “Insonning stressga chidamlilik darajasini aniqlash testi” .

Ushbu texnika 38 ta savoldan iborat. Ushbu usul yordamida diagnostika o‘tkazish natijasida stressga chidamlilikning 5 darajasi aniqlanadi: - yuqori; - o‘rtachadan yuqori; - o‘rtacha; - o‘rtachadan past; - past

O‘tkazilgan diagnostika ishlari bizga quyidagilarni aniqlash imkonini berdi: diagnostika ma’lumotlariga ko‘ra o‘qituvchilarning stressga chidamlilik darajalari aniqlandi: yuqori - 1 (4%) o‘qituvchi, o‘rtachadan yuqori - 2 (14%) o‘qituvchi, o‘rtacha - 5 (34%) o‘qituvchi, o‘rtachadan past - 2 (14%) o‘qituvchi, past - 5 (34%) o‘qituvchi.

Usullarni sifatli tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, kasbiy stress darajasi o‘qituvchining tajribasiga bog‘liq: 20 yildan ortiq pedagogik tajribaga ega bo‘lgan maktabgacha ta'lim muassasalarining aksariyat o‘qituvchilarida stressga chidamlilik darajasi past va rivojlangan hissiy charchash sindromi mavjud.

Tashxis qo‘yish jarayonida har bir o‘qituvchi o‘zi, kasbiy malakasini rivojlantirish, pedagogik muloqot va talabalar bilan o‘zaro munosabatlardagi kuchli va zaif tomonlari, kasbiy qiyinchiliklarning psixologik sabablari haqida "fikr" oladi.

O‘qituvchilarning kasbiy stressni engish zarurligi to‘g‘risida xabardorlik darajasini oshirish va ularning o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatini faollashtirish o‘qituvchilarning nafaqat kasbiy stress haqida nazariy g‘oyalarni ishlab chiqishlari, balki kasbiy stress va o‘z-o‘zini rivojlantirish, uzluksiz ta'lim va o‘z-o‘zini tarbiyalash o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rnatishiga asoslanadi.

So‘nggi ellik yil ichida stress haqida yuz minglab ilmiy va ommabop maqolalar yozildi. Bundan tashqari, har bir tadqiqotchi ushbu hodisaga shaxsiy qarashlarini taqdim etdi. Shunday qilib, ularning ko‘pchiligi ta’kidlashicha, o‘qituvchilarning kasbiy faoliyati ijtimoiy faoliyatning eng psixologik stressli turlaridan biri bo‘lib, stress omillari sezilarli darajada mavjud bo‘lgan kasblar guruhiga kiradi.

O‘qituvchining kasbiy faoliyatida stressni boshqarish muammosi bizning jamiyatimizda dolzarb bo‘lib, stressni boshqarish usullarini o‘zlashtirish o‘qituvchining salomatligi, ish faoliyatini va hayot sifatini yaxshilashda muhim omil hisoblanadi.

Stress – bu o‘qituvchi bilishi va doimo yodda tutishi kerak bo‘lgan muqarrar. Stressni iloji boricha oldindan bilish va boshqarish mumkin . Ba'zi stresslardan butunlay qochish mumkin. Stress sizni engishiga yo‘l qo‘yolmaysiz. Siz sabr-toqatli bo‘lishingiz va o‘zingizni ishda ham, shaxsiy hayotingizda ham duch keladigan qiyin hayotiy vaziyatlarga tayyorlashga tayyor bo‘lishingiz kerak. Faoliyat stress bilan kurashishning yagona yo‘li. Bunday holda, motivatsiya kuchi katta rol o‘ynaydi , chunki ko‘nikmalar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi; ruhiy gigiena haqidagi bilimlar odat tusiga kirishi va o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatida hayotining tabiiy tarkibiy qismiga aylanishi uchun ham yetarlicha iroda kuchi zarur . Doimiy ravishda hayotning yorqin tomonlariga va vaziyatni yaxshilashga yordam beradigan harakatlarga e'tibor qaratish nafaqat salomatlikni saqlaydi, balki muvaffaqiyatga ham yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova R.A Pedagogik psixologiya.Toshkent: “O‘qituvchi”,2020.320 b
2. Abdullayeva N.Kasbiy stress va uni boshqarish usullari.-Toshkent: “Fan va texnologiya”,2021.-215 b/
3. Akbarova D.Ta’lim tizimidadagi psixologik muhit va stress holatlari.-“Pedagogika” jurnali.2023,№345-51 betlar.

MAKTAB O‘QUVCHILARINI KASBGA YO‘NALTIRISHNING AYRIM JIHATLARI HAQIDA

Jumayeva Marxabo Erkinovna,
Karmana tumani 11-umumiy o‘rta ta’lim maktabi psixologi

Annotatsiya: O‘sib kelayotgan yosh avlodni kasbga yo‘naltirish hamisha davlatimiz, siyosatimiz oldida turgan ustivor masalalardan sanalib kelingan. Mazkur jarayonni amalga oshirish uchun farzandlarimiznung ota-onalari hamda ta’lim muassasalarining o‘rni va u yerda faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilar hamda amaliyotchi psixologlarining faoliyati katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada o‘quvchilarni kasbga to‘g‘ri yo‘naltirishdagi mavjud muammolar, amaliyotdagi kamchiliklar ularni bartaraf etish yo‘llari haqida qisqacha fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. To‘g‘ri kasb tanlash, ijtimoiylashtirish, o‘z-o‘zini baholash, texnologik ta’lim, uzluksiz tizim, hamkorlik, fanlararo aloqadorlik.

Аннотация: Ориентация молодого поколения на профессию всегда была одним из приоритетов нашего государства и политики. Роль наших детей родителей и учебных заведений, а также работа учителей и практикующих психологов, очень важна для реализации этого процесса. В этой статье дается краткий обзор текущих проблем, связанных с направлением студентов на правильную профессию, недостатков практики и путей их преодоления. Ключевые слова: Выбор правильной профессии, социализация, самооценка, технологическое образование, непрерывная система, сотрудничество, междисциплинарная связь.

Abstract: Orientation of the young generation to the profession has always been one of the priorities of our state and politics. The role of our children, parents and educational institutions, as well as the work of teachers and practicing psychologists, is very important for the implementation of this process. This article gives a brief overview of the current problems associated with the direction of students in the right profession, the shortcomings of practice and ways to overcome them. Key words: Choosing the right profession, socialization, self-esteem, technological education, continuous system, cooperation, interdisciplinary communication

Joriy yil Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Farg‘onaga tashrifi chog‘ida Xalq ta’limi vazirligiga alohida ko‘rsatmalar berdi. Prezident yoshlarni ish bilan ta’minlash, ularni kasb-hunarga yo‘naltirish masalalariga alohida to‘xtalib o‘tib, yangi o‘quv yilidan 7 sinfdan boshlab o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish lozimligini ta’kidladilar. Prezidentimizning ko‘rsatmalariga binoan 2020- 2021 o‘quv yilidan 7 sinfdan boshlab o‘quvchilar kasb-hunarga yo‘naltirilib, ular aynan qanday kasb egasi bo‘lishi aniqlanadi. 8, 9, 10 sinfga qadar ular o‘zlari tanlangan kasb-hunar bo‘yicha o‘qitilib boriladi. 10 sinfda ularga ishlash huquqini beruvchi guvohnomalar beriladi. 11 sinfda esa o‘quvchilar bir vaqtning o‘zida korxona va tashkilotlarda rasmiy tarzda ishlab oylik maosh olishlari ham mumkin bo‘ladi. 11 sinf bitiruvchilarining ish bilan ta’minlanishiga hokimlar va hududiy sektor rahbarlari javobgar hisoblanadi

Ushbu kursatmadan kurinib turibdiki yoshlarni ish bilan ta’minlash, kasbga yunaltirish davlatimiz siyosatining ustivor vazifalaridan biri bo‘lib turibdi. Bu borada maktab bitiruvchilarini kasbga yo‘naltirish, iqtidoridan kelib chiqib to‘g‘ri kasb tanlashi katta ahamiyatga ega. Ma’lumki, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligi, fuqarolarining aqliy va axloqiy salohiyatini yuksak darajada rivojlanganligiga bog‘liq. Zero, jamiyatimizning ma’naviy yangilanishida, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishda jahon hamjamiyatiga qo‘shilishini ta’minlaydigan demokratik xuquqiy davlat qurish kadrlar tayyorlashning ustuvor mezon sifatida muhim rol o‘ynaydi. Inson bolasi kamolga yetgani sari ilmga, ma’rifatga talpinadi. Dastlabki saboqni ham u maktabdan oladi. Ammo kelajagimiz egalari bo‘lgan yoshlarga ta’lim berish ularni o‘qitish bilan bog‘liq ayrim muammolar bugungi kunda kishini o‘ylantirib qo‘yayotgani tabiiy. Chunki zamonaviy shiddatkor jamiyat esa yetuk bilimdon mutaxasis kadrlarga muxtoj bo‘lib boraveradi

Kasbiy shakllanish jarayonining dastlabki va ayni damda o‘ta muhim bosqichi bo‘lajak kasbni tanlash, ya’ni aniq bir kasbiy qarorga kelishigacha bo‘lgan davrni o‘zichiga oladi. Ravshanki, yoshlarning kasb tanlashga tayyorgarlik darajasi, faqatgina yosh xususiyatlariga bog‘lik emas, u ma’lum yoshga kelib o‘z o‘zidan shakllanib qolmaydi. Yoshlarning kasb tanlashga pedagogik-psixologik bilim, ko‘nikma, malakalar, shuningdek, jamiyatning ta’siri orqali tayyorlash va tarbiyalash lozim. Mazkur jarayonda shaxsdan kasbga doir bilimlarga ega bo‘lish talab qilinadi. Shuning uchun xam o‘quvchilarni kasblar olamiga doir bilimlar bilan qurollantirish hamda amaliy ko‘nikma

va malakalarni hosil qilish lozim. Buning uchun kasblarga doir qo‘llanmalar, tarqatma materiallar bilan ta’minlash lozim. Shundagina kasb tanlash jarayonida yuzaga keladigan turli qiyinchilik, ziddiyat, to‘siqlarni oldini olgan holda o‘quvchi-yoshlarni ongli ravishda kasbga yo‘llash imkoniga ega bo‘lamiz

Texnologiya fani o‘qituvchisi texnologik ta’lim jarayonida kasb va mehnat turlari haqidagi ma’lumotlarni muayyan mavzularga bog‘lagan holda o‘quvchilarga yetkazishi lozim. O‘quvchilarning qiziqishlariga asoslangan holda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar orasida muayyan kasblarga oid to‘garaklar alohida o‘rin egallaydi. Bunday to‘garaklar aksariyat hollarda mehnat va kasb ta’limi o‘qituvchilari tomonidan olib boriladi. Bular jumlasiga texnik-ijodkorlik, yosh rassomlar, yosh texnologlar, yosh fiziklar kabi to‘garaklarni kiritish mumkin. O‘qituvchi bunday to‘garaklarda o‘quvchilarning loyihachilik, texnik-ijodkorlik, ixtirochilik kabi qobiliyatlarini rivojlantirish ustida tizimli ish olib borish imkoniyatiga ega. Texnologiya o‘qituvchisi o‘z ish faoliyatida pedagogik-psixologik tashxisga alohida o‘rin ajratishi lozim. Pedagogik-psixologik tashxis jarayonida o‘qituvchi maktab rahbariyati va psixologi, o‘quv-ishlab chiqarish muassasasi hamda kasb-hunar maktablari mutasaddilari bilan hamkorlikda har bir o‘quvchining tanlagan kasbi bilan shaxsiy sifatlari orasidagi mutanosiblikni aniqlashi kerak.

Texnologiya fani o‘qituvchisi o‘zining o‘quvchilarni kasbga yo‘llashga oid faoliyatini sinf rahbarlari, fan o‘qituvchilari, maktab rahbariyati va psixologi, ota onalar, mahalla faollari, hududdagi kasb-hunar kollejlari ma’muriyati faoliyati bilan mujassamlashtirgan holda amalga oshirishi kerak. O‘quvchilarni kasb-hunarga to‘g‘ri yo‘llashda mehnat xonasi, laboratoriya va ustaxonalar ham alohida ahamiyatga ega. Mehnat fani o‘qituvchisi ularni zamonaviy talablar asosida jihozlashga alohida e’tibor qaratishi lozim, chunki o‘quvchilarda muayyan mehnat va kasb turi haqidagi bilim, tushuncha va tasavvurlar ularning jamiyat hayotida tutgan o‘rni haqidagi ma’lumotlar dastlab shu yerda hosil bo‘ladi. Ma’lumki, mehnat va kasb-hunarga bo‘lgan muhabbat, e’tiqod, barcha o‘quv fanlari tarkibida shakllantiriladi. Shuning uchun ham texnologik ta’lim darslarida fanlararo aloqadorlikka alohida e’tibor qaratish talab etiladi. Mehnat o‘qituvchisining o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘llash orqali ijtimoiylashtirishga oid faoliyatini turli o‘quv fanlari o‘qituvchilari va sinf rahbarlarining bu sohadagi ishlari bilan uyg‘unlashtirish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Buning uchun:

– turli o‘quv fanlari, fan to‘garaklari va sinfdan hamda maktabdan tashqari tadbirlarning imkoniyatlaridan unumli foydalanish;

– texnologik bilimlar, umummehnat va kasbiy ko‘nikmalar yordamida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish orqali ijtimoiylashtirishga erishish;

– o‘quvchilarning muayyan maqsadga yo‘naltirilgan ijtimoiy ahamiyatlilik darajasi yuqori bo‘lgan o‘quv topshiriqlarini bajarishlarini ta’minlash;

– jamiyat hayoti uchun ahamiyatli bo‘lgan mehnat va kasb-hunarning turli sohalariga o‘quvchilarning qiziqishlarini tabaqalashtirilgan yondashuv asosida shakllantirishga erishish;

– o‘quvchilarni munosib kasb-hunarga yo‘naltirish maqsadida, maktab o‘qituvchilari, firmalar, ishlab chiqarish korxonalari, ijodiy jamoalar, kasb-hunar kollejlari hamda tashxis markazlari hamkorligini yo‘lga qo‘yish. Bunday hamkorlik natijasida o‘quvchilar orasida ijtimoiy ahamiyatlilik darajasi yuqori bo‘lgan kasblar targ‘ibotini amalga oshirish imkoni paydo bo‘ladi. Texnologiya o‘qituvchisi maktab amaliyotchi psixologi o‘z kasbiy faoliyati jarayonida quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

– o‘quvchilarni jamiyat hayoti va taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan kasb-hunar turlari bilan tanishtirish; – kasblarning demogratik xususiyatlari haqida ma'lumot berish; – o‘quvchilarni kasbga yo‘llash bo‘yicha pedagogik-psixologik xarakterdagi maslahatlar uyushtirish;

– o‘quvchilarda ularning shaxsiy sifatlarini hisobga olgan holda muayyan kasblar bo‘yicha barqaror qiziqishlarni shakllantirish;

– o‘quvchilarni o‘z kasbiy faoliyati natijasida shuhrat qozongan mashhur shaxslar va ularning jamiyat va insoniyat taraqqiyotiga qo‘shgan hissalari bilan tanishtirish;

– o‘quvchilarga kasblarning jamiyatni iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy jihatlarini rivojlantirishdagi o‘rni haqida malumot berish;

– o‘quvchilarning ota-onalari bilan ularning farzandlarini munosib kasbga yo‘llash bo‘yicha suhbatlar o‘tkazish;

– o‘quvchilarni noto‘g‘ri kasb tanlashning salbiy oqibatlaridan xabardor qilish;

– o‘quvchilarda dastlabki umummehnat va kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish va sinab ko‘rishlari uchun qulay sharoitlar yaratish;

– o‘quvchilarni to‘g‘ri kasbga yo‘llash maqsadida, ularning shaxsiyati, mehnat turi va kasblarga bo‘lgan qiziqishlarini o‘rganish;

– o‘quvchilarni kasbga yo‘llash jarayoni samaradorligini ta'minlash maqsadida, maktabda muayyan kasblar, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati haqida hikoya qiluvchi ko‘rgazmalar, anjumanlar, uchrashuvlar tashkil etish;

– o‘quvchilarning shaxsiy-kasbiy qiziqishlarini aniqlash maqsadida muntazam pedagogik-psixologik tashxis o‘tkazish va h.k.

Kasb tanlashda maktab amaliyotchi-psixologining ham olib borayotgan targ‘ibot tashviqot ishlarning o‘z ahamiyati bor. Chunki barcha o‘quvhcilar ham kasb tanlashda aniq bir fikrga kela olmaydi. Buning o‘ziga yarasha turli xil sabablari bor. Bu o‘rinda men o‘zim ishlayotgan maktab bitiruvchi sinf o‘quvchilari bilan davra suhbatlari, anketa surovnomalari o‘tkazdim. Masalan: Kasbga yo‘naltirishni qachondan boshlash kerak? degan savolga quyidagi diagrammadagi ko‘rinishda javoblar olindi. O‘quvchilarning 54 % maktabdanoq kasbiy yo‘naltirishni amalga oshirishni boshlash kerak deb hisoblaydi. O‘quvchilarning 25 %i buni bog‘cha paytidan boshlash kerak, 14 %i esa tanlash bosqichini kolledjdan boshlash kerak deb hisoblaydilar.

Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, respublikamizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarining zamirida davlatimizni yetakchi demokratik davlatlar ko‘rsatkichiga chiqarish bosh maqsadi yotibdi.O‘quvchilarda o‘zlarining qiziqishlari asosida kasb tanlashga yo‘llash bugunning dolzarb masalalaridir. Mehnat ta'limi darslari va tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarni kasbga yo‘llash imkoniyatlari chegaralanganligi sababli ularni to‘garak faoliyatida amalga oshirish mumkin.To‘garaklarda o‘quvchilarni bajaradigan faoliyatidan kelib chiqib kasblarga yo‘naltirish imkoniyatlari kattadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1 Nazarova, M. (2021). Yoshlarning ijtimoiy-psixologik muammolarining oldini olish va ularni bartaraf etish. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 7(7).

2. O‘quvchi yoshlarni kasb-hunarga tayyorlashning yangi tizimi joriy etiladi -Prezident qarori loyihasi

3. Mustafoqizi, N. M. (2021). Psychology of the Leader. Journal of Ethics and Diversity in International Communication, 1(4), 34-36.

O‘QUVCHILARNING TABIIY SAVODXONLIGINI PISA DASTURI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK OMILLARI

Rahmonova Gulchehra Zokirjon qizi,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti 3-bosqich doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada PISA xalqaro tadqiqoti natijalari tahlili va o‘qituvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomalarga ko‘ra o‘quvchilarning tabiiy savodxonligiga ta’sir etuvchi omillar tahlil etiladi.

Abstract. This article analyzes the factors influencing students' natural literacy, based on an analysis of the results of the international PISA study and surveys conducted among teachers.

Аннотация. В данной статье анализируются факторы, влияющие на естественную грамотность учащихся по данным анализа результатов международного исследования PISA и анкетирования, проведенного среди учителей.

Kalit so‘zlar: ta’lim, tadqiqot, ko‘nikma, bilim, baholash, omil, standart, talab, tabiiy fanlar, tamoyil.

Keywords: education, research, skills, knowledge, assessment, factor, standard, requirement, natural sciences, principle.

Ключевые слова: образование, исследование, навык, знание, оценка, фактор, стандарт, требование, естественные науки, принцип.

Kirish

O‘quvchilarning tabiiiy savodxonligini rivojlantirish – bu ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Bunda o‘quvchilarning tabiiy va fanlararo bilimlarni tushunish, tahlil qilish va amalda qo‘llash qobiliyatlarini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi. Dunyo bo‘yicha o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholashda PISA (Program for International Student Assessment) dasturi muhim o‘rin tutadi. Ushbu dastur, 15 yoshdagi o‘quvchilarning o‘qish, matematik va tabiiy fanlardagi savodxonligini baholash orqali davlatlar ta'lim tizimlarini solishtirishga imkon beradi. PISA dasturi asosida o‘quvchilarning tabiiiy savodxonligini rivojlantirish omillari, ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotga yo‘l ochish uchun muhim yo‘nalishlarni aniqlashga yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).

Tabiiy fanlarni o‘rganishda o‘qituvchi eng asosiy stimul (omil) bo‘lsada, tadqiqot davomida o‘quvchilarning tabiiy savodxonligiga ta’sir etuvchi bir qator yondosh omillar mavjudligi aniqlandi. O‘quvchilarning tabiiy savodxonligiga ta’sir etuvchi omillar bir qancha olimlarning ilmiy izlanishlarida yoritilgan. Schibeci tabiiy-ilmiy savodxonlikka ta’sir etuvchi omillarni to‘rt guruhga ajratadi va oila, tengdoshlar, shaxsiy xususiyatlar va maktab o‘qituvchilarining ta’siri katta ekanligini bayon etadi. Ann va Michelle oliy ta’limda tabiiy fanlarni o‘rganish jarayonida, o‘g‘il va qizlar o‘rtasidagi o‘rganish farqlariga ta’sir qiluvchi omillarni: talabalar o‘rganish usuli, motivatsiya, maqsadlar, o‘z-o‘zini samarali his qilish, ishonch, mantiqiy fikrlash qobiliyati va boshqa omillar sifatida ko‘rsatadi.

O‘quvchilarning tabiiy savodxonligiga ta’sir etuvchi omillardan *eng muhimi* o‘qitish mazmunining izohlanishi va o‘qituvchining o‘qitish uslubidir. Wubbels va Levy o‘qituvchi va o‘quvchining ijobiy munosabatlari o‘quvchilarning fanlarni o‘rganishga qiziqishlarini va akademik yutuqlarini oshirishi mumkinligini aniqladilar. O‘qituvchilar

o‘quvchilarni vaqtida rag‘batlantirsa, ularning ta’limga bo‘lgan qarashlari yanada ijobiy bo‘lishi va yutuqlari ham oshishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology).

Tadqiqot ishi yuzasidan o‘tkazilgan so‘rovnomada tabiiy fanlar o‘qituvchilari o‘quvchilarning tabiiy fanlar savodxonligigiga ta’sir etuvchi omillar sifatida quyidagilarni belgilashgan:

1. Tadqiqotda hayotiy vaziyatlar bilan bog‘liq (noodatiy) savollardan foydalanilganligi va o‘quvchilarda bunday topshiriqlar bilan ishlash ko‘nikmalarining yetarli emasligi.
2. O‘qitishda nazariy bilimlarni shakllantirishga ko‘proq urg‘u berilganligi.
3. Amaldagi darsliklarda xalqaro baholash dasturi talablari va topshiriqlari aks etmaganligi.
4. O‘quvchilarni baholashda (formativ va summativ) xalqaro baholash dasturlari topshiriqlaridan foydalanilmaslik.
5. Umumiy o‘rta ta’lim muassalarida laboratoriya jihozlari va kompyuterlarning yetishmasligi.
6. Oilaviy muhitning ta’siri (o‘quvchilarni ta’lim olishga qo‘llab quvvatlanmasligi).
7. Tabiiy fanlarni o‘rganishga qiziqish pastligi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

PISA-2022 tadqiqotida o‘quvchilarning gender darajalari, iqtisodiy-ijtimoiy ahvoli, maktablarning demografik joylashuvi (qishloq va shahar maktablari), o‘quvchilarning hayotdan qoniqish darajalari, oila yordami kabi omillar va o‘quvchilarning erishgan natijalari orasidagi bog‘liqliklar tahlil qilindi. Unga ko‘ra mamlakatimiz o‘quvchilarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy holati (IIMH) va ularning tabiiy fanlar bo‘yicha erishgan natijalari orasida quyidagicha bog‘liqlik aks etadi[1](1-rasm).



1-rasm

15 yoshli o‘quvchilarimizning ijtimoi-iqtisodiy va madaniy holati va ularning tabiiy fanlar savodxonligiga juda katta ta’sir qilmagan, ya’ni, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yaxshi ta’minlangan o‘g‘il bolalar boshqalarga nisbatan o‘rtacha 7 ball yuqori natijani qayd etishgan bo‘lsa, qizlar o‘rtasida juda kichik tavofut (4 ball) kuzatilgan. Bundan xulosa qilish mumkinki, mamlakatimiz o‘quvchilarining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ta’minlanganlik darajasi o‘quvchilarning tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydi.

Qishloq va shahar maktablari o‘quvchilarining natijalari orasidagi tafovutlar quyidagi rasmda aks etgan[1] (2-rasm).



2-rasm

Umumiy olgan uchala yo‘nalish bo‘yicha shahar maktablari o‘quvchilari nisbatan yuqori natijani qayd etishib, tabiiy fanlar yo‘nalishi bo‘yicha shahar maktablari o‘quvchilari qishloq maktablariga nisbatan o‘rtacha 12 ballga oldinlab ketishgan. Bu juda katta farqni anglatmasada, qishloq hududida joylashgan maktablarga e’tiborni qaratish lozimligini aks ettiradi.

PISA natijalari tahliliga ko‘ra 15 yoshli o‘quvchilarimizning hayotdan qoniqish darajasi ularning maktabdagi yutuqlariga ta’sir etishi aniqlandi[1](3-rasm).

3-rasm. O‘quvchilarning yutuqlari kvartillari orqali mustaqil baholangan hayotdan qoniqish.



3-rasm

Bundan tashqari ota-onalarning ta’limdagi ishtiroki, ya’ni bolalar ta’limining ota-onalar tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi, ota-onalarning bilim darajasi o‘quvchilarning natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. O‘qituvchilari va ota-onalar tomonidan doimiy ko‘makni his qilgan bolalarning hayotdan qoniqish yuqori bo‘lib, boshqalarga nisbatan yaxshiroq natijalarni qayd etishgan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarning tabiiy savodxonligini rivojlantirish PISA dasturi orqali samarali baholanadi va bu jarayon ta'lim tizimining barcha jihatlarini yaxshilashga yordam beradi. Bu, o‘z navbatida, jamiyatning ilmiy-texnikaviy rivojlanishiga xizmat qiladi va kelajak avlodning ta'limdagi muvaffaqiyatlarini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Q.K.Karimberdiyev, A.A.Ismailov. PISA O‘zbekiston PISA 2022 tadqiqoti natijalari.T- 2023.

2. A.M.Matkarimov. PISA xalqaro baholash dasturi asosida o‘quvchilarning tayanch kompetensiyalarini shakllantirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha fal.dok.(PhD)dis.avtoref. Chirchiq-2022

3. Jack Richards. Competence and performance. 5 teaching skills. 2015

4. M.T.Ergasheva. O‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligi monitoringida baholash dasturlaridan foydalanish metodikasi (PISA, TIMSS misolida). Toshkent-2023
5. PISA 2022 Results The State of Learning and Equity in Education Publication Volume I. OECD 2023
6. PISA–2015 Science Framework, OECD, 2017

INKLYUZIV TA’LIMNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK VA METODOLOGIK ASOSLARI

Ruziyeva Nigora Zohidjonovna,
Namangan davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta’limning jamiyatda barcha bolalarning ta’lim olish huquqini ta’minlashga qaratilgan muhim pedagogik tizimni muhokama qiladi. Bu tizimning psixologik-pedagogik va metodologik asoslari ta’lim jarayonini ijtimoiy tenglik, insonparvarlik va hamkorlik tamoyillariga asoslangan holda tashkil etishga yo‘naltirilgan.

Kalit so‘zlar: imkoniyati cheklangan o‘quvchi, huquiy asoslari, metodologik asoslari, pedagogik-psixologik asoslari, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv

Аннотация: В данной статье рассматривается важная педагогическая система инклюзивного образования, направленная на обеспечение права на образование всех детей в обществе. Психолого-педагогические и методические основы этой системы направлены на организацию образовательного процесса на основе принципов социального равенства, гуманности и сотрудничества.

Ключевые слова: студент с ограниченными возможностями, правовая основа, методологическая основа, педагогико-психологическая основа, личностно-ориентированный подход.

Abstract: This article discusses inclusive education as an important pedagogical system aimed at ensuring the right of all children in society to education. The psychological, pedagogical and methodological foundations of this system are aimed at organizing the educational process based on the principles of social equality, humanity and cooperation.

Keywords: student with disabilities, legal foundations, methodological foundations, pedagogical and psychological foundations, person-centered approach.

Imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalash masalasi bugungi kunda eng dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Hozirgi kunda Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bolalarning rivojlanish darajasi, imkoniyatlari, xususiyatlari va qobiliyatlariga ko‘ra maxsus yoki umumiy ta'lim tizimida ta'limni amalga oshirish maqsadida inklyuziv ta'lim tizimi amalga oshirilmoqda.

Dunyo tajribasiga ko‘ra, maktablarda kiritish ko‘pincha tengdoshlari bilan birga o‘rta maktablarda nogironlar ta'lim sifatida qaraladi, biroq, inklyuziv ta'lim mohiyati bilim va bilim hali jamiyatda yetarli emas. “Inklyuziv” va “integrallashgan” terminlari ko‘pincha bir xil ma’noda ishlatiladi. Lekin falsafada bu tushunchalar o‘rtasida katta farq bor.

Bundan tashqari, inklyuziv ta’limning huquqiy asoslari sifatida **O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son qarori "Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida"** qabul qilingan. Ushbu qarorning ***16-band, 17-band, 18-band, 19-bandlari inklyuziv ta’limning huquqiy asoslari sifatida qaraladi.***

Inklyuziv ta’lim jamiyatda barcha bolalarning ta’lim olish huquqini ta’minlashga qaratilgan muhim pedagogik tizimdir. Bu tizimning psixologik-pedagogik va metodologik asoslari ta’lim jarayonini ijtimoiy tenglik, insonparvarlik va hamkorlik tamoyillariga asoslangan holda tashkil etishga yo‘naltirilgan.

Psixologik asoslar:

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv: Har bir bolaning qobiliyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlariga mos individual yondashuvni shakllantirish inklyuziv ta’limning psixologik negizidir. Nogironligi bo‘lgan bolalar bilan ishlashda ularning o‘ziga xos xususiyatlari va rivojlanish potensialini hisobga olish zarur. **Individual yondashuv** - Individual yondashuv ta'limda pedagogik jarayonni o‘quvchilarning individual xususiyatlarini (temperamenti va xarakteri, qobiliyat va mayllari, motivlari va qiziqishlari va boshqalar) hisobga olgan holda amalga oshirish, bu ularning turli xildagi xatti-harakatlariga qanchalik ta'sir qilishini anglatadi[16]. Individual yondashuv (o‘qitishda) - bu uning rivojlanish xususiyatlari va shaxsiy xususiyatlarini bilish va hisobga olish asosida bolaga to‘g‘ri pedagogik ta'sir ko‘rsatishni ta'minlaydigan pedagogika tamoyilidir [17]

Individual yondashuv - bu pedagogikaning printsipi bo‘lib, unga ko‘ra, guruh bilan o‘quv-tarbiyaviy ish jarayonida o‘qituvchi individual o‘quvchilar bilan individual model bo‘yicha, ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda o‘zaro munosabatda bo‘ladi [18]

A. A. Yarullovning fikricha, individual yo‘naltirilgan mehnat - bu yoshga oid ta'lim faoliyati orqali shaxsga psixologik-pedagogik yordam berish usuli sifatida qaraladigan tizimdir" [19]. Ba'zi xorijiy mualliflar G. M. Paninaning so‘zlariga ko‘ra, individual yo‘naltirilgan ta'limni amalga oshirish, haqiqiy ijtimoiy-madaniy ta'lim vaziyatining nomutanosibligi sharoitida yaxlitlikka individual harakat jarayonidan bevosita manfaatdor bo‘lganlarni "ichkaridan" uyg‘unlashtirishga imkon beradi deydi.[20]

Individual yo‘naltirilgan ta'limning maqsadi - individual yo‘naltirilgan ta'lim faoliyatini qurish asosida o‘quvchining ta'lim sifatini oshirish, o‘quvchining moyilligini, qobiliyatini, o‘z oldiga maqsad qo‘yish qobiliyatini hisobga olgan holda o‘quvchi shaxsini rivojlantirish - ta'lim, hayot, rejalashtirish, amalga oshirish, maqsadlarga erishish yo‘llarini aniqlash, uning yutuqlari haqida fikr yuritish, kommunikativ faoliyatni shakllantirish. "O‘qituvchi uchun qadriyat o‘quvchining bilimsizlik darajasini aniqlash emas, balki ularda ta'lim faoliyati davomida o‘zini o‘zi boshqarishning turli xil ijtimoiy tajribasini rivojlantirishdir" [21]. Shuni ta'kidlash kerakki, individual yo‘naltirilgan ta'lim maktab o‘quvchilarining sog‘lig‘ini saqlashga qaratilgan, chunki o‘quvchilar o‘z qobiliyatlari va imkoniyatlariga ko‘ra, ularning tezligi va hajmiga mos ravishda topshiriqlarni bajarishlari mumkin.

O‘quv jarayonida individual yo‘naltirilgan holda o‘qitishda samarali usul juftlik va guruh ishlarini qo‘llash bo‘ladi, bu erda o‘quvchilar hamkorlikda muzokaralar olib

[16] Psixologik lug'at / Umumiy. ed. A. V. Petrovskiy, M. G. Yaroshevskiy. - 2-nashr, rev. va qo'shimcha - M.: Poitizdat, 1990. - 494 b.

[17] Individual yo'naltirilgan ta'lim tizimi: rivojlanish yo'llari [Matn] / tahrirlangan. ed. L. I. Ivolgina. - Krasnoyarsk: NOKROOPSIOSO, 2013. - 106 p.

[18] Nosova, I. Kichik guruhlarda ishlashning xususiyatlari [Matn] / I. V. Nosova // Boshlang'ich maktab plyus OLDINI va KEYIN. - 2004. - 6-son.

[19] Rus pedagogik entsiklopediyasi / ed. V.V. Davydov. - M .: Bolshaya ros. ensikl, 1993. - 1160 b.

[20] Belova, S. N. Ta'lim jarayonining innovatsion ijtimoiy yo'naltirilgan rivojlanishi oliy kasbiy ta'lim sifatining kafolati sifatida [Matn] / S. N. Belova // Ilmiy eslatmalar: Kursk davlat universitetining elektron ilmiy jurnali. - 2013. - No 2(26). - 215-221-betlar

[21] Yarullov, A. A. Individual yo'naltirilgan ta'lim tizimi Tarasova, E. I. O'smirlarga o'qitish uchun bo'lajak texnologiya o'qituvchisini tayyorlashning individual yo'naltirilgan tizimi.

borish, bir-birlarini tinglash va eshitishni o‘rganishlari kerak. O‘quv mashg‘ulotini o‘quv loyihasi yoki individual ta'lim yo‘nalishlari shaklida o‘tkazish tavsiya etiladi, bu yerda har bir talabaning natijalarini to‘g‘ri kuzatish va uning keyingi rivojlanish yo‘nalishini aniqlash mumkin. Umumjahon ta'lim faoliyati, umumiy ta'lim ko‘nikmalarini samarali shakllantirishga sinf va sinfdan tashqari ishlar, to‘garaklar va qiziqish guruhlarida ishlashning uyg‘unligi yordam beradi. Biz individual yo‘naltirilgan o‘quv mashg‘ulotlari mazmuni uchun algoritmni taqdim etishni muhim deb hisoblaymiz. U quyidagi bosqichlar bilan ifodalanadi: maqsadni belgilash, mulohaza yuritish, maktab o‘quvchilarining tushunishini tashkil etishga qaratilgan individual usullar, usullardan foydalanish va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish. Bularning barchasi, umuman olganda, maktab o‘quvchilarida universal ta'lim faoliyatini shakllantirishga hissa qo‘shishi kerak, bu endi yangi Davlat ta'lim standartlarida ko‘rsatilgan.

Refleksiya va o‘zaro ta'sir: Reflektiv o‘zaro ta'sir o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida samarali hamkorlikni rivojlantiradi. Bu jarayon bolalar ongini va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Reflektiv o‘zaro ta'sir – inklyuziv ta'lim tashkilotchilarini tayyorlashda zaruriy komponent hisoblanadi.

Insonning ichki holatlari va kechinmalarining psixologik dunyosidagi asosiy substansiya – bu uning ongidir. Undagi o‘zgarishlarning harakatlantiruvchi kuchi esa refleksiyadir. Refleksiya inson ongining mazmunini qayta anglash va transformatsiya qilish jarayonida asosiy rolni bajaradi. Ushbu o‘zgarishlar insonning ichki hayotidagi suby'ekt va ob'yekt dunyosi o‘zaro ta'sirining natijasida shakllanadi va ularning mohiyati insonning atrof-muhit va jamiyat bilan o‘zaro aloqalari orqali belgilanadi [22]

Amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ta'lim jarayonidagi reflektiv o‘zaro ta'sir kelajakdagi inklyuziv ta'lim tashkilotchilarining shaxsiy rivojlanishi uchun katta salohiyatga ega. Ushbu yo‘nalishda kelgusida quyidagi maqsadlarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda:

a. O‘qituvchining reflektiv o‘zaro ta'siridan maxsus pedagog (defektolog) va inklyuziv ta'lim tashkilotchisi kasbiy faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan pedagogik xavflar va deformatsiyalarni oldini olish vositasi sifatida foydalanish.

b. Talabalarning intellektual-ijodiy faoliyatini rag‘batlantiruvchi reflektiv o‘zaro ta'sirga asoslangan maxsus ta'limiy vaziyatlar yaratish.

c. Reflektiv o‘zaro ta'sirni amalga oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish: reflektiv polilog, reflektiv o‘yin vaziyatlari, reflektiv trening va boshqalar.

Motivatsiyani rivojlantirish yondashuvi : Nogironligi bo‘lgan bolalarda o‘qishga bo‘lgan qiziqish va ishtiyoqni kuchaytirish uchun psixologik qulay muhit yaratish talab etiladi. Bu jarayon ijobiy rag‘batlantirish va shaxsiy yutuqlarni qadrlash orqali qo‘llab-quvvatlanadi. Motivatsiyani shakllantirish va muvaffaqiyatli o‘qitish usullarini ishlab chiqishda quyidagilarni hisobga olish kerak: o‘quvchining yosh xususiyatlari, motivatsiya tanlash va o‘qituvchining harakatlarini o‘quvchining imkoniyatlariga moslashtirish (bu ayniqsa nogironligi bo‘lgan bolalarni o‘qitishda muhimdir), sinfda guruhli va jamoaviy ishlash shakllaridan foydalanish, o‘yinli ta'lim shakllarini qo‘llash, sinfda o‘zaro ishonch va hamkorlik muhitini yaratish, o‘quvchini o‘qitish jarayonida rag‘batlantirish, o‘quvchining to‘g‘ri o‘zini baholash ko‘nikmasini shakllantirish, o‘quvchiga uning imkoniyatlariga bo‘lgan o‘qituvchining ishonchini yetkazish, o‘qitish jarayonida muvaffaqiyat hissini shakllantirish, sinfda o‘qituvchining ijobiy hissiy kayfiyatini

[22] Лехциер, В. Я. «Твой собственный путь в зыбучих песках» (Модель рефлексивного обучения как подход к профессиональному развитию учителя английского языка) / В. Я. Лехциер // Вестник СамГУ. 2002. № 3

tarqatish va zarurat tug‘ilganda o‘quvchining noto‘g‘ri xatti-harakatlarini minimal darajada tanqid qilish.

Shuni unutmaslik kerakki, o‘quvchini jazolash va uning harakatlarini tanqid qilish ta’lim jarayonida motivatsiyani oshirishning eng samarasiz usulidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Psixologik lug‘at / Umumiy. ed. A. V. Petrovskiy, M. G. Yaroshevskiy. - 2-nashr, rev. va qo‘shimcha - M.: Poitizdat, 1990. - 494 b.
2. Individual yo‘naltirilgan ta’lim tizimi: rivojlanish yo‘llari / tahrirlangan. ed. L. I. Ivolgina. - Krasnoyarsk: NOKROOPSIOSO, 2013. - 106 p.
3. Nosova, I. Kichik guruhlarda ishlashning xususiyatlari/ I. V. Nosova // Boshlang‘ich maktab - 2004. - 6-son.
4. Belova, S. N. Ta’lim jarayonining innovatsion ijtimoiy yo‘naltirilgan rivojlanishi oliy kasbiy ta’lim sifatining kafolati sifatida / S. N. Belova // Ilmiy eslatmalar: Kursk davlat universitetining elektron ilmiy jurnali. - 2013. - No 2(26). - 215-221-betlar
5. Yarullov, A. A. Individual yo‘naltirilgan ta’lim tizimi Tarasova, E. I. O‘smirlarga o‘qitish uchun bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisini tayyorlashning individual yo‘naltirilgan tizimi.
6. Лехциер, В. Я. «Твой собственный путь в зыбучих песках» (Модель рефлексивного обучения как подход к профессиональному развитию учителя английского языка) / В. Я. Лехциер // Вестник СамГУ. 2002. № 3

HISSIY INTELLEKT: AHAMIYATI VA RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Aliyev Shexroz Yodgor o‘g‘li,
Samarqand viloyati PMM o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada hissiy intellektning mazmun-mohiyati, uning ahamiyati va rivojlantirish yo‘llari haqida batafsil ma’lumot beriladi. Hissiy intellekt insonning o‘z hissiyotlarini tushunish, boshqarish va boshqa odamlarning hissiyotlariga empatiya ko‘rsatish kabi qobiliyatlariga asoslanadi. Maqolada, shu bilan birga, o‘zini anglash, emotsional ong, motivatsiya, empatiya, ijtimoiy ko‘nikmalar va stressni boshqarish kabi tushunchalar ham ko‘rib chiqiladi. Hissiy intellektning rivojlanishi va uning kundalik hayotdagi roli, shuningdek, insonlararo munosabatlar va professional muvaffaqiyatlar uchun qanday muhim ahamiyatga ega ekani tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: hissiy intellekt, o‘zini anglash, emotsional ong, motivatsiya, empatiya, ijtimoiy ko‘nikma, stress.

Аннотация. В данной статье подробно рассматриваются сущность эмоционального интеллекта, его значение и пути развития. Эмоциональный интеллект основывается на способности человека понимать и управлять своими эмоциями, а также проявлять эмпатию к эмоциям других людей. В статье также рассматриваются такие понятия, как самосознание, эмоциональное сознание, мотивация, эмпатия, социальные навыки и управление стрессом. Описывается, как развитие эмоционального интеллекта влияет на повседневную жизнь, а также его важность для межличностных отношений и профессиональных успехов.

Ключевые слова: эмоциональный интеллект, самосознание, эмоциональное сознание, мотивация, эмпатия, социальные навыки, стресс.

Annotation. This article provides detailed information about the essence of emotional intelligence, its significance, and ways of development. Emotional intelligence is based on the ability to understand and manage one’s own emotions, as well as show

empathy for the emotions of others. The article also explores concepts such as self-awareness, emotional awareness, motivation, empathy, social skills, and stress management. It discusses how the development of emotional intelligence influences everyday life, as well as its importance for interpersonal relationships and professional success.

Keywords: emotional intelligence, self-awareness, emotional awareness, motivation, empathy, social skills, stress.

Kirish

Hozirgi kunda muvaffaqiyatga erishish uchun nafaqat bilim va texnik koʻnikmalar(hard skills), balki hissiy intellekt ham muhim omillardan biri hisoblanadi. Hissiy intellekt (Emotional Intelligence - EI) insonning oʻz his-tuygʻularini anglash(self-awareness), boshqarish(self-regulation) va boshqalarning hissiyotlarini tushunish(empathy) qobiliyatidir. Ushbu maqolada hissiy intellektning asl mohiyati, uning shaxslararo munosabatdagi va oʻzini tushunishdagi ahamiyati hamda rivojlantirish yoʻllari haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Asosiy qism

Hissiy intellektning mohiyati

Hissiy intellekt insonning oʻz his-tuygʻularini anglashi – nomlay olishi, ularni boshqarishi, boshqalarning hissiyotlariga moslashish, quvonch hamda konfliktli holatlarda oʻzini tuta olishi,motivatsiya va iroda kabi koʻplab qobiliyatlarni oʻz ichiga oladi. Amerikalik olim Daniel Goleman[23] hissiy intellektni quyidagi tarkibiy qismlarga ajratgan:

1. Oʻz hissiyotlarini anglash – bu insonning oʻz ichki holatini, his-tuygʻularini, fikrlarini va ehtiyojlarini tushunish va ularga mos ravishda munosabatda boʻlish qobiliyatidir. Bu oʻz-oʻzini anglashning muhim jihatlaridan biri boʻlib, shaxsning ruhiy salomatligi, oʻzini hurmat qilish va boshqalar bilan sogʻlom munosabatlar oʻrnatish uchun zarurdir.

2. Oʻzini boshqarish – bu insonning oʻz his-tuygʻularini, fikrlarini va xatti-harakatlarini ongli ravishda nazorat qilish, ijtimoiy va shaxsiy maqsadlarga erishish uchun oʻzini tartibga solish qobiliyatidir. Bu psixologik barqarorlik, stressni boshqarish va muvaffaqiyatli ijtimoiy munosabatlar oʻrnatish uchun muhimdir.

3. Motivatsiya – insonni maqsadga erishish uchun harakatga undovchi ichki va tashqi omillar majmuidir. Uning turlari: Ichki motivatsiya**:** Bu shaxsning oʻz ichki ehtiyojlari, qiziqishlari va qadriyatlaridan kelib chiqadi. Masalan, yangi bilim olish istagi yoki shaxsiy rivojlanish uchun intilish ichki motivatsiyaga misol boʻladi. Tashqi motivatsiya**:** Bu tashqi omillar, masalan, mukofotlar, e'tirof yoki jazodan qochish kabi faktorlar orqali yuzaga keladi. Misol uchun, yuqori maosh olish uchun ishlash yoki mukofotlar uchun raqobatlashish tashqi motivatsiyaga kiradi.

4. Empatiya – boshqalarning his-tuygʻularini tushunish va ularga hamdardlik bildirish qobiliyatidir. Ushbu qobiliyat odamlarning bir-birini yaxshiroq anglashiga, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga va jamoaviy muhitda samarali ishlashga yordam beradi. Empatiyaning turlari:Emotsional empatiya–boshqa odamlarning his-tuygʻularini his qilish va ularga javob berish qobiliyati. Masalan, kimdir yigʻlayotganini koʻrganingizda, siz ham xuddi shunday his-tuygʻularni his qilishingiz mumkin. Kognitiv empatiya– boshqa odamlarning fikrlarini va nuqtai nazarini tushunish qobiliyati.

[23] Daniel Goleman – "Emotional intelligence"

5. Ijtimoiy ko‘nikmalar – bu insonlarning boshqalar bilan samarali muloqot qilish, o‘zaro munosabatlarni o‘rnatish va jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlar to‘plamidir. Ular nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki professional muvaffaqiyat uchun ham muhim ahamiyatga ega..

Hissiy intellektning ahamiyati

Hissiy intellekti yuqori bo‘lgan insonlar hayotda va kasbiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonishlari osonroq va tezroq bo‘ladi. Bu qobiliyat quyidagi jihatlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi: Shaxsiy rivojlanish: Inson o‘z hissiyotlarini nazorat qilish orqali o‘zining shaxsiy va professional hayotida muvozanatni saqlay oladi. Ijtimoiy munosabatlar: Yaxshi rivojlangan hissiy intellekt insonning boshqalar bilan yaxshi munosabatlar o‘rnatishiga yordam beradi. Rahbarlik qobiliyatlari: Yuqori hissiy intellektga ega rahbarlar jamoani samarali boshqaradi va motivatsiya bera oladi. Stress va bosimni kamaytirish: Hissiy jihatdan barqaror insonlar qiyin vaziyatlarda ham o‘zini nazorat qila oladi.

Hissiy intellektning muhimligi

Samarali muloqot: Hissiy intellekti yuqori bo‘lgan insonlar, o‘z his-tuyg‘ularini boshqalar bilan tushunarli tarzda ifodalashda va boshqalar bilan samarali muloqot qilishda ustundirlar. Bu ularning shaxsiy va professional munosabatlarida muvaffaqiyatga olib keladi. Qaror qabul qilish: Hissiy intellektning yaxshi rivojlanishi, shaxsning qaror qabul qilish jarayonida his-tuyg‘ularga asoslanmasdan, mantiqiy va aniq fikrlash imkonini yaratadi. Shu bilan birga, o‘z his-tuyg‘ularini nazorat qilish qobiliyati, stressli holatlarda ham muhim qarorlar qabul qilishda yordam beradi. Stressni boshqarish: Hissiy intellekt stress va tashvishlarni boshqarish uchun zarur bo‘lgan vositalarni taqdim etadi. O‘z his-tuyg‘ularini anglab, ularni boshqarish orqali insonlar ko‘pincha stressni kamaytirish va salomatliklarini yaxshilashga erishadilar. Empatiya va hamkorlik: Hissiy intellektning rivojlanishi, boshqalar bilan samarali ishlash va jamoa ichida muvaffaqiyatli hamkorlikni ta'minlaydi. Bu ijtimoiy munosabatlarda va ish joylarida muhim rol o‘ynaydi.

Hissiy intellektni rivojlantirish yo‘llari

Hissiy intellektni EQ ham IQ ya‘ni aqliy qobiliyatlar kabi rivojlantirish mumkin va buning uchun quyidagi usullarni qo‘llash maqsadga muvofiq:

1. Hissiy ongni oshirish**.** O‘z his-tuyg‘ularingizni anglash va ularni tan olish hissoiy intellektning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Buning uchun his-tuyg‘ular jurnalini yuritish, stressli vaziyatlarda o‘z reaksiyalaringizni tahlil qilish tavsiya etiladi.

2. O‘zini boshqarish. Stressli holatlarda chuqur nafas olish mashqlarini bajaring. Salbiy hissiyotlarni nazorat qilish uchun meditatsiya va relaksatsiya texnikalarini o‘rganing va ularni amalda qo‘llang.

3. Motivatsiyani oshirish Hayotda aniq maqsadlar qo‘ying va ularga erishish yo‘lida harakat qiling.O‘z ustingizda ishlashni davom ettiring va ijobiy fikrlashni shakllantiring.

4. Empatiya qobiliyatini takomillashtirish - Suhbatdoshlaringizni diqqat bilan tinglashga va tana harakatlaringiz orqali buni bildirishga odatlaning. Boshqalarning hissiyotlarini tushunishga harakat qiling va ularga hamdardlik ko‘rsatib(Empatiya) munosabatda bo‘ling.

5. Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish - Samarali muloqot usullarini o‘rganing va ularni amaliyotda ya‘ni insonlar bilan diologda qo‘llang.- Odamlar bilan ochiq va samimiy muloqot qilishga harakat qiling.

6.O‘z-o‘zini rag‘batlantirish Uzoq muddatli maqsadlarga erishish uchun kichik, erishish mumkin bo‘lgan vazifalarga bo‘ling. Yutuqlaringizni qadrlang va o‘zingizni mukofotlang. Bu o‘z-o‘zini rag‘batlantirishni rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda hissiy intellekt inson hayotining barcha jabhalarida muhim rol o‘ynaydi. U shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyatga erishishda, ijtimoiy munosabatlarni yaxshilashda va stressni kamaytirishda katta ahamiyatga ega. Hissiy intellektni rivojlantirish muntazam o‘z ustida ishlashni talab qiladi. Shunday ekan, har bir inson o‘z hissiy intellektini rivojlantirish orqali hayot sifatini yaxshilashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Daniel Goleman “Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ”
2. Salovey.P , Mayer.J.D “Emotional Intelligence(EQ)”
3. Sharofitdinov.A ”Shaxs rivojlanishida hissiy inellektning o‘ziga xos o‘rni”
4.www.onlinedu.uz
5.www.hozir.org
6. https://mindfulharmonyoasis.com

IXTISOSLASHTIRILGAN YORDAMCHI MAKTAB DARSLARIDA KORREKSION TARBIYA ISHLARINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASINING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Turayeva Xusnora Ixtiyorovna,
Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti,
Astanakulov Kamoliddin Mahkamovich,
Ilmiy maslahatchi

Annotatsiya: Ushbu maqola ixtisoslashtirilgan yordamchi maktab darslarida korreksion tarbiya ishlarini tashkil etish texnologiyalarining pedagogik va psixologik ahamiyatini o‘rganishga qaratilgan. Darslarda o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga mos ravishda korreksion metodlarni qo‘llash, ularning psixologik va ijtimoiy moslashuvini yaxshilash, shuningdek, emotsional barqarorlikni rivojlantirish masalalari muhokama qilinadi. Maqolada ixtisoslashtirilgan maktablarda ta’lim jarayonini individual yondashuv, differensiyalashgan o‘qitish va psixologik qo‘llab-quvvatlash orqali samarali tashkil etishning ahamiyati keltirilgan.

Аннотация: В данной статье рассматривается педагогическое и психологическое значение технологий организации коррекционно-воспитательной работы в специализированных вспомогательных школах. Обсуждаются вопросы применения коррекционных методов, соответствующих индивидуальным потребностям учащихся, улучшения их психологической и социальной адаптации, а также развития эмоциональной устойчивости. В статье подчеркивается важность эффективной организации учебного процесса в специализированных школах через индивидуализированный подход, дифференцированное обучение и психологическую поддержку.

Abstract: This article focuses on exploring the pedagogical and psychological significance of the technologies used to organize correctional and educational work in specialized auxiliary schools. The article discusses the application of correctional methods tailored to students' individual needs, improving their psychological and social adaptation, as well as developing emotional stability. The article highlights the importance of effectively organizing the educational process in specialized schools through individualized approaches, differentiated teaching, and psychological support.

Kalit so‘zlar: ixtisoslashtirilgan yordamchi maktab**,** korreksion tarbiya, differensiyalashgan o‘qitish, ijtimoiy moslashuv.

Ключевые слова: специализированная вспомогательная школа, коррекционно-воспитательная работа, дифференцированное обучение, социальная адаптация.

Key words: specialized auxiliary school, correctional and educational work, differentiated instruction, social adaptation.

Ushbu maqola ixtisoslashtirilgan yordamchi maktab darslarida korreksion tarbiya ishlarini tashkil etish texnologiyalarining pedagogik va psixologik ahamiyatini o‘rganishga qaratilgan. Har qanday ilmiy bilimlar bir tekisda tuzilgan tizimni tashkil qiladi. Shuning uchun ta’limda ilmiylik tamoyili tizimlilik bilan mahkam bog‘langan. Yordamchi maktab ham bolalarni o‘qitish jarayonini ayrim fanlardan bilimlar tizimini ularga ma’lum qilish asosida tuzadi. Masalan, matematika yoki ona tili, tabiatshunoslikdan o‘quvchilarga berilayotgan bilimlar har bir fan ichida ma’lum darajada eng oddiv tushunchalar tizimiga mantiqiy bog‘langan. Ta’lim berishda tizimlilik bilimlarni o‘zlashtirishda muayyan izchillikni, ilgari o‘zlashtirilgan material bilan o‘zlashtirilayotgan material o‘rtasidagi bog‘lanishni talab qiladi. Pedagogikada ma’lumki, o‘qituvchi ishida tizimlilik va izchillik quyidagi qoidalar abstraktga, oddiydan murakkabga va ma’lumdan noma’lumga tomon borish bilan aniqlanadi. Ixtisoslashtirilgan yordamchi maktab darslarida korreksion tarbiya ishlarini tashkil etishda, pedagogik yondashuvda bir nechta muhim jihatlarga alohida e’tibor qaratish lozim. Ixtisoslashgan yordamchi maktab darslarida pedagoglar o‘quvchilarning individual xususiyatlariga alohida e’tibor qaratishlari lozim. Har bir o‘quvchining ehtiyojlari va imkoniyatlarini aniqlash zarur. Bu jarayon o‘quvchilarning intellektual, psixologik, jismoniy va ijtimoiy xususiyatlarini o‘rganishni talab etadi. Individual yondashuv yordamida o‘quvchilarga moslashtirilgan o‘quv rejasi va mashqlarni ishlab chiqish muhim.

Korreksion va rivojlantirishda korreksion tarbiya ishlarining maqsadi nafaqat o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini oshirish, balki ularning psixologik holatini yaxshilashga ham qaratilgan bo‘lishi kerak. O‘quvchilarning har bir o‘ziga xos muammosini hal qilish uchun maqsadli yondashuvlar zarur. Bunday yondashuvlarda pedagogik uslub va metodlar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. O‘quvchilarning psixologik xususiyatlariga mos pedagogik uslublarni tanlash muhim. Masalan, o‘quvchilarning diqqati, xotirasi va hissiy holatini yaxshilashga qaratilgan usullarni qo‘llash. Bunda o‘yinlar, vizual materiallar, audiovizual texnologiyalar va boshqa interaktiv uslublar samarali bo‘lishi mumkin. Darslarni individual yoki kichik guruhlar shaklida tashkil etish, shuningdek, o‘quvchilarni maxsus shakllarda qo‘llab-quvvatlashni ta’minlash zarur. O‘quvchilarni darsga qiziqtirish va ularda o‘quv materialiga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish muhimdir.

Ixtisoslashtirilgan yordamchi maktablar o‘quvchilari turli xildagi muammolar bilan duch keladilar, shu jumladan, intelektual va jismoniy rivojlanishdagi kechikishlar, psixologik va hissiy o‘zgarishlardir. Korreksion tarbiya ishlarining asosiy maqsadi – o‘quvchilarning salohiyatini maksimal darajada rivojlantirish va ular uchun individual ta’lim sharoitlarini yaratishdir. Differensiyalashgan o‘qitish o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, ta’lim jarayonida o‘quvchilarga individual yondashish imkonini beradi. Korreksion tarbiya doirasida differensiyalashgan o‘qitish quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

O‘quvchilarning ehtiyojlariga qarab darsni moslashtirish: O‘qituvchi har bir o‘quvchining rivojlanish darajasini va qobiliyatlarini hisobga olgan holda, darslar va o‘quv materiallarini o‘zgartiradi. Boshqacha qilib aytganda, o‘qituvchi o‘quvchilarning individual

xususiyatlariga qarab o‘quv dasturini moslashtiradi. Turli o‘qish usullari va metodlarni qo‘llash, differensiyalashgan (tabaqalashgan) o‘qitishda o‘quvchilar uchun turli xil o‘qish metodlari (vizual, audial, kinestetik) qo‘llaniladi. Bu o‘quvchilarning o‘qish uslublariga mos keladigan materiallar bilan ishlash imkonini beradi.

Ko‘rish orqali o‘rganish (vizual**) metodi:**

Bu metodda o‘quvchilar tasvirlar, diagrammalar, rasmlar, jadval va videolar orqali ma’lumotni o‘zlashtiradilar. Vizual o‘rganish uslubi ko‘rish orqali axborotni yuqori darajada qabul qilish imkonini beradi.

O‘quvchiga nima beradi: O‘quvchilar o‘qiyotgan yoki tinglayotgan narsalarni ko‘rish orqali yaxshiroq tushunishadi. Ma’lumotlarni yaxshiroq anglash, kreativlikni rivojlantirish, darsni qiziqarli qilish, muammolarni hal qilishni osonlashtirish imkonini beradi. Ranglar, shakllar, grafika va vizual materiallar o‘quvchilarga aniq va ravshan tushuncha beradi.

Misollar: Rasm, grafik, diagrammalarni ko‘rsatish. O‘quv materiallarini videolar va taqdimotlar orqali tushuntirish.

Audial metod (Tinglash orqali o‘rganish**)** Audial metodda o‘quvchilar ma’lumotni eshitish orqali o‘zlashtiradilar. Bu usulda o‘qish yoki tinglash orqali axborotni qabul qiladigan o‘quvchilar uchun qulay. O‘quvchilarni tinglash orqali o‘rgatish va tushuntirish musiqa, nutq, ovozli tushuntirishlar o‘quvchilarga yaxshi yordam beradi.

Misollar: Darslarni tinglash, audio kitoblar yoki podkastlar(internet orqali yuklab olish, eshitish va tarqatish imkoni mavjud bo‘lgan raqamli formatdagi dastur) orqali o‘rganish.

Harakat orqali o‘rganish metodi: Harakat orqali o‘rganish usulida o‘quvchilar o‘zlarining jismoniy harakatlari orqali ma’lumotni o‘zlashtiradilar. Bu metod o‘quvchilarga amaliy ishlar yoki harakat orqali o‘rganish imkonini beradi. O‘quvchilar amaliy ishlar orqali, qo‘llarini ishlatib yoki harakat qilib o‘rganadilar. Fizik faoliyat, tajribalar va jismoniy mashqlar orqali o‘rganish samaraliroq bo‘ladi.

Misollar: Eksperimentlar, amaliy mashg‘ulotlar, rolli o‘yinlar. Turli xil ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun jismoniy faoliyat, masalan, san’at, sport yoki qo‘l mehnatidan foydalanish samaraliroq bo‘lishi mumkin.

Vizual o‘rganish ko‘rish orqali o‘quvchilar yaxshiroq tushunadi (rasmlar, diagrammalar, videolar). Audial o‘rganish eshitish orqali yaxshiroq o‘rganadi (tushuntirishlar, audio materiallar). Harakat orqali o‘rganish esa harakat va amaliyot orqali yaxshiroq o‘rganish imkonini beradi(tajribalar, jismoniy mashqlar).

O‘quvchilarning o‘rganish uslublariga mos yondashuvlar ta’lim jarayonida samaradorlikni oshiradi. Pedagogik nuqtai nazardan, bunday metodlar o‘quvchilarning o‘rganish jarayonida ko‘proq muvaffaqiyatlarga erishishlariga imkon yaratadi, chunki ular o‘ziga mos tarzda dars o‘tiladi va turli xil o‘quv vositalari va texnikalari qo‘llaniladi. Psixologik jihatdan esa, korreksion tarbiya ishlarining asosiy maqsadi o‘quvchilarda ishonchni, o‘zini hurmat qilishni va psixologik barqarorlikni rivojlantirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 13.10.2020 yildagi PQ-4860-son. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.
2. Uzluksiz ta’lim pedagogikasi va inklyuziv ta’lim. R.R.Zamilova Darslik. Namangan-2023.
3. Maxsus pedagogika. K.M.Astanakulov. Uslubiy qo‘llanma. Navoiy-2024.
4. Sharon Vaughn va Michael F. Shinn – *Journal of Special Education*.

5. “Effective Strategies for Teaching Students with Disabilities in Inclusive Classrooms.” *Journal of Special Education*, 2016.
6. Thomas Hehir – *Disability & Society*. “Disability and Education Reform: Global Perspectives on Special Education.” *Disability & Society*, 2020.

MAKTAB AMALIYOTCHI PSIXOLOGLARI ISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Ergashova Oydin Elmuratovna,
Navbahor tumani 14-IDUM psixologi

Annotatsiya: Maktab psixologi - bu o‘quvchilarning psixologik salomatligi va rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi. Maktab psixologining ish samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning o‘qish jarayoniga ta'sir qiluvchi psixologik omillarni aniqlash va ularga yordam berishning samarali usullarini ishlab chiqishni talab qiladi. Ushbu maqsadga erishish uchun, psixologlarning o‘qituvchilar va ota-onalar bilan hamkorligini kuchaytirish, o‘quvchilarning psixologik holatini diqqat bilan kuzatish, ilg‘or metodlarni qo‘llash va psixologik yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish zarur. Shu bilan birga, psixologning malakasi, metodikasi va o‘qish jarayoniga oid yangiliklarni muntazam o‘rganish ham samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: maktab psixologi, ish samaradorligi, psixologik yordam, o‘quvchilar, psixologik salomatlik, o‘qituvchilar, ota-onalar bilan hamkorlik, psixologik kuzatuv, metodika, psixologik ko‘nikmalar

Аннотация: Школьный психолог играет важную роль в поддержке психического здоровья и развития учащихся. Повышение эффективности работы школьного психолога требует выявления психологических факторов, влияющих на процесс обучения, и разработки эффективных методов помощи учащимся. Для достижения этой цели необходимо усилить сотрудничество психолога с учителями и родителями, внимательно следить за психоэмоциональным состоянием школьников, применять современные методы и улучшать систему психологической помощи. Также повышение квалификации психолога, освоение новых методик и постоянное изучение нововведений в образовательном процессе способствует повышению эффективности работы психолога.

Ключевые слова:школьный психолог, эффективность работы, психологическая помощь, учащиеся, психическое здоровье, учителя, сотрудничество с родителями, психологический мониторинг, методика, психологические навыки

Bugungi kunda maktablarda amaliyotchi psixologlarning o‘rni tobora ortib bormoqda. Ular bolalarning ruhiy holatini nazorat qilish, ijtimoiy-psixologik muhitni o‘rganish, ziddiyatli holatlarni bartaraf etish va kerakli psixologik yordam ko‘rsatishda muhim rol o‘ynaydi.Buning uchun har bir maktab psixologi bosqichli rivojlanib borishi kerak.Biz bu jarayonni beshta asosiy bosqichlarga bo‘ldik.

1.Kasbiy bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish bu bosqichda psixolog yangi ilmiy maqolalar va tadqiqotlar bilan tanishib borishi,davlat va xalqaro psixologik seminarlarda ishtirok etishi,o‘zaro tajriba almashish maqsadida psixologlar uchrashuvlar tashkil etishi kerak bo‘ladi.

2. Psixologik diagnostika va monitoring bosqichi bu bosqichda psixolog o‘quvchilarning ruhiy holatini o‘rganish testlarini olib, natijalarini tizimli ravishda

hujjatlashtirishi,har bir o‘quvchi bo‘yicha individual profil yaratishi,amaliy mashg‘ulot: o‘quvchilar uchun “O‘zini anglash” mavzusida mini-trening o‘tkazishi lozim.

Albatta! Quyida maktab amaliyotchi psixologlari foydalanishi mumkin bo‘lgan “O‘zini anglash” metodikasining to‘liq tavsifi keltirilgan. Ushbu metodika o‘quvchilarning o‘zini anglash darajasini rivojlantirish, ichki hissiyotlarini tushunish va o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirishga xizmat qiladi.

“O‘zini anglash” metodikasi

Maqsadi:O‘quvchilarga o‘z shaxsiy jihatlarini tushunish va baholashda yordam berish,O‘zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash,shaxsiy o‘sishni rag‘batlantirish va ichki muvozanatni toppish.

Qamrab oluvchi yosh:9–16 yosh (moslashtirilgan holda kichik sinflarga ham qo‘llash mumkin).

Asosiy bosqichlari:

1. “Men kimman?” mashqi

Vazifa: O‘quvchilarga bo‘sh varaq beriladi va markazga “MEN” deb yoziladi.

Topshiriq: Shundan atrofga shaxsiy jihatlarini ifodalovchi so‘zlar yoziladi: “do‘stona”, “kamtar”, “faol”, “tashvishli”, va h.k.

Psixolog uchun tahlil: O‘quvchining o‘zini qanday ko‘rishi, qanday so‘zlarni ko‘p ishlatgani va salbiy/ijobiy nisbatini aniqlash.

2. “Hayot yo‘li” kollaji

Vazifa: Turli jurnallardan suratlar, so‘zlar yoki belgilar orqali o‘z orzulari, maqsadlari, muammolari va qadriyatlarini ifodalovchi kollaj tayyorlaydi.

Psixolog uchun tahlil: Kollaj orqali bola nimani qadrlaydi, nimadan qo‘rqadi yoki orzu qiladi - aniqlanadi.

3. Psixokorrektsion va psixoprofilaktik ishlar ishlar bu bosqichda psixolog stressni kamaytirish bo‘yicha mashqlar (nafas mashqlari, vizualizatsiya),"Ijobiy fikrlash" treningi,maktabda muammoli o‘quvchilar bilan psixokorrektsion suhbatlar olib borishi kerak bo‘ladi. Biz bu bosqichda “Sanduqcha texnikasi” metodikasini tavsiya qilamiz. “Sanduqcha” texnikasi - bola muammosini ramziy shaklda ifodalaydi, psixolog esa yechimga yetaklaydi.

Bo‘yicha ishlayotgan psixologlar uchun foydali bo‘lishi mumkin. “Sanduqcha texnikasi” - bu psixologiyada samaradorlikni oshirish va stressni kamaytirish uchun ishlatiladigan metodikadir. Bu texnika asosan, his-tuyg‘ularni yoki muammolarni to‘plash, tartibga solish va ularni bir vaqtning o‘zida faqatgina belgilangan vaqt ichida ko‘rib chiqish tamoyiliga asoslanadi. Psixologik xizmatlar, maslahatlar yoki terapiya jarayonida bu metod ishlatiladi.Sanduqcha texnikasining asosiy maqsadi – mijozni o‘zining his-tuyg‘ulari yoki stressli vaziyatlari haqida muntazam ravishda o‘ylashdan chalg‘itib, buni "sanduq" ichida "saqlash"dir. Bu texnika odamga og‘ir vaziyatlardan chiqa olish va ularni boshqarishga yordam beradi.

Texnikaning asosiy qadamlaridan biri:

1. Fikrlash va hissiyotlarni ajratish: Mijoz o‘z muammolarini va hissiyotlarini aniq tasavvur qilishga yordam beradi, bu esa o‘z-o‘zini tahlil qilish va holatni yanada yaxshilashga imkon yaratadi.

2. Sanduqchaga joylashtirish: Mijoz fikrlarini va his-tuyg‘ularini bir “sanduq” ichida tasavvur qiladi, lekin bu faqat belgilangan vaqt va joyda amalga oshiriladi. Boshqa vaqt va joylarda esa mijoz bu fikrlarni unuta oladi yoki cheklaydi.

3. Ko‘proq diqqatni boshqa narsalarga qaratish: Mijozga hozirgi vaqtda stressli fikrlar va muammolarni "sanduq" ichiga joylashtirib, kunlik hayotida boshqa vazifalarga

va faoliyatlarga e'tibor qaratish tavsiya etiladi. Bu esa muammoni vaqtincha ajratishga yordam beradi.

4. Boshqaruvni qayta tiklash: Sanduqcha texnikasi yordamida odamlar o‘z hissiyotlarini va stressli vaziyatlarni boshqarishga o‘rganadilar va hayotlarida yaxshiroq balansni saqlashadi.

4. O‘qituvchilar va ota-onalar bilan ishlash bosqichi buda psixolog ota-onalar uchun “Psixologik savodxonlik” bo‘yicha seminarlar, o‘qituvchilar uchun stressni boshqarish mashg‘ulotlari,davra suhbatlari, treninglar: “Farzandingizga qanday quloq tutish kerak?” mavzularda Infografika, psixologik bukletlar tayyorlashi kerak bo‘ladi.

5. Samaradorlikni baholash va o‘z-o‘zini rivojlantirish bosqichi bu bosqichda psixolog har oyning oxirida o‘z faoliyatini tahlil qilishi,“Refleksiya kundaligi” yuritishi,professional charchoq belgilarini aniqlash testlari va profilaktik mashg‘ulotlar o‘tkazib borishi kerak."Refleksiya kundaligi"bu vosita o‘z-o‘zini anglash, emotsional ongni rivojlantirish va shaxsiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlaydi.

REFLEKSIYA KUNDALIGI

(O‘zimni anglayman, his qilaman, o‘rganaman)

Maqsadi:O‘quvchilarga o‘z fikr va his-tuyg‘ularini ifoda qilish imkonini berish

Har kunlik ruhiy holatni kuzatish,O‘zini rivojlantirishga yo‘naltirish

Har bir sahifada quyidagi bo‘limlar bo‘ladi:

1. Sana: ___

2. Bugungi kayfiyatim qanday?

(Quyidagilardan birini belgilang yoki o‘zingiz yozing)

- ✓ Quvnoq
- ✓ Xotirjam
- ✓ Xafa
- ✓ Asabiy
- ✓ Hayajonli
- ✓ Qiziqayotgan

Sababi: _____

3. Bugun men nimalarni o‘rgandim?

(Maktabda, hayotda, o‘zim haqida)

4. Menga yoqqan narsa_____

5. Qiyinchilik tug‘dirgan narsa_____

6. Kelajakdagi niyatim yoki kichik maqsadim_____

7. Bugungi ijobiy so‘z_____

(Misol: sabr, ishonch, mehr, jasorat...)

8. O‘ziga baho berish (5 ballik tizimda):

Bugun men o‘zimdan qancha mamnunman?

★ ★ ★ ★ ★ (belgilansin)

Har 7 kundan keyin “Haftalik xulosa” sahifasi

Qanday yuritiladi?

Haftasiga kamida 3–4 marta to‘ldiriladi

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak,amaliyotchi psixologlarning faoliyati samarali bo‘lishi uchun ular muntazam rivojlanishi, zamonaviy metodlardan foydalana olishi, hamkorlikda ishlashi va ruhiy salomatlikni saqlashi zarur.

Foydalanilgam adabiyotlar

1. Qosimova, G. (2018). Maktab psixologiyasi: nazariya va amaliyot. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi, 45-50 betlar.

2. Saidov, M. (2017). Psixologik maslahat va yordam: metodik qo‘llanma. Toshkent: Navro‘z, 23-30 betlar.
3. Gulomova, X. (2022). Maktabda psixologik maslahat xizmatlari: usullar va yondashuvlar. Toshkent: Ta'lim nashriyoti, 5-8 betlar.

TA’LIM JARAYONIDA O‘QUVCHILARNI O‘QITISH VA TARBIYALASHDA PSIXOLOGIK OMILLARNING AHAMIYATI

Xudoyberdiyeva Jumagul Amanovna,
Andijon viloyati PMM o‘qituvchisi

Аннотация: В современном образовательном процессе процесс обучения учащихся зависит не только от педагогических подходов, но и от психологических факторов. Каждый ученик обладает уникальными личными качествами, интересами и индивидуальными способами восприятия учебного материала. Поэтому при организации эффективного учебного процесса важно учитывать психологические факторы.

В данной статье анализируется роль и значение психологических факторов в процессе обучения и воспитания учащихся. Рассматривается эффективность психологических подходов в педагогической деятельности, а также влияние индивидуальных особенностей учащихся, их мотивации и эмоционального состояния на качество образования. Подчеркивается важность сотрудничества педагогов и психологов в современной системе образования.

Annotation: In the modern educational process, students' learning is influenced not only by pedagogical approaches but also by psychological factors. Each student has unique personal characteristics, interests, and individual learning styles. Therefore, considering psychological factors is of great importance in organizing an effective educational process.

This article analyzes the role and significance of psychological factors in the process of teaching and educating students. It examines the effectiveness of psychological approaches in pedagogical activities, as well as how students' personal characteristics, motivation, and emotional state impact the quality of education. The importance of collaboration between teachers and psychologists in the modern education system is emphasized.

Ключевые слова: Психологические факторы, обучение, воспитание, мотивация, качество образования, эмоциональная среда, педагогическая психология, личность ученика.

Keywords: Psychological factors, teaching, upbringing, motivation, quality of education, emotional environment, pedagogical psychology, student personality.

Zamonaviy ta'lim har bir bolaning shaxsini har tomonlama rivojlantirishga yordam berishi va uning ijodiy o‘zini o‘zi anglashi uchun sharoit yaratishi kerak. O‘quv materialini o‘rganishning muvaffaqiyati, uni o‘zlashtirish tezligi, bilimning mazmunliligi, bolaning rivojlanish darajasi nafaqat o‘qituvchining faoliyatiga, balki o‘quvchilarning kognitiv imkoniyatlari va qobiliyatlariga ham bog‘liq bo‘lib, ko‘plab omillar, jumladan, idrok, xotira, aqliy faoliyat va nihoyat, jismoniy rivojlanish xususiyatlari bilan belgilanadi. Bundan kelib chiqadiki, har bir o‘qituvchi oldida doimiy ravishda bunday qarama-qarshiliklarning salbiy oqibatlarini bartaraf etish va ijobiy tomonlarini kuchaytirish, ya'ni har bir bolaning haqiqiy va potentsial imkoniyatlaridan sinfda ta'lim olishda foydalanish mumkin bo‘lgan sharoitlarni yaratish vazifasi turibdi. Ushbu amaliy

muammoni hal qilish talabalarga tabaqalashtirilgan va individual yondashuvni izchil amalga oshirish bilan bog‘liq.

Zamonaviy maktabning asosiy vazifasi - har bir o‘quvchining qobiliyatini ochib berish, yuqori texnologiyali, raqobatbardosh dunyoda hayotga tayyor shaxsni tarbiyalashdir. Binobarin, ta'limning asosiy maqsadi shaxsning aqliy, axloqiy, hissiy va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish, o‘quvchilarning mustahkam bilim, fan asoslarini egallashi va ularni mustaqil ravishda to‘ldirish qobiliyatiga erishish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratish deb bejiz emas. Ko‘p yillar davomida o‘qituvchilar va psixologlar maktab sharoitida o‘quvchilarning individual xususiyatlarini, shuningdek, jamiyatning talab va ehtiyojlarini hisobga olgan holda maksimal darajada rivojlanishiga yordam beradigan ta'lim tizimini yaratish yo‘llarini izlashdi.

O‘quvchilarning individual xususiyatlari va ta’lim jarayoniga ta’siri. Har bir o‘quvchining psixologik xususiyatlari, masalan, idrok qilish, xotira, fikrlash va diqqat qaratish darajasi, ularning ta’lim olishiga bevosita ta’sir qiladi. O‘qituvchilar har bir o‘quvchining qobiliyatlarini aniqlab, ularga mos metodlarni qo‘llash orqali o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishlari lozim.

Motivatsiya va emotsional muhitning ta’siri. O‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirishda motivatsiya asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ichki motivatsiya (bilim olishga bo‘lgan ehtiyoj) va tashqi motivatsiya (mukofot yoki baho) o‘quv natijalariga ta’sir qiladi. Bundan tashqari, sinfdagi emotsional muhit, o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi psixologik aloqalar ham ta’lim jarayonining sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Psixologik yondashuvlar va zamonaviy pedagogika. Bugungi kunda pedagogik psixologiyada turli nazariyalar mavjud bo‘lib, ular ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Masalan, konstruktivistik yondashuv o‘quvchilarning mustaqil bilim olishiga urg‘u beradi, kognitiv psixologiya esa o‘quv jarayonida axborotni idrok etish va qayta ishlash mexanizmlarini o‘rganadi.

O‘qituvchi va psixolog hamkorligining ahamiyati. Ta’lim jarayonida psixologlarning ishtiroki muhim sanaladi. O‘quvchilarning psixologik holatini muntazam kuzatib borish, ularga kerakli maslahatlar berish, stress va tashvish darajasini pasaytirish bo‘yicha maxsus mashg‘ulotlar o‘tkazish ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Har bir o‘quvchi o‘ziga xos psixologik xususiyatlarga ega bo‘lib, o‘qituvchilar bu jihatlarni inobatga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etishlari kerak. O‘quvchilarning intellektual darajasi, qiziqishlari, temperamentlari, motivatsiyalari va emotsional holatlari ularning o‘qish jarayoniga bevosita ta’sir qiladi. Shu sababli, samarali ta’lim tizimi o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda mos metodlarni qo‘llashni talab etadi.Ta'lim jarayonida o‘quvchilarni nafaqat bilim bilan ta’minlash, balki ularni ma’naviy va axloqiy jihatdan tarbiyalash ham muhim hisoblanadi. Bunda psixologik omillarning roli katta bo‘lib, ular o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, motivatsiyasi, ijtimoiy moslashuvi va emotsional barqarorligiga ta’sir ko‘rsatadi. Har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish samarali natijalarga olib keladi.

O‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlari va tarbiya jarayoniga ta’siri. Har bir o‘quvchi turli xarakter va temperamentga ega. Shuning uchun tarbiya jarayonida ularning individual xususiyatlarini hisobga olish zarur. Masalan:

- **Sangvinik** o‘quvchilar – faol, ijtimoiy munosabatlarga ochiq, lekin diqqatini tez chalg‘itishi mumkin.

- **Xolerik** o‘quvchilar – energiyaga boy, lekin hissiyotlarini boshqarishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.
- **Flegmatik** o‘quvchilar – sabrli, harakat qilishdan ko‘ra kuzatishni afzal biladi.
- **Melanxolik** o‘quvchilar – sezgir, ichki dunyosi boy, lekin o‘ziga bo‘lgan ishonchi past bo‘lishi mumkin.

O‘qituvchi va tarbiyachilar bu xususiyatlarni hisobga olib, har bir o‘quvchiga mos tarbiya usullarini qo‘llashi lozim.

Motivatsiyaning o‘quvchilarga tarbiyaviy ta’siri. Motivatsiya o‘quvchilarning nafaqat o‘qishdagi muvaffaqiyatlari, balki ularning ijtimoiy xulq-atvori va tarbiyasida ham muhim rol o‘ynaydi.

- **Ichki motivatsiya** – bilim olishga bo‘lgan qiziqish, shaxsiy o‘sishga intilish.
- **Tashqi motivatsiya** – mukofot, baho yoki jamiyat e’tirofiga erishish istagi.

Tarbiyaviy jarayonda ichki motivatsiyani rivojlantirish muhim, chunki bu o‘quvchilarning mustaqil fikrlashiga, mas’uliyatli va axloqiy qadriyatlarni anglashiga yordam beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki o‘quvchilarni tarbiyalash jarayonida psixologik omillar katta ahamiyatga ega. Ularning shaxsiy xususiyatlari, motivatsiyasi, emotsional holati va ijtimoiy moslashuv darajasini hisobga olib tarbiya jarayonini tashkil etish zarur. Shuningdek, pedagog va psixologlarning hamkorligi, ijobiy emotsional muhit yaratish va individual yondashuv qo‘llash samarali natijalar beradi. Har bir o‘quvchining individual xususiyatlari, temperament turi, motivatsiyasi va emotsional holati ularning ta’lim olish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, pedagoglar ta’lim va tarbiya jarayonida psixologik yondashuvlardan samarali foydalanishi zarur. Xulosa qilib aytganda, ta’lim jarayonida psixologik omillarni chuqur o‘rganish va amaliyotda qo‘llash o‘quvchilarning nafaqat bilim olish samaradorligini oshiradi, balki ularning ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Shu sababli, zamonaviy ta’lim tizimida psixologik tamoyillarga asoslangan pedagogik strategiyalarni tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Выготский Л.С. Психология развития ребенка. – Москва: Педагогика, 1984.
2. Piaget J. *The Psychology of Intelligence*. – Routledge, 2001.
3. Maslow A. *Motivation and Personality*. – Harper & Row, 1954.
4. Bruner J. *The Process of Education*. – Harvard University Press, 1960.
5. Ўзбекистон Республикаси "Таълим тўғрисида"ги қонуни. – Тошкент, 2020.
6. Shaxmatov Sh. *Psixologiya asoslari*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
7. Xudoyberganov A. *Pedagogik psixologiya*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

TA’LIM JARAYONIDA TALABALARDA AXLOQIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING USULLARI

Ro‘ziyeva Nafosat Abdumumin qizi,
Navoiy innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada talaba yoshlarda axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning ilmiy-nazariy, metodik yondashuvlarning pedagogik imkoniyatlari tahlil etilgan. Ta’lim jarayonida talaba yoshlarda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishning turli xil usullari va ularning mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, oliy ta’lim tashkilotlari talabalarida axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik omillariga

alohida e'tibor qaratilgan. Axloqiy qadriyatlarni talabalarga tushuntirishning pedagogik psixologik xususiyatlari tahlil etilgan.

Абстрактный. В статье анализируются педагогические возможности научно-теоретических и методических подходов к формированию нравственных ценностей у учащейся молодежи. Раскрываются различные методы и их сущность формирования духовно-нравственных ценностей у учащейся молодежи в процессе обучения. Особое внимание уделяется также педагогическим и психологическим факторам формирования нравственных ценностей у студентов высших учебных заведений. Анализируются педагогические и психологические особенности объяснения моральных ценностей учащимся.

Annotation. The article analyzes the pedagogical possibilities of scientific-theoretical, methodological approaches to the development of moral values in student youth. In the process of Education, various methods of forming spiritual and moral values in student youth and their essence are revealed. Special attention is also paid to the pedagogical and psychological factors of the development of moral values in students of higher education organizations. Pedagogical psychological features of explaining moral values to students are analyzed.

Kalit so'zlar. Axloqiy qadriyatlar, pedagogik-psixologik omil, didaktik ta'minot, shaxs madaniyati, xulq-atvor, axloq, adolat, mas'uliyat, halollik.

Ключевые слова. Нравственные ценности, педагогико-психологический фактор, дидактическое обеспечение, личностная культура, поведение, этика, справедливость, ответственность, честность.

Key words. Moral values, pedagogical-psychological factor, didactic provision, personality culture, behavior, morality, justice, responsibility, honesty.

Kirish. Axloqiy qadriyatlar - bu shaxsning xulq-atvorini boshqarish, unga ijobiy motivatsiya berish, shaxsning to'laqonli kamol topishi va boshqalarga nisbatan axloqiy fazilatlarni shakllanganlik darajasi hamda maqsadli hayot qurish poydevorini shakllantiradi. Kelajakda qanday shaxs bo'lib shakllanishida nafaqat bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish balki, talabalarning har tomonlama rivojlanishi va barkamol shaxs bo'lishi uchun mustahkam axloqiy qadriyatlarni shakllantirish ham muhim o'rin tutadi. Shaxsning ongi va xulq-atvorini shakllantirishda, ularning jamiyatning mas'uliyatli va axloqiy a'zosi bo'lib yetishishida axloqiy qadriyatlarning o'rni ahamiyatlidir. Axloqiy qadriyatlar talabalarni shaxsiy xulq-atvorida boshqaradi va ijobiy ta'lim muhitini yaratishga, hurmat, hamdardlik va ijtimoiy mas'uliyat madaniyatini tarbiyalashga hissa qo'shadi.

Axloqiy qadriyatlar jamiyat tomonidan to'g'ri yoki noto'g'ri deb hisoblangan xatti-harakatlar tamoyillari va standartlarini anglatadi. Bu qadriyatlar odamlarga qaror qabul qilishda va boshqalar bilan uyg'un yashashda rahbarlik qiluvchi axloqiy mezonni tashkil qiladi. Talabalarda axloqiy qadriyatlar - mas'uliyat, hamdardlik va hurmat tuyg'ularini shakllantirish uchun muhimdir. Halollik, mehribonlik, to'g'rilik va qat'iyat kabi axloqiy qadriyatlar talabalarni hayotiy qiyinchiliklarni toza vijdon va kuchli maqsad tuyg'usi bilan yengib o'tishga tayyorlaydigan asosiy fazilatlar bo'lib xizmat qiladi. Talabalarda axloqiy qadriyatlarni singdirish ishonch, o'zaro hurmat va hamkorlikka asoslangan jamiyatni shakllantirishga zamin yaratadi.

Adabiyotlar tahlili va metadologiyasi. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida milliy axloqiy qadriyatlarni takomillashtirishning pedagogik-psixologik jihatlarini tahlil qilish hozirgi kun pedagogika, psixologiya fanlari taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Qadriyatlarning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati haqida professorlar O.Musurmonova,

S.Nishonova, M.Inomova, M.Davletshin, A.Atoyev F.Nasriddinov, T.Usmonxujayev, X.Rafiyev, U.Ibrohimov, R.Abdumalikov, F.Axmedov, X.Meliyev, Sh.D.Mardonov, O.Jamoliddinovalarning tadqiqotlarini alohida ta’kidlash lozim.

“Qadriyat deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va ular tomonidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne’matlari, hodisalari majmuini tushunmog‘imiz lozim” [2].

Talabalarda axloqiy qadriyatlarni singdirish orqali to‘g‘ri va noto‘g‘rini farqlashni o‘rganadilar, shaxsiy va kasbiy sharoitlarda axloqiy xulq-atvorni rivojlantiradilar. Ushbu qadriyatlar o‘z-o‘zini tarbiyalash, empatiya va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantiradi, bu talabalarga mazmunli munosabatlar o‘rnatish va jamiyatga ijobiy hissa qo‘shish imkonini beradi.

Muhokama. Ta’lim jarayonida talabalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish usullari — bu ma’naviy tarbiyani samarali amalga oshirish uchun qo‘llaniladigan pedagogik va psixologik yondashuvlar majmuidir. Ta’lim jarayonida talabalarning axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda bir qancha usullardan foydalanish mumkin:

1. Shaxsiy namuna orqali tarbiyalash. O‘qituvchi, murabbiy va ota-onaning o‘zi axloqiy qadriyatlarga amal qilsa, ijobiy xulq-atvori bilan namuna ko‘rsatsa, talabalar ularga ergashadi. Bu usul orqali axloqiy fazilatlar tabiiy ravishda singdiriladi.

2. Suhbat va munozaralar tashkil etish. Axloqiy mavzularda ochiq suhbatlar (masalan: “Halollik nima?”, “Adolatli bo‘lish osonmi?”) talabalarni fikrlashga undaydi. Talaba o‘z pozitsiyasini shakllantiradi va boshqalar nuqtayi nazarini ham tushunishni o‘rganadi. Ochiq muloqot orqali talaba erkin fikr bildiradi, muloqotning samaradorligi oshadi.

3. Hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish (case-study). Real yoki shartli axloqiy muammolarni yechish orqali talabalarda axloqiy fikrlash va tanlov qilish ko‘nikmasi rivojlanadi.

4. Badiiy adabiyot va san’at vositalari orqali ta’sir etish. Kitoblar, film va spektakllardagi axloqiy xulq-atvor tahlili talabalarni chuqur fikrlashga undaydi. Estetik tarbiya orqali axloqiy hislar kuchayadi.

5. Tarixiy shaxslar va qahramonlar timsolida tarbiyalash. Buyuk alloma va tarixiy shaxslarning hayoti misolida axloqiy fazilatlar (fidoyilik, vatanparvarlik, adolat) talabalarga singdiriladi.

6. Guruhiy faoliyat va loyihalar. Ijtimoiy loyihalar, ko‘ngilli ishlar orqali talabalar mehr-oqibat, mas’uliyat, hamjihatlik kabi qadriyatlarga ega bo‘lishadi. Boshqa insonlarga yordam berish yoki xayriya ishlariga hissa qo‘shish kabi jamoat ishlarida ishtirok etish orqali talabalarda ijtimoiy mas’uliyat hissini rivojlantirishimiz mumkin.

7. Rag‘batlantirish va baholash. Axloqiy harakatlar rag‘batlantirilsa (maqtov, faxriy yorliq, e‘tirof), bu boshqalarga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Xatti-harakatlarini ijobiy baholash orqali talabalarda mas’uliyat hissini ham rivojlanishiga erishamiz [1].

Talabalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish — bu muntazam, izchil va ongli tarzda olib boriladigan jarayon bo‘lib, o‘qituvchining yondashuvi, o‘quv muhitining madaniyati va talabaning faolligi asosida shakllanadi. Bu jarayonda albatta pedagogning o‘rni muhim hisoblanadi. O‘qituvchi talabalardagi axloqiy tarbiyasini xulq-atvoridagi o‘zgarishlarni doimiy kuzatib nazorat qilib borishi lozim. Buning uchun o‘qiyuvchida quyidagi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan qobiliyatlar mavjud bo‘lishi kerak.

• pedagogik sezgirlik, kasbiy bashorat - oldindan “ko‘ra bilish”, pedagogik taxmin qilish;

• faol ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil eta olish;

• ”Men” konsepsiyasini qadriyat sifatida tan olish va unga nisbatan ongli munosabatda bo‘lish;

• shaxsiy va kasbiy o‘z-o‘zini takomillashtirish talabi [3]. Shunday qilib, ta’lim jarayonida axloqiy qadriyatni shakllantirishda foydalaniladigan turli xil usullardan yuqori samaradorlikka erishish uchun o‘qituvchining shaxsiy namuna bo‘lishi muhimdir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, axloqiy qadriyatlar talabalar hayotida katta ahamiyatga ega, ularning xarakterini shakllantiradi va harakatlarini boshqaradi. Ushbu qadriyatlar yaxlit rivojlanish uchun asos bo‘lib, nafaqat akademik muvaffaqiyatga, balki shaxsiy yaxlitlik va ijtimoiy mas'uliyatga ham ta'sir qiladi. O‘qituvchilar va ota-onalar hurmat, rahm-shafqat va mas’uliyat kabi fazilatlarni tarbiyalash orqali o‘quvchilarni hayotning murakkabliklariga chidamlilik va hamdardlik bilan qarshi olishga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi. Talabalar ushbu qadriyatlarni kelajakdagi faoliyatiga olib borishi bilan ular ishonch, tushunish va axloqiy yetakchilikka asoslangan jamiyatni qurishga hissa qo‘shadilar. Demak, axloqiy tarbiyaning o‘quv jarayoniga integratsiyalashuvi nafaqat foydali, balki bilim va xarakterni o‘zida mujassam etgan har tomonlama barkamol shaxslarni tarbiyalash uchun ham zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fresyam Antika Ajeng Agus Salim Metro Lampung Institute of Islamic Religion Email: fresyamantikaajeng@gmail.com. Moral Education as a Foundation for the Formation of Students' Character

2. Qadriyatlar va ijtimoiy taraqqiyot (ilmiy ishlar to‘plami). –T; “O‘zbekiston”, 1997. B.198;

3. Z.B.Jalilov. Sharq mutafakkirlari merosini o‘rganishning didaktik metodlari. Zamonaviy ta’lim jurnali. 2017 yil, 5-son.

4. Mardonov SH. Yangi ta’limiy qadriyatlar asosida pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish. — T.: Fan, 2006 y.

TA’LIMDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING AHAMIYATI

Axatova Durdona Aktamovna,
NavDU dotsenti, p.f.n.

Ta’lim samaradorligini oshirish, shaxsning ta’lim markazida bo‘lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta’minlash uchun ta’lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan va o‘z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol metodlarni biladigan, ulardan o‘quv-tarbiyaviy mashg‘ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o‘qituvchilar kerak. Buning uchun barcha fan o‘qituvchilari pedagogik texnologiyalar, interfaol usullarni bilishi va olgan bilimlarini o‘quv-tarbiyaviy mashg‘ulotlarda qo‘llashga o‘rganishlari lozim.

Bugungi kunda mamlakatimizning uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta’lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Davlatimiz intellektual salohiyati yuqori kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo‘naltirilgan davlat siyosatini yuritib kelmoqda. Bunda albatta ta’lim sohasidagi innovatsiyalarga katta e’tibor qaratilmoqda. Buni 2020 yil 23 sentaybrda tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ham

ko‘rishimiz mumkin. Qonunda “Ta’lim sohasidagi eksperimental va innovatsion faoliyat ta’limni modernizatsiya qilish maqsadida amalga oshiriladi hamda yangi ta’lim texnologiyalari va resurslarini ishlab chiqishga, ularni sinovdan o‘tkazishga hamda ta’lim jarayoniga joriy etishga qaratilgan” [1; 20-б.] ligi ta’kidlanadi.

Pedagogik texnologiyalardan foydalanishga e’tibor kuchayganining asosiy sabablari sifatida: pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta’limni amalga oshirish imkoniyatining kengligi, pedagogik texnologiyalar o‘quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini berishi, pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo‘llashga asoslanganligini ko‘rsatishimiz mumkin.

Pedagogik texnologiyalar ichida shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati juda muhimdir. Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarning o‘ziga xosligi shundaki, ular shaxs rivojlanishini qandaydir buyurtma asosida shakllantirishga emas, aksincha uning(shaxsning) tabiiy qobiliyatlari asosida shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalar — bu o‘quv jarayonini o‘quvchining individual xususiyatlari, ehtiyojlari, qiziqishlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda tashkil etishga qaratilgan ta’lim texnologiyalaridir. Bu yondashuvda o‘quvchi markaziy o‘rinda bo‘lib, uning shaxsiy rivojlanishi, mustaqil fikrlashi va o‘zini ifoda etishi uchun sharoitlar yaratiladi

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim – o‘quvchining fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to‘laqonli rivojlanishlarini ko‘zda tutadi. Bu esa ta’limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma’lum bir ta’lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog‘liq o‘qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondashilishni nazarda tutadi [3; 12-б.].

Bu turdagi ta’lim bolalarda mustaqillik, tashabbuskorlik, javobgarlik kabi sifatlar, shuningdek, mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu turdagi ta’limni tashkil etishda pedagoglardan har bir o‘quvchi imkon qadar individual yondashishni, uning shaxsini hurmat qilishni, unga ishonch bildirish taqozo etiladi. Shuning uchun ham shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyani o‘rganish va uning usullaridan foydalanish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim o‘qitish jarayonining ishtirokchilari o‘qituvchi-o‘quvchi yoki o‘quvchi-o‘quvchi, o‘quvchi-o‘quvchilar guruhi, o‘quvchi-o‘quvchilar jamoasi tarzida o‘zaro hamkorlikda bilim olish, shaxs sifatida kamol toptirish uchun qulay pedagogik sharoitni yaratish zaruriyatini ifodalaydi.

Hozirda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning quyidagi turlari mavjud :



Shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalarning turlari:

Individual ta’lim texnologiyasi. Har bir o‘quvchining tayyorgarlik darajasi va o‘ziga xos xususiyatlariga moslashtirilgan o‘quv jarayoni. Bu texnologiyada shaxsiy o‘quv rejasi tuziladi.

Differensial ta’lim texnologiyasi. O‘quvchilar turli guruhlarga (masalan, bilim darajasi yoki o‘rganish uslubiga qarab) bo‘linadi va har bir guruhga mos o‘quv materiali beriladi.

Muammoli ta’lim texnologiyasi. O‘quvchilarga real hayotga oid muammolarni hal qilish taklif etiladi. Bu ularning mustaqil fikrlash, ijodkorlik va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Dialogik ta’lim (suhbat asosidagi). O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida teng huquqli muloqot tashkil etiladi. Bu o‘quvchining fikrini erkin ifoda etishiga yordam beradi.

Portfolio texnologiyasi. O‘quvchining yutuqlari va ijodiy ishlarini muntazam ravishda yig‘ib borish orqali uning rivojlanishi baholanadi.

Trening va interaktiv metodlar (rolli o‘yinlar, "aqliy hujum", “klaster” va b.). O‘quvchilarning faol ishtirokini rag‘batlantiradi, shaxsiy faollikni oshiradi.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv vaziyatlari o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish usul va metodlari bilan uzviy bog‘liq. O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim amalga oshiriladigan ayrim noan’anaviy dars shakllariga misol keltiramiz[3; 12-б.].:

Musobaqa darsi- o‘quvchilarning o‘zaro musobaqalashuvini tashkil etish orqali bilimlarni mustahkamlash mashqlari.

Ijod darsi- o‘quvchilarning mustaqil ijod etishlarini tashkil qilish darsi.

Shubha bildirish darsi- dars mavzusi bo‘yicha qoidalar, xulosalarni agar notog‘ri deb hisoblansa, nimalar bo‘lishi mumkinligi haqida qiziqarli bahs va tahlillar o‘tkazish orqali yangi mavzuni tushuntirish darsi.

Ijodiy hisobotlar darsi- o‘quvchilarning ayrim mavzular bo‘yicha mustaqil o‘rgangan bilimlari va xulosalari taqdimoti.

Ilmiy-fantastika darsi- o‘quvchilarning o‘rgangan bilimlari asosida ijodiy xayol, taxminlar o‘ylab topishlari mashqini o‘tkazish orqali mustaqil fikrlashlarini kengaytirish darsi.

Haqiqatni izlash darsi- dars mavzusiga doir ayrim masalalar yuzasidan o‘quvchilarning mustaqil fikrlar bildirishni tashkil etish orqali haqiqatni aniqlash va mavzuni o‘zlashtirishni ta’minlash darsi.

Ekskursiya darsi- bu darslarda o‘quvchilarni turli obyektlar: muzey, ziyoratgoh, korxona, ustaxona, tabiat obyektlari, ilmiy muassasa, kollej, litsey va boshqalarga olib borish va tanishtirish orqali ularning bilimlarini hayot bilan bog‘lash va kasbga yo‘naltirish ishlarini amalga oshirib borish ta’minlanadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim o‘quvchini ta’lim tizimiga moslashtirishni emas, aksincha, uning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda har tomonlama rivojlanishi, shaxs sifatida kamolotga yetishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Bu turagi ta’lim o‘quvchilarni o‘z-o‘zini rivojlantirishga, mustaqil bilim olishga, o‘zining ichki imkoniyatlari, qobiliyatlarini to‘la namoyon eta olishi, bilish faolligini oshirish uchun zarur sharoitni vujudga keltirishi zarur.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limda o‘qituvchi ta’lim oluvchi shaxsini hurmat qilishi, muloqot qilishning buyruqbozlik usulidan voz kechib, uni rag‘batlantirishi, bajargan ishlarining foydali ekanini ta’kidlashi zarur. Maqsad o‘quvchi-talabada avvaldan belgilangan xususiyatlarni shakllantirish emas, balki uning o‘z-o‘zini anglashi, o‘zligini namoyon etishi uchun imkon berishdir.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyasida shaxs ta’lim jarayonining markaziy figurasi hisoblanadi. Bunda o‘quvchi-talabaning intellektual-psixologik rivojlanish darajasi, qobiliyati va sifatlari inobatga olinadi; o‘quv faoliyatida ta’lim oluvchi bilimlarni mustaqil egallab, amalda qo‘llashga o‘rgatiladi.

O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim-o‘quvchi shaxsiy imkoniyatlariga moslashtirilgan pedagogik muhitni hamda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Bu ta’lim texnologiyasida har bir o‘quvchini tushunish, hurmat qilish, unga ishonish katta ahamiyatga ega. O‘quvchi-o‘qituvchi hamda o‘quvchi-o‘quvchi hamkorligi ko‘zda tutilgan ijobiy natijalarni beradi.

Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarning ahamiyati:

- O‘quvchining **shaxsiy qobiliyatlari rivojlanadi**;
- Mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, muammo yechishga **motivatsiya kuchayadi**;
- O‘quvchi o‘zining **o‘qishiga mas’uliyat bilan yondasha boshlaydi**;
- O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida **samarali hamkorlik** rivojlanadi;
- O‘quv jarayoni **ijodiy va qiziqarli** bo‘ladi;
- Har bir o‘quvchiga **individual yondashuv** ta’minlanadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchi samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalar, ularning mazmuni va mohiyati, turlari va amalga oshirish yo‘llari haqida keng bilimga ega bo‘lishi lozim. Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiya usullarini qo‘llaganda bolalarning erkinligi, ijodkorligi, faolligiga keng sharoit yaratish kerak. Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar va interfaol usullardan foydalanish tushunib olingan va maqsadga qaratilgan faoliyat tarzida kechishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги Қонуни.– Т.: 2020 йил 23-сентябрь
2. И.Муслимов, М.Усмонбоева ва бошқ. Инновацион таълим технологиялари.-Т,. 2015 й
3. Axatova D.A.Shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyani amalga oshirish bo‘yicha ta’lim turlari. “Zamonaviy fan va talim-tarbiya: muammo, yechim, natija” ilmiy-amaliy onlayn konferensiya materiallari 2020. № 1. Noyabr, 11-13 b.

ZAMONAVIY TA’LIMDA HISSIY INTELEKTNING TUTGAN O‘RNI

Do‘marova Nilufar Qambaraliyevna,
Namangan viloyati PMM katta o‘qituvchisi

Annotatsiya Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim tizimida hissiy intellektning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Hissiy intellekt nafaqat o‘qituvchilarning, balki o‘quvchilarning ham muvaffaqiyatli ta’lim olishi uchun zarur bo‘lgan omillardan biri sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada EI ning o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi samarali muloqot, stressni boshqarish va motivatsiyaga ta’siri yoritiladi. Shuningdek, EI ni rivojlantirish strategiyalari, jumladan, refleksiya, empatiya, ijobiy muhit yaratish va nizolarni boshqarish kabi yondashuvlar tahlil qilinadi. Maqola EI ning ta’lim sifati va shaxsiy rivojlanishga ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar; Hissiy intellekt, ta’lim jarayoni,o‘qituvchilarning hissiy salohiyati, o‘quvchilarning rivojlanishi, empatiya, stress boshqarish, ijobiy muhit, psixologik barqarorlik, ta’lim texnologiyalari, motivatsiya, refleksiya, konfliktlarni boshqarish.

Аннотация: В статье анализируется роль и значение эмоционального интеллекта в современной системе образования. Эмоциональный интеллект считается одним из факторов, необходимых для успешного обучения не только учителей, но и учеников. В статье рассматривается влияние ЭИ на эффективное общение между преподавателями и студентами, управление стрессом и мотивацию. Также будут проанализированы стратегии развития ЭИ, включая такие подходы, как рефлексия, эмпатия, создание позитивной среды и управление конфликтами. В статье показано положительное влияние ЕС на качество образования и развитие личности.

Ключевые слова: Эмоциональный интеллект, образовательный процесс, эмоциональный потенциал педагогов, развитие учащихся, эмпатия, управление стрессом, позитивная среда, психологическая устойчивость, образовательные технологии, мотивация, рефлексия, управление конфликтами.

Annotation: This article analyzes the role and importance of emotional intelligence in the modern education system. Emotional intelligence is considered as one of the factors necessary for successful education not only of teachers, but also of students. The article highlights the impact of EI on effective communication between teachers and students, stress management, and motivation. It also analyzes strategies for developing EI, including approaches such as reflection, empathy, creating a positive environment, and conflict management. The article shows the positive impact of EI on the quality of education and personal development.

Keywords: Emotional intelligence, educational process, teachers' emotional potential, student development, empathy, stress management, positive environment, psychological stability, educational technologies, motivation, reflection, conflict management.

Kirish Bugungi kunda ta’lim jarayonida faqatgina intellektual salohiyat emas, balki hissiy intellekt (EI) ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi samarali muloqot, psixologik barqarorlik va ijtimoiy muhitni shakllantirishda EI muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada zamonaviy ta’limda hissiy intellektning ahamiyati, uni rivojlantirish strategiyalari hamda o‘qituvchilarning ushbu jihatdan o‘z ustida ishlashi muhokama qilinadi.

Hissiy intellekt tushunchasi va uning ta’limdagi o‘rni Hissiy intellekt – bu insonning o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish, boshqalar bilan hamdardlik qilish va samarali muloqotga kirishish qobiliyatidir. Bu ko‘nikmalar ta’lim jarayonida quyidagi jihatlarda muhim ahamiyatga ega:

1. **O‘quvchilar bilan samarali muloqot** – o‘qituvchining yuqori EI darajasi sinf muhitini ijobiy shakllantirishga yordam beradi.

2. **Stress va muammolarni boshqarish** – EI rivojlangan o‘qituvchilar stressga chidamli bo‘lib, muammolarni hal qilishda yanada samarali yondashuvga ega bo‘ladilar.

3. **Motivatsiya va o‘zini o‘zi rivojlantirish** – hissiy intellekt ta’lim jarayonida o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va ularning o‘z-o‘zini rivojlantirishiga yordam beradi.

O‘qituvchilarning hissiy intellektini rivojlantirish strategiyalari

1. **O‘z-o‘zini anglash va refleksiya** – o‘qituvchilar o‘z his-tuyg‘ularini anglash va boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishlari lozim.

2. **Empatiya va hamdardlik** – o‘quvchilarning his-tuyg‘ularini tushunish va ularga mos yondashish samarali ta’lim jarayonini ta’minlaydi.

3. **Ijobiy muhit yaratish** – ta'lim jarayonida ochiq muloqot va ijobiy psixologik muhit shakllantirish EI rivojlanishiga xizmat qiladi.

4. **Konfliktlarni boshqarish** – o'qituvchilar EI orqali nizolarni samarali hal qilish va sinfdagi uyg'unlikni ta'minlash imkoniga ega bo'ladilar.

O'quvchilarda hissiy intellektni rivojlantirish

1. **O'z his-tuyg'ularini ifodalashga o'rgatish** – bolalar o'z hislarini tushunish va to'g'ri ifodalashga o'rganishlari lozim.

2. **Jamoaviy ish va ijtimoiy ko'nikmalar** – guruhli topshiriqlar orqali hamkorlik va hissiy barqarorlik shakllantiriladi.

3. **O'z-o'zini boshqarish** – hissiy intellekt orqali o'quvchilarning o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish qobiliyati rivojlantiriladi.

Zamonaviy ta'limda EI ning ahamiyati Hissiy intellekt yuqori bo'lgan o'qituvchi va o'quvchilar quyidagi natijalarga erishadilar:

- Sinf muhitida ijobiy energiya yaratiladi.
- O'quvchilarning akademik natijalari yaxshilanadi.
- Ta'lim jarayoni yanada interaktiv va qiziqarli bo'ladi.
- Stress va ziddiyatlar samarali boshqariladi.

Xulosa Zamonaviy ta'lim tizimida hissiy intellekt nafaqat o'qituvchilar, balki o'quvchilar uchun ham muhim ahamiyatga ega. EI rivojlantirilishi orqali ta'lim jarayonining samaradorligi oshadi, o'quvchilar o'z his-tuyg'ularini nazorat qilish va to'g'ri yo'naltirishni o'rganadilar. O'qituvchilarning EI bo'yicha o'z ustida ishlashi ta'lim sifati va o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, EI zamonaviy pedagogikaning muhim komponentlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Goleman, D. (1995). *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ*. Bantam Books.
2. Mayer, J. D., & Salovey, P. (1997). *What is Emotional Intelligence?* Emotional Development and Emotional Intelligence. Basic Books.
3. Bar-On, R. (2006). *The Bar-On Model of Emotional-Social Intelligence (ESI)*. Psicothema, 18, 13-25.

ИМИТАЦИОННОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ПОДГОТОВКИ СПЕЦИАЛИСТОВ НЕФТЕГАЗОВОЙ ОТРАСЛИ

Абдуллаева Асила Олимовна,
Базовый докторант, Каршинский государственный университет

Аннотация: В статье рассматривается роль имитационного моделирования в подготовке специалистов нефтегазовой отрасли. Подчеркивается значимость цифровых технологий для развития аналитического мышления, инженерной интуиции и способности принимать обоснованные решения в условиях неопределённости. На основе анализа научной литературы, педагогического эксперимента и оценки образовательных результатов выявлены преимущества и ограничения использования симуляционных моделей. Предложены рекомендации по интеграции цифровых решений в учебный процесс с целью повышения эффективности профессиональной подготовки. Сделан вывод о необходимости

комплексного подхода, сочетающего цифровые модели с практическими заданиями и кейс-методом.

Ключевые слова: имитационное моделирование, нефтегазовое образование, цифровые технологии, инженерная интуиция, аналитическое мышление, виртуальные лаборатории, педагогический эксперимент, AR/VR, образовательная методология, цифровая симуляция

Annotatsiya: Maqolada neft va gaz sohasi mutaxassislarini tayyorlashda imitatsion modellashtirishning o‘rni ko‘rib chiqiladi. Raqamli texnologiyalarning tahliliy fikrlash, muhandislik intuitsiyasi va noaniqlik sharoitida asoslangan qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishdagi ahamiyati ta’kidlanadi. Ilmiy adabiyotlar, pedagogik eksperiment va ta’limiy natijalarni baholash asosida simulyatsion modellardan foydalanishning afzalliklari va cheklovlari aniqlangan. Kasbiy tayyorgarlik samaradorligini oshirish maqsadida raqamli yechimlarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish bo‘yicha tavsiyalar ilgari surilgan. Raqamli modellarni amaliy topshiriqlar va keys-metod bilan birlashtirgan kompleks yondashuv zarurligi haqida xulosa qilingan.

Kalit so‘zlar: imitatsion modellashtirish, neft va gaz ta’limi, raqamli texnologiyalar, muhandislik intuitsiyasi, tahliliy fikrlash, virtual laboratoriyalar, pedagogik eksperiment, AR/VR, ta’lim metodologiyasi, raqamli simulyatsiya

Annotation: The article examines the role of simulation modeling in the training of specialists in the oil and gas industry. The importance of digital technologies for the development of analytical thinking, engineering intuition, and the ability to make informed decisions under uncertainty is emphasized. Based on the analysis of scientific literature, pedagogical experiment, and evaluation of educational outcomes, the advantages and limitations of using simulation models are identified. Recommendations are proposed for integrating digital solutions into the educational process in order to increase the effectiveness of professional training. A conclusion is drawn about the necessity of a comprehensive approach combining digital models with practical tasks and the case method.

Keywords: simulation modeling, oil and gas education, digital technologies, engineering intuition, analytical thinking, virtual laboratories, pedagogical experiment, AR/VR, educational methodology, digital simulation

Современная нефтегазовая отрасль характеризуется высокой технологической сложностью, неопределенностью производственных процессов и необходимостью принятия оперативных управленческих решений. В этих условиях особую значимость приобретает подготовка специалистов, обладающих не только фундаментальными инженерными знаниями, но и развитым аналитическим мышлением, способностью к прогнозированию и принятию обоснованных решений в условиях неопределенности.

Одним из эффективных инструментов формирования таких компетенций является имитационное моделирование, позволяющее воспроизводить технологические процессы в цифровой среде, анализировать различные сценарии их развития и оценивать последствия управленческих решений. Включение имитационных моделей в образовательный процесс способствует повышению уровня усвоения учебного материала, развитию исследовательских навыков у студентов, формированию критического мышления и способности адаптироваться к сложным производственным ситуациях.

Как отмечают исследователи (Е.В. Андреева, Д.А. Смирнов, О.В. Кузнецов и др.), цифровые модели предоставляют студентам возможность экспериментального

изучения нефтегазовых процессов, прогнозирования технологических изменений и отработки сценариев управления производственными объектами. Вместе с тем существует ряд ограничений: модели могут упрощать реальные процессы, снижать способность студентов к нестандартному мышлению и формировать излишнюю зависимость от цифровых решений.

В связи с этим особую актуальность приобретает вопрос интеграции имитационного моделирования с инновационными образовательными методиками, включающими разработку динамических учебных курсов, виртуальных лабораторий, цифровых тренажеров, применение технологий дополненной и виртуальной реальности (AR/VR), а также внедрение методов кейс-стади и наставничества. Такая комплексная стратегия позволит не только повысить качество подготовки специалистов нефтегазовой отрасли, но и обеспечить их готовность к эффективной работе в условиях технологических вызовов XXI века.

Таким образом, цель данного исследования заключается в анализе роли имитационного моделирования в подготовке студентов нефтегазовых специальностей, выявлении его преимуществ и ограничений, а также разработке рекомендаций по повышению эффективности цифрового обучения.

Для достижения поставленных целей в исследовании был использован комплексный методологический подход, включающий анализ научной литературы, сравнительный анализ образовательных стратегий, разработку и тестирование образовательной модели, проведение педагогического эксперимента, а также методы оценки эффективности внедрения имитационного моделирования в учебный процесс. Такой подход позволил не только теоретически обосновать значимость цифровых технологий в обучении специалистов нефтегазовой отрасли, но и провести практическую апробацию предложенной модели.

Первый этап исследования заключался в анализе научной литературы, посвящённой использованию имитационного моделирования в образовательных программах технических специальностей. Были изучены работы ведущих исследователей, рассматривающих влияние цифровых моделей на формирование аналитического мышления, исследовательских навыков и способности студентов принимать обоснованные решения в сложных производственных условиях. Особое внимание уделялось выявлению ключевых преимуществ и ограничений применения имитационных технологий. В ходе анализа были рассмотрены мнения экспертов о роли цифровых моделей в прогнозировании технологических процессов, изучении аварийных ситуаций и развитии инженерной интуиции у студентов.

Следующий этап включал сравнительный анализ различных образовательных стратегий, применяемых при подготовке специалистов нефтегазовой отрасли. В исследовании были сопоставлены традиционные методы обучения, включающие лекционные занятия и лабораторные работы, с современными цифровыми технологиями, такими как виртуальные лаборатории, игровые симуляции, технологии дополненной и виртуальной реальности (AR/VR). Сравнение проводилось на основе таких критериев, как уровень усвоения учебного материала, развитие прогнозных навыков и критического мышления, способность студентов адаптироваться к реальным производственным ситуациям.

Для практической апробации предложенной концепции был разработан экспериментальный курс по имитационному моделированию технологических процессов в нефтегазовой отрасли. Учебный курс включал использование

виртуальных лабораторий, позволяющих студентам тестировать различные сценарии функционирования нефтегазовых объектов, а также игровых симуляций, направленных на развитие стратегического мышления и командного взаимодействия. Дополнительно в программу обучения были включены практические кейсы, основанные на реальных инцидентах, анализ которых способствовал формированию навыков принятия решений и управления технологическими рисками. Важным элементом курса стали механизмы автоматизированной обратной связи, позволяющие преподавателям отслеживать прогресс студентов и адаптировать программу обучения в соответствии с их индивидуальными потребностями.

Для оценки эффективности внедрения имитационного моделирования был организован педагогический эксперимент, включающий две группы студентов технических специальностей. В первой группе обучение проводилось с использованием традиционных методов, во второй – с применением цифровых моделей и симуляционных технологий. Эксперимент состоял из двух этапов: на первом этапе студенты проходили обучение в соответствии со стандартной образовательной программой, на втором – выполняли практические задания с использованием имитационных моделей, разрабатывали прогнозные сценарии и анализировали последствия технологических решений.

Для количественной и качественной оценки результатов эксперимента использовались различные методы анализа. Оценка уровня усвоения учебного материала проводилась на основе тестирования студентов до и после прохождения курса. Анкетирование и интервью позволили выявить субъективное восприятие цифровых технологий в обучении и определить их влияние на мотивацию студентов. Дополнительно проводился анализ ошибок в моделировании, что позволило оценить степень сформированности исследовательских и аналитических компетенций. Сравнительный анализ образовательных достижений студентов, прошедших обучение по традиционной программе и по экспериментальной модели, позволил сделать выводы о влиянии имитационного моделирования на развитие профессиональных компетенций обучающихся.

Таким образом, предложенный методологический подход, включающий анализ научных источников, тестирование имитационных моделей, педагогический эксперимент и оценку образовательных результатов, позволил комплексно изучить влияние цифровых технологий на подготовку специалистов нефтегазовой отрасли. Полученные данные стали основой для разработки рекомендаций по интеграции имитационного моделирования в образовательный процесс, направленных на повышение его эффективности и практической значимости.

Результаты проведённого исследования подтвердили, что имитационное моделирование играет значительную роль в подготовке специалистов нефтегазовой отрасли, способствуя развитию их аналитического мышления, исследовательских навыков и способности к принятию решений в сложных производственных условиях. Анализ данных, полученных в ходе педагогического эксперимента, показал, что студенты, обучавшиеся с применением цифровых моделей, демонстрируют более высокий уровень понимания технологических процессов и обладают лучшими прогнозными навыками по сравнению с теми, кто проходил традиционное обучение.

По результатам тестирования студентов экспериментальной и контрольной групп выявлено, что использование имитационных моделей способствует

улучшению усвоения теоретического материала. Средний балл студентов, работавших с цифровыми симуляциями, был на 23% выше, чем у студентов, проходивших обучение без цифровых технологий. Это подтверждает гипотезу о том, что визуализация и интерактивность имитационных моделей улучшают понимание сложных инженерных концепций и способствуют более эффективному запоминанию информации.

Анкетирование и интервью со студентами выявили, что 82% участников отметили повышение интереса к изучаемым дисциплинам после внедрения имитационного моделирования. Студенты также указали на возросшую уверенность в своих знаниях и способность анализировать последствия технологических решений. Однако 17% респондентов выразили обеспокоенность возможной зависимостью от цифровых моделей, отмечая, что излишняя автоматизация учебного процесса может снизить их способность адаптироваться к нестандартным и непредсказуемым ситуациям.

Анализ прогнозных навыков студентов показал, что работа с имитационными моделями значительно улучшает способность обучающихся к оценке сценариев и разработке стратегий управления технологическими процессами. В частности, студенты экспериментальной группы на 35% чаще правильно прогнозировали последствия решений, принятых в моделируемых ситуациях, чем их коллеги из контрольной группы. В то же время выявлено, что точность прогнозирования зависит от качества исходных данных, используемых в моделях, а также от уровня их верификации.

Исследование влияния цифровых моделей на развитие инженерной интуиции показало, что более 75% студентов отметили, что работа с имитационными моделями помогла им научиться быстро реагировать на нештатные ситуации и находить альтернативные решения проблем. В то же время около 20% студентов указали на сложность интерпретации результатов моделирования без предварительного знакомства с фундаментальными инженерными принципами, что подтверждает необходимость сочетания цифровых технологий с традиционными методами обучения.

Отдельное внимание было уделено анализу эффективности различных форм имитационного моделирования. Выявлено, что наибольшую пользу студентам приносят виртуальные лаборатории и игровые симуляции, так как они позволяют интегрировать теоретические знания с практическими навыками. Использование технологий дополненной и виртуальной реальности (AR/VR) способствовало улучшению пространственного мышления и понимания сложных процессов, однако их эффективность во многом зависела от качества технического оснащения и программного обеспечения.

Таким образом, полученные результаты подтверждают, что имитационное моделирование является мощным инструментом для подготовки специалистов нефтегазовой отрасли, однако его эффективность во многом зависит от методологии внедрения. На основании анализа выявленных преимуществ и ограничений разработаны рекомендации по интеграции имитационных технологий в образовательный процесс, включая необходимость дополнения цифровых моделей реальными производственными кейсами, использование методов верификации данных и проведение практических занятий по методологии научных исследований с применением цифровых симуляторов.

Результаты исследования подтвердили, что имитационное моделирование является мощным инструментом, способствующим развитию аналитического мышления, исследовательских навыков и способности студентов принимать обоснованные решения в сложных производственных условиях. Как показали данные педагогического эксперимента, использование цифровых моделей в образовательном процессе положительно влияет на уровень усвоения учебного материала, формирование навыков прогнозирования технологических процессов и развитие инженерной интуиции. Однако наряду с очевидными преимуществами выявлены и определённые ограничения, которые требуют дальнейшего осмысления и корректировки методологии внедрения имитационных технологий.

Одним из ключевых преимуществ имитационного моделирования является возможность предоставления студентам среды для экспериментального исследования технологических процессов. Как отмечает Е.В. Андреева, цифровые модели позволяют обучающимся тестировать различные сценарии функционирования нефтегазовых объектов, анализировать последствия технологических решений и вырабатывать альтернативные стратегии управления процессами [1]. Это подтверждается результатами анкетирования, согласно которым более 80% студентов отметили повышение интереса к предмету и улучшение понимания сложных инженерных процессов после работы с цифровыми симуляциями. Тем не менее, необходимо учитывать, что успешное использование имитационных моделей требует развития критического мышления, так как слепое доверие цифровым результатам без их всестороннего анализа может привести к ошибочным выводам.

Как подчеркивает В.И. Петров, цифровые модели могут значительно повысить качество подготовки будущих специалистов, однако их эффективность напрямую зависит от уровня вовлеченности студентов и качества педагогического сопровождения [6]. При отсутствии должного контроля со стороны преподавателя возможна ситуация, когда студенты просто следуют алгоритмам, не анализируя их последствия, что снижает образовательную ценность имитационных моделей.

Другим важным аспектом является развитие у студентов прогнозных навыков. Как утверждает Д.А. Смирнов, работа с имитационными моделями нефтегазовых систем позволяет студентам не только моделировать текущие сценарии, но и проводить прогнозный анализ, оценивая последствия принятых решений [2]. В ходе исследования установлено, что студенты экспериментальной группы демонстрировали более высокий уровень точности в прогнозировании технологических процессов, что подтверждает значимость цифровых моделей для формирования стратегического мышления. Однако остаётся открытым вопрос надёжности получаемых прогнозов, поскольку качество моделирования во многом зависит от исходных данных, используемых в симуляциях.

А.Н. Васильев отмечает, что цифровые модели, хотя и способствуют развитию прогнозных способностей, всё же требуют детальной проверки корректности исходных данных. Он подчёркивает, что моделирование на основе неполных или устаревших данных может привести к формированию у студентов ложных представлений о технологических процессах [7].

Кроме того, имитационные модели играют важную роль в развитии инженерной интуиции. По мнению О.В. Кузнецова, работа с цифровыми моделями позволяет студентам сталкиваться с нештатными ситуациями и находить решения на основе анализа данных [3]. Это особенно важно в условиях высокой

технологической сложности нефтегазовой отрасли, где специалисты должны быть готовы к быстрому реагированию на нестандартные вызовы. Однако, как показали результаты исследования, излишняя зависимость от цифровых моделей может негативно сказаться на способности студентов адаптироваться к реальным производственным условиям.

Как подчёркивает С.П. Рожков, формирование инженерной интуиции возможно только при сочетании цифровых моделей с практическими кейсами и реальными производственными задачами [8]. Он указывает, что студенты, не имеющие опыта работы с реальными объектами, могут переоценивать точность цифровых прогнозов и не учитывать факторы, не заложенные в модель.

Таким образом, очевидно, что имитационное моделирование требует интеграции с другими образовательными методами. Как отмечает Т.Н. Беляева, цифровые модели являются эффективным инструментом анализа рисков и принятия решений, однако они не могут полностью заменить обучение на основе реальных инцидентов и кейс-стади [4]. Данный тезис подтверждается результатами педагогического эксперимента, который показал, что студенты, работающие с моделями в сочетании с анализом реальных аварийных ситуаций, демонстрировали более высокий уровень критического мышления и способности к самостоятельному анализу сложных технологических процессов.

Как отмечает Л.А. Гаврилова, использование имитационных технологий особенно полезно в обучении принятию решений в условиях неопределённости [9]. Она подчеркивает, что цифровые модели позволяют оценивать различные варианты развития событий, однако необходимо разрабатывать дополнительные методы анализа рисков, чтобы студенты могли критически оценивать возможные сценарии.

Дополнительным направлением совершенствования образовательного процесса является развитие методологической подготовки студентов. Как подчёркивает А.В. Громов, имитационные модели позволяют студентам тестировать гипотезы, проводить эксперименты и разрабатывать новые подходы к решению инженерных задач [5]. Однако работа с моделями требует от студентов не только базовых знаний по нефтегазовым технологиям, но и понимания основ моделирования, методов обработки данных и статистического анализа.

Как утверждает Ю.Н. Петров, для повышения эффективности имитационного моделирования необходимо внедрение специализированных курсов, посвящённых анализу данных и методологии цифрового моделирования [10]. Он подчёркивает, что студенты, имеющие навыки работы с большими данными и статистическими методами, значительно лучше интерпретируют результаты моделирования и могут корректировать прогнозы в зависимости от изменяющихся параметров.

Таким образом, проведённое исследование позволяет сделать вывод о том, что имитационное моделирование является эффективным инструментом подготовки специалистов нефтегазовой отрасли, однако его внедрение должно учитывать ряд ключевых факторов. Для минимизации недостатков цифрового обучения необходимо:

Дополнять работу с имитационными моделями реальными кейсами и практическими занятиями, что позволит студентам развивать критическое мышление и способность адаптироваться к реальным производственным условиям.

Включать в образовательные программы методы верификации данных и моделирования неопределённости, чтобы обучающиеся могли объективно оценивать точность прогнозов и анализировать возможные риски.

Совмещать имитационное моделирование с традиционными методами обучения, такими как групповые проекты, экспертные обсуждения и анализ реальных производственных ситуаций.

Развивать у студентов методологические навыки работы с моделями, включая изучение основ цифрового моделирования, обработки данных и статистического анализа.

Реализация этих предложений позволит значительно повысить эффективность использования имитационных технологий в образовательном процессе, обеспечивая подготовку специалистов, обладающих не только фундаментальными знаниями, но и высокими аналитическими и исследовательскими компетенциями. Интеграция цифровых симуляций с инновационными образовательными методиками создаст условия для формирования инженеров нового поколения, способных решать сложные технологические задачи в условиях динамично развивающейся нефтегазовой индустрии.

Результаты проведённого исследования подтвердили, что имитационное моделирование является одним из ключевых инструментов совершенствования подготовки специалистов нефтегазовой отрасли. Включение цифровых моделей в образовательный процесс способствует формированию у студентов аналитического мышления, исследовательских навыков и способности к принятию обоснованных решений в условиях технологической неопределённости. Кроме того, цифровые симуляции позволяют обучающимся экспериментально изучать сценарии функционирования нефтегазовых объектов, тестировать гипотезы и разрабатывать альтернативные стратегии управления технологическими процессами.

Несмотря на очевидные преимущества имитационного моделирования, исследование выявило ряд ограничений, которые необходимо учитывать при его интеграции в образовательные программы. Во-первых, имитационные модели могут упрощать реальные процессы, что в отдельных случаях приводит к снижению способности студентов к критическому осмыслению результатов и адаптации к нестандартным производственным вызовам. Во-вторых, прогнозные возможности цифровых симуляций ограничены качеством исходных данных, что требует внедрения методов верификации и оценки достоверности получаемых результатов. В-третьих, излишняя зависимость от имитационных технологий может ослабить способность студентов принимать самостоятельные решения в реальных производственных ситуациях, где не всегда доступны цифровые модели.

Для повышения эффективности использования имитационного моделирования в образовательном процессе предложен ряд рекомендаций. В частности, необходимо дополнять работу с цифровыми моделями анализом реальных производственных кейсов, групповыми проектами, активными дискуссиями и практическими занятиями. Кроме того, важно включать в учебные курсы методы верификации данных и моделирования неопределённости, что позволит студентам формировать навыки критического анализа получаемых цифровых прогнозов. Значимым направлением развития является также внедрение технологий дополненной и виртуальной реальности (AR/VR), использование виртуальных лабораторий и создание цифровых тренажёров, моделирующих реальные производственные процессы.

Таким образом, интеграция имитационного моделирования с инновационными образовательными методиками позволит сформировать у студентов не только навыки работы с цифровыми моделями, но и способность к глубокой аналитике, критическому осмыслению данных и принятию взвешенных инженерных решений. В условиях стремительного развития нефтегазовой отрасли и роста требований к квалификации специалистов необходимо учитывать не только технологические возможности имитационного моделирования, но и его ограничения, разрабатывая комплексные образовательные стратегии. Реализация предложенных мер позволит обеспечить подготовку инженеров нового поколения, способных эффективно решать сложные технологические задачи, анализировать риски и адаптироваться к быстро меняющимся условиям производственной деятельности.

Список литературы (References)

1. Андреева Е.В. Имитационные модели в образовательном процессе: возможности и перспективы // Научно-технический вестник. – 2021. – №3. – С. 45-52.
2. Смирнов Д.А. Цифровые симуляции в подготовке специалистов нефтегазовой отрасли: анализ эффективности // Вестник технического образования. – 2020. – №2. – С. 89-97.
3. Кузнецов О.В. Имитационное моделирование в обучении инженеров: развитие инженерной интуиции // Инженерное образование и цифровые технологии. – 2022. – №4. – С. 112-120.
4. Беляева Т.Н. Анализ рисков и принятие решений в условиях неопределенности с использованием цифровых моделей // Журнал профессионального образования. – 2021. – №5. – С. 67-75.
5. Громов А.В. Имитационные технологии в научных исследованиях: перспективы и вызовы // Современные технологии в образовании. – 2023. – №1. – С. 34-41
6. Петров В.И. Роль преподавателя в обучении с использованием цифровых технологий // Педагогические технологии. – 2021. – №2. – С. 12-18.
7. Васильев А.Н. Верификация данных в цифровых моделях: проблемы и пути их решения // Вестник цифровых технологий. – 2022. – №1. – С. 30-37.

ЎҚИТУВЧИ МАҲОРАТИНИНГ ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ

Абдурасулов Рустам Абдураимович,
Ш.Рашидов номидаги Самарқанд давлат университети профессори,
психология фанлари доктори,
Эшмонов Отабек Бахриддин ўғли,
Ш.Рашидов номидаги Самарқанд давлат университети доценти,
психология ф.ф.доктори

Аннотация. Мазкур мақолада дарс самарадорлигини оширишда муҳим бўлган ўқитувчининг педагогик маҳоратининг психологик жиҳатлари тўғрисида фикр юритилган. Унда ўқитувчининг педагогик фаолияти жараёнида муҳим бўлган компонентлар ва уларнинг моҳияти ёритиб берилган.

Калит сўз. Ўқитувчи, маҳорат, компонент, бошқарув услублари, принцип.

Аннотация. В статье рассматриваются психологические аспекты педагогического мастерства учителя, имеющие важное значение в повышении эффективности урока. Описываются важные компоненты и их значение в процессе педагогической деятельности учителя.

Ключевая слова. Учитель, мастерство, компонент, стили управления, принцип.

Abstract. The article examines the psychological aspects of the teacher's pedagogical skills, which are important in increasing the effectiveness of the lesson. The important components and their significance in the process of the teacher's pedagogical activity are described.

Key words. Teacher, skills, component, management styles, principle.

Жамият ривожи тарихида ўқитувчининг роли ўта муҳим ва жавобгарлиги билан ажаралиб туради. Ҳозирги кунда ҳам ўқитувчи иккита муҳим ижтимоий вазифа - ёш авлодга таълим ва тарбия бериш вазифасини бажариб келмоқда.

Психология-педагогика фанида педагогик фаолиятнинг қуйидаги компонентлари кўрсатилади?

1. Гностик (билим) компоненти.

Ўқитувчининг профессионал фаолиятида асосий ўринни унинг иши эгаллайди, ўз билимини ошириш, кўникма ва малакаларини шакллантиришга ҳаракат қилади. Бунда ўқитувчи тақиқотчилик вазифасини бажариб, ўзига керакли маълумотларни излайди, ўз ишларини таҳлил қилади, бошқаларни иш тажрибаларини ўрганади. Ушбу вазифани бажармай туриб ўқитувчи ўз фанининг моҳир устаси бўла олмайди ва таълим-тарбия жараёнида камчиликка йўл қўйиши мумкин.

2.Конструктив компонент.

Бу компонентнинг мазмуни шундан иборатки, ўқитувчи ўзининг педагогик фаолиятини режалаштириш ва унинг натижаларини олдиндан кўра билиш ҳисобланади. Ҳар бир дарсга пухта тайёргарлик кўриш керак бўлади, уни материалини қайта ва қайта ишлаш, методик усулларини танлаш, техник воситаларни тайёрлаш, дарсни мақсади ва уни ташкил қилиш босқичлари ҳамда фанлараро алоқалари аниқланади.

3. Ташкилотчилик компоненти.

Ўқитувчи ўқувчи-тарбия жараёнининг асосий ташкилотчиси ҳисобланади. Агар ўқитувчи ўқувчи-тарбия жараёнини юқори даражада ташкил қилмаса, ўқитувчининг тадқиқотчилик фаолияти, дарс ва дарсдан ташқари тадбирлар ўз моҳиятини йўқотади.

4.Коммуникатив компонент.

Бу компонент педагогик фаолиятнинг муҳим жиҳати бўлиб, бу унинг бутун бир ҳолда самарадорлигини аниқлаб беради. Унинг асосий мазмуни, ўқитувчининг хамкасблари, ота-оналар ва ўқувчилар билан ўзаро муносабатларни ўрнатиш ҳисобланади. Коммуникатив компонент ўқитувчининг тадқиқотчилик конструктив ва ташкилотчилик фаолиятлари билан боғлиқ келади. Ўқитувчи ўзининг профессионал фаолиятидаги барча билан ўзаро муносабати характери, унинг фаолиятига жиддий таъсир кўрсатади.

Рус псиихолог олими А.И.Щербаков ўқитувчининг ўзига хос вазифалари ҳақида гапириб, унинг профессионал фаолиятида тарбиявий йўналишини кўрсатиб ўтади. Унинг фикрича бу вазифалар қуйидагилар: информацион, сафарбарлик, ривожлантирувчи, йўналтирувчи вазифалар ҳисобланади.

- инофрмацион (ахборот) вазифа-чуқур билим ва ўқув материалини яхши эгаллаш, уларни амлада ишлата билиш;

- сафарбарлик-ўқувчиларнинг билиш фаолиятини фаоллаштириш, мустақил ишларини ташкил этиш, ўқишга бўлган қизиқишларини ривожлантириш ва қўллай;

- ривожлантирувчи-ўқувчиларнинг ёш хусусиятлари ва индивидуал-психологик характеристикасини ҳисобга олган ҳолда шахсини шакллантириш.

- йўналтирувчи-ўқувчилардаги ижтимоий – аҳлоқий мотивларни, дунё-қараши ва фаол ҳаётий позицияларини шакллантириш.

Ўқитувчининг ўз вазифасини мувоффақиятли бажариши ўқувчилар жамоасини шаклланишида, ўқувчи шахсини ривожланишида, уларни мустақил ҳаётга тайёрлашда муҳим шарт ҳисобланади. Бунинг учун бунда асосий омил ўқитувчининг шахси ҳисобланади. К.Д.Ущинский ўз вақтида "Тарбияда ҳамма нарса тарбиячининг шахсига асосланиши керак, чунки инсон шахсидан шундай тарбиявий куч ёғилади" деб айтган эди.

Педагогика, психология фанида педагогик таъсирнинг асосий икки тури кўрсатилади, улар бевосита ва билвосита турларидир.

Бевосита таъсир деганда шахсга бирон-бир нарсани таклиф ёки талаб қилиши мақсадида тўғридан-тўри мурожаат қилиши тушунилади.

Педагогнинг профессионал фаолиятидаги ўзига хослик шундаки, у доим ва тўғридан-тўғри ўқувчилар билан алоқада бўлиши сабабли таъсирнинг бевосита туридан фойдаланишига тўғри келади. Шу билан бирга баъзи бир ҳолатларда бу турдаги таъсир кўп ҳам самара бермаслиги мумкин.

Чунки баъзи ҳолатда ўқитувчининг тўғридан-тўғри таъсири ўқувчига салбий таъсир кўрсатиши мумкин, бу эса ўқитувчи-ўқувчи муносабатида қийинчилик туғдириши мумкин. Бу холатда билвосита таъсир туридан фойдаланиши маъқул. Бу қуйидагича амалга оширилади. Ўқитувчи ўқувчига уни атрофидаги одамлар орқали таъсир кўрстаиш мумкин. Чунки, шу нарса маълумки, ҳар бир ўқувчининг бир ёки бир неча ишончли ўртоқлари бўлади ва уларнинг фикрини инобатга олади, ўқитувчи эса шу одамлар орқали ўқувчига таъсир кўрсатса бўлади.

Ўқитувчининг таълим-тарбия жараёнини самарали бажариши унинг бу жараённи қандай бошқаришига боғлиқ. Ўқитувчи бошқарувнинг маълум бир услубидан фойдаланиб, ўқув-тарбия жараёнидаги ўзаро муносабатларни шаклланишига таъсир кўрсатиш мумкин. Бошқарув услублари қуйидагиларга бўлинади:

1.Авторитар услуб. Қисқа қилиб бу услубга изоҳ берадиган бўлсак, бу услубда ўқитувчи таълим-тарбия жараёнидаги барча саволлар ва юзага келадиган муаммоларни бир ўзи хал қилади қарор чиқаради, бунда у бошқаларнинг фикрларини инобатга олмайди.

2.Бепарволик услуби. Бунда ўқитувчи ўз вазифасини енгиллатишга харакат қилиб, ҳеч қандай жавобгарликни бўйнига олмайди. Ўз вазифасини номига бажаради, таълим-тарбия жараёнига эътиборсизлик билан ёндашади, муаммолардан ўзини олиб қочади, натижада эса ўқувчилар олдида обрўси йўқолади.

3.Демократик услуб. Бу услубда ўқитувчи ўқувчиларнинг фаоллигини оширишга харакат қилади, умумий ишни ҳал қилишига ҳар бир ўқувчини жалб қилади. Ўқитувчи бу услубда синф жамоасига таянади. Юзага келган муаммо ва саволларни ўқувчилар биргаликда ечишга ҳаракат қиладилар, ўқитувчи томонидан улар қабул қилган қарор маъқулланса, қарор амалга оширадилар. Ушбу услуб ягона услуб бўлиб, ўқитувчи ва ўқувчиларнинг хамкорлигининг самарали бўлишига олиб келади.

Таълим-тарбия жараёни ўқувчиларни ҳар томонлама гармоник ривожланиши вазифаларини амалга оширади. Шахсни ҳар томонлама шакллантиришининг умумий психологик принциплари борки, булар қуйидагилар:

1.Фаоллик принципи.

Фаоллик принципининг моҳияти шундан иборатки, ҳар бир ўқитувчи ўқувчи – тарбиячининг қўлдаги ва унинг барча айтганини сўзсиз бажарадиган объект эмас, балки фаол, ижодкор субъект эканлигини доимо ёдда тутишлари даркор. Фаоллик принципини таълим жараёнида амлага ошириш учун ўқитиш ва дарс бериш моҳиятини ўзгартиришга қаратиш керак, яъни ўқувчини турли хил билимларни қабул қилувчидан билимларни изловчига айлантириш лозим. Шундай қилиб, мактаб ўқитишни ўрганиши керак.

2. Фаолият принципи.

Фаолият принципнинг мазмуни шундаки, бунда нафақат кўпқиррали фаолиятни ташкил қилиш, балки биргаликдаги фаолиятни ташкил қилиш лозим бўлади, яъни боланинг тенгдошлари ва катталар билан дарсда, туристик саёҳатлар мактабдаги мунозалар вақтидаги биргаликдаги фаолиятини ташкил қилишини талаб қилади.

Боланинг биргаликдаги фаолияти шахсни ҳар томонлама ривожлантириш вазифасига жавоб бериши учун қуйидаги талабларга жавоб бериш керак.

- биринчидан, фаолият ҳақиқатдан ҳам биргаликдаги фаолият бўлиши керак;
- иккинчидан, ижтимоий жиҳатдан аҳамият касб этиши ва болалар учун қизиқарли бўлиши керак.
- учинчидан, у жўшқин бўлиши унда ўзаро ҳаракат жараёнида боланинг ижтимоий роли ўзгариб туриши керак.
- тўртинчидан, биргаликдаги ҳаракат жамоавий кечинмаларга бой бўлиши, бошқа одамларнинг ютуқларидан қувониш ва одамсизлигидан қайғуриш каби ҳиссиётларни бошдан кечириши лозим.

3.Жамоа принципи.

Жамоа принципининг мазмуни шундан иборатки, шахснинг бебахо сифатларини шакллантиришнинг асосий шароитларини юқори даражада ривожланган гуруҳ-жамоа ҳисобланади.

Ўқитувчи мактабдан ташқари унинг ёнида бола шахсини ривожланишида жавобгар бўлган икки ижтимоий гуруҳ-оила ва болалар гуруҳи борлигини ҳисобга олиши керак. Чунки мактабдаги тарбия билан олиа ва болалар гурухидаги тарбия йўналиши муштарак бўлишига эришиш керак.

4.Индивидуал ёндошиш принципи.

Индивидуал ёндошиш принципи ўқувчиларга уларнинг уларнинг индивидула-психологик хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда ёндошишини талаб қилади, яъни бу ўқувчи тенгдошларидан фарқ қилишини ҳисобга олиб тарбиявий ишларни ташкил қилиши лозим бўлади. Шу билан бирга шу нарсани инобатга олиши керакли, индивидуал ёндошиш ўқувчига шахсий ёндошиш жиҳати бўлиб, ўсмирининг катталар, ўқитувчилар, ота-оналар билан ўзаро муносабатлари тизимига киришиш шароитларни ўрганишни ўз ичига олади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ибрагимов Х.И., Йўлдошев У.А., Бобомирзаев Х. Педагогик психология (Ўқув қўлланма). -Тошкент, 2007
2. Китов А.И. Психология управления. -М, 1989.
3. Маерс Д. Социальная психология. -М, 2000.

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ И КОМПЕТЕНЦИЙ XXI ВЕКА НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО В ШКОЛАХ УЗБЕКИСТАНА

Бикмайкина Н.Ш.,
методист отдела методической службы,
Ферганского областного центра педагогического мастерства

Аннотация: в статье перечислены основные компетенции, вырабатываемые у учащихся в процессе изучения русского языка. Развитие этих навыков — это важнейшая задача школы для подготовки учащихся к успешной жизни и работе в современном мире.

Annotatsiya: Maqolada rus tilini o'rganish jarayonida o'quvhilar tomonidan ishlab chiqiladigan asosiy ko'nikmalar ro'yxati keltirilgan. Ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish - o'quvchilarni zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatli yashash va ishlashga tayyorlashda muhim maktab maqsadi hisoblanadi.

Annotation: The article lists the main competencies that students develop in the process of learning Russian. Developing these skills is the most important task of the school to prepare students for successful life and work in the modern world.

Ключевые слова: навыки, компетенции, грамотность, мышление, развитие.

Kalit so'zlar: malaka, ko'nikmalar, savodxonlik, fikrlash, rivojlanish.

Keywords: skills, competencies, literacy, thinking, development.

XXI век характеризуется глобализацией, развитием технологий и необходимостью постоянного обучения. Современная система образования ставит перед собой задачу подготовки учащихся к жизни в условиях динамично меняющегося мира. В этой связи важно развивать у школьников навыки и компетенции, которые будут востребованы в XXI веке. Уроки русского языка могут стать отличной площадкой для формирования таких умений, поскольку язык является универсальным инструментом общения, мышления и самовыражения.

Основные навыки и компетенции XXI века:

1. Критическое мышление

Sof vijdonli kishilarni pastkash ikkiyuzlamachi, ig‘vogar, nomard kishilardan yiroq yurishini maslahat beradi. Insonning qadr-qiymatini oshiruvchi ham, pasaytiruvchi ham til ekanligini qayd etib, "Agar tilingni tiymasang jilovingni shaytonga berib qo‘yasan deydi. To‘g‘ri so‘z sharofatidan najot topib baxtli bo‘lasan. Yolg‘on so‘z esa vaqtincha foyda berib so‘ng butunlay o‘ldiradi. Yolg‘on gapirib g‘alaba qozongandan, rost gapirib mag‘lub bo‘lgan ma'qul. Va'da bergan bo‘lsang, albatta bajar. Birovni koyimoqchi bo‘lsang, noma orqali koyi. So‘z bilan koyima chunki, so‘z o‘lchovsiz ketib, yuz ko‘rishmas bo‘lasan", - deydi az-Zamahshariy.

Mutafakkir o‘zining pedagogik qarashlarida yoshlarni o‘zidan kattalarni hurmat qilishga da'vat etadi. Bola tarbiyasida ota-onalarning roli haqida ham qimmatli fikrlarni bildiradi. U haqda mutafakkir shunday deydi: "Ota-ona bolasini axloqli, odobli, mehnatsevar qilib tarbiyalamoqchi bo‘lsa, eng avvalo bolani me'yoridan ortiq erkalatmasdan, doimo nazoratda tutsin degan. Mol dunyom bor deb bolaning istaganini yedirib, istaganini kiydiraversang uning nafsi ustun bo‘lib o‘sadi va voyaga yetganida birinchi bo‘lib ota-onani keyin boshqalarni o‘z nafsining qurboni qiladi".

Deydilarki: "Ta'lim beshikdan mozorgacha" "Hasan ibn Zayd 80 yosh arafasida hayot qonunlarini o‘rganishga kirishgan. O‘qib o‘rganish uchun eng qulay vaqt yoshlik davri, erta tong va qosh qoraygan payt. Bilim oluvchi shu vaqtdan samarali foydalansin, bordi-yu bir fandan zeriksa, boshqasi bilan mashg‘ul bo‘lsin", - deydi.

Xulosa qilib aytganda, sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya borasidagi qimmatli fikrlarini dars jarayonida qo‘llash, ularning o‘git-nasihatlarini kelajagimiz egalari bo‘lishgan o‘g‘il-qizlarimizga o‘rgatish har bir o‘qituvchilarimizning dastur amaliga aylanmog‘i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Xayrullaev, A.Xasanbogva. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. –T., Fan, 2000y.
2. R.Mavlonova, O.To‘raeva, K Xoliqberdiev. Pedagogika. –T. O‘qituvchi, 2001y
3. M.Ochilov. Muallim qalb me'mori. –T., O‘qituvchi, 2001y.

INNOVATSIYON TEXNOLOGIYALARINING O‘QITUVCHI VA O‘QUVCHILAR RUHIYATGA TA’SIR KO‘RSATISHI

Xolikova Xilola Gulamovna,
Karmana tumani 1- umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi,
Sultonova Muqaddas Nurboyevna,
Karmana tumani 31-umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta’lim jarayonida innovatsion zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bugungi kunning dolzarb vazifalardan biriga aylanganligi haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Innovatsion, axbort, kommunikatsiya, intellektual, e’tibor, texnikaviy, qobiliyat, interaktiv, refleksiv, ijtimoiy psixologik, motivatsiya.

Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar ta’lim tizimini modernizatsiya qilinishi hamda innovatsion texnologiyalarni keng o‘zlashtirilishi ta’lim muassasasi oldida dolzarb vazifalarni amalga oshirishni taqozo qilmoqda.Ta’lim jarayonida zamonaviy innovatsiyon axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muhim vazifalaridan biriga aylanganligi hammamizga ma’lum. Bu esa o‘sib kelayotgan yosh avlodni intellektual va texnikaviy qobiliyatlarini rivojlantirib shaxs xususiyatlarini shakllantirishga yordam beradi. “Vatanimiz kelajagi, xalqimizni ertangi kuni mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-etibori, avvalambor, yoshlarimizning unib-o‘sib, ulg’ayib qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog’liqdir. Biz bunday o‘tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak. I.A.Karimov[27].

Zamonaviy axborot innovatsiyon texnologiyalaridan ta’lim jarayonida foydalanar ekanmiz, biz uning ijobiy ta’sir yo‘llari orqali yondasha olishimiz lozim, ya’ni, birinchidan, axborot kommunikatsiya texnologiyalari zaminida yuz berishi mumkin bo‘lgan yangiliklar an’anaviy muloqot sharoitlarida olib boriladi. Dars jarayonida texnika bilan shaxs va shaxs bilan shaxs o‘rtasidagi muloqotni muvofiqlashtirib olib borish maqsadga muvofiq.

Ta’lim beruvchilar innovatsiyon texnologiyalaridan foydalanish va amaliyotga tadbiq etish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi interaktiv hamda refleksiv ta’sirni unutmasligi kerak. Ta’lim jarayonida innovatsiyon texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning kommunikativ va bilish faoliyatini sifat o‘zgarishlariga olib boradi hamda ta’lim olish usullarining o‘zgarishi asosida shaxs sifatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, internet bilan ishlaganda, o‘quvchilarning faolligi ortadi va ta’lim jarayoni individuallashadi, turli ma’lumot manbalari bilan ishlash imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu esa o‘quvchilarning shaxsini rivojlantiradi. Ularda mustaqil fikr yuritishga, tashabbuskorlikka, mobillikka rag’batlanish paydo bo‘ladi. Ammo, shuning bilan bir qatorda salbiy ta’sirlar ham yuzaga kelishi mumkin. Yani, intensiv intellektual va ijodiy rivojlanish o‘quvchilarni mavjud ijtimoiy muhitga moslashishini ta’minlay olmaydi.

O‘quv faoliyati jarayonida dars maqsadining aniqligi, mantiqiyligi, ketma-ketliligi hamda o‘quvchilarning refleksivligiga e’tibor qaratish lozim. Bu birinchidan, o‘quvchining ruhiy muloqotini amalga oshirish uchun muhim bo‘lsa, ikkinchidan, teskari aloqani kuchaytirishga asos bo‘ladi va ta’lim jarayoni uchun mo‘ljallangan dasturiy va texnik vositalarning “insonlashuvi” kuzatiladi. Bu jarayonda zamonaviy kommunikatsiya axborot texnologiyalarining o‘quvchilarga ta’siri ortib, u chegaralangan doiradagi ruhiy

[27] Каримов И.А. “Юксак маънавият енгилмас куч”.__ Т.: «Маънавият», 2008. __16

ta’sirlardan tortib, to shaxsni to‘la o‘zgartirishgacha (internetga bog’lanib qolish, xakerlik sindromi) olib keladigan jarayondan saqlashi mumkin.

Psixolog olimlar bugungi kunda innovatsiyon texnologiyalarining ruhiyatga ta’sir ko‘rsatishi va undan oqilona foydalanish e’tiborga molik masala ekanligini uqtiradilar. Bu esa o‘z navbatida pedagoglar uchun ham o‘ta dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Sharq donishmandlari “Qaerga ketayotganingni bilish uchun qaerdan kelayotganingni aniqlash lozim” - deb aytgan hikmatli so‘zlaridan hamda yuqorida aytilgan fikrlardan kelib chiqib o‘quv muhiti dasturini axborot kommunikatsiya texnologiyalari orqali loyihalayotgan vaqtda o‘quvchilarni ongli fikrlashi va o‘zaro ta’sir holatiga ham alohida e’tiborni qaratish maqsadga muvofiq buladi.

Bundan tashqari, innovatsiyon texnologiyalaridan foydalanganda auditoriyada mebellarni joylashtirish, adabiyot tanlash, tajriba, kerakli resurslar, oquvchilar hissiyotlariga ta’sir etish va ularni motivatsiyalash kabi o‘quv muhiti usullaridan ham oqilona foydalana olish ham shaxs shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchilar o‘qituvchi tashkil etgan va slaydda tayyorlangan manbalar asosidagi ijodiy muhit uchun berilgan topshiriqlarni bajarish davomida guruhlarga bo‘lingan holda muammolarning yechimini topsalar o‘quvchilarda quyidagi sifatlar hosil bolishiga sharoit yaratiladi: motivatsion hatti-harakatni belgilovchi xohish-istak va ehtiyojlar, motivatsiya (tashqi va ichki omillardan tashkil topadi), his-tuyg‘ular (insonga ta`sir qiluvchi omillarni baholash, reaktsiya qilish) bilan bog‘liq holat kechadi, shuningdek, ta’lim jarayonida quvonch, hayratlanish, muhabbat, havas qilish, ayrim hollarda uyalish, nafratlanish, hadiksirash kabi tuyg‘ular shaxs shakllanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, biz pedagoglar zamonaviy innovatsiyon texnologiyalari asosida darslarni tashkil etish jarayonida o‘quvchilar shaxsini shakllantirishga alohida e’tibor qaratishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islom Karimov. “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch”, Toshkent “Ma‘naviyat” 2010.
2. Ishmuhammedov R., Abduqorirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari tarbiyachi-o‘qituvchilari va guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar) - T.: Iste’dod, 2010.

MAKTAB RAHBARLARI BOSHQARUVIDA INNOVATSION MEXANIZMLARNI JORIY ETISH PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK OMILLARNI ISHLAB CHIQISH

Ismoilov Mirzalochinbek Abdusalom o‘g‘li,
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktab rahbarlari boshqaruvida innovatsion mexanizmlarni joriy etishning pedagogik va psixologik omillari tadqiq qilinadi. Ta’lim tizimida rahbarlik qobiliyatlarini oshirish, zamonaviy texnologiyalar va psixologik-uslubiy yondashuvlardan samarali foydalanish orqali o‘quv jarayonining sifatini yaxshilash masalalari yoritiladi. Maqolada rahbarlarning innovatsion faoliyatini shakllantiruvchi omillar, pedagogik tajriba, psixologik muhitning ta’siri hamda boshqaruv qarorlarini optimallashtirish usullari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ilg‘or xorijiy va mahalliy tajribalar asosida takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: maktab rahbarlari, innovatsion boshqaruv, pedagogik omillar, psixologik omillar, rahbarlik qobiliyati, ta’lim tizimi, zamonaviy texnologiyalar, psixologik muhit, qarorlar optimallashtirish, pedagogik tajriba, boshqaruv mexanizmlari, ta’lim sifatini oshirish, rahbarlik strategiyalari.

Annotation: This article studies the pedagogical and psychological factors of introducing innovative mechanisms in the management of school leaders. The issues of improving leadership skills in the education system, improving the quality of the educational process through the effective use of modern technologies and psychological and methodological approaches are discussed. The article analyzes the factors shaping the innovative activities of leaders, pedagogical experience, the influence of the psychological environment, and methods for optimizing management decisions. The study develops proposals based on advanced foreign and local experiences.

Keywords: school leaders, innovative management, pedagogical factors, psychological factors, leadership skills, education system, modern technologies, psychological environment, decision optimization, pedagogical experience, management mechanisms, improving the quality of education, leadership strategies.

Kirish: Zamonaviy dunyoda ta’lim tizimi doimiy ravishda o‘zgarib, yangi talablar va texnologik yutuqlarga moslashmoqda. Maktab rahbarlari uchun an’anaviy boshqaruv usullaridan voz kechib, innovatsion yondashuvlarni qo‘llash orqali ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur bo‘ldi. Innovatsion boshqaruv nafaqat ta’lim muassasasining ishlash samaradorligini oshiradi, balki pedagogik jamoa hamda o‘quvchilar uchun qulay va rivojlangan muhit yaratishga yordam beradi.

21-asrda ta’lim sohasida raqamli texnologiyalar, individual yondashuv va loyihalar asosida o‘qitish kabi yangi metodlar keng qo‘llanilmoqda. Maktab rahbarlari bu o‘zgarishlarga moslashmasa, ta’lim muassasasining rivojlanishi sekinlashishi mumkin. Masalan, Finlandiya, Singapur kabi mamlakatlarda innovatsion boshqaruv tufayli ta’lim sifatining oshishi kuzatilmoqda.

Innovatsion yondashuvlar rahbarlarga qarorlar qabul qilishda ma’lumotlar asosida ishlash, resurslarni samarali taqsimlash va xodimlar motivatsiyasini oshirish imkoniyatini beradi. Masalan, ma’lumotlar bazasidan foydalangan holda o‘quvchilarning bilim darajasini tahlil qilish, ularga individual yondashuvni shakllantirish mumkin.

Zamonaviy maktablarda raqamli platformalar (masalan, “Kundalik.uz”, “Google Classroom”) joriy etish, onlayn ta’limni rivojlantirish, virtual sinflardan foydalanish kabi innovatsiyalar katta ahamiyatga ega. Rahbarlar texnologik jihatdan tayyor bo‘lishi va o‘qituvchilarga yangi usullarni o‘rgatishi kerak.

Innovatsion yondashuvlarni muvaffaqiyatli qo‘llash uchun rahbarlar zamonaviy boshqaruv metodlarini, axborot texnologiyalarini va pedagogik yangiliklarni yaxshi bilishi lozim. Buning uchun malaka oshirish kurslari, xorijiy tajribalarni o‘rganish muhimdir.

Xorijiy mamlakatlarda (masalan, Finlandiya, Estoniya, Janubiy Koreya) maktab rahbarlari faol ravishda ilg‘or g‘oyalarni qo‘llash orqali ta’lim sifatini oshirishmoqda.

O‘zbekistonda ham “Raqamli ta’lim”, “Smart maktab” kabi loyihalar amalga oshirilmoqda. Biroq, bu jarayonni tezlashtirish uchun quyidagilar zarur: Maktab rahbarlarining innovatsion ko‘nikmalarini oshirish (treninglar, master-klasslar); Ta’lim muassasalariga texnik jihatdan jihozlash (kompyuterlar, interfaol dasturlar); Pedagogik jamoa bilan hamkorlikda ishlash (ochiq muloqot, yangi g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash).

Maktab rahbarligida innovatsion yondashuvlarni joriy etish nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki maktabni zamonaviy dunyoning talablariga moslash uchun ham zarurdir. Buning uchun rahbarlar yangi texnologiyalar, pedagogik usullar va samarali boshqaruv metodlarini o‘zlashtirishi, jamoani rag‘batlantirishi va resurslardan unumli foydalanishi kerak. Faqatgina izlanishlar va yangicha fikrlash orqali O‘zbekiston ta’lim tizimi xalqaro darajaga ko‘tarilishi mumkin.

Innovatsion boshqaruvning pedagogik omillari va ularni takomillashtirish yo‘llari. Zamonaviy ta’lim tizimida maktab rahbarlarining innovatsion yondashuvlari nafaqat boshqaruv samaradorligini oshiradi, balki pedagogik jarayonlarning sifatini ham tubdan o‘zgartirishi mumkin. Pedagogik omillar - bu ta’lim muassasasining muvaffaqiyatli faoliyatini ta’minlovchi asosiy komponentlar bo‘lib, ularni to‘g‘ri tushunish va rivojlantirish orqali innovatsion boshqaruvni amaliyotga samarali joriy etish mumkin.

Maktab rahbariyatining asosiy vazifalaridan biri - o‘qituvchilarni zamonaviy ta’lim metodlari bilan tanishtirishdir. Pedagoglarning innovatsion yondashuvlarga tayyorligi, ularning: Raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalari; Yangi pedagogik usullarni o‘rganishga tayyorgarligi; O‘zgarishlarga moslashuvchanligi bilan belgilanadi. Masalan, Finlandiya ta’lim tizimida o‘qituvchilarning professional rivojlanishiga katta e'tibor beriladi. Har yili ular yangi metodlarni o‘rganish uchun maxsus treninglarda qatnashadilar.

Innovatsion boshqaruvda ta’lim jarayonini quyidagicha optimallashtirish mumkin: Loyiha asosida o‘qitish (PBL - Project-Based Learning); Teskari sinf (Flipped Classroom) modelini qo‘llash; STEAM (Fan, Texnologiya, Muhandislik, San'at, Matematika) yondashuvini joriy etish. Interfaol doskalar, planshetlar, virtual laboratoriyalar kabi texnologiyalardan foydalanish; Bulutli platformalar (Google Classroom, Moodle) orqali uzoqdan o‘qitishni tashkil etish. O‘quvchilarning bilim darajasini aniq baholash uchun raqamli test tizimlari; Har bir o‘quvchining rivojlanishini kuzatish uchun elektron portfoliolar.

O‘qituvchilarning malakasini oshirish kerak buning uchun Davriy treninglar o‘tkazish (masalan, "Zamonaviy ta’lim texnologiyalari", "Psixologik-pedagogik kommunikatsiya"); Xorijiy tajribalarni o‘rganish (Singapur, Estoniya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarning ilg‘or usullari); Mentorlik tizimi - yangi o‘qituvchilarni tajribali ustozlar qo‘llab-quvvatlashi.

Ta’limni Shaxsiylashtirish kerak buning uchun akabatta, Har bir o‘quvchining qobiliyatlariga moslashgan o‘quv rejalari tuzish; Sun'iy intellekt (AI) asosidagi o‘quv dasturlaridan foydalanish.

Raqamli ta’lim infratuzilmasini kuchaytirish lozim bo‘ladi, yani Maktablarni kompyuterlar, interfaol darsliklar va virtual laboratoriyalar bilan ta’minlash. "Aqlli maktab" (Smart School) loyihalarini joriy etish. O‘quvchilarning bilim darajasini real vaqt rejimida kuzatish; Ma’lumotlar asosida strategik qarorlar qabul qilish.

Maktab boshqaruvida innovatsion yondashuvlarni joriy etish uchun pedagogik omillarga tizimli yondashish zarur. Buning uchun, O‘qituvchilarni doimiy ravishda qayta tayyorlash; Zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish; Xalqaro tajribalarni o‘rganib, mahalliy sharoitga moslashtirish kerak. Faqatgina izchil ishlar natijasida O‘zbekiston ta’lim tizimi dunyo standartlariga erishishi mumkin.

Psixologik omillarning rahbarlik faoliyatiga ta’siri. Zamonaviy boshqaruv psixologiyasida rahbarlarning samaradorligi nafaqat texnik bilimlar, balki ularning psixologik tayyorgarligi va xulq-atvori bilan bevosita bog‘liqdir. Maktab rahbari kabi murakkab ijtimoiy rol egasi uchun psixologik omillarni to‘g‘ri tushunish va ularni boshqaruv jarayonida aqlli qo‘llash hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu maqolada biz psixologik omillarning rahbarlik faoliyatiga ta’sirini chuqur o‘rganib, ularni qanday qilib samarali boshqarish mumkinligini tahlil qilamiz.

Rahbarning o‘z xodimlari va o‘quvchilarning his-tuyg‘ularini tushunish qobiliyati (empatiya) maktab muhitidagi samarali munosabatlarning asosini tashkil etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yuqori darajada empatiya qobiliyatiga ega bo‘lgan rahbarlar qo‘l ostidagilarning ishga intilishini 40% ga oshirishi mumkin. Misol uchun Finlandiyaning nufuzli maktablarida direktorlar o‘qituvchilar bilan muntazam ravishda shaxsiy suhbatlar o‘tkazib, ularning shaxsiy va professional muammolarini hal qilishda yordam beradilar.

Rahbarlik faoliyati doimiy stress sharoitida olib boriladi. Psixologik chidamlilik (resilience) rahbarga: Favqulodda vaziyatlarda barqaror fikrlash imkonini beradi; Xodimlarning ruhiy tushkunligini oldini olishga yordam beradi; Uzoq muddatli strategik qarorlarni sifatli qabul qilish imkoniyatini yaratadi. Statistik ma’lumot, Harvard Business Review ma’lumotlariga ko‘ra, yuqori stressga chidamlilik ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan rahbarlar boshqargan tashkilotlarning foydasi o‘rtacha 35% yuqori bo‘lgan.

Rahbarning psixologik omillardan foydalanish darajasi xodimlarning motivatsiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Buning uchun quyidagi usullarni qo‘llash samaralihisoblanadi. Ijobiy kuchaytirish (positive reinforcement) – yaxshi ish uchun darhol rag‘batlantirish. Shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini yaratish. Aniq va erishilishi mumkin bo‘lgan maqsadlar qo‘yish. Tajribalar natijasiga ko‘ra; Google kompaniyasining "Project Oxygen" tadqiqoti shuni ko‘rsatdiki, xodimlarni qadrlash va ularning shaxsiy qadriyatlarini hurmat qilish samaradorlikni 25% ga oshiradi.

Psixologik omillarni rivojlantirish usullari.

a) EQ (Emotional Quotient)ni oshirish bo‘yicha maxsus mashg‘ulotlar;
b) Konfliktlarni hal qilish bo‘yicha psixologik mahorat treninglari;
c) Menejment murabbiyligi (executive coaching) xizmatlari.
d) Ish joyidagi psixologik muhitni monitoring qilish (anketalar, suhbatlar);
e) Jamoa ichidagi munosabatlarni yaxshilash uchun team-building tadbirlari;

f) Stressni boshqarish dasturlarini joriy etish.

g) Rahbarlar uchun muntazam psixologik diagnostika;

h) Meditatsiya va mindfulnes amaliyotlarini joriy etish;

i) Ish-tanlov muvozanatini (work-life balance) ta’minlash.

Psixologik omillarga asoslangan rahbarlik usuli zamonaviy ta’lim tizimining muvaffaqiyatli ishlashining kalitidir. Buning uchun quyidagilar zarur bo‘ladi. Rahbarlar uchun majburiy psixologik tayyorgarlik dasturlarini joriy etish; Maktablarda psixologik xizmatlarning sifati va qamrovini oshirish; Xalqaro tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish. Faqatgina psixologik jihatdan tayyor bo‘lgan va o‘z his-tuyg‘ularini boshqara olgan rahbarlar haqiqiy pedagogik innovatsiyalarni amalga oshirishga qodirdir.

Xulosa: Psixologik omillar rahbarlik faoliyatining muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy komponentlardan biridir. Rahbarning empatiya qobiliyati, stressga chidamliligi, motivatsion mahorati va muloqot ko‘nikmalari nafaqat uning shaxsiy samaradorligini, balki butun jamoaning ish natijalarini ham keskin oshirishi mumkin. Zamonaviy ta’lim tizimida rahbarlar nafaqat aql-idrok, balki yuqori darajadagi psixologik tayyorgarlik ham talab qilinadi.

Xalqaro tajribalar (Finlandiya, Singapur, Janubiy Koreya) shuni ko‘rsatadiki, psixologik jihatdan tayyor bo‘lgan rahbarlar boshqaradigan ta’lim muassasalarida ish qulay muhiti yaxshilanadi, o‘qituvchilarning ishga intilishi oshadi va o‘quvchilarning akademik yutuqlari sezilarli darajada yaxshilanadi. O‘zbekistonda ham bu sohada ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda – maktablarda psixologik xizmatlar kengaymoqda, rahbarlar uchun psixologik treninglar o‘tkazilmoqda.

Ammo, bu yo‘lda yana ko‘p ishlar qilinishi kerak. Jumladan: Rahbarlar uchun muntazam psixologik diagnostika tizimini joriy etish; Psixologik mahorat treninglarini keng miqyosda o‘tkazish; Xalqaro tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirib, amaliyotga tatbiq etish.

Xulosa qilib aytganda, psixologik jihatdan sog‘lom va tayyor bo‘lgan rahbarlar ta’lim tizimining rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ular nafaqat o‘z jamoasini birlashtirishi, balki innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish, ta’lim sifatini oshirish va istiqbolli avlodni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan psixologik muhitni yaratishga qodirdir. Psixologik bilimlar va amaliy ko‘nikmalar bilan qurollangan rahbarlar – bu zamonaviy ta’lim tizimining kelajagidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To‘rayev B. (2020). *Ta’lim boshqaruvi: nazariya va amaliyot*. Toshkent: Noshir.
2. Xolmirzayev D. (2019). *Maktab rahbarlarining psixologik kompetentligi*. Toshkent: O‘qituvchi.
3. Usmonova S. (2021). *Zamonaviy ta’lim muhiti va rahbarlik*. Samarqand: SIQTI.
4. Karimov I. (2017). *Innovatsion ta’lim tizimlari*. Toshkent: Ma’naviyat.
5. Abdullayeva N. (2022). *Rahbarlik qobiliyati va pedagogik mahorat*. Buxoro: Durdona.

O‘QUVCHILARNING IDROK, XOTIRA VA TAFAKKUR QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK OMILLARNI TAKOMMILSHTIRISH

Ismoilova Gulyora Ibroximjon qizi,
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilarning idrok, xotira va tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirishda pedagogik va psixologik omillarning ahamiyati tadqiq qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy ta’lim metodlari, kognitiv jarayonlar va ularni yaxshilash yo‘llari psixologiya va pedagogika nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Maqolada shaxsning rivojlanishida yosh xususiyatlari, o‘qitish usullarining samaradorligi va motivatsion omillar muhokama qilinadi. Tahlil natijalariga ko‘ra, individual yondashuv, interfaol metodlardan foydalanish va kognitiv qobiliyatlarni mustahkamlash uchun maxsus mashqlar tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: idrok, xotira, tafakkur, pedagogik omillar, psixologik omillar, kognitiv qobiliyatlar, ta’lim metodlari, motivatsiya, interfaol usullar, individual yondashuv, kognitiv psixologiya, o‘quv jarayoni, rivojlanish.

Annotation: this article explores the importance of pedagogical and psychological factors in the development of students cognitive, memory and thinking abilities. The study analyzes modern educational methods, cognitive processes and ways to improve them from the point of view of psychology and pedagogy. The article discusses age characteristics in the development of an individual, the effectiveness of teaching methods and motivational factors. According to the results of the analysis, an individual approach, the use of interactive techniques and special exercises for strengthening cognitive abilities are recommended.

Keywords: perception, memory, thinking, pedagogical factors, psychological factors, cognitive abilities, educational methods, motivation, interactive methods, individual approach, cognitive psychology, educational process, development.

Kirish: Zamonaviy jamiyatda bilim va intellektual salohiyatning ahamiyati ortib borayotgan sharoitda, ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – o‘quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini, ya’ni idrok, xotira va tafakkurini rivojlantirishdir. Bu jarayon nafaqat akademik yutuqlarga, balki shaxsning ijtimoiy va shaxsiy kamolotiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Psixologiya va pedagogika fanlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalarning aqliy rivojlanishi ularga ta’lim berishda qo‘llaniladigan metodlar, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv va psixologik omillarga bog‘liq.

Bugungi kunda maktablarda an’anaviy o‘qitish usullari hali ham keng qo‘llanilmoqda, bu esa ba’zi o‘quvchilarning bilimlarni chuqur idrok etishida, mantiqiy fikrlashda va uzoq muddatli xotira saqlashda qiynalishlariga olib keladi. Masalan, ko‘p hollarda darslar passiv tarzda o‘tiladi, o‘quvchilar faqat ma’lumotlarni qabul qiluvchi sifatida ishtirok etadi, bu esa ularning kreativ fikrlashini va mustaqil tahlil qilish qobiliyatini cheklaydi.

Idrok, xotira va tafakkur inson miyasining asosiy kognitiv funksiyalaridir. Ularni rivojlantirish nafaqat akademik yutuqlarga, balki hayotiy muammolarni hal qilishda ham muhim rol o‘ynaydi. Psixologlar (masalan, J. Piaget, L. Vygotsky) bolalarning kognitiv rivojlanishida ijtimoiy muhit, o‘qitish usullari va individual psixologik xususiyatlarning ta’sirini alohida ta’kidlashgan.

Pedagogik jihatdan esa, zamonaviy ta’limda interfaol metodlar (munozaralar, loyihalar, o‘yin texnologiyalari) yordamida o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini oshirish mumkin. Masalan, problemali ta’lim usullari yordamida o‘quvchilar nafaqat bilim olishadi, balki ularni qanday qo‘llashni ham o‘rganadilar. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – o‘quvchilarning idrok, xotira va tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirishda pedagogik va psixologik omillarning samaradorligini o‘rganish, shuningdek, ularni takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

1. Idrok, xotira va tafakkur jarayonlarining psixologik mexanizmlarini tahlil qilish.
2. O‘quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga ta’sir etuvchi pedagogik omillarni aniqlash.
3. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari va metodlarining samaradorligini baholash.
4. O‘quv jarayonida kognitiv qobiliyatlarni mustahkamlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Demak, o‘quvchilarning idrok, xotira va tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirish zamonaviy ta’limning eng dolzarb masalalaridan biridir. Bu jarayon faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki samarali pedagogik usullar, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv va psixologik qo‘llab-quvvatlash orqali amalga oshirilishi mumkin. Kelajakda ushbu sohada yangi metodik yondashuvlarni ishlab chiqish va ularni ta’lim tizimiga tatbiq etish orqali o‘quvchilarning intellektual salohiyatini yanada oshirish mumkin bo‘ladi.

Idrok, xotira va tafakkur qobiliyatlarining psixologik-pedagogik asoslari. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini - idrok, xotira va tafakkur jarayonlarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonlarning psixologik-pedagogik asoslarini tushunish, samarali o‘qitish metodlarini ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Idrok - bu atrof-muhit haqidagi ma’lumotlarni sezgi organlari orqali qabul qilish va ularni talqin qilish jarayoni. J.Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, bola tushunchalarni o‘zlashtirishda 4 bosqichdan o‘tadi:

1. Sensorli-harakatli bosqich (0-2 yosh)
2. Old operatsion bosqich (2-7 yosh)
3. Aniq operatsion bosqich (7-11 yosh)
4. Mavhum operatsion bosqich (11 yoshdan keyin)

L.S.Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonası” nazariyasi shuni ko‘rsatadiki, bola o‘zining potensial imkoniyatlarini katta yoki sinfdoshlari yordamida amalga oshira oladi. Bu nazariya pedagogikada hamjamiyat bilan o‘rganish (collaborative learning) usullarining rivojlanishiga asos bo‘ldi. Xotira - bu ma’lumotlarni qabul qilish, saqlash va qayta tiklash qobiliyati. Zamonaviy psixologlar xotirani quyidagi turlarga ajratadilar:

- Qisqa muddatli xotira (7±2 birlik hajmi)
- Uzoq muddatli xotira

- Ishlovchi xotira

R.Atkinson va R.Shiffrinning ko‘p qatlamli xotira modeliga ko‘ra, ma’lumotlar avval sensorli, keyin qisqa muddatli va oxir-oqibat uzoq muddatli xotiraga o‘tadi. Pedagogik amaliyotda bu modelga asoslanib, bilimlarni mustahkamlash uchun takrorlashning ahamiyati ta’kidlanadi. Tafakkur - bu mavhum tushunchalar bilan ishlash, muammolarni hal qilish va yangi bilimlarni yaratish qobiliyidir. Psixologlar tafakkurning quyidagi turlarini ajratadilar:

a) Konvergent (yagona to‘g‘ri javobga intilish)

b) Divergent (bir nechta yechimlarni topish)

c) Kritik (tahliliy baholash)

d) Kreativ (yangiliklar yaratish)

J.Guilfordning tafakkur modeli shuni ko‘rsatadiki, kreativlik - bu tafakkurning alohida turi bo‘lib, u ijodkorlik, moslashuvchanlik va original fikrlashni o‘z ichiga oladi. Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishda quyidagi pedagogik omillar muhim rol o‘ynaydi:

I. **Motivatsiya**: A.Masloyning ehtiyojlar ierarxiyasiga ko‘ra, o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan motivatsiyasi ularning kognitiv rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

II. **Faol o‘rganish usullari**: Muammoli ta’lim. Loyihalar usuli, Jamoa va guruhlarda ishlash, O‘yinli texnologiyalar.

III. **Individual yondashuv**: Har bir o‘quvchining kognitiv uslubi (vizual, auditoriy, kinestetik)ni hisobga olish.

IV. **Texnologiyalardan foydalanish**: Multimediya vositalari, virtual reallik, interfaol dasturlar.

Idrok, xotira va tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirish - bu murakkab, ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u psixologik qonuniyatlar va pedagogik usullarning o‘zaro ta’siriga asoslanadi. Zamonaviy pedagogik amaliyotda kognitiv jarayonlarni rivojlantirishga qaratilgan integratsiyalashgan yondashuvlardan foydalanish samarali natijalarga olib keladi. Kelajakda neyropedagogika sohasidagi yutuqlar bu jarayonni yanada takomillashtirish imkoniyatini beradi.

O‘quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali metodlar va texnologiyalar. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini - idrok, xotira, tafakkur, diqqat va boshqa aqliy jarayonlarni rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu qobiliyatlarni samarali rivojlantirish uchun pedagogika va psixologiya fanlari turli metodlar va texnologiyalarni ishlab chiqmoqda.

Zamonaviy ta’limda quyidagi interfaol usullar samarali hisoblanadi. STEM ta’limi (fan, texnologiya, muhandislik va matematikani integratsiyalashgan o‘qitish). "Aylana stol" usuli. "6 ta qalpoq" deb o‘ylash texnikasi. "Aqliy xarita" (Mind mapping) usullari. Loyihaviy ish usuli esa o‘quvchilarning. Tadqiqot qilish qobiliyatini; Bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasini; Jamoada ishlash mahoratini rivojlantirishga yordam beradi.

Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishda quyidagi dasturlardan foydalanish mumkin: Mnemonika dasturlari (xotirani rivojlantirish uchun). Mantiqiy o‘yinlar (Lumosity, Elevate). Virtual reallik laboratoriyalari. Sun'iy intellekt asosidagi o‘quv platformalari.

Masalan, Anki va Memrise kabi dasturlar Ebbingausning unutilish egasi nazariyasiga asoslanib, optimal takrorlash intervallarini taklif qiladi.

O‘yinlar orqali o‘qitish (game-based learning) usullari. Didaktik o‘yinlar. Ta’limiy quiz testlar. Ta’lim platformalaridagi ballar tizimi. "Rag‘batlantirishlar"lar va mukofotlar. Masalan, Duolingo dasturi til o‘rganishni o‘yinlashtirish orqali o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirishga erishadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, gamifikatsiya elementlari o‘quv jarayonida ishtirokchanlikni 60% ga oshirishi mumkin.

Har bir o‘quvchining kognitiv uslubini hisobga olgan holda. Vizual o‘quvchilar uchun infografikalar. Auditoriy o‘quvchilar uchun podkastlar. Kinestetik o‘quvchilar uchun amaliy mashg‘ulotlar. DARES (Differensiallashtirilgan, Aralash, Real, Egri chiziqli, Spiralsimon) modeli. O‘quvchilarga o‘z fikrlash jarayonlarini boshqarishni o‘rgatish. "Fikrlash ovoz bilan" usuli. O‘quv jurnallari. O‘z-o‘zini baholash texnikalari. SWOT tahlili.

O‘quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish - bu tizimli va kompleks yondashuvni talab qiladigan jarayon. Eng samarali natijalarga erishish uchun yuqorida ko‘rib chiqilgan metodlarning kombinatsiyasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Kelajakda neyrota’lim texnologiyalari, sun'iy intellekt va virtual reallikning rivojlanishi bu sohada yangi imkoniyatlarni ochib beradi.

Xulosa: O‘quvchilarning idrok, xotira va tafakkur qobiliyatlarini rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb masalalaridan biridir. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kognitiv qobiliyatlarni samarali rivojlantirish uchun quyidagi omillarni kompleks tarzda hisobga olish zarur. Psixologik omillar: Har bir o‘quvchining yosh xususiyatlari, kognitiv uslublari va rivojlanish bosqichlarini hisobga olgan holda individual yondashuv qo‘llash. Pedagogik metodlar: Problemali o‘qitish, loyihaviy usullar, interfaol texnologiyalar va o‘yinlashtirilgan ta’lim kabi zamonaviy yondashuvlardan foydalanish. Texnologik yechimlar: Kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlar, virtual reallik va sun'iy intellekt asosidagi ta’lim platformalaridan foydalanish. Metakognitiv strategiyalar: O‘quvchilarga o‘z fikrlash jarayonlarini tahlil qilish va boshqarish ko‘nikmalarini o‘rgatish. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, yuqoridagi omillarning integratsiyalashgan qo‘llanilishi o‘quvchilarning. Mantiqiy fikrlash qobiliyatini 35-40%. Xotira quvvatini 25-30%. Muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini 45-50% ga oshirishi mumkin.

Kelajakda bu sohada olib boriladigan tadqiqotlar quyidagi yo‘nalishlarda davom ettirilishi maqsadga muvofiq. Neyropedagogika yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish. Sun'iy intellekt asosidagi shaxsiylashtirilgan o‘quv tizimlarini ishlab chiqish. Kognitiv qobiliyatlarni baholashning yangi mezonlarini ishlab chiqish. Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish tizimli, izchil va faniy asoslangan yondashuvni talab etadi. Bunda o‘qituvchining kreativligi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallaganligi va har bir shaxsga individual yondashishi muvaffaqiyatning asosiy garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirov F. *Pedagogika psixologiyasi*. – T.: O‘qituvchi, 2005.

2. Usmonov S. *Bolalar psixologiyasi*. – T.: Mumtoz so‘z, 2010.
3. Xolmirzayev B. *Kognitiv rivojlanish nazariyasi*. – T.: Fan, 2012.
4. Karimova V. *Zamonaviy pedagogika*. – T.: Nihol, 2019.
5. Abdullayeva R. *Ta’limda psixologik xizmat*. – T.: Sharq, 2016.
6. Vygotsky L.S. *Thought and Language*. – MIT Press, 2002.
7. Bruner J. *The Process of Education*. – Harvard University Press, 2001.
8. Mayer R.E. *Multimedia Learning*. – Cambridge University Press, 2005.
9. Woolfolk A. *Educational Psychology*. – Pearson, 2016.

PEDAGOGLARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Oltinova Zarnigor Jamol qizi,
Qiziltepa tumani 26-umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi,
Ne’matova Gullola Islomova,
Qiziltepa tumani 12- umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqola zamonaviy o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni o‘rganadi. Bu bugungi ta’lim sharoitida o‘quvchilarning o‘sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish uchun pedagoglarni zarur ko‘nikma va bilimlar bilan qurollantirish muhimligini ta’kidlaydi. Maqolada o‘qituvchilar malakasini oshirishda qo‘llaniladigan muvaffaqiyatli yondashuvlar va strategiyalarni o‘rganib, tegishli tadqiqot natijalari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: kompetensiya , uzluksiz kasbiy malaka oshirish,o‘qitish vositalari

Dunyoda yuqori malakali o‘qituvchilarga ehtiyoj borgan sari ortib bormoqda. Shunga ko‘ra, sifatli ta’lim berish uchun o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini doimiy ravishda oshirib borishimiz zarur. Ta’lim rivojlangan barcha mamlakatlarda o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bir qator mamlakatlarda, jumladan, respublikamizda ham fan o‘qituvchilarini tayyorlashni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha Milliy o‘quv dasturi ishlab chiqilgan.

Mamlakatimizda ta’limni rivojlantirish sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta’lim muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlash asosida barcha fanlarni o‘qitish jarayoniga xalqaro tajribani samarali tatbiq etish zarurligi namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “O‘qitish uslublarini takomillashtirish, o‘quv jarayonini individuallashtirish tamoyillarini bosqichmabosqich tatbiq etish, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish kabi vazifalar belgilangan. Ushbu belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirishda pedagog kadrlarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchilar qulay o‘quv muhitini yaratishda va o‘quvchilarni ta'lim maqsadlariga yo‘naltirishda markaziy rol o‘ynaydi. Binobarin, ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish zarur.

“Kompetensiya lotincha soz bo‘lib, o‘zbek tilida “munosib”, “to‘g‘ri keladi” yoki “mos keladi” ma‟nolarini anglatadi. O‘z bilim, mahorat va amaliy tajribalarni qo‘llagan holda oddiy va murakkab masalalarni echa olishga munosib inson deb tushunsa bo‘ladi. Ko‘p hollarda “kasbiykompetenlik” atamasi qo‘llaniladi. Bu so‘zni kasbiy vazifalarini

amalga oshirishda o‘z amaliy tajribalari, bilim va ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli qo‘llay olish qobiliyati deb tushunsa bo‘ladi.Bundan kelib chiqadiki, kompetensiya nuqtai nazaridan yondoshuv, mazkur jamoa yoki shaxs ana shunday kompetensiya egasi, nihoyat, pedagogik kasbiy kompetensiya egasi deb qo‘llash maqsadga muvofiq. Shunday qilib, har qanday holatda ham, kompetensiya ma’lum bir shaxs yoki jamoaning jamiyatdagi o‘rnini belgilab beradi. Uni ham qonuniy, ham axloqiy munosabatlari bilan mustahkamlaydi. Ilmiy pedagogik va psixologik manbalarga ko‘ra, kompetensiya va malaka juda murakkab, ko‘p fanlar uchun umumiy bo‘lgan ko‘p qismli tushunchalardir.A.G.Bermusning fikriga ko‘ra, “Kompetentlik takomillashib borayotgan shaxsning barcha hislatlarini, bilimi, tajribasi, umuman olganda, butun borlig‘ini yagona tizimga birlashtiradi”. “Kompetentlik bu nafaqat shaxsning bilimdon ekanligi, balki o‘z bilimlarini uzluksiz ravishda yangilab borishi hamdir, – deydi M.A.Choshanov. M.Aronovning fikricha, kompetentlik mutaxassis ning ma‟lum bir faoliyat uchun tayyor ekanligini bildiradi. Noaniq vaziyatlarda faoliyat ko‘rsata olish qobiliyati bu kompetentlikdir, deydi

Bizning fikrimizcha, kompetensiya bilim va malakalar majmuigina emas, balki o‘quvchilarning olgan bilimlarini muayyan vaziyatlarda harakatga keltira olishi va amaliyotda qo‘llay olishi bilan ham tavsiflanadi. Olingan bilim, ko‘nikma va malakalarni hayotda qo‘llash qobiliyatidagi tajriba sifatida qaralishi kerak. Bundan kelib chiqadiki, ta’limning asosiy vazifasi o‘quvchilarning hayotiy faoliyati doirasida muammolarni hal qilishga o‘rgatishdir.

Kasbiy kompetensiya o‘qituvchilarning sinfda o‘z roli va mas’uliyatini samarali bajarishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va fazilatlarni anglatadi. Bu fanga oid tajriba va pedagogik bilimlarni o‘z ichiga oladi.

Ta’lim sohasidagi tadqiqotlar bilan shug‘ullanish va dalillarga asoslangan amaliyotlarni o‘qitishga kiritish professional kompetensiya uchun juda muhimdir. Tadqiqot natijalaridan xabardor bo‘lish va dalillarga asoslangan strategiyalarni qo‘llash orqali o‘qituvchilar o‘zlarining ta’lim usullarini ilg‘or tajribalarga mos kelishini ta’minlashlari va o‘quvchilarining o‘zgaruvchan ehtiyojlarini qondirishlari mumkin.

Kasbiy ta’limga kompetensiya yondashuvi zamonaviy o‘qitish uslublarini joriy etish bilan birga, kadrlar talabiga puxta tayyorlangan, tanlagan kasbiga samarali hissa qo‘sha oladigan bitiruvchilarni yetishtirishga qaratilgan.Umumta’lim maktablari o‘qituvchilarida kasbiy kompetensiyani rivojlantirish bilan bog‘liq muammolar ko‘p qirrali bo‘lib, shoshilinch e’tiborni talab qiladi. Bundan tashqari, davom etayotgan kasbiy rivojlanish dasturlari va imkoniyatlari o‘qituvchilarga ta’lim tendensiyalari, innovatsion o‘qitish metodologiyalari va texnologik yutuqlar bilan hamnafas bo‘lishda muhim rol o‘ynaydi. Doimiy ravishda o‘z malakalarini oshirish orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarning o‘zgaruvchan ehtiyojlarini yaxshiroq qondirishlari va yanada qiziqarli va samarali o‘quv muhitini ta’minlashlari mumkin.

Kasbiy rivojlanish dasturlari o‘qituvchilarga o‘z malakalari, bilimlari va ta’lim strategiyalarini oshirish imkoniyatlarini taqdim etish orqali o‘qitish samaradorligini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ushbu dasturlar o‘qituvchilarning uzluksiz o‘sishi va rivojlanishiga hissa qo‘shadigan ko‘plab imtiyozlarni taqdim etadi. Bular quyidagilar:

-o‘qitishning yangi strategiyalarini o‘zlashtirish.Kasbiy rivojlanish dasturlari o‘qituvchilarni yangi o‘qitish strategiyalari va o‘qitish yondashuvlarini ochib beradi. Innovatsion metodlarni o‘rganish orqali pedagoglar o‘zlarining metodlarini pedagogik kengaytirib, samarali metodlarni o‘qitish amaliyotiga kiritishlari mumkin. Bu ularga talabalarni yanada samaraliroq jalb qilish va chuqurroq o‘rganishga yordam beradi;

-.kontent bo‘yicha bilimlarni chuqurlashtirish.O‘qituvchilar o‘zlari o‘rgatish mazmuni haqidagi tushunchalarini kengaytirib, o‘quvchilarga yanada kengroqta’lim berishlari mumkin. Ushbu chuqurlashtirilgan kontent bilimlari o‘qituvchilarga yuqori sifatli, dolzarb va qiziqarli darslarni o‘tkazish imkonini beradi.

-reflektiv amaliyot. Kasbiy rivojlanish o‘qituvchilarni o‘qitish usullarini tanqidiy ko‘rib chiqish va takomillashtirishni o‘z ichiga olgan reflektiv amaliyot bilan shug‘ullanishga undaydi. O‘z-o‘zini mulohaza qilish hamda tengdoshlar va murabbiylarning fikr-mulohazalari orqali o‘qituvchilar o‘sish yo‘nalishlarini aniqlashlari va pedagogik yondashuvlarini takomillashtirishlari mumkin. Ushbu aks ettirish amaliyoti o‘qitish samaradorligini doimiy ravishda yaxshilashga olib keladi.

Umumta’lim maktablari o‘qituvchilarining kasbiy malakasini oshirish barcha ta’lim muassasalari va o‘qituvchilarning birgalikdagi sa’y-harakatlarini talab qiladi. O‘qituvchilar malakasini oshirishda islohotlarni amalga oshirish, uzluksiz kasbiy rivojlanishga ko‘maklashish va mustahkam qo‘llab-quvvatlash tizimlarini yo‘lga qo‘yish orqali biz o‘qituvchilarga o‘z rollarida ustunlik qilish va kelajak avlodlarga sifatli ta’lim berish imkoniyatini berishi mumkin. Faqatgina ushbu birgalikdagi sa’y-harakatlar orqali biz qiyinchiliklarni yengib, kuchli, jonli va samarali ta’lim tizimini ta’minlashga umid qilishimiz mumkin.Xulosa qilib aytganda, ta’limda pedagog kasbiy kompetensiyanioshirishimuhim rol o‘ynaydi. Bu ta’lim samaradorligini oshiradi, kasbiy rivojlanishni rag‘batlantiradi, martaba ko‘tarilishini qo‘llab-quvvatlaydi, ish samaradorligini oshiradi, moslashuvchanlikni rivojlantiradi va kasbiy ishonchni oshiradi. Doimiy kompetensiyani rivojlantirish shaxslarning o‘z martabalarida muvaffaqiyat qozonishlari va bugungi dinamik ish muhitida raqobatbardosh bo‘lishlari uchun zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бермус А.Г.Проблемы и перспективы реализации компетентностного подхода в образовании. www.eidoc.ru. 2005, 09, 10.
2. Зимняя И.А., И.А. Ключевых. Компетенции – новая парадигма результата образования. quality.petrsu.ru
3. Muslimov N.A., Usmonboeva M.X., Sayfurov D.M., Turaev A.B.Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari.− Toshkent. 2015.–B.120.

TA’LIM JARAYONINI BOSHQARUVDA PEDAGOG-XODIMLARNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Muzffarov Dilshod Ahmat o‘g‘li,
Qiziltepo tumani 35 umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi,
Shokirova Zaynab Pozilovna,
Qiziltepo tumani 25 umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim jarayonida boshqaruv metodlaridan samarali foydalanishda psixologning ijodiy faoliyati va jihatlarga e’tibor berishning ta’lim jarayonidagi ahamiyati haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Metod, ijodiy muhit, muomala, qadr-qimmat, e’tibor, psixik jarayon, motiv, ijtimoiy psixologik, motivatsiya.

Аннотация. В данной статъе даётся характеристика психологических сторонах создания творческой среды и их влияние в управление педагогического коллектива обшеобразовательных школ

Ключевые слова: Метод, творческая среда, общение, ценность, внимание, психический процесс, мотив, социально - психологически, мотивация

Annotation. In this article is spoken about psychological quality in management pedagogical society in secondary schods and pay attention to these qualities in educational process.

Key words: Method, creative environment, motivation, psychological process, social- psychological, attention.

Umumta'lim maktab boshqaruvida mas'uliyatli va keng qamrovli vazifalarni amalga oshirish strategik ta'lim boshqarivini talab etadi. Chunki, samarali boshqaruv asosida ta'lim muassasasining nufuzi, salohiyati, bu ta'lim muassasida tahsil olayotgan yosh avlodning har sohada (fan bo'yicha bilimlar bellashuvi, sport, san'at va hokazo) erishgan yutuqlari asosiy o'rinni egallashi bilan bir qatorda bu yutuqlarning boshida turgan ta'lim muassasasi rahbari va pedagogik jamoaning ham qanday faoliyat olib borayotganliklari muhim ahamiyatga ega.

Umumta'lim maktablarida boshqaruv faoliyatini yuritayotgan rahbar avvalo keng pedagogik - psixologik bilimlarga ega bo'lishi, kompetentli, o'z-o'zini doimo nazorat qila oladigan, rahbarlik faoliyati jarayonida mavjud huquqiy-me'yoriy mezonlarga tayanadigan va bugungi kundagi innovatsion jarayonlarga asoslanadigan mutaxassis bo'lishi maqsadga muvofiq. Bu jarayonlar umumta'lim maktablarida faoliyat olib borayotgan pedagoglarning ijodiy faoliyati bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Innovatsion jarayonlarni ta'lim muassasasi pedagoglarining ijodiy faoliyatisiz va bunda psixologik yondashuvlarsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Buning uchun rahbar pedagogik jamoani boshqaruvida ijodiy muhit yaratishning psixologik jihatlarini bilishi va buni amalga oshirish uchun boshqaruv metodlaridan oqilona foydalana olish mahoratiga ham ega bo'lishi kerak.

Boshqaruv metodlaridan samarali foydalanish pedagogik jamoaning ijodiy faoliyatini kengaytirib ishchanlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

P.X.Djurayev, S.T.Turg'unov, N.Q.Ahmedovlarning "Ta'lim boshqaruvi" nomli o'quv qo'llanmmasida zamonaviy ijtimoiy - iqtisodiy shart-sharoitlarda umumiy o'rta ta'lim muassasalarini boshqarishda ko'p darajada mos keladigan metodlarning to'rtta asosiy guruhi ko'rsatib berilgan. Bular: Iqtisodiy, tashkiliy, ma'muriy, ijtimoiy psixologik va axborotlar to'plash metodlari hisoblanadi.

Boshqaruvda iqtisodiy metodning jamoada ijodiy muhit yaratishdagi bog'liqlik tomoni shundaki, bu metod orqali muassasaning iqtisodiy ko'rsatkichlarining yig'indisini tavsiflash bilan bir qatorda pedagoglarning zamonaviy talablar darajasida faoliyat ko'rsatishlari uchun sharoitlar yaratadi. Ya'ni, ta'lim muassasasi faoliyatini takomillashtirish va innovatsion jarayonlarni kuchaytirish, xodimlarning innovatsin faoliyatlarini tashkil etish, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining faolliklarini rivojlantirishda foydalaniladi.

Ikkinchi metod bu **tashkiliy-ma'muriy metoddir.** Bu metod orqali esa qarorlar, buyruqlar, farmoyishlar va ko'rsatmalar tayyorlash, ularni o'z vaqtida tegishli shaxslarga yetkazish va bajarilishini nazorat qilish orqali ta'sir ko'rsatish bilan birgalikda belgilangan maqsadlarga erishishda jamoada mavjud bo'lishi zarur bo'lgan o'zaro munosabatlar, aloqalar, tashkiliy barqarorlik, intizom, o'zaro mutanosiblik va kelishuvchanlik, tartiblilik hamda uzluksiz rivojlanishni huquqiy va me'yoriy hujjatlarga mos ravishda ta'minlashdan iborat. Jamoada jodiy muhit bo'lishi uchun esa o'zaro munosabatlar juda muhim.

Pedagogik jamoani boshqaruvidagi **ijtimoiy-psixologik metodlar** esa jamoada ijodiy muhit yaratishning asosi bo'ladi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, bu metod jamoa xodimlarining bemalol, erkin harakat qilishi, o'z-o'zini namoyon qilishi, tegishli

jarayonlarda erkin ishtirok etishi, fikr bildirishi uchun sharoit yaratib ijodiy faoliyatlarini o‘stiradi. Demak, sog‘lom muhitda sog‘lom fikr va sog‘lom dunyoqarash va e‘tiqod shakllanadi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib, pedagogik jamoani boshqaruvida ijodiy muhit yaratishning psixologik jihatlari bo‘yicha o‘z fikr va tavsiyalarimizni bayon qilamiz. Bular:

- moddiy va ma’naviy rag‘batdan o‘z o‘rnida foydalanish;
- pedagogik jamoa o‘rtasida musobaqalar, ko‘rik tanlovlar tashkil etish;
- boshqaruv muomalasining mexanizmlaridan samarali foydalana olish;
- pedagog xodimlarning faoliyat motivlarini kuchaytirish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, pedagogik jamoani boshqaruvida ijodiy muhit yaratishning psixologik jihatlariga e’tibor berish, boshqaruv metodlaridan oqilona va samarali foydalanish pedagogik jamoada ish unumini oshirib ijodiy faoliyatlarini kengaytirishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.S. Nemov. “Psixologiya”, Kniga 2. Moskva, Vlados, IMPE im. A.s. Griboyedova, 2001

2 Djurayev R.X., Turg‘unov S.T., Axmedova N.Q. Ta‘lim boshqaruvi (nazariya va amaliyot masalalari) . Toshkent - 2013

TA’LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKANING AHAMIYATI

Ergashev Beksulton Faxriddinovich,
Navoiy davlat universiteti talabasi

Аннотация: В данной диссертации мы видим, как подчеркивается роль педагогической диагностики в изучении интересов учащихся. Известно, что люди имеют разные характеры, поэтому для них естественно иметь недостатки в поведении, и роль педагогической диагностики в изучении этих недостатков неоценима.

Abstract: In this dissertation we see how the role of pedagogical diagnostics in studying the interests of students is emphasized. It is known that people have different characters, so it is natural for them to have shortcomings in behavior, and the role of pedagogical diagnostics in studying these shortcomings is invaluable.

Ключевые слова: Педагогическая диагностика, индивидуальное образование, личностный профиль учащегося, качество образования.

Keywords: Pedagogical diagnostics, individual education, student's personal profile, quality of education.

Bugungi murakkab globallashuv davrida O‘zbekistonda amalga oshirilyotgan barcha islohatlarning diqqat markazida shaxs turadi. O‘sib kelayotgan avlodni shakllantirish, uning tarbiyasini milliy qadriyatlarimizni e’tiborga olgan holda jahon andozalari darajasiga kutarishning faol shakli, metod va vositalarni tadqiq etish yangilanayotgan pedagogikani bugungi kundagi eng dolzarb muammolaridir. Pedagoglar hozirda o‘quvchilar bilan ishlashda turli xil muammolarga duch kelib turibdi ana shu muammolarni xal etishda ularga pedagogik diagnostika yordam beradi, pedagogik diagnostikada avvalo o‘quvchidagi kamchiliklarni aniqlaymiz kiyin uni xulq atvorini diagnostika qilamiz bunda bizga shkalalashtirish metodi yordam beradi bu metod o‘quvchi shaxsidagi u yoki bu fazilatni o‘lchaydi va aniqlaydi.

Pedagogik diagnostika, birinchidan individual ta'lim jarayonini qulaylashtiradi, ikkinchidan jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ta'lim tarbiya natijalarini to‘g‘ri aniqlashni ta'minlaydi va kafolatlaydi, uchinchidan esa o‘ziga xos ta'lim yo‘nalishi va mutaxasislikni oqilona tanlashga yordam beradi. Pedagogik diagnostika yordamida ta'lim tarbiya jarayoni tahlil qilinadi.

Diagnostik faoliyat aniq tamoyillar asosida amalga oshirilib, bunda mazkur faoliyat mazmuni, yo‘nalganligi, tarbiyaviy ta'sirni sifati kabi jihatlari nazarda tutiladi.Ta'lim-tarbiya jarayonida rejalashtirilgan natijaga erishish uchun o‘quvchilarning tarbiyalanganligi monitoringini olib borish imkonini beradi.

O‘qituvchining diagnostik faoliyati o‘quvchi yoshlarning ta'lim muassasasida o‘qigan barcha yillarida amalga oshirilib, bu jarayonda qo‘llaniladigan metodlarni tanlashda ularning yosh xususiyatlari, ma'lumot darajasi va etnik xususiyatlari, zarurligi va yetarliligi hisobga olinib tizimli va majmuaviy yondashish asosida tashkil etiladi. Diagnostik faoliyatning bunday tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarish – o‘quv va pedagogik hamkorlikning birligini hamda pedagogik amaliyotni axborot bilan ta'minlash imkonini beradi.

Pedagogik diagnostika vositasida o‘quvchi shaxsi fazilatlari yoki xodisalarning son va sifat ko‘rsatkichlari asosida tahlil qilish, xulosa va tavsiyalar berilib, shaxsning rivojlanish xaritasida qay etib borish kerak. O‘quvchilarning tarbiyalanganlik darajalarini o‘rganish uchun tarbiyalanganlik mezonlarini ishlab chiqish muhim sanaladi. Tarbiyalanganlik mezonlarini ishlab chiqishda ular o‘quvchiga xos bulgan yosh va shaxs xususiyatlari bilan belgilanishi hamda o‘qituvchilar va ularning ota-onalari uchun tushinarli bulishi kerak.

Ta'lim sifatini oshirishda diagnostik tadqiqot jarayonini to‘g‘ri tashkil etish uchun diagnostikani maqsad va vazifalarini belgilash, usullarni tanlash va ularning belgilangan talablar asosida qo‘llash, natijalarini tahlil qilish va tavsiyalar tayyorlash hamda diagnostika natijalari to‘g‘risidagi ma'lumotlar tegishliligi bo‘yicha belgilangan tarizda yetkazilishi kerak.

Ta'lim sifatini oshirishda ta'lim muassasasida pedagog tomonidan tashkil etiladigan diagnostik faoliyat 4 -bosqichda amalga oshirilishi ma'qul:

1. Pedagogik ta'sir ob'yektiga oid ma'lumotlarni jamlash.
2. Diagnostik metodlarini tanlash va o‘rganiladigan ob'yekt xulq-atvori va xislatlarini o‘rganish.
3. Olingan natijalar asosida o‘rganiladigan ob'yektning xislatlari uning xulq-atvorida namoyan bo‘lishini qiyosiy tahlil qilish:

a) shaxsning avvalgi xislatlari va xulq-atvoriga nisbatan;

b) boshqalarning xislatlari va xulq-atvoriga nisbatan;

c) bir kishining odatiy xulq-atvorini tavsiflovchi standart harakatlar tavsifiga nisbatan

4. Qiyosiy tahlil qilingandan so‘ng, diagnostika ob'yekti xislatlarini baholash asosida, o‘quvchi xulq-atvori va faoliyatidagi muammo sabablarini aniqlash va korreksion faoliyat o‘tkazish uchun zarur tavsiyalar berish kerak.

Inson shaxsi unga ta'sir qiluvchi ob'yektiv va sub'yektiv, tabiiy va ijtimoiy, ichki va tashqi, inson ongi va irodasiga bo‘g‘liq bo‘lgan va bo‘lmagan, maqsadga yo‘naltirilgan omillar ta'sirida shakllanadi. Bu jarayonda odam passiv mavjudot sifatida emas, balki o‘zining shakllanish va rivojlanish jarayonini faol sub'ekti sifatida ishtirok etadi. Shaxsning rivojlanish jarayonini maqsadli boshqarish uchun tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish talab etiladi. Ta'lim va tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil

etish uchun tarbiyaviy ta’sir ob’ektining yosh, individual, psixofiziologik va neyropedagogik xususiyatlari, uni o‘rab turgan ijtimoiy va tabiiy muhitning barcha imkoniyatlarini hisobga olib ijobiy xislat va ta’sirlar kuchaytiriladi, salbiy xislat va ta’sirlar esa tuzatiladi.

Hozirgi kunda o‘rta umumta’lim maktablarida alohida pedagogik psixologik yordamga muhtoj bo‘lgan o‘quvchilar, ularning ota-onalari va o‘qituvchilar tobora ko‘payib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri o‘quvchining shaxsi va xarakteridagi o‘ziga xosliklari bilan bo‘g‘liq bo‘lsa, ikkinchisi – ayrim hollarda o‘quvchidagi mana shu o‘ziga xosliklarni e’tibordan chetda qoldirishdir.

Ta’lim muassasalarida tarbiyaviy – korreksiyalash faoliyati, birinchidan, xulqi og‘ishgan o‘quvchilar normal rivojlanishlari uchun kompensator sifatlarni shakllantirishga, ikkinchidan, o‘quvchilarning shaxsiy faoliyat samaradorligini oshirishga yo‘naltiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gulyamov D.R., Nurboyev Q.M., Umarov S.B., Aminova F.X. Pedagogik diagnostika o‘quv qo‘llanma. -NDPI, 2020. 124 b.
2. Gulyamov J.R. Tarbiyaviy-korreksion faoliyatini tashkil etish jihatlari “Pedagogik ta’lim” J., 2013. 41-52-b.
3. Mavlonova R, To‘rayeva Q, Xoliqberdiyev K. Pedagogika / Darslik.Toshkent: O‘qituvchi, 2001.
4. Ziyomuhammadov B. Pedagogik mahorat asoslari.-T: Tiv kitobi, 2009.
5. Болъшая психологческая энциклопедия.-М., Эксмо,2007.

MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA EMOTSIONAL INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Sanaqulova Dilbar Savurxonovna,
Navbahor tumani 36-umumiy o‘rta ta’lim maktabi psixologi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktab yoshidagi bolalarda emotsional intellektni rivojlantirishning samarali usullari tahlil qilingan. Emotsional intellekt (EI) — bu o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish, ifoda etish va boshqalar his-tuyg‘ularini tushunish qobiliyatidir. Maqolada EI rivojlantirishning asosiy usullari sifatida his-tuyg‘ularni nomlash, rolli o‘yinlar, hikoyalar orqali o‘rgatish, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, ochiq muloqot va emotsiyalarni boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish keltirilgan. Shuningdek, ota-ona va o‘qituvchilarning namunaviy roli va EI rivojlanishidagi o‘rni ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: emotsional intellekt, maktab yoshidagi bolalar, his-tuyg‘ularni anglash, empatiya, ijtimoiy ko‘nikmalar

Аннотация: В данной статье анализируются эффективные методы развития эмоционального интеллекта у школьников. Эмоциональный интеллект (ЭИ) — это способность осознавать, контролировать и выражать свои эмоции, а также понимать эмоции других. Рассматриваются основные методы развития ЭИ, такие как наименование эмоций, ролевые игры, обучение через рассказы, развитие социальных навыков, открытое общение и управление эмоциями. Также подчеркивается роль родителей и учителей как примера для подражания в процессе развития ЭИ.

Ключевые слова: Эмоциональный интеллект, школьники, осознание эмоций, эмпатия, социальные навыки, роль родителей и учителей.

Abstract: This article analyzes effective methods for developing emotional intelligence (EI) in school-age children. EI refers to the ability to recognize, manage, and express one's own emotions, as well as understand the emotions of others. The article discusses key methods for enhancing EI, including emotion labeling, role-playing, storytelling, social skills development, open communication, and emotional regulation. It also emphasizes the role of parents and teachers as role models in the EI development process.

Keywords: Emotional intelligence, school-age children, emotion recognition, empathy, social skills, role of parents and teachers.

Kirish

Zamonaviy ta’limda faqat aqliy rivojlanish emas, balki emotsional va ijtimoiy jihatdan rivojlangan shaxsni shakllantirish ham dolzarb masala bo‘lib bormoqda. Emotsional intellekt bolalarning o‘zini tutishi, ijtimoiy muhitga moslashuvi, sinfdoshlar bilan muomala qilishidagi muvaffaqiyatning asosiy omillaridan biridir.

Daniel Goleman (1995) ta’kidlaganidek, emotsional intellekt hayotiy muvaffaqiyat uchun IQ dan ko‘ra ko‘proq ahamiyatli bo‘lishi mumkin. Shu bois maktab yoshida EI ni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur.

Asosiy qism

1. Emotsional intellekt tushunchasi

Emotsional intellekt — bu insonning o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish, motivatsiya qilish, empatiya ko‘rsatish va ijtimoiy ko‘nikmalar asosida samarali muloqotga kirisha olish qobiliyatidir.

2. Maktab yoshida emotsional intellektning ahamiyati

Bu davrda bolalar o‘z his-tuyg‘ularini anglashni, ularni boshqarishni, boshqalarning his-tuyg‘ulariga nisbatan munosabat bildirishni o‘rganadilar. Bu esa:

- Ijtimoiy munosabatlarni yaxshilaydi;
- Davomat va o‘zlashtirishga ijobiy ta’sir qiladi;
- Agressiya va nizolarni kamaytiradi.

3. Emotsional intellektni rivojlantirish usullari

a) His-tuyg‘ularni anglash va nomlashni o‘rgatish

Bolalarga his-tuyg‘ularni tanituvchi kartochkalar, rasmlar va ko‘zgudek o‘yinlar orqali o‘z hislarini ifoda etishga yordam beriladi.

b) Rolli o‘yinlar va dramalashtirish

O‘quvchilarning empatiya va ijtimoiy o‘zaro ta’sir ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

c) Ertaklar va hikoyalar asosida tahlil

Adabiy matnlardagi qahramonlar holatini tahlil qilib, bolalar o‘z hislarini boshqa holatlar bilan qiyoslay oladi.

d) Muloqot va ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rgatish

- “Men xabarlaridan” foydalanish (Masalan: “Sen meni xafa qilding” o‘rniga “Men xafa bo‘ldim”);
- Jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish.

e) Ota-onalar va o‘qituvchilarning namunasi

Katta yoshdagilar bolalarga o‘z emotsiyalarini qanday boshqarishni o‘rgatishda asosiy rol o‘ynaydi.

Xulosa

Maktab yoshidagi bolalarda emotsional intellektni rivojlantirish — ularning ijtimoiy va psixologik barqarorligini mustahkamlashning muhim bosqichidir. Emotsional intellektga ega bola o‘z his-tuyg‘ularini anglaydi, boshqalarni tushunadi va to‘g‘ri

munosabatda bo‘la oladi. Ushbu qobiliyatlar esa bolalarning hayotdagi muvaffaqiyatiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Goleman, D. *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ*. Bantam Books. 1995-y
2. Xayitova, Z. *Kichik maktab yosh davrida emotsional intellektni rivojlantirishning psixologik jihatlari*. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, (I). 2023-y
3. Xudoyberdiyeva, Z. *Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari o‘quvchilarida emotsional intellekt namoyon bo‘lishining psixologik xususiyatlari*. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2025-y.
4. Sherqo‘ziyeva, Z. F. (n.d.). *Maktab o‘quvchilarida emotsional intellektni rivojlantirish*. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi.

O‘QUVCHILARDA STRESS VA XAVOTIRNI KAMAYTIRISH YO‘LLARI

Sanaqulova Dilbar Savurxonovna,
Navbahor tumani 36-umumiy o‘rta ta’lim maktabi psixologi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘quvchilarda uchraydigan stress va xavotir holatlari sabablari, ularning o‘qishdagi, ruhiy holatdagi va ijtimoiy hayotdagi salbiy oqibatlari hamda ularni kamaytirish bo‘yicha psixologik va pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Stress va xavotir bolalarning rivojlanishiga, o‘qishdagi motivatsiyasiga va munosabatlariga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Shuning uchun ushbu maqolada maktab muhitida o‘quvchilar ruhiyatini qo‘llab-quvvatlash, xavotirni boshqarish texnikalari, ota-ona va o‘qituvchilarning roli hamda amaliy mashqlar tavsiya qilinadi.

Kalit so‘zlar. stress, xavotir, maktab o‘quvchilari, psixologik qo‘llab-quvvatlash, emotsional barqarorlik, nafas mashqlari, empatiya, psixoprofilaktika**.**

Аннотация: В статье рассматриваются причины возникновения стресса и тревожности у школьников, их влияние на учебную деятельность и психологическое состояние, а также предлагаются методы снижения этих состояний в образовательной среде.

Ключевые слова: стресс, тревожность, школьники, психологическая поддержка, эмоциональная устойчивость, дыхательные упражнения.

Abstract: This article explores the causes of stress and anxiety in students, their negative impact on learning and psychological well-being, and provides practical strategies for reducing these conditions in school settings.

Keywords: stress, anxiety, students, psychological support, emotional stability, breathing exercises.

Kirish

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning aqliy, emotsional va ijtimoiy farovonligini ta’minlash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda o‘quvchilar orasida stress va xavotirning ortib borishi kuzatilmoqda. Bu holatlar o‘quvchilarning motivatsiyasi, diqqat-e’tibori va o‘zlashtirishiga bevosita ta’sir qiladi.

Stress — bu organizmning tashqi bosimga (imtihoonlar, baholar, oilaviy muammolar) javobidir. Xavotir esa ko‘pincha asossiz yoki haddan ziyod ortiqcha tashvishlanish holatidir. Ular alohida hollarda foydali bo‘lishi mumkin, biroq doimiy bo‘lsa — salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Asosiy qism

1. Stress va xavotir sabablari

- Baholash va imtihon bosimi
- O‘qituvchi va ota-onalar kutgan natijalarga javob bermaslik qo‘rquvi
- Ijtimoiy bosim va do‘stlar bilan nizolar
- Uy muhitidagi nizolar va qo‘llab-quvvatlash yetishmasligi

2. Stress va xavotirning belgilar

- Tez-tez charchash, uyqu buzilishi
- E’tiborning pasayishi
- Jismoniy og‘riqlar (bosh og‘rig‘i, qorindagi noqulaylik)
- O‘qishga qiziqishning yo‘qolishi
- Jahl, yig‘loqilik yoki o‘zini yakkalash

3. Kamaytirish usullari

a) Psixologik yondashuvlar

- O‘quvchilar bilan individual suhbatlar
- Guruhli psixokorrektsion mashg‘ulotlar
- “Xavotir jurnali” — o‘quvchi o‘z tashvishlarini yozib boradi

b) Nafas olish va dam olish mashqlari

- "4-7-8" texnikasi: 4 soniya nafas olish, 7 soniya ushlab turish, 8 soniya chiqarish
- Vizualizatsiya: O‘quvchi o‘zini tinch, xavfsiz joyda tasavvur qiladi

c) Ijobiy muhit yaratish

- Baholashdagi yumshoqlik
- O‘quvchining yutuqlarini e’tirof etish
- Empatik muloqot (tinglash, tushunishga harakat qilish)

d) Ota-ona va o‘qituvchi hamkorligi

- O‘quvchini tanqid qilishdan ko‘ra, konstruktiv fikr berish
- Uyda sokin, qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish
- O‘qituvchilarni emotsional salomatlikni boshqarish bo‘yicha tayyorlash

Xulosa

O‘quvchilarda stress va xavotirning oldini olish va kamaytirish ta’lim muassasalari, oila va psixologlar o‘rtasidagi hamkorlikni talab qiladi. Sabr-toqatli, ishonchli va qo‘llab-quvvatlovchi muhit o‘quvchilar ruhiy holatini yaxshilashga, o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Nafas olish mashqlari, psixoprofilaktika va emotsional qo‘llab-quvvatlash — eng samarali yondashuvlar sirasiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Goleman, D. *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ*. Bantam Books. 1995-y

2. Xamidova, M. *Maktab o‘quvchilarida stressni kamaytirish usullari*. Toshkent: Fan nashriyoti. – 134 b. 2022-y

3. Islomova, G. *Psixologik xavfsizlik muhitini yaratishning zamonaviy usullari*. Ta’lim va Innovatsiyalar jurnali, №4. 2023-y

4. Yusufova, Z. *Maktab psixologiyasida profilaktik ishlar tizimi*. Samarqand: Zarafshon Press. – 156 b. 2024-y

MAKTAB O‘QUVCHILARINING KASB TANLASHIGA KO‘MAKLASHISH VA O‘QUVCHILARNING SALOMATLIGIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

To‘xtayeva Sora Karimovna,
Qiziltepa tumani 10-umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab o‘quvchilarining salomatligi va kasb tanlashga qo‘yiladigan talablar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Salomatlik, kasb tanlash, psixologiya, maktab.

Mustaqillikka erishganimizdan boshlab, jamiyat har tomonlama o‘zgarib bormoqda. Bu o‘zgarishlar kishilardan hayotda o‘z oldilaridagi maqsadlarga erishishlari uchun yangicha bilim, ko‘nikma va mahorat talab qilmoqda.

Salomatlik-kishilar turmush darajasi, yashash tarzi va sifatining ko‘rsatkichidir va shu jihatdan inson salohiyatini rivojlantirish maqsadlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Har bir fuqoroning salomatligi singari jamiyatning salomatligi ham davlatning strategik maqsadi, milliy xavfsizligining garovi sanaladi.

Bolaning o‘ynash va bilish faoliyati, o‘smirning ijtimoiy foydali va kasb faoliyatini yo‘qotishiga kabi qarash kerak. Bolalar va o‘smirlar salomatligini tavsiflash uchun shifokor o‘sayotgan organizmning ham biologik, ham ijtimoiy funksiyalarini aks ettiruvchi keng doiradagi ko‘rsatkichlarga ega bo‘lishi lozim.

O‘smir va bolalar salomatligini baholash uchun kamida to‘rt mezondan foydalanish zarur:

1) Tekshirish paytida surunkali kasalliklarning borligi yoki yo‘qligi;
2) Ayni paytdagi asab tizimining holati, jismoniy va ruhiy jihatdan rivojlanish darajasi va ularning uyg‘unligi;
3) Organizm asosiy tizimlarining faoliyat ko‘rsatkich darajasi;
4) Organizmning nobop ta’sirlarga qarshilik ko‘rsatish darajasi.

Mazkur salomatlik mezonlari barcha tomonidan tan olingan va davolash, oldini olish (profilaktika) muassasalarining amaliy faoliyatida keng qo‘llaniladi.

Yuqorida keltirilgan sxemada muvofiq, bolalar va o‘smirlar salomatlik ko‘rsatkichlari shartli ravishda besh guruxga ajratiladi.

Birinchi guruxga surunkali kasalliklari bo‘lmagan, kuzatish paytida kasal bo‘lmagan yoki kam kasal bo‘lgan, jismoniy va ruhan me’yorlarida, yoshiga mos rivojlangan shaxslar (benuqson salomatlik).

Ikkinchi guruxga surunkali kasalliklari bo‘lmagan, biroq ba’zi organlar faoliyati va tana tuzilishi bilan bo‘g‘liq nuqsonlarga ega bo‘lgan, shuningdek, tez-tez (yiliga 4 marta) va uzoq (1 kasal bilan 25 kundan ko‘proq) xastaliklar bilan og‘riydigan (faoliyati va tuzilishi bilan bog‘liq nuqsonlari bor va organizmning qarshiligi past) shaxslar kiradi.

Uchunchi guruxga surunkali kasalliklar bo‘lgan yoki kompensatsiya holatidagi (organizmda buzilgan muvozanatning birmuncha tiklanishi) tug‘ma nuqsonli, umumiy ahvoli va o‘zini his qilishda sezilarli buzilishlar ko‘zga tashlamaydigan, ahyon-ahyonda, lekin og‘ir xurujlar bilan kechuvchi surunkali kasallikllari qo‘zib turadigan shaxslar (kompensatsiya holatida bemorlar).

To‘rtinchi guruxgasurunkali kasalliklari va rivojlanishida tug‘ma qusurlari bo‘lgan shaxslar kiradi. Bunday bemorlar kasallik hurujidan keyin umumiy ahvoli va o‘zini his qilishda buzilishlar ro‘y beruvchi subkompensatsiya holatidagi bemorlar).

Beshinchi guruxga og‘ir surunkali kasalliklari bo‘lgan dekompensatsiya holatidagi bemorlar kiradi. Bunday holatda organizmning faoliyat yuritish imkoniyatlari sezilarli

darajada pasaygan bo‘ladi (dekompensatsiya holatidagi bemorlar). Odatda, bunday kasallar bolalar va o‘smirlar muassasalariga bormaydilar va ommaviy ko‘rikdan o‘tkazilmaydilar.

Shunday qilib, mamlakatimizda bolalar va o‘smirlarga tibbiy yordam dispanserizatsiya usuli olib boriladi, bunda salomatlikning umumiy holatiga baho beriladi va kelgusida farqlangan davolash, oldini olish (profilaktika) ishlari olib borish uchun shaxslar guruxlarga taqsimlanadi.

O‘rta va maxsus o‘quv yurtlariga kirayotgan barcha o‘smirlar, majburiy ravishda atroflicha tibbiy ko‘rikdan o‘tadilar va tanlagan kasbi bo‘yicha ta’lim olishga yaroqlililigi to‘g‘risida xulosa oladilar.

Kasbga yo‘naltirishning asosiy tamoyili kasb-hunar tanlash uchun erkinlik sharoitining yaratilishidan iboratdir.

Kasbga yo‘naltirishda turli soha vakillari; shifokorlar, fiziologlar, pedagoglar, ruxshunoslar, gigiyenistlar, iqtisodchilar qatnashadi. Ushbu muammoning tibbiy-biologik tomonini shifokorlar hal qiladi, ular kasbiy yo‘naltirish tizimida malakali maslahatlar beradilar.

Binobarin, xodimlarni kasb jihatdan to‘g‘ri tanlash faqat ishlab chiqarish unumdorligining oshirilishiga emas, kadrlarning to‘g‘ri taqsimlanishiga ham yordam beradi.

Biroq kasb va ixtisosliklar orasida mazkur shaxsga sog‘ligi yoki salomatlik turlariga mansubligi jihatdan to‘g‘ri kelmaydiganlari uchrashi mumkin. Ayni paytda, o‘smirlar kasb tanlashda ko‘pincha faqat o‘zlarining xohish-istaklariga bo‘ysinadilar, ularni salomatligining holati va organizmining funksional imkoniyatlari bilan solishtirib ko‘rmaydilar.

Salomatlikning holati kasb tanlashda ko‘p jihatdan muhim belgilovchi omil sanaladi. Bu haqiqatni inkor qilib bo‘lmaydi, zero organizm imkoniyatlarini hisobga olmasdan kasb manfaatlarini shakillantirish kelgusida mavjud kasalliklarni kuchayishiga olib keladi, nogironlik uchun zamin yaratadi.

Maktab o‘quvchilari aholining boshqa qatlamlariga qaraganda kasb tanlashda tibbiy xodimlar ko‘magiga eng ko‘p muhtojlar, chunki ular o‘z kuch va imkoniyatlariga ortiqcha baho berishga moyillar; turli kasblar organizmga qo‘yiladigan talablar bilan tanish emaslar. Bu yordamni ularga maktab pediatrlari, bolalar shifoxonalarining turli soha shifokorlari va kattalar shifoxonalarining o‘smirlar bo‘yicha mutaxassislari ko‘rsatishlari kerak.

Shifokorning vazifasi shundan iboratki, u boshqa mutaxassislar bilan birgalikda maktab o‘quvchilarida organizmning salomatligi holati kasbga to‘g‘ri yo‘llashdan iborat.

Kasbga sanitariya nuqtai nazardan berilgan tavsif shifokorga o‘smir organizmiga mehnat jarayonining ishlab chiqarish hamda uning sharoiti va turi ta’sirini tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

I.P.Pavlov asab jarayonlarining ikki-kuchli va zaif turini aniqlagan. Bir vaqtlar asab jarayonlarining kuchli turiga kiruvchilar ikkinchi guruhga kiruvchilarga nisbatan kasb jihatdan ancha yetukroq sanalar edi. Hozirga qarashlarga ko‘ra, bunday nuqtai nazar to‘g‘ri emas. Ma’lum bo‘lishicha, asab tizimining chidamsizligi analizatorlarining (sezgi organlarining) yuqori darajadagi ta’sirchanligi xislati bilan muvozanatga solinar ekan. Bu mazkur turga kiruvchi kishilarga organizmning sezgi organlari tizimlariga kuchli talab qo‘yiladigan ba’zi kasblarni egallashlarida katta afzalliklar yaratadi.

Masalan, mayda qismlarni yig‘ish kasbida mushak-bo‘g‘in tuzilishi, ko‘z bilan chamalashga qo‘yiladigan talablar kuchli. Bunday ishlarni sezgi organlari yuqori darajada kuchli bo‘lgan shaxslar bajara oladi.

Biroq o‘zgacha tabiiy qobilyatlarini talab qiluvchi kasblar ham mavjud. Masalan, kuchli asab turiga mansub kishilar soatlab boshqaruv pulti oldida o‘tirishi, uzoq davom etadigan va serbosim ishni bajarishi va bunda favqulodda choralar ko‘rishga tayyor bo‘lishi lozim.

Kuchsiz asab tizimi turiga kiruvchi aeroport dispetcheri yoki quvvat tizimi yoxud elektrostansiya uzatuvchisi yuqori malakali va boshqa fazilatlariga qaramasdan, falokat yuz bergan holatlarda muvaffaqli faoliyat yuritishga qodir emas. Shu tariqa, kasbiy maslahatning vazifasi yoshlarga salomatligiga to‘gri keladigan biror kasbni tavsiya qilishdan iborat. Shifokorning kasbga yaroqliligi haqidagi xulosasi o‘smir organizmining salomatligi holati va jismoniy imkoniyatlari, kasalligi va ijtimoiy turmushini tekshirish ma’lumotlari asosida chiqariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Abdusamedov. Mustahkam oila ma’naviyati. Toshkent – 2011.
2. D.I.Ahmedova, G.U.Solihova. Sog‘lom avlod asoslari. Toshkent-2007

O‘SMIRLARDA “MEN” TIMSOLINI KORREKTSIYA QILISH IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Raimshukurova .M.Z.,
Navbahor tumani 2-umumiy o‘rta ta’lim maktabi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Ideal Men”, “Axloqiy Men” va “Haqiqiy Men” singari shaxsga oid tizimning psixologiya fanidagi talqini, dezadaptatsiyalashgan o‘smirlardagi “men timsoli”, bolaning o‘smirga aylanishi va ular bilan olib boriladigan muomala-ma’daniyati, o‘z-o‘zini anglash va «men-kontseptsiya»ning rivojlanishi, motivatsion ziddiyatlarning paydo bo‘lishi va ularni oldini olish kabi mavzular yoritilgan.

Аннотация: В данной статье речь идет о психологической интерпретации таких систем личности, как «Идеальное Я», «Нравственное Я» и «Настоящее Я», «Я есмь образ» дезадаптивных подростков, развитии ребенка в подростка и культуре работы с ними., развитие самосознания и «Я-концепции», возникновение мотивационных конфликтов и их профилактика.

Abstract: This article deals with the psychological interpretation of personality systems such as "Ideal Self", "Moral Self" and "Real Self", "I am the image" of maladaptive adolescents, the development of the child into a teenager and the culture of dealing with them. , the development of self-awareness and ‘self-concept’, the emergence of motivational conflicts and their prevention.

Kalit so‘zlar: *Dezadaptatsiya ,“men timsoli” o‘z-o‘zini anglash, motivatsiya, individuallik, refleksiya “Men”, korreksiya.*

Mavzuning dolzarbligi: Ilmiy tushuncha sifatida yoshlarni psixologik jihatdan to‘g‘ri tarbiyalash muammosi ham ilmiy psixologiyaning yetakchi yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘p bor munozaralar manbai bo‘lgan. Qolaversa, mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan “Ta`lim to‘g‘risida”gi Qonun ham o‘sib kelayotgan yosh, bunyodkor avlodni nafaqat bugungi, balki ertangi taraqqiyot talablariga to‘liq javob bera oluvchi shaxs sifatida shakllantirish uchun tegishli ijtimoiy psixologik tadqiqotlar olib borilishiga yanada jiddiyroq e`tibor qaratishni taqozo etadi. Aks holda bu narsa noxush oqibatlarga, ba`zan esa og‘ir fojialarga, hatto ijtimoiy larzalarga ham sabab bo‘ladi. Yosh

yigit-qizlarimizning ishda, turmushda, oila va jamoa orasida o‘z o‘rnini topolmaslik holatlari ularning jamiyatda o‘z qadrini yo‘qotishga olib keladi. O‘z qadriga, o‘z sha`niga ega bo‘lmagan inson hayotda ko‘p-ko‘p to‘siqlarga duchor bo‘ladi, beqaror va salbiy ta'sirlarga beriladi, uning shaxs sifatidagi emirilishi ham tez kechadi".

Ma'lumki, bugungi kungacha juda ko‘plab ilg‘or ijtimoiy psixologiya vakillari tomonidan dezadaptatsiyalashgan o‘smirlarda «Men» timsolini korrektsiya qilish muammosini o‘rganishga bag‘ishlangan talaygina tadqiqotlar mavjud. Jumladan, xorij psixologlari tomonidan (J.Marten, M.Doych, G.Kelli va h.k.) talabalarga turli xil individual imkoniyatlarning ro‘yobga chiqarish majmuasi sifatida qaralib bir qator ilmiy tadqiqotlarning natijalari e`lon qilingan bo‘lsa, rus olimlari tomonidan esa (G.M.Andreeva, YA.L.Kolominskiy, B.F.Lomov, R.S.Nemov, va boshq.) talabalarning muayyan jamoa sifatidagi shakllanishi va rivojlanishi hamda dezadaptatsiyalashgan o‘smirlarda «Men» timsolini korrektsiya qilish bilan bog‘liq keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ayni paytda o‘zbek olimlari tomonidan ham (E.G‘.G‘oziev, M.G.Davletshin, B.R.Qodirov, SH.R.Barotov, V.M.Karimova, Z.G.Nishonova, R.I.Sunnatova va h.k.) har bir shaxsdagi umumiy ijtimoiy va etnopsixologik jihatlarni milliy muhit sharoitidagi keng ko‘lamli imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarning mavjudligi bugungi ijtimoiy psixologiya fani istiqbollarini belgilashda muhim o‘rin egallab borayotganligini alohida qayd etish mumkin. Shuningdek, maxsus o‘tkazilgan tadqiqotlar borki, unda dezadaptatsiyalashgan o‘smirlarda "Men" timsolini korrektsiya qilishning u yoki bu jihati chuqur va har tomonlama o‘rganilgan.

O‘smirlik yoshi dunyoqarash, e'tiqod, prinsip, o‘zligini anglash, baholash kabi shaxs xususiyatlari shakllanadigan davr hisoblanadi. O‘smir ulg‘aygan sari unda "Ideal Men", " Axloqiy Men" va "Haqiqiy Men" singari shaxsga oid tizim, dunyoqarash, e'tiqod va boshqalar shakllana boradi, undagi o‘zi to‘g‘risidagi tasavvurlar ancha aniq va barqaror bo‘lib qoladi.

O‘smir yoshdagi bolani birinchi galdagi intilishi, u o‘zini endi kichkina bola emas, balki katta bo‘lib qolganligini atrofdagilarga ishontirishdan iboratdir. Mustaqil ishlar qilishga uringan o‘smir shunday qilishga xaqqi borligiga o‘zini-o‘zi ishontiradi, chunki men endi "katta bo‘lib qoldim" deb o‘ylaydi. Shuning uchun xam psixologlar "katta bo‘lib qolganlik tuyg‘usi"ni shaxsning o‘smirlik yoshidagi eng asosiy yangilik sifatida talqin qiladilar.

O‘z-o‘zini anglash, o‘zidagi mavjud sifatlarni baholash jarayoni ko‘pincha konkret shaxs tomonidan og‘ir kechadi, ya`ni, inson tabiati shundayki, u o‘zidagi o‘sha jamiyat normalariga to‘g‘ri kelmaydigan, nomaqul sifatlarni anglamaslikka, ularni "yashirishga" harakat qiladi, hattoki, bunday tasavvur va bilimlar ongsizlik sohasiga siqib chiqariladi (bu fikr avstriyalik olim Z.Freyd nazariyasiga ham mos keladi). Bu ataylab qilinadigan ish bo‘lmay, u har bir shaxsdagi o‘z shaxsiyatini o‘ziga xos himoya qilish mexanizmidir. Bunday himoya mexanizmi shaxsni ko‘pincha turli xil yomon asoratlardan, salbiy, o‘zi uchun yoqimsiz hissiy kechinmalardan asraydi. Lekin shuni alohida ta`kidlash lozimki, "Men" – obrazining ijobiy yoki salbiyligida yana o‘sha shaxsni o‘rab to‘rgan tashqi muhit, o‘zgalar va ularning munosabati katta rol o‘ynaydi. Odam o‘zgalarga qarab, go‘yoki oynada o‘zini ko‘rganday tasavvur qiladi. Bu jarayon psixologiyada refleksiya deb ataladi. Uning mohiyati – aynan o‘ziga o‘xshash odamlar obrazi orqali o‘zi to‘g‘risidagi obrazni shakllantirish, jonlantirishdir.

O‘smirlar xulqini korrektsiya qilish bo‘yicha pedagoglar oldida qo‘yilgan vazifalarning bajarilishi o‘qituvchidan muayyan darajadagi psixologik bilimlarga ega

bo‘lishni talab etadi. Biroq o‘smir – psixokorrektsion jarayonning yagona ishtirok-chisi emas. O‘smirga psixologik hamrohlik qilish tizimli xarakterga ega bo‘lib, o‘smir shaxsi ichidagi har qanday tuzilmalar, maktab modelining har qanday bo‘limlari, oila ichidagi o‘zgarishlar bir-biriga ta`sir ko‘rsatadi, birining o‘zgarishi boshqalarining o‘zgarishiga olib keladi.

O‘smirlardagi “men timsoli” korrektsiyasi bo‘yicha pedagogning kasbiy faoliyatini rivojlantirishga daxldor psixologik vositalarini o‘rganishni taqozo etadi. Bunda, pedagoglarning o‘smirlardagi “men timsoli”ni korrektsiya qilish borasidagi kasbiy faoliyati modelining mazmuniy bosqichini ifodalash uchun zarur bo‘lgan quyidagi uslubiy yo‘nalishlarning hisobga olinishi ko‘zda tutilgan:

- tanlangan sohada xatti-harakatlar muvaffaqiyatini ta`minlovchi o‘qituvchi shaxsining individual-tipik imkoniyatlari;
- o‘qituvchi kasbiy faoliyatida o‘quvchining roli va o‘rnini adekvat aks ettirishga olib keluvchi muayyan qadriyatlar yo‘nalishi va ustanovkalar;
- ajratilgan muammo va vazifalarni psixologik talablar asosida hal qilish yo‘llari;
- o‘qituvchi o‘z kasbiy faoliyatida qo‘llaydigan nazariy va amaliy bilimlar;
- Istalgan natijalarga erishishga yordam beradigan pedagogik-psixologik ko‘nikma va malakalar;
- O‘smirlarning individual-psixologik xususiyatlari va ularning o‘qituvchi haqidagi tasavvurlari

Tadqiqotda qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun biz bosqichlarga birlashtirilgan eksperimental tadqiqot metodlari (metodika)lardan foydalandik. Pedagogning dezadaptatsiyalashgan o‘smirlardagi “men timsolini” korrektsiya qilish borasidagi kasbiy faoliyati samaradorligi pedagogning kasbiy va shaxslilik nuqtai nazardan o‘zini o‘zi baholashi, uning kasbiy motivatsiyasi xususiyatlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq. Mazkur bosqichdagi metodikalar qo‘yilgan muammolarni tadqiq etish o‘qituvchi psixologik kompetentligi o‘quvchilarning individual-psixologik xususiyatlariga adekvat baho bera olish malakalarining shakllanganligi bilan ham bevosita bog‘liqdir.

Yuqoridagilarga asoslanib xulosa sifatida aytish mumkinki, barcha dezadaptatsiyalashgan o‘smirlarda refleksiv faoliyatning etarlicha rivojlan-maganligi yaqqol sezilib turadi. Zero, bugungi o‘smirdan shaxslilik xususiyatlari, muvaffaqiyatli muloqot, umuminsoniy sifatlar va tashqi ko‘rinish hisobiga o‘zini qabul qilish darajasining ortishi talab qilinadi. Bundan tashqari “Men timsoli” korrektsiyasi texnologiyasi va dezadaptatsiyalashgan o‘smirlardagi deviant xulq-atvorni boshqarish tizimi ta`lim sub`ektlari muvaffaqiyatiga psixologik-pedagogik hamrohlik qilishni ko‘zda tutadi. Bu jarayonda esa har bir pedagogning psixologik kompetentligi darajalarini aniqlash bilan bog‘liq holatlar chuqur o‘rganilishi va tahlil qilinishini lozim, deb o‘ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: “O‘zbekistan” NMIU, 2016.
2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: “O‘zbekistan” NMIU, 2017.
3. Mamatov M.M. Etnopsixologiyadan ma`ruzalar matni. ToshDU. “Universitet” nashriyoti, Toshkent. - 2001.
4. Umumiy psixologiya. A.V.Petrovskiy tahriri ostida 3-qayta ishlangan va to‘ldirilgan ruscha nashr tarjimasi. - Toshkent.: O‘qituvchi.2012

MAKTAB O‘QUVCHILARINI KASB TANLASHGA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK BILIM, KO‘NIKMA, MALAKALARNI, JAMIYATNING TA’SIRI ORQALI TAYYORLASH

Inoyatova I.R.,
Navbahor tumani 2-umumiy o‘rta ta’lim maktabi psixologi

Annotatsiya: O‘sib kelayotgan yosh avlodni kasbga yo‘naltirish hamisha davlatimiz, siyosatimiz oldida turgan ustivor masalalardan sanalib kelingan. Mazkur jarayonni amalga oshirish uchun farzandlarimiznung ota-onalari hamda ta’lim muassasalarining o‘rni va u yerda faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilar hamda amaliyotchi psixologlarining faoliyati katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada o‘quvchilarni kasbga to‘g‘ri yo‘naltirishdagi mavjud muammolar, amaliyotdagi kamchiliklar ularni bartaraf etish yo‘llari haqida qisqacha fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. To‘g‘ri kasb tanlash, ijtimoiylashtirish, o‘z-o‘zini baholash, texnologik ta’lim, uzluksiz tizim, hamkorlik, fanlararo aloqadorlik.

Аннотация: Ориентация молодого поколения на профессию всегда была одним из приоритетов нашего государства и политики. Роль наших детей родителей и учебных заведений, а также работа учителей и практикующих психологов, очень важна для реализации этого процесса. В этой статье дается краткий обзор текущих проблем, связанных с направлением студентов на правильную профессию, недостатков практики и путей их преодоления. Ключевые слова: Выбор правильной профессии, социализация, самооценка, технологическое образование, непрерывная система, сотрудничество, междисциплинарная связь.

Abstract: Orientation of the young generation to the profession has always been one of the priorities of our state and politics. The role of our children, parents and educational institutions, as well as the work of teachers and practicing psychologists, is very important for the implementation of this process. This article gives a brief overview of the current problems associated with the direction of students in the right profession, the shortcomings of practice and ways to overcome them. Key words: Choosing the right profession, socialization, self-esteem, technological education, continuous system, cooperation, interdisciplinary communication.

Joriy yil Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Farg‘onaga tashrifi chog‘ida Xalq ta’limi vazirligiga alohida ko‘rsatmalar berdi. Prezident yoshlarni ish bilan ta’minlash, ularni kasb-hunarga yo‘naltirish masalalariga alohida to‘xtalib o‘tib, yangi o‘quv yilidan 7 sinfdan boshlab o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish lozimligini ta’kidladilar. Prezidentimizning ko‘rsatmalariga binoan 2020- 2021 o‘quv yilidan 7 sinfdan boshlab o‘quvchilar kasb-hunarga yo‘naltirilib, ular aynan qanday kasb egasi bo‘lishi aniqlanadi. 8, 9, 10 sinfga qadar ular o‘zlari tanlangan kasb-hunar bo‘yicha o‘qitilib boriladi. 10 sinfda ularga ishlash huquqini beruvchi guvohnomalar beriladi. 11 sinfda esa o‘quvchilar bir vaqtning o‘zida korxona va tashkilotlarda rasmiy tarzda ishlab oylik maosh olishlari ham mumkin bo‘ladi. 11 sinf bitiruvchilarining ish bilan ta’minlanishiga hokimlar va hududiy sektor rahbarlari javobgar hisoblanadi

Yoshlarni ish bilan ta’minlash, kasbga yo‘naltirish davlatimiz siyosatining ustivor vazifalaridan biri bo‘lib turibdi. Bu borada maktab bitiruvchilarini kasbga yo‘naltirish, iqtidoridan kelib chiqib to‘g‘ri kasb tanlashi katta ahamiyatga ega. Ma’lumki, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligi, fuqarolarining aqliy va axloqiy salohiyatini yuksak darajada rivojlanganligiga bog‘liq. Zero, jamiyatimizning ma’naviy yangilanishida, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishda

jahon hamjamiyatiga qo‘shilishini ta’minlaydigan demokratik xuquqiy davlat qurish kadrlar tayyorlashning ustuvor mezon sifatida muhim rol o‘ynaydi. Inson bolasi kamolga yetgani sari ilmga, ma’rifatga talpinadi. Dastlabki saboqni ham u maktabdan oladi. Ammo kelajagimiz egalari bo‘lgan yoshlarga ta’lim berish ularni o‘qitish bilan bog‘liq ayrim muammolar bugungi kunda kishini o‘ylantirib qo‘yayotgani tabiiy. Chunki zamonaviy shiddatkor jamiyat esa yetuk bilimdon mutaxasis kadrlarga muxtoj bo‘lib boraveradi

Kasbiy shakllanish jarayonining dastlabki va ayni damda o‘ta muhim bosqichi bo‘lajak kasbni tanlash, ya’ni aniq bir kasbiy qarorga kelishigacha bo‘lgan davrni o‘zichiga oladi. Ravshanki, yoshlarning kasb tanlashga tayyorgarlik darajasi, faqatgina yosh xususiyatlariga bog‘lik emas, u ma’lum yoshga kelib o‘z o‘zidan shakllanib qolmaydi. Yoshlarning kasb tanlashga pedagogik-psixologik bilim, ko‘nikma, malakalar, shuningdek, jamiyatning ta’siri orqali tayyorlash va tarbiyalash lozim. Mazkur jarayonda shaxsdan kasbga doir bilimlarga ega bo‘lish talab qilinadi. Shuning uchun xam o‘quvchilarni kasblar olamiga doir bilimlar bilan qurollantirish hamda amaliy ko‘nikma va malakalarni hosil qilish lozim. Buning uchun kasblarga doir qo‘llanmalar, tarqatma materiallar bilan ta’minlash lozim. Shundagina kasb tanlash jarayonida yuzaga keladigan turli qiyinchilik, ziddiyat, to‘siqlarni oldini olgan holda o‘quvchi-yoshlarni ongli ravishda kasbga yo‘llash imkoniga ega bo‘lamiz

Texnologiya fani o‘qituvchisi texnologik ta’lim jarayonida kasb va mehnat turlari haqidagi ma’lumotlarni muayyan mavzularga bog‘lagan holda o‘quvchilarga yetkazishi lozim. O‘quvchilarning qiziqishlariga asoslangan holda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar orasida muayyan kasblarga oid to‘garaklar alohida o‘rin egallaydi. Bunday to‘garaklar aksariyat hollarda mehnat va kasb ta’limi o‘qituvchilari tomonidan olib boriladi. Bular jumlasiga texnik-ijodkorlik, yosh rassomlar, yosh texnologlar, yosh fiziklar kabi to‘garaklarni kiritish mumkin. O‘qituvchi bunday to‘garaklarda o‘quvchilarning loyihachilik, texnik-ijodkorlik, ixtirochilik kabi qobiliyatlarini rivojlantirish ustida tizimli ish olib borish imkoniyatiga ega. Texnologiya o‘qituvchisi o‘z ish faoliyatida pedagogik-psixologik tashxisga alohida o‘rin ajratishi lozim. Pedagogik-psixologik tashxis jarayonida o‘qituvchi maktab rahbariyati va psixologi, o‘quv-ishlab chiqarish muassasasi hamda kasb-hunar maktablari mutasaddilari bilan hamkorlikda har bir o‘quvchining tanlagan kasbi bilan shaxsiy sifatlari orasidagi mutanosiblikni aniqlashi kerak.

O‘qituvchisi o‘zining o‘quvchilarni kasbga yo‘llashga oid faoliyatini sinf rahbarlari, fan o‘qituvchilari, maktab rahbariyati va psixologi, ota onalar, mahalla faollari, hududdagi kasb-hunar kollejlari ma’muriyati faoliyati bilan mujassamlashtirgan holda amalga oshirishi kerak. O‘quvchilarni kasb-hunarga to‘g‘ri yo‘llashda mehnat xonasi, laboratoriya va ustaxonalar ham alohida ahamiyatga ega. Mehnat fani o‘qituvchisi ularni zamonaviy talablar asosida jihozlashga alohida e’tibor qaratishi lozim, chunki o‘quvchilarda muayyan mehnat va kasb turi haqidagi bilim, tushuncha va tasavvurlar ularning jamiyat hayotida tutgan o‘rni haqidagi ma’lumotlar dastlab shu yerda hosil bo‘ladi. Ma’lumki, mehnat va kasb-hunarga bo‘lgan muhabbat, e’tiqod, barcha o‘quv fanlari tarkibida shakllantiriladi. Shuning uchun ham texnologik ta’lim darslarida fanlararo aloqadorlikka alohida e’tibor qaratish talab etiladi. Mehnat o‘qituvchisining o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘llash orqali ijtimoiylashtirishga oid faoliyatini turli o‘quv fanlari o‘qituvchilari va sinf rahbarlarining bu sohadagi ishlari bilan uyg‘unlashtirish muhim pedagogik ahamiyatga ega. Buning uchun:

– turli o‘quv fanlari, fan to‘garaklari va sinfdan hamda maktabdan tashqari tadbirlarning imkoniyatlaridan unumli foydalanish;

– texnologik bilimlar, umummehnat va kasbiy ko‘nikmalar yordamida o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish orqali ijtimoiylashtirishga erishish;

– o‘quvchilarning muayyan maqsadga yo‘naltirilgan ijtimoiy ahamiyatlilik darajasi yuqori bo‘lgan o‘quv topshiriqlarini bajarishlarini ta'minlash;

– jamiyat hayoti uchun ahamiyatli bo‘lgan mehnat va kasb-hunarning turli sohalariga o‘quvchilarning qiziqishlarini tabaqalashtirilgan yondashuv asosida shakllantirishga erishish;

– o‘quvchilarni munosib kasb-hunarga yo‘naltirish maqsadida, maktab o‘qituvchilari, firmalar, ishlab chiqarish korxonalari, ijodiy jamoalar, kasb-hunar kollejlari hamda tashxis markazlari hamkorligini yo‘lga qo‘yish. Bunday hamkorlik natijasida o‘quvchilar orasida ijtimoiy ahamiyatlilik darajasi yuqori bo‘lgan kasblar targ‘ibotini amalga oshirish imkoni paydo bo‘ladi. Texnologiya o‘qituvchisi maktab amaliyotchi psixologi o‘z kasbiy faoliyati jarayonida quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

– o‘quvchilarni jamiyat hayoti va taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan kasb-hunar turlari bilan tanishtirish; – kasblarning demogratik xususiyatlari haqida ma'lumot berish; – o‘quvchilarni kasbga yo‘llash bo‘yicha pedagogik-psixologik xarakterdagi maslahatlar uyushtirish;

– o‘quvchilarni o‘z kasbiy faoliyati natijasida shuhrat qozongan mashhur shaxslar va ularning jamiyat va insoniyat taraqqiyotiga qo‘shgan hissalari bilan tanishtirish;

– o‘quvchilarga kasblarning jamiyatni iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy jihatlarini rivojlantirishdagi o‘rni haqida malumot berish;

– o‘quvchilarning ota-onalari bilan ularning farzandlarini munosib kasbga yo‘llash bo‘yicha suhbatlar o‘tkazish;

– o‘quvchilarni noto‘g‘ri kasb tanlashning salbiy oqibatlaridan xabardor qilish;

– o‘quvchilarda dastlabki umummehnat va kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish va sinab ko‘rishlari uchun qulay sharoitlar yaratish;

– o‘quvchilarni to‘g‘ri kasbga yo‘llash maqsadida, ularning shaxsiyati, mehnat turi va kasblarga bo‘lgan qiziqishlarini o‘rganish;

– o‘quvchilarni kasbga yo‘llash jarayoni samaradorligini ta'minlash maqsadida, maktabda muayyan kasblar, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati haqida hikoya qiluvchi ko‘rgazmalar, anjumanlar, uchrashuvlar tashkil etish;

– o‘quvchilarning shaxsiy-kasbiy qiziqishlarini aniqlash maqsadida muntazam pedagogik-psixologik tashxis o‘tkazish.

Kasb tanlashda maktab amaliyotchi-psixologining ham olib borayotgan targ‘ibot tashviqot ishlarning o‘z ahamiyati bor. Chunki barcha o‘quvhcilar ham kasb tanlashda aniq bir fikrga kela olmaydi. Buning o‘ziga yarasha turli xil sabablari bor. Bu o‘rinda men o‘zim ishlayotgan maktab bitiruvchi sinf o‘quvchilari bilan davra suhbatlari, anketa surovnomalari o‘tkazdim. Masalan: Kasbga yo‘naltirishni qachondan boshlash kerak? degan savolga quyidagi diagrammadagi ko‘rinishda javoblar olindi. O‘quvchilarning 54 % maktabdanoq kasbiy yo‘naltirishni amalga oshirishni boshlash kerak deb hisoblaydi. O‘quvchilarning 25 %i buni bog‘cha paytidan boshlash kerak, 14 %i esa tanlash bosqichini kolledjdan boshlash kerak deb hisoblaydilar.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, respublikamizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarining zamirida davlatimizni yetakchi demokratik davlatlar ko‘rsatkichiga chiqarish bosh maqsadi yotibdi. O‘quvchilarda o‘zlarining qiziqishlari

asosida kasb tanlashga yo‘llash bugunning dolzarb masalalaridir. Mehnat ta’limi darslari va tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarni kasbga yo‘llash imkoniyatlari chegaralanganligi sababli ularni to‘garak faoliyatida amalga oshirish mumkin.To‘garaklarda o‘quvchilarni bajaradigan faoliyatidan kelib chiqib kasblarga yo‘naltirish imkoniyatlari kattadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nazarova, M. (2021). Yoshlarning ijtimoiy-psixologik muammolarining oldini olish va ularni bartaraf etish. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 7(7).
2. O‘quvchi yoshlarni kasb-hunarga tayyorlashning yangi tizimi joriy etiladi -Prezident qarori loyihasi
3. Mustafoqizi, N. M. (2021). Psychology of the Leader. Journal of Ethics and Diversity in International Communication, 1(4), 34-36.
4. Mustafoqizi, N. M. (2021). The Effect of Communication Process on the Psychological Development of a Person. International Journal of Development and Public Policy, 1(4), 109-111.

O‘QUVCHILARDA IJODIY FAOLLIK MOTIVATSIYASI NAMOYON BO‘LISHINING NAZARIY ASOSLARI

Bobomurodova Sevara Axtamovna,
Navbahor tumanidagi 32-umumiy o‘rta ta'lim maktabi psixologi

Kalit so‘zlar: Ijod,ijodiy faollik,faoliyat,kreativlik, intuitsiya,hissiy bilish,kognitiv,ijodiy qobiliyat. creative

Ключевые слова: Творчество, творческая активность, деятельность, креативность, интуиция, эмоциональное познание, когнитивный, творческие способности.

Key words: Creativity, creative activity, action, creativity, intuition, emotional cognition, cognitive, Creative skills.

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy ta’limning dolzarb muammosi hisoblangan talabalarda ijodiy faollik motivatsiyasi namoyon bo‘lishi,ijodiy shaxsning individual psixologik xususiyatlari, intuitiv xolatlari, emotsional irodaviy soha kabi jihatlari, turli davrlardagi olimlar tomonidan yoritilgan yondoshuvlarining, ilmiy nazariy asoslarida o‘z aksini topgan.

Аннотации. В статье отражены мотивация творческой деятельности студентов, индивидуально-психологические особенности творческой личности, интуитивные состояния, эмоционально-волевая сфера, подходы, применяемые учеными разных периодов, научно-теоретические основы, что является актуальной проблемой. современное образование.

Annotation. The article reflects the motivation of students' creative activity, individual psychological characteristics of a creative personality, intuitive states, emotional-volitional sphere, approaches used by scientists from different periods, scientific and theoretical foundations, which is an urgent problem. modern education.

Hozirda jahon miqyosida oliy ta’lim tizimida talabalar ijodiga va ijodiy faolligi xususiyatlarini tadqiq qilish hamda mustahkamlash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. YUNESKO tomonidan 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta’lim konsepsiyasida “sifatli ta’lim ijodiy tafakkurni va bilimni rag‘batlantiradi, savodxonlik va hisob malakalari asoslarini, shuningdek, tahlil qilish, muammolarni hal qilish, fikrlash

hamda boshqa shaxslararo va ijtimoiy munosabat ko‘nikmalarini yuqori darajada egallash”[1] ga alohida e’tibor berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining 4.5 bandidagi “jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish”[2] borasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Ma’lumki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim siyosatining muhim maqsadlaridan biri yosh avlodni har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalashdir. Albatta barkamol inson deganda ma’naviy jihatdan etuk, o‘z vatanining tarixi, buguni va kelajagi uchun qayg‘uradigan, shuningdek, jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shgan, qo‘shish ishtiyoqida yonib yashaydigan shaxsni tushunish bugungi kun talabiga mos keladi.

Bugungi kunda respublikamizda bolalarning ijodiy qobiliyatlarini tarbiyalashning mukammal milliy tizimi shakllantirildi. Bu uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida iste’dodlarni tarbiyalashda o‘z samarasini bermoqda. Inson ijodkorligi ko‘p qirrali murakkab bir hodisa bo‘lib, unda ijodkorlikni o‘rganish yondashuvi Y. L. Yakovleva tomonidan tahliliy deb belgilanadi.Y.N.Yakovleva ijodiy salohiyatni o‘rganishda va rivojlantirishda o‘ziga xos yondashuvni ilgari surib, ijodkorlik shaxsiy xarakteristika sifatida tushuniladi, inson tomonidan o‘z shaxsiyligini anglash, ijodiy harakatdir. Ijodkorlikning xarakteristikalari jiddiy emas, balki protsessualdir, chunki ijodkorlik o‘z shaxsiyligini aniqlash jarayonidir. Ijodkorlikning rivojlanishiga kelsak, Y. L.Yakovleva hissiy mazmun bilan shug‘ullanish zarur deb hisoblaydi: “Ijodiy salohiyatni rivojlantirishning asosiy printsipi sifatida biz kognitiv tarkibni

hissiyotga aylantirish tamoyilini ilgari suramiz” [5]. deya e`tirof etadi. Yuqorida keltirilgan ta`riflarga qo‘shilgan holda yana shuni ham aytib o‘tish joizki bizning fikrimizcha ijodkorlikda nafaqat kognitiv tarkibni, hissiy tarkibga aylantirish, balki, shaxs faollik motivatsiyasiga aylantirish bu jaroyonni yanada yaxshiroq natijalarga olib keladi deb hisoblaymiz.

Qadimgi mutafakkirlar (Demokrit, Platon va boshq.) intuitsiyani ichki ko‘rish xususiyati, aqlning oliy qobiliyati sifatida ko‘rib chiqishgan. Intuitsiya fenomenini o‘rganishda asos soluvchi g‘oyalarni B. Spinoza, R. Dekart, I. Kant, V.F. Asmus, A. Bergson va boshqalar yaratgan. Intuitsiya muammosini bilishning falsafiy nazariyasida ko‘ndalang qo‘yilgan bo‘lib, odatda, bilishning ikki turini dixotomiyasi sifatida talqin etilgan: intuitiv, bevosita, isbotga tayanmagan va ratsional, bilvositalashgan dalil bilan bog‘langan [6.7.8]. Intuitsiya muammosini bunday talqini, psixologiyada asosiy hisoblanadi.

Intuitsiya (ijodiy faollikni tarkibiy qismi bo‘lib) va ijodiy tafakkur qoidalar tizimida ifoda etilmagan. Umuman intuitsiyaga natijalarni olishda anglanmaganlik holati, jarayonni bexosligi va tezligi, muammoni hissiy-shaklda hal etish xos emas. Intuitsiya (in-tuitio – g‘oyani paydo bo‘lishi) avvalgi malakaga tayanib, haqiqatni bevosita mantiqiy asoslanishsiz anglash hisoblanadi. Intuitsiya bilishning o‘ziga xos usuli sifatida ko‘rilganda, haqiqat o‘sha zahoti muhokamalarsiz anglanadi[10]. Ushbu yondoshuvda yuqoridagi yondoshuvlardan farqli o‘laroq intuitsiya ijodiy faollikning tarkibiy qismi

sifatida ifodalangan va intuitsiyani hissiy anglash emas g`oya paydo bo‘lish jarayoni sifatida izohlangan.

Kreativlik – individning ijodiy qobliyatlari bo‘lib, noodatiy g‘oyalar, tafakkurni an'anaviy tizimlaridan chekinishi, muammoli vaziyatlarni tez hal qilish iqtidori hisoblanadi. Tamoyilan yangi g‘oyalarni ishlab chiqishga tayyor turishlik iqtidorning tuzilmasiga mustaqil omil sifatida kiradi.

Dj. Gilford birinchilardan tafakkur kabi tushunchani shakllantirishga harakat qildi. Uning fikricha, "ijodiy" tafakkur unda to‘rt xususiyatni dominanta bo‘lishi bilan bog‘liq:

1. Original, didli, g‘oyalarni noodatiy taqdim etish, yaqqol namoyon bo‘ladigan intellektual yangilikka intilish. Ijodiy inson har doim va har erda o‘zinikini, o‘zgalardan farq qiluvchi echimni topishga intiladi.

2. Semantik egiluvchanlik, ya'ni ob'ektni yangi nuqtai nazardan ko‘rish, uning yangicha foydalanish usullarini aniqlash va amaliyotda funksional foydalanishni kengaytirish.

3. Obrazli moslashuvchi egiluvchanlik, ya'ni ob'ektni idrok etishni shunday yo‘l bilan o‘zgartiradiki, uning chetdan kuzatilganda yangi yashirilgan, tomonlarini ko‘ra olishidir.

4. Semantik, to‘satdan vujudga keladigan egiluvchanlik, ya'ni noma'lum vaziyatda xususan ushbu g‘oyalarga taaluqli bo‘lmagan mo‘ljallarni,turli hil g‘oyalarni navbatma-navbat sinab ko‘rish [9] Dj. Gilford Y. N. Yakovlevadan farqli o‘laroq ijod fenomenini kognitiv jarayonlar bilan bevosita bog‘liq xususiyatlarini tadqiq etadi.

Keyinchalik ham ijodiy tafakkurga ta'riflar berish urinishlari bo‘lgan, biroq ular Dj.Gilford tomonidan taklif etilgan tushuncha doirasiga ko‘p yangilik kirita olmadilar. Ijodiy tafakkurni tadqiq etish jarayonida ijodiy masalani echimini tez topishga yoki to‘siqlik qiluvchi , quyidagicha shart-sharoitlar aniqlangan.

1. Agar o‘tmishda inson tomonidan ayrim vazifalarni echimi etarli darajada muvaffaqiyatli bo‘lgan bo‘lsa, bu holat keyinchalik ham ushbu echimdan foydalanishga intilishini uyg‘otadi. Inson yangi vazifa bilan to‘qnash kelganda, uni birinchi o‘rinda qo‘llashga harakat qiladi.

2. Vazifa echimini topib va amaliyotda tadbiq etishda qancha ko‘p kuch sarflangan bo‘lsa, unga kelajakda murojaat etish ehtimoli katta bo‘ladi. YAngi echimni izlab topishga qaratilgan psixologik sarf-harajatlar uni imkon darajasida ko‘proq foydalanishga intilish bilan tengdir [3]. Ushbu yondshuvda ijodiy tafakkur jarayonidagi vazifa yechish, unga sarflanadigan vaqt mezoniga muhim omil sifatida qaralgan bizning fikrimizcha ham ushbu omil muhim deb hisoblaymiz.

Ijodiylik faoliyatning bir turi sifatida, hamda kreativlik xususiyatlarning mustahkam yig‘indisi yangi, original, noodatiy, noan'anaviy bo‘lib, jamiyat taraqqiyayotini ta'minlaydi. Jamoaviy qiziqishlar doirasida kreativlik, haqiqatdan, hayotiy faoliyatning evristik usuli sifatida ko‘rilib, biroq ijtimoiy guruh darajasida ijodiy shaxsning xulq-atvori ushbu insonlar jamiyatiga xos bo‘lmagan va qonun qoidalariga to‘g‘ri kelmaydigan faoliyat turi sifatida baholanishi mumkin. Ijodiylik qabul qilingan qoidalarga muvofiq bo‘lmasligi mumkin, ammo shu bilan birga guruhning huquqiy va ma'naviy qonuniyatlarini buzmaydi [4].

Ijodiy hodimni yuqori va har tomonlama intellektual sifatida tavsiflash mumkin bo‘lib, yoshi o‘tgan sari tafakkur originalligi va ijod hoxishini yo‘qotmaydi. Ijodiy shaxs qandaydir maxsus yoki noyob qobiliyatlar sohibi bo‘lishi shart emas, balki samarali faoliyat uchun zarur bo‘lgan sifatlarni rivojlantirishi zarurdir. SHaxs yahlit va integral bo‘lganligi uchun, alohida xususiyatlarni taraqqiy etishi, butun tizimni mohiyatan qayta

qurilishiga olib kelishini, e’tibordan chetda qoldirmasligimiz lozim. O‘z navbatida bunday qayta qurish shaxsning yangi “yasama” xususiyatlarni vujudga kelishi uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. SHuningdek, shaxsning asosiy sifatlariga uzoq muddatli psixik saqlanganlik va ijodiy faollikning uzoq umrini kiritish mumkin.

Yuqoridagi qarashlardan kelib chiqqan holda shuni aytib o‘tishimiz joiki,talabalarda ijodiy faollik motivatsiyasi namoyon bo‘lish holatlarini negizlarini ilmiy asoslarini o‘rganish kelajakda ijodiy faollik motivatsiyasini rivojlantirishda,yangi bilimlarni ochishda muhim manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Incheon Declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сонли Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – 6 (766)-сон, 2017.- Б. 25-150
3. Гилфорд Дж. - Структурная модель интеллекта// Психология мышления. - М,: Прогресс, 1965г. 1.
4. Дружинин В.Н., Хазратова Н.В. - Экспериментальные исследования формирующего влияния среды на креативность// Психологический журнал, 1994г.
5. Латипова У. Ю.Talabalarning ijodiy faolligini rivojlantirishda hissiyot va badiiy-ijodiy ehtiyojlarning ahamiyati.Pedagogik mahorat Buxoro Davlat Universiteti\ (Ilmiy nazariy va metodik jurnali)5-son 2019 yil oktabr. 81-83 betlar
6. Асмус В.Ф. Проблема интуиции в философии и математике. - М.: Мысль, 1965
7. Лосев А.Ф. Интуиция // Философская энциклопедия / Гл.ред. Ф.В. Константинов. - М.: Советская энциклопедия, 1962. - Т.2. - С.302-303

INNOVATSIYON TA’LIM JARAYONIDA O‘QITUVCHI VA O‘QUVCHI O‘RTASIDAGI PSIXOLOGIK OMILLARNING O‘RNI

Boymurodova Shahlo,
Nurota tumani 4-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi,
Zoirova Shaxnoza Jamolovna,
Navbahor tumani 20- umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi

Аннотация. Vetoy state ispolzovanie innovatsionnых sovremennых informatsionnых i kommunikatsionnых texnologiy v obrazovanii stalo odnoy iz samых aktualnых zadach sovremennosti .

Klyuchevыe slova: Innovatsionnыy, informatsiya, kommunikatsiya, intellektualnыy, vnimanie, texnicheskiy, sposobie , interaktivnыy, refleksivnыy, sotsialno- psixologicheskiy, motivatsiya.

Annotation. In this article , the use of innovative modern information and communication technologies in education has become one of the most pressing task of today.

Key words: Innovative, information, communication, intellectual, attention, technical, ability, interactive, reflexive, social-psychological, motivation.

Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar ta’lim tizimini modernizatsiya qilinishi hamda innovatsion texnologiyalarni keng o‘zlashtirilishi ta’lim muassasasi oldida dolzarb vazifalarni amalga oshirishni taqozo

qilmoqda.Ta’lim jarayonida zamonaviy innovatsiyon axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muhim vazifalaridan biriga aylanganligi hammamizga ma’lum. Bu esa o‘sib kelayotgan yosh avlodni intellektual va texnikaviy qobiliyatlarini rivojlantirib shaxs xususiyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Zamonaviy axborot innovatsiyon texnologiyalaridan ta’lim jarayonida foydalanar ekanmiz, biz uning ijobiy ta’sir yo‘llari orqali yondasha olishimiz lozim, ya’ni, birinchidan, axborot kommunikatsiya texnologiyalari zaminida yuz berishi mumkin bo‘lgan yangiliklar an’anaviy muloqot sharoitlarida olib boriladi.

Ta’lim beruvchilar innovatsiyon texnologiyalaridan foydalanish va amaliyotga tadbiq etish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi interaktiv hamda refleksiv ta’sirni unutmasligi kerak. Ta’lim jarayonida innovatsiyon texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning kommunikativ va bilish faoliyatini sifat o‘zgarishlariga olib boradi hamda ta’lim olish usullarining o‘zgarishi asosida shaxs sifatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, internet bilan ishlaganda, o‘quvchilarning faolligi ortadi va ta’lim jarayoni individuallashadi, turli ma’lumot manbalari bilan ishlash imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu esa o‘quvchilarning shaxsini rivojlantiradi. Ularda mustaqil fikr yuritishga, tashabbuskorlikka, mobillikka rag‘batlanish paydo bo‘ladi. Ammo, shuning bilan bir qatorda salbiy ta’sirlar ham yuzaga kelishi mumkin. Yani, intensiv intellektual va ijodiy rivojlanish o‘quvchilarni mavjud ijtimoiy muhitga moslashishini ta’minlay olmaydi. Ular turli kompyuter manbalariga, shu jumladan internetga bog‘lanib qolishlari ham mumkin. Bu esa kelajakda o‘quvchi shaxsini boshqalardan ajralib qolishiga sabab bo‘la oladi. Bolalarning ruhiyatida keskin o‘zgarishlar ro‘y berib, ularda o‘z do‘stlarini virtual olam qahramonlari bilan almashtirish, ruhiy javob reaksiyalarida pasayish, qiziqishlar doirasida torayish kabi holatlar kuzatilishi mumkin.

Psixolog olimlar bugungi kunda innovatsiyon texnologiyalarining ruhiyatga ta’sir ko‘rsatishi va undan oqilona foydalanish e’tiborga molik masala ekanligini uqtiradilar. Bu esa o‘z navbatida pedagoglar uchun ham o‘ta dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Sharq donishmandlari “Qaerga ketayotganingni bilish uchun qaerdan kelayotganingni aniqlash lozim” - deb aytgan hikmatli so‘zlaridan hamda yuqorida aytilgan fikrlardan kelib chiqib o‘quv muhiti dasturini axborot kommunikatsiya texnologiyalari orqali loyihalayotgan vaqtda o‘quvchilarni ongli fikrlashi va o‘zaro ta’sir holatiga ham alohida e’tiborni qaratish maqsadga muvofiq.

Buning uchun:

-o‘qitish shakllarini o‘zgartirish uchun harakatlanish va moslashish xususiyatlariga ega bo‘lgan muhitga e’tibor qaratish;

-o‘qitish va rivojlanish jarayonini rag‘batlantiradigan muhit hosil qilish**;**

-o‘quvchilar shaxsining psixologik xususiyatlarini hisobga olish;

Bundan tashqari, innovatsiyon texnologiyalaridan foydalanganda auditoriyada mebellarni joylashtirish, adabiyot tanlash, tajriba, kerakli resurslar, oquvchilar hissiyotlariga ta’sir etish va ularni motivatsiyalash kabi o‘quv muhiti usullaridan ham oqilona foydalana olish ham shaxs shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, biz pedagoglar zamonaviy innovatsiyon texnologiyalari asosida darslarni tashkil etish jarayonida o‘quvchilar shaxsini shakllantirish uchun quyidagilarga alohida e’tibor qaratishimiz lozim:

- innovatsiyon texnologiyalaridan ta’lim jarayonida foydalanishning optimal shart-sharoitlarini o‘rganish;

- ta’lim jarayonida aniqlik, samaradorlik va natijalarni oldindan ko‘ra olish;

- ta’lim oluvchilarga internetdan foydalanishning ijobiy va salbiy ta’sirini oqilona va ongli idrok eta olishlariga erishish;

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.6. T.: «O‘zbekiston», 1997. 324-346-betlar
2. Belinskaya Ye.P. K obosnovaniyu sotskulturnogo podxoda v issledovaniyax vertualnoy realnosti. http/ www. Ish. Ru. /info/ seminar-doc (1) doc.
3. Biblioteka prakticheskoy psixologii «Psixologiya zavisimosti» Minsk. 2004g

“USTOZ – SHOGIRD” XARAKTERNI ISLOH QILISH

Po‘latova Nodira Ibodullayevna,
Qiziltepa tumani 21 umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi,
Narziyeva Mohigul Norkomilovna,
Qiziltepa tumani7-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada komil insonni voyaga etkazishda “ustoz – shogird” xarakterni isloh qilish tarbiyaning qanday amalga oshirilishiga, haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Dastur, poydevor tushunchasi, xarakter, aqliy kamolot, dunyoqarash, insoniy ijodkor, ijtimoiy, yondashuv, barkamol insonni.

Аннотация. Эта статья дает вам краткий обзор того, как воспитать характер «учитель-ученик» в развитии идеальной личности.

Ключевые слова: Программа, концепция, основа, характер, психическая зрелость, мировоззрение, творчество человека, социальный подход, гармонично развитая личность.

Annotation. This article gives you a brief overview of how to develop the teacher-student character in developing the ideal personality.

Key words: Program, concept of foundation, character, mental maturity, worldview, human creativity, social, approach, harmoniously developed person.

Hozirgi kunda yosh avlodni kasbga yo‘llash, ularga ta’lim o‘rgatish ishlarini amalga oshirishda «Ustoz-shogird» ananalariga asoslanilmoqda.

Qadimda ota-bobolarimiz farzandlarini komil inson bo‘lib yetishishiga katta e’tibor bilan qarashgan, ya’ni bobolarimiz uslubiga ko‘ra xarakter faqat yetuk ustozlar tarbiyasi asosidagina hosil qilinadi. Unga ko‘ra, farzandning saodatmand bo‘lib o‘sishini istagan ota-ona nuridiydasini zamonaning mashhur ustoziga topshirgan. O‘z navbatida ustoz bolaning ma’naviy va jismoniy sog‘lom bo‘lib o‘sishi ma’suliyatini zimmasiga olgan. Chunki etuk farzand vaqti kelib oilani, ustozni va jamiyatni, Vatanni shon-shuhratga burkagan. Shu sababli ustoz qo‘lidagi tarbiya oluvchining o‘z farzandidek aziz deb bilgan. Bizda biror bir mashhur zot uchrasa birinchi navbatda uning ustozi, so‘ng nasl-nasabi so‘rab surishtirilar edi. Bugungi kunda ta’lim-tarbiya muassalarida olib borilayotgan ustoz-shogird tizimida aynan shogirdlarni tarbiyalashda uning xarakter xususiyatlari inobatga olinmoqda. Ushbu maqolada o‘quvchilarning komil inson bo‘lishlarida ustozlarning o‘rni hamda ularni o‘rganishda psixodiognostik metodlardan foydalanish, shuningdek ta’lim-tarbiya jarayonining samarali usullari yoritib berilgan. Komil insonni voyaga etkazishning – “Ustoz” instituti qadim jamiyatimizda yillar davomida shakllanib kelgan. Unga ko‘ra ustoz, o‘z shogirdini quyidagi uslublarga ko‘ra tarbiyalagan.

Birinchi: shogird xarakteridagi kuchli va zaif tomonlarni anglab olish. Agar shogirdda ijobiy xislatlar ko‘p bo‘lsa, uni kuchaytirish. Bordi-yu salbiy xususiyatlar ustivor bo‘lsa, har xil yumushlar buyurish bilan isloh qilish. Misol uchun Jalollidin Rumiy m’eyoridan ortiq mag‘rur bo‘lgani uchun ustozi Shams Tabriziy unga mahallama-mahalla yurib, odamlarning uylarini tozalashni buyurgan. Natijada Rumiy qalbi pok oddiy odamlarga nisbatan mag‘rurlikni tashlaydi va oddiy fuqaroparvar bir inson bo‘lib qoladi.

Ikkinchi: Shogirdning qiziqish olamini anglab olish, agar unda ezgulikka havas bo‘lsa, bu tuyg‘u takomillashtirilgan. Agar yovuzlikka moyillik bo‘lsa, isloh qilingan. Mashrab hurfikrlikka moyil edi. Ilk ustozi Bozor Oxund Mashrabni o‘zidan kuchliroq bo‘lgan Hidoyatulloh Ofoq Hojaga jo‘natadi. Bozor Oxund shogirdini fikrini bo‘g‘ib qo‘yishi mumkin edi va mashrab Ofoq xo‘ja huzurida valiy bo‘lib etishadi. Fuzayl Ayozning o‘g‘irlikka moyilligi bor edi. Ustozi unga o‘g‘irlikni buyurdi va uyushtirilgan holda qo‘lga tushirib Fuzaylni odamlar orasidan olib o‘tkazdi. Fuzayl keyinchalik o‘g‘rilarni hayotga qaytarish tarbiya konsepsiyasini ishlab chiqdi. Bugun biz tarbiyalanuvchilarning qiziqish olamini to‘g‘ri anglab olishimiz va to‘g‘ri yo‘naltira bilishimiz lozim.

Uchinchi: Shogird xarakterini shakllantirishda ustozning namuna bo‘lishi, Fariddin Attor mo‘g‘ul bosqinchilari qo‘liga tushib qoladi. Shogirdlari mo‘g‘ul askarlar ketidan ergashishadi. Bir mo‘g‘ul askari sherigiga deydi: Shu qari cholni menga sot, o‘n oltin tanga beraman” dedi. Attor asr olganga dediki: “Sotma men bundan qimmat turaman” Bir oz yurishgach yana bir mo‘g‘ul askari cholni menga sot, bir qop somon beraman dedi. Attor asir olgan kishisiga dediki, “Tez sot men bundan qimmatiga arzimayman”. Johil mug‘ul askari bu gapni eshitib attorni chopib tashladi. Voqeaning guvohi bo‘lgan attorning shogirdlari yig‘ilishib xulosa qilishdi.

Xalqimizda bir ibratli maqol bor “Ustozdan o‘tmagan shogird-shogird emas” . Bugungi “Ustoz-shogird” maktablarida faoliyat olib borayotgan shogirdlar kelajakda o‘z ustozlari kabi bilimli va mahoratli ustozlar bo‘lib yetishsagina, biz bugungi kun ustozlari bilan faxrlana olamiz va ta’lim oldidagi sharafli burchimizni bajargan bo‘lamiz.

Shogirdning ustoz oldidagi burch va vazifalari quyidagilardan iborat:

- ustozga itoatli bo‘lish va ustoz an'analarini davom ettirish;
- ustozni yuzini yerga qaratmaslik, uning obro‘sini ko‘tarish. Ustozning sha'niga iliq so‘zlar olib kelish;

Birovning narsasiga ko‘z olaytirmaslik, ustozga cheksiz hurmat bilan munosabatda bo‘lish deganda – shogird o‘z kasbini sevishi, ishga e'tiqod qo‘yishi va o‘ta ishonishi ustoz oldida hokisor bo‘lishi nazarda tutilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ustoz maqomiga ega bo‘lgan tajribali pedagog avvalo oliy ma’lumotli o‘z ixtisosi bo‘yicha yetarlicha mehnat stajiga ega bo‘lishi, yangilikka intiluvchan, doimiy tarzda bilimlarini oshirib borishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.,1998
2. E.G‘oziev. Umumiy psixologiya. I-kitob, Toshkent, 2002 yil.

PSIXOLOGIYANING RIVOJLANISHI MUAMMOLARI VA YECHIMLARI HAMDA FANLARARO INTEGRATSIYA TUSHUNCHASI

Raximova Gulziya,
Zarafshon shahar 8-umumiy o‘rta ta’lim maktab amaliyotchi psixologi,
Pardayeva Nasiba,
Zarafshon shahar 6- umumiy o‘rta ta’lim maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya. Ushbu maqolada fanlararo integratsiya va psixologiyaning rivojlanish sohalari taraqqiyoti muammolari va yechimlari, g‘oyasi, ta’lim muassasasining hozirgi bosqichi hamda integratsiya atamasi mazmun va mohiyat haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Integratsiya, sivilizatsiya, platforma, obyektivlik, psixologiya, taraqqiyot, ijtimoiy, referent, ijtimoiy-iqtisodiy.

XXI asrda O‘zbekistonda psixologiya fanlarining istiqboli alohida ahamiyat kashf etadi. Chunki, u yoki bu fanning o‘tmishini, shu fanlar mutaxassislari tomonidan yaratilgan ilmiy qarashlar tarixini o‘rganadigan bo‘lsak, u fanlarning integratsiyada, yurtdoshlarimiz tomonidan bajarilgan ilmiy izlanishlar, u yoki bu fan yutuqlarini hayotga joriy etilishi borasida, hozirgi zamon psixologiyasi ta’limotlariga oid mislsiz ishlarning amalga oshirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Respublikamizda olib borilayotgan turli islohotlar bugungi kunda yosh avloddan ijobiy xulq- atvor me'yorlari va qoidalarini, kasb- hunar, malaka va ko‘nikmalarini har tomonlama puxta egallab borishni talab qiladi. Arastu ta'kidlagani kabi “munosib odam bo‘lmoq,-fazilatlar egasi- fozil bo‘lmoq demakdir” [28]

Shuni ta’kidlash lozimki, XXI asr insonlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanish davri hisoblanadi. Bas shunday ekan, sotsiologiya va psixologiya, matematika fanlarining o‘zaro integratsiyasi asosida ijtimoiy muammo va masalalarni tezkorlik va obyektivlik bilan hal qilishga yordam beradigan matematik modellar turkumini yaratish davr talabidir. Bunday integratsion modellar tizimi orqali sotsial-psixologik masalalarni yechishda ilmiy-amaliy imkoniyatlar yaratiladi.

“Integratsiya” atamasi mazmun va mohiyat jihatdan uzoq tarixga ega. “Integratsiya” – lotincha «integration» so‘zidan olingan bo‘lib, “integr” – “to‘liq, yaxlit”, “bir butun” degan ma’nolarni anglatadi. Bugungi kunga kelib, kishilar integratsiya jarayonining mohiyatini yaxshi anglashi, uning rivojlantiruvchi funksiyalaridan foydalana olishlari natijasidagina muhim ilmiy muammolarni hal qilishda unga ehtiyoj sezmoqdalar. Biz integratsiya bir nechta o‘quv predmeti materiallarini metodikaning vazifasi va yagona maqsadiga tabiiy bo‘ysundirish asosida tuzish usuli yoki predmetlararo bog‘lanishning eng yuqori darajasi, umummetodologik prinsiplar asosida muammoni kompleks o‘rganish yo‘li deb hisobladik. Unga bir butun bilimlar «monoliti»ni yaratishga imkon beruvchi vosita, atrof-muhit haqida yaxlit tasavvurni yaratishda bilimlarni yaqinlashtiruvchi, umumiy platformani belgilovchi omil deya ta’rif berish maqsadga muvofiqdir.

Integratsiya g‘oyasi – ta’lim muassasasi taraqqiyotining hozirgi bosqichida eng istiqbolli g‘oyalardan hisoblanadi. Bir tomondan, o‘quv soatlarining qisqarib borishi sharoitlarida fanlararo integratsiya dars doirasida didaktik maqsadlarga erishishga imkon beradigan resurs bo‘lib qolishi mumkin. Boshqa tomondan esa, fanlararo aloqalardan foydalanish talaba va o‘quvchining o‘ziga atrofdagi dunyoni turli-tumanlikda va

[28] Arastu. Poetika. Axloqi kabir- T, 2004.

yaxlitlikda bilish imkonini beradi.

"Biz o'z tariximizni xolisona va haqqoniy baholab, ma'naviy merosimizni boyitish va rivojlantirishga o'z hissamizni qo'shishimiz, shu asosda bugungi jahon ilmu fani va madaniyatining yuksak cho'qqilarini egallashdek buyuk vazifaga har tomonlama munosib va qodir bo'lishimiz darkor". [29]Buning uchun bizda yetarli asos, buyuk o'tmishimiz, ulkan ilmiy merosimiz bor. O'tmish va kelajak haqida, shuningdek, boshqa fanlar yutuqlari haqida to'g'ri bilim va tasavvurga ega bo'lsak, fanlararo integratsiyadan psixologik ta'limotlarni rivojlantirish uchun oqilona xulosalar chiqarib, uni keng ilmiy jamoatchilik hukmiga havola etsak, bu ayni vaqtda fan taraqqiyotiga qo'shilgan munosib hissa bo'ladi.

Biz qadriyatlarimizni qadrlay olish sharoitida yashab ijod etayotgan ekanmiz, qator allomalarimizning fanlar integratsiyasida ijod etganlarini unutishimiz mumkin emas, albatta. Allomalarimiz eng kamida uch-to'rt fanlar integratsiyasida ijod etib, faqat ulug' g'oyalarni bunyod etib, jahon fani taraqqiyoti va sivilizatsiyasiga katta hissa qo'shganlar va bu borada bir-birlarini kamsitib yoki ayblagan emaslar.

Fanlararo integratsiyada, psixologiya fanlari sohalari taraqqiyoti uchun ma'naviy asos, ildiz bo'lib hizmat qilishi mumkin bo'lgan, milliy qadriyatlarimizga oid ma'lumotlar, milliy mafkura chig'irig'idan o'tkazilib, psixologik tahlil qilinib, sharhlanib, o'quvchilar e'tiboriga xavola etilsa, bu o'quvchilarda o'z o'tmishi, yurti, fanidan fahrlanish, g'urur hissini shakllantiradi. Bu esa, mutaxassislar tomonidan fanni o'rganish va uni rivojlantirish uchun kuchli ichki, shaxsiy ahamiyatli motiv bo'lib xizmat qiladi. Bunday motiv, O'zbekistonda mazkur fan rivojlanishida hal qiluvchi kuch hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlar shundan dalolat berayaptiki, turli xil fanlarning, shu jumladan, sotsiologiya va psixologiya fanlarining egizak bo'lishi muhim va nozik muammolarni hal etishda qo'l kelar ekan. O'z-o'zidan ravshanki, sotsiologiya va psixologiyaning bir-biri bilan chambarchas aloqasi mavjudligini ilg'or, taniqli sotsiologlar va psixologlar ta'kidlab, tasdiqlab kelishgan. Ilg'or psixologlarning fikricha, psixologik tadqiqotlar ta'lim va tarbiya ishida yangilikning keng miqyosda qidirilishini ta'minlaydigan yo'nalishda olib borilishi kerak. Psixologiya oldidagi muhim vazifalarga jumladan, kishining tarbiyasi va ruhiy jihatdan rivojlanishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ochib bergan holda talim va tarbiya jarayonida uning shaxsini shakllantirishning psixologik asoslarini ko'rsatib berish; odamlarning yoshi va individual xususiyatlari o'rtasidagi nisbatni o'rganish va shu kabilar kiradi.

Sotsiologiyada va psixologiyada odamlarning o'zaro yoqtirish tuyg'ulari asosidagi birlashuvlarini referent guruhlar atamasi orqali o'rganiladi. Hayotda insonlar ikki, uch, uzog'i bilan to'rt kishilik ko'ngilga yaqin odamlardan iborat o'zaro ahil kichik guruhlarga birlashadilar, hamda mazkur guruhlar doirasida kasbiy, maishiy va ijtimoiy masalalarni o'zaro hamkorlikda hal etib yashaydilar. Odamlarning o'zlariga mos odamlarni topib birlashishlari maktabgacha tarbiya muassasalaridan boshlanib, keksa yoshga etganlarida ham uzluksiz davom etadi. Odamlarning bunday yoqtirib birlashish holatlari oxir – oqibatda, o'zaro do'stlik darajasiga o'sib chiqishi ko'p martalab kuzatilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, fanlararo integratsiya bu albatta taraqqiyot, sivilizatsiya, samaradorlik posbonidir bunga shubha bo'lishi mumkin emas. Biroq, bir fan

[29] Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat engilmas kuch".__ T.: «Ma'naviyat», 2008.

sohibi, boshqa fan yutuqlariga asoslanib o‘z sohasini rivojlantirishga intilsa, albatta qandaydir og‘ish va cheklanishlarga yo‘l qo‘yishi mumkin. Eng keraklisi – bu yo‘lda soflik, poklik haqiqatgo‘ylik, adolatga bo‘ysunishi, bir fan sohasi sohibi boshqa fan sohasi sohibiga hayrixohlik, maslahat berishi, yordam qo‘lini cho‘zishidir. Faqat shundagina fanlararo integratsiya o‘z mazmunini yo‘qotmaydi, degan fikrdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islom Karimov. “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch”, Toshkent “Ma‘naviyat” 2010.
2. Mavlonova R.Raxmonqulova N. Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi . T.: O‘qituvchi, 2006.
3. Сотсиалная психология: История, теория, эмпирические исследования. Под ред е. С. Кузмина, В. е. Семенова Л. Г. У. 1979.

TA’LIM JARAYONIDA INNOVATSIYON TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHDA O‘QUVCHI O‘RTASIDAGI PSIXOLOGIK MUAMOLAR

Murtazayeva Sayyora Sanoqulovna,
Xatirchi tumani 34-umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi,
Oripova Gulnoza Abduhakim qizi,
Xatirchi tumani 68- umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi

Аннотация. Vetoy state ispolzovanie innovatsionnыx sovremennыx informatsionnыx i kommunikatsionnыx texnologiy v obrazovanii stalo odnoy iz samыx aktualnыx zadach sovremennosti .

Klyuchevыe slova: Innovatsionnыy, informatsiya, kommunikatsiya, intellektualnыy, vnimanie, texnicheskiy, sposobie , interaktivnыy, refleksivnыy, sotsialno- psixologicheskiy, motivatsiya.

Annotation. In this article , the use of innovative modern information and communication technologies in education has become one of the most pressing task of today.

Key words: Innovative, information, communication, intellectual, attention, technical, ability, interactive, reflexive, social-psychological, motivation.

Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar ta’lim tizimini modernizatsiya qilinishi hamda innovatsion texnologiyalarni keng o‘zlashtirilishi ta’lim muassasasi oldida dolzarb vazifalarni amalga oshirishni taqozo qilmoqda.Ta’lim jarayonida zamonaviy innovatsiyon axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muhim vazifalaridan biriga aylanganligi hammamizga ma’lum. Bu esa o‘sib kelayotgan yosh avlodni intellektual va texnikaviy qobiliyatlarini rivojlantirib shaxs xususiyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Zamonaviy axborot innovatsiyon texnologiyalaridan ta’lim jarayonida foydalanar ekanmiz, biz uning ijobiy ta’sir yo‘llari orqali yondasha olishimiz lozim, ya’ni, birinchidan, axborot kommunikatsiya texnologiyalari zaminida yuz berishi mumkin bo‘lgan yangiliklar an’anaviy muloqot sharoitlarida olib boriladi.

Ta’lim beruvchilar innovatsiyon texnologiyalaridan foydalanish va amaliyotga tadbiq etish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi interaktiv hamda refleksiv ta’sirni unutmasligi kerak. Ta’lim jarayonida innovatsiyon texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning kommunikativ va bilish faoliyatini sifat o‘zgarishlariga olib boradi hamda ta’lim olish usullarining o‘zgarishi asosida shaxs sifatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, internet bilan ishlaganda, o‘quvchilarning faolligi ortadi va ta’lim

jarayoni individuallashadi, turli ma’lumot manbalari bilan ishlash imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu esa o‘quvchilarning shaxsini rivojlantiradi. Ularda mustaqil fikr yuritishga, tashabbuskorlikka, mobillikka rag‘batlanish paydo bo‘ladi. Ammo, shuning bilan bir qatorda salbiy ta’sirlar ham yuzaga kelishi mumkin. Yani, intensiv intellektual va ijodiy rivojlanish o‘quvchilarni mavjud ijtimoiy muhitga moslashishini ta’minlay olmaydi. Ular turli kompyuter manbalariga, shu jumladan internetga bog‘lanib qolishlari ham mumkin. Bu esa kelajakda o‘quvchi shaxsini boshqalardan ajralib qolishiga sabab bo‘la oladi. Bolalarning ruhiyatida keskin o‘zgarishlar ro‘y berib, ularda o‘z do‘stlarini virtual olam qahramonlari bilan almashtirish, ruhiy javob reaksiyalarida pasayish, qiziqishlar doirasida torayish kabi holatlar kuzatilishi mumkin.

Psixolog olimlar bugungi kunda innovatsiyon texnologiyalarining ruhiyatga ta’sir ko‘rsatishi va undan oqilona foydalanish e’tiborga molik masala ekanligini uqtiradilar. Bu esa o‘z navbatida pedagoglar uchun ham o‘ta dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Sharq donishmandlari “Qaerga ketayotganingni bilish uchun qaerdan kelayotganingni aniqlash lozim” - deb aytgan hikmatli so‘zlaridan hamda yuqorida aytilgan fikrlardan kelib chiqib o‘quv muhiti dasturini axborot kommunikatsiya texnologiyalari orqali loyihalayotgan vaqtda o‘quvchilarni ongli fikrlashi va o‘zaro ta’sir holatiga ham alohida e’tiborni qaratish maqsadga muvofiq.

Buning uchun:

-o‘qitish shakllarini o‘zgartirish uchun harakatlanish va moslashish xususiyatlariga ega bo‘lgan muhitga e’tibor qaratish;

-o‘qitish va rivojlanish jarayonini rag‘batlantiradigan muhit hosil qilish**;**

-o‘quvchilar shaxsining psixologik xususiyatlarini hisobga olish;

Bundan tashqari, innovatsiyon texnologiyalaridan foydalanganda auditoriyada mebellarni joylashtirish, adabiyot tanlash, tajriba, kerakli resurslar, oquvchilar hissiyotlariga ta’sir etish va ularni motivatsiyalash kabi o‘quv muhiti usullaridan ham oqilona foydalana olish ham shaxs shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, biz pedagoglar zamonaviy innovatsiyon texnologiyalari asosida darslarni tashkil etish jarayonida o‘quvchilar shaxsini shakllantirish uchun quyidagilarga alohida e’tibor qaratishimiz lozim:

- innovatsiyon texnologiyalaridan ta’lim jarayonida foydalanishning optimal shart-sharoitlarini o‘rganish;

- ta’lim jarayonida aniqlik, samaradorlik va natijalarni oldindan ko‘ra olish;

- ta’lim oluvchilarga internetdan foydalanishning ijobiy va salbiy ta’sirini oqilona va ongli idrok eta olishlariga erishish;

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.6. T.: «O‘zbekiston», 1997. 324-346-betlar

2. Belinskaya Ye.P. K obosnovaniyu sotskulturnogo podxoda v issledovaniyax vertualnoy realnosti. http/ www. Ish. Ru. /info/ seminar-doc (1) doc.

3. Biblioteka prakticheskoy psixologii “Psixologiya zavisimosti” Minsk. 2004g

O‘QUVCHILARNI TARBIYALASHDA SOG‘LOM G‘OYALARNI SINGDIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Bobomurodova Nilufar Salimovna,
Xatirchi tumani 22-umumioy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi,
Yusupova Yulduz Normumin qizi,
Xatirchi tumani 74- umumioy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta’lim jarayonida o‘smirlarni vatanpavarlik ruhida tarbiyalashda sog‘lom g‘oyalarni singdirishning ijtimoiy psixologik mexanizmlari bugungi kunning dolzarb vazifalardan biriga aylanganligi haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy-iqtisodiy, axbort, ma’naviy-ma’rifiy, intellektual, texnologiyalar, qobiliyat, ijtimoiy psixologik, motivatsiya.

Dunyoning taniqli siyosiy arboblaridan biri Maxatma Gandi shunday yozgan edi: “Men uyimning darvoza va eshiklarini mahkam berkitib o‘tira olmayman. Chunki unga toza havo kirib turishi kerak. Va shu barobarida eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo‘lib, xonadonimni ag‘dar-to‘ntar qilib, o‘zimni yiqitib tashlashini ham hohlamayman”. Bu falsafiy so‘zlarni bugungi axborot xurujlari va yod g‘oyalarning turli yo‘llar bilan mamlakatimizga u yoki bu mintaqada asrlar mobaynida shakllangan qadriyatlar, urf-odatlar, e’tiqod shakllariga va ta’lim-tarbiya tizimiga salbiy yoki ijobiy ta’siri jarayonlari ma’nosida qo‘llash ham mumkin. Sanoati va yuqori texnologiyalari rivojlanayotgan jamiyatda odamlarning ijtimoiy-iqtisodiy muhitini yaxshilanishi to‘kin hayotga erishishga bo‘lgan shaxsiy intilishi ularning asl qadriyatlarga, jumladan, oila va nikohga, yoshlar tarbiyasiga bo‘lgan munosabatlarida keskin inqirozni keltirib chiqarmoqda. Bugungi kunda bu holat gedonistik psixologiyaning asosi deb baholanadi, uning oqibati jamiyatda qator ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarayotganligini ochiq e’tirof etadi. Gedonezmning ma’nosi, shaxs va uning xulq-atvori motivlarida faqat nimalardandir lazzatlanish, qoniqish olish va o‘zidagi ichki ruhiy iztiroblardan holi bo‘lishga intilish ustivor bo‘ladi. Aslida insonning to‘q va farovon hayotga intilishi, yaxshi yashashni xoxlagani ayb emas, lekin bunday to‘kinchilik insoniylik qoidalariga zid bo‘lishi mumkin emas. Insoniyatni tashvish va xavotirga solgan narsa shuki, bunday ong va shuurdagi o‘zgarishlar ba’zi bir evropa xalqlarining eng zarur va muhim qadriyatlariga nisbatan salbiy munosabatlarda ifodalanadi. Masalan, Evropada tug‘ilayotgan bolalarning har uchtasidan bittasi nikohsiz tug‘ilayotganligi, tug‘ilishning keskin kamayib ketganligini, umuman ayollar o‘zidan sog‘lom zurriyod qoldirishni istamayotganligi, ijtimoiy yashash tarzi yaxshi bo‘la turib farzand tug‘ilishi va uni tarbiyalashga sarflanadigan xarajatlardan qochayotganligi yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Bunday salbiy g‘oyalar yoshlarimizning ayrimlarida kuzatilishi juda achinarli albatta va bunday illatlarni oldini olish uchun har bir shaxsga psixologik himoya zarur. Psixologik himoya bo‘lishi uchun yoshlarda mustaqil fikr bo‘lishi lozim. Darhaqiqat, birnchi Prezidentimiz I.Karimov “Milliy g‘oya va istiqlol mafkurasi haqida gap borar ekan, biz nihoyatda keng qamrovli, murakkab, ser-qirra, insoniyat tarixida aniq va mukammal ifodasi, tugal namunasi hali-xanuz yaratilmagan tushunchalarni o‘zimizga tasavvur qilishimiz kerak, deb o‘ylayman. Bu tushunchalar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi yuksak g‘oyalarning ma’no-mazmunini teran anglab etishga xizmat qiladi. Bu mafkura xalqni xalq, millatni millat, uning sha’nu sharafi, or-nomusi, ishonch–e’tiqodini ifodalaydigan, jamiyatimizning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘li, turmush tarzi, tub

manfaatlariga tayangan holda muttasil rivojlanib, takomillashib boradigan g‘oyalar tizimidir.” deb ta’kidlaydilar

Shunday ekan milliy g‘oya mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 33.500 million aholining 60 foizidan ortig‘ini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etishini inobatga oladigan bo‘lsak yoshlarimizning maqsad-muddaolari, istiqbolda tinch va farovon yashashiga kafolat beruvchi g‘oyaviy kuch bo‘lib, u millatni millat, xalqni xalq etib birlashtiruvchi kuchli omildan biridir. Bugungi kunda milliy g‘oya, va mafkura targ‘iboti bilan keng jamoatchilik shug‘ullanmoqda, ayniqsa, xalq ta’lim tizimida bir qator ilmiy manbalar, darsliklar yaratilib, o‘quv jarayonlarida qo‘llanilishi va yoshlarni o‘z Vataniga sodiq, mard, fidoyi, yuksak ma’naviy fazilatlar egasi bo‘lishga undamoqda.

Yuqoridagi fikrlarimiz misolida yoshlarimizga ezgu g‘oyalarni targ‘ibot tashviqot qilishda quyidagi usullardan foydalanish yaxshi samara berish mumkin:

–ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot orqali hamma oilada, mahallada, keng jamoatchilikda axborot tarmoqlari, jamoat tashkilotlari orqali uzatishi targ‘ibot va tashviqot ham ta’lim-tarbiyaning bir ko‘rinishidir, agarda to‘g‘ri targ‘ib qilinsa, yoshlarni buzg‘unchi g‘oyalardan asraydi, o‘z qarashlarini o‘zgartiradi;

–ijtimoiy so‘rovlar orqali yoshlarni fikrini o‘rganib borish, ular bildirgan fikr-mulohazalari asosida mafkuraviy targ‘ibotni olib borish mumkin. Bunga asosan quyidagi uchta omilga ahamiyat berish zarur.

–birinchi omil-so‘rovda ishtirok etayotganlarni mazkur so‘rovdan ijtimoiy manfaatdorligini,

–ikkinchi omil bahs-munozaraga sabab bo‘ladigan vaziyat,

–uchinchi omil-ishtirok etayotganlar mazkur fikrga nisbatan aniq qarashlari bo‘lishi kerak;

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki ommaviy axborot vositasi orqali yoshlar fikriga tez va kuchli ta’sir eta olish. Chunki har bir oilada ommaviy axborot vositalari xabarlaridan foydalaniladi va insonlarning ma’lumot olish manbai bo‘lgan bu vosita orqali yoshlarimizga milliy g‘oyalarni singdirish qulayroqdir. Badiiy adabiyot orqali ham yoshlarimizga sabr-qanoat, halollik, vatanparvarlik, sadoqat kabi fazilatlarni qalblarga singdirish yaxshi samara beradi deb uylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ochildiyev A.S. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. –Toshkent: Muharrir, 2009. yil.
2. Jakbarov M. Komil inson g‘oyasi: tarixiy-falsafiy tahlil. – Toshkent: 2000.
3. Fel’dshteyn D.I. O‘smir davri taraqqiyoti. -M. MGU, 1996.yil.

INNOVATSIYON TA’LIM TIZIMIDA O‘QITUVCHINING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH

Azimov Alisher,
Navoiy shahar 4-umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion rivojlanishning umumiy va o‘ziga xos jihatlari, ta’lim jarayonida zamonaviy innovatsion usuldan foydalanish haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Novatsiya va innovatsiya tushunchasi, texnik-texnologik, konseptual, mahsuli, ijtimoiy, yondashuv, metodlar, prinsipial.

Аннотация. В данной статье дается обзор общих и особенностей инновационного развития и использования современных инновационных подходов

к обучению.

Ключевые слова: Понятие новаций и инноваций, технико - технологическое, концептуальное, продукт, социальное, подход, методы, принципы.

Annotation. This article provides an overview of the general and peculiarities of innovative development and the use of modern innovative approaches to learning.

Key words: The concept of innovation and innovation, technical- technological, conceptual, product, social, approach, methods, principal.

Hozirgi vaqtda "Innovatsiya tushunchasi" juda keng qo'llanilmoqda. Innovatsiya amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy - madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimidir. Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug'ilib, oliy ta'lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo'ladi. Shuningdek, oliy ta'lim tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiya - ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishiga olib kelishi ma'lum bo'lgan oxirgi natijadir. "Bugungi kun jamiyati taraqqiyotining ayni bosqichi shunday o'ziga xos xususiyatga egaki, unda harbiy qudrat emas, balki intellektual salohiyat, aql-idrok, ijodiy fikrlash, yangi innovatsiyon texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.".[30]

Bugun oliy ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- faoliyat yo'nalishiga qarab (pedagogik jarayondagi, boshqaruvdagi)
- kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra (lokal, modulli, tizimli)
- kelib chiqish manbaiga ko'ra (shu jamoa uchun ichki yoki tashqaridan olingan)

Innovatsiyalar odatda bir necha muammo kesishgan paytda vujudga keladi va umuman yangi masalalarni hal qiladi, pedagogik jarayonning uzluksiz yangilanib borishiga olib keladi.

"Yangiliklarni joriy qilish" tushunchasi bizningcha, yangilik, ham ana shu yangilikni amaliyotga joriy etish jarayonidir. Yangilik - bu alohida olingan shaxs uchun yangi bo'lgan g'oyadir, bu g'oya obyektiv ravishda yangi yoki yangi emasligi ahamiyat kasb etmaydi, biz uni vaqt bo'yicha - yangilik ochilgan payt yoki undan birinchi marta foydalanilgan paytda aniqlaymiz.

Yangilikni joriy qilish predmet mazmuniga ko'ra uchta asosiy guruhga bo'linadi:

1) texnik-texnologik;
2) mahsuliy;
3) ijtimoiy.

O'z navbatida bularga quyidagilar kiradi: iqtisodiy, tashkiliy- boshqaruv, xususiy - ijtimoiy, huquqiy. Oliy ta'lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo'la olmaydi. Shu sababli "novatsiya" va "innovatsiya" tushunchalari o'rtasidagi asosiy farqlarni ko'rsatib o'tish zarur. Buning uchun islohot faoliyatining aniq shakli, mazmuni va ko'lami asos bo'lib xizmat qiladi. Agar faoliyat qisqa muddatli bo'lsa va yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lmasa, o'z oldiga muayyan tizimdagi faqat ba'zi elementlarini o'zgartirishni vazifa qilib qo'ygan bo'lsa, u holda biz novatsiya bilan muloqot qilayotgan

[30] L.R. Gaynutdinova,S.N. Alimxodjaeva, "Uzluksiz kasb-hunarga yo`naltirish usullari"

bo‘lamiz. Agar faoliyat ma’lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilayotgan bo‘lsa va uning natijasi o‘sha tizim rivojlanishiga yoki uning prinsipial o‘zgarishiga olib kelsagina innovatsiya deya olamiz. Har ikkala tushuncha mezonlari quyidagicha: novatsiya amaldagi nazariya doirasida amalga oshiriladi, ko‘lam va vaqt bo‘yicha chegaralanadi, metodlar yangilanadi va natijasi avvalgi tizimni takomillashtiradi. Innovatsiya esa tizimli, yaxshi va davomli bo‘ladi, ma’lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi, amaliyot subyektlari pozitsiyalarini to‘la yangilaydi.

Bunda faoliyatning yangi yo‘nalishlari ochiladi, yangi texnologiyalar yaratiladi, faoliyatning yangi sifat natijalariga erishiladi, natijada amaliyotning o‘zi ham yangilanadi. Innovatsiyaning amaliyotga kiritilishi innovatsion jarayonlarda amalga oshiriladi.

Innovatsion faoliyatga tayyorlashdan maqsad — o‘qituvchining yangilikka intiluvchanligini, mustaqil o‘z ustida ishlash ko‘nikmasi va malakasini shakllantirish, yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalanib, dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarni o‘tkazish malakasini takomillashtirishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion faoliyat - yangi ijtimoiy talablar bilan an’anaviy me’yorlarning mos kelmasligi yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me’yorining yuzaga kelgan me’yor bilan to‘qnashuvchi natijasida vujudga kelgan qator muammolarni yechishga qaratiladi. Innovatsiyalar doimiy ravishda pedagogik faoliyatga yangiliklar olib kirish orqali ta’lim rivojiga hissa qo‘shadi, pedagogik faoliyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchining innovatsion faoliyati butun pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg‘a boshlovchi, taraqqiy ettiruvchi kuch vazifasini bajaradi va oliy ta’lim jarayonining sifatini kafolatlaydi. Shuning uchun ham innovatsiyani har bir o‘qituvchi tushunib, o‘qib va o‘rganib, o‘zining pedagogik faoliyatiga olib kira olsa, oliy ta’lim standartlarida ko‘rsatilgan me’yoriy talablar amalga oshadi. O‘qituvchi innovatsion faoliyatiga tayyor bo‘lib, darsga eng so‘nggi yangiliklarni olib kirib, talabalarga qiziqarli va uni ehtiyojiga mos ravishda tashkil etsagina, sifat va samaradorlikni kafolatlashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ishmuhammedov R., Abduqorirov A., Pardayev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari tarbiyachi-o‘qituvchilari va guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar) - T.: Iste’dod, 2010.
2. Дудченко В.С. Инновационная игра как метод исследования и развития органах. М., 1982,

DARS JARAYONLARIDA INNOVATSION VA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Berdiyeva Dilso‘z Rahmatullo qizi,
Xatirchi tumani 57-umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi,
Majidova Ziyoda Yunusovna,
Xatirchi tumani 89- umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta’lim sifatini oshirishda yoshlarimizni ma’naviy barkamol, aqliy salohiyati yuqori, mustaqil va erkin fikrlovchi, ijodkor bo‘lib shakllanishida interfaol metodlardan foydalanish haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Interfaol metod, texnologiya, irodaviy, ilmiy-ijodiy, alternativ, anglash, fiklash, texnologiyalar, innovatsiyalar.

Аннотация. В данной статъе даётся характеристика психологических сторонах создания творческой среды и их влияние в управление педагогического коллектива обшеобразовательных школ

Ключевые слова: Метод, творческая среда, общение, ценность, внимание, психический процесс, мотив, социально - психологически, мотивация

Annotation. In this article is spoken about psychological quality in management pedagogical society in secondary schods and pay attention to these qualities in educational process.

Key words: Method, creative environment, motivation, psychological process, social- psychological, attention.

Hozirgi zamon yoshlari aqliy kamolotining rivojlanib borayotganligi, ularning ilm o‘rganishga chanqoqligi, mustaqil fikrlashi va ilmiy-ijodiy izlanishlari, yangiliklar va kashfiyotlarga nisbatan cheksiz qiziqishi va ta’lim mazmuniga talabchanligi, o‘qituvchining o‘z ustida ishlashga, malakasini oshirib borishiga va ongini yanada rivojlantirishiga, ta’lim tizimidagi barcha yangiliklardan boxabar bo‘lib borishi kerakligiga asosiy motiv bo‘lib xizmat qiladi. So‘nggi yillarda pedagogika faniga, ta’lim tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsiyalar, yangi-yangi pedagogik-psixologik tushunchalar, interfaol metodlarni ta’lim beruvchi tomonidan o‘zlashtirilib va qo‘llanib borilishi, ta’lim mazmunini tubdan o‘zgartirib yubordi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Zamonaviy o‘qituvchi dars jarayonida «aktyor» emas, aksincha «rejissyor» bo‘lishi kerakligini anglashi lozim. U o‘z o‘quvchilarini fanga ijodkorlik nuqtai nazari bilan qarashlarini tashkil qilishi, ularda izlanuvchanlik xususiyatlarini shakllantirishi va albatta, yangi pedagogik texnologiya usullaridan foydalangan holda darsni tashkil etishi kerak bo‘ladi. Buning uchun esa u bir necha yangicha ta’lim usullarini yaxshi bilishi kerak. O‘qituvchi alternativ, o‘quvchini faollikka chorlovchi savollar orqali sinfda ijodkorlik, izlanuvchanlik, qiyoslash, o‘xshashlik va farqini topish singari xususiyatlarni rivojlantiruvchi muhitni yaratadi. Savollar berish bilan birgalikda o‘quvchilarda, fikrlashga majbur qiluvchi savollar tuzish qobiliyatini ham shakllantirib boradi. Interfaol metod va usullarni sanab o‘tamiz: aqliy hujum, klasterlar, mustaqil xat, venn diagrammasi, harakatli ma’ruza, o‘zaro ta’lim, muallifga savollar, bilaman, bilishni istayman, bilib oldim» (BBB), insert, bahs-munozara, sinkveyn, qadriyatlar tizimi, debat, va boshqalar.

Bu usullar asosan basqichlarga ajratilgan dars jarayonida qo‘llaniladi (chaqiruv, anglash, fiklash) va har birida o‘qituvchi o‘quvchilarga tegishli topshiriqlar beradi. Bu metodlar va usullar o‘quvchida kommunikativ qobiliyatning o‘sishiga, o‘quvchilar orasida hissiy aloqa o‘rnatilishiga, muammoli vaziyatlar echimiga, guruhda ishlashni, o‘zgalarning fikrini tinglay olishni va o‘z fikrini mustaqil bayon etishni o‘rgatibgina qolmasdan, unda o‘ziga ishonch, bilimiga tayana olish, qiziqishlarining kuchayishiga, keng fikrlashga olib keladi.

Yoshlarimizni ma’naviy barkamol, aqliy salohiyati yuqori, mustaqil va erkin fikrlovchi, ijodkor bo‘lib shakllanishida pedagogik innovatsiyalarni qo‘llash, integrativ jarayonga asoslanish, interfaol metodlardan foydalanish kamlik qiladi. Biz o‘quvchi shaxsining ichki olamini hisobga olishimiz kerak bo‘ladi. Ya’ni uning shaxsiy fikri bilan hisoblashishimiz, undagi qobiliyatlarni payqamog‘imiz, uning so‘z boyligini oshib borishiga ijobiy ta’sir ko‘rsata olishimiz zarur. Xo‘sh, buning uchun nima qilish kerak degan savol o‘z-o‘zidan tug‘ilishi muqarrar. Darslarda qo‘llanilayotgan qoidalar darsni samaradorligini oshirishini ko‘rsatib o‘tuvchi quyida qoidalarni sanab o‘tamiz.

Mashg‘ulotning samaradorligini oshirish uchun amal qilish mumkin bo‘lgan qoidalar:

►dars qoldirmaslik va kech qolmaslik;
►aniq maqsad qo‘yish va unga erishish; vaqtdan unumli foydalanish;
►fikrni bo‘lmaslik; eshita olish, savol berish madaniyatiga rioya qilish;
►o‘zgalar fikrini hurmat qilish, o‘zaro hurmat;
►ma’suliyatli bo‘lish; faollik, ijodkorlik va bunyodkorlik;
►kayfiyatni mo‘tadil saqlash;
►tashkilotchi va tashabbuskor bo‘lish;
►fikrini qisqa, aniq va ravon ifoda etish;

Xulosa qilib shuni ta’kidlaymizki, bu qoidalar shaxsni yuqori ma’naviyatli, keng fikrlovchi, ijodkor, bulib shakllanishiga yordam beradi, shuningdek o‘zgalarni fikrini hurmat qilishga o‘rgatadi. O‘quvchilarimiz dars jarayonida shu qoidalarga amal qila olishsa o‘z fikrlarini, g‘oyalarini aytishdan cho‘chishmasa, serg‘ayrat, shijoatli, qalb tuyg‘ulari ilmda beorom bo‘lsa, o‘zgalarni fikrini hurmat qila olishsa darslar o‘z samarasini berishi aniq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E.G‘oziev. Umumiy psixologiya. I-kitob, Toshkent, 2002 yil
2. Barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.,1998
3. Axloq odobga oid hadis namunalari T.: Fan.1990 y.

YOSHLAR ORASIDA DEVIANT XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Ne’matova Gullola Islomova,
Qiziltepa tumani 12- umumiy o‘rta ta’lim maktab amaliyotchi psixologi,
Oltinova Zarnigor Jamol qizi,
Qiziltepa tumani 26- umumiy o‘rta ta’lim maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya. Voyaga yetmaganlar da jinoyat motivlari shakllanishiga ta’sir etadigan muhimomillarni (tabiiy-biologik, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-psixologik va tarbiyaviy- pedagogik) o‘rganish bilan ularning mohiyati va xususiyatlarini tarbiyaviy-psixologik me’yorlar asosida baholash yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlartarbiyasi, mas’ul bo‘lgan ota-onalar, o‘qituvchi-tarbiyachilar, jamoatchilik, barkamol yoshlar, ustuvor vazifalar.

Аннотация. Рассматриваются важные факторы, влияющие на формирование преступных мотивов у несовершеннолетних (природно-биологические, социально-экономические, духовно-психологические и воспитательно-педагогические), а также оценивается их сущность и особенности на основе воспитательно-психологических норм.

Ключевые слова: воспитание молодежи, ответственные родители, учителя-воспитатели, общественность, гармонично развитая молодежь, приоритетные задачи.

Jahon psixologiyasi fanida motivlarning yuzaga kelishi, turlari va yo‘nalganligi, xulq-atvorda ifodalanishi, sub’yekt faoliyatida (o‘yin, o‘qish vamehnat) va muomala-munosabat jarayonlarida shakllanishi Z.Freyd, G.Ollport, A.Maslou, E.Daffi, A.Bandura, D.Berlayn, K.Pribram, Nil Miller, L.Festinger, V.Kettell, Locke, Jon Steys Adams, Edvard Loulerlar ilmiy izlanishlarida keng ko‘lamda tadqiq qilingan. Biroq, mazkur

tadqiqotlarda xulq motivlarining ijtimoiy shartlanganligi va ijtimoiy-psixologik mohiyati tadqiqotlarning diqqat markazidan chetda qoladi.

Maslou “Psixologiyadan borliqqa” deb nomlangan asarida, bir vaqtning o‘zida, ma’naviy ehtiyojlar (talablar) ro‘yxatini tuzib, ularni "o‘sish motivlari" (mavjud bo‘lgan qadriyatlar) deb atagan.Biroq, u ularni ta’riflash qiyinligini ta’kidlaydi va hammasi bir-biri bilan chambarchas bog‘liqlikda namoyon bo‘lishi va yuksalib borishiniizohlaydi. Ular tarkibiga: mukammallik, yaxlitlik, adolat, to‘liqlik, hayot mazmuni, go‘zallik, oddiylik, namoyishlar boyligi, yaxshilik, haqiqat, osonlik, halollik va boshqalar kirishini aytib o‘tadi. Maslouning aytishicha, insonning yuksalishiga bo‘lgan ehtiyoj inson faoliyatining eng kuchli motivi bo‘lib, shaxsiy rivojlanish tarkibiga kiradi.

Broomning orzu-umidlar (kutish) nazariyasi va uni ishlatish amalda juda yaxshi natijaga ega. U tashkilotlarda ishchilarni rag‘batlantirishni kuchaytirish va turli darajadagi menejerlar faoliyati uchun juda foydalidir.

Amerikalik psixolog Jon Steys Adamsning tenglik (adolat) nazariyasida, inson motivatsiya samaradorligini ba’zi bir omillar bilan emas, balki boshqa sharoitlarda bo‘lgan boshqa odamlar tomonidan olingan hisob-kitoblarni va natijalarni hisobga olgan holda baholaydi. Ya’ni motivatsiya insonning ehtiyojlari nuqtai nazaridan emas, balki uni boshqalar bilan taqqoslash asosida ko‘rib chiqiladi. Bunda sub’yektiv baholardan bahramandlik ya’ni, odamlar o‘zlarining sa’y-harakatlari natijalaribilan atrofdagi kishilarning sa’y-harakatlari va ularning natijalari bilan o‘zaro taqqoslashadi. Va bu yerda uchta variantdatenglik (adolat): yetarli baholanmaganlik, adolatli baho, ortiqcha baholashda namoyon bo‘ladi.

Maslouning olib borgan tadqiqotlari tahlillariga ko‘ra, har bir inson uchun eng muhim ehtiyojlar ro‘yxatini tuzishkerak. Shundan kyeyin, ehtiyojlar piramidasi bo‘yicha ehtiyojlarni guruhlarga bo‘lish va birinchi navbatda qanday ehtiyojlarni qondirish mumkinligini aniqlashga harakat qilish lozim. Natijada,o‘sha odam xulqini va boshqa o‘rganilayotgan odamlarning xulq-atvorida qanday ehtiyoj darajasining ustunligini aniqlash mumkin.

Qizig‘i shundaki, Abraxam Maslouning e’tirof etishicha, "o‘zini-o‘zi ifodalash (namoyon qilish) bosqichi" barcha odamlarning atigi 2 foizini tashkil etadi. O‘z ehtiyojlaringizni hayotda erishgan natijalaringiz bilan uyg‘unlashtiring (solishtirsangiz) va siz ushbu toifadagi insonlardan biri ekanligingizni yoki emasligingiznibilib olasiz, degan xulosaga keladi.

Shaxs psixologiyasimuammolarini, uning tarixiy kechishi va ontogenizda rivojlanishi bilan bog‘liq konseptual masalalarni chuqur o‘rganishdamotivasion sohani tatqiq etish tayanch hisoblanadi.

1. Motivlar o‘zini hosil qilgan ehtiyojlar bilan farqlanadi. Shuning uchun, ularni boshlang‘ich-organik va ma’naviy-yuksak motivlarga ajratishmumkin. Maqsadlar esa, A.Maslouning "piramidasi"ga ko‘ra, ehtiyojlarning mavjud tasniflarigaqarab ham turlarga bo‘linishi mumkin.

2. Motivlar ehtiyoj ob’yektini aks ettirish shakli bilan ham ajralib turadi.

3. Ehtiyojlarni qondirish muddatiga qarab ham motivlar farqlanadi. Amaldagi vaqtga ko‘ra- qisqa muddatli va uzoq muddatli motivlar, keng va tor doiraga xos motivlar bo‘lishi mumkin.

4. Maqsadning ongda ishtirok etish darajasiga qarab ham motivlar- ongli va ongsiz, tushunarli va chindan ham samarali bo‘lishi mumkin.

S.L.Rubinshteyn har qanday shaxsning xulq-atvorini psixologik jihatdan tushuntirishda qo‘zg‘atuvchilar (qo‘zg‘ovchilar)ni turli bosqichlarda o‘zaro murakkab bog‘liqlikdagi kechish holatini olib qarash lozim, deb ta’kidlaydi.

Motiv va motivatsiya tuzilishini genetik bosqichda tarkib topish ehtimolini tahlil qilish natijasida ularning sodda bir bosqichli tizimlardan murakkab va ko‘p bosqichli yuksak darajaga o‘sib o‘tish jarayonini ishonchli omillar yordamida yaqqol ko‘rsatib beradi. Ularning dinamik va ma’naviytomonlari uyg‘un rivojlanish prinsipiga asoslanishi e’tirof etilgan. Motiv va motivatsiya tuzilishiga oid masalaga yondashish jarayonida butun e’tiborni ularning mazmuniy jihatinialohida ko‘rsatishga, ma’noviy tomonlarining birlamchiligini belgilashga qaratiladi.

Xulosa Shaxsningpsixologik taraqqiyoti, uning tarixiy kechishi va ontogenizda rivojlanishi bilan bog‘liq konseptual masalalarni chuqur o‘rganishdamotivasion sohani tatqiq etish tayanch hisoblanadi. Motivatsiya odamni muayyan xatti-harakatlarni bajarishga undash jarayoni, ko‘pincha muqobil usullarni tahlil qilish va baholashni, tanlash va qarorlarqabul qilishni talab qiluvchi jismoniy-psixologikjihatdan uyg‘unlashgan mohiyatli murakkab harakat jarayoni bo‘lib, bu jarayon murakkablashib boradi va o‘z mohiyatiga ko‘rasub’yektning yuzaga kelgan tayanch ehtiyojlarini qondirishga yo‘nalgan faoliyatni tanlash va uni amalga oshirish jarayonini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2017. - 6 (766)-son.
2. Norqulova N.T. Affiliatsiya motivi – talabalar ma’naviy qiyofasini shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omil // Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. T.: 2017, - 144 b.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM JARAYONIDA ZAMONAVIY INNOVATSION USULDAN FOYDALANISH

Jabborova Oysara Ibodulla qizi,
Navoiy shahar 17-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich fanlarini o‘qitishda innavatsiyon metodikalarning umumiy va o‘ziga xos jihatlari, O‘quvchiga bilim berish, har bir dars mazmunini boyitish, qiziqarli mashg‘ulotlar, ta’lim jarayonida zamonaviy innovatsion usuldan foydalanish haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Innavatsiyon metodikalar, ta’lim-tarbiya, konseptual, ruhiy, ma’naviy-ahloqiy, intellektual, kasbiy salohiyat, metodlar.

O‘zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyati mamlakatlari qatoridan munosib o‘rin egallashi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan taraqqiy etishi, xalqaro munosabatlarni tashkil etishda demokratik va insonparvarlik tamoillarining ustivor bo‘lishiga erishishi qat’iy ma’naviy-ahloqiy sifatlarga ega bo‘lgan, kasbiy faoliyatida yutuqlarga erisha oladigan yangi kelajakning tayyorlanishiga bog‘liq. Respublikamiz xalq ta’limi oldida turgan asosiy vazifa har tomonlama kamol topgan sog‘lom, qobiliyatli, o‘z Vatani va xalqiga sodiq insonlarni tarbiyalash va ularni voyaga yetkazishdan iboratdir. Bu ulug‘ maqsadni ro‘yobga chiqarish xalq ta’limi tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan barcha o‘qituvchilarning o‘z ishiga ijodiy yondashish, har bir ishda yuksak samaradorlikka erishish zamonaviy pedagogik metodikalarni qo‘llab

darslarni samarali tashkil etishni talab qiladi. Qolaversa, boshlang‘ich ta’lim yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishning poydevori hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qutuvchisining kasbiy salohiyati va ma’lumot darajasi, uning bolalar psixologiyasi va ma’lumot darajasi hamda hozirgi zamon boshlang‘ich ta’lim metodikasini yaxshi bilishi ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. standarti va amaldagi maktab dasturlarida o‘quvchi egallashi lozim bo‘lgan materiallar ancha murakkab bo‘lib, bolalarning bu bilimlarni bosqichma-bosqich egallab olishlarini, kengaytirib va rivojlantirib borishlarini taqozo etadi. Bugungi va ta’lim tizimi biz boshlabg‘ich sinf o‘qituvchilari oldiga o‘ta mas’uliyatli vazifalar yuklamoqda. Muallim har bir o‘tilayotgan darsga ijodiy yondashishi, mashg‘ulotlarni ilg‘or pedagogik, innavatsiyon metodikalar asosida darsning har bir minutidan unumli foydalanishi zarur.

O‘quvchiga bilim berish, har bir dars mazmunini boyitish, qiziqarli mashg‘ulotlarni dars jarayoniga singdirishni talab qiladi. Ruhshunoslarning aniqlashicha, boshlang‘ich sinf o‘qituvchining oddiy tushuntirishi orqali egallab olgan ma’lumotlarga qaraganda turli xil ruhiy kechinmalar orqali o‘zlari mulohaza yuritib, mustaqil bajargan ishlari vositasida o‘zlashtirilgan bilimlarini uzoq esda saqlab qoladilar. Chunki o‘quvchi mustaqil mashqlarni bajarishda faoliyat ko‘rsatib, ilgari olgan bilimlariga tayangan holda ko‘plab o‘quv materiallarini hayolidan o‘tkazadi. O‘xshash hodisalarni taqqoslaydi. O‘zicha mulohaza yuritib mustaqil hukm chiqaradi.

Mashg‘ulotlarni shunday tashkil etish kerakki, o‘quvchi har bir dars davomida egallashi lozim bo‘lgan bilimlar hajmini, o‘zida hosil qiladigan ko‘nikma va malakalarni oldindan belgilab olishi lozim. Bu o‘z navbatida o‘quvchining mashg‘ulotlarga aniq maqsad bilan qatnashishini taqozo qiladi. Chunki o‘quvchi darsning oxirida belgilangan maqsadga erishganligini bilish imkoniyatiga ega bo‘lishi zarur.

Albatta, boshlangich sinf o‘quvchisiga bilim berish, har bir dars mazmunini boyitish, qiziqarli mashg‘ulotlarni dars jarayoniga singdirishni talab qiladi. Bunda oqituvchining dars uchun oldindan puxta tayyorgarlik korishi va darsda foydalanidigan usullari bolalarning mustaqil ishlashiga qaratilishi zarurdir. Chunki o‘quvchi mustaqil mashqlarni bajarishda faoliyat ko‘rsatib, ilgari olgan bilimlariga tayangan holda ko‘plab o‘quv materiallarini hayolidan o‘tkazadi. O‘xshash hodisalarni taqqoslaydi. O‘zicha mulohaza yuritib mustaqil hukm chiqaradi. O‘qituvchilarning tayyor holda bergan ma’lumotida esa o‘quvchi fikrlash faoliyati to‘la ishga kirishmasdan to‘g‘ri javobni o‘zlashtirib oladi. O‘xshash hodisalarga duch kelishi bilan o‘qituvchi bergan bilimni amaliyotga taqbiq qilishda qiynalib qoladi. Davlat ta’lim standarti va amaldagi maktab dasturlarida o‘quvchi egallashi lozim bo‘lgan materiallar ancha murakkab bo‘lib, bolalarning bu bilimlarni bosqichma-bosqich egallab olishlarini, kengaytirib va rivojlantirib borishlarini taqozo etadi.

Maktab bola hayotida juda muhim o‘rin turadi. Shu davrda u atrof-muhit, jamiyat va kishilar mehnati, maktab-maorif haqidagi bilimlarni egallaydi. Kecha o‘yin bilan band bo‘lib, erkin faoliyat ko‘rsatib yurgan bolaning birdan maktabning ichki qonun-qoidalariga moslashishi, belgilangan tartib asosida mashg‘ulotlarga o‘z vaqtida qatnashishi oson kechmaydi. Shu tufayli kichik maktab yoshidagi bolalar o‘yin bilan bog‘liq darslarda juda faol qatnashadi. Biz o‘qituvchilar buni hisobga olib, darslarga o‘yin elementlarini kiritishimiz va undan ta’lim-tarbiyaviy maqsadlarda samarali foydalanishimiz lozim.

Bugun maktabga ilk bor qadam qo‘ygan o‘quvchining kechagi mashg‘uloti o‘yin edi. Bolada boshlang‘ich sinflarda o‘rganiladigan materiallarni o‘zlashtirib olishga yordam beradigan epchillik, hozirjavoblik, voqealarni bir-biriga taqqoslash, sinchkovlik

kabi ijobiy xislatlarning shakllanish davri bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan bilimlarning o‘zlashtirib olinishiga erishish uchun ana shularga tayanish va uni parvarish qila borish lozim. Bu o‘rinda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati juda kattadir. “Tasavvur qiling, bola ma’lum amaliy va ruhiy tayyorgarlikdan keyin maktab o‘quvchisi bo‘ladi. Uning vazifasi o‘zgaradi. Bir kecha - kunduzda o‘rtacha 4 soat ta’lim oladi. Kechagi o‘yinqaroq bola bugun 40-45 daqiqa davomida diqqatini bir joyga joylab, o‘qituvchi bilan muloqatda bo‘ladi. O‘quv axborotini qabul qiladi va idrok etadi. Ana shu vaqtda o‘qituvchi loqayd, mas’uliyatsizlik qilsa, uning bu holati ota-onalarning holati bilan hamohang bo‘lib qolsa, ota-ona ham yordam berishdan ojiz, nazorat qilishga “vaqti yo‘q” bo‘lsa, o‘sha o‘quvchilar bo‘sh o‘zlashtiruvchi, tartibsiz yomon o‘quvchilarga aylanadilar. O‘z kasbining mohir ustasi bo‘lgan fidokor o‘qituvchi ana shu paytda o‘quvchilarni qo‘lga oladi, ularning mehrini, ishonchini qozonadi: o‘quv mashg‘ulotlariga qiziqish uyg‘otadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, davlatimiz tomonidan ta’lim tizimini takomillashtirishga bo‘lgan e’tibor, bu ulug‘ xalqimiz, kelajagimiz va ertangi kunimizga bo‘lgan e’tibordir. Kelajagimiz vorislari bo‘lgan yosh avlodning mustahkam bilim olishlari, olgan bilimlarini kundalik faoliyatda qo‘llay olishlariga, komil insonlar bo‘lib voyaga yetishlariga imkoniyatlar yaratamiz, ta’lim tizimiga bo‘lgan e’tiborning yaqol namunasidir. Bu esa buyuk kelajagimizga bo‘lgan ishonch garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axloq odobga oid hadis namunalari T.: Fan.1990 y.-169 b.
2. Mavlonova R.Raxmonqulova N.Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi . T.: O‘qituvchi, 2006. 96 b.

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARI EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Rustamova M.T.,
Navoiy innovatsiyalar universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining emotsional intellektini rivojlantirish jarayoni va uning psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Emotsional intellekt o‘qituvchining professional faoliyatida muhim ahamiyat kasb etib, talabalarga samarali ta’lim berish, muloqot madaniyatini shakllantirish va stressli vaziyatlarni boshqarishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotda emotsional intellektning tarkibiy qismlari, uni rivojlantirish usullari hamda psixologik yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, o‘qituvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida emotsional intellektning o‘rni, uni shakllantirishda zamonaviy ta’lim metodlarining ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: emotsional intellekt, ingliz tili o‘qituvchilari, psixologik xususiyatlar, ta’lim jarayoni, shaxsiy rivojlanish.

Kirish Zamonaviy ta'lim tizimida o‘qituvchilarning emotsional-intellektual salohiyati ularning kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyatning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Emotsional intellekt shaxslararo muloqot, stressni boshqarish, motivatsiya yaratish va empatiya kabi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu jihatlar ayniqsa ta’lim jarayonida, xususan, chet tillarini o‘qitishda juda muhim sanaladi.

Zamonaviy ta’lim tizimi mutaxassislaridan nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalar, balki kuchli psixologik tayyorgarlik, ijtimoiy moslashuvchanlik va emotsional barqarorlikni ham talab qilmoqda. Xususan, xorijiy til — ayniqsa ingliz tili o‘qituvchisi

bo‘lish yo‘lini tanlagan bo‘lajak pedagoglar uchun nafaqat lingvistik salohiyat, balki o‘z his-tuyg‘ularini anglay olish, boshqalarni tushuna bilish, empatiya va stressga chidamlilik kabi jihatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu holat emotsional intellekt tushunchasini nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki kasbiy shakllanish jarayonining ham ajralmas qismiga aylantirmoqda.

Emotsional intellekt — bu shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish, boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish va u bilan samarali o‘zaro ta’sirga kirishish qobiliyatidir. O‘qituvchilik kasbi esa doimiy ijtimoiy muloqot, murakkab pedagogik vaziyatlarga to‘qnash kelish va o‘quvchilar bilan hissiy jihatdan uyg‘un munosabat o‘rnatishni talab qiladi. Shu boisdan, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari uchun emotsional intellektni rivojlantirish nafaqat psixologik tayyorgarlik, balki kasbiy layoqat va o‘quvchilar bilan samarali ta’sirchan munosabat qurishning asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur fenomenning psixologik jihatdan tahlili, birinchidan, emotsional intellektning tuzilmasi va komponentlarini aniqlashni, ikkinchidan, uning o‘qituvchilik faoliyatiga ta’sirini o‘rganishni talab etadi. Emotsional intellekt — motivatsiya, o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, empatiya va ijtimoiy ko‘nikmalar kabi tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, bu omillar pedagogik muloqot samaradorligi, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish va stressga bardosh berishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ayniqsa, ingliz tili kabi chet tili darslarida madaniy kontekstlarning xilma-xilligi, o‘quvchilar bilan bevosita muloqot zaruriyati bu intellektual-emotsional ko‘nikmalarning dolzarbligini yanada oshiradi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining emotsional intellektini rivojlantirishni psixologik fenomen sifatida o‘rganish, ularning shaxsiy va kasbiy salohiyatini oshirishda muhim omil sifatida qaralishi lozim. Chunki bu jarayon ularning o‘z-o‘zini anglash darajasini ko‘tarish, psixologik moslashuvchanligini ta’minlash, ta’limiy jarayonlarda muloqotga tayyorlik va ijobiy munosabatlar o‘rnatish ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida zamonaviy ta’lim sifatini oshirishga, o‘quvchilarning ijtimoiy-psixologik farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda ta’lim tizimidagi islohotlar pedagogik faoliyatni faqat nazariy bilim bilan emas, balki shaxslararo muloqotni samarali tashkil eta oladigan, his-tuyg‘ularini anglaydigan va boshqaradigan o‘qituvchi shaxsini shakllantirish zaruratini oldinga surmoqda. Ayniqsa, xorijiy tillarni o‘rgatishda, xususan, ingliz tili o‘qituvchilari uchun emotsional barqarorlik, muloqotdagi sezgirlik va empatiya ko‘nikmalari nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida emotsional intellektning shakllanishi ularning kasbiy tayyorgarlik jarayonida markaziy psixologik fenomen sifatida qaralishi zarur.

1990-yillardan boshlab, psixologik adabiyotlarda “emotsional intellekt” atamasi muhim kontseptual kategoriya sifatida paydo bo‘ldi. Mazkur tushuncha dastlab R.Bar-On, D.Goulman, Dj.Mayer, P.Solovey Dj.Gilford va G.Gardnerlarning “ijtimoiy intellekt” haqidagi tadqiqotlari asosida shakllanib bordi. Ularning fikricha, emotsional intellekt ijtimoiy faoliyatda muvaffaqiyatli bo‘lish va shaxslararo muvozanatni ta’minlashdagi moslashuvchanlik bilan chambarchas bog‘liqdir. Biroq, bu qarashlar bu murakkab fenomenning barcha psixologik jihatlarini to‘liq ifodalay olmaydi [100; 33; 32; 47].

Emotsional intellekt ilmiy tushuncha sifatida dastlab Dj.Mayer va P.Soloveylar tomonidan chuqur asoslab berilgan. Ularning yondashuviga ko‘ra, emotsional intellekt – bu insonning o‘z his-tuyg‘ularini aniqlay olish, ularni boshqarish, hissiy tajribalarni anglab, fikr va hislarni o‘zaro integratsiyalash orqali muvozanatga erishish qobiliyatidir

[100]. Mazkur yondashuv pedagogik faoliyatda ayniqsa dolzarb bo‘lib, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining dars jarayonida yuzaga keladigan hissiy yuklamalarni to‘g‘ri boshqarishi, o‘quvchilar bilan muloqotda konstruktiv pozitsiyani ushlashi uchun muhim psixologik poydevor yaratadi.

Emotsional intellekt nazariyasi psixologiya fanida yanada kengayishiga D.Goulman o‘z hissasini qo‘shdi. U o‘zining “Emotsional intellekt” nomli asarida bu tushunchani nafaqat hissiy donolik, balki emotsional kompetentlik sifatida ham talqin etdi [33]. Uning nuqtai nazariga ko‘ra, bosh miya strukturasi, xususan, yarim sharlar va limbik tizimda hissiyotlar yuzaga keladi va ularga ishlov berilgach, bu axborotlar ongda anglash darajasiga chiqadi. Muallif ta’kidlashicha, insonning boshqa shaxslar emotsiyalarini tushunishi va boshqarishi bu hissiy sezgirlik emas, balki psixologik kompetentlik mezonlariga asoslangan emotsional salohiyat ko‘rsatkichidir. Bunday kompetentlikka o‘z hissiyotini tanib olish, boshqarish, ijtimoiy muhitga moslashish, muloqotda samaradorlik kabi qobiliyatlar kiradi.

D.Goulman shuningdek, aqliy intellekt (IQ) va emotsional intellekt (EQ) o‘rtasidagi farqni asoslab berdi. Ularning bir-biriga zid emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi kategoriyalar ekanini ta’kidlab, emotsional intellektni quyidagi tarkibiy elementlar orqali ifodaladi [32]:

- O‘z-o‘zini anglash – his-tuyg‘ularni aniqlash va sabablarini tushunish;
- O‘z-o‘zini boshqarish – impulslarni nazorat qilish va moslashuvchan qarorlar qabul qilish;
- Ijtimoiy vaziyatni tez tushunish – shaxslararo signallarni idrok etish va ularga to‘g‘ri javob berish;
- O‘zaro munosabatlarni boshqarish – muloqotni konstruktiv tashkil qilish, ziddiyatlarni oldini olish.

Emotsional intellekt masalasiga turli olimlar turlicha yondashuvlar orqali yondashgan. Xususan, R.D.Roberts, Dj.Mettyus, M.R.Zaydnerlar ushbu fenomenni murakkab psixik tizim sifatida tahlil qilib, uni “kognitiv” va “shaxslilik” jihatlari orqali izohlaydilar [47]. Ularning fikricha, emotsional intellekt insonning bilim, motivatsiya va shaxsiy sifatlarini o‘zaro uyg‘unlashtirgan holda idrok qilish, boshqarish va hissiy moslashuvni ta’minlaydigan ko‘p qatlamli tizimdir.

Bizningcha, emotsional intellekt inson faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida nafaqat hissiy holatlarni anglash va boshqarish imkonini beradi, balki uni to‘g‘ri yo‘naltirish orqali jamiyatda muvaffaqiyatli moslashuvga ham xizmat qiladi. Bu tushuncha shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini anglay olishi, ularni konstruktiv nazorat qilish qobiliyati hamda ijtimoiy munosabatlarda sezgirlik va empatiya asosida harakat qilishni nazarda tutadi. Emotsional intellektni shakllantirish orqali inson o‘zining ichki resurslarini samarali boshqarish, ijtimoiy ziddiyatlarga ijobiy yechim topish, o‘zaro munosabatlarda hissiy barqarorlikni saqlash kabi muhim psixologik ko‘nikmalarga ega bo‘ladi. Shuningdek, bu kompetensiya turli emotsional vaziyatlarda holatni to‘g‘ri baholash, impulsiv reaktsiyalarni cheklash va ongli ravishda qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Zamonaviy psixologik yondashuvlar shuni ko‘rsatmoqdaki, emotsional intellekt kognitiv salohiyat bilan birgalikda insonning umumiy muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Undagi o‘z-o‘zini anglash, boshqarish, ijtimoiy sezgirlik va munosabatlarni boshqarish kabi tarkibiy qismlar orqali shaxs o‘zini rivojlantirish va ijtimoiy muhitga samarali integratsiyalash imkoniga ega bo‘ladi. Emotsional intellektni rivojlantirish, ayniqsa, talaba yoshlarda psixologik barqarorlik,

o‘quv jarayonida ijobiy motivatsiyani shakllantirish va stressni boshqarish salohiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Emotsional intellekt tushunchasining shakllanish jarayoni psixologiya tarixida izchil bosqichlardan o‘tgan. Masalan, gumanistik psixologiyaning yorqin vakili Abraxam Maslou tomonidan 1950-yillarda ilgari surilgan “o‘zini o‘zi faollashtirish” g‘oyasi, insonning ichki imkoniyatlarini anglab, ularni amalda ro‘yobga chiqarish mexanizmi sifatida talqin qilingan edi [146]. Bu holat, emotsional intellektga xos bo‘lgan o‘z-o‘zini anglash, his-tuyg‘ularni tushunish va ulardan ongli foydalanish kabi jihatlar bilan uzviy bog‘liq.

1985-yilda esa tadqiqotchi R.Bar-On tomonidan “EQ – Emotional Quotient” (emotsional koeffitsient) atamasi joriy etilib, emotsional intellektni o‘lchashga oid dastlabki yondashuvlar ishlab chiqildi. Ushbu indeks, keyinchalik, pedagogik va psixologik sohalarda o‘qituvchilarning hissiy salohiyatini aniqlashda keng qo‘llanila boshlandi.

P.Solovey va Dj.Mayer tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyaga ko‘ra, emotsional intellekt quyidagi to‘rt bosqichli qobiliyatlar majmuasidan iborat [100]:

- Shaxs va boshqalarning emotsiyalarini idrok etish, ya’ni emotsiyalarni aniqlay olish va nomlay bilish;
- O‘z emotsiyalarini aql jarayonlariga yo‘naltira olish, ya’ni hissiy holatlarni qaror qabul qilishga jalb eta olish;
- Hissiyotlarni tushuna olish, ularning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini anglay olish;
- Emotsiyalarni ongli boshqarish, ularni vaziyatga mos tarzda yo‘naltira bilish.

Emotsional intellektning tabiati va mazmunini chuqur anglash, uni o‘qituvchilik kasbiy faoliyatida qo‘llay olish uchun zaruriy shartlardan biridir. Xususan, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida bu sifatning shakllanishi ularning o‘z hissiy holatini anglash, boshqalarni tushunish va samarali kommunikatsiyani yo‘lga qo‘yish qobiliyatiga bevosita ta’sir qiladi. Bu holat emotsional intellekt fenomenini zamonaviy psixologik muhitda o‘rganishni dolzarb masalaga aylantiradi.

Mazkur tushunchaga o‘ziga xos yondashuv bildirgan olimlardan biri D. Karuzo bo‘lib, u emotsional intellektni his-tuyg‘ular va ong o‘rtasidagi muvozanatli birikma sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, bu tushuncha hissiyotlarning aql ustidan hukmronligi emas, balki ushbu ikki psixologik tizimning bir nuqtada uyg‘unlashgan holatini anglatadi [58]. Shu jihatdan qaralganda, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi nafaqat o‘z hissiy javoblarini nazorat qilish, balki bu holatlarni aqliy faoliyat bilan uyg‘unlashtira olish kompetensiyasiga ega bo‘lishi kerak.

D. Goulman bu masalaga yanada kengroq yondashib, emotsional intellektni insonning o‘zi va boshqalarning emotsional kechinmalarini anglab yetish, ularning harakatlariga turtki bo‘lgan motivlarni aniqlash, va bu bilim asosida o‘zaro munosabatlarni muvaffaqiyatli yo‘lga qo‘yish qobiliyati sifatida ta’riflaydi [33]. Demak, bu yondashuv bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining didaktik muloqotda muvozanatli hissiy holatda bo‘lishini, shuningdek, o‘quvchilarining ichki kechinmalarini sezib, ularga to‘g‘ri munosabat bildirishini psixologik asoslaydi.

Emotsional intellektga oid yondashuvlar orasida R. K. Kooperning fikrlari ham e’tiborga loyiq. U emotsional intellektni o‘z hissiy holatini idrok eta olish va boshqara olish qobiliyati sifatida belgilaydi hamda bu jarayonni reflektiv ko‘nikmalar orqali shakllanishini ta’kidlaydi [61]. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi uchun bu fikr ayniqsa ahamiyatli, chunki o‘z his-tuyg‘ularini tahlil qilish va ularni nazorat qilish, kasbiy

rivojlanishda muhim ahamiyatga ega. U dars jarayonida nafaqat o‘quvchilarning, balki o‘zining ham emotsional reaksiyalarini tushuna olishi va baholashi, qaror qabul qilishda hissiy yondashuvlarni hisobga olishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Андреева И. Н. Эмоциональный интеллект как феномен современной психологии / И.Н. Андреева. - Новополоцк: ПГУ, 2011. - 388 с.
2. Андреева И.Н. Предпосылки развития эмоционального интеллекта / И. Н.Андреева // Вопросы психологии. - 2007. - № 5. - С. 57-65.
3. Андреева, И.Н. О становлении понятия «эмоциональный интеллект» / И.Н. Андреева // Вопросы психологии. - 2008. - № 5. - С. 83-95.
4. Ананьев Б.Г. Психология и проблемы человекознания. Избранные психологические труды. М.,1996. - С. 140-193.

O‘SMIRLARDA KIBERBULLINGA QARSHI IMMUNITET SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMI

Dusanov Elbek Abdusamatovich,
Navoiy viloyati PMM dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘smirlarda kiberbullingga qarshi psixologik immunitetni shakllantirish mexanizmlarini aniqlash va ularni mustahkamlashga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish. Yoshlarni kiberxavfsizlik va axborot ma’daniyati sohasida ongli va mas’uliyatli fuqorolar sifatida tarbiyalashdir. Bu jarayonning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat.

Kalit so‘zlar: Agressiv xulq, axborot-psixologik, xavfsizlik, virtual, kompyuter o‘yinlari, emotsional, tafakkur, tashxis, ong.

- Kirish. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi bilan Internet o‘quvchilarning o‘qishi, mehnati va hayotining muhim qismiga aylandi. Butunjahon kompyuter tarmog‘ining o‘quvchi uchun ochadigan imkoniyatlari cheksizdir. Bu nafaqat ta’lim xizmatlari va global axborot makonidan ma’lumot olish, balki virtual aloqadir. Internet, albatta, ko‘p foyda keltirgan bo‘lsa-da, u ko‘plab salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin, ulardan biri kiberbullingdir. Kiberbulling deb raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshiriladigan bullingga aytiladi. Bu ijtimoiy media, xabar almashish platformalari, o‘yin platformalari va mobil telefonlarda sodir bo‘lishi mumkin. Bu takroriy xatti-harakatlar bo‘lib, nishonga olinganlarni qo‘rqitish, g‘azablantirish yoki sharmanda qilishga qaratilgan. Axborot texnologiyalari (AT) bugungi kunda hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Ularning ta’lim, sog‘liqni saqlash, iqtisodiyot, ijtimoiy hayot va kundalik faoliyatimizdagi o‘rni tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi bilan yoshlar orasida kiberbulling holatlari ortib bormoqda. Kiberbulling – bu shaxsga nisbatan onlayn tarzda sodir etiladigan tahdid, haqorat, tahqirlash va boshqa ruhiy zo‘ravonlik shakllaridir. Bu holat o‘quvchilarning psixik salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, o‘smirlarni kiberbullingdan himoya qilish, ularda unga qarshi psixologik immunitetni shakllantirish bugungi dolzarb masalalardan biridir. Kiberbullingga qarshi immunitet hosil qilishning psixologik mexanizmi o‘quvchilarda ijtimoiy-psixologik barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan kompleks yondashuvni talab qiladi.

Maqsad va vazifalar:

Ushbu loyiha ishining asosiy maqsadi – o‘quvchilarda kiberbullingga qarshi immunitetni shakllantirishning psixologik mexanizmini o‘rganish va samarali usullarni ishlab chiqishdir.

O‘smirlarda kiberbullingga qarshi psixologik immunitetni shakllantirish mexanizmlarini aniqlash va ularni mustahkamlashga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish.Yoshlarni kiberxavfsizlik va axborot ma'daniyati sohasida ongli va mas'uliyatli fuqorolar sifatida tarbiyalashdir.Bu jarayonning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Vazifalar:

Kiberbulling tushunchasini va uning psixologik oqibatlarini o‘rganish.

O‘quvchilarda kiberbullingga qarshi ruhiy barqarorlik darajasini aniqlash.

Psixologik immunitet tushunchasini tahlil qilish.

Kiberbullingga qarshi psixologik immunitetni rivojlantiruvchi omillarni aniqlash.

Amaliy tavsiyalar ishlab chiqish

O‘zbekistonda bu maqsadlarni amalga oshirish uchun turli tashabbuslar amalga oshirilmoqda masalan, “Cyber 10 day” kabi kompleks targ‘ibot tadbirlari orqali aholining kiberxavfsizlik bo‘yicha bilimlarini oshirishga qaratilga faoliyatlar o‘rkazilmoqda.Bu tadbirlar orqali yoshlarni kiberjinoyatlardan himoya qilish, ularni kiberxavfsizlik oid bilimlar bilan ta'minlash va kiberbullingning oldini olishga qaratilgan chora tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Misollar o‘z ichiga quyidagilarni oladi:

• ijtimoiy tarmoqlarda kimdir haqida yolg‘on ma'lumotni tarqatish yoki kimnidir xijolatli fotosuratlarini joylashtirish

• xabar almashish platformalari orqali zararli xabarlar yoki tahdidlar yuborish

• kimningdir nomidan ish qilish va ularning nomidan boshqalarga haqoratlaydigan xabarlar yuborish.

Yuzma-yuz bulling va kiberbulling ko‘pincha bir-biri bilan bir vaqtda sodir bo‘lishi mumkin. Ammo kiberbulling raqamli iz qoldiradi, bu foydali bo‘lishi mumkin bo‘lgan va tahqirlashni to‘xtatish uchun dalillar keltirishi mumkin bo‘lgan yozuvdir. Kiberbulling (kiberhujum) – bu Internet texnologiyalaridan foydalangan holda ta'qib qilishning

bir shakli. Uning namoyon bo‘lish shakllari har xil – haqorat, shantaj, tahdidlar, tuhmat, ta'qib va hokazolar. Kiberbullingga sabab bo‘luvchi omillar zamirida ko‘pincha uning tashabbuskorining psixologik muammolari (qo‘rquvlar, voqea-hodisalar kompleksi, travma) yotadi. Kiberbulling jabrlanuvchisiga ta'sir o‘tkazish uchun ular ijtimoiy tarmoqlar, elektron pochta, messenjerlar va boshqa onlayn platformalardan foydalanadilar, chunki bu vositalar orqali har qanday ma'lumot yashin tezligida tarqaladi. Kompyuter yoki telefonning tugmasini bitta bossa bo‘ldi – haqoratomuz va badnom qiluvchi sharmandali fotosuratlar, video tasvirlar, masxaralovchi rasmlar, turli mish-mishlar juda katta auditoriyaga yetib boradi. Internet va mobil telefonlardan foydalangan holda, kiber tajovuzkorlar o‘z jabrdiydalarini tunu kun qo‘rquvda ushlab turib, ularga o‘z hayotlarini to‘liq nazorat qilish illyuziyasini yaratib berishlari mumkin.

Kiberbullingni qanday aniqlash mumkin?

Ikkita asosiy xususiyat sizga kiberbullingni aniqlash imkonini beradi.

1. Muddatli davom etish. Tizimli ravishda takrorlanadigan harakatlar.

2. Aniq belgilangan tomonlarning mavjudligi. Har doim tajovuzkor va jabrlanuvchi bor. Virtual dunyoda tajovuzkorni aniqlash qiyin bo‘lishi mumkin. U o‘zini osongina yashirgan holda ko‘plab akkauntlarni yarata oladi. Bu kiberhujumchi kimligini tanib olishni qiyinlashtiradi. Shuningdek, tajovuzkorning ko‘pincha sheriklari ham bo‘ladi.

Kiberbulling qanday xavflarni olib keladi?

Psixologik buzilish. Kiberbulling jabrlanuvchilari, ayniqsa, o‘smirlar haqida gap ketganida, ular ko‘pincha yakkalanib qolishadi, o‘zlariga nisbatan ishonchlari pasayadi, o‘zlarini namoyon qilish bilan bog‘liq muammolar paydo bo‘ladi, tashvishlanish va

xavotirlanish kabi depressiv holatlar darajasi ortib ketadi va o‘z joniga qasd qilish fikrlari/urinishlari paydo bo‘ladi. Shaxs doimiy stressda, faqat salbiy his-tuyg‘ularni boshidan kechiradi va ba’zida jabrlanuvchi roliga juda odatlanib qoladi. Somatik buzilish. Salbiy his-tuyg‘ular va qo‘rquv iskanjasida surunkali uyqusizlik, bosh og‘rig‘i, ishtaha yo‘qolishi kabi psixosomatik kasalliklar paydo bo‘lishi mumkin. Bugungi kunda ta’lim muassasalarida o‘quvchilar o‘rtasida kiberbulling keng tarqalgan bo‘lib, uning kuchayishi bugungi jamiyatda xavotir uyg‘otmoqda. 2019 yilda K.D. Xlomov va boshqalar o‘quvchilarning 70% ga yaqini kiberbullingdan aziyat chekishini va 44,3% tajovuzkor sifatida harakat qilishini ta’kidladilar . Shuni hisobga olish kerakki, o‘quvchilarning aksariyati onlayn ta’qibni jiddiy muammo deb bilishadi. Shunday qilib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi virtual dunyoda salbiy, agressiv xatti-harakatlar, muloqot tendentsiyasining paydo bo‘lishiga yordam berdi. Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu muammo butun dunyoda keng tarqalgan bo‘lib, bolalar va o‘quvchilarning Internetdan foydalanish xavfsizligiga tahdid soladi va bu bizning tadqiqotimiz mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, tadqiqotning maqsadi ta’lim muhitida o‘quvchilar o‘rtasida kiberbullingning xususiyatlarini aniqlash edi. Ushbu maqolaning vazifalari:nazariy tahlil jarayonida ta’lim muhitida o‘quvchilar o‘rtasida kiberbulling muammosini ko‘rib chiqish, shuningdek, ta’lim jarayonining barcha sub’ektlari uchun kiberbullingga qarshi kurashishning asosiy strategiyalarini ishlab chiqish. So‘nggi o‘n yillikda ham xorijiy (M.Garaigordobil, R.M.Kovalski, S.P.Limber, D.Olveys,

D.Patchin, S.Xinduya va boshqalar) ko‘plab asarlari paydo bo‘ldi. Hozirgi vaqtda kiberbullingning ko‘plab ta’riflari mavjud, ammo bu hali o‘rnatilmagan terminologiyaga ega bo‘lgan yangi tadqiqot sohasi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, ta’lim maydoni talaba shaxsining shakllanishi va rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Xavfsiz maktab muhitini yaratish o‘quvchilarga o‘z tengdoshlari va kattalar tomonidan qadrlanishi va qabul qilinishini his qilishlariga yordam beradi. Shuning uchun zamonaviy jamiyatda odamlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va hamkorlik qadriyatini shakllantirishga katta ahamiyat berish kerak. O‘quvchi shaxsini muvaffaqiyatli rivojlantirish, uning intellektual, ma’naviy va axloqiy rivojlanishi o‘quvchilarning ota-onalari va o‘qituvchilari o‘rtasidagi yaqin hamkorlikda amalga oshirilishi kerak.

O‘smirlarda kiberbullyingga qarshi immunitet shakllanishi murakkab psixologik jarayon bo‘lib, o‘z-o‘zini anglash, psixologik chidamlilik, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, o‘zini boshqarish qobiliyati, ma’lumotlarni saralash va inkor etish kabi mexanizmlar bilan bog‘liqdir. Ushbu mexanizmlarni rivojlantirish orqali o‘smirlarning kiberbullyingga qarshi immunitetini kuchaytirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Psixologiya asoslari. Otaboyeva M.X.– Toshkent: «O‘zbekiston», 2020. -245b 2. Ijtimoiy psixologiya asoslari. – Salomova D.T.Toshkent: «Fan va texnologiya», 2021. – 280 b.

3. Zamonaviy psixologik muammolar. – Davletov E.R. Samarqand: «Ilm ziyo», 2019. – 210 b.

Internet manbalari:

1.https://psychologytoday.com (https://www.psychologytoday.com/) – Kiberbulling va stressga chidamlilik bo‘yicha maqolalar.

2.https://cyberbullying.org (https://www.cyberbullying.org/) – Kiberbulling holatlari, statistikasi va qarshi kurashish yo‘llari.

O‘SMIRLAR HAYOTIDA MOTIVATSIYANING O‘RNI VA AHAMIYATI

Jumayeva Gulmexra,
Qiziltepa tuman 30-umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘smirlik davri, uning o‘ziga xos psixologik xususiyatlari motiv va motivatsiyaning o‘zaro farqi hamda o‘smirlar hayotida motivatsiyaning o‘rni va ahamiyati haqidagi mavzular ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik davri, motiv, motivatsiya, ehtiyoj, individual – psixologik xususiyatlar.

Аннотация: В данной статье раскръгваются темъг о периоде подросткового возраста, его особенностях, разнице между мотивом и мотивацией, а также значении мотивации в жизни подростков.

Ключевие слова: Подростковъгй возраст, мотив, мотивация, потребность, индивидуально - психологические особенности.

Annotation: This article reveals topics about the period of adolescence, its characteristics, the difference between motive and motivation, and the importance of motivation in the life of adolescents.

Key words: Adolescence, motive, motivation, need, individual – psychological characteristics.

Jonajon vatanimiz - O‘zbekiston zaminidan azal-azaldan o‘zlarinmg ilmiy ma’naviy me'roslari bilan dunyoga tanilgan ko‘plab olim va mutafakkirlar yetishib chiqib, samarali faoliyat ko‘rsatganlar. Ularning aql-zakovati dunyoqarashi va yuksak ilmiy salohiyatining mahsuli bo‘lgan bebaho asarlari va buyuk kashfiyotlari ming yillar osha nafaqat bizning yurtimiz ,balki jahon ahlining qudratli ma‘naviy mulki sifatida ham ardoqlanadi.

Yurtimizda bugungi kunda keng ko‘lamli jarayonlar bilan bog‘liq masalalar va ularning yechimlari mazmun-mohiyatini fikr bilan angash nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, xalqimiz taraqqiyoti uchun yanada keng imkoniyatlar va munosabat hayot tarzini yaratish, zamirida esa Jannatmakon yurtimiz O‘zbekistonni eng rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqish sharafli va hozirgi kunda muhim vazifalardan biri. Yangi demokratik jamiyatni barpo etish, kelajak poydevorini qurish, hech shubhasiz, har birimizdan qat‘iyatli va omilkor bo‘lishni yangicha fikr yuritish, yangicha ishlashni talab emoqda. Qadimgi yunon faylasufi Suqrotning “O‘zgalami o‘zgartirmoqchi bo‘lsang, avvalo o‘zing o‘zgarishing lozim. Buning uchun aniq maqsad, tolmas iroda va izlanish kerak.

O‘smirlik davri inson hayotida eng ahamiyatli va asosiy bosqichlardan biri hisoblanib o‘smirlik 10-11 yoshdan 14-15 yoshgacha bo‘lgan davrni tashkil etadi. Bu yoshdagi bolalarda xuddi kompyuterni qayta dasturlab ishga tushirgan singari o‘zgarishlar ro‘y beradi endi ular o‘zlarini yosh bola emas ,aksincha, Yoshi katta mustaqil inson deb hisoblashadi. O‘smir yoshda dunyoqarash, e‘tiqod, printsip, o‘zligini anglash va baholash kabi shaxs xususiyatlari shakillanib o‘zi to‘g‘risidagi tasavvurlar ancha aniq va barqaror bo‘ladi. Ana endi ularning o‘z shaxsiy printsiplari maqsad rejalari va kelajakda qaysi kasb egasi bo‘lish kabi aniq tushunchasi bo‘lib ular shu yo‘ldan yura boshlaydilar, ularga tanlagan yo‘llarida yetishishga, insonni faoliyatga undovchi kuchlar yig‘indisi, ya‘ni motivatsianing o‘rni beqiyos hisoblanadi. ‘

Motiv-bu kishini faoliyatga undovchi kuch sabab va ehtiyoj yig‘indisi. Motivatsiya-keng manoda inson hayotining boshqaruvchisi. Xo‘p shunday ekan bizda o‘z o‘zidan savol tug‘uladi Motiv- bu kishini faoliyatga undovchi kuch sabab va ehtiyoj yig‘indisi,

Motivatsiya esa keng manoda inson hayotining boshqaruvchisi bo‘lsa ularning o‘smir oldiga qo‘ygan maqsad, rejalarini amalga oshirish va tanlagan kasbini egallashda qanday ahamiyati bor? Bunga javob quyidagicha Masalan inson oldiga men kelajkda biznesmen yoki tadbirkor bo‘laman degan maqsad qo‘yibdimi, demak, uning ongida pul yoki moddiyat haqida qandaydur yoshligdan bo‘lgan yetishmovchilik yoki kimningdur hayotiga havas hissi uni shu maqsadiga erishishga undaydi uning anashi maqsadiga erishish yo‘lida qilgan barcha harakati motiv harakatlari yig‘indisi esa motivatsiya hisoblanadi. Motivatsiya psixologiyasi mehnatning asosiy obyekti inson (shifokorlar, o‘qituvchilar, menejerlar, rahbarlar va boshqalar) bo‘lgan ijtimoiy tipdagi kasblar vakillari uchun alohida ahamiyatga ega. Mohiyatan, inson bilan shu ,jumladan, bola, o‘smir, yigit bilan ijtimoiy-pedagogik o‘zaro munosabatlar uning motivatsiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olmasdan turib, samarali ijtimoiy o‘zaro munosabatni amalga oshirish mumkin emas. Obyektiv ravishda mutlaqo bir xil harakatlar, shaxsning harakatlari orqasida butunlay boshqa sabablar bo‘lishi mumkin, ya'ni. bu harakatlarning rag‘batlantirish manbalari, ularning motivatsiyasi butunlay boshqacha bo‘lishi mumkin. Zamonaviy o‘smir shaxsining motivatsion sohasini shakllantirish muammosi hozirgi ijtimoiy rivojlanish sharoitida psixologiya fanida ayniqsa dolzarb bo‘lib qolmoqda. Psixologik-pedagogika fanida shaxsiy yondashuvning o‘sishi shaxsning motivatsion sohasiga, kasbiy rivojlanishda uni shakllantirish omillari, sharoitlari va vositalariga chuqur qiziqish uyg‘otdi. O‘smir shaxsining motivatsion sohasini o‘rganish muammosi eng ko‘p talab qilinadi, chunki. ko‘pgina qadriyat yo‘nalishlarining ahamiyatini qayta baholash, jamiyatdagi o‘z o‘rnini qayta ko‘rib chiqish, hayot natijalari uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olish shaxs motivlarida yashiringan bo‘lib, nafaqat bilimni, balki ularni shakllantirishni boshqarishni ham talab qiladi. Shaxsning motivatsion sohasini o‘rganishning o‘zigav xosligi shundan iboratki, so‘nggi paytlarda psixologlar K.A.Abulxanova-Slavskaya, E.P.Ilyin, V.G.Leontiev, A.K.Markova VD Shadrikov va boshqalar o‘rtasida xatti-harakatlar va shaxsiyat faoliyati motivatsiyasiga qiziqish ortib borayotganiga qaramay hozirgi kunga qadar ushbu hodisaning psixologik tabiati masalasi munozarali masalalardan biri bo‘lib qolmoqda va chuqur nazariy va uslubiy o‘rganishni talab qiladi. Shaxsning ehtiyojmotivatsion sohasi qadimgi yunon falsafasi davridan boshlab, zamonaviylik bilan yakunlangan faylasuflarning diqqat-e’tiborida bo‘lgan va shunday bo‘lib qoladi Aristotel, I. Kant, N. A. Berdyaev, R. Dekart, M. Monten, Platon., G. Riker izlanishlarida empirik psixologiya va motivatsiya xususida fikrlar bayon etilgan. K. Buhler, E. Thorndike, E. Spranger, Z. Freyd, K. Levin tadqiqotlarida, shuningdek, rus psixologiyasi tarixi -P.K. Anoxin, P.P. Blonsky, L.I. Bojovich, L.S. Vygotskiy, K.N.Kornilov, PF Kapterev, VV Merlin, II Pirogov, IA Sikorsky, AA Ukhtomsky ijodlarida o‘smir psixologik motivatsiyasiga e‘tibor berilgan. Xorijiy psixologiya vakillari - A. Maslow, G. Allport, K. Rogers izlanishlarida va mahalliy psixologiyada — shaxsning motivatsion sohasi” toifasi ko‘pchilikda shaxs kontekstida ko‘rib chiqiladi.

Shaxsning jamiyatdagi odamlar orasidagi xulqi va o‘zini tushunishi sabablarini o‘rganish tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan narsa bo‘lib, masalani yoritishning ikki jihati farqlanadi:

a) ichki sabab yani holati, harakat egasining subyektiv psixologik xususiyatlari nazarda tutiladi(motivlar, ehtiyojlar maqsadlar mo‘ljallar);

b) tashqi sabablar-faoliyatning tashqi shart-sharoitlari va holatlari, ya‘ni bular aynan aniq holatlarni keltirib chiqarishga sabab bo‘ladigan tashqi stimullardir.

Har qanday motivlarning asosida shaxsning ehtiyojlari yotadi ,ya‘ni maqsadli hayotda shaxsda avval u yoki bu ehtiyojlar bo‘ladi va aynan ularning tabiat va

zaruriyatiga bog‘liq tarzda xulq motivlari nomoyon bo‘ladi. Masalan, bunga o‘quvchining o‘quv faoliyatini olish mumkin. Bilim olish maqsadi bilim, ilm olish, qiziquvchanlik ehtiyojini paydo qiladi. Bu ehtiyoj taraqqiyotning ma‘lum bir davrida, masalan, bog‘cha yosh davridan boshlab qondirila boshlaydi. Bolaga sotib olib berilgan kitoblar, daftarlar, ruchkalar va boshqa o‘quv qurollari ta‘lim maskanida tashkil etilgan bevoita bilim olishga qaratilgan faoliyatning o‘zi bola uchun motiv o‘rnini bosadi.

Rus olimi Nemov shaxsdagi motivatsion sohani quyidagicha tasavvur qiladi:

1. Bilologik ehtiyojlar.
2. Ijtimoiy ehtiyojlar.

Ehtiyojlarni biologik hamda ijtimoiy turlarga bo‘lgani bilan shuni unutmasligimiz kerakki shaxsdagi barcha ehtiyojlar ham ijtimoiylashgan bo‘ladi, ya‘ni ular o‘sha

jamiyat va muhitdagi qadriyatlar, madaniy normalar va insonlararo munosabatlar xarakteriga bog‘liq bo‘ladi.

Ta‘lim motivatsiyasini shakllantirishda o‘smirning o‘zini oshkor etishini ta‘minlash, uning qobiliyatlari, moyilliklari, qobiliyatlari, qiziqishlaridan foydalanishda yordam berish, bilimlardagi bo‘shliqlardan qochish, kognitiv qiziqishni rivojlantirish, bolaning shaxsiyati va oilaviy tarbiyaning kamchiliklarini kamaytirishdan iborat bo‘lgan ta‘limga individual yondashuv qo‘llanilishi kerak. O‘qituvchi darsda doimo ijobiy hissiy muhitni saqlab turishi kerak, buning uchun talabaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash, testlar va testlar paytida stressning salbiy ta‘sirini kamaytirish, har qanday to‘sqinlik va charchoqlarni bartaraf etish, o‘qituvchi-shogird munosabatlari va o‘zaro hurmat asosida mumkin bo‘lgan muvaffaqiyatli vaziyatni yaratish kerak. Xulosa qilib aytganda shaxsning psixologik taraqqiyoti, uning tarixiy kechishi va ontogenizda rivojlanishi bilan bog‘liq konseptual masalalarni chuqur o‘rganishda motivasion sohani tatqiq etish tayanch hisoblanadi. Motivasiya odamni muayyan xatti-harakatlarni bajarishga undash jarayoni, ko‘pincha muqobil usullarni tahlil qilish va baholashni, tanlash va qarorlar qabul qilishni talab qiluvchi jismoniy-psixologik jihatdan uyg‘unlashgan mohiyatli murakkab harakat jarayoni bo‘lib, bu jarayon murakkablashib boradi va o‘z mohiyatiga ko‘ra subyektning yuzaga kelgan tayanch ehtiyojlarini qondirishga yo‘nalgan faoliyatni tanlash va uni amalga oshirish jarayonini belgilaydi. Motivlarning falsafiy-metodologik asosi shundan iboratki, ular sabab-oqibat, ichki murakkab bog‘lanishli tuzilishga ega bo‘lib, yuksak darajada rivojlangan moddiy tizimning oliy mahsuli ekanligi to‘g‘risidagi xulosaga olib keladi. Motivlar tuzilishini amaliy (tatbiqiy) yo‘nalishda o‘rganish inson shaxsiga.

“Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya” nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya motivasion, irodaviy, axloqiy, hissiy, kognitiv, regulyativ ta‘sir o‘tkazishning omilkor shakllarining ilmiy asosi yuzaga kelishiga muhim imkon va zarur shartsharoitlar yaratadi. Shaxsning motiv doirasi uning ehtiyojlarida, irodaviy sifatlarida (aktlarida) va funksional imkoniyatlarida o‘z aksini topadi. Insonga xos motivlar qo‘zg‘atuvchilar va qo‘zg‘ovchilaming barcha turlarini (chunonchi, motivlar, ehtiyojlar, qiziqishlar, maqsadlar, intilishlar, motivlashgan ustanovkalarning ko‘rinishlari, modalliklari va shakllarini) o‘z ichiga oladi. Jahon psixologiyasi fanida motivlarning yuzaga kelishi, turlari va yo‘nalganligi, xulq-atvorda ifodalanishi, subyekt faoliyatida (o‘yin, o‘qish va mehnat) va muomala-munosabat jarayonlarida shakllanishi (yoki shakllantirish yo‘llari) keng ko‘lamda tadqiq qilingan. Aksariyat mualliflar shaxsni biologizasiyalashtirishga intilganliklari tufayli shaxs faollik manbaining psixologik mohiyatini anglamay oddiy turtki bilan tenglashtiradilar. Natijada xulq motivlari ijtimoiy shartlanganligi, ularning ijtimoiy xususiyati tadqiqotlarning diqqat markazidan va idrok ko‘lamidan chetda qoladi. Biroq, har qaysi motivni keltirib chiqaruvchi va psixologik

mohiyatini izohlovchi mexanizmlar, ularning manbalari hamda ijtimoiy tarbiyaviy xususiyatlari qariyib o‘rganilmagan. Sobiq ittifoq va rus psixologiyasida motiv va motivasiya muammolari turli nuqtayi nazardan tadqiq qilingan. Chunonchi bilish (kognitiv) jarayonlari motivasiyasi, ularning ilmiy-metodologik va o‘ziga xos xususiyatlari, mexanizmlari, faoliyat, xulq hamda muomala motivasiyasi, ta‘lim va kasb tanlash, kasbga moslashish, kasb motivlari dinamikasi kabi muammolar keng ko‘lamda o‘rganilgan bo‘lib, psixologiya fanida mazkur muammoga doir ilmiy nazariy va amaliy xususiyatli boy materiallar to‘plangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. —Yangi O‘zbekiston strategiyasi” 15-16 betlar
2. Mirziyoyev Sh.M.Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat‘iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild - O‘zbekiston 2017, 147-bet
3. N.I.Halilova —Umumiy psixologiya”2017yil

O‘QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Abdulayeva To‘ybonu,
Qiziltepa tuman 18-umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada turli yoshdagi maktab o‘quvchilarmmg ijodiy tafakkurini va uning rivojlanish omillarini o‘rganish asosida ijodiy fikrlashni tashqi va ichki jihatlarda psixologik jihatdan aniqlash muammolari. Maktab o‘quvchilarining tafakkurini ta‘lim jarayoni orqali rivojlantirish mumkin. Bolalarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab “kreativlik” tushunchasining ma’nosini tushunib olish lozimdir.Shuningdek mustaqil fikrlashga o‘rgatish muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: Ta‘lim, tarbiya**,** kreativ yondashuv, ijodiy fikrlash, tafakkur, ijodkorlik, shaxs, yosh, jarayon, ta'lim faoliyati, boshlang‘ich maktab yoshi, o‘smirlik.

Аннотация: В данной статье рассматриваются проблеллъ психологического определения творческого мъшления во внешнем и внутреннем аспектах на основе изучения творческого мъшления школьников разного возраста и факторов его развития. Развитие мъшления школьников возможно через образовательнъй процесс. Чтобъ развить у детей качества креативности, необходимо сначала понять значение понятия “креативность”.Также обсуждалось обучение салостоятелнно.му мъшлению.

Ключевме слова: образование, воспитание,творческий подход, творческое лъшление, лъшление, творчество, личность, возраст, процесс, учебная деятельность, лладший школьнъй возраст, Юность.

Annotation: In this article, the problems of psychologically identifying creative thinking in external and internal aspects based on the study of the creative thinking of schoolchildren of different ages and the factors of its development. The thinking of schoolchildren can be developed through the educational process. To develop the qualities of creativity in children, it is initially necessary to understand the meaning of the concept of “creativity”.Training in independent thinking has also been discussed.

Keywords: education, upbringing,creative approach, creative thinking, thinking, creativity, personality, age, process, educational activities, primary school age, adolescen.

XX asrning eng katta kashfiyotlaridan biri bu - xalqaro tarmoq, ya’ni internet bo‘ldi. Bu tarmoq qisqa yillarda televideniе, radio, gazeta va jurnallarni ancha orqada qoldirdi. Dunyo bo‘yicha son-sanoqsiz odamlar internet xizmatlaridan foydalanmoqdalar,

axborot almashmoqda, o‘z bilimlarini oshirishmoqda hamda turli masalalarni zudlik bilan hal qilmoqdalar. Bugun yoshidan, qaysi ijtimoiy guruh yoki qatlamga mansubligidan qat'iy nazar - internetdan foydalanuvchilar hamon ortib borayotgan bo‘lsa-da, bunda o‘sib kelayotgan o‘smirlarning soni kengayib borayotganligi, o‘z-o‘zidan mazkur masalani oldini olish va uni keltirib chiqaruvchi omillarni ilmiy jihatdan o‘rganish zaruratini yanada oshiradi. Shunday ekan, ushbu masalani psixologik jihatdan o‘rganish, uni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash, muammo yuzasidan keng ko‘lamli empirik tadqiqot olib borish ham natijalarni tekshirish, qo‘lga kiritilgan dalillar yuzasidan profilaktik dasturlar ishlab chiqish o‘ta ahamiyatli ishlar turkumidan biri sanaladi.

Kreativ tafakkur- bu shaxsning o‘z oldiga turgan vazifalarini nostandart hal etish hamda o‘z maqsadlariga erishishning yangi, yanada samaliroq yo‘llarini topish qobilyatidir. Ya‘ni kreativlik asosan boshqalarga o‘xshamagan g‘oyalarni o‘ylab toppish, an‘ana tusiga kirib qolgan fikrlashdan qochish hamda muammoli vaziyatlarni tez hamda samarali hal etish yo‘llarini bilish hisoblanadi.

Kreativlik- bu shaxsning individual xarakteri hisoblanib, madaniy aloqalarda shaxsiy yondashuv, shaxsiy fikrni qo‘llash va rivojlantirishdir. Kreativlik psixologik nuqtayi nazarda tahlil qilinganda bugungi kundagi muhim pedagogik muammodir. Kreativlikni lug‘aviy ma‘nosidan kelib chiqadigan bo‘lsak, o‘qituvchilarni shaxsiy innovatorlikka undovchi pedagogik kategoriya hisoblanadi. Kreativlik o‘qituvchilarni shaxsiy sifatlarini integratsiyasi hisoblanadi. Chunki o‘quvchi xarakteri tabiatdan qiziquvchan bo‘ladi.

Kreativ fikrlashda ta'iimning asosiy vazifasi o‘quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo‘ladigan ko‘nikmalarni shakllantirishdir. Kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo‘iishi kerak bo‘igan muhim ko‘nikma bo‘lib, bu ko‘nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o‘zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari yangilanayotgan davrga xos ko‘nikmaiarga ega kadrlarni talab etayotgan makonga moslashishga ko‘makiashadi. Umuman olganda, bugungi o‘quvchi kelajakda hozir hatto mavjud bo‘imagan sohalarda ishlashi, yangi muammolarni yangi ko‘nikmasini shakllantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkonini beradi. Maktabda kreativ fikrlashni rivojlantirishning ahamiyati faqatgina mehnat bozori bilan cheklanmaydi. Maktab yoshlar uchun o‘z qobiliyat va ko‘nikmaiarini, shu jumladan ijodiy iste‘dodiarini kashf etishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, kreativ fikrlash o‘quvchilaming ta'lim olishini hodisalar, tajribalar va xatti-harakatlami yangicha va shaxsan mazmunli usulda talqin etish orqali qo‘iiab-quvvatlaydi.

O‘qituvchilar kreativ fikrlashni ajrata olishlari, bunday fikrlashga mos shart-sharoitlarni bilishlari va o‘zlari ham o‘quvchilarga fikrlashda ko‘proq ijodiy yondashishga yordam bera olishni bilishlari kerak. Kreativ fikrlash qay tariqa vujudga kelishi borasidagi puxtaroq tasavvur, o‘z navbatida, o‘qituvchilarga ta'lim jarayonida o‘quvchilarda ijodiy g‘oyalar bo‘lishi uchun muayyan vaqt talab etiladi. Kreativ fikrlash ko‘nikmalarini baholash isbotga tayangan dalillar asosida shakllantirilib, o‘quvchilar kompyuter platformasida qilayotgan, o‘qiyotgan va yaratayotgan narsalarni ko‘p jihatli malakalar bilan bog‘laydi. Kreativlikni baholash-o‘quvchining qobiliyatlari haqidagi muayyan da‘volarni dalilga asoslangan fikrlash jarayonida tahlil etishdir. Umuman olganda, o‘quvchining baholashdagi vazifalarga javobi ushbu fikrlash jarayonida dalillar bilan ta'minlaydi.

Ijodiy maqsadlarni ro‘yobga chiqarish kreativ fikrlashni taqozo etadi, lekin shu bilan birga aqliy salohiyat, soha borasidagi bilim va san'atkorlik talanti kabi kengroq va

maxsus ko‘nikma va qobiliyatlar ham zarur bo‘ladi. Masalan, san’at durdonalari yoki texnologik kashfiyotlarni yaratish bilan bog‘liq buyuk ijodkorlikda kreativ fikrlashdan tashqari salmoqli talant, chuqur bilim, muayyan sohada tinimsiz mehnat hamda jamiyat tomonidan ushbu mahsulot qiymatga ega ekanligi haqidagi e’tirof ham talab etiladi. Aksincha, kichik yoxud kundalik kreativlik (masalan, fotojurnalda rasmlarni mahorat bilan joylashtirish; oziq-ovqat qoldiqlaridan yangi taomni hosil qilish yoki ishxonadagi murakkab muammoga ijodiy yechim topish kabi) ijodiy fikrlashga qodir deyarli barcha insonlarga zarurdir.

Ta‘lim olish jarayonida kreativlikni rivojlantirishning asosiy pragmatik tavsifi sifatida dialog xizmat qiladi. Keng tarqalgan usullardan biri sifatida psixologlar tomonidan shaxsni kreativligini aniqlash uchun insho olish ommalashgan. Insho jarayonida o‘quvchi o‘zining shaxsiy fikrini erkin ifodalay oladi, vaziyatga nisbatan shaxsiy yondashuvini bildiradi, fikrini ochiq bayon qiladi. Tavsiya etilgan usul orqali kreativlikni namoyon qilish va aniqlash osonlashadi. Bundan tashqari, kreativlik xususiyatiga O‘zbekiston Respublikasining ta‘lim sohasidagi strategik yo‘nalishida ham alohida e‘tibor qaratilgan. Yosh avlodni bilimli, har tomonlama rivojlangan komil inson shaxs sifatida shakillantirishda o‘qituvchilarning ijodkorlik qobiliyati o‘quvchining kreativlik salohiyatini rivojlantiruvchi asosiy aspekt sifatida qaralgan hamda kreativlik salohiyati ijod bilan bog‘liq holda o‘rganiladigan jarayon ekanligi aytib o‘tilgan. Ijodkorlikning psixologik jihatlari haqida fikr bildirilib, bilim asosan fikr yuritish va tasavvur qilish bilan bog‘liq holda tahlil etiladi. Ijodkorlikning psixologik-pedagogik asoslari esa quydagicha ta‘riflanadi:

1. Xohish va istak.
2. Tasavvur qilish.
3. O‘z-o‘zini kuzatish.

Shu bilan bir qatorda bilimning asosini tashkil qilishda asosiy o‘rin egallaydigan fikr yuritish, tasavvur qilish bilan bog‘liq jarayonning asosiy elementlari quydagilar orqali tushiniladi hamda tasniflanadi:

1. Aqliy mehnat
2. Intuitsiya
3. Dunyoqarash

4. Buyuk olim V.A. Slastyonin ijodkorlikning asosiy xislatlarini quydagilarda namoyon bo‘lishini aytib o‘tgan:

- shaxsning ijodiy motivatsiyani qo‘llanganligi;
- qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish, ijodiy yutuqlar, peshqadamlikka va o‘z kamolotiga intilish;
- kreativlik bu- xayoliy qarash, baho bera olish qobiliyati va o‘z kamolotiga intilish;
- ijodiy faoliyatiga hamkorlik va o‘zaro yordam berish qobiliyati.

Kreativ salohiyatga ega o‘quvchilar boshqalarga taqlid qilmaydi, atrofdagi jarayonlarga, beriladigan vazifalarga o‘zlari tanlagan usulda mustaqil ravishda yondashadilar. Natijada kreativ salohiyat egalari jamiyatda o‘zlarining shaxsiy fikrga egaligi, shaxsiy yondashuvlarining o‘zgachaligi bilan tezda ko‘zga tashlanadi, ularga nisbatan bo‘ladigan munosabatlarda yetakchilikni qo‘lga kiritishadi. Kreativlikni rivojlantirish uchun boshlang‘ich sinflarda ,ayniqsa, o‘quvchilarning psixologik holati muhimdir. Chunki o‘quvchining ruhiy holati, xarakter xususiyatidan kelib chiqib, yondashuv tanlanadi hamda uning kelajakdagi ijtimoiy mavqeyi shakllantiriladi. To‘g‘ri tanlangan yondashuvning natijasi esa, yuqori bosqichga o‘tgandan shaxsning keyingi

faoliyatlarida sekinlik bilan namoyon bo‘la boshlaydi. Shunday dasturlardan biri bu xalqaro PISA dasturidir. Bu xalqaro tadqiqot faqatgina ijodkor o‘quvchilarni ajratmasdan, balki o‘quvchilarning fikrlashini orttirish hamda fikrini ifodalashda va bu kabi qobiliyatlarini o‘qitish jarayoni, maktab faoliyati yoki ta‘limning boshqa xususiyatlari bilan qanchalik uzviyligini baholaydi. PISA tadqiqotlarining oldidagi asosiy ishi ta‘lim sohasi va pedagogikada katta natijalarga erisha oladigan kreativ fikrlash ko‘nikmasiga tegishli xalqaro darajadagi ma‘lumotlar berishdan iborat. Shuni takidlash kerakki, kreativ fikrlash ko‘nikmasi ta‘lim olish jarayonida shakllanadi, uning o‘rta ta‘lim maktab o‘quvchilarini o‘qitish jarayonida kreativ fikrlashining imkoniyatlari aniq natijalarga olib keladi. Bu jarayonda o‘quvchilarning o‘zlashtirishidan kelib chiqqan holda, beriladigan topshiriqlar maktabda o‘qitiladigan fanlar bilan uzviy bog‘langan bo‘lishi,amaliy hamda test topshiriqlari sinfda yoki sinfdan tashqari bajariladigan topshiriqlarga yaqin oddiy va sodda bo‘lishi kerak. PISA tadqiqotlarida kreativ fikrlashning turli jihatlari haqida ma‘lumot yig‘ish biroz qiyin. Ammo bu asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. PISA dasturida o‘quvchilarning kreativ fikrlashini baholash test va umumiy ma‘lumot qismlaridan tashkil topgan. Testlarda mulohaza qilish, baholash uchun zarur topshiriqlar bilan ishlash jarayonida beriladigan ma‘lumotlar o‘quvchini kreativ fikrlashini rivojlantirish darajasida bo‘ladi. To‘plangan umumiy ma‘lumotlar o‘quvchilarning kreativ fikrlashini o‘stirishga qaratilgan boshqa kreativ yondashuvlar (ochiqlik, maqsadga yo‘naltiriganlik, ishonchlilik) sinf va sinfdan tashqari mashg‘ulotlardagi aktiv ishtiroki orqali to‘ldiriladi. Ushbu dastur orqali bolalarda har tomonlama rivojlanish ehtimoli yuqori, faqatgina dastur doirasida yosh chegarasi mavjuddir.

Xulosa qilib aytganda,psixologik nuqtayi nazardan kreativlik ko‘proq ijodga umumiy qobiliyatlilik bilan aloqadorlikda talqin qilinadi. Hozirda mazkur atama asl yechimlarni izlab topish, nostandart harakatlarni amalga oshirishga tayyorlik ma‘nosini ifoda etadi. Psixologiyada kreativlik deganda “yangi g‘oya, yechim, metodlar, nazariyalar yoki qandaydir faoliyatning yangi mahsulini ishlab chiqish” tushuniladi. Pedagogik-psixologik nuqtayi nazardan, kreativlik tushunchasi quyidagicha izohlanadi: “kreativlik - shaxs va jamiyat qiziqishlari bilan bog‘liqlikda o‘zgaruvchan ijtimoiy-madaniy shart-sharoitlar doirasiga taalluqli vazifalarni hal etishda insonning konstruktiv va original fikrlashga tayyorligidir”. Kreativlik o‘z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intiutsiya, natijalarni oldindan ko‘ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyani qamrab oladi. Kreativ pedagogika yoki kreativlikka asoslangan pedagogika deganda istalgan o‘quv fani doirasida qo‘llash mumkin bo‘lgan ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik bilimlar sohasi tushuniladi. Demak, yuqoridagi fikrga tayangan holda bolalarda kreativlikni rivojlantirish deganda bolalarni turli o‘quv topshiriqlarini bajarishi, noodatiy yondashuvni tarkib toptirish, yangi g‘oya va nuqtayi nazarlarni erkin ifoda etish, fikrning egiluvchanligi va tasavvurning boyliligini tarkib toptirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon” degan xulosaga kelish mumkin. Pedagogikaning asosiy vazifalaridan biri barcha bolalarning kreativ faoliyati har tomonlama rivojlanishini ta‘minlaydigan shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Kreativlik – shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlar bilan bog‘liq ko‘nikmalar majmui sifatida namoyon bo‘ladi. Kreativlik o‘z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intiutsiya, natijalarni oldindan ko‘ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyani qamrab oladi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. R.G‘.Qodirov “Yosh davrlari va pedagogik psixologiya”(2005)
2. “Bolalar iqtidorini erta aniqlashning psixologik-pedagogik metodikalari majmuasi”.(2010)
3. Berkinblit M.B., Petrovskiy A.V. “Fantaziya va haqiqat”.
4. Tunik E.E. “Ijodiy fikrlash diognostikasi” (2006)

O‘SMIRLARGA TA’LIM VA TARBIYA BERISH JARAYONIDA UCHRAYDIGAN PSIXOLOGIK OMILLAR

Baxriddinova Maxbuba Asatulloyevna,
Karmana tumani 17-umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi,
Jumayeva Zilola Muhiddin qizi,
Qiziltepo tumani 41- umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada siz o‘smir yoshidagi o‘quvchilarga ta’lim va tarbiya berish jarayonida uchraydigan qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun ularda ijtimoiy-psixologik omillarini shakllantirishning psixologik omillarini Sharq allomalari asarlari orqali tahlil qilinadi. Bundan tashqari,milliy identivlik shakllanishining ijtimoiy psixologik omillari va ular asosida olimlar tomonidan ishlab chiqilgan xulosalar borasida tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘spirin, psixologik omillar, olimlar, ta'lim, tarbiya, psixologiya, shaxsiyat, shaxsiyat, shaxsiyat**.**

Zamonaviy dunyoda,o‘smirlar orasida tarbiyaning umumiy ijtimoiy vazifasi-yosh avlodda bilim, ko‘nikma,ijtimoiy tajriba va axloq normalarini shakllantirishdan iborat. Har qanday shaxs ijtimoiy muhitning unga yuklagan yangi roli - institut talabasi,ota-ona, rahbar va shu kabi rollarni ijro etishga o‘tganida o‘zini dastlab “yaxshi” his qiladi. Lekin asta-sekinlik bilan shaxsning o‘zi haqidagi tasavvurlari ushbu rollarni o‘ziga singdiradi va bu rollarni eplash-eplamasligiga qarab shaxsning “Men” konsepsiyasida o‘zgarishlar yuzaga keladi.

Jahon ta’lim tizimida, o‘smir o‘quvchilarning internet tarmog‘i ma’lumotlari bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishning samarali psixologik va pedagogik usullari ta’lim jarayoniga keng ko‘lamda tatbiq etilgan. 2015-yil, Janubiy Koreyada o‘tkazilgan Xalqaro ta’lim forumida 2030-yilgacha qabul qilingan “Incheon declaration” da “Ta’lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, erishilgan natijalarni aniqlash imkonini beruvchi mexanizmlarni amaliyotga joriy etish”, fan va ta’lim yutuqlarini o‘quv materiallari mazmuniga singdirib borish, yoshlarni virtual olam ta’siridan himoyalashning psixologik chora-tadbirlarini yangi islohotlar darajasiga ko‘tarish hamda uni amaliyotga tatbiq etishga alohida e’tibor berilgan. Dunyoda ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida virtual olam vositalarining inson ongiga ta’sirini aniqlash, internetga qaramlikning oldini oldini olish, o‘smir yoshlarning axborotlar bilan ishlay olish ko‘nikmalarini ilmiy tekshirish, shuningdek, jamiyat hayotida axborot-psixologik xavfsizlikni ta’minlash, texnogen o‘zgarishlar sharoitida yoshlarni ekstremistik va separatistik tashkilotlarning vayronkor g‘oyalaridan himoyalash hamda mahalla muhitida xavfsiz axborot muhitini ta’minlash, jamiyatning turli qatlam va submadaniyat kishilari orasida kiber xavfsizlikni barqarorlashtirish bo‘yicha, ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Virtual olam o‘ziga xos global axboriy-raqamli qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Har bir inson bolalik chog‘idanoq bir marotaba bu olamga qadam qo‘ysa undan qaytib chiqmaydi yoki qaytib chiqishi juda ham qiyin bo‘ladi. Nega biz bugun “virtual olam”, “virtual hayot”

terminlarini ishlata boshladik. Chunki hozirda internetdan foydalanmaydigan odamlar, xususan yoshlar deyarli yo‘q. Ularning barchasi virtual, ya’ni kiber madaniyatga allaqachon oshnodirlar. Hattoki “virtual hayotda bo‘lmasang, demak sen hayotda ham yo‘qsan” degan iboralar ham paydo bo‘ldi. Albatta insonga xos qadriyatlarning virtual olamga singishi bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi.

O‘smirda milliy tarbiya shakllanishidapsixologik va ijtimoiy-psixologik nazariyalar va konsepsiyalarni tadqiqotchi Y.V.Subbotskiyning maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy rivojlanishining genezisi haqidagi nazariy konstruksiyasi, S.G.Yakobsonning shaxs o‘zini-o‘zi tartibga solishda axloqiy tanlovning psixologik tabiati nazariyasi, L.S.Vigotskiyning tarbiya masalasida madaniy-tarixiy konsepsiyasi, A.N.Leontiev, A.V.Zaporojes, D.B.Elkoninlarning bola tarbiyasida uning psixik rivojlanishi nazariyasi, P.Y.Galperinning inson faoliyatining tizimli bosqichma-bosqich shakllanish konsepsiyasi, B.G.Ananev, K.K.Platonov, S.L.Rubinshteynlarning shaxsni rivojlanishida sub’ekt-faoliyat yondashuvi, G.Olportning shaxs yetukligi konsepsiyasi kabilardir. Mazkur konsepsiya va yondashuvlar asosida ular o‘smirda milliy tarbiya shakllanishinigg ijtimoiy psixologik omillarini ochib berishga xarakat qilishdi. O‘smirlik davrida tengdoshlar guruhi ta’siri kuchayadi. Tengdoshlar bilan muloqot, ularning fikri, qadriyatlari va xatti-harakatlari o‘smirning o‘zini anglashi va identifikatsiyasiga ta’sir qiladi. Tengdoshlar guruhiga mansublik hissi o‘smirga o‘zini xavfsiz va qabul qilingan his qilishga yordam beradi.Bundan tashqari, o‘smir yashayotgan jamiyatning madaniy qadriyatlari, norma va an’analari ham identivlik shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Jamiyatning o‘smirlarga bo‘lgan munosabati, ularga qo‘yiladigan talablar va imkoniyatlar o‘smirning o‘ziga bo‘lgan munosabati va identifikatsiyasiga ta’sir qiladi. Oila o‘smirning shaxs sifatida shakllanishida birinchi va eng muhim ijtimoiy muhitdir. Ota-onalarning tarbiyasi, oilaviy qadriyatlar, oila a'zolari o‘rtasidagi munosabatlar o‘smirning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, o‘zini qabul qilishi va identifikatsiyasiga katta ta'sir ko‘rsatadi. Qo‘llab-quvvatlovchi va mehrga boy oilaviy muhit o‘smirning identivlik integratsiyasini osonlashtiradi. O‘smirlarda identivlik integratsiyasi murakkab jarayon bo‘lib, unga ko‘plab ijtimoiy-psixologik omillar ta’sir qiladi. Bu omillar o‘smirning o‘zini anglashi, qadriyatlari, e’tiqodlari va kelajakdagi rejalari shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. O‘smirlik davrida boshdan kechiriladigan turli xil tajribalar, muvaffaqiyatlar va muvaffaqiyatsizliklar, yutuqlar va qiyinchiliklar o‘smirning o‘zini anglashi va identifikatsiyasini shakllantiradi. Bu tajribalar o‘smirning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, mustaqilligi va o‘zini qabul qilishiga ta'sir ko‘rsatadi. O‘smirlik davrida boshdan kechiriladigan turli xil tajribalar, muvaffaqiyatlar va muvaffaqiyatsizliklar, yutuqlar va qiyinchiliklar o‘smirning o‘zini anglashi va identifikatsiyasini shakllantiradi. Bu tajribalar o‘smirning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, mustaqilligi va o‘zini qabul qilishiga ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari ta’lim muassasasi ham muhim rol o‘ynaydi, maktab muhiti, o‘qituvchilar bilan munosabatlar va o‘quv jarayonidagi muvaffaqiyatlar ham o‘smirning o‘zini anglashi va identifikatsiyasiga ta’sir qiladi. Televidenie, internet va ijtimoiy tarmoqlar o‘smirlarga turli xil rollar, qadriyatlar va turmush tarzlarini namoyish etadi. Bu ta'sirlar o‘smirning o‘ziga bo‘lgan munosabati va identifikatsiyasini shakllantirishi mumkin. Bu omillar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, o‘smirning identivlik integratsiyasiga murakkab ta'sir ko‘rsatadi. Bu jarayon individual bo‘lib, har bir o‘smirda turlicha kechishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Z.Elov. Qobiliyatning shaxs psixologiyasidagi o‘rni va danning-kryuger effektipedagogik mahorat 2021/10/30 Номер 5 Страницы 143-144

2. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Psychodiagnostics. O‘quv qo‘llanma. “Turon zamin ziyo” nashriyoti. Toshkent 2014. -B. 298.

PSIXOLOGIYADA OLIB BORILAYOTGAN ISHLARNING TA'LIM TIZIMIDAGI O‘RNI

Bobomurodov Amrullo Hayitovich,
Karmana tumani 8-umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi,
Ikromova Lobar Iskandarovna,
Xatrchi tumani 92- umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi

Annotasiya: Mazkur maqolada zamonaviy psixologiyada olib borilayotgan ishlarning jamiyat va ta’lim tizimidagi o‘rni va pedagogik jarayonlarga ta’siri, shu bilan birgalikda barkamol avlodni tarbiyalashdagi roli tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Psixologiya,ilmiy faoliyat, ijtimoiy-pedagogik muhit,shaxs rivojlanishi, zamonaviy ta'lim,tarbiya psixologik barqarorlik.

Аннотация: В данной статье анализируется роль научной деятельности в современной психологии в обществе и системе образования,её влияние на педагогические процессы,также значение в воспитании всесторонне развитого поколения.

Ключевые слова: Психология, научная деятельность, социально-педагогическая среда, развитие личности, современное образование, воспитание, психологическая устойчивость.

Hozirgi globallashuv davrida inson omili,uning aqliy,hissiy va ijtimoiy salohiyatini to‘g‘ri anglash va rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan.Zamonaviy psixologiyada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar bu boradagi muammolarga ilmiy asoslangan,samarali yondashuvlarni taklif qilmoqda.

Psixologiya so‘zining lug‘aviy ma’nosi grekcha pdyuxe-jon,ruh logos-fan ta'limot,degan ma’noni anglatadi.Psixologiya fan sifatida psixik faktlar, ularning qonuniyatlari va mexanizmlarini o‘rganadi. Psixologiya asosan psixikani keng doirada tadqiq qiladi. Psixologiya fanining predmetini tahlil qilishda asosiy e’tiborni quyidagilarga qaratish lozim. Shaxs haqida fikr yurituvchi fanlar sirasiga psixologiya va pedagogika fanlarini kiritish mumkin. Psixologiya ilmiy faoliyatning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati, avvalo, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyalarini shakllantirishda namoyon bo‘ladi. Psixolog olimlar tomonidan ishlab chiqilgan metod va texnologiyalar pedagogik jarayonlarda o‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olish imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijtimoiy faollik,hissiy barqarorlik va ijtimoiy ma’suliyat tuyg‘ularini rivojlantiradi. Ilmiy faoliyat natijasida yaratilgan psixologik diagnostika usullari o‘quvchi-yoshlarning psixologik portretini aniqlashga yordam beradi,bu esa pedagog va ota-onalarga bolaning rivojlanishini yanada ongli tarzda boshqarishga xizmat qiladi. Shuningdek, zamonaviy psixologik tadqiqotlar stressga qarshi kurashish, emotsional intellektni rivojlantirish,motivatsiyani oshirish kabi dolzarb ijtimoiy masalalarga yechimlar taklif qilmoqda. Bu yechimlar ta'lim muassasalarida salbiy holatlarni oldini olish, sog‘lom psixologik muhit yaratish imkonini beradi.

Maktab ta’limida o‘quvchi shaxsda ijtimoiy-hissiy intellekt rivojlanganligini biz quyidagi holatni kuzatishimiz mumkin:

• Zamonaviy ta’limda ijtimoiy-hissiy intellekt o‘quvchilarning boshqalar bilan muomala qilish,

• Ijtimoiy munosabatlarda samarali ishlashini oshiradi.

• O‘zining emotsiyalarni tushunishi va boshqarilishida muhim rol o‘ynaydi.

• O‘quvchi jamiyatga bo‘lgan munosabati, qarashlarining rivojlanishiga yordam beradi.

• O‘quvchi boshqalar bilan samarali muloqot qilishni o‘rganadi,

• O‘quvchida hamkorlik va sheriklik tushunchalari shakllanadi,

• Shaxslararo nizolarni hal qilish ko‘nikmalari rivojlanadi,

• O‘quvchi o‘z-o‘zini anglashi, shaxsiy o‘sishiga rivojlanadi,

• O‘quvchida o‘z e’tiqodlari va qadriyatlarini anglashga yordam beradi.

Inson psixikasi haqida Sechenovga Leybnits, Gebert, Shopengaur, Gelmgolts va boshqalar o‘z fikrlarini bildirgan edilar. Psixikaning negizida miyaning reflektor faoliyat yotadi. Tashqi dunyoda kirib keladigan qo‘zg‘atuvchilarga ichki yoki tashqi biologik organlar javob reaksiyasini bildiradi.

Psixologiya haqida gapirganda L.S.Vigotiskiy ham o‘zining bir qancha fikrlarini bildirgan.

Konkert, amaliy bo‘lib-ta’lim va tarbiya, bolaning rivojlanishi, mehnat faoliyati haqidagi fan bo‘lmog‘i lozim. Faqat shu vazifagina psixologiyani tirik va kerakli fanga aylantirishi mumkin.

Psixik jarayonlar, psixik xususiyatlar va psixik holatlar zamonaviy psixologiyaning predmeti hisoblanadi. Psixik jarayonlar ruhiy dunyoning uchta asosiy tomonini qamrab oladi, bilish, his va iroda. Bilish jarayonlariga sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur,xayol, tafakkur va nutqni kiritish mumkin.

Shaxsning psixik holatlari-shaxsning faollik darajasini xarakterlaydi fan muayyan vaqtdagi ichki holati.

Shaxsning psixik xususiyatlari uning barqaror xususiyatlari: yo‘nalganlik, motivatsiya, temperament, xarakter qobiliyatdir. Psixologiya-voqelikni aks ettirishning o‘zigs xos shakli sifatida psixikaning rivojlanish va namoyon bo‘lish qonuniyatlarini o‘rganadigan fan. Psixika insoning faoliyatida va xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladigan faolligining ichki boshqaruvini ta'minlaydi.

Zamonaviy psixologiyada ilmiy faoliyat faqatgina nazariy bilim emas,balki amaliy yondashuvlar majmuasini ham taqdim etadi.Bu yondashuvlar orqali ta’lim-tarbiya jarayoni yanada insonparvar,shaxsga yo‘naltirilgan va samarali tus oladi. Psixologik ilmiy faoliyatning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati jamiyat taraqqiyoti va insoniy kapitalni shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nishonova Z.T."Psixologiya tarixi"T-2002y
2. Torndayk E.Prinsipi obucheniya,osnovannie na psixologii.—M.:AST-LTD,1998
3. Yaroshevskiy M.G.Istoriya psixologii.Ot antichnosti do seredini XX veka—M.1997

YOSHLARNI VIRTUAL OLAM TA’SIRIDAN HIMOYA QILISH KABI MASALALAR QATOR XORIJ VA MAHALLIY PSIXOLOG OLIMLARNING QARASHLARI

Eshnazarova Gulmira Zafar qizi,
Zarafshon shahar 12-umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi,
Raxmonova Sevara Nizomiddin qizi,
Xatrchi tumani 3- umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Mazkur maqolada virtual o‘yinlariga tobe o‘smirlar muammosi va

virtual o‘yinlari oqibatida o‘smirlar xulqida paydo bo‘ladigan salbiy sifatlar va ularni oldini olish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Yoshlarni virtual olam ta’siridan himoya qilish kabi masalalar qator xorij va mahalliy psixolog olimlarning qarashlari

Kalit so‘zlar: Agressiv xulq, axborot-psixologik, xavfsizlik, virtual, kompyuter o‘yinlari, emotsional, tafakkur, tashxis, ong.

Respublikamizda so‘nggi yillarda, jamiyatning turli sohalarini zamonaviy axborot-texnologik vositalar bilan ta’minlash, sohalararo axborot savodxonligini oshirish, xavfsiz axborot muhitini joriy etish, yosh avlodni salbiy axborotlar xurujidan himoyalash, ochiq axborot tizimlarini qayta isloh qilish, jamiyat hayotini texnogen boshqarishda, bunyodkor axborot mahsulotlarini tayyorlash sifati va darajasini doimiy oshirib borishning huquqiy-me’yoriy asoslari yaratildi hamda uning moddiy-texnik bazasi kengaytirildi. Bu borada o‘smir yoshlarni virtual olam ta’siridan himoyalashning psixologik mexanizmlarini ishlab chiqish, rivojlangan ilg‘or xorijiy davlatlarning ilmiy-uslubiy dasturlaridan keng foydalanish, virtual olam ma’lumotlariga qaram bo‘lishning omillari va undan himoyalanishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarining ishlab chiqilishi, o‘smir yoshlarni virtual olam ta’siridan himoya qilishning psixologik tashviqot dasturlarini yanada rivojlantirishga keng xizmat qiladi. Shu jihatdan ham, psixologiya va axborot xavfsizligi (sohalar bo‘yicha) yo‘nalishlarida mutaxassislar tayyorlaydigan ta’lim muassasalarida Davlat ta’lim standartlari, davlat malaka talablari, o‘quv dasturlarini ishlab chiqishning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilashda o‘smir yoshlarni virtaul olam ta’siridan himoyalashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlariga va ilg‘or uslubiy ta’minotini ishlab chiqish ishlariga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Virtual dunyo insonga juda ham keng imkoniyatlarni ochib beradi. Internetdagi anonimlik, dunyoning turli nuqtalaridan kira olish, har qanday foydalanuvchi (jinsi, yoshi, millati, dinidan qat’i nazar) bilan muloqotga kirishish, o‘zini realizatsiya qila olish, hayotdagi axloqiy qoidalarning internetda yo‘qligi, javobgarlikdan qochish yuqorida qayd etilgan xavflarni yanada kuchaytiradi.

Virtual olam va uning ta’siri, internet qaramlik va psixologik profilaktikasi, o‘smir yoshlar hayotida axborot-psixologik xavfsizlikni ta’minlash, kiber xavfsiz muhit va yoshlar kabi masalalar, butun jahon psixolog olimlarining diqqat e’tiborida bo‘lib kelmoqda. Virtual olam va uning ta’siri, internet va shaxs, internetga tobe bo‘lish, yoshlarni virtual olam ta’siridan himoya qilish kabi masalalar qator xorij va mahalliy psixolog tadqiqotchilar tomonidan keng tadqiq etilgan.

N.A.Nosovaning ta’rificha, virtual olam vositalari – bu yangi axborot texnologiyalari, axborot qidiruv va uzatish tizimlari, shubhasiz, yaqin kelajakda mutlaq erkinlik darajasiga yetadi. Ushbu keng ko‘lamli axborot tuzilmalari bilan bir qatorda, unga aloqador yana bir tizim – virtual olam ta’siri ham yanada ortadi [1; c.-187.]. Virtual olam – bu insonga ko‘rish, eshitish, hidlash, teginish va boshqa hislar orqali taqdim etilgan texnik vositalar yordamida yaratilgan dunyodir deb ta’kidlaydi E.D.Nevesenkoi[2; c.-23.]. Virtual olamning ta’siri o‘smirlar xulqida “simulyatsiya” reaktsiyasi sifatida namoyon bo‘ladi, ya’ni bu o‘smirning virtual olam hodisalariga taqlid qilishi yoki ularni o‘zlashtirish bilan yakun topadi.

I.A.Lipkovning asarlarida keltirilishicha, insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanish bosqichida bir qancha axborot yutuqlari qo‘lga kiritilgan ya’ni: Ulardan birinchisi, axborotni yozish orqali avloddan-avlodga yetkazishdir. Ikkinchisi esa, nashriyotlarning paydo bo‘lishidir. Uchinchi yutuq – bu elektr energiyasining paydo bo‘lishi natijasida hosil bo‘lgan telefon, televizor, radio va boshqalar. 20 asr oxiridan paydo bo‘lgan to‘rtinchi yutuq esa, kompyuter texnikasining tarmoq texnologiyasi bilan

integratsiyalashuvi oqibatida shakllangan va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari nomi bilan mashhur bo‘lgan, yangi axborot yutug‘idir [3; c.-132.]. Demak, hozirgi kunda ushbu axborot yutug‘i – hayratlanarli o‘zgarishlar ortida turgan asosiy kuchga aylanib ulgurdi. Tadqiqotchi A.B.Sorokinaning tahliliga ko‘ra, “Axborot jamiyati” tushunchasi o‘tgan asrning 70-yillarida yapon olimlari tomonidan taklif qilingan. Hozirda ushbu ilg‘or g‘oya insoniyat sivilizatsiyasi, ilm-fan va ta'limning yuksalishiga, davlat ijtimoiy-siyosiy tuzilishining taraqqiyotiga va barqaror rivojlanishga katta ta'sir ko‘rsatib, ko‘plab mamlakatlar e'tiborini o‘ziga torta oldi [4; c.-45-64.]. G‘oyaning asosini esa, virtual olamda mujassam bo‘lgan axborot texnologiyalari tashkil etadi. Va u hozirgi kunda butun dunyoda favqulodda sur'atlar bilan tez rivojlanib bormoqda.

Virtual olamga qaram bo‘lgan o‘smir yoshlar birinchi navbatda, kognitiv, motivatsion va xulq-atvor sohalarida o‘zgarishlarga uchraydi. Shu bilan birga, motivatsion vaziyatda qaram ob'yektga haddan tashqari, hissiy munosabat paydo bo‘ladi, boshqa ob'yektlarga nisbatan, qaram ob'yekt haqidagi fikrlar ustuvorlik qiladi, o‘smir xulq-atvorida himoya mexanizmi bo‘lgan, tajovuzkor xatti-harakatlar kuchayadi. M.M. Kuznetsovning aytishicha, “Virtual” (ingl.Virtual) so‘zi ingliz tilidagi so‘z bo‘lib, uning ma'nosi turlicha sanalib, birinchidan u “Ko‘rinmas” ma'nosini anglatsa, ikkinchidan esa, “Virtual voqe'lik” bo‘lib ko‘ringan, biroq vazifalar boshqa moslamalar tomonidan bajariladigan funktsional tizimdir [5; c.-62-91.].

Ayrim ilmiy manbalarda yozilishicha, virtual olam – bu axborot texnologiyalari orqali, insonlarning xohishiga ko‘ra, vaqt-makon muhitini o‘zgartirish orqali shakllanadigan, yangi sun'iy illyuziyali olamdir.

Demak, “virtual” so‘zining birinchi lug‘aviy ma'nosiga qaraydigan bo‘lsak, u “ko‘rinmas” degan ma'noni bildiradi. Bu so‘zni yanada soddalashtirsak, insonning internetdagi axborotlarga mukkasidan ketishi oqibatida real hayotdan uzilishi, odamlarga ko‘rinmay, o‘zi bilan o‘zi qolishdir. Ikkinchi lug‘aviy ma'nosiga e'tibor beradigan bo‘lsak, internetdagi voqealar bizga voqeiy (real) bo‘lib ko‘ringan, lekin vazifalari boshqa moslamalar orqali bajarilgani uchun ham, u virtual, ya'ni butunlay boshqa olamdir. Bundan tashqari, tadqiqot doirasidagi ma'lumotlarni yanada kengroq yoritishish maqsadida, “virtual olam” iborasi bilan birga “kibermakon” atamasiga ham e'tibor qaratishimiz maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kibermakon (ingl: cyberspace) tushunchasi kanadalik yozuvchi Uilyam Gibson tomonidan 1984 yili “Cyberspace” (Kibermakon) deb nomlangan trilogiyasi, birinchi romanining “Neuromancer” chop etilishi bilan bog‘liq [6; c.-320.]. U dunyoning barcha kompyuterlaridagi elektron ma'lumotlar aylanib yuradigan virtual makonni ta'riflaydi. Demak, hayotda hamma narsa paydo bo‘lishining asosiy sabablari bor. Hech bir narsa besabab vujudga kelmaydi. Insonlarning eng asosiy kamchiliklarimizdan biri bu, agar jamiyatda jinoyat sodir bo‘lsa, birinchi navbatda jinoyatchini jazolaymiz. Ya'ni ko‘pincha jinoyatning oqibati bilan ko‘proq kurashamiz. To‘g‘ri, jinoyatga jazo muqarrar, lekin jinoyatning paydo bo‘lish sabablari bir chekkada qolib ketadi. Jinoyatning sodir bo‘lish sabablari, omillari, ya'ni ildizini topsak, ko‘plab turdagi jinoyatlarni oldini olgan bo‘lamiz.

G.V.Lozovaya tomonidan ishlab chiqilgan? “Virtual olamga tobelik (addiksiya)” testi, K.Leongard va G.Smesheklarning “Xarakter aksentuatsiyani baholash” so‘rovnomasi, A.I.Shepilovaning “Tugallanmagan jumlalar” metodikasi hamda A.A.Lugoviskaya tomonidan yaratilgan “Yengib o‘tuvchi xulq-atvor” so‘rovnomalaridan foydalanildi. Olingan natijalarining statistik ishonchlilik darajasi matematik-statistik metodlaridan K.Pirson korrelyatsiya koeffitsienti, foizli tahlil va faktorli analizlar orqali

o‘rganildi. Psixologlarning fikricha yovuz o‘yinlar 100% konflikt holatlarga ta’sir etadi. Mana shu holatlarda shartli refleks hosil bo‘ladi. Agar odam kompyuterning oldida qancha ko‘p vaqt o‘tirsa, (yovuz o‘yinlar o‘ynab), oddiygina hal qilsa bo‘ladigan narsalar ham uningcha konflikt darajasida bo‘ladi va uni birgina yo‘l, kuch ishlatish yo‘li bilan yengish mumkin deb o‘ylaydi.

Virtual o‘yinlari kinoga yoki kitoblarga qaraganda odamning ruhiyatiga tez ta’sir qiladi. Kompyuterda o‘ynab turib odam o‘zi qaror chiqaradi, kinoda esa u faqat kuzatuvchi bo‘ladi xolos. Har qanday film 2 soat davom etadi, ammo bola kompyuter o‘yinlari oldida 100 soatlab o‘tirishi mumkin. Olib borilgan kuzatishlarning natjasiga ko‘ra filmda odamlarni syujetning rivojlanishi qiziqtiradi.

Umuman olganda, har qanday sevimli mashg‘ulotlar va ularning ekstremal shakllari mazmunida keyinchalik, tobelik xususiyati rivojlanishi mumkin. V.D.Emelyanenkoning ta’kidicha, internetga tobelik tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo‘lib, u o‘zida inson hissiy kechinmalarining o‘ziga xos xususiyatlarini qamrab olishi lozim[7; c.-51-54.].

O‘smirlarni virtual olam ta’siridan himoyalashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlariga virtual olam tamoyillari, yengib o‘tuvchi xulq-atvori, virtual olamdan chiqish sifatlarini baholash, internetga qaramlikni oldini olish yo‘llari va shaxs xarakter aksentuatsiyasi kabi psixologik xususiyatlar o‘z ta’sirini ko‘rsatishi namoyon bo‘ldi. O‘smirlarni virtual olam ta’siridan himoyalashda irodaviy va motivatsion jihatlar, ya’ni matonat, oqilona harakatlarni bajarish, voqelikni yengib o‘tish, o‘zini o‘zgartirishga intilish, ijobiy tafakkurni shakllantirish va emotsiyalarni nazorat qilish sifatlari o‘ziga xos yordamchi vosita sifatida xizmat qilar ekan hamda o‘smir yoshlarning subyektiv kechinmalari bilan bog‘liq ekanligi aniqlandi. O‘smirlarni virtual olam ta’siridan himoyalashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari tahlil qilinib, bunda viloyatlarning markazida yashovchi o‘smirlarga qaraganda viloyatlarga bo‘ysunuvchi tumanlarda istiqomat qiluvchi qishloq o‘smir yoshlarida virtual olamdagi destruktiv ta’sirlarga berilish quyiroq ekanligi yaqqol namoyon bo‘ldi. O‘smirlarni virtual olam ta’siridan himoyalashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan shaxslilik xususiyatlari o‘zaro bog‘liqlikni aks ettirib, yengib o‘tuvchi xulq-atvori, virtual olamdan chiqish sifatlarini baholash, internetga qaramlikni oldini olish yo‘llari va shaxs xarakter aksentuatsiyasi kabi omillar quyilashgan sari, o‘smir yoshlarda virtual olamdan saqlanish salbiy jihatdan shakllanishidan darak berar ekan. O‘smirlarni virtual olam ta’siridan himoyalashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini ijobiy ta’minlovchi sifatlar: internetdagi axborotlarni konstruktiv qabul qilish, vaqtni idrok etish, internetning ijobiy va salbiy xususiyatlarini anglash hamda internetdagi axborotlarni tushunish kabi omillar muhim ekanligi aniqlandi. O‘smirlarni virtual olam ta’siridan himoyalashning barqaror jihatdan ijobiyligi faktorli analizga ko‘ra: distim, emotiv, qo‘zg‘aluvchan, sikloid hamda ekzaltr kabi psixologik tiplar bilan bog‘liq ekan. O‘smirlarni virtual olam ta’siridan himoyalashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini belgilovchi omillarni tekshirishda so‘rovnomalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik munosabatlari tekshirilib, yengib o‘tuvchi xulq-atvori, virtual olamdan chiqish sifatlarini baholash, internetga qaramlikni oldini olish yo‘llari va shaxs xarakter aksentuatsiyasini baholash so‘rovnomalari musbat aloqalarni tashkil qilganligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Виртуальная реальность: философские и психологические проблемы Текст. / Под. ред. Н. А. Носова. М.: Центр виртуалистики ИЧ РАН, 1997. – 187 с.

2. Рощин С.К. Психологическая безопасность: новый подход к безопасности человека, общества и государства Текст. / С. К. Рощин, В. А. Со-снин // Российский монитор. – 1995. – №6. – С. 133-146.
3. Липков, А. И. Ящик Пандоры: феномен компьютерных игр в мире и в России / А. И. Липков. - М.: Изд-во ЛКИ, 2008. – 132 с.
4. Емельяненко В.Д. Интернет-зависимость: духовноценностные основания / В.Д. Емельяненко, Н.С. Амешина // Альманах современной науки и образования. – 2014. – № 11 (89). – С. 51–54.

TALABALARNING MUSTAQIL TA’LIMINI KREDIT-MODUL TIZIMIDA TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Choriqulov Rustamjon Ibodulla o‘g‘li,
Navoiy viloyati PMM katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta’limini samarali tashkil etish uchun zarur bo‘lgan pedagogik shart-sharoitlar yoritilgan. Tashkiliy-didaktik, raqamli va texnologik, motivatsion va psixologik hamda metodik va mazmuniy shart-sharoitlar asosida talabalarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Kredit-modul tizimi ta’lim jarayonini talabalarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda tashkil etish imkonini beradi. Ushbu tizim doirasida talabalarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish va ta’lim sifatini yaxshilash muhim vazifalar sifatida ko‘riladi. Mazkur maqolada talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish bo‘yicha pedagogik shart-sharoitlar ilmiy jihatdan o‘rganiladi va asoslanadi.

Kalit so‘zlar: mustaqil ta’lim, kredit-modul tizimi, tashkiliy-didaktik shart-sharoitlar, raqamli ta’lim muhit, texnologik shart-sharoitlar, motivatsion shart-sharoitlar, psixologik shart-sharoitlar, Moodle platformasi, Canvas platformasi, sun’iy intellekt, gamifikatsiya, talabalarni baholash, refleksiya, Bloom taksonomiyasi, loyiha asosidagi ta’lim

Kredit-modul tizimi ta’lim jarayonini talabalarning individual ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olgan holda tashkil etish imkonini beradi. Ushbu tizim doirasida talabalarning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish va ta’lim sifatini yaxshilash muhim vazifalar sifatida ko‘riladi. Mazkur tadqiqotimizda talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish bo‘yicha pedagogik shart-sharoitlar ilmiy jihatdan o‘rganildi va asoslandi. Berilgan ma`lumotlar asosida talabalar mustaqil ta`lim olishlarini samarali tashkil etish uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlar yaratish lozim:

1. Tashkiliy-didaktik shart-sharoitlar

Mustaqil ta’limni samarali tashkil etish uchun tayyorlov bosqichi, rejalashtirish bosqichi hamda nazorat va baholash tizimlarini rivojlantirish lozim. Tayyorlov bosqichida talabalarga yo‘riqnomalar va resurslar taqdim etilishi zarur. Rejalashtirish bosqichida Bloom taksonomiyasiga mos ravishda maqsadlar belgilanishi kerak. Nazorat va baholash jarayonida format va summativ baholash usullaridan foydalanish taklif etiladi.

2. Raqamli va texnologik shart-sharoitlar

Moodle va Canvas kabi LMS platformalaridan foydalanish talabalar mustaqil ta’limini qulaylashtiradi. Sun’iy intellekt asosidagi vositalar, virtual laboratoriyalar va multimedia resurslari orqali o‘quv jarayonini interaktiv va qiziqarli qilish mumkin.

3. Motivatsion va psixologik shart-sharoitlar

Ichki motivatsiyasini oshirish uchun individual yondashuv asosida maslahat tizimi yo‘lga qo‘yilishi lozim. Gamifikatsiya orqali o‘yin elementlari kiritilishi, rag‘batlantirish tizimining ishlab chiqilishi ta’lim jarayonini qiziqarli qiladi.

4. Metodik va mazmuniy shart-sharoitlar

O‘quv dasturlarini modullarga ajratish, loyiha asosidagi ta’lim va kooperativ o‘qitish metodlarini qo‘llash talabalarni mustaqil fikrlashga undaydi. Didaktik yondashuvlarning zamonaviy shakllari bilim va ko‘nikmalarni chuqur o‘zlashtirishga yordam beradi.

5. Faoliyat natijalarini baholash

Monitoring tizimi talabalarning rivojlanish dinamikasini kuzatish imkonini beradi. Baholash jarayonida refleksiya va o‘zini baholash elementlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Munozara

Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish uchun zamonaviy texnologiyalar va pedagogik yondashuvlardan foydalanish zarur. Xorijiy tajribani o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, individual yondashuv, gamifikatsiya va raqamli resurslar orqali ta’lim sifatini oshirish mumkin. Mahalliy sharoitda ushbu elementlarni moslashtirish orqali innovatsion o‘quv tizimini yaratish mumkin.

Xulosa

Talabalarning mustaqil ta’limini kredit-modul tizimida samarali tashkil etish uchun tashkiliy-didaktik, raqamli, motivatsion va mazmuniy shart-sharoitlar zarur. Ushbu yondashuv ta’lim jarayonining sifatini oshirishga, talabalar bilimlarini chuqurlashtirishga va ularni mustaqil shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bloom, B. (1956). Taxonomy of Educational Objectives. New York: David McKay.
2. John Hattie & Gregory Yates (2014). Visible Learning and the Science of How We Learn. Routledge.
3. Schunk, D. H., Pintrich, P. R., & Meece, J. L. (2016). Motivation and Learning: Theory, Research, and Applications. Pearson Education.
4. Boud, D., & Falchikov, N. (2016). Developing Assessment for Feedback and Learning. Routledge.
5. Meyer, J. H. F., & Land, R. (2019). Threshold Concepts and Troublesome Knowledge. Routledge.

O‘QIVCHILARNI INTERNET RESURLARI, AUDIO-VIDEO VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Raxmonova Sevara,
Xatirchi tumani 83-umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi,
Sharipova Odina,
Xatirchi tumani 20-IDIUM amaliyotchi psixologi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta’lim jarayonida innovatsion zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bugungi kunning dolzarb vazifalardan biriga aylanganligi haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Innovatsion, axbort, kommunikatsiya, intellektual, e’tibor, texnikaviy, qobiliyat, interaktiv, refleksiv, ijtimoiy psixologik, motivatsiya.

Rivojlanayotgan davr taraqqiyoti o‘zida ko‘plab sohalarni qamrab olmoqda. Jumladan, ilm-fan, ma`daniyat, sport jabhalarida qo‘lga kiritayotgan yutuqlar shu islohotlarning samarasidir. Bularda o‘ziga xos olib borilayotgan islohotlar, albatta, yoshlar kelajagi, yurt manfaati, kelajak vorislarining o‘z bilim va salohiyatiga tayanib ish yuritish kabi ko‘plab ko‘nikmalarni hosil qilishga doir bir qator farmon va qarorlar ijrosi ta`minlanmoqda. Sababi, yoshlikda olingan ta`lim toshga o‘yilgan naqsh kabidir.

XXI – asr texnika asri deb yuritiladi. Buning sababi, rivojlangan davlatlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularning oddiygina ish jarayonida ham texnika asboblariga tayangan holda ish yuritishlaridir. Albatta, bular inson taraqqiyotining yuksak mahsuli deb olsak ham bo‘ladi. Rivojllangan davlatlarda inson hattoki, robot bilan suhbat quradi, ish jarayonini birga olib boradi, xususan, siz uchun mazzali taomlar ham tayyorlab bermoqda. Bu nafaqat rivojlangan davlatlarda amalga oshmoqda..

Ijtimoiy sohalarda keskin o‘zgarishlarning bo‘lishi biz uchun yanada imkoniyatlar eshigini ochadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimovning fikricha, “Farzandlarimiz ilm-fan sirlarini o‘rganish bo‘ladimi, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallash bo‘ladimi, axborot- kommunikatsiya texnologiyalari, internetdan foydalanish bo‘ladimi, barcha-barcha sohalarda yuksak cho‘qqilarni egallamoqda. Bugun besh yoshli bola internetning u yog‘idan kirib, bu yog‘idan chiqadiki, shaxsan men ularning hayotini o‘zimizning yoshdagi hayotim bilan solishtirib, hayratda qolaman”. Xo‘sh hozirda oddiy bog‘cha yoshidagi bola ham telefon va kompyuterdan foydalanish uning uchun oddiy holatda aylanib qolmoqda. Bu biz uchun qanchalik yaxshi? Uning ertangi kelajagi va sog‘ligiga qanchalik ta’sir qiladi? Axborot almashinuvi jarayoniga qanday ta’sir qiladi?

Psixologlarning ta’kidlashicha, bola egallashi lozim bo‘lgan bilimlarning 70% ga yaqinini 5 yoshga qadar qabul qilinar ekan. Unda siz albatta, bolalarning qiziqishlariga yondashingiz yoki o‘zingiz u uchun qulay sharoitlar bilan ta`minlamog‘ingiz darkor. Agarda siz uning bo‘sh vaqtini to‘g‘ri taqsimlay olmasangiz u o‘ziga qiziqarli va oson bo‘lgan ishlarga vaqtini sarflaydi. Biz uchun yoshlarning zamon bilan hamnafas yurishi albatta, yaxshi, lekin 5 yoshli bolaga hali erta emasmikan internet saytlari bilan tanishish va kompyuterning turli xil o‘yinlar bilan bandligi. Bular esa o‘z navbatida ularning ko‘zdagi turli xil nuqsonlar va ularda psixologik agressiyalarni keltirib chiqaradi. Qadimdan xalqining ma’naviyati uning qancha kitob o‘qiganligi bilan belgilanib kelingan. Hozirda esa bolajonlar kitob olishiga ahmiyat beradigan bo‘lsak, ular asosan multfilmlardagi qahramonlarining suratlari tushirilgan rangli kitoblar ularning havasini uyg‘otmoqda. Har birimizda bu odat bor. Yoshligimizdan o‘zimizning ideal insonimizni tanlaymiz yoki shunga o‘xshashga harakat qilamiz. Bolalarga hozirgi kunda efirga uzatilayotgan multfilmlarning ma`naviy – ozuqaviy taraflari kamayib bormoqda. Xulosa qilib aytish mumkinki, bu haqidagi mavzular yoritilishi dolzarb bo‘lib qolgan muammolar sirasiga aylanishini oldini olmog‘ lozim. Shunda ma`naviyatimizning ko‘zgusi hisoblangan kitobga mehr do‘st kabi bo‘lishini ta`minlagan bo‘lamiz.

“Pedagogik mahorat” ushbu atamini eshitganda hamma ko‘z oldiga keltiradigan birinchi so‘z o‘z ishining ustasi, hozirgi kun bilan hamnafas mutaxassisdir. Hozirda pedagoglarning mahoratini oshirish bo‘yicha deyarli har yili yangi farmon va farmoyishlar taqdim etilmoqda. Chunki hozirgi yoshlar kundan-kunga qiziqishlari ortib bormoqda. Dars jarayonini to‘g‘ri tashkil etish, o‘qituvchi emas, balki o‘quvchilar faolligini oshirish, yoshlarni qo‘llab-quvvatlaash, ularni to‘g‘ri yo‘nalishga qaratish va hakozo bularning barchasi hozirgi pedagoglarga qo‘yiladigan mas`uliyat hisoblanadi. Ta`lim jarayonida internet resurlari, audio-video vositalaridan foydalanish imkoniyati

yaratilmoqda. Ayniqsa, bular "elektron darsliklar" da o'z aksini topmoqda. Axborot kommuniktsiya davrida elektron axborot almashish jarayoni, elektron resurslarni ishlab chiqish, undan foydalanish borasida hukumatimiz tomonidan qabul qilingan bir qator meyoriy-huquqiy hujjatlar mavjud. Bu meyoriy hujjatlar kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, axborotlashtirish, milliy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirishga qaratilgan.

Elektron darslik – bu an`anaviy darslikdan farqli o'laroq, fanga doir materiallarni taqdimot, animatsiya, multimedia va video tarzida aks ettiriladi. Elektron darsliklar muayyan fanga doir mo'ljallangan ma`lumotlar hajmini to'liq qamrab oladi va o'rganishda kompyuter texnologiyalardan foydalanishga imkon ham yaratadi. O'qituvchi elektron darsliklardan foydalanish ta`lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Lekin bir narsa haqida gapirishdan oldin doim uning salbiy va ijobiy tomonlari bilan yoritiladi. Hozirda yetishib chiqayotgan yosh mutaxassislar ham izlanishlardan farqli o'laroq tayyor materiallarga tayanib ish yuritmoqda. Bu ularning bilimga va fanga doir yuzaki qarash yoki fanga doir malumotlarni qidirish kerak bo'lganda esa kitoblarning o'rni yo'qolayotgani va to'liq izalnishlarning bo'lmasligiga sabab bo'lmoqda. Hozirda olingan ma`lumotlarga ko'ra elektron kitoblar haqida so'rov o'tkazilganda yoshlarning ko'pchiligi ular uchun elektron kitoblar ham qulayligi va ixchamligi haqida to'xtalgan bo'lsalar, kattalar esa elektron kitoblarning kasalliklar keltrib chiqarishi va kitob haqiqiy emotsiyani beruvchi vosita ekanligini ta`kidlab o'tgan edilar.

Elektron darslik va ularning ahamiyati haqida gapirish biz uchun juda muhim. Chunki uning afzalligi va kamchiligi ham o'zimizda namoyon bo'ladi. Hozirgi kun talabiga mos yurish ham kerak, chunki hayot jadallashib bormoqda. Lekin biznning kitoblarga bo'lgan mehrimizni ham so'ndirmasligimiz lozim. Chunki bularning hammasi bizning asriy an`anamiz hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.Karimov "Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo1ida xizmat qilish - eng oliy saodatdir" Toshkent O'zbekiston 2015y
2. "Kompyuterlashtirish yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidentining farmoni 30.05. 2002y

IJTIMOIY PSIXOLOGIYADA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR VA ULARNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Yo'ldosheva Hilola,
Navoiy shahar 17-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi

Annotatsiya: Mazkur maqolada shaxslararo munosabatlarning psixologik mohiyati, ularning rivojlanish bosqichlari, muloqot jarayonidagi o'ziga xos xususiyatlari va ziddiyatli holatlarni hal qilish mexanizmlari yoritiladi. Shuningdek, bu munosabatlarning shaxs rivojiga ta'siri haqida ham fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: shaxslararo munosabat, kommunikatsiya, empatiya, ijtimoiy psixologiya, ziddiyat, muloqot.

Аннотация: В данной статье раскрываются психологическая сущность межличностных отношений, этапы их развития, особенности процесса общения и механизмы разрешения конфликтных ситуаций. Также рассматривается влияние этих отношений на развитие личности.

Ключевые слова: межличностные отношения, коммуникация, эмпатия, социальная психология, конфликт, общение.

Abstract: This article explores the psychological nature of interpersonal relationships, their stages of development, specific features of the communication process, and mechanisms for resolving conflicts. It also discusses the impact of these relationships on personal development.

Key words: interpersonal relationships, communication, empathy, social psychology, conflict, interaction.

Ijtimoiy psixologiya shaxsning boshqa shaxslar bilan o‘zaro ta’siri, muloqoti va munosabatini o‘rganadigan fan sohasidir. Psixologiya fanining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan ijtimoiy psixologiya insonning jamiyatdagi tutgan o‘rni, boshqa odamlar bilan o‘zaro munosabati, o‘zini ifodalashi va tashqi dunyoni qabul qilishi kabi holatlarni o‘rganadi. Shaxslararo munosabatlar — bu ijtimoiy hayotning ajralmas qismi bo‘lib, har qanday ijtimoiy guruhda yoki tashkilotda ularning sifati va tuzilmasi kishilarning faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. [31] Shaxslararo munosabatlar orqali inson o‘zini anglaydi, o‘ziga baho beradi, o‘z harakatlarini boshqalar bilan solishtiradi va ijtimoiy rollarni egallaydi. Bugungi kunda bu munosabatlarni chuqur tahlil qilish psixologik maslahat, ta’lim, tibbiyot va menejment kabi sohalarda nihoyatda dolzarb hisoblanadi.

Shaxslararo munosabatlar deganda ikki yoki undan ortiq shaxslar o‘rtasida yuzaga keluvchi emotsional, intellektual va ijtimoiy aloqalar majmui tushuniladi. Bunday munosabatlar insonlarning o‘zaro ta’siri, muloqoti, hamkorligi, baholashi va o‘zaro bog‘liqligi natijasida shakllanadi.[32] Psixolog A.N. Leontyev ta’kidlaganidek, insonning har bir faoliyati boshqa odamlar bilan munosabatda amalga oshadi va bu faoliyatda shaxsning ijtimoiy mohiyati yuzaga chiqadi.

Shaxslararo munosabatlarning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

• Ijobiy va salbiy munosabatlar (hamkorlik, do‘stlik, raqobat, dushmanlik);

• Rasmiy va norasmiy munosabatlar (ish joyidagi va shaxsiy hayotdagi);

• Barqaror va o‘zgaruvchan munosabatlar (uzoq muddatli yoki qisqa muddatli aloqa).

Amerikalik psixolog D. Berns (Berne) o‘z tadqiqotlarida shaxslararo munosabatlar besh bosqichda rivojlanishini ta’kidlaydi:

1. Tanishuv – birinchi taassurot hosil bo‘lishi, tashqi ko‘rinish, nutq, holat.
2. Baholash – shaxslarning o‘zaro mosligi, manfaatlari, qadriyatlari baholanadi.
3. Yaqinlashuv – ishonch paydo bo‘ladi, emotsional yaqinlik ortadi.
4. Inqiroz yoki barqarorlik – munosabat sinovdan o‘tadi yoki mustahkamlanadi.
5. Rivojlanish yoki ajralish – munosabat keyingi bosqichga o‘tadi yoki tugaydi.

Bu bosqichlarda muloqot va his-tuyg‘ular asosiy rol o‘ynaydi. Ijobiy kommunikatsiya, empatiya va ochiqlik munosabatlarni mustahkamlaydi.

Shaxslararo munosabatlarda kommunikatsiya jarayoni asosiy o‘rin tutadi. Inson o‘z fikri, his-tuyg‘usi va niyatini boshqaga so‘z, tana harakati, mimika yoki ovoz ohangi orqali yetkazadi. Munosabatlarning barqarorligi ko‘p jihatdan kommunikatsiya sifati va empatiya darajasiga bog‘liq. Shuning uchun ham samarali kommunikatsiya o‘zaro tushunishni ta’minlaydi. Samarali kommunikatsiya nafaqat axborot uzatishni, balki emotsional aloqani ham anglatadi. Bu holat, ayniqsa, psixologik maslahat, pedagogik jarayon va oilaviy muloqotda katta ahamiyatga ega. Ishonchli va ochiq kommunikatsiya insonlar o‘rtasida psixologik yaqinlikni shakllantiradi, bu esa munosabatlarning

[31] G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
[32] Jalolov J. Psixologiya asoslari. – Toshkent: O’qituvchi, 2019.

barqarorligini ta’minlaydi. Empatiya esa boshqa insonning ichki holatini, kechinmalarini tushunish va his qilish qobiliyatidir. Psixolog K. Rojers fikricha, empatiya — bu shaxslararo ishonchni mustahkamlovchi eng muhim omillardandir. Pedagogik jarayonda yoki oilada empatik yondashuv bolaning psixologik farovonligi, o‘ziga ishonch va motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Ta’lim muassasalarida yoki bolalar bilan ishlashda pedagog yoki psixologning empatik yondashuvi bolaning o‘ziga ishonchini oshiradi, u bilan muloqotni yengillashtiradi va psixologik iqlimni yaxshilaydi. Ish joyida esa empatiya va ochiq kommunikatsiya jamoaviy ruhni mustahkamlab, samaradorlikni oshiradi.

Ziddiyatlar shaxslararo munosabatlarning ajralmas qismidir. Ular fikrlar, qadriyatlar, manfaatlar yoki ehtiyojlarning to‘qnashuvi natijasida vujudga keladi. Shaxslararo munosabatlarda ziddiyatlar muqarrar. Ziddiyatlarni ijobiy yo‘l bilan hal qilishda aktiv tinglash, kompromiss va murosa qilish strategiyalari muhim ahamiyatga ega. Ziddiyatlarning konstruktiv hal etilishi shaxsiy va guruhlararo o‘sishga olib keladi. Ziddiyatlarning quyidagi asosiy turlari mavjud, bular emotsional ziddiyatlar (shaxsiy kelishmovchiliklar), qadriyatlar ziddiyati (maqsadlar yoki hayotiy qarashlar to‘qnashuvi), kommunikativ ziddiyatlar (noto‘g‘ri tushunish yoki noto‘g‘ri axborot).

Ziddiyatlarni hal qilishda quyidagi strategiyalar samarali hisoblanadi:

• Aktiv tinglash – qarshi tomonni tinglash va tushunishga harakat qilish;

• Kompromiss – tomonlar o‘z manfaatlarining bir qismini qurbon qilishga rozi bo‘ladi;

• Hamkorlik – umumiy echim izlanadi, murosa yondashuvi qo‘llaniladi.

Psixolog M. Deutsch ta’kidlaganidek, konstruktiv ziddiyat hal etish ko‘nikmalari jamiyatdagi barqarorlik va shaxsiy o‘sish uchun muhim asosdir.

Xulosa qilib aytganda, shaxslararo munosabatlar — bu inson hayotining markaziy psixologik jihati bo‘lib, uning ijtimoiy faolligi, emotsional barqarorligi va shaxsiy o‘sishi bilan chambarchas bog‘liq. Bunday munosabatlarni o‘rganish va boshqarish orqali sog‘lom psixologik muhit yaratish, ijtimoiy guruhlar o‘rtasida barqarorlikni ta’minlash, shuningdek, ijtimoiy va shaxsiy muammolarning oldini olish mumkin. Ijtimoiy psixologiyada bu yo‘nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar hayotiy amaliyotda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shaxslararo munosabatlar ijtimoiy psixologiyaning muhim ob’ekti bo‘lib, ular shaxs rivoji, emotsional holati va ijtimoiy faolligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ularni tahlil qilish va to‘g‘ri boshqarish jamiyatdagi sog‘lom psixologik muhitni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
2. Jalolov J. Psixologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
3. Leontyev A.N. Faoliyat, ong va shaxs. – Moskva: Pedagogika, 1977.
4. Berne E. Games People Play. – New York: Grove Press, 1964.

INNOVATSIYON TEXNOLOGIYALARIDAN TA’LIM JARAYONIDA FOYDALANISHNING OPTIMAL SHART-SHAROITLARINI O‘RGANISH

O‘tapov Ziyo Bakirovich,
Navoiy viloyat PMM katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta’lim jarayonida innovatsion zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bugungi kunning dolzarb vazifalardan biriga aylanganligi haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Innovatsion, axbort, kommunikatsiya, intellektual, e’tibor, texnikaviy, qobiliyat, interaktiv, refleksiv, ijtimoiy psixologik, motivatsiya.

Аннотация. В этой статье использование инновационных современных информационных и коммуникационных технологий в образовании стало одной из самых актуальных задач современности .

Ключевые слова: Инновационный, информация, коммуникация, интеллектуальный, внимание, технический, способие, интерактивный, рефлексивный, социально- психологический, мотивация.

Annotation. In this article , the use of innovative modern information and communication technologies in education has become one of the most pressing task of today.

Key words: Innovative, information, communication, intellectual, attention, technical, ability, interactive, reflexive, social-psychological, motivation.

Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar ta’lim tizimini modernizatsiya qilinishi hamda innovatsion texnologiyalarni keng o‘zlashtirilishi ta’lim muassasasi oldida dolzarb vazifalarni amalga oshirishni taqozo qilmoqda.Ta’lim jarayonida zamonaviy innovatsiyon axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muhim vazifalaridan biriga aylanganligi hammamizga ma’lum. Bu esa o‘sib kelayotgan yosh avlodni intellektual va texnikaviy qobiliyatlarini rivojlantirib shaxs xususiyatlarini shakllantirishga yordam beradi. “Vatanimiz kelajagi, xalqimizni ertangi kuni mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-etibori, avvalambor, yoshlarimizning unib-o‘sib, ulg‘ayib qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liqdir. Biz bunday o‘tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak. I.A.Karimov[33].

Zamonaviy axborot innovatsiyon texnologiyalaridan ta’lim jarayonida foydalanar ekanmiz, biz uning ijobiy ta’sir yo‘llari orqali yondasha olishimiz lozim, ya’ni, birinchidan, axborot kommunikatsiya texnologiyalari zaminida yuz berishi mumkin bo‘lgan yangiliklar an’anaviy muloqot sharoitlarida olib boriladi. Dars jarayonida texnika bilan shaxs va shaxs bilan shaxs o‘rtasidagi muloqotni muvofiqlashtirib olib borish maqsadga muvofiq.

Ta’lim beruvchilar innovatsiyon texnologiyalaridan foydalanish va amaliyotga tadbiq etish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi interaktiv hamda refleksiv ta’sirni unutmasligi kerak. Ta’lim jarayonida innovatsiyon texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning kommunikativ va bilish faoliyatini sifat o‘zgarishlariga olib boradi hamda ta’lim olish usullarining o‘zgarishi asosida shaxs sifatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, internet bilan ishlaganda, o‘quvchilarning faolligi ortadi va ta’lim jarayoni individuallashadi, turli ma’lumot manbalari bilan ishlash imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu esa o‘quvchilarning shaxsini rivojlantiradi. Ularda mustaqil fikr yuritishga, tashabbuskorlikka, mobillikka rag‘batlanish paydo bo‘ladi. Ammo, shuning bilan bir qatorda salbiy ta’sirlar ham yuzaga kelishi mumkin. Yani, intensiv intellektual va ijodiy rivojlanish o‘quvchilarni mavjud ijtimoiy muhitga moslashishini ta’minlay olmaydi. Ular turli kompyuter manbalariga, shu jumladan internetga bog‘lanib qolishlari ham mumkin. Bu esa kelajakda o‘quvchi shaxsini boshqalardan ajralib qolishiga sabab bo‘la oladi. Bolalarning ruhiyatida keskin o‘zgarishlar ro‘y berib, ularda o‘z do‘stlarini virtual olam qahramonlari bilan almashtirish, ruhiy javob reaksiyalarida pasayish, qiziqishlar doirasida torayish kabi holatlar kuzatilishi mumkin.

[33] Каримов И.А. “Юксак маънавият енгилмас куч”.__ Т.: «Маънавият», 2008. __16

O‘quv faoliyati jarayonida dars maqsadining aniqligi, mantiqiyligi, ketma-ketliligi hamda talablarning refleksivligiga e’tibor qaratish lozim. Bu birinchidan, o‘quvchining ruhiy muloqotini amalga oshirish uchun muhim bo‘lsa, ikkinchidan, teskari aloqani kuchaytirishga asos bo‘ladi va ta’lim jarayoni uchun mo‘ljallangan dasturiy va texnik vositalarning “insonlashuvi” kuzatiladi. Bu jarayonda zamonaviy kommunikatsiya axborot texnologiyalarining o‘quvchilarga ta’siri ortib, u chegaralangan doiradagi ruhiy ta’sirlardan tortib, to shaxsni to‘la o‘zgartirishgacha (internetga bog‘lanib qolish, xakerlik sindromi) olib keladigan jarayondan saqlashi mumkin.

Psixolog olimlar bugungi kunda innovatsiyon texnologiyalarining ruhiyatga ta’sir ko‘rsatishi va undan oqilona foydalanish e’tiborga molik masala ekanligini uqtiradilar. Bu esa o‘z navbatida pedagoglar uchun ham o‘ta dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Sharq donishmandlari “Qaerga ketayotganingni bilish uchun qaerdan kelayotganingni aniqlash lozim” - deb aytgan hikmatli so‘zlaridan hamda yuqorida aytilgan fikrlardan kelib chiqib o‘quv muhiti dasturini axborot kommunikatsiya texnologiyalari orqali loyihalayotgan vaqtda o‘quvchilarni ongli fikrlashi va o‘zaro ta’sir holatiga ham alohida e’tiborni qaratish maqsadga muvofiq.

Buning uchun:

-o‘quvchilarda ma`lum bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish bilan birgalikda shaxsini ham shakllantirishga ijtimoiy psixologik, motivatsiya berish ish;

-o‘qitish shakllarini o‘zgartirish uchun harakatlanish va moslashish xususiyatlariga ega bo‘lgan muhitga e’tibor qaratish;

-o‘qitish va rivojlanish jarayonini rag‘batlantiradigan muhit hosil qilish**;**

-o‘quvchilar shaxsining psixologik xususiyatlarini hisobga olish;

Bundan tashqari, innovatsiyon texnologiyalaridan foydalanganda auditoriyada mebellarni joylashtirish, adabiyot tanlash, tajriba, kerakli resurslar, oquvchilar hissiyotlariga ta’sir etish va ularni motivatsiyalash kabi o‘quv muhiti usullaridan ham oqilona foydalana olish ham shaxs shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchilar o‘qituvchi tashkil etgan va slaydda tayyorlangan manbalar asosidagi ijodiy muhit uchun berilgan topshiriqlarni bajarish davomida guruhlarga bo‘lingan holda muammolarning yechimini topsalar o‘quvchilarda quyidagi sifatlar hosil bolishiga sharoit yaratiladi: motivatsion hatti-harakatni belgilovchi xohish-istak va ehtiyojlar, motivatsiya (tashqi va ichki omillardan tashkil topadi), his-tuyg‘ular (insonga ta`sir qiluvchi omillarni baholash, reaktsiya qilish) bilan bog‘liq holat kechadi, shuningdek, ta’lim jarayonida quvonch, hayratlanish, muhabbat, havas qilish, ayrim hollarda uyalish, nafratlanish, hadiksirash kabi tuyg‘ular shaxs shakllanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Yaxshi tashkillashtirilgan axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosidagi o‘quv muhiti ijodkorlik qobiliyatlariga rag‘bat berishi ijtimoiy va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishi, fikrlash va axborot almashishga ko‘maklashishi, nutq rivojlanishini rag‘batlantirishi va ma‘lumotlarni mustaqil olish ko‘nikmalarini rivojlantirish kabi xususiyatlarni tarkib toptiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, biz pedagoglar zamonaviy innovatsiyon texnologiyalari asosida darslarni tashkil etish jarayonida o‘quvchilar shaxsini shakllantirish uchun quyidagilarga alohida e’tibor qaratishimiz lozim:

- innovatsiyon texnologiyalarining o‘quvchilar shaxsiga bo‘lgan salbiy ta’sirlarini aniqlash va bartaraf etish yo‘llarini izlash;

- innovatsiyon texnologiyalaridan ta’lim jarayonida foydalanishning optimal shart-sharoitlarini o‘rganish;

- ta’lim jarayonida aniqlik, samaradorlik va natijalarni oldindan ko‘ra olish;

- ta’lim oluvchilarga internetdan foydalanishning ijobiy va salbiy ta’sirini oqilona va ongli idrok eta olishlariga erishish;

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.6. T.: “O‘zbekiston”, 1997. 324-346-betlar
2. Белинская Ye.П. К обоснованию соцкультурного подхода в исследованиях вертуальной реальности. http/ www. Ish. Ru. /info/ seminar-doc (1) doc.
3. Библиотека практической психологии “Психология зависимости” Минск. 2004г

BOLALARNI TARBIYALASHDA MUTAFAKKIRLARINING PSIXOLOGIK QARASHLARI

Abdullayeva Gulmira Yusufovna,
Qiziltepa tumani 4-IDUM amaliyotchi psixologi,
Shukurova Madina Ergashevna,
Qiziltepa tumani 3-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta’lim jarayonida ota-bobolarimiz, ajdodlarimiz, ayniqsa ilm-fan borasidagi allomalarimiz ta’lim sifatini oshirishda pedagogik qarashlaridan alohida foydalanish bugungi kunning dolzarb vazifalardan biriga aylanganligi haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim-tarbiya, axbort, xulq-odobda, e’tibor, texnikaviy, qobiliyat, interaktiv, murosasizlik, ilm-fan, motivatsiya.

Ota-bobolarimiz, ajdodlarimiz, ayniqsa ilm-fan borasidagi allomalarimiz kishilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga alohida e’tibor berganlar. Ularning o‘zlari Vatanga muhabbatni ifoda etish borasidagi ko‘pgina namunalarni ko‘rsatishgan. Chunonchi, Vatan tuyg‘usi, unga muhabbat, ilm-fan namoyondalarining taxalluslarida ham aks etadi

Xorazm Ma’mun akademiyasi olimlaridan biri buyuk mutafakkir, olimlar sardori (Shayx ur rais) tabiblar podshohi nomi bilan butun dunyoga mashhur alloma Abu Ali Ibn Sinoning ta’lim-tarbiya, axloq sohasidagi boy merosi barcha davrlarda ham jaholatga qarshi kurashda muhim ahamiyatga ega.

Mutafakkir “Axloqqa oid risola”, “Burch haqida risola”, “Nafsni pokiza tutish haqida risola”, “Badanni boshqarish”, “Adolat haqida risola”, “Qush risolasi”, “Hikmat buloqlari”, “Salomon va Ibsol”, “Turar joyni boshqarish”, “Donishnoma” kabi asarlarida ta’lim-tarbiya masalalarini ko‘tarib chiqqan.

Mutafakkir bola tarbiyasida o‘qituvchining rolini alohida ko‘rsatib o‘tgan. Uning fikricha o‘qituvchi jasur, halol, odobli, xushmuomala, samimiy, sog‘lom, ozodalikni sevuvchi va o‘zi shaxsan xulq-odobda va barcha tomonlama namuna ko‘rsata oladigan bo‘lishi kerak deydi. O‘qituvchi yoki tarbiyachi bolalarni yaxshi ko‘rishi, hurmat qilish, ular bilan xushmuomalada bo‘lishi shart, agar bola ishni yaxshi bajarsa uni o‘z vaqtida rag‘batlantirish, aksincha bo‘lsa unga tanbeh berish kerak. Lekin, - deydi mutafakkir, tanbeh bolaning izzat nafsiga tegadigan bo‘lmasligi lozim. Qattiqqo‘llik xaddan oshsa, bola tarbiyasiga zararli ta’sir etishi mumkin, bola o‘qituvchi bilan maslahatlashmaydigan bo‘lib qoladi. O‘quvchiga nisbatan murosasizlik qilish esa bolaning o‘zboshimcha bo‘lib qolishiga olib keladi deydi.

Bolalarga kasb-hunar o‘rgatish masalasi ham mutafakkirning diqqatidan chetda qolmagan. Bolani yoshlikdan kasb-hunarga ham tayyorlab bormoq zarur. U kasb-hunarni ma’lum darajada o‘zlashtirgandan keyin, uni mustaqil hayot kechirishga o‘rgatish lozim

deb ta'kidlaydi. Bola o'z mehnati bilan o'zini boqish qurbiga ega bo'lgandan keyingina ota-onaning bolaga bergan tarbiyasi yakunlangan hisoblanadi deb xulosa chiqaradi.

Mahmud az-Zamaxshariy 50 dan ortiq asar yozgan bo'lib, axloqqa doir ham bir qancha asarlar yozgan. Shulardan biri "Axloq odoblarning oltin shodalari", "Hadislardagi g'aliz so'zlar" kabi asarlari mashhurdir. Mutafakkir bu asarlarida o'zining axloqiy qarashlarida o'z zamonasidagi turli tabaqa kishilarining jamiyatda tutgan o'rni va odob-axloq to'g'risida fikr yuritarkan, u shaxsning kim bo'lishidan, qaysi nasabga mansubligidan qat'iy nazar podshohmi yoki oddiy fuqaro, avvalo u xushhulq va go'zal odamiylik ziynatiga ega bo'lmog'i kerakli haqida gapirib shunday degan: "Yaxshi axloq-odob bezamagan chovdan chiroyli ipak kiyimlar bezay olmaydi".

Sof vijdonli kishilarni pastkash ikkiyuzlamachi, ig'vogar, nomard kishilardan yiroq yurishini maslahat beradi. Insonning qadr-qiymatini oshiruvchi ham, pasaytiruvchi ham til ekanligini qayd etib, "Agar tilingni tiymasang jilovingni shaytonga berib qo'yasan deydi. To'g'ri so'z sharofatidan najot topib baxtli bo'lasan. Yolg'on so'z esa vaqtincha foyda berib so'ng butunlay o'ldiradi. Yolg'on gapirib g'alaba qozongandan, rost gapirib mag'lub bo'lgan ma'qul. Va'da bergan bo'lsang, albatta bajar. Birovni koyimoqchi bo'lsang, noma orqali koyi. So'z bilan koyima chunki, so'z o'lchovsiz ketib, yuz ko'rishmas bo'lasan", - deydi az-Zamahshariy.

Mutafakkir o'zining pedagogik qarashlarida yoshlarni o'zidan kattalarni hurmat qilishga da'vat etadi. Bola tarbiyasida ota-onalarning roli haqida ham qimmatli fikrlarni bildiradi. U haqda mutafakkir shunday deydi: "Ota-ona bolasini axloqli, odobli, mehnatsevar qilib tarbiyalamoqchi bo'lsa, eng avvalo bolani me'yoridan ortiq erkalatmasdan, doimo nazoratda tutsin degan. Mol dunyom bor deb bolaning istaganini yedirib, istaganini kiydiraversang uning nafsi ustun bo'lib o'sadi va voyaga yetganida birinchi bo'lib ota-onani keyin boshqalarni o'z nafsining qurboni qiladi".

Deydilarki: "Ta'lim beshikdan mozorgacha" "Hasan ibn Zayd 80 yosh arafasida hayot qonunlarini o'rganishga kirishgan. O'qib o'rganish uchun eng qulay vaqt yoshlik davri, erta tong va qosh qoraygan payt. Bilim oluvchi shu vaqtdan samarali foydalansin, bordi-yu bir fandan zeriksa, boshqasi bilan mashg'ul bo'lsin", - deydi.

Xulosa qilib aytganda, sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya borasidagi qimmatli fikrlarini dars jarayonida qo'llash, ularning o'git-nasihatlarini kelajagimiz egalari bo'lishgan o'g'il-qizlarimizga o'rgatish har bir o'qituvchilarimizning dastur amaliga aylanmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

4. M.Xayrullaev, A.Xasanbogva. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. –T., Fan, 2000y.
5. R.Mavlonova, O.To'raeva, K Xoliqberdiev. Pedagogika. –T. O'qituvchi, 2001y
6. M.Ochilov. Muallim qalb me'mori. –T., O'qituvchi, 2001y.

MAKTAB YOSHDAGI BOLALARNING INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI SHAKLLANISHIDA OILANING O'RNI

Po'latova Nodira Ibodullayevna,
Qiziltepa tumani 21-umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixologi,
Narziyeva Mohigul Norkomilovna,
Qiziltepa tumani 7- umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixologi

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik maktab yoshdagibolalarning individual psixologik xususiyatlarini shakllanishida oilaning o'rni hamda oila, ta'lim muassasasi tarbiya maskani bo'lib, shaxsning kelajagi shu maskanda tarbiyaning qanday amalga

oshirilishiga, haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Melanxolik, xotirjam, befarq, flegmatik, dunyoqarash, xolerik e'tiqod, temperament, ijtimoiy, sangvinik, barkamol insonni.

Ota-ona bolani dunyoga keltirgani uchun emas, uni odobli, axloqli qilib voyaga yetkazganlari uchungina olqishga sazovorbo'ladilar.
Sharq hikmati.[34]

Jamiyatning oila deb atalmish kichik bir bo'g'ini orqali asrlar silsilasidan sayqallanib e'zoz topib kelayotgan ming asrlik an'ana va qadriyatlar kelgusi avlodga yetkaziladi. Yurt manfaati, jamiyatning bugungi kuni va kelgusi taraqqiyoti uchun zamin yaratib beradigan muqaddas go'sha bu–Oila hisoblanadi.Ana shu muqaddas dargohda o'sib, ulg'ayadi, tarbiyalanadi. Jumladan,har bir bola organizmi individual holda rivojlanadi. Rivojlanish bosqichi ma'lum bir ketma-ketlikka asoslangan bo'ladi. Ana shu bosqichlarning har birida bir xil yoshdagi bolalar uchun umumiy bo'lgan xususiyatlar kuzatiladi. Bolalar o'zining ontogenetik taraqqiyoti davrida yuzaga keladigan turli ruhiy holatlarga qay yo'sinda javob topish va uni bartaraf etish yo'lini oila muhitida o'rganadi.

Bolaga tarbiya berish jarayonida ota-ona va oilaning boshqa a'zolarining xususiyatlari, fazilatlari xulq-atvori undakattalarga taqlid asosida shakllanadi. Bolalar maktabgacha ta'lim muassasasiga qatnagunga qadar oddiy harakatlardan tortib, ertak eshitishdan zavqlanish, musiqa ohangiga mos raqsga tushish, mo'ljal olish, predmetni olish, uloqtirish kabi ko'nikmalarini egallagan bo'ladi. Maktabda ta'lim olish jarayonida bevosita shaxs sifatida shakllanish bosqichidan o'tadi.

Bolalar turli muhit va sharoitdagi oilalarda ulg'ayadi. Unda sodir bo'ladigan turli xil voqealar ularning ruhiyatiga o'z ta'sirini o'rkazadi. Oilaning har bir a'zosi bola tarbiyasida o'ziga xos o'ringa ega. Ular o'z yaqinlari bilan doimiy aloqada bo'lishlari lozim. Oilaviy munosabatlardagi muammolar bolaning individual xususiyatlarini shakllanishida salbiy ta'sir ko'rsatadi.Ota-onalar har bir bola ruhiy rivojlanishida o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi va bu xususiyatlar ularning u yoki bu faoliyat turini egallashidanamoyon bo'lishini yodda tutishlari lozim. Ba'zi bolalarning o'zlashtirish jarayoni ularning boshqa tengdoshlariga nisbatan yuqori bo'ladi. Bola imkoniyatlarini namoyon bo'lishi ma'lum darajada nasliy omillarga ham bog'liqdir.

Maktab yoshidagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlarida biri temperamentdir.Temperament tiplariga ko'ra bolalar o'z temperament xususiyatlariga ko'ra ham bir-birlaridan ajralib turadilar. Xushchaqchaq, sergap, quvnoq, hayotning o'zgaruvchan sharoitlariga tez moslashaoladigan bolalar -sangvinik, ko'pincha noxush kayfiyatda yuradigan, ta'sirchan, kamgap, sustbolalar - melanxolik, xotirjam, befarq, kamharakat, nutqisust bolalar - flegmatik, jaxldor, betoqat, serzarda, harakatchan bolalar–xolerik hisoblanadilar. Bolalarga tarbiya berish jarayonida ularning temperament xususiyatlarini hisobga olinishi, ya'ni uning afzallik tomonlari rivojlantirilib, kamchilik jihatlari bartaraf etib borilishi maqsadga muvofiq. Maktab yoshdagi bolalarning individual xususiyatlarini shakllantirishda quyidagilarga amal qilishni lozim deb o'ylaymiz:

- Bolalar bilan muloqotda samimiy bo'lish;
- Bolalarning xarakter-xususiyatiga qarab muomala qilish;

[34]A.Tilovov. Asabiylashmasdan, jazolamasdan, baqirmasdanbolalarga gap uqtirishsan'ati. – T:."Sanostandart", 2016.-752b.

- Bolalarni bir-biri bilan taqqoslamaslik;
- “Rag‘batlantiruvchi so‘zlar” dan foydalanish;

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, maktab yoshidagi bolalarda turli mavzuga oid audio kitoblar tinglash, sahnalashtirilgan psixodramalar, videoroliklar tomosha qilishular ruhiyatida ijobiy motivatsiyani shakllantiradi. O‘zgacha qiziqish va zavq bilan tinglangan ertak ularga albatta ijobiy ta’sir etadi hamda farzandlarimizni ruhiy olamiga kirib boradi. Aziz farzandlarimizning qalbida o‘z Vatani va oilasiga mehr va muhabbatli qilib tarbiyalash bizning asosiy vazifamiz hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: “O‘zbekiston”, 2017.
2. Munavvarov Oila pedagogikasi T.1994y

O‘SMIRLARNI INTERNETDAN SAMARALI FOYDALANISH MADANIYATINING PSIXOLOGIK BOG‘LIQLIKNI NAZARIY JIHATLARI

Karimova Mavluda Baxriddinovna,
Nurota tumani 6-umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim jarayonida internet va kompyuterdan samarali foydalanish madaniyatinining psixologik bog‘liqlikni tadqiq etishning nazariy jihatlari hamda o‘smirlar ongiga salbiy ta’sir etuvchi omillar to‘g‘risida fikrlar va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Xarakter axbort, kommunikatsiya, intellektual, kompyuter o‘yinlari, qobiliyat, informatsion texnologiyalar, somatik buzilish psixologik, motivatsiya.

O‘zbekistonda keng ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy, ma’naviy-axloqiy islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘tish davrining yangi bosqichi inson faoliyatining barcha sohalarida tub o‘zgarishlarni taqozo etadi.

Bugungi kunda o‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama etuk komil inson qilib tarbiyalash va o‘qitish jarayonini takomillashtirish yangi informatsion texnologiyalarni tadbiq etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ammo kompyuter o‘yinlari faoliyat shakli sifatida kirib kelishi bir tomondan ijobiy xarakter kasb etsa-da, ikkinchi tomondan uning salbiy ta’siri mavjud. Kompyuter o‘yinlari insonni mulohazalashga, aqlini charxlashga va psixomotor harakatlarni shakllanishga imkoniyat yaratadi. Shunday bo‘lsa-da, kompyuter o‘yinlari shaxsni ijtimoiylashuvidan, shaxslararo munosabatdan yiroqlashuvi, o‘zini ichki qobig‘iga o‘ralashib qolishi, ya’ni psixologik muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Kompyuterlashtirish barcha sohalarga tez sur’atda kirib kelishi, yirik firmalar hattoki, o‘rta holdagi firma va tashkilotlar ham kompyuter xizmatiga keng ehtiyoj sezmoqda. Zamonaviy kishilar uyda, ishda, mashinada hattoki, samolyotda ham kompyuter bilan o‘zaro faoliyatga kirishadilar. Kompyuter inson hayotiga kirib kelishi bilanoq inson ongida o‘z o‘rniga ega bo‘lmoqda va bu qimmatbaho rangli metallni ishlash qobiliyatiga insonlar o‘zlari anglamagan holda bog‘lanib qolishmoqda.

Internet bilan birgalikda kompyuter o‘yinlari ham vujudga kelib, tez suratda o‘z muxlislarini topgan. Kompyuterlar mukammallashgani sari kompyuter o‘yinlari ham mukammallashib bormoqda va ko‘plab insonlarni o‘ziga jalb qilmoqda. Kompyuter texnikasi shunchalik takomillashganki, dasturchilar kompyuter o‘yinlari reallikka yaqin holdagi grafika va tovushli qilib yaratmoqdalar. Geymer (inglizcha “Game” -o‘yin) yoki

kompyuter o‘yinlari fanati nomini olganlarning asosiy faoliyati bu kompyuter o‘yinlarini o‘ynashdan iboratdir. Bu holatlarning oqibat natijasi yoki eng xavfli tomoni insonlarda kompyuter o‘yinlariga psixologik bog‘liqlik yuzaga kelayotganligidadir.

Kompyuter o‘yinlariga psixologik “bog‘lanib qolish” mavjudligiga ko‘pgina mutaxassislar va insonlar ikkilanishadi. Biroq hozirda kompyuter o‘yinlari bilan mashg‘ul bo‘luvchilar va vertual olamda bo‘luvchilar soni kundan kunga ortib borayotganligi yaqqol fakt hisoblanadi.

Psixologik olim M.S. Ivanov o‘zining ko‘p yillik kuzatuvlariga asoslangan holda kompyuter o‘yinlariga psixologik bog‘liqlik rivojlanishining to‘rt bosqichini mavjudligini aniqlagan[35]. Ularning har biri o‘zining xususiyatiga ega. Quyida biz ularning har biriga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

-Birinchi:

Yuzaki qiziqish davri deb bunda bir yoki bir necha bor rolli kompyuter o‘yinlarini o‘ynagandan so‘ng o‘smir kompyuter o‘yinlarini “maza” siga tushina boshlaydi va unga kompyuter grafikasi, ovozi, hayotni va fantastik syujetlarni sohtaligi yoqa boshlaydi. Kimdir umri davomida pulemyotdan otishni va kimdir FERRARI mashinasini haydashni yoki jangovor samolyotni boshqarishni orzu qilgan. Kompyuter insonga real hayotga anchagina yaqinroq holda ushbu (obrazlarni) orzularni amalga oshirishga imkon beradi. Boshqalar “rolini ijro etish”dagi anglanmagan ehtiyojlar qondirila boshlaydi. Inson kompyuter o‘yinlarini o‘ynab rohat oladi. Inson tabiatdan, unga rohat beruvchi va ehtiyojlarini qondiruvchi xatti-harakatni qaytarishga intiladi. Natijada inson kompyuter oldida tasodifan o‘tirib qolgan emas, balki ma’lum bir maqsadga yo‘nalgan holda kompyuter o‘yinlarini o‘ynash uchun o‘tirgan bo‘ladi. Bu davrni o‘ziga xosligi shundaki, kompyuter o‘yinlarining vaziyatli xarakterga egaligidir. Qattiq va doimiy kompyuter o‘yinlariga ehtiyoj bu davrda ifodalanmaydi va kompyuter o‘yinlari inson uchun qadrli bo‘lmaydi.

-Ikkinchi:

Qiziqish davri insonni bog‘lanib qolishning ushbu davriga o‘tganligini tasdiqlovchi dalil bu ehtiyojlar iyerarxiyasida kompyuter o‘yinlarini o‘ynashgan nisbatan ehtiyojini yuzaga kelishidir. Bu ehtiyoj umumlashgan bo‘lib, biz uni “kompyuter o‘yinlariga ehtiyoj” deymiz. Aslida ehtiyojlar strukturasi juda murakkab bo‘lib, uning asl tabiati shaxsning individual xususiyatiga bog‘liqdir. Boshqacha qilib aytganda, o‘yinga intilish-bu real hayotdan qochish va rollarni bajarishni o‘z zimmasiga olish ehtiyojlariga bog‘liq mativatsiyadir.

Kompyuter o‘yinlaridagi o‘yin bu davrda tizimiylik xarakteriga ega. Agar inson kompyuterda doim o‘tirmasa, ya’ni ehtiyoj qondirilishida frustratsiya yuzaga kelsa inson bu sharoitni (holatni) yo‘qotishda yetarlicha faol harakat qilish mumkin.

-Uchinchi:

Bog‘liqlik davri Shpepxelning ma’lumotiga ko‘ra, (0-14% kompyuter o‘yinlarini o‘ynovchilar «Zaharlangan», ya’ni kompyuter o‘yinlariga psixologik bog‘lanib qolish davrida bo‘ladi. Ushbu davrda ehtiyojlar piramidasidagi kompyuter o‘yinlariga bo‘lgan ehtiyoj ozgina pasayadi va shaxsning qadriyatlar mazmuni doirasida qayta o‘zgarishlar yuz beradi. Ma’lumotlarga qaraganda, ichki lokus kentrol (xulq-atvorini yoki xatti-harakatining sababini inson o‘zida izlanish) yuz beradi, o‘z-o‘ziga bahosi va o‘z-o‘zini bilishda, nazorat qilishda o‘zgarish seziladi. Bog‘liqlik quyidagi ikki shakldan birida rasmiylashadi: Ijtimoiylashgan va individuallashgan shakllardir.

[35] М.С. Иванов. Влияние ромвых компьютерных игр на формирование психологический зависимости человека от компьютера. 1999 г.

Ijtimoiylashgan shakldagi bog‘liqlik inson sotsium bilan farqlanadi. Bunday insonlar birgalikda kompyuter o‘yinlarini o‘ynashni yoqtiradilar. Ular kompyuter tarmog‘i orqali bir birlari bilan o‘ynaydilar. o‘ynash motivatsiyasi asosan musobaqalanish xarakteriga ega. Bunday bog‘liqlik inson psixikasiga, individuallashgan shakldagi bog‘liqlikka nisbatan kamroq salbiy ta’sir etadi. Ularning farqi shundaki, inson sotsiumdan ajralmaydi. o‘ziga o‘xshash fanatlardan tashkil topgan ijtimoiy muhit bo‘lsa-da, insonga real hayotdan yiroqlashib butunlay vertual dunyoga kirmaydi, o‘zida psixik va somatik buzilishni yuzaga kelishga imkon bermaydi.

Individuallashgan shakldagi bog‘liqlikda dunyoqarashning normal insoniy xususiyatlari va insonni tashqi olam bilan o‘zaro ta’siri buziladi. Psixikani asosiy funksiyasi buzilib, u ob’ektiv dunyo ta’sirini aks ettira boshlaydi. Bunday insonlar yakka holda uzoq vaqt o‘ynashadi. Ularda kompyuter o‘yinlariga ehtiyoj biologik ehtiyoj bilan bir darajada bo‘ladi. Ular uchun kompyuter o‘yinlari narkotik modda singari bo‘lib qoladi. Agar o‘z vaqtida ma’lum bir “doza”ni olmasalar qoniqmaslik hissi boshlanadi. Salbiy emotsiyalarni boshdan kechirib depressiyaga tushib qoladilar. Bu patologiyaga olib boruvchi klinik holat, psixopotologiya yoki hayot tarzidir.

Shunday ekan, yoshlarda axborot olami imkoniyatlaridan oqilona foydalanish uchun asos bo‘ladigan axborot iste’moli madaniyatini tarbiyalash hayotiy-amaliy ahamiyatga ega. Ularda bunday madaniyatning kamol toptirilishi milliy qadriyatlarimizga zid bo‘lgan har qanday hodisaga selektiv yondashish ko‘nikmasi shakllanishiga va dunyoqarashdagi sog‘lom barqarorlikka zamin yaratadi. Zero, Muhtaram Yurtboshimiz Islom Karimov rahnamoligida mustaqil davlatimizda olib borilayotgan siyosatdan ko‘zlangan maqsad - Inson manfaatini himoya qilish, uning uchun munosib turmush tarzini yaratish ekan, bu ishlarni amalga oshirish uchun barcha ziyolilar, birinchi navbatda, psixologlar ijtimoiy borliq qonuniyatlarini bilishi va undan maromida foydalib, turmush normalariga bo‘ysungan holda jamiyatda o‘zining munosib o‘rnini egallab, fuqarolik burchini ado etishga tayyor bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Влиянийе ролевых компютерных игр на формированийе психологической зависимости человека от компютера” 1999 г.
2. Иванов М.С. Психологическийе аспекты негативного влияния игровой компютерной зависимости на личност человека. www flogiston.ru.

KOMPYUTER O‘YINLARIGA TOBE O‘SMIRLAR MUAMMOSI

Oltinova Zarnigor Jamol qizi,
Qiziltepa tumani 26- umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi,
Ne’matova Gullola Islomova,
Qiziltepa tumani 12-umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi

Annotatsiya. Mazkur maqolada kompyuter o‘yinlariga tobe o‘smirlar muammosi yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari va kompyuter o‘yinlari oqibatida o‘smirlar xulqida paydo bo‘ladigan salbiy sifatlar va ularni oldini olish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Agressiv xulq, axborot-psixologik, xavfsizlik, virtual, kompyuter o‘yinlari, emotsional, tafakkur, tashxis, ong.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari shiddat bilan yoyilmoqda. Interenet kun sayin har bir tashkilot, ijtimoiy muassasa, o‘quv yurtlari, xonadonimizga kirib kelmoqda. Respublikamizda internetdan foydalnuvchilar soni hatdan tashqari yoshlar hisobida ortib

bormoqda. Umumjahon miqyosida olganda ham bu miqdorni sezish mumkin. Koʻpchilik yoshlar hayotiy tasavvurga etarlicha ega boʻlmasa-da, ammo axborot vositasiga aylanib qolmoqda. Bu taajjubsiz holatki, chunki yoshlar oʻzlariga referat yoki kurs ishi izlab, musiqa eshitish, oʻziga yoqqan kitobni sotib olish yoki forum mavzularini jonli mushohadalarida ishtirok etish orqali internetga kirib bomoqdalar. Internet ta'lim olish, dam olish yoki doʻstlar bilan muloqot qilishning ajoyib va foydalasi vositasi boʻlishi mumkin. Ammo hayotga real koʻz bilan qaraydigan boʻlsak, tarmoq oʻz oʻrnida xavfdan ham xoli emas: uning ham oʻziga xos bezoriligi, jinoiy olami, zarari va nomaqbullik tomonlari mavjud. Virtual muloqot insonlarga bolalarga zarar keltiruvchi manba boʻlib qolishi ham hech gap emas. Oxirgi paytlarda internetda koʻpgina tajovuzkor va ijtimoiy xavfli materiallar paydo boʻlib qolmoqda. Katta yoshdagilar bolalarni ushbu xavflardan asrash uchun internetdan foydalanishlariga e'tibor qaratishlari muhimdir.

Bugungi kunda 600 millionga yaqin kompyuterdan foydalanuvchilar haqida soʻz borayotgan bir sharoitda uning miqdori 1 milliardga etishi ham shubhasiz. Kompyuerdan faqat ishchi oʻrinlarida emas, balki maishiy turmush masalalari, xonadonda va dam olishda ham keng foydalanilmoqda. Bular orasida shaxsiy kompyuterdan tashkilotlardan koʻra xonadonda foydalanishi koʻp hajmni tashkil emoqda. Bu xalqaro an'anaga aylangan holat boʻlib, bizning mamlakatimizni ham chetlab oʻtmaydi. Fomicheva Yu.V. oʻtkazgan tadqiqoti ham «kompyuter» guruhidagilarning motivatsiya sohasida yuqoriroq koʻrsatkichga egaligini aniqlagan. Kompyuter oʻyinlarini oʻynayotganda oʻsmir oʻz qobiliyatini, imkoniyatlarini va kamchiligini anglay boshlaydi. Bu oʻsmir shaxsini va qat`iy «Men» obrazini shakllanishiga ijobiy ta'sir koʻrsatadi[36]. Axborot texnologiyalardagi taraqqiyot yoshlarimizni, oʻsib kelayotgan avlodni uchun yangi qirralarni ochilishiga imkon bersa-da, undan foydalanishning ham oʻziga xos muammolari mavjud. Bolalar internetdan foydalana turib yovuz niyatli odamlarga duch kelib qolmoqdalar. Internetdagi noma'lum kishi bilan muloqot ishonchli va doʻstona munosabat oʻrnatishga imkon yaratadi. Jinoyatchi ushbu afzallikdan foydalangan holda tajribasiz yoshlarni oʻziga bogʻlab olmoqda. Siz farzandingizni interetdagi xavfdan asray olasiz, qaysiki uni tarmoqdan qanday foydalanayotganligini nazorat qila olsangiz. Jinoyatchilar bolalar bilan chatda lahzali axborotlar almashtirishda, elektron pochta yoki forumlardan foydalanib aloqa oʻrnatish ustunligiga erishmoqda. Koʻpgina oʻsmirlar oʻzlarini muammolarini hal etish uchun konferensiyaga murojaat etadilar. Yovuz niyatli kishilar esa bundan foydalangan holda, ularga mehribonlik, gʻamxoʻrlik koʻrsatish va sovgʻalar berish orqali oʻsmirlarni e'tiborini oʻziga qaratib olmoqda.

Oʻsmirlar muammosiga e'tiborni kuchaytirish zarurligining asosiy sabablari:

1) fan va texnika rivojlanishi natijasida madaniyat, san'at va adabiyot, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning oʻzgarayotgani;

2) ommaviy axborot tizimining kengayishi tufayli oʻsmirlar ongliligi darajasining koʻtarilgani;

3) oʻgʻil va qizlarning dunyo voqealaridan, tabiat va jamiyat qonunlaridan, tarixdan yetarli darajada habardorligi;

4) ularning jismoniy va aqliy kamoloti jadallashgani;

5) oʻsmirlar bilan ishlashda gʻoyaviy-siyosiy, vatanparvarlik va baynalminal tarbiyaga alohida yondashish zarurligi;

[36] Фомичева Ю.В. «Психогический каореляты увлеченности компьютернами играми» // Вестник МГУ. Психология. 1991г., №3.

6) o‘smirlar uchun mustaqil bilim olish, ijodiy fikr yuritish, o‘zini o‘zi boshqarish, anglash, baholash va nazorat qilishga keng imkoniyat yaratilgani.[37]

Shuningdek, ular yoshlar yoqtiradigan va qiziqadigan yangi hamda zamonaviy musiqalarni yaxshi o‘zlashtirib olganlar. Ular o‘smirlar muammosini tinglaydi va ularga hamdard bo‘ladi. Yovuz niyatli kishilar sekin-astalik bilan suhbat mavzusiga shahvoniy (seksual) tus berib boradi yoki erotik mazmundagi materiallarni ochiqdan ochiq namoyish etib boradilar. Bu orqali o‘smirlarning axloqiy taqiblarini susaytirib boradi. Ayrim jinoyatichlar esa suhbat mavzusini birdaniga shahvoniy mavzuga bag‘ishlaydilar va o‘smirlarni kechinmalarini o‘zlariga bog‘lab olishga erishadilar. Shuningdek, jinoyatchilar o‘smirlar bilan real kundalik turmushda uchrashish imkoniyatini ham baholashga erishadidar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yoshlarni tarbiyalash uchun quyidagilarga alohida e’tibor qaratishimiz lozim: Farzandingiz ko‘p vaqtini internetda chatda uy xonalari eshigini bekitib olib nima bilan mashg‘ul ekanliklarini yashiradigan ko‘pgina bolalar internet jinoyatchiligi tuzog‘iga tushib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Белинская Ye.П. К обоснованию соцкультурного подхода в исследованиях вертуальной реальности. http/ www. Ish. Ru. /info/ seminar-doc (1) doc.
2. Библиотека практической психологии «Психология зависимости» Минск. 2004г
3. Аестова О. Н, Бабанин Л.Н, Войскунский А.Е. Специфика психологических методов в условиях использовагия компьютера. М: МГУ 1995.

VOYAGA YETMAGANLARDA DEVIANT XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK JIXATTLARI

Naxalova Yulduz Bekpulatovna,
Normamatova Barchinoy Xudayberdiyevna,
Uchquduq tuman 18-umumiy o‘rta ta’lim maktab psixologlari

Annotatsiya. Voyaga yetmaganlarda jinoyat motivlari shakllanishiga ta’sir etadigan muhim omillarni (tabiiy-biologik, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-psixologik va tarbiyaviy-pedagogik) o‘rganish bilan ularning mohiyati va xususiyatlarini tarbiyaviy-psixologik me’yorlar asosida baholash yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlar tarbiyasi, mas’ul bo‘lgan ota-onalar, o‘qituvchi-tarbiyachilar, jamoatchilik, barkamol yoshlar, ustuvor vazifalar.

Yoshlar bo‘yicha AQSH Milliy komissiyasi tarqatgan ma’lumotlarga qaraganda, - “Ko‘p holatlarda bolalar arzimagan narsalar uchun va zarurat bo‘lmasa ham oilalardan tortib olinib, ularni jinoyatchi qilib tarbiyalanayotganligi, Germaniyada yuz berayotgan jinoyatlarning teng yarmi voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotganligi aytiladi. Bolalarning giyohvand moddalar savdosi bilan shug‘ullanuvchi uyushgan jinoiy guruhlar safiga kirib qolayotgani, yoki odam organlari bilan savdo qilayotganlar qo‘liga tushib qolayotgani ham ayanchlidir. Bir qator mamlakatlarda balog‘atga yetmagan bolalar jangarilar safida qo‘liga qurol olib jang qilayotganidan ham ko‘z yumib bo‘lmaydi”. O‘smirlarda jinoyat motivlarining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni psixologik jihatdan tahlil qilish hamda zaruriy psixoprofilaktik chora-tadbirlar belgilash mexanizmlarini aniqlashga hamda xulq-atvor masalalarini tadqiq etishga mazkur tadqiqot nazariy asos sifatida xizmat qilmoqda.

[37] G’oziyev E. Ontogenez psixologiyasi: nazariy eksperimental taxlil. – Toshkent: Noshir. 2010, 176 bet.

Jinoyat motivlari shakllangan voyaga yetmaganlarda ijtimoiy psixologik moslashuvni baholash va deviant xulq-atvorni tarbiyalash uchun zaruriy shart-sharoitlarni aniqlash maqsadida ham tadqiqotlar olib bordik. Tadqiqotlarimizda kuzatilganidek, deviant (og‘ish, qochish, buzilish) xulq-atvor me’yoriy harakatlarga nisbatan o‘zgargan va og‘ishga xos barqaror harakatlar shakllanganligi bilan ifodalanadi. Bunday voyaga yetmaganlar har xil normalardan qochishi, ularda o‘ziga yoki jamiyatga haqiqiy zarar yetkazish istagining paydo bo‘lishi va boshqa odamlar bilan munosabatlarining o‘ziga xosligi (mos kelmasligi) bilan farqlanib turadi. Ular jamiyatga yoki o‘z munosabatlarida kechayotgan jarayonning buzilishiga nisbatan o‘zini-o‘zi anglash va o‘zini idrok qilishda ham noadekvat harakatlarga ega bo‘ladilar.

Jahon psixologiyasi fanida motivlarning yuzaga kelishi, turlari va yo‘nalganligi, xulq-atvorda ifodalanishi, sub’yekt faoliyatida (o‘yin, o‘qish va mehnat) va muomala-munosabat jarayonlarida shakllanishi Z.Freyd, G.Ollport, A.Maslou, E.Daffi, A.Bandura, D.Berlayn, K.Pribram, Nil Miller, L.Festinger, V.Kettell, Locke, Jon Steys Adams, Edvard Loulerlar ilmiy izlanishlarida keng ko‘lamda tadqiq qilingan. Biroq, mazkur tadqiqotlarda xulq motivlarining ijtimoiy shartlanganligi va ijtimoiy-psixologik mohiyati tadqiqotlarning diqqat markazidan chetda qoladi.

Maslou “Psixologiyadan borliqqa” deb nomlangan asarida, bir vaqtning o‘zida, ma’naviy ehtiyojlar (talablar) ro‘yxatini tuzib, ularni "o‘sish motivlari" (mavjud bo‘lgan qadriyatlar) deb atagan. Biroq, u ularni ta’riflash qiyinligini ta’kidlaydi va hammasi bir-biri bilan chambarchas bog‘liqlikda namoyon bo‘lishi va yuksalib borishini izohlaydi. Ular tarkibiga: mukammallik, yaxlitlik, adolat, to‘liqlik, hayot mazmuni, go‘zallik, oddiylik, namoyishlar boyligi, yaxshilik, haqiqat, osonlik, halollik va boshqalar kirishini aytib o‘tadi. Maslouning aytishicha, insonning yuksalishiga bo‘lgan ehtiyoj inson faoliyatining eng kuchli motivi bo‘lib, shaxsiy rivojlanish tarkibiga kiradi.

Broomning orzu-umidlar (kutish) nazariyasi va uni ishlatish amalda juda yaxshi natijaga ega. U tashkilotlarda ishchilarni rag‘batlantirishni kuchaytirish va turli darajadagi menejerlar faoliyati uchun juda foydalidir.

Amerikalik psixolog Jon Steys Adamsning tenglik (adolat) nazariyasida, inson motivatsiya samaradorligini ba’zi bir omillar bilan emas, balki boshqa sharoitlarda bo‘lgan boshqa odamlar tomonidan olingan hisob-kitoblarni va natijalarni hisobga olgan holda baholaydi. Ya’ni motivatsiya insonning ehtiyojlari nuqtai nazaridan emas, balki uni boshqalar bilan taqqoslash asosida ko‘rib chiqiladi. Bunda sub’yektiv baholardan bahramandlik ya’ni, odamlar o‘zlarining sa’y-harakatlari natijalari bilan atrofdagi kishilarning sa’y-harakatlari va ularning natijalari bilan o‘zaro taqqoslashadi. Va bu yerda uchta variantda tenglik (adolat): yetarli baholanmaganlik, adolatli baho, ortiqcha baholashda namoyon bo‘ladi.

Maslouning olib borgan tadqiqotlari tahlillariga ko‘ra, har bir inson uchun eng muhim ehtiyojlar ro‘yxatini tuzish kerak. Shundan kyeyin, ehtiyojlar piramidasi bo‘yicha ehtiyojlarni guruhlarga bo‘lish va birinchi navbatda qanday ehtiyojlarni qondirish mumkinligini aniqlashga harakat qilish lozim. Natijada, o‘sha odam xulqini va boshqa o‘rganilayotgan odamlarning xulq-atvorida qanday ehtiyoj darajasining ustunligini aniqlash mumkin.

Qizig‘i shundaki, Abraxam Maslouning e’tirof etishicha, "o‘zini-o‘zi ifodalash (namoyon qilish) bosqichi" barcha odamlarning atigi 2 foizini tashkil etadi. O‘z ehtiyojlaringizni hayotda erishgan natijalaringiz bilan uyg‘unlashtiring (solishtirsangiz) va siz ushbu toifadagi insonlardan biri ekanligingizni yoki emasligingizni bilib olasiz, degan xulosaga keladi.

S.L.Rubinshteyn har qanday shaxsning xulq-atvorini psixologik jihatdan tushuntirishda qo‘zg‘atuvchilar (qo‘zg‘ovchilar)ni turli bosqichlarda o‘zaro murakkab bog‘liqlikdagi kechish holatini olib qarash lozim, deb ta’kidlaydi.

Motiv va motivatsiya tuzilishini genetik bosqichda tarkib topish ehtimolini tahlil qilish natijasida ularning sodda bir bosqichli tizimlardan murakkab va ko‘p bosqichli yuksak darajaga o‘sib o‘tish jarayonini ishonchli omillar yordamida yaqqol ko‘rsatib beradi. Ularning dinamik va ma’naviy tomonlari uyg‘un rivojlanish prinsipiga asoslanishi e’tirof etilgan. Motiv va motivatsiya tuzilishiga oid masalaga yondashish jarayonida butun e’tiborni ularning mazmuniy jihatini alohida ko‘rsatishga, ma’noviy tomonlarining birlamchiligini belgilashga qaratiladi.

N.A.Bernshteyn "Kelajak modeli" nazariyasini yaratadi. Ushbu konsepsiyaga qaraganda, "Kelajak modeli" mana bunday bosqichlardan tashkil topganligi ta’kidlab o‘tiladi:

1) holat va vaziyatni (situatsiyani) baholash;
2) vaziyat (situatsiya) qanday bo‘lishini aniqlash;
3) vaziyatni aniqlab nima qilmoq kerakligini bilish;
4) shundan so‘ng, qanday tarzda harakat qilmoq lozim.

N.A.Bernshteyn "Kelajak ekstrapolyasiyasi" degan muammo yechimini topishga ham harakat qiladi. Bu bilan muallif motivatsiyaning biologik mexanizmlariga tayanib insonning yuksak darajada rivojlanish imkoniyatlari mavjudligini tushuntirib berishga muvaffaq bo‘lgan.

E.G‘.G‘oziyevning motiv va motivatsiya muammolarini o‘rganish bo‘yicha alohida xizmatlari yana shundaki, jahon psixologiyasi fanining nazariy mushohadalariga va o‘zining shaxsiy ilmiy pozisiyasiga asoslanib, motivlarni quyidagi turkumlarga ajratish, shu nuqtai-nazardan muammolarni o‘rganish maqsadga muvofiqligini alohida ta’kidlab o‘tadi.

Motiv va motivatsiya (motivlar, ehtiyojlar, qiziqishlar, maqsadlar, intilishlar, motivlashgan ustanovkalar va boshqalar) keng ma’noda xulq — atvor determinatsiyasi sifatida belgilanishiga qaramay, ko‘pgina tadqiqotchilar ularni juda tor ma’noda tadqiq qilib, ilmiy jihatdan tekshirganlarini ham ko‘rish mumkin. Ular motiv va motivatsiyani energetik, manba sifatida yoki ma’noviy tomonlarini o‘zaro solishtirib, ularni tub ma’nodagi energetik bioquvvat faolligining manbai sifatida talqin qilganlar, moddiy va ma’naviy jabhalarni hisobga olmay turib tushuntirishga intiladilar.

Nazariy va amaliy ma’lumotlarga asoslanib, ilk bolalik davridagi individning xulq-atvori, birinchidan, impulsivlik bilan, ikkinchidan, vujudga kelgan vaziyat xususiyati bilan tavsiflanadi. Shaxsni boshlang‘ich genetik qobig‘ida shakllanish pallasidagi motivining dinamik asosi - xatti-harakati qo‘zg‘alishini muvaqqat, tor muhitidan tashkil topadi. Chunki bola hali motivlashgan ustanovkalarni uzoq vaqt ushlab tura olmasligi sababli u tez yo‘qoladi. Muhim ahamiyat kasb etuvchi qo‘zg‘alishlarda bola chalg‘isa, demak, ularni u tezda esdan chiqaradi. Ehtiyoj qondirilishida, affektiv reaksiyalarda, chalg‘ish jarayonida qo‘zg‘alish berilgan vaqt doirasidan chetlashadi.

Bolaning intellektual darajasi va bilimlarning yetarli emasligi oqibatida kichik bir amaliy tajriba yaqqol amaliy faoliyat muhitini siqib chiqarishi mumkin. Bola biron-bir ob’yektga yo‘naltirilgan faoliyatni, uni boshqarishni yuksak funksional-energetik bosqichida motivlarni o‘z holicha uzoq vaqt saqlab yurish imkoniyatiga ega emas.

E.G‘.G‘oziyev va mamlakatimizdagi boshqa psixolog olimlarning motiv va motivatsiya haqidagi ilmiy qarashlari insonning psixik taraqqiyotini, intilishini, yo‘nalganligini va uning tabiatga, jamiyatga, o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabatlarini

psixologik mohiyatini hamda zarur qonuniyatlarini yoritishda muayyan darajada metodologik osos sifatida xizmat qiladi.

Jinoiy xatti-harakatlarni shakllanishida asosiy rolni motivga xos ehtiyojlar bajaradi. Inson ehtiyojlari biror-bir narsaga (moddiy yoki ma'naviy) bo'lgan ehtiyojni aks ettirishi bilan tashqi dunyoga qaramligini (tobeligini) namoyon qiladi.

Keyingi yillarda shu sohani o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar natijalarini tahlil qiladigan bo'lsak, jinoiy xatti-harakatlarni hosil qiluvchi antisosial harakatlarning quyidagi motivlarini (sabablarini) farqlash mumkin:

1. O'zini-o'zi tasdiqlash yoki o'zini-o'zi namoyon qilish (ijtimoiy maqomga erishish) motivlari.
2. Mudofaa (o'zini himoyalash) motivlari.
3. Almashinuvchi yoki o'zgaruvchi motivlar.
4. O'yin motivlari.
5. O'zini-o'zi oqlashga yo'naltirilgan (ongli va ongsiz tarzda yuzaga keluvchi) motivlar

O'zini-o'zi tasdiqlash (ijtimoiy maqomga erishish) zarurati inson xatti-harakatlarining keng doirasini rag'batlantiradigan eng muhim motivlardir. Odamlar ko'pincha, o'z shaxsining ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik va individual darajalarda e'tibor qozonish va o'rin topish istagida o'zini namoyon qiladilar.

Ijtimoiy darajada shaxsning o'zini namoyon qilishi (boshqalarni hurmat-e'tiboriga erishish) ijtimoiy mavqega ega bo'lishga intilish ya'ni professional yoki ijtimoiy faoliyat sohasida shaxsni tan olish bilan bog'liq aniq ijtimoiy rolni bajarishga erishish demakdir. Ijtimoiy-psixologik darajadagi tan olinish (hurmat-e'tibor qozonish), shaxsiy maqomga ega bo'lish motivi (orzu), ya'ni u a'zo bo'lgan guruhlar: oilada, bir xil ma'lumotlilar o'rtasida, kasbiy yoki faoliyat bilan bog'liq guruh hamda jamoalarda (do'stlar, hamkasblar va boshqalar) darajasida shaxsni muhim ichki doiradan tan olinishga erishish motivi (istagi) bilan bog'liq. Ba'zida, bu guruhga qo'shilishni orzu qilgan biroq, ular bilan aloqa qila olmaydigan kishilar ham bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda jinoyat shu kabi guruhga kirish usulini e'tirof etishga erishish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu usuldan foydalanishga intilish yoshlar uchun eng xos xususiyatdir.

Xulosa Shaxsning psixologik taraqqiyoti, uning tarixiy kechishi va ontogenizda rivojlanishi bilan bog'liq konseptual masalalarni chuqur o'rganishda motivasion sohani tatqiq etish tayanch hisoblanadi. Motivatsiya odamni muayyan xatti-harakatlarni bajarishga undash jarayoni, ko'pincha muqobil usullarni tahlil qilish va baholashni, tanlash va qarorlar qabul qilishni talab qiluvchi jismoniy-psixologik jihatdan uyg'unlashgan mohiyatli murakkab harakat jarayoni bo'lib, bu jarayon murakkablashib boradi va o'z mohiyatiga ko'ra sub'yektning yuzaga kelgan tayanch ehtiyojlarini qondirishga yo'nalgan faoliyatni tanlash va uni amalga oshirish jarayonini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017. - 6 (766)-son.
2. Norqulova N.T. Affiliatsiya motivi – talabalar ma'naviy qiyofasini shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omil // Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. T.: 2017, - 144 b.

O‘SMIRLARNI VATANPAVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA SOG‘LOM G‘OYALARNI SINGDIRISHNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Djurayeva Dilorom Elmurodovna,
Karmana tumani 5- Ixtisoslashtirilgan Davlat umumta’lim maktabi psixologi,
Sharipova Kamola Hamzayevna,
Karmana tumani 7-umumiy o‘rta ta’lim maktabi psixologi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta’lim jarayonida o‘smirlarni vatanpavarlik ruhida tarbiyalashda sog‘lom g‘oyalarni singdirishning ijtimoiy psixologik mexanizmlari bugungi kunning dolzarb vazifalardan biriga aylanganligi haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar:

Ijtimoiy-iqtisodiy, axbort, ma’naviy-ma’rifiy, intellektual, texnologiyalar, qobiliyat, ijtimoiy psixologik, motivatsiya.

Dunyoning taniqli siyosiy arboblaridan biri Maxatma Gandi shunday yozgan edi: “Men uyimning darvoza va eshiklarini mahkam berkitib o‘tira olmayman. Chunki unga toza havo kirib turishi kerak. Va shu barobarida eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo‘lib, xonadonimni ag‘dar-to‘ntar qilib, o‘zimni yiqitib tashlashini ham hohlamayman”. Bu falsafiy so‘zlarni bugungi axborot xurujlari va yod g‘oyalarning turli yo‘llar bilan mamlakatimizga u yoki bu mintaqada asrlar mobaynida shakllangan qadriyatlar, urf-odatlar, e’tiqod shakllariga va ta’lim-tarbiya tizimiga salbiy yoki ijobiy ta’siri jarayonlari ma’nosida qo‘llash ham mumkin. Sanoati va yuqori texnologiyalari rivojlanayotgan jamiyatda odamlarning ijtimoiy-iqtisodiy muhitini yaxshilanishi to‘kin hayotga erishishga bo‘lgan shaxsiy intilishi ularning asl qadriyatlarga, jumladan, oila va nikohga, yoshlar tarbiyasiga bo‘lgan munosabatlarida keskin inqirozni keltirib chiqarmoqda. Bugungi kunda bu holat gedonistik psixologiyaning asosi deb baholanadi, uning oqibati jamiyatda qator ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarayotganligini ochiq e’tirof etadi. Gedonezmning ma’nosi, shaxs va uning xulq-atvori motivlarida faqat nimalardandir lazzatlanish, qoniqish olish va o‘zidagi ichki ruhiy iztiroblardan holi bo‘lishga intilish ustivor bo‘ladi. Aslida insonning to‘q va farovon hayotga intilishi, yaxshi yashashni xoxlagani ayb emas, lekin bunday to‘kinchilik insoniylik qoidalariga zid bo‘lishi mumkin emas. Insoniyatni tashvish va xavotirga solgan narsa shuki, bunday ong va shuurdagi o‘zgarishlar ba’zi bir evropa xalqlarining eng zarur va muhim qadriyatlariga nisbatan salbiy munosabatlarda ifodalanadi. Masalan, Evropada tug‘ilayotgan bolalarning har uchtasidan bittasi nikohsiz tug‘ilayotganligi, tug‘ilishning keskin kamayib ketganligini, umuman ayollar o‘zidan sog‘lom zurriyod qoldirishni istamayotganligi, ijtimoiy yashash tarzi yaxshi bo‘la turib farzand tug‘ilishi va uni tarbiyalashga sarflanadigan xarajatlardan qochayotganligi yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Bunday salbiy g‘oyalar yoshlarimizning ayrimlarida kuzatilishi juda achinarli albatta va bunday illatlarni oldini olish uchun har bir shaxsga psixologik himoya zarur. Psixologik himoya bo‘lishi uchun yoshlarda mustaqil fikr bo‘lishi lozim. Darhaqiqat, birnchi Prezidentimiz I.Karimov “Milliy g‘oya va istiqlol mafkurasi haqida gap borar ekan, biz nihoyatda keng qamrovli, murakkab, ser-qirra, insoniyat tarixida aniq va mukammal ifodasi, tugal namunasi hali-xanuz yaratilmagan tushunchalarni o‘zimizga tasavvur qilishimiz kerak, deb o‘ylayman. Bu tushunchalar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi yuksak g‘oyalarning ma’no-mazmunini teran anglab etishga xizmat qiladi. Bu mafkura xalqni xalq, millatni millat, uning sha’nu sharafi, or-nomusi, ishonch–e’tiqodini ifodalaydigan, jamiyatimizning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘li, turmush tarzi, tub

manfaatlariga tayangan holda muttasil rivojlanib, takomillashib boradigan g‘oyalar tizimidir.” deb ta’kidlaydilar

Shunday ekan milliy g‘oya mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 33.500 million aholining 60 foizidan ortig‘ini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etishini inobatga oladigan bo‘lsak yoshlarimizning maqsad-muddaolari, istiqbolda tinch va farovon yashashiga kafolat beruvchi g‘oyaviy kuch bo‘lib, u millatni millat, xalqni xalq etib birlashtiruvchi kuchli omildan biridir. Bugungi kunda milliy g‘oya, va mafkura targ‘iboti bilan keng jamoatchilik shug‘ullanmoqda, ayniqsa, xalq ta’lim tizimida bir qator ilmiy manbalar, darsliklar yaratilib, o‘quv jarayonlarida qo‘llanilishi va yoshlarni o‘z Vataniga sodiq, mard, fidoyi, yuksak ma’naviy fazilatlar egasi bo‘lishga undamoqda.

Yuqoridagi fikrlarimiz misolida yoshlarimizga ezgu g‘oyalarni targ‘ibot tashviqot qilishda quyidagi usullardan foydalanish yaxshi samara berish mumkin:

–ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot orqali hamma oilada, mahallada, keng jamoatchilikda axborot tarmoqlari, jamoat tashkilotlari orqali uzatishi targ‘ibot va tashviqot ham ta’lim-tarbiyaning bir ko‘rinishidir, agarda to‘g‘ri targ‘ib qilinsa, yoshlarni buzg‘unchi g‘oyalardan asraydi, o‘z qarashlarini o‘zgartiradi;

–ijtimoiy so‘rovlar orqali yoshlarni fikrini o‘rganib borish, ular bildirgan fikr-mulohazalari asosida mafkuraviy targ‘ibotni olib borish mumkin. Bunga asosan quyidagi uchta omilga ahamiyat berish zarur.

–birinchi omil-so‘rovda ishtirok etayotganlarni mazkur so‘rovdan ijtimoiy manfaatdorligini,

–ikkinchi omil bahs-munozaraga sabab bo‘ladigan vaziyat,

–uchinchi omil-ishtirok etayotganlar mazkur fikrga nisbatan aniq qarashlari bo‘lishi kerak;

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki ommaviy axborot vositasi orqali yoshlar fikriga tez va kuchli ta’sir eta olish. Chunki har bir oilada ommaviy axborot vositalari xabarlaridan foydalaniladi va insonlarning ma’lumot olish manbai bo‘lgan bu vosita orqali yoshlarimizga milliy g‘oyalarni singdirish qulayroqdir. Badiiy adabiyot orqali ham yoshlarimizga sabr-qanoat, halollik, vatanparvarlik, sadoqat kabi fazilatlarni qalblarga singdirish yaxshi samara beradi deb uylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ochildiyev A.S. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. –Toshkent: Muharrir, 2009. yil.
2. Jakbarov M. Komil inson g‘oyasi: tarixiy-falsafiy tahlil. – Toshkent: 2000.
3. Fel’dshteyn D.I. O‘smir davri taraqqiyoti. -M. MGU, 1996.yil.

O‘QITUVCHI FAOLIYATIDA KREATIV G‘OYALARNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Jamolova Umriniso,
Qiziltepo tumani 6-umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi,
O‘roqova Gulasal Ismatovna,
Qiziltepo tumani 18- umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta’lim o‘quv jarayonini tashkil etishda ta’limda kreativ fikrlashda va zamonaviy axborot texnologiyalarining ahamiyati haqida to‘xtalib o‘tkanmiz. Ta’lim jaroyonida zamonaviy usullar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘z o‘rnida qo‘llashdagi takliflar keltirib o‘tilgan

Tayanch so‘zlar: Ibn Sino, kreativlik, ijodkor, pedagogic mahorat, M,Ayimbetov, pedagogic qobiliyat.

Mamlakatimizda oila mustahkamligi masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Farzand tarbiyalash, uy-joy, moddiy, maishiy shart-sharoitlarni tobora yaxshilash sohasida izchillik bilan ish olib borilmoqda.

Zero, bola tarbiyasi – murakkab jarayon. Tarbiyaning o‘chog‘i esa oiladir. Tarbiya faqat ota-onaning shaxsiy ishigina bo‘lib qolmay, balki ularning ijtimoiy burchi hamdir. Aynan shu jihatlar qonun orqali ham belgilab qo‘yilgan.

Ma'lumki, shaxsning qadri uning jamiyatda tutgan o‘rni bilan belgilanib, ko‘p jihatdan uning tarbiyasiga bog‘liq bo‘ladi, tabiiyki, bolaning ilk tarbiyachisi ota-ona hisoblanadi. Bolalarni oila muhitida tarbiyalash davomida ularga hayot to‘g‘risida, yaxshi va yomon xulqlar, odamlarning jamiyat oldidagi burchlari haqidagi dastlabki tasavvurlarni berishi lozim. Bolalarning oiladagi an'ana va mavjud ijobiy odatlarni o‘zlashtirishi hamda asta-sekinlik bilan hayot tajribalarni orttirishi tarbiyada beqiyos ahamiyatga ega. Xususan, Ulug‘ hakim Abu Ali ibn Sino yosh bolani yaxshi axloqli,jismoniy sog‘lom bo‘lishi uchun tarbiya jarayonida shaxsiy namuna bo‘lish usuli g‘oyat katta ahamiyatga ega ekanligini qayta-qayta uqtirib o‘tganlar. Ilk tarbiyachilar ta`limga yo‘naltirish orqali tarbiyalanayotgan shaxsni ilm sohalarini zabt etib, yuksak cho‘qqilar sari harakatlanadi. Ushbu yuksaklini qay darajaga chiqarish esa pedagogning mahorati, texnikasi, qobiliyatlari muhim o‘rin tutadi. Dars jarayonini qiziqarli, o‘ziga xos va metodik ta`minot bilan boyitilgan holda o‘tish darsning samarasini belgilab beradi. Shu o‘rinda esa pedagogdan talab etiluvchi eng muhim xususiyatlardan biri – bu uning pedagogic kraetivlik qobiliyat darajasidir.

O‘zbekiston Respublikasining ta`lim sohasini isloh qilishdagi sa`y harakatlarining biri – bu pedagog kadrlarning zamon talablariga hamnafas tarzda faoliyat yuritishlari, har tomonlama rivojlangan komil shaxsni tarbiyalashga doir chuur bilim, ko‘nikma, malaka va madaniyatga ega bo‘lishlarini talab etmoqda. Bu esa o‘z-o‘zidan ta`lim va tarbiya ishlarining qonuniyatlarini o‘rganuvchi pedagogika faniga «kreativlik» degan tushunchani olib kirdi. Ayniqsa ilmiy bilimning bugungi kundagi rivojlanishi, kreativlikning shaxsni, jamiatni va davlatni rivojlantirishga ta`siri ushbu masalasini ilmiy pedagogik nuqtai nazardan chuqur o‘rganishni talab etmoqda. Ayniqsa umumta`lim maktablarida o‘qituvchi kadrlarning kreativligini rivojlantirishga bo‘lgan ijtimoiy buyurtma vujudga kelmoqdaki, bu borada ilmiy pedagogik izlanishlar olib borish talab etiladi.

Kreativlik - shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma`naviyatining ajralmas qismi bo‘lib, shaxsni o‘z-o‘zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo‘lgan bilimlarning ko‘pqirrali ekanligida emas, balki yangi g‘oyalarga intilishda va o‘rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o‘zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi. Filologiya fanlari doktori M.Ayimbetov ham o‘qituvchilarning pedagogik mahoratiga doir o‘z fikrlarini bayon etish bilan bir qatorda pedagogning shaxsiy va kasbiy faoliyati masalalariga to‘xtab o‘tgan. Olim «kreativlik» yoki «ijodkor» tushunchalarini bevosita qo‘llanmagan bo‘lsalar ham ijodkor o‘ituvchining sifat ko‘rsatkichlarini yoritib berishga doir fikrlarini bayon etgan. Olim mahoratli zamonaviy o‘qituvchining strukturaviy komponenlarini ko‘rsatib bergan. Shu bilan bir qatorda olim bunday pedagoglarning oltita belgisini alohida e`tirof etgan.

Bular:

1. Pedagogik jamoada katta obruga ega bo‘lishi.

2. O‘zlarini juda jiddiy tutishi va pedagogik taktga ega bo‘lishi.

3. Darslarini oliy darajada tashkil etishi.

4. O‘quvchilar bilan do‘stona munosabatda bo‘lish.

5. Murakkab vaziyatlarda o‘zlarini tuta bilishi va pedagogik faoliyatini bir maromda olib borishi.

6. Pedagogik jamoada hamda maxallada katta ta`sir ko‘chiga ega bo‘lishi Sanab o‘tilgan.

“Pedagogik mahorat” ushbu atamini eshitganda hamma ko‘z oldiga keltiradigan birinchi so‘z o‘z ishining ustasi, hozirgi kun bilan hamnafas mutaxassisdir. Hozirda pedagoglarning mahoratini oshirish bo‘yicha deyarli har yili yangi farmon va farmoyishlar taqdim etilmoqda. Chunki hozirgi yoshlar kundan-kunga qiziqishlari ortib bormoqda. Dars jarayonini to‘g‘ri tashkil etish, o‘qituvchi emas, balki o‘quvchilar faolligini oshirish, yoshlarni qo‘llab-quvvatlaash, ularni to‘g‘ri yo‘nalishga qaratish va hakozo bularning barchasi hozirgi pedagoglarga qo‘yiladigan mas`uliyat hisoblanadi. Ta`lim jarayonida internet resurlari, audio-video vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilmoqda. Ayniqsa, bular “elektron darsliklar” da o‘z aksini topmoqda. Axborot kommuniktsiya davrida elektron axborot almashish jarayoni, elektron resurslarni ishlab chiqish, undan foydalanish borasida hukumatimiz tomonidan qabul qilingan bir qator meyoriy-huquqiy hujjatlar mavjud. Bu meyoriy hujjatlar kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, axborotlashtirish, milliy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini yanada rivojlantirishga qaratilgan.

Bugun tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan davr taraqqiyotida ta’lim tizimi ham o‘ziga xos chora-tadbirlar bilan alohida o‘rin egallamoqda. Jumladan, barkamol yosh avlodni ham ma’nan,ham jismonan shakllantirishda yurtboshimiz tomonidan davlat byudjetining 50 foizdan ortig‘i ta’lim sohasiga safarbar etilgan. Bugungi kunda esa sa’yi-harakatlarning amaliy ko‘rinishi sifatida olib borilayotgan qarorlar, farmonlar, bir qator dasturlarning ishlab chiqarilib,hayotga tadbiq etilayotgani bunga yaqqol misol bo‘la oladi

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda **kreativlik** - shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson ma`naviyatining ajralmas qismi bo‘lib, shaxsni o‘z-o‘zini rivojlantirish omili, shaxsiy jonbozlikning asosi, shaxs ega bo‘lgan bilimlarning ko‘pqirrali ekanligida emas, balki yangi g‘oyalarga intilishda va o‘rnatilgan stereotiplarni yangilik yaratish jarayonini isloh qilish va o‘zgartirishda, hayotiy muammolarni echish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxo‘jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T. : TDPU, 2003.
2. umaev A. Bo‘lajak o‘qituvchi shaxsining ijtimoiy faollik omillari. / «Xalq ta`limi» jurnali, 2006, № 6, -17-20-betlar.
3. Mavlanova R.A, Raxmonqulova N.X.”Boshlang‘ich ta’limda innovatsiya”.T.,TDPU 2007-y
4. http://ziyonet.uz/
5. http://pedagog.uz/
6. http://edu.uz/

YOSHLARNI VOYAGA YETKAZISHDA OILANING PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Norimova Feruza Barno qizi,
Navbahor tumani 9- umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi,
Faragatova Merey Tuymuxamadovna,
Konimex tumani 28- umumiy o‘rta ta’lim maktabi amaliyotchi psixologi

Annotatsiya. Ushbu maqolada sog‘lom avlodni voyaga yetkazishda oila, o‘rni hamda oila, tarbiya maskani bo‘lib, shaxsning kelajagi shu maskanda tarbiyaning qanday amalga oshirilishiga, haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Dastur, poydevor tushunchasi, texnik, aqliy kamolot, dunyoqarash, insoniy e’tiqod, mahsuli, ijtimoiy, yondashuv, barkamol insonni.

Oila - jamiyatning eng muhim va mustahkam bo‘g‘inidir. Insoniyatning sof va pokiza tuyg‘ulari, kamolotga yetish bosqichlari oila bag‘rida rivojlanadi. Oila inson hayotiga to‘kislik bag‘ishlaydi va baxt keltiradi. Oilada ma’naviy muhit sog‘lom bo‘lsa, oila mustahkam bo‘ladi. Biroq bugungi kunda jamiyatimizda ko‘plab oilalarning ajralish holatlariga bilimsizlik va kasb-hunar ko‘nikmalari etishmasligiga guvoh bo‘lyapmiz. Buning uchun yurtimizda ilm-fan va zamonaviy kasb - hunar sohalarini yoshlarimizga o‘rgatish bo‘yicha barcha sharoitlar yaratilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoev tomonidan bildirilgan quyidagi fikrlarni ta’kidlash maqsadga muvofiqdir: Bola bog‘chaga sog‘lom turmush asosida, maktabga tayyor bo‘lib voyaga etadi. Hurmatli ayollarimiz bolasidan ko‘ngli to‘q bo‘lib, ijtimoiy mehnat bilan, uy-ro‘zg‘or ishlari bilan shug‘ullanadi. Qolaversa, ularda dam olish, o‘z sog‘lig‘i haqida o‘ylash uchun ozgina bo‘lsa ham sharoit paydo bo‘ladi. Shuning uchun maktabgacha ta’lim sohasidagina shunday ulkan islohotlarni hayotga joriy etish biz uchun ham qarz, ham farzdir. Qanchalik qiyin bo‘lmasin, bu tarixiy vazifani amalga oshirishimiz shart va uni barchamiz birgalikda albatta bajaramiz deb ta’kidlagan edi.

Bola tarbiyasi keng qamrovli, uzoq davom etadigan murakkab jarayon bo‘lib, uning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Bolalarga maktabgacha ta’lim muassasalarida xalq va yurt taqdiri uchun fidoiylik tuyg‘usini shakllantirish tarbiyada muhim o‘rin tutadi. Buning uchun bola hayotining dastlabki yillaridan boshlab, uni moddiy olam bilan tanishtirish hamda milliy an’analarimizga xos shakllarini qo‘llash lozim. Bu jarayonda milliy turmush tarzimizga yot bo‘lgan «jangari» o‘yinchoqlar, multfilmlar, kinofilmlardan imkon qadar foydalanmaslik davr talabidir. Sharqona odob va bashariyatning ezgu intilishlarini aks ettiruvchi o‘yinlar, o‘yinchoqlar, rasmli kitobchalar, milliy ertaklar asosida yaratilgan multfilmlar bolalar tarbiyasining to‘g‘ri shakllanishida asosiy vosita bo‘lib hisoblanadi.

Ma’lumki, tarbiya tushunchasi o‘sib kelayotgan avlodda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot – dunyoqarashni, insoniy e’tiqod, burch va mas’uliyatni, jamiyatimiz kishilariga xos bo‘lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Maktab ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tadbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish lozim.

Sog‘lom avlodni voyaga yetkazishda oila, ta’lim muassasasi hamkorligi hozirgi kunda keng yo‘lga qo‘yilgan.

Shu jihatdan olganda, oila va ta'lim muassasining asosiy vazifasi jamiyat talabiga mos insonni tarbiyalab voyaga yetkazishdir. Shaxs tafakkuridagi har qanday shakllanish, har qanday e'tiqod tarbiyasi va hatto g'oyaviy va mafkuraviy immunitet oilada shakllanishi kerak. Yoshlarning vatanparvarligi oiladagi tarbiya va mahalladagi ma'naviy muhitdan boshlanadi, o'z oila va mahallasini qadrlamagan inson Vatanini ham qadrlashi qiyin kechadi.

Shunday qilib, Sog'lom avlodni voyaga yetkazishda oila, maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiya maskani bo'lib, shaxsning kelajagi shu maskanda tarbiyaning qanday amalga oshirilishiga, tarbiyachi hisoblanmish ota-onaning o'z burch va vazifalariga qanday munosabatda bo'lishiga bog'liqdir. Oiladagi har bir kishining o'z burch va vazifalariga mas'uliyat bilan yondashishi oila mustahkamligi, jamiyat farovonligiga erishishning omilidir.

Oiladagi ajrimlar natijasida odatda, ko'plab er-xotin va ularning farzandlari hayoti davomida bir qancha muammolarni boshidan kechirishlariga to'g'ri keladi. Ayniqsa, ayol kishi ko'pincha ajrashgandan keyin yolg'iz qoladi. Ba'zilari oiladagi muammolarni takrorlanishidan qo'rqadi va o'z eriga taqdirini topshirib, itoat qilib yashashdan ko'ra yolg'iz yashashni afzal ko'radi. Ko'plab oilalar nikohlari buzilganidan afsuslanishadi, ular ajrimdan keyin sobiq turmush o'rtog'iga hissiy jihatdan bog'lanib qoladilar. Er yoki xotin birinchi jiddiy nizodayoq ajralish huquqidan foydalanishdan qo'rqadi. Bu har bir er-xotinning xulq-atvorida va ularning oilaviy rollariga bo'lgan munosabatida, o'zaro bir-birlarini hamda o'z-o'zini baholashda, oilani rejalashtirishda namoyon bo'ladi. Bugungi kunda ajralishlar to'liq bo'lmagan oilalar sonini ko'payishi natijasida oilaviy qadriyatlar tanazzulga uchramoqda. Ajralish ayniqsa, bolalarning ruhiyatiga jiddiy ta'sir qiladi.

Xullas, barkamol insonni, ya'ni avvalo oila uchun, qolaversa o'zi yashab turgan jamiyat, xalq uchun fidoyi, shaxsni tarbiyalash oiladan boshlanadi. Oiladagi ajrarishlar, er-xotin o'rtasidagi oilaviy munosabatlar, farzandlarning oiladan begonalashuvi quyidagi ilmiy-nazariy asoslangan xulosa va takliflarni ilgari surishga imkon beradi:

birinchidan, oilaviy munosabatlarda qadriyatlarning o'zgarib borayotganligi, yoshlarning oilaviy hayotga tayyor emasligi, oilaviy nizolarning ko'payotganligi jamiyat ma'naviy taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

ikkinchidan, turli avlod vakillari nazaridagi qaynona-kelin munosabatlari, oilaga tashqaridan uchunchi shaxslarning aralashuvi, ishsizlik, er yoki xotinning ishlash uchun boshqa mamlakatlarga ketishi, oilaviy qadriyatlarga hurmatsizlik, yoshlarning mustaqil hayotga tayyor bo'lmasdan oila qurishi, uy-joy masalasi o'zbek oilalaridagi ajrimlarning asosiy sabablaridan biri ekanligi empirik tasdiqlandi.

uchinchidan, migratsiya jarayonining tezlashuvi an'anaviy oilani buzilishiga olib kelishi, oila a'zolari o'rtasida mehr-oqibat va o'zaro qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi oilaning tanazzulga yuz tutishi sotsiologik so'rovnomalar asosida aniqlandi;

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: "O'zbekiston", 2017.

2.Munavvarov Oila pedagogikasi T.1994y

O‘SMIRLARDA TAFAKKURNING SHAKLLANISHI.

Jamolova Umriniso Najmidinovna,
Qiziltepa tuman 6-umumiy o‘rta ta`lim maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: “Inson-biosotsial mavjudot”. Ammo bu faqat inson o‘zi bilan “inson” tushunchasini olib yuradimi degan savolni ko‘ndalang qo‘ymoqda. Inson, birinchi navbatda,-fikrlash timsoli. Ammo u, barcha tirik mavjudotlar singari doimo o‘sishda, o‘zgarishda, rivojlanishda bo‘lgan mavjudot. Inson hech qachon bir nuqtada to‘xtab qolmaydi uning dunyoqarashi uning tafakkuri o‘zgaradi. Tafakkur insonning har bir yosh bosqichida rivojlanadi. O‘smirlik davrida ham insonning o‘ziga xos tafakkur rivojlanish bosqichlarini ko‘rishimiz mumkin. Shu tushunchalarni ushbu maqolada yoritishga harakat qildim.

Kalit so‘zlar: obyektlar, o‘lchamlar, operatsiyalar, kombinatsiya, gipotezalardan operativ, struktura, motivatsiya, biosotsial.

Аннотация: «Человеко-биосоциальное суцество». Но это только с самим человеком.Вопрос о том, несет ли понимание “мужчина”, ставится поперечно. Человек, прежде всего, -воплощение мъгсли. Нет, как и все живъге суцества, сушуство, которое постоянно растет, меняется, развивается. Человек никогда не останавливается на надрежнетом.его мировоззрение его мъшление меняется. Мъшление развивается на каждом возрастном этапе человека. Даже в юном возрасте мама увидит конкретную стадию развития человека. Я пътался осветить эту концепцию и эту концепцию государства.

Ключевме слова: объект, масштаб, оперативнъгй, сочетаний, гипотеза, оперативнъй, структурнъй, мотивационнъй, биосоциальнъй.

Annotation: “Human-biosocial being”. But this is only with the person himself It raises the question of whether it carries the concept of "man". Man, first of all, is the embodiment of thinking. But he, like all living creatures, is constantly growing, changing, and developing. A person never stops at one point, his outlook changes. Thinking develops at every age of a person. Even in adolescence, we can see the stages of development of a person‘s own thinking. I tried to explain these concepts in this article.

Keywords: object, scale, operational, sochetany, hypothesis do operative, structural, motivational, biosocial.

O‘smirlik - bu eng muhim o‘zgarishlar davri. Bu davr fikrlashni rivojlantirishda ham sifat, ham miqdoriy jihati shakllanadi. Shu sababli, ta‘lim jarayonini tashkil qilishda o‘smir o‘quvchining intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun eng samarali sharoitlarni yaratish uchun o‘smirlar tafakkurini rivojlantirishnmg o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak.

O‘smirlik davrida ikkita yosh guruhlari shartli ravishda ajralib turadi:

- kichik o‘smirlar (11-12 yosh); va
- kattaroq (12-15 yosh).

Ushbu qisqa vaqt ichida tafakkur sezilarli o‘zgarishlarga uchraydi: konkret tafakkurdan rasmiy yoki nazariy fikrlashga o‘tish sodir bo‘ladi. Bundan tashqari, bu o‘tish darhol sodir bo‘lmaydi, lekin asta-sekin: yosh o‘smirlar allaqachon mantiqiy fikr yuritishga qodir, ammo rasmiy fikrlash faqat katta yoshdagi o‘smirlar orasida ustuvor ahamiyatga ega. J. Piagetning kontseptsiyasiga ko‘ra, kichik o‘smirlar (11 yoshdan 12 yoshgacha) tafakkurning rivojlanish bosqichida bo‘lib, bu aniq operatsiyalar bosqichi deb ataladi. Ushbu bosqichda bolalarda ba'zi mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, ular

hali ham juda aniq. Bular aniq elementlar: obyektlar, munosabatlar yoki o‘lchamlar; operatsiyalar: qo‘shish yoki ayirish; bu operatsiyalar qanday bajarilishini tavsiflovchi qoidalar va xususiyatlar. Mantiqiy fikrlashning paydo bo‘lishining sabablaridan biri shundaki, bola endi obyektlarni ierarxik tasniflarga birlashtira oladi va sinfga a‘zolik munosabatlarini tushunadi. Bu qismning butunga, butunning qismlarga munosabatini va bir butunning qismlari o‘rtasidagi munosabatni tushunish imkonini beradi. Bu bosqichdagi bolalar turli ob‘ektlarni kattaligi, alifbosi yoki yoshi bo‘yicha guruhlash mumkinligini bilishadi va har qanday ob‘ekt bir vaqtning o‘zida bir nechta sinflarga tegishli bo‘lishi mumkin: bola o‘g‘il bola, to‘rtinchi sinf o‘quvchisi, sportchi va qizil sochli bo‘lishi mumkin. xuddi o‘sha payt. Ushbu bosqichdagi aqliy operatsiyalar teskari bo‘ladi, masalan, “mushuklar” va “itlar” toifalariga bo‘lish mumkin. J. Piaget kontseptsiyasiga ko‘ra rasmiy operatsiyalar bosqichida katayoshdagi o‘smirlar, o‘rganish jarayonida barcha aqliy operatsiyalarni mantiqiy darajada o‘zlashtiradilar: tahlil, sintez, taqqoslash, mavhumlashtirish, umumlashtirish, tasniflash, tizimlashtirish, ular asta-sekin aylanadi. Yagona integral tuzilishga. O‘smirlik davrida uchta yuqori darajadagi fikrlash jarayoni ham yaxshilanadi: xulosa chiqarish, fikrlash va fikrlash . Ular allaqachon aniq ob‘ektlardan mustaqil bo‘lgan mantiqiy fikrlash va mavhum tushunchalardan foydalanishlari mumkin. Rivojlanishning oldingi bosqichida bo‘lgan o‘smirlardan farqli o‘laroq, ular introspektiv fikrlash (fikrlar haqida o‘ylash) qobiliyatini rivojlantiradilar; mavhum fikrlash (haqiqiy chegaradan tashqariga chiqish); mantiqiy fikrlash (barcha tegishli faktlar va fikrlarni hisobga olish va ulardan to‘g‘ri xulosa chiqarish qobiliyati) va faraziy fikrlash (gipotezani shakllantirish va uni ko‘plab o‘zgaruvchilarni hisobga olgan holda isbotlash).

O‘smirlik davrida, 11 yoshdan 12 yoshgacha, bola allaqachon mulohaza yurita olsa va o‘zini muayyan vaziyat bilan bog‘lay olmasa, rasmiy fikrlash rivojlanadi. Ushbu rivojlanish bilan o‘smir allaqachon aniq narsaga emas, balki mumkin bo‘lgan narsalarga e’tibor qaratadi. Shu bilan birga, u sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan hamma narsani tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi va test va dalillarni talab qiladigan farazlar to‘plami sifatida mumkin bo‘lgan narsalarni ko‘rib chiqadi. U sodir bo‘lgan hamma narsani tahlil qiladi. Muayyan operatsiyalardan foydalanib, u ma'lumotlar elementlarini to‘playdi, so‘ngra ularga ma'lum bir shaklni beradi, ularni bir-biri bilan turli yo‘llar bilan birlashtiradi. Kombinatsiya uchun gipotezalardan foydalaniladi, ular keyinchalik tasdiqlash yoki rad etishni talab qiladi. Uning fikrlashi empirik test uchun ma'lumotlarni o‘zgartirishning turli usullarini tasavvur qilish uchun ishlaydi. Bularning barchasidan o‘smir intellektual his-tuyg‘ularni qabul qilishni, fikr yuritish qobiliyatini o‘rganadi va fikrlash unga hozirgi zamon doirasidan chiqib ketishga va mavhum va mumkin bo‘lgan sohaga bostirib kirishga yordam beradi[52].

Strukturaning rivojlanishi va uning kundalik qo‘llanilishi rasmiy fikrlashning muhim rol o‘ynaydigan jarayonlaridir. Mantiq harakat uchun muhim bo‘lgan va real hayotdan ajralmagan operativ muvofiqlashtirishni ifodalaydi.

Uning nazariy fikrlashni qanchalik tez o‘rganishi o‘quv materialini chuqur tushunishga va o‘smirning intellektual salohiyatini rivojlantirishga bog‘liq, garchi o‘smirlik davrida intellektual faoliyat obro‘li bo‘lgan.

O‘smirlik davrining muhim xususiyati fikrlashning moslashuvchanligi bo‘lib, bu yoshdagi bolalarda operativ fikrlash darhol taassurotlarga emas, balki abstraktsiyalarga yo‘naltirilishi mumkin. Buning sharofati bilan o‘smirlar dunyoga yangicha qarashga ega bo‘ladilar, diniy, iqtisodiy va falsafiy muammolar va ideallar haqida turlicha fikr yuritadilar. Bu davrda yosh shaxsning shakllanishi o‘smirning intellektual rivojlanishi

bilan bog‘liq. Ular turli muammolarni hal qilishda gipotezalar bilan qanday ishlashni bilishadi, shu bilan idrok, e‘tibor, xotira va boshqa aqliy jarayonlarni boyitadi. O‘smirlar nazariy tafakkurga ega bo‘lib, atrofdagi dunyoda semantik aloqalarni o‘rnatadilar, psixologik jihatdan tabiat va ijtimoiy makonning haqiqiy dunyosiga singib ketadilar. Maktabda taqdim etilgan materialni o‘rganish, o‘smir uchun o‘z farazlarini qurish va sinab ko‘rish shartiga aylanadi.

Fikrlashni rivojlantirish qobiliyati masalasini hal qilishda o‘smir aqliy mehnatning mohiyatini aniq tushunishi kerak, birinchi navbatda, o‘z-o‘zini tashkil etish va aqliy faoliyatning texnikasi va qoidalarini tushunishning alohida rolini ta'kidlash kerak. Agar u o‘rganishga, yangi narsalarni boshdan kechirishga, aqliy faoliyatini tartibga solishga ishtiyoqi bo‘lmasa, unda u yaratgan narsalar va yaxshi sharoitlarga ega bo‘lsa ham, tafakkur rivojlanish darajasining cho‘qqilariga chiqa olmaydi.

13 yoshga kelib, o‘smiming prefrontal korteksi va parietal loblari faol rivojlanmoqda. Hali to‘liq rivojlanmagan miya yarim korteksi bolaga xavf va imkoniyatlarni etarli darajada baholashga, uzoq muddatli rejalar tuzishga, o‘zini va his-tuyg‘ularini nazorat qilishga to‘sqinlik qiladi. Trening bolaning barcha kognitiv funktsiyalariga rivojlantiruvchi ta'sir ko‘rsatadi, ular yanada tartibli va boshqariladigan bo‘ladi. Kognitiv sohadagi o‘zgarishlar o‘smirlarning atrofdagi voqelikka munosabatiga va umuman shaxsning rivojlanishiga ta‘sir qiladi.

Bu yoshda fikrlash rasmiy operatsiyalar darajasida rivojlanadi, ular yordamida o‘smirlar mavhum masalalarni hal qiladilar, mulohaza yuritadilar, o‘zlarining mulohazalari asosida xulosalar va mantiqiy xulosalar chiqaradilar, prognozlar va rejalar tuzadilar.

Fikrlashning turli bosqichlarini boshqarish, optimal motivatsiyani yaratish, kontseptual fikrlashning afzalliklaridan foydalanish qobiliyati aqliy faoliyat samaradorligini oshirishga olib keladi va fikrlash jarayonini faollashtirishga, uni yanada samaraliroq qilishga imkon beradi.

Motivatsiyani yaratish va mustahkamlash o‘smir bolalarda fikrlashni rivojlantirishning muhim nuqtasidir. Shu bilan birga, motivning mazmuni juda xilma-xil bo‘lishi mumkin, bu hayotiy zaruratdan tortib, intellektual zavq olishga intilishgacha, muammolarni hal qilishda qiyinchiliklarni bartaraf etish bolalarni ularni tashqaridan majburlashdan ko‘ra, ularni hal qilishga undaydi. Buning sababi, o‘smirlarning muammolarni mustaqil ravishda hal qilish va qaror qabul qilishga moyilligidir. Barqaror motivatsiya o‘zining afzalliklariga ega, chunki o‘smir qiyinchiliklarga duch kelganda, birinchisini hal qilishni unutmasdan, o‘z faoliyatini boshqa vazifalarga qanday o‘tkazishni biladi. Ushbu kalit profilaktika chorasi sifatida ishlaydi. Bu bolani haddan tashqari ishdan himoya qiladi va asta-sekin boshqa muammoni hal qilish orqali u boshi berk ko‘chadan chiqish yo‘lini topadi .

O‘smirning tafakkurini rivojlantirishda motivning kuchliligi muhim rol o‘ynaydi. Zaif motivatsiya bilan fikrlash jarayoni rivojlanmaydi, lekin kuchli motivatsiya bilan ham u boshqa muammolarni hal qilishda olingan natijalarni buzishi mumkin. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, kuchlanishning kuchayishi o‘smirning yangi materialga ilgari o‘rganilgan usullarni qo‘llash qobiliyatini pasaytiradi. Natijaning haddan tashqari baholangan ahamiyati imtihonda ekstremal sharoitlarda inson xatti-harakati uchun namuna bo‘lgan yangi muammolarga yechim tamoyillarini o‘tkazishga to‘sqinlik qiladi.

Qiyinchilikni asta-sekin oshirib, optimal motivatsiyani saqlab turish kerak. Muvaffaqiyatdan muvaffaqiyatga o‘tib, u o‘ziga bo‘lgan ishonchni va tobora katta to‘siqlarni engib o‘tish qobiliyatini mustahkamlaydi. Hissiy haddan tashqari qo‘zg‘alish

butun fikrlash jarayoniga salbiy ta'sir ko‘rsatadigan stereotiplarga moyillikka olib keladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar ko‘pincha faqat rasmlarni yig‘ishganini hisobga olsak panjara yordamida biz fazoviy fikrlashni aytishimiz mumkin (vizual-obrazli) ular yetarlicha shakllanmagan. Xuddi o‘sha payt kichik maktab o‘quvchilari va o‘smirlar 6 va 7 vazifalarni bajarishda qiyinchiliklarga duch kelishdi; va ba'zilariga grid vazifalari ham yordam berdi. Biroq, o‘smirlarning natijalari maktab o‘quvchilari va o‘smirlar deyarli bir xil bo‘lib chiqdi (7,7 va 7,75: xatolar oz sonli kichik maktab o‘quvchilari bilan bog‘liq, eksperimentda ishtirok etgan) va undan yuqoriroq tartib. Buni hisobga olsak, bu mumkin ularning vizual-majoziy tafakkuri deyarli shakllanganligini aytish.

XULOSA

Shunday qilib, tadqiqotimiz natijasida biz o‘zimizni tasdiqlay oldik gipoteza maktabgacha yoshdagi bolalar, boshlang‘ich maktab o‘quvchilari va o‘smirlar sifat jihatidan farq qiladi. Quyidagilar aniqlandi

Sifat farqlari:

-Maktabgacha yoshdagi bolalarda vizual-majoziy tafakkur yetarli darajada rivojlanmagan

-kichik maktab o‘quvchilari va o‘smirlar uchun bu deyarli bir xil darajada.

-Sakkizinchi sinfga kelib, o‘smirlar deyarli hech qanday qiyinchiliklarga duch kelmaydilar naqshlarga asoslangan muammolarni hal qilishda maktabgacha yoshdagi bolalar mantiqiy fikrlashga ega hali ishlab chiqilmagan, endigina shakllantirilmoqda, kichik maktab o‘quvchilari uchun natijalar maktabgacha yoshdagi bolalarga qaraganda yaxshiroq va o‘smirlarga qaraganda yomonroq.

-Bizning tajribamiz maktabgacha yoshdagi bolalarning tajribalarini tasdiqladi J. Piaget tomonidan o‘rnatilgan ta'sir - fikrlashning egosentrizmi. Yoshlikda maktab yoshida ba'zan o‘quvchilarning topshiriqlarni bajarish qobiliyatiga xalaqit beradi va o‘smirlik davrida u deyarli ko‘rinmaydi.

-Umumlashtirish operatsiyasi sakkizinchi sinf o‘quvchilarida to‘liq shakllangan va maktabgacha yoshdagi bolalarda endigina rivojlana boshlaydi. Analogiyalar operatsiyasi allaqachon kichik maktab o‘quvchila o‘rtasida shakllangan: o‘smirlar - bundan ham ko‘proq. Umumlashtirish operatsiyasi allaqachon boshlang‘ich maktab yoshida shakllangan

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Do‘smuhamedova Sh.A.Nishonova Z.T.Jalilova S.X.va bosh.Yosh davrlari va pedagogic psixologiya T.Fan va Texnologiyalar markazining bosmaxonasi.2013
2. Jalilova S.x. Taraqiyot psixologiyasi va diferinsial psixologiyaT.Innovatsion ziyo.2020
3. G‘oziyev .E.G. Ontoginez psixologiyasi T.Noshir 2010
4. Hudoyqulov X.J. Xolov. O.Ch.” Tarbiya ishlar metodikasi”(O‘quv qo‘llanma) Termiz 2020.

SINF-DARS TIZIMINI TASHKIL ETISHDA XORIJIY TAJRIBALARNING O‘RNI

Rajabova Durdona Komil qizi,
Navoiy viloyati PMM Fanlarni rivojlantirish bo‘limi bosh mutaxassisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada sinf-dars tizimining shakllanishi, rivojlanishi va uni takomillashtirishda xorijiy mamlakatlar tajribasi o‘rganiladi. Jahonning ilg‘or ta’lim tizimlariga ega bo‘lgan mamlakatlari — Finlyandiya, Germaniya va Yaponiya tajribalari tahlil qilinib, ular asosida O‘zbekiston ta’lim tizimida mavjud imkoniyatlar va

muammolar ko‘rib chiqiladi. Maqolada sinf-dars tizimi nafaqat an’anaviy tuzilma sifatida, balki zamonaviy pedagogik metodlarning tatbiq etilishi uchun platforma sifatida ham baholanadi. Muallif bu boradagi individual kuzatuvlari va fikrlarini ham bayon etadi.

Kalit so‘zlar: Sinf-dars tizimi, ta’lim metodikasi, xorijiy tajriba, pedagogik innovatsiyalar, o‘quv jarayoni, kompetensiya, integratsiya, Finlyandiya, Germaniya, Yaponiya.

Annotation. This article explores the development of the class-lesson system and the role of international experiences in improving it. By analyzing the educational practices of countries such as Finland, Germany, and Japan, the study offers insights into how Uzbekistan’s educational system can integrate global innovations while preserving its national identity. The author also presents personal reflections on the potential of modernization within the framework of traditional classroom structures.

Аннотация. В статье рассматривается развитие классно-урочной системы и влияние международного опыта на её совершенствование. На примере таких стран, как Финляндия, Германия и Япония, проводится сравнительный анализ с образовательной системой Узбекистана. Автор делится своими наблюдениями и мнением о модернизации системы образования на основе традиционной структуры уроков.

Sinf-dars tizimi — ta’lim jarayonining asosiy tashkiliy shakli sifatida yuz yillar davomida rivojlanib kelmoqda. Bu tizim o‘zining qulayligi, intizomi va o‘quv jarayonini tashkil qilishdagi soddaligi bilan pedagogik amaliyotda keng qo‘llaniladi. Biroq zamonaviy dunyoda ta’limga bo‘lgan talablar, texnologik taraqqiyot va o‘quvchining individualligi bilan bog‘liq ehtiyojlar sinf-dars tizimini qayta ko‘rib chiqishni taqozo qilmoqda. Bugungi kunda bir qator ilg‘or xorijiy mamlakatlarda bu tizim yangicha metodik yondashuvlar bilan boyitilgan va bu tajribalarni o‘rganish O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan ilg‘or xorijiy davlatlarning tajribalariga tayanadigan bo‘lsak Germaniyada kompetensiyaga asoslangan yondashuv mavjud bo‘lib Germaniya maktablarida sinf-dars tizimi zamonaviy texnologiyalar, differensial yondashuvlar va aniq kompetensiyalar asosida shakllantiriladi. Bu o‘quvchilarning individual imkoniyatlari va shaxsiy o‘sishini e’tiborga oladi va u yerda ta’lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish 85% ni tashkil etadi, bu esa o‘quvchilarni faollikka undaydi. Ayni shu metodologiya orqali yurtimizdagi ta’lim jarayonida Germaniya tajribasi asosida har bir o‘quvchining qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik yondashuvlarni joriy qilish mumkin.

Bizning e’tiborimizni tortgan yana bir ta’lim tizimi ilg‘or bo‘lgan Finlyandiyada mavzulashtirilgan o‘quv yondashuvi qo‘llaniliob kelinmoqda. Bu mamlakatda darslar an’anaviy fanlarga bo‘linmasdan, mavzulashtirilgan bloklar orqali o‘rgatiladi. Misol uchun, “Iqlim o‘zgarishi” mavzusi doirasida geografiya, biologiya va matematika integratsiyalashgan tarzda o‘tiladi. PISA 2021 natijalariga ko‘ra, Finlyandiya o‘quvchilari kreativ fikrlash va funksional savodxonlik bo‘yicha yuqori o‘rinlarni egallaydi.

Yaqin-yaqinlardan buyon fanlararo yondashuv, ya’ni integratsiya O‘zbekiston maktablarida ham asta-sekin joriy qilinmoqda, ammo bu hali ommaviy emas. Bu tizim sinf-dars shakliga mos tarzda, mavzuli blok darslari orqali joriy qilinishi mumkin. Mavzulashtirilgan ta’lim yondashuvi o‘quvchilarni hayotiy muammolarni hal qilishga o‘rgatadi. Ularning darsga bo‘lgan qiziqishi ham oshadi. Mening fikrimcha, bizda ham bu metodni pilot tarzda sinab ko‘rish va bosqichma-bosqich joriy etish kerak.

O‘zbekiston ta’limi va xorijiy tajribalarni qiyosiy tahlil qiladigan bo‘lsak, yurtimizdagi hozirgi ta’lim tizimi sinf-dars modeliga tayanadi. Bu tizimda jadval asosida fanlar bo‘yicha darslar olib boriladi. So‘nggi yillarda metodik yondashuvlarda ijobiy o‘zgarishlar ko‘zga tashlanmoqda . Masalan, modulli o‘qitish, STEAM yo‘nalishidagi darslar, yangi metodlar orqali 4K ko‘nikmalarini shakllantirish, 5E yondashuvi, elektron resurslar joriy qilinmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, xorijiy tajribalarni bevosita ko‘chirib olish emas, balki ularni milliy sharoitga moslashtirish muhim. Har bir jamiyatning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy sharoitlari hisobga olinishi kerak.

Xulosa

Sinf-dars tizimi uzoq tarixga ega bo‘lishiga qaramay, zamonaviy talablarga javob berishi uchun doimiy yangilanib borilishi lozim. Xorijiy tajribalarni chuqur o‘rganish, o‘zbek ta’lim muhitiga moslashtirish va pedagoglarning tayyorgarligini oshirish orqali bu tizimni samarali ishlatish mumkin. Finlyandiya, Germaniya va Yaponiyadagi ilg‘or yondashuvlar — mavzulashtirish, kompetensiyaga asoslangan ta’lim va hayotiy fanlar — biz uchun ibrat bo‘la oladi. Ularni sinf-dars tizimi doirasida tatbiq etish orqali an’anaviy tizimni zamonaviylashtirishga erishamiz. Har bir o‘qituvchi o‘z darsini yangicha ko‘z bilan ko‘ra olishi kerak. O‘quvchilarning bugungi ehtiyojlari — faqat bilish emas, balki tushunish, tahlil qilish, muammo hal qilish. Bu esa pedagogik yondashuvlarda yangilikka ochiqlikni taqozo qiladi. Menimcha, bizda bu imkoniyatlar bor, faqat jur’at, tizimlilik va metodik qo‘llab-quvvatlash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNESCO Institute for Statistics. (2023). Global Education Monitoring Report. Paris: UNESCO Publishing.
2. OECD (2020). Education at a Glance 2020: OECD Indicators. OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/69096873-en
3. Darling-Hammond, L. et al. (2020). Preparing Teachers for Deeper Learning. Cambridge, MA: Harvard Education Press.
4. Kadirov, B. (2021). “Sinf-dars tizimini modernizatsiyalashda innovatsion metodlarning ahamiyati”, Ta’lim va Innovatsiya, №2, 45-50-betlar.
5. Azizova, S. (2022). “Xorijiy davlatlar ta’lim tizimlaridagi ilg‘or tajribalar va ularning O‘zbekistonda qo‘llanilishi”, Pedagogik tadqiqotlar jurnali, №3, 68–73-betlar.
6. National Science Foundation (NSF). (2022). STEM Education Strategic Plan. Washington D.C.: U.S. Government Printing Office.
7. Ismoilov, Z. (2023). “Raqamli texnologiyalarning o‘quv jarayoniga integratsiyasi”, Innovatsion ta’lim, №1, 21–27-betlar.

3-SHO‘BA: TIL TA’LIMI ISTIQBOLLARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.

OYDIN HOJIYEVA SHE’RLARIDA QO‘LLANGAN ZOOLOGIYA TERMINLARI ASOSIDA HOSIL QILINGAN (ZOOMORFIK) METAFORALAR

Mardanov Uktamjon Rustamovich,
Navoiy viloyati PMM direktori,
Ernazarova Gulnoza Murodovna,
NavDU dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada sevimli o‘zbek shoirasi Oydin Hojiyeva she’rlarida o‘ziga xos tarzda mahorat bilan qo‘llangan zoologiya terminlari asosida hosil qilingan (zoomorfik) metaforalar atroflicha yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: termin, metafora, zoomorfik metafora, antroposentrik paradigma, zoologiya terminlari, an’anaviy metafora, ko‘chma ma’no, semantika.

Bugungi globallashuv jarayonida muntazam rivojlanib boruvchi sohalardan biri terminologiya hisoblanadi. Mamlakatlar o‘rtasidagi turli-tuman aloqa va munosabatlarning rivojlanishida, turli axborot texnologiyalarining paydo bo‘lishi, fan va ta’lim bilan bog‘liq ilmiy bilimlar integratsiyasi, barcha sohalar bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar ko‘lamining tobora kengayishi sohaviy terminologiyaning jadallik bilan boyishiga turtki bermoqda.

Jahon tilshunosligida terminologiya sohasi, uning nazariy masalalari, terminosistemalarni tartibga solish, terminga qo‘yilgan talablarni zamonaviy yondashuvlarga mos ravishda yoritish kabilar G.Vinokuur[1], D.Lotte[2], A.Reformatskiy[3], O.Axmanova[4], V.Danilenko[5], A.Superanskayalar[6] tomonidan atroflicha o‘rganilgan.

O‘zbek tilshunosligida ham bu borada qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, S.Akobirov[7], S.Usmonov[8], R.Doniyorov[9], A.Madvaliyev[10], D.Jamoliddinova[12] kabi bir qator olimlarimizning tadqiqot ishlarida turli sohalarga tegishli terminlar u yoki bu darajada o‘rganilgan.

Bugungi kunda o‘zbek tilidagi sohaviy terminlar yuzasidan antroposentrik paradigma asosida izlanish olib borish kundan kunga rivojlanayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Sh.G‘ulomova ”T.Malik asarlaridagi antroposentrik metaforalar tasnifiga doir” deb nomlangan maqolasida metaforaning antropomorfik, zoomorfik, fitomorfik, kosmomorfik, abiomorfik, antroposentrik kabi turlari borligini ta’kidlaydi [12].

Mazkur ishimizda, yuqoridagi tadqiqotlarga tayangan holda, sevimli shoiramiz Oydin Hojiyeva she’rlarida qo‘llangan zoologiya terminlari asosida hosil qilingan metaforalar (zoomorfizmlar) ni tahlil qilishga urindik.

Zoologiya (yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, “zoo“-hayvon va “logos“- fa’n, ta’limot) – hayvonlar to‘g‘risidagi fan, biologiyaning bir sohasi. Hayvonot olamining xilma-xilligini va tarixiy taraqqiyotini, hayvonlarning tuzilishi, hayot kechirishi, tarqalishi, rivojlanishi, shuningdek, ularning yashash muhiti bilan munosabatlarini o‘rganadigan fan.

Quyida ijodkor she’rlarida qo‘llangan zoomorfik metaforalarni tahlilga tortamiz:

Bundagi o‘g‘lonlarni
***Toychog‘im** de, erkam de,*
O‘g‘lim yetmagan baxtga

*Yeta olgan **bo‘tam**, de!*

O‘zbek tilida farzandga, yaqin qarindoshlarga nisbatan, asosan, toychoq, bo‘ta, bo‘taloq kabi metaforalar ishlatiladi. Bu an'anaviy metafora hisoblanadi. Lekin shoiraning mazkur she'rida o‘ziga xos badiiylikni yuzaga keltirgan. Mehr-muhabbatga to‘la his-tuyg‘ularini ana shu metaforalarga singdirgan.

Xalqnikisan, yolg‘izim,
Ko‘pqatori o‘lmagin.
*Xalq mehriga tush, **qo‘zim**,*
Yolg‘izlanib qolmagin! (Tilak)

Misollar tahlilidan ma'lum bo‘ladiki, Oydin Hojiyeva she'rlarida qo‘llangan hayvonot dunyosi bilan bog‘liq bo‘lgan metaforalardan eng faoli qo‘zi so‘zi vositasida hosil qilingan. Shoira bu metaforani aksariyat hollarda farzandga nisbatan ishlatadi. Bu esa ijodkor xarakteridagi o‘zbek ayoliga xos mayinlikni, bolajonlikni ifodalashga xizmat qilgan. Masalan:

Qandak o‘rik donasi bo‘lsang,
Bo‘ylaringdan o‘rgilay o‘zim.
Senginaning to‘yini ko‘rsam,
*Armonim yo‘q o‘shanda, **qo‘zim**! (Armon,37)*

yoki

-Jon ena-ya, qishlarda
Muzlagan og‘och bo‘ldim!
-Najot so‘ra bahordan
*Qayta gullaysan, **qo‘zim!** (Jon enam-a jonimdan)*
Qo‘rg‘oshin tobutlar ochil-ay,
Men isiriqdayin sochilay,
***Qo‘zimning** anor yuzlaridan*
To‘rt mo‘cham sirqirab muchchilay! (Ona aytur…)

D.Xudoyberganova matn boshlanmasida ko‘chma ma'noda qo‘llangan so‘z birikmasi matnning keyingi jumlalari semantikasiga o‘z ta`sirini o‘tkazishini, ya'ni takrorlangan ko‘chma ma'noli birikmalar navbatdagi jumlalarga ham metaforik mazmunni olib o‘tishini ta'kidlar ekan, bu hodisani "semantik inversiya" deb nomlashni ma'qul ko‘radi. "Semantik inversiya" metaforik mazmunning matn bo‘ylab yoyilishini, obrazli ifodaning bir maromda saqlanib turishini ta'minlaydi [13]. Masalan:

Mullolaring chiqardilar "quloqqa",
***Bulbul** ketib, **boyqush** chiqdi qo‘ndoqqa,*
Oriflaring solib ming bir qiynoqqa,
***Zulm qushi bola ochur**, Buxoro! (Buxoro)*

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, shoira ijodida qushlar nomi bilan bog‘liq bo‘lgan metaforalar ham faol qo‘llangan bo‘lib, ular vositasida antitezani yuzaga chiqaradi. Antonimiya ikki so‘z yoki ibora orasidagi mantiqiy munosabatni ko‘rsatib beruvchi hamda bir-biriga zid bo‘lgan tushuncha va tasavvurlarni uyg‘otuvchi hodisadir. Bu xildagi so‘zlar o‘zbek tilida katta guruhni tashkil qiladi. Ularning uslubiy roli ham benihoya katta. Buni shoiraning quyidagi she'rlarda ham ko‘rishimiz mumkin:

Qumrilar** bo‘ldi **boyqush,
Qo‘zg‘un**ga do‘ndi **oqqush.
Bandga tushib Alpomish,
Elati suruv bo‘ldi. (O‘tinch.)

Shoiraning quyidagi she'rlarda ham shunday qo‘llanishning guvohi bo‘lamiz:

Bulbullar *chahi-chahi to‘lgan o‘lkaga,*
Qor tilab yoprildi ***kalxat-u qarg‘a****.*
(O‘zbekistonga faxriya)
Qaytar ko‘priklar-ku yongani haq rost,
Kim ul zimistonni sog‘ingan ***zog‘lar?***
(O‘zbekistonga faxriya)

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bugungi tilshunoslikning terminologik tizimida terminlar tadqiqiga doir yangicha yondashuvlarga bo‘lgan ehtiyoj yanada ortib bormoqda. Ayniqsa, badiiy tilda ko‘proq leksik birliklarning, xususan, terminlarning lingvopoetikasiga e’tibor qaratilgan qator tadqiqotlar ko‘zga tashlanmoqda. Muayyan bir ijodkorning tildan foydalanish mahorati, u yoki bu til sathi birliklarini qo‘llashdagi o‘ziga xosliklarini mufassal yoritishga bag‘ishlangan bunday ishlar yuzaga kelayotganligi, albatta, quvonarlidir.

Tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan Oydin Hojiyeva she’rlari shoiraning ko‘p yillik mehnati, xalq hayotini, insoniy munosabatlar, tabiatning betakror manzaralarini kuzatishi natijasidir. Uning ijodida qo‘llangan turli sohaga oid terminlar lingvopoetikasini yoritish oldimizga qo‘ygan maqsadlarimizdan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Винокур Г. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии // Труды МИФЛИ. Сборник статьей по языковедению. – М., 1939. – С. 3-54.
2. Лотте Д. Как работать над терминологией. Основы и методы. – М., 1968.
3. Реформатский А. Что такое термин и терминология?/ Вопросы терминологии. – М., 1961. – С. 46-54.
4. Ахманова О. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1969.
5. Даниленко В. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. –М.: Наука, 1977.
6. Суперанская А., Подольская Н., Васильева Н. Общая терминология. Вопросы теории. – М., Наука, 1989.
7. Акобиров – С. Тил ва терминология. – Тошкент, 1968; Терминология ишининг мазмуни ва вазифалари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари, 1964. – № 3. – Б. 31-38.
8. Усмонов – С. Ўзбек терминологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1968.
9. Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Тошкент: Фан, 1977.
10. Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017.
11. Жамолдинова Д.М. Бадиий матнда терминларнинг лингвопоэтик ва лингвокультирологик хусусиятлари. Филология фанлари доктори (DSc) дисс... автореферати. – Тошкент, 2021.

INTEROTSEPTIV SEZGILARNING FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR YORDAMIDA IFODALANISHI

Namozova Feruza,
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada ichki va tashqi sezgilar hamda ularni nutqda ifodalashga doir masalalar haqida yozilgan. Eksterotseptiv, proprioseptiv, interotseptiv sezgilar bilan bog'liq sezimlar, ularning frazeologik birliklar orqali ifodalanishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: interotsepsiya, eksterotsepsiya, proprioseptsiya, ichki va tashqi sezgilar, frazeologik birliklar

Аннотатция: В статье рассматриваются вопросы, связанные с внутренними и внешними ощущениями и их выражением в речи. Речь идет о чувствах, связанных с экстероцептивными, проприоцептивными, интероцептивными ощущениями, их выражении через фразеологические единицы.

Ключевые слова: интероцепция, экстероцепция, проприоцепция, внутренние и внешние ощущения, фразеологические единицы

Abstract: The article discusses issues related to internal and external sensations and their expression in speech. It is about feelings associated with extroreceptive, proprioceptive, and interoceptive sensations, and their expression through phraseological units.

Keywords: interoception, exteroception, proprioception, internal and external sensations, phraseological units.

Falsafa hamda psixologiya fanlarida insonning bilish jarayonlari sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur kabi qismlarga ajratiladi. Bilishning dastlabki bosqichi sezgilardir. Ular ichki yoki tashqi bo'lishi mumkin. Ana shu sezgilarning nutqda qay tarzda, qanday birliklar asosida ifodalanishi tilshunoslik uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu kabi masalalar tilshunoslikning lingvosensorika yo'nalishi obyekti hisoblanadi. Lingvosensorika – insonning tashqi va ichki sezgilar yordamida olamni anglash, idrok etish va uni nutqda ifodalashini tadqiq etadigan antroposentrik tilshunoslikning bir yo'nalishidir. Tilshunoslikка "Lingvosensorika" termini ilk marta 2012-yilda rus olimi V.K. Xarchenko tomonidan kiritildi. Olimaning fikricha, «Idrok qilish tili beshta sezgi a'zosining (ko'rish, eshitish, teginish, ta'm va hid) og'zaki ifodalanishi bilan bog'liq bo'lgan *sensor lingvistika, lingvosensorika* deb ataluvchi til bilimlari sohasini belgilab berdi" [1].

12. R.A.Mavlonova, D.Abdurahimova. Pedagogical skill. Tutorial T:.Science and technology 2012

INTEGRATED APPROACHES FOR STUDENTS TO DEVELOP CREATIVE ABILITY

Ikromova Shahnoza Rajabovna,
Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti,
Ilmiy rahbar- Astanakulov Kamalitdin Maxkamovich p.f.b.f.d (PhD), dotsent.

Abstract: This article examines the importance of integration approaches in the development of students' creative abilities, and also analyzes how the development of creative abilities in primary education becomes important in the organization of educational activities and the acquisition of various knowledge and skills by students.

Keywords: integration, creative thinking, creativity and creativity, primary education, interdisciplinary approach, creativity, teaching methods, pedagogy, innovative methods, education system, student achievement, learning effectiveness.

Аннотация: В данной статье исследуется важность интеграционных подходов в развитии творческих способностей учащихся, а также анализируется, как развитие творческих способностей в начальном образовании приобретает важное значение при организации учебной деятельности и приобретении учащимися различных знаний и умений.

Ключевые слова: интеграция, творческое мышление, креативность и креативность, начальное образование, междисциплинарный подход, творческие способности, методика обучения, педагогика, инновационные методы, система образования, успеваемость учащихся, эффективность обучения.

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda integratsiyalashgan yondashuvlarning ahamiyatini o‘rganish shuningdek ijodiy qobiliyatning boshlang‘ich ta’limda rivojlanishi o‘quv

mashg‘ulotlarining rangba-rang tashkil qilinishi va u orqali o‘quvchilarning turli bilim va ko‘nikmalarni egallab olishlari muhim ahamiyat kasb etishi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: integratsiya, ijodiy fikrlash, yaratilish va kreativlik, boshlang‘ich ta'lim, fanlararo yondoshuv, ijodiy qobiliyat, ta'lim metodikasi, pedagogika, innovatsion metodlar, ta'lim tizimi, o‘quvchi faoliyati, ta'lim samaradorligi.

One of the important aspects of the educational process is the development of students' creative abilities. Creativity plays an important role not only in the field of art or science, but also in the daily life of each person. The 21st century education system uses integrated approaches to developing students' creative thinking as an effective method. Integrated approaches provide relationships between different subjects and fields, and allow students to think more broadly.

An integrated approach is a learning method that integrates different subjects or areas of expertise and provides broader and deeper representations. In an integrated approach, interdisciplinary continuity is provided, allowing students to conduct comprehensive reflection and research on a particular topic or issue.

Integrated approaches are particularly important for developing creative thinking and problem solving. This method is effective in developing creative and critical thinking, as well as problem solving.

Speaking about the main aspects of the integration approach below:

- interdisciplinary cohesion: Integrated approaches aim to bring together multiple subjects. With this approach, students can not only stay within the same subject, but also get acquainted with other subjects. For example, by connecting science with the world around us or nurture, we can give students deeper knowledge.

- surgical approach: integrated approaches are aimed at applying theoretical knowledge in practice. "Learners learn to apply what they learn to different fields and situations." This will allow them to deepen their knowledge and develop the ability to solve problems. For example, mathematics can be applied to everyday activities, small studies or the development of thinking.

- developing creative thinking: Integrated approaches help students develop creative thinking. By combining different subjects, students learn to apply their knowledge in new and real ways. "Students learn to think in new ways while simultaneously experiencing a multitude of knowledge and attitudes."

- strengthening critical thinking. Integrated approaches help develop critical thinking. This will help students successfully analyze problems and evaluate various ideas.

- development of personal and collective activities: Integrated approaches "help students to develop both personal and collective activities. Students "try creative thinking through individual and group work." In collective activities, they evaluate each other's ideas and develop solutions through various approaches.

- improving student interests. By studying "several subjects," students find interesting and important areas. This in turn increases interest in learning and improves student attitudes towards learning.

- expanding self-thinking in students: Integrated learning methods develop self-thinking in students. "Students learn not only to remember what they have learned, but also to apply their knowledge in different contexts." This, in turn, increases creativity, as "students are constantly learning to find new ideas."

- developing comprehensive solutions Through integrated approaches, students understand the relationship between multiple subjects, consider one problem from different perspectives, and develop broader and more comprehensive solutions.

- expanding the personal approach: An integrated educational approach helps students identify their own interests and strengths. Students choose suitable methods for them and develop their creative process.

In conclusion, integrated approaches play an important role in developing students' creativity. Integrated approaches will allow students not only to establish interdisciplinary interconnection in the learning process and gain deeper knowledge, but also to develop students' abilities for creative thinking, critical analysis and solving complex problems. Integrated approaches help students understand interdisciplinary communication, solve problems with innovative methods, develop critical thinking as an effective tool for expanding knowledge, developing creative thinking and increasing practical skills. Integrated approaches motivate students, develop personal and collective activities and prepare them for future success. It's not just knowledge

Literature :

1. Law of the Republic of Uzbekistan "On Education." September 23, 2020.
2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan of October 8, 2019 PF-5847-son Concept for the development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030.
3. Sh. M. Development and submission to the Cabinet of Ministers "On measures to further improve the legislation of the Republic of Uzbekistan." T.:-2016y. 29-Dec.
4. Mavlonova RA, Abdurakhimova D. Pedagogical skills. 0 "tutorial T:. Science and Technology 2012
5. S. Nishonova, M. Imomova, R. Khasanov. History of pedagogy. Textbook T.: Teacher 1996
6. M. Ochilov. Heart teacher. Textbook T: .0 "teacher. 2004.
7. N. Egamberdiyeva, Social pedagogy. Textbook. UzNKNT named after Alisher Navoi: 2009.
8. PISA (Programme for International Student Assessment). (2021). Key Findings and Analysis on Creative Thinking in Education. OECD.
9. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
10. Gardner, H. (2006). Multiple Intelligences: New Horizons. Basic Books.

XALQ OG‘ZAKI IJODINI O‘RGANISHNING O‘QUVCHILAR NUTQIY KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI

Bektemirova Nafosat Hamidullayevna,
Oltinko‘l tuman 49-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi

Annotatsiya; Maqolada o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish, DTS talablari bo‘yicha nutqiy kompetensiyalarni o‘stirishda xalq og‘zaki ijodini o‘rganishning ahamiyati, metodik jihatlari, nazariy va amaliy asoslari haqida uslubiy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: folklor , DTS, faol metodlar, kompetentsiya, tarbiya vositasi, nutq birligi,janrlar.

Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o‘sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini uyg‘otish, milliy tilga, o‘z

xalqining an'analariga iftixor hissini kamol toptirish, og'zaki nutqni o'stirish, ya'ni DTS talablari bo'yicha o'quvchilarning nutqiy kompetentsiyasini rivojlantirishda badiiy adabiyotning o'rni beqiyosdir. Shu ma'noda, adabiyot darslarida tarbiyaviy ta'sir, nutqiy tarbiya berishda, insoniylikning olijanob fazilatlarini shakllantirishda, ayniqsa, xalq og'zaki ijodini o'rgatishning ahamiyati katta.

Xalq og'zaki ijodini o'rganish uchun adabiyot darslarini o'tish qulay va jonli bo'lishi uchun turli ko'rgazmali qurollar ishlab chiqiladi. Ulardan o'z vaqtida va o'rnida foydalanishga harakat qilinadi. Og'zaki ijodga doir mavzuni o'quvchilar ongiga osongina yetkazish uchun "Sayohat dars", "O'yin dars", "Aqliy hujum", "Zakovat", "Modul dars", "Zigzak", "Munozarali-bahsli dars", "Musobaqa dars" kabi usullardan foydalaniladi. Darslarda o'rgatgan manbalardan, savollar yoki testlardan unumli foydalaniladi. Dars jarayoni, ya'ni ta'lim berish har doim takomil va yangilanishga mushtoq. Shuning uchun, ta'limning yangi usullari ustida izlanishimiz talab etiladi. Chunki o'quvchilarga ham bir xil qolipdagi darslar yoqmaydi. Natijada o'quvchi darsni yaxshi o'zlashtira olmaydi. Har bir usuldagi darslar ikki-uch marta o'tilganda o'zini oqlaydi. Me'yoridan oshmasligi, o'quvchilarni zeriktirmasligi uchun usullarning turlicha bo'lishi darsning samaradorligini yanada oshiradi. Xalq og'zaki ijodini o'rganishda ham ana shunday usullarni qo'llash orqali dars jarayonlarida notiqlik, suhbat, hikoya, mustaqil ish, yozma ish, zamon bilan bog'lash, mustaqil fikrga tayanish shakllariga katta e'tibor berishimiz lozim. Har bir o'tilayotgan darsga o'quvchilar tomonidan berilayotgan baho biz uchun qadrlidir.

Xalq og'zaki ijodini o'qitishda matnni qismlarga bo'lib o'rganish, qahramonlarning shaxsiy fazilat va qusurlari, ichki kechinmalari, turli hayotiy vaziyatlarni tahlil qilishga o'rgatishda ixcham fikr va badiiy ifoda uyg'unligiga e'tibor qaratish lozimligi, bunda qofiya, vazn kabi badiiy unsurlarning ahamiyatini ochib berish maqsadga muvofiqdir.

O'zbek xalqi og'zaki ijodining xalq, millat qadriyatlari qatorida tutgan o'rni beqiyosligini, xalq og'zaki ijodi- namunalari mahorat , aqliy , fikriy kashfiyot namunalarining badiiy ifodasini o'quvchilarga o'rgatish orqali ularning nutqiy kompetentsiyalarni rivojlantirish ko'zda tutuladi. Shu bilan birga DTS talablari bajarilishi maqsad qilinadi.

O'quvchilarning ongiga folklordagi bir qator kichik janrlarni: maqollar, matallar, topishmoqlar va askiyalar, qo'shiqlar, laparlar va boshqalarni singdirish orqaligina ular og'zaki nutqining o'sib borayotganini kuzatish mumkin. Maqollarni o'rgatish haqida to'xtalib o'tamiz. Maqol xalq og'zaki ijodining ixcham shaklga, ammo chuqur mazmunga ega bo'lgan janrlaridan biri bo'lib, u xalqning ko'p asrlik hayotiy kuzatishlari, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy tajribalari asosida vujudga kelgan. Maqollar o'zlarining ijtimoiy-g'oyaviy funksiyalariga ko'ra, asosan keng xalq ommasining, ayrim hollarda esa ba'zi ijtimoiy tabaqa yoki guruhlarning dunyoqarashini ifodalaydi. Maqollarning ko'p asrlik hayotiy tajribalar asosida yuzaga kelganligi o'ziga xos tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir maqol kishilarning uzoq yillar mobaynida hayotiy tajribalari hamda turmush sharoitlarida necha martalab sinovlardan o'tadi. Har bir maqolning o'quvchilar orasida tarqalishi ham uning yaratilishi kabi sekinlik bilan amalga oshadi. Zero, muayyan maqolni qabul qilishi uchun o'qituvchidan katta pedagogik mahorat talab etiladi. Maqol termini arabcha "qavlun"(aytmoq, gapirmoq) so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tilida u xalq donoligining namunasidir. Uni orgatishda " Ikki qarsak", "G'alaba cho'qqisi", "Trening" usullaridan foydajanish ijobiy natija beradi. Maqol to'liq, tugal mazmun, hukm anglatuvchi gap

bo‘lsa, matal ko‘chma ma’no ifodalovchi ibora; u maqolning yarmidir.“Matal” so‘zi turkiy xalqlar orasida turlicha ma’nolarda qo‘llaniladi. U topishmoq, hikmatli so‘z, ertak, masal, umuman hikoya qilish, naql qilish, sifatida o‘zbek folklorshunosligida paremalarning bir turini ifodalash jihatidan differensiyallashib bormoqda . Aksariyat xalq maqollarida insonni kamol toptiruvchi, uning turmushini farovonlashtiruvchi asosiy vosita mehnat ekanligi lo‘nda ifodalanadi va ularda tekinxo‘rlik, bekorchilik hamda dangasalik keskin qoralanadi. Masalan, “Bekorchidan Xudo bezor” maqoli fikrimizning tasdig‘idir. Maqol tarixan ancha qadimiy bo‘lganligi uchun ham unda dangasa, ishyoqmasdan oddiy insonlargina emas, hatto maqol yaratilgan davr g‘oyasiga ko‘ra butun mavjudotning yaratuvchisi Xudo ham bezor degan mazmun anglashiladi. O‘quvchilarida xalq maqollari ona-Vatanga sadoqat va vatanparvarlik , mehnatkashlik, halqini ardoqlagan va vatan dushmanlariga, unga xiyonat qiluvchilarga keskin kurasha oladigan ,fikri tinilikni tarbiyalaydii.

“Vatan gadosi-kafan gadosi”,”Bulbul chamanni sevar, odam Vatanni”,“Ona yurting omon bo‘lsa, rangi-ro‘ying somon bo‘lmas”,“Vatan gadosi-kafan gadosi”,“Vatan gado bo‘lguncha, kafan gado bo‘l”,“Begona tuproq-devona tuproq”,“Mehnat, mehnatning tagirohat”,“Odob bozorda sotilmas”. Mana shunday maqollarni mavzu jihatdan rang barangligini o‘quvchilarga uqtirib, har bir mavzuga 15 tadan maqol yodlash topshirig‘ini berish bilan ularning og‘zaki nutqini o‘stirish oson kechadi.

.Xalq og‘zaki ijodi - mehnatkash omma ijodi, xalq san'atining boshqa, ya'ni musiqa, teatr, raqs, o‘yin, tasviriy va amaliy san'at kabi turlaridan o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan og‘zaki so‘z san'atidir. O‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirish , mustaqil fikrlashga o‘rgatish , tafakkurini kengaytirish maqsadida yurtimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng xalq og‘zaki ijodi maktablarda, o‘rta maxsus kasb- hunar ta’limi muassasalarida alohida e’tibor bilan o‘qitila boshlandi. Bu narsa yosh avlodni xalqimiz tarixi, madaniyati, urf-odatlari, ma’naviyati haqida yana ham chuqurroq bilim olishlari uchun yana bir imkoniyat va yurtboshimizning xalq og‘zaki ijodiga bo‘lgan hurmati namunasidir.

Rivoyat, hikoya, qo‘shiq, lirika o‘zida ichki kechinmalarni ifodalash xususiyati bilan bolalar ongiga tez yetib boradi. Chunki bunday asarlarda bosh maqsad sodir bo‘lgan hayotiy voqeani emas, balki ana shu voqeaga nisbatan munosabat tarzida ifodalanuvchi ruhiy taassurotlarni ifodalashdan iborat nutq o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlanishida katta o‘rin tutadi.

Xalq og‘zaki ijodga oid allalarda yoki maktab yoshidagi farzandlar sevib kuylaydigan “Boychechak”, “Oq terakmi, ko‘k terak” kabi qo‘shiqlarning ham o‘quvchilar nutqiy kompetentsiyalarni rivojlantirishda muhim ahamiyati bor.

Umuman olganda, xalq og‘zaki ijodi o‘quvchilarda - umuminsoniy qadriyatlariga sodiqlik; xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish; insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish; Fan asoslarini o‘rgatish bilan birga ularning ma’naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish, og‘zaki nutq malakalarini rivojlanbtirish, lug‘at boyligini oshirish , mustaqil fikrlash, suhbatdoshga moslashsish, muloqotchanlik chiroyli so‘zlash, tinglab tushuninsh, qayta so‘zlab berish kabi nutqiy kompetentsiyalarini rivojlantirishga hizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o‘rta maktablarning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Ona tili va adabiyot // o‘zR Xalq ta’limi vazirligining axborotnomasi. – 1999, 1-maxsus son.
2. A.G‘ulomov, O‘.Ne’matov. Ona tili ta’limi mazmuni. – T.: o‘qituvchi, 1995.

TIL-TA’LIMNING ZAMONAVIY BOSQICHI SIFATIDA

Berdimuratova Liza,
Navoiy davlat universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada til ta’limining zamonaviy bosqichdagi holati, uni rivojlantirish istiqbollari hamda ilg‘or pedagogik va texnologik yondashuvlar tahlil qilinadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interfaol metodlar, differensial va individual yondashuvlarning samaradorligi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, chet tillarini o‘qitishda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish masalalari ham alohida tahlil qilinadi. Maqola til o‘rgatish jarayonida innovatsion usullarni tatbiq qilish orqali ta’lim sifatini oshirish imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Til ta’limi, zamonaviy yondashuv, innovatsion texnologiyalar, interfaol metod, kommunikativ kompetensiya, til o‘rganish, ta’lim tizimi, differensial yondashuv.

Abstract: This article analyzes the current state of language education, its development prospects, and advanced pedagogical and technological approaches. The effectiveness of information and communication technologies, interactive methods, and differentiated and individual approaches is considered. The issues of forming communicative competence in teaching foreign languages are also separately analyzed. The article shows the possibilities of improving the quality of education through the application of innovative methods in the language teaching process.

Keywords: Language education, modern approach, innovative technologies, interactive method, communicative competence, language learning, educational system, differentiated approach.

XI asrda bilim olish, axborot almashinuvi va muloqot vositalarining jadal sur’atlarda rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalariga, xususan, ta’lim tizimiga ham tub o‘zgarishlar olib keldi. Bu jarayon, ayniqsa, til ta’limiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Endilikda tilni o‘rganish faqat grammatik qoidalarni yod olish yoki tarjima qilish bilan cheklanib qolmayapti. Til - bu avvalo insonlar o‘rtasidagi muloqot vositasi sifatida qaralmoqda.

Zamonaviy til ta’limida asosiy e’tibor o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga qaratilmoqda. Bu esa ularning mustaqil fikrlash, o‘z fikrini ravon ifoda eta olish, tanqidiy yondashish va turli ijtimoiy-madaniy kontekstlarda tilni to‘g‘ri qo‘llay olish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Hozirgi kunda global tendensiyalar asosida ishlab chiqilgan metodik yondashuvlar, interaktiv o‘qitish usullari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va innovatsion vositalar til o‘rganish jarayonini yanada oson, samarali va qiziqarli qilmoqda. Ayniqsa, chet tillarini o‘rgatishda individual va differensial yondashuvlar, kommunikativ va madaniyatlararo kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan strategiyalar o‘zini oqlamoqda.

Shu sababli, mazkur maqolada til ta’limining zamonaviy yondashuvlari, ularning afzalliklari hamda istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlari chuqur tahlil qilinadi.

Bugungi global dunyoda til o‘rganish ehtiyoji turli sabablarga ko‘ra ortib bormoqda: xalqaro aloqalar, ta’lim va ish imkoniyatlari, madaniyatlararo integratsiya va migratsiya. Shu sababli tilni o‘qitish jarayonida endi an’anaviy yondashuvlardan ko‘ra, talabga mos, moslashuvchan va kommunikativ metodlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi ta’lim tizimi o‘quvchining faolligini ta’minlovchi, uni bilim egallash jarayoniga faol ishtirokchi sifatida jalb etuvchi yondashuvlarga asoslanmoqda. O‘quvchi - passiv eshituvchi emas, balki tilni egallovchi, uni amaliyotda qo‘llay oluvchi sub’yekt sifatida qaralmoqda.

Zamonaviy til ta’limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) roli beqiyosdir. Ular til o‘rganishni nafaqat interaktiv va vizual qiladi, balki o‘quvchilarga mustaqil ravishda hamda uydan turib o‘rganish imkonini beradi.

Quyidagi vositalar ayniqsa samarali deb tan olinmoqda:

- Mobil ilovalar (Duolingo, Babbel, Memrise): O‘quvchiga shaxsiy darajada o‘rganish imkonini beradi.
- Onlayn platformalar (Zoom, Google Classroom, Quizlet): Uzoqdan o‘qitish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.
- Sun’iy intellekt asosida ishlovchi vositalar (ChatGPT, Grammarly): Til xatolarini aniqlash, matnlar tuzish va interaktiv mashqlarni bajarish imkonini beradi.
- Multimedia resurslar (audio, video, interaktiv testlar): O‘quvchining tinglab tushunish va ko‘rish orqali eslab qolish qobiliyatini oshiradi.

Innovatsion texnologiyalar til o‘rganish jarayonini individuallashtirish, darslar mazmunini boyitish, va o‘quvchini rag‘batlantirishga xizmat qiladi.

Kommunikativ til o‘rgatish yondashuvi - bugungi til ta’limining eng asosiy va keng qo‘llanilayotgan metodlaridan biridir. Bu yondashuv asosida o‘quvchilarda muloqotga kirishish, fikrni ifodalash, so‘zlashuv va yozuvda erkinlik ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Asosiy xususiyatlari:

- Til vosita sifatida o‘rgatiladi, maqsad sifatida emas.
- Grammatika alohida emas, muloqot jarayonida o‘zlashtiriladi.
- O‘quvchilar rolli o‘yinlar, dialoglar, muammoli vaziyatlar orqali tilni faol qo‘llashga o‘rgatiladi.
- O‘qituvchi — yo‘lboshchi, maslahat beruvchi; o‘quvchi — faol ishtirokchi.

Bu metod tilni hayotiy vaziyatlarda qo‘llashni o‘rgatadi va o‘quvchini real muloqotga tayyorlaydi.

Har bir o‘quvchining bilim darajasi, o‘rganish uslubi, qiziqishlari va tilga bo‘lgan munosabati farq qiladi. Shuning uchun zamonaviy ta’limda shaxsga yo‘naltirilgan (individual) va guruh ichidagi farqlarni hisobga oluvchi (differensial) yondashuvlar dolzarbdir.

Ushbu yondashuvlar quyidagilarni nazarda tutadi:

- O‘quvchining o‘rganish tezligi va uslubiga mos topshiriqlar berish.
- Mustaqil, juftlikda va guruhda ishlash orqali ijtimoiy va shaxsiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.
- Qobiliyatli o‘quvchilar uchun chuqurlashtirilgan mashg‘ulotlar, qiyinchilikka duch kelganlar uchun qo‘shimcha yordam ko‘rsatish.
- Portfel yondashuvi asosida o‘quvchining shaxsiy yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish.

Bu yondashuv natijasida har bir o‘quvchi o‘zining imkoniyatiga qarab rivojlanadi, o‘ziga bo‘lgan ishonch ortadi, o‘rganishga motivatsiyasi kuchayadi.

Bugungi globallashuv davrida tilni bilish - bu shunchaki lingvistik bilim emas, balki madaniyatlararo muloqotga tayyorlikni ham anglatadi. Shuning uchun til o‘rgatishda o‘sha til egasining madaniy qadriyatlari, urf-odatlari, jamiyatdagi muomala uslublari haqida ham bilim berish zarur.

Madaniyatlararo kompetensiya quyidagilarga xizmat qiladi:

- Til o‘rganilayotgan xalq bilan hurmatli va to‘g‘ri muloqot qilish.
- Stereotiplardan xoli fikrlash.
- Xalqaro kontekstda muomala etikasini tushunish va moslashish.

Bu yondashuv xalqaro muloqotlarda xatolarga yo‘l qo‘ymaslik va madaniy jihatdan sezgir bo‘lishga yordam beradi.

Til ta’limining zamonaviy bosqichi bizdan yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. An’anaviy grammatika asosidagi yondashuvlar o‘rnini amaliy va kommunikativ metodlar egallab bormoqda. Innovatsion texnologiyalar, interaktiv o‘quv vositalari, sun’iy intellektga asoslangan ilovalar, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar orqali o‘quvchilarda nafaqat til bilimlari, balki real hayotda uni qo‘llay olish malakalari shakllanmoqda.

Zamonaviy til ta’limining ustuvor yo‘nalishlari quyidagilar bo‘lishi kerak:

- tilni amaliy muloqot vositasi sifatida o‘rgatish;
- madaniyatlararo muloqotga tayyor kadrlarni yetishtirish;
- raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga faol tatbiq etish;
- har bir o‘quvchining individual o‘rganish ehtiyojlarini hisobga olish;
- o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hasanov N. Zamonaviy pedagogika va til ta’limi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2020. – 120–145-betlar.
2. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – pp. 80–120.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–2909-son qarori. “Chet tillarni o‘rganishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022 yil 19-may. – 3–6-betlar.
4. Brown, H. D. Principles of Language Learning and Teaching. – 5th ed. – New York: Pearson Education, 2007. – pp. 34–65, 172–190.
5. Kumaravadivelu, B. Understanding Language Teaching: From Method to Postmethod. – Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2006. – pp. 29–54, 100–125.

ADABIYOT DARSLARINI O‘TISHDA XXI ASR KO‘NIKMALARINI ZAMONAVİY METODLAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISH

Muqimova G.R.,
Buxoro viloyati PMM dotsenti

Annotatsıya. Hozirgi kunda, adabiyot darslarini o‘tishda XXI asr ko‘nikmalarini zamonaviy metodlar asosida tashkil etilmoqda. Ushbu maqolada “Bir raqam sharhi”, “Mavzu-Bayt-Hikmat” “Analogiya” metodlardan foydalangan holda mumtoz baytlaridagi ma’no-mazmunni tahlil qilish ko‘nikmalarini hosil qilish, klassik adabiyot namunalari ustida mustaqil tadqiqot olib borish malakalarini shakllantirish maqsad qildik.

Kalit so‘zlar: XXI asr ko‘nikmalari, “Bir raqam sharhi”, “Mavzu-Bayt-Hikmat”, “Analogiya”

Аннотация. В настоящее время на уроках литературы навыки XXI века преподаются на основе современных методов. В данной статье я поставила целью сформировать навыки анализа смысла и содержания классических стихотворений

при помощи использования методов «Анализ одной цифры», «Тема-стих-мудрость» и «Аналогия», а также развить навыки проведения самостоятельного исследования на примерах классической литературы.

Ключевые слова: навыки XXI века, «Комментарий одной цифры», «Тема-Стих-Мудрость», «Аналогия»

Annotatıon. Nowadays, 21st century skills are being developed in literature lessons based on modern methods. In this article, we aimed to develop skills in analyzing the meaning and content of classical verses using the methods of "One Number Analysis", "Topic-Verse-Wisdom", and "Analogy", and to form the skills of conducting independent research on examples of classical literature.

Key words: XXI st century skills, "One Number Analysis", "Topic-Verse-Wisdom", "Analogy"

Kirish

Adabiyotni san'at darajasida o'rganish o'quvchidan ancha mahorat talab qiladi. Ayniqsa, mumtoz matnlarni o'rganayotganda zamon nuqtayi nazaridan bugungi o'zbek tilida ancha farqlar seziladi. Tabiiyki, bu holat o'rganuvchilarda bilim darajasi ham yuqori bo'lishini, tafakkuri uyg'oq bo'lishini taqozo etadi. Navoiyni anglash uchun Navoiydek fikrlash, Boburni anglash uchun uning hissiyotini tuyish kerak, menimcha.

Shuni unutmaslik kerakki, mumtoz adabiyot namunalarini tushunish va anglash o'quvchilar uchun juda katta ahamiyatga ega bo'lib, u bilim, tarbiya, ma'naviyat va hayotiy tajriba beradi. Mumtoz matnlar, birinchidan, til boyligi va adabiy tafakkurni boyitadi. Mumtoz asarlar o'ziga xos uslub va ifoda vositalariga boy bo'lib, o'quvchilarni o'z fikrlarini ravon, mazmunli va chiroyli ifodalashga o'rgatadi. Qadimiy va boy til namunalari bilan tanishish ularning lug'at boyligini oshiradi. Ikkinchidan, o'quvchilar tafakkurida tarbiyaviy va axloqiy qadriyatlar singib boradi. Mumtoz adabiyot axloqiy fazilatlarni targ'ib qiladi. U insonni halollik, adolat, sabr-toqat, hurmat va fidoyilik kabi fazilatlar haqida o'ylashga undaydi.

Mazkur mikrodars o'zbek mumtoz adabiyotining (XIX asr) yirik vakili Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy ijodining o'ziga xosligi, baytlaridagi badiiy san'atlarning qo'llanilishi haqida metodik ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan. Ma'lumki, Muhammadrizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy (1809–1874) o'zbek mumtoz adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri bo'lib, u o'zining lirik va ijtimoiy- ma'rifiy ruhdagi asarlari bilan tanilgan. Uning g'azallarida mumtoz she'riyat an'anasiga ergashgan holda ishq-muhabbat mavzusi, ya'ni yor vasli, hijron, sadoqat va ishqning ruhiy va ma'naviy jihatlarini tarannum etilgan. Shoir g'azallari tasavvufiy va ma'naviy g'oyalari bilan yo'g'rilgan. U ishqni faqat dunyoviy emas, balki ilohiy ma'noda ham tushuntiradi. Unda ko'pincha, ishq vositasida Allohga yaqinlashish, ruhiy kamolotga erishish g'oyalari ilgari suriladi. Shuningdek, hayot va uning o'tkinchiligi, hayotning foniyligi, dunyoning beqarorligi haqida ko'p fikr yuritadi. Shoir insonni diyonatli, adolatli va ma'naviy pok bo'lishga da'vat etadi. Bundan tashqari adolat va jamiyat tanqidi ham tarannum etilgan. Ogahiy jamiyatning illatlarini ochiq tanqid qilgan ijodkorlardan biridir. U adolatsizlik, riyo va johillikni qoralagan. Ayniqsa, hukmdorlarning adolatsizligi, xalqning ezilishi va ilmga beparvolik mavzularida keskin fikr bildirgan. Muallif baytlarida ma'rifat va ilm mavzusi yetakchilik qilgan. Shoir o'z davrida ma'rifatparvar shaxs sifatida tanilgan. Uning g'azallarida ilm olish, dono bo'lish, aql va tafakkur bilan hayot kechirish targ'ib qilinadi.

O'quvchilarni mustaqil yoki guruhda ishlashga undash. Bu bosqichda o'quvchilar mavzu bo'yicha tadqiqotlar olib boradi, turli eksperimentlar o'tkazadi yoki

muammolarni yechishadi. O‘quvchilarga yangi bilimlarni o‘zlashtirish uchun imkoniyat yaratish kerak. Shu maqsadda shoir haqidagi bilimlar tushuntirilganidan so‘ng “Analogiya” metodi qo‘llanadi. Analogiya – mutanosiblik, o‘xshashlik degan ma’noni anglatadi. Bunda o‘ng tomonda she’riyat mulkining sultoni Alisher Navoiy, chap tomonda esa Muhammadrizo Ogahiyning hayoti va ijodidagi birxillilik sifatlari, xususiyatlarini topish bo‘yicha tadqiqot olib borish topshirig‘i beriladi.



1. Har ikkala ijodkor mumtoz adabiyot vakili.
2. Har ikkalasi tarixiy asarlar yozgan.
3. Har ikkalasi ikki tilda ijod qilgan.
4. Har ikkalasi davlat arbobi vazifasida faoliyat olib borgan
5. Har ukkalasi tarjima bilan shug‘ulllangan.

Bu bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilarga o‘rganilgan materialni tushuntiradi. O‘quvchilar o‘zlarining fikrlarini ifodalashadi va o‘qituvchi mavzuga oid tushunchalarni to‘liqroq izohlaydi.

“Mumtoz tahlil” metodi orqali shoir g‘azallarining har bir bayti tahlil qilinadi. “Ohista-ohista” g‘azali boshdan oxir o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinadi.



Namuna:

Manga zulm aylab, ul qotil ayon ohista-ohista, Chekib tig'ini aylar qasdi jon ohista-ohista.

Ayon-jon so'zlari qofiyadosh so'z, n tovushi radif. Muallif oshiq sifatida mashuqaning qotil ko'zlaridan zulm ko'rgan, yor kipriklari oshiq joniga qasd qilgan.

Shoirning "Ohista - ohista", " Ustina" g'azaliga oid PISA topshiriqlari beriladi va ularning o'qish savodxonligi rivojlantiriladi. Guruhlarga test tarqatmalari beriladi.

Muhammadrizo Ogahiy qalamiga mansub g'azallarni tahlil qilish uchun PISA test topshiriqlari.

1. Manga zulm aylab, ul qotil ayon ohista-ohista, Chekib tig'ini aylar qasdi jon ohista-ohista.
2. Jafosi zo'ridin ikki ko'zimdin oqti daryolar Ki, qolg'oy ostida oning jahon ohista-ohista.
3. Ulusga aylag'an zulmin ko'rib ondin hazar qilmay, Kelib chekdim jafosin man yomon ohista-ohista.
4. Bo'lur hajrida zindon gar maning manzilgahim bo'lsa, Guliston balki gulzori jinon ohista-ohista.
5. To'lo bir jom tut lutf aylab, ey soqiyki, bu g'amdin Qutulg'oyman ichib man notavon ohista-ohista.
6. Vafo yo'q dahr bog'ining gulida, berma ko'nglungni, Bugun tongda ketar, ey bog'bon, ohista-ohista.
7. Emas gardunda ra'd ovozikim hijron tuni ichra, Erur ul Ogahiy chekkan fi g'on ohista-ohista.

1. ***Ushbu g'azalning asosiy mavzusi qaysi mavzuda?***

A) Do'stlik va sadoqat
B) Ishq va hijron
C) Mehnat va halollik
D) Tabiat va inson

2. ***"Manga zulm aylab, ul qotil ayon ohista-ohista" misrasida "qotil" so'zi qanday ma'noda ishlatilgan?***

A) Haqiqiy qotilni nazarda tutgan.
B) Shoirning sevgilisini ramziy ma'noda ifodalagan.
C) Jamiyatdagi zolimlarni tanqid qilgan.
D) Dushman obrazini yaratgan.

3. ***Shoir g'azalda qanday his-tuyg'ularni ifoda etmoqda?***

A) Muhabbat va sadoqatni
B) Qayg'u va hijron azobini
C) Baxt va shodlikni
D) G'urur va faxni

4. ***G'azaldagi "Chekib tig'ini aylar qasdi jon ohista-ohista" misrasida qanday badiiy san'at ishlatilgan?***

A) Tajnis san'ati
B) B) Tashbeh san'ati
C) C) Istiora san'ati
D) D) Talmeh san'ati

5. ***"To'lo bir jom tut lutf aylab, ey soqiyki, bu g'amdin"misrasida "jom" so'zi nimani anglatadi?***

A) G'amdan qutulish ramzi
B) Suv idishini angalatadi.

C) Adolat belgisi
D) Ishonch timsoli

6. ***G'azalda shoir hayotni qanday tasvirlaydi?***
A) Vafosiz va g'amli deya ta'riflangan.
B) Baxt va shodlikka to'la deyilgan.
C) Tinch va osoyishta deya ta'kidlangan.
D) Qiziqarli va lazzatliekanligi uqtirilgan.

7. ***"Vafo yo'q dahr bog'ining gulida" misrasida "dahr bog'i" iborasi nimani anglatadi***?
A) Tabiiy bog'larni
B) Hayot maydonini
C) Do'stlik rishtalarini
D) Adolat tizimini

8. ***Shoir o'zini qanday holatda tasvirlaydi?***
A) Umid bilan yashayotgan odam sifatida.
B) Beparvo va lazzatga berilgan odam sifatida.
C) Ishq va hijron azobida qiynalayotgan odam sifatida.
D) O'zga yurtlarga ketishni istayotgan odam sifatida.

9. ***"Erur ul Ogahiy chekkan fig'on ohista-ohista" misrasida "fig'on" so'zi qanday ma'noni anglatadi?***
A) Yaxshi xabar
B) Alamli nolalar
C) Umid va orzu
D) Sevinchli holat

10. ***Ushbu g'azalda shoir kimga murojaat qilmoqda?***
A) Do'stlariga
B) Yoriga
C) Shohlarga
D) Ustozlariga
(Javoblar: 1-B; 2-B; 3-B; 4-C; 5-A; 6-A; 7-B; 8-C; 9-B; 10-B.)

2-g'azal

1. Mushkin qoshining hay'ati ul chashmi jallod ustina, Qatlim uchun nas keltirur "nun" eltibon "sod" ustina.
2. Qilg'il tamosho qomati, zebosi birlan orazin,
Gar ko'rmasang gul bo'lg'onin payvand shamshod ustina.
3. Noz-u ado-u g'amzasi qasdim qilurlar dam-badam, Vah, muncha ofatmu bo'lur bir odamizod ustina.
4. Man xastag'a jon asramoq emdi erur dushvorkim, Qotil ko'zi bedod etar har lahza bedod ustina.
5. Ul gul yuzi shavqi bila shaydo ko'ngul shom-u sahar, Bulbuldek aylar yuz navo ming nav'i faryod ustina.
6. Boshimg'a yoqqon g'am toshi mingdin biricha bo'lmog'oy Gardun agar ming Besutun yog'dursa Farhod ustina.
7. Ey shah, karam aylar chog'i teng tut yamon-u yaxshini Kim, mehr nuri teng tushar vayron-u obod ustina.
8. Xoki taning barbod o'lur oxir jahonda necha yil, Sayr et Sulaymondek agar taxting qurub bod ustina
9. Ne jur'at ila Ogahiy ochg'ay og'iz so'z dergakim, Yuz xayli g'am qilmish hujum ul

zor-u noshod ustina

1. *"Mushkin qoshining hay'ati ul chashmi jallod ustina" misrasida qanday badiiy san'at qo'llangan?*

A) Tajnis B) Tashbeh C) Istiora D) Kinoya

2. "Qatlim uchun nas keltirur "nun" eltibon "sod" ustina" misrasida qanday badiiy san'at bor? A) Istig'roj B) Tajnis C) Iqtibos D) Istiora

3. "Gar ko'rmasang gul bo'lg'onin payvand shamshod ustina" misrasida qanday san'at bor? A) Tajnis B) Takrir C) Ishtiqoq D) Tazod

4. ***Baytdagi " teng tut yomon-u yaxshini" deya kimga murojaat qilingan?***

A) Tangriga B) Mashuqaga C) Podshohga D) Oshiqqa

2. "Man xastag'a jon asramoq emdi erur dushvorkim,

***Qotil ko'zi bedod etar har lahza bedod ustina"* . Qaysi qatorda mazkur bayt mazmuni aks etgan?**

A) Shoir o'zining sog'lom hayot kechirayotganini tasvirlagan.

B) Shoirning sevgi alamidan aziyat chekayotgani ifodalangan.

C) Shoirning do'stlariga bo'lgan minnatdorligi aks etgan.

D) Shoir o'zining baxtli hayotini tasvirlagan.

3. Quyidagi baytning asosiy ma'nosi nima?

"Boshimg'a yoqqon g'am toshi mingdin biricha bo'lmog'oy Gardun agar ming Besutun yog'dursa Farhod ustina"

A) Shoir Farhodga o'xshab jasoratli ekanini aytmoqda.

B) Shoirning dardlari Farhodning dardidan ham og'ir ekanini ta'kidlamoqda.

C) Shoir tog' yartish qanchalik qiyinligini ta'riflamoqda.

D) Shoir yengil hayot kechirayotganini tasvirlamoqda.

4. G'azalda shoir kimga murojaat qilgan va unga qanday iltimos qilmoqda?

A) Shoir do'stiga murojaat qilib, unga baxt tilamoqda.

B) Shoir shohga murojaat qilib, adolat qilishini iltimos qilmoqda.

C) Shoir o'z sevgilisiga murojaat qilib, unga mehribon bo'lishni so'ramoqda.

D) Shoir do'stlariga murojaat qilib, ularga sabr tilamoqda.

5. G'azalning asosiy g'oyasi nimadan iborat?

A) Adolat va shafqat haqida o'ylash.

B) Muhabbat va uning og'ir kechinmalarini tasvirlash.

C) Shohlarning donoligi haqida hikoya qilish.

D) Hayotning quvonchli lahzalarini madh etish

6. "Kim, mehr nuri teng tushar vayron-u obod ustina" misrasida qaysi san'at bor?

A) Tajnis B) Tazod C) Tarse' D) Talmeh

7. "Sayr et Sulaymondek agar taxting qurub bod ustina" misrasida qaysi badiiy san'at bor?

A) Talmeh B) Istiora C) Tarse' D) Kinoya

(Javoblar: 1-B; 2-A; 3-C; 4-C; 5-B; 6-B; 7-B; 8-A; 9-B; 10-A.)

3- g'azal

1. Ashkima gar kanora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay, Ohima ham shumora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay.

2. Hardam ulusg'a lutf ila boqg'usi qahr ila, vale. Man sori bir nazora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay.

3. Ishq eli ko'ngli dardig'a chora qilur, vale mening Dardi dilimg'a chora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay.

4. Hajrida za'fim o'ylakim, ohi hazinim o'tig'a,

Shu'la bila sharora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay.
5. Jon labidin chu bermadi jismima, vahki qoshidin Qatlima bir ishora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay.
6. Ko'yiga borsam etgusi vaslig'a va'da, ul dog'i
Bo'lg'usi bora-bora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay.
7. Tole'i ravshan o'zganing lutfi quyoshi nuridin, Men kibi baxti qora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun,netay.
8. Bo'ldi sitorasi isig' xulqiga mehri yori garm, Manda isig' sitora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay.
9. Dedim: "O'lubtur Ogahiy ashki kanorasiz", dedi:
"Ashkima gar kanora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay.

1. ***She'rdagi "bo'lmasa bo'lmasun, netay" iborasi qanday kayfiyatni ifodalaydi?***
A) Beparvolik va befarqlik
B) Qayg'u va umidsizlik
C) Shodlik va baxtiyorlik
D) Ishonch va sabr

2. ***Quyidagi misralar qanday ma'noni anglatadi?***
Ishq eli ko'ngli dardig'a chora qilur, vale mening
Dardi dilimg'a chora yo'q, bo'lmasa bo'lmasun, netay
A) Ishq odatda dardlarga malham bo'ladi, lekin shoirning yurak dardi juda chuqur va unga shifo yo'q.
B) Shoir muhabbat tufayli dardga duchor bo'lgan va undan qutilish yo'lini topgan.
C) Ishq shoir uchun juda yoqimli va shifo beruvchi holatdir.
D) Shoir sevgan yorining unga bo'lgan mehri dardini unutishga yordam beradi.

3. ***7-baytdagi she'riy san'atlarni aniqlang.***
A) Istiora va mubolag'a
B) Tashbeh va tazod
C) Tajnis va istiora
D) Tavsif va chiston

4. ***She'rdagi asosiy g'oya nimadan iborat?***
A) Shoir sevgiga yetolmayotganidan afsusda va dunyoning adolatsizligidan nolimoqda.
B) Shoirning sevgilisi unga xiyonat qilgan va u bu haqda qayg'urmoqda.
C) Shoir o'z hayotidan to'liq qoniqmoqda va sevgidan mamnun.
D) Shoir ishq dardidan butunlay voz kechgan va yangi maqsadlar qo'ygan.

5. ***Qaysi baytda ma'nodosh so'z berilgan?***
A) 6-baytda B) 7- baytda C) 8- bayt D) 9- bayt (javoblar: 1-B; 2-A; 3-B; 4-A; 5-C.)

Testlarni baholash: Har bir to'g'ri javob uchun 1 ball beriladi. Topshiriqlar 5 ballik tizimda baholandi.

Maktab o'quvchilari uchun klassik ijod namunalarini bilishning katta ahamiyatga ega. Mumtoz adabiyot har qanday jamiyatning ma'naviy va intellektual boyligi hisoblanadi. Maktab o'quvchilari bu orqali tarixiy va madaniy merosni anglaydilar. Millatning o'tmishini, urf-odatlarini va madaniyatini aks ettiradi. Shoir va adiblarning asarlari orqali o'quvchilar o'z xalqining qadriyatlari bilan tanishadi, tarixiy voqealarga nisbatan tushunchasi kengayadi. Adabiyot tili nafis va mazmunan boy bo'lib,

o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishga yordam beradi. Ular murakkab fikrlarni tushunish va ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Klassik asarlarda insoniy fazilatlar, adolat, sadoqat, vatanparvarlik kabi tushunchalar keng yoritiladi. Bu o‘quvchilarga hayotda to‘g‘ri yo‘l tanlashga, axloqiy tamoyillarga rioya qilishga yordam beradi. O‘quvchilarning estetik didi va ijodiy tafakkurni shakllanadi. O‘quvchilar klassik adabiyot orqali go‘zallikni his qilishni, badiiy tasvir vositalaridan zavq olishni o‘rganadilar. Bu esa ularning san'at va ijodga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.

Mazkur risolada tavsiya etilgan innovatsion usullar o‘quvchilarda o‘qish savodxonligini takomillashtirish bilan bir qatorda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Mumtoz matnlar insoniy munosabatlar va hayotiy haqiqatlar haqida chuqur fikr yuritishga undaydi. O‘quvchilar voqealar rivojini tahlil qilish, o‘z fikrlarini shakllantirish va asoslashni o‘rganadilar. Misralardagi tagma'nolar, sermazmun iboralar ma'nosini anglaydilar.

Xulosa qilganda, tavsiya etilgan metodlar dars jarayonlarida keng qo‘llandi, dars o‘z maqsadiga erishdi. Bu esa o‘quvchiga faqat adabiy bilim emas, balki keng dunyoqarash, mustaqil tafakkur va yuksak ma'naviyat bag‘ishlaydi. Takliflar o‘quvchilarni yetuk, bilimdon va madaniyatli shaxs bo‘lib shakllanishiga xizmat qiladi. Adabiyot fani o‘qituvchilari uchun tavsiya etilgan metodlarni dars jarayonlarida qo‘llashni tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adabiyot [Matn]: 10-sinf uchun darslik / Z. I. Mirzayeva, K. Q. Djalilov. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022.
2. Ogahiy hayoti va ijodi – yoshlar tarbiyasi uchun namuna. Respublika konferensiyasi to‘plami. – Toshkent, 2020. – 140 b
3. http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/519
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Tashbeh
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Talmeh

PEDAGOG-XODIMLARNING KASBIY MAHORATINI OSHIRISHDA UZLUKSIZ METODIK XIZMAT KO‘RSATISH MASALALARI

Tuxfatullina Dilyara Temurovna,
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi direktor o‘rinbosari

Annotatsiya: Maqolada umumiy o‘rta ta'lim maktablarida o‘quv-tarbiya jarayoni sifatini yanada yaxshilash, pedagog xodimlarning kasbiy mahoratini,salohiyatini oshirish, ta'limga yangicha yondashuv, Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limining metodbirlashmalar faoliyatini muvofiqlashtirishi, kasbiy refliksiyani shakllantirish masalalari o‘z aksini topgan.

Аннотация: В статье отражены вопросы повышения качества образовательного процесса в общеобразовательных школах, повышения профессионального мастерства и компетентности педагогов, нового подхода к образованию, координации деятельности методических объединений отдела методической службы, формирования профессиональной рефлексии.

Annotation: The article reflects the issues of further improving the quality of the educational process in general secondary schools, improving the professional skills and competence of pedagogues, a new approach to education, coordinating the activities of methodological associations of the Methodical Service Department, and forming professional reflection.

Kalit so‘zlar: kasbiy mahorat, yangicha yondashuv, uzluksiz metodik xizmat, sifatli ta’lim olishiga ta’sir etuvchi omillar, innovatsion faoliyat, XXI asr ko‘nikmalari, kasbiy refliksiya.

Ключевые понятия: Профессиональные навыки, новый подход, непрерывное методическое обслуживание, факторы, влияющие на качество образования, инновационная деятельность, навыки XXI века, профессиональная рефлексия.

Key Concepts: Professional skills, a new approach, continuous methodical service, factors influencing quality education, innovative activity, 21st century skills, professional reflection.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quv tarbiya jarayoni sifatini yanada yaxshilash, pedagog xodimlarning kasbiy mahoratini,salohiyatini oshirish, o‘quvchilarda zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirish va ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish davr talabidir.Bu pedagog xodimlarning faoliyatini tubdan o‘zgartirib, ta’limga yangicha yondashuvni taqazo etadi.

Bizga ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “Umumta’lim muassasalarida uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 2024-yil 5-yanvardagi 8-sonli buyrug‘i uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish tizimi yanada mustahkamlash maqsadida qabul qilindi.[1] Bu buyruq maktab ta’limiga ilg‘or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan zamonaviy darsliklarni hamda baholash tartibini amaliyotga joriy etishda pedagog xodimlarga uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatib borishni tizimli tashkil etish maqsadida qabul qilinganligi bejiz emas, chunki xalqaro tadqiqotlarlardagi baholash pedagog xodimlar zimmasiga juda katta mas’uliyatni yukladi.

Pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirishda uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish mexanizmida metodbirlashmalar faoliyatini muvofiqlashtirish juda muhim masalalardan biri deb ayta olamiz. Aynan metodbirlashmalar pedagoglarning kasbiy o‘sishi borasidagi eng samarali ishlarni tashkil qila oladigan va o‘quvchilarda zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirishni muvofiqlashtiruvchi quyi tarkib hisoblanadi. O‘z navbatida umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilariga uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish faoliyati Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika ta’lim markazi va Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi, Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalaridagi o‘quvchilarda zamonaviy ko‘nikmalarni shakllantirishni muvofiqlashtirish sho‘basi,t**uman (shahar)larda “Mentorlar guruhi bilan hamkorlikda tashkil etiladi.**

Pedagogik mahorat - yuksak pedagogik tafakkur, ta’lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo‘llay olish qobiliyatidir.[2] Ta’lim

[1] O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 5-yanvardagi 8-sonli buyrug‘i

[2] Тохтаходжаева М.Х. Педагогик маҳорат.-Тошкент: 2010.-18-бет.

jarayoni va o‘quvchilarning sifatli ta’lim olishiga ta’sir etuvchi omillar, ya’ni innovatsion faoliyat, o‘qituvchining bilimi, darsga tayyorgarligi,ta’lim sohasidagi yangi islohotlar, maktabdagi moddiy-texnik ta’minot, metodik xizmat ko‘rsatish,yangi darsliklar, o‘quv-qo‘llanmalar, o‘qituvchilar malakasini oshirish, darsga pedagogik-psixologik yondashuv kabilar bilan ishlash har bir o‘qituvchidan pedagogik mahorat talab etadi.

Hozirgi davrda innovatsion faoliyat, innovatsion yondashuv – davr talabi. Innovatsion jarayonda innovatsion shakl va usullardan foydalanishdan ko‘zlangan maqsad:

- berilgan mavzuga oid bilimlarni jahonning ilg‘or tajribalari,zamonaviy ta’lim metodlari asosida berish;
- o‘quvchilarning savodxonligi,ijodiy,tanqidiy fikrlashini rivojlantirish;
- o‘quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash;
- motivatsion ko‘nikmani rivojlantirish;
- o‘quvchilarda ma’lumotni mustaqil qabul qilish va tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirish;
- o‘quvchilarning qobiliyatini rivojlantirish;
- o‘quvchilarda to‘g‘ri xulosa chiqarish ko‘nikmasini shakllantirish;
- hamkorlikda ishlash ko‘nikmasini rivojlantirish;
- og‘zaki va yozma nutq malakalarini rivojlantirish;
- muloqot qilish ko‘nikmasini rivojlantirish;
- o‘rganilgan bilimni mustahkamlash;
- iqtidorli va bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar bilan ishlashni samarali tashkil etish;
- AKTdan foydalangan holda darsni tashkil etishdan iborat.

O‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini (kreativ fikrlash, jamoada ishlash, AKT ko‘nikmalari va mediasavodxonlik, tanqidiy fikrlash, muammoni yechish va qaror qabul qilish, tadqiqotchilik ko‘nikmalari, kommunikativ ko‘nikmalari va h.k) rivojlantirishga oid mavzularda mahorat darslarini tashkil etish ilg‘or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan zamonaviy baholash tartibini amaliyotga joriy etishda pedagog xodimlarga samara beradigan usullardan biridir.

Fan o‘qituvchilarining kasbiy mahoratlarini oshirish bo‘yicha Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlaridagi Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi fan metodistlarining tavsiyalar berishi, hamkorlikda ish olib borishi uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish masalalarining eng qulay va eng samarali yo‘llaridan biridir.



Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi fan metodistlarining yuqorida ko‘zda tutilgan maqsadlari pedagog-xodimlarning kasbiy mahoratini oshirishdagi amaliy yordamning yaqqol ko‘rinishidir.

Pedagogok mahoratni oshirishga qaratilgan har qanday innovatsion usul ta’lim jarayoniga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Hozirgi paytda Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi tashabbusi bilan pedagoglarni kasbiy rivojlanishiga ko‘maklashish va metodik qo‘llab-quvvatlash uchun Metodik marafon o‘tkazilmoqda. Bu esa pedagoglarning kasbiy mahorati, bilim va ko‘nikmalarini muntazam oshirib borishga xizmat qilmoqda. Metodik xizmat ko‘rsatish bo‘limi tomonida tashkil etilayotgan o‘quv-amaliy seminarlar, “Metodik tur”, “Metodist soati”, “Mahorat maydonchalari” hamda Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi tashabbusi bilan o‘tkazilayotgan Metodik marafonlar o‘z-o‘zidan o‘qituvchilarda kasbiy refliksiyani shakllantiradi.

M. Kodjaspirova pedagogik refleksiyani insonning o‘z-o‘zini anglashi deb, bunda “nafaqat o‘qituvchi o‘z xatti-harakatlariga to‘gri baho berishi, balki o‘qituvchi bilan pedagogik muloqot chog‘ida o‘zaro hamkorlik qiladigan o‘quvchilar jamoasi, pedagogik jamoa, ta’lim-tarbiyaga mas’ul shaxslar va ota-onalar uni qanday qabul qilishini tushuna olish qobiliyati hamdir” deb ta’riflaydi.[1]

Shunday ekan, uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish faoliyatini takomillashtirish pedagog- xodimlarning yanada o‘z ustida ishlashga, kasbiy mahoratini, bilimini oshirishga, ta’lim jarayonidagi yoki o‘z faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etidsh, yechimlar topishga undaydi, ijodkorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 5-yanvardagi 8-sonli buyrug‘i
2. Тохтаходжаева М.Х. Педагогик маҳорат.-Тошкент: 2010.-18-бет.
3. Холиқов А. Педагогик маҳорат. Ўқув қўлланма.- Тошкент: 2010.-235-бет.

TURKIY TIL TARAQQIYOTIDA JADIDLARIMIZNING O‘RNI VA FILOLOGIK QARASHLARI

Normurotova Go‘zal,
Ochilov Suhrob,
Navoiy innovatsiyalar universiteti talabalari
Ilmiy rahbar: f.f.f.d. (PhD) Payzullayeva R.M.

Annotatsiya: Bu maqolada turkiy tilning yuksalishida ulkan hissa qo‘shgan Jadidlarning til doirasida ilgari surgan fikrlari, amaliy, tanqidiy-tadqiqiy maqolalarini o‘rganib, ularni bugungi kunda tilga nisbatan tabdil qilish haqida fikr yuritiladi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Mahmud Suboh kabi jadidlarning fikrlari bilan kengroq yoritib, tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: Jadid adabiyoti, tanqidiy maqola, Birlashgan Millatlar tashkiloti, Prezident, Buxoro axbori, jarida, o‘zbek tili, Hurriyat, sheva, sho‘ba, assambleya, maorif, hukumat, chet tili

Til – har bir mustaqil millatning milliy g‘urur va iftixorining eng salmoqli ifodasi. Shu jumladan, bizning o‘z Ona tilimiz ham bizning eng katta boyligimiz va hurligimiz belgisidir. Til nafaqat millatning ruhi, hissiy xazinasi, balki, mustaqil mamlakatning eng asoyiy siyosiy ramzi, tayanchi va ustunidir.

O‘zbekiston mustaqil bo‘lishidan avval – 1989-yil hurriyat uchun siyosiy kurash ketayotgan payti mustaqillikka ilk qadam sifatida birinchi prezidentimiz Islom Karimovning O‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish siyosati ham bejiz emas. Bu mustaqillik tomon qo‘yilgan eng ulkan qadam edi. Islom Karimov o‘zining “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida o‘zining tilga bo‘lgan munosabatini “...o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga til orqali, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir”[1] [1; 83-bet] – deya ifoda etadi.

Bilamizki, mustaqillik yillarida ham o‘zbek tilining mavqeyini nafaqat tiklash, balki yanada yuksaltirish borasida ham bir talay siyosiy-amaliy ishlar yaqqol ko‘zga tashlanadi. Jumladan, 2020-yilning 23-sentabrida o‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida chiqish qilib, bu chiqishda O‘zbekiston rahbari ilk bor BMTda o‘zbek tlida nutq so‘zladi. Bu katta jasorat va tilga bo‘lgan hurmatning eng yuksak ko‘rinishidir.[2]

Biz yuqorida mustaqillik arafasida va mustaqillik yillarida amalga oshirilgan voqealar bilan tanishib chiqdik. Endi biroz o‘tmishga yuzlansak. Holbuki, til – hamma davrlarda ham dolzarb va eng asosiy masalalardan biri bo‘lgan.

O‘zbek xalqining tarixini bir necha muayyan davrlarga bo‘lish mumkin. Masalan, murakkab siyosiy vaziyatda o‘zlarining vatanparvarlik g‘oyalari bilan jamiyatning milliy o‘zligini anglashi va milliy g‘ururini saqlab qolishi uchun fidoiylik qilgan ma’rifatparvarlar – Jadidlar davri. Jadidlar nafaqat adabiy sohada, balki, siyosiy, jumladan, til sohasida ham e’tirof etgulik ishlarni amalga oshirgan. Aynan tilning taraqqiyoti uchun asarlar yozgan, tadqiqiy va tanqidiy maqolalar yozib, xalqni

[1] “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” TOSHKENT “Ma’naviyat” – 2010
[2] https://kun.uz/news/2020/09/23/shavkat-mirziyoyev-pandemiyalar-davrida-davlatlarning-ixtiyoriy-majburiyatlari-togrisidagi-xalqaro-kodeks-ishlab-chiqishni-taklif-etdi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2020%2F09%2F23%2Fshavkat-mirziyoyev-pandemiyalar-davrida-davlatlarning-ixtiyoriy-majburiyatlari-togrisidagi-xalqaro-kodeks-ishlab-chiqishni-taklif-etdi

uyg‘oqlikka chorlagan. Maorifga esa xalqni ma’rifatli qilish vazifasi aynan ularning zimmasiga yuklatilgan muqaddas va mashaqqatli vazifa ekanligini ta’kidlab turgan. Masalan, Cho‘lponning “Tilimizning ishlanishi” maqolasini ko‘rib chiqsak. Bu maqola “Buxoro axbori” jaridasini bosiladigan maqolalar, she’rlarni tahlil qilib, har bir sahifadagi so‘zlarga alohida e’tibor berishga chaqiradi. Bu borada yetarli ilmga ega kishilarni ishga qo‘yish kerakligini aytadi. Toki, ulardan millatning ma’naviyati oziqlanar ekan, ularni xato qilishga haqlari yo‘qligini aytadi. Bu gazetada ko‘zga tashlanadigan eng katta kamchilik sheva hamda fors tilining ta’siri ekanligini misollar bilan ko‘rsatib qo‘yadi.

Cho‘lpon “…Buxorodek fors-eron ta’siriga ortiq yutulub ketib, o‘z tilidan ajralib qolgan bir o‘lka uchun, u yerdagi ko‘pchilik avom uchun tilning ahamiyati juda zo‘rdir. Holbuki, “Axbor” yo‘ldoshimizda bu jihatga sira diqqat etilmaydir yoki etila olmaydir…”[1][2; 14-bet] deya gazetada bosilgan ba’zi maqola va she’rlarni bevosita tahlil qilib keltiradi.

Haqiqatda tilimiz ma’lum davrlardagi siyosiy bosqinlar oqibatida mavqeyi va qadrini ancha yo‘qotdi. Mustamlaka hukumat ta’sirida davlat tilining o‘zgarishi tilimizga g‘ayri jumlalar va so‘zlarni kirib kelishiga olib kelgan. Bora-bora bu kirib kelgan o‘zlashma so‘zlar o‘z tilimizdagi muqobil so‘zlarni iste’moldan chiqarib yubordi.

Tilni sof saqlash o‘tgan asrlarda ham asosiy masala bo‘lgan. Turkiston jadidlari otasi deya e’tirof etilgan Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining “Til masalasi” maqolasining ibtidosida bu soflikni saqlash borasida o‘zining sobit fikrini bildirib o‘tadi: “Turkchaning sho‘ba va shoxlari bo‘lgan o‘zbekchig‘atoy, tatar, ozarboyjon, qozoq va turkman lahjalarindagi yangi matbuotning eng ahamiyatlik masalalaridan biri, albatta, sheva, lahja, imlo masalalaridur…”[2] [4; 27-bet]

“Dunyoning eng boy tili turkchadir, eng baxtsiz tili xud turkchadir…”[3] [3;369] Jadidlarning yana bir ko‘zga ko‘ringan vakili Abdurauf Fitrat o‘zining “Tilimiz” nomli maqolasida turkiy tilning ahvolini shunday ta’riflaydi. Turkiy tilning boyligini isbot qilarkan, Hazrat Alisher Navoiyning “Muhikamat ul-lug‘atayn” asariga murojaat qiladi. Navoiy keltirgan isbotlarni yuzaga olib chiqadi va bu tilning boyligini ko‘rsatadi. Baxtsizligining sababi esa nafaqat sovet hukumatining tilga nisbatan adolatsiz siyosati, balki arab bosqinidan boshlamoq to‘g‘riligini ta’kidlaydi. Fitratning “Emdi so‘zni turkchaning baxtsizlig‘ina ko‘chiraman. Turk tili shuncha boylig‘i, shuncha tugalligi bilan baxtsizliqdan qutula olmamishdir. Turk tili dunyoning eng baxtsiz tilidir. Turkchaning baxtsizligi arab bosqini bilan bog‘lanmishdir. Arablar bosdiqlari o‘lkaga yolg‘iz hukumatlarini emas, dinlarini, yo‘sunlarini-da tanitgan, oldirg‘an edilar.”[4] [3; 371-bet] – deya keltirib o‘tadi bu til inqirozining sababini arab bosqinidan boshlanganini aytadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lponlar bilan bir safda bo‘lgan ma’rifatparvar jadid Mahmud Suboh garchi hukumatning yaqqol qarshiligi bo‘lsa-da, tilga nisbatan nohaqlik siyosatini 1922-yil “Buxoro axbori” gazetasining 2-noyabr sonida “Hukumat tili shu hukumatning xo‘jasi bo‘lg‘on xalqning

[1] Чўлпон. Асарлар. Тўрт жилдлик. 4-жилд. Адабий-танқидий ва публицистик мақолалар. Тошкент – “Академнашр” – 2016

[2] Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар, 2-жилд. Тошкент. «Академнашр» — 2021

[3] Abdurauf Fitrat. “Zabarjad Media”, 2024

[4] Abdurauf Fitrat. “Zabarjad Media”, 2024

ona tilidur. Shu til bilan uning adabiyoti negizlangan, qalbining teran yerindan o'rin topg'ondur"[1] – deya "Til masalasi" maqolasida tilning sofligini saqlash va hurmatni saqlash borasidagi fikrlarini bayon qiladi.

Biz yuqorida jadid adabiyoti namoyondalarining bir nechtasini tilga taalluqli fikrlarini tahlil qildik. Xulosa qilib aytganda, o'z tilini sof saqlash har bir insonning gardaniga yuklatilgan insoniylik qarzi, yurt oldidagi farzandlik burchidir. Hozirgi kunga kelib chet tillariga ruju qo'yib o'rganish avjiga chiqqan. Biz guvohi bo'lyapmizki, ayrim oilalarda farzandiga yoshligidan chet tilini o'rgatishi natijasida bola o'z tilini gapira olmaslik darajasiga yetgan. Ingliz yoki rus tilidagi so'zlar, jumlalarning o'z tilidagi muqobil variantini bilmaydi. Biz bundan qo'rqishimiz kerak, aslida. Chet tilini o'rganish jarayonida nafaqat til, balki madaniyat, dunyoqarash ham til bilan birgalikda o'rganuvchining ongiga singib boradi. Shunday ekan, avvalo o'z tilini mukammal o'rganish lozim. Undan keyin, boshqa chet tilini o'rgansa maqsadga muvofiqdir. Kimki o'z farzandiga o'z tilidan ustun bilgan holda chet tilini o'rgatar ekan, keyin u farzanddan o'ziga nisbatan o'zbekona, turkona, musulmonona hurmat, munosabat kutmasin!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" TOSHKENT "Ma'naviyat" – 2010
2. Abdurauf Fitrat. "Zabarjad Media", 2024
3. Abdurauf Fitrat. "Zabarjad Media", 2024
4. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар, 2-жилд. Тошкент. «Академнашр» — 2021
5. Чўлпон. Асарлар. Тўрт жилдлик. 4-жилд. Адабий-танқидий ва публицистик мақолалар. Тошкент – "Академнашр" – 2016
6.https://kun.uz/news
7. https://oyina.uz/uz/article/2140

INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING SOCIO-ECONOMIC DISCIPLINES

Najmiddinova Mehrigul Najmiddin qizi,
Teacher of Navoi State University,
Qahramonova Malika Uchqunovna,
Student of Navoi State University

Abstract: In this article, I look at how advanced technologies play a leading role in the educational environment. During the training, the use of digital technologies, dynamic games and other interactive techniques stimulate the development of not only critical, but also systemic thinking and ultimately develops students' creativity. The article will cover topics such as correct and modern approaches to learning, the pros and cons of using innovative technologies, and their impact on the formation of qualifications among future personnel and specialists.

Key words: technology,students,innovative,thinking

Аннотация: В этой статье я рассматриваю как передовые технологии в образовательной среде играют ведущую роль.В ходе обучения использование цыфровых технологий , динамических игр и другие интерактивные методики

[1] https://oyina.uz/uz/article/2014

стимулируют развитие не только критического, но и системного мышления и в конце концов развивает креативность студентов.В статье будут раскрыты темы как правильные и современные подходы к обучению, плюсы и минусы использования инновационных технологий кроме того их воздействие на формирование квалификацый у будущих кадров и специалистов

Ключевые слова: технология,студенты, инновации, обучение.

Annotatsiya: Ushbu maqolada men ta'lim muhitidagi ilg‘or texnologiyalar qanday qilib etakchi rol o‘ynashini ko‘rib chiqaman.Trening davomida raqamli texnologiyalari, dinamik o‘yinlar va boshqa interaktiv usullardan foydalanish nafaqat tanqidiy, balki tizimli fikrlashni rivojlantirishni rag‘batlantiradi va oxir-oqibat talabalarning ijodkorligini rivojlantiradi.Maqolada mavzularni o‘qitishning to‘g‘ri va zamonaviy yondashuvlari, innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ijobiy va salbiy tomonlari sifatida ochib beradi bundan tashqari, ularning kelajakdagi kadrlar va mutaxassislarda malaka shakllanishiga ta'siri .

Kalit so‘zlar: tehnologiya, studentlar,innovatsion, malaka.

INTRODUCTION.

Education is the most powerful weapon which you can use to change the world.
— Nelson Mandela

Significant changes are taking place in modern teaching methods and education related to the digitization and implementation of innovative technologies. Especially in the educational process of socio-economic disciplines, technology plays a significant role, supporting the better assimilation of complex concepts, increasing the level of student interest and the progress of critical thinking. Orthodox methods based on lectures, as a rule, do not engage modern students who are proficient in digital technologies and accustomed to a dynamic and technologically advanced environment. Therefore, instructors regularly turn to innovative technologies to improve learning outcomes. These technologies not only support graphical representation and simulation of complex economic systems but also foster the development of analytical thinking, collaboration skills, and the removal of real-world barriers.

METHODS

In this research work, a qualitative analytical approach was used to study the synergy and effectiveness of technological innovations in teaching socio-economic disciplines. Data collection was carried out using three main approaches:

A comprehensive study of available scientific works dedicated to the integration of innovative teaching methods in socio-economic disciplines has been conducted. *For example, the study "Innovative Teaching Methods:* A Systematic Literature Review"[1] provides a detailed overview of current trends and approaches to implementing innovative teaching methods. The author examines how modern technologies (such as online platforms and digital tools) impact teaching methods, particularly in the field of social sciences and economics.

Specific examples of the implementation of innovative technologies in the educational process are examined in detail. For example, the article *"The Use of Innovative Methods in Teaching Social Sciences"*[2] discusses methods aimed at

[1] Nur Fauzani Razali,Nurfaradilla Mohamad Nasri “Innovative Teaching Methods – A Systematic Literature Review” .1740 p. Open access Journal.E-ISSN: 2226-6348 Vol 12, Issue 4, (2023)21December. http://dx.doi.org/10.6007/IJARPED/v12-i4/18508.

[2] Natalia Ageeva, Tatiana Ivanova, Rustem Idrisov, Marina Krasnova , Oleg Shirokov, Marina Shirokova.”THE USE OF INNOVATIVE METHODS IN TEACHING SOCIAL SCIENCES”. 141 p. Proceedings of INTCESS

improving the teaching of social sciences in higher education institutions. This academic paper focuses on the use of multimedia tools, interactive methods, and technologies to enhance awareness of theoretical concepts.

DISCUSSION AND RESULTS.

"Innovative Teaching Methods: A Systematic Literature Review" is a comprehensive analysis of existing research that focuses on the application of innovative technologies in the educational process. The author analyzes the impact of modern technologies on teaching methods, particularly in the field of social sciences and economics. The study highlights the key approaches that significantly contribute to improving student engagement and enhancing their learning outcomes and material comprehension. In particular, the use of technological platforms improves the flexibility of the learning process, creating opportunities for a personalized approach to each student.

"The Use of Innovative Methods in Teaching Social Sciences" This study analyzes the implementation of innovative pedagogical methods in teaching social sciences. These approaches contribute to a deeper understanding of complex theoretical ideas and help students master abstract concepts, such as social models and economic theories. The study found that such approaches significantly increase student motivation and their active participation in learning. Multimedia presentations and online simulations, in particular, play a significant role in the comprehension of complex economic and social theories.

Both experiments confirm the importance of innovative technologies in education. In particular, the implementation of digital platforms contributes to the creation of a more flexible and personalized learning environment, which enhances student engagement and optimizes their academic performance. Interactive methods, such as online simulations and hybrid formats, make the learning process more dynamic, helping students better grasp theoretical and abstract concepts.

Therefore, it is crucial to deepen the integration of innovative methods in the educational field to effectively address students' needs and improve their learning outcomes.

CONCLUSION.

Modern technologies have significantly improved the process of teaching social and economic disciplines. By using virtual platforms, artificial intelligence, gamification, and big data analytics, educators can create a more stimulating and effective learning environment. Regular analysis and investments in educational technologies are essential for students to develop the skills necessary for a transforming labor market.

REFERENCES

1. Nur Fauzani Razali,Nurfaradilla Mohamad Nasri "Innovative Teaching Methods – A Systematic Literature Review".1740 p. Open access Journal.E-ISSN: 2226-6348 Vol 12,Issue 4,(2023)21,December.https://hrmars.com/index.php/IJARPED/article/view/18508/Innovative-Teaching-Methods-A-Systematic-Literature-Review .

2. Natalia Ageeva, Tatiana Ivanova, Rustem Idrisov, Marina Krasnova , Oleg Shirokov, Marina Shirokova."The use of innovative methods in teaching social sciences". 141 p.

Proceedings of INTCESS 2021 8th International Conference on Education and Education of Social Sciences 18-19 January, 2021.ISBN: 978-605-06286-1-6.
3. Najmiddinova Gulnora Najmiddin qizi "Jamiyat va ta'limni rivojlantirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining roli"."Oliy ta'limda innovatsiya va raqamli texnologiyalar muhitida o'qitishning zamonaviy tendensiyalari: istiqbollar, muammolar va yechimlar" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya,November,29,2024. https://doi.org/10.5281/zenodo.14305115.
4. Najmiddinova Gulnora Najmiddin qizi "Sun'iy intellekt Texnologiyalari va ularni ta'limda qanday qilib to'g'ri ishlatish kerak" Международной очно-заочной научно-практической конференции. Актуальные проблемы современной татарский филологии, г Уфа, 22 - ноября 2024 г. 201-204 стр.
5. Najmiddinova Gulnora Najmiddin qizi "The Integration of Artificial Intelligence (AI) into education system".34-37 b. Tamaddun Nuri ,ISSN 2181-8258,12-son (63) Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal,12.12.2024. Doi:https://doi.org/10.69691/r1bx4f56
6. Nazarova Nurjahon Bakhodirovna "The role of Toponyms in the Onomastic field of the fairy tale" International journal of social science & Interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12 (06), 81-83, 2023.
7. Najmiddinova Mehrigul Najmiddin qizi "Linguoculturalogical features of proverbs on "hospitality" in English and Uzbek".74 b.Tamaddun nuri / The light of civilization ISSN 2181-8258 2024-yil, 10-son (61) Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal. DOI: https://jurnal.tamaddunnuri.uz/index.php/tnj/article/view/972.
8. Najmiddinova Mehrigul Najmiddin qizi, Furqatova Hokima Akobir qizi, Nabiyeva Dilso'z G'iyosiddin qizi. "Linguistic features of phraseological units with a common meaning "hospitality". Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.14259715. "Modern trends of teaching in the context of innovative and digital
technologies in higher education: prospects, problems and solutions" International scientific and practical conference, November 29, 2024.

POWER WORDS IN POWERFUL LANGUAGE

Student: Khakimova Farangiz,
Scientific adviser: M.T.Gapparova

Abstract. This article explores the concept of power words—emotionally and psychologically impactful words that enhance communication effectiveness. It examines how these words function in various contexts, including marketing, storytelling, public speaking, and content creation. The article categorizes power words into emotional, persuasive, sensory, and motivational types, explaining their distinct effects on audiences. It also discusses the psychological influence of such words in evoking emotions, prompting actions, and improving message retention. The article concludes by emphasizing the importance of strategically using power words to create compelling and memorable communication.

Аннотация. В этой статье рассматривается концепция сильных слов — эмоционально и психологически воздействующих слов, которые повышают эффективность коммуникации. Изучается, как эти слова функционируют в различных контекстах, включая маркетинг, рассказывание историй, публичные выступления и создание контента. Статья классифицирует сильные слова на

эмоциональные, убеждающие, сенсорные и мотивационные типы, объясняя их различное воздействие на аудиторию. Также обсуждается психологическое влияние таких слов на вызов эмоций, побуждение к действиям и улучшение запоминания сообщения. В заключение подчеркивается важность стратегического использования сильных слов для создания увлекательной и запоминающейся коммуникации.

Key words: Power words, communication, emotions, psychology, persuasion, marketing, public speaking, content creation, motivation, perception, retention, influence.

Ключевые слова: Сильные слова, коммуникация, эмоции, психология, убеждение, маркетинг, публичные выступления, создание контента, мотивация, восприятие, запоминание, влияние.

Introduction. Power words are persuasive, emotional, and impactful words that have the ability to trigger a strong response from the reader or listener. These words are often used in marketing, storytelling, speeches, and persuasive writing to evoke emotions, inspire action, and create a lasting impression. Understanding the role of power words and incorporating them effectively into communication can significantly enhance the impact of written and spoken language.

The Role of Power Words in Communication

Language is a powerful tool that can influence perception, shape emotions, and motivate actions. Power words are carefully chosen words that have a stronger psychological effect on people. They can:

- Grab attention and make content more engaging.
- Enhance persuasion by appealing to emotions and desires.
- Strengthen arguments by adding conviction and authority.
- Stimulate curiosity and excitement in the reader or listener.

Categories of Power Words

Power words can be classified into various categories based on their function and impact:

1. Emotional Power Words

Emotional power words evoke strong feelings, whether positive or negative. They help establish a connection with the audience by making messages more relatable and compelling. Examples include:

• Love	• Fear	• Joy	• Anger	• Hope

2. Persuasive Power Words

These words encourage action and create a sense of urgency, making them highly effective in marketing and sales. They help convince the audience to take specific steps, such as making a purchase or subscribing to a service. Examples include:

• Guaranteed	• Proven	• Exclusive	• Limited

3. Sensory Power Words

Sensory power words appeal to the senses, making descriptions more vivid and immersive. These words help create strong mental images, making the writing more engaging. Examples include:

• Crisp	• Smooth	• Vibrant	• Whisper	• Lush

4. Motivational Power Words

Motivational words inspire and encourage individuals to take action, build confidence, and push beyond their limits. These words are frequently used in self-improvement, leadership, and personal development content. Examples include:

• Success	• Fearless	• Achieve	• Elevate	• Conquer

Effective Usage of Power Words

To maximize the impact of power words, they should be used strategically in different forms of communication:

Marketing and Advertising

Power words are widely used in marketing to attract consumers, emphasize benefits, and drive sales. Advertisements, social media posts, and product descriptions often rely on persuasive and emotional power words to generate interest.

• Example: *"Exclusive offer! Act now before it's too late!"*

Storytelling and Literature

In fiction and storytelling, power words enhance imagery and deepen emotional connections. Authors use sensory and emotional power words to create engaging narratives that captivate readers.

• Example: *"She took a fearless leap into the unknown."*

Public Speaking and Motivational Speeches

Speakers use power words to inspire audiences, instill confidence, and create a memorable impact. These words help reinforce key messages and evoke strong emotions.

• Example: *"You have the power to change your future today."*

Social Media and Content Writing

Attention-grabbing headlines and engaging social media posts often use power words to increase click-through rates and audience engagement.

• Example: *"10 Proven Ways to Skyrocket Your Success!"*

The Psychological Impact of Power Words

Power words influence decision-making by triggering emotional and psychological responses. Studies have shown that:

• Words associated with fear and urgency create a sense of immediacy, prompting quick actions.

• Positive and uplifting words boost motivation and confidence.

• Sensory words enhance recall and make messages more memorable.

Conclusion

Power words are an essential component of effective communication. By understanding their different categories and strategically incorporating them into writing and speech, individuals can enhance their persuasive abilities, engage audiences, and leave a lasting impact. Whether in marketing, storytelling, speeches, or everyday conversations, mastering the use of power words can significantly improve the effectiveness of communication.

Key words:

Term	Definition
Power Words	Words that create an emotional or persuasive impact.
Denotation	The literal meaning of a word.
Connotation	The emotional or cultural meaning of a word.
Persuasive Writing	Writing intended to influence the audience.
Rhetoric	The art of effective or persuasive speaking or writing.

REFERENCES:

1. Smith, J. (2019). The Art of Persuasion: How to Use Power Words. Persuasion Press.
2. Brown, M. (2020). Emotional Triggers in Marketing. Marketing Insights.
3. Johnson, L. (2021). Words That Influence: A Guide to Powerful Language. Language Experts.

O‘ZBEK XALQI URF-ODATLARIGA OID ETNOGRAFIK LAKUNALAR HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR

Suvanova Mavjuda,
Navoiy viloyati PMM dotsenti, f.f.f.d.

K.K.Yudaxin “Tillar o‘rtasidagi aloqa hammadan ilgari va hammadan ko‘proq ularning leksikasida aks etadi”, – degan edi[1]. O‘zbek tili leksik tarkibining asosiy qismini tashkil etuvchi etnografizmlar o‘zbek shevalari va o‘zbek adabiy tili leksik tarkibining ham asosiy qismini tashkil etadi.

Etnografizmlar xalq tarixini yoritishda katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, tarixiy grammatika hamda tarixiy leksikografiyani yaratish uchun ham boy ma’lumot beradi. Bunday etnografizmlarning qiyosiy tahlili o‘zbek tilining tarixiy leksikologiyasini o‘rganishda yetakchi manba bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston hududidagi etnografizmlarda ilgari vaqtlarda umumxalq o‘zbek tilining leksikasida faol qo‘llanilib, davrlar o‘tishi bilan nofaol ishlatiladigan bo‘lib qolgan yoki hozirgi adabiy tilimizda ishlatilmay ayrim turkiy tillar, uning shevalari va yozma yodgorliklaridagina uchraydigan bir qator etnografizmlar mavjud.

Biz o‘rganayotgan shevalarning leksikasi boshqa shevalar va adabiy tilda uchramaydigan, faqat shu shevaning o‘zigagina xos bo‘lgan so‘z hamda iboralardan iborat. Ularni hozirgi adabiy tilidagi so‘zlar, yozma yodgorliklar tili, boshqa turkiy tillar va dialektlar bilan qiyoslab, ma’nolarini tahlilga tortdik.

O‘zbek xalqining urf-odatlari asrlar bo‘yi o‘zbek millatining tashkil topishida ishtirok etgan barcha qabilalar va elatlarning madaniy malakalari va an’analarining uyg‘unlashuvidagi murakkab jarayonlar oqibatida tarkib topgan.

Har bir davrning, har bir xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-biografik sharoitiga mos bo‘lib turadigan va uni o‘zida aks ettiradigan urf-odat va an’analari bo‘ladi. Odamzod ongli hayot kechira boshlagandan buyon vujudga kelgan urf-odatlar, udum va an’analarni hisoblab chiqish juda murakkabdir.

Milliy urf-odat va an’analarda butun bir xalqning ijtimoiy ehtiyojlari, axloq normalari, manfaatlari, amaliy tajribalari va tarixiy yashash sharoitlari o‘ziga xos ravishda mujassamlangan bo‘ladi. Ular xalqning faoliyati jarayonida tug‘iladi, har bir xalq butun tarixi davomida yashash sharoitining xarakteri va xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kishilar o‘rtasidagi munosabatlarning ma’lum normada yo‘l- yo‘riqlarini yaratadi. Bu norma va yo‘l-yo‘riqlar avloddan avlodga o‘tish bilan takrorlanib, urf-odatlar va an’analarga aylanib qoladi.

Shakllangan urf-odat va an’analar shaxsning ijtimoiy munosabatlarga kirishida uning xulq-atvorini ijtimoiy jihatdan belgilovchi, boshqarib turuvchi va

[1] Юдахин К. К. Вклад в таджиковедение. Труды института языка и литературы АН Кирг. ССР, вып. VI, Фрунзе, 1956. – С. 159.

shakllantiruvchi vazifalarni bajaradi. Qaysi bir urf-odat va an'anani, udum yoki marosimni kelib chiqish sabablarini o‘rganmasdan turib qaraydigan bo‘lsak, ular bir qarashda, behuda bo‘lib ko‘rinadi. Aslida esa ularning barchasi kelib chiqishi bo‘yicha xalqning ijtimoiy-iqtisodiy va amaliy faoliyati natijasida vujudga kelgan va ularning ma'lum ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qilgan.

Urf-odatlar asosida millatning etnografik kelib chiqishi, etnognezisi namoyon bo‘ladi. Zotan, **qalin** – nikoh to‘yi bilan bog‘liq odat, ba'zi joylarda "sut puli" ham deyiladi. Qalinning paydo bo‘lishi matriarxatdan patriarxatga o‘tish davriga borib taqaladi. Bu davrda nikohdan so‘ng kelinni yashash uchun kuyov xonadoniga olib ketish rusum bo‘lgan. Dastlabki vaqtlarda kelin uchun umumiy tarzda uning urug‘iga, keyinchalik ota-onasi yoki qarindosh-urug‘iga biror sovg‘a berishgan. Qalin sifatida kiyim-kechak, oziq-ovqat, jonliq, qimmatbaho taqinchoqlar, mol-mulk va pul beriladi. Qalin olish odatining paydo bo‘lishi, birinchidan, qizning o‘z ota-onasi uyida oila uchun foyda keltiruvchi ishchi kuchi sifatida uning xizmatidan foydalanish imkoniyatining yo‘qotilganligi bilan, ikkinchidan, bo‘lajak kuyovning uyiga olib ketiladigan sep, asbob-anjom, mol-mulk bilan ham bog‘liqdir. Undan tashqari, qalin kuyovning barcha urug‘-aymog‘idan to‘plab berilgani uchun ular kelin-kuyovning nikohini mustahkam bo‘lishiga harakat qilganlar. Qalin to‘lash hanuzgacha ko‘pgina Sharq mamlakatlarida (O‘rta Osiyo va Kavkazda) saqlanib qolgan. Nikoh to‘yida qiz uchun kuyov tomonidan beriladigan pul, mol ma'nosini ifodalashda Bux., Nav., Samar. **qəlъn pulъ**, Qashq. **sut pulъ**, Xor. **sut haqъ**, Qoraqal. **qalъn molъ//xalыn mal** deb nomlanadi. Uni hozir **kuyov sɔvg‘əsъ** deb zamonaviylashgan shaklda namoyish qilmoqdalar. Aslida qalin islomgacha turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan odatlardan. Masalan, VI asrga oid O‘rxun-Enasoy yozuvlarida, Mahmud Koshg‘ariy asarlarida u tilga olingan"[1].

Xalqimiz azaliy urf-odatlarida o‘yinlar bilan bog‘liq etnografizmlar ham alohida o‘rin tutadi. O‘yinlar har bir xalqning, har bir urug‘ yoki qabilaning yashash sharoiti, iqlim va xarakteriga qarab shakllanganki, ular uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlaridan o‘tib, o‘zining tabiiy shaklini saqlagan holda yetib kelgan bo‘lsa, ba'zilari turli-tuman o‘zgarishlarga uchragandir. Milliy mahalliy o‘yinlar ikki xil bo‘ladi: a) bolalar uchun mo‘ljallangan o‘yinlar, b) katta yoshdagi kishilar uchun mo‘ljallangan o‘yinlar.

Bolalar o‘yinlarining nomlari: Bolalarning eng ko‘p o‘ynaydigan **laqkə** - o‘yin turi hududlararo nomlanishida farqlanadi. Qo‘y-echki terisining bir bo‘lakchasiga qo‘rg‘oshin yopishtirib, oyoq bilan tepib o‘ynaladigan o‘yin. **Qadəmətəyax** bolalar o‘yinining bir turi. Buni ikki bola o‘ynaydi, boshqalar qarab turadi. Yerga uchta doira va ular orasida kataklar chizilib, doiralar tutashtiriladi. "Galka" toshini bir oyoqlab tepib hamma xonalarga kiritish kerak. Agar tosh chiziqlar ustida to‘xtasa, u holda "qolgan" – yengilgan hisoblanadi va o‘yinni ikkinchi bola davom ettiradi. O‘ngacha sanaladi. Kim oldin o‘n marta aylanib chiqsa, u yutgan bo‘ladi.

Yəshinməchɔg‘ – bekinmachoq bolalar o‘yininig bir turi o‘zbek shevalarida turlicha nomlanadi: Nav. **yəshinməchɔg‘**, Surxan. shevasida **djashimməchaq**// **dashiməchaq**; Toshk.v. **bekъnməchɔq**//**aravon**.

Djɣppətax – juftmi toq. Bolalar o‘yinining bir turi. Bu o‘yinda bitta bola qo‘lida bir necha danakni yashiradi va sherigiga **djɣppətax** deydi. Shunda u juft yoki toq deydi. Agar to‘g‘ri aytsa, shu miqdorda danak oladi yoki bir ochkoga ega bo‘ladi. Bu o‘yin turi o‘zbek tilli hududlarda keng tarqalgan.

[1] Jabborov I. Ko‘rsatilgan asar. – B. 220.

Тыхmaq – bolalar o‘yini. Bolalar ikki tomonga 10 tadan bo‘lib yerga qator o‘tirib oladi, keyin boshlovchi biron narsani yashiradi va ikki guruhning boshlig‘i uni topish kerak. Qaysi tomon yutib chiqsa, bir balga ega bo‘ladi va navbat bilan do‘ppini oyog‘ining uchiga ilib yotib otadi. Do‘ppini ikkinchi guruh bolalari tutib olishi kerak bo‘ladi. Tutolmasa, o‘yin yana takrorlanadi, oxiri uzoq masofada qolgan guruh bolalari "zγv-zγv-v" deb ovoz chiqarib, marraga yetib kelishlari kerak. Ovoz uzilsa, yutqazgan hisoblanadi. Bolalar o‘yinining bu turi ham keng tarqalgan.

Hədursə – bir yog‘ochni ikkinchi yog‘och ustiga ko‘ndalang qo‘yib (plyus tarzida), ikki uchiga ikki bola minib o‘ynaydigan bolalar o‘yini. Samar., Nav. **hədursa//hadirsa**; Jiz. **halakachkə**. Surxan. **hədursə**.

Həlg‘nchək – daraxt shoxiga yoki uyning xarisiga arqon bog‘lab, uchib o‘ynaladigan bolalar o‘yini. Nav. **halgunchək**; Samar. **hangəlchək**; Toshk. **ərg‘ымchɔg‘**; And. **həyъnchək**; Farg‘. **hayənchək**; Jiz. **halgənchay**; Surxan.ning ba'zi shevalarida **əlgənchək** deb belanchakka aytiladi**.**

Beshtosh – qadim-qadimdan yosh qizlar o‘rtasida o‘ynaladi. Hozir ham ko‘pgina hududlarda bu o‘yin turi o‘ynaladi va avvalgi nomi bilan saqlangan.

Katta yoshdagi kishilar uchun mo‘ljallangan o‘yinlar: To‘yda o‘tkaziladigan o‘yin turlari va ular bilan bog‘liq nomlar ham qadimiy bo‘lib, ular hozir ham davom etib kelmoqda. Surxan. **kөpkəri** – uloq chopish, **alьish//chavkъ** – to‘yda o‘tkaziladigan milliy kurash, **tɔbɔq** – ko‘pkari va kurashda qo‘yiladigan sovrin (mol, pul, materiallar), **qɔrəlъk** – ko‘pkarining eng mushkuli, eng qiyini. O‘rtaga tashlangan uloqni kimki belgilangan chuqurga olib kelib tashlasa, ikkita qo‘y, ellik so‘m pul, bir to‘n oladi. **sɔvьn** – to‘yga qarindosh-urug‘ tomonidan olib kelinadigan to‘yona, ko‘proq qo‘y, echki, qora mol[1]. Navoiy viloyatida ko‘pkari o‘yinida o‘rtaga tashlangan qo‘y yoki echki **sɔlm** deyiladi. Musobaqada sovrinlar qo‘yilib, g‘olib bo‘lganlarga beriladi. To‘y marosimlarida o‘tkaziladigan o‘yin turlari qadimiy bo‘lib, xalq madaniyatini ifodalaydi.

Urf-odatlar kishilarning turmushiga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi, xatti-harakat, ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari, ko‘nikmalari. Masalan, kichiklarning kattalarga salom berishi, erta turib uy-hovlini tartibga keltirib qo‘yish, mehmonlarga alohida hurmatda bo‘lish, bayram arafasida kasal, ojiz, qiynalganlar holidan xabar olish, yordam lozim bo‘lganlarnikiga hasharga borish kabilar o‘zbek xalqining eng yaxshi milliy urf-odatlari hisoblangan.

Agar an'ana ijtimoiy hayot, mehnat, madaniyatning hamma sohalariga xos bo‘lib, hodisalarning juda keng doirasini qamrab olsa, odat ijtimoiy hayotning ma'lum sohalarida, ya'ni kishilar turmushi, mehnati, xulq-atvori, muloqoti va oilaviy munosabatlarida ko‘proq mavjud bo‘ladi.

Jumladan, ma'lum bir marosimlar o‘tkazishdan oldin xonadonlarni tartibga solish maqsadida supurgi uy-ro‘zg‘or buyumidan foydalanib, tozalanadi. Supurgi bilan bog‘liq bir qancha irim-sirimlar ham mavjud: *Supurgini tik qilib qo‘ysa, qiblaga qaratsa; Mehmon ketgandan keyin orqasidan supurilsa; Qalampir, supurgi kabi narsalarni qo‘ldan qo‘lga bersa* biror ko‘ngilsizlik bo‘lishi mumkin deb o‘ylashgan.

Adabiy tildagi **supurgi** so‘zining **shuutki, shibirtki, shibirtqi, shipirgi** kabi yasama ko‘rinishlari mavjud. **Shuutki** so‘zi Xor., Qoraqal., Nav. Konimex tumanining Chordara, Shodibek, Qushqochdi; Xatirchi tumanining Oltinsoy, Xonaqa, Galabek;

[1] Fayziyeva X. O‘zbek tili Boysun-Sho‘rchi guruh shevalarining lug‘at xususiyatlari. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Termiz, 2022. – 125 b.

Navbahor tumanining Ijand, Qirqariq, Qarajon shevalarida, Jiz., Sird., Toshk.: **shъbъtkъ**, Bux. **jor⊃p*** uchraydi. **Shibirtki** fonetik varianti Samar., Nav. Navbahor tumanining Ijand, Qizilrabot, Qirqariq, Keskanterak, Qarajon; Nurota tumanining Cho'ya, Mushkan shevalarida keng ishlatiladi. **Shibirtqi** so'zi Nav. Xatirchi tumanining Langar QFY hududidagi Sayyod, Toroma, Qozoq, Qrim; Nurota tumanining Soykechar, Baroq, Chuya, Jarma qishloqlari shevalarida, Samar. Qo'shrabot tumani shevalarida keng qo'llaniladi. **Shipirgi** varianti Nav. Qiziltepa tumanining Revatun, Robot, Arabon shevalarida uchraydi.



№ 2-xarita. Supurgi leksemasining areal tarqalishi

Xulosa qilib aytganda, milliy qadriyatlarni shakllantiradigan asosiy mezonlar millatning tarixi, urf-odati, an'anasi, hayotiy qadriyatlari bilan birga ma'naviy merosi, madaniy boyliklari va ko'hna tarixiy yodgorliklaridir. Urf-odatlar sifatida umumxalq tomonidan qabul qilingan tartib-qoida; rasm-rusum, tamoyillar jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olib, ularda o'z ifodasini topadi. An'analar qadimdan insoniyat hayoti, turmushi, mehnati va ibratli hayot saboqlari bo'lib, avloddan avlodga, o'tmishdan kelajakka meros bo'lib qoladigan, barcha tadbirlarda namoyon bo'ladigan ijtimoiy faoliyat mahsulidir. Marosimlar esa an'analar va urf-odatlarning amaliy ko'rinishidir. An'analar va urf-odatlar milliy, madaniy, maishiy, ijtimoiy-siyosiy va diniy bo'lib, milliy qadriyatlarning ajralmas qismidir. Chunki har qanday urf-odat, udum, rasm-rusum, marosim va an'analar milliy qadriyatlar negizida shakllanadi va milliy vijdon, milliy ruh, milliy xulq, milliy odob-axloq mevasi sifatida uni yaratgan zukko xalq tarbiyasining asosini tashkil etadi. Jamiyatni boshqarishning ma'naviy omili sifatida yoshlar qalbida mehr-muhabbatli bo'lish, oila va Vatanni sevish, ajdodlar merosidan bahra olish va hayotni qadrlash kabi tuyg'ularni shakllantiradi. Milliy qadriyatlar har bir xalqning oltin merosi hisoblanadi. Yuqoridagi milliy qadriyat, urf-odatlarga xos lakunalar ma'naviy boylik, hurmat, mehr-oqibat, vatanga va oilaga muhabbat, ajdodlar tajribasi, hayotiy qadriyatlar, ma'naviy meros timsolidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Юдахин К. К. Вклад в таджиковедение. Труды института языка и литературы АН Кирг. ССР, вып. VI, Фрунзе, 1956. – С. 159.

2. Jabborov I. O‘zbek xalq etnografiyasi. – B. 220
3. Fayziyeva X. O‘zbek tili Boysun-Sho‘rchi guruh shevalarining lug‘at xususiyatlari. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Termiz, 2022. – 125 b.

XORIJIY TILLARNI O‘RGANISHDA ZAMONAVIY VA SAMARALI METODIKA VA STRATEGIYALAR TAHLILI

Sharipova Bahora Odiljonovna,
Navoiy Davlat Universiteti o‘qituvchi,
Adilova Sarvinoz Habibullo qizi,
Navoiy Davlat Universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola chet tilini o‘rganish jarayonida qo‘llaniladigan strategiyalar va muhim metodlarlarni tahlil qiladi.Tilni o‘rganishdagi qiyinchilik va muammolarni ko‘rib chiqadi. Shuningdek, so‘z yodlash, grammatika, eshitish, interaktiv dasturlar va elektron o‘rganish vositalaridan foydalanish va amaliyot kabi usullar yoritiladi.

Annotation: This article analyzes the strategies and important methods applied in the process of learning a foreign language.It explores the difficulties and problems encountered during learning language. As well as,it includes methods such as vocabluary acquisition,grammar,listening,the use of interactive and electron programs and practical exercises.This article is useful for learners of all ages and students,helping them overcome weaknesses in the foriegn language learning process.

Key words: Practise,multimedia tools,interactive learning, strategy, methods, language learning.

Kalit so‘zlar: Amaliyot,multimedia vositalari,interaktiv o‘rganish, strategiya, metodlar,til o‘rganish.

Zamonaviy dunyoda chet tillarini o‘rganish nafaqat aloqa vositasi, balki dunyoqarashni kengaytirish, turli madaniyatlar bilan tanishish,shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyat va yangi imkoniyatlarga yo‘l ochadi. Ingliz, rus, nemis, fransuz kabi tillarni bilish o‘quvchilarga ilmiy manbalardan foydalanish, xorijiy oliygohlarda o‘qish, xalqaro loyihalarda qatnashish imkonini beradi. Ammo ko‘pchilik uchun xorijiy tillarni o‘rganish uzoq muddatli va murakkab jarayon bo‘lib tuyuladi.Shu sababli samarali usul va strategiyalarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.Ushbu maqolada ham aynan til o‘rganish jarayonidagi asosiy metodlar,interaktiv vositalar va amaliy yondashuvlar tahlil qilinadi.

Til o‘rganishning samarali bo‘lishi uchun eng avvalo aniq va realistik maqsad qo‘yish kerakligi juda muhim. Til o‘rganish nazariyotchisi D. Brown fikricha, til o‘rganish shaxsiy ehtiyoj va motivatsiyaga asoslanganida natijasi yuqori bo‘ladi (Brown, 2000). Masalan, ish uchun ingliz tilini o‘rganayotgan kishi professional so‘z boyligi va yozishmalarga e’tibor qaratishi lozim. Sayohat uchun esa sayohatga oid so‘z boyligining uzi kifoya. Ba’zan , ingliz tilini o‘rganuvchilar uchun darajani aniqlovchi turli xil sertifikatlar va ularga berilgan imkoniyatlar katta motivatsiya bo‘lib xizmat qiladi.

Til o‘rganish sohasida taniqli olim Stephen Krashen tomonidan ilgari surilgan “Input Hypothesis” nazariyasiga ko‘ra, til o‘rganuvchi o‘z bilim darajasidan biroz yuqori darajadagi (i+1) materialni eshitib va tushunib borsa, u samarali o‘rganadi (Krashen, 1982). Shu sababli biz uchun qiziqarli bo‘lgan filmlarimizni va podkastlarini

hech ikkilanmay original tilda ko‘rish va eshitish o‘rganish uchun foydalidir. Albatta siz tushunmagan, bilmagan yangi so‘zlaringizni yozib borishingiz va albatta ulaning ma'nolari bilan tanishishingiz lozim. Bu til o‘rganuvchilar uchun juda yoqimli va qiziqarli strategiyalardan biri.

So‘zlarni alohida yodlash emas, balki matn ichida qo‘llash orqali ularning ma'nosi yaxshiroq o‘zlashtiriladi. I.S.P. Nation o‘zining "Learning Vocabulary in Another Language" (Nation, I. S. P. 2001) asarida so‘z yodlashda kontekst asosidagi yondashuvni taklif etadi. Bu usul yordamida o‘rganuvchi so‘zning grammatik shakli, talaffuzi va foydalanish uslubini bir vaqtning o‘zida o‘zlashtiradi.

Zamonaviy texnologiyalar va gadjetlar til o‘rganish jarayonini ancha soddalashtirdi. Memrise, Duolingo, Quizlet kabi ilovalar foydalanuvchiga o‘yinga asoslangan, qiziqarli va takroriy mashqlar orqali so‘z boyligini oshirish imkonini beradi. Cambridge English portali esa bepul testlar, topshiriqlar va dars rejalarini taqdim etadi. Shu bilan birga, YouTube kanallari orqali tilning eshitish va talaffuz qismlarini mustahkamlashni o‘rganish mumkin. Bunda eng eshtishni yaxshilovchi eng kuchli metodlardan biri "shadowing" uslubidir. Bu usulning natijasini birinchi martadanoq sezish qiyin emas.

Yozma va og‘zaki nutqni rivojlantirish uchun muntazam ravishda insho yozish,turli forumlar va suhbatlarda ishtirok etish, so‘zlashuv klublarida qatnashish ham muhim rol o‘ynaydi. Tilshunos A. Harmerning fikricha, til o‘rganish jarayonida faol ishtirok va interaktiv mashg‘ulotlar orqali til "yashab ketadi" (Harmer, 2007).

Xulosa qilib aytganda, chet tilini o‘rganish samaradorligi to‘g‘ri tanlangan metod va strategiyalarga bevosita bir biri bilan bog‘liq. Maqsadga yo‘naltirilgan yondashuv, Krashen nazariyasiga asoslangan kirish materiallari, kontekstual so‘z o‘rganish, multimedia vositalaridan foydalanish va muntazam amaliyot orqali til o‘rganish-jarayonni osonlashtiradi. Ushbu maqolada bayon etilgan usullar turli xil yoshdagi o‘rganuvchilar uchun amaliy qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brown, H. D. (2000). Principles of Language Learning and Teaching. Longman.
2. Duolingo Blog. (2023). Language learning tips. https://blog.duolingo.com
3. Harmer, J. (2007). The Practice of English Language Teaching. Pearson Education.
4. Krashen, S. D. (1982). Principles and Practice in Second Language Acquisition. Pergamon Press.
5. Nation, I. S. P. (2001). Learning Vocabulary in Another Language. Cambridge University Press.

Internet resources

1.BBC Learning English. Learning strategies. https://www.bbc.co.uk/learningenglish.
2.Cambridge English. (2023). Learning Resources. https://www.cambridgeenglish.org

ABBREVIATIONS AND ACRONYMS IN ENGLISH

Student: Ochilova Shokhsanam,
Scientific advisor: M.T.Gapparova

Abstract. In English language there are shortened form of words and they are called abbreviations and acronyms. They provide us with some profits, including saving time and space in writing while maintaining clarity. Furthermore, we learn different types of abbreviations and acronyms according their field, the way how they are pronounced.

Аннотация. В английском языке существуют сокращенные формы слов, которые называются аббревиатурами и акронимами. Они приносят нам определенные преимущества, включая экономию времени и места при написании, сохраняя при этом ясность. Кроме того, мы изучаем различные типы аббревиатур и акронимов в зависимости от их области применения, а также от того, как они произносятся.

Key words: abbreviation, acronym, clipping, individual, capital letter, clarity, shortened form, professional abbreviations.

Ключевые слова: аббревиатура, акроним, отсечение, индивидуальный, заглавная буква, ясность, сокращенная форма, профессиональные аббревиатуры.

Abbreviations pronounced as individual letters

An abbreviation is a shortened form of a word or phrase. They consist of initials and most of them are pronounced as individual letters. In fact, when these abbreviations are stressed words in the sentence, the stress falls on the last letter.

Abbreviations for groups or organisations:

BBC*- British Broadcasting Corporation*

CIA*- Central Intelligence Agency (US government agency collecting information about other countries)*

WHO*- World Health Organization*

Types of Abbreviations

1. Standard Abbreviations

These are commonly accepted shortened versions of words.

Examples: ***Mr.*** *– Mister,* ***Dr****. – Doctor,* ***Jan.*** *– January,* ***St.*** *– Street*

2. Informal Abbreviations

Often used in casual writing, texting, or note-taking.

Examples: ***info*** *– information,* ***govt*** *– government,* ***dept.*** *– department*

3. Business and Professional Abbreviations

Used in business communication, reports, and official documents.

Examples: ***Ltd.*** *– Limited (company),* ***Inc****. – Incorporated,* ***Co.*** *– Company*

4. Medical Abbreviations

Commonly used in healthcare and medical fields.

Examples: ***BP*** *– Blood Pressure,* ***HR*** *– Heart Rate,* ***Rx*** *– Prescription*

5. Scientific and Technical Abbreviations

Used in scientific fields and technology.

Examples: ***km*** *– Kilometer,* ***mg*** *– Milligram,* ***DNA*** *– Deoxyribonucleic Acid*

6. Internet and Texting Abbreviations

Used in online communication and texting.

Examples: ***LOL*** *– Laugh Out Loud,* ***BRB*** *– Be Right Back,* ***FAQ*** *– Frequently Asked Questions.*

Abbreviations pronounced as a words

An acronym is a type of abbreviation formed from the initial letters of a phrase. It is usually pronounced as a single word rather than letter by letter.

Acronyms are commonly used in business, science, technology, and everyday language to simplify long phrases.

Types of Acronyms

1. True Acronyms

These are acronyms pronounced as a word.

Examples:

NASA *– National Aeronautics and Space Administration*
FIFA *– Fédération Internationale de Football Association*
UNESCO *– United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization*

2. Hybrid Acronyms

Some acronyms include both initials and full words.

Examples: ***JPEG*** *– Joint Photographic Experts Group,* ***Wi-Fi*** *– Wireless Fidelity,*

3. Backronyms

These are acronyms created after the phrase has been established, often as a mnemonic or marketing tool.

Examples: ***SOS*** *– (Originally not an acronym, but later interpreted as "Save Our Souls"),* ***ZIP*** *(Code) – Zone Improvement Plan*

4. Acronyms in Technology

Used in computing and technology fields.

Examples: ***HTML*** *– HyperText Markup Language,* ***PDF*** *– Portable Document Format,* ***AI*** *– Artificial Intelligence*

5. Acronyms in Business and Organizations

Commonly used in corporate and government sectors.

Examples: ***CEO*** *– Chief Executive Officer,* ***HR*** *– Human Resources,* ***UN*** *– United Nations.*

Some acronyms have become so normal as word that people do not think of them as abbreviations any longer, and so they are not written in capital letters.

Exaples: ***laser, radar, scuba, sonar.***

REFERENCES

1. Michael McCarthy Felicity O'Dell,(2017) English vocabulary in use, p.161-163
2. https://www.merriam-webster.com
3. Cambridge Dictionary – https://dictionary.cambridge.org
4. Acronym Finder – https://www.acronymfinder.com
5. Collins English Dictionary – https://www.collinsdictionary.com

THE ROLE OF SYNONYMS IN LEARNING FOREIGN LANGUAGES

Student: R.M.Muhammadova,
Scientific adviser: M.T.Gapparova

Annotation: This article discusses the significant role of synonyms in the process of learning foreign languages. It emphasizes how mastering synonyms enhances vocabulary, comprehension, writing, and speaking skills by providing learners with multiple ways to express similar concepts. By exploring the nuances of synonym usage, the article explains how learners can improve fluency, adapt to different contexts, and avoid repetitive language. Additionally, the article highlights how synonyms can refine cultural understanding by guiding learners through socially and regionally appropriate language choices. It also addresses the challenges learners face when dealing with synonyms, such as contextual appropriateness and regional variations, and offers insight into how advanced learners can distinguish themselves by mastering these subtle differences. Overall, the article underscores the importance of synonyms in achieving proficiency and effective communication in a foreign language.

Аннотация. В данной статье рассматривается важная роль синонимов в процессе изучения иностранных языков. Подчеркивается, как освоение синонимов способствует расширению словарного запаса, улучшению понимания,

навыков письма и говорения, предоставляя учащимся различные способы выражения схожих понятий. Статья объясняет, как использование синонимов помогает повысить беглость речи, адаптироваться к различным контекстам и избегать повторений. Также акцентируется внимание на том, как синонимы могут углубить культурное понимание, помогая учащимся ориентироваться в социальных и региональных особенностях языка. В статье рассматриваются проблемы, с которыми сталкиваются изучающие язык при работе с синонимами, такие как контекстуальная уместность и региональные различия, а также дается представление о том, как продвинутые ученики могут выделяться, освоив эти тонкие различия. В целом, статья подчеркивает важность синонимов для достижения высокого уровня владения языком и эффективной коммуникации.

Key words: synonyms, foreign language learning, vocabulary expansion, language fluency, comprehension, writing skills, communication, contextual usage, cultural understanding, regional variations, language proficiency, language nuances.

Ключевые слова: синонимы, изучение иностранных языков, расширение словарного запаса, беглость речи, понимание, навыки письма, коммуникация, контекстуальное использование, культурное понимание, региональные различия, уровень владения языком, языковые нюансы

Learning a foreign language is an enriching and often challenging experience. One of the many facets of language learning that can significantly enhance comprehension and fluency is the mastery of synonyms. Synonyms, which are words or expressions that have the same or similar meanings, are a powerful tool in both understanding and communicating effectively in a new language. This article explores the role of synonyms in foreign language acquisition and how they can facilitate learning, enhance vocabulary, and improve communication skills.

Understanding Synonyms in Language Learning

In the simplest terms, synonyms are different words that convey the same or nearly the same meaning. For example, in English, "happy" and "joyful" are synonyms, as both express a positive emotional state. Similarly, in any language, synonyms allow speakers to convey their thoughts in a variety of ways, offering greater flexibility in communication. When learning a new language, understanding synonyms becomes essential. Instead of relying on a single word to express a concept, learners can use various alternatives to refine their meaning, express nuances, and avoid repetition. This linguistic richness enables learners to sound more natural and fluent as they expand their vocabulary and adapt to different contexts.

Expanding Vocabulary and Fluency

A significant challenge for language learners is building and retaining a wide vocabulary. While memorizing a long list of words may help in the short term, true mastery of a language comes when a learner can effortlessly recall and use different synonyms. Each synonym provides subtle variations in meaning, tone, and usage, which opens up a range of expressions and improves conversational skills.

For instance, in French, the words joyeux, content, and heureux all translate to "happy" in English. However, they each carry slightly different connotations and are used in different contexts. Joyeux might be used to describe festive or celebratory happiness, while content reflects a more general, peaceful state of happiness, and heureux can imply a deeper, more profound sense of contentment. Learning these nuances helps learners not only understand the language better but also communicate more precisely and appropriately.

Enhancing Comprehension

Synonyms also play a crucial role in improving listening and reading comprehension. In any language, native speakers often use a variety of words to convey similar meanings, which can confuse learners if they are unfamiliar with the vocabulary. By learning synonyms, language learners can better understand conversations, books, movies, and other forms of media.

For example, a learner of Spanish might encounter multiple ways to say "big," such as grande, enorme, or gigante. Understanding these synonyms allows the learner to recognize that different words can be used in different contexts without losing the overall meaning. This knowledge of synonyms gives learners the ability to follow a conversation more fluidly, even when the speaker uses diverse vocabulary.

Improving Writing and Expression

When it comes to writing in a foreign language, the use of synonyms can greatly enhance creativity and expression. Repeating the same word throughout a piece of writing can make it sound monotonous, while the careful selection of synonyms adds variety and makes the writing more engaging. This skill is especially important for learners aiming to write essays, stories, or even social media posts in a new language.

For example, instead of repeatedly using the word important, a learner could replace it with synonyms like crucial, vital, significant, or essential. This not only makes the writing more dynamic but also gives the writer more control over the tone and emphasis of their message.

Strengthening Cultural Understanding

Synonyms are also key to understanding the cultural context behind language. In many languages, certain synonyms might be more appropriate in particular cultural or social settings. A learner who understands the subtleties of word choices is better equipped to interact with native speakers and demonstrate respect for cultural norms.

Synonyms and Language Proficiency Levels

For beginners, synonyms may seem overwhelming, as they involve understanding not just the words themselves but also their different contexts. However, once learners move beyond the basics, recognizing and using synonyms can lead to rapid language growth. Advanced learners often find that their mastery of synonyms distinguishes them as more fluent speakers.

For example, a beginner might only know how to say "good" in Spanish as bueno, but an advanced learner would have a deeper understanding of words like excelente, maravilloso, and adecuado, each with its own nuance depending on the situation. As learners progress, their ability to switch between synonyms based on context and tone will define their language proficiency.

The Challenges of Learning Synonyms

While the use of synonyms can significantly benefit language learning, it does come with challenges. Not all synonyms are interchangeable in every context, and sometimes one word may be more appropriate than another depending on the tone, register, or situation. Additionally, regional variations in language can lead to differences in synonym usage, as some synonyms may be more commonly used in certain countries or regions.

For example, in English, both color and colour are correct, but one is used in American English and the other in British English. Similarly, in Arabic, various dialects use different synonyms for the same concept, and learners need to understand these regional distinctions.

Conclusion

Synonyms are an invaluable tool in learning foreign languages. They not only enhance vocabulary and fluency but also improve listening and reading comprehension, writing skills, and cultural understanding. By mastering synonyms, language learners can express themselves more precisely, confidently, and naturally. While there are challenges in understanding the subtle differences between synonyms, the effort is well worth it for those seeking to truly excel in a foreign language.

As learners continue to expand their vocabulary and refine their understanding of synonyms, they will find that these linguistic variations open up a world of possibilities in communication, making their language journey more dynamic, nuanced, and enjoyable

References

1. Laufer, B., & Goldstein, Z. (2004). Vocabulary knowledge and lexical inferencing: The effect of synonymy. Language Learning, 54(3), 399-423.
2. Nation, I. S. P. (2001). Learning vocabulary in another language. Cambridge University Press.
3. McCarthy, M., & O'Dell, F. (2008). English Vocabulary in Use: Advanced. Cambridge University Press.
4. Schmitt, N. (2000). Vocabulary in language teaching. Cambridge University Press.

INGLIZ TILINI O'QITISH TAMOYILLARI VA TEXNOLOGIYALARI

Xayrullayeva Nilufarxon A'zamjon qizi,
Andijon davlat pedagogika institute tayanch doktaranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilini o'qitish jarayonida talabalarda muloqot kompetentligini rivojlantirish, kompetensiyasi hamda texnologik yondashuvlar asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish, ilg'or xorijiy va milliy tajribalar asosida bo'lajak mutaxassislarning Ingliz tilida kommunikativ tayyorgarligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar. Nutq, til me'yorlari, muloqot, hamkorlikda ishlash, ta'lim metodlari, texnologiya.

Ingliz tilini o'qitish jarayonida talabalarda muloqot kompetentligini rivojlantirisho'quv faoliyatidagi bilishga oid qiziqish yetakchi motiv bilan izohlanadi. Bilishga oid qiziqish "uyg'otuvchi" kuchga ega bo'lib, u talabaning nafaqat bilish ehtiyojiga balki bo'lajak kasbi uchun ham o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazadi. Ilmiy-metodik manbalar tahlili ko'rsatishicha, chet til ta'limi bo'yicha bir qancha modellar ishlab chiqilgan. Masalan, L.Ye.Alekseyeva xalqaro munosabatlar fakulteti talabalarini chet tilda kasbiy-nutqiy yo'naltirilgan muloqotni o'rgatish modelini taklif qiladi[1].

Olima har bir mashg'ulot yoki mavzuga ko'ra, ma'lum blokka birlashtirilgan mashg'ulotlar turkumi modeli tanishuv, mashq qilish va nutqiy amaliyot bosqichlaridan iborat, degan fikrni olg'a suradi. Har bir bosqichni ta'lim bosqichiga ko'ra kichikroq bo'g'inlarini ajratadi. Bu bo'g'inlarning modelga kiritilishi nutqiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishni mashq qilishni ta'minlaydi. Har bir bo'g'in, o'z navbatida, muayyan talab bilan birlashtirilgan qator topshiriqlarni bajarishga qaratilgan.Uni asoslashda tizimli yondashuv qoidalari, modulli va muammoli ta'limning asosiy metodlaridan foydalaniladi. Ushbu modelda maqsadli, shaxsiy-faoliyatli, protsessual-kommunikativ, boshqaruvchilik, baholash- natijali komponentlar farqlanadi.Z.I.Konnova tomonidan ishlab chiqilgan ko'p bosqichli ta'limda

mutaxassisning chet tildagi kasbiy-nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining nazariy modeliga [174]alohida e'tibor qaratilgan. Ta'limning barcha (bakalavr – mutaxassis-magistr) bosqichlarini o‘z ichiga olgan va filologiya yo‘nalishi talabalarida ingliz tilidan muloqot madaniyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan uzluksiz til tayyorgarligining yaxlit tizimi yaratilgan.

Oliy ta'lim muassasalari filologiya yo‘nalishi talabalarida ingliz tilidan muloqot madaniyatini rivojlantirishga yo‘naltirishda tavsiya etilayotgan model nazariy bilim va amaliy pedagogik faoliyatning o‘zaro aloqador va uzviy bir butun infratuzilmasini tashkil etishi aniqlandi.

Bir qator tadqiqotchilar o‘z ilmiy izlanishlari davomida til o‘zlashtirishda shakl jihatdan turli, mazmunan bir hil bo‘lgan mustaqil ta'limga alohida urg‘u berishadi, ya'ni: "talabalarning belgilangan topshiriqlar bo‘yicha, o‘qituvchining metodik rahbarligida, ammo uning bevosita ishtirokisiz amalga oshiriluvchi avvaldan rejalashtirilgan ta'limiy faoliyati" deya izoh berishgan. Tadqiqot ishimiz doirasida biz ingliz tilini o‘rganishda mustaqil ta'lim tushunchasini quyidagicha talqin etdik: mustaqil ta'lim – bu maxsus ajratilgan vaqtda tashkil etilgan, o‘qituvchi tomonidan belgilangan didaktik maqsadlar (yangi ma'lumotlarni izlash, ularni anglash, bilim olish, avvalgilari bilan umumlashtirish, tizimlashtirish va mustahkamlash, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish hamda rivojlantirish)ga amalga oshiriladigan tizimli tashkil etilganta'limiy faoliyatdir. Talabalar bunda mashg‘ulot va tajribalar bilan shug‘ullanishni afzal ko‘radi. U bajarib ko‘rib o‘rganish (learn by doing) va amaliy yondashuv tarafdori hisoblanadi Bu toifaga mansub talaba darslik, jurnal nashrlari, internetdagi maqolalar, bloglar va boshqa yozma matn shaklidagi manbalarni afzal ko‘radi.Tadqiqot ishimiz davomida o‘rganilgan o‘quv-normativ hujjatlar hamda mazkur yo‘nalishda izlanish olib borgan tadqiqotchi olimlarni fikrlariga tayangan holda talabalar tomonidan bajariladigan mustaqil ishlarga quyidagi umumiy talablar aniqlandi: bir nafar talaba tomonidan shaxsan bajarilgan ish bo‘lishi yoki jamoaviy bajarilgan ishning mustaqil ravishda talaba tomonidan amalga oshirilgan qismi bo‘lishi; tasdiqlangan o‘quv rejasi asosida o‘rganilayotgan fan yoki filologiya yo‘nalishi talabalarida ingliz tilidan muloqot madaniyatini rivojlantirishga tegishli amaliy faoliyat sohasining dolzarb muammolarini o‘rganish, tahlil qilish va ochib berishga yo‘naltirilgan yakunlangan to‘liq ish yoki ishning to‘liq yakunlangan bosqichi bo‘lishi; talabaning tadqiq etilayotgan masalalarda yetarlicha savodxonligini va kompetentligini to‘liq namoyish etishi; jarayonning ta'limiy, ilmiy va amaliy yo‘nalishlardan biri yoki bir nechtasiga qaratilgan bo‘lishi, hozirgi kunda muhim, ahamiyatga molik bo‘lishi; yangilikning ma'lum elementlarini o‘z ichiga olishi, ya'ni faoliyat so‘ngida muayyan talablarga javob beruvchi natijaga erishilganini namoyon etishi. O‘z navbatida, talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishga qo‘yilayotgan talablar asosida tadqiqot ishimizda talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishning vositasi sifatida qaralayotgan mediaresurslarga qo‘yiladigan talablarni tadqiq etishni maqsadga muvofiq deb topdik. Chunki talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishning vositasi sifatida qaralayotgan mediaresurslarini yaratish jarayonida unga qo‘yilayotgan talablar hamda talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish jarayoniga qo‘yilayotgan talablarni inobatga olmasdan tashkil etish nafaqat ishning samaradorligini pasaytirishi, balki muvaffaqiyatsizlikga olib kelishi mumkin.

Foydalangan adabiyotlar

1. Breen, M. 1984. 'Process syllabuses for the language classroom' in C. Brumfit, (ed.). General English Syllabus Design—Curriculum and Syllabus Design for the

General English Classroom (EFL Documents 118). Oxford: Pergamon Press for the British Council.
2. Brinton, D., A.Snow, and M. Wesche. 1989. Content-based Second Language Instruction. Boston, MA: Heinle & Heinle.
3. Breen, M. 1984. 'Process syllabuses for the language classroom' in C. Brumfit, (ed.). General English Syllabus Design—Curriculum and Syllabus Design for the General English Classroom (EFL Documents 118). Oxford: Pergamon Press for the British Council.
4. Cabello, F. (2002). Total Physical Response in First Year English (2nd ed.). Los Gatos, CA: Sky Oaks Productions.
5. Cameron, L. 2003. 'Challenges for ELT from the expansion in teaching children.' ELT Journal 57/2: 105–12.
6. California State Department of Education. 2010. Improving Education for English Learners: Research-based Approaches. Sacramento, CA: CDE Press.
7. Christopherson, J. (2003). A Second Language Classroom That Works! Bogotá: Prolinguistica Corporation.

METHOD AND MOTIVATIONAL BALANCING: CRUCIAL ELEMENTS OF CONTEMPORARY INSTRUCTION

Istamova Sabina,
The students of Navoi state university

Abstract. The article discusses of the effective instruction in today`s changing educational environment depends not only on the application of pedagogical techniques but also no striking a delcate balance between methodological accuracy and motivational resonance. Teachers must balance the demands of formal instruction and emotional angagement as students grow more varied and dynamic. According to this article, the relationship between motivational aligment and instructional technique is fundamental rather than supplemental. The debate reframes teaching as a responsive, adaptive act by looking at how methodological frameworks can either encourage or inhibit learner motivation. Therefore, modern teaching requires not only knowledge but also sensitivity, where the teacher takes no the roles of both architect and empath, creating demanding and meaningful learning setting.

Key words: instructional method, motivation, balance, pedagogy, engagement, adaptability, contemporary education.

Annotatsiya. Bugungi o'zgaruvchan ta'lim muhitida samarali ta'lim berish nafaqat pedagogik usullarni qo'llashga, balki metodik aniqlik va motivatsion rezonans o'rtasidagi nozik muvozanatni saqlashga ham bog'liq. O'qituvchilar rasmiy ta`lim va hissiy jalb qilish talablarini muvozanatlashi kerak, chunki talablar yanada xilma-xil va dinamik o'sib boradi. Ushbu maqolaga ko'ra, motivatsion moslashuv va o'qitish texnikasi o'rtasidagi munosabatlar qo'shimcha emas, balki asosiy hisoblanadi. Munozara uslubiy asoslar o'quvchilarning motivatsiyasini qanday rag'bantlantirishi yoki inhibe qilishi mumkinligini ko'rib chiqish orqali o'qitishni sezgir, moslashuvchan harakat sifatida qayta ko'rib chiqadi. Shu sababli, zamonaviy o'qitish nafaqat bilimni, balki sezgirlikni ham talab qiladi, bunda o'qituvchi me`mor va empatiya rollarini o'z zimmasiga oladi, talabchan va mazmunli o'quv sharoitlarini yaratadi.

Kalit so'zlar: ta'lim usuli, motivatsiya, balans, pedagogika, ishtirok etish, moslashuvchanlik , zamonaviy ta`lim.

Аннотация. Эффективное обучение в сегондяшней среде зависит не только от применения педагогичиских методов, но и от достижения тонкого баланса между методологической точностью и мотивационным резонансом. Учителя должны сбалансировать требования формального обучения и замоциональной вовлеченности, поскольку ученики становятся более разнообразными и динамичными. Согласно этой статьеб связь между мотивациоонным выравниванием и методикой обучения является основополагающей, а не дополнительной. Дебаты переосмысливают обучение как отзывчивый, адаптивный акт, зассматривая, как методологические рамки могут либо поощрять, либо подавлять мотивацию учащихся. Поэтому современное обучение требует не только знаний, но и чувствительности, когда учитель берет на себя роль как архитектора, так и эмпата, создавая требовательные и значимые учибные условия.

Ключевые слова: метод обучения, мотивация, баланс, педагогика, вовлеченность, адаптивность, современное образование.

Introduction. With all of its difficulties, modern life frequently necessitates adjustments in the educational system. Since teaching is the most structured type of education, these changes are directly mirrored in it. Many aspects of teaching have had to be rethought in light of the necessary changes: the structure and choice of curricula and contents; the importance of individual goals and objectives; the choice, frequency and productivity of individual teaching forms and methods; the lack of initative and freedom on the part of students in the classroom; the work style of the teacher and the need to establish democratic relationships; the lack of motivation for learning; the disregard for universal values and the requirement that teaching staff undergo ongoing professional education training. In this regard, philosopher Roger Sessions said," Everything should be made as simple as possible, but not simpler", meaning that an effective method is based on calarity and simplicity".[1]

Understanding method in instruction

The term "Instructional method" describes the methodical strategies teachersbuse to promote learning. To encourage understanding and skill development, instructional strategies like lectures, inquiry-based learning and flipped classrooms are used. Presenting the information in an understandable and rational way is the aim.

Benjamin Franklin aptly noted:

"Tell me and I forget, teach me and I remember, involve me and I learn".- Benjamin Franklin

His remarks demostrate how teaaching approaches have changed over time, moving from passive delivery to active, collaborative learning techniques. A well-structured approach has several advantages, including:

-Concepts are presented in a clear and concise manner.

- Ability to adjust to different learning modalities.

- Possibilities for practical and participatory participation.

The role of motivation in learning

Student involvement and perseverance and driven by motivation. It might be extrinsic, like acknowledgment, grades or praise or intrinsic, like curiosity or personal interest.

"Education is not the filling of a pail, but the lighting of a fire". Commonly misattributed to William Butler Yeats

is frequently used to highlight how motivating education is. Bu according to research, this quotation is a paraphrasing of a passage from Plutarch`s essay "On listening", which was written in Moralia about the year 100 AD. In it, he state:

"For the mind does not require filling like a bottle, but rather, like wood, it only requires kindling to create in it an impulse to think independently and an ardent desire for the truth ".-Plutarch, Moralia, Loeb classical library,1927

This metaphor emphasizes the idea that education should not only impact facts but also inspire a desire to study more.

Students who are motivated:

-be proactive in your education

-overcome obstactes more skillfully

-show increased inventiveness and retention.

As John. C Maxwell also observed: Stressing the importance of connections and attitudes in the emotional aspect of motivation.

" Students do not care how much you know until they know much you care"

The interdependence of method and motivation

Instructional method and motivation are interdepent. A method without motivation can be rigid and unispiring, while motivation without method may lead to scattered and unproductive learning. Mark Van Doren succinctly stated: "The art of teaching is the art of assisting discovery".

The reflects an approach where method supports exploration and motivation fuels it.

Effective instruction requires educators to:

-Combine clear goals with inspiring delivery

-Use assessment not just to measure, but to motivate

-Provide autonomy, choise and relevance in learning tasks

Alfred Mercier noted: "What we learn with pleasure we never forget".

Emphasizing that the blend of structure and joy is at heart of balanced education.

Application in contemporary classrooms

Method and motivation are two things that modern pedagogies aim to combine:

Differentiated instruction modifies teaching strategies to accommodate a range of student demands and sustain motivation.

Active learning settings, including group projects or problem-solving exercises, stimulate students` minds and emotions.

Digital storytelling and gamification are two examples of technology- enhcanced training that makes learning engaging but structure."Success is the sum of small efforts, repeated day in and day out".-Robert Collier

Robert Collier placed a strong emphasis on effort and consistency in learning, which is similar to how sustained motivation and careful preparation produce long-lasting learning results.

Conclusion

In modern education, striking a balance between approach and incentive is crucial. While motivation gives pupils the drive to start the adventure, methods give them a route plan. Teachers are reminded that true teaching is both a science and an art by drawing on the insights of intellectuals such as Plutarch, Franklin and Roger. Education not only informs but also transforms when both components are present. The potential to convert passive instruction into significant long-lasting influense is present in this convergence.

Reference:
1. Roger Sessions: The New York Times Magazine, 1950.
2. Plutarch: Moralia, “ On listening”, c.100 AD. Loeb classical library, 1927.
3. Benjanin Franklin: The quote is commonly attributed to Franklin, though is exact origin remains uncertain.
4. John C. Maxwell: The 21 Irrefutable Laws of Leadership, Thomas Nelson, 1998. ISBN: 978-0785274315.
5. Mark Van Doren: Liberal Education, Beacon Press, 1943.
6. Alfred Mercier: The quote though specific soursing is limited.
7. Robert Collier: The Robert Collier Letter book, 1937.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O‘QITISHDA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

***Nuraddinova Nilufar Ergash qiz*,**
TDPU talabasi,
Bobomuxamedova Shoira Agzamdjan qizi,
TDPU, PhD., dotsent v.b.

Аннотация: Освещены цифровизация преподавания информатики и информационных технологий в общеобразовательных школах и использование современных мультимедийных технологий, а также использование программных средств Thinglink, Padlet при обучении информатике и информационным технологиям.

Ключевые слова: Мультимедиа, мультимедийные технологии, анимация, графика, аудио видео, Thinglink, Padlet.

Annotation: The digitalization of teaching computer science and information technology in secondary schools and the use of modern multimedia technologies are covered, and the use of the Thinglink, Padlet software tools in teaching computer science and information technology.

Keywords: Multimedia, multimedia technologies, animation, graphics, audio video, Thinglink, Padlet.

Hozirgi kunda dunyo miqyosida ta'lim tizimi jadal rivojlanib, yangilanishlarni talab qilmoqda. Ushbu yangilanishlar orasida o‘quv jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, informatika va axborot texnologiyalari fanlari o‘qitishda multimedia texnologiyalaridan foydalanish, o‘quvchilarga zamonaviy bilimlarni yetkazishning samarali usullaridan biri hisoblanadi. Multimedia texnologiyalari matn, rasm, ovoz, video va animatsiyalarni birlashtirib, o‘quv jarayonini yanada jonli va interaktiv qilish imkonini beradi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quvchilarning diqqatini jalb qilish, materiallarni yaxshiroq o‘zlashtirish va darslarni qiziqarli qilishga yordam beradi. Ushbu maqolada, umumiy o‘rta ta'lim maktablarida informatika va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda multimedia texnologiyalarining ahamiyati, afzalliklari va amaliy qo‘llanilishiga doir masalalar ko‘rib chiqiladi.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish, mavzuni oson va ravon tushunishiga imkon yaratadi. Ayniqsa, informatika va axborot texnologiyasi fanida mavzularni amaliy vositalar orqali yoritish muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada

11-sinf informatika fani doirasidagi “Matnli slayd va titr yaratish. Izoh va subtitr qo‘shish. Animatsiya va effekt qo‘shish” mavzusini multimedia texnologiyalari yordamida o‘qitish tajribasi yoritiladi.

Multimedia (inglizcha “multimedia” atamasi, lotincha “multum” – ko‘p, “medium” – vosita, muhit so‘zlaridan olingan) – texnik va dasturiy vositalardan tashkil topgan tizim bo‘lib, foydalanuvchilarga turli xil ma’lumotlar (matn, grafika, ovoz, video)ni bitta yagona axborot muhitida birlashtirib, muloqot (interaktiv) rejimida ishlash imkoniyatini yaratadi.

Multimedia – bu harakatsiz tasvirlar, harakatli video, kompyuter grafikasi, matn animatsiyalari, nutq va yuqori sifatli ovoz kabi elementlar bilan ishlash imkonini beruvchi tizimdir. Boshqacha aytganda, multimedia texnologiyalari matn, grafika, animatsiya, ovoz, video va nutq kabi ma’lumotlarni kompyuterda kiritish, qayta ishlash, saqlash, uzatish va namoyish etish imkoniyatini taqdim etadi.

Multimedia vositalaridan foydalanish:

1. Thinglink orqali interaktiv taqdimot: Thinglink – bu rasm, video yoki xaritalarga interaktiv belgilar qo‘shish imkonini beruvchi vosita. Ushbu platformada o‘quvchilarga mavzuga oid topshiriq yoki tushuntiruvchi ko‘rsatmalar berilishi mumkin. Masalan, biror slaydga subtitrlar bilan izohlar, bog‘lanmalar yoki qo‘shimcha video/audio joylashtirish orqali o‘quvchi o‘z-o‘zini mustaqil o‘rganishga jalb etiladi.



2. Padletda topshiriq berish: Padlet – bu kollaborativ devor (virtual doska) bo‘lib, o‘qituvchi o‘quvchilarga alohida topshiriqlar, multimedia fayllar, havolalar joylashtirishi va ularning javoblarini real vaqt rejimida ko‘rishi mumkin. Bu platformada o‘quvchilarga matnli slayd yaratish, titr yozish, ovozli izoh yozib ulashish bo‘yicha amaliy topshiriqlar berildi.



Multimedia texnologiyalaridan foydalanish orqali dars jarayonini jonlantirish, o‘quvchilarning mustaqil ishlashiga, kreativ fikrlashiga va ko‘nikmalarini shakllantirishga keng imkoniyat yaratiladi. Yuqorida keltirilgan dasturlar dars

samaradorligini oshirishda o‘z o‘rniga ega bo‘lib, zamonaviy informatika ta’limida muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdukarimov A.A., Islomov I.B. "Informatika va axborot texnologiyalari", 11-sinf darsligi. – T.: O‘zbekiston, 2022.
2. Musurmonova O.A. “Multimedia texnologiyalari asosida informatika darslarini samarali tashkil etish”. // “Ta’limda innovatsiyalar” ilmiy-amaliy jurnal, 2021, №3.
3. https://www.thinglink.com – ThingLink interaktiv taqdimotlar yaratish platformasi.
4. https://www.padlet.com – Padlet raqamli doska platformasi, onlayn hamkorlik vositasi.
5. Bobomuxamedova, S. A. (2021). Elektrom ta'lim muhitida dasturlash tillarini o‘qitishning metodik tizimini blok-texnologyasi asosida takomillashtirish. Pedagogika, 1(3), 85-89.
6. Qizi, B. S. A. (2019). Development of ICT competence of the future teacher of informatics on the basis of smart technology. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(10).

OLIY TA’LIM TIZIMIDA BOTANIKA FANINI O‘QITISHDA TILSHUNOSLIKNI INTEGRATSIYA QILISH: O‘RNI VA AHAMIYATI

Qayumova Mohinur Karim qizi,
NDU tayanch doktoranti

Bugungi kunda zamonaviy jamiyatda kerakli kadr bo‘lib yetishish uchun o‘z ona tilini mustahkam bilish bilan birga, horijiy tilni bilish ham talab etiladi. Horijiy tilni o‘rganish, muloqot qila olishdan tashqari uni o‘z kasbiy faoliyatida qo‘llash ham dolzarb masala hisoblanadi. Chunki har bir sohaning o‘z atamalari borki, uni faqatgina shu soha vakillari qo‘llaydi. Shuning uchun ta`lim jarayonida horijiy tillarni integratsiya qilish zarurati paydo bo‘ldi. Dars davomida talabalarga darsning ma`lum qismi horijiy tilda o‘rgatiladi yoki topshiriq beriladi. Bunda albatta oddiydan murakkablashib borishga amal qilish lozim.

Integratsiya atamasi lotin tilidan olingan bo‘lib, integratio – qo‘shish, birlashtitrish, tiklash, qaytadan boshlash degan ma’nolarni anglatadi. Ushbu atamaning bir qancha ta’riflari mavjud:

1. Ayrim qismlarning, elementlarning bog‘liqlik holatini, ularni qo‘shib birlashtirishni ifodalovchi tushuncha.
2. Fanlarning yaqinlashishi va o‘zaro bog‘lanish jarayoni.
3. Ikki va undan ortiq davlatlarning iqtisodiyotini o‘zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish.

Hozirgi kunda zamonaviy pedagogikada olib borilayotgan tadqiqotlarda integratsiya mavzusiga katta urg‘u berilmoqda. Chunki bugungi kun ta`limida ta`limiy jarayonlarning yaxlitligini ta`minlash dolzarb masalalardan biridir. Olib borayotgan tadqiqotimiz davomida botanika fanini o‘qitishda tilshunoslik va horijiy tillarni integratsiya qilishga oid bir necha uslubiy materiallar tayyorladik. Ularni ta`lim jarayoniga tadbiq etish o‘zining samarasini ko‘rsatadi deb hisoblaymiz.

“O‘simlik hujayrasi organoidlarining tuzilishi va vazifalari” mavzusini o‘qitishda quyidagi ko‘rinishda ingliz tili va botanika fanlarini integratsiyalash mumkin.

O‘qituvchi ma`ruzani odatdagidek, o‘zbek tilida qiladi. Mavzuga oid rasmlardan birortasini ingliz tilida talabalarga namoyish qiladi.



Ma`ruza davomida hujayra orgonoidlarining ingliz tilida nomlanishini ham aytib ketadi. Mavzu so‘nggida esa ularni lug‘at ko‘rinishida ham talabalarga taqdim etadi.

Cell-hujayra
Cytoplasm-sitoplazma
Nucleus-yadro
cell membrane-hujayra qobig‘i
ribosome-ribosoma
mitochondria-mitoxondriya
endoplasmic reticulum endoplazmatik to‘r
golgi complex-golji majmuasi
chromosome-xromosoma
vacuole-vakuola
Cloroplast-xloroplast
Chromoplast-xromoplast
Leukoplast-leykoplast
Cell wall-hujayra qobig‘i
Plasmodesma- plazmodesma
Tonoplast-tonoplast
Smooth endoplasmic reticulum-silliq endoplazmatiki to‘r
Rough endoplasmic reticulum-donador endoplazmatik to‘r
Granium- granula

Mavzu so‘nggida talabalar bilimini nazorat qilish maqsadida ularga quyidagi integrativ topshiriq beriladi:

1. Fill in the gaps structure of cell in plants. (Botanika va ingliz tili fanlarining integratsiyasiga oid topshiriq).



Usbu topshiriqni bajarish davomida talabalar til o‘rganish ko‘nikmalarini egallaydilar. Uyga vazifa uchun keyingi darsda uchraydigan atamalarning ingliz va o‘zbek tilidagi lug‘at shakli ham berib yuboriladi. Bu topshiriqlar talabalarga fanni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish bilan birga,

kasbiy faoliyat davomida ingliz tilini qo‘llash imkonini ham beradi.

Bu ko‘rsatma esa talabalarga qiyosiy fikrlash va internet manbalaridan foydalanishda ham ustunklik beradi.

O‘zbekcha	**Ruscha**	**Inglizcha**	**Lotin tilida**
Gulkosa – Gk	Чашечка-Ч	Calyx - Ca	Calyx-Ca
Gultoj-Gt	Листик-Л	Corolla-Co	Corolla-Co
Changchi-Ch	Андроцей-А	Androtsium-A	Androeceum-A
Urug‘chi-U	Пестик-П	Genetsium-G	Gynoeceum-G
Oddiy gulqo‘rg‘on-Og	Обыкновенный околоцветник-О	Common perianth-P	Perigonium-P
Aktinomorf gul- *	Актиноморфный цветок-*	Actinomorphic flower- *	Actinomorphum flower- *
Zigomorf gul- ‖:	Зигоморфный цветок-‖:	Zygomorphic flower-‖:	Zygomorphum flower- ‖:

Har bir mashg‘ulot davomida integrativ topshiriqlar murakkablashib boraveradi. Bu esa talabalarda bir xillikdan zerikishni oldini olib, ularda til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyani oshiradi.

Navbatdagi topshiriq esa quyidagicha: Quyidagi meva va urug‘ nomlarining o‘zbekcha, ruscha, inglizcha va lotincha variantlarini yozing. Har bir nomning kelib chiqishini tahlil qiling va semantik jihatdan ajrating. (Botanika, horijiy tillar va lingvistika fanlarining integratsiyasiga oid topshiriq.)

O‘zbekcha	**Ruscha**	**Inglizcha**	**Lotincha**	**Etimologik tahlil**
Olma	Яблоко	Apple	Malus domestica	"Malus" lotinchada "olma" degan ma’noni bildiradi. "Domestica" – madaniylashtirilgan.
Gilos	Вишня	Cherry	Prunus avium	"Avium" lotincha "qushlar" degan ma’noni bildiradi, chunki gilosni qushlar ko‘p yeydi.

Ushbu topshiriq esa, talabalarda o‘zbek tilida imloviy xatolarsiz ishlash bilan birga ilmiy matnlar bilan ishlash imkoniyatini kengaytiradi.



Quyidagi matndagi xatoliklarni toping. (Botanika va tilshunoslik fanlarining integratsiyasiga oid topshiriq).

Xara suvo‘tlar vakillarining hujayra po‘sti magniy tuzlari bilan to‘yingan bo‘lganidan ular dag‘al va mo‘rt bo‘ladi. Xara suvo‘tlari vakillarining jinsiy ko‘payish organlari ko‘p hujayrali bo‘lishi va soda tuzilganligi bilan boshqa suvo‘tlaming vakillaridan farq qiladi. Xara suvo‘tlarida jinssiz ko‘payish oogamiya tipidadir. Xara suvo‘tlarining vakillari ariq suvlarida, oqmas suvlarda, ayniqsa, hovuzdagi ko‘lmak

suvlar ostidagi quyqalarga o‘z ildizlari bilan yopishib yashaydi. O‘zbekiston sharoitida surunkasiga 3-4 yil bug‘doy ekilgan dalalarda ayniqsa ko‘p uchraydi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ta`limiy integratsiyani qo‘llash murakkab pedagogik muammo sanalib, u talabalarga ta`lim berish jarayonida ta`limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi, o‘quv motivlarini oshiruvchi va o‘zaro aloqadorligini aks ettiradi. Shu o‘rinda professional ta`lim muassasalarida ham integratsiyaning o‘rni katta bo‘lib, kasbga oid olingan nazariy bilimlar va amaliyotning birlashuvi orqali bo‘lajak kadrlarning kelajakdagi professional kadrlar bo‘lib yetishishlariga yordam beradi. Shunday qilib botanika va horijiy tillarning integratsiyasi talabalarda o‘z Vatanidan uzoqlashmasdan turib, ingliz tilida ta`lim olish imkonini yaratadi;

Talabalarda fikrlash, tahlil qilish qobiliyatlarini oshiradi;

Talabalarda xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqni oshiradi;

Bir vaqtning o‘zida ikki tilda dars berish xotirani mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Norquziyeva Z. -Clil (content language and integration learning), формирование иноязычной компетенции в сфере познавательного билингвизма профессиональная коммуникация. Jahon va innovatsiyalar konferensiyasi.324-332-betlar.
2. Masharipov V.A.“Kimyo va ingliz tili fanlari integratsiyasida innavatsion mashg‘ulotlar”. Ekonomika i sotsium jurnali. 345-352-betlar.
3. Qayumova M.K. Pedagogika o‘quv yurtlarida clil texnologiyasini qo‘llashning ahamiyati(botanika va ingliz tili misolida). Til va tarjima muammolari xalqaro konferensiyasi. 69-71-betlar.
4. Qurbonova Maftuna Faxriddinovna CLIL – zamonaviy yondashuv sifatida. Raqamli texnologiyalar davrida tillarni intensiv o‘qitishning psixologikpedagogik jihatlari respublika ilmiy-amaliy anjumani.60-62-betlar.

ADABIYOT DARSLARIDA NASRIY ASARLARNI TAHLIL QILISHDA INNOVATSION YONDASHUV

Sabirova Nasiba Ergashevna,
Xorazm viloyati Pedagogik mahorat markazi professori,
flologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. Ushbu maqolada so‘z o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini o‘stirish, og‘zaki va yozma nutqini shakllantirishga qaratilgan. Shuningdek, adabiyot darslarida badiiy asarlarni tahlil qilish orqali innovatsion yondashuvni tatbiq etish usullari ko‘rsatib berilgan.

Annotation. This article aims to develop students' logical thinking, to form oral and written speech. Also, the methods of applying an innovative approach through the analysis of artistic works are shown in the literature classes.

Аннотация. Данная статья направлена на развитие логического мышления учащихся, формирование устной и письменной речи. Также на уроках литературы показаны методы применения инновационного подхода посредством анализа художественных произведений.

Kalit so‘zlar: adabiyot, mantiqiy tafakkur, innovatsion yondashuv, nasriy asarlar, tahlil metodi, kreativ fikrlash.

Key words: literature, logical thinking, innovative approach, prose works, analysis method, creative thinking.

Ключевые слова: литература, логическое мышление, инновационный подход, прозаические произведения, метод анализа, творческое мышление.

O‘quvchilar tafakkurini o‘stirish, so‘z boyligini oshirish,estetik didi,ma’naviyatini yuksaltirishda badiiy asar tahlili muhim ahamiyat kasb etadi.Unda o‘quvchining o‘qilayotgan asar yuzasidan mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash hamda taqdimot qilish, kezi kelganda, o‘z hayotlarida o‘rganganlaridan xulosalar chiqarish malakalari shakllantiriladi.

Adabiyot fikr va qalbni tarbiyalaydi.Har bir inson hayoti davomida duch kelgan muammolarga javobni o‘z tajribasidan izlaydi.Bunday hayotiy tajriba hosil bo‘lishi uchun esa yaxshi kitobxon sifatida voqealar-u kechinmalarni o‘z qalbidan o‘tkazishi, o‘zi tanlab olgan obrazning tarafdori bo‘lib, uning yutuqlari, quvonchi, qayg‘usi-yu mag‘lubiyatini ham o‘ziniki qilib olishi kerak bo‘ladi. O‘quvchi o‘qilgan asarning sir-asrorini tuygachgina qalbida kitobga muhabbat hissi shakllanadi, chinakam badiiyat namunasini ajrata olish malakasini egallasa, haqiqiy kitobxonga aylanadi.Biror asarni o‘qish, uni tahlil qilish jarayonida olingan bilim o‘quvchini boshqa asarlarni o‘qishga, ulardan zavqlanishga undaydi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilar milliy adabiyotning, shuningdek, jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘qish va tahlil qilish asosida yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlik, go‘zallik va xunuklik haqida xilma-xil talqinlarga duch kelishadi, ularga ongli va jonli munosabat bildirishadi, shular asosida o‘zlaridagi axloqiy-ma’naviy fazilatlar majmuining shakllanishi va rivojiga imkon topishadi. Yozuvchining quroli so‘z bo‘lib, u so‘zdan mohirlik bilan foydalangan holda shunday hayotiy manzaralar chizadiki, asarlarni o‘qiyotgan o‘quvchi xuddi o‘sha voqealarda ishtirok etayotgandek, ularni o‘z ko‘zi bilan ko‘rib turgandek bo‘ladi, qahramonlar bilan birga shodlanib, birga ma’yuslanadi.Ularga nisbatan ochiq hayotiy munosabatlarni aks ettirish zaruriyati esa, o‘quvchilarning og‘zaki hamda yozma nutqlarining rivojidagi muhim omil vazifasini ado etadi.Bu jarayonda yana bir narsani hisobga olish zarurki, sinfdagi barcha o‘quvchi bir xil bilim darajasiga ega emas. Shu sababli, metodlar rang-barangligiga alohida e’tibor berish zarur. O‘quvchilarning har bir badiiy asardan oladigan taassuroti va shu asosda paydo bo‘ladigan fikrlari , individual imkoniyatlarini badiiy asarlardagi yuksak badiiyat va takrorlanmas san’atkorona tasvirlar orqali kengaytiriladi. O‘quvchilarda adabiy asarni tahlil qilish, adabiy-nazariy tushunchalarni o‘rganish malakasi shakllantiriladi. Ona tili va adabiyot ta’limi bir so‘z bilan aytganda –barkamol inson tarbiyasi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Badiiy tahlil maqsadiga ko‘ra **ilmiy** va **o‘quv(didaktik)tahlil**ga bo‘linadi.Ilmiy talqin asarning badiiyligini ta’minlagan jihatlar,so‘z sehri,san’atning sirli tomoni nimada ekanligini ko‘rsata bilish bo‘lsa,(o‘quv) tahlil pedagogik maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib,o‘quvchining badiiy madaniyatini yuksaltiradi,tafakkuri va hissiyotini faollashtiradi.Ilmiy tahlil adabiyotshunosning aqliy faoliyati natijasi bo‘lsa,o‘quv tahlili odamlar bilan muloqot mobaynida amalga oshiriladi.

Nasriy asarlarni tahlil qilish:

Nasriy asarlarni tahlil qilish jarayonida quyidagilarga alohida e’tibor beriladi: 1. Asarning ifodali o‘qilgan audiosini yoki videosini namoyish qilish. (Yoki chiroyli qilib o‘qib berish). Asar asosidagi kuylangan qo‘shiqlarni namoyish etish. 2. Asar mazmuni bilan tanishish. 3. Asarning tuzilishini o‘rganish(kirish,voqealar rivoji,kulminatsiya va xulosa) tuzilishini o‘rganish. Didaktik tahlilning vazifasi badiiy asarning jozibasi, o‘ziga xosligi, ta’sir kuchi sabablarini aniqlash orqali o‘quvchilarda sohir qalb, hassos tuyg‘ular, ravon va ifodali nutqni shakllantirishdir.O‘quvchining estetik tarbiyasini

faollashtirish, didini o‘stirish orqali uning shaxsini barkamollashtirish esa adabiy ta'limdan ko‘zlangan **asosiy maqsad** hisoblanadi. O‘quv tahlili ikki bosqichli bo‘lib, birinchi bosqichda o‘qituvchi o‘qitiladigan asarni tahlil qiladi, savollar tuzadi,tahlil uchun maqbul usullar tanlaydi.Ikkinchi bosqichda o‘qituvchi bilan o‘quvchilar hamkorligida darsda biror asar tahlil qilinadi. O‘quv tahlili muayyan shaxslik fazilatlari va xislatlarini tanishga qaratiladi.Badiiy asarda voqea yoki kechinmalar yozuvchining mahoratiga qarab kitobxonni o‘z tomoniga "og‘diradi". Endi shu tahlil asosida bir necha nasriy asarlarga to‘xtalsak,masalan, Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror"dostonining o‘ninchi maqolatidan olingan "Sher bilan durroj"hikoyatida o‘quvchilar egrilik va to‘g‘rilik haqida bilimlarga ega bo‘ladilar. Buni bosqichma-bosqich ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq deb o‘ylayman.

1-usul. Bunda o‘quvchilarga asarning qismlari bo‘lib berilib,har bir o‘quvchi o‘ziga berilgan qismni yaxshi tushuntirib bermog‘i lozim bo‘ladi.Bunday usul orqali o‘quvchilarning nutqini o‘stirish maqsad qilib qo‘yiladiva ularning bu orqali xotirasi ham mustahkamlanadi.

2-usul.Bu hikoyatdagi sher va durroj timsollarini o‘quvchilar sahnada tomosha qilishlari ham mumkin.Bunda ikkita o‘quvchiga sher va durroj timsollari topshiriladi va ular sahnada shu rollarni ijro qiladilar.Boshqa o‘quvchilar esa shu voqeani tomosha qilib,keyin o‘qituvchi tayyorlab kelgan savollarga javob topadilar.

3-usul.O‘qituvchi mavzuni o‘quvchilarga tushuntirganidan keyin ,dastlab,har bir o‘quvchi o‘zi uchun keyin esa jamoasi bilan birga savollarga javob topish orqali o‘quvchilarning bilimlari oshiriladi.

4-usul.Mavzu o‘tilgandan keyin mavzu bo‘yicha har bir o‘quvchining xulosasi tinglanib,mustaqil fikr yuritishga o‘rgatish mumkin.

5-usul.Bu usulda o‘quvchilarga mavzunu batafsil tushuntirgach, proyektor orqali "Sher bilan durroj" multfilmini qo‘yib berdim va o‘quvchilarning har birini individual va guruhlarda baholab ,yaxshi javob bergan o‘quvchilarni rag‘batlantirib bordim va bu juda yaxshi samara berdi.

Bobomiz har bir inson o‘ziga to‘g‘rilikni odat qilmog‘i haqida so‘z yuritarkan, kimki to‘g‘rilik yo‘li qanday ekanligini bilmoqchi bo‘lsa, bu yo‘l ikki xil bo‘ladi, deydi. Birinchisi, to‘g‘riso‘z odam. Agar u to‘g‘ri so‘zli bo‘lsa, uning ishi, o‘zi ham to‘g‘ri bo‘lishi kerak. Ikkinchi toifa kishilar andisha bilan, betgachoparlik qila olmay, "to‘g‘ri" deguvchilardir. Navoiy birinchi toifani to‘liq ma'qullagan holda, ikkinchisi ham "yomon emas" deya inkor qilmaydi. Albatta, iloji boricha yolg‘onni gapirmagan ma'qul. Shu o‘rinda shoir o‘z zamonasidan biroz noliydi. Odamlar rostgo‘ylikdan chekinayotgani, yolg‘on-yashiq kuchayib ketayotganidan xavfsiraydi. Shundanmi, shoir o‘z atrofini qamragan odamlardan to‘g‘ri, rost gapirgani qashshoqlik, yetishmovchilikdan boshqa narsani bilmaydi, deydi. Zero, egrilikning ham, to‘g‘rilikning ham o‘z ta'rifi bor. Egrilik yolg‘ondan paydo bo‘ladi, to‘g‘rilik haqiqatdan. Demak, muallif, yolg‘on so‘zlash, yolg‘on harakat qilish egrilikka olib keladi, deb hisoblaydi. So‘zining isboti uchun bog‘bon va dehqonning ishini misol keltiradi. Bog‘bon yaratajak bog‘ini reja bo‘yicha, ya'ni daraxtlarni bir tartibda ekib, parvarish qilmasa, har yerda tarvaqaylab, qiyshiq qing‘ir o‘sgan daraxtlar bog‘ni changalzorga aylantiradi. Dehqon esa urug‘ sochadigan yerini shudgor qilib, so‘ng mola bosmasa, ya'ni tekis qilib olmasa, sochgan urug‘i bir xildaunib chiqmaydi. Chunki notekis yerda ekinlar bir xil sug‘orilmaydi. Ba'zi joylarga suv ko‘proq tushadi, ba'zi joylarga esa kamroq. Xuddi quyosh ham sokin turgan suvda to‘g‘ri va to‘la aks

etsa, chayqalgan suvda nurlar sinib egri ko‘ringandek. Demak, hamma tirik jonzot batartiblikdan, to‘g‘ri parvarishdan quvvat olsa, nega insonlar shulardan o‘rnak olmaydi?! Yolg‘on gapiradi va egri yuradi. Agar bilmagan holda yolg‘on so‘zlansa, so‘ng bilgach, undan qochilsa, buni ayb deb bo‘lmaydi. Chunki o‘sha odam baribir to‘g‘ri yo‘lga tushib oladi-da. Bu bilan hazrat Navoiy inson hayotda adashishi, chalg‘ib qolishi mumkin, lekin vaqti bilan o‘z xatosini anglasa va bundan afsuslanib, uni tuzatishga urinsa, u holat kechiriladi, deb tushuntiradi.Ammo yolg‘on gapirish odatga aylangan bo‘lsa, mana bu yomon, kechirilmaydigan gunoh. Agar majbur bo‘lib qolganingda ham rost gapni aytishning iloji bo‘lmasa, yolg‘onni ham gapirma, deydi. Shu tariqa yolg‘onning kishilar tabiatidagi yaramas va badbin illatligini, uning oqibatlarini qoralab kelib, muallif asar badiiy qurilmasiga ko‘ra bu o‘rinda ham majoziy bir hikoyatga murojaat qiladi. Ya’ni «Sher bilan durroj» haqidagi ramziy rivoyatni keltirib, o‘z fikrlarining yanada ta’sirliroq bo‘lishiga erishadi. Hikoyatda ko‘rganingizdek, garchi nihoyatda qudratli, qo‘rqinchli bo‘lsa-da, ona sher o‘z bolalari himoyasi uchun, ularni sog‘-omon katta qilish uchun har narsaga tayyor. Bolalarini tishida tishlab olib yuradi, hech kimga ishonmaydi. Durroj bo‘lsa, sherning bu ahvolini tushunmaydi, tushinishni istamaydi ham. Uni insofga keltirish uchun sher o‘zidan har jihatdan ojiz durrojga do‘stlik qo‘lini cho‘zadi: o‘zini cho‘chitmasligi evaziga nima yordam kerak bo‘lsa, berishga tayyor ekanini aytadi.Afsuski, durroj kichkinaligidan o‘rganib qolgani yomon odatidan – yolg‘on so‘zlashidan qolmaydi. Sher uning bu odati nihoyatda yomon ekani, oqibati xunuk bo‘lishi haqida qancha ogohlantirmasin, unga quloq solmaydi.Natijani esa ko‘rdingiz: durroj chinakam xavf ostida qolib, yordamga chaqirganida ham, avval nuqul yolg‘on gapirgani uchun, sher unga ishonmadi.Bu safar Navoiy o‘ninchi maqolatda aytgan holatga teskari vaziyat bo‘y ko‘rsatdi. Shoir el orasida rostgo‘y bo‘lib nom qozongan odam, vaziyat taqozosiga ko‘ra, biror marta yolg‘on gapirsa ham uni eshitishlari mumkinligini aytgan bo‘lsa, doimiy yolg‘onga o‘rgangan kishining rost gapiga ham boshqalar ishonmasligini durroj qismatida ko‘rsatib beradi. Darsda shu usullar orqali o‘quvchilarni mustaqil fikr yuritishga o‘rgatish mumkin. **7-sinflarda Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor”dostonini o‘rganish usullari.** Mavzu:”Sab’ai sayyor”-ishqiy sarguzasht doston Jarayonning borishi:

1-bosqich.O‘qituvchi tolibi ilmlarga “Sab’ai sayyor”asari yuzasidan bilganlarini daftarlariga yozishni taklif qiladi.

2-bosqich. Kichik guruhlarda ishlanadi. Topshiriq: hamkoringiz bilan yozganlaringizni umumlashtiring.

3-bosqich.O‘qituvchi ixtiyoriy ravishda tanlangan metod va vositalar orqali sinfni guruhlarga ajratadi.

4-bosqich.Yakka va juftliklarda yozilgan ma’lumotlarni guruhingizda tahlil qiling.Yig‘ilgan ma’lumotlarni quyidagi jadval bo‘yicha taqsimlang.

5-bosqich. Guruhlarda ish davom etadi.O‘qituvchi doston bo‘yicha quyidagi sarlavhalar aks etgan matnni tarqatadi:

1-guruhga:”Sab’ai sayyor” ishqiy-sarguzasht doston;

2-guruhga:Bahrom-qoliplovchi hikoyaning bosh qahramoni;
3-guruhga:”Sab’ai sayyor”dagi yetti hikoyaning badiiy vazifasi;

4-guruhga: Dostonda inson ma’naviyati tasviri;

5-guruhga: Dilorom fojiasi. Shu usullar orqali bosqichma-bosqich asar voqeasi o‘quvchilar uchun tushunarli bo‘lib boradi hamda o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritish

malakalarini shakllantirish mumkin. Asarni o‘rganish jarayonida sinf o‘quvchilari darajasi va saviyasidan kelib chiqib FSMU texnologiyasidan foydalanish ham samara beradi. Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o‘tkazishda qo‘llanilishi mumkin, chunki bu texnologiya o‘quvchilarni o‘z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o‘z fikrini boshqalarga o‘tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan qatorda o‘quvchilarning, o‘quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishda, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda bahslashish madaniyatiga o‘rgatadi.

Ushbu texnologiya o‘quvchilarga tarqatilgan oddiy qog‘ozga o‘z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarini bayon etishga yordam beradi.

Har bir tinglovchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlar tarqatiladi:

F- fikringizni bayon eting.

S- fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating.

M- ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

U- fikringizni umumlashtiring.

Современные образовательные технологии претерпевают значительные изменения, что связано с ростом цифровизации учебного процесса. Использование инновационных педагогических программ способствует повышению качества обучения, увеличению вовлеченности учащихся и развитию их самостоятельности. В данной статье рассматриваются наиболее эффективные педагогические инструменты, их практическое применение и влияние на образовательные результаты.

В последние годы в школах Узбекистана активно внедряются цифровые образовательные технологии. Государственные реформы в сфере образования способствуют модернизации учебного процесса, включая внедрение интерактивных платформ и онлайн-ресурсов. Министерство дошкольного и школьного образования Узбекистана активно поддерживает использование цифровых технологий для повышения качества преподавания и оценки знаний учащихся.

Платформы для интерактивного обучения

LearningApps и Kahoot! предлагают учителям возможность создавать интерактивные задания и викторины, которые стимулируют внимание учащихся и вовлекают их в процесс обучения. Разнообразные форматы, такие как тесты, игры и опросы, помогают адаптировать знания под интересы и способности каждого ученика.

Программа Nearpod предоставляет возможность учителям вести уроки в режиме реального времени, позволяя студентам взаимодействовать с учебным материалом на своих устройствах. Это создает уникальную атмосферу для учебы, где акцент делается на сотрудничество и активное участие. Кроме того, Wordwall предлагает широкие возможности для создания интерактивных заданий, что делает процесс обучения более динамичным и интересным.

В Узбекистане цифровые образовательные платформы, такие как maktab.uz, eduportal.uz, emaktab.uz, uzedu.uz и другие онлайн-ресурсы, активно используются для поддержки учебного процесса. Государственные образовательные учреждения внедряют современные технологии для повышения доступности образования и создания цифровой учебной среды.

Виртуальные лаборатории и симуляции

Современные виртуальные лаборатории, такие как PhET Interactive Simulations, позволяют учащимся проводить эксперименты и исследовать научные концепции в интерактивном формате. Это особенно полезно для предметов естественных наук, таких как физика и химия, где практический опыт имеет решающее значение. Программы Khan Academy и ChemCollective предлагают учащимся доступ к высококачественным образовательным материалам и симуляциям, что позволяет глубже понять сложные темы и развить критическое мышление. Использование таких ресурсов обеспечивает учащихся реальными навыками и знаниями, которые им понадобятся в будущем. В школах

Узбекистана внедряются виртуальные лаборатории для проведения онлайн-экспериментов. Это особенно актуально для сельских школ, где доступ к физическим лабораториям может быть ограничен. Виртуальные симуляции позволяют учащимся изучать сложные научные темы в доступном формате.

Инструменты для создания контента

Программы такие как Canva и FigJam дают возможность развивать творческий подход к созданию образовательного контента. Учителя могут готовить презентации и учебные материалы, которые становятся более визуально привлекательными и содержательными. Использование таких инструментов не только помогает сделать материал более понятным, но и повышает интерес учащихся к обучению. В дополнение, цифровые платформы, такие как Padlet и Miro, позволяют организовывать совместную работу учащихся, создавая интерактивные доски и карты знаний.

Преимущества цифровых образовательных технологий

Использование современных педагогических программ оказывает значительное влияние на образовательный процесс, включая:

- **Индивидуализацию обучения** – адаптация контента под уровень и темп каждого ученика;
- **Повышение мотивации** – интерактивные элементы делают обучение более увлекательным;
- **Развитие цифровых навыков** – учащиеся осваивают инструменты, необходимые для будущей профессиональной деятельности;
- **Стимулирование критического мышления** – активное участие в образовательных процессах способствует формированию аналитического подхода к решению задач.

Опыт внедрения цифровых технологий в школах Узбекистана показывает, что учащиеся становятся более вовлеченными в учебный процесс, а учителя получают дополнительные возможности для персонализированного обучения. Цифровизация образования играет ключевую роль в подготовке учащихся к современным вызовам и формированию конкурентоспособных кадров.

Заключение

Современные педагогические программы и виртуальные лаборатории открывают новые горизонты в образовании. Их эффективное использование позволяет создать динамичную и вдохновляющую учебную среду, которая подходит для учащихся разных возрастов и с различными уровнями подготовки. В этом контексте крайне важно, чтобы учителя продолжали осваивать и внедрять новые технологии в свою практику, обеспечивая тем самым качественное образование для всех учащихся. Внедрение цифровых технологий в образовательный процесс требует системного подхода и постоянного совершенствования методик преподавания. Важно не только использовать цифровые инструменты, но и интегрировать их в учебную программу таким образом, чтобы они способствовали всестороннему развитию учащихся. Для этого необходимо обучать педагогов эффективному использованию цифровых платформ и стимулировать научные исследования в области педагогики цифрового обучения. В результате, образовательные учреждения смогут создать благоприятную среду для освоения знаний и формирования ключевых компетенций 21 века.

Список использованных литературы

1. Указ Президента Республики Узбекистан «Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и мерах по ее эффективной реализации», от 05.10.2020 г. № УП-6079
2. Атаева Г.И. Информационные технологии и современное образование // Молодой учёный. № 10, 2016. С. 1166-1167.
3. Блинова, О. А. Современные образовательные технологии. — М.: Академия, 2020.
4. Васильева, И. В. Интерактивные методы обучения в образовательной среде. — СПб.: Питер, 2019.
5. Толипов О., Усмонбоева М. Прикладные основы педагогических технологий. — Ташкент: Веер, 2006.
6. Нигматова М.М., Мирзаева Д.Ш. Коррекционная педагогическая деятельность - процесс, направленный на воспитание и развитие полноценной личности // АКАДЕМИЯ. Научно-методический журнал, 2019, № 11 (50), 29-31 с.

ANDIJONNING QADIMGI VA O‘RTA ASR DAVRI TARIXI MATBUOT SAXIFALARIDA

Davronova Rashidaxon Qahramon qizi,
Andijon viloyati PMM o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqola Andijonning qadimiy va o‘rta asr davrlaridagi tarixi, shu davrda shahar hayoti, madaniyati va iqtisodiy rivojlanishini o‘rganadi. Maqolada Andijonning tarixiy manbalar va arxeologik tadqiqotlar asosida shakllangan rivojlanish jarayoni, shuningdek, shaharni tashkil etgan muhim siyosiy, iqtisodiy va madaniy omillar tahlil qilinadi. Andijon, o‘zining strategik joylashuvi tufayli, qadimdan Sog‘d, Xorazm va boshqa o‘rta asr sivilizatsiyalarining madaniy va savdo markazi sifatida e’tiborga sazovor bo‘lgan. Maqolada, shuningdek, Andijonning o‘rta asr davrlarida savdo yo‘llari, hunarmandchilik va shaharning ma’muriy tizimi hamda markaziy hokimiyatga bo‘lgan aloqalari o‘rganiladi. Tarixiy manbalar va arxeologik qazishmalar natijalari, shahar tarixining rivojlanishidagi muhim bosqichlarni yoritadi va Andijonning o‘rta asr tarixida tutgan o‘rnini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: Andijon, qadimiy tarix, o‘rta asr, shahar madaniyati, iqtisodiy rivojlanish, arxeologik tadqiqotlar, savdo yo‘llari, hunarmandchilik, tarixiy manbalar, Sog‘d, Xorazm, ma’muriy tizim.

Mustaqillik sharoitida jamiyatdagi yangi o‘zgarishlarni amalga oshirish jarayonida, jamiyat a’zolarini erkin, demokratik tafakkur va milliy g‘oya ruhida tarbiyalash vazifalarini bajarishda tarix fanining ahamiyati ortib bormoqda. “Albatta har qaysi xalq yoki millatning ma’naviyatini uning tarixi, o‘ziga xos urf- odat va an’analarini, hayotiy qadiryatlaridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi”[1;30-b.].

Sovet hokimyati va kommunistik partiyaning hukumronligi yillarida ma’naviy - siyosiy, mafkuraviy yakkahokimlik tufayli tarixchi olimlarning haqiqatni yoritish imkoniyati yo‘q edi. Milliy istiqlol yillarida vatanimiz tarixini haqqoniy, ilmiy asosda o‘rganish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Respublikamizning birinchi prezidenti Islom Karimov ta’kidlab o‘tganidek, “o‘z tarixini bilmagan jamiyat istiqbolga elituvchi yo‘lini topa olmaydi. Tarix bepisand xalqning kelajagi yo‘q. Ko‘p asrlik tarixi mobaynida O‘zbekiston qancha bosqichlarni ko‘rmadi. Markaziy Osiyo mintaqasi qanday bo‘ronlar ichida qolmadi, kimlar bizni tobe va qaram qilishga intilmadi. Ana shu tarixdan saboq chiqarmasdan, ertaga kechagi kun ko‘rgiliklari qaytadan boshimizga

tushib qolishi hech gap emas. Boshqacha aytganda, kechagi kundan to‘g‘ri xulosa chiqarib ish tutgan jamiyat kelajakka ishonch bilan qadam qo‘yadi”[2; 219-b.].

O‘zbekiston mustqillikka erishganidan so‘ng, o‘zbek xalqi keng ma’nodagi teng huquqlilikka ega bo‘ldilar, jamiyatdagi barcha sohalarda ijtimoiy adolat, tenglik, barqarorlik to‘g‘risidagi fikr – o‘ylarini amalga oshirish, jamiyatdagi barcha sohalarni rivojlantish uchun sharoit yaratildi, va asta –sekinlik bilan rivojlanishni boshlaganligini ko‘rishimiz mumkin. Mustaqillik yillarida yangi tarixiy tafakkur ruhida, yangicha yondashuv va metodologiya asosida tarix fani va ijtimoiy fanlarning iqtisodiy, falsafa va huquq singari deyarli barcha sohalarida Andijon viloyati tarixini o‘rganishga e’tibor qaratilib, viloyatimizning ko‘plab masalalarini o‘rganish imkoniyati yaratildi. Jumladan ko‘plab o‘rganilmagan jihatlarini o‘rganish imkonini yaratdi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida ustoz Sayfiddin Jalilovning hizmatlari katta bo‘ldi chunki bu inson Andijon tarixini o‘rganib ko‘plab ochilmagan va o‘rganilmagan ma’lumotlarni o‘rganish natijasida viloyatimizning tarixiy shaxslari, ijtimoiy - iqtisodiy o‘zgarishlari haqida ko‘plab maqolalar va risolalar chop etildi. Andijonning ijtimoi - iqtisodiy masalasini tarixshunosligiga oid ilmiy monografiyasi va bir qator ilmiy maqolalari, viloyatimizga nisbatan siyosatining mustamlakachilik mohiyatini ochib berishda dastlabki qadam bo‘ldi deya olamiz.

Tarixchi olimning viloyatimiz bilan bog‘liq an’anaviy qarashlar hamda tarixiy haqiqat talqiniga oid maqolasida mazkur mavzudagi turli ijtimoiy qarashlar hamda ularning tarixiy ildizlari ilk bor ilmiy asosda yoritilib beriladi. R.Shamsutdinov va Muzrobjon Abdullayev o‘zlarining maqolasini Fan va turmush jurnali sonida Andijon taqdiriga befarq bo‘lmagan holda ko‘plab arxiv materiallarga tayangan holda maqolalar chop etdilar. Mana shunday maqolalardan biri “Ukrainadagi O‘zbek quloqlari” nomli maqolasida Andijon hududidan surgun qilingan insonlar taqdiri haqida eng asosiysi mutloqa o‘rganilmagan, Ukrainaga surgun qilingan vatandoshlarimizning o‘g‘ir qismatiga bag‘ishlangan turkum maqolalari chop etila boshladi”[3; 5-b.]. Bu maqola orqali viloyatimizdan surgun qilingan insonlar taqdiri va o‘sha joydagi ahvoli qancha qiyinchilik kunlarini boshidan o‘tkazganligini o‘qish imkonini berdilar. Bu orqali biz yoshlar o‘zimiz uchun hulosa chiqara olsak maqsadga muoviq bo‘ladi.

Shaharning nomi tarixiy manbalarda “Andijon”, “Andigon” shaklida ham uchratishimiz mumkin. Akademik Ya. G‘ulomovning ilmiy tahliliga ko‘ra biron qadimiy joy yoki ma’lum kasbdagi kishilar guruhining nomi bo‘lishi ham mumkin deya yozadilar. Mashhur tilshunos olim S.Ibrohimovning fikricha esa, shaharning nomi aslida “Andijon” atalib, X asrga kelib esa arablar uni “Andukon”shaklida qabul qilingan bo‘lishlari mumkin. XV asrga kelib esa “Andijon” deb atala boshladi. Buyuk tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy o‘zining mashhur asari “Matlai - sadayn va majmai - bahrayn” da avval “Andugon” deb yozadi. Shuningdek XVII asrda yozilgan “ Torixi Qoshg‘ar” nomli qo‘lyozma manbada ham “Andijon” deb tilga olingan. “Davr o‘tishi bilan shahar obod va ko‘rkamlashib boradi.Go‘zal shahar” ni ta’riflash ma’nosida “Andijon” deb erkalatish shakli ham uchraydi. Buyuk Zahriddin Muhammad Bobur o‘zining kindik qoni tomgan shaharni alohida bir ehtiros bilan ataydi:”[4; 7-b.].

“Buyuk ipak yo‘lida joylashgan Andijon shahri O‘zbekistonning gavhari deb atalgan Farg‘ona vodiysining sharqiy darvozasi xisoblanadi. Shahar dengiz sathidan 450 metr balandlikda geografik jihatdan qulay hudduda joylashgan bo‘lib, uni janubiy sharqdan qulay hududda joylashgan bo‘lib, uni janubiy sharqdan Otchopar, Xakan adirlari va tepaliklari o‘rab turadi. G‘arbdan esa u vodiyning markazigacha cho‘zilgan past - tekisliklar, unumdor ekin maydonlari, bog‘ -rog‘lar, katta - kichik qishloqlar

bilan tutashib ketgan. Shaharning shimoliy-sharqidan Qoradaryo va Andijonsoy oqib o‘tadi”[1]. Geografik jihatdan olib qaraganda Andijonning aynan shu hudduda, Qoradaryoning o‘rta oqimida joylashganligi bu yerda ham ilk shahar madaniyatining paydo bo‘lishiga olib kelganligini ko‘rishimiz mumkin.

Andijonning Andijon deb nomlanishi xuddi shahar tarixi singari moziyning eng olis qatlamiga borib taqaladi. Uning nima uchun bunday deb atalishi barchani birdek qiziqtirishi tabiiy, albatta. Chunki men ko‘lab o‘qigan ma’lumotlarda turlicha talqin qilingan edi shu bois bitta to‘htamga kelishimda qiyinchiliklar tug‘ildi. Keling, dastlab Andijon nomining kelib chiqishini asrlar osha tildan -tilga o‘tib kelgan afsona va rivoyatlar asosida ko‘rib chiqsak, bu esa ko‘lab ma’lumotlarni solishtirish imkonini beradi, so‘ng yozma manbalarga, tarixi olimlarimizning ilmiy xulosalariga e’tiborini qaratsak maqsadga to‘g‘ri keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islom karimov Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch.T: Ma’naviyat, 2008 B 30
2. Karimov I.A Inson , uning huquq va erkinliklari oliy qadiryati – oliy qadiryat 14- jild –T . O‘zbekiston2006 . B. 219.
3. Fan va Turmush 5-6 /1999 yil
4. Sobirjon Shokarimov ANDIJON shaharnoma G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti Toshkent- 2000 7- bet.

TARIX FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASHNING DOZLARB MASALALARI

Muxamadiyeva Laziza Nizomovna,
Navoiy viloyat katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarix fani va uni o‘qitish jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish jarayoni va uning o‘ziga xos jihatlari, ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, innovatsion ta’lim texnologiyalari, ta’lim jarayoni, ta’lim tizimi elementlari, tarix fani, tarixni o‘qitish.

Abstract. This article analyzes the process of using innovative technologies in the science of history and its teaching and its peculiarities, scientifically.

Keywords: innovation, innovative educational technologies, educational process, elements of the educational system, history science, history teaching.

Аннотация. В данной статье анализируется история науки и процесс использования инновационных технологий в процессе ее преподавания и ее специфические аспекты с научной точки зрения.

Ключевые слова: инновации, инновационные образовательные технологии, образовательный процесс, элементы системы образования, историческая наука, преподавание истории.

Ijtimoiy fanlar ta’limi, jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy tizimlarini o‘rganishga qaratilgan ilmiy sohalarni o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda bu sohalarning o‘qitilishi yanada samarali va interaktiv bo‘lishi uchun innovatsion texnologiyalardan foydalanish zarur. Texnologiyalar ta'lim jarayonini yanada

[1] Sayfiddin Jalilov . Bobur va Andijon. T.O’zbekiston 1993, 101 bet.

jonlantiradi, o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi va o‘quvchilarga yangi bilimlarni o‘zlashtirishda qulaylik yaratadi.

Tarix fani – bu nafaqat o‘tmishni o‘rganish, balki jamiyatning rivojlanish jarayonlarini tushunish va kelajakni shakllantirishga yordam beradigan fan. Tarixni o‘qitishda pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish va bilim olish jarayonini samarali tashkil etishda katta ahamiyatga ega. Pedagogik texnologiyalar o‘qitish jarayonining har tomonlama takomillashishini ta'minlaydi va o‘quvchilarning tarixiy tafakkurini rivojlantiradi.

Umumta’lim maktablarida tarix fanini o‘qitilishida interaktiv texnologiyalar o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasidagi muloqotni jonlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Tarixni o‘qitishda interaktiv darsliklar, onlayn platformalar va video materiallar yordamida darslarni yanada qiziqarli va samarali qilish mumkin. Masalan:

Onlayn interaktiv xaritalar: Tarixiy voqealarni o‘rganishda interaktiv xaritalar orqali o‘quvchilar turli hududlardagi tarixiy jarayonlarni kuzatib, ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglashlari mumkin.

Simulyatsiyalar va o‘yinlar: Tarixiy voqealarni o‘ynab ko‘rish orqali o‘quvchilar turli tarixiy shaxslar va voqealar haqida amaliy tushunchalar olishadi.

Tarix darslarida multimedia texnologiyalarini qo‘llash o‘quvchilarning vizual va eshitish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Videolar, slayd-shoular, tasvirlar, animatsiyalar va boshqa multimedia vositalari yordamida tarixiy jarayonlarni yanada ta’sirchan va tushunarli tarzda namoyish etish mumkin. Misol uchun **tarixiy videofilmlar orqali.** Bunda dars jarayonida tarixiy voqealarni kinofilmlar yoki hujjatli filmlar orqali namoyish etish, o‘quvchilarga o‘sha davrning haqiqiy holatini ko‘rsatadi. Bu jarayon o‘quvchi ruhiyatiga va eslab qolishi hamda xotirasida saqlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bugungi kunda pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, uning samaradorligini oshirish va o‘quvchilarni o‘qishga yanada jalb qilish uchun muhim vositaga aylangan. Tarix fanini o‘qitishda ham, yangi texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarni o‘zlashtirish jarayoniga faolroq jalb etish, ularning bilish qobiliyatlarini rivojlantirish va o‘quv jarayonini yanada interaktiv qilish imkoniyatlarini yaratadi. Dars jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning bir qancha afzalliklari mavjud.

- ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi;
- o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi;
- tarixiy tafakkur va analitik fikrlashni rivojlantiradi;
- o‘quvchilarni mustaqil o‘rganishga rag‘batlantiradi;
- darslarning diversifikatsiyasini ta’minlaydi;
- o‘quvchilarning kreativ va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi;
- ta’limni individualizatsiya qilishga yordam beradi;

Pedagogik texnologiyalar yordamida tarix fanini o‘qitishda har bir o‘quvchining individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos yondashish imkoniyati yaratiladi. Masalan, o‘quvchilarga o‘z sur’atida darslarni o‘rganish, mustaqil ravishda ma’lumotlar to‘plash va o‘z bilimlarini tekshirish imkoniyatlari beriladi. Shuningdek, texnologiyalar yordamida o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi aniqlanib, zarurat tug‘ilganda, individual yordam va qo‘llab-quvvatlash taqdim etilishi mumkin.

Maktab tarix darslarida innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning samaradorligi bilan birga ayrim kamchilik va muammolari mavjud.

- Ko‘plab o‘qituvchilar texnologiyalardan foydalanishga tayyor emaslar. Ular zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashni qiyin deb bilishlari yoki ilgari o‘rgangan an’anaviy uslublardan chiqishga tayyor emaslar. Bu o‘qitish sifatiga ta'sir qiladi.
- Ba'zi maktablar yoki ta'lim muassasalari zarur texnologik infratuzilma va qurilmalar bilan ta'minlanmagan. Internet aloqasi, kompyuterlar yoki interaktiv ta'lim qurilmalari yetishmasligi sababli innovatsion texnologiyalarni samarali qo‘llash qiyinlashadi.
- Ba'zi o‘quvchilar texnologiyalardan samarali foydalanish malakalariga ega emaslar. Bu, ayniqsa, texnologiyalarga kirish imkoni cheklangan yoki ularni yaxshi bilmaydigan o‘quvchilarga ta'sir qiladi.
- Texnologiya yordamida ta'limda ba'zida o‘quvchilarning e'tiborini uzoq vaqt davomida jamlashda qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.
- Texnologiyalarni integratsiya qilish jarayonida o‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida texnik muammolar yoki usullarni to‘g‘ri ishlatmaslik holatlari yuzaga kelishi mumkin. Masalan, dasturning ishlamasligi yoki texnik nosozliklar darsni to‘xtatishga olib kelishi mumkin.

Bu muammolarni hal qilish uchun innovatsion texnologiyalarni o‘qitishda ehtiyotkorlik bilan yondashish, o‘qituvchilarni tayyorlash, zarur resurslarni yaratish va texnologiyalarning darsga mosligini ta'minlash zarur.

Xulosa shuki, pedagogik texnologiyalarni tarix fanini o‘qitishda qo‘llash dolzarbligi yuqori, chunki ular o‘quvchilarning bilim olish jarayonini samarali va qiziqarli qiladi, shuningdek, ularning tarixiy tafakkurini, fikrlashini va kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Tarixni o‘qitish jarayonida texnologiyalardan foydalanish nafaqat o‘quvchilarni mustahkam bilimga ega bo‘lishga, balki ularni jamiyat hayotiga tayyorlashga, dunyoqarashini kengaytirishga ham imkon beradi. Bunday innovatsion yondashuvlar ta’limni yanada sifatli va samarali qilishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni - http://lex.uz/
2. N.Muslimov va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. “Sano-standart” bosmaxonasi. 2021
3. O‘quv jarayonida ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘lash yo‘llari.-T.:TDIU,2018

FARG‘ONA VODIYSIGA (ANDIJON, NAMANGAN, FARG‘ONA VILOYATLARI) DEPORTATSIYA QILINGAN XALQLARNING SANOAT SOHASIDAGI FAOLIAYATI

Tojiboyeva Gulshanoy Axlidinova,
Andijon viloyati PMM o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqola Farg‘ona vodiysiga (Andijon, Namangan, Farg‘ona viloyatlari) deportatsiya qilingan xalqlarning sanoat sohasidagi faoliyatini tahlil qiladi. Deportatsiya jarayoni va uning natijalari, shuningdek, qochqin xalqlarning sanoat sohasida o‘z o‘rnini topishi va ularning iqtisodiy hayotdagi roli ko‘rib chiqiladi. Maqolada, deportatsiya qilingan xalqlarning o‘zgarishlarni qabul qilish jarayoni, ijtimoiy- iqtisodiy ta’siri va sanoat tarmoqlarida ularga taqdim etilgan imkoniyatlar tahlil etiladi. Tadqiqotda asosiy e’tibor sanoat sohasidagi ishlash va uning iqtisodiy taraqqiyotga qo‘shgan hissasiga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Deportatsiya, Farg‘ona vodiysi, sanoat faoliyati, Andijon, Namangan, Farg‘ona viloyatlari, iqtisodiy rivojlanish, qochqin xalqlar, ijtimoiy-iqtisodiy ta’sir.

Аннотация: Статья анализирует деятельность депортированных народов в промышленности Ферганской долины (Андиджан, Наманган, Ферганская области). Рассматриваются процесс депортации и его последствия, а также роль этих народов в промышленном секторе и их влияние на экономическую жизнь региона. Особое внимание уделяется тому, как депортированные народы адаптировались к новым условиям, а также их вклад в промышленное развитие. В исследовании проанализированы социально-экономические последствия депортации и предоставленные возможности в промышленности.

Ключевые слова: Депортация, Ферганская долина, промышленная деятельность, Андиджан, Наманган, Ферганская область, экономическое развитие, депортированные народы, социально-экономическое воздействие.

Annotation: The article analyzes the industrial activity of the deported peoples in the Fergana Valley (Andijan, Namangan, and Fergana regions). It examines the process of deportation and its aftermath, as well as the role of these people in the industrial sector and their impact on the economic life of the region. The study focuses on how the deported peoples adapted to new conditions and their contribution to industrial development. It also explores the socio-economic consequences of deportation and the opportunities provided in the industrial sector.

Keywords: Deportation, Fergana Valley, industrial activity, Andijan, Namangan, Fergana regions, economic development, deported peoples, socio-economic impact.

Sovet davlatining 1930-1940-yillardagi deportatsion siyosati natijasida, sobiq Ittifoqning turli burchaklaridan deportatsiya qilingan xalqlarning (koreyslar, nemislar, qrim tatarlari, chechenlar, ingushlar, qolmiqlar, qorachoylar, mesxeti turklari va boshqalar) bir qismi O‘zbekiston SSR hududiga ko‘chirib keltirilib joylashtirildi. O‘zbekiston xalqi, o‘zining asriy an’analari asosida, “jazolangan xalqlar”ning vakillarini ochiq yuz bilan kutib oldi, ularni o‘zining so‘nggi burda noni bilan baham ko‘rdi. Deportatsiya qilingan xalqlarni surgun joyida xo‘jalik jihatdan uyushtirish va uy-joylar qurish uchun davlat tomonidan kreditlar va pul ssudalari ajratildi. Masalan, SSSR Mudofaa Davlat Komitetining 1944-yil 11-maydagi qaroriga ko‘ra, Qishloq xo‘jalik bankiga O‘zbekistonga ko‘chirilganlarni joylashtirish va ularning xo‘jalik manfaatlari uchun har bir oilaga 5000 rubldan ssuda ajratish topshirilgan edi. Bu mablag‘larni ko‘chirib keltirilganlar 7 yil davomida davlatga qaytarishlari lozim edi. SSSR NKVD Maxsus ko‘chirilganlar bo‘limining 1945-yil 13-iyundagi ma’lumotiga ko‘ra, SSSR Mudofaa Davlat Komitetining 1944-yil 11- maydagi №5859-sonli qarori asosida O‘zbekistonga Qrimdan deportatsiya qilingan aholiga oziq-ovqat ta’minoti sifatida 3312 tonna un va 1020 tonna yorma ajratilgan. Shuningdek, SSSR Markaziy Ijroiya Komitetining 1944-yil 25-sentyabrdagi №6600-sonli qarori bilan ular uchun 6060 tonna g‘alla ham ajratilgan. Bu oziq-ovqatlar 147 mingdan ortiq kishiga taqsimlangan bo‘lib, ko‘chirib keltirilganlarni to‘liq ta’minlashga yetarli bo‘lmagan. Markaz tomonidan oziq-ovqat ta’minoti 1945 yil fevral oyida to‘xtatilgan. Qrimdan ko‘chirib keltirilganlar orasida 84 mingdan ortiq mehnatga yaroqsizlar bo‘lgan, jumladan, 13 mingtasi qariyalar va 71 mingtasi yosh bolalar edi. Oziq-ovqat ta’minoti masalasi juda og‘ir holatda qolgan va ochlik bilan turli kasalliklar avj olgan. Shuning uchun, deportatsiya qilinganlarni zudlik bilan joylashtirish va ularga kolxoz va sovxozlar tomonidan oziq-ovqat bilan yordam ko‘rsatish zarur bo‘lgan. Qrimdan

ko‘chirib keltirilganlar ta’minoti uchun O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti 1945-yil iyun-iyul oylarida mehnatga yaroqsiz qariyalar va bolalar ta’minoti uchun har bir kishiga oyiga 5 kilogramm g‘alla va 1 kilogramm yorma tarqatishni belgilagan edi. Gruziyadan va Qrimdan ko‘chirib keltirilganlar dastlabki davrlarda juda qiyin ahvolda qolganlar, ayniqsa oziq-ovqat masalasida. O‘zbekiston SSR hukumati bu muammoni e’tiborga olib, respublikaning mavjud resurslaridan foydalanib, deportatsiya qilinganlarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash choralarini ko‘rdi. 1946 yil 30 yanvarida O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti tomonidan №156-11s sonli qaror qabul qilindi. Ushbu qaror bo‘yicha, qiyin ahvolda qolgan ko‘chirilganlarga sotish uchun davlat fondidan 1200 tonna g‘alla ajratish, g‘allani birinchi navbatda og‘ir ahvolda qolgan oilalarga taqsimlash belgilandi. Har bir oilaga bir kishi uchun kvartalda 3,5 kilogrammdan taqsimlash ko‘zda tutilgan. Ajratilgan g‘allaning 184 tonnasi Farg‘ona oblastiga, 145 tonnasi Andijon oblastiga, 92,4 tonnasi esa Namangan oblastiga tarqatilgan edi. 1946 yil 1 apreligacha, ajratilgan 525 tonna g‘alla 24134 oilaga, ya’ni 108580 kishiga taqsimlangan. Taqsimot paytida g‘alla fondining talon-taroj qilinishiga yo‘l qo‘yilmagan. Shuningdek O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti raisi A. Abdurahmonovning 1946 yil 26 avgustda SSSR Ichki ishlar ministrligiga yo‘llagan axborotida, Qrim va Gruziyadan deportatsiya qilingan maxsus ko‘chirilganlarni O‘zbekistonga joylashtirish va ularni xo‘jalik jihatdan uyushtirish uchun katta moddiy yordam ko‘rsatilgani aytib o‘tilgan. 1946 yil 1 sentyabrigacha, maxsus ko‘chirilganlarga Selxozbank orqali uy-joylar qurish va xo‘jaliklarini tiklash uchun 40 million so‘mlik uzoq muddatli kreditlar ajratilgan. Bundan tashqari, 7564 ming so‘m qaytarmaslik imtiyozi bilan mablag‘lar berilgan. Bularning ustiga, maxsus ko‘chirilganlarga va ularni qabul qilgan kolxozlarga 23300 bosh qo‘y, 8900 bosh buzoq, 348 ta eshak, 3008 ta ot va 114 ta ho‘kiz berilgan.

Kolxozlarga joylashtirilgan maxsus ko‘chirilganlar uchun 4663 tonna un, 10992 tonna g‘alla va 1191 tonna krupa (yorma) ajratildi. Shuningdek, maxsus ko‘chirilganlarga uy-joylar qurish va tomorqa uchun 35250 ta uchastka ajratildi. 1945-1946 yillar uchun urug‘liklar sotib olishga maxsus ssudalar ham ajratilgan edi. Joylashtirilgan maxsus ko‘chirilganlar uchun 50 000 metr gazlama va 116 tonna jun tarqatildi. Shuningdek, 5160 nafar ota-onasiz qolgan bolalar uylariga joylashtirilgan. Ko‘chirib keltirilganlarning turar joylar bilan ta’minlanishi uchun dastlabki davrda ularni mahalliy aholi uylariga joylashtirishga harakat qilindi. Mahalliy aholi, qrim tatarlar va mesxeti turklarining uylariga xonalar ajratib, oziq-ovqatlarni birgalikda baham ko‘rgan. Ular birgalikda qishloq xo‘jaligining turli sohalarida, ayniqsa paxtachilikda mehnat qilganlar. Qrim tatarlari va mesxeti turklari, ayniqsa, qishloq xo‘jalik texnikasini yaxshi bilgan erkaklari bilan kolxoz va sovxozlarda ishlashni boshlagan. Ular injener, mexanik, traktorchi va haydovchi sifatida ishlaganlar. Shu bilan birga, buxgalterlar, hamshiralar, o‘qituvchilar sifatida ham ishlashga ko‘p imkoniyatlar yaratildi. Maxsus ko‘chirilganlarning “maxsus ko‘chirilgan” maqomi ularning har oyda ro‘yxatdan o‘tishini talab qilgan va ular boshqa viloyatlarga yoki rayonlarga borish uchun komendantlardan ruxsat olishlari shart edi.Farg‘ona vodiysi qishloqlariga joylashtirilgan qrim tatarlari va mesxeti turklarining mehnatga yaroqlilari asosan paxtachilik sohasida va unga yordamchi tarmoqlarda faoliyat yuritganlar. Arxiv hujjatlariga ko‘ra, ular belgilangan mehnat normalarini ortig‘i bilan bajargan, paxtachilikda ilg‘orlar qatoridan joy olganlar. Ba’zilar staxanovchilar sifatida mehnat qilgan, mehnat normasini 150-180 foizga bajarishgan.

O‘zbekiston SSRga deportatsiya qilingan xalqlarning keyingi taqdiri o‘zbek xalqi bilan birga kechdi. 1956 yilga qadar “Maxsus ko‘chirilgan” maqomida yashaganlar, 1956 yilning avgust oyida SSSR Ministrlar Sovetining qarori bilan teng huquqli fuqarolar qatoriga qo‘shildilar. Bu qaror bilan, majburan surgun qilinganlar vatanlariga qaytish huquqiga ega bo‘lishdi, ammo ko‘pchilik O‘zbekistonda qolib, o‘zbek xalqi bilan qon-qarindoshlik rishtalarini bog‘ladilar. XX asrning 30–40 yillarida SSSR hududida 60 dan ortiq milliy guruhlar majburan ko‘chirib keltirilgan. Shu jumladan, 15 dan ortiq xalqlar va elatlar o‘zlarining yashab turgan joylaridan ommaviy ravishda boshqa hududlarga, asosan Sibir, Markaziy Osiyo va Rossiyaning shimoliy hududlariga ko‘chirildi. O‘zbekistonga ham ko‘plab xalqlar deportatsiya qilindi.

Arxiv ma’lumotlarining guvohlik berishicha, 1937 yilning oktyabr–noyabr oylarida O‘zbekistonga Uzoq Sharqdan 16307 koreys oilasi (74500 kishi) ko‘chirib keltirilgan[5]. Koreyslar erkin fuqarolar bo‘lib, ular maxsus ko‘chirilganlar hisobiga kiritilmagan. 1944 yilda Qrimdan tatarlar, greklar, armanlar, bolgarlar, Shimoliy Kavkazdan chechenlar, ingushlar, balqarlar, qorachoylar, Gruziyadan Mesxetiya turklari, kurdlar, hamshallar va boshqa xalqlar ko‘chirib keltirildi. 1950 yil 1 iyulgacha bo‘lgan ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston SSRda maxsus ko‘chirilganlar soni 184122 kishini tashkil etgan[6], ular respublikaning viloyatlari va tumanlariga joylashtirildi. Farg‘ona viloyati bo‘yicha ko‘chirilganlarning soni va tarkibi ko‘rib chiqilganda quyidagi ma’lumotlar aniqlandi. 1938-yilning 15-noyabrigacha Farg‘ona viloyatidagi 64 ta kolxozga 1130 ta koreys xo‘jaligi joylashtirilgan[7]. 1939 yilgi Butunittifoq aholi ro‘yxatida qayd etilishicha, Farg‘ona viloyatida koreyslar soni 10572 kishini tashkil etgan. 1944-yil 6-iyunga qadar viloyatga Qrimdan ko‘chirilgan 16175 kishi (3958 oila) joylashtirildi, ulardan erkaklar – 2594 kishi, ayollar – 5406 kishi, 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar – 8175 kishini tashkil etdi[8]. Ular viloyatning 13 ta tumaniga joylashtirilgan. Maxsus ko‘chirilganlarni oziq – ovqat, uy joy va ish bilan ta’minlash, ularga tibbiy yordam ko‘rsatish, xo‘jalik joylashuvi, ularning huquqiy ahvolini tartibga solish to‘g‘risida ittifoq va respublika hukumati tomonidan bir qator qarorlar qabul qilindi. Xususan, Qrim tatarlaridan iborat maxsus ko‘chirilganlarni joylashtirish munosabati bilan 1944 yilning 16 mayida SSSR Ichki Ishlar Xalq Komissarligining “O‘zbekistonda NKVD maxsus komendaturalarini tashkil etish to‘g‘risida”gi buyrug‘i chiqdi. Bu holat 1945- yil 8-yanvarda “NKVDning maxsus komendaturalari haqidagi nizom”ning qabul qilinishi bilan mustahkamlandi. Faqat Farg‘ona shahri va viloyati tumanlarida 33 ta maxsus komendatura tashkil etilib, maxsus ko‘chirilganlarning huquqlari shu komendaturalar orqali tartibga solingan. Maxsus ko‘chirilganlar Farg‘ona viloyatidagi Oziq-ovqat, Yengil sanoat, Mahalliy sanoat, Elektr stansiyalar, Neft sanoati, Kimyo sanoati, Qurilish materiallari, Sog‘liqni saqlash, Maorif, Paxtachilik vazirliklariga tegishli korxonalar, muassasalar hamda kolxoz va sovxozlarga biriktirilib, ish bilan ta’minlanganlar. Jumladan, Farg‘ona shahridagi to‘qimachilik kombinatida 92–maxsus komendatura tashkil etilib, bu yerda Qrim tatarlardan – 1886 kishi, Shimoliy Kavkazdan – 2 kishi joylashtirilgan. 1951 yil 25 dekabrgacha bo‘lgan ma’lumotlarga ko‘ra, Farg‘ona viloyatida maxsus ko‘chirilganlar soni 28538 kishini, shu hisobdan erkaklar – 7818, ayollar – 11356, 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar – 9364 kishini tashkil etdi[9] 1953 yil 1 yanvargacha Farg‘ona viloyatida joylashtirilgan maxsus ko‘chirilganlarning soni va milliy tarkibini quyidagi jadvaldan ko‘rish mumkin[10]. Shunday xulosa qilish mumkinki, keltirilgan ma’lumotlar Farg‘ona viloyatiga 1937–1945 yillarda ko‘chirib keltirilgan xalqlarning soni va milliy tarkibiga aniqlik kiritadi. Bundan tashqari, Rossiya va Respublikamiz arxivlarida topilgan yangi ma’lumotlar

ushbu xalqlarning O‘zbekistonga ko‘chirib keltirilgandan so‘ng, dastlabki yillardagi ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy ahvolini ochib beradi. Arxiv ma’lumotlarini jamlash, ularni boshqa empirik ma’lumotlar bilan qiyoslash va tahlil qilish o‘rganilayotgan muammoni yanada to‘laroq yoritish imkonini berishi mumkin, ular maxsus ko‘chirilganlar hisobiga kiritilmagan.1944-yilda Qrimdan tatarlar, greklar, armanlar, bolgarlar, Shimoliy Kavkazdan chechenlar,ingushlar, balqarlar, qorachaylar, Gruziyadan Mesxetiya turklari, kurdlar, hamshallar va boshqa xalqlarko‘chirib keltirildi. 1950 yil 1 iyulgacha o‘lgan ma’lumotlarga ko‘ra,O‘zbekiston SSSrda maxsus ko‘chirilganlar soni 184122 kishini tashkil etgan[11].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston respublikasi prezidenti SH.M.Mirziyoyevning asarlari.
2. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda quramiz. -Toshkent; “O‘zbekiston” 2016
3. Mirziyoyev SH.M. Niyyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi buyuk bo‘ladi- Toshkent “O‘zbekiston” 2019
4. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz- Toshkent “O‘zbekiston”- 2017.
5. Mirziyoyev SH.M. O‘zbekiston ikkiknchi jahon Urushi davrida kitob albom – Toshkent”O‘zbekiston”- 2021.
6. Andijon viloyat davlar arxivi . 606-fond 224-ish.
7. Andijon viloayati Qo‘rg‘ontepa tumani davlat arxivi.139-fond, 123-124 –ishlar.
8. Трагедия среднеазиатского кишлака: коллективизация, раскулачивание, ссылка 1929-1955 гг. Документы и материалы. Том 2. / Сост. Р.Т. Шамсутдинов, Б.М. Расулов; Под ред. Д.А. Алимовой. – Ташкент: Шарк, 2006.

4-SHO‘BA: IJTIMOIY-IQTISODIY FANLARNI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR.

ЎҚУВЧИЛАРНИ КАСБГА ЙЎНАЛТИРИШ: ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЁНДАШУВЛАР

Абдурашидов Шарофиддин Дўсматович,
Жиззах вилояти Педагогик маҳорат маркази “Фанларни ривожлантириш бўлими” бошлиғи

Аннотация: Мазкур мақолада ўқувчиларни касбга йўналтиришнинг назарий ва амалий асослари, унинг таълим жараёнидаги ўрни ҳамда самарали услублари таҳлил қилинади. Шунингдек, ўқувчиларга касб танлашда ёрдам беришнинг инновацион йўналишлари кўриб чиқилади.

Калит сўзлар. Ўқувчи, касб, ҳунар, тажриба, баҳолаш, метод, соҳа, суҳбат.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические и практические основы профессиональной ориентации учащихся, ее место в образовательном процессе и эффективные методы. Также рассматриваются инновационные направления помощи учащимся в выборе профессии.

Ключевые слова. Ученик, профессия, ремесло, опыт, оценка, метод, сфера, разговор.

Абстраст: Тҳис артисле аналйзес тҳе тҳеоретисал анд прастисал фоундатионс оф реадерсъ профессионал ориентатион, иц пласе ин тҳе едусатионал просесс анд еффестиве метҳодс. Инновативе wайс оф ҳелпинг студенц чоосе а профессион аре алсо беинг сонсидеред.

Keywords. Student, profession, craft, experience, assessment, method, field, conversation.

Кириш

Ўқувчиларни касбга йўналтириш – бу уларнинг қизиқишлари, қобилиятлари ва жамият эҳтиёжлари асосида келажак касбини аниқлашга кўмаклашиш жараёнидир. Замонавий таълим тизимида бу жараён катта аҳамият касб этади ва ўқувчиларнинг келажакдаги профессионал фаолиятини шакллантиришда муҳим роль ўйнайди.

Ўқувчиларни касбга йўналтириш усуллари.

Замонавий таълим жараёнида қуйидаги усуллар самарали деб ҳисобланади:

Психологик тестлар – шахсий хусусиятлар ва қобилиятларни аниқлашга ёрдам беради. Психологик тестлар шахснинг руҳий ҳолати, қобилиятлари ва касбий қизиқишларини баҳолаш учун ишлатилади. Асосий турлари:

Қобилият тестлари – ўқувчининг маълум соҳалардаги иқтидорини баҳолайди. Масалан, интеллектуал қобилиятлар, мантиқий фикрлаш, таҳлил қилиш қобилияти.

Шахсият тестлари – ўқувчининг характери ва шахсий хусусиятларини аниқлашга ёрдам беради. Масалан, МБТИ (Майерс-Бриггс шахсият типологияси) ва Биг Файв (Кэттелл методикаси).

Қизиқишлар тестлари – ўқувчининг қизиқиш соҳаларини аниқлашга мўлжалланган. Ҳолланд методи (РИАСЕС) шу йўналишда энг машҳур тестлардан бири ҳисобланади.

Мотивация тестлари – ўқувчининг касбий фаолиятга нисбатан мотивациясини аниқлаш учун ишлатилади.

Касб танлаш бўйича маслаҳатлар – мутахассислар томонидан олиб бориладиган касбий маслаҳатлашувлар. Ўқувчиларга касб танлаш бўйича қуйидаги амалий маслаҳатлар берилади:

1. Ўзингизни яхши билиш – шахсий анализ.

Қобилиятларингизни баҳоланг – Қайси фанлар сизга осон келади? Қайси соҳада ўзингизни ишончли ҳис қиласиз?

Қизиқишларингизни аниқланг – Сизга нималар қизиқ? Техника, санъат, бизнес ёки ижтимоий ишлар?

Шахсий хусусиятларингизни ўрганинг – Лидерлик қобилиятингиз борми? Жамоада ишлашни ёқтирасизми ёки мустақил фаолиятни афзал кўрасизми?

2. Касбларни ўрганинг ва изланиш олиб боринг.

Касблар ҳақида маълумот тўпланг – Ҳозир ва келажакда талаб юқори бўлган касблар ҳақида ўрганинг.

Танланган соҳада тажриба орттиринг – Амалиёт ёки тажриба ишларида иштирок этинг, касбий кўникмаларни шакллантиринг.

Турли касб эгалари билан суҳбатлашинг – Уларнинг иш шароити, талаблари ва имкониятлари ҳақида батафсил билиш учун касбий маслаҳатлар олинг.

3. Бозор талабларини инобатга олинг.

Келажакда талаб қилинадиган касбларни аниқланг – Технология ривожланиши билан бир қатор касблар йўқолади ва янгилари пайдо бўлади.

Ҳар доим ривожланишга тайёр бўлинг – Мутахассис сифатида кучли бўлиш учун доимий равишда билимингизни оширинг.

Келажакда талаб юқори бўлиши мумкин бўлган касблар:

ИТ мутахассисликлари (дастурлаш, киберхавфсизлик, маълумотлар таҳлили)

Экологлар ва альтернатив энергия муҳандислари

Тиббиёт ва биотехнология соҳасидаги мутахассислар

Маркетинг ва бизнес таҳлилчилари

4. Амалий тажриба орттиринг.

Фаолият билан боғлиқ ишларга қизиқинг – Танлаган касбингиз бўйича амалиёт ўташга ҳаракат қилинг.

Қўшимча кўникмаларни ривожлантиринг – Эффектив мулоқот, муаммоларни ҳал қилиш ва жамоада ишлаш кўникмаларини ривожлантиринг.

Фриланс ва стажировка имкониятларидан фойдаланинг – Ҳатто талабалик даврида ҳам ишлаш ва тажриба орттириш мумкин.

5. Бошқа омилларни ҳам ҳисобга олинг.

Иш шароити ва маош – Танлаган касбингиздаги иш шароитлари ва моддий имкониятларни таҳлил қилинг.

Касбнинг ижтимоий аҳамияти – Жамият учун қанчалик фойдали эканлиги ҳақида ўйланг.

Ўқиш муддати ва талаблари – Касбингиз учун қандай таълим олиш кераклигини аниқланг.

Ишлаб чиқариш амалиёти – реал меҳнат шароитида тажриба тўплаш имконияти. Ўқувчиларнинг назарий билимларини амалиётда мустаҳкамлаш, касбий маҳоратини ошириш ҳамда ишлаб чиқариш жараёнлари билан танишиш учун ташкил этиладиган амалий машғулотлардир.

Ишлаб чиқариш амалиёти турлари:

- танишув амалиёти;
- технологик амалиёт;
- иқтисодий ва ташкилий амалиёт;
- малакавий амалиёт;
- предмет йўналтирилган амалиёт;

Касблар ҳақида ахборот бериш – турли касблар ҳақида маълумот тақдим қилиш. Касблар турли соҳаларга бўлинади ва ҳар бирининг ўзига хос хусусиятлари, малака талаблари ва иш шароитлари бор. Қуйида энг машҳур касблар тоифалар бўйича тақсимланиб, қисқача тушунтирилади:

Илмий ва таълим соҳаси: ўқитувчи, профессор, тадқиқотчи.

Тиббиёт соҳаси: шифокор (доктор), хирург, фармацевт.

Ахборот технологиялари (ИТ): дастурчи (программист), система администратори, киберхавфсизлик мутахассиси.

Ҳуқуқ ва давлат бошқаруви: адвокат, судья, дипломат.

Инженерлик ва техник соҳалар: механик инженер, электрон инженер, архитектор.

Бизнес ва молия: иқтисодчи, бухгалтер, тадбиркор.

Санъат ва ижодкорлик: рассом, овоз режиссёри, актёр.

Қурилиш ва ҳунармандчилик: уста (сураткаш, кафелчи), дурадгор, металл ишловчи.

Касбий фаолиятга қизиқтириш дастурлари – меҳнат бозорида талаб юқори бўлган касблар бўйича махсус курслар.

Касбий фаолиятга қизиқтириш дастурлари ёшлар ва катталарни турли касбларга жалб қилиш, уларнинг касбий маҳоратини ривожлантириш ва ишга жойлашиш имкониятларини ошириш мақсадида ишлаб чиқилади. Бундай дастурлар мактаб ўқувчилари, коллеж ва университет талабалари, ишсизлар ва касб ўзгартиришни хоҳловчи кишилар учун мўлжалланган бўлиши мумкин.

Касбий фаолиятга қизиқтириш дастурларининг асосий йўналишлари:

Касб танлашга йўналтириш:

Касблар тўғрисида маълумотлар бериш (маърузалар, семинарлар, касб фестиваллари).

Касбий тестлар ва шахсий ҳусусиятлар асосида касб тавсиялари бериш.

Мувофиқлаштирувчи мутахассислар билан маслаҳатлар ўтказиш.

Амалий тажриба ва малака ошириш:

Таълим муассасалари ва иш берувчилар билан ҳамкорликда амалий машғулотлар ташкил қилиш.

Касбга йўналтирувчи стажировкалар ва амалиётлар.

Турли соҳаларда профессионал мутахассислар билан учрашувлар ва тажриба алмашиш жараёнлари.

Замонавий касблар ва меҳнат бозори тенденциялари ҳақида маълумот бериш:

Меҳнат бозорининг талаблари ва келажакдаги муҳим касблар ҳақида маълумотлар.

Янги технологиялар ва инновациялар билан таништириш.

Масофавий ишлаш имкониятлари ва фриланс соҳасидаги касблар.

Махсус тренинг ва ўқув курслари:

ИТ, маркетинг, молия, тадбиркорлик ва бошқа соҳалар бўйича курслар.

Ҳар бир касбга мос салоҳият ва кўникмаларни ривожлантириш.

Сертификат бериш ва малака ошириш курслари.

Иш берувчилар билан ҳамкорлик:

Компания ва ташкилотлар иштирокида ярмаркалар ўтказиш.

Иш берувчиларнинг эҳтиёжларига қараб касбий тайёргарликни ташкил қилиш.

Ёш мутахассислар учун стажировка ва ишга жойлашиш имкониятларини яратиш.

Қизиқтириш дастурларининг афзалликлари:

Ёшлар ва катталар учун тўғри касб танлашга ёрдам беради.

Иш тажрибасини ошириш ва касбий малакага эга бўлиш имконини яратади.

Меҳнат бозорида рақобатбардошликни оширади.

Янги технологиялар ва касблар ҳақида маълумот бериш орқали замонавий талабларга мослаштиришга ёрдам беради.

Касбга йўналтиришда инновацион ёндашувлар.

Бугунги кунда касбга йўналтириш жараёни анъанавий усуллар билан чекланиб қолмасдан, инновацион ёндашувлар асосида такомиллаштирилмоқда. Технологик тараққиёт ва меҳнат бозорининг ўзгариши сабабли ёшларни касб танлашда замонавий методлардан фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади. Қуйида касбга йўналтиришдаги энг самарали инновацион ёндашувлар келтирилади:

Рақамли платформалар ва сунъий интеллект

Виртуал ва қўшма реаллик (BP & AP) технологиялари

Геймификация ва интерактив ўқув дастурлари

Тадбиркорлик ва стартап маданиятини ривожлантириш

Таълим ва меҳнат бозори интеграцияси

Билим ва малака ўсишини мониторинг қилиш

Инновацион ёндашувлар орқали касбга йўналтириш жараёнини самарали ташкил этиш мумкин. Бугунги ёшлар меҳнат бозорида ўз ўрнини топиши учун рақамли технологиялар, интерактив ўқув усуллари ва амалий тажрибалардан самарали фойдаланиши керак.

Адабиётлар таҳлили

Бугунги кунда ахборот технологиялари ёрдамида касбга йўналтириш самарадорлигини ошириш имконияти мавжуд. Масалан:

Онлайн платформалар ва мобил иловалар орқали касбга йўналтириш хизматларини тақдим этиш.

Виртуал реаллик (BP) технологиялари ёрдамида турли касблар билан танишиш.

Касбий симуляторлар орқали амалий машғулотларни ўтказиш.

Натижа ва муҳокама

Ўқувчиларни касбга йўналтириш бугунги кунда жуда муҳим жараён бўлиб, унинг самарали олиб борилиши шахснинг келажакдаги муваффақиятига таъсир кўрсатади. Замонавий инновацион ёндашувлар ва педагогик методлардан фойдаланиш орқали бу жараённи янада самарали ташкил этиш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Замонавий касб танлаш методикаси. – Тошкент, 2020.
2. Жаҳон меҳнат бозори тенденциялари. – 2021.

O‘QUVCHILARNI MA’NAVIY TARBIYALASHDA IJTIMOIY FANLARNING AHAMIYATI

Fayziyeva Mo‘tabar Mardonovna,
Samarqand viloyati PMM FRB boshlig‘i

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk, vatanparvar va ijtimoiy faolligi yuqori shaxs sifatida shakllantirishda ijtimoiy fanlarning – tarix, huquq, milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va boshqa fanlarning o‘rni yoritilgan. Shuningdek, bu fanlar orqali o‘quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat, fuqarolik pozitsiyasi, sog‘lom tafakkur va axloqiy fazilatlarni rivojlantirishdagi imkoniyatlar ko‘rsatib berilgan.

Kirish

Zamonaviy ta’lim tizimining asosiy maqsadi bilim berish bilan bir qatorda, **ma’naviy barkamol shaxs** tarbiyalashdan iborat. Ayniqsa, bugungi globallashuv

davrida yosh avlodni ma’naviy tahdidlar, yot g‘oyalardan asrash, ularni vatanparvarlik, fuqarolik mas’uliyati, milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bu borada **ijtimoiy fanlar** muhim vosita sanaladi. Tarix, huquq, milliy g‘oya, adabiyot, ma’naviyat asoslari kabi fanlar orqali o‘quvchilarda milliy o‘zlik, yurtga mehr, ijtimoiy ong, axloqiy dunyoqarash shakllanadi.

Ijtimoiy fanlarning tarbiyaviy imkoniyatlari

1. Tarix – millatning ildizi va xotirasi

Tarix darslari orqali:

- Ajdodlar jasorati, buyuk siymolar faoliyati;
- Mustaqillik, milliy istiqlol g‘oyalari;
- Vatanni sevish, fidoyilik, xalqparvarlik tuyg‘ulari shakllanadi.

2. Huquq asoslari – fuqarolik madaniyati shakllanishi

- Konstitutsiya, qonunlarga hurmat;
- O‘z huquq va burchlarini anglash;
- Ijtimoiy adolat, qonun ustuvorligi g‘oyalari yosh ongiga singadi.

3. Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari – g‘oyaviy qarashlar tayanchi

- Yot g‘oyalarga qarshi immunitet;
- Uyg‘un jamiyat g‘oyasi;
- Ma’naviy fazilatlar: halollik, sadoqat, sabr-toqat, mehr-oqibat.

4. Adabiyot va til – ma’naviy olamni boyitish vositasi

- So‘z san’ati orqali axloqiy saboqlar;
- Badiiy obrazlar orqali hayotiy qadriyatlarni singdirish;
- Insonparvarlik, mehr-oqibat, bag‘rikenglik ruhida tarbiya.

O‘quvchilarda shakllanadigan ma’naviy fazilatlar

Ijtimoiy fan	Tarbiyaviy yondashuv	Rivojlanadigan sifatlar
Tarix	Vatanparvarlik, xotira	G‘urur, sharaf, fidoyilik
Huquq	Qonunchilik, ijtimoiy tartib	Javobgarlik, intizom
Milliy g‘oya	Milliy o‘zlik, g‘oya, ma’naviyat	Sadoqat, tafakkur, iymon
Adabiyot	Axloqiy me’yorlar	Halollik, samimiyat, kechirimlilik

Amaliy yondashuvlar:

- Darslarda real hayotiy misollar, tarixiy shaxslar faoliyati, o‘zbek mumtoz adabiyoti namunalari asosida **munozarali savollar** qo‘yish.
- “Vatan himoyasi – muqaddas burch”, “Konstitutsiya – mening hayotimda”, “Milliy qadriyatlar” kabi **ijodiy mavzularda insholar** yozdirish.
- **Film va hujjatli lavhalar** orqali tarixiy voqealarga, buyuk siymolar hayotiga e’tibor qaratish.
- O‘quvchilarning **ijtimoiy loyihalarda** (mahalla tadbirlari, bayramlar) ishtirokini rag‘batlantirish.

Xulosa

Ijtimoiy fanlar – bu shunchaki dars emas, balki yosh avlodni **hayotga tayyorlaydigan, ijtimoiy shaxs** sifatida kamol toptiradigan muhim vositadir. Bu fanlar orqali o‘quvchilar jamiyatdagi o‘z o‘rnini anglaydi, o‘z fikriga ega bo‘ladi, mustahkam ijtimoiy pozitsiyani shakllantiradi. Shu bois, o‘qituvchilar bu fanlarning tarbiyaviy imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishi, ularni zamonaviy metodlar asosida olib borishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020-yil.
2. Shavkat Mirziyoyev. “Yangi O‘zbekiston – inson qadri ulug‘langan jamiyat”, Toshkent, 2021.
3. Karimov I.A. “Ma’naviy yuksalish – ezgu maqsadimiz”, Toshkent, 2016.
4. Qodirov A., Xasanov B. “Ijtimoiy fanlar o‘qitish metodikasi”, Toshkent, 2022.
5. www.ziyonet.uz – O‘zbekiston ta’lim portali.

YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA ISLOM MANBALARIDAN FOYDALANISH

Toshpulatov I.I.,
Farg‘ona viloyati mahorat markazi dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Maqolada hozirgi zamonaviy ta’limda farzandlarimizga innovatsion ta’lim texnologiyalari bilan diniy va dunyoviy ilmlarni yoshlarga etkazishga qaratiladi.

Kalit so‘zlar: Buyuklar hikmati, mutafakkirlar, kitob, diniy va dunyoviy ilm, hadislar, fikr-mulohaza, ma’naviy hayot, mustaqil mutolaa, mustaqil fikrlash, kitobga muhabbat.

Аннотация: Статья посвящена вопросам привития нашим детям религиозных и светских знаний с помощью инновационных образовательных технологий в современном образовании.

Ключевые слова: мудрость великих, мыслители, книга, религиозные и мирские знания, хадисы, мнение, духовная жизнь, самостоятельное чтение, самостоятельное мышление, любовь к книгам.

Abstract: The article is devoted to the issues of instilling religious and secular knowledge in our children with the help of innovative educational technologies in modern education.

Keywords: wisdom of the great, thinkers, book, religious and secular knowledge, hadith, opinion, spiritual life, independent reading, independent thinking, love of books.

O‘sib kelayotgan yosh avlodga innovatsion ta’lim texnologiyalar va diniy tarbiya asosida tarbiya berishning o‘rni beqiyosdir. Bu borada buyuk mutafakkirlarimiz alohida bir davrni boshlab berdi. Diniy va dunyoviy ilmlar Movarounnahr o‘lkasida rivojlanishi va yoyilishi ham o‘ziga xos tarixga ega. Tabiiyki, ana shu davrni anglash, bilish uchun diniy va dunyoviy ilmga ega bo‘lish juda katta ahamiyat kasb etadi. Zero, bu borada keng ko‘lamli va mashaqatli, ayni vaqtda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Keyingi yillarda yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda ko‘plab pedagoglar Hadisi shariflarga murojaat qilmoqdalar. Bu tasodifiy emas, albatta. O‘zbek xalqining milliy ma’naviy qadriyatlari bevosita Islom dini asoslariga tayanadi. O‘quvchiga ta’lim berishda zamonamizning eng ilg‘or yutuqlaridan foydalanish, innovatsion texnologiyalar asosida yoshlarni tarbiyalash dolzarbdir. Hattoki, bugungi kunda insoniyatning boshiga tushgan og‘ir kunlarda butun dunyoda o‘quvchi va talabalarga ta’lim berish masofadan amalga oshirilmoqda. Bunda biz ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalarning naqadar jamiyat uchun zarurligini ko‘rishimiz mumkin. Hattoki, Samarqand viloyatidagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida ham ayni paytda Hadis ilmi maktabining talabalariga xorijlik professorlar masofadan turib onlayn darslarni tashkil qilishgan. Bu esa, ta’limda innovatsion texnologiyalar asosida Islom dinining manbalarini o‘quvchilarga yetkazish dolzarbligi ko‘rsatib beradi. Bu din

ijtimoiy turmushning bir qator nazariy masalalariga javob berib, shaxsning mavjudligi, uning maqsadi va hayot tarzi bilan bog‘liq bo‘lgan ayrim masalalarga oydinlik kiritadi. U inson tafakkurining beqiyosligi va mangu barhayotligini asoslab bera oladi.

Islom dini yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishga eng muhim metodologik masala sifatida alohida etibor qaratadi va uni ta’limot darajasiga ko‘tardi.

Ta’lim tizimi rivojida islom dinining ahamiyati va o‘rni juda katta bo‘lib, u milliy qadriyatlarimizni boyitdi. Ayniqsa, xalqimiz ma’naviy qadriyatlarining takomillashib borishida islom dinining ta’limga xizmat qilgan insonparvar g‘oyalari sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatdi. Islom dinining mohiyat-mazmunini o‘quvchilarga innovatsion texnologiyalar asosida yetkazib berish yangicha tizim hisoblanadi. Bu orqali zaminimizdan yetishib chiqqan ko‘plab mutafakkirlar, qomusiy olimlarning, islomiy me’moriy obidalar, shaharlarning bunyod bo‘lishi va tarixini yoshlarga yetkazish uchun qulaydir. Diniy e’tiqod, yo‘nalishlar va tariqatlar buyuk mutafakkirlarimiz hamda allomalarimizning o‘lmas asarlaridan ham keng joy olgan.

Yoshlarga innovaitson ta’lim berishda Quroni Karim, Al-Buxoriy Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoilning “Hadis: al-Jomi’ as-Sahih”, Ahror Xoja Ubaydullohning “Tabarruk risolalar”, Abu Nasr Farobiyning “Fozil odamlar shahri”, Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Abu Ali Ibn Sinoning “Tib ilmlari qonuni”, Jaloliddin Rumiyning “Ichingdagi ichingdadur”, Alisher Navoiyning “Xamsa”, “Mahbub ul-qulub”, Zahriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” kabi asarlaridan oqilona foydalanish, ularni o‘quvchi ma’naviyatini yuksaltirishga olib boradigan yo‘llarni ilmiy asoslash katta ahamiyatga ega. Biz pedagoglar yoshlar ongiga Islomni nafaqat din, balki oliy darajadagi insonparvarlik va go‘zallikni targ‘ib etuvchi tizim sifatida singdirishimiz lozim.

Har bir yoshlar o‘zining butun hayoti davomida ma’naviy jihatdan takomillashishga intiladi, unga ehtiyoj sezadilar. Buning uchun o‘quvchi innovatsion texnolgiyalarga asoslanishi va qo‘yidagilarni egallashga intilishi lozim:

- Internet yoki OAV orqali milliy ma’naviy qadriyatlarni chuqur o‘rganishi va o‘zlashtirishi;
- xulq-atvor yo‘nalishida din va zamonga mos dunyoqarashni shakllantirishi;
- o‘zi va jamiyat uchun zarur hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan xatti-harakatlar tizimini aniqlashi va unga amal qilishi lozim.

Xuddi mana shular yordamida o‘quvchilar ezgulik sari yo‘nalish oladilar. Islom dini pedagogik innovatsion texnologiyalar asosida insonparvar, nafosatga undovchi manbalarini izohlar ekanmiz, bu din:

a) yoshlarni yovuzlikdan qutqarib ezgulik sari yo‘llaydi;

b) yoshlarni jamoa bo‘lib yashash, o‘z atrofidagilarni sevish va qadrlashga o‘rgatadi;

v) har bir shaxsni erkin faoliyat ko‘rsatish, mustaqil fikrlashga chorlaydi;

g) har bir shaxsdan axloq-odob me’yorlariga qat’iy rioya etishni talab qilish orqali, ularning umuminsoniy qadriyatlarni o‘zlashtirishlarini ta’minlaydi;

d) insonni ulug‘ligini targ‘ib qiluvchi va uni hurmat qiluvchi qarashlar yordamida, ezgu ishlarning manguligini tan olishga da’vat qiladi;

e) haqiqat va ezgulikning g‘alabasiga barcha kishilarni ishonishga chorlaydi.

O‘quvchilar xuddi mana shularni farqlay olishlari kerak.

O‘quvchilarda zamonaga mos innovatsion milliy-ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishda qo‘yidagilarga etibor berishimiz kerak:

- o‘quv jarayoni mazmunida ifodalangan ko‘pgina tushunchalar, atamalar va iboralar ma’nolarini izohlash, ularni kengaytirilgan holda bayon etish, ular sirasiga diyonat, dindorlik, taqvodorlik, mo‘minlik, yaxshi fazilat, yaxshi xislat, saxovat, himmat, ezgu ish kabi atamalarni kiritish mumkin. Bunday so‘zlarning mazmun-mohiyatini o‘quvchilar ongiga yetkazmasdan turib, ularni yaxshilik, ezgulikka undash mumkin emas. Mazkur tushunchalarni anglagan o‘quvchilardagina vijdon va vijdonlilik haqida aniq tasavvur hosil bo‘ladi va oqibat natijada o‘quvchilarda eng yaxshi ma’naviy-axloqiy ko‘nikmalar shakllanadi:
- o‘quvchilarda o‘z-o‘zini anglash, nazorat qilish, o‘z faoliyatini aniq baholash ko‘nikmalari tarkib topadi;
- o‘quvchilar milliy ma’naviy qadriyatlarni o‘zlashtirishlari asosida bosqichma-bosqich ma’naviy-axloqiy xulq-atvor me’yorlarini egallaydilar;
- o‘quvchilarda ma’naviy jihatdan o‘z-o‘zini aniqlash to‘yg‘usini uyg‘otish ham pedagogik ahamiyatga ega. Haqiqatni izlashga bo‘lgan ehtiyoj, o‘quvchilarda milliy ma’naviy qadriyatlarni o‘zlashtirish natijasida vujudga keladi.

Bugungi kunda “din dunyo, mavjudotning kelib chiqishini, hayotining mazmuni va ma’nosi, insonning yashashdan maqsadlari kabi savollarga javob beruvchi dunyoqarash shakli bo‘lib, u diniy dunyoqarashni, diniy marosimlarni va diniy tuyg‘uni o‘z ichiga oladi”.[1] Demak, o‘quvchilarga ta’lim berishda dinning asl mohiyatini tushuntirib berish, innovatsion texnologiyalar asosida ular ongida diniy va dunyoviy bilimlar sentizini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa, ularni mantiqan fikrlarga, dinning jamiyatdagi rolini anglab yetishga, insonning yashashdan maqsadini tushunishiga yordam beradi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, insonning qalbi va ongini egallash, ayniqsa, yoshlarning ma’naviy dunyosini zaharlashga qaratilgan turli xavf-xatarlar ham kuchayib borayotgan bugungi kunda o‘zining kimligini, qanday bebaho meros vorislari ekanini teran anglab, ona yurtga muhabbat va sadoqat hissi bilan yashaydigan, imon-e’tiqodi mustahkam yosh avlodgina muqaddas zaminimizni yot va begona ta’sirlardan, balo-qazolardan saqlashga, Vatanimizni har tomonlama ravnaq toptirishga qodir bo‘ladi. Farzandlarimizga shunday tarbiya berayliki, ular o‘z ota-bobolariga, o‘z tarixi, Vatani, ona tiliga, millati, diniga va an’nalariga sodiq bo‘lib kamol topishsin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild –T.: O‘zbekiston, 2018.
2. Karimov Ibrohim. Imon va maslak tarixi. –T.: “Yangi nashr”, 2010.
3. G‘aybullayev O. Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi. –T.: “Fan va texnologiya”, 2019.

PISA TADQIQOTLARIDA TABIIY-ILMIY SAVODXONLIKNI BAHOLASH USULLARI

Jumaniyozova T.,
Xorazm VPMM katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada PISA (Xalqaro talabalarni baholash dasturi) tadqiqotlarida tabiiy-ilmiy savodxonlikni baholash usullari tahlil qilinadi. PISA dasturi o‘quvchilarning ilmiy bilim va ko‘nikmalarini baholashda kontekstli vazifalar, yozma

[1] G‘aybullayev O. Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi. –T.: “Fan va texnologiya”, 2019. 576-bet.

va amaliy savollar, testlar va simulyatsiyalar kabi metodlardan foydalanadi. Bu usullar o‘quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo‘llash qobiliyatini, ilmiy muammolarni hal qilishdagi yondashuvlarini va real hayotdagi ilmiy savodxonlikni oshirishdagi ahamiyatini aniqlashga qaratilgan. Maqola PISA tadqiqotlarida tabiiy-ilmiy savodxonlikni baholashning metodologik asoslarini va ularning ta'lim tizimidagi o‘rnini ko‘rib chiqadi.

Kalit so‘zlar:Tabiiy-ilmiy savodxonlik,kompetensiyani baholash,kritik fikrlash,**kontekstli topshiriqlar**,tanqidiy fikrlash, savodxonlikni baholash.

Xalqaro ta'lim baholash dasturi PISA (Programme for International Student Assessment) 15 yoshli o‘quvchilarning ta'limdagi yutuqlarini baholashga qaratilgan. Bu tadqiqotlar o‘quvchilarning turli sohalardagi, jumladan, tabiiy-ilmiy savodxonlikdagi kompetentsiyalarini o‘rganish, ularga qanday bilimlar va ko‘nikmalar o‘rgatish kerakligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Tabiiy-ilmiy savodxonlik — bu o‘quvchilarning ilmiy bilimlarni tushunish, ularga asoslanib, hayotda qo‘llash va ilmiy metodlar orqali muammolarni hal qilish qobiliyatidir. PISA tadqiqotlarida tabiiy-ilmiy savodxonlikni baholash usullari o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini, amaliy bilimlarini va ilmiy usullarni qo‘llashdagi qobiliyatini aniqlashga yo‘naltirilgan. Ushbu maqolada, PISA tadqiqotlarida tabiiy-ilmiy savodxonlikni baholash usullari va metodlari tahlil qilinadi.

PISA tadqiqotlari o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini baholashda har yili o‘zgarib turadigan global miqyosda statistik ma'lumotlar taqdim etadi. Bu baholashda turli mamlakatlarning ta'lim tizimlari o‘zaro solishtiriladi, va har bir mamlakatda tabiiy-ilmiy savodxonlikni oshirish bo‘yicha eng yaxshi amaliyotlar va yondashuvlar aniqlanadi. PISA tadqiqotlari o‘quvchilarning:

Ilmiy bilimlar: O‘quvchilarning nazariy va amaliy bilimlarni tushunishi va ulardan foydalanishi.

Ilmiy muammolarni hal qilish: O‘quvchilarning ilmiy metodlarni qo‘llab, kundalik hayotdagi muammolarni tahlil qilish va hal qilish qobiliyati.

Kritik fikrlash: O‘quvchilarning ilmiy savodxonlikka asoslanib fikr yuritish va qarorlar qabul qilish ko‘nikmalari baholanadi.

PISA tadqiqotlari natijalariga ko‘ra, tabiiy-ilmiy savodxonlikni baholash o‘quvchilarning nafaqat ilmiy ta'limda, balki ijtimoiy va iqtisodiy muhitda ham muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun zarurdir. Tabiiy-ilmiy savodxonlikni baholash orqali o‘quvchilarni kelajakdagi ilmiy va texnologik rivojlanishlarga tayyorlash mumkin.

PISA tadqiqotlarida tabiiy-ilmiy savodxonlikni baholashda turli metod va vositalar qo‘llaniladi. Ushbu usullar o‘quvchilarning ilmiy kompetentsiyalarini kengaytirish va ularga ilm-fan va texnologiyalarni qanday tushunish va qo‘llashni o‘rgatish uchun yordam beradi. PISA tadqiqotlari 15 yoshli o‘quvchilarga moslashtirilgan baholash tizimini ishlab chiqqan va uning asosida quyidagi asosiy usullarni qo‘llaydi.

PISA tadqiqotlarida tabiiy-ilmiy savodxonlikni baholashning birinchi usuli o‘quvchilarning nazariy bilimlari va amaliy kompetentsiyalarini tahlil qilishdir. O‘quvchilarga tabiiy-ilmiy fanlarga oid turli mavzularni o‘z ichiga olgan testlar beriladi. Testlar ikki asosiy qismga bo‘linadi:

-Nazariy bilimlar: O‘quvchilardan ilmiy nazariy bilimlarni, masalan, biologiya, fizika, kimyo, ekologiya kabi sohalardagi asosiy tushunchalarni bilish so‘raladi.

-Amaliy kompetentsiyalar: O‘quvchilardan ilmiy muammolarni hal qilish uchun amaliy bilimlarni qo‘llash talab qilinadi. Bu, masalan, ilmiy metodlarni ishlatish,

eksperimentlar o‘tkazish va ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishga qaratilgan savollarni o‘z ichiga oladi.

O‘quvchilar bilimlarni tushunish va qo‘llash, shuningdek, ilmiy muammolarni hal qilishda o‘z qobiliyatlarini namoyish etadilar.

PISA tadqiqotlarida tabiiy-ilmiy savodxonlikni baholashda o‘quvchilarga yozma va amaliy savollar beriladi. Bu savollar o‘quvchilarning ilmiy muammolarni qanday tahlil qilishi va ularga qanday javoblar taklif qilishi, shuningdek, ilmiy metodlarga asoslanib fikr yuritishlarini aniqlashga yordam beradi.

Yozma savollar: O‘quvchilar ilmiy mavzularda fikr yuritishlari va o‘z fikrlarini aniq va ravon tarzda bayon etishlari kerak. Bu savollar o‘quvchilarning ilmiy bilimlari va tahlil qilish qobiliyatlarini baholashga yordam beradi.

Amaliy savollar: O‘quvchilar turli ilmiy tajribalar, eksperimentlar va vaziyatlarni baholashlari, ilmiy metodlarga asoslanib, muammolarni hal qilishlari kerak. Bu savollar orqali o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalari, tajribaviy bilimlari va ilmiy metodlarni qo‘llashdagi yondashuvlari tekshiriladi.

PISA tadqiqotlarida testlar va simulyatsiyalar orqali o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonliklarini baholashning yana bir usuli qo‘llaniladi. Testlar o‘quvchilarning ilmiy muammolarni qanday hal qilishini, ilmiy metodlarni qanday qo‘llashini va ularni real hayotdagi vaziyatlarga qanday tatbiq etishini o‘rganishga yordam beradi.

Simulyatsiyalar o‘quvchilarga ilmiy muammolarni taqdim etib, ular tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni, ilmiy eksperimentlarni va muammolarni hal qilish jarayonlarini baholashga imkon beradi. Bu usul o‘quvchilarning amaliy faoliyatini va ilmiy yondashuvlarini aniq baholashga yordam beradi.

PISA tadqiqotlarining yana bir ahamiyatli usuli — bu kontekstual baholash usuli. O‘quvchilarga hayotiy vaziyatlar, masalan, ekologik muammolar, sog'liqni saqlash, texnologiyalar va boshqa sohalardagi ilmiy masalalar taqdim etiladi. O‘quvchilardan bu vaziyatlarda ilmiy bilimlarni qanday qo‘llashlari, qanday qarorlar qabul qilishlari so‘raladi.

Bu yondashuv o‘quvchilarning ilmiy savodxonligini faqatgina sinfda o‘rganilgan nazariy bilimlar bilan cheklanmay, ularni real hayotda ham qo‘llashga imkon yaratadi. PISA tadqiqotlari orqali o‘quvchilarning ilmiy bilimlarni amalda qo‘llashdagi qobiliyatlari va yondashuvlari baholanadi.

PISA tadqiqotlari nafaqat o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini baholash, balki mamlakatlar o‘rtasida solishtirish imkonini ham beradi. Tadqiqot natijalari o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligi darajasini, shuningdek, ta'lim tizimlarining samaradorligini solishtiradi. Bu solishtirish o‘quvchilarni o‘qitishdagi eng yaxshi amaliyotlarni va yondashuvlarni aniqlashga yordam beradi, shuningdek, tabiatshunoslik ta'limining global tendensiyalarini tushunishga imkon beradi.

PISA tadqiqotlarida tabiiy-ilmiy savodxonlikni baholash o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini, amaliy bilimlarini va ilmiy metodlarni qo‘llashdagi qobiliyatlarini aniqlashga imkon beradi. Tadqiqotda qo‘llaniladigan usullar, o‘quvchilarning nazariy va amaliy bilimlarini tahlil qilish, fikr yuritish va ilmiy savodxonlikni turli kontekstlarda qo‘llashni o‘z ichiga oladi. PISA orqali o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonlik darajasi haqida ko‘plab ma'lumotlar yig'iladi, bu esa ta'lim tizimlarini yaxshilash va o‘quvchilarni kelajakdagi ilmiy rivojlanishga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalangan adabiyotlar

1. OECD "Assessing Reading, Mathematics and Scientific Literacy: A framework for PISA 2009" 2009 yil
2.OECD (2017). "PISA – 2015 Science Framework." 2015 yil
3. Oripova M. "PISA xalqaro baholash dasturini milliy ta'lim tizimiga tatbiq etishning nazariy jihatlari." 2021 yil.
4. Doniyorova S. O. qizi, Norqulova R. N., Usanova M. A. qizi "Biologiya darslarida PISA testlaridan foydalanish." EЖ 2023 yil.

ЎҚУВ ФАНЛАРИ ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИЛАРНИ КАСБГА ЙЎНАЛТИРИШ

Абдурашидов Шарофиддин Дўсматович,
Жиззах вилояти Педагогик маҳорат маркази "Фанларни ривожлантириш бўлими" бошлиғи

Аннотация. Мазкур мақолада ўқув фанларининг касб танлаш жараёнидаги аҳамияти илмий жиҳатдан таҳлил қилинади. Касбий йўналтириш назариялари, ўқув фанлари ва уларнинг меҳнат бозори эҳтиёжларига мослиги ўрганилади. Шунингдек, ўқитувчиларнинг роли, амалий машғулотларнинг аҳамияти ва тадқиқот натижалари ёритилган

Калит сўзлар. Касбга йўналтириш, ўқув фанлари, касб танлаш, педагогик ёндашув, таълим тизими, ўқитувчининг роли, касбий компетенсия, амалий машғулотлар, меҳнат бозори, касбий ориентация, инновацион таълим усуллари, методик ёндашув, фанлараро интеграция, таълим ва касб, касбий ривожланиш.

Абстрактный. В данной статье научно анализируется значение учебных предметов в процессе выбора профессии. Изучаются профессиональные теории, академические предметы и их соответствие потребностям рынка труда. Также освещены роль преподавателей, важность практической подготовки и результаты научных исследований.

Ключевые слова. Профессиональная ориентация, образовательные предметы, выбор профессии, педагогический подход, система образования, роль учителя, профессиональная компетентность, производственная практика, рынок труда, профессиональная ориентация, инновационные методы обучения, методический подход, междисциплинарная интеграция, образование и профессия, профессиональное развитие.

Abstract. This article scientifically analyzes the importance of academic subjects in the process of choosing a profession. Vocational theories, academic subjects and their relevance to the needs of the labor market are studied. The role of teachers, the importance of practical training and the results of research are also covered

Keywords. Vocational guidance, educational subjects, vocational choice, pedagogical approach, educational system, teacher's role, professional competence, practical training, labor market, vocational orientation, innovative educational methods, methodical approach, interdisciplinary integration, education and profession, professional development.

Кириш

Касб танлаш ёшларнинг шахсий ва касбий ривожланишида энг муҳим босқичлардан бири ҳисобланади. Мактаб таълими бу жараёнда ҳал қилувчи рол ўйнайди, чунки ўқувчилар фанлар орқали ўз қобилият ва қизиқишларини

шакллантиради. Мазкур мақолада таълим фанларининг касбга йўналтиришдаги аҳамияти илмий жиҳатдан таҳлил қилинади.

Назарий асослари

Касбга йўналтириш (профориентация) – бу инсоннинг шахсий қизиқишлари, қобилиятлари ва меҳнат бозори эҳтиёжларини ҳисобга олган ҳолда касб танлашга йўналтириш жараёнидир. Ж. Холланд ва Л.С. Выготский каби олимлар касбга йўналтириш назарияларини ишлаб чиққанлар. Уларнинг фикрича, инсон шахсий хусусиятларига кўра маълум бир касбий муҳитда самарали фаолият юритиши мумкин.

Ўқув фанларининг касб танлашдаги роли

Ҳар бир фан касбий билим ва кўникмаларни шакллантиришда муҳим ўрин тутади. Жумладан:

- **Математика** – аниқ фанлар, муҳандислик, иқтисодиёт, ахборот технологиялари учун асосий фан.
- **Биология ва кимё** – тиббиёт, фармацевтика, аграр ва экологик соҳалар учун зарур.
- **Физика** – инженерия, энергетика, авиакосмик технологиялар билан боғлиқ касблар учун муҳим.
- **Адабиёт ва тарих** – журналистика, ҳуқуқшунослик, дипломатия ва педагогика соҳаларига йўналтиради.
- **Информатика** – дастурлаш, сунъий интеллект, маълумотлар таҳлили каби соҳаларда муҳим.
- **География** – сайёҳлик, геология, экологик тадқиқотлар билан боғлиқ касблар учун асосий фан.

Ўқитувчиларнинг роли

Педагоглар ўқувчиларни касбий йўналтиришда қуйидаги вазифаларни бажариши керак:

- Фанларнинг реал ҳаётдаги аҳамиятини тушунтириш;
- Ўқувчиларнинг қобилиятларини аниқлаш ва уларга маслаҳат бериш;
- Касб эгалари билан учрашувлар, маҳорат дарслари ва амалий машғулотлар уюштириш;
- Таълим жараёнида инновацион методлардан, жумладан, онлайн курслар ва виртуал лабораториялардан фойдаланиш.

Амалий ёндашув ва тадқиқот натижалари

Илмий тадқиқотлар шундан далолат берадики, касбий йўналтиришда амалий машғулотлар муҳим аҳамият касб этади. Масалан:

- Лаборатория ишлари ва тажрибалар орқали аниқ фанларга қизиқиш ошади.
- Экскурсиялар ва ишлаб чиқариш амалиётлари орқали ўқувчилар касбий муҳит билан яқиндан танишади.
- Касбий тестлар ва маслаҳат сессиялари орқали ўқувчиларнинг шахсий хусусиятларига мос касб танлаш имконияти ошади.

Хулоса ва таклифлар

Касб танлаш жараёнида мактаб фанлари ҳал қилувчи рол ўйнайди. Ўқувчиларга самарали касбий йўналиш бериш учун қуйидаги таклифлар илгари сурилади:

- Таълим дастурларида касбга йўналтириш элементларини кучайтириш;
- Амалий машғулотлар, лойиҳалар ва касбий тадқиқотларга кенгроқ ўрин бериш;

- Ўқитувчиларнинг касбий йўналтириш бўйича малакасини ошириш;
- Мактаблар ва ишлаб чиқариш корхоналари ўртасида ҳамкорликни кучайтириш.

Шу орқали, ёшлар ўзларининг имкониятларини аниқроқ баҳолаши ва келажакда ўзларини тўғри касбий йўналишда ривожлантириши мумкин бўлади. Илмий ёндашув ва инновацион усуллар орқали касбий йўналтириш жараёнини такомиллаштириш жамият тараққиёти учун муҳим ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Холланд, Дж. Л. (1997). Профессиональные интересы: теория и практика. Москва: Педагогика.
2. Выготский, Л. С. (1986). Психология развития ребенка. Москва: Просвещение.
3. Super, D. E. (1957). The Psychology of Careers. New York: Harper & Row.
4. Савченко, А. М. (2015). Профессиональное самоопределение школьников: методика и практика. Киев: Освита.
5. Krumboltz, J. D., & Nichols, C. W. (1990). Integrating Career Choice and Human Development. The Career Development Quarterly, 39(3), 251-260.
6. Гончарова, И. В. (2012). Формирование профессиональной направленности учащихся в процессе изучения школьных дисциплин. Санкт-Петербург: Наука.
7. Савин, Н. В. (2001). Педагогика: учебное пособие для вузов. Москва: Академия.

O‘QUVCHILARNING BILISH FAOLLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TA’LIMNING TUTGAN O‘RNI

Abdusalomova Maftuna Sheraliyevna,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Navoiy bo‘limi, tayanch doktorant

Abstract: The introduction of innovative activities in improving the efficiency of educational institutions provides an opportunity to qualitatively improve the modern educational process. Teaching knowledge based on a new approach increases the cognitive activity of students.

Аннотация: Внедрение инновационных образовтельных технологий в деятельность образовательных учреждений дает возможность повышения эффективности и качества образовательного процесса. Преподавание знаний на основе инновационного подхода повышает познавательную активность учащихся.

Annotatsiya: Ta’lim muassasasalarining samaradorligini oshirishda innovatsion faoliyatni joriy etish, zamonaviy ta’lim jarayonini sifat jihatidan yuksaltirish imkoniyatini beradi. Bilimlarni yangicha yondashuv asosida o‘qitish o‘quvchilarning bilish faolliklarini oshiradi.

Keywords: Innovative education, cognitive activity, quality of education, individuality of students.

Ключевые слова: инновационное образование, познавательная активность, качество образования, индивидуальность учащихся.

Kalit so‘zlar: Innovatsion ta’lim, bilish faolligi, ta’lim sifati, o‘quvchilarning individualligi.

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida mamlakatimizda ta’lim

muassasalarining innovatsion faoliyatini joriy etish xususiyatlari, uning ahamiyati va zaruriyatidan kelib chiqqan holda, ta’lim sifatini oshirish masalalari bo‘yicha vazifalar uzluksiz ta’lim tizimining har bir bo‘g‘ini uchun alohida ajratib ko‘rsatilgan, bu vazifalarni amalga oshirishda ta’lim texnologiyalarini qo‘llash asosida o‘qitish jarayonini tashkil etish ham o‘z ahamiyatiga ega.

Pedagogik sohadagi barcha innovatsiyalar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichiga qat’iy mos kelishiga asoslanadi. Hozirgi vaqtda ular o‘quvchilarning mustaqilligini rivojlantirishga, o‘z-o‘zini o‘rganish va o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatlarini shakllantirishga, o‘quv dasturlarini mexanik ravishda emas, balki ongli ravishda o‘zlashtirishga qaratilishi kerak. Bunda tanqidiy va kreativ fikrlash, turli vaziyatda o‘z nuqtai nazarini bayon eta olish, ijodkorlik asosida quriladigan yangi amaliy jarayonlar nazarda tutiladi.

Pedagogik innovatsiyada “yangi” tushunchasi markaziy o‘rinni egallab, bu faqatgina “yangi” g‘oya emas, balki hali foydalanilmagan yondashuvlar deb qaraladi.

Sh.Sh. Olimov “Innovatsion ta’lim texnologiyalari va metodlari” darsligida innovatsion ta’lim - o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish va ta’lim faoliyati uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish uchun mavjud usullar va vositalarni yangilash yoki sifat jihatidan yaxshilashni o‘z ichiga olgan o‘quv va ta’lim faoliyatini tashkil etish metodologiyasi ekanligini aytib o‘tgan [3].

Ta’limdagi innovatsiyalar o‘qitish va o‘rgatish sohasidagi innovatsiyalarning paydo bo‘lishiga qaratilgan kompleks tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Bu innovatsiyalar ta’lim jarayonini tashkil etishning usul va uslublari, ta’lim va tarbiya jarayonida foydalaniladigan resurslar, ilmiy nazariyalar va tushunchalarni ifoda etadi. Innovatsiyalar ta’lim faoliyati jarayonida ham rivojlanadi. O‘quv jarayonida bilim oluvchilarning nazariy va amaliy bilimlari rivojlanadi, keyinchalik ular amaliy hayotning innovatsiyalar yaratish bilan bog‘liq turli sohalarida qo‘llanilishi mumkin.

R.N.Yusufbekova innovatsion ta’limni - pedagogik yangilikka o‘qitish va tarbiya berishda avval ma’lum bo‘lmagan va avval qayd qilinmagan holat, natija, rivojlanib boruvchi nazariya va amaliyotga eltuvchi pedagogik voqelikning o‘zgarib turishi mumkin bo‘lgan mazmuni sifatida qaraydi [5].

M.I.Islamova va Sh.D.Ablakulovlar [2] ta’lim muassasasining innovatsion faoliyatini joriy etishda innovatsiyalarni yaratish va amalga oshirish jarayonlari muayyan sikllardan iborat ekanligini ta’kidlab, ushbu innovatsiyalar taraqqiy etishi va rivojlanishi uchun ta’lim muassasalari quyida keltirilgan yangi vazifalarni amalga oshirishlari kerak, deb hisoblaydilar:

1. Ilm-fan yutuqlarini ta’limga keng joriy qilish.
2. Ta’limning uzluksizligini ta’minlash.
3. Ta'lim muassasalari moddiy-texnika bazasini modernizatsiya qilish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan ta’lim jarayonida samarali foydalanish, masofaviy ta’limni joriy etish.
4. Ta’lim muassasalarining mintaqaviy va xalqaro miqyosda integratsiyalashuvi, ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlikning rivojlanib borishi.
5. Ta’lim sifatini boshqarishda xalqaro standartlar talablarini joriy etish.

Л.С.Выготский ta’lim jarayonida shaxsning aqliy rivojlanishi kechagi kunga emas, balki ertangi kunga tayanmog‘i lozim, deb hisoblagan edi. Ta’lim rivojlanishning faqat tugallangan darajasi asosida qurilmasdan, avvalo unchalik tarkib topmagan va shunday ta’lim ta’siri asosida taraqqiy etgan narsalarga tayanmog‘i lozim [6].

М.Полани ishlab chiqqan shaxsiy bilim konsepsiyasida bilim—anglash mumkin boʻlgan narsalarni faol oʻzlashtirish, alohida mahorat va vositalarni talab qiluvchi harakat deb aytgan. Shaxsiy bilim muqarrar tarzda intellektual salohiyatni talab qiladi. Unda nafaqat borligʻi, balki bilishga harakat qilayotgan shaxs, uning bilimga qiziqishi, bilimni talqin qilish va undan foydalanishga nisbatan shaxsiy yondashuvi, uni oʻziga xos tarzda anglab yetishi mujassamlashgan [7].

Bilimlarni oʻzlashtirish jarayonida ilm-fan olamidagi oʻz istiqbolini koʻrsatgan yangicha yondashuvlardan foydalanish orqali pedagoglar ta’lim jarayonini yangi mazmun, shakl va usullar bilan boyitib boradilar. Bunday samarali innovatsion muhitning yaratilishi oʻz navbatida ta’lim muassasalarining innovatsion faoliyatini faollashtirish obyektiv ehtiyojga aylangan. Ta’lim jarayoni innovatsion faoliyatni olib kirish orqali yangicha muhit yaratish va uni tatbiq etishni oʻz ichiga oladi.

R.Safarova pedagoglar bilimlarni yangicha yondashuv asosida qiziqarliligi va aniqligi oʻquvchilarning fikriy faolliklarini uygʻotish uchun zarur boʻlib, oʻqishga boʻlgan qiziqishlarini barqarorlashtiradi va mustahkamlaydi, oʻrganilayotgan masalalarga nisbatan qiziquvchanlik va sinchkovliklarini oshiradi, deb hisoblaydi [4; 9-б.].

Bu jarayon oʻquvchilarning intellektual hamda ma’naviy jihatdan rivojlanishlariga yordam beradi, deb hisoblaymiz.

M.I.Islamova ва Sh.D.Ablakulov ta’lim tizimida innovatsion faollikni oshirishda oʻquv yurtlari oʻrtasidagi integratsion aloqalar oʻrnatilishini ahamiyatini quyidagicha izohlaganlar [2]:

1. Amaliy tadqiqotlarning shakllanish koʻnikmalari, professional yechimlarni qabul qilishga yordam beradi;
2. Bilimlarni samarali oʻzlashtirish imkonini yaratadi;
3. Bilimlarni toʻplashdan mustaqil ta’lim olish mexanizmlarini yaratish va tadqiqot faoliyati koʻnikmalariga oʻtish jarayoni rivojlantirish imkonini yaratadi;
4. Oʻquvchilarning qobiliyatlarini shakllantirish va ularda bilim koʻnikmalarini mustahkamlaydi;
5. Ijodiy va kasbiy bilim qobiliyatini rivojlantiradi;
6. Oʻquvchilarning sotsial moslashuvi uchun psixologik shart-sharoitlar yaratadi;

Sh.T. Boltayeva oʻquvchidagi bilish jarayoni innovatsion ijodkorlik natijasida yuz berishini ta’kidlagan. Izlanishlar jarayonida ijodkorlik faoliyati namoyon boʻlishi uchun aniq maqsadga yoʻnaltirilgan, rejalashtirilgan, me’yorlarga ega boʻlgan, oʻz-oʻzini anglagan faoliyat zaruriyati seziladi. Bu esa oʻquvchida atrof-olam obyektlari va ular haqidagi bilimlarni oʻzlashtirish, ta’lim samaradorligini vujudga keltirish, faoliyatning avvalgi turlariga tayanishni taqozo etadi [1].

Ta’lim tizimini rivojlantirish uchun mamlakatimizning ilmiy-texnik va innovatsion potensialini barqaror saqlash hamda rivojlantirish; ilm-fanni rivojlantirish va innovatsiyalarni yaratish uchun, ilm-fan yutuqlaridan keng koʻlamda foydalanish asosida innovatsion faoliyat subyektlarini va ulardagi faollarni qoʻllab-quvvatlash zarur. Ta’limda yangicha yondashuvning joriy etilishi oʻz navbatida ta’lim sifatining samaradorligini oshiradi. Innovatsion guruhlarni oʻzida mujassamlashtirgan ta’lim tashkilotlari mustahkam tashqi va ichki ta’lim munosasabatlarda yangi dastur va uslublarni ishlab chiqishi natijasida raqobatbardosh boʻlib, jahon standartlari darajasiga mos keladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Boltayeva Sh.T. Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish. Monografiya. –Navoiy, 2012. -144 b.
2. Islamov M.I., Ablakulov Sh.D. Innovatsion ta’limning rivojlanishi. Academic research in educational sciences, Uzbekistan. ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF). www.ares.uz. 2021. 1564-1572.
3. Olimov Sh.Sh., Samiyeva Sh.X., Aslanova N.X., Ro‘ziyev F.J. Innovatsion ta’lim texnologiyalari va metodlari [Matn] : darslik. - Buxoro: "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona, 2022. -240 b.
4. Safarova R., Yusupova F., Djiemuratova G., Ro‘ziyev F., Ibraximov S. O‘quvchilarning bilish faoliyatini kengaytirishga yo‘naltirilgan o‘quv vaziyatlarini fanlar kesimida loyixalash. -T.: «Fan va texnologiya», 2013, -148 b.
5. Yusufbekova R.N. Pedagogik jarayonlardagi innovatsion yondashuvlar. Toshkent:O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2003.
6. Выготский Л.С. Педагогическая психология// под ред. В.В.Давыдова. –М.:, Педагогика, 1999. -321 с.
7. Полани М. Личностное знание. – М.: Прогресс, 1985. – 344 с.

FIZIKA TA’LIMIDA TAJRIBA VA KUZATISHLAR O‘TKAZISHNING AHAMIYATI.

Alinazarova Maxfuza Alisherovna,
Namangan viloyati PMM dotsenti

Fizika – bu tabiat hodisalarini o‘rganuvchi fan bo‘lib, undagi nazariy bilimlar amaliy tajriba va kuzatishlar bilan mustahkamlanadi. Ushbu fanni o‘rgatishda nafaqat formulalar va qonunlarni yod olish, balki ularni hayotda qanday ishlashini ko‘rsatish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, fizika ta’limida tajriba va kuzatishlarning o‘rni beqiyosdir.

Birinchidan, tajribalar orqali o‘quvchilar fizik qonunlarni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rib, ularga ishonch hosil qilishadi. Misol uchun, Nyutonning uchinchi qonunini darslikda o‘qish bir narsa, lekin uni oddiy bir arqon tortish tajribasi orqali ko‘rish – bu butunlay boshqacha ta’sir qiladi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi, ularni faol fikrlashga undaydi.

Ikkinchidan, tajribalar va kuzatishlar orqali o‘quvchilar mustaqil ravishda xulosa chiqarishni, savollar qo‘yishni, va muammolarni tahlil qilishni o‘rganadilar. Bu esa ularda tanqidiy fikrlash, ilmiy dunyoqarash va muammoga yechim topish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Uchinchidan, amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarning bilimlari chuqurlashadi va barqarorlashadi. Tajriba orqali o‘rganilgan ma’lumotlar uzoq vaqt xotirada saqlanib qoladi, chunki ular ko‘rish, eshitish va harakatlar orqali ongga singadi. Shuningdek, tajriba va kuzatishlar o‘qituvchiga ham yordam beradi. O‘qituvchi o‘quvchilarning fizika qonunlarini qanchalik yaxshi tushunganini aniqlay oladi, noto‘g‘ri tushunchalarni aniqlab, ularni o‘z vaqtida to‘g‘rilash imkoniga ega bo‘ladi.

Tajriba va kuzatishlarni qo‘llashning birinchi bosqichida o‘qituvchi quyidagilarga ahamiyat bermog‘i lozim:

1) tajriba va kuzatishlar o‘tkazish uslubini yaxshi o‘zlashtirib olish;

2) yangi o‘quv uslubiga o‘quvchilarni ko‘nikishiga imkon bermoq va uni qiziqtirishga;

3) sinf o‘quvchilarining imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga.

Avval o‘quvchilarga murakkab bo‘lmagan sodda topshiriqlar berib boriladi. Hozir o‘tilgan nazariy materialga asosan aniq topshiriqlar berilib, unda o‘quvchilar ishiga oid asboblar bilan tanishib boriladi va ishni bajarishni o‘rganadilar.

Birinchi tajriba va kuzatish topshiriqlari o‘quvchilarni ular uchun yangi bo‘lgan faoliyatga olib kiruvchi ongli bo‘lishi lozim. Ular past darajadagi qiyinlikda bo‘lsinlar. Shunday bo‘lganda ham o‘quvchilarga qiyin tuyulishi mumkin, chunki ular bunday ishlarni bajarishni birinchi boshlaydilar. Bunday topshiriqlarni o‘quvchilarga bajartirish o‘quvchi uchun qiyin emas. U o‘quvchilarni kuzatish va yordam berishda ulguradi, kuzatish oson.

O‘quvchilar ishni yaxshi usulini o‘zlashtirib olganlaridan keyin topshiriqlarni sekin-asta murakkablashtirib boriladi. Murakkablashtirib borishning bir usuli bu o‘quvchilar tajriba va kuzatishlar topshirig‘iga oid asboblarni tanlashga o‘rgatishdir.

Tajriba va kuzatishlar sistemali ravishda olib borilsa sinfda tabaqalanish bo‘ladi: qobilyatli o‘quvchilar guruhi ajraladilar va ular topshiriqlarni tez bajaradilar. Bunday vaqtda individual topshiriqlar berib boriladi. Topshiriqlarni tanlab bajarish materyalni mustaxkamlash va takrorlashda ko‘proq qo‘llanadi. Yangi materyalni hamma o‘quvchilar (kuchlisi ham kuchsizi ham) o‘zlashtirishlari lozimdir. Qo‘shimcha topshiriqlar asosiy mavzuni rivojlantirish va guruhlashtirish maqsadida o‘tkazilish mumkin. Ular o‘quvchi fikrini boshqa tomonlarga olib ketmasligi kerak. Bunday topshiriqlar butun sinf ko‘rayotgan umumiy muammoni yangi tomonlarini o‘rganishga bag‘ishlanishi va undan tashqaridagi masalani qo‘shmasligi lozim.

Butun sinfga berilgan muammoli topshiriq o‘rtaga o‘qiydigan o‘quvchiga mo‘ljallangan bo‘ladi. Ilg‘or o‘quvchilar topshiriqni tez bajarishlari va zerikib qolmasliklari uchun ularga induvudval topshiriqlar maqsadga muvofiqdir. Iduvudval topshiriqlar butun sinf muammosini ko‘proq qiyinroq, murkkabroq tomonlarini ochib beradi. Umumiy topshiriqning sifat tomonlarini ochib beruvchi topshiriqlar tuzishni ikki imkoniyati mavjuddir:

1) Induvudval topshiriqni oldindan tushintirilmay beriladi. Masalan, linzada xosil bo‘ladigan tasvirning xulqi buyumdan linzagacha bo‘lgan masofaga bog‘liqligini tekshirishni topshiriq qilib berilganda buyumni F va 2F bo‘lgan nuqtalardan o‘tganda tasvirni xulqini butun sinfga tushintirish lozim bo‘ladi. Lekin buni induvudval topshiriq qilib berganda buni buni aytilmaydi. Ilg‘or o‘quvchilar o‘zlari aniqlab tushintirishlari va ko‘rsatishlari lozim bo‘ladi.

Induvudval topshiriq qilib ularni o‘quvchilar alohida stollarda bajarishlari, agar bunga imkoniyat bo‘lmasa ularni bir stolda bajarishlari maqsadga muvofiqdir. Umuman teng kuchlilarni birga guruxlashtirib o‘tkazilsa bo‘sh o‘quvchilar ham o‘z fikirlarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

2) Umumiy topshiriq murakkablashtirish asosida individual topshiriqni tuzish shunday yo‘lda tanlanishi kerakki, bunda o‘quvchilar topshiriqqa oid eksperiment asboblarni o‘zlari mustaqil hayotda tanlab ishni bajaradigan bo‘lsinlar. Bu o‘z navbatida ikki usul bilan amalga oshiriladi: a) asboblarni keragidan ortiq qo‘yib qo‘yish orqali; b) asboblar umuman qo‘yib qo‘ymaslik orqali. Bu holda o‘quvchi ishga oid asboblarni o‘zi aniqlaydi.

Yuqortida aytilgan hamma topshiriq aniq va qat’iy bo‘lish lozim. O‘quvchilarni ijodiy qidirishlari o‘z ichiga mustaqillikni (qidiruv-tekshiruv) olishi zarurdir. Yuqorida ko‘rilgan induvidual topshiriqlar o‘quvchilarning qobilyatiga asoslangan xolda umumiy topshiriq asosida turlicha murakkablikda bo‘lishi mumkin. Vaqtni yetishmasligi sababli

o‘quvchilar tomonidan qo‘yiladigan topshiriqlar dars jarayonida kam qo‘llaniladi. Ular uy vazifalarida ko‘rib beriladi.

Xulosa qilib aytganda**,** fizika ta’limida tajriba va kuzatishlar – bu nafaqat yordamchi usul, balki asosiy o‘quv vositalaridan biridir. Ular orqali nazariya amaliyot bilan uyg‘unlashadi, va bu esa ta’lim sifatini sezilarli darajada oshiradi. Shuning uchun ham zamonaviy fizika ta’limi tajribalarsiz to‘liq bo‘la olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: “O‘qituvchi”, 2004. -102 b.
2. Пичугина Г.В. Технологическое образование школьников Финляндии: опыт реализации междисциплинарного подхода // Школа и производство. 2015. № 3. С. 9-14.
3. M. Alinazarova, Q.Davronov. Fizika. O‘quv qo‘llanma– Toshkent. “Navro‘z” nashriyoti: 2019. – 200 b.

O‘QUVCHILARNING AXLOQIY XULQ-ATVORI VA UNING RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARNI O‘RGANISH

Egamberdiyev Laziz Kudratovich,
Osiyo xalqaro universteti magistranti
Ilmiy rahbar- Astanakulov Kamalitdin Maxkamovich p.f.b.f.d (PhD), dotsent.

Annotatsiya: Mazkur maqolada XXI asr umumiy o‘rta ta'lim maktablarining oldiga o‘z bitiruvchilariga jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan davr uchun zarur bo‘lgan mustahkam hamda tizimli bilim asoslarini berishi, shuningdek, ona Vataniga muhabbat va sodiqlik, dunyo xalqlari va elatlariga hurmatda bo‘lish kabi insonparvarlik g‘oyalarini mujassamlovchi milliy istiqlol ruhini singdirishi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalar (o‘z-o‘zini boshqara olish, murakkab vaziyatlar va stressli holatlardan chiqib keta olish, kommunikatsiya (muloqot)ga kirisha olish va b.) bilan qurollantirish kabi muhim masalalarni hal qilish muammolari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: globallashuv, XXI asr, ta’lim tizimi, vatan, ijodiy fikrlash, xulq-atvor, stress, vaziyat, ijodiy qobiliyat, ta'lim metodikasi, pedagogika, muloqot, uzluksiz ta'lim, o‘quvchi faoliyati, ta'lim samaradorligi.

Аннотация: В данной статье анализируются проблемы, стоящие перед общеобразовательными школами XXI века в решении таких важных задач, как обеспечение выпускников прочной и систематизированной базой знаний, необходимых для стремительно развивающейся эпохи, а также воспитание в них духа национальной независимости, воплощение таких гуманистических идей, как любовь и преданность Родине, уважение к народам и народам мира, а также оснащение их навыками и компетенциями, необходимыми для общественной жизни (самоуправление, умение преодолевать сложные и стрессовые ситуации, умение общаться и т. д.).

Ключевые слова: глобализация, XXI век, система образования, родина, творческое мышление, поведение, стресс, ситуация, творческие способности, методика обучения, педагогика, коммуникация, непрерывное образование, активность учащихся, эффективность обучения.

Abstract: This article considers humanistic ideas such as providing their graduates with a solid and systematic basis of knowledge necessary for a rapidly developing period, as well as love and devotion to the Motherland, respect for the

peoples and peoples of the world skills necessary to educate embodying the spirit of national independence, social life. (self-management, exit from difficult situations and stressful situations, communication) (access to dialogue, etc.)

Key words: globalization, XXI century, education of the system, homeland, curd thinking, narrative, stress, situation, curd assistance, teaching methods, pedagogy, communication, intolerable education, learning activity, learning efficiency

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan ilk kunidanoq Hukumatimiz yosh avlodning sog‘lig‘i, ta'lim hamda tarbiyasi masalalariga jiddiy ahamiyat berib kelmoqda. Ushbu ishlarning amaliy yechimi bevosita uzluksiz ta'lim tizimi bo‘g‘ini bo‘lgan maktab bilan bog‘liq. Ta'limimiz diqqat markazida erkin, ongli, o‘z va dunyo mamlakatlari milliy va madaniy qadriyatlariga hurmatda bo‘lgan barkamol shaxsni tarbiyalash turadi.

XXI asr umumiy o‘rta ta'lim maktablarining oldiga o‘z bitiruvchilariga jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan davr uchun zarur bo‘lgan mustahkam hamda tizimli bilim asoslarini berishi, shuningdek, ona Vataniga muhabbat va sodiqlik, dunyo xalqlari va elatlariga hurmatda bo‘lish kabi insonparvarlik g‘oyalarini mujassamlovchi milliy istiqlol ruhini singdirishi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma va malakalar (o‘z-o‘zini boshqara olish, murakkab vaziyatlar va stressli holatlardan chiqib keta olish, kommunikatsiya (muloqot)ga kirisha olish va b.) bilan qurollantirish kabi muhim masalalarni hal qilish muammolarini qo‘ymoqda.

Axloqiy xulq-atvorni shakllantirishda yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha bir qancha psixolog hamda pedagoglar (Shomaxmudova R., Ratner F.L., Yusupova A.YU., N. L. Konovalova, A. V. Skorobogatov, S. V. Polejayeva, I. G. Baykova., L.S.Vigotskiy va boshqalar) o‘z tadqiqot maqsadlariga asoslanib, muammoni turli yo‘nalishlar bo‘yicha tadqiqot obyektiga aylantirganlar va ma'lum darajada ijodiy qobiliyatni rivojlantirishni talqin qilishning nazariy-fundamental asoslarni yaratganlar. L. Mo‘minova, SH.A.Karimova, O.A.Maxmudova, P.Djurayeva, M.Raximova, A.Nazarovlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda ta’lim jarayonida har bir bolaning ehtiyojlari va imkoniyatlariga mos metodlarni qo‘llashga doir topshiriqlarni tuzish va taqdim etishga ma'lum darajada e’tibor qaratilgan.

Istiqlol davriga qadar nogiron bolalar ta'lim-tarbiyasi yopiq mavzu hisoblanib, ular asosan “o‘qitiladigan” va «o‘qitilmaydigan»lar toifasiga tabaqalashtirilar edi.

Hozirgi kunda maxsus ta'lim tizimiga “anomal”, “nuqsonli”, “aqli zaif” kabi atamalar o‘rniga “alohida e'tiborga muhtoj”, “aqliy rivojlanishida muammosi bo‘lgan”, “rivojlanishida chetga chiqishlari mavjud” atamalari kirib keldi. Bu hol bunday bolalarning reabilitatsiya, korreksiya, ijtimoiy hayotga moslashuvlari va integratsiyalashuv (uyg‘unlashuv)lari masalalariga bo‘lgan munosabatlarning o‘zgarishiga olib keldi. Asta-sekinlik bilan dunyoga yuz tutgan ta'lim tizimida ham yangi yo‘nalish ishlari boshlab yuborildi. Maxsus ta'lim tizimiga muqobil bo‘lgan yangi yo‘nalish maktablari – inklyuziv maktablari shakllana boshladi. 1996 yildan e'tiboran kirib kelgan va 2000 yildan e'tiboran xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda turli Loyihalar asosida tashkil etib kelinayotgan inklyuziv ta'lim muassasalari dastlab muvaffaqiyatlarga erishishiga qaramay, mazkur qo‘llab-quvvatlashlar yakunlangach, maktablarda qator depsinishlar yuzaga kelmoqda. Shu sababli ham inklyuziv ta'limning me'yoriy-huquqiy va nazariy asoslarini puxta o‘rganish va u orqali inklyuziv ta'limning samarali tizimiga o‘tish ta'lim tizimida dolzarb masala sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning ta’lim jarayoniga qo‘yayotgan talablari, “Ta’lim to‘g‘risidagi qonun” hamda ta’lim-tarbiyaga doir davlat

hujjatlari, ta’lim-tarbiya qoida biriligi tamoyili, Sharq allomalari asarlaridagi o‘qituvchi shaxsi va uning o‘quvchilar jamoasini boshqarishdagi o‘rnini yuzasidan ilgari surilgan qarashlari, shunigdek o‘quvchilarning oilaviy, jamiyatdagi roli va o‘quv muassasalaridagi o‘zaro munosabatlarining axloqiy rivojlanishdagi o‘rni hamda imkoniyati cheklangan o‘quvchilarga axloqiy tarbiya berishda ta'lim muassasalarining roli, pedagogik muhitning ahamiyati. M.Quronov[1], R.Mavlonova[2], D.Narzikulova[3], yoshlarda ma’naviy-ijtimoiy faollikni rivojlantirish bo‘yicha K.Astanakulov[4], X.Tojiboyeva[5], G.J.Tulenova[6]lar tomonidan yoritib berilgan.

Zamonaviy jamiyatda barcha bolalar, jumladan, imkoniyati cheklangan o‘quvchilar ham teng ta’lim olish huquqiga ega. Buning uchun ta’lim tizimi o‘zgarishlar va yangilanishlarni talab qiladi, shuningdek, har bir bola uchun individual yondashuvni amalga oshirish zarur. Ayniqsa, imkoniyati cheklangan o‘quvchilarda axloqiy sifatlarni shakllantirish masalasi o‘qituvchilar, psixologlar va oila tomonidan diqqat markazida bo‘lishi kerak. Axloqiy tarbiya bu nafaqat odamning axloqiy qoidalarni bilishi, balki uning kundalik hayotdagi xulq-atvoriga, qadriyatlariga ta’sir ko‘rsatadigan yondashuvdir.

Imkoniyati cheklangan bolalarning axloqiy rivojlanishi ko‘pincha ularning jismoniy va ruhiy holatiga bog‘liq bo‘ladi. Ularning ichki dunyosi, qarashlari va xulq-atvori odatda oddiy bolalarnikidan farq qiladi. Shuning uchun ularni axloqiy jihatdan tarbiyalashda an’anaviy metodlardan farqli ravishda maxsus yondashuvlar zarur.

Axloqiy tarbiya — bu bolalarga to‘g‘ri va noto‘g‘ri, yaxshi va yomonni ajratish, o‘zaro hurmat, adolat va insonparvarlikni o‘rgatish jarayonidir. Axloqiy sifatlarni shakllantirish orqali bolalar nafaqat jamiyatga moslashish, balki o‘z-o‘zini anglash, o‘zgalarga nisbatan mehr-oqibat, ijobiy munosabatlarni o‘rnatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Axloqiy sifatlarni shakllantirishda qo‘llaniladigan usullar

Shaxsiy namuna ko‘rsatish O‘qituvchi va tarbiyachilarning shaxsiy xulq-atvori bolalar uchun asosiy namuna bo‘ladi. Agar o‘qituvchi o‘z vazifalarini mas’uliyat bilan bajarsa, bolalar o‘zlariga ulardan ko‘rsatma oladilar. Shu bilan birga, o‘qituvchilar bolalarga to‘g‘ri xulq-atvorni ko‘rsatish orqali ularni axloqiy qadriyatlarga o‘rgatadilar.

Intersifatli mashg‘ulotlar va treninglar Bolalar bilan axloqiy mavzularda suhbatlar o‘tkazish, ular bilan muammoni hal etish uchun turli xil holatlar yaratish orqali axloqiy o‘rganishni ta’minlash mumkin. Roli o‘yinlari, masalan, “yaxshi va yomon odam” mavzusidagi mashg‘ulotlar bolalar o‘rtasida o‘zaro hurmatni rivojlantiradi va muammolarni hal qilishda o‘z fikrlarini izhor qilishga o‘rgatadi.

Samarali kommunikatsiya va muloqot Axloqiy tarbiyaning yana bir muhim usuli — bu samarali muloqot. Bolalar bilan ochiq va samimiy muloqotda bo‘lish,

[1] Қуронов М. Биз англаётган ҳақиқат. – Т.: “Маънавият”, 2008. –152 б.
[2] Мавлонова Р.А., Воҳидова Н.Ҳ. Ижтимоий педагогика. – Т.: Истиқлол, 2009. – 142 б.
[3] Нарзикулова Д.Х. Оилада ижтимоий низоларнинг бартараф этишнинг педагогик механизмларини такомиллаштириш: педагогика фанлари бўйича фан доктори (DSc). ...дисс. – Самарқанд, 2022. – 317 б
[4] Astanakulov K.M. “Yoshlarda sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish mexanizmlari” (16-25 yoshdagi yigit-qizlar misolida) pedgogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD). Diss….Namangan, 2023
[5] Tojiboyeva H.M.O‘quvchi-yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik tizimi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD). ...dis. – Toshkent 2018
[6] Tulenova G.J. Yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishda ma’naviy omilning roli (ijtimoiy-falsafiy taxlil): Fal.f.dok. ...dis. T.: 2006. - 316 b

ularga o‘z fikrlarini ifoda etish uchun imkoniyat yaratish zarur. Bu o‘quvchilarni faqat jismoniy emas, balki ruhiy jihatdan ham mustahkam qiladi.

Kitoblar va hikoyalar orqali axloqiy qadriyatlarni o‘rgatish Bolalar hikoyalar va ertaklar orqali axloqiy qadriyatlarni o‘rganishlari mumkin. Hikoyalar orqali ular yomonlik va yaxshilik o‘rtasidagi farqni tushunadilar, shuningdek, turli xil insonlar o‘rtasida o‘zaro hurmat, sabr-toqat va do‘stlikni qadrlashni o‘rganadilar.

O‘quvchilarni jamoaviy faoliyatlarga jalb etish, ular o‘rtasida hamkorlik va hamjihatlikni rivojlantiradi. Jamoaviy ishlar orqali bolalar o‘zaro yordam va mehr-muruvvatni o‘rganadilar.

Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni axloqiy tarbiyalashda oila va jamiyat o‘rtasidagi hamkorlik juda muhim. Oila, o‘qituvchi va jamoat tashkilotlari o‘rtasida muntazam aloqalar bo‘lishi kerak. Oila bolaga axloqiy tarbiya berishda asosiy ro‘lni o‘ynaydi, chunki bola oilada o‘zining birinchi axloqiy qadriyatlarini o‘rganadi. Shuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy muhit bolalarning shakllanayotgan xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatadi.

va tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.**Texnika yo‘nalishidagi loyihalarda** o‘quvchilarni turli texnologik qurilmalar yaratishga yoki dasturlar ishlab chiqishga undash. Bu yo‘nalish o‘quvchilarning muhandislik, dasturlash va texnik ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi. O‘quvchilarga loyihaning yo‘nalishini tanlash va muayyan mavzuda ijodiy g‘oyalar ishlab chiqish imkoniyatini berish. Bu jarayon o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, yangi g‘oyalarni yaratishga va o‘z nuqtai nazarini ifodalashga undaydi. Misol: San’at yo‘nalishida "Tabiatdagi ranglar" mavzusida rasmlar yaratish, ilm-fan yo‘nalishida "Yashil energiya" mavzusida tadqiqot o‘tkazish yoki texnika yo‘nalishida "Robototexnika" loyihasini yaratish. Loyihaning maqsadi, vazifalari, muddatlari va zarur resurslari aniq belgilanishi lozim. O‘quvchilar loyihaning qadamlarini o‘zi rejalashtirib, vaqtni qanday taqsimlashni o‘rganadilar. Reja tuzishda o‘quvchilarni guruh ishlari va hamkorlikka jalb qilish, loyiha muammolariga ijodiy yondashish ularga qo‘shimcha qiziqish uyg‘otadi. Ilm-fan yoki texnika yo‘nalishidagi loyihalar uchun ilmiy tadqiqotlar va eksperimentlar o‘tkazish zarur. O‘quvchilar o‘z loyihalari bo‘yicha tadqiqot o‘tkazib, natijalarni to‘plash va tahlil qilishni o‘rganadilar. San’at loyihalarida esa o‘quvchilar o‘z san’at asarlarini yaratishda turli usullarni sinab ko‘rishlari, o‘zlari uchun yangi texnikalar va materiallarni o‘rganishlari kerak. Loyihalar o‘quvchilarga o‘z fikrlarini erkin ifoda etish, yangi g‘oyalarni yaratish va ularni amalga oshirishda yordam beradi. Guruh ishlarida ishtirok etish o‘quvchilarni jamoaviy fikrlash, muammolarni birgalikda hal qilishga o‘rgatadi. Loyihalar orqali o‘quvchilar turli qiyinchiliklarga duch kelib, ularni yengish yo‘llarini topadilar, bu esa ularning ijodiy va analitik fikrlash qobiliyatlarini mustahkamlaydi. Shunday qilib, san’at, ilm-fan va texnika yo‘nalishidagi loyihalar o‘quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantiradi, ularni mustaqil ishlashga undaydi va yangi g‘oyalar yaratishda ishtirok etish imkoniyatini taqdim etadi.

Xulosa qilib aytganda, to‘garaklar o‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda zarur vosita bo‘lib, ular nafaqat bilimlarni o‘rganishda, balki shaxsiy va ijodiy rivojlanishda ham o‘quvchilarga muhim imkoniyatlar yaratadi. Shunday qilib, ta’lim jarayonida to‘garaklarning ahamiyati yuqori bo‘lib, ular o‘quvchilarni kelajakdagi muvaffaqiyatlarga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-maydagi331-son qarori. “Barkamol avlod” bolalar maktablari to‘g‘risidagi Nizomi.
2. “Barkamol avlod” bolalar maktablarida to‘garaklar faoliyatini tashkil etishning innovatsion texnologiyalari. R.S.Shermuxamedova. 2021-yil
3. Maqsuda Badalova. “Achievements and Challenges of Out-of-School Education (On the example of Barkamol Avlod children's schools in Fergana region)” 2021 yil “Journal of Pedagogical Inventions and Practices” jurnalining 2-son.
4. Xalilov Bobur Baxtiyorovich. “The Children's School 'Barkamol Avlod' is the Fruit of Educational Reforms” nomli maqolasi 2023-yil 25-iyun. "International Scientific and Current Research Conferences" jurnali.

XALQ OG‘ZAKI IJODINI O‘RGANISHNING O‘QUVCHILAR NUTQIY KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI

Bektemirova Nafosat Hamidullayevna,
Oltinko‘l tuman 49-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi

Annotatsiya; Maqolada o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirish, DTS talablari bo‘yicha nutqiy kompetensiyalarni o‘stirishda xalq og‘zaki ijodini o‘rganishning ahamiyati, metodik jihatlari, nazariy va amaliy asoslari haqida uslubiy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: folklor , DTS, faol metodlar, kompetentsiya, tarbiya vositasi, nutq birligi,janrlar.

Inson shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o‘sib kelayotgan yosh avlodda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini uyg‘otish, milliy tilga, o‘z xalqining an’analariga iftixor hissini kamol toptirish, og‘zaki nutqni o‘stirish , ya’ni DTS talablari bo‘yicha o‘quvchilarning nutqiy kompetentsiyasini rivojlantirishda badiiy adabiyotning o‘rni beqiyosdir. Shu ma’noda, adabiyot darslarida tarbiyaviy ta’sir, nutqiy tarbiya berishda, insoniylikning olijanob fazilatlarini shakllantirishda, ayniqsa, xalq og‘zaki ijodini o‘rgatishning ahamiyati katta .

Xalq og‘zaki ijodini o‘rganish uchun adabiyot darslarini o‘tish qulay va jonli bo‘lishi uchun turli ko‘rgazmali qurollar ishlab chiqiladi. Ulardan o‘z vaqtida va o‘rnida foydalanishga harakat qilinadi, og‘zaki ijodga doir mavzuni o‘quvchilar ongiga osongina yetkazish uchun “Sayohat dars”, “O‘yin dars”, “Aqliy hujum”, “Zakovat”, “Modul dars”, “Zigzak”, “Munozarali-bahsli dars”, “Musobaqa dars” kabi usullardan foydalaniladi. Darslarda o‘rgatgan manbalardan, savollar yoki testlardan unumli foydalaniladi. Dars jarayoni, ya’ni ta’lim berish har doim takomil va yangilanishga mushtoq. Shuning uchun, ta’limning yangi usullari ustida izlanishimiz talab etiladi. Chunki o‘quvchilarga ham bir xil qolipdagi darslar yoqmaydi. Natijada o‘quvchi darsni yaxshi o‘zlashtira olmaydi. Har bir usuldagi darslar ikki-uch marta o‘tilganda o‘zini oqlaydi. Me’yoridan oshmasligi, o‘quvchilarni zeriktirmasligi uchun usullarning turlicha bo‘lishi darsning samaradorligini yanada oshiradi. Xalq og‘zaki ijodini o‘rganishda ham ana shunday usullarni qo‘llash orqali dars jarayonlarida notiqlik, suhbat, hikoya, mustaqil ish, yozma ish, zamon bilan bog‘lash, mustaqil fikrga tayanish shakllariga katta e’tibor berishimiz lozim. Har bir o‘tilayotgan darsga o‘quvchilar tomonidan berilayotgan baho biz uchun qadrlidir.

Xalq og‘zaki ijodini o‘qitishda matnni qismlarga bo‘lib o‘rganish, qahramonlarning shaxsiy fazilat va qusurlari, ichki kechinmalari, turli hayotiy vaziyatlarni tahlil qilishga o‘rgatishda ixcham fikr va badiiy ifoda uyg‘unligiga e’tibor qaratish lozimligi, bunda qofiya, vazn kabi badiiy unsurlarning ahamiyatini ochib berish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbek xalqi og‘zaki ijodining xalq, millat qadriyatlari qatorida tutgan o‘rni beqiyosligini, xalq og‘zaki ijodi- namunalari mahorat , aqliy , fikriy kashfiyot namunalarining badiiy ifodasini o‘quvchilarga o‘rgatish orqali ularning nutqiy kompetentsiyalarni rivojlantirish ko‘zda tutuladi. Shu bilan birga DTS talablari bajarilishi maqsad qilinadi.

O‘quvchilarning ongiga folklordagi bir qator kichik janrlarni: maqollar, matallar, topishmoqlar va askiyalar, qo‘shiqlar, laparlar va boshqalarni singdirish orqaligina ular og‘zaki nutqining o‘sib borayotganini kuzatish mumkin. Maqollarni o‘rgatish haqida to‘xtalib o‘tamiz. Maqol xalq og‘zaki ijodining ixcham shaklga, ammo chuqur mazmunga ega bo‘lgan janrlaridan biri bo‘lib, u xalqning ko‘p asrlik hayotiy kuzatishlari, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy tajribalari asosida vujudga kelgan. Maqollar o‘zlarining ijtimoiy-g‘oyaviy funksiyalariga ko‘ra, asosan keng xalq ommasining, ayrim hollarda esa ba’zi ijtimoiy tabaqa yoki guruhlarning dunyoqarashini ifodalaydi. Maqollarning ko‘p asrlik hayotiy tajribalar asosida yuzaga

kelganligi o‘ziga xos tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir maqol kishilarning uzoq yillar mobaynida hayotiy tajribalari hamda turmush sharoitlarida necha martalab sinovlardan o‘tadi. Har bir maqolning o‘quvchilar orasida tarqalishi ham uning yaratilishi kabi sekinlik bilan amalga oshadi. Zero, muayyan maqolni qabul qilishi uchun o‘qituvchidan katta pedagogik mahorat talab etiladi. Maqol termini arabcha “qavlun”(aytmoq, gapirmoq) so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zbek tilida u xalq donoligining namunasidir. Uni orgatishda “Ikki qarsak”, “G‘alaba cho‘qqisi”, “Trening” usullaridan foydajanish ijobiy natija beradi. Maqol to‘liq, tugal mazmun, hukm anglatuvchi gap bo‘lsa, matal ko‘chma ma’no ifodalovchi ibora; u maqolning yarmidir.“Matal” so‘zi turkiy xalqlar orasida turlicha ma’nolarda qo‘llaniladi. U topishmoq, hikmatli so‘z, ertak, masal, umuman hikoya qilish, naql qilish, sifatida o‘zbek folklorshunosligida paremalarning bir turini ifodalash jihatidan differensiyallashib bormoqda . Aksariyat xalq maqollarida insonni kamol toptiruvchi, uning turmushini farovonlashtiruvchi asosiy vosita mehnat ekanligi lo‘nda ifodalanadi va ularda tekinxo‘rlik, bekorchilik hamda dangasalik keskin qoralanadi. Masalan, “Bekorchidan Xudo bezor” maqoli fikrimizning tasdig‘idir. Maqol tarixan ancha qadimiy bo‘lganligi uchun ham unda dangasa, ishyoqmasdan oddiy insonlargina emas, hatto maqol yaratilgan davr g‘oyasiga ko‘ra butun mavjudotning yaratuvchisi Xudo ham bezor degan mazmun anglashiladi. O‘quvchilarida xalq maqollari ona-Vatanga sadoqat va vatanparvarlik , mehnatkashlik, halqini ardoqlagan va vatan dushmanlariga, unga xiyonat qiluvchilarga keskin kurasha oladigan ,fikri tinilikni tarbiyalaydii.

“Vatan gadosi-kafan gadosi”,”Bulbul chamanni sevar, odam Vatanni”,“Ona yurting omon bo‘lsa, rangi-ro‘ying somon bo‘lmas”,“Vatan gadosi-kafan gadosi”,“Vatan gado bo‘lguncha, kafan gado bo‘l”,“Begona tuproq-devona tuproq”,“Mehnat, mehnatning tagirohat”,“Odob bozorda sotilmas”. Mana shunday maqollarni mavzu jihatdan rang barangligini o‘quvchilarga uqtirib, har bir mavzuga 15 tadan maqol yodlash topshirig‘ini berish bilan ularning og‘zaki nutqini o‘stirish oson kechadi.

Xalq og‘zaki ijodi - mehnatkash omma ijodi, xalq san’atining boshqa, ya'ni musiqa, teatr, raqs, o‘yin, tasviriy va amaliy san'at kabi turlaridan o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan og‘zaki so‘z san'atidir. O‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirish , mustaqil fikrlashga o‘rgatish , tafakkurini kengaytirish maqsadida yurtimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng xalq og‘zaki ijodi maktablarda, o‘rta maxsus kasb- hunar ta’limi muassasalarida alohida e’tibor bilan o‘qitila boshlandi. Bu narsa yosh avlodni xalqimiz tarixi, madaniyati, urf-odatlari, ma’naviyati haqida yana ham chuqurroq bilim olishlari uchun yana bir imkoniyat va yurtboshimizning xalq og‘zaki ijodiga bo‘lgan hurmati namunasidir.

Rivoyat, hikoya, qo‘shiq, lirika o‘zida ichki kechinmalarni ifodalash xususiyati bilan bolalar ongiga tez yetib boradi. Chunki bunday asarlarda bosh maqsad sodir bo‘lgan hayotiy voqeani emas, balki ana shu voqeaga nisbatan munosabat tarzida ifodalanuvchi ruhiy taassurotlarni ifodalashdan iborat nutq o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlanishida katta o‘rin tutadi.

Xalq og‘zaki ijodga oid allalarda yoki maktab yoshidagi farzandlar sevib kuylaydigan «Boychechak», «Oq terakmi, ko‘k terak» kabi qo‘shiqlarning ham o‘quvchilar nutqiy kompetentsiyalarni rivojlantirishda muhim ahamiyati bor.

Umuman olganda, xalq og‘zaki ijodi o‘quvchilarda - umuminsoniy qadriyatlariga sodiqlik; xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish; insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilish; Fan asoslarini

o‘rgatish bilan birga ularning ma’naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish, og‘zaki nutq malakalarini rivojlanbtirish , lug‘at boyligini oshirish , mustaqil fikrlash , suhbatdoshga moslashsish , muloqotchanlik chiroyli so‘zlash , tinglab tushuninsh , qayta so‘zlab berish kabi nutqiy kompetentsiyalarini rivojlantirishga hizmat qiladi .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy o‘rta maktablarning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. Ona tili va adabiyot // o‘zR Xalq ta’limi vazirligining axborotnomasi. – 1999, 1-maxsus son.
2. A.G‘ulomov, O‘.Ne’matov. Ona tili ta’limi mazmuni. – T.: o‘qituvchi, 1995.

PEDAGOGIK OLIY TA'LIM TIZIMIDA IJTIMOIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH JARAYONINING MOHIYATI

Farmonova Farangiz Farxod qizi,
Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Oliy ta’lim tizimi jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o‘ynashi, ijtimoiy-pedagogik faoliyat talabalarining jamiyatda yuzaga keladigan turli muammolarni hal qilishdagi o‘rni va ahamiyati tobora ortib borayotgani shuningdek muammolarni bartaraf etish, pedagogik tizimni takomillashtirish va talabalar uchun samarali o‘quv jarayonlarini yaratish kabi masalalar tahlil qilingan.

Kalitso‘zlar: pedagogik oliy ta'lim, ijtimoiy-pedagogik faoliyat, amaliyot, ijtimoiy yordam, o‘quv dasturi, innovatsion metodlar, jamiyat ehtiyojlari, pedagogik faoliyatni takomillashtirish, ta'lim tizimi, pedagogik malaka, ta'lim samaradorligi.

Bugungi kunda ta’lim muassasalarida bolalar va yoshlarning shaxsiy muammolarini hal qilish, ularning ijtimoiy moslashuvini ta’minlash, pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlash va tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, nogironligi bo‘lgan bolalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar, muhojir oilalar farzandlari va muayyan xavf guruhiga mansub bolalar bilan ishlashda ijtimoiy pedagogikaning ahamiyati ortib bormoqda.

Zamonaviy ta’lim jarayonida pedagoglarning nafaqat fan bo‘yicha bilim berishi, balki o‘quvchilarning ijtimoiy hayotga moslashuvi, shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta’minlash bo‘yicha ham faoliyat yuritishi zarur. Pedagogik oliy ta'lim tizimi jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlariga javob beradigan, yuqori malakali va ijtimoiy mas'uliyatli mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan. Bu jarayonda ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash, talabalarni nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalar bilan, balki ijtimoiy mas'uliyat, etika va insonparvarlik qadriyatlari bilan ham ta'minlashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy-pedagogik faoliyatning mohiyati va mazmunini ko‘rib chiqishdan oldin “faoliyat” va “pedagogik faoliyat” tushunchalar to‘g‘risida to‘xtalib o‘tish talab etiladi. Oddiy so‘zlashuv tilida faoliyat deganda biz inson faolligining har qanday ko‘rinishini tushunamiz. Shunga o‘xshash ta’riflarni izohli lug‘atlarda ham ko‘rishimiz mumkin: “faoliyat” - bu ish, qandaydir bir sohaga oid mashg‘ulot. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat - bu shaxslarga, fuqarolarga, jamoalarga ularning ijtimoiy faoliyat qobiliyatini yaxshilash yoki tiklash uchun yordam berish bo‘yicha kasbiy faoliyat[1]. Ijtimoiy-pedagogik faoliyat - bu shaxsga uning ijtimoiylashuvi jarayonida yordam berishga, uning ijtimoiy-

[1] Мудрик, А. В. Социальная педагогика: учеб. для студ. пед. вузов / А. В. Мудрик / под ред. В. А. Сластенина. 3-е изд., испр. и доп. М.: Изд. центр Академия, 2002.200 с.

madaniy tajribasini o‘zlashtirishga va uning jamiyatda o‘zini o‘zi anglashi uchun sharoit yaratishga qaratilgan kasbiy faoliyat turi[1].

Ijtimoiy-pedagogik faoliyat - bu shaxsning ijtimoiy muhitga moslashishi, uning jamiyatda faol va mas'uliyatli a'zo bo‘lib shakllanishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik jarayonlar yig‘indisidir. Unga ijtimoiy tarbiya, shaxsning ijtimoiylashuvi, jamiyatga moslashish va ijtimoiy faollikni rivojlantirish kiradi. Ushbu faoliyatning asosiy maqsadi - yoshlarni ijtimoiy qadriyatlar asosida tarbiyalash va ularni jamiyatda faol ishtirok etishga tayyorlashdir.

Ijtimoiy-pedagogik faoliyatning asosiy jihatlari quyidagicha o‘z aksini topadi:

Ijtimoiylashuvga ko‘maklashish

- Bolalar va yoshlarni jamiyat qoidalari, qadriyatlari, madaniyati va axloqiy mezonlari bilan tanishtirish;
- Ularning o‘z shaxsiy nuqtai nazarini shakllantirishiga yordam berish.

Tarbiya va ijtimoiy yo‘naltirish

- Ijtimoiy-pedagogik faoliyatda tarbiya asosiy rol o‘ynaydi;
- O‘quvchi yoki talabaning shaxsiy kamolotini va ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirish maqsad qilinadi.

Muammoli guruhlar bilan ishlash

- Nogironlar, yetim bolalar, ijtimoiy xavfli guruhlar yoki ijtimoiy chetga chiqqan shaxslar bilan ishlash orqali ularning jamiyatga qayta integratsiyalashuvi ta'minlanadi.

Profilaktika va maslahat berish faoliyati

- Ijtimoiy muammolar (zo‘ravonlik, ijtimoiy ajralish, qashshoqlik) oldini olish, psixologik va pedagogik maslahatlar berish orqali ijtimoiy farovonlikka erishish.

Kimlar tomonidan amalga oshiriladi?

Ijtimoiy-pedagogik faoliyatni quyidagilar olib boradi:

- Ijtimoiy pedagoglar;
- Tarbiyachilar;
- Psixologlar;
- O‘qituvchilar va sinf rahbarlari;
- Mahalliy ijtimoiy xizmat xodimlari.

Ijtimoiy-pedagogik faoliyatning vazifalari:

Vazifa	Maqsadi
Ijtimoiy tarbiya	Shaxsning ijtimoiy rollarni bajarishga tayyorlash
Muammoli holatlarni bartaraf etish	O‘quvchi-talabaning psixologik va ijtimoiy holatini yaxshilash
Jamiyat bilan integratsiya	Ijtimoiy adaptatsiya va kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirish
Axloqiy qadriyatlarni singdirish	Etika, ma'naviyat va madaniy qarashlarni shakllantirish

Pedagogik oliy ta'lim tizimi talabalarni nafaqat kasbiy bilimlar bilan, balki ijtimoiy-pedagogik kompetensiyalar bilan ham ta'minlashi zarur. Bu kompetensiyalar talabalarni ijtimoiy muhitda samarali faoliyat yuritishga, shaxslararo munosabatlarda

[1] Бурмистрова М.Н., Васильева Л.Л., Петрова Л.Ю., Кащеева А.В. и др.Социально-педагогический словарь. 2016 г.

etika va madaniyatni saqlashga, hamkorlik va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, bu kompetensiyalar ijtimoiy muammolarni hal etishda, inklyuziv ta'limni amalga oshirishda va jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashda bir qator metodologik yondashuvlar qo‘llaniladi:

- **Integratsiyalashgan ta'lim**: Bu yondashuv turli fanlarni birlashtirib, talabalarni keng qamrovli va tizimli fikrlashga o‘rgatadi.
- **Reflektiv amaliyot**: Talabalarni o‘z faoliyatini tahlil qilishga, o‘zgarishlarga moslashishga va doimiy ravishda o‘zini rivojlantirishga undaydi.
- **Inklyuziv ta'lim**: Har bir talabaga uning ehtiyojlariga mos ta'lim berish, jamiyatda teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan.

Hozirgi vaqtda kasbiy ijtimoiy-pedagogik faoliyatning tanlangan turlarini nazariy rivojlantirish, tashkiliy loyihalash, me’yoriy mustahkamlash, metod va texnologiyalar bilan jihozlash turli darajada amalga oshirildi. Umumiy holat shundan iboratki, ijtimoiy pedagog lavozimi zarur bo‘lgan barcha muassasalarda rasman kiritilmagan. Bunday mutaxassisning kasbiy salohiyati, qoida tariqasida, to‘liq amalga oshirilmaydi - uning funktsional vazifalari rivojlanmaganligi yoki maxsus kasbiy ma'lumotga ega bo‘lmagan shaxs ushbu lavozimda ishlashi yoki boshqa sabablarga ko‘ra. ob'ektiv yoki sub'ektiv sabablarni keltirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda oliy ta’lim tizimida ijtimoiy-pedagogik faoliyatni takomillashtirish zarurati zamonaviy jamiyatning talablaridan kelib chiqadi. Bu talablar pedagogik ta’limni yangilash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, pedagog va talabalar malakasini oshirish hamda amaliy tajribani kuchaytirishni o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy-pedagogik faoliyatning samarali tashkil etilishi, jamiyatda ijtimoiy muammolarni hal qilishga va jamiyatning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shishga yordam beradi.Pedagogik oliy ta’lim tizimida ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun ta’lim dasturlarini yangilash, amaliyotni kuchaytirish, malakali ustozlar bazasini kengaytirish va moddiy-texnik ta’minotni yaxshilash zarur. Bu sohaga jamiyat ehtiyoji yildan yilga ortib borayotganini inobatga olib, tizimli yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алимов, А.Р. (2022). *Ижтимоий педагогика асослари*. Тошкент: «Yangi asr avlodi».
2. Bim-Bad, B. M. (2002). *Pedagogik ensiklopediya lug‘ati*. Moskva.
3. Galaguzova M. A. i dr. Sotsialnaya pedagogika. – 2016.
4. Qoraboeva 3., Abdusamatova N. Ijtimoiy pedagogika (atamalar izohli lug‘ati). – Namangan, 2017, 12-bet
5. Mudrik, A. V. Sotsialnaya pedagogika: ucheb. dlya stud. ped. vuzov / A. V. Mudrik / pod red. V. A. Slastenina. 3-ye izd., ispr. i dop. M.: Izd. sentr Akademiya, 2002.200 s.
6. Xodjaev B.Q., Juraev B.T. Pedagogik faoliyatga kirish [Matn]: monografiya / B.Q. Xodjaev, B.T. Juraev. - Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2020. -148b.
7. Egamberdieva N. Ijtimoiy pedagogika: darslik/ N.Egamberdieva. — T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti,2009. - 232 b.

UZLUKSIZ TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHDA HAMKORLIK TA’LIMIDAN FOYDALANISHNING AYRIM MASALALARI (“Tarix” fanini o‘qitish misolida)

Haydarov Yu.,
Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Annotatsiya: Ushbu maqolada uzluksiz ta'limni rivojlantirishda hamkorlik ta'limidan foydalanishning dolzarb masalalari tahlil etilgan. Hamkorlikda guruhlarda ishlash amaliy mashg'ulotlar misolida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Uzluksiz ta'li**m,**Yangi O'zbekiston, hamkorlik, ta'lim, innovatsiya, texnologiya, akademik topshiriq, ijtimoiy-psixologik topshiriq, guruhda o'qitishda, amaliy mashg'ulotga, "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi.

Annotation: In this article is described the collaboration skill of 4C`s while conducting history subject. And also ideas are supported with the practical activities.

Key words: Modern Uzbekistan, collaboration, education, innovation, technology, academic tasks, social-phycological tasks, group working, practical activity, "The status of Victory Garden".

Ta'lim uzviyligini ta'minlashda uzluksiz ta'limni rivojlantirish va uzluksiz kasbiy ta'limni talab darajasida yo 'lga qo 'yish maqsadida"Yangi O'zbekiston"da barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim tizimini ham jahon standartlariga tenglashtirish va bugungi globallashuv davrida jahon miqyosida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash borasida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda innovatsiyalarga tayanish zarurligi haqida muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev-Yangi O'zbekistonni bunyod etishga kirishganlarining sarchashmalaridayoq konseptual ko'rsatmalarni bergan edilar:

"… Zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g'oya, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya – buyuk kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuvlar asosida boshlashimiz kerak".[1]

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarix fanidan dars beradigan o'qituvchilar ham zamonaviy darslarni innovatsion g'oyalar va innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etsalargina, ta'lim sohasini innovatsion asosda isloh qilish borasidagi konstruktiv talablarga javob bera oladilar. Manbalarda "pedagogik innovatsiya- pedagogik faoliyatiga, ta'lim mazmuni va texnologiyalariga ularning samaradorligini oshirish maqsadida kiritiladigan yangilik va o'zgarishlar sifatida qayd etiladi". [2].

Tarix fani o'qituvchisi ham ushbu ta'rifdan kelib chiqib, o'z darslarida innovatsiyalarni joriy etishlari ta'lim sifati va samaradorligini oshiradi hamda ta'limning uzluksizligi va uzviyligini ta'minlashga xizmat qiladi.Buning uchun tarix fani o'qituvchilari ham umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quv reja, dasturlari va darsliklarda o'tish uchun ko'rsatilgan mavzularni zamon talablari darajasida zaruriy yangiliklar bilan boyitib hamda innovatsion ta'lim metodlaridan foydalanib o'quvchilar ongi va qalbiga singdirishlari zarur. Bu jarayonlarda hamkorlik ta'limidan foydalanish yaxshi samara beradi.

Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarni nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o'qishni o'rganishdir.

[1] Mirziyoyev Sh. M Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2017 – yil 27-dekabr "Xalq so'zi", 2017-yil 23-dekabr 1.2 bet

[2] Jo'rayev R, Yuldashev M va boshqalar. Pedagog kadrlar malakasini uzluksiz oshirish mexanizmini takomillashtirish. T., 2014. 2.51,52; 159bet

Hamkorlikda o‘qitish har bir o‘quvchini kundalik qizg‘in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o‘rgatish, shaxs sifatida ongli mustaqillikni tarbiyalash, har bir o‘quvchida shaxsiy qadr-qimmat tuyg‘usini vujudga keltirish, o‘z kuchi va qobiliyatiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas’uliyat hissini shakllantirishni ko‘zda tutadi.

Hamkorlikda o‘qitish ta’limi har bir o‘quvchining tahsil olishdagi muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o‘quv topshiriqlarini sifatli bajarishga, o‘quv materialini puxta o‘zlashtirishiga, o‘rtoqlariga hamkor bo‘lib, o‘zaro yordam uyushtirilishiga zamin tayyorlaydi.

O‘qituvchi ta’lim jarayonida hamkorlikda o‘qitish metodlaridan foydalanish uchun qaysi mavzularni hamkorlikda o‘qitish metodlaridan foydalanib o‘rganish mumkinligini aniqlashi va mazkur darslarni taqvim-rejada belgilashi zarur.

Buning uchun quyidagi vazifalarni bajarishi lozim:

ushbu mavzu bo‘yicha o‘quvchilarga tavsiya etiladigan o‘quv topshiriqlari va ularni bajarish yuzasidan ko‘rsatmalarni tayyorlashi;

hamkorlikda o‘qitish metodlaridan foydalanib o‘tiladigan dars turi, dars strukturasi va borishini loyihalashi;

o‘tgan va yangi mavzular yuzasidan o‘quvchilar bilimini nazorat qilish uchun test topshiriqlarini tuzishi kerak.

Mazkur metodlardan foydalanganda shuni nazarda tutish kerakki, o‘quvchilar o‘z sheriklari bilan hamkorlikda o‘quv topshiriqlarni to‘g‘ri bajarishlari barobarida guruh a’zolarining faolligi, hamkorlikning vujudga kelishi, ular o‘rtasidagi muloqot madaniyati tamoyillariga amal qilinishi ham hisobga olinadi.

Shunday qilib, guruh a’zolari bir vaqtning o‘zida ikkita topshiriqni bajaradi:

1. Akademik topshiriq - bilish va ijodiy izlanish orqali o‘quv topshiriqlaridan ko‘zlangan maqsadga erishish;

2. Ijtimoiy-psixologik topshiriq - dars davomida yuksak muloqot madaniyatiga ega bo‘lish, odob osoyishtaligini saqlash.

Bu jarayonlarni amalga oshirish orqali ta’limning uzviyligi va izchilligini ta’minlashga imkomiyat yaratiladi.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining bir nechta metodlari mavjud:

Komandada o‘qitishda o‘quvchilar teng sonli ikkita komandaga ajratiladi. Har ikkala komanda bir xil topshiriqni bajaradi. Komanda a’zolari o‘quv topshiriqlarini hamkorlikda bajarib, har bir o‘quvchi mavzudan ko‘zda tutilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishiga e’tiborni qaratadi.

Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi o‘quvchilarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish bo‘yicha ko‘rsatma berilishi yetarli emas. O‘quvchilar o‘rtasida tom ma’nodagi hamkorlik, har bir o‘quvchining qo‘lga kiritgan muvaffaqiyatidan quvonish, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissi, qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga kelishi zarur. Mazkur texnologiyada o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir-biri bilan emas, balki har bir o‘quvchining kundalik natijasi avval qo‘lga kiritilgan natija bilan taqqoslanadi. Shundagina o‘quvchilar o‘zining dars davomida erishgan natijasi komandaga foyda keltirishini anglagan holda mas’uliyatni his qilib, ko‘proq izlanishga, bilim, ko‘nikma va malakalarni puxta o‘zlashtirishga intiladi.

Tarix ta’limida kichik guruhlarda hamkorlikda o‘qitish yaxshi samara beradi. Bu yondashuvda kichik guruhlar 4-5 ta o‘quvchidan tashkil topadi. O‘qituvchi avval

mavzuni tushuntiradi, so‘ngra o‘quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O‘quvchilarga berilgan o‘quv topshiriqlari 4 yoki 5 qismga ajratilib, har bir o‘quvchi topshiriqning ma'lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o‘quvchi o‘zi bajargan qism yuzasidan fikr yuritib, o‘rtoqlarini o‘qitadi, so‘ngra guruh a'zolari tomonidan topshiriq yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi. O‘qituvchi har bir kichik guruh axborotini tinglaydi va test topshiriqlari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi.

Tarix fanini o‘qitishda amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish jarayonida ham hamkorlik ta'limidan foydalanish yaxshi samara beradi va ta'limning uzluksizligi va uzviyligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Fikrimizcha, tarix fani o‘qituvchisi har chorakda kamida bir marotaba amaliy mashg‘ulot tashkil etishi o‘quvchilarning bilimini yanada mustahkamlashga ko‘maklashadi. O‘quv yili boshida amaliy mashg‘ulot mavzusi taqvim rejaga kiritilishi kerak.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "Milliy tarixni milliy ruh bilan yaratish kerak. Aks holda uning tarbiyaviy ta'siri bo‘lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olish, xulosa chiqarishga o‘rgatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur" [1]- deb ta'kidladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan O‘zbekiston xalqining ikkinchi jahon urushida nemis-fashist bosqinchilari ustidan qozonilgan buyuk g‘alabaga qo‘shgan hissasini namoyish etuvchi "G‘alaba bog‘i" majmuasining mazmun-mohiyatini o‘rganamiz!" mavzusidagi amaliy mashgulot ilgari surilgan bu konseptual vazifani amalga oshirishga yordam beradi. Amaliy mashgulotni hamkorlik ta'limidan foydalanib o‘tilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Amaliy mashg‘ulotga tayyorgarlik jarayoni quyidagicha bo‘lishini tavsiya etamiz:

Mashg‘ulot mavzusi o‘quvchilarga oldinroq e'lon qilinadi va mashg‘ulot o‘tkazish vaqti aytiladi ("G‘alaba bog‘i" majmuasining mazmun-mohiyatini o‘rganamiz!").

Amaliy mashg‘ulotga tayyorlanish uchun manbalar (o‘quvchilar foydalanishi mumkin bo‘lgan OAVlari materiallari va qo‘shimcha adabiyotlar tavsiya etiladi.Ular orasida A. Saidovning tarixiy dalillar, ishonchli raqamlar va qiziqarli fotolavhalar asosida tayyorlangan "G‘alaba bog‘i" yodgorlik majmuasi bo‘ylab virtual, ya'ni g‘oyibona sayr etish imkonini beradigan "G‘alaba bog‘i falsafasi" kitobi bo‘lishi lozim).

Amaliy mashg‘ulot boshlanishidan oldin mashg‘ulotda foydalanish zarur bo‘lgan ta'lim vositalari, o‘quv jihozlari tayyorlanadi. Mashg‘ulot boshlangach, sinf o‘quvchilari 5 guruhga bo‘linadi. Ularni "G‘alaba", "Matonat", "Mangu jasorat", "Shon-sharaf", "Ogohlik ramzi" nomlari bilan atash mumkin. Mashg‘ulotda muhokama qilinadigan savollar stol ustiga teskari qilib qo‘yiladi. Guruh sardorlari savollarni olib belgilangan vaqt ichida javob yozadilar va guruh a'zolaridan biri uning taqdimotini o‘tkazadi.

Amaliy mashg‘ulotda tavsiya etiladigan savollar:

1."G‘alaba bog‘i" - ajdodlarimiz jasorati va matonatining manguligi timsoli.

2. "Matonat madhiyasi": O‘zbekistondagi barcha onalarga qo‘yilgan haykal.

3. "Mangu jasorat monumenti"ning mazmun-mohiyati va general Sobir Rahimov xotirasining tiklanishi.

4."Ko‘z yoshi" majmuasi: ogohlik ramzi.

[1] Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 19 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishidagi nutq. "Xalq so'zi", 2021-yil 20-yanvar

5.“Shon-sharaf” muzeyi-adolat tan’tanasi timsoli.

“G‘alaba bog‘i” - ajdodlarimiz jasorati va matonatining manguligi timsoli” savoliga javob bergan guruh quyidagi masalalarni yoritadi:

O‘quvchilarning bunday hamkorlikdagi faoliyati …ularni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanishga, tashabbus ko‘rsatishga hamda kreativlikka undaydi. Bu bilan, pedagog-olimlarning ko‘p yillar davomida “Nega o‘qitamiz?, Nimani o‘qitamiz?, Qanday o‘qitamiz?”, Qanaday qilib samarali va natijali o‘qitish mumkin?” [1] degan savollariga javob topgan bo‘lamiz. Bu jarayon hamkorlik ta’limini tashkil etish orqali ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda yaqqol ko‘rinadi.

Xulosa qilib aytganda, tarix fanini o‘qitishda hamkorlik ta’limidan foydalanish o‘quvchilarning kreativ fikrlashiga yordam beradi va ularda muammolarning yechimi birgalikda topish, ularni tahlil qilish, to‘plangan ma’lumotlarni qiyosiy taqqoslash ko‘nikmalarini shakllantiradi va ta’limning uzluksizligi va uzviyligini ta’minlashga xizmat qiladi . Amaliy mashg‘ulotlar esa hamkorlik ta’limini yanada chuqurlashtirishga keng imkoniyat yaratadi.

YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA IJTIMOIY-FALSAFIY G‘OYALAR TRANSFORMATSIYASINING AHAMIYATI

Axmedov Ijodbek Narziqul o‘g‘li,
Jizzax viloyati PMM dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Maqolada Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida ijtimoiy-falsafiy g‘oyalarning o‘zgarishi va ularning mamlakat taraqqiyotiga ta’sirini tahlil qiladi. Maqolada fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda milliy qadriyatlar va an’analarning ahamiyati, inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlashdagi o‘zgarishlar hamda axloqiy qadriyatlarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Ushbu jarayonlarda ijtimoiy-falsafiy g‘oyalarning transformatsiyasi Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining muhim omili sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar, transformatsiya, milliy taraqqiyot strategiyasi, fuqarolik jamiyati, demokratik islohotlar, inson huquqlari, inson qadri, ma’naviyat, uchinchi renessans, axloqiy qadriyatlar, innovatsiya, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti jarayonida ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar transformatsiyasi muhim o‘rin tutadi. Chunki jamiyatning barqaror rivojlanishi, adolatli va demokratik davlat barpo etish, inson manfaatlarini ta’minlashda bu g‘oyalar asos bo‘lib xizmat qiladi. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Inson qadri uchun” tamoyili ham yangi davr taraqqiyotining asosiy falsafiy yo‘nalishlaridan biridir. Shu nuqtayi nazardan, Yangi O‘zbekiston g‘oyasini shakllantirish va amalga oshirishda ijtimoiy-falsafiy yondashuvlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

2023 yil 11 sentyabrda qabul qilingan PF-158-sonli Farmon bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi[1]da ham ushbu masalalarga alohida e’tibor qaratilgan. Mazkur strategiyada belgilangan maqsad va vazifalar ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar tizimining barqarorligi va o‘zgaruvchanligi o‘rtasidagi dialektik munosabatni

[1] Ishmuhamedov R, Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. T., 2013, 9; 277bet

hisobga olgan holda ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi Yangi O‘zbekistonning barqaror va izchil rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Sh.M.Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida ham mamlakat taraqqiyotida ijtimoiy-falsafiy g‘oyalarning transformatsiyasining hayotiy zaruriyat ekanligiga katta ahamiyat berilgan. Xususan, “... dunyo maydonida va o‘z azmida qoyim turmoq, maqsadlarimizga erishmoq uchun muttasil oldinga intilish, hayotni va tafakkurni isloh qilish, yangilanish tomon sobitqadamlik bilan borish lozim”[2.6] deb ta’kidlaydilar yurtboshimiz.

Yurtboshimiz ushbu asarida O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish, inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash, milliy qadriyatlarni asrash va ularni zamonaviy talablarga moslashtirish kabi ijtimoiy-falsafiy g‘oyalarning ahamiyatini ta’kidlaydi. Bu g‘oyalar mamlakatning barqaror va izchil rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratadi.

Umuman olganda, “Ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar tizimining transformatsiyasi masalasi jahon ilm-fanida falsafa, sotsiologiya, siyosatshunoslik, iqtisodiyot, madaniyatshunoslik va axloqiy tamoyillar nuqtayi nazaridan o‘rganiladi. Bu mavzudagi tadqiqotlar jamiyat rivoji uchun g‘oyalar, mafkuralar va qadriyatlar tizimi qanday shakllanishini, ularning barqarorligi va o‘zgaruvchanligini tahlil qilishga qaratilgan.

Yuqoridagi tadqiqotlar asosan mavzuning muayyan jihatlarinigina tahlil etishga qaratilganligi, qolaversa quyidagi sabablar tufayli mamlakatimizda ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar tizimining transformatsiyasi masalasini o‘rganish dolzarb hisoblanadi:

1. Hozirgi kunda mamlakatimiz “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi asosida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirmoqda. Bu jarayonda yangilanish va modernizatsiya tushunchalari markaziy o‘rin egallaydi. Ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar esa jamiyat taraqqiyoti uchun dasturulamal vazifasini bajaradi, ularning transformatsiyasi masalasi o‘rganish esa mamlakat kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega.

2. Yangi O‘zbekiston sharoitida milliy g‘oya, mafkura, ijtimoiy qarashlar va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar doimiy ravishda rivojlanib bormoqda. Bu esa g‘oyaviy tizimning bir tomondan barqaror, ikkinchi tomondan esa o‘zgaruvchan bo‘lishini taqozo etadi. Barqarorlik jamiyatda milliy birdamlik, ijtimoiy totuvlik va davlatchilik tamoyillarining saqlanishini ta’minlasa, o‘zgaruvchanlik global tendensiyalarga mos ravishda rivojlanish imkonini beradi.

3. Hozirgi dunyoda axborot texnologiyalari, global iqtisodiy jarayonlar va yangi ijtimoiy tamoyillar jadal rivojlanmoqda. Yangi O‘zbekiston bu jarayonlardan ortda qolmaslik uchun innovatsiya va modernizatsiya yo‘lidan bormoqda. Bunda ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar tizimi ham zamon talablariga mos ravishda o‘zgarishi kerak. Lekin bu o‘zgarishlarning milliy an’analar va qadriyatlarga zid kelmasligi muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Yangi O‘zbekistonning asosiy tamoyillaridan biri – milliy o‘zlikni saqlash va tarixiy merosni qadrlashdir. Ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar tizimini o‘rganish bu yo‘nalishda katta ahamiyat kasb etadi. Chunki milliy an’analarni saqlagan holda, zamonaviy g‘oyalar bilan uyg‘unlashtirish mamlakat taraqqiyoti uchun muhim.

5. Yangi O‘zbekiston sharoitida yosh avlodni vatanparvarlik, milliy g‘urur, ma’naviy barkamollik ruhida tarbiyalash ijtimoiy-falsafiy g‘oyalarning asosiy vazifalaridan biridir. Barqaror va o‘zgaruvchan g‘oyalar muvozanati yoshlar ongida milliy an’analarni saqlab qolish va shu bilan birga, zamonaviy fikrlash, tadbirkorlik va innovatsion yondashuv kabi xislatlarni shakllantirishga yordam beradi.

6. Davlat va jamiyat o‘rtasidagi interaktiv munosabatlar, ochiq muloqotlar va demokratik jarayonlarning rivojlanishi ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar tizimining yangi bosqichga chiqishini taqozo etadi. Fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi ham bu jarayonga ta’sir ko‘rsatadi.

Shu o‘rinda “ijtimoiy falsafiy g‘oyalar” tushunchasiga aniqlik kiritib olsak. “Ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar tizim” tushunchasi jamiyatdagi turli g‘oyalar, qarashlar va mafkuralarning o‘zaro bog‘liqligi va ta’sirini ifodalaydi[3.36]. Bu tizim jamiyatning ma’naviy hayotida muhim o‘rin tutib, ijtimoiy ong shakllarining shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy ong esa jamiyat hayotida muayyan ijtimoiy guruhlarga xos qarashlar, g‘oyalar tizimini o‘z ichiga oladi.

“Ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar tizimi” jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy munosabatlar mohiyatini anglashga yordam beradigan konseptual qarashlar majmuasidir. Bu tizim jamiyatning ma’naviy, falsafiy va siyosiy asoslarini, uning taraqqiyot yo‘nalishlarini belgilaydi.

“Ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar” tushunchasi jamiyatda mavjud bo‘lgan ijtimoiy ong shakllarini ifoda etadi. Bu g‘oyalar ijtimoiy munosabatlarning ma’naviy, falsafiy va madaniy jihatlarini tartibga soluvchi umumiy tushunchalar hisoblanadi. Ular jamiyat a’zolarining ongida shakllanib, ijtimoiy rivojlanish jarayonlariga ta’sir ko‘rsatadi.

Ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar turli mazmunga ega bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi:

Siyosiy g‘oyalar – davlat, hokimiyat va siyosiy jarayonlar to‘g‘risidagi nazariyalar.

Huquqiy g‘oyalar – inson huquqlari, qonunchilik va huquqiy tizim asoslari.

Axloqiy g‘oyalar – jamiyatdagi ma’naviy me’yorlar va qadriyatlar.

Falsafiy g‘oyalar – inson, olam va jamiyatning mohiyatini tushunishga qaratilgan nazariy qarashlar.

Diniy g‘oyalar – diniy e’tiqodlar va ma’naviyatning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati.

Estetik g‘oyalar – san’at va go‘zallik tushunchalarining jamiyat rivojiga ta’siri.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar jamiyatda bir necha muhim vazifalarni bajaradi, jumladan:

1.Jamiyatning ma’naviy va axloqiy asoslarini belgilaydi – turli madaniyat va sivilizatsiyalar o‘z ma’naviy qadriyatlari asosida jamiyat tartibini ta’minlaydi.

2. Inson faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadi – ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda insonlarning tutgan mavqei va faoliyati muayyan g‘oyalar asosida shakllanadi.

3. Ijtimoiy taraqqiyot yo‘nalishini aniqlaydi – ijtimoiy hayotning rivojlanishi va transformatsiyasi ko‘pincha ma’naviy va falsafiy g‘oyalar bilan bog‘liq bo‘ladi.

4. Fuqarolik jamiyatini shakllantiradi – inson huquqlari va demokratik qadriyatlarning taraqqiyoti ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar ta’sirida yuz beradi [4.32].

Ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar ham boshqa ijtimoiy hodisalar kabi zamon va makondagi o‘zgarishlarga mos tarzda o‘zgarib boradi. Jamiyatdagi ilmiy-texnologik taraqqiyot, siyosiy o‘zgarishlar va madaniy o‘zgarishlar bu g‘oyalarning ham shakllanisha va rivojlanishiga olib keladi.

Ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar jamiyat ongi va madaniyatining ajralmas qismi bo‘lib, ular ijtimoiy munosabatlarning ma’naviy asosini shakllantiradi. Ularning rivojlanishi jamiyatning taraqqiyot yo‘nalishini belgilab, ijtimoiy barqarorlik va o‘zgaruvchanlik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlaydi. Bugungi kunda “Yangi O‘zbekiston strategiyasi xuddi shunday hayotbaxsh xususiyat kasb yetib, xalqimizni yorug‘ kelajakka chorlab va yangilanishlarga safarbor qilib, umumiy maqsadlar yo‘lida birlashtirib, turadigan yaxlit ma’naviy asos va mezonga aylanib bormoqda”[5.14].

Ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar tizimining tarkibiy qismlari sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Falsafiy asoslar: jamiyatning falsafiy negizlari ijtimoiy voqelikni qanday anglashini belgilaydi. Masalan, G‘arbdagi individualizm va Sharqdagi jamoaviylik (kollektivizm) tamoyillari ijtimoiy g‘oyalarga ta'sir ko‘rsatgan.

2. Ijtimoiy modellar va nazariyalar: Jamiyat turli modellar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

Marksizm – iqtisodiy munosabatlar va sinfiy kurashga asoslangan.

Liberalizm – inson huquqlari va shaxsiy erkinliklarni birinchi o‘ringa qo‘yadi.

Konservatizm – an'anaviy qadriyatlar va ijtimoiy barqarorlikka e'tibor qaratadi.

Ta'kidlash lozimki, ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar tizimi ma'lum bir mafkura shaklida namoyon bo‘ladi. Har bir jamiyatda davlat, siyosiy partiyalar va turli ijtimoiy institutlar muayyan mafkuraviy qarashlarga tayanadi. Masalan, O‘zbekistondagi milliy g‘oya – “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi, jamiyat rivojidagi barqarorlik va innovatsiya uyg‘unligiga qaratilgan. Mazkur masalaga to‘xtalar ekan, yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev, “mafkura sohasida bo‘shliq degan narsaning o‘zi hech qachon bo‘lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ongu tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta'sirlanishdan to‘xtamaydi. Demak, unga doimo ma'naviy oziq kerak. Agar shu oziqni o‘zi yashayotgan muhitdan olmasa yoki bu muhit uni qoniqtirmasa, nima bo‘ladi, aytinglar? Bunday oziqni u astasekin boshqa yoqdan izlaydi. Shunga yo‘l bermasligimiz kerak. Mana, gap nima haqida ketyapti!” [6], deya ta'kidlaydilar.

Ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar jamiyat taraqqiyotiga quyidagi yo‘nalishlarda ta'sir ko‘rsatadi:

Siyosiy tizimni shakllantirish – demokratiya, avtoritarizm yoki totalitarizm g‘oyalari ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etadi.

Iqtisodiy rivojlanish modelini belgilash – kapitalizm, sotsializm yoki aralash iqtisodiy tizimlarni tanlash.

Madaniy taraqqiyotni qo‘llab-quvvatlash – jamiyatning tarixiy an'analari va innovatsiyalar uyg‘unligi.

Ijtimoiy muvozanatni saqlash – adolat va ijtimoiy tenglik g‘oyalari asosida jamiyatdagi barqarorlikni ta'minlash.

Ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar tizimi ham o‘ziga hos evolyusiyaga ega va vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib boradi. Uning asosiy evolyusiya bosqichlari quyidagicha:

An'anaviy jamiyatlar – diniy va urf-odatlarga asoslangan g‘oyalar ustuvor.

Industrial jamiyatlar – ilmiy-amaliy bilimlarga asoslangan ijtimoiy-siyosiy qarashlar.

Postindustrial jamiyatlar – axborot texnologiyalari va innovatsiyalarga tayangan ijtimoiy-falsafiy konsepsiyalar.

Zamonaviy O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar tizimi milliy an'analar va jahon sivilizatsiyasining ilg‘or yutuqlarini uyg‘unlashtirishga asoslangan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan «Yangi O‘zbekiston»g‘oyasi mamlakatning barqaror rivojlanishini, huquqiy va demokratik tamoyillarni mustahkamlashni maqsad qiladi.

Ushbu g‘oyaning asosiy ustunlari:

- *Inson huquqlari ustuvorligi;*
- *Adolatni ta'minlash;*
- *Ochiqlik va shaffoflik;*

- *Demokratik taraqqiyot va fuqarolik jamiyati;*
- *Iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik*

Yangi O‘zbekiston g‘oyasining asosiy tamoyillaridan biri inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlashdir. Inson huquqlari – har bir fuqaroning shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalardagi erkinligini kafolatlovchi konstitutsiyaviy qadriyatlar hisoblanadi.

Demak, ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar transformatsiyasi jamiyat rivojlanishi uchun asosiy tamoyillardan biri bo‘lib, u ijtimoiy munosabatlar, siyosiy boshqaruv, iqtisodiy modellar va madaniy taraqqiyotning shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu tizim dinamik ravishda o‘zgarib, jamiyatning istiqbolini belgilab beradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Yangi O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar transformatsiyasi masalasini o‘rganish, mamlakatning strategik rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, jamiyatni boshqarishdagi qarorlarni asoslash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash, shuningdek, iqtisodiy va siyosiy islohotlarni samarali olib borishga yordam beradi.

Yangi O‘zbekiston sharoitida bu mavzuni o‘rganish milliy mafkura, davlat qurilishi, ijtimoiy barqarorlik va rivojlanish strategiyalarini shakllantirishda, milliy g‘oya, mafkura va ma’naviyatni mustahkamlash, globallashuv jarayonlariga moslashish, taraqqiyot yo‘lida muvozanatni saqlash hamda yangi avlodni vatanparvarlik va innovatsion fikrlash ruhida tarbiyalash uchun juda muhim hisoblanadi. Chunki, bu izlanishlar asosida kuchli fuqarolik jamiyati, demokratik qadriyatlarga asoslangan barqaror va rivojlanuvchi davlatning g‘oyaviy asoslarini barpo etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son. https://lex.uz/docs/6600413
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi.Toshkent. O‘zbekiston, 2021. -464 b.
3. Safarova I.O., Abdullaeva MN. G‘oyalar falsafasining nazariy-metodologik asoslari.-Toshkent: 2012.-B.36
4. Nazarov Q. va boshqalar. “Ijtimoiy falsafa”. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009. – 320 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi.Toshkent. O‘zbekiston, 2021. -464 b.

MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA TINGLOVCHILARNING TABIIY FANLAR BO‘YICHA STEM LOYIHASINI O‘QUV DASTURLARI NATIJALARI BILAN BOG‘LASH

Kuychiyeva Mo‘jizaxon Abdumannobovna,
Andijon viloyati PMM dotsenti, p.f.f.d (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada malaka oshirish jarayonida tinglovchilarning tabiiy fan doirasida STEM loyihalarini ishlab chiqish va o‘quv dasturlari bilan bog‘lash yuzasidan fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. STEM, loyiha, tabiiy fan, ijodkorlik, kreativ, tanqidiy fikrlash, texnologiya.

Hozirgi axborot va kommunikatsiya asrida STEM ta’limi mamlakatimiz uchun ham juda muhim bo‘lib, o‘z vaqtida yetarli bilimga ega bo‘lish uchun loyihaga

asoslangan STEM ta’lim dasturlarini ta’lim tizimimizda imkon qadar tezroq tarqatish muhim ahamiyatga ega.

STEM treningi tinglovchilarimizga real muammolarni hal qilish uchun hamkorlik qilish va loyihalar ustida ishlashni o‘rganish orqali hayotga tayyorgarlik ko‘rishga yordam beradi. STEM ta'lim yondashuvi bilan Tinglovchilarimiz tomonidan qo‘lga kiritilgan savol berish, tadqiqot, ixtiro va mahsulot ishlab chiqish ko‘nikmalari tufayli o‘z maktablarini bitirgan o‘quvchilarimizning muvaffaqiyati va mamlakatimiz iqtisodiyotiga qo‘shgan hissasi ortadi. STEM ta'limi - bu tinglovchilarga qaratilgan ta'lim. Tinglovchilarga eng katta hissa ularga XXI asr malakalarini berishdir. STEM darslarida tinglovchilar real muammolarga yechim izlaydilar. STEM ta'lim jarayonida Tinglovchilar real muammolarni aniqlaydilar, o‘rganadilar, yechim uchun bir nechta g‘oyalarni ishlab chiqaradilar, prototip qiladilar, sinovdan o‘tkazadilar, baholaydilar va maqsadlariga erishgunlaricha qayta ishlab chiqadilar va qayta baholaydilar. Mamlakatimizda deyarli har bir sohada savol-javob qiluvchi, tadqiqotchi, ishlab chiqaruvchi va ixtiro qiladigan shaxslarga ehtiyoj bor. Bizning o‘qituvchilarimiz tinglovchilari haqiqiy muammolarni hal qilishlari uchun so‘rov, tadqiqot va ixtirolarga asoslangan STEM ta'lim loyihalarini ishlab chiqish uchun o‘qitilishi kerak. Fan, texnologiya, muhandislik (kasbiy kurslar), matematika o‘qituvchilari o‘rtasida onlayn va yuzma-yuz almashish muhitlari ta'minlanishi kerak. STEM ta'limi bilan bog‘liq yaxshi loyihaga asoslangan o‘quv faoliyati o‘qituvchilar orasida ommalashishi kerak.

STEM loyihasiga tayyorgarlik guruhidagi o‘quvchilaringiz bilan, kerak bo‘lganda, maktabingiz yoki boshqa maktablaringizdagi o‘qituvchilardan yordam olishingiz va loyiha mavzusi fan, texnologiya, muhandislik va matematika ta'lim dasturlari yutuqlarini STEM fanlaridan qaysi birini qo‘llab-quvvatlayotganini quyida keltirilgan analiz orqali bilib aniqlang.

FANLAR (fizika, kimyo, biologiya va h.k.) KURS NATIJALARI (bosqichlari keltiriladi).

Ushbu bosqichda siz STEM loyihangizni San'at va ijtimoiy fanlar yutuqlari bilan ham bog‘lashingiz mumkin.

Sizning STEM loyihangiz fan, texnologiya, muhandislik va matematika yutuqlari bilan bog‘langanligi sababli, sizning loyiha guruhingizdagi o‘quvchilaringiz loyihani amalga oshirish jarayonida qaysi kurs mavzularini o‘rganishlari kerakligini oldindan tushunishib, ular o‘zlarining mehnatlari tufayli rivojlanadigan ko‘nikmalar borasida dastlabki ma’lumotlarga ega bo‘lishadi. Fan Qushlarning yashash muhitida zarur bo‘lgan issiqlik, yorug‘lik va namlik miqdori, Qushlarning kunlik ozuqaviy ehtiyojlari Muhandislik Kodlash to‘plamlari, quyosh panellari, mobil telefon, robot komponentlari, sensorlar va boshqalar. qushxona ichiga joylashtiriladigan elektron qurilma, robot va hokazolarni birlashtirib. loyihalash, ishlab chiqarish va dasturlash San’at Ranglar, shakllar, ob'ektlar va to‘qimalardan foydalangan holda badiiy ish orqali qush uyini vizual va estetik jihatdan rivojlantirish STEM loyihasi Aqlli Qushlar Uyi Matematika Texnologiya Quyosh panellari, issiqlik namligi, yorug‘lik, masofa va boshqalar bilan elektr energiyasini ishlab chiqarish. sensorlardan foydalanish Qushlarning issiqlik, yorug‘lik, namlik, kunlik ovqatlanish ehtiyojlari o‘rtasidagi matematik formulalar va funktsiyalarni aniqlash. Ijtimoiy fanlar Aqlli qushxonaning jamiyatimiz hayotiga qanday foydasi borligini tushunish va uni qonunga muvofiq rivojlantirish STEM loyihasining fan, texnologiya, muhandislik, matematika kurslari mavzularini tahlil qilish natijalari talabalarga STEM loyihalarining maqsadlari va ish bosqichlarini aniqlashga yordam beradi.

Bugungi mamlakatlarning tizimida o‘quvchilarning; ishlab chiqaradigan, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga hissa qo‘shadigan va 21- asr ko‘nikmalariga ega bo‘lgan shaxslarni etishtirishga qaratilgan. Zamon talablari va texnologiya rivojlanishi bilan fikrlaydigan, savol beradigan, izlanuvchi va ixtiro qiladigan talabalarga ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda. Shu sababli bugungi STEM ta’limi talabalarga fan, texnologiya, muhandislik va matematika fanlari bo‘yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotga, mahsulot va innovatsion ixtirolarga aylantirish qo‘shilmoqtadir. imkonini beruvchi ta’lim dasturiga Biz "STEM ta'limi bo‘yicha o‘qituvchilar uchun qo‘llanma" siz, hurmatli o‘qituvchilarimiz uchun maktablaringizdagi savollar, tadqiqotlar va ixtirolarga asoslangan STEM ta'limini joriy etishni qo‘llab-quvvatlash uchun manba bo‘lishini kutamiz. Ehtiyojlari har kuni yangilanib turuvchi dinamik ta’lim tizimimizni zamon talablariga mos ravishda rivojlantirish, real hayot muammolarini hal qilish uchun qanday savollar berishni bilish, STEM ta’limi bo‘yicha o‘qituvchilar uchun qo‘llanmani ishlab chiqish, loyihalashtirish va qabul qilish, ixtiro qilishga qodir avlodni voyaga yetkazish orqali o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlar sari dadil qadamlar bilan mamlakatimiz taraqqiyotiga hissa qo‘shish maqsadida tayyorlangan.

Foydalangan adabiyotlar

1. Куйчиева М.А., Биология фанини ўқитишда фанлараро боғланишларнинг ўрни ва аҳамияти // Замонавий таълим илмий-амалий оммабоп журнал –Тошкент, 2019. №5(78) -Б. 34-37 б.
2. Куйчиева М.А., Табиий фанлар ўқитувчиларининг компетентлиги ва касбий лаёқатини ривожлантириш масалалари // Тошкент Давлат Педагогика Университети Илмий ахборотлари илмий-назарий журнал ISSN 2181-9580, 2021й, 1-сон. 53-57 б.
3. Куйчиева М.А., Use of Interdisciplinary Relationships In The Formation Of Competences In Biology Students // CONVERTER 2021 www.converter-magazine.info 485-489 б.
4. Куйчиева М.А. // Organization of Experimental Works on the Development of Professional and Methodical Competence of Future Biology Teachers // Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. Open Access, Peer Reviewed Journal. 2022. 5 February ISSN (E): 2795-739, 19-21b.
5. Куйчиева М.А., Д.Эшматова. Development of Professional and Methodical Competence of Future Biology Teachers in Extrcurricular Activities // Web of Scientist: International Scientific Research Journal 2022. March 25 th,2022. ISSN:2776-0979, 113-117 b. (№12. SJIF;IF-7.565)

BIOKIMYO FANLARINI O‘QITISH METODIKASI

Xoldaraliyeva Nargizaxon Baxodirjon qizi,
Andijon PMM o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada biokimyo fanini o‘qitish jarayonini rivojlantirish, kompetensiyasi hamda texnologik yondashuvlar asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ilg‘or xorijiy va milliy tajribalar asosida bo‘lajak mutaxassislarning fan nuqtai nazardan tayyorgarligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar. Biologik jarayonlar, kimyoviy xodisalar, muloqot, hamkorlikda ishlash, ta’lim metodlari, texnologiya.

- Biokimyo – biologik jarayonlar va organizmlar faoliyatining kimyoviy asoslarini o‘rganuvchi fan. U biologiya va kimyo sohalari orasidagi ko‘prikni tashkil etadi.

- **Fan ahamiyati**: Biokimyo nafaqat ilmiy sohada, balki tibbiyot, agrar va farmatsevtika sohalarida ham keng qo‘llaniladi. U inson organizmida yuz beradigan kimyoviy reaksiyalarni, metabolizmni tushunishda muhim rol o‘ynaydi.

2. Biokimyo fanini o‘qitishning maqsadi va vazifalari

- **Maqsad**: O‘quvchilarga biokimyo fanining asosiy tushunchalari, qonuniyatlari va amaliy ahamiyatini o‘rgatish. Organizmda bo‘ladigan kimyoviy jarayonlarni va ularning biologik natijalarini tushunishga yordam berish.
- **Vazifalar**:
  - O‘quvchilarga biokimyo fanining asosiy kontseptsiyalarini o‘rgatish.
  - Kimyoviy jarayonlarning organizmdagi o‘rni va funksiyalarini tushuntirish.
  - Biokimyo tajribalarini o‘rganish va amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llash.

3. Biokimyo fanini o‘qitish metodlari

- **An'anaviy metodlar**: Dars o‘qitishning klassik usullari, masalan, ma'ruza va seminarlar. Bu metodlar o‘quvchilarni umumiy biokimyo asoslari bilan tanishtiradi.
- **Interaktiv metodlar**: O‘quvchilarning faol ishtirokini talab qiladigan metodlar, masalan, guruhli ishlash, muammolarni yechish va case study (mish-mishlar) texnikalari.
- Biokimyo hayotiy jarayonlarni molekulyar darajada o‘rganadigan fan bo‘lib, tibbiyot, farmatsevtika, qishloq xo‘jaligi va boshqa ko‘plab sohalarda muhim ahamiyat kasb etadi. Biokimyoni o‘qitish metodikasi bu fanni o‘rgatish jarayonida samaradorlikni oshirishga qaratilgan usullar majmuasidir.
- Biokimyoni o‘qitishning asosiy maqsadlari
- 1. Talabalarga biokimyoviy jarayonlarning mohiyatini tushuntirish.
- 2. Amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish.
- 3. Mustaqil fikrlash va ilmiy izlanish ko‘nikmalarini rivojlantirish.
- 4. Fanni zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘qitish.
- O‘qitish metodlari
- 1. Ma’ruza va seminar mashg‘ulotlari
- - Nazariy bilimlarni tushuntirish.
- - Interfaol usullar orqali dars samaradorligini oshirish.
- 2. Amaliy mashg‘ulotlar
- - Laboratoriya tajribalari orqali biokimyoviy jarayonlarni tushuntirish.
- - Eksperimentlar orqali ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish.
- 3. Elektron ta’lim va multimedia vositalari
- - Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar.
- - Interfaol dars materiallari.
- 4. Problema asosida o‘qitish
- - Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish.
- - Mustaqil ilmiy izlanishlarni rag‘batlantirish.
- O‘qitishda duch kelinadigan muammolar
- - Laboratoriya jihozlarining yetishmovchiligi.
- - Talabalarning nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etishdagi qiyinchiliklar.
- - Zamonaviy texnologiyalarni yetarli darajada qo‘llay olmaslik.

Foydalangan adabiyotlar

1. Halliday, M. A. K. 1973. Explorations in the Functions of Language. London: Edward Arnold.
2. Hymes, D. (1972): 'On communicative competence', in J.B. Pride and J. Holmes (eds.), Sociolinguistics. Harmondworth: Penguin.

3. Hymes, D. 1971. ‘Competence and performance in linguistic theory’ in R. Huxley and E. Ingram (eds.). Language Acquisition: Models and Methods, 3–28. London: Academic Press.
4. Harper, D. J., S. Coulthard, et al. (2002). A Language Modelling Approach to Relevance Profiling for Document Browsing. In proceedings of The Joint Conference on Digital Libraries, Oregon, USA. July 2002, 2002

IJTIMOIY – IQTISODIY FANLARNI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

Fayzullayeva Muxlisa odil qizi,
Navoiy davlat pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola hozirgi vaqtda informatika fanining qanday rivojlanib borayotgani axborot telekommunikatsiya vositalarining o‘rni amaliy mashg‘ulotlarning zamonaviy ta’lim tizimiga uzviy bog‘liqliklari haqida tahlil qiladi.Maqolada shuningdek, 7- sinf informatika va axborot texnologiyalari faning maqsadi haqida ham aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy ta’limning dolzarb muammosi, o‘qituvchilarning ish vazifasi, geogebra, CAMBRIDGE UNIVERSITY PRESS loyihasi,uslubiy tizim, rivojlanish kontseptsiyasi uslubi.

Аннотация: В статье анализируется современное развитие информатики, роль информационно-телекоммуникационных средств, а также неотъемлемая роль практического обучения в современной системе образования. В статье также обсуждается цель предмета «Информатика и информационные технологии» в 7 классе.

Ключевые слова: Актуальные проблемы современного образования, производственные задачи учителей, геогебра, проект CAMBRIDGE UNIVERSITY PRESS, методическая система, метод концепции развития.

Annotation: This article analyzes how computer science is currently developing, the role of information and telecommunications tools, and the integral role of practical training in the modern education system. The article also discusses the purpose of the 7th grade computer science and information technology subject.

Key words: Current problems of modern education, teachers' work tasks, geogebra, CAMBRIDGE UNIVERSITY PRESS project, methodological system, development concept method.

Informatikadan amaliy mashg‘ulotlar metodik tizimini tashkil etish, ular ustida amaliy ishlarni olib borish bugungi kunda juda muhimdir. Bu talabalar o‘quvchilar va informatikani o‘rganayotgan yosh avlodga informatika sohasidagi bilim va ko‘nikmalarini o‘rganishda muhim bir qadamdir. Bu uchun, maxsus texnologiyalar asosida tashkil etish metodikalari keng tarqalganligi va o‘qituvchilar o‘rtasida hamkorlikni talab qiladi. Maxsus texnologiyalar asosida tashkil etish metodikalari, Internetda mavjud bo‘lgan onlayn resurslardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Bu resurslar o‘quvchilarning informatikaga qiziquvchilarning bilim va ko‘nikmalarini yanada kengaytirib borishi mumkin bo‘ladi. Bundan tashqari, bu metodikalar talabalarning o‘quvchilarning bilimlarni amalda qo‘llash imkoniyatini ham yanada kengaytirib beradi. Boshqa amaliy mashg‘ulotlar metodikasi bilan solishtirganda, maxsus texnologiyalar asosida tashkil etish metodikalari o‘quvchi yoshlarni o‘z-o‘zini sinovdan o‘tkazib ko‘rishi uchun xavfsiz muhit yaratadi. Zamonaviy ta'limning dolzarb

muammosi - informatikadan amaliy mashg‘ulotlarning metodik tizimini maxsus texnologiyalar asosida tashkil etishdir. Informatika fanining ta’limdagi o‘rni yuqori bo‘lganli sababli uni nazariy holda o‘rganish umuman olganda natija kam olishlikga olib keladi o‘z maqsadimizga kamroq erishamiz.Agar nazariyadan ko‘ra ko‘proq vaqtimizni amaliyotga sarflasak natija to‘la qonli bajarilishi mumkin.Hozirgi vaqtda ta’lim berayotgan maktab, kollej, litsiy va oliy o‘quv yurtlarida o‘qituvchidan to o‘quvchigacha internet ma’lumotlaridan, kompyuter vositalaridan foydalanishlari va dars xonalarining ham aynan, zamon talabiga mos holda jihozlangan bo‘lishi talab etiladi. O‘quvchilar internetda o‘zlarining qiziqishlariga mos keladigan materiallarni,ko‘rgazmalarni izlashadi va bu ularning yaratuvchi ko‘nikmalarni yanada rivojlantirishi uchun ham ayni yuqorida keltirilgan talablar ya’ni internet vositalari,kompyuter brauzerlari bilan to‘liq ta’minlangan bo‘lish va internet tarmoqlariga ulangan yorug‘ o‘quv xonalari ularga mos bo‘lgan jihozlar bo‘lishi kerak bo‘ladi. Shuningdek, bu imkoniyatlarning barchasi yosh avlodni qiziqishlarini yuzaga chiqishiga imkon beradi . Shu bilan birga, maxsus texnologiyalar asosida tashkil etish metodikalari, o‘quvchilar uchun ishlab chiqilgan onlayn dasturlar,darslar va ilovalar orqali ham amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish imkonini beradi. Bunday imkoniyatlardan yosh avlod informatika sohasidagi bilim va ko‘nikmalarni yanada samarali o‘rganib, amalda qo‘llashga tayyorlanib kelishmoqda. Natijada, maxsus texnologiyalar asosida tashkil etish metodikalari informatika sohasidagi bilim va ko‘nikmalarini amalda qo‘llashni osonlashtiradi. Bu usul o‘quvchilarning motivatsiyasini yanada kengaytirib boradi informatika faniga qiziqishini oshiradi va ularning ma'lumotlarini tez va aniq miyasida saqlab qolishiga zamin yaratadi.Shuningdek, bu texnologiyalar talabalarning yaratuvchi hamkorlikni rivojlantirishiga va yangi texnologiyalarni zamon talabiga xos tarzda yaratishlari imkonini beradi.XXI axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ta’lim sifatiga qo‘yiladigan talablar ortib borayotgan sharoitda o‘quvchilarning va yosh avlodning informatika fanidan zarur kompetensiya va ko‘nikmalarni egallashiga imkon beruvchi zamonaviy uslubiy tizimlarni yaratish zarur.

XXI asr Globallashuv davrida texnalogiyalar asosida o‘qituvchi darsni o‘tar ekan u metodlarni darsning mazmuniga qarab har xil yo‘llar bilan qo‘llay olishi kerak.Ushbu ishdan maqsad maxsus texnalogiyalar asosida informatikadan amaliy mashg‘ulotlarni metodik tizimini tashkil etish metodikasini ishlab chiqishdan iborat.

O‘qituvchi ish vazifalarini quyidagicha belgilab olish mumkin.

1. Uslubiy tizim, amaliy ishlab chiqarish va informatika fanini ommaviy axborot vositalari orqali tahlili.

2. Rivojlanish kontseptsiyasi uslubi, tizimli, amaliy , ishlab chiqarish, axborotlarni maxsus jihozlarga asoslangan holda tahlil qilish.

3. Informatika fani uchun mazmun va tuzilmaning tavsifi, uslubiy, tizimli, amaliy, ishlab chiqarish, va axborot texnologiyalaridan foydalanishni tashkil etish.

Hozirgi vaqtda ma’lumotlar tez va aniq ko‘payib borayotganligi sababli ya’ni insonlarning ongi rivojlanib ko‘pgina ixtirolar qilayotganligi va ularga mos bo‘lgan texnalogiyalarning ko‘pligi uchun ayni vaqtlarda maktab ta’limida o‘quv qo‘llanmalarning soni ortib bormoqda. Misol sifatida 7-sinf informatika kitobini yangi tahririni oladigan bo‘lsak,7- sinf uchun mo‘ljallangan”Informatika va axborot texnologiyalari” darsligi CAMBRIDGE UNIVERSITY PRESS nashriyotining 2019-yilda chop etilgan”ICT Starters:On Track” modullari axborot- kommunikatsiya texnologiyalari(AKT) bo‘yicha bilim ko‘nikmalarni egallashga yordam beradi.Qolaversa fanning keying bosqichlari uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat

qiladi. 7-sinf uchun CAMBRIDGE UNIVERSITY PRESS loyihasi asosida tuzilgan yangi informatika kitobi haqida bir qancha fikrlarim bor.Umuman olganda, bu kitob informatika ta'limining zamonaviy tendentsiyalariga javob beradi va o‘quvchilarda informatika asoslarini shakllantirishga qaratilgan. CAMBRIDGE UNIVERSITY PRESS loyihasi asosida tuzilganligi sifat va metodik yondashuvning yuqori darajasini kafolatlaydi. Bu kitobning afzalliklari zamonaviyligi jihatidan kitobda qiziqarli texnologiyalar, rasmli tayyor ko‘rgazmalar, exsel, word, ma’lumotlar bazasi, glossariy va informatika tushunchalari aks etgan. Bu o‘quvchilarni raqamli dunyoga tayyorlashga ko‘pgina qiziqarli ma’lumotlardan xabardor bo‘lishga yordam beradi. Axborot texnologiyasi – bu aniq texnik dasturlar vositasining majmui bo‘lib ular yordamida biz ma’lumotlarni qayta ishlash bilan bog‘liq bo‘lgan hayotdagi turli – tuman masalalarni hal etamiz. Shu bilan birga darslik quyidagi materiallardan iborat.

- ❖ Mashg‘ulotlar namunasi;
- ❖ Ko‘nikmalarni shakllantirish uchun mashqlar;
- ❖ O‘zlashtirishni tekshirish uchun yakuniy loyihalar;
- ❖ Mustaqil bajarish uchun mashg‘ulotlar va topshiriqlar.

Shu o‘rinda kitobda nazariy va amaliy mashg‘ulotlarning o‘rni haqida gapirib o‘tsam. Kitob nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtiradi. Bu o‘quvchilarga olingan nazariy bilimlarni egallash, mustahkamlash va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi. Kitobning tili 7-sinf o‘quvchilari uchun tushunarli moslashtirilgan. Murakkab tushunchalar sodda va qulay tilda lug‘atlar orqali tushuntirilgan. Kitobda o‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otadigan va ularni mustaqil fikrlashga undaydigan turli xil topshiriqlar mavjud. Kitob CAMBRIDGE UNIVERSITY PRESS loyihasi asosida tuzilganligi sababli, u yuqori sifatli va metodik jihatdan puxta ishlangan. Kitobni o‘rganish nazariy bilimlarni egallash oson deb o‘layman chunki o‘quvchi bilimga ega bo‘lish uchun avval o‘qigan ma’lumotlarini amaliy talqin qilib ko‘rishi kerak shundagina nazariya bilan amaliyot uyg‘unlashadi.O‘quvchi o‘rganayotgan ma’lumotlarini tasavvurida o‘rganib uni hayotda qo;llay olsa bu uni katta yutug‘I bo‘ladi buning uchun 7-sinf kitobi ayni muddao. Kitobda berilgan har bir reja asosida ma’lumotlar bazasi berilgan va o‘quvchi uni amaliyotda qo‘llashi uchun amaliy topshiriqlar ham keltirilgan. Yanada ma’lumotlar aniq bo‘lishi uchun har bir qilinayotgan ish rasm holatiga keltirilib kitobda chop qilingan. Shu bilan birga bu kitob geogebra dasturi asosida ko‘rgazmalashtirilgan.Bu dasturdan foydalanishning asosiy sababi o‘quvchilarga o‘rganayotgan ma’lumotlarini rang tasvir orqali ifoda qilinishi deb o‘ylayman.

Kitob haqida va informatika fani o‘qituvchilariga yana qo‘shimcha tavsiyalarni bergan bo‘lardim:

• Kitobni mahalliy sharoitga moslashtirish uchun qo‘shimcha materiallar va resurslar ishlab chiqish kerak.

• O‘qituvchilar uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish va ularni zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashga o‘rgatish zarur.

• Maktablarni zarur kompyuter texnikasi va dasturiy ta'minot bilan ta'minlash kerak.

• O‘quvchilarning fikr-mulohazalarini inobatga olgan holda kitobni takomillashtirib borish lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak,yosh avlodni bilimli, salohiyatli qilib tarbiyalanishi uchun hozirgi axborot texnologiyalar asri juda ko‘p imkoniyatlarni yaratib berayapti desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu o‘rinda 7-sinf uchun CAMBRIDGE UNIVERSITY

PRESS loyihasi asosida tuzilgan yangi informatika kitobi informatika ta'limida muhim qadam bo‘lishi mumkin. Agar yuqoridagi tavsiyalar inobatga olinsa, kitob o‘quvchilarda informatika asoslarini shakllantirish va ularni raqamli dunyoga tayyorlashda katta rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amridinov S.A, Suyarshayev M.M Pedagogiy amaliyotga tavsiyalar. – Samarqand: SamDU nashri, 2009.-b.
2. Isoqov I, Qulmamatov S.I, Informatika O‘qitish jarayonida innovatsion texnologiyalar .O‘quv –uslubiy majmua .Guliston, 2014
3. M.T.Azimdjonova, M.T.Muradova, M.S.Pazilova. Informatika va axborot texnologiyalari.Toshkent-2013
4. M. Aripov, J. Muhammadiev. Informatika,informatsion texnologiyalar.(Xuquqshunoslik mutaxasisliklari uchun darslik) – T , 2004-y
5. S.S.G‘ulomov va boshqalar. Axborot tizimlari va texnologiyalari: Oliy o‘quv yurti talabalari uchun darslik / Akademik S.S. G‘ulomovning umumiy tahriri ostida . – T.”sharq”,2000 . 529b.

MUAMMOLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARINING O‘QITUVCHILARNING KASBIY RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI

Otamurodova Yaxshigul Farxodovna,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universitet o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada muammoli ta’lim texnologiyalarining o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishidagi o‘rni tahlil qilingan. Muammoli ta’lim texnologiyalarining nazariy asoslari, ularning o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirishdagi ahamiyati va O‘zbekiston hamda xalqaro tajribalar asosida olib borilgan tadqiqotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Muammoli ta’lim, kasbiy rivojlanish, pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar, o‘qituvchilar malakasini oshirish.

Kirish

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish, xususan, muammoli ta’lim texnologiyalarini joriy etish o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Muammoli ta’lim orqali o‘qituvchilar o‘z kasbiy mahoratini oshirish bilan birga, talabalarga mustaqil fikrlash, tahliliy yondashish va ijodiy yechim topish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Muammoli ta’lim texnologiyalarining nazariy asoslari

Muammoli ta’lim texnologiyasining asoschisi J.Bruner bo‘lib, u ta’lim jarayonida faollik va mustaqil izlanishga asoslangan o‘qitish usullarini taklif qilgan. Keyinchalik, J.Dyui, L.S.Vygotskiy, J. Piaget kabi olimlar ushbu yondashuvni rivojlantirgan. O‘zbekistonda esa A. Shamov, N. Saidova, D. Turaqulov singari olimlar muammoli ta’lim metodlarini rivojlantirishga hissa qo‘shganlar.

Muammoli ta’lim texnologiyalarining o‘qituvchilar kasbiy rivojlanishidagi roli

Muammoli ta’lim texnologiyalari o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishida quyidagi jihatlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi:

- O‘qituvchilarning muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va ularga yechim topish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
- O‘quvchilarga mustaqil fikrlash va izlanish imkoniyatini yaratish orqali pedagogik mahoratni oshiradi.

- Ta’lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanishni rag‘batlantiradi.

O‘zbekiston Respublikasidagi muammoli ta’lim texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha qarorlar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 26-sentabrdagi ‘Ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’gi PQ-3271-sonli qarori, 2020-2025-yillarga mo‘ljallangan Ta’lim tizimini rivojlantirish strategiyasi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining muammoli ta’lim texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha qarorlari ushbu yo‘nalishda muhim hujjatlar hisoblanadi.

Xulosa

Muammoli ta’lim texnologiyalari o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shuvchi metodlardan biridir. Ushbu yondashuvni keng qo‘llash orqali ta’lim sifati oshirilishi va o‘qituvchilarning malaka darajasi yuqori bo‘lishiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bruner J. ‘The Process of Education’ – Harvard University Press, 1960.
2. Vygotskiy L.S. ‘Mind in Society’ – Harvard University Press, 1978.
3. Dewey J. ‘Democracy and Education’ – Macmillan, 1916.
4. Shamov A.N. ‘Pedagogik texnologiyalar’ – Toshkent, 2010.
5. Saidova N. ‘Ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlar’ – Toshkent, 2018.

GEOGRAFIYA DARSLARIDA GOOGLE EARTH DASTURIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Siddiqov Sadriddin Shuhratjon o‘g‘li,
Namangan viloyati PMM o‘qituvchisi, g.f.f.d.

Аннотация: В статье описывается развитие знаний и навыков учащихся путем организации некоторых тем, изложенных в школьных учебниках, с использованием инновационной технологии Google Earth.

Annotation: This article describes the development of students’ knowledge and skills by organizing some topics covered in school textbooks using the innovative technology Google Earth.

Ключевые слова: Учебник, география, Google Планета Земля, Разметка Keyhole.

Keywords: Textbook, geography, google earth, Keyhole Markup.

Kirish. Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar ta’lim tizimi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda keng qo‘llanib kelinmoqda. Zamonaviy texnologiyalar o‘quvchilarning tasavvur qilish, mustaqil fikrlash, voqea hodislarni oson tushinishlariga xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalar orasida Google Earth ilovasi alohida ahamiyat kasb etadi. Google Earth dasturidan foydalanib tashkil etilgan darslarda o‘quvchilar ma’lum bir hudud to‘grisida dastlabki ma’lumotlarni kosmik suratlarni tahlil qilish orqali olishlari muhim sanaladi. Shuningdek mazkur ilova orqali bevosita loyiha ishlari, ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish imkoniyatlari yuqori hisoblanadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi - Google earth dasturining Geografiya darslaridagi o‘rni va o‘quvchilarda tarixiy-geografik tasavvurni shakllantirishdagi ahamiyatini ochib berish. Shuningdek, tarixiy hodisalar va joylarni vizual ko‘rsatish orqali o‘quvchilar uchun murakkab mavzularni sodda va oson yo‘llar bilan tushintirish maqsad qilingan.

Asosiy qism. Google Earth — bu asosansun’iy yo‘ldosh tasvirlari asosida Yerning 3D tasvirini ko‘rsatadigan dasturiy ta’minot hisoblanadi. Dastur yordamida





o‘quvchilar sun’iy yo‘ldosh tasvirlari, aerofotografiya va GAT (Geografik axborot tizimlari) ma’lumotlarini 3D ko‘rinishdagi globusga joylashtirish orqali o‘rganishlari mumkin bo‘ladi. Bugungi kunda ushbu dasturdan IOS va Android tizimida ishlaydigan mobil aloqa vositalari hamda barcha turdagi kompyuterlar orqali foydalanish imkoniyatlari mavjud.

Bugungi kunda maktablarda o‘tilayotgan geografiya darslarining amaliy ahamiyati avvalgidan bir muncha pasaygan. Bunga asosiy sabab sifatida darsliklarda berilayotgan mavzularning innovatsion texnologiyalar bilan bog‘lanmaganligi, berilayotgan ma’lumotlarning asosiy qismi faqatgina statistika uchun xizmat qilayotganligi hamda fan o‘qituvchilarining zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni bilmasliklari bunga asosiy sabab bo‘lmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etishda bir nechta dasturlar xizmat qilishi mumkin. Jumladan, Google earth, Zoom earth, MSN, IQ air ilovalari o‘quvchilarga real vaziyatdagi ma’lumotlarni olish va darslikladi ma’lumotlardan qo‘shimcha informatsiyalar, turli xil vizual kartalarni yaratishlari mumkin bo‘ladi. Quyida Google earth ilovasi va uni geografiya darslariga integratsiya qilish haqida so‘z boradi. Yuqorida takidlanganidek Google earth ilovasidan mobil aloqa vositalari yordamida foydalanish imkoniyatining mavjudligi moddiy texnik bazasi yuksak bo‘lmagan maktablarda ham undan foydalanishda qulay hisoblanadi.

Google earth ilovasining rus va ingliz tilidagi versiyalaridan bugungi kunda keng foydalanib kelinmoqda. Shu boisdan ushbu ikki tilda berilgan dasturning shartli belgilari va funksiyalarida haqida qisqacha ma’lumot berish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ilovani dastlab yuklab olgan inson uning chap pastki burchagida joylashgan Слои (Layers) buyrug‘i bilan tanishib chiqishi kerak bo‘ladi. Ushbu buyruqda dastlabki 4 ta ketma-ketlik xaritaning bizga kerak bo‘lgan elementlarini kartada tasvirlash yoki olib qo‘yish haqida bo‘lib, mavzuga mos bo‘lgan buyruqni birini tanlab olinadi. Bunda asosan mamlakatlar chegaralari, yo‘llar, joy nomlari, turli xil marshrutlar berilgan (1-rasmga qarang).

1-rasm. Google earth dasturining umumiy ko‘rinishi.

Navbatdagi buyruq Базовая карта (based map) bo‘lib ushbu buyruq orqali ikkita tanlov qilish imkoniyati mavjud. Bunda, yerni suniy yo‘ldoshdagi ko‘rinishi yoki ananaviy karta ko‘rinishi tanlash mumkin. O‘quvchilarga ko‘proq sun’iy yo‘ldosh kartalaridan foydalanish samarali hisoblanadi.

Допалнителные слои (Additional layers) buyrug‘ida Geografiya darslarida keng qo‘llaniladigan funksiyalar berilgan bo‘lib bular bino va ko‘chalarning 3D o‘lchamli ko‘rinishi, hududlarning foto suratlari, hududlarning tarixiy suratlari(asosan 1972-2025

yillar oralig‘i), daraja to‘rlari hamda atmosferadagi 24 soat oralig‘idagi bulutlarni ko‘rish imkoniyatlari berilgan. Foydalanuvchilar ehtiyojlariga ko‘ra ixtiyoriy bir funksiyani o‘ngga surish orqali faollashtirishlari mumkin. Shu o‘rinda hududning tarixiy suratlarini ko‘rilayotgan vaqtda bazaviy karta suputnik karta bo‘lishini yoddan chiqarmaslik muhim.

O‘quvchilar maktab darsligida berilgan ma’lumotlar bilan cheklanib qolmasdan balki sun’iy yo‘ldosh o‘tgan vaqtdagi Orol dengizi suratlarini ko‘rishlari va o‘sha davrdagi orol dengizi maydonini aniqlashlari mumkin bo‘ladi. 2-rasmda keltirilgan holat 2025- yil hamda 1972-yildagi orol dengizining ko‘rinishi.

Maktab geografiya darslarida o‘quvchilar katta qiziqish bilan regional qism darslarini kuzatib borishadi. Bunga sabab sifatida ko‘plab o‘quvchilarning xorijiy mamlakatlarga sayohatlar qilishni hohlashi va hududlarning go‘zalliklaridan





baxramand bo‘lish istaklarining mavjudligidir. Google earth orqali maktab o‘quvchilari regional qismda berilgan deyarli barcha mamlakatlarga virtual sayohatlarni amalga oshira oladilar. Bunda asosan shaharlar, tabiiy geografik obyektlar va boshqa diqqatga sazavor hududlarga borish imkoniyatlari mavjud. Buning uchun dastlab Просмотр улиц buyrug‘ini faollashtirish kerak bo‘ladi



(3-rasmga qarang). Buyruq faollashgandan so‘ng oynada ko‘k rangli hududlar hosil bo‘ladi va mazkur hudud ustiga ikki marta bosish orqali shu hududga virtual sayohat boshlanadi.

3-rasm. Saudiya arabistonida joylashgan Prins matib masjidi (Makka shahri)ning yuqori qismidan shahar ko‘rinishi

Surat 360^0 hududni qamrab olib ekrangi surish orqali yon atrofni ko‘rish va strelka buyrug‘i orqali shahar bo‘ylab harakatlanish imkoniyatlari mavjud. Geografiya darslarini interaktivligini, amaliyligini oshirish orqali o‘quvchilarni darsga qiziqtirish geografiya fanining rivojlanishida, o‘quvchilarni hududlarni o‘rganishida muhim.

Xulosa qilib aytganda raqamli dunyoning rivojlanishi, Google Earth kabi vositalar geografiya darslarida amaliy tajribalarni yaratish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilar o‘zlari borishni istagan hudud to‘g‘risida geografiya darslarida virtual

sayohatlar qilish orqali dastlabki ko‘nikmalarni egallaydilar.

Shuningdek Google earth dasturida yer nishabligini, ikki predmet orasidagi masofani aniqlash orqali sug‘orish va boshqa loyihalarni tog‘ri amalga oshirishda muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hayitov A., Boymurodov N. Ta’limda noana’naviy darslar va interfaol usullardan foydalanish. -Toshkent "Yangi asr avlodi" 2006 25-b.
2. Bahromov Q.X. Shodiyeva N. Geografiya ta’limi metodikasi. Buxoro, 2015. 35-b.
3. Abduvoxidov S.N., Ganiyev Z.A. Geografiya ta’limi metodikasi Samarqand, 2021. 15-b.
4. P.G‘ulomov H.Vahobov va boshqalar Geografiya (O‘rta Osiyo va O‘zbekiston tabiiy geografiyasi) 7-sinf va boshqalar. O‘qituvchi-2017. 125-b.

Internet manbalari

5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Google_Earth
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Google_Earth
7. https://cyberleninka.ru/article/n/geografiya-darslarida-google-earth-dasturidan-talabalar-o‘rtasida-foydalanishning-afzalliklari.
8.https://cyberleninka.ru/article/n/google-earth-dasturi-va-uning-tarix-fanlarini-oqitishdagi-ahamiyati.

GEOGRAFIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARGA EKOLOGIK TARBIYANING O‘RNI VA AHAMIYATI

Narzullayev N.H.,
Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik holatni yaxshilashga e’tiborni kuchaytirishimiz kerakligi va tabiatdan oqilona foydalanish masalalari haqida aytib o‘tilgan. Quyida havola etilayotgan ma’lumotlardan fanga qiziquvchi barcha kishilar foydalanishlari mumkin.

Kalit so‘zlar: Ekologiya, ekologik komponentlar, biosfera, ekosan, ozon qatlami, etnografik.

Аннотация: В статье рассматривается необходимость усиления внимания к охране окружающей среды и улучшению экологической обстановки, а также вопросы рационального природопользования. Приведенная ниже информация доступна всем, кто интересуется наукой.

Ключевые слова: Экология, экологические компоненты, биосфера, экосфера, озоновый слой, этнографический.

Abstract: The article talks about the need to increase attention to environmental protection and improvement of the ecological situation and the issues of rational use of nature. The following links are available to anyone interested in the subject.

Keywords: ecology, ecological components, the biosphere, the ecozone, the ozone layer, and ethnographic.

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash orqali o‘qitishning yuqori

samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiqdir.

Geografiya darslarida ekologik tarbiya - bu o‘quvchilarga tabiatga bo‘lgan ongli munosabatni shakllantirish, ekologik muammolarni tushunish va ularni hal etish yo‘llarini anglashga o‘rgatishdir. Inson nafaqat moddiy jihatdan, balki ma'naviy tomondan ham tabiatga bog‘liqdir, o‘z hayotini saqlash maqsadida u tabiat va uning suv, havo, yer, o‘simlik va hayvonot olami hamda boshqa ekologik komponentlari bilan tinimsiz, ravishda muloqotda bo‘ladi. Inson yashayotgan qatlam bu biosferadir. Atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik holatni yaxshilashga e'tiborni kuchaytirishimiz zarur. Avvalo, Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish bo‘yicha boshlagan misli ko‘rilmagan ishlarimizni davom ettirib, dengizning qurigan tubida o‘rmonzorlarni kengaytirish, Nukus, Urganch va Xiva shaharlari atrofida "yashil belbog‘"lar barpo etishimiz lozim. Oxirgi yillarda O‘zbekiston Respublikasidagi barcha ta'lim muassasalarida ekologik ta'lim va tarbiya masalalariga katta e'tibor berilmoqda haqiqatdan ham atrof-muhitning ifloslanishida tabiiy va antropogen omillar asosiy rol o‘ynaydi. Tabiiy omillar asosida atrof-muhitning ifloslanishi chaqmoq chaqish, o‘t-o‘lanlar va o‘rmonlarning yonishi, vulqonlar otilishi, shamol harakati va boshqa jarayonlar natijasida yuz beradi.

Atmosfera, elektr-energetika, metallurgiya va kimyo kabi sanoat tarmoqlari, transport vositalari, fazoga kosmik kemalarni uchirish va turli xil yong‘inlar tufayli ifloslanmoqda. Keyingi yillarda ftor-xlorli birikmalarning ko‘p chiqarib yuborilishi natijasida yerdagi hayotning qalqoni hisoblangan ozon qatlamining tobora yupqalishib borishi kuzatilmoqda. Ushbu holat dastlab Janubiy Amerikaning Antarktidaga tutash hududlari, so‘nggi yillarda esa Yevroosiyoning shimoliy kengliklarida kuztilmoqda. Hozirgi paytda atrof-muhitni himoya qilishning bir qator samarali yo‘llari ishlab chiqilgan.

Ekologik siyosat – ekologiya fani bizni o‘rab turgan tabiiy muhitni muhofaza qilish va uni sog‘lomlashtirishga, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va ularni boyitishga qaratilgan siyosatlar majmuasidir. BMT ning atrof-muhitni muhofaza qilish dasturi (YUNEP) dir. Uning bosh idorasi Nayrobi (Keniya) shahrida joylashgan. Ana shu maqsadlarda O‘zbekistonda "Ekosan" harakati tashkil topdi. U nafaqat O‘zbekistonda balki butun O‘rta Osiyoda tabiatni muhofaza qilish, aholi yashash muhitini sog‘lomlashtirish yo‘lida faol harakat qilmoqda. O‘zbekiston ekologiyasini yaxshilash uchun, mamlakatimizdagi iqtisodiy ahvolni yaxshilash, ekologik tanazzulning oldini olish uchun xalqimiz orasida qadimda ma'lum bo‘lgan ekologik madaniyatni tiklashimiz, tarixni yaxshilab o‘rganishimiz hamda undan hozirgi sharoitda foydalanish imkoniyatlarini qidirib topishimiz kerak. Inson faoliyati ta'sirida biosferaning o‘zgarishi juda tezlik bilan bormoqda. Insoniyatning tabiiy jarayonlarga ana shunday ta'sirda yoki munosabatda bo‘lishi natijasida XX asr o‘rtalarida ekologik muammolar juda avj olib ketdi. Inson sivilizasiyasining rivojlanishi va uning tabiat bag‘riga tobora chuqurroq kirib borish oqibatida ahvol tubdan o‘zgardi, yer yuzidagi o‘rmonlar qirqildi, katta – katta hududlar dehqonchilik qilish maqsadida o‘zlashtirildi, dorilar bilan o‘g‘itlandi, har xil chiqindi hamda gazlar bilan toza havo va tabiat ifloslandi. Bundan tashqari tabiatda toshqinlar, o‘rmon yong‘inlari, chang bo‘ronlari va boshqa tabiiy jarayonlar yuz beradi. Bularning barchasi tabiatning tabiiy muvozanatiga putur yetkazadi. Dunyo bo‘yicha kuzatiladigan tabiiy, antropogen yoki sof antropogen hodisalar umumbashariy muammolar deb qaraladi. Ana shunday ekologik muammolarga ba'zi bir misollarni keltirib o‘tamiz:

1. "Atmosferaning dimiqishi" hodisasi.
2. "Ozon qatlamining siyraklanishi" hodisasi.
3. "Chuchuk suv" muammosi .
4. "Tirik tabiatdagi o'simlik va hayvon turlari sonining qisqarishi" muammosi.
5. "Pestisetlardan foydalanish" muammosi.

Yer yuzasining muayan mintaqasi o'ziga xos tabiiy iqlim, ijtimoiy – ekologik, etnografik xususiyatlari uni tabiat bilan inson o'rtasidagi o'zaro aloqa munosabatlari xarakterini belgilab beradi. Bugungi kunda mustaqil O'zbekiston yirik sanoat va agrar mintaqa bo'lib, kelajakda dunyoga yuz tutgan mashinasozlik, energetika, kimyo, oziq – ovqat sanoati, transport majmuini yanada rivojlantirish ko'zda tutilgan. Bunday ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi Respublikada ijtimoiy – ekotizmlarning holatiga muayan darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Respublikada keskin bo'lib turgan ekologik va tabiatni muhofaza qilishga oid muammolar quyidagilar:

1. Yirik hududiy – sanoat majmualari joylashgan rayonlarda ya'ni Angren-Olmaliq Chirchiq, Navoiy va boshqa rayonlardagi tabiatni muhofaza qilish muammolari. Bu rayonlarda ijtimoiy – ekotizm holati yaxshi emas. Chunki sanoat markazlarida chiqayotgan turli-xil gazlar va chiqindilar atrof-muhitni ekolgik holatini buzulishiga olib kelmoqda.
2. Agrosanoat majmuidagi ekologik muammolar.
3. Tabiatdagi suvlarning sanoat chiqindilari pestisedlar va mineral o'g'itlar bilan ifloslanishi ham muammolardan biridir.
4. O'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va qayta tiklash muammolari, qo'riqxonalar va milliy bog'lar tarmog'ini kengaytirish.

O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish borasidagi asosiy strategik maqsadlar quyidagilar hisoblanadi:

Aholining sihat – salomatligi uchun qulay sharoit yaratish, biosfera muvozanatni saqlash; O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish samaradorligi va barqarorligini ko'zlagan holda tabiiy resurslardan foydalanish qayta tiklanadigan tabiiy resurslar ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarining muvoznatini saqlash, tiklanmaydigan resurslarni ishlab chiqarish, chiqindilardan oqilona foydalanish; regional va lokal darajalarda tabiatni qayta tiklanish hususiyatini tiklash; tabiatning daslabki turlari va ularning genofondini landshaftlarning xilma – xiligini saqlash.

Xulosa

Ekologik tarbiya bugungi kunda insoniyat uchun nihoyatda dolzarb masalalardan biridir. Atrof-muhitni asrash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va kelajak avlodlarga sog'lom muhitni qoldirish ekalogik tarbiyaning asosiy maqsadidir. Bolalikdan boshlab tabiatga mehr bilan qarash, ekologik madaniyatni shakllantirish orqali insonlar o'z hayot faoliyatida mas'uliyatli bo'lib ulg'ayadi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim muassasalaridan tortib oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlarda ekologik tarbiya tizimli ravishda yo'lga qo'yilishi zarur. Bu esa nafaqat hozirgi zamon, balki kelajak uchun ham barqaror rivojlanishga asos bo'la oladi.

Foydalaniladigan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga murojatnomasi. Do'stlik bayrog'i. – 2020-yil.25-yanvar.
2. Soliyev A. O'zbekiston geografiyasi. – T.: 2014.
3. NigmatovA. Ekologiyaning nazariy asoslari – T.: 2013.
4. Salimov X.V. Ekologiya. T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009.-461 b.

5. www.uznature.uz – O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi sayti.

TARBIYA FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

To‘rayeva Sayyora Sattorovna,
Surxandaryo viloyati PMM katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada XXI asr ko‘nikmalarini o‘zida shakllantirgan, xususan kreativ fikrlash, hamkorlik qila olish va o‘zaro jamoada birgalikda ishlash, ilg‘or g‘oyalarni ilgari surish va noodatiy yechimlar bilan o‘sha vaziyatda masalani ijobiy hal qiladigan o‘quvchilarni tarbiyalash masalalari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: XXI asr ko‘nikmalari,kreativ fikrlash, liderlik, Innovatsiya, tarbiya, barkamol avlod, ta’lim, dars, fan, globallashuv, bilim, ko‘nikma, malaka,texnologiya, raqobatbardosh, mahorat, metod.

Abstract: In the article, the skills of the 21st century have been formed, in particular, critical thinking, the ability to cooperate and work together in a team, to promote advanced ideas and to positively solve the problem in that situation with unusual solutions. issues of education of students are described.

Key words: 21 st century skills, critical thinking, leadership, innovation, education, mature generation, education, lesson, science, globalization, knowledge, skills, competence, technology, competitiveness, skill, method.

Аннотация: В статье сформированы навыки XXI века, в частности креативное **мышление**, умение сотрудничать и работать вместе в команде, продвигать передовые идеи и позитивно решать возникшую в сложившейся ситуации проблему нестандартными решениями. описаны вопросы обучения студентов.

Ключевые слова: навыки XXI века, креативное мышление, лидерство, инновации, образование, зрелое поколение, образование, урок, наука, глобализация, знания, навыки, компетентность, технология, конкуренто способность, умение, метод.

1. Kirish: Bugungi kunda shiddat bilan o‘zgarayotgan dunyoda o‘quvchi yoshlarni ijtimoiy hayotga zamon talablari asosida tayyorlash, ularda teran dunyoqarash, sog‘lom e’tiqodlilik, ma’rifatlilik, diniy va milliy bag‘rikenglik, ijtimoiy, fuqaroviy va yuksak ma’naviy fazilatlarni shakllantirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yangi O‘zbekistonni bunyod etishga kirishganlarining ilk davridayoq yosh avlod tarbiyasiga alohida e’tibor qaratdilar va bu masala hayot-mamot masalasi ekanligini qayd etdilar: “Ma’lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatdan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda.Tarbiya mukammal bo‘lishi uchun esa bu masalada bo‘shliq paydo bo‘lishiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi”. [1.504-505-b]

Yurtboshimiz tomonidan yoshlar tarbiyasi sohasida belgilab berilgan konseptual vazifalarni amalga oshirish, o‘z navbatida yoshlar tarbiyasidagi mavjud bo‘shliqlarni bartaraf etishni talab etmoqda. Kuzatish va tahlillar shuni ko‘rsatdiki, bugungi kunda yoshlar tarbiyasida ayrim bo‘shliqlar ko‘zga tashlanadi.

Ayrim yoshlar tarbiyasida dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarga to‘g‘ri baho bera olmaslik, ijtimoiy muammolarni hal etishda to‘g‘ri qaror qabul qila bilmaslik, ko‘p vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda samarasiz o‘tkazishi va buning oqibatida hayotda o‘z o‘rnini topish bilan bog‘liq bo‘lgan aniq maqsadlarni shakllantira olmaslik hollari uchrab turibdi.

Shuningdek o‘quvchi-yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o‘zini o‘zi o‘qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlari etarli rivojlanmaganligi ta'lim sifatiga ham zarar ko‘rsatmoqda.

2. Metodlari: Keyingi paytlarda nafaqat ta'lim sohasi, balki tarbiya sohasida ham innovatsiyalardan foydalanishni mukammal yo‘lga qo‘yish borasida pedagog olimlarimiz ilmiy tavsiyalar berib kelmoqdalar.

Pedagog olimlar V.Ishmuhammedov va M. Yuldashevlarning ta'kidlashicha: "… O‘quvchilarni tarbiyaviy jarayonga jalb etish masalalariga bag‘ishlangan kerakli uslubiy tavsiyalar va maslahatlarni pedagogik kadrlarga yetkazish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir" [2.92,93-b]

Haqiqatda ham "Tarbiya" fani o‘qituvchisi umumiy o‘rta ta'lim maktablarida "Tarbiya" fanini o‘qitishda darslikdagi mavzularni tushuntirishda "Kichik guruhlarda ishlash" kabi interfaol metoddan foydalansa yaxshi samara beradi.

Bunda sinf guruhlarga bo‘linib, har bir guruhga mavzulardagi voqea-hodisalarning qaysidir matni yoki eng muhim muammolar bo‘yicha yechim toppish, uning ahamiyatini izohlash topshiriladi.

Masalan:10-sinf Tarbiya fani dasturidagi "Xavfsiz media ummoni" mavzusini o‘tishda **kreativ fikrlash** usulidan foydalanish yaxshi samara beradi:

Bugungi murakkab davrda har bir o‘quvchi media mentalitet, media immunitet, media bilim, mediasavodxonlik kabi tushunchalarning ma'nosini anglashi va uni o‘z hayotida ijodiy yondoshgan holda mushohada etishi, hayotidagi har bir masalani yechishi dolzarb masaladan biridir.

Bir kuni afandi bir guruh to‘planib turgan bolalarga, anovi yerda bir amaki bepul yong‘oq tarqatayapti,- dedi.

Bolalar hech narsa so‘ramasdan Afandi ko‘rsatgan tomonga chopib ketishdi.

Shunda Afandi balkim to‘g‘ri bo‘lsachi deb bolalarning ortidan o‘zi ham chopib ketibdi. Shu yerda savol tug‘iladi.Nega bolalar u amaki kim, nega bepul yong‘oq tarqatayapti deb ham so‘rashmadi,ishonib yugurib ketishdi.

Bu misoldan ko‘rinib turibdiki, bu bolalarda har qanday axborotni analiz va sintez qilish ko‘nikmasi shakllanmaganligi tufayli ma'lumotni to‘g‘ridan to‘g‘i qabul qilishdi. Tarbiya darsligidagi ushbu mavzu o‘quvchilar tomonidan guruhlarda ishlash jarayonida kengroq va chuqquroq ma'lumotlar to‘planadi va nafaqat ijobiy ma'lumotlar balkim, salbiy tomonlar ham tadqiq qilinadi.

Bugun XXI asrda shunchalik axborotning yashin tezligida tarqalishi, o‘z navbatida, haqiqiy axborotni yolg‘onidan ajrata olmaslikka, turli xil salbiy mazmundagi ma'lumotlarning yoyilishiga, agressiv, zo‘ravonlikka undovchi saytlarning paydo bo‘lishiga olib keldi.

Demak,o‘quvchilarimizda mediyamadaniyat ko‘nikmasini shakllantirish zarur.

Shu boisdan yuqori sinf o‘quvchilarni bahs-tortishuv orqali quyidagi savollarni berish:

1.Xavfsizlik nima?

2.Siz uni qanday tushunasiz?

3.Xavf qayerda yoki qachon, qanday shaklda yuzaga kelishi mumkin degan savollarini ilgari surish orqali, ularning mavzuga qiziqishini va ijodkorligini oshirish har qachongidan ham muhim kasb etadi.

O‘quvchilarni masalaning yechimini topishga ko‘proq jalb etish ,tadqiq etish va izlanishga yo‘naltirish lozim.

Masala yoki vaziyatlarni yechishda o‘quvchilarda ijodkorlik , hamkorlik, tinglash, muloqot olib borish, turli fikrlarni taqqoslash, o‘zgalar fikriga befarq qaramaslik kabi odatlar shakllana boradi, masala yuzasidan hukm chiqarish, tahlil qilish qobiliyati rivojlanadi, munozara yuritish, yechimlarni to‘g‘ri topish malakalari o‘zlashtiriladi.

Mavjud voqelikni ijodiy fikrlash asosida baholash quyidagi bosqichlardan iborat bo‘lishi mumkin:

1. O‘quvchining o‘z fikrini erkin ifodalashi.
2. O‘z fikrini oydinlashtirish uchun tadqiqot olib borish.
3. O‘quvchilar fikrlarining asoslanganligi.
4. O‘zgalar fikrini o‘rganishi.
5. O‘zi va o‘zgalar fikrini hurmat qilishi va hokoza.

Bu ijodiy kreativ fikrlash usuli asosida o‘quvchilarning g‘oyalari, takliflari qullab quvvatlanadi.Guruhlarga bo‘lingan holda “soxta”, “qalbaki” yolg‘on xabarlar, o‘zgartirilgan fotosuratlar, montaj qilingan videoroliklar, ijtimoiy tarmoqlarda boshqa shaxslar (odatda, mashhur insonlar) nomidan ochilgan “yolg‘on akkauntlar” larga qarshi tura oladi va o‘zining pozitsiyasiga ega bo‘ladi. Bu axborotlarni zararli ekanligini targ‘ib qilishi hamda bugungi kunda dunyo hamjamiyatiga keltirayotgan zarari xususida taqdimot tayyorlash va taqdimot qilishi yoki qaysi natija eng qulay va ishonchli? Sizning hayotingizda yoki oilangiz hayotida zararli axborotlar sodir bo‘lganmi? Kimning chiqishi maqsadga muvofiq bo‘ldi? Siz bahsga qanday nuqta qo‘ygan bo‘lardingiz? kabi savollar asqotishi mumkin.

Bugun o‘quvchiga tayyor ma’lumotlarni emas, balki ularning ichki qobiliyatlarini ochishga yordam beradigan, shaxsni yo‘naltiradigan, o‘zlari mavzuga oid materiallarni izlab, saralab,qayta ishlaydigan yo‘lni taqdim qilish lozim.

3.Natijalari: Natijada yoshlar tarbiyasida kreativ, prinsipial, yangicha yondashuvlar va innovatsiyalarni takomillashtirish, strategik maqsad hamda vazifalarning konseptual asoslarini ishlab chiqish ehtiyoji kun tartibiga qo‘yildi.

“Tarbiya” fani konsepsiyasini yaritish jarayonida va darsliklarini tayyorlashda Yaponiyaning “Axloq ta’limi”, Singapurning “Fe’l-atvor va fuqarolik ta’limi”, Buyuk Britaniyaning “Tafakkur”,“Xulq ta’limi” fanlari va darsliklari yaqindan o‘rganildi va “role-model”, ya’ni “namuna keltirish” zamonaviy pedagogik metodidan unumli foydalanilgan. Unda milliy va xalqaro miqyosdagi voqea va hodisalar tahlil qilinadi.

Axborot maydonida xabarlar oqimi kuchaygani sari ishonchli va to‘g‘ri manbalarni aniqlash dolzarblashmoqda.

Mediabozorda tayyorlovchi, axborot (mahsulot) yetkazib beruvchi va iste’molchi ishtirok etadi. Tayyorlovchi bu – g‘oya muallifi – materiallarni to‘playdi, tahlil qiladi, mediamatnni tayyorlaydi, uzatadi; mahsulot (axborot) – matn, belgi, surat va ramzlarda ifodalangan ma’lumot; yetkazuvchi (kanal) – ax borotni uzatish vositasi (media); iste’molchi – axborotni oluvchi, o‘rganuvchi, talqin qiluvchi shaxs.

Yuqori sinflarda “Tarbiya” faniga kiritilgan mavzularni o‘rganish orqali o‘quvchilarda tanqidiy tafakkurga ega bo‘lish, jamoada hamkorlik qila olish, mas’uliyat va majburiyatlariga amal qilish, jismoniy va intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish,

faol fuqarolik pozitsiyasini egallay olish, ijtimoiy borliqni his etish va undan zavqlana olishga o‘rgatiladi.

Yuqori sinflarda “Tarbiya” faniga kiritilgan mavzularni o‘rganish natijasida mehnat jamoasi va mutaxassislar bilan samarali hamkorlik qila bilish, bilimini muntazam ravishda oshirib borishni tizimlashtira olish, jahondagi voqea-hodisalarga o‘z munosabatini bildira olish, burch, majburiyat va huquqlarini bilish va ularga rioya qilish, faol fuqarolik pozitsyasiga ega bo‘lish, o‘z hatti-harakatlarini tanqidiy baholay olish, yurt taqdiriga daxldorlik hissi qalbida jo‘sh urgan fazilatlarga ega bo‘lish bilan birga, ularni targ‘ib ham qila olish singari bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarga ega bo‘ladilar.

Shuningdek, begonalar bilan xavfsiz muloqot o‘rnatish qoidalarini, Internet orqali amalga oshirilgan qanday jinoyatlar haqida ma’lumotga ega bo‘lishi, internet orqali yaxshilik qilish mumkinligi, Internet orqali aldanib qolmaslik uchun nimalarga e’tibor berish kerakligi,yolg‘on va rost axborotlarni qanday ajratish mumkinligi xususisida ma’lumotga ega bo‘ladi .Natijada zamonaviy yondashuv yoshlarni ongi va qalbini yovuz va g‘arazli maqsadlarni amalga oshirishga harakat qilayotgan ,internetning qaysidir tarmog‘ida joylashib olgan kuchlar va tahdidlardan himoya qilishga ham xizmat qiladi.

4.Muhokamasi: Bugun umumta’lim maktabida dars berayotgan “Tarbiya” fani o‘qituvchisi shaxsini ham o‘qishi va o‘zi ustida muntazam ishlashiga undovchi motivlar bo‘lishi lozim. Maktabda ta’lim olish va uning sifatiga bo‘lgan qat’iy talabni maktab rahbariyati, o‘quvchilar va ularning ota-onalari tomonidan doimiy ehtiyojga aylantirilsa o‘zining ustida muntazam ishlayotgan o‘qituvchi munosib rag‘batlantirib borilsa, aksincha, o‘zini rivojlantirishga e’tiborsiz o‘qituvchilarga nisbatan murosasizlik muhiti shakllantirilsa – o‘qituvchida o‘zi ustida muntazam ishlash, yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga bo‘lgan ishtiyoq paydo bo‘ladi”.[3.9-b]

5.Xulosa: Bizning beparvoligimiz, loqaydligimiz faqat fojia keltiradi.Bolalarimiz,oilamiz,butun yurtmiz boshiga falokat keltiradi. Aytinglar, o‘zini inson deb biladigan, vijdoni, iymoni bor odam buni istaydimi.Yoq albatta[1].

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchi yoshlarda yuqorida qayd etilgan xislatlar mentalitetimizga xos etnopisixologiya va ta’lim-tarbiya mazmuni ta’sirida shakllanadi. Shuningdek, bu xususiyatlar ularning hayotini, undagi jarayonlar va munosabatlarni o‘zlari kuzatishi, idrok qilishi va anglab yetishiga imkon yaratadi. Shu bois ijtimoiy munosabatlarning globallashuvi va jadallashuvi kuchayib borayotgan bugungi kunda ijtimoiy fanlarni qiziqarli o‘qitish va jarayonlarini takomillashtirish, umumiy o‘rta ta’lim maktablari dasturiga kiritilgan “Tarbiya” fanining o‘qitilishiga zamonaviy yondashuv asosida e’tibor qaratish, yoshlarni ongi va qalbini ijtimoiy tarmoqlar va “qimmat rusumli” telefonlar emas, balki loyihalashtirilgan, o‘quvchining qiziqishi asosida rejalashtirilgan o‘quv jarayonlari xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qattiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild, “O‘zbekiston”, T., 2017. 1, 504-505; 592 b

[1] Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko‘aramiz,480 bet**.**

2. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko‘aramiz,480 bet.
3. Ishmuhamedov R, Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. T., 2013, 3.92-93; 277
4. Baxramov A. Xalq ta’limi xodimlarining malakasini oshirishni tashkil etishni takomillashtirish masalalari. (A.Avloniy nomidagi Xalq ta’limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. 2020-yil 29-may). T., 2020-yil, 9-bet.
5. Tarbiya fani Konsepsiyasi, O‘zbeiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 2020 yil 7-iyul
6. Tarbiya darsligi,10-sinf,83-86-bet.

TAYANCH-HARAKAT A’ZOLARIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARGA TABIIY FANLARNI LOYIHA ISHLARI ASOSIDA O‘QITISH

Pulotov Abdurayim Murotovich,
Navoiy viloyati PMM Fanlarni rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i, p.f.n.,dots.,
Rahmonov Ulfat Ubaydullayevich,
Navoiy viloyati PMM fizika va astronomiya fani metodisti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tayanch-harakat a’zolarida nuqsoni bo‘lgan bolalarga tabiiy fanlarni o‘qitishda loyiha faoliyatidan foydalanishning afzalliklari, metodik yondashuvlari va natijadorligi haqida so‘z yuritiladi. Maxsus ehtiyojli o‘quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda, loyiha asosida ta’lim berish ularning mustaqil fikrlashi, tajriba o‘tkazish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, tabiiy fanlar, nogiron bolalar, tajriba, metodika.

Zamonaviy ta’lim tizimida har bir bolaga teng imkoniyatlar yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Inklyuziv ta’lim tamoyillariga asoslangan holda, jismoniy imkoniyati cheklangan, jumladan, tayanch-harakat a’zolarida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarga sifatli bilim berish va ularning jamiyatda o‘z o‘rnini topishlariga ko‘maklashish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ayniqsa, tabiiy fanlar sohasi o‘quvchilarni atrof-muhit, tabiat hodisalari va ilmiy-texnik taraqqiyot bilan tanishtiradi. Shu bois, bu fanlarni o‘zlashtirish har bir bola uchun muhim hisoblanadi. Lekin tayanch-harakat a’zolarida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun an’anaviy dars metodlari har doim ham samarali bo‘lmasligi mumkin. Shunday sharoitda, loyiha asosida o‘qitish uslubi ularning o‘quv jarayoniga faol va ijodiy tarzda jalb qilinishiga xizmat qiladi.

Loyiha ishlari asosida o‘qitish nafaqat nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, balki amaliy faoliyatni shakllantirish, mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish va jamoa bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Bu yondashuv harakatda cheklovga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun qulay va moslashtirilgan ta’lim muhitini yaratishga imkon beradi.

Ushbu maqolada aynan tayanch-harakat a’zolarida nuqsoni bo‘lgan bolalarga tabiiy fanlarni loyiha ishlari asosida o‘qitishning metodik asoslari, afzalliklari va amaliy misollar orqali samaradorligi tahlil qilinadi.

Loyiha asosida o‘qitish — bu o‘quvchilarning mustaqil izlanishi, amaliy faoliyatga asoslangan o‘quv topshiriqlarini bajarishi orqali bilim va ko‘nikmalarni egallashga yo‘naltirilgan zamonaviy ta’lim metodidir. Bu uslubda o‘quvchi faqat bilim

oluvchi emas, balki o‘rganuvchi, tadqiqotchi, muammo yechuvchisi sifatida faol ishtirok etadi. Loyiha ishlari jarayonida o‘quvchi o‘z qiziqishlari va ehtiyojlariga mos muammolarni hal qilishga harakat qiladi, bu esa uning motivatsiyasini oshiradi va ta’lim jarayonini jonlantiradi.

Loyiha uslubining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Muammoli vaziyatga asoslanganlik – loyiha har doim hayotiy va o‘quvchilarga tushunarli bo‘lgan real muammoni hal qilishga qaratiladi;

Mustaqillik – o‘quvchi materialni o‘zi izlab topadi, tahlil qiladi va amaliy xulosa chiqaradi;

Ijodiy faoliyat – loyiha ishlari san’at, dizayn, texnologiya va boshqa ijodiy faoliyat bilan uyg‘unlashadi;

Jamoaviy ish – o‘quvchilar guruhda ishlashni o‘rganadilar, rollarni bo‘lishadilar va natijaga birgalikda erishadilar;

Taqdimot va himoya – loyiha yakunida o‘quvchilar o‘z ishlarini sinfdoshlariga taqdim etadi, fikr almashadi va mulohaza yuritadi.

Loyiha uslubining ahamiyati shundaki, u o‘quvchining bilim olish jarayonini passiv holatdan faol, ongli va mas’uliyatli ishtirokga aylantiradi. Ayniqsa, tayanch-harakat a’zolarida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun bu uslub ularning imkoniyatlari doirasida o‘qitishni moslashtirish, o‘z-o‘zini ifoda etish va mustaqil fikrlashga imkon yaratadi.

Shuningdek, loyiha uslubi orqali o‘quvchilar quyidagi ko‘nikmalarni rivojlantiradi:

axborot izlash va tahlil qilish;

muloqot va fikr bildirish;

texnik vositalardan foydalanish;

vaqtni boshqarish;

natijalarni taqdim etish va baholash.

Natijada, loyiha asosida o‘qitish nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy va ijtimoiylashtirish vazifasini ham bajaradi.

Tayanch-harakat a’zolarida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlashda individual yondashuv va moslashtirilgan ta’lim metodlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning jismoniy imkoniyatlari cheklangan bo‘lishi mumkin, ammo intellektual salohiyatlari ko‘plab hollarda tengdoshlaridan kam emas. Shu sababli, ularning rivojlanish ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’limni tashkil qilish muhim vazifa sanaladi.

Loyiha uslubida tabiiy fanlarni o‘qitishda ushbu toifadagi o‘quvchilarga quyidagi yondashuvlar samarali hisoblanadi:

1. Moslashtirilgan ta’lim muhiti

Tayanch-harakat nuqsonli bolalar uchun dars o‘tkaziladigan xonalar jismoniy qulayliklarga ega bo‘lishi kerak: harakatlanish uchun keng yo‘laklar, maxsus parta va stullar, moslashtirilgan laboratoriya jihozlari, elektron resurslardan foydalanish imkoniyatlari mavjud bo‘lishi lozim.

2. Individual va guruhiy yondashuvlar uyg‘unligi

Loyiha ishlari doirasida bolalar jamoaviy faoliyatga jalb etiladi, ammo har bir o‘quvchiga uning imkoniyatiga mos topshiriq ajratiladi. Masalan, kimdir tajriba kuzatadi, boshqasi natijalarni yozib boradi yoki taqdimot tayyorlaydi. Bu yondashuv o‘quvchilarning o‘zini foydali his qilishini ta’minlaydi.

3. Vizual va audiovizual materiallardan foydalanish

Tabiiy fanlar darslarida tushunchalarni tushuntirishda video, animatsiya, grafikalar, tajriba yozuvlari kabi ko‘rgazmali vositalardan foydalanish bilimlarni osonroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Harakatda cheklovli o‘quvchilar ko‘rish va eshitish orqali ko‘proq axborotni qabul qilishi mumkin.

4. Axborot texnologiyalarini jalb etish

Kompyuter va planshetlar orqali loyihaviy topshiriqlarni bajarish, tajriba natijalarini dasturlarda aks ettirish, taqdimotlar tayyorlash – bu jarayonlar nafaqat bilimni, balki texnik ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi. Bunday texnologiyalar orqali harakat cheklovli o‘quvchilar mustaqil ishlash imkoniga ega bo‘ladi.

5. Psixologik qo‘llab-quvvatlash

O‘quv jarayonida bolalarning ruhiy holatini inobatga olish, ularni rag‘batlantirish, muvaffaqiyatlariga baho berish muhimdir. Loyiha ishlari jarayonida erishilgan hatto kichik yutuqlar ham qadrlanib, o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qilishi lozim.

Tayanch-harakat a’zolarida nuqsoni bo‘lgan bolalarni tabiiy fanlarga o‘rgatishda loyiha asosida o‘qitish yondashuvi ularning individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda samarali ta’lim muhitini yaratish imkonini beradi. Bu uslub orqali o‘quvchilar nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalar, mustaqil fikrlash, muloqot, muammoni hal qilish va jamoada ishlash kabi hayotiy zarur kompetensiyalarni ham egallaydilar.

Loyiha uslubi bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi, ularni faol va ijodkorlik bilan o‘rganishga undaydi. Ayniqsa, harakat cheklovi bo‘lgan o‘quvchilarning dars jarayonida teng huquqli ishtirokchiga aylanishi, o‘z salohiyatini namoyon etishi uchun imkoniyatlar yaratiladi.

Shunday qilib, loyiha asosida o‘qitish tabiiy fanlar bo‘yicha chuqur va barqaror bilimlar berish bilan birga, inklyuziv ta’lim tamoyillariga ham to‘liq mos keladi. Bu yondashuv zamonaviy ta’limning asosiy talabi bo‘lgan — har bir bolaga sifatli ta’lim berish maqsadiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 13-avgustdagi “2024-2025-o‘quv yiliga mo‘ljallangan alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta’lim muassasalari (maktab va maktab-internatlar) hamda uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalarning uyda yakka tartibda ta’lim olish tayanch o‘quv rejalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 256-sonli buyrug‘i.
2. Z.T.Allamurotova, *Inklyuziv ta’lim asoslari*. Toshkent: 2020. Fan va texnologiya.
3. M.Jonibekova “Loyiha asosida o‘qitish metodikasi va samaradorligi”. *Pedagogik izlanishlar* ilmiy jurnali, 2022. №1, 45–50-betlar.
4. D.Qodirova “Noto‘liq harakatli bolalar bilan ishlashda moslashtirilgan o‘quv jarayoni”. *Maxsus ta’lim* jurnali, 2018. №3, 21–25-betlar.

BIOLOGIYA DARSLARIDA NOSTANDART TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH

Abdullayeva Xidoyat,
Namangan viloyati PMM o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur ishda nostandart topshiriqlar va ularning samaradorligi haqida nazariy ma'lumotlar taqdim etilgan. Nostandart topshiriqlar, o‘z mazmuni va tuzilishi jihatidan an'anaviy testlardan farq qiladi. Ular ko‘proq ijodiy yondashuvni

talab qiladi va koʻpincha oʻquvchilarning mustaqil fikrlashlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu topshiriqlarda oʻquvchilardan nafaqat axborotni qabul qilish, balki uni ijodiy tarzda talqin etish va yangi yondashuvlarni ishlab chiqish talab etiladi. Nostandart testlar, oʻquvchilarning bilimlarini baholashda murakkablikni yuzaga keltirsa-da, ularning ijodkorligini oshirishda samarali boʻlishi mumkin.

Kalit soʻzlar: Nostandart topshiriqlar, integrativ testlar, adaptiv testlar, oʻquvchilarning bilimlarini baholash, mezonlarga asoslangan yondashuv.

KIRISH.

Zamonaviy fan va texnika taraqqiyoti umumta'lim maktablarida biologiya fanini oʻqitishga yangicha yondashuvni, oʻquvchilarning bu fanidan oʻzlashtirishi lozim boʻlgan bilim va koʻnikmalarining mazmuni va darajasiga yuqori talablarni qoʻymoqda. Bugungi kunga kelib, oʻquv axborotlari hajmining haddan tashqari koʻpayib ketganligi oʻquvchilarga nafaqat bilim berish, balki ularni ―oʻqish va oʻrganishga oʻrgatish‖arni talab qilayapti. Jadallik bilan oʻzgarib va rivojlanib borayotgan axborotlashgan jamiyatda faoliyat koʻrsatish va yashash oʻquvchilardan nafaqat shunchaki tayyor bilimlarni oʻzlashtirishni, balki turfa koʻrinishdagi ma`lumotlarni mustaqil izlab topish va qayta ishlashni hamda ulardan turli hayotiy vaziyatlarda samarali foydalanishni taqozo etmoqda.

Biologiya oʻqitish jarayonida nostandart vazifalar keng tarqalgan va samarali oʻqitish vositalaridan biri boʻlib, u oʻquvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, masala hal etish koʻnikmalarini shakllantirish va ilmiy tadqiqotga boʻlgan qiziqishini oshirishda muhim rol oʻynaydi. "Nostandart vazifa" tushunchasi odatiy, an'anaviy oʻquv materiallarini va usullarini chetlab oʻtib, oʻquvchilarning mustaqil fikr yuritishini va tahliliy yondashuvini ragʻbatlantiradigan, koʻpincha murakkab va xilma-xil vazifalar toʻplamini anglatadi. Ushbu vazifalar loyihalar, tadqiqotlar, holat tahlillari, rolli oʻyinlar va boshqa oʻqitish metodlari yordamida amalga oshiriladi.

Biologiya darslarida nostandart vazifalar oʻquvchilarga tabiiy fanlar, xususan biologiya boʻyicha chuqur bilimlarni oʻzlashtirishda, tahlil qilish va sintez qilish kabi yuqori darajadagi fikrlash koʻnikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu metodlarning qoʻllanilishi nafaqat biologiya faniga boʻlgan qiziqishni oshiradi, balki oʻquvchilarning oʻzlarini mustaqil ilmiy tadqiqotlar olib borish va ularni natijalarini amaliyotga tatbiq qilishga tayyorlaydi. Nostandart testlar oʻzining mazmuni, tuzilishi va qoʻllanish maqsadiga koʻra muayyan darajada farq qiladi. Nostandart testlar mazmun mohiyatiga koʻra integrativ testlar, adaptiv testlar, mezonli – moʻljal olish testlariga boʻlinadi.

Integrativ testlar integral mazmun, shakl, qiyinchilik darajasi boʻyicha oʻsib boruvchi, ta`lim muassasasining bitiruvchisining tayyorgarlik darajasi haqida umumlashgan yakuniy xulosa chiqarishga imkon beradigan test topshiriqlari sanaladi [6]. Bunday testlarni tuzish faqat bir qator akademik fanlarni bilgan, oʻqitishda fanlararo aloqalarning muhim rolini tushunadigan, topshiriqlarni tuza oladigan, toʻgʻri javoblar talabalardan turli xil fanlar va bunday bilimlarni qoʻllash koʻnikmalarini talab qiladigan oʻqituvchilarga beriladi. Integrativ testdan oldin integral oʻqishni tashkil qilish kerak. Afsuski, darslarni oʻtkazishning hozirgi sinf-dars shakli, akademik fanlarni haddan tashqari parchalanishi bilan bir qatorda, individual fanlarni (umumlashtirilgan kurslardan koʻra) oʻqitish an'anasi bilan birga, oʻqitish va tayyorgarlikni nazorat qilish jarayonlariga integratsiyalashgan yondashuvni kiritishda davom etmoqda. Turli testlarga nisbatan integral testlarning afzalligi har bir topshiriqning koʻproq ma'lumot tarkibiga va oz sonli vazifalarga bogʻliq. Integratsion

testlarni yaratish zaruriyati ta'lim darajasi va o‘rganilayotgan fanlar soni oshishi bilan ortadi. Shuning uchun bunday testlarni tuzishga urinishlar asosan oliy o‘quv yurtlarida kuzatilmoqda.

Adaptiv testlar qo‘llanish maqsadiga ko‘ra: o‘rtacha og‘irlikdagi, o‘quvchining tanlashiga ko‘ra aralash, topshiriqlar bankidan faqat qiyin darajali bo‘lishi mumkin. Har bir o‘qituvchi yaxshi o‘rganilgan o‘quvchiga oson va juda oson topshiriqlar berish shart emasligini tushunadi. Noto‘g‘ri qaror qabul qilish ehtimoli yuqori bo‘lganligi sababli, zaif o‘quvchiga qiyin vazifalarni berish mantiqiy emas. Ma'lumki, qiyin va juda qiyin vazifalar ko‘plab o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasini kamaytiradi. Adaptip testlarda agar javob muvaffaqiyatli bo‘lsa, kompyuterning keyingi vazifasi uni yanada qiyinlashtiradi, agar u bajarilmasa, bu oson. Mezonlarga yo‘naltirilgan testlar juda keng vazifalarni qamrab oladi. Xususan, ular har bir o‘quvchining individual yutuqlari va talabalar guruhlari to‘g‘risida to‘liq va ob'ektiv ma'lumot to‘plashga yordam beradi. Mezonli-mo‘ljal olish test sinovlari orqali o‘quvchilarning bilimlaridagi bo‘shliqlar aniqlanadi va ularni bartaraf etish yo‘llari aniqlanadi[7].

Nostandart test topshiriqlarini ta`lim-tarbiya jarayonida maqsadga muvofiq foydalanish jarayoni o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini haqqoniy va odilona nazorat qilish va baholash imkonini beradi.

Biologiya darslari nostandart topshiriqlardan foydalanish.

Quyida biologia fani bo‘yicha nostandart test va topshiriqlarini tahlil qiling va ularning turlari, o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash jarayonidagi o‘rnini aniqlang.

1-topshiriq. Zoologiyaga oid tushunchalarni ularning ta’riflari bilan juftlang.

1	**Sariq o‘rmon chumolisi**	**A**	**Mayda zarakunanda hashorotlar,o‘simliklar doni va mevasi bilan oziqlanadi**
2	Chopqir faeton	B	O‘simlik doni bilan oziqlanadi
3	Qir chumoli	C	Shira bitlari ajratgan suyulikni yalab, o‘simliklarni yirtqich hashorotlardan himoya qiladi.
4	Sariq fir`avn chumolisi	D	Zararkunanda hashorotlarni qirib , daraxtlarni himoya qiladi.
5	Bog‘ qora chumolisi	V	Sara shirinliklar bilan oziqlanadi.

Javobi.

Javobi	**1-D**	**2-A**	**3-B**	**4-V**	**5-C**	

2-topshiriq. Quyida berilgan organizmlardan tarqalishi areali bo‘yicha moslang.
1-tilyapiya,2-dengiz mushugi,3-bukri, 4-yo‘lbars,5-oq amur,6- yovvoyi cho‘chqa
7-terili toshbaqa,8-nil timsoh,9-begemot,10-gorilla,11-xumbosh

№	**Uzoq sharqda**	**Afrikada**
1		
2		
3		
4		
5		

Javobi.

	Uzoq sharqda	**Afrikada**
1	dengiz mushugi	tilyapiya,
2	bukri	yo‘lbars

3	terili toshbaqa	nil timsoh
4	xumbosh	begemot
5	oq amur	gorilla

3-topshiriq. Quyida berilgan tushunchalarni mos keluvchi javoblar bilan moslashtiring.

1	**Bir xivchinli**	**A**	**Yo‘sinlarning spermatozoidi**
2	Ikki xivchinli	B	Gidraning spermatozoidi
3	To‘rt xivchinli	C	Ulotriksning izogametalari
4	Ko‘p xivchinli	D	Qirqquloqning spermatozoidi
		F	Ulotriksning zoosporasi

Javobi:

1-B	**2-A,C**	**3-F**	**4-D**

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, hozirgi paytda ham nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega, o‘zgarishlarga moslanuvchan, erkin fikrlaydigan, kasbiy hamda hayotiy muammolarini mustaqil hal qila oladigan mutaxassislarga, kadrlarga ehtiyoj katta. Shu bilan birga, bugungi davr yoshlardan har tomonlama bilimdonlik, mustaqil fikrlay oladigan, tashkilotchilik qobiliyatiga ega shaxs darajasini talab etadi. Bunday talablarning bajarilishi albatta ularni butun hayoti davomida bilim olishga o‘rgatish orqali ta`minlanadi. Faol ta`lim sharoitida o‘zlashtirilgan bilim, egallangan ko‘nikma va malakalar mazmunan tizimli va mantiqan tugallangan tarzda shakllantirilib turli ishlab chiqarish vaziyatlarida qo‘llashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Zikiryayev,A.To‘xtayev,I.Azimov,N.Sonin Biologiya 9-sinf darslik Toshkent 2019
2. A.G‘ofurov, A.Abdukaromov, J.Tolipova va boshqalar Biologiya 11-sinf darslik T.:”Sharq”,2018.
3. K.A.Saparov va boshqalar Biologiya 10-sinf drslik- Toshkent 2022
4. K.A.Saparov va boshqalar Biologiya 7-sinf uchun darlik Toshkent:2022
5. O.Mavlonov, T.Tilavov, B.Aminov. Biologiya 8-sinf darslik “O‘qituvchi” nashryoti Toshkent 2022.
6. https://bestpublication.org/index.php/sit/article/download/8123/8363/7631
7. http://bioportal.tdpu.uz/zoologiya/zoo-testlar/

ОАВ ОРҚАЛИ ЖАМОАТЧИЛИК НАЗОРАТИНИ АМАЛГА ОШИРИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ

Оллаёров Улуғбек Абдусаттор ўғли,
Жиззах вилояти педагогик маҳорат маркази бош мутахассиси

Аннотация. Ушбу мақолада Ўзбекистонда жамоатчилик назоратини амалга оширишда оммавий ахборот воситаларининг ўрни бўйича ҳуқуқий асослар таҳлил этилган. Муаллифнинг фикрича, жамоатчилик назоратини ташкил этиш оммавий ахборот воситаларининг муҳим вазифаларидан биридир, бунинг учун етарли ҳуқуқий асослар мавжуд.

Калит сўзлар. Оммавий ахборот воситалари, жамоатчилик назорати, сўз эркинлиги, цензура, демократия, фуқаролик жамияти, ошкоралик, шаффор, ахборот олиш кафолатлари.

Абстрактный. В данной статье анализируются правовые основы роли средств массовой информации в осуществлении общественного контроля в Узбекистане. По мнению автора, организация общественного контроля является одной из важных задач средств массовой информации, для которой имеются достаточные правовые основания.

Ключевые слова. Средства массовой информации, общественный контроль, свобода слова, цензура, демократия, гражданское общество, прозрачность, прозрачность, доступ к информации.

Abstract. This article analyzes the legal basis for the role of mass media in implementing public control in Uzbekistan. According to the author, the organization of public control is one of the important tasks of the mass media, for which there are sufficient legal grounds.

Keywords: Mass media, public control, freedom of speech, censorship, democracy, civil society, transparency, transparency, guarantees of access to information.

КИРИШ

Ўзбекистонда демократик давлат ва очиқ фуқаролик жамиятини барпо этиш механизмларини такомиллаштиришга кенг урғу берилмоқда. Бундай механизмлар сирасига жамоатчилик назоратини келтириш мумкин. Жамоатчилик назорати – демократик жамиятнинг ажралмас қисми бўлиб, давлат идоралари, бизнес субъектлари ва жамоат ташкилотлари фаолияти устидан фуқароларнинг кузатув олиб бориши ва жамоат манфаатларини ҳимоя қилишини назарда тутади. Бу жараёнда оммавий ахборот воситалари (ОАВ) муҳим ўрин тутади. ОАВ нафақат воқеа-ҳодисалар ҳақида ахборот тарқатувчи, балки жамият ва ҳокимият ўртасидаги мулоқотни таъминловчи кучли восита сифатида ҳам намоён бўлади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ

"Жамоатчилик назорати тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 3-моддасига кўра оммавий ахборот воситалари жамоатчилик назоратининг субъектларидан биридир. Яъни унда айтилишича, "қонунчиликда белгиланган тартибда рўйхатга олинган нодавлат нотижорат ташкилотлари, оммавий ахборот воситалари жамоатчилик назорати субъектларидир"[1]. Бундан маълум бўладики, қонуний рўйхатга олинган оммавий ахборот воситалари жамоатчилик субъекти сифатида фаолият юритиши мумкин. Бугунги кунда жамоатчилик назоратини амалга оширишда электрон ОАВнинг ўрни ошиб кетган бўлса-да, 1991-2001 йилларда ҳали Интернет оммалашмаган даврда вақтли матбуот самарали жамаотчилик назоратини олиб борган.

Жамоатчилик назоратини амалга оширишда, биринчи навбатда, барча фуқароларнинг, қолаверса, нодавлат ташкилотлар ва оммавий ахборот воситаларининг ўрни ва ролини янада кучайтириш лозим. Бу борада бугун мамлакатда кечаётган сиёсий, ижтимоий-иқтисодий жараёнларга нисбатан масъулият, ташаббускорлик, дахлдорлик ҳислари ҳар бир инсон онгида

[1] "Жамоатчилик назорати тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни. 2018 йил 12 апрель,
ЎРҚ-474-сон. https://lex.uz/docs/3679092

шаклланиши керак. Биз ҳар қандай қонунбузилиш ҳолатларига муросасиз бўлсак, мансабдор шахсларнинг хатти-ҳаракатларига кўпчилик бўлиб баҳо берсак, ўз фикр-мулоҳазаларимизни эмин-эркин баён этсак, ана ўшанда чинакам қонун устуворлиги таъминланади.

Эътироф этиш керак, кейинги йилларда Ўзбекистонда амалга оширилаётган прагматик, очиқ-ошкора ва шаффофликка асосланган янги босқичдаги ислоҳотлар самараси туфайли жамиятимизда жамоатчилик назоратининг ҳам таъсир доираси сезиларли равишда кучайди. Айниқса, ижтимоий тармоқларда давлат органлари ва уларнинг раҳбар-мутасаддилари хатти-ҳаракатларига нисбатан билдирилаётган муносабат туфайли кўплаб камчилик ва муаммолар, қонунбузилиш ҳолатларига чек қўйилаётганини барча кўриб, билиб турибди[1].

Ўзбекистон Республикаси Конституциясида ОАВнинг жамоатчилик назоратини амалга оширишдаги фаолияти ҳуқуқий асослантирилган. Жумладан, Асосий Қонуннинг 81-моддасига мувофиқ "Оммавий ахборот воситалари эркиндир ва қонунга мувофиқ иш олиб борадилар. Давлат оммавий ахборот воситалари фаолиятининг эркинлигини, уларнинг ахборотни излаш, олиш, ундан фойдаланиш ва уни тарқатишга бўлган ҳуқуқлари амалга оширилишини кафолатлайди. Оммавий ахборот воситалари ўзи тақдим этадиган ахборотнинг ишончлилиги учун жавобгардир". 82-моддага кўра: "Цензурага йўл қўйилмайди. Оммавий ахборот воситаларининг фаолиятига тўсқинлик қилиш ёки аралашиш қонунга мувофиқ жавобгарликка сабаб бўлади"[2].

Цензурага йўл қўйилмаслиги ОАВнинг барча шаклларида сўз эркинлиги учун кенг имкониятларни яратади. Чунки фикрни чеклаш ОАВнинг жамоатчилик орасида нуфузини пасайиб кетишига сабаб бўлади ва амалда ҳеч бир таъсирга эга бўлмайди. Шунинг учун Ўзбекистон қонунчилигида цензурага йўл қўйилмаслиги қатъий белгилаб қўйилган. Энг муҳими, жамоатчилик назоратини амалга оширишда цензура бўлмаслиги ниҳоятда муҳим омилдир.

Бир қатор қонун ҳужжатларида ОАВнинг жамоатчилик назоратини амалга оширишга доир фаолияти эркинлиги кафолатланган. "Оммавий ахборот воситалари тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг Ўзбекистон Республикасида оммавий ахборот воситалари эркиндир ва қонунга мувофиқ иш олиб борадилар. Ҳар ким, агар қонунда бошқача қоида назарда тутилмаган бўлса, оммавий ахборот воситаларида чиқиш, ўз фикри ва эътиқодини ошкора баён этиш ҳуқуқига эгадир.

Давлат оммавий ахборот воситалари фаолиятининг эркинлигини, уларнинг ахборотни излаш, олиш, ундан фойдаланиш ва уни тарқатишга бўлган ҳуқуқлари амалга оширилишини, оммавий ахборот воситаларининг мулк ҳуқуқини, давлат органларининг ғайриқонуний қарорларидан, улар мансабдор шахсларининг ғайриқонуний ҳаракатларидан (ҳаракатсизлигидан) ҳимоя қилинишини кафолатлайди. Оммавий ахборот воситаларининг фаолиятига тўсқинлик қилиш ёки аралашиш тақиқланади.

Оммавий ахборот воситалари қонунчиликка мувофиқ ахборотни излаш, олиш, тадқиқ этиш, тарқатиш, ундан фойдаланиш, уни сақлаш ҳуқуқига эга ҳамда тарқатилаётган ахборотнинг холислиги ва ишончлилиги учун белгиланган

[1] Туляков Э. Жамоатчилик назоратида жараён эмас, натижа муҳим. https://strategy.uz/index.php?news=799

[2] Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. https://lex.uz/docs/6445145

тартибда жавобгар бўлади"[1]. Юқоридаги норматив қоидалар ОАВнинг эркинлиги, фуқаролларнинг ўз фикри ва эътиқодини эркин ифода этишини, ОАВ фаолияти кафолатларини, қонунчиликка мувофиқ ахборотларни излаш, олиш, тадқиқ этиш, тарқатиш ва улардан фойдаланиш ҳамда сақлаш ҳуқуқларини эътироф этади.

"Ахборот олиш кафолатлари ва эркинлиги тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонунининг 3-моддасида ҳам "Ҳар бир фуқаронинг ахборот олиш ҳуқуқи кафолатланади. Ҳар кимнинг ахборотни излаш, олиш, тадқиқ этиш, узатиш ва тарқатиш ҳуқуқи давлат томонидан ҳимоя қилинади"[2], деган ҳуқуқий кафолат кўрсатиб ўтилган. Агарда ахборотларни олиш, тарқатиш ва улардан фойдаланиш эркинлиги давлат томонидан кафолатланмаса, ОАВнинг бу борадаги ҳуқуқлари чекланиши мумкин. Шундан келиб чиқиб, ахборот билан боғлиқ фаолиятнинг бир неча қонунчилик ҳужжатларида мустаҳкамланиши пировардида давлат ташкилотлари ёки бошқа муассасаларнинг ОАВ томонидан жамоатчилик назоратини амалга оширишга имкон беради.

Яна бир нарсани қўшимча қилиб кетиш керакки, оав томонидан тарқатилаётган ахборотлар ҳаққоний бўлиши шарт. зеро, нотўғри ахборот воқеликнинг асл моҳиятини бузиб талқин қилишга сабаб бўлиши мумкин. бу борада қонунчиликда тегишли нормалар кўрсатилган. "Ахборот эркинлиги принциплари ва кафолатлари тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси ҚонунинингАхборот ундан ҳамма эркин фойдаланиши мумкинлиги таъминланган ва ҳаққоний бўлиши керак. Ахборотни бузиб талқин этиш ва сохталаштириш тақиқланади. Оммавий ахборот воситалари ўзлари тарқатаётган ахборотнинг ҳаққонийлиги учун ахборот манбаи ва муаллифи билан биргаликда қонунда белгиланган тартибда жавобгар бўладилар"[3].

Бундан ташқари, Ўзбекистонда бир қатор норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда жамоатчилик назоратини амалга оширишнинг ҳуқуқий асослари келтирилган. Бу жиҳатдан "Жамоатчилик назорати тўғрисида"ги "Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида"ги, "Ўзбекистон Республикаси Жамоат бирлашмалари тўғрисида"ги, "Нодавлат нотижорат ташкилотлари тўғрисида"ги, "Нодавлат нотижорат ташкилотлари фаолиятининг кафолатлари тўғрисида"ги, "Оммавий ахборот воситалари тўғрисида"ги, "Сиёсий партиялар тўғрисида"ги, "Касаба уюшмалари тўғрисида"ги, "Жамоат фондлари тўғрисида"ги қонунларда ҳамда соҳага доир бошқа бир қатор норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда мазкур институтнинг ҳуқуқий асослари белгиланган ва тизимли равишда такомиллаштириб борилмоқда[4].

Дарҳақиқат, жамоатчилик назорати ижтимоий адолатни қарор топтириш учун шахс, жамият ва давлат алоқаларида мувозанат, тенглик, ўзаро масъулият ва жавобгарликка хизмат қилади. Мазкур институт юртимизда инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликлари нафақат давлат томонидан кафолатлангани, балки давлат

[1] "Оммавий ахборот воситалари тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни. 2007 йил 15 январь, ЎРҚ-78-сон. https://lex.uz/docs/1106870

[2] "Ахборот олиш кафолатлари ва эркинлиги тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни. 24.04.1997 йилдаги 400-I-сон. https://lex.uz/docs/1319

[3] "Ахборот эркинлиги принциплари ва кафолатлари тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни. 12.12.2002 йилдаги 439-II-сон. https://lex.uz/docs/52268

[4] Отахонов Ф. Жамоатчилик назорати – адолат мезони. https://uza.uz/uz/posts/jamoatchilik-nazorati-adolat-mezoni_431467

органлари фаолиятида устувор аҳамиятга эга эканлигини таъминлайди ва бунда жамоатчилик назоратининг мавжудлиги сиёсий ҳокимиятнинг том маънода халқ қўлида бўлишининг кўрсаткичи ҳисобланади[1].

НАТИЖА ВА МУҲОКАМА

Жамоатчилик назоратининг муҳим субъекти сифатида ОАВга алоҳида эътибор қаратилиши, сўз эркинлигининг таъминланиши давлат ва жамият ўртасидаги кўприкнинг мустаҳкамланишига ва узлуксиз алоқаларнинг кафолатланишига олиб келди. Гарчи, кўп ҳолларда айрим келишмовчиликларни келтириб чиқараётган бўлса-да бу фаолликни ижтимоий тармоқлар ва блогерлик фаолиятига нисбатан ҳам айтиш мумкин. Энг асосийси, жамиятнинг фаоллиги ва сиёсий жараёнларга қизиқиши ва аралашуви ортди. Кўзланган мақсад ҳам шу эди аслида. Жамоатчилик назорати кучайди, улар ҳар бир жараёнларга ўз муносабатларини билдира бошлади, давлат ва жамият ўртасида ўзаро яқин ҳамкорлик яратилди[2].

Хулоса

ОАВ жамоатчилик назоратини таъминлашда ахборот тарқатиш орқали муҳим вазифани бажаради. Ҳолис, ҳаққоний ва ишончли маълумотларни тарқатиш орқали жамиятда ошкораликни таъминлаш, коррупцияга қарши курашиш ва фуқароларнинг фаоллигини оширишга хизмат қилади. ОАВнинг эркин ва мустақил фаолияти жамоатчилик назоратининг самарадорлигини таъминлашда асосий омиллардан бири ҳисобланади. ОАВ жамоатчилик фикрини шакллантириш орқали жамоатчилик назоратини кучайтиради ва ҳокимият устидан назоратни таъминлайди. Бу жараён тўғри ахборот бериш, очиқ муҳокамаларни ташкил қилиш, фуқароларни фаолликка ундаш, жамоатчилик фикрини ҳукуматга етказиш ва ижтимоий ўзгаришларга таъсир қилиш каби вазифаларни ўз ичига олади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. "Жамоатчилик назорати тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни. 2018 йил 12 апрель, ЎРҚ-474-сон. https://lex.uz/docs/3679092

2. Туляков Э. Жамоатчилик назоратида жараён эмас, натижа муҳим. https://strategy.uz/index.php?news=799

3. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. https://lex.uz/docs/6445145

4. "Оммавий ахборот воситалари тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни. 2007 йил 15 январь, ЎРҚ-78-сон. https://lex.uz/docs/1106870

5. "Ахборот олиш кафолатлари ва эркинлиги тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни. 24.04.1997 йилдаги 400-I-сон. https://lex.uz/docs/1319

6. "Ахборот эркинлиги принциплари ва кафолатлари тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни. 12.12.2002 йилдаги 439-II-сон. https://lex.uz/docs/52268

7. Отахонов Ф. Жамоатчилик назорати – адолат мезони. https://uza.uz/uz/posts/jamoatchilik-nazorati-adolat-mezoni_431467

8. Туляков Э. Жамоатчилик назоратида жараён эмас, натижа муҳим. https://strategy.uz/index.php?news=799

[1] Туляков Э. Жамоатчилик назоратида жараён эмас, натижа муҳим. https://strategy.uz/index.php?news=799

[2] Раҳмонова У. Жамоатчилик назорати: ўзаро ҳамкорлик кафолатланмоқда. https://strategy.uz/index.php?news=1154

9. Раҳмонова У. Жамоатчилик назорати: ўзаро ҳамкорлик кафолатланмоқда. https://strategy.uz/index.php?news=1154

MATEMATIKA TA’LIMIDA FOIZLARGA OID AMALIY MASALALARNI YECHISH ORQALI O‘QUVCHILARGA MILLIY QADRIYATLARIMIZNI SINGDIRISH

Umarova Matlyuba Yusufjonovna,
Namangan viloyati PMM katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematika darslarida foizlarga oid amaliy masalalarni yechish orqali o‘quvchilarga milliy qadriyatlarni singdirishning didaktik va tarbiyaviy imkoniyatlari yoritilgan. Foizli masalalarni milliy qadriyatlarimizga bog‘langan holatda yechish orqali nafaqat matematik bilimlar mustahkamlanadi, balki o‘quvchilarda vatanparvarlik, iqtisodiy ong va mehnatsevarlik kabi fazilatlar shakllanadi.

Kalit so‘zlar: matematika, foiz, amaliy masala, milliy qadriyat, tarbiya, iqtisodiy ong, didaktik yondashuv.

Ma’lumki, matematika fani - abstrakt fan. Uning mazmuni boshidan oxirigacha inson tasavvurining va mantiqiy tafakkurining mahsulidan iborat. Fanning bunday abstrakt tuzilishi, o‘zini-o‘zi boyitib borishi, ya’ni yangidan-yangi matematik tushunchalar va ularning xossalarini ma’lum xossalardan hosil qila olish imkoniyati qadimdan insonning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilib kelgan. Xatto matematik masalalarni yechish musobaqalari o‘tmishda inson aqlini peshlash vositasi bo‘lgan. Shundan kelib chiqadigan bo‘lsak, matematika fanining eng asosiy vazifasi aynan o‘quvchilarni o‘ylashga, to‘g‘ri, mantiqiy fikrlashga va mushohada yuritishga o‘rgatishdan iborat ekanligi oydinlashadi. Hech qaysi fan matematika fanichalik o‘quvchilarni o‘ylashga va fikrlashga majbur qila olmaydi. Matematika darslarida turli tuman masala, muammo va jumboqlarni yechish orqali o‘quvchilar to‘g‘ri fikr yuritish, mantiqiy fikrlashni o‘rganadilar.

Maktabda matematika o‘qitishning asosiy vazifasi o‘quvchi yoshiga mos kundalik turmushda va mehnat faoliyatida qo‘llaniladigan, kelajakda ta’lim olishni davom ettirishda zarur bo‘lgan matematik bilimlar va ko‘nikmalarini ongli ravishda mustahkam egallashni ta’minlashdan iborat.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida fanga oid bilimlarni berish bilan birga, o‘quvchilarda milliy qadriyatlarni shakllantirish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, matematika kabi aniq fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarda nafaqat analitik fikrlash, balki ijtimoiy va madaniy ongni rivojlantirish ham dolzarb sanaladi. Shu nuqtayi nazardan, foizlarga oid amaliy masalalarni o‘qitishda milliy qadriyatlarga tayangan holda yondashish zarur.

Foizlarga oid masalalar kundalik hayotimizning ajralmas qismi hisoblanadi: savdo-sotiqdagi chegirmalar, soliqlar, bank foizlari, uy-joy ta’miri xarajatlari va boshqalar. Bu orqali o‘quvchilarni real hayot bilan bog‘laydigan bilim berish mumkin.

Foizli masalalarni milliy qadriyatlar asosida tuzish orqali o‘quvchilarning ongiga quyidagi g‘oyalarni singdirish mumkin:

Vatanparvarlik: Foizli masalalarni milliy qadriyatlar asosida tuzish orqali o‘quvchilarda matematik bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash bilan birga, ularning ongiga vatanparvarlik g‘oyasini singdirish, o‘z yurtiga, tarixiga va qadriyatlariga hurmat bilan qarash tuyg‘usini shakllantirish mumkin.

Masala: Maktabda “Vatan himoyachilari kuni” munosabati bilan o‘quvchilar o‘rtasida “Vatanim mening faxrim!” mavzusida insholar tanlovi o‘tkazildi. Tanlovda 8-sinfning 55 nafar o‘quvchisi qatnashdi. Ulardan 70 foizi inshoni o‘z tashabbusi bilan, ortiqcha undovlarsiz yozdi. Qolganlari esa ustozlari tavsiyasi bilan ishtirok etdi.

a) Inshoni o‘z tashabbusi bilan yozgan o‘quvchilar sonini aniqlang.

b) Bu o‘quvchilarning umumiy qatnashganlarga nisbatan foizini aniqlang va qanday xulosaga kelish mumkin?

O‘quvchilarning katta qismi (70%) vatanparvarlik mavzusida o‘z ixtiyori bilan insho yozgani, ularning Vatanga bo‘lgan mehrini va fuqarolik burchini anglayotganini ko‘rsatadi. Bu esa maktabda vatanparvarlik ruhida olib borilayotgan tarbiyaviy ishlar samarasini bildiradi.

Iqtisodiy tarbiya: O‘zbekiston hunarmandchiligi yoki xalq amaliy san'ati namunalari asosida masala tuzib, milliy mahsulotlarning qiymatini foizlarda ifodalash orqali iqtisodiy ongni shakllantirish mumkin.

Masala: "Yosh hunarmandlar" to‘garagida o‘quvchi qizlar milliy mahsulotlar – do‘ppi va kashtado‘zlik (belbog‘, dastro‘mol, dasturxon) ishlari tayyorlashdi. To‘garakda tayyorlangan 40 ta mahsulot ko‘rgazma-savdoga qo‘yildi. Ularning 25 foizi do‘ppi, qolganlari esa kashtado‘zlik mahsulotlari edi. Ko‘rgazmada har bir do‘ppi o‘rtacha 250 000 so‘mdan, har bir kashtado‘zlik mahsuloti esa o‘rtacha 150 000 so‘mdan sotildi.

a) Nechta do‘ppi va nechta kashtado‘zlik mahsuloti tayyorlanganini aniqlang.

b) Har ikki turdagi mahsulotdan tushgan umumiy daromadni toping.

c) Do‘ppilardan tushgan daromad umumiy daromadning necha foizini tashkil qilgan?

Bunday masalarni yechish va yechimni tahlil qilish orqali o‘quvchilarning iqtisodiy fikrlashlari rivojlanib, milliy mahsulotlarimizning qadri va bozordagi o‘rnini anglab yetadilar.

Mehnatsevarlik: Dehqonchilik, bog‘dorchilik bilan bog‘liq masalalarda foiz hisoblari orqali o‘quvchilarda mehnatga hurmat tuyg‘usi rivojlanadi.

Masala: Mahalladagi "Bog‘cha gulzor" nomli kichik fermer xo‘jaligida o‘quvchilar ishtirokida mehnat haftaligi tashkil etildi. O‘quvchilar 5 sotixli sabzavot bog‘ining 60 foiziga pomidor, qolganiga esa bodring ekishdi. Pomidor ekilgan qismdan har sotixda 120 kg, bodring ekilgan qismdan esa har sotixda 150 kg hosil olindi.

a) Bog‘ning necha sotixiga pomidor va necha sotixiga bodring ekilganini aniqlang.

b) Har ikki ekindan jami qancha hosil olinganini hisoblang.

c) Pomidordan olingan hosil umumiy hosilning necha foizini tashkil etadi?

O‘quvchilar mehnat orqali yetishtirilgan mahsulotlarning hajmini va turli ekinlarning samarasini o‘rganish orqali dehqonchilikka qiziqadi. Bu esa ularda mehnatsevarlik va yerga, mehnatga bo‘lgan hurmatni shakllantiradi.

Matematika fanini o‘qitishda milliy qadriyatlarga tayangan holda foizli masalalarni tuzish va yechish orqali o‘quvchilarda nafaqat fanga qiziqish, balki vatanparvarlik, iqtisodiy tafakkur va madaniy ong rivojlanadi. Bu esa fanni real hayot bilan uyg‘un holda o‘rgatish, ta’lim va tarbiyani birlashtirishda muhim qadam hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Roziqov U.F., Mamatova N.H. Matematika va turmush. – T.: O‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti, 2020.

2. Yunusova D.I. Matematikani o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari, (darslik) T.: 2007

FIZIKA TA’LIMIDA TATQIQOT METODLARI VA ULARNING IMKONIYATLARI

Xolov D.M.,
Navoiy davlat universiteti o‘qituvchisi,
Azzamova.N.B.,
Navoiy davlat universiteti katta o‘qituvchisi,
Xudoyqulova S.U.,
Navoiy davlat universiteti talabasi

Zamonaviy ta’limda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ilmiy dunyoqarashi va izlanishga bo‘lgan qiziqishini shakllantirish asosiy maqsadlardan biridir. XXI asrda muvaffaqiyatli shaxs bo‘lish uchun nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko‘nikmalar, yangilikka intilish, tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlari katta ahamiyat kasb etadi.

Fizika – bu nafaqat qonunlar va formulalar jamlanmasi, balki tabiat hodisalarining tub mohiyatini ilmiy asosda tushuntiruvchi fan sifatida o‘quvchida tadqiqot ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarga ega. U nafaqat tabiat hodisalarini tushuntirib beruvchi qonunlar va formulalar tizimi, balki o‘quvchini kuzatish, tajriba o‘tkazish, sabab-oqibatni aniqlash va ilmiy asoslangan xulosalarga kelish kabi muhim kognitiv faoliyatlarga yo‘naltiradi.

Fizika ta’limida tadqiqot metodlari – bu o‘quvchilarni ilmiy izlanishga yo‘naltirish, hodisalarni kuzatish, tajriba o‘tkazish, tahlil qilish va xulosa chiqarish faoliyatlarini tashkil etish usullaridir. Tadqiqot metodlarini quyidagicha tasniflash mumkin(1-jadval):

1-jadval

Tatqiqod metodi turi	Asosiy usullar	Tavsifi / Qo‘llanilishi
Empirik metodlar	Kuzatish, tajriba, o‘lchash	Tabiat hodisalarini bevosita ko‘rish, tajriba orqali tasdiqlash va o‘lchov natijalarini olish.
Nazariy metodlar	Tahlil, taqqoslash, modellash, umumlashtirish	Olingan ma’lumotlarni tahlil qilish, qonuniyatlarni aniqlash, nazariy model qurish.
Amaliy metodlar	Loyihalash, laboratoriya ishlari, konstruktorlik faoliyati	Ilmiy bilimlarni qo‘llash orqali amaliy faoliyat yuritish, qurilmalar yaratish.

Fizika darslarida tadqiqot metodlarini joriy qilish bosqichlari quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Muammoni aniqlash (Tadqiqot uchun mavzu va asosiy savollarni belgilash)

O‘quvchining faolligi: Savol beradi, muammoni tushunishga harakat qiladi.

2. Gipoteza ilgari surish(Muammoni hal qilish uchun taxminiy yechimlar ilgari suriladi.)

O‘quvchining faolligi: Gipoteza ilgari suradi, taxmin qiladi.

3. Tajriba rejasini tuzish(Tajriba yoki kuzatish usullari rejalashtiriladi.)

O‘quvchining faolligi: Tajriba shartlarini ishlab chiqadi.

4. Tajriba o‘tkazish va ma’lumot yig‘ish(Tajriba o‘tkaziladi, natijalar yozib olinadi)

O‘quvchining faolligi: O‘lchov o‘tkazadi, natijalarni qayd etadi.

5. Tahlil va xulosa chiqarish(Natijalar tahlil qilinadi va gipoteza tasdiqlanadi yoki inkor etiladi.)

O‘quvchining faolligi: Tahlil qiladi, xulosa chiqaradi, fikr bildiradi.

Fizika darslarida tadqiqot metodlarini bosqichma-bosqich joriy etish o‘quvchilarning nafaqat fanga qiziqishini oshiradi, balki ularning mustaqil fikrlashi, muammoni aniqlash va hal qilish, ilmiy gipoteza ilgari surish, tajriba o‘tkazish va tahlil qilish kabi muhim ko‘nikmalarini shakllantiradi. Har bir bosqich o‘quvchining faol ishtirokini talab qiladi va uning tanqidiy, mantiqiy va ilmiy tafakkurini rivojlantiradi. Tadqiqot metodlari orqali fizika fanining nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog‘lash imkoniyati paydo bo‘ladi, bu esa o‘quvchilarda chuqurroq tushuncha va amaliy kompetensiyaning shakllanishiga xizmat qiladi. Fizika darslariga tatqiqot metodlarini joriy qilisga bir nechta misollar keltiramiz:

1-namuna: Issiqlik uzatish bo‘yicha tadqiqot loyihasi

Mavzu: Turli materiallarning issiqlik o‘tkazuvchanligini solishtirish

Maqsad: Har xil materiallar orqali issiqlik tarqalishini o‘rganish

Tajriba: Turli material novchalarining uchiga sham o‘rnatiladi, bir uchidan harorat beriladi.

Xulosa: Temir – eng yaxshi issiqlik o‘tkazuvchidir.

2-namuna: Harakat qonunlari asosida mobil ilova bilan ishlash

Mavzu: Erkin tushish tezlanishini aniqlash

Vosita: “Phyphox” mobil ilovasi yoki https://phyphox.org/experiment/free-fall-2/ saytiga kirish orqali 3 ta tajribani kuzatish:1-2-3-rasmlar

Usul: Sensorli qurilma yordamida o‘lchov olib borish

Imkoniyat: Mobil texnologiyalar orqali ilmiy o‘lchovlar o‘rganiladi.



1-rasm



2-rasm



3-rasm

3-namuna: Akustik hodisalarga oid tadqiqot

Mavzu: Tovush tezligini havoda aniqlash.

Tajriba: Metall jismini urib signal yuboriladi, vaqtdan foydalangan holda tezlik aniqlanadi.

Natija: $\vartheta = L / t$ formulasi orqali tovush tezligi aniqlanadi.

Fizika darslarida qo'llaniladigan **tadqiqot metodlarining imkoniyatlari** o'quvchilarni muammoli vaziyatlarga duch kelganda mustaqil yechim topishga, eksperimentlar orqali ilmiy gipotezalarni sinab ko'rishga va bu orqali chuqur o'zlashtirishni ta'minlashga keng yo'l ochadi. Tadqiqot metodlarining imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

- ✓ Ilmiy tafakkurni rivojlantirish
- ✓ Ko'nikmalarni shakllantirish
- ✓ Motivatsiyani oshirish
- ✓ Fanlararo integratsiya
- ✓ STEAM yo'nalishiga tayyorlov

Fizika ta'limida tadqiqot metodlaridan foydalanish o'quvchilarni passiv bilim oluvchidan faol ilmiy izlanishchi holatiga olib chiqadi. Bu metodlar orqali o'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarga, balki mustaqil fikrlash va amaliy ko'nikmalarga ham ega bo'lishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.Mirzaxmedov, N.G'ofurov va boshqalar. Fizika o'qitish nazariyasi va metodikasi Toshkent-2010
2. N.Sh.Turdiev, K.A.Tursunmetov, A.G.Ganiyev,K.T.Suyarov, J.E,,Usarov, A.K.Avliyoqulov Fizika 10-11. T.: 2017 y.
3. A.K.Qutbedinov,Sh.O.Toshpulatova. Fizika va astronomiya ta'limida tahlil va tadqiqot usullari.-T.:.2021 y.
4. A.K. Qutbedinov, Sh.O.Toshpulatova, N.B.Azzamova. Fizika o'qitish metodikasi fanidan laboratoriya ishlari.-T.:.2020y.
5. A.K.Qutbedinov,Sh.O.Toshpulatova,N.B.Azzamova. Fizika o'qitish metodikasi fanidan seminar mashg'ulotlari.-T.:.2022y.

РУССКИЙ ЯЗЫК КАК ЯЗЫК МЕЖКУЛЬТУРНОГО ОБЩЕНИЯ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ

Акбарова Севара Кабилджановна,
Преподаватель центра педагогического мастерства Андижанской области

Аннотация. В статье показано, что лидирующая роль России на международной арене в условиях новой конфигурации сил и многополярности

мира будет сопровождаться существенным ростом значения и звучания русского языка. Проведено культурологическое осмысление роли русского языка в современных условиях, которые открывают новые каналы изучения и распространения русского языка в многонациональном социуме России и за его пределами.

Ключевые понятия: значение языка, мировые языки, роль русского языка, национальные языки.

Велико значение русского языка. Объясняется это тем, что он выступает в разных условиях и как родной язык русского народа, и как государственный язык Российской Федерации, и как один из мировых языков общения в ближнем и дальнем зарубежье.

«Мировыми языками называются некоторые наиболее распространенные языки, употребляемые между собой представителями разных народов за пределами территорий, населенных людьми, для которых они изначально родные». («Энциклопедический словарь юного филолога».) В определении состава мировых языков учитывается число говорящих на нем как в стране, где живут носители языка, так и за ее пределами, авторитет, роль страны этого языка в истории и современности; сформированность национального языка, обладающего длительной письменной традицией; установившиеся нормы, хорошо исследованные и описанные в грамматиках, словарях, учебниках.

Роль русского языка в современных условиях становится все более значимой в связи с постоянными изменениями, происходящими в стране и мире. История развития нашей планеты объективно указывает, что такая великая, уникальная и самобытная страна, как Россия, была, есть и всегда будет оставаться могущественной державой, несмотря на неоднократные внешние вызовы. Русский язык издревле являлся и остается языком межнационального общения, посредством которого преодолевается языковой барьер между представителями разных этносов внутри одного многонационального государства, а взаимопроникновение национальных культур только способствует его укреплению и обогащению.

В условиях глобализации уже несколько десятков лет в качестве универсального языка общения в мире выступает английский: литература и документация, научные форумы, политические и экономические переговоры различных форматов и, конечно, культовое достижение современности, - Интернет с его изначальной англоязычной лексикой.

История человечества демонстрирует возможность достаточно динамичного изменения лидерства того или иного языка как средства международного общения: в древнем мире - греческий, затем латынь в Европе и арабский в Азии, которые не сдавали свои лидирующие позиции до конца Позднего Средневековья, в XIX в. - французский, в XX в. - английский. Однако времена меняются. Еще 20-25 лет назад невозможно было представить, что на русском языке будут составляться путеводители, развешиваться вывески в магазинах и банках. Так происходит в большинстве стран Евросоюза, а также в туристических зонах целого ряда азиатских стран. Наряду с английским, немецким, японским языками делаются объявления по-русски в аэропортах многих стран мира. Весьма важным и показательным изменением в позиции мировых языков, несомненно, следует считать создание в мировой паутине русскоязычных сайтов. Сегодня это реальность Русский язык принадлежит

Future research should investigate the long-term effects of AI in medical education and develop cost-effective training models for low-income regions.

References

1. **Harden, R. M., & Laidlaw, J. M.** (2023). *Essential Skills for a Medical Teacher: An Introduction to Teaching and Learning in Medicine* (3rd ed.). Elsevier.
2. **World Health Organization (WHO).** (2022). *Global Standards for Quality Improvement in Medical Education.* Geneva: WHO Press.
3. **Akramova, M. A., & Turakulov, V. N.** (2021). *Innovations in Medical Pedagogy: Digital and Interactive Learning Methods.* Springer Nature.
4. **Steinert, Y., & Mann, K.** (2020). *Faculty Development in the Health Professions: A Focus on Research and Practice.* Springer.
5. **General Medical Council (GMC).** (2023). *Promoting Excellence in Medical Education and Training.* UK: GMC Publications.
6. **Association for Medical Education in Europe (AMEE).** (2023). *Best Practices in Faculty Development: A Global Perspective.* Dundee: AMEE Guides.
7. **Nasullayev, F. O., & Ostonov, S. A.** (2024). *The Role of Continuous Methodological Support in Medical Teacher Competency Development.* Journal of Medical Education and Practice, 15(2), 45-60.
8. **Accreditation Council for Continuing Medical Education (ACCME).** (2023). *Standards for Integrity and Independence in Accredited Continuing Education.* Chicago: ACCME.
9. **Ericsson, K. A., & Pool, R.** (2016). *Peak: Secrets from the New Science of Expertise.* Houghton Mifflin Harcourt.
10. **Freeman, S., et al.** (2022). *Active Learning Increases Student Performance in Science, Engineering, and Mathematics.* PNAS, 121(15), 8410-8417.
11. **Turakulov, V. N., et al.** (2023). *Digital Transformation in Medical Education: Case Studies from Central Asia.* Cambridge Scholars Publishing.

12. **Mukhtarov, A.B.** (2022). *Modern Pedagogical Technologies in Medical Higher Education.* Tashkent: Medicina.

13. **Association of American Medical Colleges (AAMC).** (2023). *Effective Teaching Strategies in Medical Schools.* Washington, DC: AAMC Publications.

14. **Nasullayev, F. O.** (2023). *The Impact of AI and VR on Clinical Skill Development in Medical Students.* International Journal of Medical Education, 14, 78-92.

15. **Ostonov, S.A., & Jumaev, F.F.** (2024). *Continuous Professional Development for Medical Educators: A Systematic Review.* Medical Teacher, 46(1), 34-48.

PEDAGOG-XODIMLARNING KASBIY MAHORATINI OSHIRISHDA UZLUKSIZ METODIK XIZMAT KO‘RSATISH MASALALARI

Muxidov Asqar Raxmatovich,
Buxoro viloyati PMM, o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola pedagog-xodimlarning kasbiy mahoratini oshirishda uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatishning ahamiyatini yoritadi. Unda metodik xizmat ko‘rsatishning asosiy tamoyillari, shakllari va usullari, shuningdek, amaliyotdagi muammolar va ularni hal qilish yo‘llari batafsil ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, xalqaro tajribalar asosida istiqbolli yo‘nalishlar va tavsiyalar berilgan.

Annotation: This article highlights the importance of continuous methodological support in improving the professional skills of pedagogical staff. It details the basic principles, forms, and methods of methodological service, as well as practical challenges and ways to address them. Prospective directions and recommendations based on international experience are also provided.

Аннотация: В данной статье освещается важность непрерывного методического обслуживания в повышении профессионального мастерства педагогических работников. Рассмотрены основные принципы, формы и методы методического обслуживания, а также практические проблемы и пути их решения. Также предоставлены перспективные направления и рекомендации на основе международного опыта.

Kalit so‘zlar: pedagog-xodimlar, kasbiy mahorat, metodik xizmat, uzluksizlik, ta’lim sifatini oshirish.

Ключевые слова: педагогические кадры, профессиональное мастерство, методическое обслуживание, непрерывность, повышение качества образования.

Keywords: pedagogical staff, professional skills, methodological service, continuity, improving education quality.

Pedagog-xodimlarning kasbiy mahoratini oshirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim bo‘lagi hisoblanadi. Malakali pedagoglar ta’lim sifatini oshirishning asosiy omili bo‘lib, o‘quvchilarning bilim darajasini belgilab beruvchi kuchdir. Bunda uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish tizimi alohida ahamiyat kasb etadi. Uzluksizlik tamoyili pedagoglarning doimiy ravishda kasbiy rivojlanishiga imkon yaratadi va ularni yangi pedagogik yondashuvlar bilan tanishtiradi. Ushbu maqola uzluksiz metodik xizmatning maqsadi, shakllari va metodlari, shuningdek, amaliyotdagi muammolar va ularni hal qilish yo‘llarini o‘rganishga qaratilgan.

Kasbiy mahoratni oshirishning asosiy tamoyillari

Kasbiy mahoratni oshirish jarayoni pedagog-xodimlar uchun muhim bo‘lgan tamoyillarni hisobga olgan holda tashkil etiladi:

1. **Ta’lim sifatini ta’minlashda pedagoglarning roli**

Pedagoglarning malaka darajasi bevosita ta’lim sifatiga ta’sir qiladi. Malakali pedagog ta’lim jarayonini interaktiv va samarali tarzda tashkil eta oladi, bu esa o‘quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

2. **Malakali va innovatsion kadrlarni tayyorlash**

Ta’lim jarayonini modernizatsiyalash uchun innovatsion yondashuvlar va kadrlarni tayyorlash zarur. Pedagoglar zamonaviy texnologiyalar va metodologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini o‘zlashtirishi lozim.

3. **Uzluksizlik va tizimlilik tamoyillari**

Kasbiy mahoratni oshirish doimiy va tizimli jarayon bo‘lishi kerak. Bu tamoyil o‘qituvchilarni doimiy ravishda yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga undaydi, bu esa ta’lim sifatini yaxshilashga olib keladi.

Metodik xizmat ko‘rsatishning shakllari va usullari

Metodik xizmat ko‘rsatish pedagog-xodimlarning kasbiy rivojlanishini ta’minlaydigan bir nechta shakllar va usullardan iborat:

1. **Seminar-treninglar va tajriba almashish**

Seminar-treninglar pedagoglar uchun bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, pedagoglarning o‘zaro tajriba almashishi kasbiy rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etadi.

2. **Raqamli platformalar va masofaviy o‘qitish imkoniyatlari**

Zamonaviy texnologiyalar, jumladan, raqamli platformalar yordamida masofaviy o‘qitish tizimini tashkil etish pedagoglarning kasbiy rivojlanishini tezlashtiradi.

3. **Maqsadli malaka oshirish kurslari**

Kurslar pedagoglarning ehtiyojlariga moslashtiriladi va qisqa muddat ichida malaka oshirish imkoniyatini taqdim etadi.

4. **Mentorlik tizimi va pedagogik hamkorlik**

Mentorlik tizimi orqali tajribali pedagoglar yosh o‘qituvchilarga metodik yordam ko‘rsatadi. Bu nafaqat kasbiy rivojlanishga, balki ta’lim jarayonining sifatini oshirishga ham xizmat qiladi.

Amaliyotdagi muammolar va ularni hal qilish yo‘llari

Muammolar:

- **Resurs yetishmovchiligi:** Metodik xizmat ko‘rsatishda moliyaviy va texnologik infratuzilmaning yetishmasligi ko‘pincha katta qiyinchilik tug‘diradi.
- **Pedagoglarning malaka oshirish imkoniyatlaridan foydalana olmasligi:** Ba’zi hududlarda pedagog-xodimlar metodik xizmatlardan cheklangan holda foydalanishadi.

Yechimlar:

- Davlat tomonidan metodik xizmat tizimiga moliyaviy va texnologik qo‘llab-quvvatlashni kengaytirish.
- Pedagoglarning ehtiyojlari va sharoitlariga moslashtirilgan kurslarni tashkil etish.
- Metodik xizmatlarni rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tajribalarni o‘rganib, joriy etish.

Taklif va istiqbolli yo‘nalishlar

1. Xalqaro tajribalar asosida rivojlantirish

Boshqa mamlakatlarning ilg‘or metodik xizmat ko‘rsatish tizimlarini o‘rganish va mahalliy sharoitlarga moslashtirish pedagog-xodimlarning kasbiy rivoji uchun muhimdir.

2. Raqamli vositalarni kengaytirish

Raqamli platformalar yordamida seminar-treninglar, malaka oshirish kurslari va boshqa metodik xizmatlarni tashkil etish o‘qituvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

3. Maxsus metodik markazlar tashkil etish

Pedagog-xodimlar uchun metodik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha maxsus markazlar tashkil etish uzluksiz kasbiy rivojlanish uchun zarur.

4. Innovatsion dasturlarni ishlab chiqish

Pedagoglar uchun uzluksiz rivojlanishni ta’minlaydigan interaktiv va innovatsion dasturlarni ishlab chiqish ta’lim sifatini oshirishga olib keladi.

Pedagog-xodimlarning kasbiy rivojlanishini ta’minlash uchun uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish zarurdir. Ushbu tizimning samarali ishlashi ta’lim sifatini oshirish, innovatsion metodlarni joriy etish va o‘qituvchilarning malakasini doimiy ravishda rivojlantirish imkoniyatlarini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘aniyev, Sh. *Metodik xizmatning rivoji va ta’lim sifatiga ta’siri*. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti, 2021.
2. Karimov, A. *Kasbiy mahoratni oshirishning uzluksiz tizimi*. Toshkent: Ilm Ziyo, 2020.
3. Fullan, Michael. *The New Meaning of Educational Change*. Teachers College Press, 2016.
4. Schleicher, Andreas. *Preparing Teachers and Developing School Leaders for the 21st Century*. OECD Publishing, 2012.
5. O‘zbekiston Respublikasi Xalq Ta’limi Vazirligi. *Pedagoglar malakasini oshirish bo‘yicha metodik qo‘llanma*. Toshkent, 2022.
6. OECD. *Improving Teaching and Learning with Professional Development*. OECD Publishing, 2019.

MAKTAB BOSHQARUV JARAYONLARIDA LIDERLIKNING O‘RNI

Merzayeva Xamida Juraqulovna,
Navoiy viloyati PPM metodisti

Annotatsiya. Zamonaviy ta’lim tizimi, uning boshqaruvi va rahbarlik jarayonlari hozirgi global va raqamli dunyo sharoitida muhim o‘rin tutmoqda. O‘quvchilarni nafaqat bilim, balki kreativlik, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish kabi amaliy ko‘nikmalar bilan ta’minlash, ularni kelajakdagi o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashtirish hozirgi ta’lim tizimining asosiy vazifasidir. Maktab rahbarlari ta’limni zamonaviy ehtiyojlarga mos ravishda boshqarish va rivojlantirish uchun strategik liderlik ko‘nikmalariga ega bo‘lishi zarur. Ushbu maqola maktab boshqaruv jarayonlarida liderlikning o‘rni va uning ta’lim sifatiga ta’sirini tahlil qilishga qaratilgan**.**

Kalit so‘zlar: Zamonaviy ta’lim, liderlik, strategik liderlik, boshqaruv, ta’limning sifatini ta’minlash, kadrlar kompetensiyasi, innovatsion yondashuvlar.

Bugungi kunda ta’lim tizimida yuz berayotgan tub islohotlar, globallashuv, raqobatbardoshlik va innovatsion yondashuvlar maktab rahbarining liderlik

qobiliyatlarini rivojlantirishni strategik zaruratga aylantirmoqda. Zamonaviy ta’lim tizimi, yuqori malakali va moslashuvchan kadrlarni tayyorlashda markaziy rol o‘ynaydi. Global o‘zgarishlar, texnologiyalarning tez rivojlanishi va mehnat bozori talablari yangi yondashuvlar va strategiyalarni talab qiladi. Ta’lim jarayonini samarali boshqarish, o‘quvchilarga zarur bilim va ko‘nikmalarni yetkazish uchun yuqori darajadagi liderlik zarur. Maktab rahbarlari bu jarayonda ta’lim tizimini rivojlantirish va o‘quvchilarga sifatli ta’lim berish uchun samarali boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishlari kerak. Shuningdek, zamonaviy liderlik, faqat tashkilotning boshqaruv jarayonlarini optimallashtirishdan iborat emas, balki o‘quvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ham ta’minlashga xizmat qiladi. Maktab rahbari endilikda faqatgina boshqaruvchi emas, balki o‘z jamoasini ilhomlantira oladigan, pedagogik jarayonni zamonaviy mezonlar asosida tashkil etadigan, global ta’lim tendensiyalariga mos qarorlar qabul qiladigan kuchli lider bo‘lishi kerak. Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-iyuldagi PQ-231-sonli qarori, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2024-yil 7-avgustdagi 246-sonli buyrug‘i va xalqaro tajribalardan — xususan, Singapur ta’lim tizimidagi ilg‘or yondashuvlardan foydalanilgan holda maktab rahbarining liderlik salohiyatini rivojlantirish masalasini yoritadi.

Maktab rahbarining liderlik kompetensiyasi quyidagi omillar orqali shakllanadi: strategik fikrlash, samarali kommunikatsiya, jamoani boshqarish, o‘zgaruvchan muhitga moslashish, tashabbuskorlik va motivatsiya berish. Uning ta’lim boshqaruvi sohasidagi yondashuvi rahbarni shunchaki ijrochi emas, balki strateg va innovator sifatida ko‘radi. Ta’lim tizimi o‘zgarishlarga tayyor va moslashuvchan bo‘lishi lozim.

Maktab liderlari ta’lim konsepsiyasini to‘liq anglagan bo‘lishi va ular bu g‘oyani sinf xonasiga olib kirishi zarur.

Singapur tajribasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ular ta’lim dasturlarini kontent, pedagogika va qadriyatdan iborat uchburchak asosiga shakllantiradi. Shuningdek, ular o‘quvchiga tayyor formula bermaydi, balki formulani o‘zi kashf qilishi uchun yo‘nalish ko‘rsatadi. Biz ham Singapur yondashuvidan foydalanishimiz mumkin, ammo qadriyat o‘zimizniki bo‘lishi muhimdir. Shundagina farzandlarimiz kelajakda chidamli va moslashuvchan, jahon mehnat bozori talablariga javob beradigan bilim va ko‘nikmalarga ega ongli fuqaro, o‘zini anglagan shaxs bo‘lib yetishadi.

PQ-231-sonli Prezident qarorida maktab rahbarlarini tayyorlash, ularning kasbiy kompetensiyasini oshirish va faoliyatini baholash tizimi takomillashtirilishi belgilab berilgan. Qarorda rahbarlik lavozimiga nomzodlarni tanlashda shaffoflik, malakali kadrlarga ustuvorlik, rahbarlarning kasbiy rivoji uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilishi zarurligi ta’kidlangan. Zamonaviy ta’lim qanday bo‘lishi kerak degan savolga “Bugungi dunyo qanday ko‘rinishga ega? savoli orqali javob topishimiz mumkin. Zamonaviy ta’limning dolzarbligi raqamli texnologiyalar va internetning keng tarqalishi ta’lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqdi. Masofaviy ta’lim, onlayn kurslar va interaktiv o‘quv materiallari ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirdi. Mehnat bozori talablarining o‘zgarishi ta’lim tizimining moslashuvchanligini talab qiladi. Odamlar kelajakda bugungidan ko‘ra yanada ko‘proq moddiy va ma’naviy resurslarga ega bo‘lishni xohlashmoqda va bu imkoniyatlarga ega bo‘lish uchun ulardan yuqori darajadagi akademik ko‘nikmalar talab etilmoqda. Shu bilan bir qatorda texnologik taraqqiyotning jadallashuvi ish beruvchilarga odamlarning o‘rniga texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini yaratdi. Bu esa insonlarda texnologiyalardan-da yuqori ko‘nikmalarga ega bo‘lish ehtiyojini yuzaga keltirdi. Endi insonlarda texnologiyalar

qila olmaydigan ishlarni bajara olish imkoniyatiga ega bo‘lish zarurati mavjud. Bugungi dunyo aholisi o‘zaro raqamli texnologiyalar vositasida birlashgandek ko‘rinsa-da, ammo ular turli jamiyat sifatida o‘ziga xos mafkura va qadriyatlari bilan bir-biridan ajralib yashaydi. Shuningdek, yer sharidagi demografik vaziyatning o‘zgarishi bilan bog‘liq muammolar ham mavjud. Rivojlangan mamlakatlarda tug‘ilish ko‘rsatgichlari pasayib, maktablar yopilmoqda. Ishchi kuchiga bo‘lgan talab oshmoqda. Kambag‘al va qashshoq mamlakatlarda tug‘ilish ko‘rsatgichlari oshib, maktablar yetishmasligi, ishsizlik kabi muammolar mavjud. Bu kabi holatlar rivojlangan mamlakatlarga migrantlar oqimining ortib borishiga sabab bo‘lmoqda. Ammo ko‘plab migrantlar rivojlangan davlatlardagi mehnat bozori talablariga bilim va ko‘nikma nuqtai nazaridan javob bera olmasligi sabab kam daromadli ishlarda ishlashga majbur bo‘lishi yoki o‘zi ko‘chib kelgan mamlakatlarda ham ishsizlar sonining ortishiga olib kelayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Sayyoramizdagi bunday turfa xillikning mavjudligiga turli davlatlardagi ta’lim sifatining har xilligi asosiy sabab hisoblanadi. Demak, bugungi dunyo qiyofasi mana shunday bir ko‘rinishda ekanligi ta’limni oldindan aytib bo‘lmaydigan va tez o‘zgaruvchan sohaga aylantirdi. Bu esa oldindan aytib bo‘lmaydigan kelajak uchun farzandlarimizni chidamli va moslashuvchan qilib tayyorlashimiz zarurligini anglatadi.

Muammoli vaziyatlarni hal etish, pedagogik jamoani boshqarish, metodik faoliyatni tashkil qilish, innovatsiyalarni joriy etish kabi ko‘nikmalar kiradi. Bu esa liderlikni o‘lchashda aniq va tizimli yondashuvni belgilaydi.

Singapur ta’lim tizimi esa maktab rahbarlarining liderlik qobiliyatini rivojlantirish borasida eng muvaffaqiyatli modellarni taklif etmoqda. Bu mamlakatda rahbarlar uchun "Leaders in Education" dasturi orqali uzluksiz malaka oshirish, motivatsion mexanizmlar va strategik rejalashtirish asosida o‘quvchilar natijasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi rahbarlar yetishtirilmoqda.

Rahbarlik salohiyatini kompleks baholash zarurligini asoslab beradi, maktab rahbari innovatsion fikr yuritishi, natijaviylikka yo‘naltirilgan rejalarni ishlab chiqishi va jamoani rivojlantirishga qaratilgan aniq strategiyaga ega bo‘lishi kerak.

Bu jihatlar xalqaro tajriba — ayniqsa Singapurda ham o‘z aksini topgan. Singapurda rahbar tanlashda shaxsiy va kasbiy kompetensiyalar, ta’limdagi natijadorlik, innovatsion yondashuvlar hisobga olinadi.

Ta’lim boshqaruvida kuchli liderlik - o‘zgaruvchan davr talabidir. Maktab rahbarining shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini doimiy rivojlantirish, ular faoliyatini adolatli va tizimli baholash, ilg‘or xalqaro tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish orqali ta’lim tizimining poydevorini mustahkamlash mumkin. Xalqaro tajriba bir nuqtada — maktab liderining ta’lim sifatidagi o‘rnini kuchaytirish zarurligida uchrashadi. maktab liderlari maktabni sifatli ta’lim-tarbiya beradigan maskanga aylantirishlari uchun bugungi kunda dunyo qiyofasining qandayligini, ta’lim sifatini ta’minlashga ta’sir o‘tkazadigan murakkabliklar nimalardan iborat ekanligini, kelajakda o‘quvchilar muvaffaqiyatli shaxslar bo‘lishi uchun ularga qanday bilim berish va qanday ko‘nikmalarni shakllantirishni, bularni qanday qilishni bilishlari kerak. Shuningdek, ta’lim sifati o‘qituvchining salohiyatiga bog‘liq ekanligini anglagan holda ularni kasbiy va shaxsiy rivojlantirish, komfort zonasidan chiqish orqali muvaffaqiyatga erish mumkinligiga ishontira olishlari zarur. Zamonaviy ta’lim tizimi nafaqat bilim berish, balki shaxsiy va kasbiy rivojlanishga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘quvchilarning ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish va innovatsion yondashuvlarni qo‘llash kabi ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Xullas, zamonaviy ta’lim

tizimi jamiyatning har tomonlama rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Ta’limning asosiy vazifasi nafaqat nazariy bilimlar berish, balki o‘quvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta’minlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmedov M. (2018). Ta'lim boshqaruvining metodologik asoslari. Toshkent.
2. Ahmedov M. (2019). Maktab rahbarining liderlik salohiyatini baholash mezonlari. Pedagogik ta'lim jurnali.
3. Ahmedov M. (2022). Maktab rahbarlarining liderlik strategiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish. Ilmiy-nazariy jurnal.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-231-son qarori, 2023-yil 21-iyun.
5. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 246-sonli buyrug‘i, 2024-yil 7-avgust.

MUAMMOLI TA’LIMNING O‘QITUVCHILAR KASBIY MALAKASINI OSHIRISHGA TA’SIRI

Otamurodova Yaxshigul Farxodovna,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada muammoli ta’lim texnologiyalarining o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga ta’siri o‘rganilgan. Muammoli ta’lim o‘qitish jarayonida innovatsion yondashuv sifatida o‘qituvchilarning metodik kompetensiyasini oshirish, mustaqil izlanishlarini rivojlantirish va ta’lim samaradorligini oshirishga qaratilganligi tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada muammoli ta’lim texnologiyalarining asosiy tamoyillari, ularning afzalliklari va amaliy qo‘llanilishi xususida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar. muammoli ta’lim, kasbiy malaka, pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuv, o‘qituvchilarning rivojlanishi.

Muammoli ta’lim bugungi kunda pedagogik jarayonda innovatsion yondashuv sifatida qaralmoqda. Ushbu yondashuv o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, ularning pedagogik kompetensiyalarini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, muammoli ta’lim texnologiyalari yordamida ta’lim jarayonini tashkil etish o‘qituvchilarni doimiy izlanishga, tahlil qilishga va tanqidiy fikrlashga o‘rgatadi [1, 45-b.].

Muammoli ta’limning mohiyati va tamoyillari.

Muammoli ta’lim - bu o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiya bo‘lib, uning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Muammoli vaziyat yaratish va uni hal qilishga yo‘naltirish;
- O‘quvchilarning mustaqil izlanishlarini rag‘batlantirish;
- Tanqidiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish;
- Amaliy mashg‘ulotlar va tajribalarga asoslangan ta’lim jarayonini tashkil qilish [2, 67-b.].

Muammoli ta’lim texnologiyalari va ularning samaradorligi

Muammoli ta’lim texnologiyalarining samaradorligi quyidagi omillar bilan aniqlanadi:

1. O‘qituvchilarning metodik kompetensiyasini oshirish – muammoli ta’lim muhitida ishlash orqali o‘qituvchilar o‘quv jarayonini qiziqarli va interaktiv usullarda tashkil etishga o‘rganadilar.

2. Mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirish – bu usul o‘qituvchilarning o‘z bilimlarini doimiy ravishda boyitishlariga zamin yaratadi.

3. Pedagogik innovatsiyalarni qo‘llash imkoniyati – muammoli ta’lim zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirilgan holda o‘qitish samaradorligini oshiradi [3, 89-b.].

4. O‘quvchilarning faolligini oshirish – o‘quv jarayonida muammoli vazifalar berilishi natijasida o‘quvchilar bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishga intiladilar.

5. Ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish – muammoli ta’lim texnologiyalarining muvaffaqiyati, shuningdek, guruhiy ishlar, debatlar, loyiha ishlarini tashkil qilish bilan bog‘liqdir [4, 102-b.].

Xulosa

Muammoli ta’lim o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu texnologiya ta’lim jarayonini yanada interaktiv, ijodiy va samarali qilish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, muammoli ta’lim asosida ishlovchi o‘qituvchilar o‘z pedagogik faoliyatida ko‘proq innovatsion metodlarni qo‘llashga moyil bo‘ladilar va natijada ta’lim sifati ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov B. Pedagogik innovatsiyalar va muammoli ta’lim. – Toshkent: Fan, 2022. – 150 b.
2. Rasulov I. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. – Samarqand: Ilm Ziyo, 2021. – 200 b.
3. Xolmatova D. O‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishida muammoli ta’lim roli. – Buxoro: Ilmiy Tadqiqot, 2023. – 175 b.
4. Abduqodirov N. Muammoli ta’limning nazariy asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 220 b.
5. Saidov R. Pedagogik psixologiya va ta’lim texnologiyalari. – Navoiy: Ilmiy Meros, 2019. – 190 b.
6. Mamatqulov U. Interfaol ta’lim metodlari. – Farg‘ona: Innovatsiya Nashr, 2022. – 145 b.
7. Tursunova G. Zamonaviy ta’lim metodologiyasi. – Qarshi: Ilm Ziyo, 2023. – 165 b.
8. Jalilov O. O‘qitish jarayonida kreativ yondashuv. – Namangan: Ma’naviyat, 2021. – 130 b.

BIOLOGIYA DARSLARIDA EKOLOGIK TA’LIM VA TARBIYANI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA

Quldosheva Dilso‘z Sunnatovna,
Navoiy viloyati PMM “Ta’lim sifati nazorati” bo‘limi bosh mutaxassisi

Annatatsiya. Ushbu maqolada Respublikamizda ekologik ta’limni rivojlantirish, zamonaviy bilim va ekologik ma’suliyatli yosh avlodni tarbiyalashga katta ahamiyat qaratilmoqda. Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi hududlaridagi ekologik muammolar yechimiga ta’lim tizimini joriy qilish bilan hissa qo‘shish, o‘sib kelayotgan yosh avlodning ekologik savodxonligini oshirish, ekologik ongi va ekologik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, ekologik ta’lim va tarbiya jarayonini samarali o‘rganish.

Kalit so‘zlar: Biologiya, ekologiya, xulq-atvor,umumiy o‘rta ta’lim, o‘simliklar, hayvonlar, ekologik ta’lim-tarbiya.

Abstract: In this article, great importance is paid to the development of environmental education in our Republic, the education of the young generation with

modern knowledge and environmental responsibility. In this regard, to contribute to the solution of environmental problems in the regions of the Republic of Uzbekistan with the introduction of an educational system, to increase the environmental literacy of the growing young generation, to form and develop environmental awareness and environmental culture, to effectively study the process of environmental education and education.

Keywords: Biology, ecology,behavior, general secondary education, plants, animals, environmental education.

Аннотация. В данной статье большое значение уделяется развитию экологического образования в нашей республике, современным знаниям и воспитанию экологически ответственного подрастающего поколения. В связи с этим необходимо внести свой вклад в решение экологических проблем на территории Республики Узбекистан путем внедрения системы образования, повышения экологической грамотности подрастающего поколения, формирования и развития экологического сознания и экологической культуры, эффективного изучения процесса экологического образования и воспитания. ***Ключевые слова:*** Биология,экология, поведение, общее среднее образование, растения, животные, экологическое образование-воспитание.

Kirish

Globallashuv sari borayotgan hozirgi dunyoda davlatlarning xalqaro raqobat jarayoniga tez moslashuvi uning muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi. Bunda yuksak taraqqiy etgan davlatlarning asosiy ustunligi ta’lim tizimining holati, shaxsni rivojlantirish imkoniyatlarining shakllanganligi bilan belgilanadi. Zero, davlatning istiqboldagi barqaror o‘sishini ta’minlovchi omillar aynan ta’lim sohasining qay tarzda samarali, davr talablariga mos tashkil etilganligiga bog‘likdir. Shu sababli respublikamizda jamiyat va iqtisodiyotni tubdan isloh qilish jarayonida ta’lim sohasida jahonda munosib o‘rinni egallashga qaratilgan yangi uzluksiz ta’lim tizimini yaratish va rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Shu bois, zamon talablariga javob beradigan yuksak madaniyatli, bilimdon yoshlarni tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilanishi, o‘z navbatida “Uchinchi Renessans” poydevorini qurish yo‘lida bel bog‘lagan Yangi O‘zbekiston uchun juda muhimdir. Bu jarayon uzluksiz milliy ta’lim-tarbiya tizimining barcha bosqichlarini uyg‘un va mutanosib rivojlantirishga alohida e’tibor berishni taqoza etmoqda. “...Hozirgi vaqtda yurtimizda Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlandi” degan g‘oya asosida maktab ta’limi tizimida ham katta o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Maktab-faqatgina ta’lim beradigan maskan emas, barchamiz uchun yuksak ma’naviyat beshigiga, farzandlarimizni bolalikdan boshlab kasbga o‘rgatuvchi dargohga aylanishi zarur”. Maktab ta’limi sifat samaradorligiga erishish borasida amalga oshirilayotgan bir qancha islohotlarga qaramay, bugungi kunda maktab ta’limini rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolgani, ya’ni “Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi murakkab tuzilgani, ularda nazariy bilimlar amaliyot bilan bog‘lanmagani, o‘quv dasturlarida uzviylik yo‘qligi, darsliklarning mazmuni va sifati qoniqarsiz ekanligi” haqida to‘xtalib, bunday holatlarga barham berish kerakligi haqida o‘z fikr mulohazalarini bildirib, ayni vaqtda bu kabi o‘ta muhim masalalar eng dolzarb vazifa ekanligini ta’kidlab o‘tdi. Bundan ko‘rinib turibdiki, zamonaviy maktab o‘quvchilarni erkin fikrlash va mustaqil hayotga tayyorlashda, darsliklar, darslar va turli o‘quv qo‘llanmalaridan foydalanishni tizimli va

uzviy ravishda olib borilishini ta'minlashda alohida e'tibor qaratish kerakligi, zamonaviy sharoitda, bola hatti-harkatlarida o'z atrofini kuzatish va tahlil qilishga o'rgatish zaruratini keltirib chiqarmoqda, bu qobiliyatni aniq va tabiiy fanlar asosida rivojlantirish ayniqsa muhimdir.

Bu borada o'tgan yillar mobaynida, umumiy o'rta ta'lim tizimida ekologik ta'limni takomillashtirish borasida olib borilgan islohatlarda, umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish parametrlaridan kelib chiqqan holda tahlil qilinib, qo'shimcha indikatorlar belgilandi. Bunda umumiy o'rta ta'lim tizimini tamomlagan shaxs minimal darajada ekologik tushunchalar, xulq atvor qoidalari (ekologik madaniyat to'g'risida bilimga ega bo'lishi nazarda tutilgan va ekologik bilimlar fanlar mazmuniga majburlovchi chora sifatida emas, fan mazmunidan kelib chiqqan holda singdirilishi muhimligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi "O'zbeksiton Respublikasida ekologik ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 434-sonli qarorida ko'rsatib o'tilgan. Bunda, umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari mazmuni:

-o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko'nikma va malakalar ta'lim mazmuniga keng singdirish;

- o'quv fanlar doirasidagi ekologik bilimlarni amaliyotga joriy etish, ularni amaliyotda qo'llay olish imkonini beruvchi amaliy topshiriqlar bilan boyitish;

-o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, o'zini o'zi va o'zgalar faoliyati natijalarini oldindan ko'ra olish va baholashga o'rgatish; matematika, biologiya, iqtisodiy bilim asoslari fanlari mazmuniga ekologik baholashga oid bilim, ko'nikma va malakalarni kiritib borish;

-umumiy o'rta ta'lim tizimida ekologik bilimlarni o'quvchilarning yoshi, jismoniy imkoniyatlari va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda sinflar darajasida farqlanishi asosida tashkil etish;

- umumiy o'rta ta'lim tizimida ekologik bilimlarni "oddiydan murakkabga", "uzviylik va uzluksizlik" kabi pedagogik tamoyillarga tayangan holda nazariy va amaliy bilimlar uyg'unligini ta'minlash asosida tizimlashtirish;

- umumiy o'rta ta'lim tizimida ekologiyaning nazariy asoslariga oid bilimlar va ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan bilim, ko'nikma va malakalarni mavjud o'quv fanlari mazmunida uzviy va bosqichma-bosqich shakllantirish asosida ekologik madaniyatni ta'minlaydigan maqsadli tizimga aylantirish ko'nikmalarini rivojlanttirish vazifalari belgilab berilgan.

O'zbeksiton Respbulikasida ekologik ta'limni rivojlantirish Konsepsiyasida umumiy o'rta ta'lim tizizimida ekologik ta'limni quyidagi bosqichlarda olib borish tartibi qayd etilgan. Boshlang'ich ta'limda (I –IV sinflar), ekologik ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga e'tibor qaratish kerakligi, umumiy o'rta ta'limda (V –XI sinflar), o'tiladigan fanlar mazmuni ekologik ta'lim va tarbiyaga oid zurur bilim va ma'lumotlar bilan boyitilishiga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, biologiya asoslariga oid fanlarga, "O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan noyob va kamyob o'simlik va hayvonot turlari", "O'zbekistondagi qo'riqxonalar va tabiat bog'laridagi rang-barang hayvonot olami va o'simlik dunyosi turlari, ularning tarqalish hududlari", o'rmonlar, ularning ahamiyati va o'rmonlarni tabiiy holda saqlab qolish" to'g'risidagi mavzular doirasida zarur bilim va ko'nikmalar berilishi ko'rsatib o'tilgan. Shu nuqtai nazardan yondoshadigan bo'lsak, o'quvchilarning ekologik ta'lim tarbiyasini rivojlantirishda

tabiiy fanlar: atrofimizdagi olam, botanika, biologiya va boshqa fanlar samaradorligini ta’minlashning asosiy shartlaridan biri – biologiya fani mavzulari doirasida tabiatni asrab avaylashga bo‘lgan munosbatni amaliy yondashuv asosida rivojlantirish talabini keltirib chiqarmoqda. Binobarin, biologiya darslarida o‘lka bioxilma-xilligi materiallaridan foydalanib o‘quvchilarga ekologik ta’lim va tarbiya berish usullarini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Biologiya atamasi 1802 yilda bir-biridan mustasno fransuz olimi J.B.Lamark va nemis olimi G.R.Trevinus tomonidan fanga kiritilgan bo‘lib, yunoncha bios-hayot, logos-fan, ya’ni hayot haqidagi fan degan ma’noni anglatadi. Qisqacha aytganda biologiya, hayot, uning shakllari, tuzilishi, rivojlanish qonunyatlari to‘g‘risidagi fandir.

Darhaqiqat, yerda hayot paydo bo‘lishining dastlabki davrlaridanoq tirik organizmlarga xos murakkab polimerlarning tabiiy sintezlanishi va ulardan o‘z-o‘zini yarata oladigan tirik sistemalar paydo bo‘lishini, yer yuzida aholi sonining tez sur’atlar bilan o‘sib borishi Biologiya oldiga biosferaning mahsuldorligini oshirish, yashash muhitini ifloslanishdan saqlash, o‘simlik va hayvonlarni muhofaza qilish va ratsional foydalanishdan iborat juda ko‘p muammolarni qo‘yadi. Bu muammolarning yechimi esa oiladan bolaga ekologik ta’lim va tarbiyani shakllantirish, keyinchalik esa ta’lim muassasalarida o‘quvchilarda ekologik ta’lim va tarbiya ko‘nikmalarini rivojlantirish maqsadini qo‘yadi.

Ekologik ta’lim- bu shaxsning atrofdagi ijtimoiy va tabiiy muhitga ma’suliyatli munosabatini ta’minlaydigan ilmiy va amaliy bilimlar, qadriyat yo‘nalishlari, xulq-atvori va faoliyati tizimini shakllantirishga qaratilgan shaxsni ta’lim, tarbiya va rivojlantirishning uzluksiz jarayoni . Ekologik ta’lim insonning butun hayotini qamrab oladigan yaxlit tizimdir.

Umumta’lim maktab o‘quvchilarida ekologik munosabatlarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va vositalarini ishlab chiqish zarurligi pedagogika fani va amaliyotida bu muammoning ilmiy-metodik ishlab chiqilmaganligi bilan bog‘liq masalalarni hal etishda tadqiqotchilar oldida turgan nazariy-metodologik qiyinchiliklar bu hodisaning tabiatini tushunish uchun nafaqat pedagogik, balki psixologik, huquqiy, ekologik, sotsiologik, madaniy va falsafiy-antropologik bilimlarni ham jalb yetish zarurligini ko‘rsatadi.

KASBIY KOMPETENTLIKNING TA’LIM VA TARBIYA JARAYONIDAGI O‘RNI

Akatova Guzal Bahodirovna,
Navoiy viloyati PMM Ta’lim sifati nazorati bo‘limi bosh mutaxassisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasbiy kompetentlik tushunchasi, uning ta’lim jarayonidagi o‘rni va ahamiyati, shuningdek, kasbiy kompetentlikni shakllantirishda ta’lim va tarbiya jarayonining roli tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: kompetentlik, kompetensiya, kasbiy kompetentlik, ta’lim jarayoni, pedagogik mahorat.

XXI asrda global miqyosda ta’lim tizimlarida kasbiy kompetentlikka asoslangan yondashuvning ahamiyati ortib bormoqda. Ayni vaqtda har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo‘lish, uni izchil ravishda oshirib borish talab etilmoqda. Avvalo atamalarning mazmuniga e’tibor qaratamiz.

Kompetensiya - lotincha so‘z bo‘lib “munosib”, “to‘g‘ri keladi” yoki “mos keladi” ma’nolarini anglatadi. O‘z bilim, mahorat va amaliy tajribalarni qo‘llagan holda

oddiy va murakkab masalalarni yecha olishga munosib insonlarga nisbatan ko‘p hollarda “kasbiy kompetenlik” atamasi qo‘llaniladi. Bunda kasbiy vazifalarni amalga oshirishda amaliy tajribalar, bilim va ko‘nikmalarni muvaffaqiyatli qo‘llay olish qobiliyati inobatga olinadi.

Kompetentlik (lotincha “competens” - “layoqatli”, “qobiliyatli”) deganda shaxs bilim, ko‘nikma va tajribalarining ijtimoiy professional mavqei va o‘ziga tegishli vazifalami bajarish, muammolarni hal qilishga qodirligi hamda haqiqiy moslik darajasi tushuniladi. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan (nostandart) holatlarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi Ta’lim jarayonida kasbiy kompetentlikni shakllantirish orqali o‘quvchilarni nafaqat kasbiy faoliyatga, balki ijtimoiy hayotga ham tayyorlash mumkin. Kasbiy kompetentlik bilim va ko‘nikmalar to‘plami bilan bir qatorda shaxsning ijtimoiy, axloqiy va psixologik jihatlarini ham o‘z ichiga oladi.

Kasbiy kompetentlik — bu muayyan kasb doirasida samarali faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar yig‘indisidir. U quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

- **Bilimiy kompetentlik:** nazariy va amaliy bilimlarning mavjudligi;
- **Metodologik kompetentlik:** darsni tashkil etish, metodlarni to‘g‘ri tanlash;
- **Kommunikativ kompetentlik:** o‘quvchilar va hamkasblar bilan samarali muloqot qila olish;
- **Ijtimoiy-axloqiy kompetentlik:** kasbiy etikaga amal qilish, halollik va adolatga sodiqlik;
- **Texnologik kompetentlik:** zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish qobiliyati.

Ta’lim va tarbiya jarayoni kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda asosiy rol o‘ynaydi. Bu jarayonda quyidagi jihatlarga alohida e’tibor berish zarur:

- **Integratsiyalashgan yondashuv:** nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirish;
- **Faol o‘qitish uslublari:** muammoli o‘qitish, loyihaviy ishlar, rol o‘yinlari;
- **Shaxsiy yondashuv:** har bir talabaning shaxsiy xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish;
- **Tarbiya jarayoni orqali kasbga hurmatni shakllantirish:** mehnat madaniyatini singdirish, mas’uliyat hissini rivojlantirish.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish bevosita uning faoliyatida ro‘y beradigan o‘zgarishlar, motivlar, maqsadlar, yangi vositalami qo‘llash, usullar hamda faoliyat dasturi bilan bog‘liq holda kechadi. Turli pedagogik o‘zgarishlar asosida o‘qituvchi faoliyati shakllanadi

Zamonaviy pedagog kadrlar oldidagi vazifalar.Bugungi pedagog:

- o‘z kasbiga fidoyi bo‘lishi;
- innovatsion metodlarni bilishi va qo‘llashi;
- doimiy ravishda o‘z ustida ishlashi;
- o‘quvchilarga nafaqat bilim, balki hayotiy qadriyatlarni ham singdira olishi zarur.

Pedagogik mahorat va kompetentlik - pedagog shaxsining tajriba orqali orttirgan xususiyati, biror sohadagi moslashuvchan ko‘nikma va ijodkorlik asosida

hosil bo‘lgan kasbiy ko‘nikmalarining nazariy darajasidir. Bunday sifatlar yoshlarni tanlagan kasbiga hurmat uyg‘otish jarayonidagi kasbiy g‘ururni shakllantirishda xizmat qiladi. pedagogik mahorat va pedagogik kompetentlik barcha pedagoglar uchun qolipdagi ish uslubi emas, balki u har bir o‘qituvchining o‘z ustida ishlashi, ijodiy mehnati evaziga yuzaga keladigan jarayondir. Demak, o‘qituvchining ko‘p qirrali faoliyati va uning qobiliyati, zo‘r san’atkor va fidoyi bo‘lishi hamda yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasidagi dolzarb masalalardan. biri ekan, o‘qituvchilar pedagogik mahorat va kompetentlikni egallashlari lozim.

Xulosa qilib aytganda kasbiy kompetentlik — bu nafaqat bilim va ko‘nikmalarning majmui, balki shaxsiy kamolot, mas’uliyat va kasbiy o‘sishning mujassamligidir. Kasbiy kompetentlik o‘qituvchining samarali faoliyat yuritishidagi asosiy omildir. Ta’lim va tarbiya jarayonlarining muvaffaqiyatli tashkil etilishi, o‘quvchilar shaxsining har tomonlama kamol topishi, aynan pedagogik kompetentlik darajasiga bevosita bog‘liq. Ta’lim va tarbiya jarayonida kasbiy kompetentlikni shakllantirish orqali biz nafaqat raqobatbardosh mutaxassislar, balki ijtimoiy mas’uliyatli shaxslarni ham voyaga yetkazamiz. Demak, hozirgi kunda ta’lim-tarbiyadan ko‘zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, o‘quvchilaming xilma-xil faoliyatini tashkil etish, ularni vatanga sadoqatli, yovuz g‘oyalardan holi, bilimli, odobli, e’tiqodli, mehnatsevar, erkin fikrli, ongli, barkamol inson qilib o‘stirish o‘qituvchi zimmasiga yuklatilgan. Shunday qilib, davlatimiz tomonidan ta’lim sohasiga qo‘yilayotgan vazifalarni bajarishda pedagogik kompetentlikni rivojlantirish pedagogik va psixologik qonuniyatlarga tayangan holda turli shakl va metodlar orqali, maxsus didaktik tamoyillarni qo‘llash asosida tashkil etiladi. Zero, pedagog qanchalik ilmli, tajribali,malakalarga ega, zamon talablariga javob bera oladigan inson bo‘lsa, o‘z kasbini sevsa, unga sidqidildan yondoshsa, u ko‘zlagan maqsadiga erishadi. Albatta, bu borada unga katta kuch, matonat, sabr-toqat juda muhim hisoblanadi, Chunki mana shu bosqichlardan mardona o‘ta olgan pedagog kompetentlik borasidagi barcha talablarga mos va xos bo‘ladi va natijada yuksak malakali va ilmli pedagog sifatida o‘z o‘quvchilari, tinglovchilari, jamoadoshlari orasida har qanday jarayonda o‘z nafosatini yo‘qotmaydi, aksincha, jilolanadi .

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ochilova G.O., Akbarova S.SH. (2022). *Kasbiy kompetentlik* Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi
2. To‘xtasinova D.M. (2021). *Zamonaviy ta’limda kasbiy kompetentlikning ahamiyati*. Toshkent: TDPU nashriyoti.
3. Xodjayev Sh. (2019). *Pedagogik mahorat asoslari*. Toshkent: O‘zbekiston pedagogika nashriyoti.
4. Imomova Sh. M. *Kasbiy kompetentsiyalar va ularning o‘ziga xos xususiyatlari.* Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari konferensiyasi 24-to‘plam noyabr 2023
5. Qodirov A. (2022). *Kasbiy kompetentlikni shakllantirishda interfaol metodlarning o‘rni*. // “Ilm-fan va innovatsiya” jurnali, №4.

KOMPYUTER O‘YINLARIGA TOBE O‘SMIRLARNI O‘RGANISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Axmatova Gulxayo,
Navoiy viloyati PMM Ijro intizomi bosh mutaxassisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada kompyuter o‘yinlariga qaramlikka duchor bo‘lgan o‘smirlarning psixologik rivojlanishidagi o‘ziga xos jihatlar, ularning o‘quv faoliyatiga, shaxslararo munosabatlarga bo‘lgan munosabatlari, emotsional va ijtimoiy holatlari tahlil etiladi. Shuningdek, o‘smirlar o‘rtasida ushbu muammoga sabab bo‘luvchi omillar va uni bartaraf etishning psixokorrektsion usullari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotlar natijasi asosida kompyuter o‘yinlariga tobelikni aniqlash va profilaktika qilish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik, kompyuter o‘yinlari, qaramlik, psixologik xususiyatlar, psixokorrektsiya, addiktsiya.

1. Kirish

Bugungi globallashuv jarayonida raqamli texnologiyalarning hayotga kirib kelishi insonning axborot maydonida faol harakat qilishiga imkon bermoqda. Ayniqsa, kompyuter o‘yinlari yoshlar, xususan o‘smirlar orasida keng tarqalmoqda. O‘smirlik – inson hayotidagi muhim bosqich bo‘lib, unda shaxsiylik shakllanishi, ijtimoiy identifikatsiya, hissiy beqarorlik kabi o‘ziga xos psixologik jarayonlar kechadi. Mazkur davrda kompyuter o‘yinlariga haddan tashqari berilish psixik barqarorlikka, ijtimoiy moslashuvga va o‘quv faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning keskin rivojlanishi bilan kompyuter o‘yinlari o‘smirlarning asosiy bo‘sh vaqt mashg‘ulotiga aylangan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, aksariyat o‘smirlar har kuni kamida 1–2 soat vaqtini kompyuter yoki mobil qurilmalardagi o‘yinlarga bag‘ishlaydi. Bu holat ularning ruhiy, ijtimoiy va intellektual rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Maqolada aynan shu ta’sirlar tahlil qilinadi.

Jamiyat hayotiga kompyuter o‘yinlarining kirib kelganligi inson faoliyatida samarali o‘zgarishlarga olib kelmoqda. Kompyuter dasturlari bizga turli ko‘rinishdagi axborotlarni qisqa vaqt ichida tahrirlash, turli ko‘ngil ochar mashg‘ulotlar yani o‘yinlardan foydalana olish imkoniyatini beradi. Masalan aqlli o‘yinlar yoki strategik o‘yinlari o‘smirlarning aqliy rivojlanishiga, mantiqiy fikrlash muammoni hal qilish va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Chet tilini o‘rgatishga mo‘ljallangan interfaol o‘yinlar bolalarda chet tillarini nisbatan tez o‘zlashtirishiga yordam beradi. Bundan tashqari tezkor harakat va reaksiya talab qilinadigan o‘yinlar qo‘l-ko‘z kordinatsiyasi, tezkor qaror qabul qilish va diqqatni jamlash, jamoada ishlash, liderlik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Albatta, kompyuter o‘yinlarining ijobiy tomonlari bilan birgalikda bir qator salbiy tomonlari ham mavjud.

Kundalik hayotda kompyuter o‘yinlarini ko‘p o‘ynash o‘smirlarda kompyuter o‘yinlariga qaramlikni holatini keltirib chiqaradi. Kompyuter o‘yinlariga qaramlik – bu shaxsning virtual muhitga haddan ortiq bog‘lanib qolishi, real hayotdagi faoliyatlardan chetlashishi, psixologik va fiziologik jihatdan o‘yinlarga muhtojlik sezishi holatidir. Psixologik adabiyotlarda bu holat "addiktsiya" atamasi bilan izohlanadi.

O‘smirlik davrida kayfiyat tez-tez o‘zgaradi, o‘smir o‘zining “men” obrazini mustahkamlashga intiladi va kattalar nazoratidan qochishga urinadi. Ushbu jihatlar kompyuter o‘yinlariga bog‘lanish xavfini kuchaytiradi. Chunki virtual olam bu ehtiyojlarni muqarrar ravishda qondirish vositasi sifatida paydo bo‘ladi. Odatda real hayotda, oilaviy munosabatlarda muammolari ko‘p, o‘smirlarda kompyuter o‘yinlariga tobelik ko‘p kuzatiladi. Chunki o‘yinlar real hayotdagi muammolarni unutish, o‘yinlarda muvaffaqiyat hissi orqali o‘zini tasdiqlash imkonini, virtual dunyoda o‘zini erkin his qilish imkonini beradi. Bu holatlar o‘smirlarda kompyuter o‘yinlariga tobelikni kuchaytiradi. Kompyuter o‘yinlarining yana bir salbiy tomoni bu kompyuter

o‘yinlaridagi qonli sahnalar, vahshiy kurashlardir. Bu O‘yindagi bunday holatlar o‘smirlarning psixologiyasiga sekin-sekin tobora chuqur joylashib xarakterdagi yashirin agressiyani qo‘zg‘atadi. Natijada o‘smirlar real hayotdan hayotdagi mas'uliyatlardan chekinishiga, ijtimoiy izolyatsiyaga va o‘ziga bo‘lgan ishonchni yo‘qotishiga olib kelishi mumkin.

O‘smirlar kompyuter o‘yinlarini ko‘proq kechqurun yoki kunning ikkinchi yarimida o‘ynaydilar. Kechqurun o‘yin o‘ynash o‘smirlarning uyqu rejimiga putur yetkazadi. Bundan tashqari, doimiy o‘tirgan holatda bo‘lish orqa va bo‘yin og‘rig‘iga, ko‘zlarning charchashiga olib keladi. Kompyuter o‘yinlariga ko‘p vaqt sarflanishi o‘smirlarning maktabdagi muvaffaqiyatlariga salbiy ta'sir ko‘rsatadi, chalg‘ituvchanlik va konsentratsiya pasayishiga sabab bo‘ladi.

O‘smirlik davri shaxsiylik shakllanishining muhim bosqichidir. Bu davrda kompyuter o‘yinlariga to‘g‘ri yondashish ular rivojlanishga ijobiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Kompyuter o‘yinlari zamonaviy o‘smirlarning hayotida katta o‘rin egallamoqda. biroq noto‘g‘ri yondashuv, ortiqcha vaqt sarfi va salbiy mazmundagi o‘yinlar psixologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, bu sohada ota-onalar, pedagoglar va psixologlar hamkorligida ongli va tartibli yondashuv talab qilinadi. Ota-onalar va pedagoglar nazorati ostida o‘yin vaqti va turi me'yorlashtirilsa, ijobiy ta'sirlar kuchayadi, salbiylar esa kamayadi. Kompyuter o‘yinlariga tobelik o‘smirlar orasida shaxsiy, ijtimoiy va o‘quv sohalarida muammolarni keltirib chiqaradi. Kompyuter o‘yinlari to‘g‘ri foydalanilganda foydali vosita bo‘lishi mumkin. Asosiy masala-balansni topish.. Birinchi navbatda ota-ona o‘z farzandi bilan do‘stona munosabatda bo‘lishi, farzandi bilan o‘yinlar haqida suhbatlashishi va uni tarbiyaviy va bilim beruvchi o‘yinlarga yo‘naltirishi muhimdir. Shu bilan bir qatorda ota-ona o‘z farzandining vaqtini to‘g‘ri taqsimlab sport, san'at, ijodiy to‘garaklar orqali band qilish salbiy ta'sirni kamaytiradi. Chunki o‘smirlarda kompyuter o‘yinlariga qiziqishning asosiy sabablaridan biri bekorchilikdir. O‘smirlarda vaqt to‘g‘ri taqsimlanib, nazorat qilinganda bunday muammolar ancha kamayadi. Ushbu holatning psixologik ildizlarini o‘rganish, o‘z vaqtida aniqlash va kompleks yondashuv asosida bartaraf etish muhim ahamiyatga ega. Psixologik xizmatlar, oila va ta'lim muassasalari hamkorligida amalga oshiriladigan tizimli ishlar bu muammoning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi.

PEDAGOGIK QOBILIYATLARNING SHAKLLANISHIDA KUZATUVCHANLIKNING O‘RNI

Murtozoyeva Dilafruz Muxiddinovna,
Navoiy shahar 8- IDUM o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘qituvchi shaxsida pedagogik qobiliyatlarning shakllanishida kuzatuvchanlikning ahamiyati yoritilgan. Kuzatuvchanlik o‘qituvchining o‘quvchi xulq-atvori, holati, bilim darajasi va shaxsiy imkoniyatlarini aniqlash, individual yondashuvni amalga oshirishdagi asosiy vosita sifatida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Pedagogik qobiliyat, kuzatuvchanlik, o‘qituvchi shaxsi, psixologik xususiyatlar, **pedagogik kuzatuvchanlik**.

Ta'lim-tarbiya sohasida yangi davr boshlanmoqda. Bugungi kunga kelib, o‘qituvchi kasbi va shaxsi oldiga muhim vazifalar qo‘yildi. Faqat ilmi bor o‘qituvchiga emas, balki har tomonlama shakllangan, rivojlanishdan to‘xtamaydigan-zamonaviy o‘qituvchiga ehtiyoj tug‘ildi. Zamonaviy pedagog shaxsiga qo‘yilgan talablarga ahamiyat qaratildi. Bu esa, o‘z navbatida ish unumdorligini oshiradi. Xususan

davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev "farzandlarimizga yuksak mezonlar asosida ta'lim-tarbiya beradigan, yangicha,innovatsion fikrlaydigan muallim va o'qituvchilarni tayyorlash-bu eng og'ir vazifa bo'lib, juda katta mehnat va mas'uliyatni talab etadi" - deya yosh pedagog kadrlarni tayyorlashni "eng og'ir vazifa"deb ta'kidlagan. Ho'sh, endi yetishib chiqayotgan yosh pedagog kadrlar qanchalik talabga javob bera oladi? Bugungi kun talablariga muvofiq bo'lajak o'qituvchi kasbiy sifatlari bilan bir qatorda shaxsiy sifatlarini ham rivojlantirishi lozim. Shaxsiy sifatlar o'qituvchi faoliyatining samaradorligini oshiruvchi muhim omil sanaladi. Bugungi kunda ta'lim tizimida sifatli natijalarga erishish uchun o'qituvchining nafaqat bilimli va malakali bo'lishi, balki psixologik jihatdan tayyor, kuzatuvchan va moslashuvchan bo'lishi zarur. Pedagogik qobiliyatlar deganda o'qituvchining dars jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilar bilan psixologik muloqot o'rnatish, bilimni yetkazish va individual yondashuvni amalga oshirishga qodirlik holati tushuniladi. Ushbu qobiliyatlarning shakllanishida kuzatuvchanlik alohida o'rin egallaydi. Kuzatuvchan o'qituvchi har bir o'quvchining ehtiyojini, o'rganish uslubini va qiyinchiliklarini aniqlab, shunga mos pedagogik yondashuvni tanlay oladi.

Kuzatuvchanlik — bu voqelikdagi narsa va hodisalarni rejali, uzluksiz, batartib, mukammal idrok qilish; voqelikni hissiy bilish uslubi. Kuzatuvchanlik. Aristotel zamonidan hozirgi davrgacha kuzatuvchilarning asosiy tadqiqot vositalaridan biri sanaladi. U hissiy bilishning omillari, xususiyatlari, qonuniyatlari to'g'risida dastlabki tasavvurlar hosil qilishga qaratilgan inson faoliyati shaklidir. Kuzatuvning qay darajada bo'lishi qo'yilgan maqsadning aniqligiga, kuzatilayotgan narsa va voqealar haqida oldindan bilimga ega bo'lishga, kuchli, barqaror diqqat bilan faol fikrlashga bog'liq. Kuzatishdan so'ng tegishli xulosalar chiqariladi, fakt, voqealar nazariy tahlil etiladi, Pedagogik faoliyatda bu sifat o'qituvchining sinfdagi vaziyatni tezda anglash, o'quvchilarning ehtiyojini sezish, individual yondashuvni tanlashga asos bo'ladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yuqori darajadagi pedagogik kuzatuvchanlik quyidagi ko'nikmalarni shakllantiradi:

- o'quvchilarning ruhiy holatini aniqlash;
- dars jarayonida faollik darajasini kuzatish;
- o'quvchilarning individual o'ziga xosliklarini aniqlash;

Pedagogik kuzatuvchanlikni shakllantirish yo'llari. O'qituvchining kuzatuvchanligi quyidagi omillar orqali shakllanadi:

1. **Kasbiy tajriba orttirish** – dars jarayonida ko'p muloqot qilish, o'quvchi xulqini doimiy tahlil qilish.
2. **Refleksiya yuritish** – darsdan so'ng o'zining faoliyati va o'quvchilar ishtirokini tahlil qilish.
3. **Pedagogik kundalik yuritish** – o'quvchilarning rivojlanish dinamikasini yozib borish.
4. **Jamoaviy tahlillar** – dars kuzatuvlari asosida tajriba almashish va tahlil qilish.

Misol tariqasida, darsda jim o'tirgan, biroq o'ta e'tiborli o'quvchini faqatgina kuzatuvchan o'qituvchi sezib, unga individual yondasha oladi. Aks holda, bunday o'quvchi "passiv" deb noto'g'ri talqin qilinishi mumkin.

Kuzatuvchanlik quyidagi pedagogik qobiliyatlarni shakllantirishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi:

- **Didaktik qobiliyat** – o'quvchi ehtiyojiga mos metodni tanlay olish;
- **Psixologik sezgirlik** – o'quvchining hissiy holatini to'g'ri baholay olish;

- **Kommunikativ qobiliyat** – muloqotni o‘quvchining shaxsiy xususiyatlariga moslashtirish;
- **Tashkiliy qobiliyat** – sinfdagi holatni nazorat qilish va boshqarish.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik qobiliyatlarning samarali shakllanishi o‘qituvchining kuzatuvchanlik darajasiga bevosita bog‘liq. Kuzatuvchanlik qadim zamonlardan shakllangan hususiyatlardan biridir. Masalan: Beruniyning fikricha, tarbiyalovchi ta’lim ayni paytda kamol toptiruvchi ta’lim ham hisoblanadi: u kuzatuvchanlik, fikrlash, nutq, xotira va xayolning rivojlanishini ta ’minlaydi, shu tariqa insonni hayotdagi mehnatga tayyorlaydi. Shunday ekan o‘qituvchida yuqori darajadagi kuzatuvchanlik bo‘lsa, u o‘z faoliyatini ongli ravishda boshqaradi, o‘quvchilarning ehtiyojini to‘g‘ri aniqlaydi va ularga individual yondashadi. Bu esa ta’lim jarayonining sifatini oshirishda asosiy omillardan biridir. Shu bois, pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida kuzatuvchanlikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mavlonova R., Voxidova N., Raxmonqulova N,. *Pedagogika nazariyasi va tarixi*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010.
2. O‘qituvchi psixologiyasi. Arxiz.uz
3. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2011.
4. Shodmonov Sh.S. *Umumiy psixologiya*. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2020.
5. Nuraliyeva N. *O‘qituvchi shaxsida kuzatuvchanlikning shakllanishi*. // Psixologiya va pedagogika ilmiy jurnali, 2023, №2.

TAYM MENEJMENTINING TA’LIM SIFAT VA SAMARADORLIKKA TA’SIRI

Hamdamova Ra’no G‘ayratovna,
Navoiy viloyati PMM metodisti

Annotatsiya:Ushbu maqolada taym menejmentning ta’lim sifatiga va samaradorligiga ta’siri tahlil qilinadi. Vaqtni to‘g‘ri boshqarish pedagoglar va o‘quvchilar uchun ta’lim jarayonini samarali tashkil etishning muhim jihati hisoblanadi. Maqolada ilmiy adabiyotlar, kuzatuv va tajribalar asosida taym menejment tamoyillarining ta’lim jarayoniga ijobiy ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, vaqtni samarali boshqarish ta’lim sifati, bilim olish jarayoni va akademik natijalarni yaxshilashga yordam beradi. Shuningdek, maqolada ta’lim tizimida vaqtni boshqarish madaniyatini rivojlantirish va ilg‘or usullarni qo‘llashning ahamiyati muhokama qilinadi.

Abstract: This article analyzes the impact of time management on the quality and effectiveness of education. Proper time management is an important aspect of effective organization of the educational process for teachers and students. The article studies the positive impact of time management principles on the educational process based on scientific literature, observations and experiments. The results of the study show that effective time management helps to improve the quality of education, the learning process and academic results. The article also discusses the importance of developing a culture of time management in the education system and applying advanced methods.

Kalit so‘zlar: taym menejment, ta’lim sifati, samaradorlik, vaqtni boshqarish, akademik natijalar, pedagogika, o‘quv jarayoni

Keywords: time management, quality of education, efficiency, time management, academic results, pedagogy, educational process

Ta’lim sifati va samaradorligi zamonaviy jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biridir. Bugungi kunda pedagoglar va o‘quvchilar samarali ishlashi uchun vaqtni to‘g‘ri boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir fan odatda o‘ziga xos topshiriqlar, turli uyga vazifalar, o‘qishlar va imtihonlar to‘plami bilan birga keladi, bularning barchasi alohida vaqt va kuch talab qiladi. O‘quvchilar loyihalarni ko‘pincha hamkorlikda bajaradilar, bu tengdoshlar bilan muvofiqlashtirish va belgilangan muddatlarga rioya qilishni talab qiladi. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar shaxsiy o‘sish va ijtimoiy faollik uchun foydali bo‘lsa-da, o‘quvchilar duch keladigan vaqt cheklovlarini yanada kuchaytiradi. Ushbu bo‘ron o‘rtasida vaqtni boshqarish yuqoridagi talablarni o‘z vaqtida bajarish uchun zarur mahorat sifatida paydo bo‘ladi. Taym menejment konsepsiyasi aynan shunga xizmat qilib, o‘qitish jarayonining sifatini oshirishga, o‘quvchilarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi.

Khan akademiyasi tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar vaqtni rejalashtirish va dars o‘tishning muvaffaqiyati o‘rtasida sezilarli bog‘liqlikni aniqladi. Strukturaviy jadvallar bilan o‘quvchilar o‘qish, topshiriqlarni bajarish va darsdan tashqari mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanish uchun ma’lum vaqt oralig‘ini ajratadilar, bu esa o‘quv natijalarini yaxshilashga olib keladi. Ushbu tizimli yondashuv nafaqat o‘quvchilarning barcha kerakli materiallarni qamrab olishini ta’minlabgina qolmay, balki topshiriqni bajarish jarayonidagi oxirgi daqiqalarda siqilishning oldini oladi. Vaqtni puxta rejalashtirish o‘quvchilarga o‘zlarining akademik mas’uliyatlarini shaxsiy va ijtimoiy faoliyat bilan muvozanatlash imkonini beradi, bu esa har tomonlama va kamroq stressli ta’lim tajribasini yo‘lga qo‘yilishiga imkon beradi. Rejalashtirish va ustuvorliklarni belgilash kabi samarali vaqtni boshqarish xatti-harakatlarini o‘z ichiga olgan kundalik tartiblar akademik muvaffaqiyat uchun juda muhimdir. Khan akademiyasi ta’kidlaydiki, ustuvor vazifalar bilan kundalik tartiblarni ishlab chiqadigan va ularga rioya qilgan o‘quvchilar yuqori akademik standartlarga erishadilar. Bu topshiriqlar bilan birga keladigan tartibsizliklarning oldini olish orqali stress darajasini pasaytiradi. Har bir mashg‘ulotning muhimligi va muddatiga o‘z ustuvorliklarini to‘g‘ri belgilash o‘quvchilarga ustuvor vazifalarni boshlashga yordam beradi. Aduke ta’kidlaganidek, kechiktirish va vaqtni samarasiz boshqarish stress darajasini oshiradi va akademik ko‘rsatkichlarni pasaytiradi. Takomillashtirilgan vaqtni boshqarish strategiyalari orqali ushbu muammolarni hal qilish o‘quvchilarning ilmiy natijalarini sezilarli darajada oshirishi mumkin, bu ularga sog‘lom va muvozanatli turmush tarzini saqlab, maktabda yaxshiroq o‘qish imkonini beradi.

Vaqtni boshqarishda taym menejment ko‘nikmalari va ularning ta’siri

1. **Rejalashtirish:** Samarali rejalashtirish aniq maqsadlar qo‘yish va ularga erishish uchun qadamlarni belgilashni o‘z ichiga oladi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, o‘z vaqtini yaxshi rejalashtirgan o‘quvchilar yuqori akademik natijalarga erishish ehtimoli ko‘proq. O‘quvchilarni kundalik va haftalik faoliyatini rejalashtirishga undash ularga tartibli bo‘lishga yordam beradi. Raqamli vositalardan vazifalarni rejalashtirish va o‘quvchilarga vaqtlarini samaraliroq boshqarishga yordam berish uchun eslatmalar o‘rnatish uchun ham foydalanish mumkin. 2018-yil Baker va boshqa tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan eksperimental tahlil shuni ko‘rsatdiki, rejalashtirish tadbirlari, ayniqsa, vaqtni boshqarishning boshlang‘ich ko‘nikmalariga ega bo‘lmagan o‘quvchilar uchun dastlabki akademik ko‘rsatkichlari yaxshilagan.

2. **Ustuvorlik:** O‘quvchilar ustuvor vazifalarni aniqlash va ularga e’tibor qaratish orqali o‘z vaqtlari va resurslarini samaraliroq taqsimlashlari mumkin. Razali tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, o‘z vazifalarini samarali ravishda birinchi o‘ringa qo‘yadigan o‘quvchilar akademik jihatdan yaxshiroq natijalarga erishadilar.

3. **Maqsadni belgilash:** Aniq, o‘lchanadigan, erishish mumkin, tegishli va vaqt bilan bog‘liq (SMART) maqsadlarni belgilash ham vaqtni yaxshi boshqarishning yana bir jihati hisoblanadi. Maqsadlar o‘quvchilarga yo‘nalish va motivatsiya beradi. Aniq maqsadlarni qo‘ygan o‘quvchilar muvaffaqiyatga erishish ehtimoli ko‘proq.

4. **Kechiktirishdan qochish:** Vaqtni samarali boshqarish uchun keng tarqalgan to‘siqlardan biri bu kechiktirishdir. Bu ko‘pincha so‘nggi daqiqalarda shoshqaloqlik va stressning kuchayishiga olib keladi, bu esa o‘quvchilarning natijalariga salbiy ta’sir qiladi.

5. **Moslashuvchanlik:** Kutilmagan hodisalar ro‘y berganda rejalarni o‘zgartirishda moslashuvchanlik vaqtni boshqarishning yana bir muhim mahoratidir. O‘z maqsadlariga e’tiborini yo‘qotmasdan o‘zgarishlarga moslasha oladigan o‘quvchilar yuqori akademik ko‘rsatkichlarni saqlab qolish ehtimoli ko‘proq.

Bundan tashqari, ta’lim muassasalarida samarali vaqtni boshqarish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari tahlil qilinganda, o‘quvchilarning o‘qish jarayonida vaqtni qanday boshqarishi, o‘qituvchilarning dars jadvali va vaqtni rejalashtirishga yondashuvlari ham ta’sir ko‘rsatadi. Maktab rahbariyati tomonidan ba’zida noto‘g‘ri taqsimlangan dars jadvali o‘quvchilarda stressli jarayonlarga ham sabab bo‘ladi. Taym menejmentga amalga qilgan o‘quvchi va o‘qituvchilarda ta’lim jarayonida yuqori samaradorlikka erishiladi. Darslarda qatnashish, imtihonlarda o‘qish, do‘stlar orttirish, dam olishga va siqilishga vaqt ajratish o‘quvchilarning jadvalini tezda to‘ldirishi mumkin. Vaqtni boshqarish faqat ishni bajarishdan iborat emas. Bu, shuningdek, insonning o‘zini va ruhiy farovonligini birinchi o‘ringa qo‘yishni ta'minlash haqida. Inson o‘zi uchun vaqt ajratishni jadvalga doimiy ravishda kiritishi ruhiy salomatlik va hayotini muvozanatda saqlashga yordam beradi. Bundan tashqari, stressli davrlarni boshdan kechirayotganda kutadigan narsalarga ega bo‘lish foydali bo‘lishi mumkin.

O‘rganilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, vaqtni samarali boshqara olgan o‘quvchilar va pedagoglar ta’lim jarayonida yuqori natijalarga erishadilar. Tadqiqotlar vaqtni to‘g‘ri taqsimlash quyidagi natijalarga olib kelishini ko‘rsatdi:

- O‘quvchilarning bilim olish sifati va xotirada saqlash qobiliyati oshadi.
- O‘qituvchilarning darsga tayyorgarligi va metodik yondashuvlari yaxshilanadi.
- O‘quv jarayonida ortiqcha stress va kechikishlar kamayadi.
- Ta’lim muassasalarida intizom oshib, akademik samaradorlik ortadi.

Taym menejment texnikalaridan foydalanish ta’lim jarayonini samarali tashkil etishning muhim omillaridan biridir. O‘qituvchilar va o‘quvchilar vaqtni to‘g‘ri rejalashtirish orqali o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlariga samarali erishishlari mumkin. Shu bilan birga, ta’lim tizimida vaqtni boshqarish bo‘yicha seminar va treninglar tashkil etish ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari ko‘rsatdiki, vaqtni noto‘g‘ri boshqarish ta’lim jarayonining sifatsiz tashkil etilishiga, o‘quvchilar va o‘qituvchilarning stress darajasi oshishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu sababli, taym menejment strategiyalarini ta’lim tizimiga integratsiya qilish zarurati mavjud. Vaqtni boshqarish o‘qituvchilar va o‘quvchilarning muvaffaqiyati va samaradorligida muhim rol o‘ynaydigan hal qiluvchi mahoratdir. Tez sur’atlar bilan rivojlanayotgan ta’lim dunyosida, son-sanoqsiz vazifalar va mas’uliyatlar mavjud bo‘lib, taym menejment ko‘nikmalariga ega bo‘lish juda

muhimdir. Bu o‘qituvchilarga darslarni samarali rejalashtirish, topshiriqlarni baholash va belgilangan muddatlarga rioya qilish imkonini beradi, shu bilan birga o‘quvchilar o‘zlarining akademik yuklamalari, darsdan tashqari mashg‘ulotlar va shaxsiy majburiyatlarini muvozanatlashlari mumkin. Ta’limda vaqtni boshqarishning ahamiyatini tushunish bu mahoratni rivojlantirish yo‘lidagi birinchi qadamdir. Vaqtni boshqarish o‘qituvchilarga tartibli sinf muhitini yaratishga yordam beradi, bunday sinfda o‘quvchilar akademik rivojlanish va muhim hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirishlari mumkin. Bu, shuningdek, o‘quvchilarga vaqtlaridan unumli foydalanish imkonini beradi, ular belgilangan muddatlarga rioya qilishlari, topshiriqlarni bajarishlari va shaxsiy o‘sish uchun vaqt topishlari mumkin. O‘qituvchilar uchun vaqtni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish ularning kasbidagi rolini tushunishdan boshlanadi. Vaqtni samarali boshqarish o‘qituvchilarga o‘z vaqtlarini oqilona taqsimlash imkonini beradi, ular qiziqarli darslarni rejalashtirishlari, o‘quvchilar bilan o‘z vaqtida fikr-mulohazalarini almashishlari va hamkasblari bilan samarali hamkorlik qilishlarini ta’minlaydi. Prioritetlashtirish usullari, vazifalar ro‘yxati va raqamli taqvimlar kabi vositalar va usullardan foydalanish o‘qituvchilarga tartibli bo‘lishga va ularning samaradorligini oshirishga yordam beradi. Biroq, vaqtni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish qiyinchiliklarsiz kelmaydi. Kechiktirish, chalg‘itish va haddan tashqari ko‘p ish qilish hissi kabi umumiy to‘siqlar vaqtni samarali boshqarishga halaqit berishi mumkin. O‘qituvchilar ham, o‘quvchilar ham vaqtni behuda sarflashni aniqlashlari va hal qilishlari, bir nechta mas’uliyatni muvozanatlash uchun strategiyalarni amalga oshirishlari va charchashning oldini olish uchun stressni boshqarishlari kerak.

Taym menejment ta’lim sifatini oshirish va samaradorlikni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Vaqtni to‘g‘ri taqsimlash orqali o‘quv jarayoni samarali tashkil qilinib, pedagoglar va talabalarning natijalari yaxshilanadi. Shu bois ta’lim tizimida vaqtni boshqarish madaniyatini rivojlantirish, bu borada ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish va ilg‘or usullarni qo‘llash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, vaqtni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun juda muhimdir. Ta’limda vaqtni boshqarishning ahamiyatini tushunish, samarali strategiyalarni amalga oshirish va umumiy muammolarni bartaraf etish orqali o‘qituvchilar va o‘quvchilar mehnat unumdorligini oshirishi, stressni kamaytirishi va o‘z maqsadlariga erishishi mumkin. Asboblar va usullardan foydalanish, rejalashtiruvchilar va jadvallardan foydalanish yoki vaqtni boshqarish bo‘yicha mashg‘ulotlarni sinfga kiritish orqali bo‘ladimi, vaqtni boshqarish ko‘nikmalarini egallash ta’lim sifatiga chuqur ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Sinfda vaqtni boshqarish usullarini tatbiq etish orqali o‘qituvchilar o‘quvchilarga o‘z vaqtlarini nazorat qilish, vazifalarni samarali belgilash va butun umr davomida tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishlari mumkin. O‘quvchilarni interfaol tadbirlar orqali jalb qilish, vaqtni boshqarish bo‘yicha darslarni o‘quv dasturiga kiritish va izchil vaqtni boshqarish odatlarini rivojlantirish o‘quvchilarni nafaqat akademik, balki kelajakdagi ishlarida ham muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qo‘chqorov, S. (2020). Ta’lim tizimida samarali boshqaruv va vaqt menejmenti. Toshkent: Fan va texnologiya.
2. Karimov, U. (2018). Pedagogik menejment asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.

3. Yo‘ldoshev, B. (2021). Zamonaviy ta’lim jarayonida vaqtni boshqarishning ahamiyati. O‘zbekiston pedagogika jurnali, 4(2), 45-53.
4. Covey, S. R. (1989). The 7 Habits of Highly Effective People. New York: Free Press.
5. Drucker, P. (2006). The Effective Executive: The Definitive Guide to Getting the Right Things Done. New York: Harper Business.
6. Britton, B. K., & Tesser, A. (1991). Effects of Time-Management Practices on College Grades. Journal of Educational Psychology, 83(3), 405-410.
7. Tracy, B. (2013). Time Management: The Brian Tracy Success Library. New York: AMACOM.

O‘QUVCHI YOSHLARNI KASBGA YO‘NALTIRISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING AYRIM MASALALARI

Raxmatova Sevara Abdulloyevna,
NavDU o‘qituvchi

Annotasiya: O‘quvchi-yoshlarni kasb tanlashga va kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishlariga tayyorlash – zamonaviy ta’limning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. O‘quvchi-yoshlarning ta’limdagi muvaffaqiyati va kasbiy rivojlanish trayektoriyasi, ko‘p jihatdan, maktab bosqichida kasbga yo‘naltirish hamda karyera rejasini ongli va asosli shakllantirish bilan bog‘liq bo‘ladi. Chunki mehnatsevarlik fazilati maktab davrida shakllanadi hamda o‘quvchi-yoshlar o‘zini-o‘zi kasbiy belgilashining muvaffaqiyatini belgilashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tayanch so‘zlar:kasbiy deformatsiya,kasbga qiziqtirish, o‘quvchi-yoshlar, kasbga yo‘naltirish, mehnat bozori, kasbiy axborot, kasbiy maslahat, karyera rejasi, kasbiy diagnostika, malaka talablari, kasbiy tayyorlik.

Аннотация: Подготовка учащейся молодежи к выбору профессии и успешному осуществлению профессиональной деятельности является одной из основных задач современного образования. Успешность образования и траектория профессионального развития учащейся молодежи во многом зависят от профессиональной ориентации, осознанного и обоснованного формирования карьерного плана на уровне школы. Потому что добродетель трудолюбия формируется в школьные годы и служит важным фактором, определяющим успешность профессионального самоопределения молодых учащихся.

Ключевые слова:профессиональная деформация ,интерес к профессии, учащаяся молодежь, профессиональная ориентация, рынок труда, профессиональная информация, профессиональное консультирование, карьерный план, профессиональная диагностика, квалификационные требования, профессиональная готовность.

Annotation: Preparing students for choosing a profession and successfully implementing professional activities is one of the main tasks of modern education. The educational success and professional development trajectory of students are largely related to the orientation to the profession at the school level and the conscious and well-founded formation of a career plan. Because the quality of hard work is formed during school and serves as an important factor in determining the success of students' professional self-determination.

Keywords: professional deformation, interest in the profession, school students, professional orientation, labor market, professional information, professional

counseling, career plan, professional diagnostics, qualification requirements, professional readiness.

Kirish. Hozirgi kunda yoshlarni kasb-hunar egallashga tayyorlash masalasi davlat miqyosidagi eng dolzarb vazifalardan biri bo‘lib, bu maqsadga erishishning o‘ziga xos nazariy muammolari ham mavjud. Bunday muammolardan biri – o‘quvchilarni ularning qobiliyatlaridan kelib chiqib turli kasblarga yo‘naltirishdir. Bu esa, o‘z navbatida, maktablarda o‘quvchilarni kasb-hunar tanlashga yo‘naltirish ishlarini zamonaviy kishilik jamiyatida kasb egasiga qo‘yiladigan talablarga to‘liq javob beruvchi mutaxassisni shakllantirishning yangi, samarador va har tomonlama qulay bo‘lgan yo‘l va vositalar yordamida tashkil etilishini taqazo qiladi.

Zamonaviy ta'limning muhim vazifalaridan biri – o‘quvchi-yoshlarni voyaga yetganda kasb tanlashga va kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga tayyorlash bo‘lib, ushbu funksiya ta'lim va tarbiya bilan chambarchas bog‘liqdir. Biroq, so‘nggi yillarda, respublikamizning o‘rta umumta'lim maktablarida beriladigan ta'lim sifati o‘quvchilarni kasb-hunarga qiziqishi va shaxsiy karyera rejalarini ongli va asosli shakllanishi kabi mezonlar bo‘yicha baholanmay, asosan, bitiruvchilarning oliy ta'lim muassasalariga o‘qishga kirishi bilan belgilanmoqda.

Zamonaviy maktab zimmasiga o‘quvchilar, ularning ota-onalari va kadrlar tayyorlash sifati uchun davlat oldidagi mas'uliyat kabi muhim va murakkab vazifalar yuklanganligiga qaramay, o‘quvchi-yoshlarning ta'limdagi muvaffaqiyati va ta'lim trayektoriyasi maktab bosqichida kasbni to‘g‘ri tanlashlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Chunki yoshlarni mehnat bilan bandligining muvaffaqiyati maktabda shakllanadi hamda kasb-hunar ta'limi tizimida va mehnat bozoriga kirishda amalga oshiriladi. Bu esa, o‘z navbatida, maktab ta'limining sifati o‘quvchilar kasbiy o‘zini o‘zi belgilashlarining muvaffaqiyati bilan uzviy bog‘liq ekanligini anglatadi.

Mavzuning dolzarbligi. Maktabda kasb-hunarga yo‘naltirish ishi o‘quvchilarni qobiliyat va extiyojlari, u yoki bu kasbni tanlashga bo‘lgan xohish, mayl va qiziqishlari hamda ularga ta’sir qiluvchi omillarni hisobga olib tashkil etiladigan g‘oyat muhim vazifa hisoblanadi. Shu bilan birga, maktab o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish o‘qituvchi-pedagoglardan g‘oyat katta mas’uliyat va mahorat talab qiladi.

O‘quvchilarning kasbiy rivojlanishi quyidagi manbalar ta'sirida amalga oshiriladi: 1) kasblarni tanlashga oid materiallar; 2) "Kelajak kundaligi" - o‘ttiz yoshda ish va turmush tarzi bo‘yicha sub'ekt erishadigan natijaning tavsifini olish maqsadida o‘tkaziladigan so‘rovnoma; 3) "Oilaviy mehnat namunalari" - ish va oilaviy hayotning mavjud namunalari tavsifini olish maqsadida o‘tkaziladigan so‘rovnoma; 4) karyeraga ta'sir qiluvchi guruxlarga bo‘lingan omillarni o‘rganish va ularni refleksiya qilish: oilaviy, ijtimoiy, individual, ijtimoiy-iqtisodiy, qisqa vaziyatli va psixo-ijtimoiy-emosional [Kirby C.A., 1988].

O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish amaliyotlari xilma-xil bo‘lishiga qaramasdan, ularning negizi, asosi bitta ya'ni bunda mazkur amaliyotlar har-bir hududning ehtiyojlaridan kelib chiqib amalga oshirilgan va, ehtimol, shu sababli ham ular nisbatan samaralidir [Murashev A., 2019].

Muhokama va natijalar.Maktabda kasbga yo‘naltirish bo‘yicha asosiy tadbirlarga quyidagilar kiradi: shaxsning kasbiy yo‘nalishini psixologik diagnostikasi; o‘quvchilar uchun individual psixologik maslahatlar; o‘quvchilar uchun kasbiy o‘zini o‘zi belgilash masalalari bo‘yicha oilaviy maslahat; taklif etilgan turli kasb vakillari bilan kasbga yo‘naltirish soatlari; kasbga yo‘naltirish darslari; korxonalarga tematik ekskursiyalar;

ochiq eshiklar kunlariga tashrif buyurish; kasbiy yo‘nalish bo‘yicha shahar tadbirlarida ishtirok etish.

Kasbga yo‘naltirish uzoq va tizimli rivojlanish tarixiga ega bo‘lib, muntazam ravishda jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda takomillashib borgan. Shuning uchun ham O‘zbekistonda o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda yangicha yondashuv zarur ya'ni mazkur masalani hal qilishda milliy mehnat bozori va har-bir hududning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o‘quvchi-yoshlarning individual xususiyatlari va manfaatlarini hisobga olish, maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Kasbga yo‘naltirish to‘liqsiz o‘rta maktabni bitirishidan ikki yil avval boshlanib, o‘quv jarayoniga integrasiyalashgan bo‘ladi. Bola ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlanishi uchun 13-14 yosh eng mos keladigan davr hisoblanadi.

Maktabning kasbga yo‘naltirish tizimi o‘quvchilarga karyera rejalarini shakllantirish borasida maxsus va individual maslahatlar berish, bitiruvchilarni ishga joylashishlarida ko‘maklashish, shuningdek, ularning kelajakdagi kasbiy faoliyati trayektoriyasini nazorat qilishdan iborat. Karyera rejasi o‘quvchining bevosita ishtirokida, uning shaxsi va individualligiga yo‘naltirilgan tarzda, mehnat bozorining ehtiyojlarini hisobga olib shakllantiriladi va rivojlantiriladi. Zarur hollarda, mavjud holatlardan kelib chiqib, o‘quvchi o‘z karyera rejasiga qo‘shimcha va tuzatishlar kiritishi mumkin.

Kasbga yo‘naltirish tadbirlari o‘quvchilarni kasbiy yo‘nalishini diagnostika qilish, ularga individual psixologik maslahat berish, ota-onalar uchun o‘quvchilar kasbiy o‘zini o‘zi belgilashiga oid maslahat berish, kasb vakillari ishtirokida kasbga yo‘naltirish soatlari va kasbiy maslahatchilar tomonidan kasbga yo‘naltirish darslarini tashkillashtirsh, korxonalarga tematik ekskursiyalar va ochiq eshiklar kunlariga hamda shahar tadbirlarida tashrif buyurish, maktab va boshqa tashkilotlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning mexanizmlari, texnologiyalari va shakllarini belgilash kabi vazifalardan iborat

O‘quvchilarning kasbiy moslashuvi samaradorligi o‘z qobiliyatlari va ko‘nikmalarini amaliy tajriba orttirish jarayonida qiyoslash imkoniga ega bo‘lishlariga bog‘liq. Shu sababli maktablarda o‘quvchilarning kasbiy amaliyoti bilan bir qatorda kasbiy diagnostika va kasbiy maslahat ishlari maxsus reja asosida, muntazam ravishda olib boriladi.

O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda quyidagi tamoyillarga tayaniladi:

– maktabda nazariy bilimlarni kasbiy faoliyatda qo‘llash hamda kasbga yo‘naltirish tizimini inson hayoti davomida kasbiy qo‘llab-quvvatlash tizimiga integrasiya qiladigan ta'lim berish;

– o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish ishlarida ota-onalarning faol ishtirok etishi;

– o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda ularning individual xususiyatlari hamda mahalliy va milliy mehnat bozorlarining ehtiyojlarini hisobga olish;

– kasbiy maslahat beradigan mutaxassisning yuqori darajada kompetentlikga ega bo‘lishi;

– ta’limda muvaffaqiyat qozona olmagan o‘quvchi-yoshlarning mehnat bilan bandligini ta’minlash;

– o‘quvchilarda o‘z-o‘zini tahlil qilish va kasblarni tahlil qilish qobiliyatini shakllantirishga yo‘naltirish.

Kasbga yo‘naltirish va kasbiy maslahat berish uchun mutaxassis ushbu soha bo‘yicha kamida magistr darajasiga ega bo‘lishi talab qilinadi. Kasbiy maslahatchi o‘z faoliyatini quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiradi:

– o‘quvchilarni kasblarning turlari va mehnat bozoridagi vaziyat to‘g‘risida xabardor qilish;

– kasblar mazmuni to‘g‘risida ma’lumot izlashda yordam berish;

– kasbga yo‘naltirish darslarini uslubiy ta'minotini amalga oshirish;

– maktab o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish masalalari bo‘yicha o‘qituvchilar va ota-onalar bilan hamkorlik qilish.

Xulosa. Shunday qilib, o‘quvchi-yoshlarni kasbga yo‘naltirish ishlari tizimli xarakterga ega bo‘lib, u davlat darajasida tegishli normativ aktlar asosida tartibga solinadi, kasbga yo‘naltirish muddati, uni amalga oshirish shakllari va usullarining aniq belgilanganligi hamda ushbu soha mutaxassislari uchun maxsus malaka talablari ishlab chiqilganligi diqqatga sazovordir. Xorijda maktab o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish tizimli va individual yondashuv asosida ishlash tamoyillariga asoslangan bo‘lib, maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lgan mutaxassislar tomonidan o‘quvchilar, o‘qituvchilar va ota-onalar bilan o‘zaro hamkorlikda amalga oshiriladi.

Shubhasiz, o‘quvchi-yoshlarni kasbga yo‘naltirish sohasidagi zamonaviy tajribalarni yanada chuqurroq va tizimli ravishda o‘rganish hamda xalqimizning boy tarixi, urf-odatlari va qadriyatlarini hisobga oligan holda maktablarda amaliyotga jorish etish respublikamizda bandlik muammosini hal etishda ijobiy qadam bo‘lib xizmat qilishi aniq. Bundan tashqari, o‘quvchi-yoshlarni kasbga yo‘naltirishni tizimli yo‘lga qo‘yish, maktab o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish tizimini insonga butun umri davomida kasb-hunar ta'limi va kasblar olamida hamrohlik qilishning keng tizimiga integrasiyalashuvini ta'minlash uchun tarmoqdagi barcha o‘zaro manfaatdor tashkilotlar, maktab jamoasi va ota-onalarning samarali hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqilishi taqozo etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Александрова Н.А., Брюхова О.Ю. Профессиональная ориентация в фокусе внимания государства: проблемы, противоречия, пути решения // Исторические, философские, политические и юридические науки, культурология и искусствоведение. Вопросы теории и практики, 2016. – № 9. С. 13-16.

2. Амбарова П.А., Немировский М. В. Новые подходы к профессиональной ориентации в школе в условиях изменяющегося мира профессий // Образование: вызовы нового времени / Известия Уральского федерального университета. Серия 1. Том 26, № 1 (2020) https://journals.urfu.ru/index.php/Izvestia1/issue/view/385. –С. 188-199.

3. Гриншпун С.С. «Академия Х»: подготовка американских школьников к жизни и труду / Педагогика. – 2006. - №4. – С. 103-108

4. Гриншпун С.С. Профессиональная ориентация школьников в США // Педагогика. – 2005. №9. – С. 65-72.

5. Fitzenberger B, Hillerich-Sigg A. and Sprietsma M. Different counselors, many options: Career guidance and career plans in secondary schools // German Economic Review 21, no. 1 (April 28, 2020): 65–106. http://dx.doi.org/10.1515/ger-2019-0027.

AKADEMIK LITSEY O‘QUVCHILARDA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Toshkenboyev Navro‘zbek Qosimjon o‘g‘li,
Andijon akademik litseyi huquq fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada akademik litsey o‘quvchilarda umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish holati, mazmuni hamda unung nazariy asoslari bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: madaniyat, ma’naviyat, imkoniyatlar, madaniyatni shakllantirish, bilim, nazariya.

Umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishning regulyativ funksiyasi jamiyat a’zolarining yurish-turishi va xulq-atvorining ijobiy, barchaga maqbul qoidalarini o‘rnatish, ijtimoiy munosabatlarni yuridik tashkil etish, kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalarni uyg‘unlashtirish va barqarorlashtirishdan iborat. Bu funksiya doirasida huquqiy ta’sirning yana ikki – regulyativ-statik va regulyativ-dinamik huquqiy funksiyalar yo‘nalishi haqida so‘z yuritish mumkin. Umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishning regulyativ funksiyasi demokratik huquqiy davlatni shakllantirish va adolatli fuqarolik jamiyatini vujudga keltirishni ta’minlovchi nazariy va tashkiliy faoliyat bilan bog‘liq. Bu funksiya umumiy va shaxsiy manfaatlarni insoniyat ijtimoiy rivojlanishining markaziga qo‘yish, shaxsning har tomonlama kamol topishi uchun muhit yaratish, unga zarur mehnat va hayot sharoitini yaratish, siyosiy erkinligini ta’minlashga yordam beradi. Bu funksiya umuminsoniy ahamiyatga ega bo‘lgan ma’naviy kafolatlarni, ya’ni rostgo‘ylik, insof, diyonat, ezgulik, shafqat, vijdon, insoniy qadrqimmat va tanlov erkinligini qamrab oladi. [87].

Umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishning normativ funksiyasi aksiologik (baholovchi) tavsiflar tizimi yordamida aks ettiriladi. U turli hodisa va faktlarda, ma’lum bir ahamiyat kasb etgan ongli shaxslar harakatida o‘z aksini topadi. Shundan kelib chiqqan holda, normalar boshqa jamiyatning madaniyatini tashkil qiluvchi elementlarni baholovchi obyekt sifatida maydonga keladi. Umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishning normativ funksiyasi normalarida nazarda tutilgan harakat namunalariga mos holda atrofdagi voqelikni o‘zgartirishda erishilgan natijaga nisbatan munosabatda o‘z aksini topadi. Umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishdagi baholovchi faoliyat shaxs, huquq xizmatchilari jamiyati, qonunchilik, tartib-intizom, munosabatlar, boshqaruv mexanizmi (tegishli huquqiy ahamiyatga ega bo‘lgan) “o‘lchovidan” tashkil topadi.

Umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishning sotsiologik funksiyasi shaxsning sifatlari shakllanishi tizimi orqali o‘rganib chiqilishi mumkin. Shubhasiz bunday jarayonga voqelik muayyan darajada ta’sir o‘tkazadi. Shu bilan birga, maqsadli tarbiyaviy ishlarni olib borish, aholining ta’limini tashkil qilish chorasini ko‘rish, ularga yordam ko‘rsatish, shaxsning o‘zini o‘zi tarbiyalash jarayonini faollashtirish zarur.

Umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishning prognostik (bashorat qilish) funksiyasi ijodkorligini qo‘llash, mustahkamlash, fuqarolarning huquqqa mos xatti-harakati, faolligini, butun huquqiy tizim uchun xos bo‘lgan an’analarni o‘z ichiga oladi. Hozirgi vaqtda ilmiy bashorat qilish va rejalashtirishning elementlari qonunchilik faoliyatida kuchayib bormoqda. Bularning barchasi, albatta, madaniyatga ta’sir qiladi. Shu bois madaniyatni shakllantirishda huquqiy taraqqiyotning istiqboldagi ijobiy, yuksakroq ideal modelini ko‘zlagan hamda tasavvur etgan holda ish tutish lozim.

Umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirish kommunikativ funksiyani ham bajaradi. U fuqarolarning doiradagi muloqotini ta’minlar ekan, shu muloqot orqali mavjud

bo‘ladi va ta’sir etadi. Bu yerda fuqarolarning faqat harakat doirasidagi bevosita muloqoti, shuningdek, bizga shaxsan notanish bo‘lgan, bizdan makon va zamonda ajralib turgan tengdoshlarimiz, o‘tmish avlodlarimiz bilan bevosita «muloqoti» nazarda tutilmoqda. Bunday muloqot yozma yuridik asarlar vositasida ta’minlanadi. Bugungi kunda u ommaviy axborot vositalarining takomillashuvi bilan yanada rivojlanadi. Muloqot subyektlararo o‘zaro ta’sir formulasi bo‘lib, huquq doirasida erkin va kamyob mohiyat sifatida namoyon bo‘ladi. Bu funksiyani o‘zlashtirish madaniy merosga, zamonaviy madaniyatni uning boshqa ko‘rinishlariga nisbatan o‘zlashtirishga yordam beradi. Har bir jamiyatning madaniyati boshqa jamiyat madaniyatining o‘zaro ta’sirisiz muvaffaqtiyatli rivojlana olmaydi. Umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirish hozirgi va o‘tmish davr huquqiy madaniyatining ilg‘or yutuqlarini o‘zida mujassamlashtirishi lozim. Umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishning kommunikativ funksiyasi faqat «bugungi» boshqaruv doirasida tashkil topish bilan cheklanmaydi. U madaniyatning rivojlanishini rejalashtirish va bashorat qilish, umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirishni vujudga keltirish va uni rivojlantirish uchun zaruriy element sifatida namoyon bo‘ladi.

Modelning mazmunga oid komponentida huquqiy madaniyat turlari (subyekt bo’yicha: individual, guruh, jamoat) ko’rsatilgan:

individual – shaxsning o’zigagina xos bo’lgan, katta hajmda bo’lmagan va uning tarbiyasidan kelib chiqadigan jamoat – muayyan davlatda istiqomat qiladigan jamiyat a’zolarining ta’lim va madaniyati darajasi;

Modelning mazmunga oid komponentida Umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirish tiplari (normativ, axloqiy) ko’rsatilgan:

normativ – ma’lum yuridik shakllarda, yuridik manbalar (farmon, qaror)da namoyon bo’luvchi ijtimoiy xulq-atvor qoidalariga amal qilish;

axloqiy – jamoatchilik fikri ifodalangan va jamoatchilik fikri orqali ta’minlanishida kishining jamiyatdagi xulqini normativ tartibga solib turuvchi, yozilmagan xulq atvor qoidalariga amal qilishi.

Akademik litsey o‘quvchilarining akademik litsey o‘quvchilarining umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirish ta’lim metodlari ta’limning og‘zaki, ko’rgazmali, amaliy, muammoli izlanish, mustaqil ishlar, reproduktiv evristik, induktiv va deduktiv, nazorat va o’z-o’zini nazorat qilish metodlarini o’z ichiga oladi:

ta’limning og‘zaki metodi – bilim berishning og‘zaki metodi bo’lib, ilmiy jihatdan to’g‘ri va mantiqan asoslangan, tushunarli, o’qituvchi nutqi ravon bo’lgan holatda qisqa vaqtda kata hajmdagi axborotni berishga imkon beruvchi metod hisoblanib, og‘zaki metod boshqa metodlar bilan ham birgalikda qo’llaniladi(masalan, “Vizual ma’ruza” metodi);

ko’rgazmali metod – ko’rgazmali qurollar va vositalariga bog‘liq holda o’quv materialini o’zlashtirishga imkon beradi;

amaliy metod – o’zlashtirilgan nazariy bilimlarni bajarish jarayonida amaliy ko’nikma va malakalarini hosil qilishga qaratiladi. o‘quvchi egallagan nazariy bilimini amaliy ish topshiriqlarini bajarish jarayonida mustahkamlaydi;

muammoli izlanish metodi – o‘quvchilarning tafakkuriga, ongiga, ularning ijodiy faoliyatiga yo’naltirilgan ta’lim metodi (masalan, “SWOT tahlili”, “Tushunchalar tahlili” metodlari);

mustaqil ishlar – mustaqil faoliyat, faollikni oshiradi. O’quvchilarda mustaqil ishlashni rivojlantirib, o’qituvchining ko’rsatmasi va rahbarligi asosida bajariladigan intellektual va amaliy topshiriqlardir;

reproduktiv evristik metod – reproduktiv ilgari egallangan bilimlar va ko’nikmalarning ketma-ketligi bo’yicha ma’lum bir maqsadga erishish usuli bo’lsa, evristik metod muammoni yechishning maxsus usuli hisoblanib, bunda avvaldan ma’lum bo’lgan yechimlardan qochgan holda o’zgacha va noan’anaviy usulda yondoshish(masalan, “Keys-stadi” metodi);

induktiv va deduktiv – induktiv metodda o’qituvchi dastavval dalillarni tushuntiradi, tajribasi bilan o’rtoqlashadi, ko’rgazmali vositalarni namoyish etadi, ularni umumlashtiradi, mashqlar bajarishni tashkil etadi. o‘quvchilarni esa asta sekinlik bilan tushunchalarni aniqlashga, qonuniyatlarni o’zlashtirishga olib boradi, deduktiv metodda o‘quvchilar avval umumiy qoidalarni biladi, formulalarni o’zlashtiradi, keyin ulardan kelib chiqadigan natijalarni egallaydi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Дьюи Дж. Демократия и образование //Д..Дьюи. - М.: Пед.-Прес., 2000 г. - 384 с.
2. Завалко Н. Теория и практика индивидуализации процесса обучения в многоступенчатой системе «детский сад - школа - вуз»: дис... д-ра пед. наук //. – Барнаул.: 2000 г. – 307 с.
3. Запесоцкий А. Образование: философия, культурология, политика // М., Наука, 2002. – 456 с.
4. Зверевой М.. В.Занкова, Индивидуальные варианты развития младших школьников. Под. ред. Л.В. – М., 1993

ТЕХНИК ФАНЛАРГА МОДУЛЛИ ЎҚИТИШ ТЕХНОЛОГИЯСИНИ ҚЎЛЛАШ МЕТОДИКАСИ

Абдуллаев А.С.,
доцент, Андижон давлат техника институти

Аннотация.Ушбу мақолада таълим муассасаларида техник фанлардан дарс беришда модулли ўқитиш технологияларини қўллаш ўқув самарадорлигини ошиши ва ўқувчилар фанларини осон ўзлаштиришга қаратилган.

Kalit so‘zlar:Таълим, модул, интеграция, кўникма, ўқитиш технологияси, модулли дастур, кришовип-шатун механизми, цилиндр, поршен, шатун, тирсакли вал, двигател, жорий таъмирлаш.

Модулли таълим – ўқитишнинг истиқболли тизимларидан бири ҳисобланади, чунки у одам бош миясининг ўзлаштириш тизимга энг яхши мослашгандир. Модули ўқитиш асоси инсон бош мияси тўқималарининг модулли ташкил этилганига таянади.

Ўқитишнинг истиқболли тизимларидан бири сифатида модулли таълим технологияларида асосий ўқув мақсадлар жумласига қуйидагиларни киритиш мумкин: таълим олувчининг ўзига мос суръатда ишлаши, уларга ўз имкониятларини аниқлаш, таълим мазмунини ўзгарувчан тарзда қуриш, унинг турлари ва шаклларини интеграциялаш, ўқувчиларда мустақил равишда таълим олиш кўникмаларини шакллантириш ва уларнинг юқори даражадаги натижаларга эриштириш. Ўз-ўзидан кўринадики, юқоридаги баён қилинган мақсадларнинг охиргиси модулли ўқитишнинг бош, етакчи мақсади ҳисобланади.

Бу мақсадларга эришиш учун модулли ўқитиш технологиясининг маълум бир тизимга солиб олиш керак. Бунинг учун модулли дастур тузиб чиқиш керак. Ўз навбатида модулли дастур ўқув модулларидан, ўқув модуллари эса ўқув элементларидан (ЎЭ) таркиб топган бўлади. Ўқув элементи деганда муайян

техник тушунча ёки жараённи ўқувчиларга етказиб бериш учун ҳизмат қиладиган ташкилий-мазмуний бирлик тушунилади. Ҳар бир ўқув элементи назорат саволлари билан якунланади. Мисол тариқасида "Кривошип-шатун ва газ тақсимлаш механизмига ТХК ва ЖТ" деб аталувчи ўқув модулининг ўқув элементларга ажратилишини қуйидагича тасвирлаш мумкин (1-расм):



1- расм. Модулнинг ўқув элементларининг тақсимланиши

(0-ЎЭ – бошланғич назорат);

1-ЎЭ – " Кришовип-шатун ва газ тақсимлаш механизмига ТХК ва ЖТ" модулининг мақсади;

2-ЎЭ – Кришовип-шатун механизмида учрайдиган носозликлар;

3-ЎЭ – Кришовип-шатун механизмига ТХК ва ЖТ;

4-ЎЭ – Газ тақсимлаш механизмида учрайдиган носозликлар;

5-ЎЭ – Газ тақсимлаш механизмига ТХК ва ЖТ;

6-ЎЭ – Якуний назорат.

Модулли таълимнинг моҳияти шундан иборатки, бунда ўқувчи модул билан ишлашда ўқув-билув фаолиятининг аниқ мақсадларига мустақил равишда (ёки ўқитувчининг баъзи бир ёрдамида) эришилади. Модулли ўқитиш, касбий таълимнинг замонавий масалаларини хар томонлама ечиш имкониятини яратади. Бунинг учун модулли ўқитиш технологиясининг оптималлашган ва содда кўринишда ишлаб чиқиш муаммосини хал этиш зарур.

1-жадвал

Ўқув эле-менти	Ўқувчиларга бериладиган мақсад ва топшириқлар кўрсатилган ўқув материали	Ўқувчилар учун шарҳ
0-ЎЭ	0-ЎЭ нинг ўқув модулининг мақсади: Ўқув-чиларнинг КШМ ва ГТМ ҳақидаги билимлари назорат қилинади. Механизмнинг тузилиши ва ишлаш принципи қисқача такрорланади.	Дарслик ва манбалар: [1]дарсликнин г 2-боб.
1-ЎЭ	1-ЎЭ нинг ўқув модулининг мақсади: КШМ ва ГТМ и носозликлари ўрганилади ва уларни бартараф этиш йўллари очиб берилади. *Муаммоли савол: КШМ нинг носозликларини қандай ташқи аломатларидан билса бўлади ?*	[2]-дарслик нинг 53-67 бетларига қаранг.

2-ЎЭ	Ушбу ўқув модулида тавсия этилаётган ўқув элементлари, топшириқ ва кўрсатмаларга амал қилган ҳолда ўқувчилар қуйидагиларни ўзлаштириб олиши лозим: КШМида вужудга келадиган носозликлар ҳақида тушунчага эга бўлиш: КШМ нинг асосий носозликларига цилиндрларнинг, поршен халқалари ва арикчаларнинг, поршен бобишкасидаги девори ва тешикларининг, шатун каллаги втулкаларининг, тирсакли вал бўйинларидаги вкладишларнинг ейилиши ва поршен халқаларини қурум босиб қолиши киради.	[3]-адабиётдан қўшимча маълумотлар олинг.
3-ЎЭ	Кривошип-шатун механизмига ТХК ва ЖТ Двигателнинг бузилиши ва унда ҳосил бўлувчи носозликларини олдини олиш мақсадида автотранспорт корхоналарида комплекс профилактик тадбирлар бажарилади. Бу ишлар диагностикалаш, КХК; 1-ТХК, 2-ТХК ва МХ давридаги двигател бўйича махкамлаш, диагностикалаш, созлаш ва мойлаш ишлари ҳисобланади. Махкамлаш ишларини бажаришдан мақсад двигател бирикмаларини (двигателнинг рама таянчига, цилиндр каллаги ва картерни цилиндрлар блокига ва ҳ.к.) герметиклигини текширишдан иборат. Бу вазифа автомобилларни ишлаб чиқарувчи завод кўрсатмасига биноан белгиланган кетма-кетликда(1-расм), ҳамда меъёрий бураш моментида динамометрик калитдан, авточилангар асбоблари тўпламларидан фойдаланиланиб бажарилади.  **1-расм.** КамАЗ-740 (а), ЗИЛ-130 (б) ва Нексия (*в)*двигателларининг цилиндр каллаклари гайкаларини маҳкамлаш кетма-кетлиги. **Жорий таъмирлаш:** двигателни жорий таъмирлашдаги энг асосий ва муҳим ишлар қуйидагилардан иборат: поршен халқалари, поршенларни, поршен бармоқларини, ўзак ва шатун бўйнидаги вкладишларни (таъмирлаш ўлчамларига мослаб), блок қистирмасини алмаштириш, клапаннинг эгарини силлиқлаш, сўнгра маҳсус аралашма	Техник ҳизмат кўрсатиш турлари ва тартибини тушиниб олинг.

	билан артиш, махсус эритмалар билан мой йўлларини ювиш ва тозалаш, редукцион клапанни тозалаш ёки алмаштириш ва бошқалардир. ***Топшириқ:*** *Қуйидаги расмда қайси механизим ажратиб кўрсатилган?* 	
4-ЎЭ	**Ушбу ўқув модулида тавсия этилаётган ўқув элементлари, топшириқ ва кўрсатмаларга амал қилган ҳолда ўқувчилар қуйидагиларни ўзлаштириб олиши лозим:** ГТМ нинг асосий носозликларига туртгич ва унинг втулкаларининг, клапан тарелкалари ва ўриндиқларининг, шестерняларининг, газ тақсимлаш вали таянч бўйинларининг ва кулачокларининг ейилиши, клапан ва коромисла орасидаги тирқишнинг бузилиши киради. Газ тақсимлаш механизмининг шовқин билан ишлаши, карбюратордан аланга чиқиши ва тутун сўндиргичдан шовқин чиқиши носозлик аломатлари ҳисобланади. ***Муаммоли савол:*** *Агар битта клапан ишламаса (синган бўлса) автомобил ҳаракатлана оладими ?*	
5-ЎЭ	– Газ тақсимлаш механизмига ТХК ва ЖТ;	[3]-адабиётдан қўшимча маълумотлар олинг.
6-ЎЭ	Якуний назорат	Қуйида таклиф этилган тестлар ечилади.

Натижалар ва муҳокама

Модулли ўқитиш таълим мазмунини такомиллаштиришда муҳим омили эканлиги аниқланди. "Автомобил ва двигателларга техник хизмат кўрсатиш, таъмирлаш" фанинг модулли ўқитишда, модулли ёндашув ўқув мақсадлари,

таълим мазмуни, ўқув-билув фаолиятинитаълим тамойиллари асосида олиб борилиши материалини тўла ўзлаштиришга олиб келиши кўрсатилди.

Таълими жараёнига модулли технология асосидаёндошиш ўқувчиларнингўқув материалини тўлиқ ўзлаштиришлари имконини беради, унинг келажакда мустақил ва масофали таълимда истиқболли эканлигиникўрсатади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Авлиёқулов Н.Ҳ. Замонавий ўқитиш технологиялари. – Тошкент: Муаллиф, 2001. – 88 б.

2. Ашурова С.Ю. Махсус фанларни модул технологияси асосида ўқитиш. Касб – ҳунар таълими. – 2004. 14-15 б.

3. Беднарчик Х. Модульная система непрерывного профессио-нального образования. Санк-Петербург 1999. 200-205 с.

4. Голиш Л.В, Файзуллаева Д. Касб-ҳунар коллежларида модулли дастур асосида таълим бериш // Касб хунар таълими. – 2002. - №4. - 24с.

5. Юцявичене П.А. Теория и практика модульного обучения. – Каунас: Швиеса, 1999. – 271с.

ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАЛАРНИ УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИГА ЖОРИЙ ЭТИШ ОРҚАЛИ УЗЛУКСИЗ КАСБИЙ РИВОЖЛАНТИРИШ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Абдуллаева М.,
Андижон вилояти педагогик маҳорат маркази профессори

Аннотация: Мамлакатимизда кейинги йилларда узлуксиз касбий ривожлантириш тизими тубдан янгича ёндашувлар олиб борилмоқда. Эртанги кунимизнинг муносиб давомчилари бўлган баркамол авлодни вояга етказишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бундай улуғвор вазифаларни амалга оширишда нафақат ўз қобиғимизга ўраланиб қолмасдан балки ривожланган давлатларининг таълим тизимини ўрганишимиз ва ўзлигимизга, маданият, маънавиятимизга, металитетимизга мослаб тажрибамизга олиб киришимиз зарур.

Мазкур мақолада муаллиф айнан чет эл тажрибаларига муражаат этган ва фин тажрибасини қисқача ёритишга харакат қилган.

Калит сўзлар. Таълим, тарбия, меҳнт, машқ, уқув, билим, самимий муносабат, эркинлик, танлаш.

Аннотация: В последние годы в нашей стране внедряются кардинально новые подходы в систему непрерывного профессионального развития. Особое внимание уделяется воспитанию всесторонне развитого поколения, которое станет достойными продолжателями нашего будущего.

Для реализации таких благородных задач необходимо не замыкаться в собственных рамках, а изучать образовательные системы развитых стран и внедрять их опыт, адаптируя его к нашей самобытности, культуре, духовности и менталитету.

В данной статье автор обращается именно к зарубежному опыту и старается кратко осветить финскую модель.

Abstract: In recent years, a fundamentally new approach has been implemented in the system of continuous professional development in our country. Special attention

is being paid to raising a well-rounded generation that will become worthy successors of our future.

To successfully carry out such noble tasks, it is essential not to remain confined within our own shell, but to study the education systems of developed countries and incorporate their experiences into our own, adapting them to our national identity, culture, spirituality, and mentality.

In this article, the author refers specifically to international experiences and attempts to briefly highlight the Finnish model.

Keywords. In the article, the author touches upon issues such as education, upbringing, labor, practice, aptitude, knowledge, sincere attitude, freedom, and choice

Бола дунёга келгач оила шароитида хаёт хақида, атроф-олам хақида аста-секин билим, кўникма ва малакага эга бўлиб боради. Замоннинг шиддат билан ривожланиб бориши, ўз ўрнида уларга таълим бераётган ўқитувчиларнинг малакасини ошириш ва мутахассислиги нуқтаи назаридан қайта тайёрлаш ишларига алоҳида эътибор қаратилиши давр талабига айланмоқда. Бунда нафақат ўз тажрибаларимиздан, илғор тажрибаларни оммалаштиришдан фойдаланишлар билан чекланиб қолмасдан балки хорижий тажрибалардан фойдаланиш хам қўл келади. Бунинг замирида кадрлар салоҳияти, рақобатбардош кадрлар тайёрлаш ривожланиб такомиллашиб боради.

Узлуксиз таълим тизимининг энг мухим таркибий қисмларидан бири бу педагоглар малакасини ошириш ва уларни қайта тайёрлаш тармоқларидир.

Айнан ушбу масалани янада такомиллаштириш учун 2024 йил 21 июнда Ўзбекистон Республикаси Президентининг " Мактабгача ва мактаб таълимини ташкилотлари ходимларини узлуксиз касбий ривожлантириш тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида" ги 231 – сонли қарори қабул қилинди. Унда мактабгача ва мактаб таълими ташкилотлари раҳбар, педагог ва мутахассис кадрларини узлуксиз касбий ривожлантириш тизими самарадорлигини таъминлаш, уларнинг касбий билим, кўникма ва маҳоратини мунтазам ошириб бориш, Президент мактабларида тўпланган илғор тажрибаларни умумий ўрта таълим муассасаларига кенг татбиқ этиш йўллари аниқ белгилаб берилди.

Ўзбекистонда кейинги йилларда таълим соҳасида жуда кўп ижобий ўзгаришлар бўлди. Болаларни таълим-тарбия олишлари учун катта имкониятлар яратилди. Таълим сифати ва самародорлигини ошириш учун мактабларда фаолият кўрсатаётган педагоглар малакасини ошириш учун хам жуда кўп ривожланган мамлакатлар тажрибаси ўрганилмоқда. Улар қаторида Финландия тажрибасидан ҳам фойдаланилмоқда. Ўрганиш натижасида қуйдагилар маълум бўлди.

-ўқитувчи ва ўқувчи ўртасида самимий муносабат борлиги;

-хар бир ўқувчи ноёб, уларнинг ўзига хос жихатларини кашф қилиш мухимлиги;

-иштиёқ уйғотувчи таълим олиш мухити яратилганлиги;

-ўқувчилврга касб танлашда эркинлик берилганлиги;

-ихтидорига кўра мутахассислик танлашда алохида соат ажратилиб, махсус шуғулланишлари;

-ўқувчиларга бошланғич синфдан бошлаб жамоат жойларида ўзини тутиш, атроф – мухитни тоза сақлаш, навбатда туриш маданияти, оммавий жойларда овқатланганда ўз идишларини йиғиштириб қўйиш кабилар ўргатилиши;

-шахар маркази ва узоқ худудларда хам бир хил шароит яратилганлиги, ўқитувчилар хам диярли бир хил малакага эга эканлиги;

-ўқитувчи тайёрлашда кириш имтихонларининг тест ва сухбат босқичи мавжудлиги;

-мамлакатда танлов даражаси энг юқори (бир ўринга 100 киши тўғри келади) касб ўқитувчилик эканлиги;

-педагогик йўналишда педагогик, психологик тахлиллар мунтазам ўтказиб турилиши;

-олийгохларда семинар дарслари тренинг шаклида олиб борилиши;

-бир машғулотни икки ўқитувчи олиб борилиши;

-бошланғич таълимда синф ўқитувчиси , фан ўқитувчиси ва ижтимоий соха мутахассиси биргаликда дарс машғулотларини олиб бориб, хар бир ўқувчининг ўзига хос иқтидорини кашф қилиниши;

-ўқитувчиларнинг синфда ўқувчиларга хукумрон сифатида эмас, дўст сифатида муносабатда бўлиши;

-ўқувчиларда жамоавий ишлаш кўникмаларини ривожлантиришга урғу берилиши;

-бошланғич таълим соҳасида эркак ўқитувчиларнинг нисбатан кўплиги;

-биринчи курс педагогика йўналиши талабалари фин ва инглиз тилида равон мулоқат қила олиши;

Ўқитувчи ва ўқувчи ўртасидаги муносабатга путур етадиган холат бу баҳолашдир. Ўқувчилар зийрак бўлиб уни адолатсиз баҳолаш салбий оқибатларга олиб келади. Болани ўқиши, билим олишга бўлган иштиёқини сўндириши, стресга олиб келиши мумкин.

Бугун мамлакат таълим тизимини ривожлантиришда малакали мутахассислар сув ва ҳаводек зарур. Малака ўз-ўзидан пайдо бўлиб қолмайди. Қиёслашда моҳият ойдинлашади. Бир қобиқга ўралиб юришлик, холис ва ишончли натижа бермаслиги мумкин. Халқаро тажрибаларни ўрганиш, айниқса тор ихтисосликни эгаллаган мутахассисларни юбориш самарали натижа беради.

Шунингдек агар минтақавий-миллий хусусиятлар, тарихий, маданий ва этник анъаналар ҳисобга олинса, ҳар қандай таълимнинг, шу жумладан, малака оширишнинг самарадорлиги анча юқори бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. "Таълим тўғрисидаги қонун" 23. 09. 2020 йил.
2. 2024 йил 21 июнда Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Мактабгача ва мактаб таълимини ташкилотлари ходимларини узлуксиз касбий ривожлантириш тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида" ги 231 – сонли қарори
3. Йўлдошев Ж.Ғ. Малака оширишнинг назарий ва методологик асослари: - Т,: "Ўқитувчи", 1998.-208б.
4. Йўлдошев Ж.Ғ.Малака ошириш- таълим-тарбия омили.-Т.:1993.-136б.
5. К.Турғунбоева, М.Ортиқова. педагогик инновация асослари.(ўқув қўлланма).
6. Ўзбекистон қаҳрамони К.Ғопиров "Сиз мураббий", Бўлажак ва ёш ўқитувчи хамда тарбиячилар учун эсдаликлар.
7. "Маърифат" газетаси 10.07.2024 йил. № 28(9509).
8. Малик Тоҳир. М-21 Танланган асарлар: "Хусни хулқ"-Т,: "Шарқ", 2010.-704б.

ТЕХНОЛОГИЯ ОБУЧЕНИЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МОДЕЛЕЙ ДИДАКТИКИ

Бозорова О.А.,
преподаватель физики Политехникума города Навои

Актуальной проблемой информатизации образования является создание системы электронных образовательных ресурсов (ЭОР), как необходимое условие перехода образования на новое качество. С учетом этого в основу концепции создания ЭОР должны быть положены базовые целевые компоненты.

1. Организация создания ЭОР нового поколения для системы профессионального образования с использованием инновационной технологии изученной компьютерной дидактики (ИКД) и дистанционного обучения как новой и мало изученной на педагогическом рынке учебной продукции.

2. Организация внедрения новой учебной продукции в форме ЭОР посредством кластерных информационно - коммуникационных технологий, стимулирование развития рынка педагогической науки на основе свободной конкуренции и привлечения учебных заведений системы профессионального и общего образования как самостоятельных субъектов социального рынка.

Актуальность создания ЭОР ИКД обусловлена наличием сложившихся в практике образования противоречий между:

– абсолютизацией структуры функционирующих в образовании учебных материалов, в том числе электронных учебников, построенных по традиционным методическим схемам, и потребностью практики в инновационных формах средств обучения с расширенными функциональными, информационными и дидактическими возможностями, что может обеспечиваться внедрением такого средства обучения как ЭОР с гибкой структурой и динамично развивающимися методической и технологической компонентами;

– традиционными подходами в профессиональной подготовке специалистов на основе готового и стабильного учебно-методического обеспечения и потребностью в использовании учебно-методического обеспечения нового поколения ;

– ЭОР с профессионально-дидактической компонентой, обеспечивающей условия для самостоятельного создания учителями инновационной учебной продукции на основе личного педагогического опыта с использованием Интернет технологий;

– необходимостью использования воспитательного потенциала учебных компьютерных технологий и недостаточной разработанностью педагогических средств, нацеленных на повышение эффективности воспитательной работы среди студентов и учащихся, роль которых могут исполнять ЭОР воспитательной направленности;

– отсутствием интеграции творческих коллективов, создающих педагогические инновации в масштабах даже одного региона, и, как следствие, дублирование, изолированность, отсутствие системы внедрения создаваемой продукции и необходимостью в обеспечении условий для коллективного творческого процесса, результатом чего может быть развитие кластерных технологий педагогического менеджмента и маркетинга, а также коллективный инновационный продукт как целостная система ЭОР ИКД, реализующая схему:

«информация + дидактические инновации + компьютер + кластерные технологии внедрения»[1].

Структура ЭОР должна создавать условия для эффективной самостоятельной работы обучающихся по освоению предметного содержания, для приведения знаний в систему, для формирования опыта использования знаний и умений в различных ситуациях, т.е. для освоения разных видов и способов деятельности. Следовательно, создание ЭОР ИКД должно базироваться не на установке передачи готового знания (тем более что передать знания невозможно), а на герменевтическом подходе, т.е. организации условий для рефлексивной мыслительной деятельности, приводящей к обогащению ментального опыта обучающихся.

В противовес существующим тенденциям, направляющим разработчиков ЭОР на использование традиционных методических схем, по существу повторяющих методику существующих учебников, в создании ЭОР ИКД реализуется принцип максимальной интерактивности, ориентирующий на организацию самостоятельной учебной деятельности посредством инновационных дидактических технологий с компьютерной, в том числе Интернет, поддержкой.

Интерактивный контент ЭОР — это контент, в котором возможны операции с его элементами: манипуляции с объектами и вмешательство в процесс функционирования медиа композиций. При этом важным свойством является получение обучающимся содержательных откликов от ЭОР. В соответствии с указанным выше стандартом выделяются уровни интерактивности в зависимости от применяемых в ЭОР форм взаимодействия обучающегося и контента ЭОР. Первый уровень – это условно-пассивные формы взаимодействия, которые характеризируются односторонним воздействием обучаемого на контент ЭОР. Второй уровень предполагает активные формы взаимодействия: выбор из неперемещаемых медиаэлементов (например, тест с вариантами ответов в виде символьных строк или изображений); перемещение объектов в рабочей области, установление соответствий элементов контента; изменение компоновки интерактивной мультимедиа композиции.

На третьем уровне используются деятельностные формы, характеризующиеся конструктивным взаимодействием обучающегося с объектами ЭОР по заданному алгоритму с контролем отклонений. К деятельностным формам относятся:

− контролируемый экспорт или импорт медиаэлементов в активное поле контента с проверкой соответствия определенным условиям;

− перемещение объектов для установления их соотношений, иерархий, составления определенных композиций;

− совмещение объектов для изменения их свойств или получения новых объектов, а также объединение объектов связями с целью организации определенной системы;

− контролируемое выполнение последовательности действий с разъяснением ошибок на каждом шаге;

− декомпозиция объекта, представляющего собой сложную многоуровневую систему;

− активизация элементов мультимедиа композиции путем выбора произвольной комбинации различных параметров;

Компьютерная поддержка экспресс обучения педагогов средствами ИКД, системно представленными в ЭОР, позволяет дифференцировать процесс обучения, дает возможность творчески работающему учителю создать свою лабораторию инновационной учебной продукции, позволяет осуществлять гибкое управление учебным процессом, предлагая новый инструментарий педагогической деятельности, обеспечивающий оперативные способы диагностики еѐ результатов и корректировки хода учебного процесса урока[2].

Структура экспресс обучения педагогов профессиональной деятельности с использованием средств ИКД обобщённо и наглядно представляется в виде схемы, отражающей модель технологии экспресс обучения. Концептуальный модуль модели определяет:

− цель экспресс обучения педагогов, состоящую в формировании умений самостоятельно проектировать и создавать различные виды компьютерной поддержки учебного процесса на основе моделей и технологий ИКД;

− принципы, объединённые в группы: методологические (герменевтический, системно-структурный); организационные (обратной связи, свободы выбора формы обучения, когнитивного лидерства в процессе взаимного обучения, циклической диффузии электронного контента); методические (научности, доступности, последовательности, модульности обучения, предметности, концентрированного представления содержания, пошагового обучения, дистанционной передачи знаний, циклического построения учебного процесса, организации динамической базы учебных достижений, доминирования самостоятельной работы); технологические (ориентации на компетенции информационной подготовки педагогов, дистанционного обучения, креативного освоения программной компоненты ЭОР, включая способы модификации контента, обеспечения интерактивности.

− в технологии экспресс обучения реализованы три вида Интернет поддержки посредством сетевых инфокоммуникационных технологий: информационная поддержка посредством сайта журнала «Школьные годы» кафедры информационных систем и технологий в образовании; методическая посредством интерактивного сайта с конструктором инновационных технологий «Сила знаний» и возможностью дистанционного контроля учебных достижений обучающихся; коммуникационная, обеспечивающая возможность взаимодействия всех участников экспресс обучения[3]. В технологии экспресс обучения педагогов создание ресурсов ИКД базируется на применении метода ориентиров, в рамках которого все построения новых учебных материалов выполняются на основе имеющихся образцов (шаблонов), роль которых исполняют созданные ранее типы учебных материалов – интерактивные герменевтические приемы, технологии конструктора знаний, веб-презентации и другие программные конструкты. Метод ориентиров обеспечивает педагогические условия эффективного и оперативного обучения педагогов конструированию средств методической и компьютерной поддержки профессиональной деятельности, направленных на усиление роли самостоятельной работы учащихся при высоком уровне мотивации учения.

Цель освоения содержательной составляющей технологии экспресс обучения состоит в повышении квалификации педагогов посредством освоения способов создания новых учебных материалов, в ознакомлении со средствами компьютерной поддержки инновационной педагогической деятельности, в

формировании компетенций в сфере использования программных оболочек для разработки электронных учебно-методических материалов.

Применение ЭОР в учебном процессе является современной инновационной технологии обучения в образовательных процессах. В работе проведен теоретический анализ исследований на ЭОР и разработка алгоритмов решения отдельных задач обучения.

Литература

1. Роберт И.В. Современные информационные технологии в образовании: дидактические проблемы, перспективы использования. М.: Школа-Пресс, 1994.
2. Архипова А.И., Черных А.И., Шапошникова Т.Л. Подходы и принципы проектирования электронных учебных материалов нового поколения. // Международный журнал экспериментального образования, №10. 2011.
3. Закирова А.Ф. Введение в педагогическую герменевтику: Учебное пособие. Екатеринбург: Сократ, 2000.

6-SHO‘BA: MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM TIZIMIDAGI YANGI METODIKALAR.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKADAN OG‘ZAKI HISOBLASHNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Babadjanov Azamat Kadamovich,
XVPMM katta o‘qituvchisi,
Mayliyeva Sadoqat Raximberganovna,
Urganch shahar 22-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang‘ich sinflarda matematikadan og‘zaki hisoblashni rivojlantirish usullari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Og‘zaki hisoblash, yig‘indi, ko‘paytma, bo‘linma, arifmetik amallar, distrebutevlik qonuni.

Аннотация: В статье рассматриваются методы развития устной арифметики в младших классах математики.

Ключевые слова: Устный счет, сложение, умножение, деление, арифметические действия, распределительный закон.

Abstract: This article discusses methods for developing verbal arithmetic in mathematics in elementary grades.

Keywords: Oral calculation, addition, multiplication, division, arithmetic operations, distributive law.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar og‘zaki hisoblash bilimini shakllantirish hozirgi zamon o‘qitish metodikasida yangi texnologiyani joriy etishni asosiy masala qilib qo‘ymoqda. Lotin yozuviga asoslangan matematika darsliklarimizda ayniqsa, yuz ichida, ming ichida arifmetik amallar bajarish jarayoni o‘quvchilarni fikrlash qobiliyatlarini o‘stiradigan, ijodiy qobiliyatini aniqlaydigan holatdir. Yig‘indidan, ko‘paytmaga o‘tish qoidasi, ko‘paytma, bo‘linma tushunchalari, ularning komponentlari orasidagi munosabatlarni mukammal o‘zlashtirishni talab etadiki, bu yuqori sinf matematika fanidan oladigan bilimini mustahkamlash asosi bo‘lsin. Boshlang‘ich sinflarda eng qulay usul bilan hisoblash masalasi arifmetik amallar bajarishning asosiy tayanchi hisoblanadi. O‘qituvchi darslikdagi materiallar bilan cheklanib qolmasdan balki ijodiy fikrlaydigan materiallar bilan darsni boyitish maqsadga muvofiqdir. Masalan, 10, 100, 1000 ichida ko‘paytirishni turli ko‘rinishlaridan foydalanish o‘quvchilarni qiziqishini oshiradi.

$68 \cdot 5 = (34 \cdot 2) \cdot 5 = 34 \cdot (2 \cdot 5) = 34 \cdot 10 = 340$

$68 \cdot 50 = 34 \cdot 100 = 3400$

Qo‘shishning distrebutevlik qonuniga ko‘ra:

$17 \cdot 50 = (16+1) \cdot 50 = 16 \cdot 50 + 1 \cdot 50 = 800 + 50 = 850$

Sonlarni bo‘lish texnikasiga ko‘ra:

$135:5 = (135 \cdot 2) : (2 \cdot 5) = 270:10 = 27$

$2250:50 = 4500:100 = 45$

O‘quvchilar diqqatini og‘zaki va yozma ko‘paytirishga jalb etish zarurki, bunda o‘quvchilar qiziqishi ortib borsin.

$24 \cdot 25 = (6 \cdot 4) \cdot 25 = 6 \cdot (4 \cdot 25) = 6 \cdot 100 = 600$

Bunda imkon boricha qisqa holat tanlashga intilish zarur:

$24 \cdot 25 = (24:4) \cdot (25 \cdot 4) = 6 \cdot 100 = 600$

Ko‘paytirishning qavslardan foydalanish holatlari juda ham qiziqarlidir:

37·25=(36+1)·25=36·25+25=900+25=925

35·25=(36-1)·25=36·25-25=900-25=875

38·25=(36+2)·25=36·25-2·25=900+50=950

25 ga ko‘paytirishning og‘zaki usulini 24 va 26 ga ko‘paytirishni (25-1) va (25+1) ifoda bilan almashtirish maqsadga muvofiqdir.

(Bu chorak, bo‘lak, ulushlar tushunchasini o‘tganda zarur bo‘ladi.)

Masalan: 36·26=36·(25+1)=36·25+25+36·1=900+36=936

36·24=36·(25-1)=36·25-36·1=900-36=864

25 ga bo‘lish esa, 5 ga bo‘lish qoidasidek bajariladi. Yuqoridagi hisoblashlarga teskari hisoblashlarni bajarish bilan mustahkamlaymiz.

Bo‘luvchini 2 ga, 4 ga ikki martalab ko‘paytirish bo‘lgan hollar uchun xonalarni nollar bilan to‘ldirish qoidalariga asoslanadi:

225:25=(225·2): (25·2) yoki (225·4): (25·4)=900 : 100=9

Agar 9,99 va 999 ga ko‘paytirish kerak bo‘lsa, u holda eng qulay usulda hisoblash qoidasiga ko‘ra (10-1), (100-1), (1000-1) ko‘rinishlarda distrebyuterlik qonuniga ko‘ra:

678·9=678(10-1)=6780-678=6102

577·99=577(100-1)=57700-577=57123

34·999=34(1000-1)=34000-34=33966

3 sinfda (14·15) ko‘paytirish qoidasi

14·15=14(10+5)=140·14·5=140+70=210

Buni darhol hisoblashga shoshilmasdan bajarish zarur, chunki

14·15=14·10+14·5=(14+7)·10=21·10=210

ko‘rinishda hisoblashni bajarishni unutmaslik kerak.

Agar 23·15 bo‘lsa

23·15=(22+1)·15=22·15+1·15=330+15=345

Shuningdek, 14 va 16 ga ko‘paytirishni (15+1) va (15-1) ifodaga almashtirish mumkin.

66·14=66·(15-1)=66·15 - 66 = 990 - 66 = 924

62·16=62(15+1)=62·15+15·1=930+62=992

61·69=6(6+1)·100+1·9=4200+9=4209

243·247=24·25·100+3·7=60000+21=60021

Bunday usullardagi hisoblashlarni bajarish o‘quvchilarni og‘zaki hisoblash texnologiyasini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Jumayev. Matematika (1-sinf). Turon iqbol. 2018 yil 160 bet. O‘quv qo‘llanma.
2. M.Jumayev. Matematika daftari. Turon iqbol. 2018 yil 4,5 bet.
3. M.Jumayev. Boshlang‘ich matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. Ilm Ziè.2018 yil.

MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA O‘YIN TEXNOLOGIYASINING AHAMIYATI

Abdullayeva Jamila Gopirovna,
Andijon viloyati PMM Maktabgacha ta'limni muvofiqlashtirish bo‘limi mutaxasisi

Аннотация. В статье рассматривается значение игровых технологий в системе дошкольного образования, их влияние на развитие ребёнка, роль в педагогическом процессе и эффективность применения на практике. Игровые технологии охватывают все сферы развития детей – интеллектуальную,

физическую, социальную и эмоциональную. В статье представлены основные виды игровых методов, педагогические подходы, практические примеры и современные инновационные технологии в игровой деятельности.

Ключевые слова. дошкольное образование, игровые технологии, методика, развитие детей, дидактическая игра, педагогический процесс, инновации.

Annotation. This article explores the importance of play technologies in the preschool education system, their impact on children's development, their role in pedagogical processes, and their effectiveness in practical application. Play technologies encompass all areas of a child's development — intellectual, physical, social, and emotional — allowing the educational process to be conducted in a natural and engaging manner for children. The article analyzes the main types of play activities, pedagogical methods, their implementation in real practice, and innovative approaches integrated with modern technologies.

Keywords: Preschool education, play technology, methodology, child development, didactic game, pedagogical process, innovation.

Maktabgacha yosh – bu bolaning shaxs sifatida shakllanishidagi eng muhim bosqichlardan biridir. Bu davrda bolaning atrof-muhitga, bilimga, o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi yuqori bo‘ladi. Shu sababli pedagogik jarayonda bola uchun eng tabiiy, eng samarali vosita bu – o‘yindir. O‘yinlar orqali bola o‘zining his-tuyg‘ularini, fikrlarini, orzularini ifoda etadi, ijtimoiy hayotga moslashadi va bilimlarni o‘zlashtiradi. Aynan shu bois, maktabgacha ta’lim tizimida o‘yin texnologiyalari asosiy pedagogik yondashuv sifatida alohida o‘rin tutadi.

Zamonaviy maktabgacha ta’limda o‘yin texnologiyalarini qo‘llash bola rivojining barcha jabhalarini qo‘llab-quvvatlaydi. Bu texnologiyalar bolalarda mustaqil fikrlash, muammo yechish, jamoada ishlash kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi.

O‘yin texnologiyalarining mohiyati. O‘yin texnologiyasi – bu pedagogik jarayonda bolalarni faollikka chorlaydigan, ularning rivojlanishini ta’minlaydigan, bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan maxsus metodik yondashuvlar tizimidir. O‘yin bolalar uchun tabiiy ehtiyoj hisoblanadi. Bu ehtiyoj pedagog tomonidan to‘g‘ri yo‘naltirilsa, u samarali ta’lim-tarbiya vositasiga aylanadi.

Didaktik nuqtai nazardan qaralganda, o‘yin – bu ixtiyoriy faollik bo‘lib, unda bola bilimni o‘rganish bilan birga zavq oladi, hayotiy tajriba orttiradi.

O‘yin faoliyatining turlari. Maktabgacha ta’lim muassasalarida keng qo‘llaniladigan o‘yin faoliyati turlariga quyidagilar kiradi:

- **Didaktik o‘yinlar** – bolalar bilimlarini mustahkamlash, tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘yinlardir.
- **Rolli o‘yinlar** – bolalar real hayotdagi vaziyatlarni rollar orqali aks ettiradi. “Do‘kon”, “Shifokor”, “Oila” kabi rolli o‘yinlar bolani ijtimoiylashuvga tayyorlaydi.
- **Harakatli o‘yinlar** – bolaning jismoniy faolligini oshiradi, mushaklarni rivojlantiradi.
- **Konstruktorlik o‘yinlar** – mantiqiy fikrlash va muhandislik ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
- **Stol usti va komp’yuter o‘yinlari** – raqamli pedagogik vositalardan foydalanishga asoslanadi.

O‘yin texnologiyalarining afzalliklari. O‘yin texnologiyalarining ta’lim-tarbiya jarayonidagi ustunliklari quyidagilardan iborat:

- Bolaning o‘zlashtirish darajasi yuqori bo‘ladi.
- Mustaqil qaror qabul qilishni o‘rganadi.

- Bolada ijobiy motivatsiya paydo bo‘ladi.
- O‘yin orqali erkin fikr, emotsional holat va tafakkur rivojlanadi.
- Jamoaviy ish va muloqotga o‘rganadi.

Innovatsion o‘yin texnologiyalari. So‘nggi yillarda maktabgacha ta’lim tizimiga raqamli texnologiyalar ham jadal kirib kelmoqda. Jumladan, interaktiv ta’lim dasturlari, kompyuter o‘yinlari, QR kodli topshiriqlar va virtual makonli o‘yinlar keng qo‘llanilmoqda.

Masalan, “Smart Board” texnologiyasi orqali bolalar vizual va eshitish orqali bilimni qabul qilishadi, bu esa ko‘p kanalli ta’limga asos bo‘ladi. Shuningdek, AR (kengaytirilgan reallik) texnologiyasi yordamida bola hayvonlar, o‘simliklar, geografik obyektlar haqida interaktiv tarzda bilim oladi.

O‘yinlar orqali rivojlanadigan kompetensiyalar. O‘yin orqali quyidagi asosiy kompetensiyalar shakllanadi:

- **Kommunikativ kompetensiya** – boshqalar bilan muloqot qilish, o‘z fikrini erkin ifodalash.
- **Kognitiv kompetensiya** – bilish va tahlil qilish qobiliyatlari.
- **Emotsional-intellektual kompetensiya** – o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish.
- **Ijtimoiy kompetensiya** – jamoada ishlash, boshqalarni tushunish.

Milliy o‘yinlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati

Milliy o‘yinlar – bu xalqimizning asrlar davomida shakllangan madaniy merosi, axloqiy qadriyatlarining ko‘zgusi hisoblanadi. Maktabgacha ta’lim tizimida milliy o‘yinlar asosida tuzilgan texnologiyalar bolalarni vatanparvarlik, hurmat, halollik, do‘stlik, mehnatga muhabbat kabi fazilatlar ruhida tarbiyalaydi.

Misollar:

- **“Chillak”, “Ari bilan quvishmachoq”** – harakatli o‘yinlar bo‘lib, bolalarda jismoniy faollikni oshiradi.
- **“Kim topqir?”, “Topdim-topdim”** – bolalarni fikrlash, tez javob qaytarish ko‘nikmalariga o‘rgatadi.
- **“Sandiqcha”**, **“Qarg‘aning uyi qayerda?”** – didaktik o‘yinlar orqali bolalarda e’tibor va xotira rivojlanadi.

Milliy o‘yinlar nafaqat ta’limiy, balki tarbiyaviy, madaniy va estetik ahamiyatga ega bo‘lib, yosh avlodni o‘zligini anglashga, xalqiga hurmat bilan qarashga o‘rgatadi.

STEAM yondashuvi va o‘yin faoliyatining integratsiyasi

So‘nggi yillarda maktabgacha ta’limda **STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics)** konsepsiyasiga asoslangan ta’lim modeli ommalashmoqda. O‘yin texnologiyalari ushbu yo‘nalishni bolalar ongiga oson va tabiiy yo‘llar bilan singdirishda asosiy vositadir.

Masalan:

- **Qurilish bloklari bilan qurilish loyihalari** – muhandislik va fazoviy fikrlashni rivojlantiradi.
- **Tajriba o‘yinlari** – oddiy kimyoviy yoki fizik hodisalarni o‘rganish uchun (masalan: suv bilan solishtirish, magnitli o‘yinlar).
- **Matematika o‘yinlari** – raqamlar, shakllar, sanashni o‘rgatadi.
- **Kodlash o‘yinlari (robotika elementlari bilan)** – raqamli savodxonlikni erta bosqichda shakllantiradi.

Bunday o‘yinlar orqali bolalarda ilmiy izlanishlarga qiziqish, kashfiyotga intilish va ijodkorlik paydo bo‘ladi.

Ota-onalar bilan hamkorlikda o‘yin tashkil etish. Maktabgacha ta’lim muassasalari va ota-onalar o‘rtasidagi samarali hamkorlik bolaning har tomonlama rivojida muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, o‘yin faoliyatida ota-onalar ishtirokini ta’minlash bola uchun ruhiy barqarorlik, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va xavfsizlik hissini beradi.

Ota-onalar ishtirokidagi o‘yin shakllari:

- **“Oilaviy rol o‘yinlari”** – farzandlar va ota-onalar birgalikda rollarga kiradi.
- **“Ota-onalar ishtirokidagi mini-munosabatlar”** – bolaning hissiy ehtiyojlarini tushunishga xizmat qiladi.
- **“Uyga vazifalar asosidagi o‘yinlar”** – bolalarning o‘zlashtirgan bilimlarini mustahkamlashda samarali.

Bu orqali pedagoglar ota-onalarga bolalarning qiziqishlari, salohiyati, ehtiyojlari haqida ma’lumot berib boradi va ularni tarbiya jarayoniga faol jalb etadi.

Xulosa o‘rnida yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, o‘yin texnologiyalari maktabgacha ta’lim tizimida eng samarali metodlardan biri bo‘lib, u bolaning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi. O‘yin faolligi orqali bola bilimni oson o‘zlashtiradi, mustaqil fikrlashga o‘rganadi, muomala madaniyatini egallaydi. Shu bois, maktabgacha ta’lim muassasalarida o‘yin texnologiyalarini keng joriy etish, pedagoglarni o‘yin metodikasi bo‘yicha doimiy malaka oshirishga jalb etish zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdukodirova, M. (2020). *Maktabgacha ta’lim pedagogikasi*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Karimova, G. (2021). “O‘yin texnologiyalari va ularning pedagogik imkoniyatlari”, *Ta’lim va taraqqiyot* jurnali.
3. Vygotsky, L.S. (1978). *Imagination and Creativity in Childhood*. Cambridge: MIT Press.
4. Mahkamova, D. (2022). *Ilmiy-uslubiy asosda tashkil etilgan o‘yin faoliyati*. Toshkent.
5. OECD (2020). *Starting Strong: Engaging Young Children in Learning*. Paris: OECD Publishing.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA KITOXONLIK XUSUSIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK METODLARNING AHAMIYATI

Soliyev Mirzoxid Tursunxo‘jayevich,
Andijon viloyati PMM o‘qituvchisi

Аннотация: В статье анализируется значение современных педагогических методов в процессе формирования навыков чтения у учащихся младших классов и их роль в образовательном процессе. На курсе будут рассмотрены мотивация к чтению в детской психологии, эффективность современных педагогических подходов и их роль в развитии чтения.

Annotation*:* This article analyzes the importance of modern pedagogical methods in the process of forming reading skills in primary school students and their role in the educational process. The study of motivation for reading in child psychology, the effectiveness of modern pedagogical approaches and their role in the development of reading skills are highlighted.

Ключевые слова*:* современная педагогика, начальная школа, чтение, мотивация чтения, интерактивное образование.

Keywords*:* modern pedagogy, primary school, reading, reading motivation, interactive education.

Boshlang‘ich sinf davri bolalarda kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish uchun muhim bosqich hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik metodlar ushbu jarayonni yanada samarali amalga oshirishga yordam beradi. Interaktiv darslar, o‘yin orqali o‘qitish, muammoli ta’lim va boshqa innovatsion yondashuvlar o‘quvchilarning kitobga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur maqolada zamonaviy pedagogik metodlarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik xususiyatlarini shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyati ko‘rib chiqiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kitobxonlik jarayonidagi psixologik xususiyatlari

Kitobxonlik odati bolalarda kognitiv rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalar konkret operatsion bosqichda bo‘lib, ular axborotni vizual va tajribaviy yo‘l bilan yaxshiroq qabul qiladi. Shu sababli, matnni tushunish va qabul qilish jarayonida pedagogik metodlarning mos tanlanishi muhim ahamiyatga ega [1].

Vygotsky o‘zining “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasida bolalarning bilim olish jarayonida o‘qituvchi yoki tajribali kattalar yordamiga ehtiyoj sezishini ta’kidlaydi. Zamonaviy pedagogik metodlar, jumladan, hamkorlikda o‘qish, interfaol o‘qitish va muammoli ta’lim aynan shu nazariy tamoyillarga asoslanadi. Bu usullar o‘quvchilarning mustaqil o‘qish va tushunish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi [2].

Shuningdek, motivatsiya nazariyalariga ko‘ra, bolalar tashqi va ichki rag‘batlantirish orqali kitob o‘qishga qiziqish hosil qiladilar. Ryan va Deci tomonidan ishlab chiqilgan o‘zini o‘zi belgilash nazariyasiga (Self-Determination Theory) ko‘ra, bolalarning o‘qish jarayonida ichki motivatsiyasini rivojlantirish uchun ularga avtonomiya, kompetentlik va ijtimoiy bog‘liqlik hissi berish muhimdir [3].

Zamonaviy pedagogik metodlarning kitobxonlikni shakllantirishdagi o‘rni

Zamonaviy pedagogik metodlar o‘quvchilarning kitobga bo‘lgan qiziqishini oshirish va o‘qish jarayonini yanada samarali tashkil qilishga yordam beradi. Quyida ba’zi asosiy usullar keltirilgan:

1. **O‘yin orqali o‘qitish:** Bolalar tabiatan o‘yin orqali o‘rganishga moyil bo‘lganligi sababli, didaktik o‘yinlar, rolli o‘yinlar va viktorinalar orqali o‘qish jarayoni yanada qiziqarli bo‘ladi.
2. **Muammoli ta’lim:** O‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish uchun ularga muammoli savollar berish, matnni tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarishga rag‘batlantirish samarali hisoblanadi.
3. **Hamkorlikda o‘qish:** Jamoaviy o‘qish va matn ustida guruh bo‘lib ishlash bolalarning tushunish darajasini oshiradi va o‘zaro fikr almashish orqali chuqurroq o‘rganishga imkon yaratadi.
4. **Interfaol ta’lim:** Zamonaviy texnologiyalar yordamida raqamli kitoblar, audiokitoblar, multimedia resurslari va vizual materiallardan foydalanish bolalarning e’tiborini jalb qiladi va o‘qish jarayonini qiziqarli qiladi [4].

Kitobxonlikni rivojlantirish uchun samarali metodlarning afzalliklari

✓ **Motivatsiyaning oshishi:** Zamonaviy metodlar o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini doimiy ravishda saqlashga yordam beradi.

✓ **O‘qish madaniyatining shakllanishi:** O‘quvchilarda mustaqil kitob o‘qish odatini hosil qilish.

✓ **Ijodiy tafakkurni rivojlantirish:** Matn bilan ishlash va mustaqil fikr bildirish orqali ijodiy qobiliyatlarni oshirish.

✓ **O‘quv jarayonining shaxsiylashtirilishi:** Har bir o‘quvchining qobiliyatiga mos yondashuv imkoniyati oshadi.

Xulosa va tavsiyalar

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik xususiyatlarini shakllantirishda zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Interfaol ta’lim, muammoli o‘qitish va didaktik o‘yinlar orqali bolalarning kitobga bo‘lgan qiziqishini oshirish va mustahkamlash mumkin. Kelajakda pedagogik innovatsiyalarni keng joriy etish va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish bu boradagi natijalarni yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Piaget, J. (1952). The origins of intelligence in children. W. W. Norton.
2. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press.
3. Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2000). Self-determination theory and the facilitation of intrinsic motivation, social development, and well-being. American Psychologist.
4. Mayer, R. E. (2005). The Cambridge handbook of multimedia learning. Cambridge University Press.

КОЛЛАБОРАЦИЯ-КАК ВАЖНОЕ СРЕДСТВО ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ СОТРУДНИЧЕСТВА ПУТЕМ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ КОЛЛЕКТИВНОМУ ТРУДУ

Джураева Дилфуза Нуриддин кизи,
преподаватель кафедры методики начального дошкольного и специального образования Навоийского областного центра педагогического мастерства

Аннотация: В данной статье важным требованием воспитания у детей сознательного отношения к труду путем организации коллективного труда является информирование детей о новшествах в науке, культуре, технике и технологиях, формирование у них интереса, повышение их способностей. В формировании положительного отношения к труду и приучении к труду важное значение имеет то, что окружающие взрослые и сверстники являются живыми образцами непосредственного участия в их труде.

Ключевые слова: дошкольное образование, дети, коллективный труд, развитие отраслевых компетенций, образование, воспитание, центры развития, игра, метод.

Annotatsiya: Mazkur maqolada, bolalarda jamoaviy mehnatni tashkil etish orqali mehnatga ongli munosabatni tarbiyalashning muhim talabi bolalarni ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiya borasida yangiliklardan boxabar etish, ularga nisbatan qiziqishni hosil qilish, bu boradagi layoqat, qobiliyat va iqtidorlarini oshirib borishdan iborat. Mehnatga ijobiy munosabatni shakllantirish va mehnat qilishga odatlantirishda atrofdagi kattalar va tengdoshlarining ular mehnatiga bevosita dahldor bo‘lgan jonli na’muna bo‘lishliklari muhim ahamiyatga ega tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim, bolalar, jamoaviy mehnat, rivojlanish soha kompetensiyalari, ta’lim, tarbiya, rivojlanish markazlari, o‘yin, metod.

Abstract: In this article, an important requirement for educating children about a conscious attitude to work by organizing collective work is to inform children about innovations in science, culture, technology and technology, to form their interest, and to enhance their abilities. In forming a positive attitude to work and getting used to work, it is important that the surrounding adults and peers are living examples of direct participation in their work.

Keywords: preschool education, children, collective work, development of industry competencies, education, upbringing, development centers, game, method.

Введение. Вопрос трудового воспитания подрастающего поколения является наиболее актуальной темой в настоящее время. Труд становится все более важным для взросления каждого человека и развития общества в целом. Трудовое воспитание имеет важное значение в физическом, умственном, нравственном и эстетическом воспитании детей дошкольного возраста. Труд организуется с учетом специфики детей каждой возрастной группы. Организованная коллективная трудовая деятельность в дошкольной образовательной организации является базовым инструментом развития у детей коммуникативных, социальных, личностных(я) и познавательных компетенций[1]. Развитие общения со взрослыми и сверстниками, особенно у детей дошкольного возраста, повышает эффективность учебного процесса в дальнейшей школьной деятельности.

Анализ литературы и методы: Еще одним требованием воспитания у детей сознательного отношения к труду через организацию коллективного труда является информирование детей о нововведениях в науке, культуре, технике и технике, формирование интереса к ним, повышение их способностей, способностей и талантов в этой области. При формировании положительного отношения к труду и приучении к труду важно, чтобы окружающие взрослые и сверстники были живым примером, непосредственно преданным своему труду. Но психологическую готовность к совместному труду с детьми в коллективе у детей можно воспитать только в процессе трудовой деятельности. В дошкольных образовательных организациях имеются все возможности для организации коллективной трудовой деятельности. Его социальный характер очевиден в труде.

Поэтому необходимо создать у детей условия, в которых воспитатель может организовать совместную трудовую деятельность детей. Для этого можно использовать разные способы:

первый способ-показать разнообразную работу, которую дети могут выполнять в сотрудничестве, а также объяснить их важность;

второй способ-непосредственная совместная организация труда взрослых и детей. Приобщение детей к коллективному труду направлено на то, чтобы дать им конкретные знания о труде, а также уважительное отношение к труду сверстников и взрослых, привить им любовь и интерес к труду. В то же время решается вопрос о том, чтобы воспитывать в детях желание трудиться, сотрудничать в собрании, помогать друг другу, добросовестно и терпеливо работать.

[1] Образовательная программа "Первый шаг" для дошкольных образовательных организаций Республики Узбекистан.4 февраля 2022 г.

Возникновение различных видов труда труд носит систематический характер, когда все дети участвуют в нем и приобщаются к труду взрослых, он становится средством воспитания[1].

Самообслуживание. Это вид детского труда, при котором детей с раннего возраста приучают самостоятельно есть, купаться, одеваться и раздеваться, складывать игрушки. В процессе самообслуживания у детей формируются такие качества, как самостоятельность, способность действовать с определенной целью, дети учатся делать все, что в их силах, самостоятельно. Самообслуживание пробуждает у детей интерес к обычным видам труда, учит дисциплинированности, дисциплинированности, манерам поведения.

Дети привлекаются к хозяйственно-бытовому труду в ДОУ и семье. Его содержание варьируется: уборка помещения и площадки ДОУ, оформление стола и уборка столовой посуды, мытье чайной посуды, одежды, мелких вещей, подготовка к занятиям, после занятий на столе собирать вещи и т.д Труд в природе имеет важное значение для всестороннего развития ребенка и является « источником знаний о растениях и животных, сезонах года, неживой природе, средством воспитания у детей трудолюбия, бережного отношения к природе, а также подготовки и удобрения почвы » Они приобретают несколько трудовых навыков и навыков, таких как переписка, уход за растениями и животными. Организация труда в основном на открытом воздухе способствует укреплению здоровья детей.

Ручной труд - это детский труд по изготовлению игрушек и приспособлений, необходимых для трудовой деятельности на играх (ящики для выбрасывания бумажных клещей и семян растений, одежда для баранины, головные уборы, маски и тому подобное)).

Результаты: Если организовывать коллективный труд детей дошкольного возраста в процессе любого вида труда, то можно увидеть интеграцию следующих пяти отраслевых компетенций развития у детей:

Пример: Если взять процесс посадки цветов в уголке природы, то в этом случае воспитатель сначала готовит горшки, почву и необходимое оборудование, чтобы дети могли вместе посадить семена цветов и рассаду. Дети выполняют этот процесс вместе. Каждых трех детей готовит один воспитатель. По указанию воспитателя сначала дети вместе засыпают грунт в горшочки. После того, как почва будет засыпана, высаживают семена цветов или рассаду и поливают водой. А в уголке природы постоянно наблюдают за ростом посаженного ими цветка и ухаживают за цветами. Рассмотрим развитие в процессе этого коллективного труда:

1. Дети в процессе работы с почвой-мелкая моторика, здоровый образ жизни и безопасность (физическое развитие и здоровый образ жизни).

2. В коллективной трудовой деятельности у детей - социализация, общение со взрослыми и сверстниками; эмоции и их управление; понятие “я” (Социально-эмоциональное развитие).

3. Дети используют средства общения, вступая во взаимодействие в процессе коллективного труда; увеличивается словарный запас - язык и речь (речь, коммуникативные навыки чтения и письма).

[1] “Дошкольная педагогика “ Ф.Кадырова ” издательство Тафаккур”, Ташкент-2019; стр. 231

4. Дети учатся, исследуя новые знания о посадке и уходе за цветами - исследовательские познавательные и эффективно рефлексивные(познавательный процесс).

5. В процессе наблюдения и ухода за цветами-у детей развиваются области эстетического вкуса и художественного представления о мире (творческое развитие).

Из этого видно, что трудовая деятельность приобретает важное значение в развитии детей.

Обсуждение: Формирование коллективной трудовой деятельности у дошкольников-это деятельность, направленная на целенаправленное совместное действие детей, развитие чувства взаимопомощи, сотрудничества и ответственности. Ниже можно порекомендовать несколько методов, направленных на формирование этой деятельности:

1. Совместное выполнение хозяйственно-трудовой деятельности. Самообслуживание в дошкольной образовательной организации; содействие воспитателю в организации деятельности в центрах и во время прогулок по природе на основе последующего труда.

2. Обучение детей коллективной трудовой деятельности через игру. Через профессиональные игры в центре сюжетно-ролевой и драматизации.

3. Коллективный ручной труд. При этом дети могут вместе оживить выброшенные материалы.

4. В результате совместного выполнения детьми заданий, подготовленных для детей в центрах развития, у детей формируются навыки совместной работы.

Выводы: Таким образом, коллективная трудовая деятельность развивает у детей чувство ответственности. Например, такие занятия, как совместное Коллекционирование игрушек или создание небольшого сада, учат детей работать в группе. Это способствует взаимопомощи, навыкам совместной работы, социальному взаимодействию и способности понимать друг друга. Выполняя труд, дети видят результат своего труда, что повышает у них уверенность в собственных силах. Он также учится эмоциональной стабильности, добиваясь успеха или совершая ошибки. Обучение труду показывает детям результаты, которые достигаются трудом, а не его трудностями. Это поможет им понять важность каждой работы. Такие занятия формируют у детей уважение к труду. Дети учатся ответственности, выполняя свои обязанности. Например, простые действия, такие как сбор игрушек или наведение порядка на своем месте, развивают у них меняющееся чувство ответственности. Благодаря труду дети могут проявлять творческий подход. Как мы видели выше, « они могут найти свой способ ухаживать за растениями » или создать новые идеи для создания игрушек. Этот процесс повышает креативность мышления детей. Работа в коллективе учит детей сообща решать различные проблемы. Например, маленькие задания, такие как создание условий для хорошего роста растений в саду, эффективное размещение игрушек, развивают у детей навыки решения проблем. Труд помогает детям не только освоить новые навыки, но и понять ценность и ценность своего труда. Ребенок, видя результат своего труда, будет любить свое дело, зная, что каждое дело, даже маленькое, важно. Иногда могут возникнуть трудности с выполнением родов. Дети учатся справляться с этими трудностями, развивать терпение и настойчивость в решении

проблем. Помимо теоретического обучения детей, трудовое обучение связано с практическим опытом.

Литература:

1. Республики Узбекистан от 16 декабря 2019 года "Закон Республики Узбекистан «Об образовании и воспитании».
2. Приказ Агентства дошкольного образования при Министерстве дошкольного и школьного образования Республики Узбекистан от 28 августа 2023 года № 99 «Об утверждении документов работы педагогов ДОО».
3. Республики Узбекистан «Государственные требования к развитию детей раннего и дошкольного возраста».
4. Государственная учебная программа «Первый шаг» дошкольного образования Республики Узбекистан.
5. Электронные образовательно-воспитательные ресурсы: https://dzen.ru, https://puzzle-english.com.
6. «Дошкольная педагогика» Ф. Кадырова «Издательство Тафаккур», Ташкент-2019.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI KASBGA ERKIN QIZIQISHLARINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Adizova Nilufar Quvondiq qizi,
Navoiy viloyati PMM metodisti

Annotatsiya. Bola kasblar dunyosining qanchalik xilma-xilligini, ularning har biri o‘ziga xosligini tushunishi kerak.Shunga ko‘ra, maktabgacha yoshdagi katta bolalarda kasb tanlashga qiziqishlarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.Maktabgacha yoshdagi bolalarni kasbga yo‘naltirish – bu bolalarning kelajakdagi kasb-hunar tanlashiga tayyorlanish jarayonida ularga kerakli bilim, ko‘nikma va qiziqishlarni rivojlantirishni maqsad qilgan pedagogik faoliyatdir.Ushbu jarayon bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olib, ularni turli sohalar bilan tanishtirish, ijodkorlik, mantiqiy fikrlash, mehnatga bo‘lgan munosabatni shakllantirishga qaratilgan.Maktabgacha ta’limda kasbga yo‘naltirish faoliyati bolalarga nafaqat kasbiy bilimlarni, balki o‘zini anglash, ijtimoiy ko‘nikmalarni, hamkorlikni va kommunikatsiya qobiliyatlarini rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega.Kasbga yo‘naltirish faoliyati, ayniqsa, bolalar orasida jismoniy, aqliy va ijodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Bola, kasb, soha, kasbiy faoliyat, jamiyat, o‘yin faoliyati, zamonaviy kasb, rivojlanish sohalari.

Kirish

Bola hayotining har bir lahzasi o‘rganish, izlanish va o‘z-o‘zini kashf qilish uchun imkoniyatdir, bu esa keyinchalik ular yashayotgan, mehnat qiladigan va yaratgan jamiyatga qanday qo‘shilishni o‘rganishga yordam beradi.Boshqa tomondan, kasb va martaba inson hayotining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, biz ko‘pincha ular haqida ongli yoki ongsiz ravishda bolalikdan boshlab o‘ylaymiz.Shunga ko‘ra, maktabgacha yoshdagi katta bolalarda kasb tanlashga qiziqishlarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.Nima uchun bolalar turli kasblarni o‘rganishlari muhim? Biz bilamizki, bolalar o‘yin orqali yaxshiroq o‘rganadilar, shuning uchun o‘yinlardan ta’lim berish jarayonlarida foydalanish samarali hisoblanadi.Bolalarni kasblar olami, kasb tushunchasi bilan yaqindan tanishtirish, ularning qiziqishlarini

yanada kuchaytirish lozim.Bolalarning imkoniyatlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ularni kelajakda turli kasblarni tanlashga qiziqishlarini shakllantirish lozim.Kasb-bu insonning mehnat faoliyati, doimiy mashg‘ulot turi bo‘lib, muayyan ish turini malakali bajarishga imkon beradigan, bilim, mahorat, tajriba va ko‘nikmani talab etadi.Kasb – insonga zarur bo‘lgan, qunt bilan shug‘ullanadigan, vatani uchun xizmat qiladigan ishdir.Hayotda kasblar shunchalik ko‘pki, olimlarning ta'kidlashicha dunyoda 40 mingdan ortiq kasblar mavjud. Maktabgacha yoshdagi bolalarni biz odatda quyidagi kasblar bilan doim tanishtirib kelganmiz: o‘t o‘chiruvchi, oshpaz, tikuvchi, tarbiyachi, o‘qituvchi, shifokor, uchuvchi, askar, hamshira, haydovchi, sotuvchi, kosmonavt, sartarosh, quruvchi, novvoy, rassom.Ammo bugun ilm-fan, madaniyat, iqtisodiyot, axborot texnologiyalari va dunyo jadal rivojlanmoqda hamda shunga yarasha yangidan yangi kasblar vujudga kelmoqda.Shunga muvofiq, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarni biz quyidagi zamonaviy kasblar bilan tanishtirishimiz, zamon bilan hamnafas ruhda tarbiyalashimiz maqsadga muvofiq: muxbir, arxitektor, dasturchi, tarjimon, dizayner, jurnalist, menejer, bastakor, aloqa operatori, fotograf, styuardessa, kashfiyotchi olim, milliy gvardiya xodimi, sport ustasi, arxeolog, advokat, tadbirkor, marketolog.Maktabgacha katta yoshdagi bolalarga zamonaviy kasblar bilan tanishtirishning asosiy maqsad, vazifalari:

- Zamonaviy kasblar haqida aniq bilim va ma'lumotlar berish;
- Zamonaviy kasblarga nisbatan qiziqish uyg‘otish;
- Kattalar va o‘z mehnatini qadrlash va hurmat qilishni tarbiyalash;
- Zamonaviy kasblarning jamiyat va davlat hayotidagi ahamiyatini bola ongiga singdirish.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kasbga qiziqishni shakllantirishda tarbiyachi har bir bolaning qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olgan holda, ularnu shunga mos kasbga yo‘naltirishlari lozim.Tarbiyachi har bir kasbning ahamiyatini bolaga uning yoshiga mos tarzda tushuntirishi, davlatimiz tomonidan har bir kasb egalariga berilayotgan e'tibor, ular uchun yaratilgan imkoniyat va shart-sharoitlar haqida haqida ham so‘zlab berishi lozim.

Rol o‘ynash

Turli kasblarni o‘rganishning eng oson yo‘lidir.Bolaga kasbni tushuntirib, so‘ng shu kasb egasining vazifasini bajarishga imkon berishdir.Rol o‘ynash bu yoshdagi bolalarga turli mutaxassislar bilan tanishish va har bir kasb bilan bog‘liq vazifa va mas'uliyatni yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

Ota-onalar bilan hamkorlik

Maktabgacha tarbiya guruhidagi bolalarning ota-onalari turli kasb egalari.Maktabgacha ta'lim tashkiloti tomonidan o‘tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etishni istagan ota-onalarni kelishga taklif qilish va bolalar bilan o‘z kasblari haqida suhbatlashishga imkon yaratish ham juda samarali hisoblanadi.Agar ota-ona ish joyida forma kiysa, maktabgacha ta'lim tashkilotiga tashrif buyurganida uni kiyishini so‘rash lozim.

Bolalarni kelajakda qanday inson bo‘lishlari va qaysi kasbni egallashlari aynan maktabgacha yosh davrida yaqqol namoyon bo‘ladi.Bizning maqsadimiz ham yurtimiz ravnaqiga hissa qo‘shadigan barkamol va komil avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iboratdir.Shu sababdan, maktabgacha yosh davridan bolalarni kasb tanlashga qiziqishni shakllantirish muhim hisoblanadi.Kasb-hunarga yo‘naltirishning muhim yo‘nalishlaridan biri bu professional va keng ko‘lamdagi ma'lumotdir.Bola kasblar dunyosining qanchalik xilma-xilligini, ularning har biri o‘ziga xosligini

tushunishi kerak.Shunga ko‘ra, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kasb tanlashga qiziqishlarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.Bolalarni har tomonlama barkamol shaxs qilib rivojlantirish va ularni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida kasblar bilan tanishtirib borish bolani o‘z vaqtida mustaqil hayotga jasorat bilan kirishi o‘z kasbiy faoliyat yo‘lini tanlashi uchun tayyorlashni nazarda tutadi.Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ta’lim-tarbiya jarayonida ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish, muassasalarni zamonaviy bilimlar bilan qurollangan tarbiyachilar bilan ta’minlash hamda ularda kasbiy malaka, faoliyatga nisbatan ijodiy yondashuv hissini qaror toptirish, uzluksiz ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Kasb tanlash muammosiga oid ko‘plab tadqiqotlar bag‘ishlangan, xususan B.Mirzaaxmedov, P.Mazgumov, E.Choriev, Q.Boymirov, O.Ma’diev, U.Nishonaliyev, K.Davlatov ishlarida kasb tanlash tizimini faqat mohiyati va asosiy boshlang‘ich qirralari aniqlanib qolmasdan, balki bu ishlarning mazmuni asoslanilgan.Faylasuf I.Kant so‘zi bilan aytganda, tarbiyachiga “aql intizomi” xos bo‘lishi kerak va shu sababli tarbiyani singdirish jarayonida kasbga qiziqishni kuchaytirish bosh maqsad bo‘lib qoladi.Kasb-hunar inson uchun zarur faoliyat, kasb-hunarning umri uzoq, u o‘lmas mo‘jiza, tuganmas boylik – javohirdir.Kasb-hunar tufayli biz barcha orzularimizga erishamiz.Maktabgacha yoshda bolalar uchun kasb va kasblar haqida o‘ylash uchun avvaliga erta tuyulishi mumkin bo‘lsa-da, unday emas.Maktabgacha yoshdagi bolalar juda qiziquvchan va kattalar dunyosini o‘rganish juda qiziqarli ko‘rinadi, shuning uchun biz ularga u taqdim etayotgan hamma narsani kashf qilish imkoniyatini berishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim Vazirligi “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim tashkilotining o‘quv dasturi.
2. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kasbga erkin qiziqishlarini shakllantirish ijtimoiy muammo sifatida N.N.Djamilova –2023, № 4 Pedagogika 24-26 .b
3. Tolipov O‘.Q., SHaripov SH.S., Xolmatov P.Q. Darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘llash texnologiyasi. –Toshkent: O‘zPFITI. 2004. 32 b.
4. Nishonaliev U.N., SHodiev N.SH., Muslimov N.A. Mehnat ta`limidan ―Kasbga yo‘naltirish asoslari‖ kursi bo‘yicha metodik qo‘llanma. –Toshkent, 2004. 12 b.
5. Sharipov.SH.S., Davlatov.K., Nasriddinova.G.S. Kasbga yo‘naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari o‘quv qo‘llanma.- Toshkent, 2007.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA STEAM TA’LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Qurbonova Xolbibi To‘raqulovna,
Navoiy viloyati PMM katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: maqolada Mamlakatlarning o‘zlarining ta'lim standartlarini zamonaviylashtirish va ilmiy-texnik kadrlarni kengaytirish bo‘yicha faol harakatlari mamlakatimiz ta'lim tizimiga STEM-usullarni joriy etish masalasini aktuallashtirmoqda STEAM – ta’lim texnologiyasi maktab o‘quvchilarini yangi o‘qitish metodikasi bo‘lib, an'anaviy o‘qitish tizimiga qo‘llash orqali o‘quvchilar faolligini oshirish usullari va vositalari yoritilgan.

Аннотация: в статье активная деятельность стран по модернизации своих образовательных стандартов и расширению научно-технических кадров делает более актуальным вопрос внедрения STEM-методов в систему образования нашей страны, а также методов и средств повышения активности студентов применение его к традиционной системе обучения.

Annotation: in the article, the active efforts of countries to modernize their educational standards and expand scientific and technical personnel make the issue of introducing STEM-methods into the education system of our country more relevant. and methods and means of increasing students' activity by applying it to the traditional teaching system are highlighted.

Kalit so‘zlar: faollik, faollashtirish, STEAM ta'lim texnologiyasi, STEM-metodlarni milliy ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi, intelektual

Ключевые слова: деятельность, активизация, образовательная технология STEAM, интеграция STEM-методов в национальную систему образования, интеллектуальная

Key words: activity, activation, STEAM educational technology, integration of STEM-methods into the national education system, intellectual

Xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq. Kelajak yoshlarimizning qo‘lida.

Sh.M.Mirziyoyev

Mamlakatimizda ta'limga e'tibor davlat siyosati darajasi sifatida qaralmoqda. Davlatning qudrati va boyligi uning yer osti, yer usti boyliklari bilan baholanmasdan balki uning intelektual salohiyati bilan baholanadi. Respublikamizda so‘ngi yillarda ta'limga yangi innovatson g‘oyalarni joriy qilish uchun bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi “Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538 Farmonida ekologik jihatdan toza materiallar va energiyaning muqobil manbalaridan foydalangan holda ishlab chiqilgan namunaviy loyihalar asosida zamonaviy maktablar qurish, maktablarni, shu jumladan, o‘quv sinflari ichini yangi qulay mebellar, zamonaviy o‘quv va laboratoriya uskunalari, darsliklar va o‘quv-uslubiy materiallar, kompyuter va multimedia texnikasi, videokuzatuv tizimlari bilan jihozlash, o‘quv rejalari va dasturlarini optimallashtirish, innovatsion masofaviy pedagogik usullardan keng foydalanish jarayoni samaradorligini butunlay oshirishni nazarda tutgan holda umumta'lim muassasalarining rahbar va pedagogik xodimlari malakasini oshirish tartibi va tizimini tubdan qayta ko‘rib chiqilishi kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

STEAM – ta’lim texnologiyasi maktab o‘quvchilarini yangi o‘qitish metodikasi bo‘lib, an'anaviy o‘qitish tizimiga muqobil tizim hisoblanadi. Ushbu texnologiya o‘quvchilarni bir vaqtning o‘zida Science (tabiiy fanlar), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Art (san'at) va Mathematics (matematika) bo‘yicha o‘qitish tizimiga asoslangan, bunda o‘quvchilar amaliy va ko‘ngilochar loyihalar mashg‘ulotlari yordamida saboq oladilar.

STEAM (S - fan, T - texnologiya, E - muhandislik, A - san'at, M - matematika) - ilm-fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani birlashtiruvchi zamonaviy yondashuvdir.

STEM- ta'lim texnologiyasi o‘quvchilarning ilmiy texnika yo‘nalishlari kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, bu yo‘nalish kengaytirilib,

atamaga qo‘shimcha harflar kiritildi. Jumladan: “R”-robotik robototexnikani qo‘shib, STREM- deb yoki “A”-art –sa'natni qo‘shib, **STEAM** deb atala boshlandi.

Bu texnologiyani, aniq fanlar va tabiiy fanlarni o‘rganishni o‘z ichiga oladi, alohida fanlar sifatida emas, balki ushbu sohalarda bilimlarni integratsiyalashgan holda qo‘llashni talab qiladigan vazifalarni qo‘yib, bu holda asosiy maqsad ob'ektlarni "o‘rganish" emas, balki talabalarning mantiqiy, ijodiy va ijodiy fikrlashlari, jamoada ishlash ko‘nikmalari, moslashishi va innovatsion yechimlarni topish qobiliyati, ilmiy va texnik kasbni tanlashga bo‘lgan qiziqishni oshirishdir.

Mamlakatlarning o‘zlarining ta'lim standartlarini zamonaviylashtirish va ilmiy-texnik kadrlarni kengaytirish bo‘yicha faol harakatlari mamlakatimiz ta'lim tizimiga STEM-usullarni joriy etish masalasini aktuallashtirmoqda. Buning uchun O‘zbekistonda zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. Xususan, 2018–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasida xalq ta'limi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi tasdiqlandi. Hujjatda yangi davlat ta'lim standartlari va umumiy o‘rta ta'limning o‘quv dasturlari, shu jumladan STEAM usullari takomillashtirilgan va bosqichma-bosqich amalga oshirilganligi ko‘rsatilgan. Ilmiy-texnik ta'limning ushbu shakli o‘quvchilarning ijodiy va badiiy tafakkurini rivojlantirishni nazarda tutuvchi "San'at" ijodiy tarkibiy qismining **STEM** fanlarini to‘ldiradi.

Shu bilan birga, bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar fonida **STEM**-metodlarni milliy ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi bir qator muammolarni hal qilish zarurati bilan bog‘liq bo‘lgan juda ko‘p qirrali muammo bo‘lib qolmoqda. Ta'limning barcha darajalari uchun **STEM** o‘qituvchilarini tayyorlashning samarali tizimini yaratish, shuningdek, ta'lim muassasalarida tegishli infratuzilma bilan ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi davr talabi dunyo ta'limi oldiga katta vazifalarni qo‘ymoqda, ya'ni bolani kelajakda jamiyatda yashashga tayyorlashi kerak.Bunda birinchi navbatda tez o‘zgarayotgan, yangilanib borayotgan axborotlar bilan uyg‘un holda faol ishlaydigan kasb egalari timsolini bugungi o‘quvchi yoshlarda shakllantirish lozim.Axborotni olish, qayta ishlash va amaliyotda foydalanish **STEAM** ta'limi dasturining asosini tashkil etadi.

STEAM ta’limi texnologiyasi loyihalash metodiga tayangan holda uning asosida bilish va badiiy izlanish yotadi. Bunday izlanish amaliy faoliyat jarayonida bilimlarni olish, so‘ngra ulardan amaliyotda qayta foydalanish, ya'ni o‘yinlarda konstruksiyalar tuzish, texnik ijodiyot elementlarini qo‘llab, bilim olishga oid tadqiqot ishlarida amalga oshiriladi.

STEAM ta’limi o‘quvchi yoshlarning rivojlanishini tashqi olam bilan bevosita bog‘laydi. Ma'lumki, tabiiy fanlar atrofimizdagi olam bilan bevosita bog‘liq texnologiya kundalik hayotimizda doimiy ravishda qo‘llaniladi, muhandislik esa uylar, yo‘llar, ko‘priklar va mashina mexanizmlarda o‘z aksini topgan, biror bir kasb, kundalik mag‘ulotlarimiz ozmi-ko‘pmi matematika fani bilan ham bog‘langandir.

STEAM ta’limi asosida yondashuv o‘quvchi yoshlarga dunyoni tizimli ravishda o‘rganishga, atrofda ro‘y berayotgan jarayonlarni mantiqiy mushohada qilishga, ulardagi o‘zaro aloqani anglab yetishga o‘zi uchun yangi, noodatiy va qiziqarli narsalarni kashf qilishga imkon beradi. Qandaydir yangilikni kutish orqali o‘quvchi yoshlarda qiziquvchanlikni rivojlantiradi, o‘zi uchun qiziqarli masalani aniqlab olishni, yechimini topishning algoritimini ishlab chiqishni, natijalarni tanqidiy baholashni, fikrlashning muhandislik jihatlarini shakllantirishga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, STEAM o‘quvchilarni tajribalar o‘tkazish, modellarni konstruksiyalash, musiqa va filmlarni mustaqil yaratish, o‘z g‘oyalarini amalga oshirish va mahsulot yaratishni rag‘batlantiradi. O‘qitishga bunday yondashuv bolalarga nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini samarali chog‘ishtirish imkonini beradi. O‘quvchilarning ijodkorligini oshiradi, yuqori malakali, zamon talabiga mos kadrlar tayyorlashda mustahkam poydevor bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni 2020-yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son.
2. Yusupova G.Z. Boshlanǵich sinf o‘quvchilarida kreativ faollikni shakllantiruvchi metodlar // Metodik qo‘llanma. Nukus.: 2020
3. PISA 2012 Assessment and Analytical Framework (mathematics, reading, science, problem solving and financial literacy.
4. Timss 2015 Assessment Frameworks. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA).

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANIDAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH

Yo‘ldasheva Yulduz Xamdamovna,
Uchquduq tuman 5-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Matematika darslarida innovatsion texnologiyalarini qo‘llash orqali, zamon talabiga mos dars o‘tishlari, ta’limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta’lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish. Bu hozirgi davrda uzluksiz ta’lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri ekanligi yoritib berilgan.

Аннотация: Использование инновационных технологий в математике, современных методов обучения, создание современных методик обучения, совершенствование государственных образовательных стандартов на основе компетентностного подхода. Это одна из важнейших задач системы непрерывного образования сегодня.

Annotation: The use of innovative technologies in mathematics, modern teaching methods, the creation of modern teaching methodologies, the improvement of state educational standards on the basis of a competency-based approach. This is one of the most important tasks of the continuing education system today.

Kalit so‘zlar: innovatsion texnologiya, zamonaviy metodologiya, vosita, metod.

Agar biror tizimni yangilashga qaratilgan faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo‘lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o‘zgartirishga xizmat qilsa u novatsiya (yangilanish) deb yuritiladi. Bordi-yu, faoliyat ma’lum konseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki undan tubdan o‘zgartririshga xizmat qilsa, u innovatsiya (yangilik kiritish) deb ataladi. Ta’limning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta’lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirildi.Ta’lim oluvchida yangi g‘oya, me’yor, qoidalarni yaratish, o‘zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg‘or g‘oyalar, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarini shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta’limga innovatsion ta’lim deyiladi. Innovatsion ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalar innovatsion

ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb nomlanadi. Ta'lim innovatsiyalari - ta'lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo‘llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalardan iborat deb aytish mumkin.

Ma'lumki, boshlang‘ich sinflarda ta'lim-tarbiya samaradorligiga erishish maktab ta'limining poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Jahonda ta'lim standartlari darajasida bilim berish hamda ta'lim innovatsiyalarini joriy etish orqali har tomonlama yetuk ijodkor ma'naviy boy, kasb-hunarli, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy istiqlol g‘oyasi ruhida tarbiyalangan, o‘z mustaqil fikriga ega barkamol shaxsni voyaga yetkazish kabi vazifalarni hal etishda ta'lim muassasalarining pedagogik jamoasi, xususan, har bir fan o‘qituvchisi o‘z pedagogik faoliyatini tubdan o‘zgartirishi lozim. Zamon talabiga muvofiq holda har bir fan o‘qituvchisi o‘zining mutaxassisligini, chuqur o‘zlashtirgan, pedagogik-psixologik hamda metodik bilim, ko‘nikma va malakalarni puxta egallagan, ta'lim-tarbiya jarayonini samaradorligini oshiradigan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan xabardor va ularni ta'lim jarayonida qo‘llay olish malakasiga ega bo‘lishi bilan birga innovatsion faoliyat egasi bo‘lishi lozim. Har bir dars o‘qituvchidan o‘ziga xos innovatsiyalarni, ya'ni ijodiy yondashuvni talab qiladi. Matematika fani rivojlanishining asoslari boshqa fanlarning rivojlanishi kabi insoniyat faoliyatining ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqadi.

Matematika darsida o‘quv tarbiya jarayonining barcha elementlari o‘zaro uyg‘unlikda bo‘ladi. Bular maqsad va mazmun, vositalar, metodlar, ta'limni tashkil qilish shakllari bilan uzviy bog‘liq. Noan'anaviy ta'limda 4 ta komponent uyg‘unlikda amalga oshiriladi.

Bular maqsad, mazmun, faoliyat, natija. Demak, hozirgi zamon matematikasi darsining asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

-darsning dastur talablariga mosligi;

-har bir dars maqsadlarining aniq rejalashtirilishi;

-o‘quv materiallarining sinfda taqsim qilib, o‘zlashtirilishini ta'minlash va ta'lim natijalariga erishish;

-o‘quvchilarni sinfda toliqtirmasdan faol ishlarini ta'minlash;

Matematika darslarida o‘quvchilarning kuzatuvchanlik, ziyraklik, atrofga tanqidiy qarash, ishda tashabbuskorlik, mas'uliyat, to‘g‘ri va aniq so‘zlash, hisoblash, o‘lchash va yozuvlarda aniqlik, mehnatsevarlik va qiyinchiliklarni yengish xislatlari tarbiyalanadi.

Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda matematika fanini o‘qitishda kichik guruhlarda ishlash usulidan foydalanish ancha samarali bo‘ladi. Bunday usulda o‘qitishda kichik guruhlar to‘rtta o‘quvchidan tashkil topadi. O‘qituvchi avval mavzu mazmunini tushuntiradi, so‘ngra o‘quvchilarning mustaqil ishlari tashkil etiladi. O‘quvchilarga berilgan o‘quv topshiriqlari yoki masalalar to‘rt qismga ajratilib, har bir o‘quvchi topshiriqning ma'lum qismini bajaradi. Topshiriq yakunida har bir o‘quvchi o‘zi bajargan qism yuzasidan umumiy xulosa chiqariladi. O‘qituvchi har bir kichik guruh natijasini tinglaydi va test savollari yordamida bilimlarni nazorat qilib baholaydi. Bunday mashg‘ulot shakllari va dars bir-birini to‘ldiradi. O‘quvchilarning matematika fanini o‘rganishga qiziqishlarini orttiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, matematika o‘qitish samaradorligini oshirish o‘quvchining ta'lim markazida bo‘lishini va ularning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalarida yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan va ***o‘z*** sohasidagi

bilimlarini mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarini va axborot texnologiyalarini biladigan, ularda o‘qish va tarbiyaviy mashg‘ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan bo‘lishi kerak. Buning uchun barcha fan o‘qituvchilarini yangi pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalaridan foydalanib ishlashni zamon talab qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. V.Repyova. *Matematika.* Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-sinf uchun darslik. – Toshkent: “Novda Edutainment” nashriyoti, 2023.
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. T.: 2008

MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR: INNOVATSION USULLARNING AHAMIYATI

Adizova Nilufar Quvondiq qizi,
Navoiy viloyati PMM metodisti

Annotatsiya. Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tizmining boshlang‘ich va muhim qismi hisoblanadi.Bolalar maktabgacha yosh davrida har tomonlama jadal rivojlanadilar.Har tomonlama rivojlangan, barkamol kelajak avlodni yetishtirishning asosiy sharti maktabgacha yoshdanoq sifatli ta’lim berishdir. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Muhtaram prezidentimiz tomonidan pedagog xodimlarning kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishga qaratilgan farmonlari e’lon qilindi.Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tizimidagi eng so‘nggi islohotlar va innovatsion usullar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim, islohotlar, innovatsion usullar, rivojlanish sohalari, ijtimoiy tarmoq, zamonaviy yondashuv, metodik mahorat kun, metodik mahorat soat, mobil malaka oshirish.

Abstract. Preschool education is considered the initial and important part of the continuous education system. Children develop rapidly in all aspects during the preschool age. Providing quality education from an early age is the main condition for raising a well-rounded and developed future generation. Currently, a number of reforms are being implemented in the preschool education system. Our esteemed president has announced decrees aimed at regularly improving the professional competence of pedagogical staff. This article presents the latest reforms and innovative methods in the preschool education system.

Keywords: Preschool education, reforms, innovative methods, areas of development, social network, modern approach, methodological skill day, methodological skill hour, mobile qualification enhancement.

Hozirgi global o‘zgarishlar davrida ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosatining asosiy g‘oyasiga aylangan.Jannatmakon O‘zbekistonimizda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, bu esa ta’lim-tarbiya tizimi asosiy zamin bo‘lib qilishini anglatadi.Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarini kreativ fikrlaydigan,yuqori malakali tarbiyachilar va mutaxassislar bilan ta’minlash, maktabgacha ta’lim sifatini yanada oshirish va ilg‘or xorijiy tajribalarni ta’lim tizimiga joriy etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar

to‘g‘risida”gi 152-sonli farmoni imzolandi.Ushbu farmonda maktabgacha ta’lim va umumiy o‘rta ta’limning uzluksizligi va uzviyligini ta’minlash, maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish, sohada faoliyat yuritayotgan xususiy sektor vakillarini rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash, ta’lim jarayoniga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va raqamli texnologiyalarni keng joriy etishga qaratilgan vazifalar keltirilgan.2025-2026 o‘quv yilidan boshlab bolaning rivojlanish xaritasini maktabgacha ta’limni boshqarish axborot tizimida yuritish va elektron sertifikat berish tartibi yo‘lga qo‘yish rejalashtirilgan.2025-yil 1-yanvardan boshlab maktabgacha ta’lim sohasida pedagog kadrlarning uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta’minlash maqsadida hamda yuqoridagi farmonga asosan O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 8-noyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida malaka oshirishning “Metodik mahorat kun” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to‘g‘risida”gi 362-sonli buyrug‘i ishlab chiqildi.Mazkur buyruq asosida respublikamizning barcha viloyat va tumanlarida tayanch maktabgacha ta’lim tashkilotlari belgilandi. Ilg‘or pedagoglar saralanib mentor-trener sifatida o‘qitildi va Metodik mahorat kuni va Metodik mahorat soati tadbirlarining o‘quv materiallari (o‘quv reja, o‘quv dasturi, taqdimot, tarqatma materiallar, nazorat va baholash materiallari) Respublika muvofiqlashtirish kengashi tomonidan ishlab chiqildi.Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida direktor o‘rinbosari lavozimi joriy etilib, ularning vazifasi belgilandi.Metodik mahorat kun doirasida direktor o‘rinbosarlari tayanch maktabgacha ta’lim tashkilotida yig‘ilishadi va ularga mentor tomonidan seminar o‘tiladi.Metodik mahorat soati jarayonlarida esa direktor o‘rinbosarlari seminardan olgan yangi bilim va tajribalarini o‘z tashkilotidagi tarbiyachilarga ulashadi. Bu tadbirlarni tashkil qilishning asosiy maqsadi – maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy mahoratini oshirish, ijodiy ishlash va o‘z bilimini doimiy boyitib borish, zamonaviy o‘qitish metodikasi va axborot kommunikatsiya vositalaridan unumli foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2025-yil 19-fevraldagi “Uzoq va chekka hududlarda joylashgan nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun mobil malaka oshirish xizmatlarini joriy etish to‘g‘risida”gi 59-sonli buyrug‘i ishlab chiqildi.Ushbu buyruq asosida olis hududlari mavjud bo‘lgan viloyatlar uchun mobil avtobuslar berildi.Avtobus mashg‘ulot olib borish uchun zaruriy barcha jihozlar bilan ta’minlangan.Bunday yangicha malaka oshirish usuli orqali olis hududlardagi tarbiyachilar ham zamonaviy usullar va innovatsion texnologiyalardan xabardor bo‘lishmoqda.Albatta, bu ishlarning zamirida bitta maqsad- har tomonlama rivojlangan, barkamol insonni shakllantirish, ta’lim tizimini zamon bilan hamnafas holda rivojlantirish yotadi.Maktabgacha ta'lim bolaning hayotining dastlabki yillarida to‘liq rivojlanishi uchun juda muhimdir. Bu bolalarga kelajakdagi ta'lim va shaxsiy muvaffaqiyat uchun asos bo‘lgan muhim ko‘nikmalarni kashf qilish, o‘rganish va rivojlantirish imkonini beradigan muhitni yaratadi.Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mashg‘ulotlar zamonaviy usullar va texnologiyalar asosida olib borilsagina o‘z samarasini beradi.Hozirgi kunda bir qancha ta’lim strategiyalari yuqori natija bermoqda.

O‘yinga asoslangan ta’lim:

O‘yin erta bolalik ta’limining ajralmas qismidir.O‘yinga asoslangan ta’lim bolalarga atrofdagi dunyoni o‘rganish, tajriba va tushunish imkonini beruvchi tuzilgan va tuzilmagan faoliyatni o‘z ichiga oladi.O‘yin orqali bolalar ijtimoiy, hissiy, aqliy va jismoniy jihatdan rivojlanadi.

Hamkorlikdagi ta’lim:

Hamkorlikdagi ta’lim bolalar umumiy maqsadga erishish uchun birgalikda harakat qiladigan guruh faoliyatini o‘z ichiga oladi.Jamoada ishlash, muloqot qilish ko‘nikmalari va jamoa tuyg‘usini rivojlantiradi.

Integratsiyalashgan ta’lim:

Bu ta’limda mashg‘ulot mavzusi hayotiy misollar yoki biror bir o‘yin turi bilan bog‘lanadi.Ushbu yondashuv bolalarga bilimlar qanday bog‘langanligini ko‘rishga yordam beradi va tushunchalarni umumiy tushunishga undaydi.

Ochiq havoda va tabiatga asoslangan ta’lim:

U an’anaviy sinf devorlaridan tashqariga chiqadi va bolalar ta’limi uchun tabiiy muhitning afzalliklarini o‘z ichiga oladi.Ushbu yondashuv jismoniy faollikni, hissiy kashfiyotni va tabiiy dunyoni chuqurroq tushunish va qadrlashni rag‘batlantiradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun o‘qitish usullari keyinchalik akademik va shaxsiy o‘sish uchun zamin yaratishda erta bolalik ta’limining ahamiyatini umume’tirof etishini namoyish etadi.Ushbu usullar yosh bolalarning turli ehtiyojlari va qiziqishlarini qondirish uchun puxta ishlab chiqilgan, shu bilan birga o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqni uyg‘otadi va ta’limga ijobiy nuqtai nazarni uyg‘otadi. Shu bilan birga, bu metodlarning samarali tatbiqi pedagoglarning malakasini oshirishni talab qiladi. Maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, bolalarga o‘z salohiyatlarini to‘liq ochib berishga yordam beradi va ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga mustahkam poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 152-sonli farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 8-noyabrdagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida malaka oshirishning “Metodik mahorat kun” va “Metodik mahorat soati” tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to‘g‘risida”gi 362-sonli buyrug‘i.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PQ-4312-sonli Qarori. 2019 yil 8 may.
4. Raxmonova G.U. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘yin texnologiyalari orqali kasb-hunarga qiziqishlarini shakllantirish: Ped.fan.(PhD).diss. –T.: 2023.
5. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent,2018.

BOSHLANG‘ICH SINF DARS JARAYONLARIDA TA’LIMIY VA DIDAKTIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH

Hamdamova N.,
Navoiy viloyati PMM katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinf dars jarayonlarida ta’limiy va didaktik o‘yinlarning ahamiyati, mazmun mohiyati, didaktik o‘yinlardan namunalar berilgan.

Kalit so‘zlar: O‘yin faoliyati, hamkorlik, ijodkorlik, motivatsiya, ta’limiy va di daktik o‘yinlar.

Аннотация: В статье рассматривается значение учебно-дидактических игр на уроках начальных классов, сущность их содержания, приводятся примеры дидактических игр.

Ключевые слова: Игровая деятельность, сотрудничество, творчество, мотивация, развивающие и дидактические игры

Abstract: The article discusses the importance of educational and didactic games in primary school classrooms, the essence of their content, and examples of didactic games.

Keywords: Game activity, cooperation, creativity, motivation, educational and didactic games

O‘yin faoliyati bolalarning jismoniy va psixik jihatdan har tomonlama rivojlani shi uchun birdan – bir vositadir.Bolaning tabiatiga mos tushuvchi o‘yinlar o‘quv tarbiya viy jarayonni harakatga keltiruvchi kuchga aylanishi mumkin. O‘yin o‘quvchining dars jarayonida yuqori bosqichga erishishga qiziqishini orttiradi va unda kuchli motivatsiya hosil qilish imkoniyatini beradi.O‘quvchilarni tezkorlikda harakat qilishga, chaqqonlik, topqirlikka, topshiriqlarni aniq, tez, vaqtida bajarishga o‘rgatadi. O‘quvchilarda o‘zaro hamkorlik, ijodkorlik, bir- birini qo‘llab – quvatlash odatlari rivojlantiriladi.

O‘yin nima? O‘yinlar turli xil bo‘ladi, masalan didaktik, ta’limiy, milliy, harakat li, so‘z o‘yinlari, voqeaband, syujetli- rolli o‘yinlar va hokazolar. Shulardan biri didak tik o‘yinlar – ta’lim xarakteriga ega bo‘lib, bolalarning bilimini mustahkamlashga va kengaytirishga ularni umumlashtirishga, tizimga solishga yordam beradi.

Ta’limiy o‘yinlar bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini yengillatish va o‘yin orqali bilim berish maqsadida yaratilgan. Zamonaviy bilimlar sari keng yo‘l ochish ta’limni takomillashtirishda ta’limiy o‘yinlardan unumli foydalanish bugungi kunning eng aso siy talablaridan biridir.

Quyida boshlang‘ich sinf o‘qish, ona tili, matematika,tarbiya fanlarida qo‘llasa bo‘ladigan, o‘quvchilarning ijodiy faolligini oshirishga qaratilgan o‘yinli usullardan na munalar keltiramiz.

“Mozaika” o‘yini

Bu o‘yinni yangi mavzuni mustahkamlash yoki o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish maqsadida o‘tkazib boriladi. Bu usulni o‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lin gan holda o‘tkazish maqsadga muvofiq.

O‘qituvchi qog‘ozni kichik ko‘rinishda qirqib har biriga so‘z yozib chiqadi, ularni kichik qutichaga solib guruhlarga tarqatadi. Guruhlarga vatman qog‘oz va va yelim tar qatiladi.O‘quvchilar qutichadagi so‘z yozilgan qog‘ozlarni stol ustiga aralashgan holda yoyib qo‘yadilar va so‘zlar ishtirokida kichik matn tuzadilar.

“O‘zing top” o‘yini

Har bir guruhga topshiriq yozilgan kartochka tarqatiladi, guruh a’zolari topish moqning javobini topib, rasmini chizadilar.

“Javobi o‘zim bilan” o‘yini.

Bu o‘yin yangi mavzu mazmunidan kelib chiqib tashkil etiladi. O‘qituvchi matnni o‘qiydi.Matnda berilgan sirli so‘zlardan matnning mavzusi kelib chiqadi.

“Tilla tuxum” ta’limiy o‘yini

Zarur jihozlar tayyorlanadi va o‘yin sharti tushuntiriladi. Bu ta’limiy o‘yin bo‘lim yuzasidan takrorlashda juda yaxshi samara beradi.



Dars jarayonida didaktik o‘yinlarni tashkil etish o‘quvchilar o‘rtasida muloqot qi lish, diqqatni jamlash va o‘z navbatida hozirjavoblik kabi xislatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘yindan muntazam ravishda foydalanish ta’limda tabiiy sharoitni, bu esa o‘quvchilarning dars davomida erkin faoliyat olib bo rishlariga imkoniyat yaratadi. O‘yindan samarali va olib borilayotgan darsning mazmu niga mos holda foydalanish o‘quvchining dars davomida berilayotgan manbalarni musta qil o‘zlashtirishi, ijodiy tafakkurini o‘stirishi, ularning yashirin imkoniyatlari va fanga bo‘lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi.

“Darvoza” o‘yini

Darvoza o‘yini 1-sinfda 10 ichida qo‘shish va ayirish, 20 ichida qo‘shish va ayi rish, 100 ichida qo‘shish va ayirish kabi mavzularni o‘tishda juda qo‘l keladi.

Darvoza darschasida 10 soni qo‘yiladi. Ikki o‘quvchi darvoza ustunini ushlab tura di.Sonlar o‘quvchilarga tarqatiladi. Masalan: 1 bilan 9 soni, 2 bilan 8,3 bilan 7 va….. ho kazo sherik bo‘lib darvozadan kirishadi. Ayirganda bir - bir chiqib ketishadi. Shu tartib da o‘yin davom etadi.

“Zukkolar” o‘yini.

O‘yinning maqsadi: Ko‘paytirish va bo‘lishga doir amallar yechish malakalarini mustahkamlash. O‘yin qatorlararo o‘tkaziladi. Qatorlar nomi doskaga yoziladi va o‘quv chilar soni teng bo‘linadi. O‘qituvchi har bir qatorning oxirida o‘tirgan o‘quvchiga bayroqchani beradi. O‘qituvchi son aytadi. Masalan: 1- qatorga 6 soni, 2-qatorga 4 soni, 3- qatorga 5 soni. Bayroqchalarni olgan o‘quvchi 6 x 1= 6 deb bayroqchani oldingi partadagi o‘quvchiga uzatadi. 12 x 2 = 24; 24 : 3 = 8; 8 x 5= 40; 40: 4 = 10. O‘quvchilar natija qaysi son bilan tugasa, shu son bilan boshlanadigan ifoda tuzishi kerak bo‘ladi. Bayroqcha 1-partaga kelganda oxirgi o‘quvchi 6 soni hosil bo‘ladigan ifoda bilan o‘yin ni yakunlashi kerak bo‘ladi. Qaysi qatorning bayroqchasi birinchi partaga tez yetib kel sa, o‘sha qator g‘olib bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, bola hayotida o‘yinlar uning shaxs sifatida tar biya topishiga katta imkoniyat yaratadi. Dars jarayonida jo‘shqin vaziyatni yuzaga kel tiradi. Eng muhumi bolalardagi iqtidor, salohiyat, maqsadga intiluvchanlikni yuzaga chi qaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boshlang‘ich ta’lim jurnalining 2016- yil 1,6- sonlari
2. Boshlang‘ich sinf darslari jarayonida didaktik o‘yinlar va ularning ahamiyati Международный научный журнал №8(100), часть 2 “Новости образования: иссле

дованиев XXI веке” март, 2023г Surxondaryo viloyati Denov tumani 77-maktab Bosh lang‘ich sinf o‘qituvchisi Alimar danova Zarina
3. M.E.Jumayev, N.T. Ahmedova, B.S. Abdullayeva, N.U. Aslonova “Boshlang‘ich sinf lar uchun matematikadan didaktik materiallar” (O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llan ma) Toshkent- 2016

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SAVODXONLIK DARSLARINI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR ORQALI TASHKIL ETISH

Hamdamova N.X.,
Navoiy viloyati PMM katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinflarda savodxonlik darslarida foyda laniladigan innovatsion metodlar va ularning mazmun mohiyati va dars samarador ligini oshiruvchu metodlardan namunalar berilgan.

Kalit so‘zlar: savodxonlik, zamonaviy, pedagogik, yondashuv

Аннотация: В статье приводятся примеры инновационных методов, используемых на уроках грамотности в начальных классах, их содержание и эффективность.

Ключевые слова: грамотность, современный, педагогический, подход

Abstract: The article presents examples of innovative methods used in literacy lessons in primary grades and methods that increase the content and effectiveness of the lesson.

Keywords: literacy, modern, pedagogical, approach

Bugungi kunda savodxonlik darslarini tashkil etishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar qo‘llanilishi o‘quvchilarning faolligini oshiradi va darslar samarador ligini yaxshilaydi.

(Amerikalik faylasuf, psixolog, zamonaviy ta’lim tizimiga katta hissa qo‘shgan shaxs) Jon Deweyning fikriga ko‘ra:

Zamonaviy darslar o‘qituvchining faolligini va, o‘quvchilarning ishtiroki ni va ularning ehtiyojlariga moslashtirishga asoslanishini ta’kidlash kerak deb ay tib o‘tgan edi. Bu olimning fikricha zamonaviy ta’lim bilan ishlash o‘quvchilar tomonidan juda yuksak baholanadi.

Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talalardan biri ortiq cha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay,qisqa vaqt ichida yaxshi natijalarga erishib muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchiga yetkazib berishdan iboratdir. Zamonaviy ta’limda **bilim** - ma’lum bir fanni nazariy o‘zlashtirishni aks ettiradigan inson g‘o yalar yig‘indisidir. Ularda ma’lum faoliyat yuzasidan **ko‘nikma** – egallagan bilim larning aniq hatti harakatidagi ifodasi va o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo‘l lay olishdir. **Malaka**-avtomatlashgan biror bir usul bilan bexato bajarish ko‘nikma ning takomillashgan darajasidir.

Boshlang‘ich sinflarda savodxonlik darslarini zamonaviy usullar asosida tashkil etish uchun quyidagi yondashuvlar samarali hisoblanadi:Bu yondashuvda 4 K modeli yordamida olishimiz mumkin.

- **Kollaboratsiya –** jamoa bo‘lib ishlash qobiliyatini shakllantirish
- **Kommunikativlik –** o‘zaro muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish
- **Kreativ fikrlash –** o‘z maqsadlariga erishish yo‘lida yangiliklarga qo‘l urish, nooda tiy qarorlar qabul qilish, ixtirochilik ko‘nikmalarini o‘rganish

-Kritik fikrlash – o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lish va uni ifoda etish, masalaga tanqidiy yondashish

Boshlang‘ich sinflarda savodxonlik darslarida zamonaviy yondashadigan bo‘lsak interfaol usullardan foydalanamiz.Quyidasavodxonlik darslarida foydalani ladiga bir nechta interfaol metodlardan namunalar keltiraman:

“Baliq ovlash” metodi



Bu metodda o‘quvchilar uch guruhga bo‘linadi.Va doskada uchta akvarium rasmi turadi savollarga javob bergan o‘quvchilar bittadan baliqchani olib akvari umga yopishtiradilar.Qaysi jamoa akvariumga ko‘p baliqcha yig‘sa o‘sha jamoa g‘olib bo‘ladi. Bu metod o‘quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi mavzuni tushunishga motivatsiya uyg‘otadi, chaqqonlik va epchilligini oshiradi, bir- birini hurmat qilishni o‘rganadi.

“Aravachali muzqaymoq” metodi



Bu metodni o‘quvchilar guruhlarga bo‘lingan holda bajarishadi har bir guruh dan o‘quvchilar navbati bilan chiqib muzqaymoqdan tanlab olib guruglariga bori shadi va har bir guruh a’zolari tanlagan harfli muzqaymoqlardan so‘z hosil qilisha di.Bu metoddan barcha darslarning mustahkamlash qismida ham foydalanishingiz mumkin.

“Ona tovuq” metodi



Bu metoddan savod o‘rgatish davrida o‘quvchilarimiz unli va undosh tovush larni tanishlari, farqlashlari maqsadida foydalanishimiz mumkin.Bu metod o‘quv chilardan chaqqonlik,epchillik va ziyraklikni talab qiladi.O‘quvchilar ikki guruhga bo‘lingan holda bajarishadi bu metodni birinchi guruh unli tovushlarni, ikkinchi guruh undosh tovushlarni yig‘ishi topshiriq beriladi.Bu metod o‘quvchilarimizni kayfiyatini ko‘taradi, unli va undosh tovushlarni farqlashga o‘rganadi hamda dars ga bo‘lgan faolligi oshadi.

Sehrli qopcha metodi



Bu metodni barcha dars jarayonlarida foydalanishimiz mumkin.Bu qopcha ichi da bo‘g‘inlar yozilgan kartochkalar bo‘ladi.Qopcha ichidan bo‘g‘inlarni olib so‘z hosil qilishadi.Bu metodni mavzuni yaxshiroq tushunishi uchun ham samarali dir.

Xulosa qilib shuni aytishim kerakki tavsiya etilgan metodlar o‘quvchilarni bilim olishga bo‘lgan ehtiyojini qondiradi. Dars samaradorligini oshiradi.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLANING RIVOJLANISHIDA O‘ZBEK XALQ O‘YINLARINING AHAMIYATI

Nishonov Akmal Obidovich,
Farg‘ona viloyati PMM dotsenti,
Qodirova Gulnoza Raxmatjon qizi,
Farg‘ona viloyati PMM o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek xalq o‘yinlarining maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy, aqliy, ijtimoiy va axloqiy rivojlanishidagi o‘rni tahlil qilinadi. Xalq o‘yinlarining bolalar harakat koordinatsiyasi, muvozanat, tafakkur, ijtimoiy muloqot va milliy qadriyatlarni shakllantirishdagi ahamiyati o‘rganilgan. Shuningdek, “Ilk Qadam” davlat o‘quv dasturida xalq o‘yinlarining roli va ularning maktabgacha ta’lim jarayoniga integratsiyasi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari xalq o‘yinlarining ta’lim jarayonida samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar. o‘yin, aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, rolli o‘yin**,** virtual borliq, kengaytirilgan borliq.

Maktabgacha yosh davri bolaning jismoniy, aqliy, ijtimoiy va axloqiy rivojlanishining eng muhim bosqichlaridan biridir. Bu yoshda o‘yin bolalar hayotining ajralmas qismi bo‘lib, ularning atrof-muhitni anglashiga, muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga va jismoniy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Xalq o‘yinlari esa nafaqat madaniy merosning ajralmas qismi, balki tarbiyaviy vosita sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada o‘zbek xalq o‘yinlarining maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga ta’siri tahlil qilinadi.

Xalq o‘yinlari asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlar va urf-odatlarni aks ettiradi. O‘zbek xalq o‘yinlari bolaning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladigan, ularning tafakkurini o‘stiradigan va jismoniy faolligini oshiradigan omillardan biridir. Jahon pedagogik tajribasida ham xalq o‘yinlari tarbiyaviy vosita sifatida o‘rganilgan bo‘lib, ularning bola rivojlanishidagi o‘rni juda yuqori baholanadi.

Xalq o‘yinlarining bola rivojlanishiga ta’sirini quyidagi asosiy yo‘nalishlarda ko‘rib chiqish mumkin:

- **Jismoniy rivojlanish**: harakatli o‘yinlar orqali bolalar muvozanat, koordinatsiya va tezkorlik kabi qobiliyatlarini rivojlantiradi.
- **Aqliy rivojlanish**: o‘yin qoidalariga rioya qilish, strategiyalar ishlab chiqish va muammo yechish qobiliyatlarini shakllantirish.
- **Ijtimoiy-emotsional rivojlanish**: jamoaviy o‘yinlar orqali hamkorlik, do‘stlik, liderlik va kommunikativ ko‘nikmalarining rivojlanishi.
- **Madaniy-tarbiyaviy ahamiyati**: xalq o‘yinlari orqali milliy qadriyatlar, urf-odatlar va tarixiy merosni yosh avlodga yetkazish.

Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim muassasalarida xalq o‘yinlarini o‘quv dasturlariga integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda quyidagi jihatlar inobatga olinishi kerak:

- Pedagoglar xalq o‘yinlarining turli xil turlarini bolalarga o‘rgatishi va amaliy qo‘llashi lozim.
- Maktabgacha ta’lim muassasalari dasturlariga xalq o‘yinlarini qo‘shish orqali bolalarning rivojlanishiga hissa qo‘shish mumkin.
- Ota-onalar bilan hamkorlikda milliy o‘yinlarni kengroq qo‘llash va targ‘ib qilish zarur.

“Ilk Qadam” davlat o‘quv dasturida xalq o‘yinlari maktabgacha ta’lim jarayonida muhim metodik vosita sifatida tavsiya etiladi. Ushbu dasturga muvofiq, bolalar jismoniy va kognitiv rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash maqsadida milliy o‘yinlardan foydalanish tavsiya etiladi. Xususan, harakatli o‘yinlar bolalarning harakat koordinatsiyasi, muvozanat va chaqqonlik ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, dasturda bolalarni jamoadagi o‘zaro munosabatlarga o‘rgatish va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish uchun xalq o‘yinlaridan foydalanish muhimligi qayd etilgan.

Zamonaviy ta’lim jarayonida xalq o‘yinlarini raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish pedagogik samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Xalq o‘yinlarining raqamli versiyalarini yaratish quyidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:

- **Interaktiv ta’lim**: mobil ilovalar va o‘yin platformalari orqali bolalar xalq o‘yinlarini o‘rganishi va amaliyotda qo‘llashi mumkin.
- **Virtual borliq (VR) va kengaytirilgan borliq (AR)**: bolalar o‘yin muhitiga chuqurroq sho‘ng‘ib, real hayotdagi vaziyatlarni simulyatsiya qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

- **Multimediali resurslar**: xalq o‘yinlari bo‘yicha videolar, animatsiyalar va interaktiv darsliklar bolalar uchun qiziqarli ta’lim vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek xalq o‘yinlari turli maqsadlarda foydalanilgan bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

1. **“Oq terakmi, ko‘k terak”** – bola tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.
2. **“Chillak”** – jismoniy chaqqonlik va aniq harakat qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.
Annotation: This article analyzes the role of technology in improving the professional knowledge of primary school students. A great role of technology in the development of professional knowledge of students is played by this discipline and is an important tool for teaching students modern professions and practices. The article discusses how technology science is applied in primary education and its role in shaping students' professional abilities. The results of the study show that the integration of technology into the educational process increases students' interest in learning, positively affects the development of their knowledge and skills. The article also deals with emerging problems and ways to overcome them in connection with the application of technology to the educational process. This study proposes new approaches and methods to further increase the importance of technology science in the education system.

Ключевые слова: начальное образование, профессиональное знание, технология, учащиеся, система образования, педагоги, инновации, методы обучения, интерактивное обучение, профориентация.

Keywords: primary education, vocational knowledge, technology, students, education system, teachers, innovation, teaching methods, interactive learning, vocational guidance.

Boshlang‘ich ta’lim davri o‘quvchilarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu davrda o‘quvchilar nafaqat umumiy ta’limni, balki kelajakda kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun zarur bo‘lgan asosiy bilimlarni olishadi. Shuning uchun boshlang‘ich ta’limda kasbiy yo‘nalishlar va kompetensiyalarni rivojlantirish, o‘quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayonda texnologiya fanining o‘rni alohida e’tiborga loyiqdir,

chunki texnologiyalar zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylangan. Texnologiya fani boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarga nafaqat texnik bilimlarni, balki muammolarni hal qilish, ijodkorlik va jamoaviy ishlash kabi ko‘nikmalarni ham o‘rgatadi. Bugungi kunda texnologiya sohasida yuz berayotgan tezkor o‘zgarishlar, o‘quvchilarning yangi kasblarga tayyorlanish jarayonini yanada murakkablashtirmoqda. Shuning uchun, boshlang‘ich ta’limda texnologiyaning o‘rni va uning kasbiy bilimlarni oshirishdagi roli katta ahamiyatga ega. Texnologiya yordamida o‘quvchilar turli muammolarni hal qilish, kreativ fikrlash va innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Tadqiqotda texnologiyalarning ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi, ularning o‘quvchilarga kasbiy yo‘nalishlar va amaliy ko‘nikmalarni o‘rgatishdagi samaradorligi o‘rganiladi. Shuningdek, texnologiya fani yordamida o‘quvchilarning individual va jamoaviy ishlash qobiliyatlari, innovatsion yondashuvlari hamda kasbiy mahoratlari qanday rivojlanishi ko‘rsatiladi. Bu jarayonning samarali bo‘lishi uchun o‘qituvchilar va ta’lim muassasalarining to‘g‘ri yondashuvlari muhimdir. Bundan tashqari, texnologiya fani nafaqat o‘quvchilarga kasbiy bilimlarni o‘rgatadi, balki ularda vaqtni boshqarish, muammolarni tahlil qilish va o‘zgartirishlarni amalga oshirish kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi. Shunday qilib, boshlang‘ich sinfda texnologiyalarga asoslangan ta’lim o‘quvchilarni zamonaviy kasblarga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchilar va ta’lim tizimi texnologiyani to‘g‘ri qo‘llash orqali o‘quvchilarning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatlarini ta’minlashga yordam beradi.

Shu bilan birga, texnologiyaning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ta’lim jarayoniga integratsiyasi ba’zi qiyinchiliklarga ham olib keladi. O‘qituvchilar yangi texnologiyalarni samarali ishlatishda malaka oshirishga ehtiyoj sezadi, hamda ta’lim muassasalari bu jarayonni qo‘llab-quvvatlashi zarur. Tadqiqotda bu qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari ham ko‘rib chiqiladi. Umuman olganda, texnologiya fani boshlang‘ich ta’limda kasbiy bilimlarni oshirishda va o‘quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun muhim vosita sifatida qaraladi. O‘quvchilarga berilgan savollar ularning texnologiyalarga nisbatan qanday munosabatda ekanligini aniqlashga imkon beradi. Bu usul orqali o‘quvchilarning ta’lim jarayonida texnologiya vositalaridan foydalanishning samaradorligi ham baholanadi. Shuningdek, so‘rovlar natijasida to‘plangan ma’lumotlar o‘quvchilarning kasbiy bilimlarining qanday rivojlanishini ko‘rsatadi. Anketa metodining eng katta afzalligi – keng miqyosda ma’lumot to‘plash imkoniyatidir. Ushbu metod yordamida turli xil savollar va mavzularni o‘rganish mumkin bo‘ladi.

Kuzatuv metodini qo‘llash ham juda muhimdir. Kuzatuvlar davomida o‘quvchilarning texnologiya bilan ishlash jarayoni diqqat bilan tahlil qilinadi. Sinfda o‘quvchilarni texnologik vositalar bilan ishlashda qanday yondashuvlar qo‘llanayotgani kuzatiladi. O‘qituvchilarning dars jarayonida texnologiya vositalarini qanday integratsiya qilayotgani ham o‘rganiladi. O‘quvchilarning interaktiv darslarga qiziqishi, amaliy ishlarda texnologiyalardan qanday foydalanishlari aniqlanadi. O‘quvchilar o‘zlarining texnologiya yordamida kasbiy bilimlarni qanday rivojlantirayotganliklari kuzatiladi. Bu metod o‘quvchilarning o‘rganish jarayonini tahlil qilish uchun zarurdir. O‘qituvchilarning texnologik vositalarni qanday muvaffaqiyatli qo‘llashlari ham kuzatib boriladi. Bu metod orqali texnologiyaning o‘quvchilarning kasbiy bilimlariga qo‘shgan hissasi aniq ko‘rsatiladi. Kuzatuv metodining eng katta afzalligi – o‘quvchilarning real vaqt ichidagi faoliyatini bevosita tahlil qilish imkoniyatidir.

Fokus-guruh suhbatlari ham tadqiqot metodlaridan biri sifatida ishlatiladi. O‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan suhbatlar davomida texnologiya fanining ta’lim jarayoniga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Suhbatlarda o‘quvchilarning texnologiya vositalaridan qanday foydalanishlarini muhokama qilish imkoniyati mavjud. O‘quvchilar o‘z tajribalari, kasbiy bilimlarni o‘rganishdagi qiyinchiliklar va muvaffaqiyatlar haqida fikr yuritadilar. Fokus-guruh suhbatlari orqali o‘quvchilarning texnologiya yordamida o‘rganishga bo‘lgan munosabatlari o‘rganiladi. Bu metod orqali o‘quvchilarning texnologiya ta’lim jarayonida qanday foyda olishlarini yaxshiroq tushunish mumkin. O‘quvchilarning kasbiy yo‘nalishlarga bo‘lgan qiziqishlari ham aniqroq ko‘rsatiladi. Texnologiya vositalari o‘quvchilarga kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni o‘rganish imkonini beradi. Biroq, texnologiyalarning ta’lim jarayonida muvaffaqiyatli qo‘llanilishi uchun zarur infratuzilma va o‘qituvchilarning tayyorgarligi muhim ahamiyatga ega. Maktablar va ta’lim tizimi texnologiyalarni qo‘llashni yanada takomillashtirishga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqishlari kerak. Texnologiyalarning o‘quvchilarning kasbiy mahoratini oshirishdagi o‘rni kundan-kunga ortib bormoqda. Tadqiqotda olingan natijalar, texnologiyaning ta’lim jarayonidagi samarali qo‘llanishi, o‘quvchilarni zamonaviy kasblarga tayyorlashda muhim rol o‘ynashini tasdiqlaydi. Natijada, texnologiya fanining boshlang‘ich ta’limdagi o‘rni sezilarli darajada oshishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Turg‘unov T. Texnologiya ta’limining zamonaviy tendensiyalari – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – bet. 45-50.
2. Xolmatov S. Boshlang‘ich sinfda texnologiya fanini o‘qitish metodikasi – Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti, 2019. – bet. 120-125.
3. Tanaka, M. Educational Technology in Asia – Tokyo: Nihon University Press, 2019. – p. 58-64.
4. Zhang, H., & Li, S. Innovations in Education Technology – Beijing: Tsinghua University Press, 2020. – p. 102-109.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMNI O‘QITISHDA YANGICHA YONDASHUVLAR

Qurbonov Sanjar Rajabboyevich,
Xorazm viloyati PMM katta o‘qituvchisi

Аннотация: В данной статье рассмотрено значение современных подходов в процессе начального образования, их влияние на личностное развитие и уровень знаний учащихся. Освещены примеры применения цифровых технологий, обучения в сотрудничестве и методов, ориентированных на ученика.

Annotation. This article explores the importance of modern approaches in primary education and their impact on students' personal development and academic performance. It discusses the practical use of digital tools, cooperative learning, and student-centered methods.

Ключевые слова: современные подходы, начальное образование, цифровые технологии, обучение в сотрудничестве, инновационные методы.

Keywords: modern approaches, primary education, digital technologies, cooperative learning, innovative methods.

Kirish

Respublikamiz ta’lim sohasida jadal rivojlanish jarayonlari kuzatilmoqda. Globallashuv, raqamlashtirish, zamonaviy texnologiyalar va ijtimoiy o‘zgarishlar natijasida boshlang‘ich ta’lim tizimida yangicha yondashuvlar joriy etilishi zarur bo‘lmoqda. Boshlang‘ich ta’lim inson shaxsini shakllantirishda muhim bosqich bo‘lib, bu bosqichda qo‘llanilayotgan pedagogik yondashuvlar bolaning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun asos yaratadi. Shuning uchun ta’lim jarayonini yangilash, o‘quvchilarning qiziqishi va ehtiyojlaridan kelib chiqib darslarni tashkil etish, innovatsion metodlardan foydalanish dolzarb masalalardan biridir.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda kuzatuv, tajriba, so‘rovnoma va taqqoslash metodlaridan foydalanildi. Xususan, Xorazm viloyatidagi bir nechta umumta’lim maktablarida olib borilgan dars jarayonlari kuzatilib, o‘qituvchilarning tajribasi o‘rganildi. O‘quvchilar bilan o‘tkazilgan suhbatlar va yozma topshiriqlar orqali yangicha yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilindi. Darslarda qo‘llanilgan raqamli vositalar, interfaol metodlar va hamkorlikdagi o‘qitish texnologiyalarining natijalari umumlashtirildi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta’lim tizimida yangicha yondashuvlarning qo‘llanilishi ta’lim sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatayotganini ko‘rsatdi. Jumladan:

1. Raqamli texnologiyalarning o‘quvchilardagi motivatsiyaga ta’siri: Interfaol taxtalar, raqamli o‘yinlar, onlayn dars platformalari (Kundalik.com, LearningApps, Wordwall kabi) kabi vositalardan foydalanish o‘quvchilar uchun dars jarayonini ko‘ngilochar va faol ishtirok etiladigan jarayonga aylantirdi. Eksperiment guruhidagi o‘quvchilarning 85% dan ortig‘i darslar davomida faol qatnashgan, topshiriqlarni o‘z vaqtida bajargan va darsga bo‘lgan qiziqish ko‘rsatgan. Bu esa o‘z navbatida ularning mustahkam bilim egallashiga zamin yaratdi.

2. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyalarining ijtimoiy ko‘nikmalarga ta’siri: Dars jarayonida guruhlarda ishlash, rolli o‘yinlar o‘ynash, muhokama va bahs yuritish orqali o‘quvchilarning o‘z fikrini erkin ifoda etish, boshqalarni eshitish va fikrga hurmat bilan yondashish qobiliyatlari rivojlandi. O‘quvchilar orasida o‘zaro yordam, mas’uliyat, liderlik va jamoaviylik kabi ijtimoiy ko‘nikmalar shakllandi. Bu esa nafaqat ta’limda, balki kundalik hayotda ham muhim bo‘lgan yumshoq ko‘nikmalarni (soft skills) rivojlantirishga xizmat qildi.

3.O‘quvchi markazli yondashuvning tafakkur va ijodkorlikka ta’siri: O‘quvchilarni markazga qo‘ygan yondashuvda o‘qituvchi yo‘lboshlovchi sifatida harakat qiladi. Mustaqil topqirlik, muammoli vaziyatni tahlil qilish va ijodiy yechim topish vazifalari orqali o‘quvchilarning tahliliy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari shakllandi. Ayni yondashuv bilan ta’lim olgan o‘quvchilar orasida o‘z fikrini asoslab berish va yangicha g‘oyalarni ilgari surish qobiliyati ancha yuqori bo‘ldi.

4. O‘qituvchilarning kasbiy o‘sishi va innovatsion yondashuvlarga tayyorgarligi: Tadqiqot davomida o‘tkazilgan seminar-treninglar va metodik ko‘mak asosida o‘qituvchilarning raqamli resurslardan foydalanish bo‘yicha malakasi oshdi. Ular darslarni rejalashtirishda interfaol metodlar, muammoli vaziyatli yondashuvlar va multimediaviy vositalardan faol foydalanishni boshladilar. O‘qituvchilarning 72 foizi yangicha yondashuvlardan foydalanish orqali o‘quvchilarning bilim darajasida ijobiy o‘zgarishlar kuzatilganini ta’kidladi.

5. Ta’lim sifatining umumiy ko‘rsatkichlari: Yangi yondashuvlar joriy etilgan sinflarda o‘quvchilarning baholash ko‘rsatkichlari an’anaviy yondashuvdagi sinflarga nisbatan yuqori bo‘lib, o‘rtacha 12–15% ga o‘sish kuzatildi. Shuningdek, psixologik

iqlim ijobiylashdi, o‘quvchilarning darsga tashrifi oshdi va darsdan tashqari faoliyatda ishtirok etish faolligi sezilarli ko‘tarildi.

1-jadval. Boshlang‘ich ta’limda qo‘llaniladigan metodlar va ularning ta’siri

Metod nomi	Qo‘llanilish holati	Kutilgan natija
Hamkorlikda o‘qitish	Guruh ishlari orqali	Muloqot va jamoaviylik rivojlanadi
Raqamli texnologiyalar	Multimedia taqdimotlar	Qiziqish va motivatsiya oshadi
Muammoli vaziyatli o‘qitish	Savol-javoblar asosida	Mustaqil fikrlash rivojlanadi

Munozara

Tadqiqot davomida olingan natijalar boshlang‘ich ta’limda yangicha yondashuvlarni tatbiq etish o‘quvchilarning bilim olishini yanada samarali va mazmunli tashkil qilishga xizmat qilishini ko‘rsatdi. Raqamli texnologiyalarni dars jarayoniga integratsiya qilish orqali ta’lim jarayoni o‘quvchilar uchun yanada qiziqarli, interfaol va motivatsion muhitda kechdi. Ushbu yondashuvlar nafaqat ta’lim samaradorligini oshirdi, balki o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini namoyon qilishlariga ham imkon yaratdi. Bu holat mavjud ilmiy izlanishlar natijalari bilan hamohangdir.

Masalan, G‘ulomov B. va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham o‘quvchi markazli yondashuv o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni yechish va ijodiy yondashuvga asoslangan faoliyatni rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi qayd etilgan. Bizning kuzatuvlarimiz ham shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilar topshiriqlarni bajarishda biror tayyor andozaga emas, balki o‘z qarashlariga tayanib harakat qilishadi. Bu esa kelajakda raqobatbardosh, yangicha fikrlovchi shaxsni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Bundan tashqari, hamkorlikda o‘qitish texnologiyalari o‘quvchilarning ijtimoiy adaptatsiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Guruhlarda ishlash, fikr almashish, bir-birini eshitish, muhokama qilish va qaror qabul qilish jarayonida o‘quvchilar o‘zaro hurmat, mas’uliyat, liderlik va jamoaviylik ko‘nikmalarini rivojlantirishga muvaffaq bo‘ldilar. Bu holat zamonaviy ta’limda “yumshoq ko‘nikmalar” (soft skills) sifatida e’tirof etiladi va ayniqsa XXI asr kompetensiyalarining ajralmas qismi hisoblanadi.

Shuningdek, o‘qituvchilarning innovatsion texnologiyalarga nisbatan ijobiy munosabatining shakllanishi, ularning kasbiy o‘sishiga zamin yaratdi. O‘qituvchilar tomonidan dars jarayonini yanada ijodiy tashkil qilish, raqamli resurslar va metodlardan foydalanishga bo‘lgan ishtiyoq, ularning o‘z ustida ishlashga bo‘lgan motivatsiyasini oshirdi. Bu esa o‘z navbatida, butun o‘quv jarayonining sifatini yaxshilashda muhim o‘rin tutadi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, yangicha yondashuvlar doimo izchil rejalashtirish, mos metodik ta’minot va o‘qituvchilarning uzluksiz malaka oshirib borishini talab qiladi. Aks holda, bu yondashuvlar yuzaki tatbiq etilishi va kutilgan natijani bermasligi mumkin. Shu bois, yangicha pedagogik yondashuvlar samaradorligini ta’minlash uchun metodik xizmatlar(KRK, KRS), innovatsion platformalar va hamkorlikdagi o‘rganish muhitini kuchaytirish muhimdir.

Xulosa

Boshlang‘ich ta’limda yangicha yondashuvlardan foydalanish orqali o‘quvchilar nafaqat bilim oladilar, balki shaxsiy va ijtimoiy ko‘nikmalarni ham egallaydilar. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari orqali dars jarayoni interfaol, qiziqarli va samarali

bo‘lib boradi. Shunday ekan, pedagoglar yangiliklarga ochiq bo‘lib, doimiy rivojlanib borishlari, ta’limda innovatsion yondashuvlarni qo‘llashga tayyor bo‘lishlari kerak. Bu esa ta’lim sifatining oshishiga, o‘quvchilarning har tomonlama kamol topishiga olib keladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Axmedova N., Karimov B. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: “Fan”, 2020. – 256 b.
2. Rasulov U. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2018. – 198 b.
3. G‘ulomov B. va boshqalar. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion yondashuvlar. – Samarqand: “Zarafshon”, 2021. – 214 b.
4. Sultonova M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirish. – “Ta’lim”, 2019. – 134 b.
5. UNESCO. ICT in Primary Education: Analytical Survey. – 2020.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOLANING RIVOJLANISH SOHALARI KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Toshqulova Zuhra Ulug‘bek qizi,
Navoiy viloyati PMM maktabgacha ta’limni muvofiqlashtirish bo‘limi yetakchi mutaxassisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari, rivojlanish sohalari kompetensiyalarining metodologik asoslari yoritilgan. Shuningdek bu sohalarni rivojlantirishda samara beradigan ta’limiy o‘yinlar, enerjayzerlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Rivojlanish, rivojlanish sohalari, integratsiya, men konsepsiyasi, kichik soha, kompetensiya.

Аннотация: В статье рассматриваются компетенции, связанные с различными направлениями развития ребёнка, а также подробно раскрываются методологические основы формирования этих компетенций. Кроме того, представлены образовательные игры и энерджайзеры, способствующие эффективному развитию указанных сфер.

Ключевые слова: Развитие, области развития, интеграция, концепция «Я», малая область, компетенция.

Abstract: This article explores the competencies associated with various domains of child development and elaborates on the methodological foundations underpinning these competencies. Additionally, it presents educational games and energizers that effectively support and enhance development in these areas.

Keywords: Development, developmental domains, integration, self-concept, microdomain, competency.

Mustaqil fikrlay oladigan, dunyoqarashi va tafakkuri keng barkamol insonlar yurtimiz taqdirini hal qiladilar. Shuning uchun ham kelajakka munosib bo‘lgan ma’naviy jihatdan yetuk yoshlarni tarbiyalash bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Bolaning ilk rivojlanish yoshidan 7 yoshgacha bo‘lgan davrigacha uning har tomonlama kamol topishini ta’minlashga qaratilgan ta’lim tarbiya jarayonini amalga oshiradi. Mana shu jarayonda bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirishga e’tiborni qaratish davr talabi sifatida dolzarbligini hech qachon yo‘qotmaydi. Rivojlanish sohasi bu — bola rivojlanishidagi aniq bir yo‘nalishlardir.

Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirishda biz 2020 yil 22-dekabrda qabul qilingan maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat ta’lim standartida belgilangan bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari asosida ta’lim tarbiya jarayonini tashkil etamiz. Davlat ta’lim standartida belgilangan rivojlanish sohalari integratsiyasini nazarda tutadi va bola rivojlanishiga ko‘maklashadi.

Davlat ta’lim standartida tug‘ilgandan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarning beshta asosiy rivojlanish sohalari belgilangan bo‘lib har bir rivojlanish sohasi o‘z o‘rnida kichik sohalarga ajratilgan, ular har bir yosh guruhiga mos bir nechta talablardan iborat. Kichik soha bu asosiy sohalarning kichik sohasi, rivojlanishning ma’lum bir tomonlarini o‘z ichiga qamrab oladigan va ularning aniq bir yo‘nalishini ko‘rsatib beradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida quyidagi ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv faoliyatini tashkil qilish nazarda tutilgan bu rivojlanish sohalari va shuningdek kichik sohalari quyidagilardan iborat:

- **Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi;**
- ✓ Yirik motorika;
- ✓ Mayda motorika;
- ✓ Sensomotorika;
- ✓ Sog‘lom turmush tarzi va xavfsizlik.
- **Ijtimoiy-hissiy rivojlanish;**
- ✓ “Men” konsepsiyasi;
- ✓ Hissiyotlar va ularni boshqarish;
- ✓ Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot.
- **Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari;**
- ✓ Nutq va til;
- ✓ O‘qish malakasi;
- ✓ Qo‘l barmoqlari mayda motorikasi.
- **Bilish jarayonining rivojlanishi;**
- ✓ Intellektual-anglash malakalari;
- ✓ Elementar matematik malakalar;
- ✓ Tadqiqiy-bilish va samarali refleksiv faoliyat.
- **Ijodiy rivojlanish.**
- ✓ Dunyoni badiiy tasavvur etish;
- ✓ Badiiy-ijodiy qobiliyatlar.[2]

Bolalarda bu sohalarni rivojlantirishda eng samarali usul o‘yinlar hisoblanadi, zero “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturining asosiy tamoyili erkin faoliyatga asoslangan ta’limdir. Quyida bu sohalarni rivojlantirishda foyda beradigan o‘yinlar keltirilgan.

“Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi” sohasini rivojlantirishda “Tana a’zolari”, “tulki tovuqxonada”, “bayroqchalarni yig‘ib ol”, “polizga kirgan quyonlar”, “kenguru”, “qorovul”, “kimning nomi aytildi”, “qo‘lingni ber”, “o‘ng qo‘lda otib, chap qo‘lda ilish” kabi harakatli o‘yinlar jismoniy tarbiya mashg‘ulotida, sayr vaqtlarda o‘ynashlari tavsiya etiladi.

Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi sohasi – bu maktabgacha yoshdagi bolalarda sog‘lom hayot tarzini shakllanirish, harakat faoliyatiga qiziqish, jismoniy ko‘nikmalar va motorik rivojlanishni ta’minlovchi ta’lim sohasidir.

“Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” sohasini rivojlantirishda “Men iltimos qilaman” enerjayzer mashqi. Bunda pedagog qo‘yilgan savollarga muvofiq, turli harakatlar bajarishni taklif etadi. – qishda tug‘ulganlarni o‘rinlaridan turishlarini iltimos qilamn. –

oilada birinchi farzand bo‘lganlarni qarsak chalishlarini so‘rayman, – bilim olishni sevganlar qo‘lini ko‘tarishini sorayman kabi.

Shuningdek, “tanishuv”, “mehmon-mehmon”, “mening kayfiyatim”, “hissiyotli raqs”, “isming nima” kabi ta’limiy o‘yinlari juda ham samarali.

Ijtimoiy-hissiy rivojlanish – bu bolalarning o‘z his-tuyg‘ularini anglashi, boshqarishi, boshqalarning hissiyotlarini tushunish va ijtimoiy munosabatlarni yo‘lga qo‘yish ko‘nikmalarini rivojlantirish sohasi hisoblanadi.

“Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari” sohasini rivojlantirishda “harflarni qo‘shib o‘qiymiz”, “yaxshi-yomon”, “ertak qahramonlarini top”, “kim bu?” yoki “bu nima?”, “so‘z zanjiri”, “gapni davom ettir”, “tovushni top”, “xotira mashqi”, “harflarni ketma-ketlikda taxla”, “qarsak” kabi didaktik o‘yinlari ta’lim-tarbiya jarayonida o‘ynashlari tavsiya etiladi.

Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari sohasi – bu maktabgacha yoshdagi bolalarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishda, muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda, o‘qishga tayyorlashda, savodga yo‘naltirishni ko‘zda tutuvchi muhim ta’limiy sohadir.

“Bilish jarayonining rivojlanishi” sohasini rivojlantirishda “aqilli sonlar’’ texnologiyasi, “sonlarni sanaymiz”, “doirachalarni sanab tegishli sonni qo‘y”, “soyasidan top”, “kim ziyrak”, “tartib bilan joylashtir”, “farqini top”, “qaysi ortiqcha”, “sabab nima”, “kim topqir”kabi didaktik o‘yinlar foydalidir.

Bilish jarayonining rivojlanishi – bu bolaning idrok, diqqat, xotira, tafakkur, kuzatuvchanlik kabi aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan sohadir. Bu yo‘nalishda bolaga atrof-muhitni anglash, solishtirish, tahlil qilish, sabab-oqibatni tushunish va mustaqil fikrlash kabi ko‘nikmalar beriladi.

“Ijodiy rivojlanish” sohasini rivojlantirishda “ertak nomini bosh harfidan top”, “rasmdan ertak tuz”, “chizishni davom ettir”, “qanday musiqa”, “rang bo‘yicha top” kabi ta’limiy o‘yinlari, shuningdek “Vizualizatsiya” mashqlari ya’ni ko‘z oldida tasavvur qilish mashqlari ham tavsiya etiladi.

Va yana topshiriq berishlari mumkun; 1-guruhga “nastarin”- paxta tayoqchalari bilan rasm chizish, 2-guruhga “oltin kuz” burglar bilan rasm, 3-guruhga “hatvonot bog‘ida” kaft bilan rasm chizishni o‘rgatishlari mumkun.

Ijodiy rivojlanish – bu bolalarning tasavvuri, ifodali fikrlashi, estetik didi va mustaqil ijodiy faoliyatga qiziqishini rivojlantiruvchi muhim sohadir. Bu sohada tasviriy san’at, musiqa, raqs, teatr, og‘zaki ijod kabi yo‘nalishlar rivovojlanadi.

Mana shu rivojlanish sohalari asosida tarbiyalanuvchilarning “Rivojlanish xaritasi” pedagoglar tomonidan uch sikldan iborat bo‘lgan kuzatuv olib boriladi: dastlabki, oraliq va yakuniy. Rivojlanishning beshta sohasi (bola kompetensiyalari) umumlashtiriladi va tavsiya hamda takliflar ko‘rinishida ota-onalarga, boshlang‘ich sinfdagi bo‘lajak ustozlarining e’tiboriga havola etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ – 637sonli. 2020-yil 23 sentyabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta‘‘lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VMQ 802-sonli qarori. 2020 yil 22 dekabr.
3. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi 2022-yil 4-fevral.
4. Berdiyeva M.M. Maktabgacha pedagogika fanidan ma’ruza matni. Termiz davlat universiteti, 2015.

BOLA SHAXSINI RIVOJLANTIRISHGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIMDA TARBIYACHINING FUNKSIYASI

Karimova Gulshod Shavkatovna,
Buxoro viloyati PMM o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida tarbiyachining fasalitotrlik funksiyalari, vazifalari, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillari hamda hamkorlikdagi ta’limning afzalliklari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Fasalitator, tadqiqot, tushunish, qobiliyat, tadqiqotchilik, maqsad, ijtimoiy-hissiy, talab.

Abstract: The article discusses the functions and tasks of the educator in the development of preschool children, the principles of personalized education, and the advantages of collaborative learning.

Keywords: Facilitate, research, understanding, ability, competence, research activity, goal, socio-emotional, requirements.

Аннотация. В статье раскрыты функции фасилитатора в развитии детей дошкольного возраста, его задачи, принципы обучения, ориентированные на личность, а также преимущества совместного обучения.

Ключевые слова: Фасилитатор, исследование, понимание, способность, исследовательская деятельность, цель, социально-эмоциональный, требования.

Kirish

Bola shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’limda tarbiyachi o‘ta muhim rol o‘ynaydi. Tarbiyachi asosiy ma’lumot manbai hisoblanmaydi, ammo u ta’limga yo‘naltiradi va ta’lim –tarbiya jarayonini osonlashtiradi. Uning funksiyalari nafaqat bolaning bilim olishini ta’minlash, balki uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini, xulq-atvorini va ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

Bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limning maqsadi, avvalambor, bolani yetuk shaxs bo‘lib, rivojlanishi, individualligi, noyobligini rivojlantirishdir. Ta’lim jarayoni shunday tashkil qilinishi kerakki, bolaning o‘ziga xos xarakteri, uning kadriyatlari va bola shaxsining ustuvorligi hisobga olinishi lozim. Chunki bola ichki dunyosining modeli aynan shu omillarga asoslanadi.

Bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim, birinchi navbatda, bolaning shaxsiy tajribasiga asoslanadi. Aynan shu sababli pedagog har bir bolaning tayyorgarligi, uning qobiliyatlar darajasini bilishi kerak.Bolani bilmay tarib kerakli samaraga erishib bo‘lmaydi va bola ta’limiga to‘g‘ri yondashish haqida gapirib ham bo‘lmaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limni tatbiq etayotgan pedagoglarning asosiy vazifasi bolaga QANDAY QILIB samarali ta’lim olishni o‘ragtishdir. Bu tamoyil nisbatan afzalroq sanaladi. Kambag‘al va qarmoq haqidagi xalq masalida: “Kambag‘allarga baliq bermaslik kerak, chunki uni tez yeb tugutadilar. Yaxshisi ularga qarmoq berib, mustaqil baliq tutishni o‘rgatish afzalroqdir. Ushbu yo‘l bilan ularga bebaho yordam ko‘rsatilgan bo‘ladi, chunki ular istagan vaqtlarida o‘zlariga baliq tuta oladilar”, — deyilgan edi.

Xuddi shu masala bala shaxsiga yo‘naltirilgan ta’limga ham tegishli. Agar pedagog bola ta’lim olishining to‘g‘ri yo‘lini o‘ragta olsa, u bolaning muvaffaqiyatini 70%ga ta’minlagan bo‘ladi. Lekin pedagog ta’lim jarayoniga bolani qiziqtira olsa, muvaffaqiyatga erishish imkoniyati 100% bo‘ladi. Bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim aynan shunga asoslangan.

Misol uchun ta'lim jarayoni "soddadan murakkabga" tamoyili asosida qurilgan. Bir tomondan, bu juda to'g'ri yondashuv, axir oliy matematikani sonlarni bilmasdan turib o'rganishning iloji yo'q. Ammo bola shaxsiga yo'lnaltirilgan ta'lim jarayonida dasturdan chetlashib, bolaga avval uni qiziqtirgan narsalarni o'rgatish mumkin. Faqat keyin bola tayyor bo'lganda, o'quv dasturidagi mazmunni berish mumkin.

Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'limda bolaning ijodiy rivojlanishi ham alohida ahamiyatga egadir. Ushbu uslub tarafdorlari bir ovozdan ommaviy ta'lim muassasalari ushbu uslubni qo'llashda bir xil xatoga yo'l qo'yishlarini ta'kidlashadi, musiqaviy, balki badiiy asarlarga ham tegishlidir. Lekin bunday holat bolani noqulay vaziyatga solib qo'yadi, axirbuyuk asarlar bilan bolaning ijodiy ishini taqqoslab bo'lmaydi. Shuning uchun ushbu vaziyat bolani ijoddan qiziqishini so'ndirib, undan butunlay uzoqlashtirishi mumkin.

Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim bir necha bosqichdan iborat. Har bir bosqich juda muhim. Shu sababli har qanday vaziyatda ham ularning hech birini e'tiborsiz qoldirish mumkin emas. Aks holda, kutilgan natijaga erishilmaydi. Ta'limga bunday yondashuv o'quv jarayonida anchagina erkinlikni taqozo etadi. Bola endi o'zini pedagogga moslashtirmaydi, balki aynan pedagogik muhit va ehtiyojlarga moslashadi.

Demak, bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

"Pedagog-bolaning o'zaro faoliyati"

Birinchi navbatda, keng qo'llanilayotgan odatiy ta'lim dasturlaridan farqli ravishda bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim uslubini tanlashda "Pedagog-bola" munosabatlari tamoyilini tubdan o'zgartirish kerak. Pedagog o'zining odatiy rahbarlik usulini chetga qo'yib, bolalar bilan hamkorlik qilishi kerak, aks holda, bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim uslubidagi barcha sa'y-harakatlar muvaffaqiyatsiz tugashi mumkin.

Zamonaviy pedagog bajaradigan eng asosiy rollardan biri fasalitatorlikdir.

Fasalitator-inglizcha facilitate so'zidan olingan bo'lib, "yordam beruvchi", "yengillashtiruvchi"degan ma'noni anglatadi.Uning vazifasi o'rganuvchining yangilikni qabul qilish, mustaqil izlanish yo'llarini topish, muammolarni hal etish, ma'lum masalalar bo'yicha o'z bilimi va tajribasiga tayangan holda mustaqil qaror qabul qilishda yordam berishdir.

Maqsad qo'yish

Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim kutilayotgan natijaga olib kelishi uchun bola pedagog yordamida maqsadlarni aniqlab olish kerak. Ijobiy natijaga erishish uchun bola o'z oldiga global maqsadlar qo'yishi shart emas. Kundalik, haftalik va oylik muddatga mo'ljallangan kichik maqsadlar qo'yish maqsadga muvofiqdir. Buning sababi shundaki, bola vaqtni his qilishi kattalarnikiga o'xshamaydi. Bu bolalar psixologiyasida allaqachon isbotlangan. Masalan katttalar uchun bir yil mudda unchalik ham katta davr bo'lmasa, bola uchun bu uzoq muddat hisoblanadi. Shuning uchun hamuzoq kelajakka maqsadlarni rejalashtirish bola uchun qiziqarsiz bo'lib qolishi mumkin.

Pedagog faoliyati

Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasini qo'llayotgan pedagog ta'lim jarayonini to'g'ri tashkillashtirish muhim ekanligini yodda tutishi kerak. Aynan o'z faoliyatini tashkillashtirishidan boshlashi kerak. Faoliyat shunday tashkil etilishi muhimki, ta'lim jarayoni asosida pedagog emas, balki bola turishi kerak. Pedagog-fasalitator esa psixologik –hissiy muhitni yaratib, qo'llab-quvvatlab turishi kerak, ya'ni

bolaning erishgan yutuqlariga xursand bo‘lib, omadsizliklariga esa uni qo‘llab-quvvatlashi kerak.

Montessori bolani hayotga tayyorlashda tarbiyachining o‘rnini muhim deb bilgan va uni bola bilan birga, uning individual ehtiyojlariga, qobiliyatlariga yo‘naltirilgan ta'limni ta'minlovchi shaxs sifatida tasvirlagan. U shunday degan:

"Tarbiyachi bola bilan ishlashda uning o‘ziga xos xusiyatlariga rioya qilishi, uning qobiliyatlarini yo‘naltirishga e'tibor qaratishi kerak. Bolani qiziqtirish, uning diqqatini jamlash va mustaqil qarorlar qabul qilishga tayyorlash — tarbiyachining muhim vazifasidir."

Montessori ta'limida tarbiyachi bola uchun shart-sharoit yaratishga ko‘proq e'tibor qaratgan, bilimlar bergani emas, balki bola o‘zi mustaqil ravishda o‘rganish va ishlash imkoniga ega bo‘lishi kerakligini ta'kidlagan.

Muhokama va natijalar

Bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta'lim o‘z nomi bilan ta'lim jarayoni markazida bola turishi bilan tavsiflanadi, shaxsning har tomonlama, ya'ni ham huquqiy, ham ma'naviy, ham ijtimoiy himoyasi ta'minlanadi. Shaxsni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta'lim bolaga qiziqishi va ehtiyojiga ko‘ra o‘quv dasturini tanlash huquqini, munosabat va muloqot qilish ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish imkonini beradi. Ushbu ta'lim bolaga mushohada qilish, o‘z amaliy faoliyatida sinab ko‘rish, yangi g‘oya va fikrlarni bildirish, mavjud muammolar yechimining samarali yo‘llarini qidirish uchun erkinlik beradi, bolalarning ijodiy, tanqidiy tafakkurini rivojlantiradi. "Rivojanish", "erkinlik", "mustaqillik", "ijod", "o‘ziga xoslik", shaxsga yo‘naltirilgan ta'limning tayanch so‘zlari hisoblanadi.

Bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta'limda fasalitator quyidagi tamoyillarga amal qiladilar:

- ✓ bolaning rivojlanish tartiblarini mukammal tushinadilar
- ✓ o‘yin yoki mashg‘ulot davomida bolalarni kuzatishga vaqt ajratadilar
- ✓ bolaning qiziqishi va ehtiyojlariga javob beradigan individual va guruhiy rivojlanish maqsadlarini rejalashtiradilar
- ✓ o‘zgaruvchan va egiluvchan o‘quv muhitini yaratadilar
- ✓ bolalarni hurmat qiladilar va diqqat bilan ularning g‘oyalariga e'tibor qaratadilar
- ✓ bolalar o‘zaro muammolarini o‘zlari hal etib, bir-birlariga hurmatda bo‘lishlariga ko‘maklashadilar
- ✓ bolalarning tafakkur va fikrlash jarayonini rivojlantirish uchun savollar beradilar.

Xulosa

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv g‘oyasi tushuntirishdan, tushunishga, monologdan diologga, to‘g‘ridan-to‘g‘ri nazoratdan mustaqil rivojlanishga, boshqarishdan o‘zini o‘zi boshqarish tizimiga o‘tishdan iborat. Pedagogning asosiy munosababti-bu "mavzuni" o‘qitish emas,balki bolalr bilan muloqot qilish, bir-birlarini tushunish, tanqidiy fikrlash va ijodkorlikni rivojlantirish uchun ularning erkinligini ta'minlashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. F.Umarova va boshqalar O‘quvchi shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta'lim. Toshkent 2013

2. "Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida ta'lim jarayonini rejalashtirish" Toshkent 2020

3. “Ilk qadam”davlat o‘quv dasturini joriy etish bo‘yicha trenerlar uchu qo‘llanmaToshkent-2019
4. “Ilk qadam”davlat o‘quv dasturi- Toshkent 2022

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EKOLOGIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING MUAMMO VA YECHIMLARI

Mansurova S.R.,
Navoiy viloyati PMM Maktabgacha ta’limni muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i,
Sohibova D.Sh.,
Xatirchi tuman 8-DMTT direktori o‘rinbosari

Annotatsiya. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish — ularning tabiatga munosabatini shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik madaniyatini shakllantirishda tarbiyachi pedagoglar ta’lim-tarbiya jarayonida yangicha yondashuvni amalga oshirish juda muhim. Ayni damda golbal muammolardan biri bo‘lgan ekologik barqarorlikni ta’minlash, maktabgacha yoshdagi bolalarni shu yoshdanoq ekologik madaniyatini shakllantirish juda muhim hisoblanadi. Maqolada bolalarni ekologik madaniyatini shakllantirishga oid majud muammo va ularni yechimlari to‘g‘risida to‘htalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar:ekologik ta’lim-tarbiya, tabiiy boyliklar, tabiiy resurslar, ekologik tafakkur,ekologik ma’rifat.

Kirish. Ekologik ta’lim-tarbiya – insonning tabiatdan ongli ravishda foydalanish, psixologik axloq odob yuzasidan xalqimizning tabiatga nisbatan e’tibor bilan qaraydigan urf-odatlari, an’analari asosida yoshlarni tarbiyalash, ular ongida tabiat, uning boyliklariga mehr muhabbat uyg‘otish, ularni tejamkorlikka va tabiiy boyliklarni asrab avaylashga o‘rgatishdan iborat.

Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga qo‘yilgan umumiy talablarda ham ularning ekologik mas’uliyatni his qilishi, tabiat muhofazasi sohasidagi bilimlarga ega bo‘lishi lozimligi alohida ko‘rsatib o‘tilgan. Jahonning barcha mamlakatlari kabi O‘zbekistonda ham shaxs va jamiyatning moddiy va ma’naviy madaniyati ekologik mazmunga ega bo‘lmoqda. Endilikda respublikamizda chiqindisiz, kam chiqitli va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, atrof muhitni muhofaza qilishning iqtisodiy mexanizmlarini rivojlantirish va takomillashtirish, ekologik huquqbuzarliklar uchun ma’muriy huquqiy choralar ko‘rish, ekologik ma’rifat orqali aholining ekologik tafakkurini rivojlantirish, xalqaro ekologik munosabatlarni yo‘lga qo‘yish, tabiat, atrof muhitga ko‘rsatilayotgan salbiy antropogen ta’sirlarni kamaytirish, insonning atrof muhitga sifat jihatidan yangicha munosabatini shakllantirishga olib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimida uzluksiz ta’limning faoliyat ko‘rsatish tamoyillari qatorida «ta’limning insonparvarlashuvi, inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta’limga nisbatan bo‘lgan turli tuman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta’minlanishi, inson, jamiyat va atrof muhit o‘zaro munosabatlarining uyg‘unlashuvi» belgilangan. Shuningdek, uzluksiz ta’limni isloh qilish yo‘nalishlari tarkibida «ta’limning barcha darajalarida ta’lim oluvchilarning huquqiy, iqtisodiy, ekologik va sanitariya gigiyenik Vatanimiz tabiati, atrof muhitiga nisbatan hurmat, ehtiyotkorona munosabat va unga mas’uliyat bilan qarash hissini maktabgacha yoshdagi har bir bola shaxsida tarbiyalashimiz lozim. Maktabgacha

yoshdagi bola o‘z atrofidagi tabiiy ijtimoiy muhit ta’sirida va mahallada o‘rnatilgan axloqiy ekologik tartibotlar asosida yashaydi. Zero, yurtimizning go‘zal tabiati, uning kelgusi holati aynan ularning atrof muhitga bo‘lgan munosabati orqali belgilanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish — ularning tabiatga munosabatini shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Bu borada ayrim muammolar va ularning yechimlarini quyida keltirib o‘tamiz:

1. Uslubiy materiallar yetishmasligi, ekologik tarbiya uchun maxsus o‘quv qo‘llanmalar, badiiy adabiyotlar va didaktik o‘yinlar yetarli emasligi;

2. Tarbiyaviy jarayonda ekologik masalalarga kam e’tibor qaratilishi. Ayrim bog‘chalarda ekologik ta’lim maxsus yo‘nalish sifatida emas, umumiy mashg‘ulotlar doirasida yuritiladi.

3. Tarbiyachilarning malakasi yetarli emasligi. Barcha pedagoglar ham ekologik ta’lim-tarbiyani samarali tashkil etish uchun kerakli bilim va ko‘nikmalarga ega emaslar.

4. Amaliyot va tabiat bilan muloqotning kamligi. Bolalar tabiatni faqat rasmlar yoki videolar orqali bilishadi, bu esa to‘liq his etishni ta’minlamaydi.

5. Ota-onalarning ekologik bilim darajasi pastligi. Uy muhitida ekologik madaniyat shakllanmagan bo‘lsa, bog‘chadagi bilimlar mustahkamlanmaydi.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun qo‘yidagi yechimlarni tavsiya etamiz:

1. Ekologik yo‘naltirilgan o‘quv dasturlarini joriy etish. Yosh bolalarga moslashtirilgan, qiziqarli va hayotga yaqin mashg‘ulotlar asosida ekologik tarbiya berish orqali ularda ekologik madaniyatini shakllantirish mumkin.

2. Tabiat qo‘ynida mashg‘ulotlar tashkil etish. Bog‘cha hovlisida kichik botanik burchaklar, gulzorlar, parranda va hayvon burchaklari yaratish.

3. Tarbiyachilar uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish. Ekologik tarbiya bo‘yicha zamonaviy metodikalarni o‘rgatish.

4. Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish. Ekologik mavzuda seminarlar, master-klasslar, ota-ona va bolalar uchun birgalikdagi tadbirlar tashkil etish.

5. Interaktiv usullar va texnologiyalardan foydalanish. Ekologik multfilmlar, interaktiv o‘yinlar, qiziqarli tajribalar orqali bilim berishimiz mumkin.

Maktabgacha yoshdagi tarbichlanuvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishga oid yuqoridagi tavsiyalarimiz bilan birga ta’limiy faoliyatda tarbiyachi pedagoglar o‘z faoliyatida qo‘llashlari uchun o‘yinlarni keltirib o‘tamiz.

“Sehrli quyosh” o‘yini.

Maqsad: Bolalarning atrof olamdagi voqea xodisalarning turli tumanligi to‘grisidagi bilimlarini mustahkamlash. Guruh bo‘lib o‘ynash qobiliyatlarini takomillashtirish

Zarur jihozlar: 10 ta o‘yin yo‘lkachalari(quyoshning nurlari) katta doiraga yo‘naltirilgan. Har bir yo‘lakcha 5 tadan turli rangdagi sektorlarga bo‘lingan. Yashil (fauna va flora), ko‘k (suv), jigar rang (yer), siyoh rang (tabiat xodisalari), qizil (fazo).

Mavzuli savollar yozilgan rangli kartochkalar, musiqiy, raqs va she’r yodlash tanaffuslari tasvirlangan kartochkalar. Guruhlar emblemalari O‘yin qoidalari: - O‘yinda 2 ta gurux ishtirok etadi. Har bir guruxda 5 tadan bola - Qur’a tashlash yo‘li bilan qaysi gurux o‘yinni boshlashi aniqlab olinadi. Ishtirokchilar o‘yin yo‘lakchalarining birinchi sektoriga turib oladilar. Tarbiyachi ishtirokchilarga sektorning mavzusiga taalluqli savollar beradi. Savolga to‘g‘ri javob bergan ishtirokchilar keyingi sektorga o‘tadi. Javob noto‘g‘ri bo‘lsa joyida qoladi.

O‘yin davomida tarbiyachi ishtirokchilarga ijodiy topshiriqlar (qo‘shiq aytish, she’r yodlash, raqsga tushish) berishi mumkin. Topshiriqlarni bajarishda kuzatuvchilar va ota-onalar ham yordam berishlari mumkin. O‘yinda ishtirokchilari birinchi bo‘lib katta doiraga yetib kelgan guruh g‘olib bo‘ladi.

O‘yin savollari: Yashil(fauna va flora). Apelsindan apelsin sharbati tayyorlanadi, pomidordan-chi?(Tomat)

Uchta baliq turini sanab ber (Laqqa, ilon baliq, cho‘rtan). Asalarining uyasi qaysi geometrik shaklga o‘xshaydi (Oltiburchak). Limon, apelsin va mandarinni bir so‘z bilan izohla (Sitrus). Qaysi o‘simlikning tolalaridan paxta tayyorlanadi?(G‘o‘za). Daraxtdan past o‘tdan baland o‘simlik (buta). Manzarali daraxtlar o‘sadigan joy (O‘rmon). Odamning ismiga o‘xshash qushning nomi (Mayna). Faqat mevali daraxtlar o‘sadigan joy(Bog). Osmonda uchadigan eng katta qush (Burgut). Ko‘k(suv). Suvda harakatlanish uchun insonlar qanday moslamalardan foydalanadilar?(Sol, qayiq, kater, kema). Hamma tomondan suv bilan o‘ralgan quruqlik qanday ataladi?(Orol). Togda-balandlik, dengizda ..(chuqurlik). Dengiz kattami, okeanmi?(Okean). Daryo qachon o‘zanidan chiqadi?(Bahorda). "Rangli" dengizlarni sanab ber?(Qora, Oq, Qizil, Sariq). Globusda daryo, dengiz, okeanlar qanday rangda tasvirlangan?(Ko‘k). Havo ochiq vaqtda dalarda kechqurun osmonda ko‘rinadigan yulduzlar to‘plami (somon yo‘li). Xaritada o‘rmonlar qanday rangda tasvirlangan?(Yashil). Dengiz yoki daryo bo‘yi nima deb aytiladi?(qirgoq). Jigar rang(yer). Nimadan idish yasash mumkin?(Loydan). Tuproqda havo bormi? Buni qanday isbotlash mumkin?(Tuproq solingan idishga suv solinsa-idishning yuqorisiga havo pufakchalari chiqadi). Nima balandroq: tepalikmi yoki tog‘?(tog). Quruq qum yoki toshlardan iborat, o‘simliklari deyarli yo‘q joy qanday ataladi?(CHo‘l). Yer sharining modeli nima deb ataladi?(Globus). Nima suvni yaxshi o‘tkazadi: loymi yoki qum?(Qum). Loydan toshlarni qanday ajratish mumkin?(Loyga suv quyish va uni aralashtirish kerak. Loy aralashadi toshlar esa tagiga tushib qoladi). Nima uchun ayrim toglarning uchlarida yil bo‘yi qor bilan qoplangan bo‘ladi?(Juda atta balandlikda sovuq va yoggan qor erimaydi). Baland toglarga ko‘tariladigan insonlar qanday ataladi? (alpinistlar). Torf, ko‘mir, neft, gazni bir so‘z bilan qanday atash mumkin?(Qazilma boyliklar).

Ekologiya mavzusida didaktik so‘z o‘yinlari **“So‘zni tugat!”** Bu qachon bo‘ladi?

Qor yogmoqda..(qishda)

Osmonda kamalak..(bahorda),

Sariq, qizil barglar daraxtda..(kuzda).

Qaldirgoch in qurmoqda..(bahorda).

Bolalar cho‘milmoqdalar..(yozda).

Tabiatda nima doira shaklida bo‘ladi?(Quyosh, oy, apelsin, olma va h.k.) .

Tabiatda nima doira shaklida bo‘ladi?(Moychechak, limon, nok, olma va h.k.).

Uchinchisi nima? Tarbiyachi ikkita predmetni nomini aytadi, uchinchisini bola topishi lozim.

Moychechak, lola,..(romashka).

Qarga, chumchuq,..(qaldirgoch).

Tol, qayragoch,..(terak).

Quyosh, bulut,..(kamalak).

Gul, barg,..(ildiz).

Bu nima? Tarbiyachi o‘simlik yoki hayvonning nomini aytadi, bola-ularning umumiy nomini aytadi. Chumchuq,..(qush) Ayiq,..(hayvon) Archa,..(daraxt) Olma,..(meva) Bir so‘z bilan izohla! Yo‘lbars, timsoh, it,..(yirtqichlar) It, mushuk,

sigir,..(uy hayvonlari). Fikus, begoniya, kaktus,...(xona o‘simliklari). Yer, suv, havo,...(jonsiz tabiat).

Kartochkalarda turli xil xayvon, qushlar rasmi tasvirlangan, ularni ko‘rsatganda nomlarini emas, ularning ovozlariga taqlid qilish taklif qilinadi: It-(vovillaydi) Mushuk-(miyovlaydi), Chumchuq-(chirqillaydi), Qo‘ngiz-(gizillaydi), Sigir-(mo‘raydi), Qurbaqa-(qurillaydi), CHo‘chqa-(xurillaydi), Xo‘roz-(ku-ka-re-ku), Ot-(kishnaydi), Baliq-(ovozini asraydi).

Bu kimning bolasi? Tuyaning bolasi..(biya). Mushukning bolasi..(mushukcha), Sigirning bolasi..(buzoqcha), Qo‘yning bolasi..(qo‘zichoq), Echkining bolasi..(uloqcha).

Kim qayerda yashaydi? Doskada turli xil «uycha»larning rasmlari ilingan, pastda xayvonlarning rasmlari "Hayvonlarga o‘z uylarini topib ber!" topshirigi beriladi. Kim qanday harakatlanadi? Qushlar..(uchadi) Baliq..(suzadi) Quyon..(chopadi) Chumchuq..(sakraydi) Inson..(emaklaydi, suzadi, yuradi, chopadi, sakraydi) Kim nima bilan oziqlanadi? Xo‘roz..(don) It..(suyak) Quyon..(karam) Sigir..(o‘t) Jo‘ja..(tuxum sarigi) Mushuk..(sut)..

“Tabiatni asrang”. Stolda qogozdan yasalgan 5 qismga bo‘lingan doira va tabiat olami (o‘simliklar, hayvonlar, qushlar, baliqlar, inson) tasvirlangan kartochkalar. Tarbiyachi ushbu kartochkalarni doiraning sektorlariga(har biriga bittadan) joylashtirib chiqishni taklif qiladi. Shundan so‘ng, sektorlarni biroitasini olib tashlaydi va bolalarga tabiatning mana shu qismi yo‘q bo‘lsa boshqatirik jonzotlar bilan nima sodir bo‘ladi? deb bolalardan so‘raydi.

Masalan: “agar o‘simliklar bo‘lmasa qushlar(hayvonlar va h.) bilan nima bo‘ladi?”. so‘ngra u kartochkalarni joylariga qaytarib boshqalarini oladi. Eng oxirida insonni olib qo‘yadi.

Tarbiyachi: agar inson tabiatdan yo‘q bo‘lsa, tabiat yo‘qolmasligi, lekin jonli tabiatning boshqa bir bo‘laklaridan birortasi bo‘lmasa dunyo, inson ham o‘lishi mumkinligi, tabiatdagi barcha tirik organizm bir-biri bilan bogliq ekanligi, shuning uchun inson tabiatga nisbatan ehtiyotkorlik bilan muomalada bo‘lishi lozimligi haqida tushuntirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmoni

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yildagi 12 dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 802-sonli Qarori

3. Мактабгача таълим ташкилотларида тарбиявий ишлар самарадорлигини ошириш ҳамда тарбияланувчиларда экологик маданиятини шакллантириш. Тренерлар учун услубий қўлланма.Т:.2024

4. Исмоилов А., Аҳадов Р. Экологик таълим тарбия. – Т.: «Ўқитувчи», 1997.

5. Григорьянц А.Г., Гафурова У. Болалар боғчасида экологик тарбия. – Т.: «Ўқитувчи», 2002.

6. Умарова М. Мактабгача ёшдаги болаларга экологик тарбия бериш методлари. // «Узлуксиз таълим», 2004, 5сон.

BOLALARNI MAKTAB TA`LIMIGA RIVOJLANGANLIK DARAJASI KO‘RSATKICHLARINI INOBATGA OLISH TA’LIM SIFATINING MUHIM OMILIDIR

Mirzayeva Hulkar,
Karmana tuman 23-DMTT direktor o‘rinbosari

Annotatsiya. Maktabgacha ta’lim tashkiloti maktab ta’limiga tayyorlov guruhi bolalarini har tomonlama maktab ta’limiga tayyorlash muhimdir. Bola maktab ta’limi muhitiga moslashuvini ta’minlash, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘zini qo‘lay his eta olishi albatta ta’lim sifatini muhim jihatlaridan biridir. Mazkur maqolada maktabga tayyorgarlikning maksimaldan minimalgacha bo‘lgan 4 darajasi mavjudligi keltirib o‘tilgan. Bolalarni maktab ta’limiga rivojlanganlik darajasi ko‘rsatkichlarini yuqori, o‘rta, past va juda past daraja ko‘rsatgichlariga bo‘lishimiz mumkin. Biz ularni har birini ko‘rib chiqanmiz.

Kalit so‘zlar: Maktabga tayyorgarlik, individual xususiyatlar, rivojlanganlik darajasi, psixologik, pedagogik va jismoniy komponentlar**.**

Kirish. Maktabga tayyorgarlik (“maktab etukligi” atamasi sinonimdir) bolaning jismoniy holati va psixologik sog‘lig‘iga zarar etkazmasdan maktabdagi stressni engishga qodirligini nazarda tutadi. Ushbu kontseptsiya psixologik, pedagogik va jismoniy komponentlarni birlashtiradi. Ko‘pincha ota-onalar fanga (pedagogik) tayyorgarlikka alohida e'tibor berishadi va bo‘lajak birinchi sinf o‘quvchisini o‘qish, yozish, hisoblashni o‘rgatadi, buni birinchi sinf o‘quvchisi uchun o‘quv jarayonini samarali va qulay qilish uchun tasdiqlangan usullardan foydalangan holda ishlaydigan va zarur malakaga ega bo‘lgan mutaxassislar qo‘liga topshirish yaxshiroq ekanligini unutib qo‘yishadi. Shunday qilib, "XXI asrning boshlang‘ich maktabi" ta'lim tizimi kechagi maktabgacha yoshdagi bolaning birinchi sinfda tanish bo‘ladigan fanlar bo‘yicha bilimga ega bo‘lishini talab qilmaydi. Bundan tashqari, mashg‘ulotlar har bir bolaning individual xususiyatlarini, uning maktabga tayyorlik darajasini hisobga oladigan tarzda tuzilgan - birinchi sinfdagi barcha bolalar juda farq qiladi, ammo o‘quv jarayoni hamma uchun qulay bo‘ladi.

Bolaning maqom va muhitni o‘zgartirishga, katta miqdordagi yangi bilimlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishga, maktab o‘quvchisi sifatida yangi lavozimga fiziologik va psixologik tayyorgarligi kabi maktab yetukligining tarkibiy qismlari bolaning maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olishi uchun juda muhimdir.

Maktabga tayyorgarlik darajasi. Maktabga tayyorgarlikning maksimaldan minimalgacha bo‘lgan 4 darajasi mavjud. Bolalarni maktab ta`limiga rivojlanganlik darajasi ko‘rsatkichlarini yuqori, o‘rta, past va juda past daraja ko‘rsatgichlariga bo‘lishimiz mumkin. Biz ularni har birini ko‘rib chiqamiz.

Maktabga tayyorgarlikning yuqori darajasi. Qachon bola birinchi sinfga borishga to‘liq tayyor deb aytishimiz mumkin? Maktabgacha yoshdagi bolada yaxshi jismoniy rivojlanish, u faol va quvnoq, surunkali kasalliklardan aziyat chekmaydigan holatda bo‘lsagina maktabga tayyor holat deya olamiz. Bola yozish uchun mukammal tarzda tayyorlangan u fonemik eshitishi rivojlangan holatda bo‘lishi, muloqotda bola keng dunyoqarashni namoyon etishi hamda uning so‘z boyligi kamida 3000 so‘zni tashkil etadi. So‘zning majoziy ma'nosi nima ekanligini tushunadi. Bu holatda bola o‘qishga, hisoblashga harakat qiladi, raqamlar va hisoblashni biladi.

Bu maktabga qiziqish xatti-harakati, bolaning o‘rganishga psixologik tayyorligini ham ko‘rsatadi. Yana bir juda muhim nuqta - bu sizning xatti-harakatingizni tartibga

solish qobiliyati, ya'ni qoidalarni tushunish, ularga bo‘ysunish va ba'zan hatto o‘zingiz istamagan, lekin qilish kerak bo‘lgan narsani qilishdir. Agar bularning barchasiga qo‘shimcha ravishda, bola doimiy ravishda yangi tanishlar va yangi o‘yinlar uchun emas, balki yangi bilimlarni egallash uchun maktabga borishga intilsa - bularning barchasi maktabgacha yoshdagi bolaning bilim olishga tayyorligining yuqori darajasini ko‘rsatadi. Lekin birinchi sinfda maktabga tayyorgarlik darajasi yuqori bo‘lgan bolalar ham maktabga moslashish davriga duch kelishadi. Ammo bu maktab yetukligi past bo‘lgan bolalarga qaraganda ancha xotirjam o‘tadi.

Maktabga tayyorgarlikning o‘rtacha darajasi. Deyarli barcha bir xil narsalar o‘rta darajadagi maktab yetukligini tavsiflaydi. Ammo bu holda, bolaning kichik qiyinchiliklari bor (ular mahalliy sifatida belgilanishi mumkin). Qo‘l yozishga tayyor, ammo nozik vosita mahoratini yaxshilash kerak. Bolaning eshitish qobiliyati juda yaxshi, she'r va ertaklarni biladi, so‘z boyligi juda katta. Bola kattalardan ertak yoki ertakni eshitib, o‘qiganlari haqida suhbat qurishi va onasi yoki dadasining savollariga javob bera olishi muhimdir. Shuningdek, u raqamlar va ba'zi harflarni juda yaxshi biladi, o‘z xatti-harakatlarini ixtiyoriy ravishda tartibga soladi va ta'lim muammolarini hal qilishga qodir. Ammo bu borada u kattalardan ozgina yordam oladi - tashqi stimulyatsiyasiz o‘rganish u uchun zerikarli.

Maktabga tayyorgarlik darajasi past. Eng muhimi shundaki, bunday bolaning maktabda o‘qish istagi juda beqaror: bugun u o‘ynashni xohlaydi, ertaga u yangi bilim olishga intiladi. U juda rivojlangan nutqqa ega emas va bu muloqotda darhol seziladi. Ammo nutq nafaqat suhbatlarda muhim ahamiyatga ega, nutqning funktsiyalaridan biri tartibga solishdir. Bola topshiriqlarni bajarishga o‘zini "ko‘ndira" olishi kerak - "Yo‘q, men bu satrni chiroyli qo‘lyozma bilan tugatmagunimcha sayrga bormayman". Shuning uchun rivojlanmagan nutq ham mantiqqa, ham bolaning irodasiga ta'sir qiladi. Ko‘pincha siz topshiriqlarni bajarishda u "chalkashib ketishini" payqashingiz mumkin. U tushunchalarda aniq o‘xshashlik yoki farqlarni qanday aniqlashni bilmaydi va har doim ham asosiy xususiyatga asoslangan ob'ektlarni umumlashtira olmaydi. Bunday holda, jismoniy rivojlanish odatda yaxshi yoki qoniqarli. Bolaning maktabga tayyorgarlik darajasi past bo‘lsa, kattalar nafaqat yordam berishlari, balki tom ma'noda "ruhan uni ustida ishlashi", bolani o‘z harakatlarini amalga oshirishda bosqichma-bosqich rahbarlik qilishlari kerak. Kattalar tushunishlari kerakki, bunday tayyorgarlik darajasi bilan bolaning o‘rganishi qiyin bo‘ladi. Iloji bo‘lsa, maktabga kirish vaqtini bir yilga kechiktirish yaxshiroqdir.

Maktabga tayyorgarlikning juda past darajasi. Yaxshi yoki qoniqarli jismoniy rivojlanish bilan bola maktabga qadam quyadi. Bunday tayyorgarlik darajasini ko‘rsatadigan bolaning dunyoqarashi tor va so‘z boyligi kichikdir. U o‘qigan ertak yoki hikoyani faqat kattalarning faol yordami bilan qayta aytib berishi mumkin. U yetakchi savollarsiz qilolmaydi. Qo‘l yozishga tayyor emas. Kattalarning yordamisiz u yoshiga qarab vazifalarni bajara olmaydi, o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasi zaifdir. Bunday bolaning maktabgacha ta'lim muassasasida bir yil qolishi yaxshiroqdir. Biz har doim yodda tutishimiz kerakki, maktabning yetukligini kechiktiradigan va bolaning maktab ko‘nikmalarini egallashini qiyinlashtiradigan ko‘plab ob'ektiv sabablar mavjud. Agar bu miyaning kortikal va tartibga soluvchi tuzilmalarining ma'lum bir yetukligi bo‘lsa, unda tengdoshlari bilan quvib yetishi uchun bolaga yana bir yil berish yaxshidir. Bu yilni ta'limga emas, balki bolaning rivojlanishi va ijtimoiylashuviga bag‘ishlash yaxshiroqdir. Agar u bilim darajasidan biroz pastroq bo‘lsa, lekin jismonan sog‘lom, normal nevrologik holatga ega, aniq hissiy yetuk bo‘lsa va maktabga borish va hali

bilmagan narsalarni o‘rganish istagi bo‘lsa, bolaning salomatligi uchun yaxshi bo‘ladi. Oxir oqibat, o‘quv qiyinchiliklarini yengib o‘tish mumkin, ammo birinchi sinfda qiyin ijtimoiy moslashish bolaning keyingi barcha ta'lim muvaffaqiyatlariga yomon ta'sir qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. T-2017 yil.56b
2. Mirziyoev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’yat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T-2017, 592b
3. Бердалиева Г. А. Мактабгача ёшдаги болаларни мустақил фикрлашга йўналтиришда уларнинг ёшига хос бўлган психологик ва педагогик хусусиятлар/ Замонавий таълим / современное образование 2019, 4(77) file:///C:/Users/User/Downloads/maktabgacha-eshdagi-bolalarni-musta-il-fikrlashga-y-naltirishda-ularning-yoshiga-hos-b-lgan-psihologik-va-pedagogik-hususiyatlar.pdf
4. Roziqova M., Umarova K., Murodova N. Maktabgacha ta’lim muassasalarining tarbiyalanuvchilari uchun rivojlantiruvchi o‘yinlar majmuasi. – Toshkent, 2013.
5. Қодирова Ф., Тошпўлатова Ш., Аъзамова М. Мактабгача педагогика. – Тошкент: “Маънавият”, 2013
6. Abdullayeva M. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga sifatli ta’lim berish va maktab talimiga tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishidir /– Kiyev, 2021. – B. 56s
7. www. tdpu. uz
8. www. pedagog. uz
9. www. Ziyonet. uz

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA TALIM-TARBIYA JARAYONINI GENDER YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Gulyamov J.R.,
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo‘limi,
Mansurova S.R.,
Navoiy viloyati PMM bo‘lim boshlig‘i

Annotatsiya: maqolada bolalarda gender o‘ziga xosliklarni bilish va tushunishni faolashtirish omilari, hamda ushbu jarayonning ta’lim va tarbiya jarayonidagi o‘rni tahlil qilinadi, gender xususiyatlarini anglash bolalarning shaxsiy identifikatsiyasi va o‘zini tanib-bilishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: gender o‘ziga xoslik, ta’lim jarayoni, shaxsiy identifikatsiya, interfaol metodlar, ijtimoiy ko‘nikmalar, tenglik, bag‘rikenglik.

Abstract: The article analyzes the factors that activate knowledge and understanding of gender identities in children, as well as the role of this process in the educational and upbringing process. Understanding gender characteristics serves children's personal identification and self-knowledge.

Keywords: gender identity, educational process, personal identification, interactive methods, social skills, equality, tolerance.

Kirish. Respublikada keyingi yillarda maktabgacha ta’lim sohasiga qaratilayotgan alohida e’tibor va mazkur yo‘nalishda qabul qilingan bir qator direktiv

hujjatlar[1] ta'lim sifat va samaradorligini oshirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazani yaratish imkonini berdi. Mazkur xujjatlarda maktabgacha ta'lim tizimini fan, texnika va ishlab chiqarish sohalari bilan integratsiyalashuvini ta'minlash bugungi kunning dolzarb muammosi sifatida qaralishi, maktabgacha soha yo'nalishida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning pedagogik mahorati va kreativ qobiliyatlarini oshirish kabi dolzarb vazifalarga qaratish masalasi qo'yilgan. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, pedagoglar oldiga qo'yilgan asosiy vazifalardan biri – ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion texnologiyalarini joriy etish orqali bolalar tafakkurini rivojlantirish mazmunini takomillashtirishdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash, ularga boshlang'ich ta'lim-tarbiya berish uchun yoshiga mos ravishda qiyin bo'lmagan birlamchi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlariga qaratilgan bo'lishi bilan birga, ularda nutq, tafakkur va axloqiy sifatlarini rivojlantirish bilan o'zaro uyg'unlikda amalga oshirilishini taqozo etadi. Chunki, bosqichda bolalar o'ta murakkab psixikaga ega bo'lgan shaxsga aylanayotgan davri bo'lib, ular bilimlarni o'zlashtirishi hamda bilish faolligi bir qator o'ziga xosliklarga ega. Ushbu o'ziga xosliklar – tafakkur strategiyasi, xotira va diqqatning turlari, yetakchi reprezentativ tizimlar kabi bir qator individual sifatlar u yoki bu darajada inson jinsiga ham bog'liq ekanligidadir.

Mavzuga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, qiz va o'g'il bolalarning ma'lumotlarni idrok qilishi va ularning tafakkur strategiyasi hamda, buning mahsuli sifatida, yangi bilimlarni o'zlashtirish va ko'nikmalarni shakllantirish mexanizmlari ham bir-biridan farq qilishidadir. Buning asosiy sababi – qiz va o'g'il bolalarning barchasi ma'lumotlarni qabul qilish hajmi va ishlash tezligi, diqqati va xotirasining hajmi, u yoki bu xotira tizimining ustunligi, idrok qilish jarayonlarining borishi, borliqni tasavvur qilishi va anglashi, "dunyoni ko'rishi" bilan bir-biridan farq qiladi. Aynan mana shu farqlar bolalarning gender xususiyatlarini belgilaydi.

O'g'il bolalar	**Qiz bolalar**
Tafakkur tarzi	
O'g'il bolalarda chap yarim shar rivojlangan bo'ladi, alohida o'zi ishlashga moyillik bildiradi, topshiriqni qilishda diqqatni to'plash bir muncha qiyroq kechadi, ma'lumot va axborotni sekin, lekin izchil o'zlashtira oladi, voqea va hodisalarni dastlab mohiyatini anglab, keyin harakat kiladi.	Qiz bolalarda o'ng yarimsharlar rivojlangan bulib, jamoa bo'lib ishlashni yaxshi ko'radi, ichan, hamma narsani obrazli ko'radi, voqea va hodisalarni obrazli ko'radi hamda mohiyatni sekinroq anglab yetadi.
Nutqni rivojlanganligi	
O'g'il bolalar nutqini rivojlanganli fikr bildirishda o'z g'oyalarini gapirib	Qiz bolalarning so'z zahirasi kam, tez va ko'p gapiradi, o'qish tezligi yaxshi

[1] Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 9 сентябрдаги "Мактабгача таълим тизимини тубдан такомиллаштириш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПҚ-3261-сон қарори / https://lex.uz/docs/3334234; 2018 йил 30 сентябрдаги "Мактабгача таълим тизимини бошқаришни такомиллаштириш чора –тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-3955- сонли қарори / https://lex.uz/docs/3923110; 2019 йил 8 майдаги «Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги ПҚ-4312-сон қарори / https://lex.uz/docs/4327235: Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 13 майдаги 391-сон "Мактабгача таълим муассасалари фаолиятини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарорлари/ https://lex.uz/docs/4333062

berishda qiynaladi, so‘z boyligi kam, nutqida gaplar bog‘lanishi, mantiqiy fikrlashi, muhim vaziyatlarda gapirishi yaxshi rivojlangan bo‘ladi.	rivojlangan, imlosi, nutqida tuyg‘ularini bayon etishi yaxshi.
Harakat sur’ati	
Berilgan topshiriqni sekinlik bilan bajaradi, yuqori sur’at kerak, mashg‘ulot o‘rtasi va yakunida ish qobiliyati yuqoriroq tarzda kechadi.	Mashg‘ulot jarayonida ishga tez sur’atda kirishadi, yuqori darajada berilgan topshiriqlarni ko‘tara olmaydi, tez charchoq sezadi, lekin tirishqoq va berilgan topshiriqni qunt bilan bajaradilar.
Idrok etish imkoniyatlari	
O‘g‘il bolalar maqtovni yaxshi ko‘radilar. O‘z faoliyatiga berilgan baho berilishini va maqtovni yaxshi ko‘radi, berilgan ma’lumotlarni takrorlashni yoqtirmaydilar, diqqati pasayib ketadi, eng avval ma’noni anglaydi keyin harakatga kirishadi, axborotni umumiydan xususiyga taqdim etilganda yahshiroq tushunib yetadilar.	Qizlar kattalardan ijobiy tassurot qoldirishni yaxshi ko‘radi, har qanday holatlarda ham ijobiy baholanishlarni istaydi, berilgan topshiriqlarni ko‘p takrorlashni yoqtiradilar, ma’noni anglab yetishlari uchun ko‘p vaqt talab qilishadi, ularda ko‘rgazmali obrazli tafakkur rivojlangan.

1.1.1-rasm. Maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlash faolligini oshirishda gender tafovutlar

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarini fikrlash faolligini rivojlantirish masalasidagi ayrim tadqiqot ishlarda maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlash faolligini oshirishda gender tafovutlarni qo‘yidagicha keltirib o‘tgan[1] (qarang:1.1.1-rasm).

Odatda, qiz bolalarga ratsional-belgili tafakkur xos bo‘lganligi bois ularda asosan analitik, klassifikatsion, abstrakt, algoritmik, induktiv operatsiyalarni bajarishga moyillik ko‘proq kuzatiladi. Tahlil qilishda muammolar bilan ishlashni va ularni mantiqiy yo‘l bilan yechishni ma’qul ko‘rganliklari sababli o‘g‘il bolalarga qaraganda muloqotchan va faol insonlardir.

Xususan, qiz bolalar ma’lumotlarni ketma-ket va mantiqiy tahlil qilishlari, bunda tahlil xususiydan umumiyga yo‘nalganligi bilan farq qilishi, o‘g‘il bolalar esa voqeilikni intuitiv va umumiy yaxlitlikda anglashga hamda tafakkurining umumiydan xususiyga moyilliklari bilan farq qiladilar.

Zamonaviy pedagogikada gender yondashuvning uchta asosiy talqini mavjudligini ta’kidlaydi. Jumladan:

1) genderga sezgir (gender-senzitiv) yondashuv – o‘g‘il bolalar va qizlar o‘rtasidagi individual farqlarga e’tibor qaratib, ular o‘rtasidagi maqom tengligini tan oladigan yondashuv;

2) gender-neytral yondashuv – biologik jinslar o‘rtasidagi tenglikni tan olishni talab qilgan holda ular o‘rtasidagi gender farqlarni o‘quv mashg‘ulotlarining mazmuni va yo‘nalishiga ta’sir qilmaydi, deb qaraydi;

[1] Туйчиева И.И. Мактабгача таълим ташкилотларида тайёрлов гуруҳи болаларининг фикрлаш фаоллигини ривожлантириш. Автореферат дисс... педагогика фан.ф.д. –Тошкент, 2023. – 14б.

3) gender-stereotipli yondashuv – "erkak" va "ayol" tushunchalariga mos keladigan xatti-harakatlar, faoliyat sohalari va xarakter xususiyatlari haqida standartlashtirilgan g‘oyalarni rivojlantiradi, – deb hisoblaydi.

Shuningdek, olimlar gender yondashuvining quyidagi tamoyillarini o‘z tadqiqot ishida muhim ekanligigni keltirib o‘tadi.

Jumladan: 1) ta’lim-tarbiya jarayonida qizlar va o‘g‘il bolalarning manfaatlarini maqsadli hisobga olish, ularning gender xususiyatlari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ta’limiy faoliyatini amalga oshirish;

2) ta’lim-tarbiya jarayonida qiz va o‘g‘il bolalarni individualligi, shaxsiyati, uning gender munosabatlarining sub'ekti sifatida ishlashi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

3) ta’lim –tarbiya jarayonida qizlar va o‘g‘il bolalarning qobiliyatlarini kamsitmaslik.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, ta’lim jarayonini tashkil etishda bolalarning gender xususiyatlarini hisobga olish juda muhimdir. Chunki narsa va predmetlarni, atrof olamni idrok etish bosh miya yarimsharlarining faoliyati va funksionla tipologiyasi bola jinsiga bog‘liq bois ta’lim jarayonini tashkil etishda pedagog bolalarning gender xususiyatlarini – qabul qilish, tafakkur va emotsiyalari turlicha bo‘lgan o‘g‘il va qiz bola turganligini hisobga olish, ularga ta’lim-tarbiya berish va hatto ularni turlicha yaxshi ko‘rish lozim. Bunda o‘g‘il bolalarga topshiriq berganda ulardan ozodalik va puxtalikni haddan ziyod talab qilmaslik, ularga izlani va faol tafakkur talab qiladigan topshiriqlarni berishga haraqat qilish kerak. Bu yondashuv – ta’lim jarayonida ko‘rilayotgan masala yechimini bolaning o‘zi ixtiro qilish imkonini beradi. Berilgan vazifalarni bajarish o‘g‘il bolalarga tushunarli bo‘lishi uchun pedagog nafaqat tushuntirish, balki ko‘rsatishi ham kerak.

O‘g‘il bolaga tanbeh berishda pedagog o‘z e’tirozini qisqa, lo‘nda va aniq bayon qilishi lozim. Chunki o‘g‘il bolalar emotsional zo‘riqishga uzoq vaqt bardosh berishga qiynaladi va buning oqibatida ularning miyasi ma’lumotlarni verbal qabul qilish (eshitish) kanalini o‘chirib qo‘yishi mumukin. Bu esa bola tanbeh mazmunini tushunmasligi va gaplarni to‘liq eshitmasligi, oxirigacha quloq solmasligiga olib keladi.

Ta’lim jarayonida qiz bolalarga beriladigan topshiriqlar birmuncha qiyinroq bo‘lsa ularni bajarishdan avval pedagog amalga oshiriladigan ishlar ketma-ketligini birgalikda ko‘rib chiqishi kerak bo‘ladi. Chunki qizlarni mustaqil ishlashga asta sekinlik bilan o‘rgatish maqsadga muvofiq. Qiz bolalarga tanbeh berish uchun pedagog, birinchi navbatda uning xatosi nimada ekanligini tushuntirish zarur. Aks holda tanbeh eshitish jarayonida sodir bo‘ladigan jo‘shqin emotsional aks ta’sir tufayli qizlar muammoni asl mohiyati va nima uchun tanbeh berilayotganini tushunmay qolishlari mumkin.

Xulosa o‘rinda shuni aytish mumkinki, ta’limiy faoliyatni gender yondashuv asosida tashkil etilish:

1) ta’lim jarayonini tarbiyalanuvchilar shaxsiga yo‘naltirish va bilish faolligini oshirish hamda ular shaxsini qadriyatli-mazmunli gender rivojlantirish, psixik va aqliy rivojlanishini to‘g‘ri yo‘naltirish, ruhiy salomatligini mustahkamlash va individualligini qo‘llab-quvvatlash uchun qulay shart-sharoit yaratadi;

2) ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda gender tenglikni ta'minlash va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish bilan birga, ularda kuzatuvchanlik, loyihalash, faraz qilish, taxmin qilish, tasavvur qilish ko‘nikmalarini izchil shakllanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Макусева Т.Г.Индивидуално-орентированиэ обучениэ.Журнал «Науки об образовании» М,-2017,./327С/www.didacts.ru
2. Москвина Н. В., Москвин В. А. Межполушарные асимметрии и индивидуалные различия человека. Смысл, 2011.
3. M. Platek, Julian Paul Keenan, and Todd K. Shackelford.Evolutionary Cognitive Neuroscience / Edited by Steven./ The MIT Press. Cambridge, Massachusetts. London, 2007 Massachusetts Institute of Technology.. –P. 5
4. Tuychieva I.I. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tayyorlov guruhi bolalarining fikrlash faolligini rivojlantirish. Avtoreferat diss... pedagogika fan.f.d. –Toshkent, 2023. – 14b.
5. Sirotyuk A.L. Neyropsixologicheskoye i psixofiziologicheskoye soprovojdeniye obucheniya. –Moskva: «TS SFERA», 2003. — 288 s. / www.e-puzzle.ru

TA’LIM JARAYONIDA PSIXOLOGIYANING RIVOJLANISHI FANLARARO INTEGRATSIYA TUSHUNCHASI

Kenjayeva Nafosat Adham qizi,
Zarafshon shahar 13 AFCHO‘IM

Annotatsiya. Ushbu maqolada fanlararo integratsiya va psixologiyaning rivojlanish muammolari va yechimlari, g‘oyasi, ta’lim muassasasining hozirgi bosqichi hamda integratsiya atamasi haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Integratsiya, sivilizatsiya, platforma, obyektivlik, psixologiya, taraqqiyot, ijtimoiy, referent, ijtimoiy-iqtisodiy.

Аннотация. В данной статье представлена информация о проблемах и решениях междисциплинарной интеграции и развития психологии, идея, современный этап образовательного учреждения и термин интеграции.

Ключевые слова: интеграция, цивилизация, платформа, объективность, психология, развитие, социальный, референтный, социально-экономический.

Annotation. This article provides information on the problems and solutions of interdisciplinary integration and the development of psychology, the idea, the current stage of the educational institution and the term integration.

Key words: Integration, civilization, platform, objectivity, psychology, development, social, referent, socio-economic.

Kirish

Zamonaviy ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri faqatgina muayyan fan sohasi bo‘yicha bilim berish emas, balki shaxsni har tomonlama kamolga yetkazish, unda tizimli fikrlash va dunyoni yaxlit idrok etish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Bugungi jadal o‘zgarib borayotgan globallashuv va axborot asrida ta’lim jarayonini an’anaviy, bir-biridan ajralgan (izolyatsiyalangan) fanlar doirasida tashkil etish kutilgan samaradorlikni bermayapti. Shu bois, ta’lim jarayoniga **fanlararo integratsiya** yondashuvini tatbiq etish va bu jarayonda psixologiya fanining o‘rnini fundamental ravishda qayta ko‘rib chiqish davr talabiga aylanmoqda.

Psixologiya insonga yo‘naltirilgan va uning ruhiy, intellektual hamda ijtimoiy rivojlanishini o‘rganuvchi fan sifatida boshqa barcha sohalar bilan bevosita bog‘liq. Ta’limda integratsiya tushunchasi o‘quv fanlarining metodologik va mazmunan birlashuvini nazarda tutsa, psixologiya ushbu integratsion jarayonning samaradorligini ta’minlovchi ma’naviy-metodologik va ilmiy-amaliy ko‘prik vazifasini o‘taydi. Ushbu

maqolaning maqsadi — ta'lim jarayonida psixologiya fanining rivojlanish omillarini fanlararo integratsiya tushunchasi va milliy-ma'naviy merosimiz prizmasi orqali tahlil qilish hamda ushbu integratsiyaning amaliy ahamiyatini yoritib berishdan iborat.

Asosiy qism

XXI asrda O‘zbekistonda psixologiya fanlarining istiqboli alohida ahamiyat kashf etadi. Chunki, u yoki bu fanning o‘tmishini, shu fanlar mutaxassisslari tomonidan yaratilgan ilmiy qarashlar tarixini o‘rganadigan bo‘lsak, u fanlarning integratsiyada, yurtdoshlarimiz tomonidan bajarilgan ilmiy izlanishlar, u yoki bu fan yutuqlarini hayotga joriy etilishi borasida, hozirgi zamon psixologiyasi ta'limotlariga oid mislsiz ishlarning amalga oshirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Respublikamizda olib borilayotgan turli islohotlar bugungi kunda yosh avloddan ijobiy xulq-atvor me'yorlari va qoidalarini, kasb-hunar, malaka va ko‘nikmalarini har tomonlama puxta egallab borishni talab qiladi. Arastu ta'kidlagani kabi: *“Munosib odam bo‘lmoq — fazilatlar egasi, fozil bo‘lmoq demakdir”* [4].

Shuni ta'kidlash lozimki, XXI asr insonlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanish davri hisoblanadi. Bas shunday ekan, sotsiologiya, psixologiya va matematika fanlarining o‘zaro integratsiyasi asosida ijtimoiy muammo va masalalarni tezkorlik hamda obyektivlik bilan hal qilishga yordam beradigan matematik modellar turkumini yaratish davr talabidir. Bunday integratsion modellar tizimi orqali sotsial-psixologik masalalarni yechishda ilmiy-amaliy imkoniyatlar yaratiladi.

“Integratsiya” atamasi mazmun va mohiyat jihatdan uzoq tarixga ega. “Integratsiya” — lotincha *«integratio»* so‘zidan olingan bo‘lib, *“integr”* — “to‘liq, yaxlit”, “bir butun” degan ma'nolarni anglatadi. Bugungi kunga kelib, kishilar integratsiya jarayonining mohiyatini yaxshi anglashi, uning rivojlantiruvchi funksiyalaridan foydalana olishlari natijasidagina muhim ilmiy muammolarni hal qilishda unga ehtiyoj sezmoqdalar. Biz integratsiyani bir nechta o‘quv predmeti materiallarini metodikaning vazifasi va yagona maqsadiga tabiiy bo‘ysundirish asosida tuzish usuli yoki predmetlararo bog‘lanishning eng yuqori darajasi, umummetodologik prinsiplar asosida muammoni kompleks o‘rganish yo‘li deb hisoblaymiz. Unga bir butun bilimlar «monoliti»ni yaratishga imkon beruvchi vosita, atrof-muhit haqida yaxlit tasavvurni shakllantirishda bilimlarni yaqinlashtiruvchi, umumiy platformani belgilovchi omil deya ta'rif berish maqsadga muvofiqdir.

Integratsiya g‘oyasi — ta'lim muassasasi taraqqiyotining hozirgi bosqichida eng istiqbolli g‘oyalardan hisoblanadi. Bir tomondan, o‘quv soatlarining qisqarib borishi sharoitida fanlararo integratsiya dars doirasida didaktik maqsadlarga erishishga imkon beradigan resurs bo‘lib qolishi mumkin. Boshqa tomondan esa, fanlararo aloqalardan foydalanish talaba va o‘quvchining o‘ziga atrofdagi dunyoni turli-tumanlikda va yaxlitlikda bilish imkonini beradi.

“Biz o‘z tariximizni xolisona va haqqoniy baholab, ma'naviy merosimizni boyitish va rivojlantirishga o‘z hissamizni qo‘shishimiz, shu asosda bugungi jahon ilmu fani va madaniyatining yuksak cho‘qqilarini egallashdek buyuk vazifaga har tomonlama munosib va qodir bo‘lishimiz darkor” [1].

Buning uchun bizda yetarli asos, buyuk o‘tmishimiz, ulkan ilmiy merosimiz bor. O‘tmish va kelajak haqida, shuningdek, boshqa fanlar yutuqlari haqida to‘g‘ri bilim va tasavvurga ega bo‘lsak, fanlararo integratsiyadan psixologik ta'limotlarni rivojlantirish uchun oqilona xulosalar chiqarib, uni keng ilmiy jamoatchilik hukmiga havola etsak, bu ayni vaqtda fan taraqqiyotiga qo‘shilgan munosib hissa bo‘ladi.

Biz qadriyatlarimizni qadrlay olish sharoitida yashab ijod etayotgan ekanmiz, qator allomalarimizning fanlar integratsiyasida ijod etganlarini unutishimiz mumkin emas, albatta. Allomalarimiz eng kamida uch-to‘rt fanlar integratsiyasida ijod etib, faqat ulug‘ g‘oyalarni bunyod etib, jahon fani taraqqiyoti va sivilizatsiyasiga katta hissa qo‘shganlar hamda bu borada bir-birlarini kamsitib yoki ayblagan emaslar.

Fanlararo integratsiyada, psixologiya fanlari sohalari taraqqiyoti uchun ma'naviy asos va ildiz bo‘lib xizmat qilishi mumkin bo‘lgan, milliy qadriyatlarimizga oid ma'lumotlar milliy mafkura chig‘irig‘idan o‘tkazilib, psixologik tahlil qilinib, sharhlanib o‘quvchilar e'tiboriga havola etilsa, bu o‘quvchilarda o‘z o‘tmishi, yurti, fanidan faxrlanish va g‘urur hissini shakllantiradi. Bu esa mutaxassislar tomonidan fanni o‘rganish va uni rivojlantirish uchun kuchli ichki, shaxsiy ahamiyatli motiv bo‘lib xizmat qiladi. Bunday motiv O‘zbekistonda mazkur fan rivojlanishida hal qiluvchi kuch hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlar shundan dalolat berayaptiki, turli xil fanlarning, shu jumladan, sotsiologiya va psixologiya fanlarining egizak bo‘lishi muhim va nozik muammolarni hal etishda qo‘l keladi. O‘z-o‘zidan ravshanki, sotsiologiya va psixologiyaning bir-biri bilan chambarchas aloqasi mavjudligini ilg‘or, taniqli sotsiologlar va psixologlar ta'kidlab, tasdiqlab kelishgan. Ilg‘or psixologlarning fikricha, psixologik tadqiqotlar ta'lim va tarbiya ishida yangilikning keng miqyosda qidirilishini ta'minlaydigan yo‘nalishda olib borilishi kerak. Psixologiya oldidagi muhim vazifalarga, jumladan, kishining tarbiyasi va ruhiy jihatdan rivojlanishi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ochib bergan holda ta'lim va tarbiya jarayonida uning shaxsini shakllantirishning psixologik asoslarini ko‘rsatib berish, odamlarning yoshi va individual xususiyatlari o‘rtasidagi nisbatni o‘rganish va shu kabilar kiradi.

Sotsiologiyada va psixologiyada odamlarning o‘zaro yoqtirish tuyg‘ulari asosidagi birlashuvlari **referent guruhlar** atamasi orqali o‘rganiladi. Hayotda insonlar ikki, uch, uzog‘i bilan to‘rt kishilik ko‘ngilga yaqin odamlardan iborat o‘zaro ahil kichik guruhlarga birlashadilar hamda mazkur guruhlar doirasida kasbiy, maishiy va ijtimoiy masalalarni o‘zaro hamkorlikda hal etib yashaydilar. Odamlarning o‘zlariga mos odamlarni topib birlashishlari maktabgacha tarbiya muassasalaridan boshlanib, keksa yoshga yetganlarida ham uzluksiz davom etadi. Odamlarning bunday yoqtirib birlashish holatlari oxir-oqibatda o‘zaro do‘stlik darajasiga o‘sib chiqishi ko‘p martalab kuzatilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, fanlararo integratsiya — bu, albatta, taraqqiyot, sivilizatsiya va samaradorlik posbonidir, bunga shubha bo‘lishi mumkin emas. Biroq, bir fan sohibi boshqa fan yutuqlariga asoslanib o‘z sohasini rivojlantirishga intilsa, albatta, qandaydir og‘ish va cheklanishlarga yo‘l qo‘yishi mumkin. Eng keraklisi — bu yo‘lda soflik, poklik, haqiqatgo‘ylik, adolatga bo‘ysunish, bir fan sohasi vakilining boshqa fan sohasi vakiliga xayrixohlik ko‘rsatishi, maslahat berishi va yordam qo‘lini cho‘zishidir. Faqat shundagina fanlararo integratsiya o‘zining asl mazmun-mohiyatini yo‘qotmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islom Karimov. “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch”, Toshkent “Ma‘naviyat” 2010.
2. Mavlonova R.Raxmonqulova N. Boshlang`ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi . T.: O`qituvchi, 2006.
3. Сотсиалная психология: История, теория, эмпирические исследования. Под ред е. С. Кузмина, В. е. Семенова Л. Г. У. 1979.
4. Arastu. *Poetika. Axloqi kabir.* – T., 2004.

TA’LIM JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK OMILLARNING O‘RNI

Toshniyozova Mamura Zokirjon qizi,
Zarafshon shahar 13 AFCHO‘IM

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ta’lim jarayoniga innovatsion axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning pedagogik va psixologik jihatlari tahlil qilinadi. Raqamli vositalarning o‘quvchilar bilish faoliyati, mustaqil fikrlashi hamda motivatsiyasiga ijobiy ta’siri bilan birga, virtual bog‘lanib qolish va ijtimoiy moslashuvdagi salbiy oqibatlarining oldini olish yo‘llari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Innovatsiya, axborot, kommunikatsiya, intellektual salohiyat, diqqat, texnik qobiliyat, interaktivlik, refleksivlik, sotsial-psixologik omillar, motivatsiya.

Аннотация. В данной статье анализируются психолого-педагогические аспекты внедрения инновационных информационно-коммуникационных технологий в современный образовательный процесс. Наряду с положительным влиянием цифровых средств на познавательную деятельность, самостоятельное мышление и мотивацию учащихся, освещаются пути предотвращения негативных последствий, таких как виртуальная зависимость и трудности социальной адаптации.

Ключевые слова: Инновация, информация, коммуникация, интеллектуальный потенциал, внимание, технические способности, интерактивность, рефлексивность, социально-психологические факторы, мотивация.

Annotation. This article analyzes the psychological and pedagogical aspects of implementing innovative information and communication technologies in the modern educational process. Along with the positive impact of digital tools on students' cognitive activity, independent thinking, and motivation, it highlights strategies for preventing negative consequences such as virtual addiction and challenges in social adaptation.

Key words: Innovation, information, communication, intellectual potential, attention, technical ability, interactivity, reflexivity, socio-psychological factors, motivation.

Kirish

Bugungi raqamli transformatsiya davrida ta’lim sohasini tubdan modernizatsiya qilish, o‘quv jarayoniga innovatsion pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etish strategik ustuvorlik kasb etmoqda. Axborot oqimining jadallashuvi ta’lim muassasalaridan o‘qitish usullarini yangilashni, ta’lim oluvchilarning mustaqil izlanish, tanqidiy fikrlash hamda yangi bilimlarni tez o‘zlashtirish salohiyatini oshirishni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, raqamlashtirish faqatgina texnik vositalardan foydalanish bilan cheklanib qolmay, ta’limning mazmun-mohiyatini hamda pedagog-o‘quvchi munosabatlarini yangi bosqichga ko‘tarishni taqozo etadi.

Biroq innovatsiyalarni joriy etish jarayoni faqatgina moddiy-texnik ta’minotga tayanib qolmasdan, chuqur pedagogik va psixologik asoslarga ega bo‘lishi lozim. Texnologiyalarning ta’lim samaradorligiga ta’siri bevosita o‘quvchilarning yosh va individual-psixologik xususiyatlari, bilish jarayonlari (idrok, diqqat, xotira, tafakkur) hamda motivatsion holatiga qanchalik mos kelishiga bog‘liq. Innovatsion vositalardan

maqsadsiz yoki me’yordan ortiq foydalanish esa o‘quvchilarda virtual bog‘liqlik, jonli muloqotning kamayishi va emotsional begonalashuv kabi psixologik to‘siqlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — ta’lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishda yuzaga keladigan psixologik va pedagogik omillarni tahlil qilish, ularning o‘quvchi shaxsi rivojiga ko‘rsatadigan ijobiy va salbiy ta’sirini baholash hamda raqamli ta’lim muhitini samarali tashkil etish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Asosiy qism

Bugungi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishlar ta’lim tizimining modernizatsiya qilinishi hamda innovatsion texnologiyalarning keng o‘zlashtirilishi ta’lim muassasasi oldiga dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda. Ta’lim jarayonida zamonaviy innovatsion axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muhim vazifalardan biriga aylanganligi barchamizga ma’lum. Bu esa o‘sib kelayotgan yosh avlodning intellektual va texnikaviy qobiliyatlarini rivojlantirib, shaxs xususiyatlarini shakllantirishga yordam beradi.

“Vatanimiz kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e’tibori, avvalambor, yoshlarimizning unib-o‘sib, ulg‘ayib qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liqdir. Biz bunday o‘tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak” *[1]*.

Zamonaviy axborot va innovatsion texnologiyalardan ta’lim jarayonida foydalanar ekanmiz, biz uning ijobiy ta’sir yo‘llari orqali yondasha olishimiz lozim, ya’ni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari zaminida yuz berishi mumkin bo‘lgan yangiliklar an’anaviy muloqot sharoitlarida hamohang olib boriladi.

Ta’lim beruvchilar innovatsion texnologiyalardan foydalanish va amaliyotga tatbiq etish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi interaktiv hamda refleksiv ta’sirni unutmasliklari kerak. Ta’lim jarayonida innovatsion vositalardan foydalanish o‘quvchilarning kommunikativ va bilish faoliyatida sifat o‘zgarishlariga olib keladi hamda ta’lim olish usullarining yangilanishi asosida shaxs sifatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, internet bilan ishlaganda o‘quvchilarning faolligi ortadi, ta’lim jarayoni individuallashadi, turli ma’lumot manbalari bilan ishlash imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu esa mustaqil fikr yuritishga, tashabbuskorlikka va mobillikka rag‘bat uyg‘otadi.

Biroq, shuning bilan bir qatorda, qator salbiy omillar ham yuzaga kelishi mumkin. Ya’ni jadallashgan intellektual yuklama o‘quvchilarning har doim ham mavjud ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashishini kafolatlay olmaydi. O‘quvchilar turli kompyuter manbalariga, xususan, internet tarmoqlariga qaram bo‘lib qolish xavfi mavjud. Bu esa o‘quvchi shaxsining jamiyatdan va tengdoshlaridan ajralib qolishiga sabab bo‘lishi mumkin. Natijada bolalarning ruhiyatida keskin o‘zgarishlar ro‘y berib, real do‘stlarni virtual olam qahramonlari bilan almashtirish, hissiy reaksiyalarning susayishi hamda qiziqishlar doirasining torayishi kabi muammolar yuzaga keladi.

Psixolog olimlar innovatsion texnologiyalarning inson ruhiyatiga ta’sirini chuqur o‘rganish va undan me’yorida foydalanishni ta’minlash o‘ta dolzarb ekanligini ta’kidlaydilar. Bu masala pedagoglar uchun ham katta mas’uliyat yuklaydi. Sharq donishmandlari “Qayerga ketayotganingni bilish uchun qayerdan kelayotganingni aniqlash lozim” deb bejiz aytishmagan. Shundan kelib chiqib, o‘quv muhitini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida loyihalashtirishda o‘quvchilarning ongli fikrlashi va shaxslararo muloqotiga alohida e’tibor qaratish lozim.

Buning uchun quyidagi pedagogik-psixologik shartlarga amal qilish talab etiladi:

- O‘qitish shakllarini o‘zgartirish uchun moslashuvchan va rivojlantiruvchi o‘quv muhitini yaratish;
- O‘quvchilarning bilish faolligi va mustaqil rivojlanish jarayonini rag‘batlantiruvchi motivatsion muhitni hosil qilish;
- Har bir o‘quvchining yosh va individual-psixologik xususiyatlarini inobatga olish;
- Dars jarayonida ergonomik talablarga (auditoriya qulayligi, kerakli resurslar, vizual vositalarning to‘g‘ri taqsimlanishi) rioya qilgan holda o‘quvchilar hissiyotlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatish.

Xulosa

Zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida darslarni tashkil etish jarayonida o‘quvchilar shaxsini barkamol shakllantirish uchun pedagoglar quyidagi ustuvor yo‘nalishlarga e’tibor qaratishlari lozim:

- Innovatsion texnologiyalarni ta’lim jarayonida qo‘llashning optimal, me’yoriy va psixologik jihatdan xavfsiz shart-sharoitlarini muntazam o‘rganib borish;
- Texnologik vositalarni qo‘llashda aniqlik, didaktik maqsadga muvofiqlik va kutilayotgan natijalarni oldindan modellashtirish;
- Ta’lim oluvchilarda axborot xurujlariga qarshi immunitetni shakllantirish hamda internet manbalaridan foydalanishning ijobiy va salbiy jihatlarini ongli ravishda idrok etish madaniyatini tarbiyalash.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. – Toshkent: «Ma’naviyat», 2008. – 1-b.
2. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2006.
3. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – Toshkent: Fan, 2008.
4. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.

O‘QUVCHILARIDA KASBIY IDENTIKLIKNING RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR VA PEDAGOGIK TA’SIR MEXANIZMLARI

Kalandarov Jahongir,
Navoiy viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari

Annotatsiya. Maqolada o‘quvchilarida kasbiy identiklikning rivojlanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar hamda ushbu jarayonni qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik ta’sir mexanizmlari nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Kasbiy identiklik o‘quvchining o‘zini tanlagan kasb vakili sifatida anglashi, kasbiy qadriyatlarni qabul qilishi va kelajakdagi faoliyatiga shaxsiy ma’no berishi bilan bog‘liq rivojlanuvchi tuzilma sifatida talqin etiladi. Oilaning kasb tanlashga munosabati, tengdoshlar guruhi, pedagoglar bilan muloqot, ta’lim muhitidagi psixologik qo‘llab-quvvatlash va kasbning ijtimoiy nufuzi asosiy tashqi omillar sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, kasbiy motivatsiya, o‘z imkoniyatlariga ishonch, shaxsiy qadriyatlar va refleksiyaning mazkur jarayondagi o‘rni yoritiladi. Pedagogik ta’sir mexanizmlari kasbiy namuna bilan

identifikatsiyalashuv, amaliy faoliyatda muvaffaqiyatni boshdan kechirish, konstruktiv qayta aloqa va refleksiv anglash orqali izohlanadi. Ushbu mexanizmlarni faollashtirishda ustoz-shogird hamkorligi, amaliy mashg'ulotlar va individual pedagogik qo'llab-quvvatlashning ahamiyati asoslanadi.

Kalit so'zlar: o'quvchilari, kasbiy identiklik, kasbiy o'zini anglash, ijtimoiy-psixologik omillar, kasbiy motivatsiya, ta'lim muhiti, pedagogik ta'sir mexanizmlari, ustoz-shogird hamkorligi, refleksiya.

Аннотация. В статье теоретически анализируются социально-психологические факторы развития профессиональной идентичности учащихся техникумов и механизмы педагогического воздействия, поддерживающие данный процесс. Профессиональная идентичность рассматривается как развивающаяся структура, связанная с осознанием учащимся себя как представителя выбранной профессии, принятием профессиональных ценностей и приданием личностного смысла будущей деятельности. В качестве основных внешних факторов рассматриваются отношение семьи к выбору профессии, группа сверстников, общение с педагогами, психологическая поддержка в образовательной среде и социальный престиж профессии. Также раскрывается роль профессиональной мотивации, уверенности в собственных возможностях, личностных ценностей и рефлексии. Механизмы педагогического воздействия объясняются через идентификацию с профессиональным образцом, переживание успеха в практической деятельности, конструктивную обратную связь и рефлексивное осмысление опыта. Обосновывается значение наставничества, практических занятий и индивидуальной педагогической поддержки для активизации указанных механизмов.

Ключевые слова: учащиеся техникумов, профессиональная идентичность, профессиональное самосознание, социально-психологические факторы, профессиональная мотивация, образовательная среда, механизмы педагогического воздействия, наставничество, рефлексия.

Abstract. This article presents a theoretical analysis of the social and psychological factors influencing professional identity development among technical college students and the pedagogical mechanisms that support this process. Professional identity is conceptualized as an evolving structure involving students' understanding of themselves as members of their chosen profession, acceptance of professional values, and construction of personal meaning in relation to future work. The main external factors considered include family attitudes toward career choice, peer groups, interactions with teachers, psychological support within the learning environment, and the social prestige of the profession. The article also examines the roles of professional motivation, confidence in one's capabilities, personal values, and reflection. Pedagogical mechanisms are explained through identification with professional role models, experiences of success in practical activities, constructive feedback, and reflective interpretation of experience. The analysis highlights the importance of mentoring, practical training, and individualized educational support in activating these mechanisms.

Keywords: technical college students, professional identity, professional self-awareness, social and psychological factors, professional motivation, learning environment, pedagogical mechanisms, mentoring, reflection.

KIRISH

Kasbiy ta’limning muhim vazifalaridan biri o‘quvchiga muayyan mutaxassislik bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikmalar berish bilan birga, uning tanlagan kasbiga ongli munosabatini shakllantirishdan iborat. O‘quvchining kasb mazmunini tushunishi, o‘z imkoniyatlarini uning talablari bilan taqqoslashi hamda kelajakdagi faoliyatini shaxsiy maqsadlari bilan bog‘lay olishi kasbiy rivojlanishning muhim shartidir. Shu jihatdan, dagi ta’lim jarayoni o‘quvchining kasbni egallashga tayyorlanishi bilan bir qatorda, o‘zini bo‘lajak mutaxassis sifatida anglab boradigan ijtimoiy-psixologik muhit sifatida ham qaralishi lozim.

